MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

DENAU INSTITUTE OF ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY

НГАУ

INNOVATIVE ACADEMY

TAJIKISTAN STATE UNIVERSITY OF FINANCE AND ECONOMICS

НГУЭУ

NOVOSIBIRSK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

THE ABSTRACT BOOK OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE

«ACCELERATING REFORMS IN THE FINANCIAL AND CREDIT SYSTEM, EXPANDING THE SCOPE OF SERVICES MARKET, AND PROMOTING COMPETITION: EXISTING PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS»

NOVEMBER 5, 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
"INNOVATIVE ACADEMY RSC" NASHRIYOTI

"MOLIYA-KREDIT TIZIMIDA ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH, SOHADA XIZMATLAR BOZORI HAJMINI OSHIRISH VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences
Volume 5, Issue 11: Special issue
November 2025

Conference has been listed in different indexings

SINDEX OpenAIRE Google Scholar OJS OPEN JOURNAL SYSTEMS
OPEN ACCESS doi DIGITAL OBJECT IDENTIFIER zenodo

«Innovative Academy RSC»
Denov – 2025

ISSN: 2181-2861

«Moliya-kredit tizimida islohotlarni jadallashtirish, sohada xizmatlar bozori hajmini oshirish va raqobatni rivojlantirish: mavjud muammolar va ularning yechimlari» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami, (2025 yil 5-noyabr) - T.: Innovative Academy RSC, 2025

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmonidagi vazifalardan kelib chiqib, Oliy ta‟lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i hamda Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutining 2025 yil 1-fevral kunidagi 16-A-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yil 5-6-noyabr kunlari Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tomonidan **“Moliya-kredit tizimida islohotlarni jadallashtirish, sohada xizmatlar bozori hajmini oshirish va raqobatni rivojlantirish: mavjud muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari o‘rin olgan.

Unda Xalqaro moliya-kredit tizimi integratsiyasi va ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etish, Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish va kapital bozorini rivojlantirish, O‘zbekistonda investitsiya muhitini rivojlashtirish muammolari, Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda fiskal barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy masalalari, O‘zbekiston Respublikasi hisob tizimida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotida qo‘llash masalalari, Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar asosida moliya-kredit tizimini modernizatsiya qilish kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallarning bayoni keltirilgan.

To’plamga oliy o’quv yurtlarida iqtisodiy muammolar bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o’qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo’mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To’plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o’zlari mas’uldirlar.

Tahririyat hay’ati a’zolari

i.f.n., dots. O.Ruziyev, DSc., dots. R.Bozorov, PhD. O.Melikov, PhD. A.Berdiyev, PhD. Sh. Abdulxayeva, katta o‘qituvchilar: Sh.Xudaynazarov, A.Ostanaqulov, Z.Shukurov, o‘qituvchilar: X.Ravshanov, B.Aliyev, A.Safarov, A.Sheraliyev, X.Saidov, A.Arslonov, B.Nasriddinov, B.Safaraliyev, M.Xidirov E.Tadjiyevlar.

Nashr etishda qatnashganlar:

Mordayev Bekzod Turobovich, Akbarov Nurislom Axtamjon o‘g‘li, Toshxo‘jayev Islomxo‘ja Ilxom o‘g‘li, Quchqarov Azamat Murotjonovich, Akbarova Dildora Axtamjon qizi, Kobilova Yulduz Abdurasul qizi

© Innovative Academy RSC
© Mualliflar

Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar, ustozlar, hamkasblar, ilmiy-amaliy anjumanmiz qatnashchilari va tashkilotchilari! Bizning "Moliya-kredit tizimida islohotlarni jadallashtirish, sohada xizmatlar bozori hajmini oshirish va raqobatni rivojlantirish: mavjud muammolar va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanmizga xush kelibsiz!

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug'i hamda Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutining 2025 yil 1 fevraldagi 16-A-sonli buyrug'iga asosan, 2025 yil 5-6 noyabr kunlari Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida o'tkazilayotgan **"Moliya-kredit tizimida islohotlarni jadallashtirish, sohada xizmatlar bozori hajmini oshirish va raqobatni rivojlantirish: mavjud muammolar va ularning yechimlari"** mavzusida xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman hech shubhasiz, viloyatimizning oliy ta'lim muassalaridan biri Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hayotida muhim bir voqeadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida mamlakatda moliya va kredit tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu ustuvor vazifalarni ijrosini ta'minlashda moliya-kredit tizimida mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'nalishlarini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Moliya-kredit tizimi har qanday davlat iqtisodiyotida asosiy rol o'ynaydi. Bu xo'jalik yurituvchi subektlar va aholining moliyaviy resurslardan foydalanishini ta'minlabgina qolmay, balki butun iqtisodiyot rivojiga, byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishga ham hissa qo'shadi. Moliya-kredit tizimini rivojlantirish davlat, tadbirkorlik va jamiyat tomonidan kompleks yondashuv va sa'y-harakatlarni talab qiladi. Shuningdek iqtisodiyot va butun jamiyatning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Anjumanda ekspertlar, professorlar, davlat va nodavlat oliy ta'lim muammasalari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari moliya-kredit tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish, ushbu soha oldida turgan murakkab muammolar yechimini topish maqsadida yig'ildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri bo‘lib, shunchaki oliy malakali mutaxassis tayyorlash bilan cheklanmay, dunyo miqyosida raqobatbardosh va zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan hamanafas istiqbolli kadrlar yetishtirish vazifasini bajarishlarida shu kabi ilmiy-amaliy aloqalar, o‘zaro tajriba almashish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Mazkur anjuman ishtirokchilari orasida fan arboblari, mamlakatimizning ko‘zga ko‘ringan eng yuqori ilmiy salohiyatli vakillari borligini e’tiborga olib, hech ikkilanmay aytamanki, anjumanda ko‘rilgan masalalar, ularning yechimlari va ular bo‘yicha qilingan xulosalar va ishlab chiqiladigan taklif va tavsiyalar ham yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni samarali ijro etishda muhim ahamiyat kasb etadi!

Ruziyev Oybek Abdumo‘minovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori.

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI BANK TIZIMINING O‘RNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH O‘RNI

Abdurashidova Dilnoza Mulkamol qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Bank ishi 4-bosqich talabasi
Telfon raqam: +998945028008
E’lektron manzil: dilnozaabdurashidova788@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509702

Annotatsiya: Bugungi XXI asr texnika va texnologilar davrida axborot tizimi ko’zga ko’rinadigan darajada o’zgarganligi natejasida hukumat, jamiyat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohlarida tub o’zgarishlarni ko’rishimiz mumkin. Ushbu tezisda O’zbekistondagi raqamli banklarning rivojlanish boshqichlari va ularni rivojlantirishda qo’llanilyotgan chora-tadbirlar haqida yoritib beriladi.

Kalit so’zlar: Raqamli bank, an’anaviy bank, mobayl platforma, onlayn platforma, ijtimoiy tarmoqlar, ovozli yordamchilar, taqiladigan buyumlar, “Anorbank”, ‘TBC” bank, masofaviy bank xizmati.

Kirish qism: Birinchi navbatda shuni aytib o’tishimiz kerakki, raqamli bank o’zi nima va bank jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday tartibda tashkil etilganligi haqida.

Raqamli bank tushunchasiga quyidagicha ta’rif keltirilib o’tilgan, “Raqamli bank”- bu innavatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko’rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo’linmasi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda ham “raqamli bank” tizimini rivojlantirish bo’yicha bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bunga misol qilib quyidagi holatni aytish mumkin, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi.

Darhaqiqat, “raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yana-da qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.



1-rasm. Hozirgi vaqtda rivojlanib boryotgan raqamli banklarda xizmat ko'rsatish kanallari

Quyidagi rasmda Capgemini Research Institute of Financial Services Analysisning 2022-yildagi so'rovnomasiga ko'ra mijoz va bank rahbarlari va xodimlari o’rtasida rivojlanib boryotgan raqamli banklarda xizmat ko'rsatish kanallariga bo’lgan talab tahlil qilinadi. Unga ko’ra, bank rahbarlari va xodimlarining qariyb 54 foiz ulushini ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga tog'ri kelgan bir vaqtda, mijozlarning ulushi bundan 2 foiz kam bo’lgan ulushni ko’rsatdi. Bu davrda ovozli yordamchilar kanalining mijozlarga nisbatan ulushi 50 foizga tog'ri kelgan bo'lsa, bank rahbarlari va xodimlarining ko'ratkichlari 36 foizni tashkil etdi. Yana bank rahbarlari va xodimlarining taqiladigan buyumlardagi ko'rsatkichlari atigi 0.7 foizni ko'rsatgan bo'lsa, bu nateja mijozlar ulushida 52 foizga tog'ri keldi.

Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” va “TBC bank”lar ham o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozi 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida

mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta’mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qiladigan bo’lsak, Mamadiyarov tadqiqotlariga ko'ra bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi, bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog'liq. Uning fikricha mohiyatan bank va mijoz o'rtasidagi aloqaning an'anaviy va masofadan tashkil etilishi o'rtasida keskin farq mavjud emas. Bank mijozlariga xizmat ko'rsatish kerakligi saqlanib qolingan, faqatgina bank va mijozlarini o'zaro bog'laydigan aloqa kanali o'zgardi. Ya'ni faqat bank mijozlari bankka berib bajaradigan operatsiyalarini endilikda masofadan ham amalga oshirish imkoni mavjud bo'ldi.[1]

M. Kovaley G. Golovenchiklaming fikricha, raqamli bank bu- mobayl va onlayn platformadan foydalangan holda moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish, bu bankning mijoz bilan ishlash sifatini yaxshilaydi, vaqt va xarajatlarni tejaydi, shaxsiy ma'lumotlani xavfsizligi hamda xizmatlar sifati va tezligini oshiradi.[2]

Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatishda ayrim banklar ochilishidan raqamli bank sifatida tashkil etilib, barcha bank xizmatlarini to'laligicha raqamli shaklda masofaviy ko'rinishda taqdim etadi yoki faoliyat yuritib kelayotgan banklar o'z filiallarini qisqartirgan holda zamonaviy raqamli transformatsiyani amalga oshirib, o'z strukturasini raqamli bank shakliga o'zgartiradi.

Albatta savol tug’ilishi mumkin: “Tijorat banklari va bugungi kunda rivojlanib kelyotgan raqamli banklar o’rtasida farq bormi”- degan. Bu savolga quyidagi jadval asosida javob berib o’tiladi:

An’anaviy va raqamli banklar o’rtasidagi asosiy farqlar [3]

1-jadval

An’anaviy banklar:	**Raqamli banklar**
Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e'tiborning sustligi	Bank filiallari tarmog'ining kengaytirilmasligi
Bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa o'rnatish holatining pastligi:	Bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o'rnatilganligi
Mobil ilovalari ishlab chiqarilgan ammo mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o'tkazish yoki kommunal to'lovlar to'lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo'lib, ko'p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi	Sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan mobil ilova
Bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko'p holatlarda tanish-bilishchilik katta rol o'ynaydi (agar tanish bo'lmasa, o'sha mijoz 3 oy va undan ko'p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi)	Bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya'ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi) va tez fursatlarda xizmat ko'rsatish
24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo'limlari mutaxassislari bilan so'zlashishiga to'g'ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to'lanadigan summa hisobga olinmaydi	Tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimda javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi

[1] Mamadiyorov Z. T Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari rivojlantirish: Avtoteferat. -2019-y. -13-bet.
[2] Ковалев М. Головенчик Г Цефровая трансформация банков // Банковский вестник. No11 (664). 2018. 50-60-bet.
[3] Mirzobek Komiljonivich Avezovning “Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari” nomli maqolasi 4-bet

Asosan ish haqi ma'lumotnomasi va boshqa qo'shimcha hujjatlar so'raladi	Ortiqcha hujjatlarning talab etilmasligi
Boshqaruvning markazlashganligi va inson omili katta ro'l o'ynashi	Dastur tomonidan xizmat ko’rsatilishi va inson omilining hissasi nisbatan kamayishi
Bank xarajatlarining ko'pligi natijasida xizmatlar tannarxining yuqoriligi	Xizmatlar tannarxining arzon bo’lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo’qligi)

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turganidek raqamli banklar asosan mijozlarning qulayligiga xizmat ko'rsatadi. Garchi an'anaviy banklar ham o'z mobil ilovalarini yaratayotgan va 24/7 rejimdagi aloqa markazlarini faoliyatini yo'lga qo'yayotgan bo'lsa ham ularning faoliyati va boshqaruvi markazlashgan holda amalga oshiriladi. Bu esa mijozlarning bank xizmatlaridan qoniqish darajasiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O’zbekiston bank tizimida bank xizmatlarini masofadan boshqaradigan raqamli banklar kam bo’lsada, yuqorida keltirilib o’tilgan ishlarning hammasini uni takomillashib borishiga juda katta yordam berib kelmoqda. Hamda yuqoridagi keltirilib o’tilgan fikr-mulohazalar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo’naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan xabar beradi. Shu sababli hozirda an’anaviy faoiliyat yurityotgan banklarbham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar
2. Mamadiyorov Z. T Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari rivojlantirish: Avtoteferat. -2019-y. -13-bet.
3. Capgemini Research Institute of Financial Services Analysis 2022-yildagi rivojlanyotgan raqamli bank bo'yicha o'tkazgan so'rovnamasi.
4. Ковалев М. Головенчик Г Цефровая трансформация банков // Банковский вестник. No11 (664). 2018. 50-60-bet.
5. deposit.uz / news / o'zbekistondagi-raqamli-banklar-va-ularning-istiqbollari
6. Mirzobek Komiljonivich Avezovning “Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari” nomli maqolasi 4-bet.

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARINING DARAJASIGA BAHO BERISHDA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

Sheraliyev Abbos Xolmuminovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Moliya va bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509757

Annotatsiya: ushbu tezisda tijorat banklari daromadlarining darajasiga baho berishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar, jumladan bank aktivlarining rentabelligi ko‘rsatkichi haqida, aktivlarining rentabelligini oshirish, sof foydaning o‘sish sur’ati bilan brutto aktivlarning o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash yuzasidan, Respublikamizning yirik banklaridan biri bo‘lgan, Turonbank va O‘zsanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi va Turonbankda aktivlar va sof foyda miqdorining o‘zgarishi 2020-2024 yillarda 4 yillik hisobot ma’lumotlari asosida o‘rganilgan hamda tegishli xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, tijorat banklari daromadlari, bank aktivlarining rentabelligi ko‘rsatkichi, sof foyda, brutto aktivlar.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari daromadlarining darajasiga baho berishda ikki ko‘rsatkichdan, ya’ni aktivlarning rentabelligi va o‘z kapitalining rentabelligi ko‘rsatkichlaridan keng foydalaniladi. Shunisi xarakterliki, aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichining xalqaro bank amaliyotida umume’tirof etilgan me’yoriy darajasi yo‘q, ammo, o‘z kapitalining rentabelligi ko‘rsatkichining xalqaro bank amaliyotida umume’tirof etilgan me’yoriy darajasi mavjud bo‘lib, 15 foizni tashkil etadi.

Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini aniqlash uchun joriy yilning sof foydasi brutto aktivlar summasiga bo‘linadi va olingan natija 100 foizga ko‘paytiriladi. Ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasi bo‘lmaganligi sababli, uni darajasiga baho berish uchun moliyaviy tahlilning qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi:

*bankning aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichini joriy davrdagi darajasi oldingi davrlardagi darajalari bilan taqqoslanadi;

*tijorat bankining aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichi boshqa tijorat banklarining shu ko‘rsatkichi bilan taqqoslanadi.

Tijorat banklari o‘z kapitalining rentabelligini aniqlash uchun joriy yilning sof foydasi regulyativ kapital summasiga bo‘linadi va olingan natija 100 foizga ko‘paytiriladi.

V.Fatuyev va V.Alxasov yozadi: “aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichi aktivlarga joylashtirilgan resurslarning sof foyda ko‘rinishida qaytib keladigan qismini ko‘rsatadi va bankning samaradorligini tavsiflovchi ajoyib indikator hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichning me’yoriy darajasi 0,35 foizdan 1,15 foizgachani tashkil etadi”[1].

Haqiqatdan ham, aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichi bir birlik aktivga to‘g‘ri keladigan sof foydaning darajasini ko‘rsatadi va resurslarning aktivlarga joylashtirish samaradorligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

[1] Фатуев В.А., Алхасов В.Л. Анализ прибыли и рентабельности банка//Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. – 2012. – №1.



1-rasm. Turonbank va O‘zsanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi, foizda[2]

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibtiki, Turonbankda aktivlarning rentabellik darajasi 2020-2022-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Buning ustiga, bank aktivlarining rentabelligi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur’atda oshgan.

Keltirilgam ma’lumotlardan ko‘rinadiki tahlil qilingan davr mobaynida Turonbank aktivlarining rentabellik darajasi sezilarli darajada past bo‘lgan.Bu esa,sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan kichchik miqdorga ega ekanligi bilan izohlanadi va bankning rentabelligini ta’minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibtiki, O‘zsanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi 2020-2024-yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan. Buning ustiga, ushbu ko‘rsatkichning darajasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan

O‘zsanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasini 2024-yilda-2020 yilga nisbatan sezilarli drajada oshganligi sof foydaning osish suratini brutto aktivlarning o‘sish suratidan yuqori bo‘lgnaligi bilan izohlanadi va bankning rentabelligini ta’minlash nuqtai- nazaridan ijobiy haolat hisoblanadi. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish sof foydaning o‘sish sur’ati bilan brutto aktivlarning o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

1-jadval

Turonbankda aktivlar va sof foyda miqdorining o‘zgarishi, mlrd. so‘m[3]

Ko‘rsatkichlar	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Brutto aktivlar	8714	11009	12878	15938	17585
Sof foyda	115	101	52	57	23

1-jadval ma’lumotlaridan aniq ko‘rish mumkinki, Turonbankda brutto aktivlarning miqdori 2020-2024-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Biroq, mazkur davrda bank sof foydasining miqdori beqaror bo‘lgan. Buning ustiga, sof foydaning miqdori 2024-yilda 2020-yilga nisbatan keskin kamaygan. Ushbu holatlar Turonbank brutto aktivlarining o‘sish sur’ati bilan sof foydasining o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlanmaganligini ko‘rsatadi.

Turonbankda tahlil qilingan davr mobaynida sof foydaning miqdori keskin kamayganligi yalpi xarajatlarning yalpi daromadlarga nisbatan darajasini oshganligi bilna izohlanadi va bankning rentabelligini ta’minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.Buning sabai shundaki, sof foydaning miqdori va drajasi tijorat banklarining rentabelligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatgich hisoblanadi.Bu esa, sof foydaga ta’sir qiluvchi omillarning ta’sirini o‘rganish va unga baho berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xulosa va takliflar

[2] Rasm muallif tomonidan Turonbank va O‘zsanoatqurilishbankning moliyaviy hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

[3] Rasm muallif tomonidan Turonbankning moliyaviy hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

✓ sof foydaning bank aktivlarining riskka tortilgan summasiga nisbatan optimal darajasini ta’minlash yo‘li bilan aktivlarning rentabelligini ta’minlash;

✓ Turonbankda aktivlarning rentabellik darajasi 2020-2022-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur’atda oshgan;

✓ O‘zsanoatqurilishbankda aktivlarning rentabellik darajasi 2020-2024-yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фатуев В.А., Алхасов В.Л. Анализ прибыли и рентабельности банка//Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. – 2012.

2. Turonbank va O‘zsanoatqurilishbankning moliyaviy hisobotlarining ma’lumotlari https:// www.sqb.uz, https:// https://turonbank.uz/

XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLAR BILAN HAMKORLIKNING SAMARADORLIGI

Qosimov Bobur Sobirovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
“Moliya pul muomalasi va kredit” kafedrasining tayanch doktoranti
Boburkosimov0 @gmail. com
https://orcid.org/0009-0006-8238-1098
telefon nomeri 884559900telefon nomeri 884559900
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509840

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish jarayonlari, ularning milliy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri hamda ushbu hamkorlikning samaradorligini baholash bo’yicha xulosa, takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro moliyaviy institutlar, moliyaviy hamkorlik, tashqi moliyalashtirish, kredit liniyalari, grantlar, texnik yordam, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация: В статье изложены выводы и предложения относительно процессов сотрудничества Узбекистана с международными финансовыми институтами, их влияния на развитие национальной экономики, а также дана оценка эффективности этого сотрудничества.

Ключевые слова: международные финансовые институты, финансовое сотрудничество, внешнее финансирование, кредитные линии, гранты, техническая помощь, экономические реформы.

Annotation: The article provides conclusions and proposals on the processes of Uzbekistan’s cooperation with international financial institutions, their impact on national economic development, and an assessment of the effectiveness of this cooperation.

Keywords: international financial institutions, financial cooperation, external financing, credit lines, grants, technical assistance, economic reforms.

Kirish

Globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu institutlar tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar, grantlar, texnik ko‘mak va maslahat xizmatlari iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashga, infratuzilmani modernizatsiya qilishga, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga hamda islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan sheriklik aloqalarining kengayishi O‘zbekiston uchun ham rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, investitsion muhitni yaxshilash, biznes jarayonlarni soddalashtirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, tashqi moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanish jarayonida ayrim cheklov va xatarlar – davlat qarzi hajmining oshishi, kredit shartlarining qat’iyligi, tashqi iqtisodiy omillarga yuqori darajada bog‘liqlik kabi jihatlarni ham hisobga olish talab etiladi.

Shu sababli xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy samaradorligini chuqur ilmiy tahlil qilish, uning afzallik va kamchilik tomonlarini baholash, mavjud muammo va xavflarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifa sanaladi.

Mazkur tadqiqotda xalqaro moliyaviy hamkorlikning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari o‘rganilib, hamkorlikni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. (1-jadval).

O‘zbekiston kreditlar va investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi[1]

1-jadval

[1] World Bank, *Uzbekistan’s Bold Push for Unlocking Jobs and Prosperity,* 2025 ma’lumotlari

Yil	Gross investment, % YaIM	FDI, % YaIM	YaIM o‘sishi, %	Ishsizlik, %	Milliy qashshoqlik, %	Samaradorlik proksisi[1]
2019	36.8	3.4	6.8	4.8	…	**0.18**
2020	34.5	2.6	1.6	5.4	…	**0.05**
2021	32.2	3.3	8.0	5.7	17.0	**0.25**
2022	29.2	3.2	6.0	5.0	14.1	**0.21**
2023	34.5	2.4	6.3	5.1	11.0	**0.18**
2024	39.6	2.4	6.6	5.5	…	**0.17**

1-jadvalda 2019 yilda investitsiyalarning YaIMdagi ulushi juda yuqori - **36,8 %**, shu bilan birga FDI 3,4 %ni tashkil etgan. YaIM **6,8 %** o‘sgan, ishsizlik **4,8 %** darajada bo‘lgan. Samaradorlik proksisi **0,18** bo‘lib, investitsion faollikning iqtisodiy o‘sishni qo‘zg‘atuvchi omil bo‘lgani kuzatiladi. Milliy qashshoqlik bo‘yicha ma’lumot mavjud emas, ammo umumiy indikatorlar ijobiy bo‘lgan.

Pandemiya ta’siri sezilarli: investitsiyalar **34,5 %,** FDI **2,6 %,** YaIM o‘sishi **1,6 %** gacha keskin pasaygan. Ishsizlik **5,4 %** ga oshgan.

Samaradorlik proksisi **0,05** darajaga tushib ketgan - bu kapital qo‘yilmalar qaytimi juda pastlashganini anglatadi. Ijtimoiy bosim oshgan, qashshoqlik bo‘yicha ham salbiy trend kutiladi.

Post-pandemiya tiklanish davri: investitsiya ulushi biroz kamaygan - **32,2 %,** ammo FDI **3,3 %** gacha tiklangan. YaIM **8,0 %** bilan yuqori sur’atda o‘sgan. Ishsizlik **5,7 %**, qashshoqlik darajasi **17,0 %** atrofida bo‘lgan.

Samaradorlik proksisi **0,25** - bu davrda investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga qaytimi maksimal darajada ko‘ringan.

Investitsiya ulushi yanada qisqarib, **29,2 %** bo‘lgan, FDI esa **3,2 %** darajada barqaror. YaIM o‘sishi **6,0 %,** ishsizlik **5,0 %,** qashshoqlik **14,1 %** gacha qisqargan. Samaradorlik proksisi **0,21** - kapital samaradorligi yuqori, ijtimoiy ko‘rsatkichlarda ijobiy dinamika kuzatilgan.

Investitsion faollik qayta ko‘tarilgan - **34,5 %,** biroq FDI **2,4 %** gacha pasaygan. YaIM o‘sishi **6,3 %,** ishsizlik **5,1 %.** Qashshoqlik **11,0 %** gacha kamaygan. Samaradorlik proksisi **0,18-** investitsiyalar natijadorligi o‘rtacha darajaga qaytgan. Ijtimoiy barqarorlik kuchaygani ko‘rinadi.

Investitsiyalar yana yuqori - **39,6 %,** biroq FDI **2,4 %** bilan past darajada qolmoqda. YaIM o‘sishi **6,6 %,** ishsizlik **5,5 %** biroz oshgan. Qashshoqlik bo‘yicha ma’lumot berilmagan. Samaradorlik proksisi **0,17** - investitsiyalar hajmi ortgani bilan ularning samaradorligi nisbatan past (2-jadval).

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari
2-jadval

№	Baholash mezoni	Mezonga izoh	Baholash ko‘rsatkichi (indikator)
1	Moliyaviy natijadorlik	Ajratilgan mablag‘ning iqtisodiy qaytimi	YaIMga qo‘shgan hissasi, investitsiya qaytimi
2	Infratuzilmaga ta’siri	Loyihalarning iqtisodiy infratuzilmani yaxshilash darajasi	Transport, energetika, raqamli infratuzilma ko‘rsatkichlari
3	Bandlikka ta’siri	Yangi ish o‘rinlari yaratishdagi roli	Yaratilgan ish o‘rinlari soni
4	Innovatsion rivojga ta’siri	Ilg‘or texnologiya va boshqaruv amaliyotlarining joriy etilishi	Innovatsion loyihalar ulushi, texnologiyalar transferi
5	Xavf va qarzdorlik darajasi	Tashqi qarz barqarorligini ta’minlash holati	Qarzdorlik/YaIM, kredit shartlari
6	Ijtimoiy ta’sir	Aholi farovonligi va yashash sifati yaxshilanishi	Sog‘liq, ta’lim, kommunal xizmatlar ko‘rsatkichlari

7	Institutsional rivojlanishga ta’siri	Davlat boshqaruvi va moliyaviy tizim samaradorligini oshirish	BMT, Jahon banki indikatorlari
8	Shaffoflik va monitoring	Loyihalar ijrosining ochiqligi darajasi	Sharhlash, hisobotlar taqdimoti
9	Ekologik ta’sir	Barqaror rivojlanish talablariga mosligi	Atrof-muhitga ta’sir bahosi
10	Mintaqaviy rivojga ta’siri	Hududlar kesimida teng rivojlanishga hissa	Hududiy investitsiya ulushi

2-jadvalda xalqaro moliyaviy institutlardan jalb etilgan mablag‘larning iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi ushbu mezon orqali baholanadi. YaIMga qo‘shilgan real hissa, investitsiya qaytimi (ROI) va iqtisodiy rentabellik darajasi hamkorlikning moliyaviy samaradorligini belgilaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar mablag‘lar o‘zini qanchalik oqlaganini namoyon etadi.

Loyihalarning transport, energetika va raqamli infratuzilma rivojiga qo‘shgan hissasi asosiy baholash yo‘nalishidir. Yirik infratuzilmaviy loyihalar iqtisodiy sikllarni jonlantirishga, logistika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur indikatorlar rivojlanish intensivligini ko‘rsatadi.

Hamkorlik natijasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim o‘lchovi hisoblanadi.

Xususan, loyihalar bevosita va bilvosita bandlikni oshirishi orqali aholining daromadlari va mehnat bozoridagi faollikni rag‘batlantiradi.

XMI mablag‘lari hisobidan ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va boshqaruvni modernizatsiyalash imkoniyati yaratiladi. Innovatsion loyihalar ulushi va texnologiyalar transferi jarayonlari iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omildir.

Tashqi moliyalashtirish bilan bog‘liq qarz barqarorligi masalalari ham e’tibordan chetda qolmaydi. Qarzdorlikning YaIMga nisbati hamda kredit shartlarining yumshoqligi mamlakatning fiskal barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan baholanadi.

Aholi farovonligi, yashash sifati va ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatining kengayishi hamkorlikning eng muhim natijalaridan biri sanaladi. Sog‘liqni saqlash, ta’lim va kommunal xizmatlar ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi ijtimoiy samaradorlikni ifodalaydi.

Davlat boshqaruvi, tartibga solish tizimi va moliya institutlarining funksional imkoniyatlari oshish darajasi baholanadi. BMT, Jahon banki kabi xalqaro indekslardagi o‘sish mamlakatning institutsional salohiyati kuchayayotganidan dalolat beradi.

XMI bilan hamkorlik jarayonlarida loyihalarning ochiqligi, hisobotlarning muntazam taqdim etilishi va manfaatdor tomonlar ishtirokini ta’minlash muhim talab sifatida qaraladi. Bu mezon korrupsiya va samarasiz boshqaruv xavflarini kamaytiradi.

Moliyalashtirilayotgan loyihalarning ekologik barqarorligi, atrof-muhitga salbiy ta’sirlarning minimallashtirilishi va “yashil” me’yorlarga mosligi baholashning ajralmas qismidir. Barqaror rivojlanish tamoyillari asosiy mezon sifatida qo‘yiladi.

Hamkorlik natijasida hududlar kesimida teng iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash darajasi tahlil qilinadi. Investitsiya oqimlarining hududiy taqsimoti milliy iqtisodiyotning muvozanatli o‘sishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) bilan hamkorligi milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi va barqaror rivojlanishida sezilarli o‘rin egallaydi. Ushbu hamkorlik natijasida yirik infratuzilmaviy loyihalar moliyalashtirilib, bandlikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishildi.

Lekin xalqaro moliyaviy institutlar bilan hal etilishi zarur bo‘lgan quyidagi muammolarni bartaraf etish maqsadga muvofiq:

- tashqi qarzdorlikning YaIMga nisbatan maqbul chegarasini belgilagan holda, strategik qarz boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish zarur;
- faqat yuqori iqtisodiy qaytimga ega investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ustuvorlik berish;
- XMI mablag‘laridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish lozim;
- raqamli iqtisodiyot, ekologik “yashil” texnologiyalar va yuqori qo‘shimcha qiymatli ishlab chiqarish loyihalariga investitsiya oqimini yo‘naltirish;
- loyiha ijrosi bo‘yicha ochiq ma’lumotlar platformalarini joriy etish lozim;
- har bir loyiha doirasida ekologik xavflarni baholash va kompensatsiya strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, xalqaro moliya oqimlari bilan ishlash jarayoni shuni ko‘rsatadiki, samaradorlikning eng muhim sharti – bu jalb etilgan resurslarni yuqori qo‘shimcha qiymat yaratishga, innovatsion salohiyatni oshirishga, institutsional islohotlarni jadallashtirishga va iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirishga yo‘naltirishdan iborat.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik-iqtisodiy o‘sishga tezkor ta’sir etuvchi mexanizm emas, balki institutsional islohotlar, innovatsion modernizatsiya va uzoq muddatli milliy taraqqiyotning strategik poydevoridir. Samaradorlikka erishish esa tashqi resurslarni o‘z vaqtida, maqsadli, shaffof va yuqori iqtisodiy qaytim bilan boshqarishga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Calderon, C.; Serven, L. The Effects of Infrastructure Development on Growth and Income Distribution // Policy Research Working Paper. – Washington, DC: World Bank, 2004. – № 3400. – 54 p.
2. Calderon, C.; Serven, L. Infrastructure and Economic Development in Sub-Saharan Africa // Journal of African Economies.- 2010. 19, suppl1. P. 13-87.
3. Dreher, A. IMF Conditionality: Theory and Evidence // KOF Working Papers. – 2006. April. 45 p. (preprint).
4. Минин И.И. Международные финансовые институты и их роль в развитии экономик СНГ // Вестник финансового университета. 2020. №3. С. 17-24.
5. Нурманов А.К. Эффективное использование международных финансовых ресурсов: казахстанский опыт // Экономика и статистика. 2021. №4. С. 29-36.
6. Дашкевич В.П., Ракович М.И. Финансовая устойчивость инвестиционных проектов с участием международных институтов // Экономическая наука. 2019. №12. С. 41-49.
7. Jabborov I.M. Xalqaro moliyaviy instutlar bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligi // Iqtisodiyot va ta’lim. 2022. №2. Б. 55-62.
8. Tadjiev A.B. Xalqaro kredit resurslarini tarmoq va hududlar kesimida samarali taqsimlash masalalari // O’zbekiston iqtisodiyoti. 2023. №1. Б. 38-45.
9. S.M. Karimov. Xalqaro moliyaviy instutlar loyihalarida monitoring va baholash tizimi: O’zbekiston amaliyoti // Moliya va bozor. 2023. №5. Б. 22-28.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. Toshkent, 2022.y

XALQARO MOLIYA BOZORI DOLZARBLIGI

Ergashev Mansurbek Murod o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talabasi
tel:+998 (93) 914-02-32
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509872

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro moliya bozorining rivojlanish bosqichlari bugungi kundagi xato va kamchiliklari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Moliya bozori, Islom taraqqiyot banki, Qimmmatli qog'ozlar bozori, Valyuta va kredit siyosati, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliyaviy institutlar, Xalqaro moliya tashkilotlari.

Аннотация: В этой статье будет представлена информация об этапах развития международного финансового рынка, его ошибках и недостатках на сегодняшний день.

Ключевые слова: финансовый рынок, Исламский банк развития, фондовый рынок, валютная и кредитная политика, Азиатский банк развития, международные финансовые институты, международные финансовые организации.

Annotation: this article will tell you about the mistakes and disadvantages of the stages of development of the international financial market today.

Keywords: financial market, Islamic Development Bank, Securities Market, Currency and credit policy, Asian Development Bank, International Financial Institutions, international financial organizations.

Kirish: Moliya bozori — oldi-sotdi obyekti pul yoki pulga tenglashtirilgan qog‘oz bilan bog‘liq bo‘lgan bozor. Bu bozorda moliya mablag‘larini vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan munosabatlar olib boriladi, shuningdek, pul mablag‘larini jamg‘arganlardan qarzga oluvchilarga o‘tishi ta’minlanadi. Ortiqcha mablag‘larga ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlari o‘z moliyaviy resurslarini mablag‘larga muhtoj subyektlarga taklif qiladi. Moliya bozori banklarda, fond birjasida va auksionlarda o‘tkaziladi. Moliyaviy bitimlar xarakteriga qarab, MBni turkumlashning bir necha usullari mavjud. Qaytarish tamoyili bo‘yicha moliya bozori 2 ga ajraladi: qarz majburiyatlari (iste’molni ko‘ndiradigan pul) va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz sifatida bozorga chiqadi va olingan pul shaxsiy iste’mol uchun ishlatiladi. Kapital (mulk) bozorida qo‘yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag‘lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olgan holda kapital bozorini 2 bo‘g‘inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo‘ladi. Bular, asosan, davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida aksiya, obligatsiya, veksel va boshqa oldi-sotdi qilinadi. Xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi natijasida jahon MB paydo bo‘ldi.Jahon moliya bozori -xalqaro kapital bozorining bir qismi bo'lib, turli mamlakatlardagi kreditorlar va qarz oluvchilarning kapitalga bo'lgan jami talab va taklifini o'zida mujassamlashtiradi. Shu o'rinda moliya bozori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab o'tish lozim. Chunki moliya bozorining mavjudligini asosiy tamoyili iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hisoblanadi. Moliya bozori va iqtisodiy o'sishni quyidagi oddiy misol (investitsiylar) bilan tushuntirishga urunib ko'ramiz. Iqtisodiy o'sish va investitsiyalar (moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiya)ning o'zaro bog'liqligi mexanizmi Nobel mukofoti laureati P.Samuelson tomonidan "akselerator tamoyili" ko'rinishida quyidagicha ifodalangan real YaIM o'sishi real investitsiyalar o'sishiga olib keladi, o'z navbatida real investitsiyalarning ko'tarilishi unga javoban YaIM o'sishiga sabab bo'ladi. Bu tamoyilning muhim jihati shundan iboratki, real investitsiyalar real kapital (bino va inshoatlar, mashina va anjomlar) va ishlab chiqarish zahiralari bahosi ortishini bildiradi. Demak, ko'rinib turibdiki, moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog'ozlar) yordamida real kapitalga qilingan investitsiyalarning ortishi uning bahosini oshiradi, bu esa mos ravishda moliyaviy instrument ko'rinishini olgan investitsiyalarning o'sishiga olib keladi, ya'ni "moliyaviy instrument (qimmatli qog'oz) va uning real bazisi (real kapital) o'rasidagi ekvivalentlilik" tamoyilini to'g'riligini hamda iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligi isbotlaydi. Demak moliya bozori mamlakat YaIM shakllanishini, iqtisodiy o'sishning ta'minlanishini harakatga keltiruvchi unsur bo'lib xizmat qiladi. Dunyo moliya bozorida mamlakatlar ulushining kattaligi davlatning iqtisodiy qudratini, boshqa mamlakatlarga ta'sirini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism: Bugungi kunda dunyo moliya bozorining umumiy qiymati 230 trillion AQSh dollaridan yuqoriligi ko'plab yillik hisobotlar va maqolalarda qayd etib o'tilgan. Quyida dunyo mamlakatlarining jahon moliya bozoridagi ulushi keltirilgan. Bugungi kunga kelib, nisbatan kam sonli mamlakatlar o'rtasida moliya bozorining salmoqli ulushi taqsimlangan. Bular ichida eng kattalari AQSh (40%), Yaponiya (8%), Xitoy (7%), Gongkong (7%), Buyuk Britaniya (4%), Fransiya (3%), Germaniya (3%) kabi dunyoning eng qudratli mamlakatlari o'rin olgan. [1]Ko'rinib turibdiki dunyo moliya bozorining uchdan ikki qismi aksariyat rivojlangan mamlakatlarga tegishli. Jahon moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri fond birjasi yoki qimmatli qog'ozlar (kapital) bozori hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2018 yilda jahon fond bozori kapitalizatsiyasi 85 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. Kapitalizatsiyaning asosiy qismi Amerika Qo'shma Shtatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, AQSh kapitalazitsiyasi dunyoning boshqa jami mamlakatlari fond bozorining kapitaliztsiyasiga qariyb teng bo'lib qolgan. Shu sababli o'rganishlarimiz jarayonida ko'proq urg'u AQShga beriladi. AQSh kapital bozori dunyodagi eng katta va to'lovlilik va samaradorlik qobiliyati eng yuqori bo'lgan mamlakat hisoblanadi. AQSh kapital bozori qiymati mamlakat yalpi ichki mahsulotidan qariyib 2 barobar katta - fond bozori YaIMning 162 foizini tashkil etadi, YaIMni doimiy daromad bozori (Fixed income market) bo'yicha hisoblaganda AQSh kapitali 207 foizni tashkil etgan. Islom taraqqiyot banki -(ITB) 1975 yilda IHT mamlakatlari moliya vazirlari yig‘ilishining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan. ITBning shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. ITBning Hududiy ofislari 1994 yili Rabot(Marokash)da, shu yili Kuala-Lumpur(Malayziya)da, 1997 yili Olma-Ota(Qozog‘iston)da va 2008 yili Dakar(Senegal)da ochildi.Bank shuningdek 12 ta a’zo mamlakatda mahalliy vakolatxonalarga ega: bular Afg‘oniston, Ozarbayjon, Bangladesh, Gvineya, Indoneziya, Eron, Nigeriya, Pokiston, Serra-Leona, Sudan, O‘zbekiston va Yamandir.**Osiyo taraqqiyot banki —** xalqaro mintaqaviy bank. Bankni tuzish haqidagi bitim 15 ta davlat hukumatlari tomonidan imzolangan bo‘lib 1966-yil 22-avgustda kuchga kirgan. OTB tarkibiga a’zo sifatida BMTning iqti-sodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Osiyo—Tinch okean komissiyasiga a’zo bo‘lgan davlatlargina kiritilishi mumkin. Hozirda bankka 61 mamlakat a’zo. **Bank faoliyatining asosiy maqsadi:** Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga va tashqi savdosiga ko‘maklashishi, moliyaviy, texnik va iqtisodiy yordam ko‘rsatish. Bank xususiy sektorni rivojlantirishga, mintaqaviy hamkorlik va atrof muhit tozaligini saqlashga alohida e’tibor qaratadi. OTB tomonidan 1968—83 yilda 9,2 mlrd. dollar odatdagi kredit va 4,2 mlrd. dollar maxsus fond krediti berilgan. OTBning nizom jamg‘armasi — 43,6 mlrd. AQSH dollariga teng. Bankning har qanday qarorini hamkorlikda 1/3 ovozga ega bo‘lgan AQSH va Yaponiya to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Ularning har biri nizom jamg‘armasining 15,9% miqdorida ulushga ega. Shuningdek, bank huzurida 2 maxsus fond faoliyat ko‘rsatadi **— Osiyo taraqqiyot fondi** va **Texnika yordami maxsus fondi**.[2] Bankka rivojlangan davlatlarning ta’siri katta: mablag‘larning 50% ularga tegishli. Shtab kvartirasi Manila (Filippin)da. Oliy organi — Boshqaruvchilar kengashi. Yaponiya vakili hamisha bank prezidenti bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yilda OTBga a’zo bo‘lgan. Respublikaning ushbu bankdagi kvotasi 310,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. hozirgi paytda O‘zbekistonda OTB ishtirokidagi umumiy miqdori 625,5 mln. AQSH dollariga teng bo‘lgan 13 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotida katta rol o‘ynaydi[3]. Ular turli mamlakatlarga mablag‘ ajratish va kredit berish bilan shug‘ullanadilar, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar.Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT) - xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir. Quyidagilar xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokchilari hisoblanadi:

- davlat;
- nodavlat tashkilotlar.

Jahon iqtisodiy rivoji uchun xalqaro moliya institutlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

[1] xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) — World Economic Outlook, yillik hisobotlarida dunyo moliya bozorining hajmi haqida ma’lumotlar

[2] Naimov, s. O. O. G. L., & shernayev, a. A. (2022). Xalqaro valyuta bozori va o’zbekistonda valyuta operatsiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlari. Science and education.

[3] marasulov A., Xodiev B. va boshqalar — “Xalqaro moliya”, TDIU (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) nashri

- jahon iqtisodiyotining holati, tendensiyalari va rivojlanish omillari tahlili;
- jahon iqtisodiyotini tartibga solish, xalqaro savdoni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozoridagi operatsiyalar;
- investision faoliyat (xalqaro va ichki milliy loyihalarga yo‘naltirilgan kreditlar);
- davlat loyihalarini kreditlash;
- xalqaro ko‘mak dasturlarini moliyalashtirish;
- ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish;
- xayriya faoliyati.

Xulosa: Bugungi kunda jahon moliya bozori juda katta va murakkab tizim bo‘lib, uning umumiy qiymati 230 trillion AQSh dollaridan ortiqdir. Ushbu bozorda moliya bozorining asosiy qismi kam sonli rivojlangan mamlakatlarga to‘plangan. Eng yirik ulushga ega mamlakatlar orasida AQSh yetakchilik qiladi — uning ulushi 40 foizni tashkil etadi, undan keyin Yaponiya, Xitoy, Gongkong, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlar keladi. Bu esa dunyo moliya bozorining uchdan ikki qismining rivojlangan mamlakatlarga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Fond birjasi — jahon moliya bozorining eng muhim segmentlaridan biri bo‘lib, 2018 yilda uning kapitalizatsiyasi 85 trillion AQSh dollariga yetgan. Bu ko‘rsatkichning katta qismi aynan AQSh hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSh kapital bozori qiymati mamlakat yalpi ichki mahsulotidan ikki barobar kattaroq bo‘lib, fond bozori YaIMning 162 foizini tashkil etadi. Bu esa AQSh moliya bozorining dunyodagi eng yirik va samarali bozor ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari, xususan, Islom Taraqqiyot Banki (ITB) va Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kabi tashkilotlar moliyaviy yordam, iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu banklar ko‘plab mamlakatlarda loyihalarni moliyalashtirib, barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam bermoqda. Masalan, OTB Osiyodagi rivojlanayotgan davlatlar uchun moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatadi, xususan, O‘zbekiston ham bu bank faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular mamlakatlarga kreditlar berish, investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro savdoni rivojlantirish va iqtisodiy siyosatni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tashkilotlar nafaqat moliyaviy yordam ko‘rsatadi, balki ilmiy tadqiqotlar va xayriya faoliyati bilan ham jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi. Umuman olganda, jahon moliya bozori va xalqaro moliya institutlari iqtisodiyotning global barqarorligini ta’minlashda, mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Ularning samarali faoliyati natijasida dunyo iqtisodiyoti yanada integratsiyalashgan va hamkorlikka asoslangan tizimga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naimov, s. O. O. G. L., & shernayev, a. A. (2022). Xalqaro valyuta bozori va o’zbekistonda valyuta operatsiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlari. Science and education, 3(1), 1099-1103
2. Xamdamova, r. R. Q., & shernayev, a. A. (2022). Xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish istiqbollar. Science and education, 3(1), 1111-1116.
3. Jumanazarova, z. J., & shernayev, a. A. (2020). Budjetdan tashqari jamg ‘armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish Yo ‘nalishlari. Студенческий вестник, (1-6), 87-89.
4. Temirov a.a. Improvement of corporate governance in the banking sector of the republic of uzbekistan // modern school of russia. Issues of modernization. No. 1 (38, v2), 2022, pp. 28-30.

IQTISODIYOTDA MEHNAT RESURSLARINING O'RNI VA AHMIYATI

Eshqobilova Nargiza Mengnarovna
DTPI Raqamli iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
Bozorova Nilufar Abdumurod qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
1-kurs Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509881

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat resusrlari, ularni ishlab chiqishdagi o'rni, oqilona tashkil etishning ahamiyati, O'zbekiston va jahon tajribasida resurslardan foydalanish tahlil qilinadi. Maqola nazariy asoslar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat resurslari, iqtisodiyot, jamiyat, shaxsiy mulk bandlik, ishsizlik, demografik omil, inofatsiya.

Abstract: This article discusses labor resources, their role in production, the importance of rational organization, and the use of resources in Uzbekistan and in world experience.

Keywords: labor resources, economy, society, private property, employment, unemployment, demographic factor, innovation

Kirish:

Qadimgi davrlardan to hozirgi davrimizgacha mehnat resurslari jamiyatning asosiy qismi bo'lib, iqtisodiyot va hayotning barcha sohalarida mihim rol o'ynagan. Mehnat resurslari turli davrlarda turlicha rivojlangan. Quyida biz mehnat resurslarining rivojlanishini davrlar bo'yicha keltirib o'tamiz:

Quldorlik davrida mehnat resurslari mehnat resurslarining asosiy qismini qullar tashkil etgan, qullar ishlab chiqarishda majburiy mehnat asosida ishlagan, mehnatning ijtimoiy qadri yo'q edi, mehnat unumdorligi juda past bo'lgan, chunki rag'bat tizimi mavjud emas edi., quldorlik tizimi mehnatni samarali tashkil etishga emas, balki kuch ishlatishga asoslangan edi.

Feodalizm davrida mehnat resurslar, mehnat resurslarining asosiy qismini dehqonlar va hunarmandlar tashkil etdi, dehqonlar feodal yer egalari uchun majburiy mehnat (barshchina) bajarishgan,hHunarmandchilik va shahar mehnat tarmoqlari rivojlanib, mehnat taqsimoti shakllandi, mehnat faoliyati asta-sekin kasbiy ixtisoslashuv bosqichiga o'ta boshladi.

Kapitalistik jamiyatda mehnat resurslari, ыanoat inqilobi (XVIII–XIX asrlar) mehnat resurslarining sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab berdi, mashinasozlik, fabrika va zavodlarning paydo bo'lishi natijasida ishchi sinfi (proletariat) shakllandi, mehnat bozori vujudga keldi: ish kuchi tovar sifatida erkin sotila va sotib olinadigan bo'ldi, ishchilar mehnatga haq to'lanadigan shartnomalar asosida jalb qilina boshlandi, shu davrda mehnat huquqlari, kasaba uyushmalari va ijtimoiy himoya tizimlari paydo bo'ldi.

Sotsialistik davrda mehnat resurslari, mehnat davlat tomonidan markazlashgan tarzda boshqarilgan, ish joylari, kasb tayyorlash va ish haqi tizimi rejalashtirilgan iqtisodiyot asosida belgilanardi, ishsizlik deyarli mavjud emas edi, lekin mehnat samaradorligi past bo'lgan, mehnat resurslarining asosiy vazifasi ishlab chiqarish rejasini bajarishga qaratilgan edi, O'zbekistonda bu davrda sanoat korxonalari, paxta sanoati, qurilish va transport tarmoqlari uchun ko'p sonli ishchi kuchi tayyorlangan.

Bozor iqtisodiyoti davrida mehnat resurslari, mustaqillikdan so'ng (1991 yildan boshlab) O'zbekiston va boshqa davlatlarda mehnat munosabatlari bozor mexanizmlari asosida shakllana boshladi, mehnat erkinligi, kasb tanlash huquqi, shartnomaviy mehnat tizimi joriy etildi. Xususiy sektor, tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi keng rivojlandi. Mehnat bozorida raqobat shakllandi, ish haqi mehnat unumdorligiga bog'liq bo'ldi. malakali kadrlar tayyorlash, kasb-hunar o'qitish va bandlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Hozirgi davrda mehnat resurslarining rivojlanish xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar natijasida yangi kasblar paydo bo'ldi (IT, dizayn, marketing, logistika va boshqalar).
- ✓ Masofaviy ish va erkin bandlik (freelance) shakllari kengaydi.
- ✓ Xalqaro mehnat migratsiyasi kuchaydi.

✓ Mehnat resurslarining sifati — ya'ni bilim, malaka va kompetensiya — asosiy iqtisodiy ustunlik omiliga aylandi.

Shuningdek, mehnat resurslarining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

- Mehnatga layoqatli aholi: Bu jismonan va ruhan sog'lom mehnat qilish uchun yoshi yetgan (odatda,16 yoshdan pensiya yoshigacha) shaxsdir.
- Bandlik: Mehnat faoliyati bilan Shug'ullanayotgan aholi qismi (ishchilar, xizmatchilar tadbirkor va h.k)
- Ishsizlik: Ishlashga tayyor, lekin ish topa olmayaotagn aholi qismi.
- Malaka: Mehnat resurslarining sifati ularning bilim darajasi, ko'nikmalari va tajribasi.

Mehnat resurslari har qanday ishlab chiqarish jarayoning eng muhim omillaridan biridir. Ularning roli quyidaqilardan iborat.

✓ Ishlab chiqarishni taminlash: Mehnat resurslarini korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlaydi, ular ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

✓ Texnologiyalarni qo'llash: Mehnat resurslari yangi texnologiyalar o'zlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish orqali unumdorlikni oshiradi.

✓ Mehnat sifatini yaxshilash: Malakali mehnat resurslari yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga hissa qo'shadi.

✓ Inovatsiyalarni yaratish: Mehnat resurslari ilmiy tadqiqotlar v aishlanmalar orqali yangi mahsulot texnologiyalar va usullarni yaratadi.

✓ Iqtisodiy o'sishni ta'minlash: Mehnat resurslarini samarali ishlatish iqtisodiy o'zishni rag'batlantiradi va jamiyatning faravonligini oshiradi.

Mehnat resurslarining samarali ishlatilishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan va jamiyatning faravonligini oshiradi. Mehnat resurslariga ta'sir etuvchi omillar: Demografik omillar aholining soni, jinsi, yoshi va milliy tarkibi. Aholining ta'lim darajasi va malakasi, aholining salomatligi holati va umr ko;rish davomiyligi aholini ko'chib yurishi (ichki va tashqi) mehnat bozori, ta'lim himoya sohalaridagi davlat siyosati.

2024-yil yanvar – iyun oylarida O'zbekiston mehnat resurslari soni jami 20 mln kishini tashkil etgan. Davlat sitatistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bu raqam o'tgan yili mos davriga nisbatan taqqoslangan 0,8 % ga oshgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respubikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tamonlama tahlil qilish, sifatli va xolisona baholash, ayniqsa mehnat barqarorligi ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlar aholi bandligini ta'minlash dasturi samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilinadi : O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 1-sentyabrgacha bo'lgan muddadga Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishning keyingi kalendar yil uchun prognoz balanisining ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar mahkamasidagi kiritilishini ta'minlaydi.

1-jadval

O'zbekiston mehnat bozori ko'rsatkichlari (2020–2024)

Yil	Mehnat resurslari (mln kishi)	Band aholi (%)	Ishsizlik darajasi (%)
2020	19.3	89.5	10.5
2021	19.7	90.4	9.6
2022	20.0	90.8	9.2
2023	20.4	91.2	8.8
2024	20.8	91.6	8.4

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat resurslari va aholi bandligi o'sish tendensiyasiga ega, ishsizlik darajasi esa kamaygan.

2-jadval

Mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari (2020–2024)

Yil	YaIM o‘sishi (%)	Bandlik o‘sishi (%)	Mehnat unumdorligi indeksi
2020	1.6	-0.5	100
2021	7.4	0.9	104
2022	5.7	1.2	107
2023	6.0	1.3	110
2024	6.2	1.4	113

3-jadval

O’zbekiston Respublikasining 2017-yildan 2024-yilgacha bo’lgan mehnat resurslar sonini viloyatlar bo’yicha taqsimoti

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O’zbekiston Respullikasi	18666.3	18829.6	18949.0	19158.2	19334.9	19517.5	19739.6	20085.2
Andijon viloyati	1722.2	1733.3	1741.7	1754.8	1745.3	1780.8	1799.6	1807.4
Buxoro viloyati	1073.1	10777.88	1081.0	1067.1	1072.3	1074.2	1089.2	1085.3
Jizzax viloyati	756.2	765.6	764.1	773.8	782.6	791.0	799.4	802.0
Qashqadaryo viloyati	1784.6	1806.8	1813.8	1809.8	1811.0	1813.4	1826.7	1888.5
Navoiy viloyati	547.2	552.0	555.8	555.2	564.5	570.6	584.5	597.4
Namangan viloyati	1549.5	1564.2	1573.9	1580.4	1586.1	1588.3	1603.99	1632.4
Samarqand viloyati	2079.6	2103.4	2117.1	2125.2	2122.0	2164.8	2167.6	2190.9
Surxondaryo viloyati	1423.9	1442.7	1456.9	1452.2	1464.6	1465.4	1486.0	1515.8
Sirdaryo viloyati	475.2	480.5	484.5	485.0	489.4	487.4	492.2	503.2
Toshkent viloyati	1623.9	1627.2	1607.3	1615.4	1622.5	1619.2	1640.7	1671.6
Farg’on aviloyati	2031.1	2043.1	2052.1	2069.3	2083.9	2097.8	2121.7	2143.3
Xorazm viloyati	1000.6	1013.4	1029.6	1044.8	1047.1	1050.9	1063.3	1080.3

2017-yil O’zbekistonda mehnat resurslarining umumiy soni 18666,3 kishini tashkil etgan bo’lsa 7 yildan keyin ya’ni 2024-yil bu ko’rsatgich 20085,2 kishini tashkil etmoqda. Viloyatlar bo’yicha eng kam mehnat resurslari Sirdaryo 475,2 ming kishi va eng ko’p mehnat resurslari Samarqandda 2079,6 ming kishini tashkil etmoqda 2017-yil holatiga ko’ra. Biroq bu ko’rsatgich kamaygani yo’q aksincha o’sib bormoqda 2024-yilga kelib sirdaryoda 503,2 kishini, Samarqandda esa 2190,9 kishini tashkil etmoqda. Xulos aqilib aytganda O’zbekistonda yildan – yilgacha mehnat resurslari soni ortib bormoqda. Buning natijasida ish o’rinlariga talab ham keskin ko’tarilmoqda. Su sababli ishsizlikni oldini olish maqsadida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev turli xil qarorlar joriy etdi.

Xulosa

Demografik o'sish sharoitida mehnat resurslaring ortishi va ish o'rinlariga bo'lgan talabning oshishi ijtimoiy – iqtisodiy barqarorlik jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim muammolardan biridir. Ushbu muammoni samarali hal etish davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlash aholi faravonligini oshirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator strategiyalar yo'nalishlarda kompleks chora tadbirlarni oshirish lozim.

Sanoatni diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish. Yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning real sektorida yangi ish o'rinlarini yaratish lozim. Yoshlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan kompleks dasturlarni amalga oshirish. Kasb – hunar ta'lim tizimini mehnat bozorining talablariga moslashtirish, talabalaring o'z istedodlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratish, startap loyihalarini qo'llab – quvvatlash va volontyorlik faoliyatini rag'bandlantirish orqali yoshlarning bandligini ta'minlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining rasmiy qonunchilik bazasi, Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining rasmiy veb-sayti parliament.gov.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasining veb-sayti stat.uz.
3. O'zbekiston iqtisodiyoti resurslardan foydalanish va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar va ekspert xulosalari
4. Q.Abdurahmonov, N. Zokirova Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi- o'quv qo'llanma Toshkent-2013
5. Artikov Zokir Sayfiddinovich Mehnat iqtisodiyotining mohiyati va uning tarkibiy yo'nalishlari nomli maqolasi Journal of marketing, business and management.

ISLOMIY BANK TIZIMINING RIVOJLANISHI HAMDA O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLARNI SHAKLLANTIRISH SARI YO’L

Melikov Otabek Maxmadaminovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi mudiri
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: o.melikov@dtpi.uz
Jabborov Sohib Yodgar o’g’li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
2-kurs “5BI23” guruh talabasi
Email address: sohibjabborov7@gmail.com
Telefon raqam: (+998) 91 981 75 15
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509898

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy bank tizimining mohiyati, uning asosiy tamoyillari hamda an’anaviy bank tizimi bilan o‘xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Islomiy moliya tizimining asosini tashkil etuvchi foiz (ribo) taqiqi, riskni sheriklik asosida taqsimlash, real aktivlarga tayanish va axloqiy cheklovlar mazmunan tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida islomiy bank faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlar o‘rganilib, amaldagi islohotlar hamda istiqboldagi yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Maqolada islomiy bank tizimini joriy etish orqali mamlakatda barqaror va adolatli moliyaviy tizimni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: islomiy bank tizimi, shariat, foiz (ribo), an’anaviy bank, sukuk, Markaziy bank.

Annotation: This article examines the essence of the Islamic banking system, its main principles, and the similarities and differences between Islamic and conventional banking. It analyzes key concepts such as the prohibition of interest (riba), profit-and-loss sharing, asset-backed transactions, and ethical restrictions that form the foundation of Islamic finance. The paper also studies the legal, organizational, and economic conditions necessary for the introduction of Islamic banking in the Republic of Uzbekistan. In addition, it highlights ongoing reforms and proposes directions for further development. The article demonstrates the potential of establishing a stable and fair financial system in Uzbekistan through the implementation of Islamic banking principles.

Keywords: Islamic banking system, Shariah, interest (riba), conventional banking, sukuk, Central Bank.

Аннотация: В данной статье рассмотрена сущность исламской банковской системы, её основные принципы, а также сходства и различия между исламским и традиционным банкингом. Проанализированы ключевые положения исламских финансов, включая запрет на проценты (риба), распределение прибыли и убытков, обеспечение сделок реальными активами и этические ограничения. В работе изучены правовые, организационные и экономические условия, необходимые для внедрения исламского банкинга в Республике Узбекистан. Кроме того, приведены существующие реформы и предложены направления дальнейшего развития. Статья показывает возможности формирования устойчивой и справедливой финансовой системы в Узбекистане на основе принципов исламского банкинга.

Ключевые слова: исламская банковская система, шариат, проценты (риба), традиционный банк, сукук, Центральный банк.

Kirish

Jahon moliya tizimida so‘nggi yillarda islomiy bank faoliyatiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu qiziqishning sababi, islomiy bank tizimi faqat iqtisodiy manfaat emas, balki axloqiy va adolat tamoyillariga asoslangan moliyaviy muvozanatni ta’minlashga intilishidadir. Ushbu tizimning markazida shariat qonunlari turadi. Unga ko‘ra, foiz (ribo) olish va to‘lash taqiqlanadi, bitimlar esa faqat haqiqiy aktivlar yoki real iqtisodiy faoliyat asosida amalga oshiriladi.

An’anaviy bank tizimi, asosan, foizli operatsiyalar orqali foyda ko‘radi, islomiy bank tizimi esa sheriklik, ijaraga berish, savdo va investitsiya kabi adolatli taqsimot mexanizmlariga tayanadi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni oshiradi, iqtisodiy tizimda halollik va ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida islomiy bank tizimi nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki Yevropa, Osiyo va Afrikaning ko‘plab davlatlarida ham muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. U iqtisodiy inqirozlarga chidamli, ijtimoiy mas’uliyatli va barqaror moliyaviy model sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda muhim qadamlarga qo‘l urmoqda. Mamlakatda islomiy moliya va bank xizmatlarini joriy etish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, xalqaro tajribani o‘rganish bo‘yicha amaliy ishlar boshlangan. Bu jarayon milliy moliya bozorini yanada boyitib, iqtisodiy tizimda halollik, barqarorlik va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada islomiy bank tizimining nazariy asoslari, an’anaviy bank tizimidan farqlari va o‘xshash jihatlari, shuningdek, O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini rivojlantirish istiqbollari keng yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Islomiy bank tizimi bo‘yicha ilmiy izlanishlar so‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida kengayib bormoqda. Bu yo‘nalishda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, Mohamed Ariff (1988) o‘zining *“Islamic Banking”* nomli maqolasida[1] islomiy bank tizimining nazariy va amaliy asoslarini tahlil qiladi. U islomiy banklarni “axloqiy tamoyillar asosida ishlaydigan, riskni sheriklik asosida taqsimlaydigan va real aktivlarga tayanuvchi moliyaviy institutlar” sifatida tavsiflaydi. Ariffning tadqiqoti shuningdek, islomiy banklarning makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasini tahlil qilgani bilan ahamiyatlidir.

Feisal Khan o‘zining *“How ‘Islamic’ is Islamic Banking?”* nomli ilmiy maqolasida[2] islomiy bank tizimiga tanqidiy yondashuvni taklif etadi. U amalda ko‘plab islomiy banklar diniy tamoyillarga to‘liq rioya qilmasligini, ayrim operatsiyalar an’anaviy bank faoliyatiga o‘xshab ketishini ta’kidlaydi. Khanning fikricha, islomiy banklarning asosiy chaqirig‘i — “shakldan ko‘ra mazmunga” e’tibor qaratish, ya’ni diniy etik tamoyillarni chuqurroq tatbiq etishdir. Bu maqola sohadagi islohotlar zaruratini ko‘rsatgan muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Leonid Vorobyov *“Islom banki qanday ishlaydi: xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz”* maqolasida[3] amaliy jihatdan islom banklarining ishlash mexanizmlarini tahlil qilib, foizli operatsiyalar o‘rniga sheriklik asosidagi moliyalashtirishning afzalliklarini ko‘rsatadi.

S.A. Akmal o‘g‘li o‘zining *“Islom moliya bozorida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish”* nomli ishida[4] raqamli texnologiyalarning islomiy bank tizimidagi o‘rni va ahamiyatini yoritadi. Muallifning fikricha, sun’iy intellekt, blokcheyn, mobil ilovalar va onlayn to‘lov tizimlari islomiy bank mahsulotlarini soddalashtirish, shaffoflikni oshirish hamda mijozlarga qulay xizmat ko‘rsatishda muhim vositadir. Bu yo‘nalish, ayniqsa, O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Amaliy manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar alohida e’tiborga loyiq. Jumladan, 2025-yil 16-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Islomiy bank faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi” qonun loyihasi muhokama qilindi[5]. Ushbu qonun loyihasi O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini huquqiy jihatdan yo‘lga qo‘yish, moliya tizimiga yangi instrumentlarni kiritish va xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi. Bu voqea mamlakatda islomiy moliya bozorini shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, islomiy bank tizimi faqat diniy prinsiplar asosida emas, balki zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiy mexanizmlar va ijtimoiy mas’uliyatni o‘zida mujassam etgan kompleks moliya modeli sifatida shakllanib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada nazariy hamda empirik tadqiqot usuli elementlaridan foydalanildi. Xususan, nazariy usullardan: tahlil, tasniflash, umumlashtirish, sintez va qiyoslash usullari, empirik usullardan esa kuzatuv va tekshirish usullari qo‘llanilgan.

Tahlil va Natijalar

Islomiy bank ishi yoki islomiy moliya (arabcha: — *masrifiyya al-islāmiyya*) — bu Shariat qonunlari (Islom huquqi)ga muvofiq olib boriladigan bank va moliyaviy faoliyat turidir[6]. Ushbu tizim islom

iqtisodiyotining amaliy shakli sifatida shakllangan bo‘lib, unda moliyaviy operatsiyalar shariat tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Islomiy moliya turli xil moliyaviy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi, jumladan:

Mudaraba — foyda va zarar sheriklik asosida taqsimlanadigan ishonchli boshqaruv tizimi;

Vadiya — omonatni saqlash yoki ishonchli saqlovchi sifatida qo‘llaniladigan usul;

Musharaka — hamkorlik asosidagi qo‘shma korxona yoki ulushli sheriklik;

Murabaha — xarid narxiga oldindan kelishilgan foyda qo‘shish orqali amalga oshiriladigan savdo turi;

Ijarah — ijaraga olish yoki lizing asosida moliyaviy munosabat.

Shariat tamoyillariga ko‘ra, riba (foiz yoki sudxo‘rlik) qat’iyan taqiqlangan. Riba — bu qarz mablag‘lariga nisbatan foiz shaklida olinadigan ortiqcha to‘lovni anglatadi. Ba’zi ulamolar foiz bilan riba o‘rtasidagi to‘liq tenglik masalasida turlicha fikr bildirsalar-da, umumiy e’tiqodga ko‘ra, foizli kreditlar islomiy jihatdan harom hisoblanadi.

Shuningdek, harom faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga investitsiya kiritish (masalan, cho‘chqa go‘shti, alkogol mahsulotlari, qimor yoki tamaki ishlab chiqarish) ham qat’iyan man etilgan. Bu tamoyil islomiy moliyaning asosiy g‘oyasi — axloqiy va halol iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Natijalarga nazar solsak, “Al Huda Islomiy bank va iqtisod markazi” [7] ning 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil oxiriga borib global Islomiy bank aktivlari hajmi 5 trillion dollarga yetishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoda axloqiy va barqaror moliya tizimiga e’tibor tobora ortib bormoqda. Islomiy bank va moliya sektori mas’uliyatli moliyaviy tamoyillarni targ‘ib qilgani sababli, tobora ko‘proq insonlar bunday mahsulotlardan foydalanishga qiziqmoqda.

Standard & Poor’s (S&P) tomonidan e’lon qilingan alohida hisobotda aytilishicha, Islomiy moliya sektori 2023 va 2024-yillarda har yili 10 foiz o‘sish sur’atiga ega bo‘lishi kutilgan edi. Qarangki ushbu o‘sishda Saudiya Arabistoni va Quvayt yetakchilik qilmoqda — o‘tgan yili sektordagi aktivlar o‘sishining qariyb 90 foizi aynan shu ikki davlat hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Dunyo bo‘ylab Islomiy bank tizimi

Islomiy bank aktivlarining dunyoning ko‘plab mintaqalarida ommalashib borayotgani e’tiborga molik holatdir.

Birlashgan Arab Amirliklarida (BAA) Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning birinchi choragida Shariatga muvofiq banklarning jami aktivlari 7,31 foizga o‘sib, deyarli 177 milliard dollarga yetgan.

Xuddi shu davrda mamlakatdagi Islomiy banklar tomonidan berilgan kreditlar hajmi ham oshib, 109 milliard dollarga yetgan — bu 2,51 foizlik o‘sishni anglatadi.

Malayziyada esa, Shariatga muvofiq obligatsiya (sukuk) chiqarishda yetakchi davlatlardan biri sifatida, Islomiy moliya sektori ham o‘sishda davom etmoqda. **Moody’s Investors Service** ma’lumotlariga ko‘ra, bu sektor o‘sishi an’anaviy moliya tizimidan tezroq. Hozirda Islomiy banklar Malayziya moliya tizimining 40 foizini tashkil etadi. O‘n yil avval bu ko‘rsatkich atigi 20 foiz atrofida edi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda **Yevrosiyo Taraqqiyot Banki (EDB)** xalqaro bozorlarda 500 million dollarlik sukuk chiqarishni rejalashtirayotganini ma’lum qildi. Ushbu yangilik yaqinda Marokashda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va Jahon bankining yillik yig‘ilishida e’lon qilindi.

Sektordagi raqamli innovatsiyalar

Islomiy bank sektori raqamli innovatsiyalar borasida ham rivojlanishda davom etmoqda.

Zamonaviy **raqamli sukuk** (digital sukuk) tizimi tobora ommalashib bormoqda — u qog‘oz hujjatlarni yo‘qotadi va samaradorlikni oshiradi. O‘tgan yili global sukuk bozori 193,2 milliard dollarga baholangan edi.

Research And Markets tomonidan e’lon qilingan hisobotda ta’kidlanishicha, Islomiy bank dasturiy ta’minot bozori ham jadal rivojlanmoqda. Prognozlarga ko‘ra, u 2022-yildan 2027-yilgacha 2,7 milliard dollarga oshib, 10,75 foizlik o‘sish sur’atiga ega bo‘ladi.

Bu o‘sishga bir nechta asosiy omillar turtki bermoqda. Sukuk chiqarilishining ko‘payishidan tashqari, Islomiy banklar tomonidan aqlli kartalar (smart cards) chiqarilishi va bank sohasida mobil xizmatlarga o‘tish jarayonining jadallashuvi ham bunga sabab bo‘lmoqda[8].

O’zbekistanda Islom banklari sari yo’l

O‘zbekistonda islomiy moliya tizimini joriy etish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Islom taraqqiyot banki hamkorligida islomiy bank faoliyatini yo‘lga qo‘yish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, 2025-yil 16-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Islomiy bank faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi. Ushbu qonun loyihasi mamlakatda shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizimni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Markaziy banki raisi o‘rinbosari Abrorxo‘ja Turdaliev ta’kidlaganidek, islomiy moliya o‘ziga xos tamoyillar asosida faoliyat yuritadi. Xususan, foiz evaziga qarz berish, diniy jihatdan man etilgan faoliyat turlarini moliyalashtirish hamda shartnomalarda haddan tashqari noaniqlikka yo‘l qo‘yish qat’iyan taqiqlanadi. Ushbu talablarga rioya etilishi doimiy nazorat ostida bo‘lishi lozim.

Shu sababli, islomiy banklarda faoliyatning shariat standartlariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida islomiy moliya kengashi, islomiy moliya bo‘limi va islomiy audit tizimlarini tashkil etish zarur.

Turdalievning so‘zlariga ko‘ra, islomiy moliyada asosiy faoliyat yo‘nalishlari savdo va hamkorlik asosida moliyalashtirish hisoblanadi. Biroq, amaldagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun banklarga to‘g‘ridan to‘g‘ri savdo operatsiyalarini amalga oshirish va xo‘jalik jamiyatlarining ustav kapitalida ishtirok etishni taqiqlaydi. Bu holat islomiy moliya xizmatlarining to‘liq amalga oshirilishiga cheklov bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Soliq kodeksiga muvofiq, tovarlarni realizatsiya qilish aylanma QQS solig‘iga tortiladi. Natijada, savdo asosidagi islomiy moliyaviy operatsiyalar an’anaviy bank xizmatlariga nisbatan qimmatroq bo‘lishi mumkin.

Islomiy bank tizimini to‘liq joriy etish uchun nafaqat mavjud qonunlardagi cheklovlarni bartaraf etish, balki zarur institutsional asoslarni yaratish talab etiladi. Shu munosabat bilan Soliq va Fuqarolik kodekslari, shuningdek, yana sakkizta qonunga xalqaro tajriba asosida o‘zgartirishlar kiritish rejalashtirilmoqda.

Qonun loyihasida asosiy islomiy moliyaviy operatsiyalar — murabaha, mudaraba, musharaka, vakala va salam kabi shartnomalar aniq belgilab berilgan. Shuningdek, islomiy faoliyat yurituvchi banklarga to‘g‘ridan to‘g‘ri savdo operatsiyalarini amalga oshirish, yangi yuridik shaxslar tashkil etish hamda kompaniyalar kapitallaridagi ulushlarni cheklovlarsiz sotib olish imkoniyati berilishi taklif etilgan.

Shuningdek, Markaziy bank hamda tijorat banklarida Islomiy moliya kengashlari tashkil etilishi, ularning vakolat va funksiyalari aniq belgilanishi nazarda tutilgan. Markaziy bankka esa islomiy moliya standartlarini tasdiqlash, bank kengashlari faoliyatini baholash hamda ularning a’zolariga talablar belgilash vakolati yuklatilmoqda.

Loyihaga ko‘ra, O‘zbekistonda islomiy moliyaviy operatsiyalar uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladi. Turdalievning fikricha, ushbu hujjatning qabul qilinishi mamlakatda islomiy bank faoliyatini xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirish uchun zarur huquqiy asos yaratadi.

Bu, o‘z navbatida, aholiga va tadbirkorlarga islomiy banklar, islomiy “darchalar” (filiallar) hamda mikromoliyaviy tashkilotlar orqali shariatga muvofiq xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Natijada, moliyaviy xizmatlar bozori yanada kengayadi va biznesni qo‘llab-quvvatlashning yangi vositalari paydo bo‘ladi.

Mazkur qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida birinchi o‘qishda bir ovozdan ma’qullandi hamda ikkinchi va uchinchi o‘qishlar uchun tayyorlanmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda aholining 68 foizi va biznes vakillarining 60 foizi diniy e’tiqodi sababli an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanishni istamaydi[9].

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, islomiy bank tizimi nafaqat diniy tamoyillarga asoslangan moliyaviy faoliyat shakli, balki zamonaviy iqtisodiy barqarorlikni ta’mlashga xizmat qiluvchi muqobil tizimdir. Ushbu tizim foizsiz, halol va mas’uliyatli moliyaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashni maqsad qiladi.

O‘zbekiston sharoitida esa, Markaziy bank tashabbusi bilan islomiy moliya bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilmoqda. Qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritilishi natijasida banklarga murabaha, mudaraba, musharaka kabi operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, islomiy moliya kengashlarini tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mamlakatda yangi investitsiya muhitini shakllantirib, aholining ishonchini oshiradi.

Islomiy moliya faoliyati uchun alohida soliq va huquqiy imtiyozlar joriy etilishi lozim. Islomiy moliya kengashi hamda islomiy audit tizimi faoliyatini kuchaytirish, ularning mustaqilligini ta’minlash zarur. Bank xodimlari va mutaxassislar uchun islomiy moliya bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va sertifikatlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Aholi o‘rtasida islomiy bank tizimining afzalliklari haqida targ‘ibot va tushuntirish ishlari kengaytirilishi maqsadga muvofiq. Xalqaro tajribaga tayangan holda, O‘zbekistonda sukuk (islomiy obligatsiya) bozorini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, islomiy moliya institutlarini qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalar va fintech yechimlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, islomiy bank tizimini mamlakatimizda joriy etish iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda xalqaro moliyaviy tizimda O‘zbekistonning nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ariff, Mohamed. Islamic banking. Asian-Pacific Economic Literature Vol. 2, No. 2 (September 1988), pp. 48-64, 1988.
2. Khan, Feisal. "How ‘islamic’is islamic banking?." Journal of economic behavior & organization 76.3 (2010): 805-820.
3. Islom banki qanday ishlaydi: xususiyatlari, prinsiplari va farqlarini
4. Akmal O’g’li, Salohiddinov Asliddin. "Islom moliya bozorida zamonaviy axborot texnalogiyalardan samarali foydalanish." scientific approach to the modern education system 3.31 (2024): 172-174.
5. Ўзбекистонда исломий банклар ташкил этилиши мумкин | Qalampir.uz
6. Islamic banking and finance - Wikipedia
7. https://www.alhudacibe.com/
8. Islamic banking assets to hit $5 trillion by 2025, data reveals
9. Ўзбекистонда тўлақонли исломий банк фаолияти имконлими?

ISLOMIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Melikov Otabek Maxmadaminovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi mudiri
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: o.melikov@dtpi.uz
Xurramova Fotima Bahodir qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Bank ishi va audit” yo’nalishi 3-bosqich talabasi
fotimaxurramova261@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17509908

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom banklarining xizmatlari, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Islom moliya tizimi an’anaviy bank tizimidan farqli ravishda foiz asosida emas, balki sheriklik va savdo asosida faoliyat yuritadi. Maqolada islom banklari tomonidan taqdim etiladigan asosiy xizmatlar – mudaraba, musharaka, murabaha, ijara, istisna va sukuk kabi moliyaviy instrumentlar tahlil qilinadi. Shuningdek, olimlar va iqtisodchilar fikrlari asosida islom banklari xizmatlarining ijtimoiy adolat, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri muhokama qilinadi.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются услуги исламских банков, их роль и значение в экономике. В отличие от традиционной банковской системы, исламская финансовая система функционирует на основе партнерства и торговли, а не на основе процентов. В статье анализируются основные услуги исламских банков, такие как мудариба, мушарака, мурабаха, иджара, истисна и сукук. Кроме того, на основе мнений ученых и экономистов обсуждается влияние услуг исламских банков на социальную справедливость, финансовую стабильность и экономическое развитие.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the services offered by Islamic banks and their importance in the economy. Unlike the conventional banking system, the Islamic financial system operates on the basis of partnership and trade rather than interest. The study examines the main services of Islamic banks, including mudarabah, musharakah, murabaha, ijara, istisna, and sukuk. Furthermore, based on the opinions of scholars and economists, the article discusses the impact of Islamic banking services on social justice, financial stability, and economic development.

Kalit so‘zlar: Islom banklari, Islom moliya tizimi, mudaraba, musharaka, murabaha, ijara, istisna, sukuk, foizsiz bank tizimi, moliyaviy barqarorlik

Ключевые слова: Исламские банки, Система исламских финансов, Мудараба, Мушарака, Мурабаха, Иджара, Истисна, Сукук, Беспроцентная банковская система, Финансовая стабильность.

Keywords: Islamic Banks, Islamic Finance System, Mudarabah, Musharakah, Murabaha, Ijarah, Istisna, Sukuk, Interest-free Banking System, Financial Stability.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda jahon moliya tizimida islomiy moliya va bank xizmatlariga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshib bormoqda. Islom banklari o‘z faoliyatini Qur’on va Shariat qoidalariga asoslangan holda olib borib, an’anaviy banklardan tubdan farq qiladi. Eng asosiy farqi shundaki, islom banklari foiz (ribo) asosida emas, balki sheriklik, savdo va ijara munosabatlariga tayangan holda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi[1].

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 80 dan ortiq davlatda islomiy moliya institutlari faoliyat yuritmoqda. Xalqaro Islom Moliyasi Forumi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra islomiy banklar aktivlari hajmi 3 trillion AQSH dollaridan oshgan[2]. Shu jihatdan, islom banklari xizmatlari nafaqat musulmon aholisi uchun, balki global miqyosda ham barqaror moliyaviy alternativ sifatida qaralmoqda[3].

O‘zbekiston Respublikasida ham islom moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda imzolangan

qarorlarda islom moliyasi bo‘yicha normativ-huquqiy bazani shakllantirish, xalqaro tajribani joriy etish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari alohida qayd etilgan[4].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, islom banklari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, balki ijtimoiy adolat, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi[5]. Chunki ushbu xizmatlarda risklarni adolatli taqsimlash, sheriklik asosida foyda olish va kapitalni real iqtisodiyotga yo‘naltirish ustuvor hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot islom banklari xizmatlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv va nazariy umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi.

Avvalo, islom moliya tizimining nazariy asoslari Qur’oni karim va hadislar, shuningdek, fiqh olimlarining qarashlari asosida o‘rganildi[6]. Abu Yusufning “Kitob al-xaraj” asarida davlat moliyasi va adolatli soliq tizimi asoslari yoritilgan bo‘lsa, Ibn Xaldun “Muqaddima” asarida iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri haqida yozib, adolatli moliyaviy tizim jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ekanini ta’kidlaydi[7].

Shuningdek, zamonaviy iqtisodchi olimlarning qarashlari ham o‘rganildi. Masalan, M. Chapra islomiy moliya tizimini “ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni uyg‘unlashtiruvchi alternativ” deb ta’riflaydi[8]. Z. Iqbal va A. Mirakhorlar esa islom banklarining xizmatlari haqida: “Ular riskni sheriklar o‘rtasida teng taqsimlash orqali moliya tizimini barqaror qiladi” deya ta’kidlashadi[9]. F. Khanning fikricha, “Islomiy moliya xizmatlari moliyaviy vositachilikni real iqtisodiyot bilan bog‘lab, spekulyatsiya xavfini kamaytiradi[10].

Tadqiqot jarayonida xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar va hisobotlardan keng foydalanildi. Jumladan, Islomiy moliya xizmatlari kengashining (IFSB), Islom taraqqiyot banki (IDB) hamda Jahon bankining ma’lumotlari asosida islom banklarining xizmatlari va ularning global miqyosdagi rivojlanishi tahlil qilindi[11].

Metodologiyada, shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida an’anaviy banklar va islom banklari xizmatlari o‘rtasidagi asosiy farqlar ham o‘rganildi. Masalan, M.N. Siddiqiy “foiz asosidagi kreditlash tizimi moliya sektorini spekulyatsiyaga olib boradi, islomiy moliya esa sheriklik orqali investitsiyani rag‘batlantiradi” deya qayd etadi[12].

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot davomida olingan natijalar islom banklarining xizmatlari iqtisodiy tizimda alohida o‘rin tutishini yaqqol ko‘rsatdi. Avvalo, islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi banklar foizsiz kreditlash, sheriklik asosidagi moliyalashtirish, tijorat va investitsion loyihalarda birgalikda ishtirok etish kabi xizmatlar bilan an’anaviy banklardan farq qiladi.

1-Jadval

Islom moliyasi va an’anaviy banklar farqi.

Ko’rsatkich	Islom moliyasi(Islom banklari)	An’anaviy banklar
Asosiy tamoyil	Foiz(ribo) taqiqlangan, foyda va riskni bo’lishishga asoslanadi.	Foiz(prosent) asosida kredit va depozitlar ishlaydi.
Riskni taqsimlash	Investor va bank riskni birgalikda ko’taradi.	Risk asosan qarz oluvchiga yuklanadi.
Moliyaviy operatsiyalar	Real aktivlarga(tovar, xizmat, loyiha) bog’liq bo’lishi shart	Pul asosidagi bitilar keng qo’llaniladi.
Ijtimoiy ma’suliyat	Adolat,halollik va jamiyat manfaatiga xizmat qilishi shart.	Asosan bank foydasi va kapitalni ko’paytirishga yo’naltiriladi.
Moliyaviy vositalar	Murabaha,musharaka,mudaraba,ijara,sukuk va boshqalar.	Kredit,obligatsiya, foizli depozit va boshqalar.

Bu jadvaldan ma’lumki, Islom banklari o‘zining shariyga muvofiq faoliyati orqali real iqtisodiy sektorga tayanadi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, an’anaviy banklarning

ham samaradorlik va tezkorlik jihatidan kuchli tomonlari mavjud bo‘lib, ular global moliya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oxirgi yillarda islomiy moliya xizmatlariga talab ortib bormoqda. Jumladan, 2022-yilda Toshkent shahrida ilk islomiy bank faoliyatini yo‘lga qo‘yish tashabbusi ko‘rilgan va hozirda “Ta’minot banki” bazasida islomiy bank xizmatlari bo‘linmalari joriy etilmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil oxiriga kelib islomiy moliya xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 20 mingdan oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich yil davomida 1,7 barobarga ortgan[13].

Xalqaro tajribaga murojaat qilinganda, Malayziya, Bahrayn, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari islom banklari xizmatlari bo‘yicha yetakchi davlatlar hisoblanadi. Masalan, Malayziyada islom moliyasi sektori mamlakatning umumiy moliya bozorida 30 foizdan ortiq ulushni tashkil etadi[14]. BAAda esa islom banklari aktivlari 2021-yilda 700 mlrd AQSH dollaridan oshgan[15]. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, islomiy bank xizmatlari nafaqat diniy ehtiyojlarni qondiradi, balki iqtisodiy barqarorlik va investitsion muhitni kengaytirishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonda olib borilgan so‘rovlar natijalariga ko‘ra, mijozlarning 65 foizi islom banklari xizmatlarini “adolatli va shaffof moliyaviy mexanizm” sifatida baholagan, 20 foizi esa “an’anaviy banklarga nisbatan xavfsizroq” deb hisoblagan. Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar ham qayd etilgan: xizmatlar turlari cheklanganligi, qonunchilik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va kadrlar malakasining sustligi.

Mutaxassislarning fikrlari ham tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi. Masalan, iqtisodchi olim A. Siddiqiy “islomiy bank xizmatlari kapital bozorida muvozanatni saqlashga yordam beradi va uzoq muddatli investitsiyalarni rag‘batlantiradi” deya ta’kidlaydi[16]. Yana bir olim, O‘zbekistonlik mutaxassis S. Jo‘rayevning fikricha, “islom banklari xizmatlari aholining moliyaviy inklyuziyasi uchun muhim omil bo‘lib, ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish respublika moliya tizimini barqarorlashtiradi”[17].

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, islom banklarining xizmatlari O‘zbekistonda asta-sekin rivojlanib bormoqda. Ammo ularning samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajriba, ilg‘or texnologiyalar va yetuk mutaxassislar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom va moliyaning bog’lanishi. Islom huquqida qonun qoidalarni o’rganuvchi yo’nalish-Fiqh deb ataladi. Moliyaviy masalalarga javob beruvchi fiqh esa fiqh al-Muamalat deb ataladi. Fiqh al-muamalat — bu islom huquqining insonlar o‘rtasidagi iqtisodiy, moliyaviy va tijorat munosabatlarini tartibga soluvchi bo‘limi.“Muamalat” arabchada bitimlar va munosabatlar degan ma’noni bildiradi.Shu bo‘lim moliya va savdo bilan bog‘liq masalalarni shariatga muvofiq tartibga soladi.



2-rasm. Islomda moliyaviy qoiadalar asosi.

Tijorat muomala – insonlar o‘rtasidagi foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan moliyaviy va iqtisodiy bitimlar. Ularga quyidagilar kiradi:

Murabaha-tovarni xarajat narxi va kelishilgan foyda ustamasini qo‘shib mijozga sotish shariyga mos bitimi.

Ijara-uskuna yoki mulkni ijaraga berish, oxirida sotib olish imkoniyati bilan amalga oshiriladi; foyda real aktivdan olinadi.

Istisna-maxsus buyurtma asosida tovar ishlab chiqarish yoki yetkazib berish sharti, to‘lov va yetkazib berish kelishiladi.

Salaam-tovar oldindan sotib olinadi, to‘lov oldindan amalga oshiriladi, yetkazib berish kelajakda bo‘ladi.

Musharaka-sheriklar kapital qo‘shib, foyda va zarar kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, barcha sheriklar faoliyatga qo‘shiladi.

Mudaraba-bir tomon kapital beradi, boshqa tomon ish qiladi; foyda kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, zarar esa faqat kapital egasiga taalluqlidir.

Sukuk-shariyga mos qimmatli qog‘ozlar, foyda real aktiv yoki loyihaga asoslanadi, foiz olinmaydi.

Notijorat moliya — bu ijtimoiy yordam, xayriya va jamiyat farovonligini ta’minlashga qaratilgan, foydasiz moliyaviy faoliyat.Foyda olish emas, balki jamiyat manfaatiga xizmat qiladi.Operatsiyalar shariatga mos va halol bo‘ladi.

- **Zakot**-shariatga muvofiq belgilangan moliyaviy boylikdan muayyan ulushni kambag‘allarga berish amali, ijtimoiy adolatni ta’minlaydi.
- **Sadaqa**-xohlagan miqdorda xayriya yoki yordam mablag‘ini berish, foyda olish maqsad qilinmaydi.
- **Qarz al-hasana**-foizsiz, halol qarz berish, jamiyatdagi ijtimoiy yordamni ta’minlashga xizmat qiladi.
- **Xayriya loyihalari**-shariatga mos ijtimoiy va xayriya faoliyati, jamiyat farovonligini oshiradi.

3-rasm. Notijorat moliyaning turlari.

Qolaversa biz Islom Taraqqiyot bankida davlatlarning ulushini 4-rasmda ko’rishimiz mumkin. Unga ko’ra,Saudiya Arabistoni – eng katta ulushga ega bo‘lib, bankning deyarli chorakdan ko‘prog‘iga egalik qiladi (27.3%). Bu Saudiya Arabistonining mintaqaviy va diniy yetakchi sifatidagi mavqeini ko‘rsatadi.Liviya, Eron, Misr, Turkiya – har biri 8% dan 11% gacha ulushga ega, bu esa ularning ham bankdagi ta’sir kuchi yuqoriligini bildiradi.BAA va Quvayt – boy arab davlatlari sifatida o‘rtacha ulushga ega.Pokiston va Malayziya – islomiy dunyoda ahamiyatli bo‘lishiga qaramay, nisbatan kichik ulushga ega.Boshqalar(13.5%) – bu toifaga bankga a’zo bo‘lgan boshqa ko‘plab kichik mamlakatlar kiradi.



4-rasm. Islom Taraqqiyot bankida katta ulushga ega mamlakatlar.

Islom Taraqqiyot Banki (ITB) – xalqaro rivojlanish banki bo'lib, 1975-yilda tashkil etilgan. Hozirgi kunda 57 ta davlat a'zo bo'lgan.Bankning bosh qarorgohi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. Bugungi kunda bankka 57 ta davlat a'zo bo'lib, ularning ko'pi Islom Hamkorlik Tashkilotiga (IHT) a'zo mamlakatlardir. Bankning ustav jamg'armasi 150 milliard AQSh dollariga teng.

O'zbekiston Islom Taraqqiyot Banki bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Bank O'zbekistonda turli sohalarda 100 dan ortiq loyihalarni moliyalashtirgan. Masalan, 2025-yilda bank O'zbekiston ta'lim tizimiga 40 million dollar ajratish bo'yicha UNICEF bilan hamkorlikni boshladi .



*To March 31, 2022. Source: Eikon.
Copyright © 2022 by Standard & Poor's Financial Services LLC. All rights reserved.

5-rasm. Sukuk (Islomiy obligatsiyalar) bozori: 2017–2022 yillar tahlili.

Islomiy moliya bozori tarkibida muhim o‘rin tutuvchi sukuk (shariatga mos obligatsiyalar) bozori so‘nggi yillarda jadal o‘sish sur’atini namoyon qilmoqda. Quyidagi yillik ma’lumotlar bu jarayonni yaqqol aks ettiradi.

2017-yil: Sukuk chiqarilishi hajmi nisbatan past bo‘lib, bu davrda global bozor endigina shakllanish bosqichida edi.2018-yil: Sukuk hajmi taxminan uch baravarga o‘sdi. Bu o‘sishga sabab sifatida islomiy moliyaviy instrumentlarga bo‘lgan ishonchning ortishi va yangi ishtirokchilarning kirib kelishini ko‘rsatish mumkin.2019-yil: Bozor sezilarli darajada kengaydi. Bu yilda chiqarilgan sukuk hajmi 2018-yildagiga nisbatan ikki baravarga yaqin oshdi.2020-yil: COVID-19 pandemiyasi davrida ko‘pgina mamlakatlar budjet taqchilligini qoplash va iqtisodiyotni rag‘batlantirish uchun sukukdan foydalandi.

Bu yil sukuk hajmi rekord darajaga yaqinlashdi.2021-yil: Bozor tarixidagi eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Global investorlar tomonidan barqaror va etik investitsiyalarga bo‘lgan talab ortdi. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga mos investitsiyalarni tanlov qilish tendensiyasi sukuk bozori o‘sishiga turtki bo‘ldi.2022-yil (1-chorakgacha): Bu davrda chiqarilgan sukuk miqdori hali to‘liq yil bo‘lmaganiga qaramay, oldingi yillardagi hajmga yaqinlashmoqda. Bu esa yil yakunida yana yuqori natijalar kutilayotganini anglatadi.Sukuk bozori so‘nggi besh yilda 10 baravar o‘sgan. Bu o‘sish shariatga mos investitsiya vositalariga bo‘lgan ehtiyojning kuchayganini bildiradi.Bozor nafaqat musulmon davlatlarda, balki xalqaro moliyaviy markazlarda ham rivojlanmoqda.

Sukuk ko‘p hollarda infratuzilma, yashil energiya, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Sukuk bozori global moliyaviy tizimda tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Bu moliyaviy instrument nafaqat shariatga mos, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va investitsiya xavfsizligini ta’minlaydi. Yil sayin o‘sib borayotgan sukuk bozori — islomiy moliyaning global moliyaviy tizimga integratsiyalashayotganining yorqin isbotidir.

Xulosa va Takliflar. Islom banklari xizmatlari an’anaviy bank xizmatlaridan tubdan farq qilib, foizsiz moliyalashtirish, sheriklik asosida investitsiya va adolat tamoyillariga asoslangan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi.O‘zbekistonda islom banklari xizmatlari endigina shakllanayotgan bo‘lsada, aholining ushbu xizmatlarga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Mijozlar so‘rovlarida islomiy bank xizmatlari shaffoflik va adolat tamoyillari bilan ijobiy baholangan.Shu bilan birga, normativ-huquqiy baza to‘liq shakllanmaganligi, kadrlar

salohiyatining yetarli emasligi, texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi ushbu xizmatlarning keng rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Huquqiy bazani mustahkamlash: Islomiy moliya xizmatlarini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilish va xalqaro standartlarga muvofiq me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Kadrlar tayyorlash: Oliy ta’lim muassasalarida islom moliyasi bo‘yicha maxsus kurslar ochish, amaliyotchi mutaxassislarni xalqaro tajribaga o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini kuchaytirish: Islom banklari xizmatlarining mohiyati, afzalliklari va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni haqida keng jamoatchilikka ma’lumot berish orqali mijozlar bazasini kengaytirish mumkin.Umuman olganda, islom banklarining xizmatlari O‘zbekistonda moliya bozorini diversifikatsiya qilish, aholining moliyaviy inklyuziyasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro tajribadan samarali foydalanish va milliy sharoitga mos strategiyalarni ishlab chiqish ushbu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chapra, M.U. Islamic Economics: What It Is and How It Developed. Islamic Research and Training Institute, 2000.
2. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report. Kuala Lumpur, 2024.
3. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons, 2011.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil.
5. Khan, F. “Islamic Banking: Issues and Challenges.” Journal of Islamic Economics, Banking and Finance, 2010.
6. Qur’oni karim, “Baqara” surasi, 275-oyat.
7. Ibn Xaldun. Muqaddima. Beirut: Dar al-Fikr, 2005.
8. Chapra, M.U. Islam and the Economic Challenge. Islamic Foundation, 1992.
9. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons, 2011.
10. Khan, F. “Islamic Banking: Issues and Challenges.” Journal of Islamic Economics, Banking and Finance, 2010.
11. Islamic Financial Services Board (IFSB). Stability Report. Kuala Lumpur, 2023.
12. Siddiqi, M.N. Banking Without Interest. Islamic Publications Ltd., 1983.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari, 2023-yilgi hisobot.
14. Bank Negara Malaysia. Islamic Finance Development Report, 2022.
15. Islamic Financial Services Board (IFSB). Stability Report on the Islamic Financial Services Industry, 2021.
16. Siddiqi, M. N. (2014). Issues in Islamic Banking: Selected Papers. Leicester: The Islamic Foundation.
17. Jo‘rayev, S. (2021). Islomiy bank xizmatlarining O‘zbekistondagi rivojlanish istiqbollari. Moliya va bank ishi jurnali, №2.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOMIY BANK MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Yo'ldoshev Behruz Behzod o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
Moliya yo'nalishi 1-kurs magistranti
Norpo'latov Jonibek O'rol o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
Moliya yo'nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510103

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston moliya tizimida islomiy bank mahsulotlarini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Islomiy moliya tamoyillarining mohiyati, ularning milliy iqtisodiy tizimga mosligi, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, islomiy moliya vositalari kichik biznes uchun adolatli, barqaror va diniy e'tiqodlarga mos moliyaviy manba bo'lishi mumkinligi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, kichik biznes, tijorat banklari, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, moliyaviy inklyuziya.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosatining markazida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi turibdi. Chunki kichik biznes mamlakatda bandlikni ta'minlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, ichki bozorni to'ldirish va eksport salohiyatini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji yuqori, ammo ularning tijorat banklaridan kredit olish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda.

An'anaviy bank tizimida kreditlar foizli qarz shaklida beriladi, bu esa ko'plab tadbirkorlar uchun, ayniqsa diniy e'tiqodlarga sodiq bo'lganlar uchun, ma'lum noqulaylik tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, islomiy moliya konsepsiyasi kichik biznesni moliyalashtirishda muqobil va adolatli mexanizm sifatida e'tiborga loyiqdir. Islomiy moliya Shariat tamoyillariga asoslanadi, ya'ni *ribo* (foiz), *g'arar* (noaniqlik) va *maysir* (spekulyatsiya)ni taqiqlaydi hamda moliyaviy operatsiyalarni haqiqiy aktivlar bilan bog'laydi.

Islomiy banklar *murabaha*, *musharaka*, *mudaraba* va *ijara* kabi vositalar orqali mijozlar bilan sheriklik asosida ishlaydi. Bu yondashuv nafaqat diniy e'tiqodlarga mos, balki risklarni bo'lishish va foydani adolatli taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonning islomiy moliya tizimini joriy etish uchun tabiiy afzalligi — musulmon aholining ustunligi va hukumatning moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilishga bo'lgan siyosiy irodasi bilan izohlanadi[1].

Shuningdek, islomiy moliya vositalari kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq joylarda tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Malayziya, Indoneziya, Turkiya, BAA kabi mamlakatlar tajribasi islomiy bank mahsulotlarining iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini yaqqol ko'rsatmoqda.

Islomiy moliya — bu foizsiz, sheriklik va adolatga asoslangan moliya tizimi bo'lib, u Shariat qonun-qoidalariga muvofiq faoliyat yuritadi. Uning asosiy maqsadi moliyaviy foyda olish bilan birga, iqtisodiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va inson manfaatini himoya qilishdir. Shariatda *ribo* (foiz), *g'arar* (noaniqlik) va *maysir* (spekulyatsiya) qat'iyan man etilgan bo'lib, barcha moliyaviy bitimlar real aktivlarga asoslangan bo'lishi kerak[2].

Islomiy banklar an'anaviy banklardan farqli ravishda foizli kredit berish o'rniga sheriklik yoki savdo asosidagi moliyalashtirish shakllaridan foydalanadi. Ularning daromadi foizdan emas, balki loyihaning

[1] Absamatov A. E. (2024). *Implementing Islamic Banking Services in Uzbekistan. Journal of Economics, Finance and Management Studies,* Vol. 7(8), 4888–4898.
[2] Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Overview of the Banking Sector.*

foydasidan, savdo marjasidan yoki ijaradan olinadi. Bu yondashuv nafaqat diniy jihatdan to‘g‘ri, balki iqtisodiy jihatdan ham risklarni adolatli taqsimlash imkonini beradi[3].

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi — aynan ushbu sektorni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishdan iborat. Kichik biznes iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida faoliyat yuritib, yalpi ichki mahsulotning qariyb yarmidan ortig‘ini shakllantirmoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi 56 foizni, band aholining esa 74 foizini tashkil etgani bu sohaning iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi[4].

Mamlakatda tijorat banklari tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli davlat dasturlari, subsidiyalar va imtiyozli kredit liniyalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning amaliy samarasi hanuz yetarli darajada emas. Ayniqsa, qishloq joylardagi kichik tadbirkorlar bank xizmatlariga yetarlicha kira olmayapti. Buning sabablari sifatida moliya infratuzilmasining rivojlanmaganligi, axborot yetishmovchiligi va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi ko‘rsatiladi.

Kichik biznes subyektlari uchun mavjud moliyalashtirish manbalari asosan kreditlar va lizing shartnomalaridan iborat bo‘lib, ular ko‘pincha qisqa muddatli va yuqori xarajatli hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan uzoq muddatli kapitalni jalb etishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, an’anaviy bank tizimining imkoniyatlari kichik biznesning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti.

Yuqoridagi omillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi, moslashuvchan va adolatli moliyaviy mexanizmlarga ehtiyoj mavjud. Aynan shu nuqtada islomiy moliya tizimi katta imkoniyatlar yaratadi. Islomiy moliya vositalari — murabaha, musharaka, mudaraba, ijara va takaful kabi mahsulotlar — tadbirkorlik faoliyatini foizsiz, sheriklik asosida moliyalashtirishga yo‘l ochadi. Bu model kichik biznes uchun foyda va risklarni adolatli taqsimlash orqali yangi moliyaviy manbalarni yaratish imkonini beradi.

O‘zbekiston moliya tizimida islomiy bank mahsulotlarining joriy etilishi kichik biznes uchun yangi bosqichni boshlab berishi mumkin. Mamlakat aholisi asosan musulmon bo‘lgani sababli, aholining ma’lum qismi an’anaviy bank kreditlarini diniy sabablarga ko‘ra chetlab o‘tadi. Shu sababli, foizsiz moliyaviy vositalar asosidagi islomiy bank mahsulotlari, ayniqsa kichik va o‘rta biznes uchun, moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning eng muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Islomiy moliya tizimi o‘z tabiatiga ko‘ra tadbirkorlikni rag‘batlantiradi. U faqat real aktivlarga asoslangan bitimlarni moliyalashtiradi, bu esa iqtisodiyotning real sektoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni yo‘naltirish imkonini beradi. Masalan, murabaha modeli kichik korxonalarga tovar yoki uskunalarni sotib olish uchun, ijara esa ishlab chiqarish vositalarini lizing asosida moliyalashtirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Musharaka va mudaraba esa tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirishda bank va mijoz o‘rtasida sheriklik asosida foyda-zararni teng taqsimlaydi. Bu holat kichik biznesning moliyaviy yukini yengillashtirib, risklarni kamaytiradi.

Islomiy moliya tizimi yordamida kichik biznesni rivojlantirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, u diniy e’tiqodga mos muhit yaratadi; ikkinchidan, tadbirkorlar uchun kredit yukini kamaytiradi; uchinchidan, foyda va riskni adolatli taqsimlash orqali o‘zaro ishonchni kuchaytiradi.

Bugungi kunda dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik biznesni islomiy moliyalashtirish ko‘plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli natijalar bergan. Masalan, Malayziya va Indoneziyada islomiy banklar kichik korxonalarga moslashtirilgan maxsus mikrofinans mahsulotlarini ishlab chiqqan. Bahrayn va Birlashgan Arab Amirliklarida islomiy mikrobanklar jamiyatning past daromadli qatlamlarini, shu jumladan ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu kabi modelni O‘zbekistonda ham joriy etish kichik biznes uchun sezilarli turtki berishi mumkin.

[3] Iqbal Z., Mirakhor A. *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice.* John Wiley & Sons.
[4] https://www.stat.uz/

O‘zbekistonning moliya tizimi islomiy moliyani joriy etishga tayyorligini ko‘rsatuvchi bir necha omillar mavjud. Birinchidan, hukumat darajasida islomiy moliyaga nisbatan siyosiy qo‘llab-quvvatlash kuchaymoqda. So‘nggi yillarda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda, shu jumladan, islomiy mikrofinans institutlarini tashkil etish va Shariatga muvofiq qonunchilikni ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. Ikkinchidan, O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar doirasida bank sektorini liberallashtirish va xususiy sektor ulushini oshirish yo‘lida qadamlar tashlanmoqda. Bu esa yangi turdagi moliyaviy xizmatlar, jumladan islomiy bank mahsulotlarini joriy etish uchun qulay muhit yaratadi.

Biroq, bu jarayonni to‘liq amalga oshirish uchun muhim shartlar mavjud. Birinchi navbatda, mamlakatda islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy baza to‘liq shakllantirilishi zarur. Hozirda islomiy moliyaga oid qonunlar loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, u amaliyotda to‘liq joriy etilmagan. Shuningdek, tijorat banklarida Shariat kengashlarini tashkil etish, moliyaviy bitimlarning halolligini nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Ikkinchi muhim masala — kadrlar tayyorlash. Islomiy moliya sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi bu tizimni joriy etishda jiddiy to‘siqlardan biridir. Shu sababli, universitetlar, jumladan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent xalqaro islom akademiyasi bazasida islomiy moliya bo‘yicha maxsus magistratura dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi yo‘nalish — aholi va tadbirkorlar o‘rtasida islomiy moliya bo‘yicha savodxonlikni oshirish. Bugungi kunda ko‘plab tadbirkorlar islomiy bank mahsulotlarining mohiyatini to‘liq tushunmaydi. Shu bois, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, seminarlar va treninglar orqali aholining bu boradagi bilimini kengaytirish zarur.

Islomiy moliyaning rivojlanishi kichik biznes uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Xususan, islomiy mikrofinans tashkilotlari orqali kichik hajmdagi, lekin barqaror va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar moliyalashtirilishi mumkin. Masalan, qishloq joylarda hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yoki xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida islomiy asosda kreditlash mexanizmlarini joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy natija beradi — bandlik oshadi, kambag‘allik kamayadi va tadbirkorlik muhiti mustahkamlanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari faoliyati mamlakatning iqtisodiy barqarorligini, bandlikni va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznesni moliyalashtirishda mavjud an’anaviy bank tizimi ularning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Yuqori foiz stavkalari, qattiq garov talablari, kredit olish jarayonidagi byurokratik to‘siqlar, shuningdek aholining diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq muammolar ushbu sohada yangi, adolatli va barqaror moliyaviy mexanizmlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, islomiy moliya tizimi O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni moliyalashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Islomiy moliya vositalari — murabaha, mudaraba, musharaka, ijara va takaful — kichik biznesga foizsiz, riskni sheriklik asosida bo‘lishuvchi, adolatli moliyaviy yechimlarni taqdim etadi. Bunday tizim kichik tadbirkorlik uchun nafaqat muqobil manba, balki uzoq muddatli barqarorlik kafolati bo‘lishi mumkin.

Islomiy bank mahsulotlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida ayrim muammolar mavjud. Ulardan eng asosiysi — islomiy moliyani tartibga soluvchi huquqiy baza hali to‘liq shakllanmaganidir. Shuningdek, kadrlar tayyorlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, Shariat kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va xalqaro tajribani moslashtirish zarur. Bu muammolar bosqichma-bosqich hal etilsa, O‘zbekistonda islomiy moliya tizimi barqaror shaklda rivojlanadi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqiy-me’yoriy bazani mustahkamlash. Islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun va normativ hujjatlar ishlab chiqilishi, Shariatga muvofiq moliyaviy operatsiyalarni nazorat qiluvchi idoralar tashkil etilishi lozim.
2. Tijorat banklarida islomiy bo‘limlar tashkil etish. An’anaviy banklar tarkibida Shariatga mos xizmatlar ko‘rsatadigan maxsus bo‘limlarni yaratish kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

3. Aholi va tadbirkorlar moliyaviy savodxonligini oshirish. Ommaviy axborot vositalari, seminarlar, treninglar orqali islomiy moliya mohiyatini tushuntirish va unga nisbatan ijobiy ishonchni shakllantirish muhim.
4. Raqamli islomiy moliya tizimini joriy etish. Fintech asosidagi onlayn platformalar orqali islomiy moliyalashtirish xizmatlarini kengaytirish nafaqat shahar, balki qishloq hududlarida ham kichik biznesni qamrab olishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, islomiy moliya vositalarini O‘zbekiston moliya tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish orqali kichik biznesni rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizimni yaratish mumkin. Islomiy bank mahsulotlari kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochadi, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kengaytiradi va milliy rivojlanish strategiyasiga to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Absamatov A. E. (2024). *Implementing Islamic Banking Services in Uzbekistan. Journal of Economics, Finance and Management Studies,* Vol. 7(8), 4888–4898.
2. Iqbal Z., Mirakhor A. *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice.* John Wiley & Sons.
3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Overview of the Banking Sector.*
4. https://stat.uz – O‘zbekiston rasmiy statistika qo‘mitasi sayti

“O‘ZBEKİSTON SHAROİTİDA CHİQİNDİLARNİ QAYTA İSHLASH KORXONALARİNİ MOLİYALASHTİRİSHNİNG AFZALLİKLARİ VA KAMCHİLİKLARİ”

Xudoyberdiyev Muhammad Norqobil o`g`li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o‘qituvchi
tel: +998 (90) 418-97-01
E-mail: m62660152@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510131

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida chiqindilarni qayta ishlash sohasini moliyalashtirishning mavjud holati, afzalliklari va kamchiliklari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan bir qatorda iqtisodiy o‘sishni ham rag‘batlantiradi.

Kalit so‘zlar: chiqindilarni qayta ishlash, moliyalashtirish, yashil iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, ekologik barqarorlik, investitsiya, O‘zbekiston.

O‘zbekistonda ekologik muammolarni hal etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu jihatdan chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi — loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshishining asosiy omilidir.

Tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, xalqaro moliya institutlarining grant va kredit dasturlari, shuningdek, investitsiya muhitining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash sohasini moliyalashtirishning afzalliklari — ekologik foyda, iqtisodiy samaradorlik, yangi ish o‘rinlari yaratish va resurslarni tejash bilan bog‘liq. Shu bilan birga, yuqori boshlang‘ich sarmoya, moliyaviy risklar, texnologik va kadrlar salohiyatining cheklanganligi kabi kamchiliklar mavjud.

Moliyalashtirish iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U kapital resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanish va ularning qaytishini ta’minlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalari esa, o‘z tabiati bilan **kapital talab qiluvchi soha** bo‘lib, yuqori texnologiyalarni, logistika tizimini va ekologik xavfsizlik me’yorlarini talab qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi **PQ–4821-sonli qarori** bilan tasdiqlangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasi”da chiqindilarni qayta ishlash, qayta foydalanish va energiya ishlab chiqarish loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

№	Yo‘nalishlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	Iqtisodiy samaradorlik	Qayta ishlangan chiqindilar ikkilamchi xomashyo sifatida ishlab chiqarishga kiradi, import hajmini kamaytiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiradi.	Yuqori boshlang‘ich sarmoya talab etiladi, sarmoya qaytish muddati uzoq.
2	Investitsion jozibadorlik	Davlat va xalqaro moliya institutlari (EBRD, UNDP, GEF) tomonidan grant va kredit dasturlari mavjud holatda ajratilishi.	Kredit stavkalari yuqoriligi hamda kichik korxonalar uchun moliyalashtirish imkoniyati cheklangan.
3	Ekologik barqarorlik	Chiqindilar hajmi kamayadi, poligonlar yuklamasi yengillashadi, havoga chiqayotgan zararli modda kamayadi.	Ekologik nazorat va chiqindilarni saralash tizimi yetarlicha shakllanmaganligi.

4	Energiya tejamkorlik	Qayta ishlangan chiqindilardan energiya olish tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytiradi.	Energiya ishlab chiqaruvchi texnologiyalar importga bog‘liqligi, energiya ishlab chiqarish samaradorligi past darajadaligi.
5	Ijtimoiy samaradorlik	Yangi korxonalar yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholi bandligi oshadi.	Soha mutaxassislari, texnik kadrlar yetishmasligi.
6	Resurslardan oqilona foydalanish	Qayta ishlash tabiiy resurslardan foydalanish bosimini kamaytiradi.	Qayta ishlangan mahsulotlarning ichki bozordagi talab darajasining pastligi.
7	Hududiy rivojlanish	Viloyat va tumanlarda chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash infratuzilmasi rivojlanadi.	Ba’zi hududlarda logistika va tashish tizimi rivojlanmagan.
8	Davlat-xususiy sheriklik	Davlat kafolatlari bilan investorlar jalb qilinadi, barqaror moliyalashtirish mexanizmi yaratiladi.	Sheriklik jarayonida byurokratik to‘siqlar va uzoq muvofiqlashtirish jarayonlari mavjudligi.
9	Xalqaro integratsiya	O‘zbekiston “yashil iqtisodiyot” sohasida xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.	Global moliya resurslariga kirish raqobatli qat’iy talablarni oshiradi.
10	Texnologik rivojlanish	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish.	Import texnologiyalariga qaramlik va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarining yuqoriligi.

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirishning afzalliklari va kamchiliklari (1-jadval)

Xulosa: O‘zbekiston sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu sohani rivojlantirish orqali chiqindilardan foydalanish samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarga bo‘lgan bosimni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, huquqiy bazani mustahkamlash hamda aholi va biznes subyektlari o‘rtasida ekologik mas’uliyatni oshirish zarur.

O‘zbekiston sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish ko‘plab ijobiy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni beradi. Biroq, bu sohada barqaror moliyaviy model yaratish uchun quyidagilar muhim:

- davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish;
- xalqaro grantlar va “yashil” kredit liniyalarini jalb etish;
- soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish;
- texnologik modernizatsiya va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Natijada chiqindilarni qayta ishlash sohasi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, chiqindilarni qayta ishlash sohasini samarali moliyalashtirish — bu nafaqat ekologik muammo yechimi, balki O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim bo‘g‘inidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNIDO (2021). *Circular Economy in Central Asia.*
2. OECD (2023). *Financing Waste Management and Recycling Projects.*
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4821-sonli qarori “Yashil iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil.
4. Jahon banki (2022). *Uzbekistan: Green Growth and Waste Management.*
5. “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun, 2021-yil 5-aprel.

“O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Mamitova Sabina Bakir qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Bank ishi va audit yo`nalishi 4-bosqich talabasi
Mamitovasabina004@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510173

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonining dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Bank tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro moliya standartlariga moslashtirish, korporativ boshqaruv, raqamli texnologiyalar va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash kabi yo‘nalishlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, banklarni transformatsiya qilish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda mavjud muammolar, ularni hal etish bo‘yicha takliflar hamda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pul bozori, moliya tizimi, Markaziy bank, likvidlik, moliyaviy instrumentlar, pul-kredit siyosati, elektron to‘lov tizimlari, raqamli valyuta, iqtisodiy rivojlanish.

So‘nggi yillarda jahon moliya bozorida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni taqozo etmoqda. Banklar nafaqat moliyaviy vositachilik vazifasini bajaruvchi institut, balki iqtisodiy taraqqiyotning drayveri sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Shu boisdan ham raqamli texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va xizmatlar sifatini oshirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston bank tizimi misolida olib qaralganda, so‘nggi besh yil davomida sezilarli o‘zgarishlarga erishildi. [1]Avvalo, banklarning transformatsiyasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda banklar raqamli xizmatlarni kengaytirish, xalqaro standartlarga moslashish va mijozlarga qulay moliyaviy muhit yaratishga intilmoqda. Misol tariqasida, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining yildan-yilga ortishi, mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmining keskin o‘sishi keltirilishi mumkin. Bu esa banklarning yangi avlod mijozlar talabiga moslashayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, banklarda korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish natijasida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlik darajasi oshmoqda. Boshqaruv organlarida mustaqil direktorlar ulushining ko‘payishi, risk-menejment bo‘limlarining faoliyatini kuchaytirish ham transformatsiya samaradorligining muhim natijalaridan biridir. Bu esa xalqaro investorlarga ishonch bag‘ishlaydi va banklarning xalqaro reytinglarda yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga zamin yaratadi.

“Transformatsiya qilish” so‘zi lotincha “transformare” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘zgartirish”, “yangilash”, “tubdan isloh qilish” degan ma’noni bildiradi. **Transformatsiya qilish** – bu tizim, tashkilot yoki jarayonni **zamonaviy talablarga mos holda o‘zgartirish va takomillashtirish** demakdir.

Tijorat banklarini transformatsiya qilish deganda — banklarning boshqaruv tizimi, moliyaviy faoliyati, xizmat ko‘rsatish shakli va texnologiyalarini zamonaviy xalqaro standartlarga mos ravishda tubdan yangilash jarayoni tushuniladi.[2]

O‘zbekistonda bank transformatsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Korporativ boshqaruvni joriy etish** — ya’ni bank faoliyatini xalqaro menejment usullari asosida boshqarish.
2. **Raqamli texnologiyalarni qo‘llash** — masalan, mobil bank, internet banking, onlayn kreditlash.
3. **Moliyaviy shaffoflikni oshirish** — xalqaro buxgalteriya va hisobot standartlarini joriy etish (IFRS).
4. **Davlat ulushini kamaytirish** — banklarni xususiylashtirish va investorlar jalb etish.

[1] Karimov, I. (2021). O‘zbekiston bank tizimida transformatsion islohotlar: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti
[2] Qodirov, S. (2023). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya: imkoniyat va xavf-xatarlar. Toshkent: TDIU ilmiy jurnali.

5. **Risk-menejment tizimini rivojlantirish** — risklarni aniqlash va boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish.

Tijorat banklarini transformatsiya qilish yo‘nalishlari[3]1 -jadval

Yo’nalish	Amalga oshirilayotgan islohotlar	Maqsad	Kutilayotgan natija
Korporativ boshqaruvni takomillashtirish	Xalqaro IFRS standartlarini joriy etish, kuzatuv kengashlarini mustahkamlash	Shaffoflikni oshirish	Banklar faoliyatining ishonchliligi ortadi
Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Mobil ilovalar, onlayn kreditlash, raqamli to’lov tizimlari	Mijozlarga qulaylik yaratish	Xizmat sifati va tezligi oshadi
Davlat ulushini kamaytirish	Banklarni xususiylashtirish, aksiyalarni xalqaro bozorlarga chiqarish	Bozor raqobatini kuchaytirish	Xususiy sektor ulushi ortadi
Risk-menejment tizimini kuchaytirish	Xalqaro risk tahlil metodlarini tatbiq etish	Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash	Kredit sifati yaxshilanadi

Transformatsiya jarayonlarining iqtisodiyotdagi real ta’sirini tahlil qilishda statistik ko‘rsatkichlar muhim manba sifatida xizmat qiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bank-moliya sektori hajmi va sifati jihatidan keskin o‘sib bormoqda. Masalan, 2020-yilda tijorat banklarining aktivlari hajmi qariyb 325 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 700 trln so‘mdan oshdi. Shu davr ichida banklarning ustav kapitali ham ikki baravarga ko‘payib, xalqaro moliya bozorida faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirdi.[4]

Raqamlashtirish ko‘rsatkichlariga to‘xtalsak, 2020-yilda mobil bankingdan foydalanuvchi mijozlar soni 4 million atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 12 milliondan oshdi. Bu esa transformatsiya jarayonlarining aholi orasida keng qamrovli natija berayotganini ko‘rsatadi. Qolaversa, pandemiya davrida shakllangan masofaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj banklarni yangi biznes-modellarga o‘tishga majbur etdi. Shu sababli bugungi kunda banklarning daromad strukturasida raqamli xizmatlar ulushi tobora ortib bormoqda.

Tijorat banklari transformatsiyasining bosqichlari[5] 2-jadval

Bosqich	Mazmuni	Davr	Natijasi
1-bosqich	Bank tizimini tahlil qilish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish	2020–2021	Bank sektorini isloh qilish dasturi ishlab chiqildi
2-bosqich	Davlat ulushini kamaytirish va xususiylashtirish jarayonini boshlash	2021–2023	Asaka Bank, Ipoteka Bank transformatsiya dasturiga kiritildi
3-bosqich	Raqamli transformatsiya va xalqaro moliya standartlariga o’tish	2023–2025	Banklarning raqobatbardoshligi oshmoqda

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan banklar moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Singapur va Janubiy Koreya banklari raqamli transformatsiya jarayonini fintech kompaniyalari bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘ygan holda mijozlarga

[3] Jadval saytlar ma`lumotlar asosida muallif tomonidan yaratildi
[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992- son Farmoni. Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.
[5] Jadval saytlar ma`lumotlar asosida muallif tomonidan yaratildi

24/7 xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratdi. Natijada ularning moliyaviy ko‘rsatkichlari va xalqaro reytinglari oshib, bank tizimining jozibadorligi kuchaydi. O‘zbekiston banklari uchun ham bu tajribalar amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatda fintech bozorining rivojlanish sur’atlari yuqori. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarida transformatsiya nafaqat xizmatlar sifatini oshirish, balki moliyaviy inklyuziyani ham kengaytiradi. Aholining uzoq hududlarda yashovchi qatlamlari masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shu orqali jamg‘arma va investitsion imkoniyatlar ortib, iqtisodiyotga qo‘shimcha kapital oqimi ta’minlanmoqda.

Kelgusidagi istiqbollarga nazar tashlasak, banklar transformatsiyasining samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- Xalqaro standartlarga to‘liq moslashish (IFRS, Basel III, ESG talablari);
- Moliyaviy ekotizim yaratish, ya’ni bank, sug‘urta, investitsiya va to‘lov xizmatlarini yagona platformaga jamlash;
- Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash, chunki elektron to‘lovlar hajmining ortishi bilan kiberxavflar xavfi ham ko‘paymoqda;
- Yashil moliyalashtirish va ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, bu orqali banklarning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi kuchayadi[6].

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar va natijalar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayoni bugungi kunda nafaqat iqtisodiy zarurat, balki moliyaviy tizimning barqaror rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Transformatsiyaning markazida raqamlashtirish, xalqaro standartlarga moslashish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish turibdi. Bu jarayon mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi va xalqaro moliya bozorida ularning mavqeini yuksaltiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda bank tizimida transformatsiya “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda masofaviy xizmatlarni kengaytirish, fintech hamkorliklarini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bu esa nafaqat moliyaviy xizmatlarning jozibadorligini oshiradi, balki aholining keng qatlamlari uchun moliyaviy inklyuziyani ta’minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tijorat banklari transformatsiyasini takomillashtirish:

- banklarning raqamli ekotizim yaratish salohiyatini kuchaytiradi;
- xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish imkoniyatini oshiradi;
- yashil moliyalashtirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi;
- eng muhimi, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtiradi. Shunday qilib, transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilsa, O‘zbekiston tijorat banklari nafaqat mintaqaviy, balki global moliya bozorida ham munosib o‘rin egallash imkoniga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. (2021). O‘zbekiston bank tizimida transformatsion islohotlar: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992- son Farmoni. Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.
3. Qodirov, S. (2023). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya: imkoniyat va xavf-xatarlar. Toshkent: TDIU ilmiy jurnali.

[6] Qodirov, S. (2023). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya: imkoniyat va xavf-xatarlar. Toshkent: TDIU ilmiy jurnali.

ISLOMIY BANKLAR VA AN'ANAVIY BANKLAR O'RTASIDAGI FARQ TAHLILI

Sobirjonova Manija
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
4MM-24 guruh talabasi
Gmail: manijasobirjonova4@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510208

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy banklar va an'anaviy banklar orqali uy sotib olishning muhim jihatlari o'rganiladi. Islomiy banklar shariat tamoyillariga asoslanib faoliyat yuritadi, foiz (riba)ni taqiqlaydi va axloqiy moliyaviy operatsiyalarni targ'ib qiladi. An'anaviy banklar esa foizga asoslangan moliyalashtirishni taklif qiladi. Maqolada moliyalashtirish usullari, shartnoma tuzilmalari, shaffoflik, axloqiy yondashuv, kredit baholash, dastlabki to'lov, me'yoriy talablar va xatarni bo'lishish kabi asosiy jihatlar tahlil qilinadi. Ushbu jihatlarni tushunish, uy xarid qilishni rejalashtirayotgan shaxslar uchun mavjud moliyaviy variantlarni to'g'ri tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Islom banklari, an'anaviy banklar, uy sotib olish, moliyalashtirish usullari, shariatga muvofiqlik, foizga asoslangan moliyalashtirish, Murabaha, Ijara, Musharaka, kreditni baholash, oldindan to'lov, xavfni bo'lishish, shaffoflik, axloqiy jihatlar, tartibga solish talablariga rioya qilish.

Kirish

Uy-joyga bo'lgan talab insoniyat uchun asosiy ehtiyoj sifatida doimiy ahamiyatga ega. Aholi sonining o'sishi bilan bu talab tobora ortib bormoqda. Natijada, aholi daromad darajalari bilan uy-joy narxlari o'rtasida katta tafovut yuzaga keladi. Bu esa xarid qilish qobiliyatini pasaytirib, uzoq muddatli to'lov rejalarini zarur qiladi. Shu sababli, O'zbekistondagi banklar kabi dunyoning boshqa mamlakatlaridagi banklar ham uy-joy sotib olishni osonlashtirish uchun ipoteka kreditlarini taklif etadilar. Biroq, boshqa sohalarda bo'lgani kabi, bu sohada ham muammolar va kamchiliklar mavjud. Uy-joy narxlarining oshishi, yuqori foiz stavkalari va jarimalar, diniy e'tiqodlarga mos kelmasligi, murakkab to'lov tuzilmalari kabi masalalar keng tarqalgan. Ayniqsa, aholining diniy ongining oshishi an'anaviy ipoteka kreditlariga bo'lgan talabni kamaytirib, Islomiy bank xizmatlariga qiziqishni oshirmoqda. Shuning uchun, Islomiy banklar va an'anaviy banklarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi uy-joy moliyalashtirish kontekstida Islomiy banklar va an'anaviy banklarning afzalliklari va kamchiliklarini o'rganish va taqqoslashdir. Ushbu jihatlarni chuqur tahlil qilish orqali, aholining uy-joy ehtiyojlarini qondirishda har ikkala bank tizimining mosligi va samaradorligi haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, ushbu tahlil siyosat ishlab chiquvchilar va moliyaviy muassasalarga uy-joy moliyalashtirish sohasida iste'molchilarning o'zgarib borayotgan talab va afzalliklariga mos strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Adabiyotlarni tahlil qilish:

Bir nechta ilmiy ishlar Islomiy banklar orqali uy-joy moliyalashtirishni tushunishga sezilarli hissa qo'shgan. Michael JT McMillenning "Islamic Housing Finance: A Conceptual Overview" maqolasi shariatga mos uy-joy moliyalashtirish prinsiplari va tranzaksiya tuzilmalari haqida asosiy tushuncha beradi. Maqolada eng ko'p qo'llaniladigan oltita moliyalashtirish shakli, jumladan ijara (ijara), kamayuvchi sheriklik (musharaka mutanaqisa), xarajat va sotish (murabaha va tawarruk), keyinchalik to'lovli sotish (bay' bithaman ajil) va ikki darajali qurilish shartnomasi moliyalashtirish (istisna'a - parallel istisna'a) qisqacha bayon etilgan. Ushbu kontseptual ko'rinish Islomiy uy-joy moliyalashtirish asoslarini o'rganayotganlar uchun qimmatli manbadir.

Mufti Muhammad Taqi Usmoniyning "Introduction to Islamic Finance" kitobi Islomiy moliya, jumladan uy-joy moliyalashtirishning turli jihatlari bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi. Usmoniy islomiy huquqshunoslik va moliyaviy sohadagi tajribasi bilan ushbu sohadagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

Norazlina Abd Vahabning "Islamic Social Finance Initiatives: An Insight into Bank Islam Malaysia Berhad's Innovative BangKIT Microfinance Product" maqolasi esa Islomiy ijtimoiy moliya tashabbuslariga,

xususan Bank Islam Malaysia Berhadning BangKIT mikro moliyalashtirish mahsulotiga e'tibor qaratadi. Ushbu maqola ijtimoiy moliyalashtirishning, shu jumladan mikro moliyalashtirishning, Islomiy moliya doirasida uy-joy ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Oybek Ahmadjonovning "Islamic Finance and Banking" asari Islomiy moliya tamoyillari va amaliyotlari, jumladan uy-joy moliyalashtirishga oid keng qamrovli sharhni taqdim etadi. Ahmadjonovning Islomiy bank faoliyatlari va moliyaviy vositalarni tahlili shariat prinsiplari asosida uy-joy sotib olish jarayonlarini tushunishni yanada boyitadi.

Umuman olganda, ushbu asarlar Islomiy uy-joy moliyalashtirish haqida tushunchani chuqurlashtirib, tranzaksiya tuzilmalari, prinsiplari va innovatsion tashabbuslar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ular tadqiqotchilar, siyosatchilar va amaliyotchilar uchun Islomiy moliya doirasida uy-joy moliyalashtirish murakkabliklarini yengib o‘tishda yo‘riqchi bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda uy-joy moliyalashtirish kontekstida Islomiy banklar va an’anaviy banklarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish hamda taqqoslash uchun turli tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda quyidagi metodologiyalar ishlatildi: mantiqiy tahlil, sabab-oqibat aloqalari tahlili hamda rasmiy statistik ma’lumotlarni umumlashtirish usullari.

Tahlil va natijalar. Islomiy bankchilik – bu Islom qonunlari yoki shariatga asoslangan moliyaviy tizim bo‘lib, u islom olimlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi va axloqiy hamda ijtimoiy javobgar investitsiyalarni rag‘batlantirishni maqsad qilgan. Islomiy moliya kreditlarga foiz qo‘shishni va jamg‘arma hisoblaridan foiz to‘lashni taqiqlaydi, buning o‘rniga moliyaviy operatsiyalarda foyda va zarar ulushini bo‘lish kabi boshqa mexanizmlardan foydalanadi. Islomiy bankchilik payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ta’limotlariga asoslanib, barcha moliyaviy operatsiyalarda halollik, adolat va axloqiy xulq-atvorning muhimligini ta’kidlaydi.

Islomiy moliya "murabaha" (foyda ulushi) va "vakala" (vakillik) prinsiplari asosida ishlaydi, bu esa foiz hisoblamasdan moliyalashtirish operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Kreditlarga foiz qo‘ymasdan, Islomiy moliya foyda ulushi tizimidan foydalanadi, bunda qarz beruvchi qarz oluvchining biznesidan olingan foydaning bir qismini oladi. Bundan tashqari, Islomiy moliyada "mudarabah" (qo‘shma korxona) tushunchasi mavjud bo‘lib, bunda bir sherik boshqasining biznesiga sarmoya kiritadi. Tomonlar oldindan kelishilgan tarzda foydani taqsimlaydilar, agar zarar bo‘lsa, sarmoya kiritgan tomon barcha zararlarni o‘z zimmasiga oladi, ishni bajaruvchi esa o‘z mehnati va vaqtini yo‘qotadi.

Umuman olganda, Islomiy bankchilik shariat prinsiplari asosida faoliyat yurituvchi moliyaviy tizim bo‘lib, axloqiy va ijtimoiy javobgar investitsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. U foyda va zarar ulushini bo‘lish mexanizmlariga katta e'tibor qaratadi va so‘nggi yillarda axloqiy va ijtimoiy javobgar investitsiyalarga qaratilgan yondashuvlari sababli mashhurlik kasb etmoqda.

Hozirgi kunda an’anaviy bank tizimida ipoteka krediti berish tartibi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. **Ariza berish:** Qarzdor bankka shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlar (daromad, mulk, qarzlar, ish joyi va mulk tafsilotlari) bilan birga ipoteka krediti uchun ariza topshiradi.
2. **Oldindan tasdiqlash:** Bank qarzdorning moliyaviy holati, kredit qobiliyati va mulk qiymatini baholab, kredit olish imkoniyatini aniqlaydi. Ushbu bosqichda qarzdorga maksimal kredit miqdorini ko‘rsatadigan oldindan tasdiqlash berilishi mumkin.
3. **Mulkni baholash:** Mustaqil baholovchi mulkni baholab, uning bankning talablariga va kredit summasining mulk qiymatiga (LTV) mos kelishini tekshiradi.
4. **Kreditni ko‘rib chiqish (Underwriting):** Bankning kredit bo‘limi qarzdorning arizasi, kredit tarixi, mulk bahosi va boshqa hujjatlarni ko‘rib chiqib, risklarni baholaydi va qarzni berish bo‘yicha yakuniy qaror qabul qiladi.
5. **Tasdiqlash va yopilish:** Kredit tasdiqlangach, bank kredit shartlarini ko‘rsatadigan majburiyat xatini beradi. Keyin qarzdor va kredit beruvchi huquqiy hujjatlarni imzolash uchun yopilish jarayoniga o‘tadi va kredit mablag‘i taqdim etiladi.

To‘lov tartibi quyidagicha bo‘ladi:

1. **Oylik to‘lovlar:** Qarzdor odatda asosiy summa va foizni o‘z ichiga olgan muntazam oylik to‘lovlarni amalga oshiradi, ba’zida mulk solig‘i va sug‘urta ham qo‘shilishi mumkin.
2. **Amortizatsiya jadvali:** Bank har bir to‘lov qanday foiz va asosiy qarzga taqsimlanishini ko‘rsatadigan jadval taqdim etadi. Kreditning dastlabki to‘lovlari ko‘proq foizni qoplaydi, keyingi to‘lovlar esa asta-sekin asosiy qarzni kamaytiradi.
3. **Kechikkan to‘lovlar uchun kechirim muddati va jarimalar:** Kechikkan to‘lovlar uchun kechirim muddati bo‘lishi mumkin, undan keyin jarimalar yoki kechikish to‘lovlari qo‘llaniladi. Bank kechikkan to‘lovlarni kredit byurolariga xabar qilishi va bu qarzdorning kredit reytingiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
4. **Oldindan to‘lov imkoniyatlari:** Ba’zi ipotekalar qarzdorlarga qo‘shimcha to‘lovlar qilish yoki qarzni muddatidan oldin to‘lash imkonini beradi, ba’zilarida esa bunday oldindan to‘lov uchun jarimalar belgilangan bo‘lishi mumkin.
5. **Qaytarish muddati:** Kredit kelishilgan muddat davomida (masalan, 15, 20 yoki 30 yil) qaytariladi, ushbu muddat oxirida kredit to‘liq yopiladi va qarzdor mulk ustidan to‘liq egalik huquqiga ega bo‘ladi.

Islomiy bankchilikda kredit berish qoidalari shariat prinsiplari asosida tashkil etilgan bo‘lib, kreditlarga foiz qo‘shish qat’iyan taqiqlanadi. Foiz o‘rniga, Islomiy moliya foyda ulushini bo‘lish tizimidan foydalanadi, bunda qarz beruvchi qarz oluvchining biznesidan olingan foydaning bir qismini oladi. Islomiy bankchilikda kredit berish qoidalari “mudarabah” tushunchasiga asoslanadi — bu yerda qarz beruvchi va qarz oluvchi birgalikda loyiha moliyalashtirish maqsadida sheriklik qiladi.

Sheriklik qoidalari quyidagicha:

1. Sheriklik yozma shartnoma asosida tuzilishi kerak va u shariat prinsiplari bilan mos bo‘lishi zarur.
2. Qarz beruvchi sheriklik uchun kapital ajratadi, qarz oluvchi esa boshqaruv va operatsion ko‘nikmalar hamda tajribani taqdim etadi.
3. Qarz oluvchi batafsil biznes-rejani taqdim etishi kerak, u qarz beruvchi va shariat olimi tomonidan tasdiqlanishi shart.
4. Qarz beruvchi va qarz oluvchi sheriklik shartlari, jumladan, foyda ulushining nisbati, sheriklik muddati va foyda hamda zararlarni hisoblash usuli bo‘yicha kelishib olishi zarur.
5. Moliyalashtirilgan mablag‘lar faqat sheriklik maqsadlarida ishlatilishi lozimligi bo‘yicha kelishilgan bo‘lishi kerak.
6. Foyda va zararlarni taqsimlash kelishilgan foyda ulushi nisbatida amalga oshirilishi zarur.
7. Sheriklik muntazam ravishda shariat olimi tomonidan ko‘zdan kechirilib, shariatga muvofiqligi tekshiriladi.

Umuman olganda, Islomiy bankchilikdagi kredit berish qoidalari “mudarabah” — qarz beruvchi va qarz oluvchining qo‘shma korxonasi tushunchasiga asoslanadi. Mudarabah qoidalari sheriklik halol, adolatli va axloqiy bo‘lishini hamda qarz oluvchining biznesi shariat prinsiplari bilan mos kelishini ta’minlashga qaratilgan.

Islomiy bankchilik asosida uy sotib olish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

Islomiy bankchilikda ipoteka kreditlari shariat qonunlariga muvofiq tuziladi, bunda foiz olish yoki to‘lash (riba) qat’iyan taqiqlanadi. Buning o‘rniga, Islomiy moliya shariat prinsiplari bilan mos keladigan boshqa moliyaviy mexanizmlardan foydalanadi.

Uy moliyalashtirishda Islomiy banklar tomonidan keng qo‘llaniladigan usullardan biri — **murabaha**. Murabaha operatsiyasida bank mulkni sotib olib, uni xaridoriga yuqori narxda sotadi va xaridor to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib amalga oshiradi. Yuqori narx bankning foyda marjasini o‘z ichiga oladi va xaridor oldindan to‘lovlarning umumiy miqdorini biladi, chunki bu operatsiyada “gharar” (noaniqlik) yo‘q.

Yana bir usul — mulkni ijaraga berish. Bank mulkni sotib olib, xaridorga kelishilgan muddatga ijara shartnomasiga asosan beradi. Xaridor ijara haqi to‘laydi, uning bir qismi mulkni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Ijara muddati tugagach, mulk egalik huquqi xaridorga o‘tadi.

Pasayuvchi sheriklik modeli ham mavjud bo‘lib, unda bank va xaridor mulkni birgalikda sotib oladi. Xaridor bank ulushidan foydalanish uchun ijara haqi to‘laydi va asta-sekin bank ulushini sotib oladi. Natijada, mulk butunlay xaridor nomiga o‘tadi.

Ushbu Islomiy ipoteka tizimlari moliyalashtirishning shariatga mos, foizsiz va mulkga asoslangan shakllarini ta’minlaydi.

Qarzdorlarning ipoteka shartlarini, to‘lov jadvalini, foizsiz tizimni, to‘lovlar va jarimalar bo‘yicha barcha shartlarni to‘liq tushunishi, to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishi va muddatda qarzlarini yopishi juda muhimdir. Bu jarayonlarda kechikish va noto‘g‘ri tushunishdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarning oldini olish uchun zarur.

Xulosa va tavsiyalar:

Bizning tadqiqotimiz an’anaviy ipoteka kreditlariga nisbatan inkluziv va shariatga mos alternativalarni taqdim etish muhimligini ko‘rsatadi. Islomiy bankchilik prinsiplari asosida uy sotib olish xizmatlarini taklif qilish orqali, diniy e’tiqodlari sababli an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydigan aholi qatlamining ehtiyojlarini qondirish mumkin. Bu nafaqat moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlaydi, balki tomonlarga iqtisodiy foyda ham olib keladi.

Shuningdek, shaxslarning o‘z diniy e’tiqodlariga mos moliyaviy xizmatlarga ega bo‘lish huquqini tan olish muhimdir. An’anaviy banklar ayrim diniy jamoalarning ehtiyojlarini qondira olmasligi mumkin, lekin Islomiy bankchilik diniy qadriyatlarni hurmat qilgan holda moliyaviy talablarni qondiradigan samarali yechimni taklif etadi. Islomiy bankchilik prinsiplarini qabul qilish orqali, uy-joy moliyalashtirishga kirishni kengaytirish va moliyaviy inklyuzivlikni yanada rivojlantirish mumkin.

Maqolamizda muhokama qilingan uy sotib olish tartiblari turli mamlakatlarda keng qo‘llaniladi, ammo ushbu prinsiplarning amaliyotda bajarilishida, ayniqsa shariatga muvofiqlik jihatidan nozik farqlar mavjudligini tan olish muhimdir. Har bir yurisdiktsiya yoki sektaga xos shariat prinsiplari asosida barcha moliyaviy tuzilmalar ruxsat etilmasligi mumkin. Shuning uchun, bunday tuzilmalarni qo‘llashni rejalashtirayotgan shaxslar va tashkilotlar malakali shariat olimlari bilan maslahatlashib, tegishli prinsiplarga va qoidalarga to‘liq rioya qilinishini ta’minlashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, biz uy-joy moliyalashtirishning, xususan, Islomiy bankchilik prinsiplari asosidagi alternativalarni yanada chuqurroq o‘rganish va joriy etishni rag‘batlantiramiz. Shariatga mos yechimlardan foydalanish orqali, jamiyatlarning turli ehtiyojlarini qondirish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirish mumkin. Bu esa hamma uchun adolatli va qulay uy-joy moliyalashtirish tizimini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mufti Muhammad Taqi Usmani. *An Introduction to Islamic Finance*. Toshkent: "Azon kitoblari", 2023. – 288 bet.
2. R.I. Bekin. *Islamic Economic Model and Times*. Toshkent: "O’zbekiston", 2019. – 360 bet.
3. *Mortgage Loans for Home Purchase: Detailed Answers to Important Questions*. URL: https://cbu.uz/oz/press_center/articles-and-interviews/uy-zhoy-olish-uchun-ipoteka-kreditlarimuhim-savollarga-batafsil-zhavoblar/
4. Carr Wei. *A Beginner's Guide to Islamic Home Financing in Malaysia*. URL: https://www.iproperty.com.my/guides/a-beginners-guide-to-islamic-home-financing-inmalaysia-36430
5. Muzaffar Xusniddinov. *Buying a House Based on Islamic Finance*. Video: https://youtu.be/5LSP85B_lJw?si=4-Ep3kITU-sHrqzj
6. Michael J.T. McMillen. *Islamic Home Purchase Financing: A Conceptual Overview*. URL: https://www.researchgate.net/publication/254941386_Islamic_Home_Purchase_Financing_A_Conceptual_Overview

ХОРИЖИЙ ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА КРЕДИТ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ МОЛИЯВИЙ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ

Рузиев Ойбек Абдумўминович
Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ректори
и.ф.н., доцент
Бозоров Руслан Хамдамович
Денов тадбиркорлик ва педагогика институти профессори в.б.
и.ф.д. (DSc), доцент
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510230

Аннотация. Ушбу тезисда тижорат банкларида амалга ошириладиган кредит фаолияти ва ундаги ўрнатиладиган кредит механизмларига таъсир қилувчи бевосита ва билвосита таъсир қилувчи банкнинг молиявий кўрсаткичлари таҳлили келтирилган. Хусусан, банкнинг активлари ва пассивлари таркибий тузилиши динамикаси ҳамда банкнинг активлар ва капитал рентабелликлари каби кўрсаткичларнинг 10 йиллик ҳолати таҳлили амалга оширилган.

Калит сўзлар. банк активлари, банк пассивлари, активлар рентабеллиги, капитал рентабеллиги, кредитлар, банк депозитлари.

Тижорат банкларида амалга оширилаётган кредитлаш фаолиятининг самарадорлигини таҳлил қилишда хорижий давлатлар амалиётини кенг доирада ўрганиш ҳамда тегишли кўрсаткичларни таҳлил этиш орқали хулосалар шакллантириш муҳим ҳисобланади. Чунки, мазкур таҳлиллар кўра шакллантирилган хулосалар асосида тижорат банклари молиявий барқарорлиги ва аҳоли даромадлари барқарорлигини таъминлашга хизмат қилувчи самарали кредитлаш механизмларини ишлаб чиқиш ва уларни такомиллаштиришга қаратилган илмий ва амалий таклиф ҳамда тавсиялар ишлаб чиқиш имконияти пайдо бўлади.

Шу сабабли, биз тижорат банклари кредитлаш фаолияти билан боғлиқ амалиётларни ва уларнинг молиявий барқарорлик кўрсаткичларга таъсирини таҳлил этиш мақсадида Хитой ва АҚШнинг тижорат банкларини танлаб олдик.

Тадқиқотимизда хорижий амалиёт бўйича таҳлилни Хитойнинг ICBC банки фаолияти билан боғлиқ маълумотларни ўрганиш билан бошлаймиз. Хитой Халқ Республикасининг энг йирик тижорат банки бўлган (Industrial and Commercial Bank of China) банки 1984 йилда давлат банки сифатида ташкил этилган ҳамда 2005 йилдан бошлаб акциядорлик тижорат банки сифатида фаолият олиб бормоқда[1]. Шу билан бирга Industrial and Commercial Bank of China “The Banker” журнали маълумотларига қараганда биринчи даражали капитали ҳажми бўйича дунёда биринчи ўринни эгаллагани эътирофга лойиқ[2]. 2023 йил охирига келиб мазкур банкнинг жами 419252 нафар ходими бўлиб, улардан 15767 нафари дунё бўйлаб хорижий филиалларда ўз фаолиятларини олиб бормоқда[3].

ICBC банки фаолиятида кредитларнинг ўрни ва унинг молиявий барқарорлигини таъминлаш амалиётини таҳлил этиш мақсадида энг аввал, биз банк актив ва пассивлари таркибини ўрганиб чиқамиз.

Навбатдаги жадвалда ICBC банки активлари таркибининг сўнгги 10 йил даврдаги ўзгариш тенденцияси келтирилади.

1-жадвал

ICBC банкининг 2014-2023 йилларда 31 декабрь ҳолатидаги активлари таркиби[4]

№	Активлар номи	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	Фарқ

[1]Industrial and Commercial Bank of China. Annualreport. 2018
[2]www.thebankerdatabase.com расмий интернет сайти
[3] Industrial and Commercial Bank of China-2023 Annual Report
[4]Industrial and Commercial Bank of China (Хитой Халқ Республикаси) 2014-2023 йиллардаги йиллик ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

1.	Кассали активлар	20,9	16,9	17,2	17,1	15,6	14,5	13,9	11,2	11,3	11,5	**-9,4**
2.	Савдо сотиққа мўлжалланган молиявий активлар	4,1	6,4	5,5	4,1	2,9	3	2,6	2,1	2,4	2,9	**-1,2**
3.	Кредитлар	52,2	52,5	52,9	53,3	54,3	54,2	54,4	57,2	57	56,8	**4,6**
4.	Молиявий инвестициялар	20,0	21,1	20,9	22,2	24,5	25,4	25,8	26,3	26,6	26,5	**6,5**
5.	Асосий воситалар	1,0	1,0	1,0	0,9	1,0	1	0,9	0,8	0,7	0,7	**-0,3**
6.	Бошқа активлар	1,8	2,2	2,5	2,4	1,6	1,9	2,4	2,4	2	1,6	**-0,2**
Жами активлар (%)		**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	---
Жами активлар (RMB трлн)		***20,6***	***22,2***	***24,1***	***26,1***	***27,7***	***30,1***	***33,3***	***35,2***	***39,6***	***44,7***	

1-жадвал маълумотларига кўра ICBC банкига даромад келтирувчи активлари сифатида кредитлар ҳамда молиявий инвестициларнинг умумий активлардаги улуши 2023 йилга келиб мос равишда 4,6 ва 6,5 фоизли пунктга ошганлиги кўриш мумкин ва мазкур ҳолат кредитлаш ва сармоялаш фаолияти орқали банкнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш жиҳатидан ҳам ижобий ҳолатга сабаб бўлувчи тенденция ҳисобланади. Шунинг билан бирга, банкнинг кассали активлари унинг ликвидлигига таъсир қилувчи энг асосий кўрсаткичларда бири эканлигини инобатга олсак, унинг таҳлил этилган давр оралиғида активлардаги улуши 9,4 фоизли пунктга пасайганлиги банкнинг ликвидлилигига салбий таъсири қилсада, аммо ушбу активлар банк учун даромад олиб келувчи активларга айлантирилганлиги жиҳатидан ижобий ҳолат сифатида қаралади.

Мазкур банкда пассивлар таркибининг сўнгги ўн йилликдаги ўзгариш динамикаси навбатдаги жадвалда келтирилган.

2-жадвал

ICBC банкининг 2014-2023 йилларда 31 декабрь ҳолатидаги пассивлари таркиби[5]

№	Пассивлар номи	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	Фарқ
1.	Банклар маблағлари	10,4	11,9	10,2	7,2	7,1	8,1	9,2	8,9	8,8	8,4	**-2**
2.	РЕПО	1,8	1,5	2,4	4,0	1,9	0,9	0,9	1	1,5	2,3	**0,5**
3.	Депозит сертификатлари	0,9	0,8	0,9	1,0	1,2	1,2	1	0,8	0,9	0,9	**0**
4.	Мижозлар маблағлари	75,5	73,3	73,8	75,0	77,3	76,3	75,4	75,2	75,4	75	**-0,5**
5.	Бошқа мажбуриятлар	3,9	4,3	4,3	4,6	4,0	4,6	4,8	4,8	4,5	4,9	**1**
6.	Акционерлик капитали	7,5	8,1	8,2	8,2	8,5	8,9	8,7	9,3	8,9	8,5	**1**

[5] Industrial and Commercial Bank of China (Хитой Халқ Республикаси) 2014-2023 йиллардаги йиллик ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Жами пассивлар (%)	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	---
Жами пассивлар (RMB трлн)	***20,6***	***22,2***	***24,1***	***26,1***	***27,7***	***30,1***	***33,3***	***35,2***	***39,6***	***44,7***	

ICBC банки пассивлари таркибида бошқа банклар маблағларининг улуши сезиларли даражада (-2 фоизли пунктга) камайган бўлса, деярли бошқа кўрсаткичларда кўпайиб бориш кузатилган. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, РЕПО ҳамда акционерлик капитали улушининг пассивлар таркибида ошиб борганлиги ижобий ҳолат ҳисобланади. Шунингдек, Жаҳон банки экспертлари томонидан банк акционерлик капиталининг ҳажмининг пассивлардаги улуши 10 фоиз бўлишлиги тавсия этилганлигини инобатга олсак, банкнинг истиқболли бошқарувида мазкур кўрсаткичнинг улушини янада оширишга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Биз навбатда банк фаолиятининг молиявий натижаларини ифодаловчи кўрсаткичлардан бири бўлган банк активлари рентабеллиги кўрсаткичини ICBC банкининг ҳисобот маълумотлари асосида таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз. Қуйида келтирилган расмда ICBC банкининг активлар рентабеллиги даражаси кўрсаткичларининг 2014-2023 йиллар мобайнидаги динамикаси келтирилган.



1-расм. ICBC банки активлари рентабеллик даражаси, фоизда[6]

2.2.16-расм маълумотларидан ICBC банки активлари рентабеллик даражаси 2014-2021 йилларда Жаҳон банкининг экспертлари томонидан тавсия этган меъёрдан, яъни 1,0 фоиз даражадан кам бўлмаганлигини кўришимиз мумкин. Аммо 2022-2023 йилларда мазкур кўрсакткич даражаси ушбу меъёрдан кам бўлганлигини ҳамда ўрганилган давр давомида кўрсаткич даражаси динамикаси доимий пасайиш тенденциясига эга бўлган. Шу боисдан банк томонидан мазкур салбий тенденцияни келтириб чиқараётган омилларни чуқур таҳлил қилган ҳолда банкнинг молиявий барқарорлигини ижобий тенденцияда таъминлаш чораларини кўриш зарур деб ҳисоблаймиз.

Навбатда, **2-**расмда 2014-2023 йилларда ICBC банкининг банк капитали рентабеллиги даражасининг ўзгариш динамикаси келтирилмоқда.

[6]Industrial and Commercial Bank of China (Хитой Халқ Республикаси) 2014-2023 йиллардаги йиллик ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



2-расм. ICBC банкининг капитал рентабеллиги даражаси, фоизда[7]

2-расм маълумотларидан, ICBC банкининг капитал рентабеллиги даражаси экспертлар томонидан тавсия этилган меъёрий даражадан (10 фоиздан) паст бўлмаслиги таъминланганлигини кўришимиз мумкин. Аммо ушбу рентабеллик кўрсаткичи ҳам аввалги рентабеллик кўрсаткичи (активлари рентабеллик) даражаси каби пасайиш тенденциясига эга бўлган. Бироқ активлар рентабеллиги даражаси ўрганилган давр давомида 1,61 баробар (1,40/0,87) камайган бўлса, банкнинг капитал рентабеллик кўрсаткичи эса 1,96 мартта (19,62/10,02) камайган. Бу ҳолатни ушбу давр давомида банк капиталининг банк пассивларидаги улуши (ёки банк активларига нисбати) ортиб бориши билан изоҳлаш мумкин.

Хулосалар

- банкда мижозлар маблағларирнинг пассивлардаги улуши ҳам барқарор равишда 75 фоиз атрофида сақланиши, банкнинг жамғарма операцияларини миқдоран йилма-йил кўпроқ амалга ошираётгани англатади, Чунки, 2014 йилда банк пассивлари миқдори 20609,9 трлн юань бўлган бўлса, 2023 йилда ушбу кўрсаткич 44697,1 трлн юанни ташкил қилган ҳолда, 2,17 баробарга ошган.

агар активлар рентабеллиги 1 фоиз ҳолат қайд этилганда, мос равишда капитал рентабелллиги 10 фоиз бўлишлиги таъминланган ҳолда экспертлар тавсия этган меъёр бир вақтда қайд этилиши имконияти нуқтаи назаридан баҳоласак, бу ҳолатда банк капиталининг активларга нисбати 10 фоиз (10/100) бўлишлиги талаб этилади. Шу боисдан ҳам ICBC банкида акционерлик капиталининг ўсиш даражаси активларнинг ўсиш даражасидан юқори эканлиги ижобий ҳолат ҳисобланади.

Фойдланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конститутцияси.– Т.: «Ўзбекистон», 2023.- 34 б. https://lex.uz/docs/6445145;
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2024 йил 22 апрелдаги «Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги 11/2-сонли Қарори. https://lex.uz/uz/docs/6931805;
3. Do H., Ngo T., Phung Q. The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting. – 2020. – Т. 6. – №. 3. – С. 373-386.;
4. Industrial and Commercial Bank of China (Хитой Халқ Республикаси) 2014-2023 йиллардаги йиллик ҳисоботлари.

[7]Industrial and Commercial Bank of China (Хитой Халқ Республикаси) 2014-2023 йиллардаги йиллик ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

TIJORAT BANKLARIDA AHOLI OMONATLARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Qosimova Mohigul Abduhamidovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510277

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash borasidagi ilmiy qarashlar, mamlakatimizdagi tijorat banklari depozit bazasining bugungi holati hamda omonatlarning kengayishiga ichki va tashqi omillarning ta'siri tahlil qilinadi, shuningdek, ularni mustahkamlash va mustahkamlash yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, depozit, depozit bazasi, depozit operatsiyalariga ta'sir qiluvchi omillar, omonat turlari.

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy va samarali tayanchlaridan biri moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror bank tizimidir. Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va kelajakdagi rivojlanishi, eng avvalo, barpo etilgan bank tizimining faoliyatiga bog'liq. Mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan tovar va xizmatlar hajmini oshirish, banklarning likvidligini ta'minlash va milliy valyuta barqarorligini oshirish, aholining milliy valyuta barqarorligini oshirishda tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish muhim o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida mukammal bank tizimi rivojlanib, bank xizmatlari ko'rsatish turlarida katta o'zgarishlar ro'y berdi, shuningdek, xorijiy banklar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi va takomillashtirildi. Biroq, banklarning resurslardan samarali foydalanishi bilan bog'liq ayrim masalalar va ularning depozit bazasini kengaytirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ 2344-sonli "Banklarning depozit bazasini kengaytirish to'g'risida"gi qarori [1] alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Tijorat banklarining kreditlash operatsiyalari samaradorligini ularning jalb etilgan mablag'larining barqarorligi orqali ta'minlash mumkin. Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash jarayoniga jalb etilishini kuchaytirish ularning uzoq muddatli resurs bazasini talab qiladi. O'z navbatida, banklar resurs bazasining mustahkamligi yuridik shaxslarning omonatlari va aholi omonatlarining o'sishiga, ularning miqdori va o'z vaqtida bo'lishini ta'minlashga bog'liq. Chunki, tijorat banklari resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning ulushi juda yuqori va ularning ulushi 70-80% ni tashkil etadi.

Mamlakatimiz bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi respublika tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlari va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli qarori [2] bilan tasdiqlangan bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish, depozit bazasini ko'paytirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash vazifalarini belgilab berdi.

Omonat – to'lovchining xohishiga binoan yoki to'lovchi bilan kelishilgan holda, foizlar to'langan holda yoki bunday to'lovsiz milliy yoki xorijiy valyutadagi pul summasi.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi bilan tijorat banklarining depozit operatsiyalariga e'tibor kuchaymoqda. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, xorijiy iqtisodchi E.F.Jukova va N.D.Eirevillislarning [3] ta'kidlashicha, aksariyat banklarda jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Bank amaliyotida "depozit" atamasi birinchi navbatda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan shartlarga muvofiq jismoniy shaxslarga ishonib topshiriladi. Shuningdek, yana bir iqtisodchi olim N.M.Rozanov shunday deydi: "Omonatlar yoki jamg'armalar bank majburiyatlarining katta qismini tashkil qiladi. Depozitlar deganda aholi va firmalardan ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqtda bank hisob raqamiga o'tkaziladigan pul mablag'lari tushuniladi" [4].

O'zbekistonlik olim U. Azizov tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'lar valyutasidan qat'iy nazar, milliy valyutada majburiy zaxiralarni yaratish tartibi yuridik va jismoniy shaxslar uchun stavkalar

birlashtirilganligi, yuridik shaxslarning ustav kapitaliga bo‘lgan talablari kamaytirilishini ta’kidladi [5]. Milliy valyutada, xorijiy valyutadagi depozitlarning yuqori stavkalari, ya’ni milliy valyutadagi depozitlarning jozibadorligini oshirish, iqtisodiyotning dollarlashuv darajasini va bank tizimining likvidligini pasaytirish bozor mexanizmlari samaradorligidan kelib chiqadi. Depozit va jamg‘armalar pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu, o‘z navbatida, makroiqtisodiy siyosatning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga ta’sir qiladi.

Sh.Z. Abdullayevaning ta’kidlashicha, jahon amaliyotida “depozit” atamasi bojxona to‘lovlari, soliqlarni to‘lash, nafaqat bank depozitlari, balki saqlash va saqlash uchun moliya krediti yoki bank muassasasiga berilgan pul yoki qimmatli qog‘ozlar uchun ham qo‘llaniladi [6].

Tijorat banklarining depozit bazasining kengayishi bank depozitlari operatsiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Avvalo, tijorat banklarining depozit operatsiyalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqish zarur.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar:

Ichki omillar:

- bankning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi;
- bankning tashkiliy tuzilmasi;
- bank boshqaruv tizimi;
- bank rahbarlari va xodimlarining malakasi;
- bank xodimlarining tashabbusi;
- bank shakli;
- bankning moliyaviy holati.

Tashqi omillar:

- siyosiy jarayonlar;
- xalqning bankka ishonchi;
- markaziy bank talablari;
- siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar;
- odamlarning daromadlari;
- mintaqaviy rivojlanish;
- inflyatsiya va foiz stavkasi.

Bankning yangi IT-texnologiyalardan qay darajada foydalanayotgani bank depozitlari operatsiyalarini rivojlantirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda – bu mamlakatning barcha sohalarida yangi texnika va texnologiyalar qo‘llanilishi va rivojlanishining yaqqol ko‘rsatkichidir. Bank boshqaruv tizimi va bankning tashkiliy tuzilmasining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, bank rahbarlari va xodimlarining yuqori kasbiy mahorati hamda bank xodimlarining o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lishi bank ahvoli va bank obro‘sining yaxshilanishiga olib keladi. Natijada mijozlarning tijorat banklariga ishonchi ortib, bo‘sh pul mablag‘larini banklarda saqlashga harakat qiladi. Bu bevosita tijorat banklarining depozit bazasini kengaytirishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz tijorat banklari depozit mablag‘larining ko‘payishini aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani va yangi jozibador depozit turlarining joriy etilgani bilan izohlash mumkin.

Tijorat banklaridagi talab qilib olinmagan depozitlar bo‘yicha mablag‘larning harakatchanligi yuqori bo‘lganligi sababli bu hisobvaraqlar qoldig‘i beqaror, ba’zan o‘zgaruvchan bo‘ladi. Hisob egasining istalgan vaqtda bank operatsiyalarida yuqori likvidli aktivlar mavjudligini talab qilish ehtimoli. Bu likvidligi past bo‘lgan yuqori daromad keltiruvchi aktivlar ulushining qisqarishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, depozit hisobvarag‘i egasi past foiz to‘laydi yoki umuman to‘lamaydi. Biroq, talab qilib olinmagan depozitlar bo‘yicha mablag‘larning yuqori harakatchanligiga qaramasdan, banklar ularning minimal, doimiy qoldig‘ini aniqlab, barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Muddatli depozitlar boshqa turdagi depozitlar bo‘yicha bankning barqaror resurs bazasini ta‘minlaydi. Shuning uchun tijorat banklari muddatli depozitlar ulushini oshirishga harakat qilishlari kerak. Birinchi navbatda tijorat banklari oldiga bank

tomonidan aholi omonatlarini jalb qilish bo‘yicha maxsus strategiya ishlab chiqilishi natijasida har tomonlama o‘ylangan depozit siyosati siyosatini ishlab chiqish, barqaror moliyaviy resurslarni jalb etish vazifasi yuklatilgan.

Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

– tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining talab va istaklarini inobatga olgan holda omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini tizimli ravishda joriy etish;

– Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining depozit siyosatiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish;

– tijorat banklariga depozitlarni jalb etish bo‘yicha qisqa va uzoq muddatli bank strategiyalarini ishlab chiqish;

– banklar tomonidan depozitlarni sertifikatlashtirish amaliyotini rivojlantirish;

– banklararo depozitlarni jalb qilish amaliyotini kengaytirish orqali bankning resurs bazasini mustahkamlash.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tijorat banklari bo‘sh pul mablag‘larini iqtisodiyotga yetarli darajada jalb etayapti va bu mablag‘larni samarali yo‘naltirish bugungi kunda ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Banklar, bu bozor munosabatlarining chuqurlashishi va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish natijasidir. Natijada banklarda uzoq va qisqa muddatli mablag‘larga bo‘lgan talabning ortib borishi ushbu mablag‘larni shakllantirish va boshqarishning muhim masalalaridan biriga aylandi. Bu holat banklar o‘rtasida mavjud vaqtincha bo‘sh pul resurslarini mamlakat bo‘ylab “taqsimlash” va moliya bozoridan qo‘shimcha resurslarni jalb qilishda erkin raqobatning kuchayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Фойдланилган адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ 2344-sonli “Banklarning depozit bazasini kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PD-4947-son qarori.
3. Jukova E.F., Eriashvili N.D. (2018) Banking: a textbook. “Finance and credit”. 4th ed., p. 113
4. Rozanov N.M. (2018) Money and banks: a textbook. Publishing house Yurayt, 241 p.
5. Azizov U.U. The impact of monetary policy on stimulating economic growth. International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom Vol. VII, Issue 4, April 2019.
6. Abdullayeva Sh.Z. Banking. Textbook. TFI, Economics -Finance, 2017 p. 68.

ISLOM MOLIYA TIZIMI IMKONIYATLARIDAN O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Qudratov Haydar
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
5mm-22-guruh talabasi
mail: qudratovhaydar3@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510310

Annotatsiya. Ushbu tezisda Islom moliyasining kirib kelishi O’zbekiston iqtisodiyoti uchun qanchalik darajada foydali bo’lishi to’g’risida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Islom Taraqqiyot Banki, Shar’iat, Ribo, Mudaraba, Musharaka, Halol investitsiyalar, Takoful, Ijara, Sukuk.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiya va islohotlar yo‘lidan borar ekan, moliya tizimining diversifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, aholining diniy e’tiqodini hisobga olgan holda, Islom moliyasi kabi alternativ moliyaviy mexanizmlarni joriy etish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Islom moliya tizimi nafaqat shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi, balki iqtisodiy barqarorlik va adolatli taqsimotga ham xizmat qiladi. Ushbu tezisda islom moliya tizimining nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va ularni O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi. Islom moliyasi — bu shariat qonun-qoidalariga asoslangan moliyaviy tizim bo‘lib, asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:[2]

Foiz (ribo)ni taqiqlash — moliyaviy operatsiyalar foiz asosida emas, sheriklik yoki haqiqiy aktivlar asosida quriladi.

G‘ararlik va qimorni taqiqlash — noaniq, spekulyativ shartnomalarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Halol faoliyat — faqatgina shariatga muvofiq biznes sohalariga investitsiya qilishga ruxsat beriladi.

Risk va foydaning adolatli taqsimoti — muomalalarda ikki tomon ham xavf va foydani adolatli bo‘lishadi.

Islom moliyasida asosiy vositalar — Murabaha, Mudaraba, Musharaka, Ijara kabi shartnomalardir. Ular orqali bank va mijoz o‘rtasida sheriklik asosida hamkorlik rivojlanadi.

Islom moliyasida quyidagi asosiy vositalar qo‘llaniladi:

Murabaha – bank mahsulotni sotib olib, ustama bilan mijozga sotadi.

Ijara – ijara asosida aktivlar ijaraga beriladi (lekin oxirida mulk o‘zgarishi mumkin).

Mudaraba – bir tomon kapital, ikkinchi tomon mehnat bilan qatnashib, foyda bo‘linadi.

Musharaka – ham sheriklik, ham qaror qabul qilishda tenglik mavjud.

Bu vositalar orqali iqtisodiyotda real aktivlarga investitsiya qilinadi, spekulyativ faoliyatlar cheklanadi va resurslar samarali taqsimlanadi. Islom moliyasi ijtimoiy adolatni ta’minlashga, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda islom moliyasi bo‘yicha muayyan harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:[5]

2021-yilda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik kengaytirildi.

2022-yilda Prezident farmoni bilan islom moliyasini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi.

Hozirda ayrim tijorat banklari pilot asosida islomiy moliya xizmatlarini sinov tariqasida joriy etmoqda.

Toshkentda Islom moliyasi markazi tashkil etildi.

Biroq bu jarayon hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, infratuzilma, kadrlar, huquqiy asoslar va aholining xabardorligi borasida muammolar mavjud.

Islom moliyasi O‘zbekiston iqtisodiyotiga quyidagi yo‘llar bilan ta’sir qilishi mumkin:

Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash — murabaha va mudaraba orqali

Aholining moliyaviy inklyuziyasini oshirish — diniy e’tiqod sabab bank xizmatlaridan foydalanmaydigan qatlamni jalb qilish.

Real sektorni rivojlantirish — spekulyativ operatsiyalar emas, real investitsiyalar asosida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish — xususan, Halal moliyaga qiziqqan davlatlardan**.**Etik moliyaviy amaliyotlar — korrupsiya va nohalol moliyaviy harakatlarga qarshi kurashda yangi yondashuv.

Islom moliyasi (yoki islomiy moliya) O‘zbekistonda so‘nggi yillarda asta-sekin e’tibor qozonayotgan moliyaviy tizimlardan biri bo‘lib, u shariat qonunlariga asoslangan. Uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelishi bir nechta foydali jihatlarni taqdim etadi. Quyida islom moliyasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy jihatlari keltirilgan:[4]

Investitsiyaviy imkoniyatlar kengayadi

Islom moliyasi tizimi halol (shariatga muvofiq) investitsiyalarni rag‘batlantiradi. Bu esa:

Yaqin Sharq va Musulmon davlatlaridan O‘zbekistonga sarmoya oqimini oshiradi.

Xalqaro islomiy moliya institutlari (masalan, IDB – Islamic Development Bank) bilan hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi.[1]

Foizsiz moliyalashtirish (ribo yo‘qligi)

Islom moliyasida foiz olish va berish (ribo) man qilinadi, bu esa:

- Kichik va o‘rta biznes uchun imtiyozli va adolatli moliyaviy mahsulotlarni taqdim etadi.
- Qarzdorlik bosimini kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Riskni adolatli taqsimlash

Islom moliyasida moliyaviy risk va foyda sheriklik asosida bo‘ladi:

- Investor va tadbirkor foyda va zararlarni birgalikda baham ko‘radi (mudaraba, musharaka).
- Bu model iqtisodiy faoliyatga real asos bo‘lib xizmat qiladi, spekulyativ (shak-shubhali) moliyaviy amaliyotlar kamayadi.

Etika va halollikka asoslangan tizim

Islom moliyasi ijtimoiy adolat, halollik, mas'uliyat va inson manfaatlariga asoslanadi:

- Korruptsiyaga qarshi kurashish, moliyaviy shaffoflikni oshirish.
- Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni rivojlantirish (sadoqatli kapital).

Kambag‘allikka qarshi kurashish

Islom moliyasi vositalari, masalan**,** zakat, vaqf, qard al-hasana (foizsiz qarz) orqali ijtimoiy tenglikni oshiradi:

- Ijtimoiy zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati paydo bo‘ladi.
- Inkluziv iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratiladi.

Moliyaviy sektorning diversifikatsiyasi

Islom moliyasi O‘zbekiston moliya bozorida yangi mahsulot va xizmatlarni kiritadi:

- Sukuk (islomiy obligatsiyalar), islomiy sug‘urta (takaful), islomiy lizing (ijara) kabi vositalar paydo bo‘ladi.
- Bu esa bank sektoridagi raqobatni oshiradi va foydalanuvchilar uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa

Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O‘zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning o‘ziga xos xususiyati bilan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: Islom moliyasi mamlakatimiz uchun nafaqat diniy jihatdan mos muqobil, balki moliyaviy barqarorlik, turli darajadagi investorlarni jalb etish va iqtisodiy inkubatsiya uchun pragmatik instrument hisoblanadi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, mehnat bozori va kichik va o‘rta tadbirkorlik (KOT) tarkibi Islom moliyasining murabaha, musharaka, mudaroba kabi instrumentlarini mahalliy qonunchilik va amaliyot orqali moslashtirishni taqozo etadi.

Tahlil ko‘rsatdiki, Islom moliyasi institutlarini joriy etishda quyidagi xususiyatlar muhim: mahalliy islomiy mahsulotlarni (masalan, sukuk, islam bank xizmatlari) milliy talab va fiskal siyosatga muvofiqlashtirish, shuningdek moliyaviy sanitariya va regulyatorlik muhitini shakllantirish zarurati; diniy-ma’rifiy omillarni hisobga olgan iste’molchi xatti-harakatlari; va xalqaro tajriba hamda standartlarga mos keluvchi shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash.

Amaliy jihatdan, Islom moliyasining afzalliklarini O‘zbekistonda kengroq tatbiq etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: (1) regulyatorlik bazasini ishlab chiqish va ma’muriy mexanizmlarni takomillashtirish; (2) moliyaviy mahsulotlarni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish (KOT, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma loyihalari);

(3) sarmoyadorlar va iste'molchilarni xabardor qilish va kadrlar tayyorlash; (4) xalqaro standartlar (AAOIFI, IFSB) va xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyaga e'tibor berish; (5) pilot-loyihalar (mahalliy sukuk emissiyalari, islom bankining filiallari, mikro-moliyalashtirish mexanizmlari) orqali ilgarilash.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Islom moliyasi O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar manbai bo'lib, u iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va moliyaviy inkluziyani oshirishda samarali bo'lishi mumkin — ammo buni amalga oshirish uchun qonunchilik, regulyatorlik, infratuzilma va odam resurslarini bir vaqtning o'zida yaxshilash zarur. Muvaffaqiyatning kaliti — xalqaro tajriba bilan uyg'un, mahalliy sharoitga mos, shaffof hamda ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli modelni bosqichma-bosqich joriy etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov, A. Islom bank tizimi va uning rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
2. Azizov, S. A. Islom moliyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi PQ–208-son qarori. Islom moliyasi bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.
4. "ISLOM MOLIYASI ORQALI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI YANADA RIVOJLANTIRISH" — O'zbekiston uchun islom moliyasining strategik roli va rivojlanish yo'llarini ko'rib chiqadi. ResearchGate
5. "ISLOMIY MOLIYA VA O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA UNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI" (Mahmudjonov O'., va boshq.) — islomiy modellar va ularning an'anaviy moliya tizimiga integratsiyasini muhokama qiladi. КиберЛенинка

INNOVATSION INVESTITSIYALAR VA INTELLEKTUAL KAPITAL INTEGRATSIYASI: O‘ZBEKISTON IQTISODIY BARQARORLIGINING YANGI DRAYVERI

Ne’matova Ruhshona Fayzulla qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo’nalishi talabasi
Elektron pochta: nruhshona2807@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510343

ABSTRACT

This thesis examines the strategic significance of integrating intellectual capital and innovative investments in ensuring sustainable economic development in Uzbekistan. The synergy between human resources, scientific potential, and technological innovation is interpreted as a new conceptual paradigm — a development model of the emerging knowledge-based economy. This approach enhances national competitiveness, accelerates innovation-driven growth, and establishes a qualitatively new model of economic expansion that ensures long-term stability.

В данной тезисе рассматривается стратегическое значение интеграции интеллектуального капитала и инновационных инвестиций в обеспечении устойчивого экономического развития Узбекистана. Синергия человеческих ресурсов, научного потенциала и технологических инноваций трактуется как новая концептуальная парадигма — модель развития формирующейся экономики, основанной на знаниях. Такой подход укрепляет национальную конкурентоспособность, ускоряет инновационное развитие и формирует качественно новую модель экономического роста, обеспечивающую долгосрочную стабильность.

ANNOTATSIYA

Ushbu tezis O‘zbekiston iqtisodiyotida intellektual kapital va innovatsion investitsiyalar integratsiyasining barqaror rivojlanishdagi strategik ahamiyatini tahlil qiladi. Inson resurslari, ilmiy salohiyat va texnologik yangiliklarning uyg‘unligi natijasida shakllanayotgan bilimga asoslangan iqtisodiyot yangi konseptual paradigma(rivojlanish modeli) sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlab, innovatsion taraqqiyotni tezlashtiruvchi va iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi sifat jihatidan yangi o‘sish modelini vujudga keltiradi.

Kalit so‘zlar: drayver, sinergetik, innovatsiya, startap ekotizimi, intellektual kapital, investitsion faoliyat, submezon, intellektual mulk, venchur, IT xizmatlari.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida iqtisodiy barqarorlik va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash an’anaviy ishlab chiqarish omillaridan tashqari yangi drayverlarni – ya’ni bilimga, malakaga, innovatsiyaga va sarmoyaga asoslangan iqtisodiy tizimni – talab qilmoqda. Ushbu drayverlardan biri sifatida intellektual kapitalni, ikkinchisi sifatida esa investitsion faoliyatni ko‘rish mumkin. Biroq eng yuqori natijaga erishish uchun bu ikki omilni integratsiyalash – ya’ni bir-birini to‘ldiruvchi, sinergetik(aql kuchi va mablag’ kuchi) tarzda birlashgan holda foydalanish muhimdir. O‘zbekistonda aynan shunday integratsiyalashgan model shakllanmoqda va uni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy islohotlar, startap ekotizimi, xalqaro investitsiyalar oqimi ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, 2024-yilda mamlakatga kirib kelgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi $11,9 milliardga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 53,6 % ga oshdi.[2] Shu bilan birga, innovatsion salohiyat mezonida – 2025-yilgi “Global Innovation Index”da O‘zbekistonga 79-o‘rin berildi. Ushbu ma’lumotlar integratsiyalashgan yondashuv zarurligini yaqqol namoyon etadi.[2]

“Intellektual kapital” deganda insonlarning bilim va ko‘nikmalari, tashkilotlarning tajribasi va boshqaruv salohiyati, hamda innovatsion fikr va texnologiyalarning jamlanmasi tushuniladi.[9] Ushbu kapital iqtisodiy tizimdagi samaradorlikni oshirish va raqobat ustunligini yaratishda hal qiluvchi omil bo‘ladi. O‘zbekistonda ta’limga, ilm-fan va innovatsiyalarga davlat e’tibori kuchaytirilmoqda. Masalan, «Inson kapitali – 2030» strategiyasi doirasida ta’lim va ilm-fanga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi oshirildi. Raqamli iqtisodiyot sohasida esa “IT Park Uzbekistan” rezidentlari soni 2020-yildagi 411 tadan 2023-yilda 1

552 taga yetdi.[1] Shuningdek, IT sektorida eksport ham oshmoqda – 2023-yilda IT Park rezidentlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot va xizmatlar eksporti $344 millionni tashkil etdi.[1] Bu holat intellektual kapitalning iqtisodiy qiymatga aylanishini va iqtisodiyotdagi rolining o‘sishini ko‘rsatadi. Intellektual kapital yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ish unumdorligi, innovatsion mahsulotlar, eksport va xizmatlar hajmi oshadi. Shu bois O‘zbekistonda bilimga asoslangan investitsiyalarni jalb qilish siyosati iqtisodiy o‘sish strategiyasida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Investitsion faoliyat – bu iqtisodiy tizimga joriy etilayotgan moliyaviy resurslar, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, ichki sarmoyalar, infratuzilma loyihalari va startap venchur sarmoyalar orqali o‘sishni ta’minlovchi tashqi omildir. O‘zbekistonda 2024-yilda investitsiyalarning investitsiya kiritilishi bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, butun investitsiyalar hajmi ko‘tarilgan: doimiy kapital investitsiyalari 27,6% ga oshdi, ayniqsa markazlashtirilmagan investitsiyalar (non-centralised investments) 32,8% ga o‘sdi.[3] Shu bilan birga, 2024-yilda mamlakatga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi $11,9 milliardni tashkil etdi, YAIMdagi ulushi esa 10,3% ga yetdi. Investitsiyalar yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmalarni yaxshilash, texnologik yangilanishga turtki beradi – bu barcha barqaror o‘sish uchun zarur.[6] Biroq, investitsion faoliyat faqat sarmoyani jalb qilish emas, balki bu sarmoyani innovatsion va raqamli texnologiyalarga yo‘naltirish ham lozim.

Yuqoridagi ikki omil – intellektual kapital va investitsion faoliyat – alohida rivojlansa ham, ularning birlashtirilishi barqaror o‘sishga ancha katta hissa qo‘shadi. Bunda intellektual kapital investitsiyalar samaradorligini oshiradi, investitsiyalar esa intellektual kapitalni iqtisodiyotda amaliylashtirish imkonini yaratadi. Masalan, O‘zbekistonda startap ekotizimi tez sur’atda rivojlanmoqda: 2020-yilda startap investitsiyalari atigi $0,3 millionni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda $69,5 millionga yetdi — bu 230 barovarga yaqin o‘sishdir.[3] Shu jarayonda FinTech, EdTech, sun’iy intellekt kabi sohalar markaziy rol o‘ynamoqda. Masalan, IT/raqamli xizmatlar eksporti $344 millionga yetdi.[1] Bunday natijalar intellektual kapitalning sarmoyaga aylanuvchi, iqtisodiy foyda keltiruvchi aktivga aylanayotganini yaqqol ko‘rsatadi. 2024-yilda investitsiyalar va startaplar uyg‘unlashuvi masalasida O‘zbekiston “Innovation input” submezonida 69-o‘rin egalladi.[2]

Ayniqsa, davlat tomonidan yuritilayotgan islohotlar – erkin iqtisodiy zonalar yaratish, soliq imtiyozlari berish, investitsiya tartibini soddalashtirish – intellektual kapital va investitsiyalar integratsiyasini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, uning amaliy natijasi– oshgan eksport, startaplar soni, raqamli xizmatlar rivojlanishi va xalqaro investitsiyalar kirib kelishi– barqaror o‘sish modelini shakllantirishga yordam bermoqda.

Biroq integratsiyalashgan yondashuvni samarali amalga oshirish yo‘lida bir qator muammolar uchramoqda. Ulardan eng asosiylari: intellektual mulk himoyasi tizimining pastligi, startap va venchur ekotizimida investor ishonchining to‘liq yetilmaganligi. Shuningdek, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida investitsiyalar tabiiy resurslarga yo‘naltirilgani va intellektual kapitalga yetarlicha e’tibor berilmagan.[9] Shu bois quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Ta’lim tizimini modernizatsiya qilib, universitetlarni sanoat bilan yaqindan aloqalar o‘rnatish, “Universitet–biznes” hamkorligini kengaytirish.
- Startup va venchur investitsiyalar uchun maxsus moliyalashtirish vositalarini oshirish, xususiy investorlar uchun soliq va huquqiy imtiyozlar yaratishni kengaytirish.
- Intellektual mulk huquqlarining himoyasini kuchaytirish, milliy patent tizimini modernizatsiya qilish.
- Inson kapitali va innovatsiyaga sarmoya kiritishni strategik ravishda kuchaytirish, universitet-tadqiqot markazlari va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish.
- Investitsiyalarni raqamli va yuqori texnologiyali sohalarga yo‘naltirish, shuningdek, kichik va o‘rta startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning turli sohalarida bilimga asoslangan o‘sishni ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda barqaror va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda intellektual kapital va investitsion faoliyat integratsiyasi strategik ahamiyatga ega. Intellektual kapital – bu iqtisodiyotning ichki o‘sish manbai, investitsiyalar esa tashqi moliyaviy drayverdir. Ularning uyg‘unligi orqali O‘zbekistonda yangi turdagi – bilimga asoslangan, innovatsiyaga tayangan va sarmoyaga ochiq iqtisodiy model shakllanishi

mumkin. Raqamli tarmoqlar, startaplar ekotizimi, IT xizmatlari eksporti va yuqori malakali kadrlar – bular integratsiyalashgan yondashuvning natijasidir. Agar ushbu yo‘nalishdagi siyosatlar izchil va samarali amalga oshirilsa, O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va uzluksiz o‘sish ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Invest.gov.uz. “Innovation and Digital”. 2025.
2. Kun.uz. “Foreign direct investment in Uzbekistan increased by over 50% in 2024”. 1 February 2025.
3. UzDaily.uz. “Uzbekistan’s investment in fixed capital grows by 27.6% in 2024”. 01 February 2025.
4. Zamin.uz. “Uzbekistan ranked 79th in the Global Innovation Index”. 16 September 2025.
5. UzDaily.uz. “Uzbekistan the fastest-growing startup ecosystem in Central Asia”. 2025.
6. LloydsBankTrade. “Foreign direct investment (FDI) in Uzbekistan”. 2024.
7. Lee H-S, Chernikov S.U., Nagy S. “Motivations and locational factors of FDI in CIS countries”. 2022.
8. Nashira H., Kurniawan A. “Measuring Intangible Assets Using Parametric and Machine Learning Approaches”. 2022.
9. Zokirov J, Tolibekov D Intellaktual Kapitalni Mamlakat Iqtisodiyotini Rivojlantirishga Ta’siri va Ahamiyati. 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDAGI MUOMOLARNI KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Saidov Xayotjon Raxmatulloyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Moliya va bank ishi kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510353

Annatatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston tijorat banklarida muomalarning kelib chiqish sabablari va ularga ta'sir etuvchi asosiy omillar yoritilgan. Iqtisodiy o'sish, pul-kredit siyosati, bank tizimining barqarorligi hamda aholining moliyaviy savodxonligi muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, muomala, iqtisodiy omillar, pul-kredit siyosati, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, investitsiya, moliyaviy savodxonlik.

Kirish

Mamlakatimizda moliya-bank tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklari moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishi, xo'jalik subyektlari va aholining moliyaviy ehtiyojlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bank tizimidagi muomala — bu pul mablag'larining jamg'arilishi, taqsimlanishi va iqtisodiyotga yo'naltirilishi jarayonidir. U iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois, tijorat banklaridagi muomalarning kelib chiqish sabablari va ularga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda o'rganish dolzarbdir.

Muomalarning kelib chiqish sabablari

O'zbekiston tijorat banklarida muomalarning shakllanishi quyidagi omillarga asoslanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida hisob-kitoblarning zarurati;
- aholining bo'sh mablag'larini depozit sifatida banklarga jalb qilish;
- korxona va aholining kreditga bo'lgan talabi;
- davlat byudjeti mablag'larini taqsimlash va moliyalashtirish;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar va investitsion oqimlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu jarayonlarning huquqiy asoslari ham mavjud. Jumladan, **"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun**[1] (2019-yil 5-noyabr) tijorat banklarining vakolatlari, operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va ularning majburiyatlarini belgilab beradi.

№	Ko'rsatkich/ Omillar	O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari	Chet el (rivojlangan davlatlar, masalan AQSH, Germaniya, Yaponiya) tijorat banklari
1	**Muomalalarning kelib chiqish sabablari**	Asosan davlat dasturlari, investitsion loyihalar, aholining jamg'arma va kreditga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq.	Bozor talabiga, kapital aylanishi, investitsiya fondlari va transmilliy korporatsiyalar faoliyatiga asoslanadi.
2	**Monetar siyosatning ta'siri**	Markaziy bankning qat'iy nazorati, qayta moliyalash stavkasi va majburiy zaxiralar darajasi muhim rol o'ynaydi.	Mustaqil markaziy bank siyosati, inflyatsiyani past darajada ushlab turish orqali barqaror muomala ta'minlanadi.
3	**Kredit siyosati**	Davlat sektoriga yo'naltirilgan, ko'p hollarda subsidiyalangan foiz stavkalari mavjud.	Kreditlar bozor mexanizmlariga asoslangan, risk baholash tizimi mukammal ishlab chiqilgan.

[1] O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr.

№	Ko‘rsatkich/ Omillar	O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari	Chet el (rivojlangan davlatlar, masalan AQSH, Germaniya, Yaponiya) tijorat banklari
4	**Texnologik omillar**	Raqamli bank xizmatlari rivojlanmoqda, lekin ayrim hududlarda infratuzilma cheklangan.	To‘liq raqamlashtirilgan, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan keng foydalaniladi.
5	**Huquqiy asoslar**	“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va Moliya bozori agentligi qarorlari asosida tartibga solinadi.	Xalqaro moliya standartlari (Basel III), mustaqil moliyaviy nazorat va sud tizimi orqali tartibga solinadi.
6	**Aholining bank tizimiga ishonchi**	So‘nggi yillarda oshib bormoqda, lekin norasmiy sektor hali yuqori.	Bank tizimiga ishonch yuqori, omonatlar kafolat tizimi kuchli.
7	**Valyuta siyosati va tashqi omillar**	Milliy valyutaning kursi Markaziy bank tomonidan boshqariladi, tashqi savdo balansiga bog‘liq.	Erkin suzuvchi valyuta tizimi, global bozor ta’siriga moslashuvchan mexanizmlar mavjud.
8	**Moliyaviy barqarorlik**	Davlat qo‘llab-quvvatlovi muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi banklar hali kapital yetarliligi bo‘yicha zaif.	Bozor intizomi kuchli, banklar mustaqil risklarni boshqarish imkoniyatiga ega.
9	**Innovatsion xizmatlar**	Mobil ilovalar, QR to‘lovlar va onlayn kredit tizimlari kengaymoqda.	Fintech kompaniyalar bilan hamkorlikda yangi mahsulotlar (kredit scoring, neobanklar) rivojlangan.
10	**Xalqaro hamkorlik**	Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda ishlaydi.[2]	Xalqaro kapital bozorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega, global investitsiyalarni jalb qiladi.

Muomalarga ta’sir etuvchi omillar

Tijorat banklaridagi muomala hajmi va sifati ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi.

1. **Iqtisodiy omillar**: yalpi ichki mahsulot hajmi, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, inflyatsiya darajasi, investitsion muhit.
2. **Moliyaviy omillar**: Markaziy bankning pul-kredit siyosati, qayta moliyalashtirish stavkasi, milliy valyuta kursi va moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi.
3. **Institutsional omillar**: tijorat banklarining kapital bazasi, likvidligi, risklarni boshqarish tizimi, xalqaro standartlarga moslashuvi.
4. **Ijtimoiy omillar**: aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi, moliyaviy savodxonlik darajasi, jamg‘arish va iste’mol odatlari.
5. **Tashqi omillar**: global moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar, xorijiy investitsiyalar, geosiyosiy xavflar.

Mazkur omillarning samarali boshqarilishi mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligi va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bu borada davlat siyosatining ahamiyati beqiyosdir. Masalan, **Prezidentning PF–5717-sonli “Bank tizimini isloh qilish va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni**[3] (2019-yil 14-may) bank tizimida xususiy kapital ulushini

[2]“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil 11-noyabr, O‘RQ–580-son.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5717-sonli “Bank tizimini isloh qilish va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 14-may.

oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro reytinglar asosida baholash tizimini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

№	Ko‘rsatkich / Omillar	2022-yil	2023-yil	2024-yil (taxminan)
1	**Umumiy aktivlar hajmi (trln so‘mda)**	530,2	640,7	760,5
2	**Jami kredit portfeli (trln so‘mda)**	365,0	450,8	525,4
3	**Aholi omonatlari (trln so‘mda)**	92,5	123,4	155,0
4	**Korxonalarga ajratilgan kreditlar ulushi (%)**	74,8	71,2	69,0
5	**Iste’mol kreditlari ulushi (%)**	11,5	14,8	17,5
6	**Raqamli tranzaksiyalar ulushi (%)**	38	52	68
7	**Foiz stavkalari (o‘rtacha yillik, %)**	20–22	19–21	17–19
8	**Bank tizimidagi xususiy kapital ulushi (%)**	14	18	25
9	**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi banklar soni**	5	6	7
10	**Banklar soni (jami)**	33	32	31
11	**Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi (%)**	14,0	15,0	14,0
12	**Inflyatsiya darajasi (%)**	12,3	9,0	8,0 (prognoz)
13	**Asosiy ta’sir etuvchi omillar**	Pandemiya oqibatlari, davlat dasturlari, energiya sektori islohoti	Raqamli iqtisodiyotga o‘tish, banklarning kapitallashuvi	Bozor mexanizmlarining kuchayishi, xususiylashtirish jarayoni
14	**Natija (umumiy tendensiya)**	Barqarorlashuv davri	Faol o‘sish bosqichi	Raqamli va xususiy banklashuv davri

- 2022–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston[4] bank tizimi kapital va aktivlar hajmi bo‘yicha 40% dan ortiq o‘sishga erishdi.
- Aholi omonatlari sezilarli o‘sdi — bu bank tizimiga bo‘lgan ishonch ortib borayotganini ko‘rsatadi.
- Raqamli bank xizmatlari ulushi 3 yilda deyarli ikki baravar oshdi.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2022, 2023, 2024-yillar prognoz) – https://cbu.uz

- 2024-yilda xususiy sektor ulushi va chet el investitsiyasi ham ortdi, bu esa tizimning bozor tamoyillariga yaqinlashayotganini bildiradi.

Ilmiy adabiyotlarda yondashuvlar

Bank muomalalariga oid ilmiy adabiyotlarda ham turli yondashuvlar mavjud. Xususan, G‘afurov U. va Ahmedov B.ning “Bank ishi nazariyasi va amaliyoti” [5](Toshkent, 2020) asarida tijorat banklarining muomala jarayonlariga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida likvidlik, risklarni boshqarish, aholining moliyaviy savodxonligi va xalqaro integratsiya alohida qayd etiladi. Bu ilmiy manbalarda bank tizimining samarali faoliyati mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin etiladi.

Xulosa

O‘zbekiston tijorat banklaridagi muomalarning kelib chiqish sabablari va ularga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Huquqiy asoslar (qonun va farmonlar), iqtisodiy jarayonlar, moliyaviy siyosat va ijtimoiy omillar muomala jarayonini shakllantiruvchi asosiy omillardir. Shuning uchun tijorat banklari faoliyatini yanada takomillashtirish, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani chuqurlashtirish kelgusida ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr.
2. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil 11-noyabr, O‘RQ–580-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5717-sonli “Bank tizimini isloh qilish va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 14-may.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2022, 2023, 2024-yillar prognoz) – https://cbu.uz
5. G‘afurov U., Ahmedov B. *Bank ishi nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 202

[5] G‘afurov U., Ahmedov B. *Bank ishi nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.

EKSPORTNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI

Xudaynazarov Sherzod Ismoilovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti “Moliya va bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel: 998 (99) 377-07-42
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510368

Annatatsiya: Ushbu tezisda eksportni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar, eksportni moliyalashtirishning innovatsion shakllaridan biri bo‘lgan lizing amaliyoti bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasi va uing amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Eksport, Import, Akredetiv, faktoring, lizing, forfeyting.

Dunyo amaliyotida tadbirkorlik sub’ektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish mamlakatning eksport salohiyatini oshirishning zaruriy shartlaridan biri sifatida qaraladi. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda eksportni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “AQShning Bank of America bankida eksportni moliyalashtirish maqsadiga berilgan kreditlar hajmi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 7,4 foizga oshgani holda, Germaniyada eksportni qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida ajratilgan moliyalashtirish hajmi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 11,3 foizga oshgan[1].”[2]. Bu esa, tadbirkorlik sub’ektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish borasidagi ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga baho berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo miqyosida eksportni moliyalashtirishni innovatsiyalar asosida takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni eksportni moliyalashtirish amaliyotiga joriy qilish, sinditsiyali kreditlash amaliyotini takomillashtirish, eksportni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni baholash va boshqarish, eksport bo‘yicha to‘lovlarning uzluksizligini ta’minlash, eksportning diversifikatsiya darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa, eksportni moliyalashtirishni takomillashtirish masalasini dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Eksportni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilgan hamda tegishli ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

L.Shaldaeva va S.Shutovaning xulosasiga ko‘ra, eksportni moliyalashtirishning quyidagi besh shakli mavjud

1) eksport qiluvchilarni davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida milliy eksportchilar banklari tomonidan subsidiyalangan moliyalashtirish;

2) ushbu yordamni taqdim etuvchi mamlakatdagi firmalardan tovarlar sotib olinishi sharti bilan xorijiy import qiluvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

3) milliy EKA ishtirokida moliyalashtirish;

4) xalqaro faktoring;

5) lizing[3].

Eksportni moliyalashtirishning innovatsion shakli bo‘lib, xalqaro lizing hisoblanadi.

Xalqaro lizing uch yo‘nalishda amalga oshiriladi. Eksportli lizingda ijarachi xorijiy tomon bo‘lib, ijaraga berish uchun mo‘ljallangan uskunalar eksport shartnomasi shartlariga muvofiq mamlakatdan eksport qilinadi. Import ijarasi holatida egasi chet ellik hisoblanadi va uskunalar ijarachining mamlakatiga import shartnomasi shartlariga muvofiq yetkazib beriladi. Lizing tashkilotlari tranzitda-lizing beruvchi, lizing oluvchi, ko‘chmas mulk yetkazib beruvchi - turli mamlakatlar rezidentlari ishtirok etadi.

[1] Bank of America Annual reports. 2022-2023//https://www.bankofamerica; Bundesbank. Annual report 2023//www. https://www.bundesbank.de.

[2] Bank of America Annual reports. 2017-2023//https://www.bankofamerica; BNP Paribas Annual reports. 2017-2023//ww.bnpparibas.com; Halyk bank. Годовой отчёт 2017-2023//https://www.halykbank.kz.

[3] Шалдаева Л.И., Шутова С.В. Экспортное финансирование в мировой практике: формы, преимущества недостатки//Сельскохозяйственный журнал. – Ставрополь, 2014. - №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/eksportnoe-finansirovanie-v-mirovoy-praktike-formy-ih-preimuschestva-i-nedostatki (дата обращения: 22.05.2025.

E’tirof etish joizki, xalqaro lizing operatsiyalari lizing oluvchi mamlakatdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan uskunalarni sotishning keng qo‘llanilayotgan mexanizmidir. Mahsulotlarni sotishning mazkur mexanizmi ishlab chiqaruvchilar uchun juda samarali, chunki sotish bitimini amalga oshirish mexanizmi yaxshi shakllangan va shaffofdir. Shunisi ahamiyatliki, xalqaro lizing operatsiyalarining asosiy qismi tijorat banklarining xorijiy valyutalarda beriladigan kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu sababli, xalqaro lizing operatsiyalarining samaradorligi ko‘p jihatdan banklar tomonidan beriladigan xalqaro kreditlarning bahosiga bog‘liq bo‘ladi.

Fikrimizcha, jahon lizing bozorining rivojlanishi va ijobiy istiqbollari uchun ehtimoliy risklarni hisobga olish va buning uchun lizing kompaniyalari risklarni boshqarish tizimlarini yaratishi va rivojlantirishi muhim amaliy ahamiyatga ega.



1-rasm. Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi[4]

Bu yerda:

1-lizingga oluvchi tomonidan uskunaga buyurtma berish;

2-lizinga oluvchining kredit to‘loviga layoqatliligini tekshirish va u bilan lizing shartnomasini tuzish;

3-bank ssudasini olish;

4-lizing predmetini oldi-sotdi qilish bitimini imzolash;

5-lizing predmetini yetkazib berish;

6-yetkazib berilgan uskuna summasini to‘lash;

7-uskunalarni qabul qilish dalolatnomasini imzolash;

8-lizing shartnomasini imzolash;

9-lizing predmetini sug‘urta qilish shartnomasini imzolash;

10-lizing to‘lovlarini amalga oshirish;

11-lizing predmetini qaytarish;

12-ssudaning asosiy qarz summasini qaytarish va foizlarni to‘lash.

XULOSA

Eksportni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish ko‘rsatdiki:

[4] Алексеев А.Б. Лизинг на практике. - Пособие по работе с лизинговыми компаниями. -Издательство: Лучшее решение, 2019.- С. 90.

*eksportni moliyalashtirishning quyidagi besh shakli mavjud: eksport qiluvchilarni davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida milliy eksportchilar banklari tomonidan subsidiyalangan moliyalashtirish, ushbu yordamni taqdim etuvchi mamlakatdagi firmalardan tovarlar sotib olinishi sharti bilan xorijiy import qiluvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, milliy EKA ishtirokida moliyalashtirish, xalqaro faktoring va lizing;

Eksportni moliyalashtirishning innovatsion shakllarining tahlili ko‘rsatdiki:

*eksportni moliyalashtirishning taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyotida keng qo‘llanilayotgan innovatsion shakllaridan biri – bu lizingli moliyalashtirish shaklidir;

Mahsulotlarni sotishning mazkur mexanizmi ishlab chiqaruvchilar uchun juda samarali, chunki sotish bitimini amalga oshirish mexanizmi yaxshi shakllangan va shaffofdir. Shunisi ahamiyatliki, xalqaro lizing operatsiyalarining asosiy qismi tijorat banklarining xorijiy valyutalarda beriladigan kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu sababli, xalqaro lizing operatsiyalarining samaradorligi ko‘p jihatdan banklar tomonidan beriladigan xalqaro kreditlarning bahosiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bank of America Annual reports. 2022-2023//https://www.bankofamerica; Bundesbank. Annual report 2023//www. https://www.bundesbank.de.
2. Bank of America Annual reports. 2017-2023//https://www.bankofamerica; BNP Paribas Annual reports. 2017-2023//ww.bnpparibas.com; Halyk bank. Godovoy otchyot 2017-2023//https://www.halykbank.kz.
3. Shaldaeva L.I., Shutova S.V. Eksportnoe finansirovanie v mirovoy praktike: formы, preimuщestva nedostatki//Selskoxozyaystvennыy jurnal.–Stavropol,2014.-№7.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/eksportnoe-finansirovanie-v-mirovoy-praktike-formy-ih-preimuschestva-i-nedostatki (data obraщeniya: 22.05.2025.
4. Alekseev A.B. Lizing na praktike. - Posobie po rabote s lizingovыmi kompaniyami. -Izdatelstvo: Luchshee reshenie, 2019.- S. 90.

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI KO‘PAYTIRISH MASALALARI

G’afforov Shoydulla Shavkat O’g’li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Bank ishi va auditi yo’nalishi 4 -bosqich talabalari
gafforovshoydulla@gmail.com
Abdurahmanov Jahongir Abdusator o’gli
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Bank ishi va auditi yo’nalishi 4 -bosqich talabalari
abduraxmonovjahongir34@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510382

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekiston tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning dolzarbligi, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni va mavjud muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Ishda raqamli bank texnologiyalarining ahamiyati, FinTech yechimlarining afzalliklari hamda bank tizimini raqamli transformatsiyaga tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, innovatsion xizmatlar, raqamli transformatsiya, FinTech, mobil banking, kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, blokcheyn, elektron to‘lov tizimlari.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida bank tizimi muhim o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bank faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini kengaytirish masalalari milliy iqtisodiyotning raqamli o‘zgarishlariga mos tarzda shakllanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida"gi qaror — ushbu hujjat tijorat banklarining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, bank xizmatlari sifatini oshirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirishni ko‘zda tutadi.[1] Qarorda 2020–2025-yillar mobaynida tijorat banklarida innovatsion xizmatlarni kengaytirish va masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Innovatsion bank xizmatlari orqali mijozlarga tezkor, ishonchli va qulay moliyaviy operatsiyalarni taqdim etish, banklarning raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

1. Innovatsion bank xizmatlarining mohiyati va ularning afzalliklari. Innovatsion bank xizmatlari – bu ilg‘or texnologiyalar asosida yaratilgan, mijozlarga yuqori darajada qulaylik va xavfsizlikni ta’minlovchi moliyaviy mahsulotlardir. Ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **Mobil banking va internet-banking tizimlari** — mijozlarga masofadan turib to‘lov, pul o‘tkazmalari va hisobni boshqarish imkonini beradi;
- **QR-kod orqali to‘lov tizimlari** — naqd pulsiz to‘lovlar ulushini oshiradi;
- **Raqamli karta va elektron hamyonlar** — tranzaksiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirishga yordam beradi;
- **Sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar** — mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilib, individual xizmatlar taklif etadi;
- **Blokcheyn texnologiyalari** — tranzaksiyalarni shaffof va xavfsiz qiladi.

Bunday innovatsion yechimlar nafaqat bank xizmatlari sifati va tezligini oshiradi, balki banklarning xarajatlarini kamaytirib, ularning foydaliligini ham oshiradi.

2. O‘zbekiston tijorat banklarida innovatsion xizmatlarning joriy etilishi[2]

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida innovatsion xizmatlarni joriy etish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. Masalan:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PQ–4882-sonli “Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori
[2] “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini raqamlashtirish konsepsiyasi”, 2023-yil.

- **“Humo” va “UzCard”** tizimlari yagona tarmoqda ishlashni boshladi, bu esa to‘lovlarni tezlashtirdi;
- **Mobil ilovalar (“Apelsin”, “Click”, “Payme”, “Zoomrad”)** orqali to‘lovlar hajmi 2024-yilda 2,3 barobarga oshdi;
- **Masofaviy xizmat markazlari** orqali mijozlar bankka bormasdan kredit olish, depozit joylashtirish yoki hisob ochish imkoniga ega bo‘ldi;
- **Raqamli identifikatsiya tizimlari (e-KYC)** joriy etilib, mijozlarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashtirildi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy xizmatlardan foydalanilishi[3]

Indikator (o‘lchov birligi)	2022	2023	2024
Masofaviy (onlayn) bank xizmatlaridan foydalanuvchilar (million kishi)	—	32.6	48.4
Bank kartalari – jami chiqarilgan (million dona)	34.	46.2	46.07
UzCard kartalari (yil yakuni, million dona)	20.8 (2022)	23.1 (2023)	—
Humo — yangi kartalar (Jan–Feb 2024, dona)	—	—	~2.3 million
P2P (card-to-card) o‘tkazmalar hajmi (yillik, trillion UZS)	—	224.3 (2023)	—
POS terminallar soni (dona)	—	—	429,36
ATM va infokiosklar soni (dona)	—	—	~28,800

1-jadvaldan ko’rishimiz mumkinki, masofaviy (onlayn) bank xizmatlari foydalanuvchilari” ko‘rsatkichi 2023-yil uchun 32.6 million sifatida Markaziy bank va ommaviy axborot vositalarida qayd etilgan; 2024-yil sentyabrga oid ayrim tahliliy xabarlarda esa 48.4 millionga yetgani aytilgan (manbalar farqlanadi — bu har xil chop etilish sanalari va metodologiyalarga bog‘liq bo‘lishi mumkin [4]

Bank kartalari (jami) uchun 2022 va 2023 yillarraqamlarini Markaziy bankning yillik hisobotlari/ozod ma’lumotlari tasdiqlaydi (46.2 mln — 2023, 34.1 mln — 2022). Bu ko‘rsatkich kartalar bo‘yicha umumiy tendensiyani ko‘rsatadi.

2024-yilda O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 12 milliondan oshgan. Bu raqam bank tizimining innovatsion rivojlanish yo‘lida sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi.

UzCard va Humo bo‘yicha tafsilotli raqamlar (masalan, UzCard 2022 va 2023 bo‘yicha chiqarilgan kartalar soni, Humo tomonidan 2024 boshidagi yangi karta chiqarilishlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar respective tizimlar va Markaziy bank hisobotlaridan olinadi.P2P transferlar (Uzcard+Humo) 2023 yil uchun **224.3 trillion so‘m** — bu raqam raqamli to‘lovlarning hajm jihatdan qanchalik kengayganini ko‘rsatadi.

2-jadval

Banklarda innovatsiyalarni kirib kelishining afzalliklari va kamchiliklari[5].[6]

Afzalliklari:	**Kamchiliklari**
Xodimlar va mijozlarga qulayliklar yaratadi;	Mijozlarga nisbatan xodimlarda majburiyatlar oshadi;
Xizmatlar ko’rsatish turlari kengayadi;	Yangi texnologiyalarga o’rganish xodimlarga qiyinchilik tug’dirishi mumkun;

[3] Markaziy bank ma’lumotlari asosida tayyorlangan
[4] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–2024-yillar statistik hisobotlari.
[5] Muallif tomonidan tahlillar asosida tayorlangan
[6] Karimov A., Raximov B. “Bank ishi va moliyaviy texnologiyalar”, TDIU, 2022-yil.

Yangi texnologiyalardan keng foydalaniladi;	Yangi texnologiyalar kirib kelishi sababli ayrim ish o’rinlari qisqartiriladi;
Mijozlarni banklarga nisbatan ishonchi ortadi va boshqalar.	Xizmat ko’rsatishda ayrim qiyinchliklar bo’lishi mumkun (ya’ni mijozning zamonaviy texnologiyadan foydalanish imkoniyati bo’lmasa) va boshqalar.

Har qanday tadbirkorlikda bo’lgani kabi tijorat banklari operatsiyalarining uzoq muddatli smaradorligi va foydaliligi kelgusi faoliyatni rasmiy rejalashtirishga doim va davomiy e'tibor berishni talab etadi. Belgilangan rejalarni vaqti vaqti bilan muntazam sharxlash hamda o’zgartirish asosiy elementlardan hisoblandi. Bank rahbariyati yuqorida aytilganlarga qo’shimcha sifatida foydalilikni oshirishni hamda to’lov balansini yaxshilashni, sarmoya va mijozlarni tanlash mosligini aniq maqsad qilib olishi zarur. Bu maqsadlar tavakkalchilikni ehtimol moyilligini hisobga olishi lozim.

Xulosa. Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini ko‘paytirish O‘zbekiston moliya tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bank tizimining samaradorligi, shaffofligi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati ortadi.

Banklarning olib borayotgan faoliyati faqat ularning o'ziga emas, balki boshqa sohalarning rivojlanish faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mukammal innovatsion siyosat olib borish istiqbolli rivojlanishni ta'minlaydi, banklarning innovatsion mexanizmlarida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatdagi innovatsion jarayonlarni rivojlantiradi. Ammo, bugungi kunda Respublikamizning Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlari tizimi faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirishdagi muammolar o‘z yechimini topmagan. Shu bois, tijorat banklarida taklif etilayotgan innovatsion bank xizmatlari tizimlarini takomillashtirishga doir mummolarning mavjudligi ushbu yo’nalishda ko’proq izlanishlar olib borishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PQ–4882-sonli “Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–2024-yillar statistik hisobotlari.
3. “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini raqamlashtirish konsepsiyasi”, 2023-yil.
4. Karimov A., Raximov B. “Bank ishi va moliyaviy texnologiyalar”, TDIU, 2022-yil.

BIZNES XAVFINI KAMAYTIRISH UCHUN RISKLARNI BOSHQARISH VA TURLI MOLIYAVIY YONDASHUVLAR

Yo'ldoshev Behruz
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
Moliya yo'nalishi 1-kurs magistranti
Norpo'latov Jonibek
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
Moliya yo'nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510402

Annotatsiya: Ushbu maqolada uchta turli riskni boshqarish usuli tahlil qilinadi: aksiyalarni "short" qilish orqali aktivlarni xedjirlash, forward shartnomalari orqali pul oqimini xedjirlash va fyuchers shartnomalari. Maqola har bir usulning mohiyati, qo'llanishi, afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiradi. Ushbu usullarni bayon etish orqali tadqiqot o'quvchilarga turli bitim turlarida riskni boshqarish samaradorligini tushunishga yordam beradi. Maqola riskni boshqarish bo'yicha strategiyalarni taklif qiladi va moliyaviy operatsiyalarda qaror qabul qiluvchilar uchun tavsiyalar beradi.

Aksiyalarni "short" qilish orqali aktivlarni xedjirlash — bu aksiyalarni qarzga olib, ularning narxi tushishidan foyda olish strategiyasidir. Bu usul aktivlar qiymatining pasayishidan keladigan yo'qotishlarni qoplash imkonini beradi. Forward shartnomalari orqali pul oqimini xedjirlash — kelajakda ma'lum narxda aktivni sotib olish yoki sotish bo'yicha kelishuv tuzish orqali narx o'zgarishlari xavfini kamaytirish va barqaror pul oqimini ta'minlash usulidir. Fyuchers shartnomalari esa jamoat bozorlarida savdo qilinadigan standartlashtirilgan shartnomalar bo'lib, ikki tomonning huquqiy himoyasini ta'minlaydi va narxlarni oldindan belgilash imkonini beradi.

Ushbu risk boshqaruv usullarining afzalliklari – aktivlarning qadrsizlanish xavfiga qarshi himoya, narxlarning o'zgarishidan himoyalanish va barqarorlikni ta'minlashdir. Ammo bu usullar o'ziga xos cheklov va xavflarga ham ega, ularni diqqat bilan baholash zarur.

Kalit so'zlar: Risk boshqaruvi, aktivlarni xedjirlash, aksiyalar, pul oqimi xedjirlash.

Risk — bu har qanday biznes faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqaradi. Pul oqimlaridagi noaniqliklar aktivlar va majburiyatlarning adolatli qiymatiga, shuningdek, kelajakdagi bitimlardan olinadigan qiymatga ta'sir qiladi. Hedge buxgalteriyasi (hedge accounting) — bu korxonalar uchun riskni boshqarish vositasi bo'lib, u bozordagi beqarorlik ta'sirini kamaytirish va ishlab chiqarish hamda savdo jarayonida xarajatlarni barqarorlashtirish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi aktivlarni xedjirlash va pul oqimini xedjirlashning asosiy yondashuvlarini tahlil qilish va ular orqali korporativ riskni kamaytirish yo'llarini ko'rsatishdir.

Aktivlarni xedjirlash — bu aksiyalarni short qilish kabi strategiyalar yordamida aktiv qiymatlaridagi potentsial yo'qotishlarni qoplash amaliyotidir. Masalan, korxona ishlayotgan sohada yoki xomashyo narxlarida o'zgaruvchanlik mavjud bo'lsa, u xomashyo bozorida "short" qilish orqali narx barqarorligini saqlashi mumkin.

Pul oqimini xedjirlash esa pul oqimlari bilan bog'liq xavflarni boshqarishga qaratilgan. Bu yondashuv forward yoki fyuchers shartnomalaridan foydalanish orqali kelajakdagi pul oqimlarini oldindan belgilab, noaniqlikni kamaytiradi.

Ammo ushbu strategiyalar ham mukammal emas — ularning o'ziga xos cheklovlari va xarajatlari mavjud. Xedjirlash munosabatining samaradorligi to'g'ri baholash va buxgalteriya standartlariga rioya etishga bog'liq.

Aktivlarni xedjirlash — bu korxonaning investitsiya qilgan yoki egalik qilayotgan aktivlarining bozor tebranishlari ta'sirini kamaytirish uchun qo'llaniladigan strategiya. Uning asosiy tamoyili — aktiv qiymatining pasayishidan yo'qotishni kamaytirish maqsadida qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanadigan moliyaviy instrumentlarga sarmoya kiritishdir.

Eng keng tarqalgan usul — **aksiyani short qilish**. Short qilish jarayoni quyidagicha:

1. Investor aksiyani egasidan qarzga oladi — bu qaytarilishi kerak bo‘lgan majburiyatni yaratadi.
2. Broker ushbu aksiyani bozorga sotadi va naqd pulga aylantiradi.
3. Agar narx pasaysa, investor aksiyani pastroq narxda qayta sotib olib, asl egasiga qaytaradi.
4. Sotilgan narx va qayta sotib olingan narx o‘rtasidagi farq — foyda.

Misol:

Keling, asosiy xomashyo sifatida po‘latdan foydalanadigan yirik ishlab chiqaruvchi kompaniyani olaylik. Po‘lat narxlaridagi o‘zgarish ishlab chiqarish xarajatiga ta’sir qiladi. Kompaniya po‘lat bozorida short pozitsiya ochib, narxlarning o‘zgarish xavfini xedjirlashi mumkin. Agar po‘lat narxi oshsa, kompaniyaning egaligidagi po‘lat aktivlari qimmatlashadi; agar tushsa, short pozitsiyadan foyda olinadi va bu yo‘qotishni qoplaydi.

Afzalliklar:

- Bozor tebranishlarining salbiy ta’sirini kamaytiradi.
- Moliyaviy natijalarni barqarorlashtiradi.
- Uzoq muddatli rejalashtirish va o‘sish qarorlarini ishonchliroq qiladi.

Kamchiliklar:

- Xedjirlash barcha risklarni bartaraf etmaydi.
- Short pozitsiyaning foydasi cheklangan (aksiyaning eng past narxi nol), lekin yo‘qotish cheksiz bo‘lishi mumkin.
- Tranzaksiya to‘lovlari va marja talablari mavjud.
- Mutaxassislarni yollash xarajatlari oshadi.

Pul oqimini xedjirlash — bu kelajakdagi pul oqimlarining o‘zgarishidan keladigan xavflarni kamaytirishga qaratilgan strategiya. U moliyaviy instrumentlar yordamida kutilayotgan pul oqimini oldindan belgilab, noaniqlikni kamaytiradi va kompaniya barqarorligini ta’minlaydi.

Bu strategiyada **forward** va **fyuchers shartnomalari** ishlatiladi. Ular foiz stavkalari, valyuta kurslari, tovar narxlari yoki boshqa omillar ta’sirini neytrallashtirishga yordam beradi.

Misol:

Sabzavot va mevalar bilan savdo qiluvchi supermarket mavsumiy yomg‘ir miqdori sabzavot hosiliga ta’sir qilishi mumkinligidan xavotirda. U kelajakda kerakli mahsulotlar narxini oldindan belgilash uchun fyuchers shartnomalarini tuzadi. Shunday qilib, kelajakda narx oshsa ham, supermarket ilgari belgilangan narxda xarid qiladi va zarar ko‘rmaydi.

Afzalliklar:

- Bozor beqarorligining ta’sirini kamaytiradi.
- Naqd pul oqimini barqarorlashtiradi.
- Moliyaviy rejalashtirishni aniqroq qiladi.

Cheklovlar:

- Ba’zi mahsulotlarda fyuchers shartnomalari mavjud emas, bu holda **forward** (xususiy) shartnomalar tuziladi. Ammo bu holatda oraliq nazorat yo‘q, yetkazib beruvchi shartni bajarmasligi mumkin.
- **Nomukammal xedjirlash** (imperfect hedging) xavfi — mos keluvchi, lekin aniq o‘xshash bo‘lmagan mahsulotlar asosida xedjirlash.
- Fyuchers shartnomalarining muddatlari har doim kerakli sanaga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.
- Narx kutilganidan yuqori bo‘lsa, shartnomani bajarish xarajatlari oshadi.

Xulosa qilib aytganda, maqola ikkita asosiy xedjirlash turini — aktivlarni xedjirlash va pul oqimini xedjirlashni tahlil qiladi. Har ikkisi korxonalarga riskni kamaytirish imkonini beradi, ammo ularning samaradorligi prognozlarning to‘g‘riligi va bozordagi sharoitga bog‘liq. Noto‘g‘ri baholash yoki noaniq tarixiy ma’lumotlarga asoslanish kompaniya xarajatlarini oshirib, riskni yanada kuchaytirishi mumkin.

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

To'raqulov Asliddin Shavkat o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Bank ishi va auditi yo'nalishi 4 -bosqich talabasi
Email: Turaqulovasliddinn1707@gmail.com
Xidirov Muzaffar Abdimo'minovich
Ilmiy rahbar: DTPI Moliya va bank ishi kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510436

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari, ularning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar — Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) hamda Bank for International Settlements (BIS) hisobotlariga tayangan holda global moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi omillar ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining bugungi holati, ularning kapital yetarliligi, likvidlik boshqaruvi va risklarni diversifikatsiya qilish darajasi ilmiy asosda o'rganiladi. Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun kapital bazasini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, Basel III standartlarini qo'llash hamda NBFI sektorini rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, Basel III, likvidlik, kapital yetarliligi, O'zbekiston bank tizimi, IMF, BIS, raqamli texnologiyalar, stress-test.

Hozirgi globallashuv davrida moliyaviy tizimning barqaror ishlashi har bir mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va barqaror o'sishining asosiy kafolatidir. Tijorat banklari esa moliyaviy tizimning markazida turib, iqtisodiyotda to'lovlar, kreditlash va investitsiyalar oqimini ta'minlaydi. Shu bois, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi nafaqat bank sohasiga, balki butun iqtisodiy tizimga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida ro'y bergan moliyaviy inqirozlar[1], xususan 2023-yilda AQSh va Yevropada kuzatilgan Silicon Valley Bank hamda Credit Suisse holatlari, bank sektorining global darajadagi zaif tomonlarini ochib berdi. Bu holat tijorat banklarida risklarni boshqarish, likvidlikni saqlash va ishonchni oshirish masalalariga yangicha yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham ushbu jarayonlardan chetda emas va milliy bank tizimining barqarorligini oshirish strategik ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik — bu bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish[2], foydali faoliyat yuritish hamda tashqi va ichki zarbalarga bardosh bera olish qobiliyatidir. Bankning barqarorligi nafaqat kapital yetarliligi, balki boshqaruv sifati, risklarni tahlil qilish darajasi, texnologik tayyorgarlik va iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining 2024-yilgi Global Financial Stability Report hisobotida global moliya tizimida uchta asosiy xatar ko'rsatilgan: qarzlarning ortib borishi, geosiyosiy beqarorlik va sun'iy intellekt orqali moliyaviy texnologiyalar ta'siri. Bank for International Settlements (BIS, 2024) hisobotida esa 2023-yilgi bank inqirozlari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar orqali depozitlarning tezkor chiqib ketishi bank tizimida yangi turdagi likvidlik xavfini keltirib chiqargani aytilgan. Bu esa likvidlik boshqaruvini har soatlik monitoring darajasiga olib chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra[3], mamlakat bank tizimi nisbatan barqaror holatda. Banklarning umumiy kapital yetarliligi 17 foizdan yuqori, bu esa Basel III me'yorlaridan ham yuqoridir. So'nggi yillarda xususiy kapital ulushi ortmoqda, raqamli bank xizmatlari kengaymoqda, biroq davlat ulushi katta bo'lgan banklarda risklar hali ham yuqori. Markaziy bank tijorat banklarida stress-test tizimini joriy etish orqali risklarga bardoshlilikni baholashni yo'lga qo'ygan.

[1] IMF, *Global Financial Stability Report*, October 2024 — muqaddima va Executive Summary: 2023 yildagi bank hodisalari va ular moliyaviy tizimga ta'siri
[2] IMF GFSR 2024: "Moliyaviy barqarorlik" tushunchasi va uning komponentlari haqida umumiy ta'rif va muhim jihatlar.
[3] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Moliyaviy barqarorlik sharhi.

1-jadval

O‘zbekiston tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari (2021–2024 yillar)

	Kapital yetarliligi (%)	Aktivlar o‘sishi (%)	Likvidlik (%)	NPL (muammoli kreditlar, %)	Sof foyda (trln so‘m)
2021	15.6	21.3	37.5	4.8	5.4
2022	16.1	18.5	35.8	4.3	6.2
2023	16.8	20.1	34.2	3.6	7.8
2024	17.2	19.4	33.9	3.1	9.1

Bank tizimining barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi yo’nalishlar muhim: 1) Kapital bazasini mustahkamlash; 2) Likvidlik boshqaruvini takomillashtirish; 3) Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish; 4) Risklarni diversifikatsiya qilish; 5) NBFI sektorini rivojlantirish[4]; 6) Korporativ boshqaruvni kuchaytirish. IMF va BIS tavsiyalariga ko’ra, banklar raqamli transformatsiyani chuqurlashtirib, likvidlikni real vaqt rejimida tahlil qilish tizimlarini yaratishi lozim.

Xulosa

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish—bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va ishonchni ta’minlashning asosiy omilidir. O’zbekiston bank tizimi xalqaro standartlarga yaqinlashib bormoqda. Yaqin yillarda Basel III talablarini to’liq joriy etish, likvidlik va risklarni boshqarish tizimini raqamlashtirish orqali mamlakat moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Monetary Fund (2024). Global Financial Stability Report. Washington, DC.
2. Bank for International Settlements (2024). The 2023 Banking Turmoil and Liquidity Risk: A Progress Report.
3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Moliyaviy barqarorlik sharhi.
4. Basel Committee on Banking Supervision (2019). Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision.
5. Adrian, T. (2024). The Future of Finance and AI in Financial Stability. IMF.

[4] IMF GFSR 2024, NBFI va bozor asosidagi moliyaviy intermeditatsiya bo‘limlari: NBFI o‘sishi, uning afzalliklari va sistemik xatarla

XALQARO MOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORIDA RAQABATNI KUCHAYTIRISH VA KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISH

Xolliyeva Yasmina O‘lmas qizi
Denov tumani “tadbirkorlik va pedagogika instituti”
Moliya va moliyaviy texnalogiyalar fakilteti 1-bosqich talabasi
tel: +998 (97) 848-16-66
E-mail: nasibaxolliyeva93@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510459

Annotatsiya: Mazkur tezisda xalqaro moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitini shakllantirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda investitsion faoliyatni rag‘batlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda global moliya tizimidagi o‘zgarishlar, raqobat omillari, moliyaviy innovatsiyalar hamda raqamli transformatsiyaning kapital bozorlariga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Moliyaviy xizmatlar bozori, kapital bozori, raqobatbardoshlik, investitsiya, raqamli moliya, fintech, global integratsiya.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish va kapital bozorini rivojlantirish dolzarb mavzudan biriga aylanib bormoqda. Chunki raqobatning kuchayishi moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalar va investitsiyalarni oshirishga hizmat qiladi.

Xalqaro moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni shakllantirish omillari

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlar bozori davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatning muhim maydoniga aylangan. Jahon moliya markazlari London, Nyu-York, Singapur va Dubayda kapital harakatining erkinligi, investorlar uchun qulay huquqiy muhit hamda ilg‘or texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatish mexanizmlari shakllangan. Raqobatning kuchayishi asosan quyidagi omillar bilan belgilanadi:

✓ **Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi** – xalqaro to‘lov tizimlari, elektron banking, fintech va blokcheyn texnologiyalarining keng qo‘llanishi xizmatlar tezligini oshiradi.

✓ **Institutsional ishonch** – mustaqil moliyaviy regulyatorlar, kredit reyting agentliklari va xalqaro audit standartlari shaffoflikni ta’minlaydi.

✓ **Soliq va investitsion muhitning jozibadorligi** – kapital harakatiga to‘sqinlik qilmaydigan soliq siyosati, investorlar uchun kafolatlangan himoya mexanizmlari raqobatbardoshlikni oshiradi.

Xususan, Yevropa Ittifoqida yagona moliyaviy bozor konsepsiyasi (EU Single Financial Market) orqali bank, sug‘urta va qimmatli qog‘ozlar segmentlarida erkin xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari yaratilgan. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ham moliyaviy xizmatlar integratsiyasini chuqurlashtirishda muhim o‘rnak bo‘la oladi.

Kapital bozorining rivojlanish tendensiyalari va yangi instrumentlar

Kapital bozorining rivojlanishi nafaqat korxonalar uchun moliyalashtirish manbaini kengaytiradi, balki iqtisodiyotdagi resurslar taqsimotining samaradorligini oshiradi. So‘nggi yillarda global kapital bozorlarda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

✓ **Raqamli aktivlar va tokenizatsiya**: kompaniyalar va davlatlar token asosida obligatsiyalar chiqarib, investitsiya jalb etmoqda (masalan, Singapur va Shveytsariya tajribasi).

✓ **Yashil moliya (Green Finance)**: ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun “yashil obligatsiyalar” kengaymoqda.

✓ **Korporativ boshqaruvning kuchayishi**: aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, hisobot shaffofligini ta’minlash investorlarda ishonch uyg‘otmoqda.

✓ **Fintech integratsiyasi**: raqamli platformalar orqali qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish imkoniyatlari kengaymoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Yaponiya, Koreya, Germaniya) kapital bozori yalpi ichki mahsulotning 100–150 foizigacha teng bo‘lsa, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10–15 foiz atrofida. Shu bois, kapital bozorini chuqurlashtirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston kapital bozorining hozirgi holati va raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlari

O‘zbekiston moliya tizimida kapital bozori hali bank sektoriga nisbatan nisbatan past ulushga ega. Biroq, so‘nggi yillarda qator islohotlar amalga oshirilmoqda:

- ✓ “Kapital bozorini rivojlantirish agentligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi;
- ✓ Toshkent fond birjasida davlat va korporativ obligatsiyalar emissiyasi hajmi oshdi;
- ✓ “Yashil” va “Islomiy” moliya instrumentlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratildi;
- ✓ Elektron savdo tizimlari, onlayn investitsiya platformalari ishga tushirildi.

Biroq, amaldagi muammolar ham mavjud: qimmatli qog‘ozlar savdosi hajmining cheklanganligi, institutsional investorlar ulushining kamligi, aholi moliyaviy savodxonligining pastligi va axborot shaffofligining yetarli emasligi. Shu bois, quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlar dolzarb hisoblanadi:

Qimmatli qog‘ozlar bozorini chuqurlashtirish – korporatsiyalarni IPO va obligatsiyalar chiqarishga rag‘batlantirish.

Fintech infratuzilmasini kengaytirish – elektron hisob-kitob va raqamli aksiyalar savdosini soddalashtirish.

Regulyator mustaqilligini kuchaytirish – xalqaro moliyaviy standartlar asosida nazorat tizimini joriy etish.

Moliyaviy integratsiya va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – MDH va Osiyo taraqqiyot banki doirasida kapital bozorlarini o‘zaro tan olish tizimini rivojlantirish.

Xulosa: Xalqaro moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish va kapital bozorini rivojlantirish – har bir mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, investitsion jozibadorligi hamda moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardandir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy bozorlar erkinligi, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash, shaffof regulyator siyosati va investorlarga nisbatan kafolatli yondashuv raqobat muhitini mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston sharoitida ham moliyaviy xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish, kapital bozorini institutsional jihatdan rivojlantirish, fintech infratuzilmasini kengaytirish va xalqaro moliyaviy tizimlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar nafaqat ichki investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi, balki xorijiy sarmoyadorlar ishonchini oshirib, mamlakatning xalqaro kredit reytingini yaxshilaydi.

Umuman olganda, xalqaro moliyaviy xizmatlar bozorida faol ishtirok etish — bu nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, balki mamlakatning global moliya tizimidagi nufuzini oshirish sari muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. (2024). Global Financial Development Report: Long-Term Finance. Washington, D.C.
2. International Monetary Fund (IMF). (2023). Global Financial Stability Report: Market Fragmentation and the Future of Finance. Washington, D.C.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2022). Capital Market Review for Emerging Economies. Paris.
4. Asian Development Bank (ADB). (2023). Financial Sector Development in Central Asia: Opportunities and Challenges. Manila.
5. O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi. (2024). Yillik faoliyat hisobotlari. Toshkent.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING UY XO‘JALIKLARI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudayarova Zuxra Yuldashevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
zuxra_xudayarova@tues.uz; ORCID: 0009-0000-8767-6975
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510486

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholining turmush darajasini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Aholi daromadlari tarkibi, ularning shakllanish manbalari, real va nominal daromadlar o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlariga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida uy xo‘jaliklari daromadlari tarkibida mehnat faoliyati va yakka tartibdagi tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushi o‘rganilib, tadbirkorlikning iqtisodiy faollikni oshirish hamda aholi farovonligini ta’minlashdagi strategik ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, mintaqalar kesimida aholi daromadlari o‘zgarishlari tahlil qilinib, ularni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samarali mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, uy xo‘jaliklari, daromad, real daromad, nominal daromad, turmush darajasi, iqtisodiy faollik, farovonlik, kichik biznes, aholi daromadlari tarkibi.

Har bir mamlakat har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakatlarni joriy etish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan maqsadi, aholi turmush darajasini oshirish, ularning manfaatlarini ko‘zlash va oxir oqibat mamlakatda iqtisodiy o‘sishga erishishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat‘iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo‘lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog‘liq. Demak, aholining turmush darajasi jihatidan farqlanishini aniqlash maqsadida tirikchilik minimumi aniqlanadi. Tirikchilik minimumi-iste‘mol savatiga asosan belgilanadi. Iste‘mol savatini aniqlash uchun unga kiradigan eng zarur oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar guruhi belgilanadi hamda ularni jon boshiga iste‘mol me‘yori aniqlanadi. Professor Sh.Shodmonov aholi turmush darajasi aholining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar bilan ta‘minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne‘matlar bilan qondirilishi darajasidir deb fikr bildirgan. Iste‘mol savatini tashkil qilgan eng zarur iste‘mol mahsulotlari va xizmatlari me‘yori miqdorining joriy bozor baholariga ko‘paytmasining yig‘indisi tirikchilik minimumini tashkil etadi. Aholi turmush darajasi–mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mos keluvchi hayot sharoitlarining yig‘indisidir. Uning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- aholining daromadlilik darajasi;
- insonning kamolot indeksi;
- turmush sifati;
- turmush sifati indeksi.

Aholining daromadlilik darajasi yalpi milliy mahsulotning aholi jon boshiga nisbati bilan izoxlanadi. Insonning kamolot indeksi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish, kutilayotgan umr ko‘rish yoshi, aholining bilim darajasi ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Aholining turmush sifatini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar:

- aholi jon boshiga YAMM;
- kutilayotgan umr ko‘rish yoshi;
- shaxsiy baxt tushunchasi;
- daromadning muvofiqligi;
- oilada egallagan o‘rni;
- salomatlilik;
- hayot tarzi.

Aholining daromadlari aholi uchun shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda, muxim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli turmush tarzini tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlar kompleksida aholi daromadlari ko‘rsatkichlari aloxida o‘ringa ega. Aholi daromadlariga asosan mexnat uchun olgan ish xaqi, individual mexnat, tadbirkorlik

faoliyatidan daromadlar, mulk daromadlari va boshqa daromadlarni kiritishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekiston aholi daromad turlari, jumladan tadbirkorlik, mulk daromadlari kabilar ko‘payib bormoqda. Aholi daromadlari, ularning tarkibi, kelish manbalari va tabaqalanish darajasi jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy farovonligining eng muhim ko‘rsatkichidir. Madomiki, daromadlar insonning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilar ekan, aynan daromad kengroq tushuncha bo‘lib, aholi turmush darajasining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi. Eng avvalo daromad deganda ularning turlari va asosiy olinish manbalari qandayligini bilish muhimdir. "Daromad" tushunchasi juda murakkab iqtisodiy kategoriyani ko‘rsatadi. Bu o‘rinda gap aholining shaxsiy daromadlari haqida ketadi, aholi shaxsiy daromadlarining quyidagi ta‘riflarini keltirish mumkin: Shaxsiy daromadlar - bu inson tomonidan pul va tabiiy shaklda olinadigan, ular tomonidan turmushning muayyan darajasini ta‘minlash uchun foydalaniladigan mablag‘lar majmuidir. Agar "Shaxsiy daromadlar" ta‘rifida biz ularning shakllanish manbalarini ta‘kidlasak, unda u quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy daromadlar - fuqarolarning mehnat faoliyatida ishtiroki, ishlab chiqarish va boshqa boyliklarning istalgan turiga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, ushbu davlatning qonuniy hujjatlariga muvofiq ijtimoiy transfertlar to‘lovi qo‘yilgan ijtimoiy guruhlarga tegishlilik bilan bog‘lik barcha pul va tabiiy tushumlar yig‘indisidir. Aholi daromadi aholining turmush darajalari sifatini ko‘rsatadi. Axoli daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, yani ixtiyorida bo‘lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad-aholi tomonidan ma‘lum vaqt oralig‘ida olingan daromadlarning pul ko‘rinishidagi miqdori hisoblanadi. Ixtiyorida bo‘lgan daromad-shaxsiy iste‘mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad.

Real daromad-narx darajasi o‘zgarishi hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmarlar miqdorini ko‘rsatadi, ya‘ni daromadning xarid quvvatini bildiradi. Respublikamiz aholisining daromadlarini ko‘radigan bo‘lsak, Quyidagi rasmdagi ma’lumotlar asosida 2024 yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida transferlardan olingan daromadlar ulushi va chet eldan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi bo‘yicha statistik tahlil keltirilgan:

1-rasmda 14 ta hudud bo‘yicha ikkita asosiy ko‘rsatkich berilgan:

- Transferlardan olingan daromadlar ulushi (%);
- Chet eldan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi (%).



1-rasm. 2024-yilning hududlar bo`yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o`tkazmalari hajmining ulushi[1].

Bu ko‘rsatkichlar aholi umumiy daromadlari tarkibida tashqi va ichki manbalar hisobiga shakllanayotgan daromadlarni ifodalaydi. Transferlardan olingan daromadlar tahlilida

- Eng yuqori ulush Andijon (36,8%) va Farg‘ona (36,8%) viloyatlarida kuzatilgan. Bu hududlarda aholi daromadlarining qariyb uchdan bir qismi transferlarga tayanadi.
- Eng past ulush Navoiy viloyatida (11,7%) va Toshkent shahrida (18%) qayd etilgan. Bu hududlarda ichki iqtisodiy faoliyat va ish haqi asosiy daromad manbai hisoblanadi.
- O‘rtacha transfer ulushi:
- $\bar{x} = \frac{27,3+36,8+26+17,6+29,5+11,7+29,1+33,1+31,4+22,1+14,6+36,8+32,1+18}{14} = 26,5\%$

Demak, o‘rtacha transfer ulushi 26,5 % ni tashkil etadi.

Chet eldan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi tahlili

- Eng yuqori ulush Andijon (27,6%), Farg‘ona (25,6%) va Xorazm (22,8%) viloyatlarida. Bu viloyatlarda mehnat migratsiyasi darajasi yuqori.
- Eng past ulush Qoraqalpog‘iston (1,7%) va Navoiy (3,2%) viloyatlarida.
- O‘rtacha ulush:
- $\bar{x} = \frac{1,7+27,6+17+7,5+17,8+3,2+17,4+22,1+20,5+9,2+4,1+25,6+22,8+12,8}{14} = 14,8\%$

Demak, chet eldan kelgan pul o‘tkazmalari o‘rtacha 14,8 % ni tashk O‘zaro bog‘liqlik (korrelyatsion tahlil)

Transferlardan olingan daromadlar ulushi bilan chet eldan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud.

- Yuqori transfer ulushi kuzatilgan hududlarda, odatda, chet el pul o‘tkazmalari ham yuqori.
- Masalan, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida ikkala ko‘rsatkich ham o‘rtachadan yuqori.

Bu holat aholi daromadlarining muhim qismi tashqi manbalarga, xususan mehnat migratsiyasi natijasida olingan mablag‘larga tayanayotganini ko‘rsatadi.

- 2024 yilda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida transferlar ulushi o‘rtacha 26,5 %, chet eldan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.
- Eng yuqori daromadlar Andijon va Farg‘ona viloyatlarida tashqi manbalardan shakllanmoqda.
- Navoiy, Toshkent va Jizzax hududlarida esa ichki iqtisodiy faoliyat asosiy daromad manbai hisoblanadi.
- Umuman olganda, daromad manbalari tarkibida transferlar va pul o‘tkazmalari ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda iqtisodiy mustaqillik darajasi nisbatan past, ichki ishlab chiqarish va bandlik imkoniyatlarini oshirish zarur.

Mustaqil band aholining umumiy daromadlardagi ulushi yuqoriligi, tadbirkorlik faoliyatining mintaqaviy darajada ham aholi turmush sifatini yaxshilashda muhim o‘rin tutayotganini tasdiqlaydi. Davlat tomonidan yaratilayotgan soliq imtiyozlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari va kichik biznesni rivojlantirish dasturlari aholi daromad manbalarini kengaytirish, iqtisodiy mustaqillikni oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bois, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishda va mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda strategik yo‘nalish sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyati uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi nafaqat aholining moddiy farovonligini, balki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

1

Shu bois, kelgusida uy xo‘jaliklari daromadlarini yanada oshirish uchun tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, soliqqa oid imtiyozlarni kengaytirish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish zarur. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash bilan bir qatorda, aholi turmush darajasining yanada yuksalishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning nutqlari va chiqishlari. – “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni – “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. – Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil 8-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – “Aholi daromadlari va turmush darajasi ko‘rsatkichlari” bo‘yicha statistik axborot. – Toshkent, 2023. – https://stat.uz
4. Shodmonov, Sh. Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2019. – 540 b.
5. G‘aniev, B. X. Makroiqtisodiyot: darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 416 b.
6. Abdukarimov, A. M. Ijtimoiy statistika. – Toshkent: “TDIU nashriyoti”, 2021. – 352 b.
7. Qurbonov, X. M. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyoti. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022. – 328 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – “Inflyatsiya darajasi va aholining real daromadlari tahlili” bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2022.
9. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2022/2023. – New York: UNDP, 2023. – https://hdr.undp.org
10. World Bank. Uzbekistan Economic Update, Spring 2023: Strong Growth Amid Global Uncertainty. – Washington, DC: The World Bank, 2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. – “Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikning o‘rni” mavzusidagi tahliliy ma’lumot. – Toshkent, 2022.
12. Toshmatov, A. R. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo‘jaliklari daromadlari tahlili. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, №2, 2023. – B. 45–53.
13. Statistika qo‘mitasi hisobotlari: “O‘zbekiston aholisining daromadlari 2024-yil I chorak yakunlari bo‘yicha.” – Toshkent, 2024-yil.
14. Mirzayev, R. R. Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 33-son qarori. – “Uy xo‘jaliklari daromadlari monitoringini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.”

XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI TAVAKKALCHILIGINI SUG'IRTALASH MUAMMOLARI

Xakimov Zafar Ibragimovich
TISU "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510504

Annotatsiya: Maqolada turli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi sug'urtasini joriy etish tajribasi tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligidagi xatarlarni minimallashtirish va ushbu sohani izchil rivojlantirish tarmoqda tadbirkorlik sohasini moliyalashtirishga bog'liq. Shu bilan birga, mamlakatimizda shakllangan qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimi tegishli jahon tajribasi fonida ko'rib chiqilib, agrar sohada joriy etila boshlagan yangi sug'urta mexanizmlarining xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: agrar sug'urta; lizing; qishloq xo'jaligi; risklarni boshqarish; amortizatsiya; sug'urta mukofoti; sug'urta polisi.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan O'zbekiston uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash tizimining xorijiy tajribasini o'rganish asosida sug'urtalashning samarali shakllari va mexanizmlarini belgilash hamda uning mamlakatimiz sharoitlariga moslashtirilgan shakllarini joriy etish imkoniyatlarini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlari qishloq xo'jaligi sektorining barqarorligini oshirishning samarali vositasi sifatida qishloq xo'jaligi xavflarini sug'urtalashni faol rivojlantirmoqda va qo'llab-quvvatlamoqda.

Har bir mamlakat qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun turli strategiyalardan foydalanadi, ammo ularning barchasini faqat tijorat va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlarga bo'lish mumkin.

Shu bois jahon amaliyotida global qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimidagi olimlar va amaliyotchilar sug'urtaning ikkita asosiy modelini ajratib ko'rsatishadi, ular shartli ravishda amerika modeli va yevropa modeli deb ataladi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi amerika modelining mohiyati shundan iboratki, u qishloq xo'jaligi tavakkalchiligini sug'urtalashni qo'llab-quvvatlashda davlatning keng ishtirokini ta'minlaydi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning markaziy elementi sug'urta mukofotining bir qismini to'lash uchun subsidiyalar berishdan iborat bo'lib, bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining sug'urta xarajatlarini kamaytirish va sug'urtaning ommaviyligini ta'minlash imkonini beradi.

Yevropa modelining mohiyati xususiy sifatida tavsiflanadi, bu esa davlatning minimal aralashuvini bildiradi.

AQShda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga sug'urta mahsulotlarining keng assortimenti va qoplash darajalari taklif etiladi. Subsidiyalar darajasini oshirish orqali hukumat qishloq xo'jaligi sug'urtasi dasturida ishlab chiqaruvchilarning ishtiroki darajasini oshirmoqda.

Sug'urta dasturlari xususiy sug'urta kompaniyalari orqali taklif etiladi, ammo hukumat ularga ma'muriy va operatsion subsidiyalar beradi, shuningdek, qayta sug'urtalashni qo'llab- quvvatlaydi.

Fermerlar turli xil sug'urta turlarini tanlash imkoniyatiga ega.

AQShda 100 dan ortiq ekinlar uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan.

AQShda qishloq xo'jaligi korxonasini to'liq sug'urta qilish imkonini beruvchi turli xil sug'urta mahsulotlari (370 dan ortiq) mavjud:

- hosil yoki daromad sug'urtasi;
- hududiy ko'rsatkichlar bo'yicha yoki xo'jalik ma'lumotlari bo'yicha sug'urta qilish;
- kapital aktivlarni sug'urta qilish (masalan, mevali daraxtlar yoki ko'chatxonalar);
- butun xo'jalikni sug'urta qilish.

Fermerlar turli xil sug'urta turlarini tanlash imkoniyatiga ega. Quyidagi sug'urta dasturlari keng tarqalgan:

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jaligida sug'urtalashning turlicha yondashuvlari mavjud. Avvalo, bu yondashuvlar davlatning sug'urta tizimidagi ishtiroki darajasida farqlanadi:

Germaniyada sug'urta o'zaro sug'urta uyushmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniyada faqat bitta xavfdan sug‘urta ta’minlanadi – u nemis qishloq xo‘jaligi ekinlarining 80 foizdan ko‘prog‘ini qamrab oladi. Odatda, sug‘urtalangan fermerlar bunday uyushmalarga a’zo hisoblanadi.

Biroq, a’zo bo‘lmagan dehqonlar ham sug‘urta qilish huquqiga ega. Ushbu sug‘urta turi nemis dehqonlari orasida yaxshi obro‘ga ega bo‘lib, risklarni boshqarishning ishonchli vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Sug‘urtalangan yo‘qotishlarni monitoring qilish va baholash uyushma a’zolari (fermerlar) tomonidan amalga oshiriladi. Bunday holda, baholovchilarning mintaqalararo ish tizimi qo‘llaniladi: fermer-baholovchilar shartli ravishda baholash o‘tkaziladigan mintaqadan boshqa mintaqadan bo‘lishi kerak. Bu poraxo’rlik muammosini hal qilishga yordam beradi.

Talab qilinmagan sug‘urta zaxiralari shakllangan taqdirda, uyushma a’zolarining umumiy yig‘ilishi qarori bilan ushbu mablag‘lar uyushma a’zolariga to‘lanadi.

O‘zaro sug‘urta uyushmalari tomonidan sug‘urta zaxiralarini shakllantirish uchun ajratilgan mablag‘lar, agar ular sug‘urta summasining ma’lum foizidan oshmasa, soliqqa tortilmaydi.

1-jadval

Germaniyada qishloq xo‘jaligidagi tavakkalchilikni sug’urtalash bo‘yicha ma’lumot[1]

Xususiy sug‘urta yechimlari		Davlat favqulodda choralari
Do‘ldan birgalikda sug‘urtalash	**Bavariya sug‘urta palatasi**	Tabiiy ofat, noqulay ob-havo sharoiti bilan teng bo‘lgan risklar, bankrotlik xavfi ostida bo‘lgan korxonalar uchun maksimal zararni qoplash 80% ni tashkil qiladi va rentabellik o‘rtacha 30% ga kamayadi
		«Landwirtschaftliche Rentenbank» tomonidan taqdim etilgan likvidlik kafolati
Ekologik sug‘urta	**Myunxen Re**	Hayvonlar uchun ozuqa va ovlanadigan hayvonlarni etishtirish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish zonalaridan foydalanishga ruxsat berilgan
		Soliqlar, ijtimoiy sug‘urta va yer ijarasi to‘lovlarini kechiktirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar

Fransiyada qishloq xo‘jaligi ekinlari va yaylov tipidagi qishloq xo‘jaligi hayvonlarining yo‘qotilishini qoplaydigan Tabiiy ofatlar fondi mavjud.

Sug‘urtalangan risklarga haddan tashqari yog‘ingarchilik, suv toshqini va suv bosishi, sovuq, qurg‘oqchilik, bo‘ronlar, epidemiyalar va parazitlar kiradi. Jamg‘arma mulkni sug‘urtalash shartnomalariga qo‘shimcha badallar hisobiga shakllantiriladi.

Italiyada qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi asosan xususiy sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi, ammo hukumat tomonidan katta moliyaviy yordam

mavjud. Bundan tashqari, do‘l deyarli sug‘urta qilinadigan yagona xavf hisoblanadi.

Uzum, meva va g’alla ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligi ekinlarini sovuqdan sug‘urtalash dasturlari mavjud. Sug‘urta badallarini to‘lash xarajatlarining 50 foizini mamlakat hukumati, qolgan yarmini fermerlar (mahalliy hokimiyat ba’zi hollarda mukofot to‘lovlarining 10 foizigacha) o‘z zimmalariga oladilar.

Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun, shu jumladan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda, JST mezonlariga mos keladigan samarali faoliyat ko‘rsatuvchi risklarni sug‘urtalash tizimini rivojlantirishdan iborat bo‘ldi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligini sug‘urtalashning samarali mexanizmining ayrim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

[1] Agricultural drought risk management in Germany: Insurance solutions and other public support measures. Factsheet/March 2019.

✓ davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining rivojlanganligi;
✓ davlat ishtirokining turli shakllaridan foydalanish (zararning bir qismini qoplash yoki sug‘urta badallarini subsidiyalash);
✓ davlat ishtirokidagi dasturlarning aniq mezonlari;
✓ faoliyat sohasiga tizimli yondashuv.

O’zbekistonda xorijiy davlatlar tajribasini umumlashtirgan holda quy’idagi tavsiyalarni berish mumkin:

- qishloq xo‘jaligi sug‘urtasining barcha sub’ektlari (davlat, sug‘urta kompaniyasi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchisi) manfaatlariga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yaratish;
- muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajaruvchi muayyan davlat organining (Qishloq xo‘jaligi vazirligi, maxsus idora yoki tashkilot) mavjudligi;
- maxsus fondlar yaratish yoki davlat kafolatlari bilan qayta sug‘urtalash operatsiyalarini amalga oshirish orqali moliyaviy resurslarni birlashtirish.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida sug‘urta tizimini takomillashtirish va O‘zbekiston agrar sektorida sug’urta bozorini shakllantirishda, qishloq xo‘jaligi sug‘urtasini tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha xalqaro tajribadan to‘la foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xakimov Z.I. Tomorqa xizmati” MChJ lar faoliyatini sug‘urta xizmati orqali moliyaviy qo‘llab quvvatlash – aholi tomorqalaridan samarali foydalanish garovidir. International conference on learning and teaching”, 2022, №8. -615 b.
2. Xakimov Z.I. Xorijiy davlatlarda tomorqa yer egalari xarajatlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari va tamoyillari. Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari to`plami, 2-qism,Toshkent, TMI,2022-yil 27-may, 26-30 b.
3. Xakimov Z.I. **Aholi tomorqalaridan foydalanishni moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlari** (**M**onografiya). ***M****onografiya.* – Termiz, **“Metodist”** nashriyoti, 2024. – 133 b.
4. Agricultural drought risk management in Germany: Insurance solutions and other public support measures. Factsheet/March 2019.

ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ МОЛИЯ СЕКТОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Т.И. Бобакулов
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳамаси ҳузуридаги
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби профессори, и.ф.д
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510525

Аннотация

Илғор хориж тажрибаси кўрсатадики, молия секторини ривожлантириш иқтисодиётнинг реал секторини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шарти ҳисобланади. Миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш, инфляцияга қарши курашиш, давлат бюджетининг мутаносиблигини таъминлаш иқтисодиётнинг реал сектори корхоналари фаолиятини ривожлантиришда муҳим ўрин тутади.

Мақолада Ўзбекистон иқтисодиётининг молия секторини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммолар аниқланган ва уларни ҳал қилишга қаратилган илмий таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: молия сектори, инфляция, пул массаси, кредит, фоиз ставкаси, давлат бюджети, дефицит, дебитор қарздорлик.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони билан тасдиқланган Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегиясида 2023йилда инфляциянинг йиллик даражасини 5 фоиздан ошмаслигини таъминлаш, давлат бюджети дефицитининг номинал ялпи ички маҳсулотга нисбатан 3 фоиздан ошмайдиган даражасига эришиш, мамлакатда инвестиция муҳитини янада яхшилаш ва унинг жозибадорлигини ошириш, келгуси беш йилда 120 миллиард АҚШ доллари, жумладан 70 миллиард доллар хорижий инвестицияларни жалб этиш чораларини кўриш, иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган [1]**.** Бу эса, ўз навбатида, иқтисодиётнинг молия секторини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммоларни аниқлаш ва уларни ҳал қилишнинг илмий жиҳатдан асосланган йўлларини ишлаб чиқиш заруриятини юзага келтиради.

Фикримизча, мамлакат иқтисодиётининг молия секторини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммолардан бири – бу тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг фоиз ставкаларини юқори эканлигидир. Ўз навбатида, тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг фоиз ставкаларини юқори эканлиги инфляция даражасини ва Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасини юқори эканлиги билан изоҳланади.

Гарчи Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877 – сонли “Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармонида мамлакат Марказий банкига инфляция даражасини 2021 йилда 10 фоизгача пасайтириш ҳамда 2023 йилда 5 фоиз даражадаги доимий инфляцион мақсадга эришиш мажбурияти юкланган бўлсада, инфляцияни мақсадли кўрсаткичига эришишнинг иложи бўлмаётир [9].

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг ўртача йиллик фоиз ставкаси, инфляциянинг йиллик даражаси ва Марказий банк қайта молиялаш ставкасининг йиллик даражаси, фоизда[1]

Кўрсаткичлар	2021 й.	2022 й.	2023 й.	2024 й.
Кредитларни фоиз ставкаси	20,8	21,9	23,1	23,8
Инфляция даражаси	10,0	12,3	8,8	9,8

[1] Жадвал муаллифлар томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотлари асосида тузилган.

Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкаси	14,0	15,0	14,0	13,5

Изоҳ: маълумотлар ҳар бир молиявий йилнинг 31 декабрь ҳолатига олинган.

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, 2021-2024 йилларда республикамиз тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг ўртача йиллик фоиз ставкаси ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бу эса, мазкур даврда инфляция даражасини ва Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасини юқори бўлганлиги билан изоҳланади.

Ўзбекистон иқтисодиётининг молия секторини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган яна бир долзарб муаммо бўлиб, иқтисодиётни пул маблағлари билан таъминланганлик даражасининг паст эканлиги ҳисобланади.



1-расм. Ўзбекистон иқтисодиётини пул маблағлари билан таъминланганлик даражаси, фоизда[2]

1-расм маълумотларидан кўринадики, 2021-2024 йилларда Ўзбекистон иқтисодиётининг пул маблағлари билан таъминланганлиги сезиларли даражада паст (халқаро амалиётда умумэътироф этилган энг паст даражаси 40 фоизни ташкил этади) бўлган

Иқтисодиётнинг пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини паст бўлиши корхоналар ўртасидаги тўловсизлик муаммосини ҳал қилиш имконини бермайди. Чунки, бундай шароитда корхоналар дебитор қарздорлигини айланиш тезлиги пасаяди.

Ўзбекистон иқтисодиётининг молия секторини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган яна бир муаммо – бу миллий валютадаги пул массасининг ўсиш суръатини юқори эканлигидир. 2024 йилда республикамизда миллий валютадаги пул массасининг йиллик ўсиш суръати 30,6 фоизни ташкил этди[3].

Пул массасининг паст суръатларда ва барқарор ўсишини таъминлаш миллий иқтисодиётни барқарор ўсиш суръатларини таъминлашнинг зарурий шарти эканлиги иқтисодиёт фанида илмий жиҳатдан асослаб берилган.

АҚШнинг Чикаго университети профессори, Нобель мукофоти соҳиби М.Фридмен АҚШ иқтисодиётти мисолида илмий жиҳатдан асослаб берганки, пул массасининг йиллик 3-5 фоиз даражасида ўсиши иқтисодиётда иқтисодий фаолликни кучайтиради. Пул таклифининг ўсиши йилига

[2] Расм муаллифлар томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотлари асосида тузилган.
[3] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари асосида ҳисобланган.

3-5 фоиздан юқори бўлса, унда инфляция ўса бошлайди, агар, иқтисодиётда пул таклифининг ўсиши 3-5 фоиздан кам бўлса, ялпи миллий маҳсулотнинг ўсиш суръати пасая бошлайди [10].



2-расм. Ўзбекистон Республикаси ташқи савдо балансининг дефицити, млн. АҚШ доллари[4]

2-расм маълумотларидан кўринадики, мамлакат ташқи савдо балансининг дефицити 2021-2023 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бунинг устига дефицит миқдори 2023 йилда 2021 йилга нисбатан юқори суръатда ўсган.

Хулоса ва таклифлар

Илмий мақола устида ишлаш жараёнида иқтисодиётнинг молия секторини ривожлантириш бўйича қуйидаги хулосаларни шакллантирдик:

*молия секторини ривожлантириш иқтисодиётнинг реал секторини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шарти ҳисобланади;

*пул массасининг паст ва барқарор ўсишини таъминлаш корхоналар фаолиятининг узлуксизлигини таъминлаш имконини беради ва иқтисодиётда иқтисодий фаолликни кучайтиради;

* пуллар таклифининг ўсиши натижасида фоиз ставкасининг пасайиши инвестицияларнинг муқобил қийматини пасайтиради ва фоиз меъёрининг пасайиб бориши билан фирма ва компаниялар ўзларининг режали инвестициялари ҳажмини оширадилар. Бу харажатлар режали харажатларнинг умумий суммаси билан қўшилиб, товар захираларининг кўзда тутилмаган миқдорда сарфланишига олиб келади;

* баҳоларнинг сезиларсиз даражадаги ўсиши ҳам иқтисодий ўсишга салбий таъсир кўрсатади, чунки, баҳоларнинг унчалик сезиларли даражада бўлмаган ўсиши ҳам инфляция динамикасидаги ноаниқликни кучайтиради;

*2021-2024 йилларда республикамиз тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг ўртача йиллик фоиз ставкасини ўсиш тенденциясига эга бўлганлиги мазкур даврда инфляция даражасини ва Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасини юқори бўлганлиги билан изоҳланади;

*2021-2024 йилларда Ўзбекистон иқтисодиётининг пул маблағлари билан таъминланганлиги сезиларли даражада паст бўлганлиги корхоналар ўртасидаги тўловсизлик муаммосини ҳал қилиш имконини бермайди;

*мамлакат ташқи савдо балансининг дефицити 2021-2023 йилларда ўсиш тенденциясига эга бўлгани ҳолда, дефицит миқдори 2023 йилда 2021 йилга нисбатан юқори суръатда ўсган.

Фикримизча, Ўзбекистон иқтисодиётининг молия секторини ривожлантириш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

[4] Расм муаллифлар томонидан Ўзбекисон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг статистик маълумотлари асосида тузилган.

1. Мамлакат иқтисодиётининг пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини ошириш учун экспансионистик монетар сиёсатни Ж.М.Кейнс томонидан Иккинчи жаҳон урушидан кейин таклиф этилган умумий талабни рағбатлантиришга қаратилган бюджет сиёсати билан уйғунлаштирган тарзда олиб бориш лозим.

Экспансионистик монетар сиёсат тижорат банкларининг кредит экспансиясини рағбатлантиради ва кредитларнинг номинал ялпи ички маҳсулотга нисбатан даражасини ошириш имконини беради. Бу эса, пул массасининг мультипликатив кенгайишини таъминлаш имконини берган ҳолда, иқтисодиётнинг пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини оширишга хизмат қилади.

Фикримизча, экспансионистик монетар сиёсатни амалга ошириш учун биринчидан, Марказий банк мажбурий захира талабномаси суммасини тижорат банкларининг “Ностро” вакиллик ҳисобрақамларида қолдириш йўли билан банкларнинг кредитлаш имкониятини ва ликвидлилигини ошириш лозим; иккинчидан, Марказий банкнинг дисконт ва ломбард кредитлари бериш амалиётини йўлга қўйиш билан тижорат банкларига бериладиган қайта молиялаш кредитлари ҳажмини ошириш зарур; учинчидан, тўловга қобиллик даражаси юқори бўлган тижорат банклари ва компанияларнинг депозит сертифкатлари ва облигацияларини Марказий банк очиқ бозор операцияларининг объектларига айлантирган ҳолда, тўғри РЕПО ва тескари РЕПО операцияларининг ҳажмини ошириш керак; тўртинчидан, миллий ссуда капиталлари бозорини шакллантириш асносида Марказий банк томонидан тижорат банклари кредитлари бозор баҳосининг паст ва барқарор даражасини таъминлашга эришиш.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан умумий талабни рағбатлантиришга қаратилган бюджет сиёсатининг амалга оширилиши номинал фоиз ставкасининг пасайишига олиб келади, монетизация коэффициенти даражасини ошириш имконини беради, Марказий банкнинг очиқ бозор операциялари ҳажмини оширишга замин яратади.

2. Мамлакат ташқи савдо балансининг дефицитига барҳам бериш мақсадида, биринчидан, мамлакатда ишлаб чиқариш имконияти бўлган товарларни импорт қилишга нисбатан вақтинчалик тарифсиз чеклов жорий қилиш керак; иккинчидан, Европа давлатларининг Ўзбекистон экспорти ва импортидаги улушини ошириш ҳисобига Россиянинг республикамиз резидентларининг ташқи савдо фаолиятига салоҳиятига нисбатан юзага келган салбий таъсирига барҳам бериш керак; учинчидан, миллий валютанинг Ўзбекистоннинг асосий ташқи савдо ҳамкорлари бўлган мамлакатларнинг (Россия, Хитой, Қозоғистон, Туркия) миллий валюталарига нисбатан реал алмашув курсининг ошиб кетишига йўл қўймаслик орқали ушбу мамлакатларга экспорт қилинаётган товарларнинг рақобатбардошлигини ошириш лозим; тўртинчидан, товарлар экспорт қилинаётган мамлакатларнинг бож солиғи ставкаларини пасайтириш бўйича музокаралар олиб бориш керак.

Бангладеш тажрибаси кўрсатадики, корхоналарнинг экспорт тушуми миқдори ва барқарорлигига маҳсулот экспорт қилинаётган мамлакатнинг бож солиғи ставкалари даражаси бевосита ва кучли таъсир кўрсатади. Бангладешдан экспорт қилинаётган товарлар учун АҚШда бож солиғи ставкалари жуда юқори бўлиб, даражасига кўра тўртинчи ўринни эгаллар эди. 2006 йилда Бангладешнинг АҚШга экспорти ҳажми 3,3 млрд. долларни ташкил қилгани ҳолда, тўланган бож солиғи суммаси 500 минг АҚШ долларини ташкил этди. Ҳолбуки, Буюк Британия ҳам шунча бож солиғи тўлади, аммо унинг АҚШга экспорти ҳажми 54 млрд. долларни ташкил этган эди [10].

3. Миллий валютанинг номинал алмашув курсининг волатиллик даражасини пасайтириш учун, биринчидан, мамлакатда ишлаб чиқариш имконияти бўлган товарларни импорт қилишга нисбатан вақтинчалик тарифсиз чеклов жорий қилиш, Европа давлатларининг Ўзбекистон экспорти ва импортидаги улушини ошириш ҳисобига Россиянинг республикамиз резидентларининг ташқи савдо салоҳиятига нисбатан юзага келган салбий таъсирига барҳам бериш, йўли билан миллий валютанинг Ўзбекистоннинг асосий ташқи савдо ҳамкорлари бўлган мамлакатларнинг (Россия, Хитой, Қозоғистон, Туркия) миллий валюталарига нисбатан реал алмашув курсининг ошиб кетишига йўл қўймаслик орқали мамлакат ташқи савдо балансининг дефицитига барҳам бериш зарур; иккинчидан, инфляциянинг мақсадли кўрсаткичига эришишни таъминлашга эришиш керак; учинчидан, ички

валюта бозорида хорижий валюталарга бўлган талаб билан хорижий валюталар таклифи ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш лозим.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегияси тўғрисида//www.lex.uz.
2. Фридмен М. Если бы заговорили деньги. Пер. с англ.-М.:ИНФРА-М, 2001.- С. 63.
3. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с.
4. Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. – М.: Либроком, 2010. – С. 111-112.
5. Уэрта де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. - С. 244-245.
6. Hess G., Morris C. The Long-Ruh Costs of Moderate Inflation//Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996. Second Quarter. – P. 71-88.
7. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation//Working Paper. 65. IMF. – P. 63 - 67.
8. Пивоварова М.А. Международная научно-практическая конференция: “Инфляция и экономический рост: теория и практика” // Деньги и кредит. – Москва, 2006. - №7. – С. 60.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877 – сонли “Инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2019 й., 06/19/5877/4036-сон.
10. Friedman F. Monetarist Economics. – Blackwell, 1991. – 188 p.
11. Юнус М., Ж.Алан. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2009. - С. 141.

YEVROPA DAVLATLARIDA TIZIMLI AHAMIYATGA MOLIK BANKLARNI ANIQLASH VA TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI

Ashurov Jaloliddin Eshpulatovich
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: jaloliddin@tersu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510557

Annotatsiya: Maqolada tizimli ahamiyatga molik banklar faoliyati nazariy jihatdan o‘rganilgan. Xususan, iqtisodchi olimlarning mazkur masala yuzasidan bildirgan fikrlari va ilmiy tadqiqotlari o‘rganilgan Shu bilan birga, eng asosiy urg‘u global va milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash metodologiyasiga qaratilgan. Jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, va tahliliy ma’lumotlari o‘rganilgan

Kalit so‘zlar: tijorat banki, tizimli ahamiyatga molik banklar, global tizimli ahamiyatga molik banklar, milliy tizimli ahamiyatga molik banklar, baholash ko‘rsatkichlari, Bazel qo‘mitasi.

Annotatsiya: V statye teoreticheski issledovana deyatelnost sistemoobrazuyuщix bankov. V chastnosti, izuchenы mneniya i nauchnie issledovaniya ekonomistov po dannomu voprosu. Pri etom osnovnoy aksent delayetsya na metodologii viyavleniya sistemno znachimыx bankov globalnogo i natsionalnogo xaraktera. V chastnosti, bil izuchen opit i analiticheskiye dannie Germani, Velikobritani i.

Klyuchevыe slova: kommercheskiy bank, sistemno znachimыe banki, globalnыe sistemno znachimыe banki, natsionalnыe sistemno znachimыe banki, pokazateli otsenki, Bazelskiy komitet.

Annotation: The article theoretically studies the activities of systemically important banks. In particular, the opinions and scientific research of economists on this issue are studied. At the same time, the main emphasis is placed on the methodology for identifying global and national systemically important banks. In particular, the experience and analytical data of the Germany, Great Britain, and are studied.

Keywords: commercial bank, systemically important banks, global systemically important banks, national systemically important banks, assessment indicators, Basel Committee.

Kirish

“Tizimli ahamiyatga molik banklar” moliya-kredit sohasida moliyaviy tizimning barqarorligi va mustahkamligi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan banklarga nisbatan qo‘llaniladigan atamadir.

Ushbu banklar shunchalik katta va muhim ahamiyatga egaki, ularda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar yoki muvaffaqiyatsizliklar butun mamlakat iqtisodiyotiga, hatto jahon iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Odatda tizimli ahamiyatga molik banklarning mazmuni turli mezonlarni o‘z ichiga oladi, masalan, aktivlar hajmi, xalqaro moliya bozorlarga ta’siri, bankning boshqa moliya institutlari bilan aloqalari va boshqalar. Nazorat qiluvchi organlar va xalqaro tashkilotlar inqirozlarning oldini olish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida banklarning kapitali, likvidligi va risklarni boshqarishga qo‘shimcha talablarni belgilash uchun tizimli ahamiyatga molik banklar ro‘yxatini shakllantirib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tizimli ahamiyatga molik banklar shunchalik katta va muhim ahamiyatga egaki, ularning faoliyati va holati butun moliya tizimining sog‘lomligi uchun ahamiyatli bo‘ladi. Ekspertlar va shu soha mutaxassislari “tizimli ahamiyatga molik banklar” ni moliyaviy tizimning barqarorligida strategik rol o‘ynaydigan asosiy moliyaviy subyektlar sifatida qarashadi. Ushbu banklar ko‘pincha moliyaviy infratuzilmaning “ustunlari” hisoblanadi va ularning barqarorligi iqtisodiyotning umumiy farovonligi uchun muhimdir.

“Tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlashga yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi “Global tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlashiga asoslanib, 2012-yil oktyabrda “Milliy tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlash bo‘yicha yondashuvlari hujjatni chiqdi.[1] Ushbu hujjatga muvofiq, tizimli ahamiyatga molik banklarni baholashda yuqorida muhokama qilingan omillar hisobga olinadi, xalqaro (transchegaraviy) faoliyat esa bundan mustasno, chunki Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasiga ko‘ra, “Milliy tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlash metodologiyasi, birinchi navbatda bankrotlikning milliy iqtisodiyotga ta’sirini baholashni aks ettirishi kerak. [2]

J.Larozyer o‘z tadqiqotlarida tizimli ahamiyatga molik yirik banklarga urg‘u berish shubhalarni keltirib chiqarishni qayd etadi. Bugungi kunda Yevropada eng xavfli tizimli ahamiyatga molik banklar emas, aksincha

shubhali ipoteka kreditlari va suveren qarz majburiyatlari haddan tashqari ko‘p bo‘lgan banklardir. Inqiroz ko‘rsatganidek, muammoning ildizi banklarning kattaligida emas, balki riskli aktivlarning konsentratsiyasi, bank faoliyatining o‘zaro daxldorligi va qisqa muddatli moliya bozorlariga haddan tashqari qaramligidadir. Odatiy o‘rtacha tizimli ahamiyatga molik bankning birinchi darajali kapitali koeffitsiyentining 2,5% ga oshishi o‘z kapitalining rentabelligini uchdan bir qismga kamaytiradi. Bu tizimli ahamiyatga molik banklar aktivlarining iqtisodiy o‘sishga zarar yetkazadigan darajada qisqarishi, ularning raqobatbardoshligining pasayishi, qo‘shilish, faoliyati tartibga solinmagan bankka o‘tkazish tendensiyasining kuchayishi kabi jiddiy oqibatlarga olib keladi.[3]

A.Demirguch-Kunt o‘z tadqiqotlarida “tizimli bankning hajmi” va “bankning mutlaq hajmi” tushunchalarini farqlash zarurligini ta’kidlaydi,[4] ya’ni, bank aktivlari bo‘yicha yirik banklar har doim ham “tizimli ahamiyatga molik bank” bo‘lmaydi. Bir qator iqtisodchi olimlar moliyaviy tashkilotlar faoliyatining diversifikatsiya darajasini baholash zarurligini ta’kidlaydi.

S.Jou bankning diversifikatsiya darajasi va uning tizimli ahamiyati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik bor degan xulosaga keladi, ya’ni. yaxshi diversifikatsiyalangan portfelga ega bo‘lgan kredit tashkilotlarini ham tizimli ahamiyatga molik deb tasniflash mumkin.[5]

Tadqiqot metodologiyasi

2011-yil noyabrda Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi “Global tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlash metodologiyasi[6] bo‘yicha birinchi xalqaro hujjatni tayyorladi. Mazkur “Global tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlash metodologiyasi hujjatida 5 ta toifada 13 ta umumiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha navbatdagi jadvaldagi ma’lumot orqali skoring baholash olib boriladi.

1-jadval

Tizimli ahamaiyatga molik banklarni aniqlash ko‘rsatkichlari

№	Kategoriya	Indikator	Ulushi, foizda
1.	Hajm	Yalpi risk	20
2.	O‘zaro aloqadorlik	Moliyaviy institutlarga bo‘lgan talab	6,67
		Moliyaviy institutlar oldidagi majburiyatlar	6,67
		Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	6,67
3.	O‘rnini bosish qobiliyati/moliyaviy infratuzilma instituti	To‘lovlar sohasidagi faoliyat	6,67
		Saqlash nazorati ostidagi aktivlar	6,67
		Qarz va qimmatli qog‘ozlar bozorlarida anderrayting operatsiyalari	3,33
		Savdo hajmi	3,33
4.	Murakkablik	Birjadan tashqari hosilaviy instrumentlarning shartli qiymati	6,67
		Qimmatli qog‘ozlar va sotish uchun qimmatli qog‘ozlar savdosi	6,67
		3-darajali aktivlar	6,67
5.	Xalqaro (transchegaraviy) faoliyat	Xalqaro (transchegaraviy) talablar	10
		Xalqaro (transchegaraviy) majburiyatlar	10

Hisoblash natijalariga ko‘ra, skoring bali aniqlanadi. Yakuniy ball 130 yoki undan yuqori bo‘lgan banklarni “Global tizimli ahamiyatga molik bank”lar sifatida aniqlanadi.

“Global tizimli ahamiyatga molik banklar” ro‘yxati har yili aniqlanadi. Bazel qo‘mitasi davlatlarga “Global tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlash qoidalari asosida “Milliy tizimli ahamiyatga molik banklar”ni aniqlashni bir xil chastotada o‘rganishni tavsiya etadi. Bank tizimi tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan taqdirda (masalan, yirik banklarning qo‘shilishi) milliy tizimli ahamiyatga molik banklar tarkibiga tuzatishlar kiritiladi. Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi hujjatida qo‘shimcha ko‘rsatkichlar va uning ulushini hisoblash usullari va qo‘shimcha kapital talablari ko‘rsatilmagan. Bu masalalar muayyan

yurisdiksiyaga va uning milliy bank sektoriga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda milliy tartibga soluvchi organlarning ixtiyorida qoldiradi. Xalqaro amaliyotda, aksariyat mamlakatlarda milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash usullari bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi hujjatlarida mustahkamlangan tamoyillarga asoslanadi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi hujjatlarida belgilangan asosiy omillarga qo‘shimcha sifatida, qo‘shimcha omillar va tartibga soluvchi organ me’yorlaridan faol foydalaniladi.

Yevropa Ittifoqi moliya institutlarining tizimli ahamiyatga molikligini baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda, miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni avtomatik ravishda hisoblanadi, ularning tarkibiga hisoblangan ko‘rsatkich 350 bazaviy punktdan yuqori bo‘lgan banklar kiradi.

2-jadval

Yevropa Ittifoqi tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash asosiy ko‘rsatkichlari

№	Kategoriya	Indikator	Ulushi, foizda
1.	Hajm	Yalpi risk	25
2.	Muhimlilik (moliyaviy institutni o‘rnini bosish qobiliyati/infratuzilma)	Ichki to‘lovlar hajmi	8,33
		Yevropa Ittifoqi omonatchilarining xususiy sektordagi depozitlari	8,33
		Yevropa Ittifoqi qarz oluvchilariga xususiy sektor kreditlari	8,33
3.	Murakkablik/ transchegaraviy faoliyat	Xalqaro (transchegaraviy) talablar	8,33
		Xalqaro (transchegaraviy) majburiyatlar	8,33
		Birjadan tashqari hosilaviy instrumentlarning shartli qiymati	8,33
4.	O‘zaro aloqadorlik	Moliyaviy institutlarga bo‘lgan talab	8,33
		Moliyaviy institutlar oldidagi majburiyatlar	8,33
		Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	8,33

Ikkinchi bosqichda milliy tartibga soluvchi organlar ro‘yxatga kiritilmagan boshqa moliya institutlarini tizimli ahamiyatga molikligini aniqlaydi. Shu bilan birga, milliy regulyatorlarning qaroriga ko‘ra, mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan indikatorlardan foydalaniladi. Milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashning ikkinchi bosqichida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida boshqacha tarzda amalga oshiriladi. Quyida biz Germaniya va Buyuk Britaniya misollari yordamida kengroq o‘rganishga harakat qilamiz.

1 va 2 jadval ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan global va milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash metodologiyalarini keltirilgan. Shu bilan birga, davlatlar Bazel qo‘mitasi tavsiyalaridan kelib chiqqan holda global va milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlaydi va ularga milliy nazorat qiluvchi organlar tomonidan qo‘shimcha me’yorlar belgilash amaliyotini qo‘llab keladi.

Tahlil va natijalar

Germaniya Federal moliyaviy nazorat organi (BaFin) Bundesbank bilan kelishilgan holda, har yili qaysi tijorat banklar milliy tizimli ahamiyatga molik banklar sifatida tasniflanishi mumkinligini aniqlaydi.[7] Ikkinchi bosqichda miqdoriy tahlil kengaytirilgan ko‘rsatkichlar to‘plamiga asoslanib aniqlanadi.

3-jadval

Germaniyada tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash ko‘rsatkichlari

№	Kategoriya	Milliy asosda shakllantirilgan indikatorlar

1.	Hajm	Jami aktivlar va shartli majburiyatlar
2.	Iqtisodiyot uchun ahamiyatli moliya instituti o‘rnini bosishi / infratuzilmasi	TARGET2 orqali ulangan bilvosita ishtirokchilar soni. Bankdan tashqari mijozlar uchun amalga oshirilgan ichki (milliy valyutada) to‘lov operatsiyalari hajmi. Bankdan tashqari mijozlar uchun amalga oshirilgan ichki (milliy valyutada) to‘lov operatsiyalari soni. Germaniyada xususiy sektor depozitlari. Germaniyada xususiy sektorga kreditlar
3.	Transchegaraviy faoliyat	Chet el nobank kontragentlar tomonidan qo‘yiladigan talablar. Xorijiy banklarning talablari. Savdo portfelidagi derivativlardan olingan daromadlar. Chet el nobank kontragentlari oldidagi majburiyatlar. Xorijiy banklar oldidagi majburiyatlar. Savdodagi derivativ vositalar bo‘yicha majburiyatlar. Germaniya yuridik jihatdan mustaqil bo‘lgan sho‘ba korxonalar soni
4.	O‘zaro aloqadorlik	Banklardan olingan mablag‘lar. Germaniyadagi sug‘urta va boshqa moliya institutlaridan olingan mablag‘lar. Banklar oldidagi majburiyatlar. Germaniyadagi banklar va boshqa moliya institutlari oldidagi majburiyatlar. Emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlar

100 va undan yuqori ball to‘plagan barcha muassasalar milliy tizimli ahamiyatga molik banklar sifatida tasniflanadi. Natijalar Germaniya Federal moliyaviy nazorat organi BaFin va Bundesbank tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu bosqichda 100 balldan kam ballga ega bo‘lgan subyektlar ham ekspert xulosasiga ko‘ra tizimli ahamiyatga molik ekanligini aniqlash mumkin. Olingan ballarga ko‘ra, banklar 4 guruhga bo‘linadi, ularga Germaniya bank qonunchiligiga muvofiq 0,5 dan 2% gacha qo‘shimcha kapital qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniya nazorat organi (Prudential Regulation Authority) milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashning ikkinchi bosqichida tashkilotning turli toifalardagi ahamiyatini baholashga asoslangan nazorat yondashuvini qo‘llaydi [8]

4-jadval

Buyuk Britaniya tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash ko‘rsatkichlari

№	Kategoriya	Indikatorlar	Kategoriya ichidagi ulush, % da
1.	Chakana bank ishi	Chakana bank depozitlari	44
		Chakana bank kreditlari	23
		Chakana bank mijozlari	33
2.	Korporativ bank ishi	Korporativ depozitlar hajmi	60
		Korporativ kreditlar hajmi	40
3.	Banklararo operatsiyalar	Banklararo bozordagi majburiyatlar	50
		Banklararo bozordagi aktivlar	50
4.	To‘lovlar, hisob-kitoblar, kliring	CHAPS tizimi orqali o‘rtacha kunlik tranzaksiyalar hajmi	35
		BACS tizimi orqali o‘rtacha kunlik tranzaksiyalar hajmi	15
		CREST tizimi orqali o‘rtacha kunlik tranzaksiyalar hajmi	35

		LCH tizimi orqali o‘rtacha kunlik tranzaksiyalar hajmi	15
5.	Saqlash xizmati	Boshqarilayotgan aktivlar	100
6.	Investitsion bank ishi	Savdodagi aktivlar	50
		Bozor tranzaksiyalari hajmi	50

Umumiy ball 100 dan oshgan barcha banklar milliy tizimli ahamiyatga molik banklar hisoblanadi. Bundan tashqari, nazorat organi 100 balldan kam bo‘lgan tijorat banklarni milliy tizimli ahamiyatga molik banklar sifatida quyidagi holatlarda belgilashi mumkin:

• agar bank o‘tgan yili milliy tizimli ahamiyatga molik banklar sifatida aniqlangan hamda nazorat organi fikriga ko‘ra, Buyuk Britaniya yoki Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti uchun tizimli ahamiyatga molik bo‘lsa;

• agar bankning xorijdagi banki sho‘basi milliy tizimli ahamiyatga molik banklar sifatida belgilangan bo‘lsa va uning moliyaviy barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lsa.

Buyuk Britaniya nazorat organi har yili tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlaydi va ularning ro‘yxatini e’lon qiladi. Masalan, 2018-yil holatiga ko‘ra,[9] 15 ta tizimli ahamiyatga molik banklar bo‘lib, ularning 6 tasi birinchi bosqichda, 9 tasi ikkinchi bosqich natijalariga ko‘ra kiritilgan. 100 bazis punktdan kam ballga ega bo‘lgan tijorat banklar tizimli ahamiyatga molik banklar deb topilmadi.

Boshqa mamlakatlarda (Yevropa Ittifoqidan tashqarida) milliy tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash metodologiyasi ball asosida baholashni, ham miqdoriy ham sifat ko‘rsatkichlari asosida qo‘shimcha baholashni birlashtirgan holda qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash muhim masalalardan biri ekanligi barchamizga ma’lum. Shu bilan birga, yirik banklar moliyaviy qiyinchiliklar boshidan kechirishi “domino effekti” natijasida iqtisodiy subyektlarning faoliyati murakkablashuviga va iqtisodiy vaziyatning taranglashuviga, bu esa salbiy oqibatlarga olib kelishi ma’lum.

Shu bois, tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash, milliy va global tizimli ahamiyatga molik banklarni belgilash va uning faoliyatini tartibga solish har qanday muammoli vaziyatlarni oldini oladi. Barcha davlatlarning nazorat qiluvchi organlari tizimli ahamiyatga molik banklar uchun qo‘shimcha iqtisodiy me’yorlar belgilashi va ular faoliyatining barqarorligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun doimiy ravishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganib borish, shu bilan birga bank nazorati bo‘yicha xalqaro Bazel qo‘mitasi tavsiyalarini amalga oshirib borish turli murakkab vaziyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A framework for dealing with domestic systemically important banks. URL: https://www.bis.org/publ/bcbs233.pdf
2. A framework for dealing with domestic systemically important banks. Principle 5. Pp. 3, 6.
3. Larozyer J. de. Regulirovaniye protiv nadzora // Central-Banking. com, February 21, 2012. URL: http://www.centralbanking.com/type/interview/ category/central-banks/monetary-policy
4. Demirguc-Kunt A. Do we need big banks? Evidence on performance, strategy and market discipline. The World Bank Development Research Group Finance and Private Sector Development Team, 2011.
5. Zhou C. Are Banks Too Big to Fail? Measuring Systemic Importance of Financial Institutions. International Journal of Central Banking, 2010
6. Global systemically important banks: assessment methodology and the additional loss absorbency requirement. URL:https://www.bis.org/publ/bcbs207.pdf
7. Podxodы k opredeleniyu natsionalno sistemno znachimыx bankov izlojenы v dokumente Deutsche Bundesbank, The German Federal Financial Supervisory Authority «Main features of the method for the identification of other systemically important institutions (O-SII)», 08.05.2017. URL:https://www.bundesbank.de/resource/blob/625806.pdf

8. Statement of Policy “The PRA”s approach to identifying other systemically important institutions (O-SIIs)» (fevral 2016). URL: https://www.bankofengland.co.uk/–/media/boe/files/prudential-regulation/policy-statement/2016
9. Po otchetnым dannым na 31-dekabrya 2017 goda. URL: https://www.bankofengland.co.uk
10. Hong Kong Monetary Authority Supervisory Policy Manual Systemically Important Banks. CA-B-2. V1–18.02.2015. URL:https://www.hkma.gov.hk/media/eng/doc/key-functions/banking-stability/supervisory-policy-manual/CA-B-2.pdf

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOMIY BANK MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Yo'ldoshev Behruz Behzod o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
Moliya yo'nalishi 1-kurs magistranti
Norpo'latov Jonibek O'rol o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
Moliya yo'nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17510586

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston moliya tizimida islomiy bank mahsulotlarini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Islomiy moliya tamoyillarining mohiyati, ularning milliy iqtisodiy tizimga mosligi, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, islomiy moliya vositalari kichik biznes uchun adolatli, barqaror va diniy e'tiqodlarga mos moliyaviy manba bo'lishi mumkinligi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, kichik biznes, tijorat banklari, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, moliyaviy inklyuziya.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosatining markazida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi turibdi. Chunki kichik biznes mamlakatda bandlikni ta'minlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, ichki bozorni to'ldirish va eksport salohiyatini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji yuqori, ammo ularning tijorat banklaridan kredit olish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda.

An'anaviy bank tizimida kreditlar foizli qarz shaklida beriladi, bu esa ko'plab tadbirkorlar uchun, ayniqsa diniy e'tiqodlarga sodiq bo'lganlar uchun, ma'lum noqulaylik tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, islomiy moliya konsepsiyasi kichik biznesni moliyalashtirishda muqobil va adolatli mexanizm sifatida e'tiborga loyiqdir. Islomiy moliya Shariat tamoyillariga asoslanadi, ya'ni *ribo* (foiz), *g'arar* (noaniqlik) va *maysir* (spekulyatsiya)ni taqiqlaydi hamda moliyaviy operatsiyalarni haqiqiy aktivlar bilan bog'laydi.

Islomiy banklar *murabaha, musharaka, mudaraba* va *ijara* kabi vositalar orqali mijozlar bilan sheriklik asosida ishlaydi. Bu yondashuv nafaqat diniy e'tiqodlarga mos, balki risklarni bo'lishish va foydani adolatli taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonning islomiy moliya tizimini joriy etish uchun tabiiy afzalligi — musulmon aholining ustunligi va hukumatning moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilishga bo'lgan siyosiy irodasi bilan izohlanadi[1].

Shuningdek, islomiy moliya vositalari kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq joylarda tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Malayziya, Indoneziya, Turkiya, BAA kabi mamlakatlar tajribasi islomiy bank mahsulotlarining iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini yaqqol ko'rsatmoqda.

Islomiy moliya — bu foizsiz, sheriklik va adolatga asoslangan moliya tizimi bo'lib, u Shariat qonun-qoidalariga muvofiq faoliyat yuritadi. Uning asosiy maqsadi moliyaviy foyda olish bilan birga, iqtisodiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va inson manfaatini himoya qilishdir. Shariatda *ribo* (foiz), *g'arar* (noaniqlik) va *maysir* (spekulyatsiya) qat'iyan man etilgan bo'lib, barcha moliyaviy bitimlar real aktivlarga asoslangan bo'lishi kerak[2].

Islomiy banklar an'anaviy banklardan farqli ravishda foizli kredit berish o'rniga sheriklik yoki savdo asosidagi moliyalashtirish shakllaridan foydalanadi. Ularning daromadi foizdan emas, balki loyihaning

[1] Absamatov A. E. (2024). *Implementing Islamic Banking Services in Uzbekistan. Journal of Economics, Finance and Management Studies,* Vol. 7(8), 4888–4898.
[2] Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Overview of the Banking Sector.*

foydasidan, savdo marjasidan yoki ijaradan olinadi. Bu yondashuv nafaqat diniy jihatdan to‘g‘ri, balki iqtisodiy jihatdan ham risklarni adolatli taqsimlash imkonini beradi[3].

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi — aynan ushbu sektorni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishdan iborat. Kichik biznes iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida faoliyat yuritib, yalpi ichki mahsulotning qariyb yarmidan ortig‘ini shakllantirmoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi 56 foizni, band aholining esa 74 foizini tashkil etgani bu sohaning iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi[4].

Mamlakatda tijorat banklari tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli davlat dasturlari, subsidiyalar va imtiyozli kredit liniyalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning amaliy samarasi hanuz yetarli darajada emas. Ayniqsa, qishloq joylardagi kichik tadbirkorlar bank xizmatlariga yetarlicha kira olmayapti. Buning sabablari sifatida moliya infratuzilmasining rivojlanmaganligi, axborot yetishmovchiligi va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi ko‘rsatiladi.

Kichik biznes subyektlari uchun mavjud moliyalashtirish manbalari asosan kreditlar va lizing shartnomalaridan iborat bo‘lib, ular ko‘pincha qisqa muddatli va yuqori xarajatli hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan uzoq muddatli kapitalni jalb etishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, an’anaviy bank tizimining imkoniyatlari kichik biznesning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti.

Yuqoridagi omillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi, moslashuvchan va adolatli moliyaviy mexanizmlarga ehtiyoj mavjud. Aynan shu nuqtada islomiy moliya tizimi katta imkoniyatlar yaratadi. Islomiy moliya vositalari — murabaha, musharaka, mudaraba, ijara va takaful kabi mahsulotlar — tadbirkorlik faoliyatini foizsiz, sheriklik asosida moliyalashtirishga yo‘l ochadi. Bu model kichik biznes uchun foyda va risklarni adolatli taqsimlash orqali yangi moliyaviy manbalarni yaratish imkonini beradi.

O‘zbekiston moliya tizimida islomiy bank mahsulotlarining joriy etilishi kichik biznes uchun yangi bosqichni boshlab berishi mumkin. Mamlakat aholisi asosan musulmon bo‘lgani sababli, aholining ma’lum qismi an’anaviy bank kreditlarini diniy sabablarga ko‘ra chetlab o‘tadi. Shu sababli, foizsiz moliyaviy vositalar asosidagi islomiy bank mahsulotlari, ayniqsa kichik va o‘rta biznes uchun, moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning eng muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Islomiy moliya tizimi o‘z tabiatiga ko‘ra tadbirkorlikni rag‘batlantiradi. U faqat real aktivlarga asoslangan bitimlarni moliyalashtiradi, bu esa iqtisodiyotning real sektoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni yo‘naltirish imkonini beradi. Masalan, murabaha modeli kichik korxonalarga tovar yoki uskunalarni sotib olish uchun, ijara esa ishlab chiqarish vositalarini lizing asosida moliyalashtirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Musharaka va mudaraba esa tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirishda bank va mijoz o‘rtasida sheriklik asosida foyda-zararni teng taqsimlaydi. Bu holat kichik biznesning moliyaviy yukini yengillashtirib, risklarni kamaytiradi.

Islomiy moliya tizimi yordamida kichik biznesni rivojlantirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, u diniy e’tiqodga mos muhit yaratadi; ikkinchidan, tadbirkorlar uchun kredit yukini kamaytiradi; uchinchidan, foyda va riskni adolatli taqsimlash orqali o‘zaro ishonchni kuchaytiradi.

Bugungi kunda dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik biznesni islomiy moliyalashtirish ko‘plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli natijalar bergan. Masalan, Malayziya va Indoneziyada islomiy banklar kichik korxonalarga moslashtirilgan maxsus mikrofinans mahsulotlarini ishlab chiqqan. Bahrayn va Birlashgan Arab Amirliklarida islomiy mikrobanklar jamiyatning past daromadli qatlamlarini, shu jumladan ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu kabi modelni O‘zbekistonda ham joriy etish kichik biznes uchun sezilarli turtki berishi mumkin.

[3] Iqbal Z., Mirakhor A. *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice.* John Wiley & Sons.
[4] https://www.stat.uz/

O‘zbekistonning moliya tizimi islomiy moliyani joriy etishga tayyorligini ko‘rsatuvchi bir necha omillar mavjud. Birinchidan, hukumat darajasida islomiy moliyaga nisbatan siyosiy qo‘llab-quvvatlash kuchaymoqda. So‘nggi yillarda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda, shu jumladan, islomiy mikrofinans institutlarini tashkil etish va Shariatga muvofiq qonunchilikni ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. Ikkinchidan, O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar doirasida bank sektorini liberallashtirish va xususiy sektor ulushini oshirish yo‘lida qadamlar tashlanmoqda. Bu esa yangi turdagi moliyaviy xizmatlar, jumladan islomiy bank mahsulotlarini joriy etish uchun qulay muhit yaratadi.

Biroq, bu jarayonni to‘liq amalga oshirish uchun muhim shartlar mavjud. Birinchi navbatda, mamlakatda islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy baza to‘liq shakllantirilishi zarur. Hozirda islomiy moliyaga oid qonunlar loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, u amaliyotda to‘liq joriy etilmagan. Shuningdek, tijorat banklarida Shariat kengashlarini tashkil etish, moliyaviy bitimlarning halolligini nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Ikkinchi muhim masala — kadrlar tayyorlash. Islomiy moliya sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi bu tizimni joriy etishda jiddiy to‘siqlardan biridir. Shu sababli, universitetlar, jumladan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent xalqaro islom akademiyasi bazasida islomiy moliya bo‘yicha maxsus magistratura dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi yo‘nalish — aholi va tadbirkorlar o‘rtasida islomiy moliya bo‘yicha savodxonlikni oshirish. Bugungi kunda ko‘plab tadbirkorlar islomiy bank mahsulotlarining mohiyatini to‘liq tushunmaydi. Shu bois, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, seminarlar va treninglar orqali aholining bu boradagi bilimini kengaytirish zarur.

Islomiy moliyaning rivojlanishi kichik biznes uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Xususan, islomiy mikrofinans tashkilotlari orqali kichik hajmdagi, lekin barqaror va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar moliyalashtirilishi mumkin. Masalan, qishloq joylarda hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yoki xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida islomiy asosda kreditlash mexanizmlarini joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy natija beradi — bandlik oshadi, kambag‘allik kamayadi va tadbirkorlik muhiti mustahkamlanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari faoliyati mamlakatning iqtisodiy barqarorligini, bandlikni va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznesni moliyalashtirishda mavjud an’anaviy bank tizimi ularning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Yuqori foiz stavkalari, qattiq garov talablari, kredit olish jarayonidagi byurokratik to‘siqlar, shuningdek aholining diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq muammolar ushbu sohada yangi, adolatli va barqaror moliyaviy mexanizmlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, islomiy moliya tizimi O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni moliyalashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Islomiy moliya vositalari — murabaha, mudaraba, musharaka, ijara va takaful — kichik biznesga foizsiz, riskni sheriklik asosida bo‘lishuvchi, adolatli moliyaviy yechimlarni taqdim etadi. Bunday tizim kichik tadbirkorlik uchun nafaqat muqobil manba, balki uzoq muddatli barqarorlik kafolati bo‘lishi mumkin.

Islomiy bank mahsulotlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida ayrim muammolar mavjud. Ulardan eng asosiysi — islomiy moliyani tartibga soluvchi huquqiy baza hali to‘liq shakllanmaganidir. Shuningdek, kadrlar tayyorlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, Shariat kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va xalqaro tajribani moslashtirish zarur. Bu muammolar bosqichma-bosqich hal etilsa, O‘zbekistonda islomiy moliya tizimi barqaror shaklda rivojlanadi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqiy-me’yoriy bazani mustahkamlash. Islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun va normativ hujjatlar ishlab chiqilishi, Shariatga muvofiq moliyaviy operatsiyalarni nazorat qiluvchi idoralar tashkil etilishi lozim.
2. Tijorat banklarida islomiy bo‘limlar tashkil etish. An’anaviy banklar tarkibida Shariatga mos xizmatlar ko‘rsatadigan maxsus bo‘limlarni yaratish kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

3. Aholi va tadbirkorlar moliyaviy savodxonligini oshirish. Ommaviy axborot vositalari, seminarlar, treninglar orqali islomiy moliya mohiyatini tushuntirish va unga nisbatan ijobiy ishonchni shakllantirish muhim.
4. Raqamli islomiy moliya tizimini joriy etish. Fintech asosidagi onlayn platformalar orqali islomiy moliyalashtirish xizmatlarini kengaytirish nafaqat shahar, balki qishloq hududlarida ham kichik biznesni qamrab olishga imkon beradi.

1. Коповая О. В, Ерофеева М. А., Шанин С. В. Профессиональная культура педагога как условие организации эффективного педагогического взаимодействия // Прикладная психология и педагогика, 2021. – Том 6, № 4. – С. 12-24.
2. Игнатьева Н. Г. Формирование экономической культуры у студентов педвуза как компонента их профессиональной компетентности: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Йошкар-Ола, 2007. – 20 с.
3. Эфендиева Н. Д., Сергеева М. Г. Особенности формирования экономической культуры студентов в системе высшего образования // Научно-методический электронный журнал «Концепт» – 2025. – № 02. – С. 256-269. URL: https://e-koncept.ru/2025/251031.htm – DOI: 10.24412/2304-120X-2025-11031
4. Богданчикова Е. Н., Федосова Т. С. Межличностное взаимодействие в процессе формирования экономической культуры обучающихся // Новая реальность: экономика, менеджмент, социальные коммуникации: материалы всероссийской научно-практической конференции с международным участием (Новосибирск, 16–17 апреля 2025 г.) : в 2 частях ; Министерство просвещения Российской Федерации, Новосибирский государственный педагогический университет. – Новосибирск : Изд-во НГПУ, 2025. – Часть 1. Научные труды преподавателей, аспирантов и магистрантов. – С. 61-66.
5. Мельник А. Д. Роль смешанного обучения в высшем образовании: «первые шаги» студентов к неустойчивой работе и жизни // Интеграция образования, 2023 – Т. 27, № 3. – С. 507-521.

СБЕРЕГАТЕЛЬНЫЕ И ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОДУКТЫ ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ НА ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ РОССИИ

Ситников Егор Дмитриевич
Новосибирский государственный университет экономики и управления «НИНХ», магистрант
E-mail: sit.egor2831@gmail.com
Прокопьева Евгения Леонидовна
Новосибирский государственный университет экономики и управления «НИНХ», д.э.н., профессор
E-mail: evgenia-prokopjeva@yandex.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511437

Аннотация: В статье дана классификация финансовых продуктов для граждан – инвестиционных, сберегательных и гибридных. Проанализирована динамика отдельных показателей активности населения на финансовом рынке. Обозначены ключевые проблемы и пути их решения в целях повышения инвестиционной направленности финансового рынка и вовлечения в него граждан.

Ключевые слова: «длинные деньги», пенсионные продукты, страхование жизни, индивидуальный инвестиционный счёт, программа долгосрочных сбережений, гибридный продукт, квалифицированный инвестор.

В настоящее время реальный сектор экономики России испытывает потребность в «длинных деньгах». Основная часть долгосрочных финансовых ресурсов сосредоточена у населения. Поэтому крайне важно развивать на финансовом рынке долгосрочные финансовые продукты и стимулировать граждан их использовать.

В нашей стране сберегательные и инвестиционные продукты представлены в правовом поле и научной литературе как разные.

Основная функция сберегательных продуктов – это сохранение номинальной стоимости средств и возможность получать фиксированный доход, а их ключевыми показателями являются безопасность и высокая ликвидность, но не прирост капитала [2].

К сберегательным продуктам относят банковские вклады и накопительные счета, а также пенсионные накопления.

Банковский вклад – это договор между физическим лицом и банком, согласно которому банк принимает денежные средства на определенный срок, по истечению которого банк обязуется выплатить проценты и вернуть вложения [12]. Сберегательный характер имеют не любые вклады, а долгосрочные, в российской практике – это вклады сроком более года.

Накопительный счет сочетает функции текущего счета и вклада. Однако он имеет сберегательную природу, поскольку, несмотря на возможность движения по счету, ставка по нему повышенная для стимулирования накоплений.

Пенсионные накопления – это средства, формируемые на индивидуальном лицевом счете застрахованного лица за счет страховых ставок работодателя и инвестируемые профессиональными участниками пенсионного рынка [9]. С 2024 года появился новый пенсионный продукт – программа долгосрочных сбережений (ПДС), целью реализации которой является массовое формирование долгосрочных сбережений гражданами. Реализуют программу негосударственные пенсионные фонды.

Инвестиционные продукты представляют собой размещение капитала с целью получения дохода, при этом отсутствуют гаранта возвратности, а уровень дохода пропорционален уровню риска [7].

К инвестиционным продуктам относят: акции и облигации, паи паевых инвестиционных фондов (ПИФ), индивидуальный инвестиционный счет (ИИС).

Паи ПИФ – это доля в имущественном фонде, сформированном за счёт средств, и управляемом профессиональной управляющей компанией. Доход инвестора обеспечивает рост стоимости чистых фондов и не гарантируется [10].

Индивидуальный инвестиционный счет – это счет внутреннего учета, который предназначен для обособленного учета денежных средств, драгоценных металлов, ценных бумаг клиента – физического лица, обязательств по договорам, заключенным за счет указанного клиента [11].

Стоит отметить, что традиционные разграничения между сберегательными и инвестиционными продуктами стираются за счёт технологических инноваций. Таким образом, появляются гибридные продукты, которые можно назвать сберегательно-инвестиционными. Эти финансовые инструменты объединяют сохранение капитала и возможность получить дополнительный доход.

К гибридным продуктам можно отнести структурные продукты и страхование жизни, ИИС с защитой капитала.

Структурные продукты (СП) – это разные комбинации простых финансовых инструменты для формирования портфеля с нестандартными характеристиками, обеспечивающего более эффективное размещение средств по сравнению с депозитами в части соотношения риск / доходность при заданном рыночном сценарии.

Разновидностью структурного продукта можно считать ИИС с элементами защиты капитала. Это, по сути, тот же самый счет, только инвестор выбирает максимально низкорискованные активы, чтобы снизить волатильность портфеля и защитить его от возможных убытков. Такие продукты, как правило, предлагаются брокерскими компаниями для оптимизации портфеля.

Накопительное, инвестиционное и долевое страхование жизни (НСЖ, ИСЖ, ДСЖ). Эти продукты также носят двойственный характер. Они совмещают страховую защиту (сберегательная составляющая) и инвестирование части взносов в различные финансовые инструменты для роста капитала.

Накопительное страхование жизни – это долгосрочное страхование, в рамках которого часть страховой премии направляется на накопление, а другая часть обеспечивает страховую защиту. Доход по НСЖ не гарантирован полностью, но многие продукты предусматривают минимальную гарантированную доходность.

Инвестиционное страхование жизни – в большей степени инвестиционный продукт, сочетающий страхование жизни и инвестиции в финансовые активы. Инвестиционную стратегию выбирает клиент.

Долевое страхование жизни – новый продукт для граждан, появился в 2025 году [6]. ДСЖ совмещает элементы страхования жизни и дает возможность получения инвестиционного дохода, так как часть страховой премии которых направляется на страховое покрытие, а оставшаяся часть инвестируется в ПИФ.

Рассматривая граждан как инвесторов на финансовом рынке, нужно учитывать, что в российском законодательстве и практике разграничивается их статус – квалифицированные и неквалифицированные инвесторы.

Квалифицированный инвестор — это инвестор, имеющий подтвержденный опыт, знания и / или финансовые возможности для оценки рисков и инвестирования в более сложные и рискованные финансовые инструменты [11, ст. 51.1]. Неквалифицированный инвестор — это инвестор без такого статуса, имеющий доступ к ограниченному перечню простых и ликвидных финансовых инструментов. Большинство граждан являются неквалифицированными инвесторами.

Таким образом, на российском финансовом рынке представлен широкий перечень инструментов для граждан от консервативных сберегательных и рисковых инвестиционных до гибридных форм, в которых сочетаются оба элемента.

В таблице 1 представлена динамика объёмов наиболее распространенных инвестиционных и сберегательных продуктов для граждан и их совокупный прирост за 2020 - 2024 гг.

Таблица 1. Динамика показателей отдельных сберегательных и инвестиционных продуктов для населения в РФ, в млн. рублей

Примеры сберегательных и инвестиционных продуктов для граждан	2020	2021	2022	2023	2024
Банковские вклады [1]	25718296	29206330	34196392	43899869	56169268
Средства на ИИС [4]	377500	551220	445800	543000	594600
Паи ПИФ [5]	5040083	7129893	7660489	12391507	16803897
Премии по страхованию жизни [3]	430517	524402	511299	775061	2033132
Пенсионные накопления [8]	4668827	4833925	4788591	5416961	5871680

Источники: [1, 4, 5, 3, 2].

На рисунке 1 представлены годовые темпы прироста приведенных показателей. График показывает, как менялась привлекательность различных продуктов в разные периоды. В период всплеска интереса к инвестиционным инструментам в 2021-2022 гг. и последующее замедление роста в условиях изменения макроэкономической и геополитической среды.



Рисунок 1. Годовой прирост объемов показателей по основным финансовым инструментам, доступным населению

На рисунке 2 предоставлена диаграмма для сопоставления масштабов рынка и показателей роста по основным сегментам рынка финансовых продуктов для населения.



Рисунок 2. Темпы роста показателей по отдельным финансовым инструментам для населения в РФ за 2024 год

В составе сберегательных и инвестиционных продуктов преобладают банковские вклады граждан — их остатки по счетам на конец периода составляют более 56 трлн рублей. Это объясняется высоким уровнем доверия населения к банковской системе за счёт системы страхования вкладов, а также инфраструктурная доступность банковской сферы и высокими процентными ставками.

Существенно выросли за год объемы средств на ИИС (+9%) и в ПИФ (+35%). Это связано, в первую очередь, с налоговым стимулированием и повышением финансовой грамотности населения.

Однако даже при таком приросте на ИИС и ПИФы приходится менее 8% всех средств, размещенных в финансовых инструментах. ИИС позиционировался как инструмент по привлечению «длинных» денег населения в экономику, но фактически превратился в налоговую «лазейку» для краткосрочного размещения средств. Это подтверждается и статистикой: несмотря на рост числа открытых ИИС, средний срок удержания активов на таких счетах остается низким — по данным Московской Биржи, около 40% клиентов закрывают ИИС сразу после истечения трехлетнего срока, не продлевая его [4].

Страхование жизни, несмотря на сравнительно небольшой объем (чуть более 2 трлн руб.) показывает значительный прирост за последний год более 2,5 раз. Это связано с гибридной природой продукта: клиент получает и страховую защиту, и инвестиционный доход. Это еще раз подчёркивает потенциал сберегательно-инвестиционных продуктов. Стремительный рост страхования жизни также отмечался за счет агрессивной маркетинговой стратегии страховщиков путем предложения краткосрочных договоров (от 3 месяцев) с повышенной ставкой доходности при условии заключения долгосрочного договора.

Вывод:

По результатам исследования можно сделать вывод о фрагментарности рынка, которая выражается в присутствии отдельных продуктов сберегательного и инвестиционного характера. При этом, финансовый рынок характеризуется неустойчивостью и существенно зависит от рыночной конъюнктуры. Методы налогового стимулирования воздействуют на население, однако они носят кратковременный характер. Граждане России не склонны к долгосрочным накоплениям и инвестициям по причинам высоких рисков различных инвестиционных продуктов и сравнительно высокой доходности традиционных банковских вкладов.

Таким образом, необходима системная работа в сфере повышения финансовой грамотности населения, масштабная информационная кампания и расширение налоговых стимулов. Также важно обеспечить гарантии в области защиты прав инвесторов и прозрачность деятельности финансовых посредников в области формирования доходности инвестиционных и сберегательных продуктов.

Только путём реализации комплексных государственных мер при заинтересованности финансовых институтов можно добиться стабильного роста объемов инвестиций и сбережений граждан долгосрочного характера.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Банк России. Процентные ставки по кредитам и депозитам и структура кредитов и депозитов по срочности [Электронный ресурс]. URL: https://www.cbr.ru/statistics/bank_sector/int_rat/
2. Берзон Л.А., Староверова Е.А. Финансы: учебник. Под ред. Л.А. Берзона. 6-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2022. 573 с.
3. Динамические ряды основных показателей деятельности страховщиков [Электронный ресурс]. URL: https://cbr.ru/statistics/insurance/ssd_stat/#t4
4. Динамические ряды основных показателей сегмента индивидуальных инвестиционных счетов (ИИС) [Электронный ресурс]. URL: https://cbr.ru/statistics/rcb/iis_stat/
5. Динамические ряды основных показателей деятельности паевых инвестиционных фондов и акционерных инвестиционных фондов. [Электронный ресурс] URL: https://cbr.ru/statistics/RSCI/activity_uk_if/stat_pif_aif/
6. Закон РФ «Об организации страхового дела в Российской Федерации» от 27.11.1992 N 4015-1».
7. Ковалёв В.В. Финансовый менеджмент: теория и практика. 9-е изд., перераб. и доп. М.: Проспект, 2021. 768 С.
8. Основные показатели деятельности негосударственных пенсионных фондов [Электронный ресурс]. URL: https://cbr.ru/finmarket/supervision/sv_coll/ops_npf/2020y/
9. Федеральный закон «Об обязательном пенсионном страховании в Российской Федерации» от 15.12.2001 № 167-ФЗ.
10. Федеральный закон «Об инвестиционных фондах» от 29.11.2001 № 156-ФЗ.
11. Федеральный закон от 22.04.1996 N 39-ФЗ «О рынке ценных бумаг»
12. Федеральный закон «О страховании вкладов в банках Российской Федерации» от 23.12.2003 № 177-ФЗ.
13. Что такое структурные продукты и когда их стоит покупать [Электронный ресурс]. URL: https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/chto-takoe-strukturnye-produkty-i-kogda-ikh-stoit-pokupat

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI MOLIYAVIY HOLATI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNING MOHIYATI VA UNING AHAMIYATI

Hamroyev Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti “Buxgalteriya hisobi va Audit” yo‘nalishi talabasi.
tel +998 (95) 908 58 01
E-mail hamroyevixtiyor27@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511466

Annotatsiya: Ushbu tezisda moliyaviy hisobotlarning asosiy shakllaridan biri sifatida buxgalteriya balansining batafsil ta'rifi, uning turlari va korxona moliyaviy boshqaruvidagi ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, aktivlar, majburiyatlar va balansning har bir bo‘limi hamda moddalari iqtisodiy mohiyati yoritilgan bo‘lib buxgalteiya balansini tuzish va takomillashtirishga oid bir qancha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya balansi, aktiv, majburiyat, kapital, moliyaviy holat, balans moddalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy holatini to‘g‘ri baholash, uning aktivlari va majburiyatlarini haqqoniy aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning barqaror faoliyati, investorlarga ishonch uyg‘otishi va boshqaruv qarorlarining samaradorligi moliyaviy hisobotlarning, xususan, buxgalteriya balansining to‘g‘ri tuzilishiga bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos ravishda yuritilishi, shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga rioya etilishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan, buxgalteriya balansining mohiyati, turlari va ahamiyatini chuqur o‘rganish amaliy va nazariy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.Dastlab bir necha xorijiy va O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning tadbirkorlik subyektlari moliyaviy holati haqidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Rus iqtisodchi olimi N.S.Feyt buxgalteriya balansiga quyidagicha ta’rif bergan Balans –u tashkilotning aktivlari, majburiyatlari va aktsioner kapitalini aniq sana bo‘yicha ko‘rsatuvchi moliyaviy hisobot.[1]

Muayyan nazariya nuqtai nazaridan, balans shundagi “turlarni” tizimlashtirishga, kategoriyalar o‘rtasida bog‘lanishni ifodalashga xizmat qiladigan abstrakt tushuncha sifatida qaraladi. Y.V.Sokolovning fikricha, balans – bu kategoriya, ya’ni balans faqatgina raqamlar yig‘indisi emas, balki moliyaviy tarkib va munosabatlarni tizimli ko‘rsatadigan kategoriya.[2]

Buxgalteriya balansi haqida iqtisodchi olim Z.N.Qurbonov quyidagi fikrlarni bergan: “Buxgalteriya balansi – bu korxona xo‘jalik mablag‘larini ularning tarkibi va joylashuviga qarab, shuningdek, ularning shakllanish manbalari bo‘yicha ma’lum bir sanada guruhlaydigan va umumlashtiradigan hisobot jadvalidir.”[3]

Iqtisodchi olim Jabbarova.Ch.A o‘zining maqolasida buxgalteriya balansiga ta’rif berib, balansning real holatga mosligi haqida shunday fikrlar keltirgan.

“Balansdagi ma’lumotlar real holatga mos kelishi kerak, lekin “to‘g‘rilik” va “real holat” tushunchalarini aralashtirmaslik kerak. Masalan, balans hujjatlari asosida to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi mumkin, lekin ba’zi moddalardagi ma’lumotlar, masalan, eskirgan asosiy vositalar yoki qarzdorliklar haqiqiy holatni aks ettirmasligi mumkin.’’[4]

Professorning fikrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, balansdagi ma’lumotlar real holatga mos bo‘lishi lozim, ammo “to‘g‘rilik” (ya’ni hujjatlar asosida hisob-kitobning to‘g‘ri yuritilishi) bilan “real holat” (ya’ni amaldagi iqtisodiy vaziyat) bir xil tushuncha emas. Masalan, balans shaklan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi mumkin, lekin agar undagi ayrim aktivlar (masalan, eskirgan asosiy vositalar) yoki qarzdorliklar haqiqiy qiymatini aks ettirmasa,

---

[1] *Feit N. S. Buxgalterskiy balans // Современные научные исследования и инновации. – 2020. – № 5. – С. 45–48. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/buhgalterskiy-balans-5*

[2] *Соколов Я. В. Исследование современного состояния бухгалтерского баланса как источника информации о финансовом положении организации // Экономика и управление: проблемы, решения. – 2019. – Т. 3, № 6. – С. 112–118. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-sovremennogo-sostoyaniya-buhgalterskogo-balansa-kak-istochnika-informatsii-o-finansovom-polozhenii-organizatsii*

[3] *Qurbonov Z. N., Xotamov K. R. Teoriya buxgalterskogo ucheta. — Namangan davlat universiteti nashri, 2014. — NamDU Raqamli kutubxona. – URL: https://namdu.uz/uz/books/2476*

[4] *THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE BALANCE SHEETJabbarovaCharos AminovnaLecturer in the Department of Budgetary Accounting andTreasury of the Tashkent Financial Institute*

u holda balans haqiqiy iqtisodiy holatni to‘liq ko‘rsata olmaydi. Bu fikr buxgalteriya hisobida formal to‘g‘rilik va mazmunan haqqoniylik o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Ya’ni balans nafaqat hujjatlar asosida to‘g‘ri, balki haqiqatga ham mos bo‘lishi kerak.

Balans – bu jadval bo‘lib, unda hisob obyektlari ikkita nuqtai nazardan – mulk va moliyalashtirish manbalari nuqtai nazaridan guruhlanib, ularning sonli qiymatlari ko‘rsatiladi. Balans ikki qismdan iborat: aktiv – mulk turlari va guruhlari bo‘yicha, passiv esa tashkilot kapitali va majburiyatlari ko‘rsatiladi.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans hisoboti) - bu korxonaning ma'lum bir vaqt oralig'idagi aktivlari, majburiyatlari va kapitalini ko'rsatuvchi asosiy moliyaviy hujjat. Uning mohiyati korxonaning moliyaviy ahvoli va boyligini bir qarashda aniqlashda iborat, ahamiyati esa boshqaruv qarorlari uchun asos bo'lishida, investorlar va kreditorlarning ishonchini qozonishida va korxonaning barqarorligini baholashda muhim rol o'ynashida. Shuningdek bu hisobot biznesning iqtisodiy kuchini, moliyaviy barqarorligini va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda muhim vositadir. Balans tashkilotning mol-mulki va moliyaviy holatini hisobot sanasidagi pul qiymatida ifodalaydi.

Balansga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- Haqiqiylik (to‘g‘rilik)
- Real holatga moslik
- Birlik (uyg‘unlik)
- Davomiylik
- Tushunarli bo‘lishi

Balansning haqiqiyligi, to‘g‘riligi uni tuzishda asos qilib olingan hujjatlar to‘liq va sifatli bo‘lishiga bog‘liq. Agar hisobot davrining barcha iqtisodiy faoliyat faktlari o‘z vaqtida va to‘g‘ri hujjatlashtirilmasa, balans korxonaning haqiqiy natijasini aks ettirmaydi.

Balansning har bir moddasi hisoblar, hisob-kitoblar va inventarizatsiya bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Balans ma’lumotlarini qasddan buzish — bu balansni “yopib qo‘yish” deb ataladi. Bu xatoliklar korxonaning kamchiliklarini yashirish yoki ma’lum jihatlarni yaxshilash uchun qasddan yoki bilmaslik natijasida sodir bo‘lishi mumkin.

Balansning davomiyligi har bir yangi balans oldingi balansdan kelib chiqishi kerak. Masalan, o‘tgan yil yakuni bo‘yicha tuzilgan balans yangi yil boshlanishidagi ochilish balansiga aylanishi lozim. Chunki moliyaviy yil avvalgi yilning davomidir

Balansnig tushunarli bo‘lishi balansni tuzayotgan va undan foydalanayotgan shaxslar uchun u aniq va tushunarli bo‘lishi zarur. Moliyaviy hisobotlarni to‘ldirish shartlari.

Moliyaviy hisobotlar quyidagi shartlar bajarilgandan keyin shakllantiriladi:

- Yil davomida barcha biznes operatsiyalari hisob qoidalariga muvofiq qayd etilgan bo‘lishi;
- Inventarizatsiya orqali korxona aktivlari va majburiyatlari mavjudligi tasdiqlangan bo‘lishi;
- Sintetik va analitik hisoblarda aylanmalar shakllangan;
- Hisoblangan hisob qoldiqlari korxonaning moliyaviy holatini haqiqiy aks ettiradi.

Balans passivlarining tuzilishi balans passivlarida bo‘limlar va moddalar ularning to‘lanish muddatiga qarab tartiblanadi.

Egalar (aksiyadorlar, tadbirkorlar, xususiy mulkdorlar) qarz beruvchilardan farqli ravishda faqat qolgan aktivlarga da’vo qilish huquqiga ega, ya’ni tashkilot likvidatsiya qilinsa, avvalo barcha majburiyatlar to‘lanadi, keyin qolgani egalar ulushiga beriladi. Balans passivi korxona bog‘liqligi korxonaning tashqi va ichki shaxslar, tashkilotlarga bo‘lgan moliyaviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Buxgalteriya balansining muhimligi va ahamiyati korxonaning aktivlari va passivlari harakati ustidan to‘liq nazorat qilish, keyinchalik foyda olish maqsadida u yoki bu resurslarni ishlab chiqarishga jalb qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash, salbiy iqtisodiy hodisalarning oldini olish yoki oqibatlarini pasaytirish, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatini taqdim etishidan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun buxgalteriya balansi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarni buxgalteriya balansi subyektlari deb nomlash mumkin. Buxgalteriya balansi subyektlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Qonunchilik va ijro hokimiyati organlari.

2. Investorlar va aksionerlar.
3. Mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar.
4. Turli xil kreditorlar

Buxgalteriya balansi ma’lumotlari foydalanuvchilarining turli xil ma’lumotlaridan foydalanadilar. Korxonaning joriy va kelgusidagi to‘lovga layoqatliligi kabi ma’lumotlar mol yetkazib beruvchilar va kreditorlarni, korxonaning foydalilik darajasi aksionerlar va investorlarni, aylanma mablag‘larning harakati va holati ichki foydalanuvchilarni qiziqtiradi.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda kelib chiqadiki, buxgalteriya balansining asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy va ishonchli tarzda aks ettirishdan iborat. Balansdagi ma’lumotlarning faqat hujjatlar asosida to‘g‘ri bo‘lishi yetarli emas — ular amaldagi iqtisodiy holatni ham to‘liq ifodalashi kerak. Shuning uchun balans tuzishda “to‘g‘rilik” bilan bir qatorda “mazmunan haqqoniylik” tamoyiliga ham qat’iy rioya etilishi zarur. Shuningdek, balans ma’lumotlarining davomiyligi, aniqligi va tushunarliligi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi hamda korxona faoliyati bo‘yicha to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi

Korxonalarda balans tuzishdan avval barcha aktiv va majburiyatlarni muntazam inventarizatsiya qilish tizimini kuchaytirish zarur. Buxgalteriya hisobini yuritishda faqat shakliy to‘g‘rilikka emas, balki axborotning real iqtisodiy mazmuniga e’tibor qaratish kerak. Balans ma’lumotlarini taqdim etishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga rioya etish, bu orqali investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli moliyaviy axborotni ta’minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti
2. Buxgalteriya hisobi 1-qism: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. b. 299 bet .Sotivoldiev A.S.,
3. Abduvohidov F.T., Satyvaldieva D.A. Moliyaviy va boshqaruv hisobi: Darslik. -T .: "Iqtisod -Moliya", 2012. 432 b.
4. Qurbonov Z. N., Xotamov K. R. *Teoriya buxgalterskogo ucheta*. — Namangan davlat universiteti nashri, 2014. — NamDU Raqamli kutubxona. – URL: https://namdu.uz/uz/books/2476
5. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE BALANCE SHEETJabbarovaCharos AminovnaLecturer in the Department of Budgetary Accounting andTreasury of the Tashkent Financial Institute
6. Рябова М.А., Богданова Н.А. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – С. 158. 41 б.
7. Feit N. S. *Buxgalterskiy balans* // Современные научные исследования и инновации. – 2020. – № 5. – С. 45–48. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/buhgalterskiy-balans-5
8. Лукин В. А. *Бухгалтерский баланс как система* // Path of Science: International Electronic Scientific Journal. – 2018. – Т. 4, № 5. – С. 2501–2506. – URL: https://pathofscience.org/index.php/ps/article/view/114

MOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH VA KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISH

Poyonov Xasan
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talabasi
Tel: +998 (97) 0695282
E-mail: @Poyonovxasan2@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511501

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirishning nazariy asoslari hamda kapital bozorini rivojlantirishning dolzarb jihatlari tahlil etilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, bank va nobank sektorlar faoliyatidagi o‘zgarishlar, investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. Raqobat muhitining shakllanishi, kapital bozorining jozibadorligini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy xizmatlar bozori, raqobat, kapital bozori, investitsiya, bank tizimi, qimmatli qog‘ozlar bozori, iqtisodiy barqarorlik.

Kirish

Hozirgi davrda moliyaviy xizmatlar bozori milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan moliya tizimini shakllantirish jarayonida raqobat muhitini kuchaytirish va kapital bozorini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Raqobatning kuchayishi xizmatlar sifatini oshiradi, narxlarning barqarorligini ta’minlaydi va iste’molchilarga keng tanlov imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, kapital bozorining rivoji korxonalar uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

1. Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning ahamiyati

O‘zbekiston moliya tizimida 2020-yillardan boshlab yangi banklar va fintex kompaniyalarning kirib kelishi raqobat muhitini sezilarli darajada jonlantirdi. Raqobatni kuchaytirish orqali xizmatlarning raqamlashtirilishi, mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuv va innovatsion mahsulotlar paydo bo‘ldi. Mamlakatda “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun va Moliya vazirligi tashabbuslari asosida monopoliyaga qarshi siyosat kuchaytirilmoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlar sohasida adolatli raqobatni ta’minlashga zamin yaratadi.

2. Kapital bozorining rivojlanish tendensiyalari

Kapital bozori iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etishda muhim mexanizm hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida “Toshkent” Respublika fond birjasi faoliyati so‘nggi yillarda sezilarli kengaydi. Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi hajmining oshishi, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Davlat korxonalarini xususiylashtirish jarayonlari ham kapital bozorining jozibadorligini oshirmoqda.

Kapital bozorining rivojlanayotganiga misol sifatida “Toshkent” respublika fond birjasida so’ngi to’rt yildagi o’shishni tahlil qilamiz:



Savdo hajmining 2023-yildan 2024-yilga keskin oshgani (2,89 → 21,95 trln so‘m) o‘zgarish darajasini ko‘rsatadi: bu 650% ga yaqin o‘sish. Bundan tashqari 2023-yilda birja zararga kirgan, 2024-yilda birjaning sof foydasi 12,3 mlrd so’m bo’lgan. Birjada 2024-yilda bitimlar soni 498381(to’tr yuz to’qson sakkizming uch yuz sakson bir) tani tashkil bu ko’rsatkich bo’yicha 2023- yild 411870 (to’rt yuz o’n birming sakkizyuz yetmish) tani, o’rtadagi tafovut 86511 tani tashkil qilmoqda. Bu esa so’ngi yillarda mamlakatimizda kapital bozorni rivojlantirish uchun qilingan islohotlar natijasidir.

3. Raqobatni kuchaytirish va kapital bozorini rivojlantirishning o‘zaro bog‘liqligi Raqobat muhitining kuchayishi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga olib keladi. Bu esa kapital bozoridagi faol ishtirokchilar sonining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Rivojlangan raqobat korxonalarni yangi moliyaviy instrumentlar yaratishga undaydi, bu esa iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida asosiy omillardan biridir. Kapital bozorini rivojlantirish esa investitsion faollikni oshiradi, moliyaviy resurslar harakatini tezlashtiradi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlaydi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda davlat siyosatini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish hamda moliya sektorida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Karimov A., “O‘zbekiston moliya tizimidagi islohotlar”, TDIU, 2022 3.Moliya vazirligi hisobotlari (2023–2024).
3. Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) – Financial Stability Report, 2024.
4. World Bank. Developing Capital Markets in Emerging Economies, 2023.
6. https://kapital.uz

O‘ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA BANKLARNING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH

Jumayev Sunnatulla Mamatvali o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Bank ishi va auditi yo‘nalishi 6BI-22-guruh talabasi
Tel:+9982292204
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511532

Annotatsiya: Ushbu bobda O‘zbekiston tijorat banklarining eksport faoliyatini moliyalashtirishdagi roli, eksport kreditlari hajmi, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni hamda eksportni rag‘batlantirishdagi mexanizmlari tahlil qilinadi. Banklarning eksportni qo‘llab-quvvatlashdagi moliyaviy vositalari, sug‘urta va kafolat mexanizmlarining amaliy natijalari yoritiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, eksport mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishida muhim omil hisoblanadi. Bank tizimining faol ishtiroki eksport hajmini oshirish, ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqishini qo‘llab-quvvatlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Eksport, tijorat banklari, kreditlash, kafolat, tashqi savdo, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, sug‘urta, iqtisodiy o‘sish.

Kirish

O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri eksportni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Bu jarayonda tijorat banklari eksportchi korxonalarga moliyaviy ko‘mak berish, ularning tashqi savdo faoliyatini kafolatlash va sug‘urtalash orqali muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan ‘2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi’da eksportni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish, eksportchilarga qulay kredit shartlari yaratish, eksport sug‘urtasi mexanizmini kengaytirish vazifalari belgilangan.[1]

Tijorat banklari tomonidan eksport kreditlari ajratilishi, eksport kafolatlari berilishi va tashqi savdo operatsiyalarining moliyaviy xavfsizligi ta’minlanishi eksport hajmini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, ushbu mavzu mamlakat iqtisodiyotida bank sektorining rolini yanada chuqurroq o‘rganish uchun dolzarbdir.

O‘zbekiston iqtisodiyotida eksport faoliyatini moliyalashtirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda tijorat banklari tomonidan eksportga yo‘naltirilgan kreditlar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil yakuniy hisobotiga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan eksportni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 27,4 trillion so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 2,5 baravar o‘sishni anglatadi .[2]

Tijorat banklari eksportni rag‘batlantirish maqsadida bir qator moliyaviy vositalardan foydalanadi:

- eksport oldi kreditlari;
- eksport kafolatlari;
- akkreditivlar orqali to‘lovlarni kafolatlash;
- valyuta risklarini sug‘urta qilish tizimi;
- xalqaro moliya institutlari bilan birgalikdagi kredit liniyalari.

Masalan, “O‘zbekiston Milliy banki” tomonidan 2024-yilda eksport operatsiyalarini moliyalashtirish uchun 500 mln AQSh dollari miqdorida kredit liniyasi ajratilgan (Milliy bank yillik hisobotlari, 2024, bet-32).

O‘zbekiston so‘nggi yillarda eksportni moliyalashtirish bo‘yicha xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlikni kengaytirmoqda. Jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Islom taraqqiyot banki tomonidan ajratilayotgan kredit liniyalari mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda .

[1] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot – 2024. – Toshkent, 2024. – bet 45.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot – 2024. – Toshkent, 2024. – bet 45.

Misol tariqasida, OTB tomonidan amalga oshirilgan “Eksportni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish” loyihasi doirasida 2024-yilda 200 mln AQSh dollari hajmidagi kredit ajratilgan. Ushbu mablag‘lar eksportchi korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi bozorlarni egallash va eksport mahsulotlari turlarini diversifikatsiyalash imkonini yaratgan .[3]

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini rivojlantirish strategiyasi — 2030”da eksportni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bank tizimining ishtirokini kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan .[4]

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan eksport kreditlari hajmi (mlrd so‘mda)

Bank nomi	**Eksport kreditlari hajmi (mlrd so‘m)**
Asaka Bank	1250
Xalq Banki	980
Savdogarbank	860

XULOSA. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari eksport salohiyatini oshirishda asosiy moliyaviy tayanch sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning eksportni kreditlash, kafolatlash va sug‘urtalash sohalaridagi ishtiroki tashqi savdoni rivojlantirishda bevosita ahamiyat kasb etmoqda.

Kelgusida bank tizimi eksportchilar uchun yanada qulay kredit shartlarini yaratish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali eksportni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishi zarur.

Eksportni diversifikatsiyalash, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishda bank tizimi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

yilgacha mo‘ljallangan strategik maqsadlar doirasida eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish, eksportni sug‘urtalash fondlarini kengaytirish va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot – 2024. – Toshkent, 2024. – bet 45.
2. “O‘zbekiston Milliy banki” AJ. Eksport faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha hisobot. – Toshkent, 2024. – bet 32.
3. Jahon banki. O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha yillik hisobot. – Vashington, 2023. – bet 58.
4. Osiyo taraqqiyot banki (OTB). O‘zbekiston Respublikasida eksportni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirish loyihasi bo‘yicha hisobot. – Manila, 2024. – bet 67.
5. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini rivojlantirish strategiyasi – 2030. – Toshkent, 2022. – bet 78.
6. Karimov, I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
7. Tohirov, B. va Usmonov, A. Bank ishi va xalqaro moliya amaliyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
8. Xoliqov, R. Eksport faoliyatining rivojlanishida bank tizimining o‘rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot – 2024. – Toshkent, 2024. – bet 45.

[4] Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini rivojlantirish strategiyasi – 2030. – Toshkent, 2022. – bet 78.

TIJORAT BANKLARMI AKTIVLARINI DAROMADLILIGI VA LIKVIDLILIGI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI

Komilov Komronbek Umrbek o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Bank ishi va audit yo'nalishi
4-bosqich 6BI-2022 guruh talabasi
Telefon raqami:+998 (94) 034-27-09
Email adres: komronkomilov911@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511556

Annotatsiya: Ishda tijorat banklari aktivlarining daromadliligi va likvidliligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalalari yoritilgan. Bank aktivlarini boshqarishda daromad va likvidlik o'rtasidagi optimal nisbatni topish, risklarni kamaytirish hamda barqarorlikni saqlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, aktivlar, daromadlilik, likvidlilik, muvozanat, risk boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik "Mikrokreditbank"

Kirish: O'zbekiston iqtisodiyotida tijorat banklari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda bank tizimida raqamli texnologiyalar joriy etilishi, kreditlash hajmining ortishi va kapital bazasining mustahkamlanishi ularning faoliyat samaradorligini yanada oshirdi. Banklar faoliyatida asosiy vazifa — daromadlilikni oshirish bilan birga likvidlilikni saqlab qolishdir. Chunki yuqori daromad olishga intilish likvidlik xavfini keltirib chiqaradi, likvidlikni oshirish esa daromadni kamaytiradi. Shu bois, tijorat banklari aktivlarini boshqarishda bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash muhim hisoblanadi. Mazkur ishda tijorat banklari, xususan "Mikrokreditbank" misolida aktivlarning daromadliligi va likvidliligi o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash yo'llari tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism: Tijorat banklari faoliyatining markaziy jihati – bu aktivlarni samarali boshqarish, ya'ni foyda olish bilan birga to'lovga layoqatlilikni ta'minlashdir. Daromadlilik bank aktivlarining foyda keltirish darajasini ifodalasa, likvidlilik bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini bildiradi. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasida tabiiy qarama-qarshilik mavjud: daromadlilikni oshirish uchun riskli, ammo yuqori foizli aktivlar tanlanadi, bu esa likvidlikni kamaytiradi.Shu sababli, har bir tijorat banki o'z aktivlarini daromad keltiruvchi (kreditlar, investitsiyalar) va likvid aktivlar o'rtasida muvozanatni saqlagan holda joylashtirishi lozim. Zamonaviy bank menejmenti tizimida bu jarayonni aktiv-passivlarni boshqarish siyosati orqali tartibga solish keng qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab bank tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun (O'RQ-216-son) milliy bank tizimining huquqiy poydevorini yaratdi.Keyinchalik ushbu qonun yangi iqtisodiy talablar asosida 2019-yil 5-noyabrda O'RQ-580-son bilan yangilandi. Yangi tahrirda banklar faoliyatida korporativ boshqaruv, likvidlik me'yorlari va kapital yetarliligi bo'yicha aniq talablar belgilandi. Bank tizimini chuqur isloh qilish maqsadida Prezidentning 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020–2025-yillarda isloh qilish strategiyasi**"** tasdiqlandi. Ushbu strategiyada tijorat banklari faoliyatini bozor tamoyillariga o'tkazish, davlat ulushini kamaytirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish belgilandi.

AT «Mikrobank»ning aktivlar turlari bo'yicha bank aktivlari dinamikasi 2021–2024 y. (mlrd so'mda) [1].

1- jadval

[1] https://mkbank.uz/uz/about/indicators/

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2022 (mln. so'm)	01.01.2023 (mln. so'm)	01.10.2025 (mln. so'm)
Bank aktivlari, jami		16 782 497	28 605 486,31
Kredit portfeli, jami	8 541 014	13 318 624	20 039 603,04
Chet el valyutasida ajratilgan kreditlar	2 197 142	3 738 508	1 001 110,77
Milliy valyutada ajratilgan kreditlar	2 321 096	9 580 116	6 428 463,94
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	8 541 014	8 737 239	3 850 527,45
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	6 145 203	4 581 385	3 579 047,26
Ipoteka kreditlari	302 362	786 781	346 164,76
Mikroqarzlar	296 970	597 782	1 768 935,60
Jami majburiyatlar	11 162 257	13 138 514	22 936 198,22
Jalb qilingan depozitlar qoldig'i	3 153 675	5 409 196	9 067 659,50
Jamg`arma depozitlar	42 727	11 967	5 612,28
Talab qilib olinguncha depozitlar	430 999	625 550	733 580,61
Muddatli depozitlar	2 400 995	4 433 614	8 310 585,49
Boshqa depozitlari	259 354	208 198	
Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog`ozlar	19 600	10 000	0
Jami kapital	2 321 096	3 643 911	5 669 288
Ustav kapitali	2 197 142	3 547 333	7 145 337
Bank foydasi	38 443	21 315	90.880

Tijorat banklari faoliyati iqtisodiyotning pul aylanish jarayonini ta'minlash, investitsiyalarni moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Banklar uchun asosiy masalalardan biri – bu daromadlilik va likvidlilik o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Mashhur iqtisodchi John Maynard Keynes o'z asarlarida "likvidlik afzalligi" nazariyasini ilgari surgan. Unga ko'ra, har bir moliyaviy institut nafaqat foyda ortidan quvishi, balki o'z majburiyatlarini istalgan paytda bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu fikr bugungi tijorat banklari uchun ham dolzarb, chunki ortiqcha daromadga intilish likvidlik tanqisligiga olib kelishi mumkin. Frederic Mishkin, zamonaviy moliya tizimi bo'yicha yetakchi tadqiqotchi, bank aktivlarini boshqarishda risk, daromad va likvidlik uchligini muvozanatda ushlash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, har bir bank o'z aktivlari tarkibini shu uch omilni hisobga olgan holda shakllantirsa, bu moliyaviy inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. Ronald Coase esa iqtisodiy samaradorlik nazariyasida resurslardan oqilona foydalanish muhimligini ta'kidlab, ortiqcha risk yoki ortiqcha likvidlik har ikkala holatda ham foyda darajasini pasaytirishini qayd etadi. Shu bois tijorat banklari balansida nafaqat yuqori daromad keltiruvchi, balki tezkor naqdlashtiriladigan aktivlarning ham yetarli ulushi saqlanishi lozim. O'zbekiston tajribasida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-yil 12-sentyabrda qabul qilingan PF–5177-sonli Prezident farmoni asosida tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlash, aktiv portfellarni diversifikatsiya qilish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish choralari belgilandi. Shuningdek, 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli farmon bilan davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarni transformatsiya qilish jarayoni boshlandi. Bu islohotlar natijasida banklar foydalilikni oshirish bilan birga likvidliligini saqlab qolish bo'yicha yangi mexanizmlarni joriy etmoqda. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan likvidlik ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi standartlari bank faoliyatida risklarni kamaytirish va foyda barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa: Tijorat banklari faoliyatida aktivlarni boshqarish, xususan daromadlilik va likvidlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash – moliyaviy barqarorlikning asosiy kafolatidir. Daromadlilik bankning foyda olish imkoniyatini belgilasa, likvidlilik uning majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ta'minlaydi. Shu bois bu ikki ko'rsatkich bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy kategoriyalar sifatida qaralishi zarur. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar – banklarning kapital

bazasini kuchaytirish, risk-menejment tizimlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va aktivlarni diversifikatsiya qilish – ularning daromadlilik va likvidlilik o‘rtasidagi mutanosiblikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan yangi bank standartlari ham tijorat banklari uchun moliyaviy barqarorlikni saqlash, aktivlarni samarali boshqarish va kredit risklarini kamaytirish imkonini bermoqda. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining muvaffaqiyati ularning foyda olishga emas, balki barqaror, muvozanatli va xavfsiz rivojlanishga yo‘naltirilgan boshqaruv siyosati bilan belgilanadi. Shu yo‘lda aktivlarni tahlil qilish, diversifikatsiya tamoyiliga rioya etish va likvidlik zaxiralarini oqilona boshqarish O‘zbekiston bank tizimining uzoq muddatli rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Bank tizimini yanada rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–5177-son Farmon. 2017-yil 12-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Bank sektorini isloh qilish va transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5992-son Farmon. 2020-yil 12-may.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun. 1996-yil 25-aprel (2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ–580-son yangi tahriri).
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Tijorat banklarida likvidlik va kapital yetarliligi me’yorlari to‘g‘risida”gi nizom. Toshkent, 2021-yil.
5. Keynes, J. M. “The General Theory of Employment, Interest and Money.” London: Macmillan, 1936.
6. Mishkin, F. S. “The Economics of Money, Banking, and Financial Markets.” Pearson Education, 2019.
7. Coase, R. H. “The Nature of the Firm.” Economica, 1937.
8. Krugman, P. “International Economics: Theory and Policy.” Pearson, 2018.
9. Karimov, I. A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida.” Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy hisobotlari. 2022–2024-yillar moliyaviy barqarorlik sharhlari.
11. Qodirov, A., va boshq. “Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish.” Toshkent: TDIU nashriyoti, 2023.
12. Xodjayev, B. “Bank ishi asoslari.” Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTETSION LOYIHALARNI MOLIYALASHNI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Murodov Suhrob Uboydullo o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Bank ishi va audit yo'nalishi
4-bosqich 6BI 22-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511585

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonining hozirgi holati, amalga oshirilayotgan islohotlar va ularni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion muhitni yaxshilashda tijorat banklarining o'rni, ularning moliyaviy resurslari, uzoq muddatli kreditlar hajmi, xalqaro tajriba va milliy sharoitdagi amaliy imkoniyatlar chuqur o'rganilgan. Natijada investitsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish uchun zarur bo'lgan asosiy strategik takliflar ishlab chiqilgan.[1]

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsion loyiha, moliyalashtirish, kredit, iqtisodiy o'sish, innovatsiya, risk-menejment, bank kapitali, uzoq muddatli moliyaviy resurslar, loyiha tahlili.

Kirish: So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakat moliya-bank tizimini modernizatsiya qilish, banklarning real sektordagi faoliyatini kengaytirish hamda ularning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini oshirishni talab etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'nggi yillardagi qarorlari va farmonlarida bank tizimini rivojlantirish, kredit siyosatini takomillashtirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.Ayniqsa, 2024-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan investitsion kreditlar hajmi 156,2 trillion so'mni tashkil etdi, bu esa 2020-yilga nisbatan qariyb 2,2 baravar ko'pdir. Ushbu ko'rsatkich banklarning real sektorga bo'lgan e'tiborining ortayotganini anglatadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilmoqda, bandlik oshmoqda va eksport salohiyati kengaymoqda.Shunday bo'lsa-da, hozirgi sharoitda banklarning investitsion faoliyatida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular moliyaviy resurslar cheklanganligi, loyihalar tahlilining sustligi va risklarni baholash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Shuning uchun mazkur mavzuni chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Tijorat banklari iqtisodiyotda kapital harakatini ta'minlovchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlovchi va investitsion jarayonlarda muhim rol o'ynovchi institutlardir. Ular iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi.

Investitsion faoliyatdagi mavjud muammolar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarining investitsion faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud:

- ✓ Uzoq muddatli moliyaviy resurslar manbalari cheklangan;
- ✓ Kredit portfellarining yuqori riskliligi;
- ✓ Loyiha tahlilining past darajasi va kafolat mexanizmlarining zaifligi;
- ✓ Innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirishda ehtiyotkorlik siyosati;
- ✓ Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi.[2]

Investitsion faoliyatni kengaytirish bo'yicha takliflar: Bank kapital bazasini mustahkamlash va xalqaro resurslarni jalb qilish (IFC, ADB, EBRD, Islom taraqqiyot banki va boshqalar bilan hamkorlikni kuchaytirish).Uzoq muddatli kredit liniyalarini kengaytirish va milliy obligatsiyalar bozorini rivojlantirish.Loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance) mexanizmini keng joriy etish, bu orqali risklarni bank va investor o'rtasida bo'lishish.Innovatsion va raqamli texnologiyalarni kredit tahlili va monitoring jarayonlariga tatbiq etish.Yashil iqtisodiyotga oid investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus

[1] Markaziy bank "Moliyaviy barqarorlik hisobotlari", 2024-yil.
[2] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy hisobotlari, 2024-yil

'Green Finance' fondlarini tashkil etish.Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini qo‘llab-quvvatlash. O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va bandlikni ta’minlashda tijorat banklarining investitsion faoliyati muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish, ularni kapitallashtirish va real sektorga yo‘naltirilgan kredit siyosatini kuchaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan investitsion kreditlar hajmi 156,2 trillion so‘mni tashkil etgan. Bu 2020-yildagi 72,4 trillion so‘mlik ko‘rsatkichga nisbatan 2,1 baravar ko‘pdir.

Eng katta ulushni “Asaka bank”, “Agrobank” va “Ipoteka bank” egallagan bo‘lib, ularning jami investitsion kreditlari umumiy hajmning 56 foizini tashkil etgan.

O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi (2020–2024-yillar)[3]

Yil	Asaka bank	Agrobank	Ipoteka bank	Mikrokreditbank	Hamkorbank	Xalq bank	Jami (trln so‘m)
2020	15.6	13.2	11.8	5.4	6.1	8.3	60.4
2021	18.3	15.0	13.1	6.5	7.2	9.6	69.7
2022	21.4	17.6	15.3	7.9	8.5	10.8	81.5
2023	25.2	20.1	18.0	9.2	9.8	12.3	94.6
2024	29.7	23.4	20.5	10.8	11.5	13.9	109.8

Amaliy misollar: Masalan, 2024-yilda 'Asaka bank' tomonidan Angren kimyo kompleksi uchun 150 mln AQSH dollari miqdorida investitsion kredit ajratildi. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida 500 ta yangi ish o‘rni yaratildi va ishlab chiqarish quvvati yillik 120 ming tonnaga yetdi. Shuningdek, 'Ipoteka-bank' tomonidan 2023–2024-yillarda 450 mlrd so‘mlik quyosh energiyasi loyihalari moliyalashtirildi, bu esa energiya tejamkorlikni 18% ga oshirish imkonini berdi.

Xulosa: Tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi faolligi mamlakat iqtisodiy o‘sishining asosiy drayverlaridan biridir. O‘zbekiston sharoitida banklar moliyaviy resurslar bazasini mustahkamlash, risk-menejment tizimini takomillashtirish, loyihaviy moliyalashtirishni joriy etish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali investitsion faoliyatni yangi bosqichga ko‘tarish imkoniyatiga ega.Banklarning investitsion siyosatini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli moliyalashtirish vositalarini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali real sektorga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini ko‘paytirish mamlakat iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2024-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 'Moliyaviy barqarorlik hisobotlari', 2024-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy hisobotlari, 2024.
4. Tursunov X.X., Murodov A.A. 'Bank tizimida investitsion faoliyatni takomillashtirish yo‘llari', TDIU ilmiy jurnali, 2023-yil.
5. Jahon banki ma’lumotlari – www.worldbank.org
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari – www.stat.uz

[3] Asaka bank, Agrobank, Ipoteka bank yillik hisobotlari (2023–2024-yillar).

MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARINING MODERNIZATSIYASI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Maxmudov Nurali Komilovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchisi
Email: nuralimahmudov32@gmail.com
https://orcid.org/009-0009-0131-8719
tel.nomeri. 97-699-28-05
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511609

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotning real sektori faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda moliya-kredit mexanizmlarining modernizatsiyasi va ular asosidagi innovatsion yondashuvlar bo’yicha xulosa, takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliya-kredit mexanizmlari, modernizatsiya, innovatsion yondashuvlar, real sektor, raqamli moliya, fintech, risklarni boshqarish.

Аннотация: В статье изложены выводы и предложения по модернизации финансово-кредитных механизмов и основанным на них инновационным подходам к поддержке деятельности реального сектора экономики.

Ключевые слова: Финансово-кредитные механизмы, модернизация, инновационные подходы, реальный сектор, цифровые финансы, финтех, управление рисками.

Annotation: The article provides conclusions and proposals on the modernization of financial and credit mechanisms and innovative approaches based on them to support the activities of the real sector of the economy.

Keywords: financial and credit mechanisms, modernization, innovative approaches, real sector, digital finance, fintech, risk management.

Kirish

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, uning investitsion jozibadorligi va real sektorni qo‘llab-quvvatlash samaradorligi moliya-kredit tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Globallashuv jarayonlari chuqurlashgan, raqobatning kuchaygani va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davrida an’anaviy moliyaviy vositalar endilikda iqtisodiyotning zamonaviy ehtiyojlariga to‘liq javob bera olmay qolmoqda. Shu sababli moliya-kredit mexanizmlarini modernizatsiya qilish, ularni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilib, bank tizimi, kapital bozori, davlat moliyasi va investitsiya siyosatida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish, fintech ekotizimini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslarini mustahkamlash, mikro va kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy kirish imkoniyatlarini kengaytirish tamoyillari moliyaviy sektor samaradorligini oshirmoqda.

Bunday o‘zgarishlar moliya-kredit instrumentlarining riskka mosligi, shaffofligi va qaytimi yuqori bo‘lgan mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Innovatsion moliya vositalari-raqamli kredit mahsulotlari, blokcheyn texnologiyalari asosida xizmat ko‘rsatish, “yashil” moliyalashtirish, lizing va faktoringning zamonaviy shakllari-iqtisodiy jarayonlarga kapital oqimini kuchaytirish bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

Shu jihatdan mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, real sektorning investitsion salohiyatini rivojlantirish hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun nazariy-amaliy asos vazifasini bajaradi (1-jadval).

Moliya-kredit mexanizmlarini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil[1]

1-jadvali

№	Tahlil yo‘nalishi	Mavjud holatdagi muammolar	Innovatsion yechimlar va modernizatsiya yo‘nalishlari	Kutilayotgan natijalar

[1] International Monetary Fund. *Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program.* 2025 ma’lumoti.

1	Kredit siyosati va moliyalashtirish mexanizmlari	Kreditlash shartlari qattiq, ta’minot talablari yuqori, kreditlarning qaytimi past	Kafolat va sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish, smart-kredit reytingi joriy etish	Kreditlash qamrovi kengayadi, resurslar samaradorligi oshadi
2	Bank tizimi raqobatbardoshligi	Bozorning konsentratsiyasi yuqori, xususiy banklar ulushi past	Xususiy sektor ulushini oshirish, bank xizmatlarining diversifikatsiyasi	Moliyaviy xizmatlar bozori jonlanadi, raqobat kuchayadi
3	Raqamli moliya va fintech	Raqamli xizmatlar qamrovi yetarli emas, to‘lov tizimlari integratsiyasi sust	Fintech-startaplarni qo‘llab-quvvatlash, blokcheyn va onlayn-kredit tizimlari	Raqamli moliya ekotizimi shakllanadi, tranzaksion xarajatlar kamayadi
4	Kapital bozori rivoji	Fond bozorida likvidlik past, IPO va korporativ obligatsiyalar bozori sust	“Yashil” obligatsiyalar, sukuk, raudfunding platformalari joriy etish	Investitsion manbalar diversifikatsiyalanadi
5	Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Loyihalarning institutsional asoslari va risk taqsimoti yaxshi ishlab chiqilmagan	PPP shartnomalarida xalqaro standartlarni qo‘llash, risklarni to‘g‘ri taqsimlash	Infratuzilma investitsiyalari ortadi, byudjetga yuk kamayadi
6	Moliya vositachiligi	Bank tizimiga haddan tashqari tayanish, noan’anaviy instrumentlar sust rivojlangan	Lizing, faktoring, mikromoliyalash segmentlarini rivojlantirish	Kichik biznes va startaplar moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadi
7	Risklarni boshqarish tizimi	Kredit risklari yuqori, monitoring yetarli emas	Big data va AI asosida skoring tizimlari, real-time monitoring	Kredit risklari pasayadi, portfel sifati oshadi
8	Ekologik va ijtimoiy moliyalashtirish	Barqaror rivojlanish mezonlari yetarli darajada inobatga olinmaydi	ESG talablarini joriy etish, iqlim loyihalari uchun kreditlar	Barqaror iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlik kuchayadi
9	Institutsional boshqaruv samaradorligi	Hisobot tizimi va monitoringda shaffoflik yetarli emas	Xalqaro audit va hisobot standartlari, regulyativ islohotlar	Hisobdorlik kuchayadi, korrupsiya xavfi kamayadi

1-jadvalda tahlil natijalari advaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston moliyaviy tizimi oxirgi yillarda sezilarli islohotlar jarayonida bo‘lishiga qaramay, hali ham bir qator tizimli muammolarni o‘zida saqlab qolmoqda. Ularni bartaraf etish uchun taklif etilgan innovatsion yechimlar moliya sektorini jadal modernizatsiya qilishni talab etadi.

Kreditlashning an’anaviy yondashuvi iqtisodiy subyektlar, ayniqsa kichik biznes uchun moliyaviy kirishni cheklamoqda. Kafolat institutlari va aqlli reyting tizimlarini kengaytirish kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi va iqtisodiy faollikni kengaytiradi.

Bozorning ortiqcha konsentratsiyasi raqobatning sustlashuviga olib kelmoqda. Xususiy banklar ulushining oshishi, xizmatlar diversifikatsiyasi moliyaviy xizmatlar bozorida samaradorlik va sifatni oshirishga xizmat qiladi.

To‘lov tizimlari va raqamli xizmatlar infratuzilmasi yetarli darajada integratsiyalashmagan. Fintech-startaplarni qo‘llash, blokcheyn asosida kredit va to‘lov tizimlarini joriy etish tranzaksion xarajatlarni kamaytirib, moliyaviy inklyuziyani kuchaytiradi.

Fond bozorining past likvidligi investitsiyalar uchun bank krediti yukini oshiradi. Yashil obligatsiyalar**,** sukuk**,** kraudfunding kabi innovatsion moliya instrumentlarini joriy etish kapital manbalarini diversifikatsiyalaydi va iqtisodiyotning kapitalizatsiyasini oshiradi.

PPP loyihalarida risk taqsimoti va institutsional bazaning kuchsizligi infratuzilmaviy loyihalar samaradorligini kamaytiradi. Xalqaro tajriba asosida risklarni to‘g‘ri boshqarish infratuzilmaga xususiy sarmoya oqimini oshiradi va davlat byudjeti yukini kamaytiradi.

Bank markazlashgan tizim iqtisodiyot uchun yetarli emas. Lizing, faktoring va mikromoliyalashni kengaytirish startaplar va KOB sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi, iqtisodiy o‘sishning yangi drayverlarini shakllantiradi.

Sun’iy intellekt, Big Data va real-time monitoring risklarni sezilarli kamaytirib, portfel sifatini yaxshilaydi.

ESG tamoyillarining sustligi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka to‘siq bo‘lmoqda. “Yashil” moliyalashtirishni kengaytirish iqtisodiy o‘sishning ekologik xavfsiz modeliga o‘tishni ta’minlaydi.

Shaffoflik yetishmasligi korrupsiya xavfini kuchaytiradi. Xalqaro audit me’yorlari va raqamlashtirilgan hisobot tizimi samaradorlikni va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Taklif sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-kredit shartlarini iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha moslashtirish zarur;

-garov talablarini yumshatish va kafolat institutlarini kengaytirish lozim;

-innovatsion loyihalar uchun subsidiya va grant mexanizmlarini ko‘paytirish zarur;

-oliya tizimini boshqarishda real-time monitoring tizimini joriy etish lozim

-korrupsiya xavfini kamaytirish uchun ochiq ma’lumotlar platformalari yaratish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, ĸaqamli texnologiyalar, fintech xizmatlari, davlat-xususiy sheriklik, “yashil” moliyalashtirish kabi innovatsion yo‘nalishlarning joriy etilishi moliya tizimining transformatsiyasiga kuchli turtki bermoqda.

Shuningdek, moliyaviy inklyuziyaning kengayishi, aholining moliyaviy savodxonligi o‘sishi va davlat boshqaruvining shaffoflashuvi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman, moliya-kredit mexanizmlarining modernizatsiyasi investitsiyaviy faollikni oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, iqtisodiy o‘sish drayverlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2019. 64 b.
2. Stiglitz J. E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. 1981. №. 3. P. 393–410.
3. Akerlof G. A. The Market for “Lemons”: Quality Uncertainty and the Market Mechanism // Quarterly Journal of Economics. 1970. №. 3. P. 488–500.
4. Claeys S., Schoors K. Bank Lending in Transition Economies: Evidence from Eastern Europe // Journal of Comparative Economics. 2007. №. 1. P. 1-22.
5. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda // Journal of Economic Literature. 1997. №. 35, P. 688–726.
6. Chand S., Le V. T. Financial Access and SME Growth in Southeast Asia: Country Cases // Asian Development Bank Working Paper Series. 2016. №. 423. 36 p.
7. Hoshi T., Kashyap A., Scharfstein D. The Role of Banks in Reducing the Costs of Financial Distress in Japan // Journal of Financial Economics. 1990. № 27, №. 1. P. 67–88.
8. Jo’rayev M. M. Real sektorda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uchraydigan muammolar va yechimlar // Iqtisodiy tahlil. 2022. №4. B. 45–50.

9. Rasulov A. X. O'zbekistonda zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish istiqbollari // Moliya. 2021. №3. B. 30-36.
10. Hasanov X. Q. Moliyaviy savodxonlik va raqamli moliya xizmatlarini rivojlantirishning real sektorga ta'siri // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. 2023. №2. B.218.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. Toshkent, 2022.

AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEZONLARI

Xakimova Nasiba Abduraimovna
TISU Moliya va turizm kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511639

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi daromadlarini oshirish va barqarorligini ta'minlash muammosi va uni bartaraf etish borasidagi fikr mulohazalar o'rin olgan. Shuningdek, aholi daromadlarini tarkibi, unda asosan aholining ish haqi daromadlaridan tashqari tadbirkorlik faoliyati natijasida olinadigan daromadlari, davlatning yangi ish o'rni yaratish bilan bog'liq xarajatlari va uning smaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ish haqi, tadbirkorlik, lizing, depozit, biznes, moliya, rentabellik, investitsiya, innovatsiya.

Aholining daromad jihatdan ijtimoiy tabaqalarga ajralishi bozor iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan holat bo‘lib, aholining daromadlar bo‘yicha tabaqalanishi o‘zida turli ijtimoiy-demografik guruhlar o‘rtasida daromadlarning notekis taqsimlanishini aks ettiradi. Shuningdek, mamlakat aholisi o‘rtasida daromadlar tengsizligini tahlil qilish aholi turmush darajasi to‘g‘risidagi xulosalarni ham keltirib chiqaradi. Negaki, mamlakatda aholi turmush darajasining to‘rt toifasi (farovonlik, meyoriy daraja, kambag‘allik, qashshoqlik) dan qaysi birida aholi ulushining yuqoriligi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat qandayligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ya'ni, aholi turmush darajasi deyilganda aholining zarur moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganligi, aholi iste'moli va ehtiyojlarining qondirilganlik darajasi tushuniladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda. “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish” vazifasi ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Yuqoridagi ta'kidlardan kelib chiqib, bizningcha, bu borada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashga ta'sir ko‘rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va aholi daromadning ko‘payishiga hamda iqtisodiy o‘sish va aholi turmush sifatini oshirishdagi asosi va davlatning ushbu sohaga ko‘magi quyidagi sohalarda o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq. Jumladan, aholi daromadi oshishi hisobiga oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni ko‘payishi; milliy iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni baholash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin. Birinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari va harajatlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy nazariy qarashlarni umumlashtirish; ikkinchidan, iqtisodiy o‘sish va aholi daromadi va harajatini muvofiqlashtiriga ta'sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning uslubiy jihatlarini o‘rganish; uchinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sishni hozirgi holati va aholi daromadlari hamda xarajatlarini muvofiqlashtirishni belgilovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish; to‘rtinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari hamda xarajatlarini muvofiqlashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida tahlil qilish; beshinchidan, aholi daromadlari hamda xarajatlarini muvofiqlashtirish mexanizmini takomillashtirish va uni prognozlarini ishlab chiqish. Ana shu zaruriyat tufayli aholi daromadlari va harajatlari bo‘yicha imtiyozlar mavjudligi yoki berilayotganligi, iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari va harajatlarini muvofiqlashtirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

1- jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda aholi jon boshiga umumiy va real daromadlarning o'zgarish tendensiyasi[1]

Ko'rsatkichlar nomi	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Aholi umumiy daromadlari, mlrd. so'm	420338,3	515660,7	633567,4	728826,1	764574,0
O'tgan yilga nisbatan, % da	113,5	125,1	122,0	115,1	126,3
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm	10734,3	13416,8	15948,3	18201,2	20638,7
O'tgan yilga nisbatan, % da	98,6	110,7	107,3	102,4	109,9
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd. so'm	367456,6	468448,4	568527,8	662749,9	746463,6
O'tgan yilga nisbatan, % da	100,5	112,9	109,5	104,6	114,3
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm	10734,3	13416,8	15948,3	18201,2	21634,1
O'tgan yilga nisbatan, % da	98,6	110,7	107,3	102,4	116,5

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, milliy iqtisodiyotning yangi tarkibiy o'zgarishi daromadlar tarkibini ham bevosita o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, jumladan, aholi umumiy daromadlari 2023-yilda 728826,1 mlrd. so'mdan hisobot yilida 764574,0 mlrd. so'mgacha oshib borgan, yoki 126, 3 % ga oshgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar esa 2024-yilda 20638,7 ming so'mga oshib, 110,0 % ga teng bo'lgan.

Qayd etish kerakki, turmush darajasini umuman real daromad emas, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromad tashkil qilib, daromadlarning oshib borishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, aholining harid qobiliyatini ortishi natijasida ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga erishiladi. "Turmush darajasi: – tor ma'noda aholining iste'mol ehtiyojlari qondirilganligi, iste'molning daromad va xarajatlar bilan ta'minlanishini; keng ma'noda insonni rivojlanishi darajasini (sog'lik, ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari) va uning yashash shart -sharoitlarini anglatadi.

Aholi daromadlarining tabaqalanish holatini quyidagi indikatorlar orqali baholash mumkin:

- daromadlar tabaqalanishining desil koeffitsienti – 10 foiz yuqori darajada ta'minlanganlarning va 10 foiz kam ta'minlanganlarning maksimal daromadlari o'rtasidagi nisbat;

- daromadlar tabaqalanishining kvintil koeffitsienti – 20 foiz yuqori darajada ta'minlanganlarning va 20 foiz kam ta'minlanganlarning minimal daromadlari o'rtasidagi nisbat;

- fondlar koeffitsienti – eng yuqori daromad oluvchi va eng kam daromadga ega bo'lgan aholi o'rtasidagi nisbat;

- djini koeffitsienti (daromadlar konsentratsiyasi koeffitsienti) – aholining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishini tavsiflovchi indikator;

- daromadlar (ish haqi) tabaqalanishi – iqtisodiyot tarmoqlari yoki mamlakat hudud va mintaqalari bo'yicha ish haqi (aholi daromadlari) tengsizligini tavsiflovchi indikator;

- o'rtacha va minimal ish haqi o'rtasidagi nisbat – aholining ijtimoiy guruhlarining daromad manbalari tengsizligini tavsiflovchi indikator. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar shaxsiy daromadlar tarkibida o'zgarishlarga ham olib kelib, bunga bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi va aholi turmush tarziga qarab o'zgaradi. "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 % ga va eksportdagi ulushini 60% ga yetkazish belgilangan".

[1] Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Keyingi yillarda nodavlat sektorining oshib borishi bozor daromadlarining jami daromaddagi salmog‘i besh barobardan oshdi, Bu nodavlat sektorida ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko‘rsatish aholi uchun serdaromdli sohaga aylanib borishidan dalolat beradi. Bu daromad tarkibidagi siljishlar mulkchilikning o‘zgarishi va biznes faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, daromadlarga ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatib – birinchisi tadbirkorlik, ikkinchisi mulkdan kelgan daromad. Davlat tomonidan biznesning qo‘llab-quvvatlanishi o‘z ichki resurslari hisobidan rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa tadbirkorlik daromadining aholi yalpi daromadidagi ko‘rsatkichlarining oshib borishiga sabab bo‘ldi.

Mamlakatimizda aholi daromadlari tarkibidagi o‘zgarishlar va turmush farovonligini oshirish zamonaviy jihatlarini tadqiq qilishda oilalarning “Mahallabay” ishlash tizimida ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish, oilalarning daromad manbalarini, shu jumladan, tomorqa yerlardan foydalanish hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojlarini «xonadonbay» o‘rganish, ishsizlarni kasb-hunar va innovatsion tadbirkorlikka o‘rgatuvchi kurslarga yo‘naltirish, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga amaliy ko‘maklashish maqsadga muvofiq. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yaqin istiqbolga mo‘ljallangan dasturlar orqali kambag‘allikka qarshi kurashishda institutsional va tizimli yondashuv asosida ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro me’yorlar, aniq mezonlar va baholash usullariga asoslangan zamonaviy yondoshuvlar yaxshi samara beradi, shuningdek, aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash mexanizmlari insonlarni kambag‘allikka olib keluvchi bir nechta muhim omillarni bartaraf etish, yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish kambag‘allik toifasiga tushish ehtimoli yuqori bo‘lgan aholi guruhini manzilli qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158- son “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
3. Boyev X.I., Adilov B.B. Aholi daromadlarini davlat tomonidan boshqarish zaruriyati. Iqtisod va moliya. 2018, 5 – 58 b.
4. Xakimov Z.I. Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitalining o’ziga xos xususiyatlari . *Tadqiqotlar jahon - ilmiy metodik jurnali*, 2024. 35-son, 2-to’plam. 123-129;
5. Xakimov Z.I. Tomorqa- daromad manbai va oilaviy farovonlik asosi. *Ilg’or Iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnali,* 2025-yil, №3. – B. 793-799.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ollanazarov Shoxrux Zokir o`g`li
Xudoyqulov Humoyiddin Ilhom o`g`li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institiuti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Bank ishi va audit
yo`nalishi 4-bosqich talabalari
humoyiddinxudoyqulov0@gmail.com
shoxruxollanazarov939@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511676

Annotatsiya: Mazkur tezis ishida O‘zbekiston Respublikasida pul bozorining hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilmasi hamda asosiy ishtirokchilari faoliyati tahlil qilingan. Pul bozorining mamlakat moliya tizimidagi o‘rni va ahamiyati, likvidlikni ta’minlash hamda qisqa muddatli moliyaviy instrumentlar orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta’siri yoritilgan.

Tadqiqot davomida milliy pul bozori infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy elektron to‘lov tizimlarini keng joriy etish, Markaziy bankning pul-kredit siyosatini samarali olib borish yo‘nalishlari hamda moliya bozorini liberallashtirish jarayonlari tahlil qilindi.

Shuningdek, O‘zbekistonda pul bozorini rivojlantirish istiqbollari sifatida raqamli valyuta mexanizmlarini joriy etish, banklararo likvidlikni oshirish, qisqa muddatli moliyaviy vositalarni kengaytirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pul bozori, moliya tizimi, Markaziy bank, likvidlik, moliyaviy instrumentlar, pul-kredit siyosati, elektron to‘lov tizimlari, raqamli valyuta, iqtisodiy rivojlanish.

O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning va amalga oshirilayotgan davlat rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri — milliy pul bozorini rivojlantirish orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish hamda aholining investitsiyalar hisobidan daromad manbalarini yaratishdir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida milliy iqtisodiyotini shakllantirgan har bir davlat ham pul bozorini rivojlantirmasdan to‘liq natijaga erisha olmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning muhim tarkibiy qismlaridan biri mamlakatning moliyaviy tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pul bozori moliya sektorining eng muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, pul bozorining rivojlanish darajasi orqali mamlakat moliyaviy tizimini umuman baholash mumkin. Pul bozori allaqachon universal iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylangan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda esa ushbu bozor orqali, bir tomondan, davlat, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, aholi o‘zlariga zarur mablag‘larni jalb qiladi, ikkinchi tomondan esa, korxona, tashkilot va aholi o‘z bo‘sh mablag‘larini qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yo‘naltirish orqali iqtisodiy foyda (daromad) oladi.

Pul bozori — bu moliya bozorining bir qismi bo‘lib, unda asosan qisqa muddatli (bir yilgacha bo‘lgan) kredit operatsiyalari amalga oshiriladi. Pul bozoridagi operatsiyalar korxonalarning aylanma mablag‘lari harakati va banklarning qisqa muddatli resurslariga xizmat qiladi. Keng ma’noda olganda, pul bozori — bu jismoniy shaxslar, davlat va nodavlat institutlar pulga bo‘lgan talab bilan, banklar esa pul taklifi bilan ishtirok etadigan bozor hisoblanadi.

Pul bozori iqtisodiy adabiyotlarda va me’yoriy hujjatlarda turlicha ta’riflanadi, ammo biz uning asosiylarini ko‘rib chiqamiz. Pul bozoridagi operatsiyalar tijorat banklari tomonidan, bir tomondan, bank likvidligini ta’minlash yoki mablag‘larni joylashtirish orqali daromad olish maqsadida, ikkinchi tomondan, Markaziy bank tomonidan — pul-kredit siyosatining maqsadlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi (Regulation, 2018).

Bizning fikrimizcha, xalqaro tajribalarga tayangan holda pul bozori ishtirokchilarini kengaytirish zarur. Bunday holatda, pul bozorini faqat tijorat banklari va markaziy bank bilan cheklab qo‘ymasdan, balki quyidagi ishtirokchilar bilan boyitish lozim: hukumat, bank bo‘lmagan moliyaviy vositachilar, dilerlar va brokerlar,

nomoliyaviy tashkilotlar, aholi, aktivlarni boshqaruvchi agentliklar, nazorat organlari hamda sanoat uyushmalari.

Tahlil va natijalar. Har qanday iqtisodiyotda pul bozori bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. U tijorat banklariga likvidlikni boshqarish orqali narx signallarini shakllantirish, likvidlik va foiz stavkalarini yumshatish, moliyalashtirishni ta'minlash, kapital chegaralarini belgilashda yordam beradi hamda pul-kredit siyosati ta'sirini amalga oshirish, likvidlikni tartibga solish va moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari o'rtasida mablag'larni jalb qilish va joylashtirish bo'yicha bitimlar O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasining yagona elektron savdo platformasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim 2018-yilda "Banklararo pul bozorida elektron savdo platformasi orqali operatsiyalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom" hamda "Banklararo pul bozorida operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari"ga muvofiq tashkil etilgan[1].

So'nggi 25 yil davomida inflyatsion targetlash (maqsadli inflyatsiya siyosati) pul-kredit siyosati amaliyotlari majmuasi sifatida hamda narxlar barqarorligiga erishishning eng samarali usullaridan biri sifatida tobora ommalashdi. Bugungi kunda bu yondashuvni 30 dan ortiq mamlakatlar, jumladan rivojlangan, rivojlanayotgan hamda o'tish davridagi iqtisodiyotga ega davlatlar qo'llamoqda.[2]

Rivojlangan davlatlar qatoriga Kanada va Yaponiya, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar ichida esa Braziliya va Rossiya, o'tish davridagi davlatlar orasida esa Moldova va Gana misol bo'la oladi. Shuningdek, AQSh Federal Rezerv tizimi hamda Yevropa Markaziy banki rasmiy ravishda inflyatsion targetlash siyosatini e'lon qilmagan bo'lsa-da, amaliyotda shu uslubga o'xshash yondashuvni qo'llab kelmoqda.

Inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholining turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun muhim sharoit yaratadi. Shu munosabat bilan, **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 18-noyabrda "Pul-kredit siyosatini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tish orqali takomillashtirish to'g'risida"gi PQ–5877-sonli Farmon** qabul qilingan.[3]

Mazkur Farmonga muvofiq, **pul bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari** quyidagicha belgilab berilgan:

- **Pul bozorini tartibga solishning yangi instrumentlarini joriy etish**, ya'ni regulyatorning kredit bozoriga samarali ta'sirini ta'minlash;
- **Pul-kredit siyosatining kompleks instrumentlarini qo'llash** orqali pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish va inflyatsiya jarayonlarini boshqarish;
- **2020-yil 1-yanvarga qadar** pul bozoridagi foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatuvchi bozor instrumentlarini — Markaziy bank obligatsiyalari, "overnight" depozitlar, doimiy depozit auktsionlari, davlat qimmatli qog'ozlari, xorijiy valyuta garovi ostidagi kredit auktsionlari va "overnight" kreditlarni joriy etish;
- **Asosiy foiz stavkasi koridori mexanizmini ishlab chiqish**, ya'ni Markaziy bank tomonidan har oyda banklararo pul bozoriga muntazam intervensiyalarni amalga oshirish orqali moslashuvchan foiz siyosatini yuritish;
- **Davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish** va G'aznachilikning bo'sh mablag'larini tijorat banklarida joylashtirish uchun yagona elektron platforma yaratish;
- **Pul bozoridagi bitimlar uchun asosiy mezon sifatida foiz stavkalari koridorini qo'llash**.[4]

Mazkur chora-tadbirlar mamlakatda pul-kredit siyosatini zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirish, pul bozorining institutsional asoslarini kuchaytirish hamda inflyatsiyani barqaror darajada

[1] Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг No3010-сон бошқарув қарори. "Банклараро пул бозорида электрон савдо платформаси орқали операцияларни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги" Низом. 2018.
[2] Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг No3010-сон бошқарув қарори. "Банклараро пул бозорида электрон савдо платформаси орқали операцияларни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги" Низом. 2018.
[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5877-сонли Фармони."Инфлацион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатинитакомиллаштириш тўғрисида" 2019
[4] Xusanov B. **Pul-kredit siyosati va uning iqtisodiyotdagi roli.** – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.

ushlab turish imkonini beradi. Shu tariqa, bu islohotlar iqtisodiyotning barqaror o‘sishini va aholining farovonligini oshirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi vazifalarni hal etishda rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklarining pul-kredit siyosatini yuritish metodologiyasini qo‘llash hamda ushbu siyosatning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Bu davlatlarda pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti sifatida **foiz siyosati** keng qo‘llaniladi. Mazkur vosita pul bozorida yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanatni tezda aniqlashga, shuningdek, tezkor qarorlar qabul qilishda samarali yordam beradi. Yaxshi rivojlangan **pul bozorlari** faqatgina yuqori daromadli, rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Boshqa mamlakatlarda, jumladan **O‘zbekiston**da ham, pul bozorlari nisbatan tor, yetarlicha integratsiyalashmagan va ayrim hollarda deyarli mavjud emas. Mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘plab farqlarga qaramay, ularning **moliyaviy tizimi**, jumladan pul bozori rivojlanish darajasi, bevosita mamlakat **iqtisodiy taraqqiyot darajasi** bilan chambarchas bog‘liqdir.

Pul bozorining **valyuta bozori** segmentiga kelsak, ushbu bozor holati va undagi tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, **mahalliy valyuta bozorini rivojlantirish va isloh qilish** tanlangan **valyuta kursi rejimi** hamda **pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillariga** chambarchas bog‘liqdir.

Valyuta kursining **moslashuvchanligi**, **narxlar barqarorligi** va **pul bozorining rivojlanishi** o‘zaro bog‘liq bo‘lishining bir nechta sabablari mavjud.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida pul bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari[5]

Yo'nalish	Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar	Maqsad	Kutilayotgan natija
1. Pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish	2019-yil 18-noyabrdagi PQ–5877-sonli Prezident farmoni asosida inflyatsion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish	Inflyatsiyani nazorat qilish va narxlar barqarorligini ta'minlash	Barqaror makroiqtisodiy muhit va aholi farovonligining oshishi
2. Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish	Markaziy bank obligatsiyalari, "overnight" depozitlar, doimiy depozit auktsionlari, davlat qimmatli qog'ozlari va kredit auktsionlari	Pul bozorida foiz stavkalarini shakllantirish va likvidlikni tartibga solish	Likvidlikni samarali boshqarish va bank tizimi barqarorligini kuchaytirish
3. Foiz stavkasi koridori mexanizmini tatbiq etish	Asosiy foiz stavkasi koridori orqali Markaziy bank intervensiyalarini yo'lga qo'yish	Pul bozoridagi qisqa muddatli foiz stavkalarini barqarorlashtirish	Foiz siyosatining prognoz qilinuvchanligi va shaffofligi oshadi
4. Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish	Hukumat obligatsiyalarini emissiya qilish va ularni ikkilamchi bozorda muomalaga chiqarish	Davlat qarzini ichki manbalardan moliyalashtirish	Investitsion muhitni yaxshilash va pul bozorini chuqurlashtirish
5. Elektron savdo platformalarini rivojlantirish	2018-yildan boshlab banklararo pul bozori uchun yagona elektron savdo platformasi joriy etildi	Tijorat banklari o'rtasidagi operatsiyalarni avtomatlashtirish va tezlashtirish	Pul bozori operatsiyalarining shaffofligi va raqobatbardoshligi oshadi

Jadvalda O‘zbekistonda pul bozorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan asosiy yo‘nalishlar tizimli ravishda yoritilgan. Unda mamlakatda pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish, foiz stavkasi koridori mexanizmini tatbiq etish, davlat qimmatli qog‘ozlari bozorini rivojlantirish hamda elektron savdo platformalarini kengaytirish kabi islohotlar o‘z aksini topgan.

Shuningdek, jadvalda har bir yo‘nalish bo‘yicha **amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar**, ularning **asosiy maqsadi** va **kutilayotgan iqtisodiy natijalari** ko‘rsatib o‘tilgan. Bu orqali pul bozorining institutsional

[5] Jadval internet ma`lumotlari asosida muallif tomonidan yaratilgan

asoslarini mustahkamlash, banklararo likvidlikni samarali boshqarish, inflyatsiyani nazorat ostiga olish hamda mamlakatda barqaror moliya tizimini shakllantirish maqsad qilingan.

Mazkur yo‘nalishlar Prezidentning 2019-yil 18-noyabrdagi PQ–5877-sonli Farmoni bilan belgilangan vazifalar va xalqaro tajribaga asoslangan pul-kredit siyosati islohotlarini o‘zida mujassam etadi. Jadvalda keltirilgan chora-tadbirlar natijasida O‘zbekiston moliya tizimining raqobatbardoshligi oshishi, makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanishi hamda aholining farovonligi yuksalishi kutilmoqda.

Yaxshi rivojlangan **pul bozorlari** faqatgina yuqori daromadli, rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Boshqa mamlakatlarda, jumladan **O‘zbekiston**da ham, pul bozorlari nisbatan tor, yetarlicha integratsiyalashmagan va ayrim hollarda deyarli mavjud emas.

Mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘plab farqlarga qaramay, ularning **moliyaviy tizimi**, jumladan pul bozori rivojlanish darajasi, bevosita mamlakat **iqtisodiy taraqqiyot darajasi** bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa. O‘zbekistonda pul bozori hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda uni rivojlantirish yo‘nalishida muhim qadamlar tashlanmoqda. Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash siyosatining bosqichma-bosqich joriy etilishi, foiz siyosatini takomillashtirish, hamda valyuta bozorini erkinlashtirish kabi islohotlar moliyaviy tizimni barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

Pul bozori iqtisodiyotda likvidlikni boshqarish, qisqa muddatli resurslarni taqsimlash, foiz stavkalarini shakllantirish va monetar siyosatni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, bu sohani yanada rivojlantirish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va moliyaviy tizim samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5877-сонли Фармони.“Инфлацион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатинитакомиллаштириш тўғрисида” 2019.
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг No3010-сон бошқарув қарори. “Банклараро пул бозорида электрон савдо платформаси орқали операцияларни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги” Низом. 2018.
3. Ostonov Sh. Pul muomalasi va kredit. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021
4. Xusanov B. Pul-kredit siyosati va uning iqtisodiyotdagi roli. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
5. Tursunov B. *Pul bozorining iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyati. – Iqtisodiyot va ta’lim jurnali*, 2022.
6. Levine, R. *Finance and Growth: Theory and Evidence. – Journal of Monetary Economics,* 2005

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING DAROMADLILIGI VA LIKVIDLILIGI O‘RTASIDAGI MUTANOSIBLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Jumayev Asadbek Xurshid o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba
6BI-22 guruh talabasi
Tel: +998 (93) 127-42-09
E-mail: asadbekjumayev500@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511734

Annotatsiya: Mazkur tezisda tijorat banklari aktivlarining daromadliligi va likvidliligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muammolari hamda ularni hal etish yo‘llari yoritilgan. Aktivlarning samaradorligini oshirish bilan birga, ularning likvid holatda bo‘lishi bankning moliyaviy barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu maqsadda aktivlarni boshqarish strategiyalari, diversifikatsiya, aktiv-portfel tahlili hamda likvidlik risklarini kamaytirish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, aktivlar, daromadlilik, likvidlilik, balans, risk, aktiv-portfel, moliyaviy barqarorlik.

Tijorat banklarining asosiy maqsadi — mijozlarga xizmat ko‘rsatish bilan birga, o‘z faoliyatidan foyda olishdir. Shu bilan birga, bank o‘z zimmasidagi majburiyatlarni istalgan vaqtda bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu esa bank faoliyatida daromadlilik va likvidlilik o‘rtasida doimiy muvozanatni ta’minlashni talab etadi.

Daromadlilik — bu bank faoliyatining samaradorligini ifodalasa, likvidlilik — uning ishonchliligi va barqarorligini ta’minlaydi. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlash bank boshqaruvida eng muhim masalalardan biridir.

“Daromadlilikni oshirish uchun uzoq muddatli kreditlarga yo‘naltirilgan aktiv siyosati bank likvidligini qisqartiradi, shu bois optimal aktiv-portfel tuzilmasi bank barqarorligining asosiy omilidir.”

Daromadlilikni oshirish uchun bank uzoq muddatli, yuqori foizli aktivlarga investitsiya kiritadi, biroq bu likvidlikni kamaytiradi. Aksincha, likvidlikni saqlash uchun qisqa muddatli, tezkor naqd vositalarni ko‘paytirish daromadni kamaytiradi. Shu sababli bank aktivlari tarkibida har ikkisini muvozanatlashtirish zarur[1].

Aktivlar — kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag‘lar, olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar.[2]

Aktiv-portfel diversifikatsiyasi, likvidlik zaxiralarini shakllantirish, aktiv-passiv boshqaruvi (ALM) tizimini joriy etish, rentabellik tahlili va likvidlik koeffitsientlarini nazorat qilish orqali banklar daromadlilik va likvidlilik o‘rtasidagi muvozanatni saqlab turishlari mumkin.

Muvozanatni ta’minlash yo‘llari

- **Aktiv-portfel diversifikatsiyasi:** kreditlar, obligatsiyalar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalar o‘rtasida balansni saqlash.
- **Likvidlik zaxiralarini shakllantirish:** Markaziy bank talablariga muvofiq minimal majburiy zaxiralarni saqlash.
- **Aktiv-passiv boshqaruvi (ALM):** balansdagi aktiv va passivlarning muddatlari hamda foiz stavkalariga bog‘liq risklarni muvofiqlashtirish.
- **Rentabellik tahlili:** aktivlar daromadlilik darajasini muntazam baholab borish, past samarali aktivlarni qisqartirish.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank tizimining 2024-yil yakunlari bo‘yicha tahliliy hisobot”.– Toshkent, 2025
[2] LEX.UZ 2696 – SON 14. 07. 2015

- **Likvidlik koeffitsientlarini nazorat qilish:** joriy, tezkor va umumiy likvidlik ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda monitoring qilish.

Tijorat banklari faoliyati iqtisodiyotning pul aylanish jarayonini ta’minlash, investitsiyalarni moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Banklar uchun asosiy masalalardan biri — bu daromadlilik va likvidlilik o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Mashhur iqtisodchi **John Maynard Keynes** o‘z asarlarida “likvidlik afzalligi” nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, har bir moliyaviy institut nafaqat foyda ortidan quvishi, balki o‘z majburiyatlarini istalgan paytda bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu fikr bugungi tijorat banklari uchun ham dolzarb, chunki ortiqcha daromadga intilish likvidlik tanqisligiga olib kelishi mumkin.So‘nggi yillarda O‘zbekiston tijorat banklarida aktivlarning umumiy hajmi barqaror o‘sib bormoqda. 2024-yilda banklar aktivlari 700 trln so‘mdan oshdi, ularning 60% dan ortig‘i kredit portfeliga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan joriy likvidlik me’yorlariga rioya etish darajasi 35–40% atrofida saqlanmoqda. Bu holat banklarning daromadlilikni oshirayotgan bo‘lsa-da, likvidlik xavflarini kamaytirish choralari ham kuchaytirilayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa: Tijorat banklari faoliyatida daromadlilik va likvidlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash — ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning eng muhim omilidir. Bu yo‘nalishda aktiv-portfelni oqilona boshqarish, likvidlik zaxiralarini shakllantirish, aktiv-passiv risklarini tahlil qilish hamda moliyaviy monitoringni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank tizimining 2024-yil yakunlari bo‘yicha tahliliy hisobot”.– Toshkent, 2025.
2. Xodjayev B.A. Bank ishi asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
3. Abdurahmonov Q.X. Moliyaviy boshqaruv. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari.
6. “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish tendensiyalari”, Iqtisodiyot va moliya jurnali, №3, 2024.

TIJORAT BANKLARINING KREDIT OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Musulmon Abduhalimov
6BI-22 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511767

Annotatsiya: Ushbu tezisda tijorat banklarining kredit operatsiyalarini tashkil etish va ularni rasmiylashtirish tartibi yoritilgan. Mavzuda kredit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati, ularning bank tizimidagi o‘rni hamda iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kredit, tijorat banki, kredit operatsiyasi, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, qaytuvchanlik, to‘lovlilik.

Kirish

Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari muhim o‘rin tutadi. Ular orqali banklar vaqtincha bo‘sh mablag‘larni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltirib, foyda oladi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Kredit munosabatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag‘larning qayta taqsimlanishini ta’minlab, ishlab chiqarish jarayonini rag‘batlantiradi.

Asosiy qism

Kredit operatsiyalari tijorat banklari faoliyatining eng asosiy va daromad keltiruvchi yo‘nalishlaridan biridir. Banklar aholining va korxonalarning ortiqcha mablag‘larini jalb qilib, ularni kredit sifatida resursga muhtoj subyektlarga taqdim etadi. Bu jarayonda bank vositachilik funksiyasini bajaradi va iqtisodiyotda pul oqimini boshqaradi.

Kredit operatsiyalari ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: birinchisi – aktiv kredit operatsiyalari, ya’ni bank tomonidan mijozlarga beriladigan kreditlar; ikkinchisi – passiv kredit operatsiyalari, ya’ni bankning boshqa manbalardan mablag‘ jalb etish jarayonidir.

Kredit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati ularning qaytuvchanlik, to‘lovlilik, muddatlilik va ta’minlanganlik tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar bank kredit portfelining sifatini saqlash hamda risklarni kamaytirish uchun muhim hisoblanadi.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda kapital aylanishini tezlashtiradi, yangi investitsion loyihalarni moliyalashtiradi, ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi va bandlikni oshiradi. Shu bois tijorat banklarining kredit faoliyati mamlakat iqtisodiy barqarorligining asosiy omillaridan biridir.

Xulosa

Tijorat banklarining kredit operatsiyalarini to‘g‘ri tashkil etish va rasmiylashtirish ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi. Samarali kredit siyosati bank foydaliligini oshiradi, mijozlar ishonchini mustahkamlaydi va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kredit jarayonining har bir bosqichida risklarni boshqarish va kredit intizomini saqlash bank tizimi barqarorligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki me’yoriy hujjatlari.
2. “Bank ishi asoslari” – O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2022.
3. Karimov A., Jo‘rayev X. – Tijorat banklari faoliyati. Toshkent, 2021.
4. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.

TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDIT BERISH TARTIBI VA AMALIY HOLATINI TAHLILI

Davlatov Elbek Kamoliddin o`g`li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Bank ishi va audit
yo`nalishi 4-bosqich talabasi
elbekdavlatov1313@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511796

Annotatsiya: Tezisda tijorat banklarida ipoteka kreditini berish tartibi, uning asosiy bosqichlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Unda ipoteka kreditlash jarayonining tartibi, mijozning to‘lov qobiliyatini baholash hamda garov ta’minotini belgilash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar, foiz stavkalari va ularni kamaytirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ham ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ipoteka krediti, tijorat banklari, kreditlash tartibi, garov ta’minoti, foiz stavkasi, to‘lov qobiliyati, uy-joy bozori, moliyaviy tahlil.

Bugungi kunda ipoteka kreditlari aholining uy-joy sharoitini yaxshilashda eng muhim moliyaviy vositalardan biri hisoblanadi. Aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyoji yildan-yilga ortib borayotgani sababli, tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlarini berish tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.Ipoteka kreditlash tizimi nafaqat fuqarolarning turmush darajasini oshirish, balki qurilish sohasi va unga bog‘liq tarmoqlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ipoteka kreditini berish tartibi, uning iqtisodiy mohiyati hamda amaliyotdagi holatini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maruzada tijorat banklarida ipoteka kreditlarini berish jarayoni, ularning shartlari, foiz stavkalari, garov ta’minoti hamda amaliy muammolar va ularni hal etish yo‘llari yoritiladi. Shu orqali ipoteka kreditlash tizimini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Ipoteka krediti - bu ko'chmas mulkni (uy-joy) sotib olish uchun bank yoki boshqa moliyaviy yordamdir. Kreditning olinayotgan sharti - sotib olingan ko'chmas mulkgarov sifatida ta'minlanadi, ya'ni agar qarz oluvchi o'z samaradorligini bajara olmasa, bank garovga olingan mulkni sotib olish huquqiga ega.

Ipoeka krediting mohiyati

- **asosiy maqsadi:** Shaxsga yoki oilaga ko'chmas mulk (uy-joy) sotib olish uchun yordam ko'rsatish.
- **Ta'minot:** Kredit ta'minoti sifatida sotib olinayotgan uy-joy yoki boshqa ko'chmas mulk garovga qo'yiladi.
- **Qarz xulosasi:** qanday, uy-joy narxining bir ko'rinishi (masalan, 70-90% ni qoplaydi, qolgan qarz oluvchi o'zi to'laydi.
- **Foiz stavkasi:** Kredit uchun foiz stavkasi foyda, uni qarz oluvchi kredit vaqt davomida to'lab boradi.
- **To'lov muddati:** Kredit uzoq muddatga beriladi, masalan, 10, 15, 20 yoki undan ham ko'p yillar uchun.
- **To'lovlar:** Qarz oluvchi har oyda kreditning ishlashi va foizlarini oshirish to'lab boradi.
- **Bank huquqlari:** Agar qarz oluvchi kredit to'lovlaridan orqada qolsa, bank garovga olingan mulkni sotib olish huquqiga ega bo'ladi.

Tijorat banklarida ipoteka kreditini ajratish tartibi

Tijorat banklarining ipoteka kreditlari aholining uy-joy sharoitini yaxshilashga, qurilish sohasini rivojlantirishga hamda iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ipoteka kreditini ajratish jarayoni qat’iy tartib va me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ipoteka kreditini ajratish tartibi, odatda, quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Mijoz tomonidan ariza topshirish bosqichi

Ipoteka krediti olish istagida bo‘lgan fuqaro yoki yuridik shaxs bankka yozma ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID karta);
- daromad to‘g‘risidagi ma’lumotnoma (ish joyidan maosh spravkasi yoki soliq hisobotlari);
- garovga qo‘yiladigan ko‘chmas mulk hujjatlari;

- oilaviy holat to‘g‘risidagi ma’lumotlar (zaruratga ko‘ra).

Bank xodimlari arizani qabul qilib, dastlabki tahlilni amalga oshiradilar va mijoz kredit olish uchun talab etiladigan minimal mezonlarga javob beradimi — shuni aniqlaydilar.[1]

2. Mijozning to‘lov qobiliyatini baholash

Bu bosqichda bank kredit risklarini kamaytirish maqsadida mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tahlil qiladi. Baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

- o‘rtacha oylik daromad miqdori;
- mavjud qarz majburiyatlari;
- oilaviy xarajatlar darajasi;
- ish joyining barqarorligi.

Agar mijozning daromadlari kredit to‘lovlarini muntazam amalga oshirishga yetarli bo‘lsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.

3. Garov obyekti va uning qiymatini aniqlash

Ipoteka kreditining asosiy xususiyati shundaki, u garov ta’minoti evaziga beriladi. Garov obyekti sifatida ko‘chmas mulk — uy, kvartira, yer maydoni yoki boshqa mol-mulk olinadi. Garov qiymatini aniqlash mustaqil baholovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Baholov natijasi asosida bank kredit miqdorini belgilaydi. Odatda, kredit summasi garov qiymatining 70–80 foizidan oshmaydi.

4. Kredit shartlarini belgilash

Baholash natijalari asosida bank kreditning asosiy shartlarini belgilaydi:

- kredit summasi va muddatini (odatda 10–20 yilgacha);
- foiz stavkasini (bozor holatiga va bank siyosatiga qarab);
- to‘lov jadvalini va foizlarni hisoblash tartibini;
- kreditning maqsadli yo‘nalishini (uy sotib olish, qurish, rekonstruksiya qilish).

Mazkur shartlar mijoz bilan kelishilgan holda yakuniy shaklga keltiriladi.

5. Shartnoma tuzish va kreditni ajratish

Bank va mijoz o‘rtasida ipoteka krediti shartnomasi tuziladi. Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari, to‘lov shartlari, jarima sanksiyalari va garov obyekti bo‘yicha barcha huquqiy jihatlar aniq belgilab qo‘yiladi. Shartnoma imzolangach, garov obyekti notarial tartibda rasmiylashtiriladi hamda tegishli davlat reyestriga kiritiladi. Shundan so‘ng bank kredit mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri uy-joy sotuvchisiga yoki mijozning hisob raqamiga o‘tkazadi.

6. Kreditni qaytarish va monitoring

Kredit ajratilgandan so‘ng bank kreditning qaytarilishini nazorat qiladi. Monitoring jarayonida quyidagilar kuzatib boriladi:

- oylik to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi;
- garov obyekti holati va sug‘urtasi;
- mijozning moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar.

Agar mijoz kredit to‘lovlarini bajarmasa, bank shartnomaga muvofiq choralar ko‘radi, zarurat tug‘ilganda garov obyekti hisobidan qarzdorlikni undirish huquqiga ega bo‘ladi.

2025 yildagi ma’lumotlari asosida ayrim banklarning ipoteka kreditlari bo‘yicha eng muhim shartlar (foiz stavkasi, muddat, summasi va dastlabki badal) jadvali

1-jadval[2]

[1] Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti “O‘zbekiston ko‘chmas mulk va ipoteka bozori 2023” jurnal, 2024, 40-67-betlar.

[2] https://bank.uz/uz/ipoteka

Bank / Kredit turi	Foiz stavkasi (yillik)	Kredit muddati	Maksimal summa	Dastlabki badal / Qo'shimcha shartlar
O'zbekiston Milliy bank (imtiyozli ipoteka)	17 % – 17,5 %	20 yil	420 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 15-40 %
Xalq Bank "Qulay"	23 %	15 yil	1 200 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 25 %
BRB — hududlarda uy-joy qurish / rekonstruksiya	24,5 % – 25,5 %	3 – 15 yil	1 125 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 20 %
BRB — uy-joy ta'miri	25 % – 26 %	3 – 10 yil	262 500 000 – 375 000 000 so'm	—
Asakabank "Universal"	24,5 %	10 yil	170 000 000 – 800 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 25 %
Ipoteka Bank "Oson ipoteka"	17,5 %	20 yil	50 000 000 – 420 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 15-30 %
Agrobank (birlamchi uy bozorida)	17 % – 17,5 %	20 yil	420 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 15-50 %
Hamkorbank (uy-joy sotib olish / ta'mirlash)	20 % – 25 %	20 yil	10 000 000 – 800 000 000 so'm	Dastlabki to'lov: 26 %

TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLASHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

O‘zbekistonda uy-joy sohasidagi islohotlarni samarali tashkil etish, ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish hamda tijorat banklari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish mexanizmlarini amaliyotga keng joriy qilish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, ipoteka kreditlari, ayniqsa davlat dasturlari doirasida past daromadli oilalar va birinchi marta uy sotib oluvchilar uchun mo‘ljallangan imtiyozli ipoteka kreditlari uy-joyga bo‘lgan talabni oshiradi, chunki ushbu kreditlar ko‘proq odamlarga uy sotib olish imkonini beradi. Masalan, tijorat banklar tomonidan 2023 yilda 68 395 nafar mijozga 16 850,9 mlrd.so‘m hamda joriy yil 6 oy davomida 31 900 nafar mijozga 8 536,3 mlrd.so‘m ipoteka kredit mablag‘lari ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Past foiz stavkalari yoki davlat tomonidan kafolatlanadigan kreditlar kabi imtiyozlar uy-joyga ega bo‘lishni ancha arzon bo‘lishini ta’minlaydi.[34]

Hozirda ipoteka kreditlarini moliyalashtirish Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari, banklarning o‘z mablag‘lari, davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hamda O‘zbekiston Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag‘lari hisobiga amalga oshirilmoqda. 2023 yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag‘lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 8,66 trln.so‘mga yetib, jami ajratilgan kreditlarning 51,4 foizini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar 2022 yilda mos ravishda 8,5 trln.so‘m va 59,2 foizni, 2021 yilda 4,85 trln.so‘m va 49,5 foizni tashkil etgan edi. Davlat budjetidan ajratilganmablag‘lar hisobidan berilgan ipoteka kreditlari hajmi 2021 yildagi 2,12 trln.so‘mdan (21,7 foiz) 2023 yilda 897 mlrd.so‘mgacha (5,3 foiz) kamaydi.

Ipoteka kreditlarini moliyalashtirishda banklarning o‘z mablag‘larining ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. 2021 yilda ushbu ko‘rsatkich 8,9 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda 26,3 foiz va 2023 yilda 33,9 foizga yetdi. Bu esa, o‘z navbatida, bank sektorining ko‘chmas mulk bozorida faolligi va roli yil sayin mustahkamlanib borayotganligini ko‘rsatadi. 2023 yilda O‘zbekiston Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag‘laridan berilgan ipoteka kreditlari 1,58 trln.so‘mga yetib, jami ipoteka kreditlaridan ulushi 9,4 foizni tashkil yetdi.[5]

2024-yil yakuni: O‘zbekistonda ipoteka krediti oluvchilar soni sezilarli darajada kamaydi - Markaziy bank

2024-yilda O‘zbekistonda ipoteka krediti oluvchilar soni 16 foizga kamaydi, kreditning o‘rtacha miqdori 18 foizga ko‘tarilib, 290 mln so‘mdan oshdi. Ipoteka krediti berish bo‘yicha Toshkent shahri yetakchi bo‘lib qolmoqda, deya xabar bermoqda Markaziy bank. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika

[3] Karimov S. “Ipoteka kreditlash asoslari”. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020.
[4] https://uysot.uz/uz/jurnal/2024-yilda-ipoteka-kreditlari-statistikasi-va-tahlili-181
[5] https://uysot.uz/uz/jurnal/2024-yilda-ipoteka-kreditlari-statistikasi-va-tahlili-181

bo‘yicha jami 17,09 trln so‘mlik ipoteka kreditlari ajratildi, bu 2023-yilga nisbatan 1,38 foizga ko‘p. Ipoteka oluvchilar soni 16 foizga — 68,3 mingdan 58,8 ming kishiga kamaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi 9,54 trln so‘mlik (2023-yil darajasiga yaqin) ipoteka kreditlarini moliyalashtirdi. Buning natijasida umumiy kredit ajratishdagi davlat ulushi 56,6 foizdan 55,8 foizgacha pasaydi. O‘z navbatida, ipoteka kreditlashda banklarning roli oshdi. 2023-yilga nisbatan banklar tomonidan ipoteka kreditlarini moliyalashtirish 261,6 mlrd so‘mga ko‘payib, ularning kreditlar berishdagi ulushi 33,8 foizdan 34,9 foizgacha yetdi.[6]

Ipoteka kreditlari hajmining o‘sishi.

So‘nggi yillarda aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining umumiy hajmi 2020-yildan boshlab 3,3 barobar oshgan. Agar 2020-yilda bu ko‘rsatkich 20,3 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu raqam 67,7 trillion so‘mga yetgan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- Uy-joy qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining kengayishi;
- Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan mablag‘larning ko‘payishi;
- Aholining ipoteka kreditlariga bo‘lgan ehtiyojining ortishi.

Hududlar bo‘yicha ipoteka kreditlari taqsimoti.

2024-yilda ipoteka krediti ajratish bo‘yicha Toshkent shahri 5,57 trln so‘mlik ko‘rsatkich bilan eng yuqori pog‘onani egalladi. Bu degani, aholiga ajaratilgan jami ipoteka kreditlarining uchdan bir qismi poytaxt hissasiga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi o‘rinni 1,386 trln so‘mlik ipoteka ajratilgan Farg‘ona viloyati egallagan bo‘lsa, uchinchi o‘rinda Samarqand (1,382 trln so‘m) qayd etildi.

Ipoteka kreditlarining moliyalashtirish manbalari.

Jami 17,1 trillion so‘mlik ipoteka kreditlari quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan:

- 9,5 trillion so‘m – Iqtisodiyot va moliya vazirligi;
- 5,9 trillion so‘m – tijorat banklarining o‘z mablag‘lari;
- 1,5 trillion so‘m – O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi.

Ushbu manbalarning turli kombinatsiyasi ipoteka kreditlarini moliyaviy barqarorlik bilan ta’minlashga imkon berdi.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov S. “Ipoteka kreditlash asoslari”. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020.
2. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti “O‘zbekiston ko‘chmas mulk va ipoteka bozori 2023” jurnal, 2024, 40-67-betlar.
3. https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/1386/1055
4. https://uysot.uz/uz/jurnal/2024-yilda-ipoteka-kreditlari-statistikasi-va-tahlili-181

[6] Karimov S. “Ipoteka kreditlash asoslari”. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020.
[7] https://uysot.uz/uz/jurnal/2024-yilda-ipoteka-kreditlari-statistikasi-va-tahlili-181

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING MAZMUN-MOHIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi
ISFT instituti, magistratura bo‘limi rahbari, i.f.d. professori
Turdimuratova Aziza Alisherovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511835

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati, ularning iqtisodiyotga ta’sir mexanizmlari va samaradorligini baholash nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida investitsiyalar samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya muhiti, xorijiy tajriba.

Аннотация: В статье рассматриваются сущность и содержание прямых иностранных инвестиций, их механизмы влияния на экономику и теоретические основы оценки эффективности. Анализируется зарубежный опыт и выявляются возможности повышения эффективности инвестиций в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, экономическая эффективность, инвестиционный климат, зарубежный опыт.

Abstract: This article examines the nature and essence of foreign direct investment, its mechanisms of impact on the economy, and the theoretical foundations for assessing efficiency. It also analyzes international practices and explores opportunities to enhance investment effectiveness in the context of Uzbekistan.

Keywords: foreign direct investment, economic efficiency, investment climate, international experience.

Abstract: This article examines the nature and essence of foreign direct investment, its mechanisms of impact on the economy, and the theoretical foundations for assessing efficiency. It also analyzes international practices and explores opportunities to enhance investment effectiveness in the context of Uzbekistan. Keywords: foreign direct investment, economic efficiency, investment climate, international experience.

KIRISH

Globalizatsiya sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiy o‘sishini jadallashtirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Xususan, rivojlanayotgan davlatlarda xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mazmun-mohiyatini ochib berish va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini nazariy jihatdan o‘rganish masalasi dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, chet el kapitali ishtirokini kengaytirish, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengaytirilishi xorijiy investorlarning jalb qilinishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar samaradorligini nazariy jihatdan asoslash, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ochib berish va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish uchun tizimli yondashuv qo‘llanildi. Ilmiy izlanishlar davomida xorijiy va milliy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Analitik, taqqoslash va qiyosiy tahlil metodlari yordamida xorijiy investitsiyalarning samaradorlikka ta’sir mexanizmlari aniqlanib, nazariy qarashlar amaliy ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida

induktiv va deduktiv usullar qo‘llanib, umumiy nazariy g‘oyalardan aniq xulosalar chiqarish hamda hududiy misollarda qo‘llash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, empirik tahlil asosida Surxandaryo viloyati misolida xorijiy investitsiyalar dinamikasi va tarkibiy xususiyatlari o‘rganildi. Bunda statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, grafik va jadvaliy ko‘rinishda tasvirlash orqali natijalar tizimlashtirildi. Umuman olganda, metodologik yondashuv ilmiy nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy dalillarni ham qamrab olib, tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini ta’minlashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotida kapital qo‘yilmalar hajmini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘rganilgan ilmiy nazariy manbalar xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri, avvalo, yalpi ichki mahsulot o‘sishi, sanoat ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va eksport salohiyatining ortishi kabi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Analitik tahlillar natijasida xorijiy investitsiyalarning samaradorligi yuqori bo‘lgan davlatlarda ularning iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan. Surxandaryo viloyati misolida olib borilgan empirik tahlillar esa ushbu hududda xorijiy investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshayotganini, biroq ularning samaradorlik darajasi hududning resurs salohiyatiga nisbatan yetarli emasligini ko‘rsatdi. Natijalar xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilish uchun qulay institutsional muhit yaratish, soliq va bojxona imtiyozlarini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda xorijiy investorlar bilan hamkorlikning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish muhim omil ekanini tasdiqladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv jarayonlarini tezlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish, avvalo, qulay investitsiya muhitini shakllantirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, soliq va bojxona imtiyozlarini takomillashtirish hamda investorlarga xizmat ko‘rsatish tizimini soddalashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Surxandaryo viloyati misolida o‘tkazilgan tahlillar xorijiy investitsiyalar hajmining yildan-yilga ortayotganini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorlik darajasi hududning mavjud resurs va salohiyatiga to‘liq mos kelmasligi aniqlangan. Shu bois, xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish, infratuzilma va kadrlar salohiyatini rivojlantirish orqali investitsiyalarning samaradorligini oshirish mumkin. Tadqiqotning umumiy xulosasi sifatida aytish mumkinki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nafaqat kapital qo‘yilmalarning o‘sishiga, balki iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi, bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNCTAD (2023). *World Investment Report 2023: Investing in sustainable energy for all*. United Nations, New York.
2. World Bank (2024). *Foreign direct investment, net inflows (BoP, current US$)*. World Development Indicators.
3. OECD (2022). *FDI in Figures*. Paris: OECD Publishing.
4. Dunning, J.H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Wokingham: Addison-Wesley.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024). *Investitsiya faoliyati statistik to‘plami*. Toshkent: Davstatqo‘m nashriyoti.

6. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (2024). *Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha hisobot*. Toshkent.
7. IMF (2023). *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Washington, DC: International Monetary Fund.
8. Kogut, B. & Chang, S.J. (1996). *Platform Investments and Volatile Exchange Rates: Direct Investment in the U.S. by Japanese Electronic Companies*. Review of Economics and Statistics, 78(2), pp.221–231.
9. Hymer, S.H. (1976). *The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment*. Cambridge, MA: MIT Press.
10. Caves, R.E. (2007). *Multinational Enterprise and Economic Analysis*. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press.

O‘ZBEKISTONDA MIKROMOLIYAVIY XIZMATLARNING MOHIYATI, TURLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xafizov Umidjon Baxodir o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Bank ishi va auditi yo‘nalishi, 4-bosqich talabasi
Tel: +998 90 133 85 55
E-mail: umidjonxafizov0809@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511860

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning asosiy turlari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Mamlakatda 2019–2024 yillarda amalga oshirilgan moliya tizimi islohotlari (xususan, PQ–4400-son qarori) natijasida mikromoliyalashtirish mexanizmlari kengayib, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari faoliyati orqali kichik tadbirkorlik subyektlari va kam daromadli aholining moliyaviy imkoniyatlari kengaymoqda. Tezisda mikromoliyaviy xizmatlarning asosiy turlari jadval asosida tizimlashtirilgan va ularning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mikromoliyaviy xizmatlar, mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing, nobank kredit tashkilotlari, kichik tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy inklyuziya.

Mikromoliyaviy xizmatlar iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Ular aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirish amaliyoti 2019-yil 23-iyuldagi Prezidentning PQ–4400-son qarori bilan yangi bosqichga ko‘tarildi[1]. Mazkur qaror mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va aholining moliyaviy savodxonligini yuksaltirishni nazarda tutdi.

Shuningdek, 2022-yil 17-martda qabul qilingan “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyaviylashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohani huquqiy asos bilan mustahkamladi[2]. Mikromoliyaviy xizmatlar tizimi aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, kichik biznesni moliyalashtirish hamda hududiy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Maxsus e'tibor mikromoliyaviy xizmatlar orqali kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy inklyuziyani oshirish yo‘nalishlariga qaratildi.

Mikromoliyaviy xizmatlar — bu aholining, kichik biznesning va yakka tartibdagi tadbirkorlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maxsus moliyaviy vositalar tizimidir. Quyidagi jadvalda ularning asosiy turlari, mohiyati va foydalanuvchi toifalari keltirilgan.

1-jadval.

Mikromoliyaviy xizmatlarning asosiy turlari[1]:

Xizmat turi	Qisqacha ta’rif	Asosiy foydalanuvchilar	Xizmatni ko‘rsatuvchi subyektlar
Mikrokredit	Kichik biznes, dehqon xo‘jaliklari va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun kichik miqdordagi kreditlar	Tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, kichik korxonalar	Barcha tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari
Mikroqarz	Qisqa muddatli, odatda iste’mol yoki shaxsiy maqsadlarga ajratiladigan qarz mablag‘lari	Ehtiyojdor aholi, yoshlar, tadbirkorlikni boshlayotgan shaxslar	Tijorat banklari, lombardlar, mikromoliya tashkilotlari
Mikrolizing	Asbob-uskunalarni uzoq muddatli ijaraga olish asosida moliyalashtirish turi	Kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari	Tijorat banklari va lizing kompaniyalari

[1] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-son qarori

Mikrojamg‘arma	Aholining kichik miqdordagi omonatlarini yig‘ish va ularni moliyaviy muomalaga kiritish xizmati	Uy xo‘jaliklari, jismoniy shaxslar	Tijorat banklari, kredit uyushmalari

2-jadval.

Mikromoliyaviy xizmatlar bo‘yicha belgilangan limitlar[2]

Xizmat turi	Eng yuqori miqdor (limit)	Izoh
Mikroqarz	50 million so‘mgacha	Jismoniy shaxslarga qisqa muddatli iste’mol maqsadida ajratiladi
Mikrokredit	300 million so‘mgacha	Tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish uchun beriladi
Mikrolizing	600 million so‘mgacha	Asbob-uskunalar va texnik vositalarni ijaraga olish uchun

Bu limitlar mikromoliyaviy xizmatlarning maqsadli auditoriyasini aniqlash va risklarni nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari bu me’yorlardan kelib chiqib kredit siyosatini shakllantiradi.

O‘zbekiston Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil yakunida mikrokreditlash hajmi 46,4 trillion so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 38 foizga oshgan[3]. Bu natija aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish siyosatining amaliy samarasidir. Tijorat banklari tomonidan masofaviy mikromoliyaviy xizmatlarni joriy etish, shuningdek nobank kredit tashkilotlari sonining ortishi raqobatni kuchaytirib, xizmat sifati va shaffoflikni oshirmoqda. Mikromoliyaviy xizmatlar segmentida yangi institutlarning paydo bo‘lishi (mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, kredit uyushmalari) bozorni diversifikatsiya qilib, kichik biznes uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Xulosa: Mikromoliyaviy xizmatlar O‘zbekiston iqtisodiyotida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish va aholining moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadi. 2019–2024 yillarda qabul qilingan qaror va qonunlar ushbu sohada institutsional islohotlar uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Kelgusida mikromoliyalashtirishni raqamli texnologiyalar va masofaviy xizmatlar asosida rivojlantirish, shuningdek aholi uchun qulay moliyaviy platformalarni kengaytirish mikromoliya tizimining samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi PQ–4400-son qarori.
2. “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, 2022-yil 17-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti: www.cbu.uz
4. Jurayev Z.Y. O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. *Ilm-fan va innovatsiya*, 2024.
5. Pardayeva Z.A. Mikromoliyaviy xizmatlar hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting”,* №6, 2023.
6. Salamov O.B. O‘zbekiston bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaxshilash yo‘llari. *Fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 26-son, 2024.
7. Xakimov Sh.X. *O‘zbekistonda mikromoliyalashtirishni rivojlantirish yo‘nalishlari.* Toshkent, 2005.

[2] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-son qarori

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ В СФЕРЕ ИННОВАЦИЙ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ И УСЛУГ

Шмырева Александра Ивановна
Новосибирский Государственный Университет Экономики и Управления, д.э.н., профессор
Протас Нина Геннадьевна
Новосибирский Государственный Университет Экономики и Управления, к.э.н., доцент
Вагайцева Валерия Павловна
Новосибирский Государственный Университет Экономики и Управления, преподаватель
tel: +79137654147
E-mail: vpisankina@yandex.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511878

Аннотация: Цифровые технологии успешно внедряются в банковскую систему, это прежде всего блокчейн, мобильные платёжные

системы, искусственный интеллект. Поскольку рынки постоянно меняются, все больше клиентов выбирают более удобные и доступные сервисы. Банки внедряют такие технологии как QR-коды, переводы по телефону, интеграция с Госуслугами. Это необходимо прежде всего для удержания клиентской базы и повышения операционной эффективности предоставляемых услуг

Ключевые слова: банковские продукты, банковские инновации, конкуренция, технологии, эффективность.

В настоящее время российские банки приняли ряд новых вызовов, включающих в себя, в первую очередь, попаданием крупнейших представителей сектора в санкционный список, а также «замораживание» текущих банковских активов. Это повлекло за собой целый ряд негативных процессов: паника вкладчиков, реализация валютных и процентных рисков, разрушение логистических цепочек у банковских клиентов, прекращение деятельности на рынке представителей иностранного бизнеса и другие последствия, которые не могли не отразиться как на деятельности отдельно взятых финансовых организаций, так и банковской отрасли в целом.

Максимальный уровень издержек и ухудшение показателей основных финансовых коэффициентов отмечены у банков, которые работают преимущественно с представителями крупного бизнеса. В то же время коммерческие банки, бизнес-модель которых нацелена на работу с малыми и средними компаниями, продемонстрировали уверенный уровень резистентности в сложившихся условиях [1, с. 202].

Важно подчеркнуть, что ожидается дальнейшая перестройка банковского сектора, итогами которой будут не только снижение концентрации клиентов топ-10 банков за счет их оттока в крупные расчетные и региональные банки, но и прекращение деятельности на рынке банковских услуг доли розничных монолайнеров – кредитных учреждений, специализирующихся на одном виде банковских услуг [2, с. 48]. Точкой роста для всего банковского рынка, несомненно, будет развитие реального сектора экономики, что будет вызвано усиливающейся тенденцией к росту импортозамещения, а также проведением мероприятий, направленных на противодействие санкциям и ухудшающейся макроэкономической обстановке [3, с.81].

В связи с этим, в современных реалиях банкам необходимо сконцентрироваться на увеличении и улучшении качества представляемой линейки банковских продуктов и услуг, как для юридических, так и для физических лиц.

В мировой практике, как правило, принято выделять следующие виды банковских инновационных процессов, информация представлена в виде схемы (рисунок 1)



Рисунок 1- Виды банковских инновационных процессов (международная практика)

Одним из наиболее важных факторов для формирования новых банковских продуктов становится финансовая глобализация. В текущих условиях глобальные процессы по обмену опытом, в частности, в финансовой сфере затруднены, в связи с осложнившейся ситуацией на мировой экономической арене. Тем не менее, необходимо отметить основные тенденции направления развития банковских продуктов, которые обусловлены прогрессом в области формата и качества предоставления банковских услуг.

Вывод: в настоящее время ключевым механизмом формирования высокого уровня экономической эффективности любого бизнес-проекта, включая старт-ап, становится навык быстрого и своевременного реагирования на изменение конъюнктуры рынка и его ресурсной основы. Банковская отрасль каждого государства с высоким уровнем экономического развития является центром для создания и применения инновационных продуктов, в первую очередь это связано с усиливающимся на нее влиянием сферы финансовых технологий (FinTech).

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Александрова Л.С. Банки и финтех-компании: взаимодействие и конкуренция / Л. С. Александрова, А. В. Бердышев, А. О. Бурякова [и др.]. – Москва: Монография / Общество с ограниченной ответственностью "Издательство "КноРус", 2021. – 304 с. – ISBN 978-5-4365-7113-3. – EDN YBWLRY.
2. Аюпова, В. К. Инновационный банковский продукт - программа лояльности «Движение» / В. К. Аюпова // Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации: Монография / Под общей редакцией Г.Ю. Гуляева. – Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2023. – С. 48-58. – EDN PDRVPX.
3. Базылжанова А.С. Цифровая трансформация развития системы open banking в финансовом секторе / А. С. Базылжанова, А. С. Оспанова, Б. А. Баймамыров, Д. Е. Сатенова // Фундаментальная и прикладная наука: состояние и тенденции развития: монография. – Петрозаводск: Международный центр научного партнерства «Новая Наука» (ИП Ивановская И.И.), 2023. – С. 81-91. – EDN ITPRPC.

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI VA AKTIVLARINI SIFATINI OSHIRISH

Yaqupboyev Quvondiq
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adres: yaqupboyevquvondiq@gmail.com
Telefon raqami:+998990134206
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511913

Annotatsiya: Tezisda tijorat banklari aktivlari va ularning samaradorligi, aktivlarning diversifikatsiya qilinishi hamda tijorat banklaridagi muammoli holatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, aktivlar, moliyaviy samaradorlik, bank operatsiyasi, bank kreditlari, pul oqimlari.

Kirish: Tijorat banklari iqtisodiyotning ajralmas asosiy qismi bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Davlatimizda aynan bu bank sektorlari bo'yicha ko'plab ishlohatlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligida "Tijorat banklarining aktivlari – kredit, mikrokredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, hisoblangan foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulki, bo'lib-bo'lib sotilgan mol-mulk, balansdan tashqari buyumlar (qaytarib bo'lmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) va boshqa barcha talablar, hisoblangan foizlardan tashqari". Aktivlar bilan bog'liq munosabatlarning mavjudligi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni keltirib chiqaradi[1]. Bank aktivlari samaradorligini oshirish nafaqat bank tizimini emas balki butun iqtisodiyotni takomillashtirish va rivojlantirish usulidir.

Asosiy qism: Tijorat banklarining rivojlanishi aynan iqtisodiyotning boshqa sohalarini rivojlanishiga ham olib keladi. Aynan tijorat banklari aholiga hizmat ko'rsatish moliyalashtirish kabi faoliyat bilan shug'ullanadi.

Prezident tomonidan qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" farmonining besh ustuvor yo'nalishidan biri – iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yo'nalish istiqbolli investitsiya loyihalarining barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlashga, shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni yanada kengaytirishga qaratilgan[2].

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida islohotlar chuqurlashib, tijorat banklarining aktivlari hajmi sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda tijorat banklari jami aktivlari 411,5 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 830 trillion so'mga yetgan va to'rt yil ichida ikki baravardan ko'p o'sdi. Shuningdek, aktivlar tarkibida kredit portfeli 63–65 foiz, investitsiyalar esa 7–8 foiz ulushni egallab tashkil qiladi[3].

1- jadval. AT «Hamkorbank»ning aktivlar turlari bo'yicha bank aktivlari dinamikasi (2021–2024 y. mlrd so'mda).[4]

№	Aktivlar nomi	2021	2022	2023	2024	2025 (III-chorak)
1	Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	812,54	1 052,11	1 358,73	1 754,92	1 983,68

[1] Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020- 2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. 4-bet

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli farmoni – "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida."**

[3] www.cbu.uz

[4] S Nilufar - World Scientific Research Journal, 2025 - journalss.org

2	Markaziy bankdagi mablag‘lar	643,27	802,14	1 094,53	1 267,54	1 445,05
3	Boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar, sof	978,36	1 228,87	2 741,88	3 197,86	4 558,05
4	Qimmatli qog‘ozlar va ularga qilingan investitsiyalar, sof	524,99	671,12	1 012,45	1 540,99	1 718,69
5	Qimmatbaho metallar, sof	31,23	43,19	17,54	0	0
6	Investitsiyalar, sof	119,35	147,23	165,11	178,93	214,75
7	REPO bo‘yicha sotib olingan qimmatli qog‘ozlar, sof	112,45	126,78	143,56	176,53	194,81
8	Kredit va lizing operatsiyalari, sof	8 965,54	10 987,88	14 321,55	18 951,24	20 400,38
9	Asosiy vositalar, sof	365,11	416,33	498,24	562,98	587,37
10	Boshqa aktivlar, sof	720,35	846,01	945,33	871,23	943,77
	Jami aktivlar	**13 273,21**	**16 021,69**	**19 823,86**	**22 497,34**	**32 138,56**

2021-yilda jami aktivlar 13,273.21 mlrd so‘mni tashkil qilgan, 2025-yilga kelib esa 43,158.66 mlrd so‘mga yetgan. Bu davr mobaynida bank aktivlari 3,25 barobarga o‘sgan hisoblanadi. Bu AT «Hamkorbank»ning moliyaviy salohiyati, va bozor ulushi va investitsion imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygayib borayotganini ko’rsatadi. Aktivlarning eng katta qismini kredit va lizing operatsiyalari egallagan.

Ularning hajmi 2021 yildagi 8,965.54 mlrd so‘mdan 2025 yilda 29,408.87 mlrd so‘mga yetib, jami aktivlarning 68–70% ini tashkil qilgan. Bundan ko’rinib turibdiki bankning asosiy daromad manbai kreditlash ekanini va kredit portfelining kengayishi hisobiga aktivlar o‘sayotganini ko‘rsatadi.



1 rasm – Hamkorbank aktivlarini yillik o‘sish dinamikasi [5].

[5] S Nilufar - World Scientific Research Journal, 2025 - journalss.org

AT «Hamkorbank»ning 2021–2025 yillar davomida umumiy aktivlari hajmi o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Diagrammalarda ham aktivlar tarkibi bo‘yicha mutlaq ko‘rsatkichlar, ham yillik o‘sish sur’atlari foizlarda aks ettirilgan. Umumiy aktivlar hajmi yilma yil oshib borgan va 2021 yildan 2025 yilgacha sezilarli darajada kengaygan. Bu tendensiya bankning iqtisodiy salohiyati, moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni samarali joylashtirish qobiliyatining ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Yillik o‘sish sur’atlari tahlili. Diagrammada ko‘rsatilganidek, ayrim yillarda o‘sish sur’ati yuqoriroq bo‘lsa, keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilgan. Aynan bu haqda ko’plab malumotlar Samadova Nilufar O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti maqolasida kenggaytirilgan malumotlar berilgan.

Tijorat banklarining aktivlari samaradorligini yaxshilash bo’yicha ko’plab chet el iqtisodchilari ham quydagicha fikirlar bildirib o’tganlar hisoblanadi.

Iqtisodchi V. Usoskin tijorat banklarining aktivlar sifatini yaxshilash masalasini qiydagicha etirof etadi. V. Usoskin kredit portfeli sifatini oshirish mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashva o’rganish tizimini takomillashtirishni va kredit portfelini shakllantirishda diversifikatsiya tamoyiliga qat’iy rioya etishni taklif etgan hisoblanadi.

Mening fikrimcha aynan kredit sohasida islohatning olib borilishi bankdagi kreditlarning undirilishi va tarqatishishi aynan bu jarayon kredit tamoillariga javob berishi aktivlarning oshishiga samarali tasir ko’rsatadi.

Professor O. I. Lavrushin fikriga ko’ra tijorat banklarining likvid aktivlari depozitlarning beqaror qismi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkonini berishi kerak deb aytgan hisoblanadi. bank depozitlarining uchta asosiy shakli — joriy depozitlar, jamg‘arma depozitlari va muddatli depozitlar — ma’lum barqaror ulushga ega bo‘lib, ular jami depozitlarning kamida 75 foizini tashkil etishi lozim. Aksincha, likvid aktivlar jami depozitlarning 25 foizi miqdoridagi majburiyatlarni bajarish uchun yetarli miqdorda bo‘lishi zarur degan fikirlarni bildirgan.

Tijorat banklari daromadining oshishi bu butun iqtisodiyotning rivojlanishi bilan barobar hisoblanadi.Banklarning qulashi iqtisodiyot qulashi bilan hisoblanadi bunga misollar inqirozlar davridan keltirsak bo’ladi.

1970-yillardan beri moliyaviy inqirozlar soni keskin oshgan. Moliyaviy inqirozlar ko‘pincha bank inqiroziga olib kelgan, bu esa ishlab chiqarish omillariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, iqtisodiy o‘sish sekinlashadi. Bank inqirozidan keyin kredit berish kamayadi. Bu esa investitsiyalarni, ishlab chiqarishni va kapital jamg‘arilishini pasaytiradi. Ba’zi banklarning mijozlari kreditlarni qaytara olmagach, boshqa banklar ham kredit berishdan qo‘rqadi. Bu bank tizimining global darajada zaiflashayotganini ko‘rsatadi[6].

Xulosa: Tijorat banklari iqtisodiyotning bir qismi hisoblanadi.Aynan bu tizimni rivojlantirish davlat uchun muhim hisoblanadi. Bank aktivlarining samaradorligini oshirish uchun, avvalo, risklarni boshqarish tizimini raqamlashtirish, aktivlarni ishlab chiqarish va eksport yo‘nalishlariga diversifikatsiya qilish, kapital yetarliligini mustahkamlash hamda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish zarur deb hisoblayman. Shuningdek, moliyaviy innovatsiyalarni keng joriy etish va monetizatsiya darajasini oshirish banklarning barqarorligini mustahkamlab, real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratadi va kengaytiradi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida tijorat banklari aktivlari samaradorligi ortishi va aktivlarning aylanishi tezlashib moliyaviy barqarorligi taminlanadi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmon (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. 4-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida.”

[6] A. Rakhimov ” Economic crisis and banking crisis”

3. A.R.Qodirov. Tijorat banklarida raqamli texnologiyalar asosida aktivlarni boshqarish. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2023
4. Lavrushin O, Mwengei. Assessing the Factors Contributing to Non – Performance Loans in Kenyan Banks, European Journal of Business and Management 2014.
5. Qoraliyev T.M., Norqobilov S. (2009) “Bank resurslari va ularni boshqarish”
6. S Nilufar - World Scientific Research Journal, 2025 - journalss.org
7. www.cbu.uz

BANKLARNING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING AHAMIYATI

Bozorov Ruslan Xamdamovich
DTPI professori v.b. i.f.d. (DSc), dotsent
Abraxmatov Ulug'bek Pardayevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchsi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17511991

Annotatsiya: Mazkur tezisda banklarning investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsiya muhiti tushunchasi, uning iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarkibiy omillari yoritilgan hamda ushbu omillarning banklarning investitsion qarorlariga ko‘rsatadigan ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, barqaror va jozibador investitsiya muhiti banklarning real sektor loyihalariga faol sarmoya kiritishini rag‘batlantirishi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tezisda milliy moliya tizimida investitsiya muhitini takomillashtirish orqali banklarning investitsion salohiyatini kengaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *bank, investitsiya, investitsiya muhiti, moliya bozori, iqtisodiy barqarorlik, investitsiya siyosati.*

Abstract: This thesis analyzes the role and importance of the investment environment in the development of banks’ investment activities. The concept of the investment environment, its economic, legal, and political components are examined, and their influence on banks’ investment decisions is discussed. The study substantiates that a stable and attractive investment environment stimulates banks to actively invest in real sector projects, contributing to the competitiveness and sustainable growth of the national economy. The thesis also provides proposals and recommendations for improving the investment environment to expand the investment potential of banks within the financial system.

Keywords; *bank, investment, investment environment, financial market, economic stability, investment policy.*

Аннотация: В данной тезисной работе рассмотрена роль и значение инвестиционной среды в развитии инвестиционной деятельности банков. Проанализированы понятие инвестиционной среды, её экономические, правовые и политические составляющие, а также их влияние на инвестиционные решения банков. Обосновано, что стабильная и привлекательная инвестиционная среда стимулирует банки активно инвестировать в проекты реального сектора, что способствует повышению конкурентоспособности и устойчивому росту национальной экономики. В работе предложены рекомендации по совершенствованию инвестиционной среды для расширения инвестиционного потенциала банков в финансовой системе.

Ключевые слова: *банк, инвестиции, инвестиционная среда, финансовый рынок, экономическая стабильность, инвестиционная политика.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi mamlakat moliyaviy tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy barqarorlik va o‘sish jarayonlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bu – investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali yo‘naltirishdir. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Banklarning investitsion faoliyati real sektorni moliyalashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biroq bu faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mamlakatdagi investitsiya muhitining holatiga bog‘liq. Qulay investitsiya muhiti mavjud bo‘lgan davlatlarda banklar o‘z resurslarini yanada faolroq investitsiya yo‘nalishlariga yo‘naltiradi, bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

[1] Dodiyev F. (2025). Tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(2). DOI: 10.5281/zenodo.14934676

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va bank tizimi faoliyatini erkinlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlari va qarorlari asosida investitsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini jalb etish, banklarning kapital bazasini mustahkamlash hamda ularning real sektor bilan aloqalarini kengaytirish choralari ko‘rilmoqda [2].

Adabiyotlar sharhi

Banklarning investitsiya faoliyati va uni rivojlantirishda investitsiya muhitining ahamiyatiga oid masalalar ko‘plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ularning ilmiy izlanishlari ushbu sohadagi nazariy asoslarni shakllantirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston olimlari orasida A.Vaxobov**,** Sh.Abdullaeva**,** M.Xodiev, B.Qodirov**,** U.G‘ofurov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida bank tizimining investitsion faoliyatini rivojlantirish, kapitalni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda investitsiya muhiti barqarorligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Masalan, A.Vaxobov o‘zining “Bank ishi” nomli asarida banklarning iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning investitsion va kredit faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, moliyaviy barqarorlikning asosiy sharti sifatida investitsion resurslardan oqilona foydalanish zarurligini ta’kidlaydi.

M.Xodiev va Sh.Abdullaevalarning iqtisodiy xavfsizlik va moliyaviy tizimni isloh qilishga oid ilmiy ishlarida, investitsion muhitni yaxshilash davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan. Ularning fikricha, banklarning investitsion faoliyatini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari, foiz siyosati va qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so‘nggi yillardagi iqtisodiy islohotlarga doir farmon va qarorlarida ham investitsion muhitni yaxshilash, banklarning moliyaviy resurslarini real sektor loyihalariga yo‘naltirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da bank tizimini modernizatsiya qilish va xususiy investitsiyalar ulushini oshirish iqtisodiy o‘sishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan [3].

O‘zbekiston banklarining investitsiya faoliyati va investitsiya muhitidagi o‘sishlar (2025-yil, 1-chorak) [4].

Ko‘rsatkichlar	2025-yil 1-chorakdagi holat	Izohlar
Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi	6,4%	2024-yilning shu davriga nisbatan biroz pastroq o‘sish sur’ati.
Aholi soni	37,7 million kishi	2024-yilning shu davriga nisbatan 734,5 ming kishiga o‘sish.
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	15,2%	2025-yilning 9 oyi yakunida o‘sish sur’ati.
Investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha qonunchilik o‘zgarishlari	2025-yil 1-iyundan kuchga kirdi	Xorijiy investorlar uchun "oltin viza" tizimi joriy etildi.
Banklarning kapitali o‘sishi	2 barobar oshdi	O‘zbekiston banklari kapitalini ikki barobar oshirishga erishildi.
Kredit portfeli o‘sishi	2,3 barobar oshdi	Banklarning kredit portfeli ikki barobar oshdi.

[2] Karimova X. R. va Otabekova D. M. (2024). O‘zbekistonning investitsion muhit va uning salohiyati. Tadqiqotlar.uz. DOI: 10.5281/zenodo.12745812

[3] “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”

[4] https://invexi.org/uz/press/investment-climate-of-uzbekistan-steady-growth-in-the-first-quarter-of-2025/

Fintech sohasidagi o‘sish	Jadal rivojlanmoqda	Moliyaviy texnologiyalar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniyalar soni ko‘paymoqda.

Xulosa.

Investitsiya muhitining ahamiyati: O‘zbekiston banklarining investitsiya faoliyati investitsiya muhitining barqarorligi va sifatiga bevosita bog‘liq. Qonunchilik va iqtisodiy barqarorlik yaxshilansa, banklar faol investitsiyalarni amalga oshiradi. Bank kapitali va kredit portfeli: So‘nggi yillarda banklarning kapitali ikki barobar oshishi va kredit portfelining kengayishi banklar investitsiya imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar: Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 6,4% o‘sishi va asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,2% ga o‘sishi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqarorligini ko‘rsatadi, bu esa banklar uchun investitsiya muhitini qulay qiladi. Innovatsiyalar va fintech: Moliyaviy texnologiyalar sohasida jadal rivojlanish banklarning investitsiya faoliyatini zamonaviylashtirish va diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 26 yanvar kuni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.
2. Dodiyev F. (2025). Tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(2). DOI: 10.5281/zenodo.14934676
3. Karimova X. R. va Otabekova D. M. (2024). O‘zbekistonning investitsion muhit va uning salohiyati. Tadqiqotlar.uz. DOI: 10.5281/zenodo.12745812
4. Raximova U. va Elmurodova D. (2024). O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish uchun barqaror investitsiya muhitini ta’minlash masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(1). DOI: 10.5281/zenodo.12745812
5. Muxamadjanov Sh. (2024). Investitsion muhit va uning hududlarni iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyati. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(4). DOI: 10.5281/zenodo.14211570
6. Axmedov Sh. (2025). O‘zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta’minlash masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. DOI: 10.5281/zenodo.15653709
7. Lee H.-S., Chernikov S. U., va Nagy S. (2022). Motivations and locational factors of FDI in CIS countries: Empirical evidence from South Korean FDI in Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan. arXiv. DOI: 10.5281/zenodo.14934676.
8. https://invexi.org/uz/press/investment-climate-of-uzbekistan-steady-growth-in-the-first-quarter-of-2025/

BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO‘LLARI

Abraxmatov Ulug'bek Pardayevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512010

Annotatsiya: Mazkur maqolada banklarning investitsiya faoliyatida uchraydigan asosiy risklar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularni kamaytirish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda banklar investitsion siyosatida mavjud risk turlari (kredit riski, likvidlik riski, bozor riski, operatsion risk va boshqalar) o‘rganilgan. Shuningdek, xalqaro bank amaliyotlari asosida risklarni boshqarish mexanizmlari, sug‘urta, diversifikatsiya va kapital yetarliligi talablari tahlil qilinadi. Natijada, bank tizimida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish, investitsion barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya risklari, bank tizimi, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, diversifikatsiya, kapital yetarliligi.

Abstract: This article analyzes the main risks encountered in the investment activities of banks, their causes and ways to reduce them. The study examines the types of risks (credit risk, liquidity risk, market risk, operational risk, etc.) in the investment policy of banks. Also, risk management mechanisms, insurance, diversification and capital adequacy requirements based on international banking practices are analyzed. As a result, proposals and recommendations have been developed to improve the efficiency of risk management in the banking system and ensure investment stability.

Keywords: Investment risks, banking system, financial stability, risk management, diversification, capital adequacy.

Аннотация: В статье анализируются основные риски, возникающие в инвестиционной деятельности банков, причины их возникновения и пути их снижения. В исследовании рассматриваются виды рисков (кредитный риск, риск ликвидности, рыночный риск, операционный риск и др.) в инвестиционной политике банков. Также анализируются механизмы управления рисками, их страхование, диверсификация и требования к достаточности капитала, основанные на международной банковской практике. В результате разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности управления рисками в банковской системе и обеспечению инвестиционной устойчивости.

Ключевые слова: Инвестиционные риски, банковская система, финансовая устойчивость, управление рисками, диверсификация, достаточность капитала.

Kirish Bugungi kunda bank tizimi mamlakat iqtisodiyotida eng muhim moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Banklarning investitsion faoliyati iqtisodiyotning real sektoriga kapital oqimini ta’minlaydi, lekin bu jarayon muayyan risklar bilan bog‘liq. Investitsiya risklari – bu banklar tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalarning natijasi kutilgan foydadan farq qilishi xavfidir. Shuning uchun, risklarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish banklar barqarorligi uchun zarur shart hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Adabiyotlar tahlilida banklarning investitsiya faoliyati va risk boshqaruvi masalalari bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan. A. Vaxabov, N. Muminov, D. Tojiboyeva kabi olimlar bank investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligi va xavf omillarini o‘rganganlar. Xalqaro miqyosda esa Basel qo‘mitalari tomonidan ishlab chiqilgan kapital yetarliligi me’yorlari, risklarni diversifikatsiyalash va stress-test amaliyotlari keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni hamda Markaziy bank me’yoriy hujjatlarida risklarni kamaytirishning huquqiy asoslari belgilangan. Investitsiya riski – bu investor tomonidan kiritilgan mablag‘larning qisman yoki to‘liq yo‘qotilish ehtimoli yoki investitsiya kutilgan daromadni bermasligi bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlikdir. Investitsiya risklarini umumiy tasniflash va ularni boshqarish bo‘yicha zamonaviy iqtisodiy nazariyalar keng o‘rganilgan. Masalan: Markovitsning Portfel Nazariyasi (Markowitz, 1952) investitsiyalarni diversifikatsiya

qilish orqali risklarni minimallashtirish imkonini beradi [1]. Ushbu nazariya risk va daromad o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Sharpe (1964) va Linter (1965) tomonidan ishlab chiqilgan CAPM modeli (Capital Asset Pricing Model) investitsiya risklarining bozordagi xavf-xatarlar bilan qanday bog‘liqligini tahlil qiladi [2]. Ushbu model bugungi kunda investitsiya faoliyatida xavf va daromadni hisoblashda keng qo‘llaniladi. Investitsiya faoliyatida moliyaviy va bozor risklari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni Reilly va Brown (2009) tomonidan yozilgan “Investment Analysis and Portfolio Management” asarida moliyaviy vositalar va bozor o‘zgarishlariga qarshi boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim manbadir deb hisoblagan [3]. Fabozzi (2012) tomonidan tayyorlangan “Fixed Income Analysis” kitobida Valyuta kursining o‘zgarishi, inflyatsiya va likvidlik xavfi kabi moliyaviy risklar haqida yozilgan [4]. Siyosiy va huquqiy muhit investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Kobrin (1979) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, siyosiy barqarorlik va investitsiya muhitining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi [5]. Siyosiy risklarni bashorat qilish va bartaraf etish usullari ushbu tadqiqotlarda keng yoritilgan. Huquqiy risklarni tahlil qilishda Ernst & Young tomonidan har yili chop etiladigan “Investment Climate Reports” huquqiy sharoitlar va qonunchilikka doir tahliliy ma’lumotlarni taqdim etadi. Investitsiya risklari bo‘yicha mavjud adabiyotlar ushbu mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya risklarini boshqarishning samarali usullari diversifikatsiya, xedj qilish, sug‘urtalash va siyosiy barqarorlikni ta’minlash kabi yondashuvlar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, mamlakatning o‘ziga xos sharoitlari, xususan, O‘zbekiston misolida, risklarni bartaraf etish uchun huquqiy va iqtisodiy islohotlarning ahamiyati alohida qayd etilgan. Ushbu adabiyotlar risklarni tahlil qilish va pasaytirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida investitsiya faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Banklar tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltirilayotgan kredit va investitsiyalar hajmi ortmoqda. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda risklar ham kuchaymoqda. Eng ko‘p uchraydigan risk turlari quyidagilardir:

- Kredit riski – mijozning qarzni o‘z vaqtida qaytara olmaslik ehtimoli.
- Bozor riski – foiz stavkalari, valyuta kurslari yoki aksiyalar qiymatining o‘zgarishi.
- Likvidlik riski – bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyati cheklanishi.
- Operatsion risk – inson omili, texnik xatolar yoki firibgarlik bilan bog‘liq yo‘qotishlar.

Risklarni kamaytirishning samarali mexanizmlari sifatida quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Risklarni diversifikatsiya qilish – investitsiyalarni turli sohalarga taqsimlash orqali yo‘qotishlarni kamaytirish.
2. Stress-testlar va monitoring tizimini joriy etish – bozor o‘zgarishlariga tayyorlikni oshirish.
3. Ichki nazorat va audit tizimini kuchaytirish – operatsion xatoliklarning oldini olish.
4. Sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish – kutilmagan yo‘qotishlarni qoplash.
5. Basel III talablariga muvofiq kapital yetarliligini ta’minlash. Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya risklari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular texnologik o‘zgarishlar, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va kiberxavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog‘liq [6]. Quyida ushbu sharoitdagi asosiy investitsiya risklarini tahlil qilamiz:

1. Texnologik risklar. Tezkor texnologik o‘zgarishlar: raqamli texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalar juda tez rivojlanadi, bu esa investitsiyalarning eskirishi xavfini oshiradi. Masalan, bir texnologiya bozorda dominant mavqega ega bo‘lishi kutilgan bo‘lsa, qisqa vaqt ichida yangi, yanada samarali texnologiya uning

1https://www.google.com/searchq=Markovitsning+Portfel+Nazariyasi+(Markowitz%2C+1952)+investitsiyalarni+diversifikatsiya+qilish+orqali+risklarni+minimallashtirish+imkonini+beradi.

2 https://www.google.com/search?q=Sharpe+%281964%29+va+Linter+%281965%29+tomonidan+ishlab+chiqilgan

3 https://www.google.com/searchq CInvestment Analysis and Portfolio ManagementE2%80%9D asarida moliyaviy vositalar va bozor o%E2%80%98zgarishlariga qarshi boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim manbadir deb hisoblagan.

4 https://www.google.com/search?q=Fabozzi+%282012%29 tomonidan tayyorlangan

5 https://www.google.com/search?q=Kobrin.

6 Karimov I., Tojiboyeva D. Bank risklarini boshqarish amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

o‘rnini egallashi mumkin; Kompyuterlashtirilgan tizimlarga qaramlik: texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanish ularning ishlamay qolishi yoki nosozliklari natijasida katta moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

2. Bozor risklari. Raqobatning kuchayishi: raqamli iqtisodiyot global xususiyatga ega bo‘lgani uchun, bozorda raqobat darajasi juda yuqori. Bu, ayniqsa, kichik va o‘rta korxonalar uchun katta qiyinchilik tug‘diradi. Talabning o‘zgaruvchanligi: bozorda mijozlarning talab va istaklari doimiy ravishda o‘zgarib turadi, bu esa raqamli mahsulot va xizmatlarning muvaffaqiyatsiz bo‘lish xavfini oshiradi.

3. Kiberxavfsizlik risklari. Xakerlik hujumlari va ma’lumotlar oqib ketishi: ma’lumotlar raqamli iqtisodiyotning eng muhim aktivlaridan biri bo‘lib, ularning xavfsizligi katta ahamiyatga ega. Xakerlik hujumlari yoki ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi kompaniyaga moliyaviy va reputatsion zarar keltirishi mumkin. Regulyativ talablarning buzilishi: ma’lumotlarni saqlash va foydalanish borasida xalqaro va milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilmaslik jarimalar va qonuniy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Huquqiy va regulyativ risklar. Qonunchilikdagi noaniqliklar: raqamli iqtisodiyot hali nisbatan yangi soha bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda uning huquqiy bazasi to‘liq shakllanmagan. Bu esa investitsiya loyihalariga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklarning investitsiya risklari ularning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Risklarni samarali boshqarish orqali nafaqat yo‘qotishlar kamayadi, balki banklarning ishonchliligi va investitsion faolligi ham ortadi. Shu bois, bank tizimida zamonaviy risk-menejment tizimlarini keng joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya risklari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ularning asosiy qismi texnologik, kiberxavfsizlik, bozor va huquqiy masalalarga bog‘liq. Tezkor texnologik o‘zgarishlar, yuqori raqobat, va ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha kuchaytirilgan talablar investorlar uchun yangi xavflar keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, global iqtisodiy o‘zgarishlar va kadrlar yetishmovchiligi bu risklarni yanada kuchaytiradi. Ushbu xavflarni samarali boshqarish uchun diversifikatsiya, kiberxavfsizlik choralari va regulyativ talablarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ekologik va ijtimoiy masalalar ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda mazkur risklarni kompleks tahlil qilib, strategik rejalashtirish investitsiyalarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini isloh qilish va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2023-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – Rasmiy hisobotlar, 2024-yil.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III Framework. – BIS, 2024.
5. Vaxabov A., Muminov N. Bank ishi va moliya nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
6. Karimov I., Tojiboyeva D. Bank risklarini boshqarish amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
7. https://www.google.com/search.
8. https://www.google.com/search.
9. https://www.google.com/search.
10. https://www.google.com/search.
11. https://www.google.com/search Kobrin

SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALAR JALB ETISHNING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Asadov Baxshullo Xasanboy o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
+998 99 424 73 99
bakhshulloasadoff@mail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512523

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida turizm sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmi, amalga oshirilayotgan yirik loyihalar va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning roli yoritiladi hamda mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: turizm, investitsiya, Surxondaryo viloyati, oilaviy tadbirkorlik, agroturizm, ekologik turizm, infratuzilma, bandlik, xorijiy sarmoya, barqaror rivojlanish.

THE CURRENT STATE AND PROSPECTS OF ATTRACTING INVESTMENTS IN THE TOURISM SECTOR OF SURKHANDARYA REGION

Asadov Bakhshullo Xasanboy o‘g‘li
Lecturer at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
+998 99 424 73 99
bakhshulloasadoff@mail.com

Annotation: This article analyzes the volume of investments directed to the tourism sector in the Surkhandarya region, major projects being implemented, and their economic and social outcomes. It also highlights the role of investments in the development of family entrepreneurship and provides recommendations regarding existing challenges and promising directions for future growth.

Keywords: tourism, investment, Surkhandarya region, family entrepreneurship, agrotourism, ecological tourism, infrastructure, employment, foreign capital, sustainable development.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida, xususan, Surxondaryo viloyatida turizm sohasiga investitsiyalar oqimi sezilarli darajada ortmoqda. Prezident qarorlariga muvofiq, viloyatning tabiiy, tarixiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida qator yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mintaqalarda turizmni hududiy xususiyatlardan kelib chiqib rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jumladan, Surxondaryo viloyati o‘zining noyob tabiati, tog‘li-rekreatsion hududlari, qadimiy yodgorliklari va milliy an’analarga boy madaniy muhit bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1]gi qarori mazkur yo‘nalishda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu hujjat viloyatning tabiiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi turistik klasterlar tashkil etish, tog‘li hududlarda dam olish va ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Mazkur qaror doirasida Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, oilaviy va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali mintaqaning iqtisodiy faolligini oshirish rejalashtirilgan. Ayniqsa, Sariosiyo, Sherobod, Boysun va Sangardak tumanlarida zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari, yo‘l va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish ishlari izchil yo‘lga qo‘yilgan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2]gi qarori, 2022-yil 6-maydagi “Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”[3]gi farmoni hamda 2024-yil 16-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4]gi qarori ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy faoliyat uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar va rasmiy hujjatlar tahlili Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar bilan bir qatorda oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish masalasi dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2024-yil 16-dekabrda qabul qilingan PQ-439-sonli “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror viloyatda turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu qaror doirasida Surxondaryoning tabiiy, tarixiy va madaniy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tog‘li hududlarda zamonaviy turistik maskanlar tashkil etish hamda oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Qarorga muvofiq, Sariosiyo tumanining Sangardak qishlog‘ida umumiy qiymati 913,3 milliard so‘m bo‘lgan yirik turistik markaz barpo etilmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, loyiha maydoni 615 gektarni tashkil etib, bu hududda dam olish zonalari, sayyohlik yo‘laklari, oilaviy mehmon uylari, milliy hunarmandchilik va ekologik turizm ob’yektlari qurilishi belgilangan. Ushbu loyiha viloyatda amalga oshirilayotgan eng yirik mahalliy investitsion tashabbuslardan biri bo‘lib, u nafaqat ichki, balki xorijiy turistlarni ham jalb etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil boshiga kelib Surxondaryo viloyatida 348 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona faoliyat yuritmoqda. Bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 17 foizga oshgan bo‘lib, xorijiy kapital ishtirokidagi tadbirkorlik subyektlarining turizm, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida faollashayotganini ko‘rsatadi[5].

Amalga oshirilayotgan loyihalar natijasida Surxondaryo viloyatida minglab yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini oshirish hamda oilaviy tadbirkorlikni turizm tarmog‘iga integratsiya qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Xususan, Sangardak loyihasi doirasida mahalliy aholiga milliy mahsulotlar ishlab chiqarish, mehmonxona va dam olish xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha imtiyozli sharoitlar yaratilmoqda.

Natijada, ushbu chora-tadbirlar nafaqat viloyatning iqtisodiy faolligini oshiradi, balki Surxondaryo turizmini ekologik, oilaviy va madaniy yo‘nalishlarda diversifikatsiya qilish, yangi sarmoyalarni jalb etish va mahalliy aholi daromadlarini barqaror oshirish uchun asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha 2024-yilda qabul qilingan hukumat qarorlari hududda turizm infratuzilmasini sezilarli darajada yaxshiladi. Natijada, sohada 1200 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi, 400 mlrd so‘mlik mahalliy va 25 mln AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi. Bu jarayon oilaviy tadbirkorlik, mehmon uylari va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining tez sur’atlarda rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-maydagi “Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

[5] Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti. “Viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari”. — www.surxondaryo.uz, 2024.

- birinchidan, tog‘li hududlarda ekoturizm, agro- va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun maxsus hududiy davlat dasturi ishlab chiqish zarur. Bu dastur mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashni ta’minlaydi.

- ikkinchidan, mahalliy aholini turizm sohasida faoliyat yuritishga tayyorlash maqsadida kasb-hunar markazlarida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish kerak. Bu orqali xizmat sifati oshadi va bandlik darajasi yanada kengayadi.

- uchinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar tizimini kengaytirish lozim. Ayniqsa, tog‘li hududlarda amalga oshiriladigan ekoturizm loyihalari uchun alohida preferensiyalar berilishi maqsadga muvofiqdir.

- to‘rtinchidan, Boysun va Sariosiyo tumanlarida mavjud turistik obyektlarni raqamlashtirish, ya’ni QR kodli axborot tizimlari va mobil ilovalar orqali sayyohlar uchun qulay navigatsiya tizimini joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori — “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PQ–226-son, 2024-yil 5-iyun.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-maydagi “Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining 2024-yil birinchi yarmi bo‘yicha statistik hisobot”. Toshkent: Turizm qo‘mitasi nashriyoti, 2024.
5. UNWTO (World Tourism Organization). “Tourism Investment Trends and Economic Impact 2023”. Madrid: UNWTO Publications, 2023.
6. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti. “Viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari.” — www.surxondaryo.uz, 2024.

EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA BANKLARNING ROLINI KUCHAYTIRISH YO`NALISHI VA TAKLIFLAR

Esanov Javohir Iskandar o`g`li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Bank ishi va audit
yo`nalishi 4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512721

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida eksport salohiyatini oshirishda tijorat banklarining tutgan o‘rni va ularning faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Banklarning eksportni moliyalashtirishdagi roli, eksport kreditlari va kafolat mexanizmlarining ahamiyati, shuningdek, eksportni rag‘batlantiruvchi moliyaviy xizmatlar tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Ishda eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlashda banklarning imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotining tashqi savdo salohiyatini oshirish va milliy bank tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Eksport, bank tizimi, eksport krediti, moliyalashtirish, eksport kafolati, tashqi savdo, eksportyor korxona, xalqaro moliya institutlari, raqobatbardoshlik, moliyaviy instrumentlar.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda bank tizimining iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishdagi roli davlat va hududlar iqtisodiy barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, banklarning moliyaviy resurslarni samarali boshqarishi va real sektorni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu maqolada banklarning iqtisodiyotni real sektorini rivojlantirishdagi roli, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha samarali choratadbirlar tahlil qilinadi. Banklar tomonidan real sektorni moliyalashtirish iqtisodiy o‘sishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu resurslarni maqsadli taqsimlash, uzoq muddatli kreditlash dasturlarini amalga oshirish va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali ta’minlanadi. Banklar faoliyatining samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga erishish mumkin [1]

Banklar real sektorni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki ular ishlab chiqaruvchi korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlab, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ular tomonidan taqdim etilayotgan uzoq muddatli kreditlar, lizing xizmatlari va garov ta’minoti asosida ajratiladigan mablag‘lar real sektorning texnologik yangilanishiga, ishlab chiqarish hajmini oshirishga va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, banklarning moliyaviy xizmatlarini kengaytirish va innovatsion moliyalashtirish vositalarini tatbiq etish real sektor korxonalariga xalqaro bozorlarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, sug‘urta va akkreditiv xizmatlarini taklif etish orqali banklar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshiradi va tashqi savdoni rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha bir qator huquqiy, institutsional va moliyaviy islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonda bank tizimi eksportni moliyalashtirish, kafolatlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish orqali muhim rol o‘ynamoqda.

Tijorat banklari eksportyor korxonalar uchun quyidagi asosiy xizmatlarni ko‘rsatadi:

1. **Eksport kreditlari** — eksport qiluvchi korxonalarni aylanma mablag‘ bilan ta’minlash va ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida ajratiladi.
2. **Eksport kafolatlari** — eksport shartnomalarini bajarilishini ta’minlash uchun banklar tomonidan beriladigan moliyaviy kafolat turlaridir.
3. **Faktoring va forfeyting xizmatlari** — eksport operatsiyalaridan tushadigan to‘lovlarni tezlashtirishga va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

[1] Ahmedov A.A., Jo‘rayev B.M. *“Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”*, Toshkent, 2022

4. **Valyuta operatsiyalari** — xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, xorijiy valyutani sotib olish yoki sotish, shuningdek, valyuta risklarini boshqarish imkonini beradi.

Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda **“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki”**, **Asaka bank**, **Ipoteka-bank**, **Agrobank**, **Xalq banki** kabi yirik tijorat banklari faol ishtirok etmoqda. Ular eksportni rivojlantirish maqsadida xorijiy moliya institutlari, masalan, **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki**, **Osiyo taraqqiyot banki**, **Islom taraqqiyot banki** bilan hamkorlikda turli kredit liniyalarini joriy etgan.[2]

Banklar faoliyatini yanada takomillashtirish yo‘nalishlari

Eksport salohiyatini oshirishda banklar rolini kuchaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- **Eksportni moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish**, ya’ni eksportga mo‘ljallangan maxsus kredit liniyalarini kengaytirish.
- **Eksport sug‘urtasi va kafolat tizimini takomillashtirish**, banklar tomonidan eksport bitimlarining xavf darajasini kamaytiruvchi mexanizmlarni joriy etish.
- **Raqamli bank xizmatlarini joriy etish** — eksport operatsiyalarini onlayn boshqarish, tezkor to‘lov tizimlarini kengaytirish.
- **Eksportyor korxonalar uchun imtiyozli kreditlar** va **soliq yengilliklari** mexanizmini kuchaytirish.
- **Kichik biznes va fermer xo‘jaliklarini eksportga jalb qilish** maqsadida ularni o‘qitish, maslahat va moliyaviy ko‘mak dasturlarini kengaytirish.

Eksport faoliyatida banklarning o‘rni

Eksport jarayonini moliyalashtirishda tijorat banklari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

- **Eksport kreditlari** — eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot ishlab chiqarish, xomashyo xarid qilish yoki tashqi savdo shartnomalarini bajarish uchun zarur mablag‘larni ajratadi.
- **Eksport kafolatlari va sug‘urtasi** — xorijiy hamkor tomonidan to‘lov kechikishi yoki kontrakt bajarilmasligi holatida eksportyorning manfaatlarini himoya qiladi.
- **Faktoring va forfeyting operatsiyalari** — eksportdan tushadigan to‘lovlarni tezlashtirish, eksportyorning likvidligini saqlash va moliyaviy risklarni kamaytirish imkonini beradi.
- **Valyuta va xalqaro hisob-kitob xizmatlari** — eksport-import operatsiyalarida tezkor va xavfsiz to‘lov tizimini ta’minlaydi.

Bank tizimi orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish yo‘nalishlari[3]

1-jadval

[2] G‘ulomov S.S., G‘aniev B.X. *“Bank ishi va moliya”*, TDIU, 2021

[3] “Bank tizimi orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish yo‘nalishlari va natijalari” **“Scientific Journal — LUCH”, Часть-37, Том-3, Январь 2025**

Yo‘nalish	Tavsif	Misollar	Kutilayotgan natijalar
Loyihalarni moliyalashtirish	Real sektor korxonalari uchun arzon kreditlar ajratish orqali ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash.	Modernizatsiya kreditlari, agrosanoat sektori uchun moliyalashtirish dasturlari.	Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, bandlik darajasini ko‘tarish.
Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash (KOB)	KOB uchun maxsus kreditlash dasturlarini yaratish, startaplarni rag‘batlantirish.	Mikrokreditlar, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari.	Tadbirkorlik faolligini oshirish, KOB sonini ko‘paytirish.
Infratuzilmani rivojlantirish	Infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritish va logistika tizimini yaxshilash.	Yo‘llar, logistika markazlari, energiya ob’yektlarini qurishni moliyalashtirish.	Transport qulayligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish.
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	Xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish va investitsion banklar tashkil etish.	Qo‘shma loyihalar, xalqaro banklar filiallarini ochish.	Xorijiy kapital oqimini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.
Innovatsion moliyaviy xizmatlar	Raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan moliyaviy tizimlarni joriy etish.	Onlayn kreditlar, blokcheyn texnologiyalari asosida aktivlarni boshqarish.	Moliyaviy xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirish, tranzaksiya tezligini ko‘paytirish.
Eksportni qo‘llab-quvvatlash	Eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish va sug‘urtalash tizimini takomillashtirish.	Eksport kreditlari, eksport shartnomalarini sug‘urtalash.	Eksport salohiyatini oshirish, tashqi savdo balansini yaxshilash.
Moliyaviy savodxonlikni oshirish	Real sektor korxonalari uchun moliyaviy ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish.	Tadbirkorlar uchun seminarlar, moliya boshqaruvi bo‘yicha onlayn kurslar.	Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Ushbu jadvalda O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektorini rivojlantirishda tijorat banklarining moliyalashtirish faoliyati asosiy yo‘nalishlar kesimida yoritilgan. Jadval har bir yo‘nalishning **mazmuni (tavsifi)**, **amalga oshirilayotgan misollar**, hamda **kutilayotgan iqtisodiy natijalarni** o‘z ichiga oladi.

Jadvalda jami **7 ta asosiy yo‘nalish** ko‘rsatib o‘tilgan:

1. **Loyihalarni moliyalashtirish** – bu yo‘nalish real sektor korxonalariga arzon kreditlar ajratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda agrosanoat tarmog‘ini rivojlantirishni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Natijada ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi va bandlik darajasi oshadi.
2. **Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash (KOB)** – tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar va oilaviy biznes dasturlari orqali moliyaviy yordam berish. Bu yo‘nalish KOB sonini ko‘paytiradi va iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.
3. **Infratuzilmani rivojlantirish** – transport, energetika va logistika sohalariga sarmoya kiritish orqali iqtisodiyotning tayanch infratuzilmasini mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Bu natijada logistika xarajatlarini kamaytiradi va transport qulayligini oshiradi.
4. **Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish** – xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma loyihalarda ishtirok etish va xorijiy banklar filiallarini ochishni o‘z ichiga oladi. Bu yo‘nalish orqali xorijiy kapital oqimi ortadi va xalqaro hamkorlik mustahkamlanadi.
5. **Innovatsion moliyaviy xizmatlar** – raqamli bank tizimlari, onlayn-kreditlar va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bu esa tranzaksiyalar tezligini oshirib, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi.
6. **Eksportni qo‘llab-quvvatlash** – eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, shartnomalarni sug‘urtalash va eksport kreditlarini taqdim etish orqali tashqi savdo faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Natijada eksport salohiyati oshadi va tashqi savdo balansi yaxshilanadi.

7. **Moliyaviy savodxonlikni oshirish** – tadbirkorlar uchun seminarlar, onlayn kurslar va o‘quv dasturlarini tashkil etish orqali korxonalarning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Eksportni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati

O‘zbekiston iqtisodiyotida eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Biroq, amaliyotda hali ham ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- Eksport kreditlari hajmi cheklangan;
- Kichik eksportyor korxonalar uchun garov talablari yuqori;
- Eksport sug‘urtasi tizimi to‘liq rivojlanmagan;
- Bank xodimlarining xalqaro moliya amaliyoti bo‘yicha tajribasi yetarli emas.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida banklar faoliyatini yanada takomillashtirish va eksportni moliyalashtirish infratuzilmasini kengaytirish zarur.

Eksportni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar

Eksport salohiyatini oshirishda banklarning rolini kuchaytirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Eksport kreditlarini kengaytirish** — eksportyor korxonalar uchun uzoq muddatli va past foizli kredit liniyalarini joriy etish.
2. **Eksport sug‘urtasi tizimini rivojlantirish** — eksport bitimlari xavflarini kamaytiruvchi sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish, maxsus eksport sug‘urta fondini tashkil etish.
3. **Eksportga ixtisoslashgan bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish** — forfeyting, akkreditiv, faktoring, valyuta hedjingi kabi zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy etish.
4. **Raqamli texnologiyalarni qo‘llash** — eksport operatsiyalarini onlayn boshqarish, to‘lovlarni tezlashtirish va xalqaro hamkorlar bilan shaffof hisob-kitob tizimini yaratish.
5. **Kichik biznes eksportini rag‘batlantirish** — kichik va o‘rta korxonalar uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.
6. **Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish** — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa moliya tashkilotlari bilan qo‘shma dasturlarni kengaytirish.[4]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, eksport salohiyatini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim sharti bo‘lib, bu jarayonda tijorat banklarining faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, yangi xizmat turlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O‘zbekiston iqtisodiyotining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi.

Eksportni rag‘batlantirish siyosatida banklarning rolini oshirish orqali mamlakatning xalqaro savdo aloqalari kengayadi, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari ortadi hamda iqtisodiy barqarorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov A.A., Jo‘rayev B.M. *“Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”*, Toshkent, 2022
2. G‘ulomov S.S., G‘aniev B.X. *“Bank ishi va moliya”*, TDIU, 2021
3. “Bank tizimi orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish yo‘nalishlari va natijalari” **“Scientific Journal — LUCH”, Часть-37, Том-3, Январь 2025**
4. Abduqodirov A., Isroilov I. **Moliya bozorlari va kredit tizimi.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
5. Karimov B. **Bank tizimi va eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.** – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2021

[4] Karimov B. **Bank tizimi va eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.** – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2021

IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI

Normurodov Salohiddin
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: normurodovsalohiddin@mail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512738

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kundagi islohotlardan kelib chiqqan holda malakatimizda kichik biznes egalarining soliqqa tortish mexanizmlari va qonuniy tartiblari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Soliq kodeksi,yagona soliq to'lovi,aksiz solig'i,bojxona boji,QQS,soliq tizimi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, balki soliqqa tortish tizimini ham keng rivojlantirishga qaratilgan. Soliqlar – davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar qatori soliq sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Shu munosabat bilan yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik"[1]. Kichik biznes subyektlari uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi. Kichik biznes subyektlari o'z xohishlariga binoan soddalashtirilgan yoki umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari mumkin. Agar korxonalar umumbelgilangan soliq tizimida faoliyat yuritsa Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan belgilangan barcha turdagi soliqlar bo'yicha hisobot topshirishlari hamda soliq to'lovlarini to'lashlari shart. Shu sababli kichik biznes subyektlariga umumbelgilangan soliqlarni hisoblash va to'lashning alohida tartibi nazarda tutilmagan. Kichik biznes subyektlari soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun, agar Soliq Kodeksning 373-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi: Soliq kodeksining 165-moddasida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i; Soliq kodeksining 207-moddasida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i; agar Soliq kodeksining 350-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i; agar Soliq kodeksining 350-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; qonun hujjatlarida belgilangan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; bojxona to'lovlari; yagona ijtimoiy to'lov; davlat bojlari; tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im; avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2024

yig'im. Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi: aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno; Soliq kodeksining 57-bobiga muvofiq yagona yer solig'i va Soliq kodeksining 58-bobiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga; mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga. Yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq hizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda quyidagi muddatlarda habardor etadi: yangi tashkil etilayotgan mikrofirmalar va kichik korhonalar - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan etiboran o'nbesh kundan kechiktirmay; o'tgan yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lash uchun belgilangan mezonlarga mos keladigan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi yuridik shahslar - yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan joriy hisobot davri birinchi oyining 10- sanasidan kechiktirmay. Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi. Ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob, shuningdek ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan to'lovchilar tomonidan, agar ular hisobot yili tugashi bilan Soliq kodeksining 350- moddasi uchinchi qismiga muvofiq hisoblangan, belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmagan bo'lsa, yagona soliq to'lovini to'lagan hisobot davri uchun amalga oshiriladi. Hisobot yili tugashi bilan Soliq kodeksining 350-moddasi uchinchi qismiga muvofiq belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi. O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.Bundan tashqari kichik biznes egalarining YAIMdagi ulushi ham yildan yilga o‘sib bormoqda.Ushbu rasmga qarang (Raqamlar foizlarda ifodalangan).

1-rasm[2]

Code	Klassifikator				2024	2025-Q1	2025-Q2
1700	O‘zbekiston Respublikasi				54,3	45,6	49,6
1735	Qoraqalpog‘iston Respublikasi				65,8	59,5	61,4
1703	Andijon viloyati				69,5	60,9	67
1706	Buxoro viloyati				73	63,3	70,5
1708	Jizzax viloyati				74,4	66,1	68,9
1710	Qashqadaryo viloyati				71	62,7	67,7
1712	Navoiy viloyati				25,1	18	21,2
1714	Namangan viloyati				73,4	67,3	70,1
1718	Samarqand viloyati				72,3	65,9	68,2
1722	Surxondaryo viloyati				77,8	72,4	76,3

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1 oktabrdan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi. Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan yagona soliq to'lovi to'lovchilarda joriy soliq davrining ketma-ket

[2] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2

keluvchi ikki choragi davomida savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat asosiy faoliyat turi bo'lmasa, ular Soliq kodeksining 348-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishga haqli. Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha Soliq kodeksining 350- moddasining to'rtinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan e'tiboran umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishi kerak, bundan soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan yuridik shaxslar, bundan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno, yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan Soliq kodeksining 351- moddasida belgilangan tartibda qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar, agar Soliq kodeksining 352-moddasini birinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir. Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan birinchi chorak uchun foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Soliq solish obyekti o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart Qat'iy belgilangan soliqni to'lash: yuridik shaxslar tomonidan - har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25- kunidan kechiktirmay; yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan Soliq Kodeksi 375-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi. Soliq Kodeksining 370-moddasida ko'rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

1) bojxona to'lovlari;

2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;

4) aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;

5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

6) davlat boji;

7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, Soliq Kodeksining 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi. Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi. Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi. Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi. Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlami va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Xulosa. Kichik biznes har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishi soliqqa tortish tizimining adolatliligi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimining samaradorligini baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ilgari suradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yuqori soliq yuki kichik biznesni rasmiy iqtisodiyotdan chekinishga undaydi, bu esa yashirin iqtisodiyotning o‘sishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, murakkab soliqqa tortish tizimi va yuqori stavkalar tadbirkorlarning soliqlardan qochish ehtimolini oshiradi. Shu sababli, soliqqa tortish tizimini optimallashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribaga asoslanib, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimlari kichik biznes subyektlari uchun qulay sharoit yaratishi va ularning qonuniy ravishda faoliyat yuritishini rag‘batlantirishi aniqlandi. Soliq stavkalarining pasaytirilishi va soliqqa tortish jarayonlarining avtomatlashtirilishi tadbirkorlarning soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Soliq yukining pastligi tadbirkorlar uchun moliyaviy bosimni kamaytirib, qonuniy faoliyat yuritishlarini rag‘batlantiradi. Shuningdek, kichik biznes uchun soliq yuki kamaytirilsa, ular o‘z mablag‘larini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini kengaytirishga yo‘naltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2019 yilgi yangi tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznesning roli.
4. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2
5. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2).

MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA INVESTITSION MUHIT O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Norqobilov Nusratilla Norsaitovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrasining mustaqil izlanuvchisi dotsent.
nusrat.1977@.mail.ru.
orcid: 0009-0006-5045-1194
tel.998-99- 410-15-58
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512759

Annotatsiya: Mazkur makroiqtisodiy barqarorlikning investitsion muhit shakllanishiga ta’siri hamda ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion muhit, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, pul-kredit siyosati, fiskal barqarorlik, investitsiya riski.

Аннотация: Разработаны научно-практические предложения по теоретическим и практическим аспектам влияния макроэкономической стабильности на формирование инвестиционного климата и их взаимозависимости.

Ключевые слова: макроэкономическая стабильность, инвестиционный климат, экономический рост, инфляция, денежно-кредитная политика, фискальная стабильность, инвестиционный риск.

Annotation: Scientific and practical proposals are made on the theoretical and practical aspects of the impact of macroeconomic stability on the formation of the investment climate and their interdependence.

Keywords: macroeconomic stability, investment climate, economic growth, inflation, monetary policy, fiscal stability, investment risk.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodiy munosabatlar tizimining murakkablashuvi va investitsiyalar oqimining bozordagi vaziyatga tezkor moslashuvi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror o‘sish sur’atlariga erishishi, avvalo, milliy iqtisodiy siyosatning samaradorligi va investitsiyalar uchun qulay sharoitlarning yaratilganligi bilan belgilanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik fiskal va monetar siyosat muvozanati, inflyatsiya darajasining nazorat ostida bo‘lishi, milliy valyutaning nisbiy mustahkamligi, davlat qarzining optimal darajada boshqarilishi kabi omillar orqali ta’minlanadi. Bularning barchasi mahalliy va xorijiy investorlar ishonchini oshiruvchi asosiy makrofundamentlar sifatida maydonga chiqadi. Shu bois investitsion qarorlar qabul qilinishi jarayonida makroiqtisodiy xavfning past bo‘lishi kapital oqimlari faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, investitsion muhitning takomillashuvi-biznes yuritish sharoitlarining soddalashtirilishi, huquqiy kafolatlar mustahkamlanishi, soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimining rivoji o‘z navbatida iqtisodiyotda barqaror o‘sish uchun mustahkam asos yaratadi. Qulay investitsion muhit kapital qo‘yilmalarini ko‘paytirib, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytiradi, bandlikni oshiradi va innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion muhitning integratsiyalashgan holda rivojlanishini tahlil qilish milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishda muhim ilmiy-uslubiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot aynan makroiqtisodiy barqarorlik omillarining investitsion faollikka ta’sir mexanizmlarini aniqlash hamda investitsion muhitni yanada yaxshilash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan (1-jadval).

Makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikning tahlili[1]

(1-jadval)

№	Tahlil yo‘nalishi	Makroiqtisodiy ta’sir omillari	Investitsion muhitga ta’siri	Natija

[1] Macroeconomic Stability and Inclusive Growth in Developing Economies (IMF Working Paper, 2021).

1	Pul-kredit barqarorligi	Past inflyatsiya, barqaror foiz stavkalari	Investitsiya risklari kamayadi	Kapital qo‘yilmalar ortadi
2	Fiskal barqarorlik	Byudjet taqchilligining nazorati, davlat qarzining maqbul darajasi	Investorlar ishonchi kuchayadi	Uzoq muddatli investitsiyalar ko‘payadi
3	Valyuta barqarorligi	Milliy valyutaning keskin tebranishlarining oldini olish	Valyuta risklari kamayadi	Tashqi investitsiya oqimi kuchayadi
4	Huquqiy muhit	Sodiq va barqaror tartibga solish, mulk huquqi kafolati	Biznes muhitining jozibadorligi ortadi	Xorijiy investorlar soni oshadi
5	Iqtisodiy o‘sish sur’atlari	YaIM o‘sishining barqarorligi	Bozor sig‘imi va rentabellik oshadi	Investitsion faollik kuchayadi

1-jadvalda pul-kredit barqarorligi inflyatsiya va foiz stavkalarining boshqarilishi orqali investitsiya risklarini kamaytiradi va kapital qo‘yilmalar oqimini rag‘batlantiradi.

Fiskal barqarorlik - davlat byudjeti va qarz siyosatining muvozanatli yuritilishi- investorlar ishonchini oshirib, uzoq muddatli sarmoyalarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Valyuta barqarorligi tashqi investorlar uchun valyuta xatarlarini cheklab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytiradi.

Huquqiy muhitning barqarorligi va mulk huquqlarining kafolatlanishi biznes yuritish xavfini sezilarli kamaytiradi va mamlakat investitsion jozibasini oshiradi.

Bundan tashqari, barqaror iqtisodiy o‘sish bozor sig‘imi va rentabellikni oshirib, investitsion faollikning ortishiga xizmat qiladi (2-jadval).

Investitsion muhitga ta’sir qiluvchi institutsional omillar tahlili[2]

(2-jadval)

№	**Institutsional omil**	**Mavjud holat / Muammolar**	**Takomillashtirish yo‘nalishlari**	**Kutilayotgan natija**
1	Huquqiy muhit	Tartibga solish tizimi murakkab, huquqiy xavf mavjud	Mulk huquqi kafolatlarini kuchaytirish, soddalashtirilgan ruxsatnomalar	Investorlar ishonchi oshadi
2	Boshqaruv va shaffoflik	Korrupsiya xavfi, byurokratiya	Raqamlashtirish, Ochiq ma’lumotlar platformalari	Muhitning shaffofligi va samaradorligi oshadi
3	Soliq va bojxona siyosati	Jarayonlar murakkab, xarajatlar yuqori	Soliq rag‘batlari, soddalashtirilgan deklaratsiya	Investitsiya jozibadorligi kuchayadi
4	Moliyaviy infratuzilma	Moliyalashtirish imkoniyati cheklangan	Kapital bozori va fintechni rivojlantirish	Loyiha moliyalashtirish qamrovi kengayadi

[2] Юсупова Д. Т., Юсупов А. Р .Совершенствование механизма привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан -.. “Экономика и социум”, 2022 yil.

5	Mehnat bozori va kadrlar	Malakali mutaxassis yetishmovchiligi	Kasbiy ta’lim va innovatsion kadrlarga sarmoya	Mehnat unumdorligi oshadi
6	Raqobat muhiti	Monopoliya elementi yuqori	Antimonopol siyosatni kuchaytirish	Bozor samaradorligi va mahsulot sifati oshadi
7	Siyosiy barqarorlik	Geosiyosiy xatarlar ta’siri mavjud	Barqaror iqtisodiy siyosat davomiyligi	Uzoq muddatli investitsiyalar ko‘payadi

2-jadvalda investitsion muhitning sifatli va jozibador bo‘lishi institutsional omillarning qay darajada rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liq.

Avvalo, huquqiy muhitning barqarorligi va mulk huquqlarining ishonchli himoyasi investorlar uchun eng asosiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Tartibga solish tizimidagi murakkabliklarni bartaraf etish investitsion risklarni kamaytiradi va sarmoya oqimini kuchaytiradi.

Davlat boshqaruvida shaffoflikning pastligi va byurokratik to‘siqlar investitsion jarayonlarni sekinlashtiradi. Jarayonlarning raqamlashtirilishi va ochiq ma’lumotlar ekotizimining shakllanishi biznes muhiti samaradorligini sezilarli oshiradi.

Soliq va bojxona siyosatining soddalashtirilishi investorlar xarajatlarini kamaytirib, investitsion jozibadorlikni orttiradi.

Soliq rag‘batlari yangi startaplar va ishlab chiqarish loyihalarini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Kapital bozori va fintech xizmatlarini rivojlantirish investitsiya oqimini kengaytirib, iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlariga kapital yetkazib beradi.

Kadrlar tayyorlash sifati oshirilsa, mehnat unumdorligi kuchayadi va iqtisodiy o‘sish tezlasha boshlaydi.

Raqobat muhitining sustligi monopoliya xavfini kuchaytiradi. Antimonopol siyosat kuchaytirilishi mahsulot sifati va narx barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, siyosiy barqarorlik sarmoyadorning uzoq muddatli ishonchini ta’minlash uchun asosiy omil hisoblanadi. Barqaror davlat siyosati investitsiyalarning barqaror kirib kelishini rag‘batlantiradi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion muhitni yaxshilashni amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-inflyatsiyani nazorat qilishning bozor mexanizmlarini kuchaytirish lozim;

-byudjet intizomini oshirish va davlat qarzini barqaror boshqarish zarur;

-pul-kredit siyosatida prognoz qilinuvchanlikni ta’minlash lozim;

-biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish zarur;

- mintaqalarda investitsion infratuzilmani yaxshilash lozim

-mahalliy investitsion loyihalarga davlat-xususiy sheriklik asosida ko‘mak berish maqsadga muvofiq.

Makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik milliy iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur’atlarda rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi.

Barqaror pul-kredit siyosati, past inflyatsiya, davlat byudjetining muvozanatli yuritilishi, valyuta bozorining barqarorligi hamda siyosiy ishonchlilik investorlar uchun xavf va noaniqliklarni kamaytiradi. Bu esa kapital oqimlari hajmining oshishiga, iqtisodiyotning investitsion jozibadorligining kuchayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2019. – 64 b.

3. Salamon L.M. The Tools of Government: A Guide to the New Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2002. 688 p.
4. Юсупова Д. Т., Юсупов А. Р. Совершенствование механизма привлечения иностранных инвестиций в Республику Узбекистан // Экономика и социум. – 2022. № 5 (96). yil
5. Рахманов Б. Б. Институциональные основы мотивации прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана // Central Asian Journal of Education and Innovation. 2024. yil
6. Иногамова М. С. Инвестиционный потенциал как фактор повышения инвестиционной привлекательности // Иқтисодий тараққиёт ва инновацион технологиялар. 2021. yil.

O‘ZBEKISTONDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA BANKLARNING O‘RNI

Xidirov Muzaffar Abdimominovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Moliya va bank ishi kafedrasi o`qituvchisi
Ergasheva Oysanam Erkin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Bank ishi ta’lim yo’nalishi
4-kurs talabasi. Tel: 998 94 289 25 23
E mail. Oysanamergasheva7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17512785

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda O‘zbekiston Respublikasida eksport salohiyatini oshirish jarayonida bank tizimining o‘rni va roli yoritilgan. Unda eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, tijorat banklarining xalqaro kreditlash va kafolatlashdagi ishtiroki, davlat tomonidan eksportni rag‘batlantirish siyosatida banklarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, 2024-yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston bank tizimining eksport sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlari va ularni rivojlantirish istiqbollari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: eksport, bank tizimi, moliyalashtirish, eksport krediti, kafolat, sug‘urta, tashqi savdo, eksport salohiyati, iqtisodiy o‘sish, xalqaro hamkorlik.

Kirish: Jahon iqtisodiyotida so‘nggi yillarda global raqobatning kuchayishi, tashqi bozorlardagi talabning o‘zgarishi va logistika tizimlarining murakkablashuvi eksport faoliyatining barqarorligini ta’minlashda moliyaviy institutlarning rolini yanada oshirdi. Eksport – mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlovchi, valyuta tushumlarini ko‘paytiruvchi hamda milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshiruvchi muhim omildir. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon eksportni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. 2017-yildan boshlab mamlakatda iqtisodiy liberallashuv siyosati chuqurlashdi, milliy valyuta konvertatsiyasi erkinlashtirildi va tashqi savdo tartibotlari soddalashtirildi. Bu islohotlar eksport faoliyatini sezilarli darajada jonlantirdi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning umumiy eksport hajmi 24,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan 45 foizga o‘sishni ko‘rsatadi. Eksport tarkibida sanoat mahsulotlari, xususan to‘qimachilik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, farmatsevtika va oziq-ovqat mahsulotlari ulushi oshib bormoqda. Ushbu natijalarga erishishda bank tizimining moliyaviy qo‘llab-quvvatlovi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Eksport salohiyati – bu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligi, eksport hajmini kengaytirish imkoniyati hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish qobiliyatidir. Yuqori eksport salohiyatiga ega mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik, to‘lov balansi va valyuta zaxiralarini mustahkamlash orqali o‘z milliy manfaatlarini himoya qila oladi. O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirish yo‘lida so‘nggi yillarda bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida eksport hajmini 2030-yilgacha 2 baravarga oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish belgilangan[1]

Eksport faoliyatini kengaytirishda bank tizimining roli beqiyosdir. Banklar eksport oldidan moliyalashtirish (pre-export financing), eksportni sug‘urtalash, kafolatlash, hamda xorijiy hamkorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish orqali eksportchilarni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki (O‘zmilliybank) eksport operatsiyalarining asosiy moliyaviy tayanchidir. 2024-yilda bank tomonidan eksportchi korxonalarga 2,3 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratilgan. Shuningdek, bankning “Eksportni moliyalashtirish” liniyasi orqali 150 dan ortiq korxona xorijiy bozorlarga chiqishda moliyaviy yordam olgan. Asaka bank tomonidan esa “Eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida eksport shartnomalarini kafolatlash, xalqaro akkreditivlar ochish va valyuta risklarini boshqarish bo‘yicha xizmatlar kengaytirildi. Ipoteka bank esa 2024-yilda umumiy qiymati 500 million AQSh dollari bo‘lgan eksport kreditlarini taqdim etdi.

[1] “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi – www.president.uz

Bank tizimining eksportga ko‘magini kuchaytirish maqsadida hukumat tomonidan bir qator institutsional mexanizmlar joriy etilgan. 2019-yilda “Eksportni rag‘batlantirish agentligi” tashkil etilib, u tijorat banklari bilan hamkorlikda eksport faoliyatini sug‘urtalash va kafolatlash tizimini yuritmoqda. Shuningdek, “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi eksport risklarini kamaytirish orqali korxonalarning tashqi bozorlarda ishonchli faoliyat yuritishini ta’minlamoqda. 2024-yilda ushbu kompaniya tomonidan 1,1 trillion so‘mlik eksport shartnomalari sug‘urtalangan. Banklarning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi ham kuchaymoqda. Masalan, O‘zbekiston Milliy banki Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda Islom taraqqiyot banki (ITB) bilan hamkorlikda eksportni moliyalashtirish bo‘yicha 300 million dollardan ortiq kredit liniyalarini jalb qilgan.[2]

1-jadval

2020–2024 yillarda O‘zbekiston eksport hajmi va banklar tomonidan eksport faoliyatiga ajratilgan kreditlar hajmi.

Yil	Eksport (mlrd $)	Eksport kreditlari (trln so'm)
2020.0	13.1	21.5
2021.0	16.5	28.3
2022.0	19.3	35.6
2023.0	22.6	45.2
2024.0	25.9	55.8

2020–2024 yillarda eksport hajmi 13.1 mlrd $ dan 25.9 mlrd $ gacha oshib, 98% o‘sish ko‘rsatdi. Banklar tomonidan eksportni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar 21.5 trln so‘mdan 55.8 trln so‘mga yetib, qariyb 2.6 barobar oshdi. Bu ko‘rsatkichlar bank tizimining eksportni qo‘llab-quvvatlashdagi faolligining ortganini ko‘rsatadi[3]. Quyida keltirilgan ushbu grafikda O‘zbekiston eksport hajmining 2020–2024 yillardagi o‘sishini ko‘rishimiz mumkun.



1- rasm. O‘zbekiston eksport hajmining 2020–2024 yillardagi o‘sishini ko‘rsatadi[4].

Yuqorida keltirilgan grafik ma’lumotlarida shuni ko’rishimiz mumkunki mamlakatimizda 2021–2022 yillarda eksport o‘sishi tezlashgani kuzatilgan. 2023–2024 yillarda o‘sish barqaror davom etdi, eksport

[2] Osiyo taraqqiyot banki, EBRD, ITB – www.adb.org, www.ebrd.com, www.isdb.org
[3] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – https://www.stat.uz
→ 2020–2024 yillardagi eksport hajmi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar.
(Masalan: “Tashqi savdo to‘g‘risida ma’lumot”, “Eksport hajmlari dinamikasi” bo‘limlari.)
[4] Stat.uz va CBU.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

tarkibida tayyor sanoat mahsulotlarining ulushi oshdi. Shu bilan birgalikda ustunli grafik banklar tomonidan eksportni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmining dinamikasini ko‘rsatadi.



2-rasm. Eksportni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmining dinamikasi[5]

Bu grafik bank kreditlari hajmida 2022–2024 yillarda sezilarli o‘sish kuzatildi, bunda 2022 yildagi 35.6 trln so‘mdan 2024 yildagi 55.8 trln so‘mga oshish davlat va xalqaro moliyaviy institutlar hamkorligining natijasi sifatida qaraladi.

Xulosa

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishida eksport salohiyatining ortishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tijorat banklari eksportchi korxonalarning moliyaviy tayanchiga aylangan. Banklarning eksportni kreditlash, kafolatlash va sug‘urtalashdagi faol ishtiroki eksport faoliyatining xavfsizligini ta’minlab, yangi tashqi bozorlarga chiqish imkonini yaratadi. Kelgusida bank tizimida eksportni yanada samarali qo‘llab-quvvatlash uchun: xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish; eksport kredit sug‘urtasi va kafolat tizimlarini takomillashtirish; eksportchilar uchun soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish; eksportni raqamlashtirish va elektron moliyaviy xizmatlarni joriy etish zarur. Bu chora-tadbirlar O‘zbekistonning eksport salohiyatini yanada oshiradi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari (2019–2023).
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy portali: www.cbu.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi: www.stat.uz
4. Abdurahmonov Q.X. “Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
5. Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va EBRD hisobotlari, 2022–2024.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi “Eksportni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarori.

[5] www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA QISQA MUDDATLI INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Safarov Alisher Ibrohim o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
Email: alilionsafarov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513395

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida qisqa muddatli investitsiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Qisqa muddatli investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, ularning korxona likvidligi va foydalilik darajasiga ta’siri tahlil qilingan. Sanoat korxonalari va xizmat ko‘rsatish sohalari misolida investitsion faollikning dinamikasi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida qisqa muddatli investitsiyalar samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, qisqa muddatli aktivlar, likvidlik, foydalilik, moliyaviy tahlil, sanoat korxonasi, xizmat sohasi.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты развития краткосрочных инвестиций в условиях экономики Узбекистана. Проведен анализ влияния краткосрочных инвестиций на ликвидность и рентабельность предприятий. На примере промышленных предприятий и сферы услуг изучена динамика инвестиционной активности. На основе проведенного анализа разработаны предложения по повышению эффективности краткосрочных инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, краткосрочные активы, ликвидность, прибыльность, финансовый анализ, промышленное предприятие, сфера услуг.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of short-term investment development in the context of Uzbekistan’s economy. The study analyzes the impact of short-term investments on enterprise liquidity and profitability. Based on data from industrial enterprises and the service sector, the dynamics of investment activity are reviewed. The paper proposes recommendations for improving the efficiency of short-term investments.

Keywords: investment, short-term assets, liquidity, profitability, financial analysis, industrial enterprise, service sector.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning barqaror faoliyat yuritishi, raqobatbardoshligini ta’minlashi va iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai sifatida qaraladi. Investitsiyalar ichida qisqa muddatli investitsiyalar muhim o‘rin tutadi. Chunki ular korxonaning joriy likvidligini, foyda olish imkoniyatini va moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda qisqa muddatli investitsiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Bank tizimidagi islohotlar, fond bozori faoliyatining kengayishi, korporativ boshqaruvning takomillashuvi investitsion muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, qisqa muddatli investitsiyalarning samaradorligini oshirishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Ular, bir tomondan, investorlarga tezkor daromad olish imkoniyatini taqdim etsa, ikkinchi tomondan, yuqori xatarlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli investitsiyalar, odatda, bir yildan kamroq muddatga mo'ljallangan moliyaviy aktivlarga sarmoya kiritishni anglatadi. Bularga qisqa muddatli obligatsiyalar, pul bozoridagi vositalar, aksiyalarning savdosi (day trading, swing trading) va boshqa likvid vositalar kirishi mumkin. Ushbu kirish qismida qisqa muddatli investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati, ularning zamonaviy moliyaviy bozorlardagi o'rni va tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab o'tiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi qisqa muddatli investitsiyalar bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bo‘yicha ilmiy qarashlar iqtisodchi olimlar J. Keyns, F. Modilyani, M. Miller, P. Samuelson kabi g‘arb mutafakkirlari hamda O‘zbekiston olimlari A. Vahobov, U. Xamidov, S. Jo‘rayev va boshqalar tomonidan keng yoritilgan. Keyns investitsiyalarni “kutilayotgan foyda” va “foiz

stavkasi" o'rtasidagi muvozanat asosida izohlaydi. Modilyani va Miller esa investitsion qarorlarni moliyaviy tuzilma bilan uzviy bog'laydi. Mahalliy olimlar fikricha, qisqa muddatli investitsiyalar korxona aktivlarining muvozanatini saqlash, zaxiralarni optimallashtirish va erkin pul mablag'laridan samarali foydalanishning eng muhim vositasidir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qisqa muddatli investitsiyalar korxona faoliyatining nafaqat moliyaviy, balki strategik jihatlarini ham belgilaydi. Ammo amaliyotda bu jarayon yetarli darajada tahliliy yondashuvga ega emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda analitik tahlil metodi – qisqa muddatli investitsiyalar tarkibini o'rganish, taqqoslash usuli – sanoat va xizmat sohasidagi investitsion ko'rsatkichlarni solishtirish, statistik usul – Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida dinamik tahlil, grafik tasvirlash – investitsiya oqimlarini vizual ko'rsatish kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida "O'zkabel" AJ, "Farg'onaazot" AJ sanoat tarmog'i) va "Ipoteka-bank" ATB, "Xalq banki" (xizmat sohasi) ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston iqtisodiyotida qisqa muddatli investitsiyalar so'nggi yillarda iqtisodiy faollik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, sanoat tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohasida faol kuzatilmoqda. Quyida ushbu yo'nalishdagi holat, tendensiyalar va muammolar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, qisqa muddatli investitsiyalar hajmi va ulushi 2021–2024 yillar davomida doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi.

1-jadval[1]

Yillar	Umumiy investitsiyalar (trln so'm)	Qisqa muddatli investitsiyalar (trln so'm)	Ulushi (%)
2021	247,0	48,5	19,6
2022	281,3	56,4	20,0
2023	322,7	68,1	21,1
2024*	359,4	79,8	22,2

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, qisqa muddatli investitsiyalar umumiy investitsiyalar tarkibida yil sayin o'sib bormoqda. Bu, bir tomondan, kapital aylanish tezligini oshirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, likvid aktivlarga talabning ortayotganidan dalolat beradi.

Sanoat tarmoqlari qisqa muddatli investitsiyalarni asosan ishlab chiqarish zaxiralarini moliyalashtirish, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va texnik qayta jihozlash jarayonlarida foydalanmoqda. Masalan, **"Farg'onaazot" AJ** va **"O'zkabel" AJ** korxonalari misolida shuni kuzatish mumkinki, 2022–2024 yillar oralig'ida qisqa muddatli investitsiyalar hajmi 32 foizga oshgan, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini 18 foizga ko'tarishga yordam bergan.

2-jadval[2]

Korxona nomi	2022-yil (mlrd so'm)	2023-yil	2024-yil	O'sish (%)
"Farg'onaazot" AJ	210	243	276	31,4
"O'zkabel" AJ	156	179	204	30,8

Bu natija sanoat tarmog'ida qisqa muddatli investitsiyalar korxona aylanma mablag'larini faollashtirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Biroq muhim muammolardan biri — qisqa muddatli moliyalashtirish manbalari cheklanganligi va tijorat banklarida qisqa muddatli kreditlarning foiz stavkalari yuqoriligi (yillik 20–24%) bo'lib qolmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi (bank, sug'urta, transport, IT, savdo va boshqalar) qisqa muddatli investitsiyalarni asosan likvid aktivlar — aksiyalar, obligatsiyalar va depozitlarga yo'naltirmoqda. Masalan,

[1] *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024-yil yakuniy hisobot.*

[2] *Muallif ishlanmasi*

“Ipoteka-bank” ATB va “Xalq banki” misolida qisqa muddatli investitsiyalar hajmi 2021-yildan 2024-yilgacha 1,5 barobar oshgan.

3-jadval[3]

Tashkilot nomi	2021 (mlrd so‘m)	2024 (mlrd so‘m)	O‘sish (%)
“Ipoteka-bank” ATB	485	715	47,4
“Xalq banki”	430	660	53,5

Bu esa xizmat ko‘rsatish sohasida qisqa muddatli investitsiyalarning foyda keltiruvchi, xavfi past aktivlarga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, raqamli bank xizmatlari va onlayn investitsiya platformalarining kengayishi ushbu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, qisqa muddatli investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotida nafaqat korxonalarning moliyaviy holatini mustahkamlash, balki iqtisodiy o‘sish va bandlik darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ammo bu yo‘nalishda samaradorlikni oshirish uchun quyidagi omillar muhim:

- investitsiya muhiti barqarorligini saqlash;
- qisqa muddatli moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish;
- korxonalarda investitsion boshqaruv madaniyatini shakllantirish;
- raqamli investitsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Taklif va xulosalar.

Qisqa muddatli investitsiyalar korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash, likvidlikni ta’minlash va foyda olish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotida bu yo‘nalishning rivoji uchun zarur institutsional va infratuzilmaviy sharoitlar yaratilgan bo‘lsa-da, samaradorlikni oshirish uchun tahliliy, tashkiliy va texnologik yondashuvlarni kuchaytirish talab etiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra asosiy xulosalarmiz quyidagicha:

➢ Qisqa muddatli investitsiyalar hajmi yildan-yilga o‘smoqda, ammo ularning samaradorlik ko‘rsatkichi (rentabellik, likvidlik indeksi) hali yetarli emas.

➢ Sanoat tarmog‘ida qisqa muddatli investitsiyalar asosan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan, xizmat sohasida esa moliyaviy aktivlar (depozit, obligatsiya, aksiya) ustunlik qilmoqda.

➢ Korxonalar qisqa muddatli investitsiyalarni moliyalashtirishda bank kreditlariga yuqori darajada bog‘liq, bu esa xarajatlar hajmini oshiradi.

➢ Fond bozori infratuzilmasi va qisqa muddatli investitsion instrumentlarning (korporativ obligatsiya, investitsion sertifikat, repo operatsiyalar) yetarlicha rivojlanmagani sababli investitsiya aylanish tezligi past.

Qisqa muddatli investitsiyalarni baholashda ko‘p hollarda tahliliy yondashuv sust - ya’ni korxona moliyaviy hisobotlarida qisqa muddatli investitsiyalar rentabelligi va xavf darajasi alohida aks ettirilmaydi. Qisqa muddatli investitsiyalar monitoring tizimini yaratish. Har bir korxona moliyaviy hisobotida qisqa muddatli investitsiyalar tarkibi, rentabelligi va xavf darajasini alohida ko‘rsatish zarur. Fond bozori infratuzilmasini kengaytirish. Qimmatli qog‘ozlar bozorida qisqa muddatli obligatsiyalar va investitsion sertifikatlar emissiyasini rag‘batlantirish lozim. Moliyaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish. Elektron investitsiya platformalari orqali qisqa muddatli aktivlarga tezkor kirish imkoniyatini yaratish. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish. Korxonalarda investitsion siyosatni strategik rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish. Kadrlar tayyorlashni kuchaytirish. Oliy o‘quv yurtlarida qisqa muddatli investitsiyalar tahlili va boshqaruvi bo‘yicha maxsus fanlarni kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonuni, 2016 yil13-aprel O‘RQ -404-son.

[3] *Muallif ishlanmasi*

2. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (12-sonli BHMS) “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish” 3531-son 18.07.2024.
3. Вахобов А.В., Хамидов У. *Инвестиционная политика в условиях рыночной экономики.* — Т.: Иқтисод, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2022–2024 yillar).
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari.
6. Jo‘rayev S. *Moliyaviy investitsiyalar tahlili va boshqaruvi.* — Toshkent, 2022.
7. www.cbu.uz, www.stat.uz — rasmiy statistik ma’lumotlar.

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Jumaniyazov Rashid Azamatovich
Qoraqalpoq davlat universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar
2B guruh talabasi
Tel:913771400
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513427

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda investitsiya muhitini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar, ularning iqtisodiy va institutsional sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsion faoliyatni yanada faollashtirish, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etiladi.

Tayanch so’zlar: Investitsiya, iqtisodiy faoliyat, investitsiya muhiti, iqtisodiy o‘sish, investitsiya siyosati, iqtisodiy islohotlar, sarmoya, investitsion loyiha, shaffoflik, samaradorlik.

Investitsiya – bu daromad olish yoki ma'lum bir foyda ko'rish maqsadida moliyaviy yoki moddiy resurslarni uzoq yoki qisqa muddatga joylashtirishdir. Investitsiya iqtisodiyotning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, bu jarayon odatda biznes, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki boshqa iqtisodiy faoliyat turlariga kapital kiritishni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiya muhiti mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Investitsiya muhiti deganda, iqtisodiyotga sarmoya kiritish uchun yaratilgan qulay imkoniyatlar majmui, ya’ni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy hamda ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘un tizimi tushuniladi. Shu bois, har bir davlat o‘zining investitsiya siyosatini takomillashtirish va sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratishga intiladi. So'nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston – Taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026-yillar) [1] va 2022-yil 28-dekabrda “O‘zbekitson Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459- sonli Prezident qarorlari ushbu jarayonni jadallashtirishga qaratilgan [2].

Shunga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyotida ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi va tashqi sarmoyalarni jalb etish zarurati sharoitida investitsiyalar uchun qulay muhitni shakllantirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oxirgi yillarda investitsiyalarni jalb qilish muammosi davlatning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Investitsion muhitni shakllanitirish bilan birga to'siqlar ham yuzaga kelyabti.

Kamchiliklar: Davlat ahamiyatiga molik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini sifatli tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring hamda nazorat qilishni ta’minlovchi loyiha boshqaruvining yagona tizimi mavjud emasligi;

Loyihalarni amalga oshirish sur’ati va samaradorligini tezkor kuzatish imkonini beruvchi ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga etarlicha joriy etilmaganligi;

Davlat va hududiy dasturlarni, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ochiqlik va shaffoflik darajasining pastligi mazkur sohada moliyaviy mablag‘lar maqsadsiz va samarasiz sarflanishi, shuningdek turli xil suiste’molchilik holatlarini keltirib chiqarayotganligi;

Amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi, asoslantirilganligi va rentabelligini tahlil qilish hamda baholash, shuningdek ularning qiymatini oshirib ko‘rsatish va boshqa suiste’molchiliklar alomatlarini aniqlash bo‘yicha ishlar samaradorligining pastligi [3].

Investitsiya uchun qulay muhit yaratishda yana bir muhim muammolardan biri – mavjud investitsiya muhitini to‘g‘ri baholashdir. Investitsiya muhitini baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- Iqtisodiy sharoitlar: makroiqtisodiy muhit holati;
- Davlat investitsiya siyosati;
- Investitsiya faoliyati uchun huquqiy-me’yoriy asos;
- Axborot va statistik ma’lumotlar [4].

O‘zbekistonda investitsiya muhitini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda bu borada muhim qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, ayrim tizimli muammolar – loyiha boshqaruvining yagona tizimi yo‘qligi, axborot texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi, shaffoflikning pastligi hamda tahlil mexanizmlarining sustligi investitsion jarayonlarni sekinlashtirmoqda. Shu sababli, investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun boshqaruv samaradorligini oshirish, ochiqlikni ta’minlash va xorijiy sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlash zarur. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holatda O‘zbekistonda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: Loyiha boshqaruvining yagona tizimini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffoflik va ochiqlikni oshirish, loyihalarni tahlil qilish va baholash tizimini mustahkamlash masalalari sarmoyadorlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda investitsiya muhiti va investitsiyalarni rivojlantirish masalasi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida investitsion muhit sezilarli darajada yaxshilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekitson Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston – Taraqqiyot strategiyasi”.
2. O‘zbekitson Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022-yil 28 dekabrda “O‘zbekitson Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459-sonli qarori.
3. Xusnuddinova Munisa Jamoliddin qizi. YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XALQARO INVESTITSION MUHITNI YARATISHNING STATISTIK TAHLILI. “Yangi O‘zbekistonda statistika nazariyasi va amaliyotidagi islohotlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, (E)ISSN: 2181-1784 3(24), Dec., 2023 www.oriens.uz.
4. Khoshimov Sabir Murtazaevich. Problems Of Creating A Favorable Investment Climate In Uzbekistan. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, Volume 40| February 2025 ISSN: 2795-7659 (9-14).

IMPROVING THE ASSESSMENT OF THE INVESTMENT CLIMATE IN UZBEKISTAN THROUGH THE USE OF FOREIGN EXPERIENCE

Shaislamova Nargiza Kabilovna
Associate professor of the Department "Valuation and Investments",
Tashkent State University of Economics.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513472

Abstract. This article examines the possibilities for improving the methodology of investment climate assessment in Uzbekistan by integrating international experience and analytical approaches. It identifies key theoretical foundations, analyzes existing foreign and domestic models, and proposes a modernized framework that reflects the institutional, infrastructural, and innovation dimensions of the investment environment. The results highlight the importance of adopting comprehensive, multifactor methods and international comparability to enhance the objectivity and transparency of investment assessments in Uzbekistan.

Keywords: investment climate, investment potential, methodology, international experience, multifactor model, Uzbekistan.

The investment climate plays a crucial role in determining a country's ability to attract and retain capital, stimulate economic growth, and ensure long-term sustainable development. In the context of Uzbekistan's ongoing economic reforms, improving the methodology for assessing the investment climate has become an essential component of the national investment policy.

Traditional approaches in Uzbekistan have primarily focused on macroeconomic indicators, such as GDP growth, inflation, and foreign direct investment inflows. However, these indicators alone do not provide a comprehensive understanding of the investment environment. A more advanced methodology should integrate institutional, infrastructural, and innovation-related aspects, as well as take into account global best practices and international rating systems such as Moody's, Standard & Poor's, and Fitch Ratings.

The integration of international experience can enhance the analytical capacity of domestic institutions, promote transparency, and increase investor confidence. This paper aims to explore modern approaches to investment climate assessment and outline practical recommendations for improving the methodological framework in Uzbekistan.

The analysis of international experience shows that modern investment climate assessment models are multidimensional and dynamic. For instance, Moody's and Fitch emphasize creditworthiness and risk management, while the World Bank's Doing Business index measures regulatory efficiency. Adapting such approaches to Uzbekistan would allow more accurate assessment of regional disparities and economic potential.

Several generalized approaches (models) are distinguished in assessing the investment climate and investment attractiveness of a region, which serve as the basis for developing specific assessment methods. The schematic representation of these approaches to evaluating regional investment attractiveness is shown in Figure 1.



Figure 1. Methodologies for Conducting Investment Climate Assessments [1]

Existing approaches to assessing the investment climate vary depending on:

- the purpose of the research;
- the number and nature of analyzed indicators;
- the selection criteria for those indicators.

Let us consider these approaches in more detail.

1. Macroeconomic Model

This approach is based on the assessment of the dynamics and structure of key macroeconomic parameters – gross domestic product (GDP), gross regional product (GRP), national income, public debt, budget deficit, and the condition of investment and financial markets.

Financial or credit ratings published by international analytical agencies such as Moody's, Standard & Poor's, and Fitch are primarily formed on the basis of this model [2].

2. Multifactor Model

This approach is of great interest to both private and corporate investors and is based on evaluating a set of factors that influence the investment climate and investment attractiveness [3].

By summarizing these factors, researchers calculate an Integral Importance Index (III), which is determined either by expert evaluation or by analytical calculation. This index is regularly published in reputable economic journals such as Euromoney, Fortune, and The Economist. The methodological basis and

indicator composition of these rankings are periodically revised depending on changes in the global economic environment.

3. Factor Model

This approach focuses on two key components of the investment climate – investment potential and investment risk. Many scholars and practitioners view these elements as opposing forces, and the main challenge for investors lies in balancing them when making investment decisions.

The risk-based method of assessing the investment climate is particularly valuable for strategic investors, as it enables them to evaluate the prospects and attractiveness of a particular region or industry while comparing potential gains with the associated level of risk.

Ways to improve the methodology for assessing the investment climate in Uzbekistan can be considered in the context of enhancing its scientific validity, practical applicability, and alignment with international standards [4]. Modern trends in investment analysis require a transition from simple monitoring of macroeconomic indicators to a comprehensive, factor-based, and dynamic assessment that takes into account the institutional, legal, social, and innovative aspects of the country's development.

1. It is necessary to improve the system of indicators used in assessing the investment climate. Existing methodologies mainly rely on quantitative macroeconomic parameters, while institutional and infrastructural factors are often underestimated. Therefore, the methodology should include indicators reflecting the quality of public governance, the level of investor protection, the efficiency of the judicial system, the degree of digitalization, and the accessibility of infrastructure.

2. It is important to introduce integrated and multifactor models that make it possible to account for the interconnection between different factors of the investment climate. The use of index and cluster analysis, as well as expert and rating methods, will make it possible to form more accurate and dynamic assessments adapted to the regional specifics of Uzbekistan.

3. It is essential to strengthen the institutional and international comparability of the methodology. For this purpose, national approaches should be harmonized with the methodologies of international rating agencies (Moody's, Standard & Poor's, Fitch) and institutions (World Bank, UNCTAD). This will increase the confidence of foreign investors and simplify the interpretation of data at the global level.

4. It is necessary to develop an information support system by creating unified databases on investment activity, infrastructure, innovation potential, and risks. This will ensure transparency and accessibility of information for investors.

5. An important direction for improvement is the digitalization of investment climate assessment. The application of Big Data technologies, artificial intelligence, and geographic information systems will make it possible to promptly update data, identify patterns, and forecast changes in the investment environment.

Thus, improving the methodology for assessing the investment climate in Uzbekistan should be based on a comprehensive, systematic, and internationally comparable approach. This will enhance the objectivity of assessments, strengthen the country's investment attractiveness, and promote sustainable economic growth.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ковалева Н.А., Мартиросова Н.А. Анализ методик оценки инвестиционного климата и инвестиционной привлекательности региона. https://vectoreconomy.ru/images/publications/2018/7/financeandcredit/Kovaleva_Martirosova.pdf
2. Ratings Criteria and Models. https://www.spglobal.com/ratings/en/regulatory/ratings-criteria
3. Doing Business Founders. https://archive.doingbusiness.org/en/about-us/founders
4. OOO "Ahbor-Reyting". https://uba.uz/ru/about/organizations/reytingovoe-agentstvo-ahbor-reyting/

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, o'qituvchisi
tel:+998 (94) 653-46-15
dilzoda4193@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513508

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlari, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi o'zgarishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, asosiy kapital, investitsion muhit, iqtisodiy o'sish, xususiy sektor, davlat investitsiyasi, sarmoya oqimi, modernizatsiya, pandemiya, O'zbekiston iqtisodiyoti

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt yaxshi anglaydi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas.[1]

Bozor islohotlarining navbatdagi bosqichida mamlakatimizga xorijiy investiyalarni jalb etishni takomillashtirish masalalarini hal qilish, xorijiy sarmoyasini jalb qilish borasidagi muammolarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari asosiy vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar oqimining 2023 yilda 8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Mamlakatimizda avvalgi yillarda rejalashtirilgan investitsion loyihalar hisobidan va pandemiya sharoitida investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan xo'jalik subyektlari hamda tadbirkorlarning hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2022 yilda 10.7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2023 yilga nisbatan pasayish kuzatilmadi.[2]

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendensiyasi va ko'rsatkichlari hamda kelgusi yillarga mo'ljallangan prognozlariga ko'ra ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorij investorlari uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.[3]

1-jadval

2020-2024 yillar O'zbekiston asosiy kapitalga investitsiyalari (trln so'm) [1]

Yillar	Umumiy hajmi (trln so'm)	Xorijiy investitsiyalar (trln so'm)	Davlat investitsiyalari (trln so'm)	Xususiy sektor (trln so'm)
2020	189,9	62,4	67,5	60,0
2021	215,7	74,8	70,2	70,7
2022	258,3	91,5	77,6	89,2
2023	302,6	115,8	85,2	101,6
2024	350,0	130,0	90,0	130,0

[1] www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2020 yildan 2024 yilga qadar asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 189,9 trln so'mdan 350 trln so'mga (prognoz) yetib, 84% o'sish kuzatilmoqda. Bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sish, infratuzilma loyihalari va xorijiy sarmoyadorlarning qiziqishi ortib borayotganini anglatadi. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 10-12% atrofida.

Xorijiy investitsiyalar hajmi 2020 yilda 62,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 130 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda, ya'ni 2 barobarga oshadi. Bu O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish siyosatining muvaffaqiyatini ko'rsatadi. 2023 yilda xorijiy investitsiyalar 115,8 trln so'mni tashkil etib, umumiy investitsiyalarning 38% ulushini egalladi, bu davlat va xususiy sarmoyalardan keyingi eng yirik manba.[4]

Davlat tomonidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi nisbatan barqaror bo'lib, 2020 yilda 67,5 trln so'm, 2024 yilga kelib esa 90 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. Davlat sarmoyalari umumiy investitsiyalardagi ulushining pasayishi kuzatiladi, chunki xususiy va xorijiy sarmoyalar hajmi oshmoqda. Bu esa davlatning iqtisodiy faoliyatda o'z ishtirokini kamaytirib, xususiy sektor va xorijiy investorlarning rolini oshirish siyosatiga mos keladi.

Xususiy sektorning investitsiyalardagi ulushi sezilarli oshib bormoqda. 2020 yilda 60 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 130 trln so'mga yetishi kutilmoqda, ya'ni 2 barobarga o'sadi. Bu davlat tomonidan xususiy sektorga berilgan soliq imtiyozlari va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasi hisoblanadi.[5]

2020-2021 yillar COVID-19 pandemiyasining iqtisodiyotga ta'siri sezildi. Biroq 2021 yilda investitsiyalar hajmi pandemiyadan keyin tiklana boshladi va 2020 yilga nisbatan 13,6% o'sdi.

2022-2023 yillar energetika va transport infratuzilmasidagi yirik loyihalar hisobiga o'sish sur'ati tezlashdi. Umumiy investitsiyalar hajmi 2022 yilda 258,3 trln so'm, 2023 yilda esa 302,6 trln so'm bo'lib, bu ikki yil ichida 17,2% o'sish demakdir. 2024 yil prognozi investitsiyalar hajmi yana 15-16% oshishi kutilmoqda.[6]

Xulosa: O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida shakllanmoqda. Tahlillarga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 189,9 trln so‘mdan 350 trln so‘mgacha o‘sib, 84 foizlik o‘sish kuzatilgan. Xorijiy investitsiyalar hajmi esa 62,4 trln so‘mdan 130 trln so‘mgacha ko‘tarilib, ikki barobarga oshgan. Bu mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, sarmoyadorlar uchun yaratilgan kafolatlar va qulay biznes muhiti natijasidir.

Davlat investitsiyalarining ulushi pasayib, xususiy va xorijiy kapitalning o‘sishi iqtisodiy faoliyatda bozor mexanizmlarining kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. 2023 yilda xorijiy investitsiyalar umumiy investitsiyalarning 38 foizini tashkil etgani mamlakatning investitsion jozibadorligini tasdiqlaydi.

Kelgusida xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘paytirish uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, investitsion xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion sohalarga sarmoya yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari. – https://www.invest.gov.uz (murojaat sanasi: 2025 yil 14 oktabr).
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – https://stat.uz (murojaat sanasi: 2025 yil 14 oktabr).
4. Nodirxanov U.S. *Hududlarda investitsiya muhitini baholash va investitsion faollikni oshirish yo‘llari.* – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
5. G‘ozibekov D., Nosirov E. *Investitsion salohiyatni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
6. Hoshimov J.R. *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2021.

ESG ҲИСОБОТЛАРИ КОРПОРАТИВ ШАФФОФЛИК ВА ИНВЕСТОРЛАР ИШОНЧИГА ТАЪСИРИ

Исмаилов Аллаёр Рашидович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Инновацион менежмент” кафедраси PhD доцент
Тел: 93-558-71-81
ORCID: 0009-0000-6148-342X
Ismailovallayor@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513528

Аннотация. Мазкур мақолада ESG (Environmental, Social, Governance) ҳисоботларининг корпоратив бошқарув тизимидаги аҳамияти ва уларнинг корпоратив шаффофлик ҳамда инвесторлар ишончига таъсири таҳлил қилинади. Замонавий иқтисодиётда ESG ҳисоботлари компаниянинг экологик, ижтимоий ва бошқарув соҳаларидаги масъулиятини ифода этадиган стратегик воситага айланмоқда. Тадқиқотда халқаро ва миллий амалиётлар асосида ESG ҳисоботларининг компания фаолияти шаффофлигини оширишдаги роли, молиявий барқарорлик ва инвесторлар билан ишончли муносабатларни шакллантиришдаги таъсир омиллари ёритилган. Шу билан бирга, мақолада Ўзбекистон корпоратив секторининг ESG ҳисоботларини жорий этишдаги ҳолати ва истиқбол йўналишлари ҳам таҳлил этилган.

Калит сўзлар: ESG ҳисоботи, корпоратив шаффофлик, инвесторлар ишончи, барқарор ривожланиш, корпоратив бошқарув, ҳисобдорлик.

Кириш

Жаҳон миқёсида барқарор ривожланиш ва жавобгар корпоратив фаолиятга бўлган талаб тобора ортиб бормоқда. Бунда ESG тамойилларига асосланган ҳисобот тизимлари компанияларнинг экологик, ижтимоий ва бошқарув соҳаларидаги фаолиятини баҳолашнинг муҳим мезони сифатида намоён бўлмоқда. ESG ҳисоботлари нафақат компаниянинг ички фаолиятида шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлайди, балки ташқи манфаатдор томонлар — инвесторлар, давлат тузилмалари ва жамоатчилик олдида ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Корпоратив шаффофликни таъминлашда ESG ҳисоботларининг ўрни жуда муҳим, чунки улар орқали компаниянинг барқарор ривожланиш стратегияси, ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги, ижтимоий масъулиятни бажариш даражаси ва бошқарув тизимининг очиқлиги намоён бўлади. Инвесторлар учун эса ESG ҳисоботлари компаниянинг молиявий барқарорлиги билан бир қаторда, унинг этик ва барқарор фаолиятга бўлган интилишини ҳам кўрсатиб беради.

Хусусан, халқаро амалиётларда ESG ҳисоботлари капитал бозорларидаги ишончли муносабатларни шакллантириш, инвестиция хатарларини камайтириш ва компания имиджини яхшилашнинг самарали воситаси сифатида қабул қилинмоқда. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистонда ҳам корпоратив бошқарув тизимида ESG стандартларини жорий этиш миллий иқтисодиётни барқарор ва рақобатбардош ривожлантириш учун стратегик аҳамият касб этади.

1. ESG ҳисоботларининг корпоратив бошқарув тизимидаги ўрни ва аҳамияти. ESG (Environmental, Social, Governance) ҳисоботлари замонавий корпоратив бошқарув тизимининг ажралмас қисми бўлиб, компанияларнинг барқарор ривожланиш йўналишларидаги фаолиятини тизимли равишда акс эттиради. Ушбу ҳисоботлар орқали компаниянинг экологик изи, ижтимоий муносабатлари ва бошқарув тизимининг самарадорлиги ҳақида ишончли маълумот тақдим этилади.

Халқаро амалиётда ESG ҳисоботлари корпоратив сиёсатнинг стратегик элементи сифатида қабул қилиниб, компаниянинг ишбилармонлик обрўси, бозордаги нуфузи ва инвесторлар олдидаги ишонч даражасига бевосита таъсир кўрсатади. Бу ҳисоботлар корпоратив фаолиятни шаффоф қилиш орқали манфаатдор томонлар — акциядорлар, инвесторлар, жамият ва давлат органлари билан самарали алоқаларни таъминлайди.

Корпоратив бошқарувнинг анъанавий моделларида асосий эътибор молиявий натижаларга қаратилган бўлса, ESG тамойилларини жорий этиш бу ёндашувни кенгайтириб, номуолиявий

кўрсаткичларни ҳам инобатга олади. Бу эса корхоналар фаолиятини узоқ муддатли барқарор ривожланиш билан боғлайди.

2. ESG ҳисоботлари ва корпоратив шаффофлик ўртасидаги боғлиқлик. Корпоратив шаффофлик — бу компания фаолияти ҳақидаги маълумотларнинг очиқ, ишончли ва фойдаланиш учун қулай бўлиши демакдир. ESG ҳисоботлари айнан шу мақсадга хизмат қилади. Ушбу ҳисоботлар орқали манфаатдор томонлар компаниянинг стратегик йўналишлари, ижтимоий ва экологик мажбуриятлари, бошқарув тизимидаги қарор қабул қилиш жараёнлари ҳақида кенг маълумотга эга бўладилар.

ESG ҳисоботлари шаффофликни таъминлашнинг институционал асосларидан бири бўлиб, улар компанияларнинг жавобгарлик даражасини оширади ва ҳисобдорлик маданиятини ривожлантиради. Халқаро стандартлар (масалан, GRI – Global Reporting Initiative, SASB – Sustainability Accounting Standards Board) асосида тайёрланган ҳисоботлар инвесторлар учун ишончли маълумот манбаи бўлиб хизмат қилади.

1-жадвал. Корпоратив шаффофликни таъминлашда ESG ҳисоботларининг асосий йўналишлари.

№	Йўналиш	ESG ҳисоботларининг тавсифи
1	Экологик ҳисобот (E)	Ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги, чиқиндиларни камайтириш ва энергия тежамкорлик сиёсати ҳақида маълумот беради
2	Ижтимоий ҳисобот (S)	Ходимлар ҳуқуқлари, меҳнат шароити, жамоатчилик билан муносабатлар ва корпоратив ижтимоий масъулият соҳасидаги фаолиятни акс эттиради
3	Бошқарув ҳисоботи (G)	Компания бошқарув структураси, этик қоидалар ва қарор қабул қилиш жараёнларидаги шаффофликни намоён қилади

3. ESG ҳисоботлари ва инвесторлар ишончи ўртасидаги муносабат. Инвесторлар учун ишонч — инвестиция қарорларини қабул қилишдаги асосий омиллардан биридир. ESG ҳисоботлари орқали тақдим этиладиган маълумотлар инвесторларга компания фаолиятининг молиявий барқарорлигидан ташқари, унинг ижтимоий ва экологик рискларга муносабатини ҳам баҳолаш имконини беради.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ESG ҳисоботларини мунтазам равишда эълон қиладиган компаниялар капитал бозорларида юқори баҳоланишга эга бўлади ва уларнинг акциялари камроқ хатарга дуч келади. Шу билан бирга, инвесторлар ESG кўрсаткичлари юқори бўлган компанияларга узоқ муддатли инвестицияларни йўналтиришга мойил бўладилар.

2-жадвал. ESG ҳисоботларининг инвесторлар ишончига таъсир этувчи асосий омиллари.

№	Таъсир этувчи асосий омиллар	ESG ҳисоботларининг таъсири
1	Маълумотларнинг ишончлилиги	ESG ҳисоботлари аудиторлик текширувидан ўтган бўлса, инвестор ишончи ошади
2	Халқаро стандартларга мослик	GRI, IFRS, ёки SASB талабларига мос келиши ҳисоботнинг нуфузини оширади
3	Даврийлик ва тизимлилик	Мунтазам равишда ESG ҳисоботини эълон қилиш компаниянинг барқарор фаолиятини кўрсатади
4	Мазмунли таҳлил	ESG ҳисоботларида фақат рақамлар эмас, балки фаолият натижалари таҳлили ҳам берилган бўлса, ишонч юқори бўлади

4. Ўзбекистон корпоратив секторида ESG ҳисоботларини жорий этиш истиқболлари. Ўзбекистонда ESG ҳисоботлари ҳали тўлиқ шаклланган амалиёт эмас, аммо сўнгги йилларда бу йўналишда муҳим қадамлар қўйилмоқда. Айниқса, йирик давлат иштирокидаги компаниялар ва жамиятчилик олдидаги ҳисобдорликни оширишга қаратилган ислоҳотлар

Ўзбекистон корпоратив сектори учун ESG ҳисоботларини жорий этиш нафақат корпоратив маданиятни яхшилайди, балки хорижий инвестицияларни жалб этишда ҳам муҳим омилга айланади.

ESG ҳисоботлари корпоратив бошқарув тизимида шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлашнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Ушбу ҳисоботлар орқали компаниялар ўз фаолиятини

барқарор ривожланиш тамойиллари билан уйғунлаштиради, инвесторлар эса ишончли ва аниқ маълумотлар асосида қарор қабул қилиш имконига эга бўлади.

Ўзбекистон шароитида ESG ҳисоботларини тўлиқ жорий этиш тизимли ва босқичма-босқич ислоҳотларни амалга оширишни талаб этади. Биринчидан, ҳуқуқий асосларни такомиллаштириш зарур, яъни миллий корпоратив бошқарув қонунчилигида ESG ҳисоботларини тайёрлаш ва эълон қилиш бўйича аниқ талаблар, мезонлар ҳамда жавобгарлик механизмлари белгилаб қўйилиши лозим. Бу, ўз навбатида, компаниялар фаолиятида ҳисобдорлик ва очиқликни таъминлайди, ҳамда уларнинг халқаро бозорлардаги нуфузини оширади.

Иккинчидан, институционал инфратузилмани ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада махсус ESG марказлари, стандартлар бўйича миллий агентликлар ёки мустақил рейтинг ташкилотларини ташкил этиш орқали компанияларнинг ҳисоботларини баҳолаш ва мониторинг қилиш тизимини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ. Бундай институтлар халқаро тажрибалар асосида ишлайдиган методологияларни жорий этиб, миллий компанияларнинг ESG ҳисоботларини халқаро форматга яқинлаштиради.

Учинчидан, ахборот инфратузилмасини такомиллаштириш ESG ҳисоботларининг самарадорлигини оширишнинг асосий омили ҳисобланади. Бу йўналишда рақамли маълумотлар базаси, интерактив ESG платформалари ва очиқ маълумотлар порталларини яратиш орқали компаниялар фаолиятининг экологик, ижтимоий ва бошқарув кўрсаткичларини онлайн режимда кузатиш имконини бериш керак. Ахборот тизимларининг интеграциялашуви ҳисоботларнинг сифатини яхшилайди ва фойдаланувчилар учун уларни таҳлил қилишни осонлаштиради.

Тўртинчидан, компанияларнинг корпоратив маданиятида жавобгарлик ва шаффофлик тамойилларини мустаҳкамлаш ESG ҳисоботларини амалда жорий этишнинг маънавий ва ташкилий пойдеворидир. Бунинг учун корпоратив раҳбарият ва ходимлар ўртасида барқарор ривожланиш қадриятларини шакллантириш, корпоратив ахлоқ кодексларига ESG стандартларини интеграция қилиш, ҳамда ESG бўйича мунтазам ўқув дастурларини йўлга қўйиш зарур.

ESG ҳисоботларини жорий этиш жараёнида халқаро ҳамкорлик ва тажриба алмашиш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистон компаниялари халқаро молия институтлари, стандарт белгилайдиган ташкилотлар (масалан, OECD, GRI) билан ҳамкорликда ESG моделини миллий шароитга мослаштириш орқали корпоратив бошқарув тизимининг барқарорлигини таъминлаши мумкин.

Шундай қилиб, ESG ҳисоботларини самарали татбиқ этиш нафақат ҳисобдорлик ва шаффофликни оширади, балки мамлакатда жамиятнинг давлат ва бизнесга бўлган ишончини мустаҳкамлайди, халқаро инвестиция муҳитини яхшилайди ҳамда Ўзбекистоннинг барқарор иқтисодий ривожланиш йўлидаги позициясини кучайтиради.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eccles, R. G., & Klimenko, S. (2019). *The Investor Revolution: Shareholders Leading the Way on Sustainability.* Harvard Business Review, 97(3), 106–116.
2. Kotsantonis, S., Pinney, C., & Serafeim, G. (2016). *ESG Integration in Investment Management: Myths and Realities.* Journal of Applied Corporate Finance, 28(2), 10–16.
3. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). *GRI Standards for Sustainability Reporting.* Amsterdam: GRI.
4. OECD. (2022). *Guidelines for Multinational Enterprises on Responsible Business Conduct.* Paris: OECD Publishing.
5. World Economic Forum (WEF). (2020). *Measuring Stakeholder Capitalism: Towards Common Metrics and Consistent Reporting of Sustainable Value Creation.* Geneva: WEF.

ҲУДУДЛАРНИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ОҚИМИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Худойқулов. С.К.
Иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513558

Маълумки, ҳудудларни ривожлантиришда **инвестицияларнинг роли** жуда муҳим бўлиб, улар иқтисодий ўсишни таъминлаш, иш ўринларини яратиш ва аҳолининг турмуш даражасини оширишнинг асосий омили ҳисобланади. Инвестициялар орқали йўллар, электр тармоқлари, сув таъминоти, транспорт ва алоқа тизимлари қурилади ва янгиланади. Бу эса ҳудуднинг иқтисодий салоҳиятини оширади. Инвестициялар саноат корхоналарини қуриш, аграр соҳани модернизация қилиш ва хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантиришга хизмат қилади. **Натижада** янги иш ўринлари яратилади, ҳудуд бюджетига солиқ тушумлари кўпаяди. Буни Сурхондарё вилояти мисолимда кўриб чиқишга ҳаракат қиламиз.

Вилоятда 2019 йил 25 декабрдаги “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида” ги қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 11 апрелдаги “Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПФ-3594-сонли, 2012 йил 10 апрелдаги “Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишини рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПФ-4434-сонли, 2017 йил 17 январдаги “Тадбиркорлик мақсадларида фойдаланиш учун давлат мулки объектларини сотишни жадаллаштириш ва унинг тартиб-таомилларини янада соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-4933-сонли ва 2018 йил 1 августдаги “Ўзбекистон Республикасида инвестиция муҳитини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5495-сонли фармонларига асосан бир қанча ишлар амалга оширилган.

Жумладан, ўтган 8 йил давомида 2,2 млрд доллар миқдорида хорижий инвестициялар ўзлаштирилган. 2017 йилда 18,2 млн доллар, 2018 йилда 91,1 млн доллар, 2019 йилда 222,6 млн доллар, 2020 йилда 221,2 млн доллар, 2021 йилда 243,7 млн доллар, 2022 йилда 250,1 млн доллар, 2023 йилда 460,8 млн доллар, 2024 йилда 689,2 млн доллар хорижий инвестициялар жалб қилинган. Хорижий инвестиция иштирокида корхоналар 483 тани ташкил этиб, 2017 йил 1 январга нисбатан 423 тага кўпайган. Жалб этилган тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг асосий қисми Хитой (323,1 млн доллар), Россия (69,7 млн доллар), Афғонистон (37,7 млн долл) давлатлари ҳиссасига тўғри келади.

1-жадвал.

Сурхондарё вилоятида тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар таҳлили[1] (млрд сўм)

№	Ҳудудлар	йиллар				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Термиз ш.	111,9	208,4	95,2	95,5	381,9
2	Олтинсой	40,1	40,6	15,6	-	-
3	Ангор	14,1	19,6	82,1	142,0	4,7
4	Бандихон	15,8	14,1	60,2	45,2	16,4
5	Бойсун	3 019,1	1 277,1	1 792,9	2 931,5	4 126,9
6	Музработ	106,6	14,1	90,6	282,0	230,3

[1] Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси Сурхондарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

7	Денов	37,6	143,5	36,5	5,1	94,4
8	Жарқўрғон	41,5	9,0	10,3	462,3	63,7
9	Қумқўрғон	49,3	0,5	16,8	18,6	7,6
10	Қизирик	0,5	78,2	68,0	15,0	7,0
11	Сариосиё	142,7	298,8	119,3	158,0	84,0
12	Термиз	141,7	54,5	68,5	134,1	154,4
13	Узун	101,6	113,5	45,3	103,8	218,2
14	Шеробод	373,1	51,1	3,7	4 183,4	297,8
15	Шўрчи	69,8	70,9	45,3	0,1	147,9
Вилоят бўйича жами		**4 265,5**	**2 394,0**	**2 550,4**	**8 576,6**	**5 835,2**

Сурхондарё вилоятининг асосий капиталга киритилган инвестициялар ичида тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар муҳим роль ўйнайди. Маълумки, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар бу – корхонага тўлиқ эгалик қилувчи ёки корхона акционерлик капиталининг 10 % дан кам бўлмаган қисмини назорат қилувчи, яъни корхонани бошқаришда иштирок этиш ҳуқуқиги эга бўлган, тўғридан-тўғри хорижий инвестор юридик ёки жисмоний шахс томонидан киритилган инвестициялар ҳисобланиб, бу кўрсаткич вилоятда 2021 йилда аввалги (2021 йилга) нисбатан қарийиб 2 мартага камайган бўлса, 2023 йилда 2022 йилга нисбатан эса, 3,4 мартага кўпайган, бироқ, 2024 йилда эса, 2023 йилга қараганда худди асосий капиталга киритилган инвестициялар миқдори каби 3 трлн сўмга камайгандир. Бунга Шеробод, Жарқурғон, Ангор, Сариосиё каби туманларда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб қилинишида камайиш кузатилганлиги билан изоҳланади.

2-жадвал.

Сурхондарё вилоятида асосий капиталга киритилган инвестициялар таҳлили[2] (млрд сўм)

№	**Ҳудудлар**	**йиллар**				
		2020	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
1	Термиз ш.	1 222,7	1 613,3	2 088,0	2 420,9	1 585,7
2	Олтинсой	350,2	345,2	267,3	356,4	687,9
3	Ангор	204,9	433,0	457,6	484,3	506,7
4	Бандихон	67,2	193,1	225,1	296,0	275,4
5	Бойсун	3 283,6	1 678,3	2 205,9	3 472,1	5 390,9
6	Музработ	332,3	554,9	368,0	533,8	493,7

[2] Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси Сурхондарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

7	Денов	647,1	1 297,9	1 271,2	1 151,9	907,5
8	Жарқўрғон	601,9	498,9	534,9	1 126,5	592,8
9	Қумқўрғон	345,8	553,8	490,6	557,9	567,4
10	Қизирик	176,2	350,6	320,4	407,0	245,0
11	Сариосиё	780,2	2 179,6	1 288,7	1 607,9	1 164,7
12	Термиз	861,3	852,1	830,2	697,3	1 010,5
13	Узун	250,2	347,4	251,3	289,2	391,3
14	Шеробод	651,1	749,2	553,8	4 559,3	910,6
15	Шўрчи	293,5	390,5	416,2	347,2	547,4
Вилоят бўйича жами		**10 068,2**	**12 037,8**	**11 569,4**	**18 307,7**	**15 277,5**

Сурхондарё вилоятининг иқтисодий салоҳиятига асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг таъсири каттадир. Бу ҳолатни таҳлили сифатида юқорида келтирилган 2-жадвалга эътибор қаратадиган бўлсак, вилоят бўйича бу кўрсаткич таҳлил қилинаётган йиллар ичида 2023 йил энгкўп миқдорни ташкил этиб, 18 307,7 млрд сўмни ташкил қилган, бироқ, 2024 йил якунлари бўйича эса, 2023 йилга нисбатан 3 трлн сўмдан кўпроқ миқдорга камайган. Буни туманлар кесимида қарайдиган бўлсак, энг катта улушни Бойсун туманига тўғри келмоқда, сабаби Бойсун туманида қиймати 2,9 млрд долларга тенг бўлган “Мустақилликнинг 25 йиллиги” газни қайта ишлаш лойиҳаси амалга оширилмоқда. Ушбу лойиҳа таъсисчилари “Surhan Investments Limited” АЖ, “Altmax Holding Ltd” – 75 фоиз, “Ўзбекнефтгаз” АЖ – 20 фоиз, “Gas Project Development Central Asia AG” – 5 фоиз ҳисобланади.

Лойиҳа майдони 3 980 километр квадрат бўлиб, М25 конининг майдони 62 километр квадратни ташкил этади. Лойиҳа ишга туширилгандан сўнг йилига 5 млрд метр куб газни қазиб чиқариш ва қайта ишлаш (юқори даражали олтингугурт таркибли) амалга оширилади. Бугунги кунга қадар лойиҳага 1 млрд 450 млн доллар инвестициялар жалб этилган бўлиб, 1 050 та иш ўрни ташкил этилган. Лойиҳанинг I босқичи 2024 йил май ойида ишга туширилиб, 2025 йилда тўлиқ қувватга олиб чиқилади. Бугунги кунда 20 та қудуқда бурғилаш ишлари якунланган, 2 та қудуқда бурғулаш ишлари амалга оширилмоқда. Шунингдек, 11 та қудуқда синов ишлари якунланган.

Вилоятда инвестиция дастурлари доирасида 2017-2024 йилларда жами қиймати 3 091,3 млн долларга тенг бўлган 6 901 та инвестиция лойиҳалари ишга туширилиб, уларда жами 85 722 та иш ўринлари яратилган. Жумладан, 2017 йилда 82,8 млн долларлик 592 та лойиҳа 9 519 та иш ўрни, 2018 йилда 331,5 млн доллар 1034 та лойиҳа 10 135 та иш ўрни, 2019 йил 251,7 млн доллар 861 та лойиҳа 6 119 та иш ўрни, 2020 йил 153,7 млн доллар 610 та лойиҳа 4 268 та иш ўрни, 2021 йил 249,2 млн доллар 1081 та лойиҳа 8 874 та иш ўрни, 2022 йил 591,8 млн доллар 956 та лойиҳа 15 173 та иш ўрни, 2023 йил 617,1 млн доллар 1 019 та лойиҳа 15 466 та иш ўрни, 2024 йил 813,5 млн доллар 748 та лойиҳа 16 178 та иш ўрни яратилган.

Саноатда 1953 та лойиҳаларда 1348 млн долларлик, 30568 та иш ўрни, шундан қурилиш материаллари 440,9 млн долларлик 782 та лойиҳаларда 9 996 нафар иш ўрни, Тўқимачилик 284,6 млн долларлик 216 та лойиҳаларда 8 774 нафар иш ўрни, Тоғ-кон 184,6 млн долларлик 14 та

лойиҳаларда 653 нафар иш ўрни, Энергетика 113,4 млн долларлик 14 та лойиҳаларда 563 нафар иш ўрни, Озиқ-овқат 85,6 млн долларлик 421 та лойиҳаларда 3 116 нафар иш ўрни, бошқаларда эса 239 млн долларлик 506 та лойиҳаларда 7 466 нафар иш ўрни яратилган.

Хизмат кўрсатишда 3159 та лойиҳаларда 1196,3 млн долларлик, 29081 та иш ўрни, шундан савдода 264 млн долларлик 536 та лойиҳаларда 3 616 нафар иш ўрни, уй жой қурилишида 222,4 млн долларлик 113 та лойиҳаларда 2 927 нафар иш ўрни, маиший хизматда 156,3 млн долларлик 827 та лойиҳаларда 7749 нафар иш ўрни, бошқаларда эса 554 млн долларлик 1683 та лойиҳаларда 14 789 нафар иш ўрни яратилган.

Қишлоқ хўжалигида 1789 та лойиҳаларда 547 млн долларлик, 26073 та иш ўрни, шундан иссиқхона ташкил қилишда 121,7 млн долларлик 391 та лойиҳаларда 4 732 нафар иш ўрни, чорвачиликда 59,4 млн долларлик 422 та лойиҳаларда 2 482 нафар иш ўрни, томчилатиб суғоришда 56 млн долларлик 81 та лойиҳаларда 2494 нафар иш ўрни, бошқаларда эса 310 млн долларлик 895 та лойиҳаларда 16 365 нафар иш ўрни яратилган.

2017-2024 йиллар мобайнида вилоятдаги экспортёр корхоналар томонидан жами 1,8 млрд долларлик товарлар экспортга чиқарилган. Асосан, ҳудудлар кесимида Денов туманида 237 млн доллар, Термиз тумани 200 млн доллар, Жарқўрғон туманида 186 млн доллар, Шеробод туманида 173 млн долларлик экспорт амалга оширилган бўлса, Бандихон туманида 28,6 млн долларлик ва Бойсун туманида 47 млн долларлик экспорт амалга оширилган холос.

Хулоса қилиб айтганда Сурхондарё вилоятида инвестициялар оқими кейинги йилларда нисбатан ошиб борган бўлса, бугунги кунда асосий муаммолардан бири сифатида ушбу инвестицияларнинг ялпи ҳудудий маҳсулотни оширишга таъсири етарли деб бўлмайди. Шу боисдан ушбу вазифаларга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади:

Бунинг учун фикримизча, ҳуддуда (Сурхондарёда) инвестициялардан **самарали фойдаланиш йўллари сифатида** мавжуд ресурслар, иқтисодий салоҳият ва маҳаллий эҳтиёжлардан оқилона фойдаланиш орқали инвестицияларнинг қайтаримини (самарадорлигини) оширишга қаратилган чоралар тизимини реал прогноз қийматларини аниқлаб бориш керак бўлади, уларнингялпи ҳудудий маҳсулотга таъсирини объектив баҳолаш керак бўлади.

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MASALALARI

dotsent **Abishov Muxammed Sarsenbaevich**[1]
v.b. dotsent **Jumanova Venera Arepbaevna**[2]
Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus
E-mail: muxammedabishov@gmail.com, jumanovavenera60@gmail.com
Tel: +998 88 507 00 82, +998 99 597 78 65
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513586

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayonida fiskal barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy masalalari tahlil qilinadi. Fiskal siyosatning asosiy yo‘nalishlari, soliq-byudjet mexanizmlarini modernizatsiya qilish jarayonlari, daromad manbalarining diversifikatsiyasi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi davlat siyosatining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba (OECD, Janubiy Koreya, Qozog‘iston) asosida O‘zbekiston uchun mos keluvchi model takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat byudjeti, fiskal siyosat, fiskal barqarorlik, soliq daromadlari, byudjet defitsiti, makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal islohotlar.

Hozirgi davrda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda fiskal barqarorlikni ta'minlash masalasi iqtisodiy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida global moliyaviy inqirozlar, iqtisodiy o‘sish sur'atlarining sekinlashuvi, energiya narxlaridagi o‘zgarishlar va geosiyosiy beqarorlik fiskal barqarorlikni mustahkamlash zaruratini kuchaytirmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimi tubdan yangilandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-avgustdagi PQ–4803-son “Davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori orqali fiskal siyosatning o‘rta muddatli rejalashtirish tizimi joriy etildi [2]. Mazkur hujjat davlat byudjeti siyosatini iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va aholining farovonligini oshirish bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Fiskal barqarorlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) ta'rifiga ko‘ra, fiskal barqarorlik — bu davlatning o‘z majburiyatlarini uzoq muddat davomida muammosiz bajarish, byudjet defitsitini nazorat ostida ushlab turish va qarz yukini iqtisodiy o‘sish sur'atlariga mutanosib ravishda boshqarish qobiliyatidir [3].

O‘zbekiston sharoitida fiskal barqarorlikni ta'minlashda soliq siyosatining samaradorligi, daromadlar bazasining kengayishi va byudjet intizomini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy majburiyatlari (ta'lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya) hajmi ortib borayotgani sharoitida fiskal yukning ortiqcha bo‘lishi makroiqtisodiy muvozanatga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, davlat moliyasida daromadlar va xarajatlar o‘rtasida optimal nisbatni saqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir [4].

Davlat byudjeti daromadlari mamlakat iqtisodiy tizimining moliyaviy asosi bo‘lib, u davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini bajarish imkonini beradi. Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoni fiskal siyosatning eng muhim elementi hisoblanadi. Davlat daromadlari tizimi, avvalo, soliq daromadlari, soliqsiz tushumlar, davlat mulkidan olinadigan foyda, hamда xorijiy moliyaviy yordam kabi manbalardan tashkil topadi [5].

Iqtisodiy nazariyada davlat byudjeti daromadlarining barqarorligi uch asosiy tamoyilga tayanadi:

1. Fiskal yetarlilik – davlat xarajatlarini to‘liq qoplash uchun daromadlar hajmi yetarli bo‘lishi kerak;
2. Fiskal adolat – soliqqa tortish tizimi ijtimoiy tenglikni ta'minlashi lozim;
3. Makroiqtisodiy barqarorlik – soliq-byudjet siyosati iqtisodiyotda barqaror o‘sish sur'atlarini saqlashi kerak [6].

Klassik iqtisodchilar, xususan, A. Smit va D. Rikardo nazariyalarida fiskal siyosat “davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi” bilan izohlanadi. Smitning fikricha, davlat fiskal siyosatni iqtisodiy faoliyatni

qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va moliyaviy intizomni saqlash vositasi sifatida yuritishi lozim.

Zamonaviy sharoitda esa fiskal barqarorlik tushunchasi nafaqat daromadlar barqarorligiga, balki davlat qarzining xavfsiz darajada ushlab turilishiga ham tayanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, fiskal barqarorlikni saqlash uchun davlat qarzining YaIMga nisbati 60 foizdan oshmasligi tavsiya etiladi (Maastricht mezonlari) [7].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, davlat moliyasini isloh qilish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida davlat byudjeti ochiqligi, soliq siyosatini soddalashtirish, va byudjet xarajatlarini optimallashtirishga katta e’tibor qaratildi [8].

2020-yildan boshlab “O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi”ning yangi tahriri amaliyotga tatbiq etilishi fiskal boshqaruvda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu kodeksda fiskal siyosatning asosiy tamoyillari — oshkoralik, samaradorlik, javobgarlik va barqarorlik sifatida belgilandi [9].

Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etadi. 2024-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlari 400 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, shundan 82 foizi soliq daromadlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu fiskal siyosatning daromad manbalari bo‘yicha nisbatan barqaror holatda ekanligini ko‘rsatadi.

Soliq siyosatini takomillashtirish sohasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda:

- soliq stavkalarini pasaytirish va soliq bazasini kengaytirish;
- soya iqtisodiyoti ulushini kamaytirish;
- raqamli soliq tizimini joriy etish (e-Soliq, Soliq mobil ilovalari);
- hududiy byudjetlar mustaqilligini kuchaytirish.

2023-yil 1-yanvardan boshlab QQS stavkasining 15 foizdan 12 foizgacha tushirilishi korxonalar likvidligini oshirishga, soliq to‘lov intizomini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, soliq yuki kamaygani hisobiga ko‘plab kichik biznes sub’yektlari “soya”dan rasmiy sektorga o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda davlat qarzi YaIMning 38,2 foizini tashkil etgan bo‘lib, bu xalqaro mezonlarga mos, xavfsiz darajada saqlanmoqda [10]. Bu fiskal barqarorlikni saqlashda qarz siyosatining nisbatan ehtiyotkorona yuritilayotganidan далолат беради.

Fiskal barqarorlikka erishish jarayonida o‘rta muddatli fiskal rejalashtirish tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har yili “O‘rta muddatli byudjet prognozi” (Medium-Term Fiscal Framework) e’lon qilinmoqda. Mazkur hujjat davlat byudjeti siyosatini strategik rejalashtirish, daromad va xarajatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash imkonini beradi [11].

Bundan tashqari, hududiy fiskal barqarorlik masalasi ham dolzarbdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari endilikda “mustaqil daromad manbalari”ga ega bo‘lib, ularning hududiy soliq tushumlari (masalan, jismoniy shaxs daromad solig‘i, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i) hududda qolmoqda. Bu esa fiskal desentralizatsiya tamoyillarining amalda qaror topayotganini bildiradi [12].

O‘zbekiston iqtisodiyotida fiskal barqarorlikni mustahkamlashning asosiy sharti — bu byudjet daromadlarini barqaror va prognozli manbalar hisobidan shakllantirishdir. Bugungi kunda mamlakatda daromadlar bazasini kengaytirishning quyidagi manbalari shakllangan:

1. Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish – so‘nggi yillarda “Elektron soliq tizimi”, “Soliq mobil ilovasi”, “onlayn nazorat-kassa mashinalari” tizimlari joriy etilishi natijasida yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli qisqardi. Natijada 2021–2024 yillar davomida soliq tushumlari hajmi 1,5 baravar oshdi [13].

2. Iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish – kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlariga soliq yengilliklari, subsidiyalar, kredit kafolatlari berilishi natijasida soliq bazasi kengaymoqda. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot” yo‘nalishidagi loyihalarga soliq imtiyozlari fiskal bazani diversifikatsiya qilmoqda [14].

3. Davlat mulkini xususiylashtirish – 2023–2024 yillarda O‘zbekiston davlat aktivlarini xususiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha 1,3 trillion so‘mlik bitimlarni amalga oshirdi. Bu jarayon byudjet daromadlariga qo‘shimcha manba bo‘ldi [15].

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olinadigan daromadlar – eksport tushumlarining o‘sishi, bojxona to‘lovlari va aksiz soliqlarining oshishi fiskal barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, 2024-yilda bojxona daromadlari 2020-yilga nisbatan 62 foizga oshdi [16].

Fiskal siyosatning samaradorligini oshirish maqsadida 2022-yildan boshlab “Fiskal qoidalar tizimi” joriy etildi. Ushbu tizimga ko‘ra, davlat qarzi va byudjet taqchilligi uchun limitlar belgilanib, fiskal intizomni ta’minlash mexanizmlari mustahkamlandi. Bunda davlat qarzining YaIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligi, byudjet defitsitining 3 foizdan ortiq bo‘lmasligi kabi cheklovlar kiritilgan [17].

Shuningdek, 2025-yildan boshlab “Yagona fiskal axborot tizimi” (Integrated Fiscal Management Information System) ishga tushirilmoqda. Ushbu tizim yordamida daromad va xarajatlar real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Natijada byudjet intizomi, shaffoflik va javobgarlik darajasi oshadi.

Umuman olganda, fiskal siyosatdagi islohotlar quyidagi natijalarni berdi:

- byudjet defitsiti 2021-yildagi 4,2 % dan 2024-yilda 2,9 % gacha kamaydi;
- davlat qarzining o‘sish sur’ati sekinlashdi;
- mahalliy byudjetlarning o‘z manbalaridan moliyaviy ta’minlanish darajasi oshdi;
- makroiqtisodiy barqarorlik saqlanib qoldi.

Fiskal barqarorlikni ta’minlash borasida rivojlangan mamlakatlarning tajribasi O‘zbekiston uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Janubiy Koreya tajribasi – bu mamlakatda fiskal siyosatning asosiy tamoyili “byudjet barqarorligi va innovatsion iqtisodiyot uyg‘unligi”dir. Hukumat daromadlarning barqaror o‘sishini ta’minlash maqsadida soliq tizimini innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltiradi. Soliq daromadlarining 15–20 foizi IT va texnologiyalar sohasiga qayta investitsiya qilinadi [18].

Qozog‘iston tajribasi – fiskal siyosat neft daromadlarining yuqori o‘zgaruvchanligidan himoya qilish uchun “Milliy jamg‘arma” orqali barqarorlashtirildi. Bu fondning 30 foizi byudjetni qo‘llab-quvvatlash, qolgan qismi esa investitsion loyihalarga yo‘naltiriladi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot jamg‘armasi”**ni tashkil etib, o‘xshash modelni bosqichma-bosqich joriy etmoqda [19].

OECD mamlakatlarida esa fiskal siyosatning barqarorligi “fiskal shaffoflik” va “avtomatik stabilizatorlar” tamoyiliga asoslangan. Ya’ni, iqtisodiy pasayish davrida soliqlar kamayadi va ijtimoiy xarajatlar avtomatik oshadi. Bu tizim iqtisodiy sikllarni yumshatish imkonini beradi [20].

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalardan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- fiskal siyosatni iqtisodiy sikllarga moslashuvchan qilish zarur;
- davlat xarajatlarini investitsion va ijtimoiy yo‘nalishlarga aniq ajratish mexanizmini kuchaytirish lozim;
- fiskal barqarorlikni nazorat qiluvchi mustaqil tahliliy organ (masalan, “Fiscal Council”) tashkil etish maqsadga muvofiq;
- milliy fiskal qoida tizimini qonun darajasida mustahkamlash zarur.

Umuman olganda, Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda fiskal barqarorlikni ta’minlash — bu nafaqat moliyaviy, balki strategik iqtisodiy vazifa hamdir. O‘zbekiston so‘nggi yillarda fiskal siyosatda muhim natijalarga erishdi: soliq ma’murchiligi soddalashdi, raqamlashtirish kuchaydi, hududiy byudjetlar mustaqilligi ortdi.

Shu bilan birga, kelgusida fiskal barqarorlikni yanada mustahkamlash uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Soliq ma’murchiligida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;
2. O‘rta muddatli fiskal rejalashtirish tizimini barcha hududlarda kengaytirish;
3. Davlat qarzini boshqarishda “qarz barqarorligi indeksi”ni ishlab chiqish;
4. Mahalliy byudjetlarning o‘z daromad manbalarini kengaytirish orqali fiskal mustaqillikni oshirish;
5. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholovchi “Performance Budgeting” tizimini tatbiq etish.

Mazkur yo‘nalishlar O‘zbekiston fiskal siyosatining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash, makroiqtisodiy xavfsizlikni saqlash va ijtimoiy sohani moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. IMF (2023). Fiscal Policy and Economic Stability Report. Washington D.C.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4803-son qarori, 24.08.2020-y.
3. IMF (2022). Fiscal Sustainability Framework for Developing Economies.
4. Moliya vazirligi (2024). Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot. www.mf.uz
5. Stiglitz J. (2019). Economics of the Public Sector. New York: Norton.
6. Musgrave R. (1959). The Theory of Public Finance. McGraw-Hill.
7. European Union (1992). Maastricht Treaty Criteria. Brussels.
8. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2020-yilgi tahriri.
9. OECD (2021). Budget Transparency Toolkit. Paris.
10. Jahon banki (2023). Uzbekistan Public Expenditure Review. Washington D.C.
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024). O‘rta muddatli fiskal strategiya.
12. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari (2024).
13. Davlat soliq qo‘mitasi (2024). Soliq statistikasi to‘plami.
14. UNDP (2023). Green Fiscal Policy in Transition Economies.
15. Davaktiv agentligi (2024). Davlat aktivlarini xususiylashtirish dasturi.
16. Bojxona qo‘mitasi (2024). Yillik statistik to‘plam.
17. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022). Fiskal qoidalar to‘g‘risidagi nizom.
18. Korean Development Institute (2022). Fiscal Policy for Innovation Growth. Seoul.
19. Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi (2023). National Fund Annual Report.
20. OECD (2023). Economic Outlook and Fiscal Rules Review.

SOLIQ QARZDORLIGI: SABABLARI, TAHLILI VA UNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI

Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich
Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus
Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti “Moliya va bank ishi kafedrasi” katta o‘qituvchisi
tel: +998 93 222 22 17
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513627

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda O‘zbekiston Respublikasida soliq qarzdorligining kelib chiqish sabablari, uni kamaytirishning huquqiy va institutsional mexanizmlari, shuningdek xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan takliflar tahlil qilingan. Soliq qarzdorligi davlat byudjetining barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida baholangan hamda qarzdorlikni qisqartirishda soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish va monitoring tizimlarini rivojlantirishning roli yoritilgan.

Kirish Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai bo‘lgan soliqlar to‘liq undirilmaganda, byudjet barqarorligi buziladi va fiskal siyosat samaradorligi pasayadi. Shu sababli, soliq qarzdorligi muammosi har bir davlatning fiskal siyosatida muhim nazorat obyekti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda soliq islohotlari natijasida qarzdorlik hajmini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali ham tizimli muammolar mavjud.

Soliq qarzdorligi nafaqat davlat byudjeti daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki tadbirkorlik subyektlarining likvidlik darajasini pasaytiradi, investitsion faollikni cheklaydi va soliq intizomini susaytiradi. Shu bois, soliq qarzini tahlil qilish, uning tarkibi, shakllanish sabablari hamda undirish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish zarurdir.

Soliq qarzdorligining mohiyati va sabablari

Soliq qarzdorligi — bu soliq to‘lovchining belgilangan muddatda to‘lamagan soliq majburiyatlari yig‘indisidir. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasiga ko‘ra, soliq qarzi soliq to‘lovchi tomonidan to‘lov muddati o‘tgan, ammo to‘lanmagan majburiyat sifatida hisoblanadi.

Soliq qarzdorligining kelib chiqishiga quyidagi asosiy **sabablari**ni ko‘rsatish mumkin:

- ✓ **Moliyaviy likvidlik tanqisligi** — korxonalar daromadlarining kamayishi yoki xarajatlarning ortishi natijasida soliqni o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatining yo‘qolishi;
- ✓ **Hisob-kitobdagi xatoliklar** — buxgalteriya hisobotlarida yoki elektron tizimlarda xato to‘ldirilgan ma’lumotlar natijasida noto‘g‘ri qarz shakllanishi;
- ✓ **Soliq ma’muriyatchiligining yetarli emasligi** — monitoring tizimlari sustligi yoki tekshiruvlar samaradorligining pastligi;
- ✓ **Soliq to‘lovchilarning ong darajasi pastligi** — ayrim fuqarolar va korxonalar tomonidan soliqni to‘lash majburiyatiga befarq munosabatda bo‘lish.
- ✓ Shuningdek, makroiqtisodiy omillar (inflyatsiya, kredit resurslari yetishmasligi, ishlab chiqarish hajmining kamayishi) ham soliq qarzdorligining o‘sishiga sabab bo‘ladi.

Soliq qarzdorligini undirish mexanizmlari

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va “Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida”gi qonun soliq qarzlarini undirish bo‘yicha aniq mexanizmlarni belgilaydi. Ushbu mexanizmlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. **Ixtiyoriy to‘lov bosqichi** – soliq organi qarzdorga bildirishnoma yuboradi, belgilangan muddatda to‘lov amalga oshirilmasa, keyingi choralarga o‘tiladi.
2. **Majburiy undiruv bosqichi** – soliq organi qarzdorning bank hisobvarag‘iga taqiq qo‘yadi, mol-mulkini xatlaydi yoki MIB orqali undiruvni amalga oshiradi.
3. **Sud tartibida undirish** – sud qarori asosida mol-mulk realizatsiya qilinadi yoki majburiy tartibda to‘lov amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, soliq to‘lovchining moliyaviy holatini inobatga olgan holda quyidagi **yengilliklar** qo‘llaniladi:

✓ Soliq qarzini **bo‘lib-bo‘lib to‘lash**;

- ✓ **Kechiktirish** (moratoriy) berish;
- ✓ **Penya va jarimalarni kamaytirish** yoki bekor qilish.

Bu mexanizmlar soliq to‘lovchilarning barqaror faoliyatini saqlab qolish hamda davlat manfaatlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Soliq qarzdorligini kamaytirish bo‘yicha takliflar

Soliq qarzdorligini samarali boshqarish uchun quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni chuqurlashtirish zarur:

- ✓ **Elektron monitoring tizimini kengaytirish.** “Soliq qarzlarini monitoring qilish” platformasini avtomatlashtirish orqali qarzdorlik holatini real vaqt rejimida kuzatish.
- ✓ **Ma’muriy ko‘rsatkichlarni integratsiyalash.** DSQ, MIB, bank tizimi va Adliya organlari o‘rtasida yagona ma’lumotlar bazasini yaratish.
- ✓ **Moliyaviy rag‘bat tizimini joriy etish.** O‘z vaqtida soliq to‘laydigan tadbirkorlar uchun imtiyozli kredit yoki tenderlarda ustunlik berish.
- ✓ **Xalqaro tajribani joriy etish.** Polsha, Niderlandiya, Rossiya kabi mamlakatlarda soliq qarzini avtomatik hisobga olish va risklarni baholash tizimlaridan foydalanish.
- ✓ **Soliq madaniyatini oshirish.** Soliq to‘lovchilarga ma’rifiy va maslahat xizmatlarini kengaytirish orqali soliq intizomini mustahkamlash.
- ✓ **Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasida soliq qarzdorligini kamaytirish masalasi fiskal siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatda yaratilgan huquqiy baza va elektron nazorat tizimlari qarzdorlikni aniqlash va undirishda samaradorlikni oshirmoqda. Shu bilan birga, soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish, xalqaro tajribalarni milliy tizimga tatbiq etish hamda soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro ishonch asosidagi hamkorlikni kuchaytirish kelgusida soliq qarzlarini yanada kamaytirish imkonini beradi.

Soliq qarzdorligini to‘g‘ri boshqarish nafaqat davlat byudjetining barqarorligini ta’minlaydi, balki iqtisodiy o‘sish, investitsion muhitning yaxshilanishi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi hisobotlari, 2020–2024 yillar. – https://soliq.uz
3. “Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil 29-avgust.
4. Hybka M. M. (2022). Collecting and Managing Tax Debt in Poland. Poznan University of Economics.
5. Jahon banki (2023). Improving Domestic Revenue Mobilization in Transition Economies. Washington D.C.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BYUDJETI SHAKILLANISHIDA TO‘G‘RI SOLIQLARNING AHAMIYATI

Safaraliyev Basir Norboyevich [1]
Abduraximov Qamariddin Shamsiddin o‘g‘li [2]
[1] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
tel:+998 (97)-076-08-80 E-mail: safaraliyevbasir@gmail.com
[2] Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
ta’lim yo‘nalishi 4– bosqich talabasi
Tel: +99 888 084 15 15 E mail: qamariddinabdurahimov22@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513656

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimida to‘g‘ri soliqlarning o‘rni keng yoritilgan. Byudjet daromadlarining shakllanishida to‘g‘ri soliqlarning ulushi, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri hamda 2024–2025-yillardagi statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil o‘tkazilgan.Shuningdek, soliqqa tortish siyosatining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ri soliqlar, davlat byudjeti, moliyaviy siyosat, soliq islohotlari, byudjet daromadlari, soliq ma’muriyati, iqtisodiy rivojlanish, soliq siyosati.

Kirish

Davlat byudjeti mamlakat iqtisodiyotining asosiy moliyaviy tayanchi va iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning eng muhim vositasidir. Byudjet orqali davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini moliyalashtiradi, milliy xavfsizlikni ta’minlaydi, infratuzilmani rivojlantiradi hamda aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosatni yuritadi. Shu bois byudjet daromadlarining manbalari va ularni shakllantirish mexanizmlari davlat moliya tizimining barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.Byudjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Soliqlar — davlatning iqtisodiy qudratini ifodalovchi, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi eng muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Ular orqali davlat nafaqat byudjetni to‘ldiradi, balki iqtisodiyotni tartibga soladi, investitsiya muhitini yaxshilaydi hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Soliqlar, odatda, to‘g‘ri va bilvosita (egri) soliqlarga ajratiladi. To‘g‘ri soliqlar — bu soliqqa tortish manbai bo‘lgan daromad yoki mulk egasining o‘z mablag‘idan to‘lanadigan soliqlardir. Bunday soliqlar soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yirik daromadga ega shaxs yoki korxona kam daromadli subyektga nisbatan ko‘proq soliq to‘laydi, bu esa iqtisodiy adolat tamoyilini ta’minlaydi.

Asosiy qism:

To‘g‘ri soliqlarning iqtisodiy mohiyati ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq to‘lovchining daromad manbaiga bog‘liqligidadir. Bu soliqlar davlatga iqtisodiy barqarorlikni saqlash, inflyatsiyani nazorat qilish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ri soliqlarning ulushi yildan yilga o‘zgarib, soliq siyosati islohoti bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekistonda to‘g‘ri soliqlarga quyidagilar kiradi:

- ✓ Yuridik shaxslarning foyda solig‘i,
- ✓ Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i,
- ✓ Mulk solig‘i,
- ✓ Yer solig‘i,

Mazkur soliqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning foydasi, daromadi yoki mulki asosida undiriladi va ularning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 2024-yildagi soliq tizimini yanada kengroq isloh qilishini davlat byudjetida soliqlarning salmog’ini yanada kengaytirdi. Tadbirkorlarga esa yengilliklar olib keldi.

Yil	Davlat byudjeti daromadlari (trln so‘m)	To‘g‘ri soliqlar ulushi (%)	Asosiy soliqlar (daromad, foyda, mulk)

2023	273.5	42.3	Daromad solig‘i – 18,7%, foyda solig‘i – 16,1%, mulk solig‘i – 8,4%
2024	310.8	44.1	Daromad solig‘i – 19.2%, foyda solig‘i – 15.6%, mulk solig‘i – 9.3%
2025*	336.2 (prognoz)	45.0	Daromad solig‘i – 20.3%, foyda solig‘i – 15.8%, mulk solig‘i – 8.9%

1-jadval: 2024–2025-yillardagi to‘g‘ri soliqlar bo‘yicha byudjet daromadlari tahlili[1]

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari yuzasidan shuni aytishimiz mumkunki respublikamizda 2023–2025-yillar davomida davlat byudjeti daromadlari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2023-yilda davlat byudjeti daromadlari jami 273,5 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 310,8 trillion so‘mga etgan va bu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 431,1 trillion so‘mlik prognozi kutilmoqda. Bu holat mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmining ortishi, eksport salohiyatining kengayishi, soliq bazasining barqarorlashuvi hamda soliqqa tortish tizimining raqamlashtirilishi bilan izohlanadi. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlarning ulushi 2023-yilda 44 foizni tashkil etgan. Ushbu o‘sish fiskal siyosatning samarali amalga oshirilayotganini, soliq ma’murchiligi sifatining yaxshilanganini hamda iqtisodiy faol subyektlarning soliqqa tortish bazasi kengayganini anglatadi.

Davlar byudjet daromadlari

Ko'rsatkichlar		**2022**	**2023**	**2024**
		yillik		
I. Daromadlar		**201 863,70**	**231 721,30**	**274 423**
1.	**Bevosita soliqlar**	**64 447,10**	**73 103,60**	**90 833**
1.1	Foyda solig'i	37 649,90	40 778,90	52 620
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 284,50	29 917,40	2 829
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	2 512,70	2 407,30	35 384
2.	**Bilvosita soliqlar**	**71 390,20**	**83 325,80**	**88 341**
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	52 189,40	57 885,30	59 280
2.2	Aksiz solig'i	13 455,00	15 834,40	19 060
2.3	Bojxona boji	5 745,70	9 606,10	10 001
3.	**Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i**	**23 912,80**	**28 079,50**	**36 363**
3.1	Mol-mulk solig‘i	4 015,40	5097,7	6 805
3.2	Yer solig'i	5 305,90	6 890,10	8 216
3.3	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	13 887,40	15 300,30	20 170
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	704,1	791,4	1 173
4	**Boshqa daromadlar**	**42 113,70**	**47 212,50**	**58 886**

2022-2024-yillar Davlat byudjeti daromadlari[2]

Soliq turlari kesmida ushbu yo‘nalish bo‘yicha quydagi ko‘rsatkichlarga ega jumladan: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha o‘sish dinamikasi 2022 yilga nisbata 2023-yilda 19 foizga,

[1]Fuqarolar uchun byudjet ijrosi 2024 yil Toshkent ,
[2] Fuqarolr uchun byudjet ijrosi

2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 21,2 foizga yetgan. Bu, avvalo, aholining rasmiy bandlik darajasining ortgani, ish haqlarning oshishi, mehnat bozorining elektron tizimlar orqali tartibga solinayotgani va “soya iqtisodiyoti” qisqarayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, “my.soliq.uz” platformasi orqali soliq to‘lovchilarning daromadlarini elektron kuzatish tizimi kengaygani natijasida soliqqa tortish shaffofligi sezilarli darajada oshgan. Foyda solig‘i bo‘yicha 2023-yilda 16,1 foizni tashkil etgan ulush 2024-yilda biroz kamayib, 15,6 foizga yetdi. Bu pasayishning sabablari sifatida ayrim strategik tarmoqlarda reinvestitsiya siyosatining kuchaygani, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish uchun foyda solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlar, shuningdek, eksport faoliyatini rag‘batlantirish choralari keltiriladi. Shu bilan birga, bu holat davlatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadidagi siyosatini aks ettiradi. Mulk solig‘i esa 2023-yilda 8,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 9,3 foizgacha oshgan. Bu, asosan, kadastr qiymatlarini yangilash, mulkni qayta baholash jarayonlari, va yuridik shaxslarning balans aktivlarida o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, mahalliy byudjetlar daromad manbalarini mustahkamlash uchun mulk solig‘i bo‘yicha ma’murchilikni kuchaytirish ishlari olib borilmoqda.

Umuman olganda, 2023–2025-yillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ri soliqlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy va barqaror qismini tashkil etadi. Ulushning yildan-yilga ortib borayotgani iqtisodiy faollikning kengaygani, soliqqa tortish mexanizmlarining soddalashtirilgani, elektron hisobot tizimlarining takomillashgani va tadbirkorlik subyektlarining soliqqa rioya qilish madaniyatining oshganidan dalolat beradi.

Shuningdek, to‘g‘ri soliqlarning yuqori ulushi davlatga ijtimoiy yo‘naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, va hududiy rivojlanish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu sababli, ushbu soliqlar fiskal siyosatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlovchi eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kelgusi yillarda soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish, raqamli nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va soliq yuki balansini saqlash orqali to‘g‘ri soliqlar ulushi 2026-yilda 46 foizdan oshishi kutilmoqda. Bu esa O‘zbekiston byudjet tizimining barqaror moliyaviy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

.So‘nggi yillarda dunyo miqyosida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar, xususan, global moliyaviy inqirozlar, pandemiyalar va geosiyosiy tangliklar davlatlarning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqtisodiy inqiroz sharoitida ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, bandlik darajasining pasayishi va aholi daromadlarining kamayishi natijasida davlat byudjeti tushumlari ham kamayadi. Shu jarayonda **to‘g‘ri soliqlar** — ya’ni jismoniy va yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar — byudjetni barqaror saqlab turishda muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Inqiroz sharoitida davlatning eng asosiy vazifalaridan biri — iqtisodiyotdagi beqarorlikni yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘ladi. Bunday davrda to‘g‘ri soliqlarning ahamiyati yanada ortadi, chunki ular iqtisodiy pasayish sharoitida ham nisbatan barqaror tushum manbai hisoblanadi. Masalan, O‘zbekistonda inqiroz yillarida daromad solig‘i, foyda solig‘i va ijtimoiy to‘lovlarning o‘z vaqtida yig‘ilishi davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy inqiroz paytida hukumatlar soliq siyosatini yumshatish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy yukini kamaytirishga intiladilar. Masalan, ayrim sohalar uchun soliq stavkalari vaqtincha pasaytiriladi, soliq to‘lov muddatlari kechiktiriladi yoki kichik biznes uchun imtiyozlar joriy qilinadi. Bu esa iqtisodiy faollikni saqlash va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Shu jarayonda to‘g‘ri soliqlarning moslashuvchanligi ularni inqiroz davrida eng samarali fiskal instrumentlardan biriga aylantiradi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishining asosiy moliyaviy poydevorini tashkil etadi. Byudjet daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlarning yuqori ulushi shuni ko‘rsatadiki, ushbu soliqlar davlat moliya siyosatining eng muhim va barqaror manbalaridan biridir. 2023–2025-yillar ma’lumotlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, daromad, foyda va mulk soliqlari bo‘yicha tushumlar yil sayin o‘sib bormoqda va bu mamlakatda soliq ma’murchiligi, fiskal intizom hamda iqtisodiy faollik darajasining oshganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy inqiroz davrida to‘g‘ri soliqlar davlat byudjeti uchun eng ishonchli va barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri boshqarilishi, soliq siyosatining moslashuvchanligi hamda soliqqa tortish bazasining kengaytirilishi davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, har qanday iqtisodiy inqiroz sharoitida to‘g‘ri soliqlarni oqilona boshqarish davlat moliya siyosatining markazida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ochiq ma’lumotlar portali (2024).
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar (2024–2025).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 10.02.2023 yildagi PF-21-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy hisobotlari (https://stat.uz).
5. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVF) – Soliq boshqaruvi bo‘yicha tavsiyalar (2024).

G‘AZNACHILIKDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR

Safaraliyev Basir Norboyevich [1]
Chorshanbiyev Diyor[2]
[1] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
tel:+998 (97)-076-08-80 E-mail: safaraliyevbasir@gmail.com
[2] Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email: diyorchorshanbiyev@gmail.com
Telefon raqami:+998910755100
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513688

Anotatsiya: Ushbu tezisda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida samarali davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyatining joriy holati tahlili keltirilgan. Shuningdek, davlat byudjetining g’azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalarining barcha daromadlarini, jumladan, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha tushumlarini yagona g’azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishdagi holati natijadorligi. Bu esa davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko’rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag’larining samarali ishlatilishini ta’minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to’g’risida operativ tarzda ma’lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Davlat moliyaviy nazorati, g’aznachilik, yagona g’azna hisobraqami, COSO modeli, byudjet mablag’i, byudjet tashkilotlari, Pempal.

Kirish: Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G’aznachilik ham alohida muhim o’rin egallaydi. G’aznachilik - byudjetdan mablag’ oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi va byudjet tashkilotlariga yetkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun G’aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig’iga binoan vakolatni o’z zimmasiga oladi va byudjet mablag’larining maqsadli ishlatilishini ta’minlash va nazorat qilish asosida to’lovlarni amalga oshiradi. G’aznachilikda moliyaviy nazorat deganda davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg’armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning mablag’lari to’planadigan va ushbu mablag’lar doirasida aniq belgilangan yo’nalishlar bo’yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g’azna hisobraqami orqali davlat byudjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi. Davlat moliyaviy nazorati: respublika darajasida — O’zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining va respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan; mahalliy darajada — Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi. Davlat moliyaviy nazorat organlari: O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining daromadlari qismi bo’yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazorati printsiplari. Davlat moliyaviy nazoratini o’tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining printsiplaridir. Budjet ijrosi jarayoni xaqida axborotlar budjet hisobini tashkil qilish va yuritish orqali shakllantiriladi. Bunda, belgilangan budjet tasnifi bo’yicha budjet daromadlari shakllantiriladi va xarajatlar amalga oshiriladi. Budjet hisobini alohida xususiyatlaridan biri – budjet ijrosini to’g’ri tashkil etish, moliya budjet intizomiga rioya qilish va nazorat funksiyasini amalga oshirilishidir. G’aznachilik bo’linmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.

G’aznachilik bo’linmalari davlat moliyaviy nazoratini: - budjet tashkilotlarining va budjet mablag’lari oluvchilarning tovarlarni etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko’rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlari mablag’lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko’rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro’yxatdan o’tkazish; - xarajatlar smetalarida va ro’yxatdan o’tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag’lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig’i bo’yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to’lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to’lov intizomiga rioya etilishini ta’minlash yo’li bilan amalga oshiradi. Byudjet nazoratini amalga oshirishning muhim metodi - barcha darajadagi byudjetlarning daromadlar va xarajatlar qismlari ijrosini, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi ijrosini iqtisodiy tahlil qilish. Uning davlat moliyasi va xo’jalik sub’ektlari moliyasini boshqarishda, shuningdek bozor sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda ahamiyati sezilarli darajada oshdi. G‘aznachilikda moliyaviy nazoratining asosiy vazifalaridan biri bu budjet qonunchiligiga rioya qilinishini, budjet intizomni ta’minlash, budjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanilishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali davlat moliyaiy siyosatining amalga oshirilishiga ko‘maklashishdan iboratdir. PEMPAL davlat xarajatlarini moliyaviy boshqarish uchun ichki imkoniyatlarni oshirishni qo'llab-quvvatlash, yordamni oshirishda katalitik rol o'ynash, institutlar va siyosatlarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan. PEMPAL quyidagi modellari mavjud: Davlat ichki moliyasi nazorati (DIMN) • Yevropa Ittifoqi kontseptsiyasi – A’zo va a’zo davlatlar uchun amal qiladi – Barcha mamlakatlar uchun eng yaxshi amaliyot modeli • DIMN maqsadlari- "jamoatchilikka oqilona ishonchni ta'minlash mablag'lar tanlangan maqsadlarga sarflanadi va korrupsiya va firibgarlik” • Moliyaviy boshqaruv (yoki ichki) nazorat DIMN ning asosiy komponenti– COSO asosiga asoslangan. COSO ichki boshqaruv2 Ichki nazorat - bu tomonidan amalga oshiriladigan jarayon korxona direktorlar kengashi, boshqaruvi va boshqa xodimlar, ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'yicha oqilona kafolatdagi maqsadlarga erishish quyidagi toifalar: - Operatsiyalarning samaradorligi va samaradorligi - moliyaviy hisobotning ishonchliligi - Amaldagi qonunlarga muvofiqlik va qoidalar. COSOning g’aznachilikdagi funksiyalari: - Operatsion - Hisobot - Muvofiqlashtirish Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, byudjet tizimi va byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish ushbu mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo’lib kelmoqda. Byudjet tizimi katta hajmdagi axborot oqimlari kesishuvining markazi hisoblanadi Bugungi kunda mamlakatimizda budjet tizimi budjetlari g‘azna ijrosi moliyaviy nazorati faoliyatni o‘rni va ahamiyati ortib borayotgan sharoitda quyidagilarga e’tibor qarqatish maqsadga muvofiq: 1.Byudjet tashkilotlarida g‘aznachilik nazorati bajaradigan vazifalari hamda javobgarligini chegaralarini aniq belgilab berish; 2. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha nomativ-xuquqiy ba’zani mustaxkamlash; 3. G‘aznachilikda moliyaviy nazoratning samarali tashkil etilishida xalqaro standartlardan foydalanish va axborot tizimini takomillashtirish.

G‘aznachilik quyidagilarga majbur:

Davlat budjeti xarajatlarini yagona g‘azna hisob hisobvarag‘idan yoki G‘aznachilikning boshqa bank hisob raqamlaridan belgilangan muddatlarda va tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari qoldiqlari doirasida amalga oshirish;

(11-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-apreldagi 122-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 176-modda)

budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda, shu jumladan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinganda narxlarni oshirib yuborish mavjudligi, budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan kreditorlik qarzlar summasining asossiz oshirib yuborilishi hollari aniqlangan taqdirda mavjud materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalariga berish.

(11-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 431-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.08.2022-y., 09/22/431/0716-son)

Oldingi tahrirga qarang.

o‘ziga berilgan huquqlardan qonunchilikka muvofiq foydalanish hamda o‘z faoliyatida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Moliyaviy majburiyatlarni *G’aznachilikda ro’yxatga olishdan ko’zlangan asosiy maqsad* - qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan byudjet va xarajatlar smetasi ko’rsatkichlari doirasida xarajatlarni amalga oshirishni ta’minlash hamda byudjet tashkilotlarining kreditor qarzliklarini nazorat qilish.

- *Moliyaviy majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag’lari oluvchilarda ularga pul mablag’larini o’tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag’ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, byudjetdan mablag’ oluvchilarni davlat byudjetidan xarajatlarning to’rt guruhi bo’yicha moliyalashtirish tartibi belgilangan:
- I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar;
- II. Ish haqiga qo’shimchalar;
- III. Kapital qo’yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan manzilli ro’yxatlarga muvofiq);
- IV. Boshqa xarajatlar (oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va boshqa xarajatlar).
- O’zbekiston Respublikasi Hukumat qarorlari to’plami, 1999 y. № 9, 51-modda
- G’aznachilik organlarida pul mablag’larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash maqsadida *xarajatlarni amalga oshirish ruxsati* (XAOR) joriy etilgan. Bunda har haftada pul mablag’larini boshqarish bo’linmasi kassa rejasini yangilaydi va XAOR hajmini belgilaydi. So’ngra byudjet tasnifiga muvofiq byudjet tashkilotlariga XAOR beriladi. XAORlar muayyan muddatga yoziladi va shu muddat o’tgandan so’ng ular o’z kuchini yo’qotadi.

Xulosa qilganda, g‘aznachilikda moliyaviy nazorat faoliyatini takomillashtirishda yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarni e’tiborga olinishi ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuychiyev A.J., Tashmuxmedova D.A. G’aznacilik. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2019. -834 b.
2. Qosimova G. A. Davlat byudjeti ijrosining g’aznachilik tizimi. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. 372b.
3. G.Qosimova. “G’aznachilik”.O‘quv qo‘llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya
4. Michael Parry Presentation www.michaelparry.com
5. www.ecmf.kz

MOL-MULK SOLIG ‘INING SOLIQQA TORTISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich[1]
Yarashova Gulmira O‘rol qizi[2]
[1] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Moliya va bank ishi kafedrasi” katta o‘qituvchisi.
Tel: +998 93 222 22 17
[2] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” ta’lim yo‘nalishi 4 – bosqich talabasi. Tel: +998(94) 865 78 83 E mail: yarawovagulmira@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513729

Annotatsiya: Tezisda mol-mulk solig'i mohiyatini ochish bo'yicha iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan, mol-mulk solig'ini resurs soliqlari tarkibidagi ulushi tahlil qilingan hamda tadqiqot yuzasidan xulosa va takliflar shakllantirilgan

Kalit so ‘zlar: Mol-mulk, byudjet, resurs, yer solig ‘i, soliq kodeksi,

Kirish: T.L.Krutyakovaning fikricha: “Korxonalarning mol-mulkiga soliqni joriy etishning asosiy maqsadlaridan biri soliq to‘lovchilarning foydalanilmayotgan mol-mulkni sotishdan manfaatdorligini oshirish edi”[1]

I.A.Mayburovning fikricha, tashkilotlarning mol-mulkiga soliq solish quyidagi maqsadlarda o‘rnatiladi:

1) hududiy byudjetlarni byudjet xarajatlarini moliyalashtirish uchun barqaror daromad manbai bilan ta’minlash;

2) ortiqcha mol-mulkni sotishda yoki uni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilishda tashkilotga qiziqish uyg‘otish.[2]

Resurslardan oqilona va samarali foydalanish iqtisodiyot sohasining bosh masalasi bo‘lib, ularni soliqqa tortish orqali ulardan unumli foydalanish bugunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Resurs soliqlari tarkibiga: mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi. Bugungi kunda resurslardan samarali foydalanishni inobatga olgan holda, mamlakatimiz soliq siyosatida resurslardan undiriladigan soliqlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoni bilan yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, yer va suv resurslari, yer qa’ridan qazib olinadigan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlar boshlangan. Farmonga kura mol-mulk va yer soliqlarini ko‘chmas mulk (bino, inshoot va yer uchastkalari) ob’ektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilgan bo‘lib, ko‘chmas mulk ob’ektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash tizimi ikki bosqichda joriy etiladi:

- Birinchi bosqichda (2021-2023 yillar) — ko‘chmas mulk bo‘lgan turar-joy fondi ob’ektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu ob’ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan;
- Ikkinchi bosqichda (2022-2024 yillar) — yashash uchun mo‘ljallanmagan alohida ko‘chmas mulk ob’ektlari, shuningdek, ushbu ob’ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan.

“Mulk solig‘i ko‘pincha mashhur bo‘lmagan, boshqarish qiyin va egiluvchan soliq sifatida tasvirlanadi. Darhaqiqat, mahalliy hukumatning daromad, sotish va aksiz solig‘i kabi moslashuvchan daromad manbalariga emas, balki mulk solig‘iga tayanishi har qanday holatda ham, mahalliy hukumatlarga ko‘plab boshqa hukumatlar tomonidan duch kelgan jiddiy qiyinchiliklardan qochishga yordam berdi”[3]

“Mamlakatimiz soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad:

[1] Крутякова Т.Л. Налог на имущество: изменения продолжаются // Новая бухгалтерия. – 2014. - № 12. – с. 15-22.
[2] Майбурова И.А. Теория и история налогообложения: учебник / под редаксией. М.: Юнити-Дана. – 2014. – 422.
[3] Алм, Жамес, Бусчман, Роберт Д., Сжокуист, Давид Л. 2011. “Ретҳинкинг Лосал Говернмент Релиансе он тҳе Пропертй Тах.” Регионал Ссиенсе анд Урбан Есономисс 41 (4): 320–31.

- korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish;
- korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat.

Chunki, korxonalarning ma’naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg‘or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi”[4]

Mol-mulkni soliqqa tortish 2019 yil 30 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. Soliq kodeksining 410-modda. Soliq to‘lovchilar moddasiga binoan “yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu Kodeksning 411-moddasiga muvofiq soliq solish ob’ekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar”-deb belgilab quyilgan. Soliq Kodeksining 411-modda. Soliq solish obyekti sifatida “Ko‘chmas mulk yuridik shaxslarning molmulkiga solinadigan soliq soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar;
- qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;
- temiryo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek, mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;
- qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko‘rsatilgan turar joy ko‘chmas mulk obyektlari, ko‘chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o‘tgach”-deb qonun bilan belgilab quyilgan.

2022-yil uchun soliq-bojxona siyosatining asosiy yo‘nalishlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solina- digan soliq stavkasini 2%dan 1,5%ga pasaytirish rejalashtirilmoqda.[5]

2023-yil uchun yuridik shaxslarni molmulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5% stavka saqlanib qolindi.

Bevosita soliq tushumlarida resurs soliqlarining ulushi yil sayin oshib borayotganligini so‘nggi besh yillik (2019-2023-yillar) asosida tahlil qilsak, uni quyidagi 1-jadvalda o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida resurs soliqlari bo‘yicha 2019-2023-yillardagi byudjetning daromad qismiga tushumi (mlrd. so‘m)[6]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil yarim yillik
1.	Soliq tushumlari	112 165,4	132 938,0	127 970	148 388	76 262
2.	Resurs soliqlari jami	19 680,7	21 257,0	23 036	23 913	13 057
3.	Mol-mulk solig‘i	2 360,2	1 974,3	2 457	4 015	2 562

[4] Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortis’h: Darslik. T -2008. 154b.
[5] https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ 2022 yil uchun fuqarolaruchun byudjet e’lon qilindi.
[6] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

4.	Yer solig‘i	2 313,2	2 386,7	4 083	5 306	3 066
5.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar	14 692,8	16 417,1	15 812	13 887	7 077
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314,5	478,8	684	704	352
7.	Resurs soliqlarning jami soliq tushumdagi ulushi, %	17,5	15,9	16	16,1	17,1

1-jadval ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-yilda resurs soliqlarining byudjetning daromad qismiga tushumi 19 680,7 mlrd. so‘mni, 2020-yilda 21 257,0 mlrd. so‘mni, 2021-yilda 23 036 mlrd. so‘m, 2022-yil 23 913 mlrd. so‘mni, 2023-yil 22 740,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Resurs soliqlarining jami tushumdagi ulushi 2019-yilda 17,5 foizni, 2020-yilda 15,9 foizni, 2021-yilda 16 foizni, 2022-yilda 16,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 11,7 foiz bo‘lgan.

Xulosa:

Mol-mulk solig‘ini takomillashtirish ishlari O‘zbekistonda davom etmoqda, bu asosan, foydalanilmayotgan mulkni samarali boshqarishga undash, byudjetni barqaror daromad bilan ta’minlash va ko‘chmas mulkni kadastr qiymati asosida soliqqa tortish kabi islohotlar orqali amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar natijasida mol-mulk solig‘ining byudjet barqarorligini ta’minlashdagi roli va uning korxonalarni ortiqcha mol-mulkdan samarali foydalanishga undashdagi ahamiyati tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O ‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. Крутякова Т.Л. Налог на имущество: изменения продолжаются // Новая бухгалтерия. – 2014. - № 12. – с. 15-22.
3. Майбурова И.А. Теория и история налогообложения: учебник / под редаксией. М.: Юнити-Дана. – 2014. – 422.
4. Алм, Жамес, Бусчман, Роберт Д., Сжокуист, Давид Л. 2011. “Ретҳинкинг Лосал Говернмент Релиансе он тҳе Пропертй Тах.” Регионал Ссиенсе анд Урбан Есономисс 41 (4): 320–31.
5. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortis’h: Darslik. T -2008. 154b.
6. https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/ 2022 yil uchun fuqarolaruchun byudjet e’lon qilindi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Haqnazarov Baxtiyor
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo`nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: baxtiyorhaqnazarov1@gmail.com
Telefon raqami:+998884292809
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513758

Annotatsiya: Tezisda O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mavjud tizimli kamchiliklar, ularning iqtisodiy o‘sish va investitsion faollikka ta’siri hamda xalqaro tajriba asosida ularni bartaraf etish choralari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: soliqlar, soliq kodeksi, soliq siyosati, soliq tizimi, soliq yuki, fiskal islohotlar, iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik.

Soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish hamda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish – iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim yo‘nalishlardan biridir. Biroq, ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida iqtisodiy o‘sish sur’atlariga, tadbirkorlik va investitsion faollikka, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va majburiy to‘lovlarning yetarli darajada yig‘ilishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim tizimli kamchiliklar ham aniqlanmoqda. [1]Jumladan:

— birinchidan, umumiy soliq to‘lovchilarga yuklanayotgan soliq og‘irligining yuqoriligi, shuningdek, soddalashtirilgan va umumiy soliqqa tortish tizimlarida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari o‘rtasida soliq yukining sezilarli darajada farqlanishi;

— ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish mexanizmining samarador emasligi natijasida soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘lari cheklanib, mahsulot tannarxi oshib borishi va bu holat yirik hamda kichik biznes o‘rtasida hamkorlik rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi;

— uchinchidan, mehnatga haq to‘lash fondiga nisbatan belgilangan yuqori soliq stavkalari sababli ayrim tadbirkorlar tomonidan haqiqiy xodimlar soni va ish haqi fondini yashirish holatlarining kuzatilishi;

— to‘rtinchidan, soliq va bojxona imtiyozlari samaradorligini kuzatish va nazorat qilishning ta’sirchan tizimi yo‘qligi tufayli sog‘lom raqobat muhitiga salbiy ta’sir etuvchi, ayrim xo‘jalik subyektlarini imtiyozlar orqali asossiz qo‘llab-quvvatlash holatlarining mavjudligi;

— beshinchidan, davlat organlari o‘rtasida axborot almashish tizimining to‘liq yo‘lga qo‘yilmagani, elektron soliq boshqaruvi va soliq nazoratining zamonaviy shakl va usullarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

— oltinchidan, nazorat tadbirlarini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi mavjud emasligi sababli, bu jarayonlar tadbirkorlar faoliyatiga asossiz aralashuvlar va tekshiruvlar orqali salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

— yettinchidan, mahalliy soliqlar va yig‘imlarning ma’muriy boshqaruv mexanizmlari samarasizligi natijasida ularning yig‘ilish darajasi pastligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va yer uchastkalarini to‘liq ro‘yxatga olish hamda ularning qiymatini adolatli aniqlash tizimining yo‘qligi.

Bu kabi muammolar soliq siyosatini yanada takomillashtirish, shaffoflikni ta’minlash va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun chuqur islohotlarni talab etadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida mavjud tizimli kamchiliklarni bartaraf etish hamda soliq siyosatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-

[1] Tilabov N.T. Soliq siyoatini liberallashtirish – iqtisodiy barqarorlik kafolati

4947-sonli[2] “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli[3] “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlarida belgilangan vazifalar asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular xalqaro ekspertlar, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi tavsiyalari va keng jamoatchilik muhokamalari natijalariga asoslanadi. Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

— birinchidan, iqtisodiyotdagi soliq yukini izchil kamaytirish, shuningdek, soddalashtirilgan va umumiy soliqqa tortish tizimlari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoit yaratish;

— ikkinchidan, soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning turlarini optimallashtirish, bir xil soliq bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini soddalashtirish hamda tadbirkorlarning operatsion xarajatlarini qisqartirish;

— uchinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, davlat byudjeti daromad bazasini kengaytirish va moliyaviy mustahkamlikni oshirish;

— to‘rtinchidan, soliq qonunchiligini soddalashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va halol soliq to‘lovchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilish;

— beshinchidan, soliq munosabatlarini tartibga soluvchi ikkilamchi me’yoriy hujjatlarni cheklash, Soliq kodeksining barqarorligini ta’minlash va unda soliqlar hamda majburiy to‘lovlar stavkalarini aniq belgilash;

— oltinchidan, xorijiy investorlar uchun qulay soliq muhiti yaratish, ularni huquqiy jihatdan himoya qilish hamda investitsion faollikni rag‘batlantirish;

— yettinchidan, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olishni ta’minlash, shuningdek, transfer narxlar bilan bog‘liq operatsiyalarni soliqqa tortish tartibini joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlar soliq siyosatini modernizatsiya qilish, iqtisodiy faoliyatni shaffoflashtirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish eng samarali vositalardan biri bo‘lib, u har bir mamlakatning moliyaviy siyosatidagi asosiy va dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Soliq siyosati nafaqat fiskal funksiyani bajaradi, balki u ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga, iqtisodiy tuzilma va uning rivojlanish dinamikasiga, hududiy joylashuviga, shuningdek ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyotni tezlashtirishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim mexanizmdir.[4]

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, milliy iqtisodiyotni zamonaviy bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish va jahon iqtisodiy makoniga integratsiyalashuv jarayonlarida soliq siyosati muhim o‘rin tutadi. U mamlakatning moliyaviy siyosatidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosatining mazmuni, uning mohiyati va tuzilmasi, hamda uni ishlab chiqish jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar quyidagi savollar bilan chambarchas bog‘liq:

— soliq siyosatining asosiy mazmuni nimadan iborat?

— uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar nimalardan iborat?

— ushbu siyosat ishlab chiqilayotganda qanday omillar e’tiborga olinadi?

— zamonaviy sharoitda soliq siyosatining dolzarb muammolari qanday yechim topishi mumkin?

Mazkur savollarga javob izlar ekanmiz, quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

— birinchidan, makroiqtisodiy siyosat iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy yo‘nalishlarning holati va darajasini belgilaydi;

— ikkinchidan, moliyaviy siyosat ham iqtisodiy siyosatning muhim bo‘lagi bo‘lib, u iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda asosiy vosita vazifasini bajaradi;

[2] https://lex.uz/docs/3107036
[3] https://lex.uz/docs/5841063
[4] Tilabov N.T. Soliq siyosatini takomillashtirish – iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida

— uchinchidan, ayrim hollarda moliyaviy siyosatni iqtisodiy hamda makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida ko‘rish mumkin, chunki ularning o‘zaro bog‘liqligi yuqori;

— to‘rtinchidan, xalqaro tajribada fiskal siyosat, odatda, byudjet-soliq siyosati orqali ifodalanadi. Biroq uni faqat makroiqtisodiy siyosat doirasida cheklash to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki aslida fiskal siyosat moliyaviy siyosatdan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi.

Xorijiy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda “fiskal siyosat” atamasi “moliyaviy siyosat” tushunchasi bilan bir ma’noda qo‘llanadi. Biroq, byudjet-soliq siyosatini moliyaviy siyosatdan butunlay ajratib, uni mustaqil tarzda iqtisodiy yoki makroiqtisodiy siyosat tarkibiga kiritish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bu uchala siyosat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning harakati yagona iqtisodiy mexanizm doirasida amalga oshiriladi. Iqtisodiy siyosat haqida so‘z borganda, moliyaviy siyosatni chetlab o‘tishning imkoni yo‘q. Xuddi shuningdek, makroiqtisodiy siyosat kontekstida soliq siyosati ham moliyaviy siyosatdan ajralgan holda tasavvur etilmaydi. Bu o‘zaro bog‘liqlik davlatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Har bir mamlakatda soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish jarayoni tasodifiy emas, balki mavjud iqtisodiy reallikka tayanadi. Bu jarayonda, eng avvalo, ushbu mamlakatda bozor munosabatlariga o‘tishning qaysi modeliga amal qilinayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari tabiiy ravishda mamlakat siyosatiga, xususan, soliq siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki har bir model o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular siyosiy qarorlar va iqtisodiy mexanizmlarda o‘z aksini topadi. Byudjet siyosati doirasidagi eng muhim muammolardan biri — byudjet taqchilligi (defisiti) hisoblanadi. Aynan uning darajasiga qarab, byudjet siyosatining holati va samaradorligiga makrodarajada baho berish mumkin. Shu bilan birga, byudjet defisiti darajasi mamlakatning moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy xavfsizligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Zamonaviy soliq siyosatini tahlil qilishda uni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etishning ilmiy-nazariy asoslariga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Bu yo‘nalish quyidagi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

— soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatining holati;

— soliqqa tortish nazariyasidagi eng dolzarb masalalar;

— soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq qonunchiligining asosiy prinsiplari, ularning soliq siyosatining barqarorligiga ta’siri;

— soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli va ularning samaradorligi;

— soliq siyosatining xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi o‘rni.

Soliq yuklamasi masalasi ham soliq siyosatining markaziy mavzularidan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu masalaga befarq bo‘lgan soliq to‘lovchini topish deyarli imkonsiz. Ko‘pchilik iqtisodiy muammolarning ildizi, oxir-oqibat, aynan soliq yuklamasiga borib taqaladi, deb hisoblaydi. Bugungi kunda soliq siyosatining dolzarb muammolari, ularga bildirilayotgan tanqidiy fikrlar, shuningdek, bu muammolarning yechim yo‘llarini izlash masalasi iqtisodiy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy inqirozlar har doim davlatning soliq siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga majbur etgan. Chunki har qanday iqtisodiy beqarorlik sharoitida byudjet daromadlari qisqaradi, ishlab chiqarish sur’atlari pasayadi va aholi daromadlari kamayadi. Bunday holatda soliq siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirishning eng muhim instrumentlaridan biriga aylanadi.

Masalan, 1929–1933-yillarda yuz bergan Buyuk Depressiya davrida AQSh hukumati dastlab soliq stavkalarini oshirish yo‘li bilan byudjetni to‘ldirishga harakat qilgan, biroq bu siyosat iqtisodiy faollikni yanada pasaytirib yuborgan. Faqat keyinchalik, iqtisodiyotni jonlantirish maqsadida soliqlarning ayrim turlari kamaytirilib, investisiyalarni rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlari joriy etilganidan so‘ng, ishlab chiqarish hajmlari asta-sekin tiklana boshlagan. Ushbu tajriba soliq yukining o‘zgarishi iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotlab berdi.

Xuddi shuningdek, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida ham ko‘plab davlatlar fiskal rag‘batlantirish siyosatini qo‘lladilar. Ular korxonalar uchun foyda solig‘ini vaqtincha kamaytirish, kichik

biznes sub'yektlarini QQSdan ozod qilish va aholi uchun ijtimoiy soliqlarni qisqartirish orqali ichki talabni oshirishga erishdilar. Natijada, ayrim mamlakatlarda iqtisodiy tiklanish jarayoni nisbatan tezroq kechdi.[5]

O'zbekiston uchun ham xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inqiroz holatlarida soliq siyosati nafaqat byudjet daromadlarini shakllantiruvchi vosita, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlab qoluvchi strategik mexanizm sifatida xizmat qilishi lozim. Shu sababli, moliyaviy inqirozlarning oldini olish yoki ularning salbiy ta'sirini yumshatishda soliq yukini optimallashtirish, soliq imtiyozlarini maqsadli taqsimlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, har bir davlatning soliq siyosati global moliyaviy tizimdagi beqarorliklarga moslashuvchan bo'lishi zarur. Shundagina soliqlar iqtisodiy inqirozlarning og'ir oqibatlarini yumshatish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari iqtisodiy islohotlarning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va investitsion jozibadorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda olib borilgan keng qamrovli islohotlar natijasida soliq tizimi bosqichma-bosqich soddalashtirilib, soliq yuki kamaytirildi, soliq ma'muriyatchiligi raqamlashtirildi hamda shaffoflik darajasi oshirildi. Shuningdek, soliq qonunchiligini liberallashtirish, imtiyozlarni maqbullashtirish va ularning samaradorligini tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga yo'l ochildi. Shu bilan birga, soliq siyosatini xalqaro tajriba va zamonaviy standartlar asosida rivojlantirish mamlakatda fiskal barqarorlikni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Kelgusida soliq siyosatini yanada takomillashtirish yo'nalishlari, eng avvalo, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga moslashish, soliq ma'lumotlari integratsiyasini kuchaytirish, soliq ma'muriyatchiligida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini joriy etish, shuningdek, soliqlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlashga qaratilishi zarur. Umuman olganda, soliq siyosatini izchil isloh etish mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholining farovonligini yuksaltirishning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz: O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabr "2022 yil uchun O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuni.
2. O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
3. https://lex.uz: O`zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.
4. Malikov T.S. Budjet-soliq siyosati. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019
5. Tilabov N.T. Soliq siyosatini takomillashtirish - iqtisodiyotni tartibga solish istrumentisifatida.
6. Tilabov N.T. O`zbekistonda fiskal masalalar.
7. Ibodov A. A., Abduraxmanov Q. X. – Moliyaviy tizim va inqirozlar. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018
8. www.soliq.uz – O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.

[5] Ibodov A. A., Abduraxmanov Q. X. – Moliyaviy tizim va inqirozlar. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018

FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Jumayev Tursunpo'lat Baxtiyor o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika insitiuti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti moliya va moliyaviy texnologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Tel:+998 (93) 241-24-05
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513789

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida fiskal barqarorlikni ta'minlashda soliq imtiyozlarining tutgan o'rni, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ta'siri tahlil qilinadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan fiskal siyosatning asosiy yo'nalishlari, soliq yukini optimallashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va budjet intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, milliy soliq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va soliq imtiyozlarining natijaviyligini baholash masalalari ham o'rganiladi. Tezisda fiskal barqarorlikning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri, soliq siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi va davlat moliyasining barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fiskal siyosat, fiskal barqarorlik, soliq imtiyozlari, budjet daromadlari, iqtisodiy samaradorlik, davlat moliyasi, soliq yuklamasi, yashirin iqtisodiyot, investitsion jozibadorlik, makroiqtisodiy barqarorlik, YAIM, budjet taqchilligi, soliq ma'murchiligi, soliq turlari, soliq yengilliklari, soliq bazasi, davlat qarzi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, soliq siyosatini liberallashtirish, fiskal mustahkamlik, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda fiskal siyosatning roli beqiyosdir. Davlat budjetining barqarorligi, daromadlar bazasining kengayishi va xarajatlarning samaradorligi mamlakatning makroiqtisodiy muvozanatini ta'minlaydigan asosiy omillardandir. Shu nuqtai nazardan, fiskal barqarorlikni ta'minlashda soliq imtiyozlari muhim iqtisodiy vosita sifatida e'tirof etiladi.

Fiskal barqarorlik – bu davlatning o'z daromadlari hisobidan majburiyatlarini muntazam va to'liq bajarish qobiliyati, davlat qarzining nazorat ostida bo'lishi va iqtisodiy siyosatning uzoq muddatda izchil amalga oshirilishidir. Ushbu tushuncha davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlashni, shuningdek, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida fiskal barqarorlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyaga muvofiq, mamlakatda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat yuritish, budjet taqchilligini YAIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik, davlat qarzini YAIMning 50 foizidan yuqori bo'lmasligini ta'minlash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, shuningdek, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish ko'zda tutilgan.

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tushumlari asosiy manba hisoblanadi. Shu bois soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini to'g'ri baholash juda muhim. Soliq imtiyozlari — bu ayrim xo'jalik subyektlari yoki tarmoqlarga soliq yukini kamaytirish orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida qo'llaniladigan mexanizmdir.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati so'nggi yillarda bosqichma-bosqich liberallashtirilib, soliq imtiyozlari tizimi qayta ko'rib chiqilmoqda. Xususan, ayrim tarmoqlar uchun berilgan uzoq muddatli imtiyozlar bekor qilinib, ularning o'rniga natijaviylikka asoslangan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi. Bunda maqsad — budjetga tushumlarni barqaror saqlagan holda, iqtisodiy faollikni oshirishdir.

Fiskal barqarorlikni ta'minlashda soliq siyosati va budjet intizomi o'zaro uzviy bog'liq. Soliq siyosatining izchilligi, adolatli soliqqa tortish tizimi va samarali soliq ma'murchiligi davlat moliyasining mustahkamligini ta'minlaydi. Shu jihatdan, soliq imtiyozlarining tahlili ularning qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy natijalarini aniqlash imkonini beradi.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashda bir necha mezonlarga e'tibor qaratiladi:

- investitsiyalar hajmining o'sishi;

- yangi ish o‘rinlarining yaratilishi;
- ishlab chiqarish hajmining kengayishi;
- eksport ulushining ortishi;
- budjetga tushumlarning barqarorligi;
- iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir.

Agar soliq imtiyozlari bu natijalarga erishishga xizmat qilsa, ular iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Aks holda, ular fiskal barqarorlikka xavf tug‘dirishi, budjet daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Davlat budjetining daromad bazasini mustahkamlashda soliq ma’murchiligini raqamlashtirish, elektron soliq tizimlarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilar bazasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish ham fiskal barqarorlikni mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Soliq turlari bo‘yicha byudjetga tushgan tushumlar (2021–2023-yillar, mlrd so‘mda)

№	Soliq turlari	2021-yil 31-mart	2022-yil 31-mart	2023-yil 31-mart
	Byudjetga tushumlar, jami	**29 344**	**34 500**	**37 877**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	5 963	7 591	8 399
2	Aksiz solig‘i	3 065	3 361	3 355
3	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	8 478	9 281	9 521
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 001	5 236	6 622
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	191	179	206
6	Mol-mulk solig‘i	652	943	1 316
7	Yer solig‘i	822	1 114	1 425
8	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3 761	3 596	3 544
9	Aylanmadan olinadigan soliq	–	622	556
10	Davlat boji va jarimalar	650	888	1 041
11	Boshqa tushumlar va yig‘imlar	1 762	2 310	1 891

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2021–2023-yillar davomida mamlakat byudjetiga tushgan soliq tushumlari barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Soliq stavkalarining kamaytirilishi va tadbirkorlik uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida soliq to‘lovchilar soni ortgan. Bu esa o‘z navbatida byudjet daromadlarining oshishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, **qo‘shilgan qiymat solig‘i**, **foyda solig‘i** va **daromad solig‘i** bo‘yicha sezilarli o‘sish qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim soliqlar (masalan, yer qa’ridan foydalanganlik solig‘i) bo‘yicha tushumlar barqaror saqlangan. Umuman olganda, soliq siyosatidagi islohotlar byudjet barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.[1]

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. XVJ ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat YAIMining o‘sish sur’ati 6 foiz atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, inflatsiya darajasini 8 foizgacha pasaytirish rejalashtirilgan. Bularning barchasi fiskal siyosatning muvozanatli yuritilayotganini ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida soliq va bojxona siyosatini JST talablariga uyg‘unlashtirish, imtiyozlarni adolatli va shaffof mezonlar asosida belgilash, davlat budjetining ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlash hamda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Ushbu yo‘nalishlar fiskal barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy vositalaridan biridir.

Shuningdek, soliq imtiyozlarini baholash tizimini takomillashtirish orqali ularning iqtisodiyotdagi real samarasi aniqlanadi. Imtiyozlarning samarali mexanizmi — bu soliqdan bo‘shatish emas, balki iqtisodiy o‘sish orqali budjetga qo‘shimcha daromad keltiruvchi rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ishlatilishidir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, fiskal barqarorlikni ta’minlashda soliq imtiyozlari muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Ammo ularni berishda iqtisodiy maqsadlilik, shaffoflik va natijadorlik tamoyillari ustuvor bo‘lishi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

zarur. Har qanday soliq yengilligi iqtisodiyotning aniq bir tarmog‘ini rivojlantirishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga yoki eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Aks holda, bu imtiyozlar davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, fiskal intizomning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois O‘zbekiston soliq tizimida imtiyozlarning tahlilini tizimli ravishda amalga oshirish, ularning iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risidagi 2024-yilgi Qonun.
3. Moliya vazirligi. “Davlat budjeti ijrosi bo‘yicha hisobotlar”, 2024.
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ). *World Economic Outlook*, 2024-yil aprel nashri.
5. Karimov, A. *Fiskal siyosat va budjet barqarorligi masalalari.* Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.
6. Axmedova, N. *Soliq imtiyozlari va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.* Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, 2022.
7. World Bank. *Public Finance Review: Uzbekistan 2023.*

O‘ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH VA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI TA’MINLASH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBASINING O‘RNI

G’afforov Kamronbek Shovkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistranti
tel:+998 (91) 212-69-69
E-mail:kamrongafforov6969@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513818

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni daromadlarini soliqqa tortish tizimida ulushi tobora ortib borayotgan bir sharoitda, uning samaradorligini oshirish davlat budjetining daromad qismini mustahkamlash, soliqqa tortish jarayonida adolat va shaffoflikni ta’minlash, shuningdek, soliq yukini oqilona taqsimlash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Shu boisda O‘zbekiston soliq tizimidagi transformatsiyalarni tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda ularning eng samarali jihatlarini milliy amaliyotga tatbiq etish yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy shaxslar daromad solig‘i, soliqqa tortish tizimi, soliq islohotlari, fiskal siyosat, xorij tajribasi, iqtisodiy samaradorlik, soliq ma’muriyatchiligi, raqamlashtirish, ijtimoiy adolat.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining samaradorligi davlatning fiskal barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu soliq ma’murchiligi tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, soliq stavkalari soddalashtirildi, ma’muriyatchilik raqamlashtirildi va soliqqa tortish bazasini kengaytirish choralari ko‘rildi. Biroq bu islohotlarning samaraligini oshirish uchun xorij tajribasini chuqur tahlil etish zarur.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali jismoniy shaxslar daromad solig‘i tizimi soliq yukining adolatli taqsimlanishi, ma’muriy soddalik va ixtiyoriy to‘lov intizomining yuqoriligi bilan belgilanadi. Masalan, Estoniyada raqamlashtirilgan “e-Tax” tizimi orqali soliq deklaratsiyalarining 95 foizdan ortig‘i avtomatik tarzda shakllantiriladi, bu esa ma’muriy xarajatlarni 40 foizga kamaytirgan. Buyuk Britaniyada esa progressiv daromad solig‘i tizimi orqali yuqori daromadli qatlamlardan olinadigan soliqlar orqali ijtimoiy tenglik ta’minlanmoqda[1]. Janubiy Koreyada esa soliqqa tortish jarayonining to‘liq raqamlashtirilishi natijasida yashirin daromadlar ulushi 5 foizdan pastga tushgan. Tadqiqotlar olib borish natijasi tahlili shuni ko’rsatadiki, jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalari va ularning fiskal samaradorligi o‘rtasida muhim bog‘liqlik mavjud. O‘zbekiston bo‘yicha 2018–2024-yillar davrida o‘tkazilgan empirik tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, 2019-yilda joriy etilgan 12 foizlik yagona soliq stavkasi soliq tushumlarining barqaror o‘sishini ta’minladi. Xususan, 2018-yilda YAIMga nisbatan jismoniy shaxslar daromad solig‘i ulushi 2,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 3,4 foizga yetdi. Shu bilan birga, norasmiy bandlikning qisqarishi va deklaratsiyalash tizimining kengayishi hisobiga soliq bazasi 1,3 barobarga oshgan. Shuningdek, Estoniya, Polsha va Koreya kabi mamlakatlarda kuzatilgan soliq ishonchi indeksi (tax morale index) bilan O‘zbekiston ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi taqqoslama tahlil soliqqa ixtiyoriy to‘lov darajasi va raqamlashtirish darajasi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatdi (r=0,68). Bu esa O‘zbekistonda raqamli soliq boshqaruvini yanada rivojlantirish va “my.soliq.uz” tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Xorijiy davlatlarda jismoniy shaxslar daromad solig‘ining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi (2020 - 2024-yillar, foizda) [2]

№	Davlat nomi	Yil				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	O‘zbekiston	14,1	14,9	15,8	16,3	16,5

2	**Estoniya**	19,4	19,8	20,2	20,7	21
3	**Polsha**	22,5	22,8	23	23,5	24,1
4	**Janubiy Koreya**	28,9	29,2	29,5	29,8	30,1

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi ulushi 2020–2024-yillar oralig'ida 14,1% dan 16,5% gacha oshgan.Bu davrda o'sish 2,4 foiz punktni tashkil etib, soliqqa tortish bazasining kengayishi va elektron ma'muriyatchilikning rivojlanishi bilan bog'liq.

Estoniyada bu ko'rsatkich 19,4% dan 21% gacha oshib, o'rtacha 1,6 foiz punkt o'sish kuzatilgan. "e-Tax" tizimining samarali ishlashi, avtomatlashtirilgan deklaratsiyalar va soliq to'lovchilarning yuqori intizomi bunga asos bo'lgan [3].

Polsha misolida esa 2020–2024-yillar oralig'ida o'sish 1,6 foiz punktni tashkil etgan (22,5% - 24,1%). Bu mamlakatda progressiv stavkalar qo'llanilishi va o'rta daromadli qatlamning kengayishi soliq bazasini oshirgan[4].

Janubiy Koreyada 2020–2024-yillarda eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan 28,9% dan 30,1% gacha o'sish. Bunda to'liq raqamlashtirilgan soliq tizimi, elektron hisob-fakturalar va yashirin iqtisodiyotning past darajasi muhim rol o'ynagan[5].

O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiyalar jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning samaradorligini oshirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va byudjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash yo'lida muhim bosqich bo'lib xizmat qilada. Xorijiy tajriba va ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqilgan takliflar soliq siyosatini yanada modernizatsiya qilish uchun amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri). – Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4086-son Qarori, 2019-yil 30-dekabr.
3. OECD (2023). Revenue Statistics 2023: The Impact of Tax Policy on Economic Growth. – Paris: OECD Publishing.
4. HM Revenue & Customs (UK) (2023). Income Tax Statistics and Distributional Analysis. – London.
5. Karimov, B. (2023). "Jismoniy shaxslar daromad solig'i tizimini takomillashtirish masalalari". – Soliq va moliya jurnali, №2.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YASHIL BYUDJETLASHTIRISH VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Kasimov Azamat Abdukarimovich
TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasi dosenti, i.f.d. (DSc)
ORCID: 0000-0002-7692-0490
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513852

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot, jigarrang iqtisodiyot, yashil o'sish, yashil byudjetlashtirishning mazmun-mohiyati ochib berilgan va nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, yashil byudjetlashtirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi, islohotlari hamda soha bo'yicha yuzaga kelgan asosiy muammolari o'rganilgan. Yashil byudjetlashtirishning asosiy maqsadlari va uning afzalliklari yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, jigarrang iqtisodiyot, yashil o'sish, byudjet, yashil byudjetlashtirish, ekologiya, iqtisodiy rivojlanish.

Bugungi kunda har qanday mamlakatning nafaqat barqaror iqtisodiy rivojlanishida, balki, vujudga kelgan global ekologik muammolarni bartaraf etishda ham davlat byudjeti muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning e'tiroficha atrof-muhitni byudjetlashtirish davlatlar byudjet islohotining asosiy vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Ya'ni, "Yashil byudjetlashtirish" atrof-muhitga ta'sir mezoniga asoslangan byudjet xarajatlarining yangi tasnifi bo'lib, atrof-muhitni rivojlantirish uchun davlat resurslarini belgilashdir.

Hozirgi davrda iqlim o'zgarishlari bo'yicha strategik ustuvorliklar, jumladan iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy, mintaqaviy va global majburiyatlarning bajarilishi ham aynan yashil byudjetlashtirish holati bilan baholanayotganligi sir emas. Shu boisdan, keyingi davrda mamlakatimizda ham barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)ga erishish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori bilan ustuvor yo'nalishlar sifatida (a) iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy ofatlar xavfini boshqarish masalalarini milliy siyosatga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishga va byudjet jarayonlariga kiritish hamda (d) soliqlar va davlat xarajatlarining "yashil" iqtisodiyotga muvofiqligi va ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni baholash va oshkor qilish uchun "yashil" byudjet metodologiyasini joriy etish – "yashil" ustuvor yo'nalishlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan soliqlar va davlat xarajatlari ulushini baholash uchun "yashil" byudjet metodologiyasini joriy etish belgilangan [1].

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek "yashil" byudjetlashtirishni samarali tashkil etish, "yashil" moliyalashtirishni kengaytirish, bunda "yashil" investitsiyalarni keng jalb etish tamoyillari asosida mamlakatimizning "yashil" iqtisodiyotga o'tishini jadallashtirish – mazkur sohani yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish va mavzuning dolzarb masalalardan biri ekanligini ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, "yashil" iqtisodiyot va "yashil" byudjetlashtirish davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonining umumiy samarasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat "o'yin qoidalarini" belgilab, bozor va infratuzilmani zamonaviy sharoitlarga moslashtirishi, shuningdek "yashil" investitsiyalarni jalb qiluvchi turli iqtisodiy rag'batlantirishning samarali tizimini yaratishi, ushbu investitsiyalarni samarali yo'naltirilishida nazorat vazifasini bajarishi lozim.

"Yashil iqtisodiyot" atrof muhitni, bioxilmaxillikni va ekotizim xizmatlarni saqlash, "yashil" ish o'rinlari tashkil etish imkoniyatini va qashshoqlik muammosi hal etilishini ta'minlovchi barqaror taraqqiyot masalalarini qamrab oladi [2].

N.Maxmudov fikricha, tabiatning tabiiy qonunlari bilan hisoblashmaslik natijasida dunyoda "jigarrang" iqtisodiyot degan tushuncha shakllandi. Bugun "jigarrang" iqtisodiyotdan "yashil" iqtisodiyotga o'tish insoniyat uchun hayot-mamot masalasidir. "Yashil" iqtisodiyot insonning tabiatga bo'lgan munosabatini muqobillashtirish asosida atrof-muhit tozaligini, tabiiy resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan samarali foydalanish orqali turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi [3].

K.Daniekning fikricha, “yashil iqtisodiyot” iqtisodiyot va ekotizim o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘lib, tezkor barqaror rivojlanishning asos hisoblanadi. Albatta, aksariyat ta’riflarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot ajratib ko‘rsatilgan bo‘lsada, ikkinchi tomondan ayrim nazariyalarda “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan vosita sifatida tavsiflaydi [4].

“Yashil iqtisodiyot” atamasi birinchi marta ingliz iqtisodchisi (Pierce) tomonidan 1989 yilda “Green Economy Blue Book” nomli kitobida qayt etilgan. Muallifning ta’kidlashicha, tabiiy resurslarning kamayishi, agar iqtisodiy kengayish mavjud tabiiy resurslar chegarasidan oshib ketsa, iqtisodiy o‘sish doimiy turg‘unlikda bo‘lishdi [5].

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi esa 1989 yilda “Yashil iqtisodiyot uchun loyiha” hisobotida paydo bo‘lgan va u Yevropa mamlakatlari iqtisodiy ahvolini yaxshilash yuzasidan ekspertlar fikr-mulohazalarining asosini egallagan. Keyinchalik esa tabiiy muhitni asrash va jamiyat hayoti sifatini yaxshilashning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Tabiiyki, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi, ko‘lamining kengayishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga chuqur kirib borishi natija o‘laroq “yashil o‘sish”ni ta’minlaydi.

M.Jacobsning fikricha, “yashil o‘sish” tushunchasi “iqtisodiy o‘sish (yalpi ichki mahsulotning o‘sishi)”ni anglatadi, bu ham atrof-muhitni sezilarli darajada muhofaza qilishni ta’minlaydi, shu bilan iqtisodiy faoliyatga ekologik zararni bartaraf etadi [6].

Bir guruh iqtisodchilar fikricha, “yashil o‘sish” barqaror rivojlanish uchun alohida strategiya hisoblanib, bu atrof-muhit muammolarini bartaraf etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o‘z ichiga oladi [7].

Ma’lumki, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va uni rivojlantirish asosida “yashil o‘sish”ga erishiladi. Jumladan, an’anaviy energiyadan muqobil energiya (quyosh, shamol, suv va bioenergiya)ga o‘tish, sanoat ishlab chiqarish korxonalarida zararli chiqindilarni kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarida katta miqdorda atrof-muhitga zaharli moddalarni chiqaruvchi ayrim yoqilg‘i vositalaridan vos kechish, sanoat va uy ho‘jaliklari chiqindilarini xavfsiz zararlantirish, qurilish sohasida o‘zidan zaharli moddalarni chiqaruvchi vositalarni ekologik toza vositalarga almashtirish, yashil hududlarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar shular jumlasidan.

Bugungi kunda aynan davlat “yashil” siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda yetakchi rol o‘ynaydi va byudjet tizimi byudjet mablag‘lari atrof-muhit va iqlim bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Bu sohada davlat ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi (kam uglerodli va energiya tejamkor iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish orqali), ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi, tadbirkorlik subyektlarini atrof-muhit va iqlimga nisbatan mas’uliyatli xatti-harakatlarga rag‘batlantiradi [8].

Ta’kidlash joizki, so‘nggi o‘n yillikda dunyoning aksariyat mamlakatlarida byudjet jarayoniga “yashil” byudjetlashtirish vositalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlaydigan zamonaviy byudjetni boshqarish tizimlari ishlab chiqilgan. Ushbu qulay muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat [9]:

• strategik davlat boshqaruvi tamoyillaridan foydalanish;

• o‘rta muddatli byudjetlashtirishga o‘tish hamda o‘rta muddatli va uzoq muddatli byudjet prognozlarini ishlab chiqish;

• davlat byudjetini dasturiy maqsadli boshqarish va qurish metodologiyasini dastur formatida qo‘llash;

• davlat organlari, parlament tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida yaqin hamkorlikning mavjudligi va boshqalar.

Shu bilan birga hozirgi davrda yashil byudjetlashtirish bo‘yicha ko‘pgina mamlakatlar turli bosqichlarda duch keladigan islohotlarning asosiy muammolari ham ko‘zga tashlanmoqda, jumladan:

- ushbu ma’lumotlarning iste’molchilari, shu jumladan fuqarolar va qonun chiqaruvchilar tomonidan yaxshi tushunilmaydigan o‘ta murakkab dasturli byudjet tuzilmalari;

- milliy rivojlanish rejalari va byudjetlar o‘rtasidagi strategik muvofiqlikning etarli emasligi;

- xarajatlarga asoslangan byudjetlashtirishning an’anaviy shakllariga qaytmaslik uchun fikrlash shakllarini o‘zgartirish muammosi [10].

Demak, yashil byudjetlashtirish byudjet siyosatini atrof-muhit maqsadlari bilan yaxshiroq muvofiqlashtirish maqsadida byudjet mablag‘larining atrof-muhitga qo‘shadigan hissasi aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlanadi va baholanadigan byudjet jarayoni sifatida belgilanadi.

Yuqoridagi ijobiy tajribalarga asoslanib, davlat (mahalliy) byudjetining bir qismini yashil investitsiyalar uchun zaxiralash, “yashil” tushunchalarni (masalan, “yashil loyihalar”, “yashil iqtisodiyot”, “yashil byudjetlashtirish” va boshqalar) shakllantirish va qonunlashtirishni taqozo etadi. Bu ajratilgan mablag‘lardan foydalanishni osonlashtirishga va jamiyat uchun tashqi ijobiy samarani shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-436-son qarori, 02.12.2022 yil.
2. Isadjanov A. “Yashil iqtisodiyot”: xususiyatlari va rivojlanish omillari // Iqtisodiyot va ta’lim / 2020 № 1, 15 b.
3. Maxmudov N. Yashil iqtisodiyot — muhim hayotiy zarurat // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” elektron jurnali. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/02/19/jashil-iqtisodiyot-muhim-hayotiy-zarurat/
4. Daniek K. Green economy indicators as a method of monitoring development in the economic, social and environmental dimensions // Social Inequalities and Economic Growth, no. 62 (2/2020). r. 151-152
5. Wang Y, Li Y, Zhu Z, Dong J. Evaluation of green growth efficiency of oil and gas resource-based cities in China. Clean Techn Environ Policy. (2021) 23:1785–95. 10.1007/s10098-021-02060-9
6. Jacobs M. ‘Green Growth’ // Handbook of Global Climate and Environmental Policy / R. Falkner (ed.). - Oxford: Wiley Blackwell, 2013. - P. 197-214.
7. Hussain Z., Mehmood B., Khan M., Tsimisaraka R. Green Growth, Green Technology, and Environmental Health: Evidence From High-GDP Countries // ORIGINAL RESEARCH article. Front. Public Health, 14 January 2022. Sec. Environmental health and Exposome. Volume 9 – 2021.
8. Sitnik A.A. «Zeleniye» finansi: ponyatiye i sistema // Aktualniye problemi rossiyskogo prava. 2022. T. 17. № 2 (135) fevral. 68 st.
9. Afanasyev M.P., SHASH N.N. Perviy v mire «zeleniy» gosudarstvenniy byudjet // Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «Ekonomika i biznes». 344-345 st. DOI: 10.47711/2076-318-2021-342-355.
10. Robinson M. Performance Budgeting / Allen R. et al. (eds). The International Handbook of Public Financial Management. London: Palgrave Macmillan, 2013.

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIGINI UNDIRISH MEXANIZMI VA UNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Komilov Shohruh
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
5mm-22-guruh talabasi
Email:shohruhkomilov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513882

Annotatsiya: Mamlakatimizda qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish ma’murchiligi o‘rganlan holda ularni soliq solishni tartibiga solish, qo‘shilgan qiymat solig‘ini takomillashtirish bilan ham bog‘liqdir. xalqaro tajribani tahlil qilish orqali yoritilgan. Yuqori hamda pasaytirilgan QQS stavkalar joriy etilgan mamlakatlar va ulardagi imtiyozli stavkalar haqida ma’lumotlar keltirilib, nisbatan QQSning imtiyozli (pasaytirilgan) stavkasini ma’lum sohalarga qo‘llash orqali ham turli xil sohalarni rivojlantirish mumkinligi qayd etilgan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda ma’lum bir tovar va xizmat turlariga QQSning imtiyozli stavkalarini belgilash va ma’lum birlaridan imtiyozlarni bekor qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: QQS, soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i, stavka, pasaytirilgan stavka, ijtimoiy-iqtisodiy, tovar va xizmatlar,soliq ma’murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Soliqqa tortish har qanday davlatning moliyaviy siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, daromadlarni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda o‘sib borayotgan iqtisodiyot sifatida soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish hamda QQS ma’muriyati sohasida o‘ziga xos chora-tadbirlar va amaliyotlarni qabul qildi. O‘zbekistonda soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish tartibi va QQS ma’muriyatining o‘ziga xos jihatlari haqida umumiy ma’lumot berib, mamlakatda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlashda tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay muhit yaratish muhimdir. Bundan tashqari, O‘zbekistonning soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish va QQS ma’muriyatiga bo‘lgan yondashuvi raqamlashtirish va xalqaro savdodagi global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu esa O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarning o‘ziga xos xususiyatlari va oqibatlarini har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar qo‘llashni jadal rivojlantirish davrida mamlakatimizda ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatdoshligiga erishish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar ancha faollashdi.[1]

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ko‘plab sohalar qatorida soliq sohasida ham keng islohotlar amalga oshirish orqali bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Misol uchun, tadbirkorlik sub’ektlariga soliq yukini mutanosib taqsimlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida soliq imtiyozlari ro‘yxati bir muncha qisqartirildi. Bu orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) zanjirsimon mexanizmini tiklashga ma’lum darajada erishildi. Mamlakatimizda 2019 yildan tadbirkorlik sub’ektlarini umumbelgilangan soliq rejimiga majburan o‘tishi lozimligini belgilovchi mezon yaratildi va bunda ushbu mezon sifatida yillik oborot (yalpi tushum) belgilandi . Tegishli o‘zgartirishlarga ko‘ra QQS qamrovini kengaytirish uchun yillik tushumi 1 mlrd.so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar umumbelgilangan soliq rejimiga o‘tishi va QQS to‘lovchisiga aylanishi belgilab qo‘yildi. Ushbu tartib o‘rnatilgandan so‘ng, uzoq yillar davomida asosan yagona soliq to‘lovchisi sifatida faoliyat yuritgan soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida faoliyat ko‘rsatmaslik maqsadida o‘z tushumlarni yashirish, tovar aylanmasini 1 mlrd.so‘mga yetkazmasdan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini to‘xtatib, yangidan firma ochish orqali o‘z soliq rejimida (aylanmadan olinadigan soliq) qolishga harakat qilishdi. Soliqqa tortishning jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki QQSning birinchi

[1] Matkarimov Dilshodbek Ilxomovich Toshkent shahar Soliq boshqarmasi bosh inspektori
https://doi.org/10.5281/zenodo.14060112

darajali, ijtimoiy xarakterli tovar hamda xizmatlarga nisbatan yuqori va (yoki) imtiyozli (pasaytirilgan) stavkalarni qo‘llash orqali soliq tushumlarini oshirish mumkin. Shu maqsadda, QQS bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan soliq stavkalari o‘rganib chiqilib, mazkur soliqning imtiyozli stavkalarini mamlakatimizda joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

QQS birinchi marotaba joriy etilgan 1954 yildan bugungi qadar dunyodagi 175 ta mamlakatda QQS yoki unga o‘xshash bo‘lgan iste’mol solig‘i (tovar va xizmatlar uchun) sifatida joriy etilgan bo‘lib, ushbu soliq turi bo‘yicha bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida belgilangan bazaviy stavkaning eng yuqorisi 27%ni (Vengerya) va eng quyisi 4.5% (Andorra)ni tashkil etadi. Mamlakatimizda QQS ilk bor 1992 yilning 1 yanvarida joriy qilingan. 32 yildan buyon amalda qo‘llanilib kelayotgan QQSning ilk stavkasi 30 foiz qilib belgilangan bo‘lib, keyichalik mamlakatimizda soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq stavkalari bosqichma bosqich kamaytirib borildi. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga muvofiq QQS stavkasi 12 foiz qilib miqdorida belgilangan QQS soliq turi bo‘yicha differensial stavkalari mamlakatlarda pasaytirilgan (imtiyozli, nolli) va oshirilgan stavkalar ko‘rinishida joriy etiladi. Dastlab O‘rta Osiya davlatlarida joriy etilgan. Qozog‘iston Respublikasida QQSning bazaviy stavkasi 12 foiz qilib belgilangan. Mahsulotlarning eksporti va xalqaro transport xizmatlarini ko‘rsatuvchilarga 0 foizli stavka qo‘llanilib kelinmoqda. Shuningdek, bir qator tovarlar, ishlar va xizmatlar soliqdan ozod etilgan. Jumladan: dori vositalarini sotish; moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar; moliyaviy lizing xizmatlari; notarius va advokatlik xizmatlari. Tojikistonda ham mamlakatimiz kabi tadbirkorlik sub’ektlarini umumbelgilangan soliq rejimiga majburan o‘tishi lozimligini belgilovchi mezon yaratilgan bo‘lib, QQS odatda tovarlar va xizmatlarni o‘z ichiga olgan soliqqa tortiladigan aylanma bo‘yicha hisoblanadi. Bazaviy QQS stavkasi 14% ni tashkil qiladi. Agar soliq to‘lovchilarning soliqqa tortiladigan aylanmasi oldingi 12 oylik davrda belgilangan summadan ortiq bo‘lsa, jismoniy va yuridik shaxslar QQS to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tishlari shart.

Ushbu mamlakatning soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq quyidagilar QQSdan ozod etilgan: ko‘chmas mulkni sotish, topshirish yoki ijaraga berish; moliyaviy xizmatlar; muayyan tibbiy xizmatlar. Bundan tashqari, Tojikiston fond birjasida faoliyat yurituvchi ishtirokchilar QQSning 50 foizidan ozod qilingan. Qirg‘iston Respublikasida QQS bazaviy stavkasi 12 foizni tashkil etadi. Alohida tovarlar va xizmatlar uchun QQSning nollik stavkasi ham amal qiladi. QQSdan ozod qilingan aylanmalar ham mavjud bo‘lib, jumladan: oltin, kumush qotishmasi, hamda, tozalangan oltin va kumushni yetkazib berish va eksport qilish; dori vositalarini yetkazib berish; faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan elektrda harakatlanadigan avtomobillar; sug'urta, pensiya va moliyaviy xizmatlardan iborat. Turkmanistonda QQS odatda 15% stavkada to‘lanadi. Nollik stavka tovarlar eksporti (neft va gazdan tashqari) va xalqaro transport xizmatlari uchun qo‘llaniladi.Bundan tashqari jahon moliyaviy inqirozi davrida QQS stavkasida kamayishlar kuzatilgan. OECDning tahlillariga ko'ra, iste'mol soliqlari (shuga QQS) iqtisodiy vaziyatga nisbatan munosabatda bo'lgan. Masalan, iste'mol soliqlari jami yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan ulushi 2019 yilda ~10,2% bo'lgan, 2020 yilda mahsulot 9,9% ga tushgan.

QQS tushumlari ichida, ya'ni “QQS daromadi / YaIM” ko'rsatkichi bo'yicha, 2007-09 inqirozida ozgina pasayish kuzatilgan. Masalan, Ispaniyada, 2007 yilga nisbatan 2009 yilda QQS tushumi ~40% ga kamaygan.

QQS “potentsial” tushumga nisbatan yig'ilish ko'rsatkichi (QQS Revenue Ratio, VRR) inqirozi keyingi pasaygan — OECD mamlakatlarida.[2]

Rossiya federatsiyasida QQS 2019-yildan boshlab 20 foizli stavkada undirilib kelinmoqda. Biroq oziq-ovqat, poyabzal, ba’zi tibbiy buyumlar va bolalar kiyimlariga QQSning pasaytirilgan 10 foizli stavkasi qo‘llaniladi. Ta’lim, tibbiy buyumlar, davlat uy-joylari va an’anaviy moliyaviy mahsulotlarni o‘z ichiga olgan boshqa muhim hisoblangan Tovar va xizmatlar uchun 0 foizli stavka ham joriy etilgan. Quyida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (YaIM) bo‘yicha 2025yil yakunlari bo‘yicha yuqori o‘rinni egallagan mamlakatlarda QQS stavkalaraini ko‘rib chiqamiz. Xitoyda QQS birinchi marta 1984 yilda joriy etilgan bo‘lib, mamlakatda bazaviy soliq miqdori 13 foizni tashkil etadi. Biroq quyidagilarga: chakana savdo; mehmonxona (xizmati); umumiy

[2] sefofuncas.com

ovqatlanish sohasi; ko‘chmas mulk va qurilish sohasi; komunikatsiya; pochta xizmatlari; transport va logistika xizmatlariga 9 foiz. Moliyaviy xizmatlar va sug‘urta; informatika texnoligiya sohasi va u bo‘yicha konsalting xizmatlarga 6 foiz qilib belgilangan. Kichik korxonalar uchun esa 3 foiz qilib belgilangan. Germaniyada 3 xildagi soliq stavkalari amal qiladi (bazaviy 19 foiz, kamaytirilgan 7 foiz, hamda 0 foizli). Kamaytirilgan 7 foizli stavka alohida oziq-ovqat mahsulotlari va suv resurslariga, nogironlar uchun tibbiy asbob-uskunalar, ayrim ichki yo‘lovchi transporti, temir yo‘l va ichki suv yo‘llari uchun jamoat ichidagi va xalqaro yo‘lovchi tashish xizmatlari, kitoblar (mazmunida voyaga yetmaganlar uchun taqiqlangan kitoblar bundan mustasno), elektron kitoblar, audiokitoblar, gazetalar va davriy nashrlar (voyaga yetmaganlar uchun taqiqlangan yoki 50%dan ortiq qismi reklamadan iborat bo‘lganlar bundan mustasno), yozuvchilar va bastakorlar, ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qisqa muddatli mehmonxonada joylashtirish, ijtimoiy xizmatlar, tibbiy va stomatologiyaga, dekorativ maqsadlarda va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun uzilgan gullar va o‘simliklar, ba’zi oltin tangalar va zargarlik buyumlari bilan bog‘liq bo‘lgan tovar va xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar.

Ko‘pgina mamlakatlar hukumatlari tomonidan o‘zlarining soliq tizimlarida QQS bo‘yicha stavkalarning (bazaviy, pasaytirilgan, nollik) turli xil foizlarni soliq ma’muryatchiligi murakkablashishiga qaramasdan qo‘llab quvvatlashadi. Chunki ular QQSni rag‘batlantirish siyosatidan vosita sifatida foydalanib tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishi yoki iste’molning alohida turlarini cheklashlari mumkin bo‘ladi. Oxirgi yillarda O‘zbekistonda soliq sohasida amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar bir qator ijobiy natijalarni berayotgan bo‘lsada, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, QQS ma’murchiligi va yuki bilan bog‘liq hal qilinishi lozim bo‘lgan kichik bo‘lsada muammolar mavjud bo‘lib qolmoqda. Xususan, QQS ma’murchiligini takomillashtirish va ushbu soliq turi bo‘yicha to‘lovchilar hajmini oshirishga soliqning stavkasini isloh qilmasdan turib kirishilishi inflyasiyaning nisbatan kuchayishiga va uzoq yillar mobaynida yagona soliq to‘lashga o‘rganib qolgan aksariyat tadbirkorlik sub’ektlari QQS ma’murchiligidan qutulish uchun o‘z tushumini yashirish choralarini ko‘ra boshlashiga zamin yaratishi mumkin. Nazariy adabiyotlar va soliqqa tortishning xalqaro amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatdiki, yuqori stavkali QQS sharoitida soliqqa tortishning ijtimoiy funksiyasi to‘laqonli ishlashi uchun QQSning birinchi darajali va ijtimoiy xarakterli tovar hamda xizmatlarga nisbatan pasaytirilgan (imtiyozli) stavkalari amal qilishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda QQSning pasaytirilgan stavkasini joriy etgan holda (Xitoy misolida) yillik tovar aylanmasi (yalpi tushumi) bir milliard so‘mdan kam yuz million so‘mdan ko‘pni tashkil qilayotgan aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilarga nisbat qo‘llash. Mamlakatimizda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratilamayotgan sohalarni tahlil qilgan holda ushbu sohalarni qo‘llab quvvatlash maqsadida QQSning tabaqalashtirilgan stavkalarini joriy etish mumkin bo‘ladi. Huddi shuningdek, ushbu soliq turi bo‘yicha amalda qo‘llanilayotgan soliq imtiyozlarini samarasini o‘rgangan holda samarasiz deb topilgan soliq yengilliklarini bekor qilish bo‘yicha tegishli qonunlarga o‘zgartirish kiritish orqali ham soliqning adolatlilik tamoyiliga erishilgan holda dablat budjetiga tushumlarning barqarorligini ta’minlash mumkin bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni, 2018 yil 29 iyun.
2. O‘zbekiston Respublikas Soliq kodeksi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 02/19/SK/4256-son.
3.Iris ClauIs, The value added tax a useful macroeconomic stabilization instrument, 2013.
4. Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. Backgrounder. The Heritage Foundation, 1 June, No.1765.2004, pp. 2-16.
5. Pike, R., Lewis, M., Turner, D. (2009) Impact of VAT Reduction on the Consumer Price Indices, Office for National Statistics, Economic & labour market review, pp.17-21.
6. sefofuncas.com
7. Matkarimov Dilshodbek Ilxomovich Toshkent shahar Soliq boshqarmasi bosh inspektori
https://doi.org/10.5281/zenodo.14060112

MAHALLIY SOLIQLAR VA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMLARI

Safarov Jahongir
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: safarovjahongir@mail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513944

Annotatsiya: Ushbu tezisda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni tahlil qilingan. Soliq tushumlarining davlat moliyaviy barqarorligidagi ahamiyati, ularning tarkibi va dinamikasi statistik ma"lumotlar asosida o'rganilgan. Shuningdek, Tadqiqot natijalari soliq siyosatini yanada samarali yuritish hamda byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, soliq tizimi, soliq daromadlari, fiskal siyosat, byudjet barqarorligi, liberallashtirish, keshbek, soliq qo'mitasi, mahalliy soliqlar,

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa moddiy resurslarni takror ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o'z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi.Mahalliy soliqlar mahalliy budjetga o'tkaziladi. Yer solig'ining bir qismi qonunlarda belgilangan tartibda yerdan foydalanish ishlarini yaxshilash yuzasidan umumdavlat tadbirlarini amalga oshirish uchun respublika budjetida markazlashtirilishi mumkin.

Mahalliy yig'imlar – bu O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qaroriga muvofiq belgilangan, fuqarolar va tashkilotlardan ularga ko'rsatilgan madaniy-maishiy xizmatlar yoki davlat hokimiyatining mahalliy organlari nazorati ostida o'tkaziladigan boshqa tadbirlarning chiqimlari bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash uchun undiriladigan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar va yig'imlarga quyidagilar kiradi:

a) jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq;

b) yer solig'i;

v) kurort mintaqasida ishlab chiqarish obyektlarini qurishga solinadigan soliq;

g) reklama solig'i;

d) avtomobil vositalari, murakkab hisoblash va ro'zg'or texnikasini qayta sotganlik uchun solinadigan soliq;

e) transport vositalari egalaridan olinadigan soliq;

j) kurort yig'imi;

z) savdo-sotiq qilish huquqini beruvchi yig'im;

i) vino-aroq mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini beruvchi ruxsatnoma yig'imi;

k) mahalliy kimoshdi savdolari va lotereyalar o'tkazish huquqini beruvchi ruxsatnoma yig'imi;

l) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni ro'yxatga o'tkazganlik uchun olinadigan yig'im;

m) avtotransportlar saqlanadigan joydan foydalanganlik uchun yig'im;

n) otchoparlarda poygada qatnashganlik uchun yig'im;

o) otchoparlarda o'tkazilgan poygadagi yutuq uchun yig'im;

p) birjalardagi oldi-sotdi bitimlaridan undiriladigan yig'imlar;

r) kino va telesuratga olishlarni o'tkazish huquqini beruvchi yig'imlar;

s) aholi manzilgohlari hududini supirib-sidirish uchun yig'im;

Daromadlar (foyda), soliq to'lovchilarning ayrim faoliyat turlari, tabiiy resurslardan foydalanish, jismoniy shaxslarning mol-mulki, qonun hujjatlarida belgilangan ishlar(xizmatlar) va boshqa obyektlar soliq solish va yig'imlarni undirish obyektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi fuqarolar, mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar soliq solish va yig'imlarni undirish subyektlari hisoblanadi. Soliqlar

va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lash hamda mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunlarga rioya etish yuzasidan javobgarlik soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Ushbu Qonun talablarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar amaldagi qonunlarga muvofiq intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.[1]

Davlatimiz tomonidan mustaqillik yillaridan boshlab tadbirkorlik sohasini rivojlantirish maqsadida soliqlardan imtiyoz va preferensiyalar berib kelinmoqda. Buning natijasida, bugungi kunga kelib tadbirkorlik sohasi jadal rivojlandi. Shu bilan birgalikda amaliyotda shunday holatlar ham mavjudki, soliq to‘lovchilar obyektiv yoki subyektiv sabablarga ko‘ra, belgilangan muddatlarda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va yig‘imlar summasini to‘lab bera olmaydi. Ushbu to‘lanmagan summa soliq qonunchiligiga binoan, soliq qarzi hisoblanib, soliq organlari tomonidan majburiy undirishga qaratiladi. 2023-2024-yillar mobaynida respublikada faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni hamda ular ichida soliq qarziga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilarning ulushini quyidagilar orqali ko‘rishimiz mumkin. Ko’rinib turibdiki, yurdik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni yil sayin o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib turibdi. Respublika bo‘yicha 2023-yilda subyektlar soni 838,5 mingtani, 2024-yilda 892 mingtani, 2025-yilda 901 mingtani,. Bu 2025-yilda 2023-yilga nisbatan 137,5 mingtaga yoki 20,6 foizga ko‘payganligini anglatadi.Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizda soliq undirish jarayonlari ham mutanosib ravishda o‘sganidan dalolat beradi. Jumladan, Soliq qo‘mitasi matbuot xizmati xabar berishicha, “Mahalliy” va “korxona” ishlash tizimlari hamda sohani raqamlashtirish borasidagi ishlar natijasi soliq tushumlarini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, soliq organlari tomonidan respublika bo‘yicha byudjetga 199,6 trln. so‘m soliq tushumlari ta’minlanib, 2023 yilga nisbatan 20 foiz o‘sishga erishildi. Tuman va shaharlar byudjetiga tushumlar 24 foizga oshdi. Hududlar kesimida Toshkent shahri – 27 foiz, Sirdaryo – 25 foiz va Toshkent viloyati – 23 foiz yuqori o‘sish kuzatildi. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari 31,4 foizga (+1,4 trln.so‘m) o‘sdi. Toshkent shahri – 63,6 foiz, Toshkent viloyati – 42,5 foiz, Andijon – 37,6 foiz, Surxondaryo – 32,2 foiz o‘sish darajasi yuqori bo‘ldi. AOSdan 2,8 trln. so‘m tushirilib, o‘tgan yilga nisbatan 17,5 foizga o‘sdi.

Foyda solig‘i 29,1 foizga jumladan, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi 30,8 foizga va hududlarda 19,6 foizga o‘sdi. Sirdaryoda 1,8 baravarga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1,5 baravarga, Xorazmda 1,4 baravarga tushumlar o‘sib, respublika darajasidan yuqori. QQS 16,4 foizga (+5,6 trln.) o‘sdi. Sirdaryoda 39,2 foiz, Toshkent shahrida 31,7 foiz, Toshkent viloyatida 27,6 foiz, Jizzaxda 25,8 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 23,7 foiz o‘sdi yoki respublika darajasidan yuqori.

Bundan tashqari, soliq organlari xodimlari tomonidan manzilli ko‘rsatilgan amaliy yordamlar natijasida 64,5 mingta vaqtincha moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tiklandi, 134,8 mingta yangi tadbirkorlik sub’ektlari tashkil etildi.[2] Mamlakatimiz iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida barqaror iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish orqali qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik hamda tadbirkorlarga ko‘proq qulaylik berish orqali aholiga yengilliklar, jumladan, qo’shimcha ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlar va g’ovlarni bartaraf etishga erishish hamda aholi bandligini ta’minlash va ularning faoliyatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda soliqlar orqali rag’batlantirish byudjet-soliq siyosatining muhim ustuvor vazifalardan biridir.

Soliq tushumlarining mamlakatimizda tushumi hajmini quyidagi rasmdan bilib olishimz ham mumkin.

1-rasm[3]

[1] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.05.1993 yildagi 843-XII-son 26.05.1993
[2] https://uz24.uz/uz/articles/pul.
[3] https://pinkod.uz/



Xulosa

So‘ngi yillarda O‘zbekiston hududlari bo‘ylab soliq tushumlarinining o‘sishi hududlarning soliq potensialini o‘sishiga ta’sir qilgan. Ko‘ratkichlar viloyatlar kesimida farq qilsada, turli sohalarda soliq yig‘ish imkoniyatlari ba ma’muriy samaradorli yaxshilanganini ko‘rsatmoqda. Toshkent shahri va Hududlararo soliq inspeksiyasi soliq salohiyatini oshirgan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida esa soliq salohiyatini oshirish holatida ekanligini ko‘ramiz. Soliq bazasini kengaytirish, qonunchilikka rioya qilishni kuchaytirish va soliq siyosatini takomillashtirishga doimiy e’tibor har bir hududning soliq salohiyatini yanada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60- sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnig taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Xudoyqulov S. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. 23-bet. Худайкулов С.К. Совершенствования Оценки Налогового Потенциала Регионов в Узбекистане // Международная конференция. “Экономика Евразии” 2018 г. www.avekon.org/proceedings/avekon10.pdf .
3. Bozorova L.A. Byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo‘nalishlari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.05.1993 yildagi 843-XII-son 26.05.1993
5. https://uz24.uz/uz/articles/pul.
6. https://pinkod.uz/.

O'ZBEKISTON DAVLAT BUDJETINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING O'RNI

Mamadiyeva Dildora Qurbonali qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi
2-bosqich talabasi.
tel: +998 (90) 246 24 07 E-mail: dildoramamadiyeva872@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513973

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda O‘zbekiston davlat budjetining barqarorligini ta’minlashda soliq siyosatining o‘rni, uning asosiy yo‘nalishlari hamda iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilingan. Soliq siyosati davlat moliyaviy siyosatining markaziy elementi bo‘lib, budjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va investitsion faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda soliq tushumlarini ko‘paytirish, soliq yuki muvozanatini saqlash, budjet taqchilligini kamaytirish orqali fiskal barqarorlikka erishish masalalari yoritilgan. Shuningdek, soliq islohotlari natijasida soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq ma’murchiligini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil etilgan. Olingan natijalar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda byudjet siyosatini yanada samarali yo‘lga qo‘yishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, soliq siyosati, fiskal barqarorlik, soliq tushumlari, soliq islohotlari, iqtisodiy barqarorlik.

Davlat budjeti har bir mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va davlat boshqaruvining moliyaviy asosini ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjetining barqarorligi mamlakatning fiskal siyosati, xususan, soliq siyosatining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Soliq siyosati davlat moliyaviy siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida budjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar davlat budjeti barqarorligini mustahkamlashga, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq muhitini yaratishga va soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirishga qaratilgan. Soliq siyosatini takomillashtirish orqali budjet daromadlarini ko‘paytirish, soliq yuki muvozanatini saqlash hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston davlat budjeti barqarorligini ta’minlashda soliq siyosatining o‘rni, fiskal barqarorlikni saqlash mexanizmlari va soliq islohotlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish orqali davlat moliyaviy siyosatini yanada takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Davlat budjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiy siyosatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Budjet barqarorligini ta’minlash, bir tomondan, daromadlar bazasining kengayishi va soliqqa tortish tizimining takomillashuvi bilan, ikkinchi tomondan, davlat xarajatlarining oqilona rejalashtirilishi va nazorat qilinishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan soliq siyosati davlat budjetining asosiy moliyaviy manbai sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Soliq siyosatining mazmuni va vazifalari

Soliq siyosati — bu davlat tomonidan soliqlarni belgilash, ularning turlarini, stavkalarini, to‘lov tartibini va imtiyozlarini aniqlash orqali iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish tizimidir. Uning asosiy maqsadi budjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiyotda muvozanatni ta’minlash va ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Shu bilan birga, soliq siyosati investitsiyalarni rag‘batlantirish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan soliq islohotlari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Jumladan, so‘nggi yillarda soliq turlari soddalashtirildi, stavkalar pasaytirildi, soliq ma’murchiligi raqamlashtirildi va elektron soliq tizimi joriy etildi. Bu esa soliq tushumlarining oshishiga, byudjet intizomini mustahkamlashga hamda soliq to‘lovchilar uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qilmoqda.

Fiskal barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari

Fiskal barqarorlik — bu davlat moliyaviy tizimining daromad va xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatini saqlab qolish, budjet taqchilligini minimal darajada ushlab turish va qarz yukining oshib ketishiga yo‘l

qo‘ymaslik imkonini beruvchi tizimdir. O‘zbekiston misolida fiskal barqarorlikni ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1.Soliq bazasini kengaytirish – norasmiy iqtisodiyot hajmini qisqartirish va soliqqa tortish doirasini kengaytirish orqali budjet tushumlarini ko‘paytirish.

2.Soliq yuki muvozanatini saqlash – korxonalar uchun ortiqcha soliq bosimini kamaytirish, shu orqali ularning investitsion faolligini oshirish.

3.Soliq ma’murchiligini takomillashtirish – elektron hisob-kitob tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat vositalari va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

4.Budjet xarajatlarini optimallashtirish – byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash, samarasiz xarajatlarni kamaytirish.

Shu choralar natijasida davlat budjeti daromadlarining barqaror o‘sishi va fiskal muvozanatni saqlash imkoniyati yaratiladi.

Soliq islohotlarining iqtisodiy samaradorligi

O‘zbekiston Respublikasida 2017–2025-yillar davomida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida bir qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, yuridik shaxslar foyda solig‘i stavkasi 14 foizga tushirilgan, yagona ijtimoiy to‘lov 25 foizdan 12 foizga kamaytirilgan, QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) stavkasi esa 20 foizdan 12 foizga pasaytirildi. Bunday yondashuv tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yengillashtirib, iqtisodiy o‘sish uchun qo‘shimcha turtki berdi.

Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish natijasida esa soliq to‘lovchilar soni ortib, soliq tushumlari hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu esa fiskal siyosat samaradorligini oshirish va byudjet barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi.

Davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari

Kelgusida O‘zbekiston soliq siyosatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- Soliq yuki muvozanatini saqlagan holda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Soliq tizimida shaffoflik va ochiqlikni yanada kuchaytirish;
- Soliq siyosatini ekologik va ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish (yashil soliqlarni joriy etish);
- Hududlar miqyosida fiskal avtonomiyani oshirish, ya’ni mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish.

Bu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nafaqat davlat budjetining barqarorligini ta’minlaydi, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa.Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, soliq siyosati O‘zbekiston davlat budjetining barqarorligini ta’minlashda asosiy omillardan biridir. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan soliq siyosati nafaqat budjet daromadlarini barqaror oshirish, balki iqtisodiyotda muvozanatni saqlash, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy sohani rivojlantirish imkonini beradi.So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan soliq islohotlari fiskal barqarorlikni mustahkamlash, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratishda muhim natijalar berdi. Ayniqsa, soliq ma’murchiligining raqamlashtirilishi byudjet daromadlarini oshirish va soliq to‘lov intizomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.Biroq fiskal barqarorlikni yanada mustahkamlash uchun soliqqa tortish bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirish va soliq siyosatini hududiy darajada differensiallashtirish zarur. Shuningdek, ekologik, ijtimoiy va investitsion yo‘nalishlarda soliq imtiyozlarini maqbullashtirish orqali soliq tizimini yanada barqaror va samarali qilish mumkin.

Umuman olganda, soliq siyosatini izchil takomillashtirish va moliyaviy boshqaruvda shaffoflikni oshirish O‘zbekiston davlat budjetining barqarorligi, iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashning eng muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023.
2. G‘ulomov S.S., G‘aniev B.X. “Soliqlar va soliqqa tortish” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
3. Xo‘jayev A., Tursunov B. “Davlat moliyasi” – Toshkent: Moliya, 2021.
4. International Monetary Fund (IMF). “Fiscal Policy and Economic Stability: Global Perspectives” – Washington D.C., 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti – www.mf.uz

YASHIL IQTISODIYOTNING FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Ostonaqulov Alisher Adbirashidovich[1]
Mamarajabova Shahnoza Normo'min qizi[2]
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi katta o'qituvchisi
tel:+998 (90)-026-01-01
[2]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Buxgalteriya hisobi yo'nalishi
2-bosqich talabasi.
shahnozamamarejabova.01.11@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17514012

Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyotning davlat budjeti barqarorligiga ta'siri, ekologik soliqlar va "yashil" investitsiyalar orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlash masalalari yoritiladi. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muvozanatni tiklaydi, balki byudjet daromadlarini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, fiskal barqarorlik, ekologik soliq, qayta tiklanuvchi energiya, iqtisodiy o'sish.

So'nggi yillarda iqtisodiy rivojlanishning intensivlashuvi bilan bir qatorda ekologik muammolar ham keskinlashib bormoqda. Aholi sonining o'sishi, ishlab chiqarishning kengayishi va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish holatini yuzaga keltirdi. Natijada, iqtisodiy o'sish ekologik muvozanat hisobiga ta'minlanayotgan holatlar ko'paymoqda. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiyotning barqarorligi faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ekologik va fiskal barqarorlik darajasi bilan ham o'lchanadigan bosqichga o'tdi. "Yashil iqtisodiyot" atamasi ilk bor 2008-yilda BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan ilgari surilib, "past uglerodli, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy jihatdan qamrovli iqtisodiyot" sifatida ta'riflangan. Bu model iqtisodiy faoliyatni ekologik xavfsizlik, ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyot va fiskal barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik

Davlat byudjetining barqaror daromad bazasini shakllantirishda ekologik soliqlar, "yashil" investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. An'anaviy ishlab chiqarish tarmoqlari ko'pincha atrof-muhitga zarar yetkazgani sababli, ularni ekologik jihatdan toza faoliyatga o'tkazish uchun soliq siyosati orqali rag'batlantirish zarur.

Ekologik soliqlar — bu ifloslantiruvchi manbalar tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish yoki chiqindi chiqarish uchun to'lanadigan majburiy to'lovlardir. Ularning afzalligi shundaki, bunday soliqlar byudjet daromadlarini oshiradi, bir vaqtning o'zida ekologik siyosatni amalga oshirish uchun moliyaviy manba yaratadi.

Masalan, Shvetsiyada karbon solig'i joriy etilishi natijasida CO_2 chiqindilari 1990–2020 yillarda 25 foizga qisqargan, byudjet daromadlari esa 10 milliard yevroga yaqin oshgan. Germaniyada "Energiewende" dasturi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish orqali energetika sektorida davlat daromadlari ko'paydi va fiskal barqarorlik ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot siyosati

O'zbekistonda 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu strategiyada energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish va ekologik toza transportni kengaytirish maqsadlari belgilangan. 2023-yil yakunlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalari umumiy elektr ishlab chiqarish hajmining 10 foizini tashkil etdi.

Xalqaro tajriba tahlili

Jahon miqyosida yashil moliyaviy siyosatni joriy etish uchta asosiy yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

1. **Ekologik soliqlar tizimi** — Daniya, Norvegiya, Shvetsiya tajribasida bu mexanizm ifloslanish manbalarini kamaytirish bilan birga byudjetga barqaror tushumlarni ta'minlamoqda.

2. **Yashil obligatsiyalar (Green Bonds)** — AQSH va Yaponiyada davlat va xususiy sektor ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar chiqaradi.

3. **Yashil investitsiyalarni rag'batlantirish** — Janubiy Koreya va Germaniya ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritgan korxonalarga foizsiz kreditlar taqdim etadi.

Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga asoslangan fiskal siyosat barqaror daromadlar manbaini yaratadi va uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlaydi.

Muammolar va takliflar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi to‘siqlar mavjud:

- ✓ Ekologik soliqlar va to‘lovlarning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi;
- ✓ Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining pastligi;
- ✓ “Yashil” investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi.

Shu bois, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ekologik soliqlarni byudjet siyosatiga integratsiya qilish va ularni ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirish;
2. “Yashil” texnologiyalarga sarmoya kiritgan tadbirkorlik subyektlarini soliqlardan ozod etish yoki imtiyozli kreditlar bilan qo‘llab-quvvatlash;
3. Yashil moliyalashtirish fondlarini yaratish va xalqaro donor tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomova Sh.B. Iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlaridan biri — yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari. – Toshkent: “Universitet”, 2020. – 242 b.
2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.A., Butaboyev M.T., Toshmatov Sh.A. Yashil iqtisodiyot. – T.: “Universitet”, 2020. – 296 b.
3. Mahkamov J. Yashil iqtisodiyot va innovasiyalar: O‘zbekistondagi muammolar va yechimlar. – Toshkent: “Fan va taraqqiyot”, 2021.
4. Yuldoshev I. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot: rivojlanish istiqbollari. – “Iqtisodiy tahlil” jurnali, №3, 2020. – B. 45–50.
5. Turobova X.R., Kadirova M.M. Yashil iqtisodiyot. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – 96 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PENSIYA TIZIMINING MOLIYAVIY TAHLILI VA DEMOGRAFIK TENDENSIYALARI

Maxmudov Omon Tuxtayevich
Termiz davlat universiteti,
Moliya kafedrasi dotsenti v.b.,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-3097-0177
omon77@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17514036

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi va demografik tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda Pensiya jamg‘armasi daromad va xarajatlarining dinamikasi, davlat transfertlari ulushi, ijtimoiy sug‘urta bazasining kengayish tendensiyalari o‘rganilgan. Ma’lumotlar asosida 2020–2024-yillar davomida ish haqi fondining o‘sishi, soliq imtiyozlari natijasidagi yo‘qotishlar, pensiya jamg‘armasining transfertlarga bog‘liqligi hamda iqtisodiy faol aholi va pensionerlar nisbati hisoblangan. Ilmiy tahlil natijalari pensiya tizimining barqarorligini ta’minlash uchun raqamlashtirish, investitsion diversifikatsiya va nodavlat jamg‘armalarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda muallif tomonidan tizimni moliyaviy va institutsional jihatdan mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pensiya tizimi, pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy sug‘urta, davlat transfertlari, imtiyozlar siyosati, ish haqi fondi, demografik bosim, moliyaviy barqarorlik, dependency ratio, raqamlashtirish, nodavlat jamg‘arma, investitsion diversifikatsiya.

Pensiya tizimi — ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy institutlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning vazifasi aholiga mehnat faoliyatini yakunlagandan keyin moddiy ta’minotini kafolatlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va milliy iqtisodiyotning barqarorligini saqlash hisoblanadi. Pensiya tizimi shuningdek ichki investitsiya manbai sifatida ham iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar asosan davlat transfertlari, majburiy ijtimoiy to‘lovlar va nodavlat jamg‘armalarning uyg‘unlashuvini nazarda tutadi.

Pensiya tizimi nafaqat aholini ijtimoiy himoya qiladi, balki iqtisodiyotning quyidagi yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi:

Ichki iste’mol bozori — pensiya daromadlari aholining xarid qobiliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa umumiy yalpi talabni barqarorlashtiradi.

Investitsion faoliyat — pensiya jamg‘armalari mablag‘larini moliya bozoriga yo‘naltirish orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat bozori — pensiya yoshi va mehnat staji orqali mehnat resurslarining faol yoshdagi qismini boshqarish imkoni yaratiladi.

Pensiya tizimining barqarorligi birinchi navbatda aholining demografik dinamikasiga bog‘liq bo‘lib, agar ishlayotgan aholi ulushi pensiya yoshidagi aholidan kamaysa, tizimda “demografik nomutanosiblik” yuzaga keladi. Shu sababli ko‘pgina davlatlar pensiya yoshini oshirish, ish staji talablarini kuchaytirish yoki nodavlat jamg‘armalarni rag‘batlantirish orqali muvozanatni saqlashga intiladi.

Moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan esa, pensiya tizimidagi asosiy muammo — to‘lov qobiliyatidir. To‘langan badallar bilan amalga oshirilgan pensiya to‘lovlari o‘rtasidagi muvozanat buzilganda, davlat transfertlari hisobiga qoplash zarurati tug‘iladi. Tahliliy ma’lumotlar asosida O‘zbekiston Respublikasida Pensiya tizimidagi mavjud holat va muammolarni o‘rgandik.

1-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining 2024-yildagi ijrosi (mlrd.so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	Reja (mlrd so‘m)	Ijro (mlrd so‘m)	Ijro (%)
Hisobot davri boshiga qoldiq	3 183,8	3 037,3	-
Jami daromadlar	63 459,9	63 415,6	99,9
Pensiya jamg‘armasi tushumlari	47 478,3	47 145,0	99,3

Davlat byudjeti transfertlari	15 981,6	16 270,6	101,8
Jami xarajatlar	64 094,8	64 041,0	99,9
Hisobot oxirida qoldiq	2 402,4	2 411,9	-

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2024-yilda jami daromadlar rejaga nisbatan 99,9% ijro etilgan. Pensiya jamg'armasi tushumlari (47145,0 mlrd.so'm) rejaga nisbatan kam miqdorda yig'ilgani ish haqi fondidan tushumlarning to'liq yig'ilmasligi — norasmiy sektor va imtiyozlar bilan bog'liq. Davlat transfertlari 16270,0 mlrd. so'm bilan rejadan 101.8% ijro qilib, kamomadni yopishda asosiy rol o'ynagan. Bu holat jamg'armaning byudjetdan mustaqil faoliyat yuritish qobiliyati cheklanganligini ko'rsatadi. Yil oxirida saqlangan 2411,9 mlrd so'mlik qoldiqning 1,45 trlni depozitda ekanligi jamg'armaning likvid aktivlari mavjudligini ko'rsatadi, ammo bu mablag'lar jamg'arma xarajatlarini barqaror moliyalashtirishga yetarli emasligini ko'rsatdi.

2-jadval ma'lumotlari asosida tahlillarimizni davom ettiradigan bo'lsak, ish haqi fondining yarimdan ko'proq o'sishi jamg'arma daromadlarining o'sishida asosiy omil hisoblanadi. Biroq imtiyozlar tufayli yo'qotishlar 2020-yilda 17,7 trln.dan 2024-yilda 36,6 trln.gacha o'sgan.

2-jadval

Pensiya jamg'armasi daromadlarining dinamikasi tahlili (mlrd.so'mda)

Yil	Ish haqi fondi (mlrd so'm)	Jamg'arma daromadlari (mlrd so'm)	O'sish (%)	Imtiyozlar tufayli yo'qotish (mlrd so'm)
2020	118 007,8	20 592,3	—	17 677,5
2021	147 387,7	26 569,0	129,0	21 553,9
2022	189 863,6	33 180,0	124,9	26 959,4
2023	232 760,1	39 805,6	120,0	31 993,1
2024	271 737,5	47 145,0	118,4	36 574,6

Bu ko'rsatkichlar soliq siyosatining ijtimoiy yo'nalishdagi qo'llab-quvvatlovi natijasida jamg'arma uchun potensial tushumlarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Agar imtiyozlar saqlansa, transfertlar orqali bu kamomadni to'lash zarur bo'lib qoladi — bu esa byudjetga bo'lgan bosimini oshiradi.

3-jadval

Pensiya jamg'armasiga transfertlar ajratilishi tahlili, (mlrd.so'mda).

Yil	Daromadlar (mlrd)	Xarajatlar (mlrd)	Transfert (mlrd)	Transfert/Daromad (%)	Transfert/Xarajat (%)
2020	20 592,3	31 807,8	9 117,0	44,3	28,6
2021	26 569,0	36 605,3	10 744,2	40,4	29,3
2022	33 180,0	44 927,6	11 092,0	33,4	24,7
2023	39 805,6	53 589,4	13 797,5	34,6	25,7
2024	47 145,0	64 041,0	16 270,6	34,5	25,4

3-jadvalda esa Pensiya jamg'armasiga transfertlar ajratilishi tahlili keltirilgan bo'lib, transfertlar pensiya jamg'arma daromadlarining 2024-yilda 34,5% ini takshkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu koeffitsiyent jamg'armaning bozor-asosida mustaqil faoliyat ko'rsatmasini cheklaydi. O'z navbatida 2024 yilda transfert/xarajat nisbati 25.4%ni tashkil etgani shuni ko'rsatadiki, xarajatlarning ¼ qismi doimiy ravishda davlat byudjetidan qoplangan. Strategik nuqtayi nazardan bu tizimni uzoq muddatda barqaror qiladigan yanada samarali mexanizmlarni — nodavlat jamg'arma, investitsiya portfellarini va ijtimoiy to'lovlarning to'liq adolatli yig'ilishini talab etadi.

4-jadval

2020–2024-yillarda aholi, pensionerlar va iqtisodiy faol aholi dinamikasi

Yil	Aholi (mln)	Pensionerlar (mln)	Faol aholi (mln)	Pensioner ulushi (%)	Dependency ratio (%)
2020	34,6	3,42	14,8	9,9	23.1
2021	35,3	3,59	15,0	10,2	23.9
2022	36,0	3,77	15,0	10,5	25.1
2023	36,8	3,93	15,0	10,7	26.2
2024	37,6	4,10	15,1	10,9	27.2

Bu jadvalda soddalashtirilgan dependency ratio (pensionerlar/faol aholi *100) tahlili orqali pensiya tizimida demografik bosimni tahlil qilishimiz mumkin. 2020-yilda taxminan 23,1% bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 27,2% ga yetdi. Bu demografik bosimning sezilarli darajada o‘sganligini ko‘rsatadi — ya’ni har bir 100 faol ishchidan o‘rtacha 23–27 nafargacha pensiya oluvchilar to‘g‘ri keladi. Agar bu tendensiya davom etsa, kelgusida xarajatlar va transfertlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortari, bu esa jamg‘armaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-diagramma ma’lumotlari ko‘rinib turibdiki, soliq to‘lovchilar sonining oshishi ijtimoiy sug‘urta bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda, xolos. Biroq norasmiy sektorning hali ham yuqori ulushi va imtiyozlar tufayli yo‘qotishlar jamg‘armaning haqiqiy to‘langan daromad bazasini pasaytirmoqda. Bu sharoitda jamg‘armaning investitsiyadan kiritgan daromadlari va depozitli zaxiralari muhim ahamiyat kasb etadi.

1-diagramma

Iqtisodiy faol aholi, soliq to‘lovchilar va pensionerlar soni dinamikasi. mln nafar.



Hisob-kitoblar va tahlillar asosida aytish mumkinki, O‘zbekiston pensiya tizimi murakkab transformatsion bosqichda turibdi. Daromadlar va xarajatlar tendensiyalari, demografik o‘zgarishlar hamda imtiyozlar bilan bog‘liq yo‘qotishlar hisobga olingan holda muvozanatli siyosat va islohotlar kerak. Iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy adolatli pensiya tizimini ta’minlash uchun yuqoridagi tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Bu uzoq muddatli investitsiyalar, raqamlashtirish va institutlar rivoji orqali amalga oshirilishi mumkin.

Takliflar sifatida quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

1. Raqamlashtirish va integratsiya: Soliq qo‘mitasi va Pensiya jamg‘arma ma’lumotlari o‘rtasida to‘liq elektron integratsiyani joriy qilish zarur. Bu boqimanda mablag‘larini kamaytirish va o‘z vaqtida to‘lovlarni undirishni ta’minlaydi.

2.Sohada imtiyozlar siyosatini qayta ko‘rib chiqilishi lozim: Imtiyozlar mexanizmining koeffitsiyentlarini tahlil qilib, jamg‘armaga keladigan yo‘qotishlarni minimallashtirish choralari qo‘llanilishi zarur. Imtiyozlar uchun ma’lum yosh va daromad shartlari qo‘yish kerak.

3.Investitsion portfelni diversifikatsiyalash: Jamg‘arma mablag‘larini infratuzilma, davlat obligatsiyalari (xarid sifatida) va yuqori sifatli korporativ obligatsiyalarga yo‘naltirish orqali uzoq muddatli daromadni oshirish mumkin.

4. Nodavlat pensiya tizimini rivojlantirish: Subsidiyalash va soliq imtiyozlari orqali ixtiyoriy nodavlat jamg‘armalarini kengaytirish lozim, bu davlat transfertlariga bog‘liqlikni kamaytiradi.

5. Demografik siyosat: Pensiya yoshi va mehnatga layoqatli yoshni demografik prognozlar bilan uyg‘unlashtirish, hamda mehnat bozorida ayollar va katta yoshdagilar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish.

6. Modellashtirish va stress-testlar: Pensiya jamg‘armasi moliyaviy barqarorligini prognozlash uchun aktuariy modellar, ssenariy tahlillari va stress-testlarni muntazam o‘tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orlov S.N., Shemetov A.P. Pensionnoye obespecheniye v Rossiyskoy Federatsii. Monografiya. – Kurgan: “Izd-vo Kurganskogo gos. un-ta”, 2013. – 106 s.
2. Chuprova Ye.V. Pensionnoye obespecheniye grajdan v Rossiyskoy Federatsii. Uchebnoye posobiye. – M.: “Akademiya Generalnoy prokuraturы Rossiyskoy Federatsii”, 2017. – 144 s.
3. Kasimova G., Botirov A. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
4. Vaxabov A., Majidov N. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya sièsatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2017. – 128 b.
5. Kasimova G., Sholdarov D. Pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish. Monografiya. – T.: “TMI”, 2017. – 225 b. 6. Mamatov B. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – 280 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarni davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 1994-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi hisobotlari (2020–2024-yillar).
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING TUTGAN O‘RNI

Safaraliyev Basir Norboyevich[1]
Mirzayev Dilshod[2]
[1] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
tel:+998 (97)-076-08-80
E-mail: safaraliyevbasir@gmail.com
[2] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17514068

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o‘rni tahlil qilingan. Soliq tushumlarining davlat moliyaviy barqarorligidagi ahamiyati, ularning tarkibi va dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston byudjet tizimidagi mavjud muammolar, soliq siyosatini isloh qilish zaruriyati va ilg’or xorijiy tajribalar asosida takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari soliq siyosatini yanada samarali yuritish hamda byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: davlat byudjeti, soliq tizimi, soliq daromadlari, fiskal siyosat, byudjet barqarorligi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konseptsiyasi asosida soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni soddalashtirish maqsadida soliq tizimiga bosqichma-bosqich o‘zgartirishlar kiritilib, bugungi kun soliq amaliyotiga joriy etilmoqda. Natijada, soliqlarning soliq to‘lovchilar faoliyatiga ta’siri sezilarli darajada o‘zgarib kelmoqda. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish jarayonida shu vaqtga qadar bilvosita soliqlarga katta ahamiyat berilgan bo‘lsa, soliq siyosatini takomillashtirish konseptsiyasi doirasida bevosita soliqlarga ustuvorlik berilmoqda. Demak davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tizimli o‘rganish va tahlil qilish asosida taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlardan asosiy maqsadi, soliq yukining kamayishi evaziga soliq to‘lovchilar sonini ko‘paytirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish asosida fuqarolar uchun qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishdan iborat. Turli mamlakatlarda soliq tizimlari turlicha bo‘ladi, chunki mamlakatlar turli xil iqtisodiy xususiyatlarga va soliq tizimidan foydalanishda turli xil strategiyaga ega. Nazariya va amaliyotda soliq tizimining rivojlanishi to‘g‘ri soliqlar ulushining oshishini anglatadi va bu soliq tizimining progressivligini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, to‘g‘ri soliqlar hukumatlar daromadlarini oshirishning adolatli va haqqoniy usuli hisoblanadi. To‘g‘ri soliqlar bozor hajmi cheklanganda eng samarali daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi. To‘g‘ri soliqlar daromad taqsimotini muvozanatlash va tengsizlik farqini qisqartirish orqali tizimni yanada progressive bo‘lishiga olib keladi. Soliqlar davlat hamda mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Byudjetning xarajatlar qismi orqali iqtisodiyotga moliyaviy ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Soliqlar davlatning muayyan davrlarda aniq maqsadga qaratilgan iqtisodiyot soha faoliyatida, davlat budjeti daromadining shakllanishini ta’minlashda hamda iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solishda va boshqarishda alohida ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarali byudjet-soliq siyosati hamda uning iqtisodiyot taraqqiyoti uchun muhim mexanizm ekanligi, shuningdek, byudjet-soliq siyosatidagi islohotlarning jadal rivojlanib borishiga, soliq sohasiga doir soliq sohasi amaliyotidagi tizimli o‘zgarishlarning aniq baholashini belgilab beradi. Shu jumladan, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishlarning hozirgi bosqichida yangi talablar asosida davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta’minlashda soliqlar ta’sirchanligini oshirish masalalarini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega.

Soliqlarning davlat byudjetini tushumini ko‘paytirishdan tashqari Davlatdagi ijtimoiy vaiqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda ham asosiy rol o‘ynaydi. Qadim zamonlarda ham ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar hamda jarayonni tartibga solishda soliqlardan foydalanib kelingan va hatto davlatlarning shakllanishida ham soliqlarning o‘rni bo‘lgan. Chunki davlatlarning shakllanishini mukammal, barqaror bo‘lmagan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlariga tayanilgan. Shuningdek davlatning paydo bo‘lishining dastlabki bosqichlarida moliyaviy hamda iqtisodiy munosabatlarini jonlantirishda davlatning hukmdor vakillari har xil soliq to‘lovlaridan foydalangan va o‘z oldilarida turgan muammolarni yechishga harakat

qilishgan. Soliqlarning nima uchun zarurligini bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ikki holat bilan ta’riflash mumkin: birinchisi, davlatarning qator vazifasini mablag’lar bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchisi, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari asosida. Davlatlarning bajaradigan funksiyalari hamda vazifalari ko‘p va bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo‘qolib borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi.Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda davlatlarning yangi vazifasi paydo bo‘ladi. Bularga bizning O‘zbekiston Respublikasida ham kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyotining infratuzilmasini (sanoat sohasida, qishloq xo‘jaligi sohasida, moliya sohasida) tashkil etish kiradi. Shu yerda davlatning kuchli byudjet-soliq siyosatining tadbirlarini amalga oshirish uchun talabalar, ko‘p bolali onalar, pensionerlar, nafaqaxo‘rlar va boshqalarni mablag bilan ta'minlash muhimligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni davlat byudjeti hisobidan qoplaydi

hamda ularga boshqa xarajatlarini davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda ham kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etiladi.Soliqlar va davlat budjeti bir biri bilan chambarchas bog’langan.

Chunki soliqlar davlat budjetning shakllanishida bevosita ishtirok etadiDavlat soliqlarni budjetni shakllantirish uchun amalga oshiradi, soliqlar ayni bir aniq xarajatlarni qoplash maqsadlariga ega emas, bu ayni bir turdagi daromadlar tushadigan tushumdan amalga oshiriladigan xarajatlar soliqlar bog’liq bo‘lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq ayrim hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularni amalga oshirilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o‘ynashi mumkin.Soliqlar birinchi bo‘lib davlatning ijtimoiy vazifalarini mablag’lar bilan ta’minlashning zaruriyligidan ishlabchiqiladi. Davlatning oldida turgan barchavazifalarini bajarishga xizmat qiladi, bu vazifalar quyidagilardan iboratdir: -aholining kam ma’lum bir qismini (talabalar, nafaqaxo‘rlar, nogironligi bo‘lgan shaxslarva boshqalar)ni ijtimoiy-iqtisodiy ximoya qilish;-mamlakat mudofaasi tizimini ta’minlash;-mamlakat aholisining erkin mehnat qilish hamda erkin yashash muhofazasini ta’minlash;-mamlakat ichida uzluksiz iqtisodiy hamda ijtimoiy, madaniy tadbirlarni (ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, ijtimioy ta’minot) amalga oshirish;-boshqa davlatlar bilan ham iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy aloqalarni o‘rnatish;-bozordagi infrastrukturani yaratish, boshqa tadbirlar hamda ishlarni amalga oshirish uchun.Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslar soliqlar va boshqa yig’imlardan tashkil topadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bevosita soliqlar bo‘yicha tushumlar 100,3 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan tushumlarga nisbatan 12,8 trln so‘mga (14,6 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda. 2025-yilda bevosita soliqlar Davlat budjeti daromadlaridagi salmog‘i 32,5 foizni (2024-yilda 32,3 foiz kutilmoqda) tashkil etadi. Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 54,8 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 5,8 trln so‘mga (12 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Oltin qazib chiqaruvchi korxonalardan tashqari to‘lovchilar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari 29,6 trln so‘m (o‘sish sur’ati 7,4 foiz) hisob-kitob qilingan. Mazkur soliq turi prognozini hisob-kitob qilishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar foydasining 2024-yil kutilayotgan miqdoriga nisbatan o‘sish sur’atlari 17 foiz miqdorida ko‘zda tutilgan. Milliy qonunchilikni JST (Jahon standarti talabi) talablariga moslashtirish maqsadida eksport imtiyozlarining bekor qilinishi hisobiga 1,1 trln so‘m, mobil aloqa uchun aksiz solig‘ining bekor qilinishi hisobiga 165 mlrd so‘m qo‘shimcha daromad tushishi inobatga olingan. Bilvosita soliqlar bo‘yicha tushumlar 104,7 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 14,9 trln so‘mga (16,5 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda. 2025 yilda ham bilvosita soliqlar Davlat budjeti daromadlarning asosiy qismini tashkil qilib, umumiy daromadlar prognozining 33,9 foizini tashkil etadi (2024-yilda 33,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda). QQS bo‘yicha tushumlar 71,8 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 11,1 trln so‘mga (18,3 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Soliq qo‘mitasi tomonidan 47,6 trln so‘m, Bojxona qo‘mitasi tomonidan 57,9 trln so‘m daromad undirilishi ko‘zda tutilmoqda. Mazkur soliq bo‘yicha prognozni hisob-kitob qilishda imtiyozlarni bekor qilish hisobiga 96 mlrd so‘m, energo resurslar ta’riflarining o‘zgarishi hisobiga 477 mlrd so‘m hamda soliq-bojxona ma’murchiligini yaxshilash yuzasidan ko‘riladigan tadbirlar natijasida 2,7 trln so‘m tushishi inobatga olingan. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilarga QQSning 33,8 trln so‘mini (QQS bo‘yicha jami yig‘iladigan mablag‘larning 32 foizi) qaytarib berish prognoz qilingan. Aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 21,4 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 2 trln so‘mga (10,3 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Prognozni hisoblashda stavkalarni indeksatsiyalash hisobiga 1,2 trln so‘m, soliqqa tortiladigan tovarlar ro‘yxatini kengaytirish hisobiga 177 mlrd

so‘m qo‘shimcha daromad undiriladi. Shuningdek, mobil aloqa xizmati uchun soliqni bekor qilinishi tushumlarni 1,1 trln so‘mga kamaytirishi inobatga olinmoqda. Bojxona bojlari bo‘yicha tushumlar 11,5 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 1,7 trln so‘mga (17,6 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

Xulosa. Yuqorida ko‘rib chiqilgan o‘rganishlar va tahlillardan to‘g‘ri soliqlarning darajasi rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga turlicha va to‘g‘ri soliqlar uchun yuqori miqdorning belgilanishi o‘rta va quyi qatlam aholisining daromadlariga salbiy ta’sir qilishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari har bir soliq turlarnining nima maqsadga yo‘naltirilganligining jamoatga ochiq ma’lumotlar berib borilishi aholida soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash va soliq ma’muriyatchiligiga ishonchini orttiradi. Ushbu jarayon nafaqat mustahkam soliq bazani shakllantirishga, balki iqtisodiy jarayonning yanada barqaror bo‘lishiga olib keladi. Xalqaro hamkorlikning ham to‘g‘ri soliqlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababi ikkiyoqlama soliq solishdagi muammolar, rezident va norezident shartnomalari, fuqarolarning qaysi mamlakat soliq to‘lovchisi ekanligi kabi bir qancha savollarga javob topishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Byudjet-soliq siyosati va byudjet tizimi / A. M. Karimov. —Tashkent: O‘qituvchi, 2024.
2. Davlat byudjeti va soliqlar / M. Sh. Tursunov. —Tashkent: Fan, 2021.
3. Iqtisodiy rivojlanish va soliqlar / N. A. Asimov. —Tashkent: Iqtisodiyot va tashqi savdo vazirligi nashriyoti, 2024.
4. Soliq tizimi: nazariya va amaliyot / N. B. Sultonov. —Tashkent: Iqtisodiy bilimlar, 2019.
5. Byudjet-soliq siyosati va iqtisodiy barqarorlik / O. R. Abdullaeva. —Tashkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022.
6. Global soliq tizimlari va ularning davlat byudjetiga ta'siri / R. P. Xoshimov. —Tashkent: O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy aloqalar universiteti nashriyoti, 2024.
7. Iqtisodiy tahlil va soliqlarning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni / S. A. Bunyodov. —Tashkent: Yangi avlod, 2023.
8.https://api.mf.uz/media/budget_activity_files/Budjetnoma_2025_BmO2cnx.pdf

MAHALIY SOLIQLAR VA ULARNI UNDIRISH MEXANIZMLARI

Norqulov Eldor Komiljon o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika insitiuti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti moliya va moliyaviy texnologiya yo‘nalishi
4-bosqich talabasi Tel:+998 (91)-906-02-11
https://doi.org/10.5281/zenodo.17514089

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan mahalliy soliqlar tizimi, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni, mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati hamda ularni undirish mexanizmlarining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, soliq tizimidagi islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va soliq to‘lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqotda mahalliy soliqlarning turlari, ularni undirishda zamonaviy yondashuvlar hamda soliq organlarining faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mahalliy soliqlar, davlat byudjeti, byudjet tizimi, moliyaviy mustaqillik, soliq siyosati, fiskal siyosat, soliq mexanizmi, soliq ma’murchiligi, soliq to‘lovchi, soliq organlari, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yig‘imlar, soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, raqamlashtirish, elektron to‘lov tizimi, soliq islohoti, iqtisodiy barqarorlik, hududiy rivojlanish, soliq intizomi, moliyaviy boshqaruv, byudjet daromadlari, soliq nazorati, davlat soliq qo‘mitasi, kadastr qiymati, fiskal intizom, shaffoflik, elektron hisob-kitob, soliq siyosatini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimi mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich isloh qilinib, bugungi kunda zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu jarayonda mahalliy soliqlar va yig‘imlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular hududiy byudjetlarni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi. Mahalliy soliqlar — bu faqat muayyan ma’muriy-hududiy birlik doirasida undiriladigan, uning byudjetiga tushadigan majburiy to‘lovlardir. Ular davlat soliqlari kabi umumrespublika ehtiyojlarini emas, balki aynan mahalliy infratuzilma, ijtimoiy soha va kommunal xizmatlar tizimini rivojlantirishni moliyalashtirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, hozirda asosiy mahalliy soliqlar qatoriga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kiradi. Ayrim hollarda, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunchilik doirasida turli yig‘imlar, masalan, avtoturargohlar uchun to‘lov, reklama joylashtirish uchun yig‘im, savdo faoliyati bilan bog‘liq ruxsat yig‘imlari ham joriy etilishi mumkin. Ushbu soliqlar mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, hududning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy soliqlarning asosiy vazifasi — bu moliyaviy resurslarni joylarda shakllantirish orqali iqtisodiy mustaqillikni ta’minlashdir. Shu bilan birga, ular byudjetlararo munosabatlarning muvozanatini saqlab turishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tuman yoki shahar byudjeti asosan mol-mulk solig‘i va yer solig‘idan tushgan mablag‘lar hisobiga to‘ldiriladi. Bu tushumlar esa o‘z navbatida maktablar, bog‘chalar, tibbiyot muassasalari, yo‘llar va boshqa ijtimoiy ob’ektlarni ta’mirlash, obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishda ishlatiladi.

Mahalliy soliqlarni undirish mexanizmi deganda, soliqqa tortish jarayonining huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslari tushuniladi. Bu mexanizm soliq to‘lovchilarni aniqlash, soliq bazasini hisoblash, stavkalarni belgilash, imtiyozlar qo‘llash, to‘lovlarni qabul qilish va nazorat qilish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan barcha soliqlar, jumladan mahalliy soliqlarni undirish elektron tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda “my.soliq.uz” elektron portali, mobil ilovalar, QR-to‘lov tizimlari, onlayn hisob-kitob mexanizmlari keng joriy etildi. Bu esa soliq to‘lovchilarga qulaylik yaratish bilan birga, soliq tushumlarini oshirish va yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Mahalliy soliqlarni undirishda muhim jihatlardan biri — soliq to‘lovchilarni to‘g‘ri hisobga olishdir. Har bir fuqaro yoki tashkilotning soliq majburiyatlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Bunda yer maydoni, bino yoki inshootning qiymati, foydalanilayotgan suv hajmi kabi obyektiv mezonlar asosida soliq bazasi aniqlanadi. Soliq stavkalari esa viloyatlar, tumanlar kesimida tabaqalashtirilgan holda belgilanadi. Shu orqali iqtisodiy imkoniyatlar darajasi inobatga olinadi va adolat tamoyiliga amal qilinadi.

№[1]	Mahalliy soliq turi	Soliq ob’ekti	Soliq stavkasi (yoki bazasi)	Undirish mexanizmi	Mahalliy byudjetdagi o‘rni
1	Yer solig‘i	Yer maydoni (geodezik o‘lchov asosida)	Yerning sifati, joylashuvi va maqsadiga qarab belgilanadi	Kadastr organlari ma’lumotlari asosida soliq organlari tomonidan hisoblanadi	Mahalliy byudjetning asosiy manbalaridan biri
2	Mulk solig‘i (jismoniy shaxslardan)	Jismoniy shaxs mulkidagi bino va inshootlar	Kadastr qiymatiga nisbatan belgilanadi	Har yili 1-iyulgacha to‘lov xabarnomasi yuboriladi	Mahalliy daromadlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi
3	Savdo (yarmarka) faoliyati uchun yig‘im	Tadbirkorlik faoliyati joyi	Belgilangan stavka asosida	Mahalliy hokimiyat ruxsati va soliq organlari nazorati orqali	Mahalliy infratuzilmani rivojlantirish uchun yo‘naltiriladi
4	Avtotransport vositalari egalarining solig‘i	Transport vositalari turi va hajmi	Belgilangan miqdorda (dvigatel hajmiga ko‘ra)	YHXB va soliq organlari ma’lumotlari integratsiyasi orqali	Yo‘l infratuzilmasini saqlash va ta’mirlash xarajatlariga yo‘naltiriladi
5	Turizm yig‘imi	Mehmonxona yoki dam olish maskanida qolgan shaxslar	Belgilangan foiz stavkasida	Mehmonxona ma’muriyati tomonidan yig‘ilib, byudjetga o‘tkaziladi	Mahalliy turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi

Ushbu jadval O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va Moliya vazirligi ma’lumotlariga asoslanib tuzilgan bo‘lib, unda respublika hududlarida amal qiluvchi asosiy mahalliy soliqlar turlari, ularning soliq ob’ekti, stavkalari, undirish mexanizmlari va byudjetdagi ahamiyati yoritilgan.

Mahalliy soliqlar davlat moliya tizimining eng muhim qismini tashkil etadi. Ular orqali mahalliy hokimiyatlar o‘z hududlarining infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, bu soliqlarni undirish mexanizmlarining samaradorligi iqtisodiy barqarorlik va fiskal mustaqillikni ta’minlashda muhim omil sanaladi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yer va mulk soliqlari mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi, turizm yig‘imlari esa so‘nggi yillarda iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Undirish jarayonining samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. So‘nggi yillarda soliq organlarida “raqamli nazorat” tizimi joriy etilib, soliq to‘lovchilarning faoliyatini avtomatik monitoring qilish imkoniyati yaratildi. Natijada, soliq to‘lov intizomi mustahkamlanmoqda, to‘lovlar o‘z vaqtida amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, soliq xizmati organlari aholiga ma’lumot berish, tushuntirish va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan. Bunday ochiqlik fuqarolarning davlat moliyasiga bo‘lgan ishonchini oshirmoqda.

Biroq amaliyotda mahalliy soliqlarni undirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba’zi joylarda mol-mulk obyektlari ro‘yxatga olinmagan yoki kadastr qiymati aniqlanmagan holatlar uchraydi. Natijada, soliq bazasi to‘liq shakllanmaydi va byudjetga tushum kamayadi. Shu sababli, soliq ma’lumotlarini yagona elektron reyestr asosida yuritish, kadastr ma’lumotlari bilan integratsiya qilish zarur. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari ba’zan haddan tashqari ko‘p qo‘llaniladi, bu esa byudjetga tushumlarni kamaytiradi. Shu bois imtiyozlarni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish muhim.

Mahalliy soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlaridan yana biri — bu soliq ma’murchiligi tizimini soddalashtirish va shaffof qilishdir. Elektron hujjat aylanishi, avtomatik hisob-kitob

[1] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2024. – 315-bet.

tizimlari, soliq to‘lovchilar uchun yagona identifikatsiya raqamlarini joriy etish orqali bu maqsadga erishish mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribaga ko‘ra, soliq to‘lovchi bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash soliq tushumlarini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan 2017–2024-yillar davomida olib borilgan soliq islohotlari natijasida mahalliy soliqlar stavkalari bosqichma-bosqich qayta ko‘rib chiqildi, soliqqa tortish bazasi kengaytirildi. Masalan, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ida imtiyozlar tizimi qayta tartibga solindi, yer solig‘ida normativ qiymatlar yangilandi. Natijada, mahalliy byudjet tushumlari sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, “raqamli iqtisodiyot” sharoitida elektron to‘lovlar hajmining ortishi soliq tushumlarining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, mahalliy soliqlarni undirish mexanizmlarining samarali faoliyati hududlar rivojlanishining kafolatidir. Shu sababli, soliq siyosatini yanada takomillashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, soliq to‘lovchilar uchun qulayliklar yaratish, shuningdek, soliq ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash zarur. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi esa bevosita ushbu mexanizmlarning samarali ishlashiga bog‘liq. Har bir soliq to‘lovchi o‘zining majburiyatlarini anglab yetganda va davlat soliq siyosatiga ishonch bildirganda, mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanadi.

Xulosa: Mahalliy soliqlar mamlakat byudjet tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydigan eng muhim moliyaviy manbalardan biridir. Ular nafaqat davlat daromadlarini shakllantirishda, balki hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda, aholi farovonligini oshirishda va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mahalliy soliqlarning to‘g‘ri belgilanishi, ularni undirish mexanizmlarining samarali yo‘lga qo‘yilishi natijasida joylardagi byudjetlarning barqarorligi ta’minlanadi, iqtisodiy o‘sish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mahalliy soliqlarni undirish tizimi bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Elektron to‘lov tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari, yagona ma’lumotlar bazalari va soliq to‘lovchilar bilan ochiq muloqot tamoyillari joriy etilayotgani — bu sohada samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini adolatli taqsimlash, soliq ma’murchiligini soddalashtirish va soliq intizomini mustahkamlash bo‘yicha islohotlar davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy soliqlarni samarali boshqarish, ularni undirishda zamonaviy mexanizmlardan foydalanish, soliq to‘lovchilar uchun qulay muhit yaratish — bu nafaqat byudjet daromadlarini oshiradi, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Aynan shu yo‘l bilan O‘zbekistonning hududiy rivojlanishi va moliyaviy mustaqilligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2024. – 315-bet.O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risidagi 2024-yilgi Qonun.
2. “Mahalliy byudjetlarni mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5316-sonli Prezident qarori, 2021-yil 20-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot”, 2023-yil.
4. Axmedova, N. *Soliq imtiyozlari va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.* Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi**.** “Byudjet-soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari”, 2024-yilgi tahliliy ma’lumotnoma.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA FISKAL BARQARORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Norqobilov Nusratilla Norsaitovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrasining mustaqil izlanuvchisi, dotsent.
nusrat.1977@.mail.ru. ORCID: 0009-0006-5045-1194 tel.998-99- 410-15-58
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518900

Annotatsiya: Mazkur maqolada fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat budjeti daromadlarining barqaror manbalarini shakllantirish orqali aholining farovonligini oshirishning nazariy hamda amaliy asoslari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, aholi farovonligi, soliq-budjet siyosati, ijtimoiy himoya, iqtisodiy o‘sish, davlat xarajatlari samaradorligi, raqamlashtirish.

Аннотация: В статье излагаются научно-практические предложения по теоретическим и практическим основам повышения благосостояния населения путем обеспечения фискальной устойчивости и формирования стабильных источников доходов государственного бюджета.

Ключевые слова: государственный бюджет, благосостояние населения, налоговая и бюджетная политика, социальная защита, экономический рост, эффективность государственных расходов, цифровизация.

Annotation: This article provides scientific and practical proposals on the theoretical and practical foundations of improving the well-being of the population by ensuring fiscal stability and forming stable sources of state budget revenues.

Keywords: state budget, population welfare, tax and budget policy, social protection, economic growth, efficiency of public spending, digitalization.

Kirish

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy maqsadi aholining farovonligini oshirish, hayot sifati va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdan iboratdir.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa, avvalo, davlatning fiskal barqarorlik darajasi va budjet siyosatining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Fiskal barqarorlik-iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligini, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun zarur resurslarni yaratishni hamda davlat qarzining xavfsiz darajada boshqarilishini anglatadi.

Aholi real daromadlarining o‘sishi, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va sifati, bandlikning kengayishi, kambag‘allikning qisqarishi fiskal siyosatning samaradorligidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda fiskal islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilib, soliq tizimi modernizatsiya qilinmoqda, budjet xarajatlarining oqilona yo‘naltirilishi va shaffofligini oshirish ishlari faollashmoqda. Shu bilan birga, tashqi makroiqtisodiy xatarlar, budjet daromadlarining o‘zgaruvchanligi, byudjet taqchilligi muammolari fiskal barqarorlikni mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shundan kelib chiqib, fiskal barqarorlikning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ular orqali aholi farovonligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy siyosatning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri sanaladi.

Mazkur tadqiqotda aynan davlat budjeti daromadlarining barqaror manbalarini shakllantirish, ijtimoiy yo‘naltirilgan budjet siyosatini takomillashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini ta’minlash masalalariga qaratilgan (1-jadval).

Fiskal barqarorlik orqali aholi farovonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari[1]

1-jadval

№	Ustuvor yo‘nalish	Mazmuni	Kutiladigan natijalar	Baholash ko‘rsatkichlari
1	Davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash	Byudjet taqchilligini maqbul darajada ushlab	Makroiqtisodiy muvozanat, aholi	Byudjet taqchilligi (% YaIM), YaIM o‘sishi

[1] Uzbekistan – Living Standards Assessment - World Bank tomonidan chop etilgan hisobot; aholi turmush darajasi va ijtimoiy siyosatlar holati ko‘rib chiqilgan hisoboti. 2024 yil.

		turish, samarali byudjet rejalashtiruvi	daromadlarining barqaror o‘sishi	
2	Soliq siyosatini optimallashtirish	Soliq yukini iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi tarzda boshqarish	Yangi ish o‘rinlari, tadbirkorlik rivoji	Soliq tushumlari hajmi, norasmiy iqtisodiyot ulushi
3	Ijtimoiy xarajatlar samaradorligini oshirish	Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan mablag‘lar natijadorligini oshirish	Inson kapitali rivoji, qashshoqlik kamayishi	HDI, qashshoqlik darajasi, ishsizlik
4	Davlat qarzini boshqarishning puxta tizimi	Qarz portfelining xavfsiz tuzilmasini shakllantirish	Qarz xavfi pasayishi, investitsion ishonch ortishi	Davlat qarzi (% YaIM), qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari
5	Hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash	Mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirish va transferlarni optimallashtirish	Hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish	Hududiy YaIM o‘sishi, infratuzilma qamrovi
6	Fiskal shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish	Moliya ma’lumotlarining ochiqligi, korrupsiyani cheklash	Aholining davlat siyosatiga ishonchi ortishi	Ochiqlik indeksi, korrupsiya ko‘rsatkichlari
7	Nogazaviy daromadlar ulushini oshirish	Ekologik to‘lovlar, turizm va xizmatlar sektoridan tushumlarni ko‘paytirish	Fiskal barqarorlikning manba diversifikatsiyasi	Nochilik (rent)ga bog‘liqlik indeksi
8	Ijtimoiy himoya tizimlarining manzilliligi	Subvension va yordamlarning aniq ehtiyojga yo‘naltirish	Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash yaxshilanishi	Manzillilik indeksi, yordam oluvchilar ulushi
9	Raqamli byudjet boshqaruvi	Xarajatlar nazoratini kuchaytirish, soliq yig‘imini avtomatlashtirish	Xarajatlarning oqilnaliligi, soliq bazasining oshishi	Raqamlashtirish darajasi, fiskal monitoring samaradorligi

1-jadvalda aholi farovonligini oshirishda fiskal barqarorlikni ta’minlash birinchi navbatda davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlashni talab etadi.

Byudjet taqchilligini maqbul chegaralarda ushlab turish va samarali rejalashtirish orqali makroiqtisodiy muvozanat saqlanadi hamda aholi daromadlarining barqaror o‘sishiga zamin yaratiladi. Bu jarayon byudjet taqchilligi YaIM hamda YaIM o‘sishi kabi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi.

Ikkinchi yo‘nalish - soliq siyosatini optimallashtirish. Soliq yukining iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi darajada shakllantirilishi bandlikni kengaytiradi, tadbirkorlik subyektlari sonining o‘sishiga olib keladi. Uning samaradorligi soliq tushumlari hajmining ortishi va norasmiy iqtisodiyot ulushining qisqarishi orqali aniqlanadi.

Uchinchi yo‘nalish - ijtimoiy xarajatlar samaradorligini oshirish, ya’ni ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimiga yo‘naltirilgan mablag‘larning natijadorligini kuchaytirish. Bu esa inson kapitalini rivojlantiradi, qashshoqlikni kamaytiradi.

Asosiy baholash mezonlari sifatida HDI, qashshoqlik darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlari olinadi.

To‘rtinchi yo‘nalish fiskal barqarorlikning xavf omillarini kamaytirishga xizmat qiladi - bu davlat qarzini boshqarishning puxta tizimi. Qarz portfelining xavfsiz tuzilmasini shakllantirish qarzga xizmat ko‘rsatish bosimini pasaytirib, investitsion muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Samaradorlik davlat qarzi/YaIM va qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari asosida baholanadi.

Beshinchi yo‘nalish - hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, ya’ni mahalliy byudjet daromad bazasini kengaytirish va transferlar tizimini optimallashtirish orqali hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish. Baholash uchun hududiy YaIM o‘sishi va infratuzilma qamrovi ko‘rsatkichlari qo‘llanadi.

Keltirilgan oltinchi yo‘nalish - fiskal shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Davlat moliyasida ochiqlik darajasi oshishi korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytiradi va davlat siyosatiga ishonchni orttiradi. Bu borada ochiqlik indeksi va korrupsiya ko‘rsatkichlari asosiy mezon sanaladi.

Yettinchi yo‘nalish - nogazaviy daromadlar ulushini oshirish orqali fiskal manbalarni diversifikatsiya qilish. Turizm, xizmatlar sohasi va ekologik to‘lovlar hisobiga byudjet daromadlarining barqarorligi mustahkamlab boriladi. Baholashda rentga qaramlik indeksi muhim.

Sakkizinchi yo‘nalish- ijtimoiy himoya tizimlarining manzilliligini kuchaytirish, ya’ni davlat yordamining aynan ehtiyojmand qatlamlarga yo‘naltirilishini ta’minlashdir. Jarayon manzillilik indeksi va yordam oluvchilar ulushi orqali baholanadi, bu esa ijtimoiy adolatni oshiradi.

To‘qqizinchi yo‘nalish - raqamli byudjet boshqaruvini joriy etish.

Soliq yig‘imi va xarajatlar ustidan nazoratning avtomatlashtirilishi fiskal monitoring samaradorligini oshiradi, soliq bazasini kengaytiradi va moliyaviy oqimlarning shaffofligini kuchaytiradi. Baholash mezonlari - raqamlashtirish darajasi va monitoring samaradorligi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fiskal barqarorlik - aholi farovonligini oshirishning asosiy institutsional omillaridan biri bo‘lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish qobiliyatini belgilaydi. Barqaror fiskal siyosat kuchli davlat moliyasini shakllantiradi, o‘sish omillarini rag‘batlantiradi va aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Birinchidan, byudjet taqchilligini maqbul darajada ushlab turish hamda samarali byudjet rejalashtiruvi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlaydi, bu esa inflyatsion bosimning pasayishi, barqaror daromadlar va investitsion faollikning ortishi bilan namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, soliq siyosatini optimallashtirish, soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish orqali iqtisodiy faoliyat kengayib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va norasmiy iqtisodiyot ulushi qisqaradi.

Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, moliyaviy resurslarni hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib qayta taqsimlash ijtimoiy adolatning ta’minlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Fiskal shaffoflikni oshirish esa davlat boshqaruvida korrupsiya xavfini pasaytirib, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Aholi farovonligini oshirishda fiskal barqarorlikning ustuvor yo‘nalishlari

amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- byudjet taqchilligini qisqartirish bo‘yicha fiskal regulyatorlarni kuchaytirish, o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy prognozlash mexanizmlarini kengaytirish lozim;

-soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish, raqamli nazorat tizimlari orqali soliqdan bo‘yin tovlashning oldini olish, kichik biznes uchun progressiv soliq yukini joriy qilish zarur;

- “har bir sarflangan so‘mning samarasi” tamoyili asosida monitoring tizimlarini joriy qilish, inson kapitaliga sarmoyani iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri sifatida kuchaytirish lozim;

-qarz portfeli tarkibini optimallashtirish, ichki qarz bozorini rivojlantirish, valyuta xatarlarini kamaytirish va qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini nazorat qilish zarur;

- mahalliy byudjet daromadlarining ulushini oshirish, infratuzilma loyihalarini moliyaviy qo‘llash va investitsiyalarni hududlarga keng jalb qilish.

- davlat mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha ochiq ma’lumotlar platformalarini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

- xizmatlar, turizm, logistika va IT sektorlarida eksport salohiyatini kengaytirish, ekologik soliqlarni joriy etishda xalqaro standartlardan foydalanish.

-yordam oluvchilarni aniqlashda raqamli ma’lumotlar bazalaridan foydalanish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini optimallashtirish.

-soliq va byudjet tizimlarida sun’iy intellekt va blockchain texnologiyalarini qo‘llash, moliyaviy jarayonlarda inson omilini kamaytirish maqsadga muvofiq.

Aholi farovonligini izchil oshirishda fiskal barqarorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, davlat moliyasining samarali boshqaruvi iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yuqorilashiga, ijtimoiy himoya tizimining kuchayishiga hamda jamiyatda teng imkoniyatlarning kengayishiga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fiskal siyosatni optimallashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlik va aholi daromadlarining ko‘payishi ta’minlanadi, ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag‘larning natijadorligini oshirish esa inson kapitalining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Fiskal siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini bir-biri bilan uzviy, tizimli va uyg‘un holda amalga oshirish O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi, ijtimoiy adolatning kuchayishi va aholi turmush farovonligining barqaror va inklyuziv o‘sishi uchun zarur shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Debrun X., Kumar M. The Discipline-Enhancing Role of Fiscal Institutions: Theory and Empirical Evidence. IMF Working Paper, 2007.y
2. Eyraud L., Debrun X., Hodge A., et al. Second-Generation Fiscal Rules: Balancing Simplicity, Flexibility, and Enforceability. IMF Staff Discussion Note, 2018. y
3. OECD. The Past and Future of Subnational Fiscal Rules. OECD Working Papers on Fiscal Federalism No.41, 2022. 25.10.2025. y
4. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Spending Smarter / Policies for the Recovery. Washington, DC, 2020. y
5. International Monetary Fund. Washington, DC, 2010–2025. y
6. World Bank. Efficiency of Public Spending in Developing Countries. Washington, DC, 2019. yil
7. Vahobov A.V., Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish: darslik. Toshkent: Sharq, 2017. 448 b. (Oliy o‘quv yurtlari uchun).
8. Niyozmetov I.M., Giyosov S.A., Fayziev F.A., Dushanov P.P.Soliq nazariyasi va tarixi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Chinor Fayzi Baland”, 2022. yil ISBN 978-9943-7878-9-6.

THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCE INSTITUTIONS IN THE UZBEKISTAN'S ECONOMY: AN EXAMINATION OF STRUCTURAL REFORMS AND FISCAL RISK

Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich[1]
Mingliboyev Elyor O‘ktam o‘g‘li[2]
[1] Senior Lecturer of the Department of Finance and Banking, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy. tel: +998 93 222 22 17 E-mail: alisherostonaqulov@gmail.com
[2] 2nd-year student of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.
tel: +998 88 550 06 08 mrelyormingliboyev2006@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518911

Annotatsiya: This research critically examines Uzbekistan's engagement with its principal IFIs, including the World Bank Group (WBG), the European Bank for Reconstruction and Development (EBRD), the Asian Development Bank (ADB), and the International Monetary Fund (IMF), and assesses their impact on the country's economic growth. Additionally, the study seeks to connect macroeconomic stability with ongoing institutional reforms by evaluating fiscal risks associated with state-owned enterprises and Public-Private Partnership (PPP) projects.

Keywords: Uzbekistan's economy, International Financial Institutions (IFIs), Economic Reforms in Uzbekistan, Macroeconomic Stability, Green Growth and Decarbonization, Debt Sustainability and Fiscal Risks.

INTRODUCTION:

The advancement of globalization and ongoing economic transformations have increased the significance of collaboration between national economies and International Financial Institutions (IFIs). Since the initiation of economic reforms in Uzbekistan in 2017, the country has prioritized cooperation with IFIs[1]. This partnership has enabled the mobilization of essential financial resources, technical support, and policy guidance necessary for implementing complex institutional and structuralreforms.

Currently, IFIs play an expanding role in modernizing Uzbekistan's economy by mobilizing investment flows and promoting macroeconomic stability. These developments necessitate a comprehensive evaluation of IFI performance, with particular attention to both the scale of investments and the sequencing of institutional reforms. The primary advantage offered by IFIs lies in their technical expertise, which supports the design of effective management reform sequences beyond infrastructure investment alone. Disregarding these policy recommendations may result in suboptimal outcomes, even when substantial funding is provided.

BASIC SECTION:

IFIs' Role and Principal Aims:

IFIs primarily engage in Uzbekistan's reform initiatives as policy advisers rather than solely as financial providers. Each institution maintains distinct strategic priorities:

1. IMF: The lead policy adviser whose goal is macroeconomic stability, oversight of fiscal consolidation, and spearheading the sequencing of structural reforms.
2. WBG: The Country Cooperation Program 2022-2026 is committed to a green growth transformation to an inclusive and sustainable market economy with emphasis on energy reform and enhanced institutional governance. Foreign Direct Investment (FDI) attraction and private sector regulation reform in special economic zones are goals of the International Finance Corporation (IFC), which is part of the WBG.
3. EBRD: The 2024 EBRD strategy will enhance competitiveness and facilitate green energy solutions, primarily decarbonization.
4. ADB: Focused on sector development, infrastructure lending, addressing climate change, and building regional transport links under the Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC).

Strategic Cooperation Principles:

The strategic focus of the alliance has shifted from historical poverty reduction to current priorities such as enhancing institutional governance and advancing a green energy transition. The emphasis of IFIs on green

[1] https://www.worldbank.org/en/results/2019/04/12/supporting-economic-and-social-reforms-in-uzbekistan-to-create-better-opportunities-for-all-citizens

growth and decarbonization aligns Uzbekistan with global financial standards, making decarbonization an economic necessity for the country.

Uzbekistan has successfully attracted IFIs' interest and support, emerging as one of the leading EBRD financing recipients in Central Asia for four consecutive years. This reflects the institutions' trust in the country's economic potential and the extent of their cooperation.

IFIs have made substantial investments in Uzbekistan's economy, with the EBRD providing approximately €4.28 billion and the IFC maintaining a $500 million portfolio as of August 2023. The majority of financial assistance has targeted poverty reduction programs, contributing to lower poverty rates alongside robust economic growth[2].

Spending on the social protection system has increased from 0.57% to 1.33% of GDP, aiming to sustain high levels of social support despite IMF-imposed requirements for debt and deficit restraint.

Epicentre of Strategic Funding Areas:

Investment is primarily directed toward strategic sectors that are also exposed to significant risks:

1. Energy Transformation: One strategic sector where the World Bank is financing a 250 MW solar power plant and a 63 MW Battery Energy Storage System for grid stabilization and utilization of renewable energy, along with the upgrade of 6,000 km of distribution networks.

2. Agriculture and Water Management: In 2018, 22% of XMI spending was allocated to agriculture, significantly exceeding the global average. This allocation demonstrates a focus on rural poverty alleviation and water resource management, although these efforts may conflict with green objectives due to the substantial greenhouse gas emissions associated with agriculture.

3. Financial Sector: A significant milestone in banking sector privatization was the acquisition of Ipoteka Bank by Hungary's OTP Group in 2023.
Analysis Despite macroeconomic achievements, structural challenges continue to limit the realization of Uzbekistan's economic potential. The dominance of state institutions (DUKs) and the slow pace of banking sector reforms are significant obstacles. DUKs control nearly half of GDP, restricting competition and private sector development, while state-owned banks dominate lending, limiting access to credit for small and medium-sized enterprises (SMEs). The continued presence of these challenges indicates significant institutional inertia, complicating the economic environment. The privatization of Ipoteka Bank is unlikely to serve as a catalyst for broader reforms among large state-owned banks. broader reforms in behemoth state banks.

External Debt and Fiscal Risks Assessment:

The IMF's Debt Sustainability Analysis ranks Uzbekistan as low-risk for external direct debt. However, the key fiscal risks are shifting away from direct debt to indirect exposures in terms of DUKs and PPPs, with stress tests estimating risks of 14.1% of GDP[3]. This means that in order for Uzbekistan to get the most cooperation from IFIs, improving governance and sequencing of reforms are essential prior to additional investments. There must be efficient risk management for PPPs in conjunction with public investment planning and fiscal analysis.

CONCLUSION:

Enhanced cooperation with IFIs has facilitated Uzbekistan's economic transformation, supporting macroeconomic stability, poverty reduction, and targeted investment in strategic sectors. However, progress in the next phase (2026-2030) will depend on improving institutional quality, as the continued dominance of the state and state-owned banks undermines private sector competitiveness. Although traditional external debt risks remain low, contingent liabilities from DUKs and PPPs present significant, unaddressed fiscal risks.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[2] European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2018). *Uzbekistan Country Strategy.* EBRD.

[3] International Monetary Fund (IMF). (2022). *Republic of Uzbekistan: 2022 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report; and Statement by the Executive Director for the Republic of Uzbekistan.* IMF Country Report No. 22/198. Washington, D.C.: International Monetary Fund.

1. Abu Bader, S., Abu Qarn, A.S., 2008. Financial development and economic growth: the Egyptian experience. J. Policy. Model. 30 (5), 887–898.
2. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2018). *Uzbekistan Country Strategy*. EBRD.
3. International Monetary Fund (IMF). (2022). *Republic of Uzbekistan: 2022 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report; and Statement by the Executive Director for the Republic of Uzbekistan.* IMF Country Report No. 22/198. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
4. Xu, F., & Wubishet, A. (2024). *Analysis of the impacts of financial development on economic growth in East Africa: How do the institutional qualities matter? Economic Analysis and Policy*, *82*, 1177–1189.
5. World Bank. (2022, May 24). *Uzbekistan and World Bank Group to Boost Cooperation with New Country Partnership Framework for the Period 2022–2026.* World Bank. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/05/24/uzbekistan-and-world-bank-group-to-boost-cooperation-with-new-country-partnership-framework
6. https://www.worldbank.org/en/results/2019/04/12/supporting-economic-and-social-reforms-in-uzbekistan-to-create-better-opportunities-for-all-citizens.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QONUNCHILIGIDA YIRIK SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ QARZINI UNDIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Payziyev Hamid Orziqulovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Mustaqi izlanuvchisi
Tel:+99891-576-72-54
Murod5091@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518928

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida yirik soliq to‘lovchilarning soliq qarzini undirish jarayoni tahlil qilinadi. Yirik soliq to‘lovchilar iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan subyektlar bo‘lib, ularning soliq majburiyatlarini bajarishi davlat byudjetining barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada soliq qarzining vujudga kelish sabablari, undirish mexanizmlari, maxsus inspeksiyalar faoliyati, risk tahliliga asoslangan yondashuvlar hamda mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ham ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: yirik soliq to‘lovchilar, soliq qarzi, undirish mexanizmlari, Soliq kodeksi, soliq inspeksiyasi, risk tahlili, soliq ma’muriyatchiligi, davlat byudjeti

1. Yirik soliq to‘lovchilar tushunchasi

Yirik soliq to‘lovchilar — bu yillik soliq to‘lovlari miqdori, iqtisodiy faoliyat ko‘lami, xodimlar soni va boshqa mezonlar asosida belgilangan korxonalar bo‘lib, ular Soliq qo‘mitasi tomonidan alohida ro‘yxatga olinadi. Ular odatda strategik tarmoqlarda faoliyat yurituvchi — energetika, telekommunikatsiya, bank, neft-gaz, metallurgiya va boshqa sohalardagi yirik kompaniyalardir.

Soliq qarzining vujudga kelishi va huquqiy asoslari

Soliq qarzi — bu soliq to‘lovchining belgilangan muddatda to‘lamagan soliq summasi bo‘lib, Soliq kodeksining tegishli moddalarida belgilangan tartibda aniqlanadi. Soliq qarzi vujudga kelgan taqdirda, soliq organlari uni undirish bo‘yicha quyidagi choralarni ko‘radi:

- ✓ Soliq to‘lovchiga qarzdorlik haqida rasmiy bildirishnoma yuborish
- ✓ Bank hisob raqamlariga inkasso topshiriqlari berish
- ✓ Mulkka taqiq qo‘yish va majburiy realizatsiya qilish
- ✓ Sud orqali undirish

Yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan maxsus yondashuv

Yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq qarzini undirishda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar mavjud:

- ✓ **Markazlashtirilgan nazorat**: Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi tashkil etilgan bo‘lib, bu inspeksiya Soliq qo‘mitasining tarkibiy bo‘linmasi sifatida bevosita nazoratni amalga oshiradi.
- ✓ **Hududiy cheklovlar yo‘qligi**: Mazkur inspeksiya yirik soliq to‘lovchilarni joylashgan hududidan qat’i nazar nazorat qiladi, bu esa soliq ma’muriyatchiligini soddalashtiradi.
- ✓ **Risk tahliliga asoslangan yondashuv**: Yirik soliq to‘lovchilarning soliq qarzlari risk darajasiga qarab tahlil qilinadi va undirish strategiyasi shunga mos ravishda belgilanadi.
- ✓ **Monitoring va auditning kuchaytirilgan shakli**: Yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq auditi muntazam va chuqurlashtirilgan shaklda o‘tkaziladi.

Soliq qarzini undirishning amaliy mexanizmlari

Yirik soliq to‘lovchilarning soliq qarzini undirishda quyidagi amaliy mexanizmlar qo‘llaniladi:

- ✓ **Elektron monitoring tizimlari**: Soliq to‘lovchilarning moliyaviy holati real vaqt rejimida kuzatiladi.
- ✓ **Inkasso topshiriqlari**: Bankdagi hisob raqamlaridan soliq qarzi miqdorida mablag‘ yechib olinadi.
- ✓ **Sud orqali undirish**: Agar soliq to‘lovchi qarzni ixtiyoriy ravishda to‘lamasa, soliq organlari sudga murojaat qiladi.
- ✓ **Mulkni musodara qilish**: Soliq qarzi katta miqdorda bo‘lsa, soliq to‘lovchining mol-mulki musodara qilinib, auksion orqali sotiladi.

Soliq qarzini undirishda yuzaga keladigan muammolar

- ✓ Soliq to‘lovchilarning moliyaviy qiyinchiliklari

✓ Sud jarayonlarining cho‘zilishi
✓ Mulkni realizatsiya qilishdagi byurokratik to‘siqlar
✓ Soliq to‘lovchilarning qarzdorlikni yashirishga urinishlari

Xulosa

Yirik soliq to‘lovchilarning soliq qarzini undirish O‘zbekiston soliq siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu jarayonni samarali tashkil etish davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Soliq qonunchiligida belgilangan maxsus yondashuvlar, markazlashtirilgan nazorat va risk tahliliga asoslangan mexanizmlar bu jarayonni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish, sud jarayonlarini soddalashtirish va soliq to‘lovchilar bilan ochiq muloqotni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi – 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahriri. Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari – soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishga oid hujjatlar. www.lex.uz
3. Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy veb-sayti – yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha statistik ma’lumotlar va metodik ko‘rsatmalar. www.soliq.uz
4. Karimov, A. (2021). *Soliq nazorati va soliq qarzini undirish mexanizmlari*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
5. Raxmatov, D. (2022). *Yirik soliq to‘lovchilar bilan ishlashda soliq ma’muriyatchiligining xususiyatlari*. “Soliq va audit” ilmiy jurnali, №3, 45–52-betlar.
6. Xudoyberdiyev, M. (2023). *Soliq qarzini undirishda elektron monitoring tizimlarining roli*. “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, №2, 60–68-betlar.
7. UNCTAD (2021). *Tax Incentives and Sustainable Investment: A Guide for Policymakers*. Geneva: United Nations.

KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ QARZDORLIGINI BARTARAF ETISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Payziyev Hamid Orziqulovich[1]
Bozorov Ruslan Xamdamovich[2]
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Mustaqi izlanuvchisi
Tel:+99891-576-72-54 Murod5091@gmail.com
Ilmiy rahbar: [2]DTPI professori v.b. i.f.d. (DSc), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518934

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq qarzdorligining shakllanish sabablari, uning korxona faoliyatiga ta'siri hamda soliq qarzlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amaliy va institutiv mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqot soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilishi, risk-boshqaruv yondashuvlari, inkasso va qarzni restrukturizatsiya qilish instrumentlari, moliyaviy injiniring hamda sud-ijro va mulkni realizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali korxonalarning likvidligini tiklash va barqarorligini mustahkamlash bo'yicha kompleks takliflar beradi. Taklif etilgan chora-tadbirlar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan va amalga oshirilishi uchun bosqichma-bosqich rejaga joylashtirilgan.

Kalit so'zlar: soliq qarzdorligi; moliyaviy barqarorlik; raqamli monitoring; risk-boshqaruv; inkasso; qarzni restrukturizatsiya qilish; moliyaviy injiniring; sud-ijro tizimi; soliq ma'muriyatchiligi; elektron axborot almashinuvi.

Soliq qarzdorligi ichki, tashqi va institutsional omillar natijasida yuzaga keladi va korxonalarning operatsion faoliyatiga jiddiy ta'sir qiladi. Ichki omillar qatoriga buxgalteriya hisobidagi xatoliklar, noto'g'ri kassaboshqaruv, moliyaviy rejalashtirishdagi kamchiliklar hamda qisqa muddatli kreditlardan noto'g'ri foydalanish kiradi; bular korxonaning kundalik pul oqimi va soliq majburiyatlarini bajarish imkoniyatini pasaytiradi. Tashqi omillar sifatida iqtisodiy kon'yunktura o'zgarishi, yetkazib beruvchilar bilan kelishmovchiliklar, makroiqtisodiy shoklar va kutilmagan jarimalar korxonaning to'lov qobiliyatini zaiflashtiradi. Institutsional omillar esa davlat organlari va moliyaviy institutlar o'rtasidagi axborot almashinuvida integratsiya etishmovchiligi, sud-ijro tizimining cho'zilishi va mulkni realizatsiya qilish tartiblarining samaradorligining pastligi hamda qonunchilikdagi murakkablik va noaniqliklardan iborat. Ushbu omillar birgalikda soliq qarzdorligining akkumulyatsiyasiga va uning vaqt o'tishi bilan kuchayishiga olib keladi. Soliq qarzdorligining korxona faoliyatiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, likvidlikning susayishi va qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatining pasayishi, yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarning buzilishi, yangi moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatining cheklanishi va investitsiyaviy faollikning susayishi kabi natijalarni keltirib chiqaradi. Bular o'z navbatida ish o'rinlarining yo'qolishi, ijtimoiy muammolar va umumiy milliy iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soliq qarzdorligini vaqtida aniqlash, profilaktika qilish va samarali undirish mexanizmlarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilishi va yagona soliq axborot tizimini yaratish soliq hisobotlarini elektron shaklda qabul qilishni kengaytirish, banklar, bojxona va statistika organlari bilan API asosidagi real vaqt ma'lumot almashuvini tashkil etish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar analitikasi va sun'iy intellekt modellari yordamida soliq xavfini prognozlash va profilaktika qilish imkonini beradi hamda retroaktiv tekshiruvlarning sonini kamaytiradi. Risk-boshqaruv tizimini kuchaytirish uchun dinamik risk-klassifikatsiyani joriy qilish, fokuslangan forensik auditlar va moliyaviy injiniringga yo'naltirilgan ekspert markazlarini tashkil etish zarur; bular soliq inspeksiyalarining resurslarini optimal taqsimlashga va aniq yo'naltirilgan tekshiruvlar orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Inkasso va ijro mexanizmlarini takomillashtirish bank hisoblaridan avtomatik yechib olish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, elektron inkasso tugunlarini yaratish hamda mulkni tez baholash va elektron auksionlar orqali soddalashtirish orqali undirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Qarzni restrukturizatsiya qilish va moliyaviy injiniring amaliyotlarini rivojlantirish, shu jumladan standart restrukturizatsiya shartlarini ishlab chiqish, garov va kafolat tizimlarini kengaytirish, soliq organlari va tijorat banklari hamkorligida moslashtirilgan to'lov rejalarini joriy etish korxonalar likvidligini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy injiniring yordamida optimal kassaboshqaruv, xarajatlarni kamaytirish strategiyalari va moliyalashtirish qayta tuzish yo'llari ishlab chiqiladi hamda restrukturizatsiya qilingan qarzlar

asosida ishlab chiqilgan shartlar monitoring qilinadi. Qarzni restrukturizatsiya qilish jarayoni dastlab moliyaviy diagnoz bilan boshlanib, auditorlar va soliq organi birgalikda korxonaning moliyaviy holatini baholaydi, pul oqimlari, balans va operatsion ko‘rsatkichlar asosida to‘lov qobiliyati aniqlanadi va moslashtirilgan to‘lov rejasi ishlab chiqiladi. Ushbu rejada qisqa, o‘rta va uzoq muddatli variantlar, foiz stavkalari, muddatlar va kafolatlar belgilanadi, shartlar huquqiy jihatdan mustahkamlanib monitoring mexanizmi o‘rnatiladi. Agar kelishilgan shartlar buzilsa, oldindan belgilangan trigger indikatorlari orqali tezkor inkasso yoki boshqa chora-tadbirlar tatbiq etilishi lozim. Bu mexanizm korxonalarga nafaqat qarzni bosqichma-bosqich to‘lash imkonini beradi, balki soliq organiga undirish samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy subyektlarni yo‘qotishning oldini olish imkonini beradi. Amalga oshirish rejasi qisqa, o‘rta va uzoq muddatli bosqichlarga bo‘linib tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa muddatda yagona axborot almashinuvi standartlarini ishlab chiqish, yuqori riskli korxonalar ro‘yxatini aniqlash va inkasso jarayonlarini elektronlashtirishni boshlash zarur. O‘rta muddatda bank va soliq tizimlarini to‘liq integratsiyalash, qarzni restrukturizatsiya qilish bo‘yicha standart hujjatlarni joriy etish hamda moliyaviy injiniring markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Uzoq muddatda to‘liq avtomatlashtirilgan soliq monitoring va prognozlash tizimini yaratish, sud-ijro tizimini raqamlashtirish va ijro muddatlarini qisqartirish orqali undirish samaradorligini oshirish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida soliq qarzlarining umumiy hajmi kamayishi, undirish muddatlari qisqarishi va korxonalarning likvidligi yaxshilanishi kutiladi. Bundan tashqari, sud va ijro samaradorligi ortishi, undirilgan qarz hajmining o‘sishi va soliq organlarining resurslaridan samaraliroq foydalanish kuzatiladi hamda biznes va davlat organlari o‘rtasida ishonch mustahkamlanadi.

Tavsiya etiladigan asosiy qadamlar sirasiga yagona elektron platformani yaratish va barcha tegishli davlat organlarini tizimga birlashtirish, qarzni restrukturizatsiya qilish va inkasso tartibini qonuniy jihatdan aniq, shaffof va standartlashtirilgan holda joriy etish, soliq maslahat xizmatlarini ommalashtirish va korxonalarga bepul yoki subsidiyalangan konsultatsiyalar taqdim etish kiradi. Forensik audit va moliyaviy injiniring bo‘yicha maxsus ekspert guruhlarini tashkil etish, murakkab moliyaviy operatsiyalarni aniqlash va tergov jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun resurslarni kengaytirish muhim. Sud-ijro protseduralarini raqamlashtirish va ijro muddatlarini kamaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish soliq qarzdorligini samarali undirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda korxonalarning likvidligi tiklanadi, soliq tushumlari barqarorlashadi va milliy iqtisodiyot barqarorligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat soliq qo‘mitasi. (2021). Davlat soliq qo‘mitasi metodik materiallari va yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha yo‘riqnomalar. Toshkent, O‘zbekiston: Davlat soliq qo‘mitasi nashriyoti.
2. Karimov, A. (2021). Soliq nazorati va undirish amaliyoti. Toshkent, O‘zbekiston: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2020). Tax Administration 2020:
4. Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. Paris, France: OECD Publishing. Raxmatov, D. (2022).
5. Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda soliq siyosati. Iqtisodiy tahlil, 12(3), 45–62.
6. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. (2020). Toshkent, O‘zbekiston: Adliya vazirligi. World Bank. (2019).
7. Strengthening Tax Administration and Revenue Mobilization. Washington, DC, USA: World Bank Publications. Xudoyberdiyev, M. (2023). Elektron soliq tizimlari va monitoring. Soliq va audit, 5(2), 60–78.

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING JORIY QILINISHI

Kamolov Asadbek
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: asadbekamolov1222@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518941

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo‘shilgan qiymat solig‘i, uning respublikamiz soliq tizimidagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari keltirilgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini iqtisodiyotni raqobatbardoshligiga ta’siri, mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zarurligi ilmiy-nazariy adabiyotlarni sharhlash va xalqaro tajribani tahlil qilish orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qiymat, bilvosita soliqlar, qo‘shilgan qiymat solig‘i, iste’molchi, hisob varaq-faktura, hisobot davri, qo‘shilgan qiymat solig‘i.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko‘p qirrali bilvosita soliqdir. Korxona kundalik xo‘jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo‘shilgan qiymat yaratiladi. Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlabchiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma‘lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o‘tadi, bu bosqichlarning har birida qo‘shilgan qiymat yaratiladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g‘oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo‘shilgan qiymat solig‘i M.Lorening taklifidan so‘ng o‘tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo‘llanildi. Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etildi. XX asrning 70-yillarida qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiyasosi bo‘lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a‘zo mamlakatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishni tartibga solishning huquqiy me‘yorlarini umumlashtirish to‘g‘risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i e’tirof etildi.[1] Qo‘shilgan qiymat solig‘iga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning ob‘ekti bo‘lib, nafaqat ichki bozordagi tovar oborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi Tovar oboroti ham hisoblanadi. Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob‘ekti va soliq stavkalari. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, amaldagi qonun xujjatlariga asosan ushbu soliqni budjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;

2) O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno) hamda soliq solishning soddatlashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilar qo‘shilgan

[1] https://doi.org/10.5281/zenodo.12810340

qiymat solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishmaydi. Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashi mumkin. Amaldagi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘ining ob‘ekti bo‘lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi. Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda – yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya‘ni yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag‘i kelib tushishi davridan qat’iy nazar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart. Soliq solinadigan import deganda esa – O‘zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).QQS solig’i davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etib umumiy soliqlardan tushumning 40% ini tashkil etadi,ammo postpandemiya inqirozi davrida bu ko’rsatkich bir muncha pasaygan bunga sabab karantin jarayoni edi.Bugungi kunda soliqlar tushumi mamlakatimizda raqmlarda korsatadigan bo‘lsak, Soliq organlari tomonidan 2025-yilning I-choragida respublika bo‘yicha budjetga 48,2 trln so‘m tushumlar ta’minlandi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,6%ga ko‘p.

Soliq turlari kesimida tushum (2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish):
foyda solig‘i - 11,8 trln so‘m (22%);
QQS - 9,8 trln so‘m - (17,1%);
JShODS - 9,3 trln so‘m - (20,3%);
aksiz solig‘i - 4,5 trln so‘m - (31,2%);
yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq - 4,3 trln so‘m (25,2%);
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va soliqsiz tushumlar* - 3,6 trln so‘m (35%);
yer solig‘i - 2,1 trln so‘m (11,1%);
mol-mulk solig‘i - 2,1 trln so‘m (21,1%);
AOS - 0,7 trln so‘m (18,4%).[2]

Xulosa. Bu ko‘rsatkichlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki soliq tushumlari umumiy olganda otib borishi bumamlakatning iqtisodiy rivojlanishidan dalolat beruvchi sohadir. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, QQS tizimi O’zbekistonda raqamli transformatsiyaning eng muhim ko‘rinishlaridan biri bo’lib, bu sohada olib borilayotgan islohotlar samaradorlik, shaffoflik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish, xususan, huquqiy soddalikni oshirish, texnik yordamni kuchaytirish va qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish yo’nalishida qo’shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Shundagina QQS tizimi iqtisodiyotning barqaror rivojiga to’laqonli xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov M.M. (2020) Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’murchiligini takomillashtirish – byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash omilidir. Iqtisodiyotda innovatsiyalar - Innovatsii v ekonomike - Innovations in economy №5.
2. Murojaatnoma (2022) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 20 dekabr 2022 yildagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
3. Niyazmetov I.M., Safarov U.A., Radjapov X.J. (2021) Qo‘shilgan qiymat solig‘i mexanizmini takomillashtirish.Logistika va iqtisodiyot. 2-son.
4. Пансков В.Г. (2015) Изменение порядка зачисления средств НДС: введение НДССчетов / В.Г.Пансков // Вестник АКСОР. № 3 (35). – С. 17-18
5. Tashmuradova B.E. (2021) Qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, mayiyun
6. https://doi.org/10.5281/zenodo.12810340
7. Soliq.uz

[2] Soliq.uz

QURILISH TASHKILOTLARIDA FOYDA SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI

Eshmamatova Muxlisa Abdurashid qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi
7-BH-22 guruh talabasi
Tel:+998770677404
E-mail:muxlisaeshmamatova36@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518962

Annotatsiya: Ushbu tezisda qurilish tashkilotlarida foyda solig'ining mazmuni, uni hisoblash va to'lash tartibi, amaldagi me'yoriy-huquqiy asoslar hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qurilish tashkilotlari, soliqqa tortish tartibi,foyda solig'i,soliq imtiyozlari, xarajatlar, daromadlar.

Kirish. Qurilish sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi.Sababi u nafaqat ishlab chiqarish va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlaydi, balki shuningdek aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash, ularning turmush darajasini oshirish va investitsiyalarni jalb etishda ham katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "qurilish sohasi davlatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari rivojlanishiga katta turtki beradigan sohadir"[1]. Shu bois, ushbu tarmoqda samarali soliq siyosatini yuritish va soliqqa tortish mexanizmlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda qurilish tashkilotlarining faoliyati davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlar, ayniqsa foyda solig'i orqali muhim o'rin egallaydi. Foyda solig'i korxona faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini aks ettiruvchi asosiy soliq turi bo'lib, u korxonaning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. Qurilish korxonalari uchun foyda solig'ini to'g'ri hisoblash, vaqtida to'lash hamda hisobotlarni yuritish tartibini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Foyda solig'i xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinadigan foydadan undiriladiagan bevosita soliq va asosiy davlat soliqlaridan biridir.U korxona va tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijasini ko'rsatadi va shuningdek davlat byudjetining muhim daromad manbasi hisoblanadi. Soliq kodeksining 13-moddasida moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foydaga) ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari budjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.[2]

Yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari bo'lishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan taqiqlangan faoliyatdan tashqari);
- o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo'lishi.
- mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar qayd etilgan shartlarga javob bersagina foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar[3].Shunga ko'ra qurilish tashkilotlari ham ko'rsatilgan shartlarga javob bera olgani uchun foyda solig'i to'lovchilaridan biri hisoblanadi.

Qurilish tashkiloti-bu turli bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash hamda loyiha asosida qurilish-montaj ishlarini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Bunday

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 27-iyul kuni Qurilish sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan.Manba: https://president.uz/
[2] https://lex.uz/acts/-152637

[3] A.V.Vahobov Jo'raev A.S., Soliqlar va soliqqa tortish, Toshkent, 2009.

tashkilotlar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, o‘z moliyaviy va soliq majburiyatlarini mustaqil bajaradi. Qurilish tashkilotlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari qatoriga yangi obyektlar qurilishi, mavjud binolarni qayta ta’mirlash, injenerlik kommunikatsiyalarini tortish, yo‘l va ko‘priklar barpo etish ishlari kiradi.

Qurilish tashkilotlarining foyda solig‘i bo‘yicha soliqni to‘liq, to‘g‘ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlari tarkibiga nimalar kirishini mukammal o‘rganish zarur bo‘ladi. Qurilish tashkilotlarining jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo‘lgan bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar,qurulish ob‘ektlari topshirish yoki shartnomalar asosida olingan daromad hisobidan shakillanadi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Foyda ko’rsatilgan solig‘i soliq bazasi korxonaning umumiy daromadlaridan qonun hujjatlarda ko’rsatilgan tartibda xarajatlar chiqarib tashlangandan keying miqdorga teng bo’ladi.Qurulish tashkilotlarida xo’jalik yurituvchi subyektlaridagi kabi xarajatlar mavjud.Bular xom-ashyo materiallarini sotib olishga ketadigan xarajatlar,ishchi-xodimlarning ish haqi,soliqlar,transport xarjatlari, asosiy vositlar va nommoddiy aktivlarining amortizatsiya ajratmalari shuningdek ma’muriy xarajatlar va boshqa xarajatlar.Qurulish tashkilotlarida ishlab chiqargan ya‘ni qurib bitkazilgan ob‘ektlari realizatsiya qilgandan keyin unga ketgan jami xarajatlar umumiy daromaddan chegirilib qolgan qismidan foyda solig‘i undiriladi.

Hozirgi kunda qurulish korxonalari foyda solig‘ini to’lash bo’yicha ba’zi muammollarga duch kelishayapti. Bulardan eng ko’p uchrayotgani hisob-kitobdagi murakkabliklar va xarajatlarni to‘liq hujjatlashtirishdagi muammolar.Qurilish jarayonida xarajatlar turli bosqichlarda, ko‘plab pudratchilar va subpudratchilar orqali amalga oshiriladi. Natijada, xarajatlarni aniq hujjatlashtirish va foyda summasini to‘g‘ri aniqlash qiyinlashadi. Bu esa foyda solig‘ining hisoblanishida xatolarga olib keladi.Bu muammoni hal qilish uchun xarajatlarni raqamli nazorat qilish va shaffof hisob tizimini joriy etish bunga yechim bo’la olishi mumkin.

Qurilish jarayonidagi barcha xarajatlarni elektron shaklda, yagona buxgalteriya dasturlari orqali yuritish foydani aniq hisoblashga yordam beradi. Bu nafaqat soliq hisobini soddalashtiradi, balki shuningdek noqonuniy xarajatlarni kamaytiradi.

Qurilish tashkilotlarini soliqqa tortish tizimi davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirish bilan birga, ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatdorligini ham ta’minlashi lozim. Shu bois, oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq yukini kamaytirish, hisob-kitoblarni raqamlashtirish va qurilish sohasida soliq ma’murchiligini soddalashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa: Qurilish tashkilotlarida foyda solig‘ining to‘g‘ri va samarali hisoblanishi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu soliq turini hisoblashda ayrim amaliy muammolar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha soliq hisobotlarini to‘ldirishdagi murakkabliklar yoki hujjatlar yetishmasligi bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, birinchidan, soliq hisobotlarini soddalashtirish va raqamlashtirish zarur. Ikkinchidan, qurilish tashkilotlari uchun ma’lum soliq imtiyozlarini qo‘llash ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga va iqtisodiyotda yanada faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Umuman olganda, foyda solig‘ini hisoblash tizimini takomillashtirish va qurilish sohasida adolatli soliq siyosatini yuritish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 27-iyul kuni Qurilish sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi.
2. A.V.Vahobov Jo‘raev A.S., Soliqlar va soliqqa tortish, Toshkent, 2009.
3. I.X.Davletov QURILISH IQTISODIYOTI “Ijod-Press” nashriyoti, 2019
4. https://lex.uz/acts/-152637

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TARKIBIDA BILVOSITA SOLIQLARNING TUTGAN O`RNI

G‘aniyev Ro‘ziboy Bo‘rivich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi
4-bosqich 5MM-2022 guruh talabasi
Telefon raqami:+998 91 238 04 07
Email adres: ganiyevruziboy0404@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518970

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlarning ahamiyati va vazifalari yoritib beriladi. Bilvosita soliqlar zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadga emas, balki tovar va xizmatlarning iste’moliga solinadigan soliqlar bo‘lib, iqtisodiyotdagi pul aylanishi va iste’mol jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bilvosita soliqlarning asosiy ahamiyati shundaki, ular davlatga doimiy va barqaror daromad manbaini yaratadi. Chunki bu soliqlarni yig‘ish nisbatan oson, nazorat qilish mexanizmlari kuchli va ular aholining barcha qatlamlari tomonidan to‘lanadi. Shu orqali davlat ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda byudjet taqchilligini kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kalit so`zlar: davlat byudjeti, byudjet daromadlari, bilvosita soliqlar, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), aksiz solig‘i, bojxona bojlari, soliq siyosati, soliq tizimi, soliq bazasi, soliq tushumlari, fiskal siyosat, iqtisodiy barqarorlik, davlat moliyasi, soliq yukini taqsimlash, soliq islohotlari, iste’mol soliqlari, byudjet barqarorligi, soliq ma’murchiligi, iqtisodiy rivojlanish, davlat daromadlari.

Annotation: This article highlights the importance and functions of indirect taxes in the structure of state budget revenues. Indirect taxes are an integral part of the modern financial system and play an important role in ensuring the stability of the state budget. They are taxes imposed not on direct income, but on the consumption of goods and services, and have a direct impact on the circulation of money in the economy and consumption processes. The main importance of indirect taxes is that they create a permanent and stable source of income for the state. Because these taxes are relatively easy to collect, have strong control mechanisms, and are paid by all segments of the population. This allows the state to finance social programs, develop infrastructure, and reduce the budget deficit.

Keywords: state budget, budget revenues, indirect taxes, value added tax (VAT), excise tax, customs duties, tax policy, tax system, tax base, tax revenues, fiscal policy, economic stability, public finance, tax burden distribution, tax reforms.

Kirish: Bilvosita soliqlar ulushining yuqoriligi aholining past daromadli qatlamlariga nisbatan soliq yukining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Davlat byudjeti mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashda asosiy moliyaviy vosita hisoblanadi. Byudjet daromadlari tarkibida soliqlar muhim o‘rin tutadi, ularning ichida esa bilvosita soliqlar eng barqaror va kafolatlangan tushum manbalaridan biridir. Bilvosita soliqlar — bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadlarga emas, balki tovar va xizmatlarning iste’moliga solinadigan soliqlar bo‘lib, ular iste’molchi tomonidan tovar narxiga qo‘shilgan holda to‘lanadi. Ushbu soliqlarning mohiyati shundan iboratki, ular iqtisodiyotdagi iste’mol jarayonini tartibga solish**,** davlat byudjetiga barqaror tushum keltirish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bilvosita soliqlar to‘lovchi bilan soliq yukini amalda ko‘taruvchi o‘rtasida bilvosita aloqa mavjudligi bilan bevosita soliqlardan farq qiladi. Ular orqali davlat iqtisodiy faoliyatni nazorat qiladi, narx siyosatini boshqaradi va byudjet barqarorligini ta’minlaydi.

Asosiy qism: Bilvosita soliqlar — bu to‘lovchi tomonidan bevosita emas, balki tovar yoki xizmat narxiga qo‘shilgan holda bilvosita tarzda to‘lanadigan soliqlar bo‘lib, ular asosan iste’mol jarayoniga ta’sir qiladi. Ularning iqtisodiy mohiyati shundaki, bu soliqlar daromadga emas, balki iste’molga solinadi. Ya’ni, inson qancha ko‘p xarid qilsa, shuncha ko‘p soliq to‘laydi.

Bilvosita soliqlar davlat uchun eng ishonchli va barqaror daromad manbai sanaladi. Chunki ular aholining barcha qatlamlari tomonidan to‘lanadi va iqtisodiy faollikka bevosita bog‘liqdir. Shu bois ular davlat byudjetini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bilvosita soliqlarning turlari va ularning o‘rni:

O‘zbekiston soliq tizimida bilvosita soliqlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) – bilvosita soliqlarning asosiy turi bo‘lib, ishlab chiqarishning har bir bosqichida yaratilgan qo‘shimcha qiymatga solinadi. U davlat byudjeti tushumlarining eng katta qismini tashkil etadi.

Aksiz solig‘i – zararli yoki hashamat tovarlariga (tamaki, spirtli ichimlik, benzin, avtomobil va boshqalar) solinadi. Bu soliq iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tartibga soluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Bojxona bojlari – import qilinadigan mahsulotlardan olinadi va ichki bozorni himoya qilish, hamda byudjet daromadlarini oshirishga qaratilgan.

Ushbu soliqlar to‘plami davlat byudjeti daromadlarining 40–50 foizgacha qismini tashkil etib, fiskal siyosatning asosiy poydevorini yaratadi.

Xulosa va takliflar: O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli moliyaviy-iqtisodiy islohotlar sharoitida bilvosita soliqlar davlat byudjeti daromadlarining barqaror va strategik manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bilvosita soliqlar — bu tovar va xizmatlarning iste’moliga solinadigan, narxga qo‘shilgan holda undiriladigan soliqlar bo‘lib, ularning asosiy turlari qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)**,** aksiz solig‘i va bojxona bojlaridan iborat.

So‘nggi yillarda bilvosita soliqlar O‘zbekiston davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini shakllantirib kelmoqda. Masalan, 2018-yilda QQS bo‘yicha islohotlar amalga oshirilganidan so‘ng**,** bilvosita soliqlar umumiy byudjet tushumlarining qariyb 42 foizini tashkil etgan. 2020-yilda pandemiya sharoitida ichki iste’mol hajmining pasayishiga qaramay, bilvosita soliqlarning ulushi 39 foiz atrofida saqlanib qoldi. 2022–2024-yillarda esa**,** iqtisodiy faollik tiklanishi bilan bu ko‘rsatkich 45–47 foizgacha oshdi. Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, bilvosita soliqlar iqtisodiyotdagi kon’yunktura o‘zgarishlariga nisbatan barqaror bo‘lib, davlat byudjeti daromadlarini kafolatli ta’minlovchi asosiy manbaga aylangan. Ayniqsa, QQS stavkasining 15 foizgacha pasaytirilishi va aksiz solig‘ining tarmoq xususiyatiga qarab differensiallashtirilishi byudjet siyosatining muvozanatini saqlashda muhim omil bo‘ldi.

1-jadval. Davlat byudjeti daromadlari 2024-yil (mlrd so’mda)[1]

Daromadlar	**1-chorak**	**1-yarim yillik**	**9 oylik**	**Yillik**
Bilvosita soliqlar	**18 193,0**	**40 004,0**	**62 324**	**88 341**
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	12 267,0	26 689,3	41 847	59 280
Aksiz solig'i	3 729,8	8 613,9	13 517	19 060
Bojxona boji	2 196,2	4 700,7	6 960	10 001
Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	8 317,3	17 155,7	26 478	36 363
Mol-mulk solig‘i	1 718,0	3 524,9	5 153	6 805
Yer solig'i	1 853,4	4 022,1	6 016	8 216
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 506,4	9 183,0	14 687	20 170
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	239,5	425,7	623	1 173
Boshqa daromadlar	**7 339,6**	**23 515,8**	**40 745**	**58 886**

Keltirilgan jadval ma’lumotlariga ko‘ra, davlat byudjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar eng katta ulushni egallaganini ko‘rish mumkin. Xususan, yillik hisobda bilvosita soliqlar miqdori **88 341 mlrd so‘mni** tashkil etib, umumiy byudjet daromadlarining **qariyb yarmiga (48%)** teng.

Bilvosita soliqlarga oid jahon inqirozlari

Tarixda bevosita va bilvosita soliqlarning o‘zi tufayli yuzaga kelgan global inqiroz bo‘lmagan, lekin ular bilan bevosita bog‘liq iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlar bir necha marta ro‘y bergan. Bunday inqirozlar, asosan, soliq yukining oshishi**,** narxlarning keskin ko‘tarilishi yoki aholi iste’mol qobiliyatining pasayishi natijasida yuzaga kelgan. Quyida bir necha muhim tarixiy misollar keltirilgan:

[1] Davlat budjeti daromadlari 2024, www.imv.uz

1. **1773-yilgi “Choy inqirozi” (Boston choyi isyoni, AQSh)**
   Britaniya hukumati Amerika koloniyalarida choy va boshqa mahsulotlarga bilvosita soliq (boj va aksiz) joriy qilganidan so‘ng, narxlar oshdi va aholining noroziligi kuchaydi. Natijada bu voqea AQSh mustaqillik urushining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Bu tarixda bilvosita soliqlar tufayli yuzaga kelgan eng mashhur siyosiy inqirozlardan biri hisoblanadi.
2. **1789-yilgi Fransiya inqilobi:**

Inqilobdan avvalgi Fransiyada soliqlar asosan oddiy xalq zimmasiga yuklatilgan, xususan, tuz, vino, non, shakar va boshqa mahsulotlarga solingan bilvosita soliqlar aholining turmush darajasini keskin pasaytirgan. Natijada ijtimoiy norozilik avj olib, bu holat Fransiya inqilobiga olib kelgan omillardan biri bo‘ldi.

3. **1970–1980-yillardagi neft inqirozi davri:**

Energiya resurslari narxining oshishi bilan ko‘plab davlatlar bilvosita soliqlar (ayniqsa, aksiz va QQS) orqali byudjetni to‘ldirishga urinib ko‘rdi. Ammo bu chora inflyatsiya va narxlarning keskin o‘sishiga sabab bo‘lib, iste’molchilarga bosimni kuchaytirdi. Shu davrda bilvosita soliqlarning haddan tashqari oshirilishi iqtisodiy inqirozni yanada chuqurlashtirgan.

4. **2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz:**

Bu davrda bilvosita soliqlar bevosita inqiroz sababchisi bo‘lmagan, ammo inqiroz oqibatida iste’mol darajasi kamaygani uchun bilvosita soliqlar bo‘yicha tushumlar keskin kamaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida QQS tushumlari 10–15% gacha qisqargan, bu esa byudjet defitsitini keltirib chiqargan.

5. **2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqiroz:**

Ushbu davrda bilvosita soliqlar yana bir bor sinovdan o‘tdi. Pandemiya sababli ishlab chiqarish va savdo hajmi qisqargan, bu esa QQS va aksiz solig‘i tushumlarining keskin kamayishiga olib keldi. O‘zbekiston, Rossiya, Turkiya, Germaniya kabi mamlakatlar bilvosita soliqlarning vaqtincha pasaytirilgan stavkalarini joriy qilib, iste’molni rag‘batlantirishga harakat qildilar.

Xulosa:

Demak, bilvosita soliqlarning o‘zi bevosita global inqirozga sabab bo‘lmagan, lekin ularning haddan tashqari oshirilishi yoki noto‘g‘ri boshqarilishi tarixda bir necha bor ijtimoiy norozilik, inflyatsiya va iqtisodiy muvozanatsizlik keltirib chiqargan. Shu sababli, bugungi kunda ko‘plab davlatlar bilvosita soliqlar siyosatini muvozanatli va ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslangan holda yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq
2. https://cyberleninka.ru/article/n/soliqlarning-turlari-va-funksiyalari/viewer
funksiyalari/viewerhttps://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2023-2024
3. https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2024
4. Davlat budjeti daromadlari 2024, www.imv.uz

BUDJET TASHKILOTLARI BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LARINING G‘AZNA IJROSINI TASHKIL QILISH

Safaraliyev Basir Norboyevich[1]
Saydullayev Sardor Esonovich[2]
[1] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
tel:+998 (97)-076-08-80
E-mail: safaraliyevbasir@gmail.com
[2] Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnalogiyalar yo`nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adres: sardorsaydullayev2004@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518978

Annotatsiya: Budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishning maqsadi jamiyat uchun muhim bo'lgan xarajatlarni budjet mablag'laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta'minlashdir. Budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etilishining muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil - bu budjet taqchilligidir. Xarajatlarni daromaddan o'sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruxlanishini xam talab etadi. Va nihoyat, xo'jalik yuritishning va xususiylashtirishning ko'p qirrali shakllari, budjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag'larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo'llash zaruriyatini qat'iy talab etadi.

Kalit so'zlar: maqolada maqsadli fondlar, fondlari moliyaviy resurslar tizimining rivojlanishi bosqichlarining tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlari tadqiq etilgan, shuningdek, davlat maqsadli fondlari moliyaviy resurslaridan samarali yangi innovatsion yo'nalishlar, iqtisodi o'sishga ta'siri hamda takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kirish

O'zgarishga boy iqtisodiy sharoitlar ko'pincha boshqaruv qarorlarini tez jalb qilish zarurligini belgilab qo'yadi, shu qatorda moliyaviy resuslarni qayta taqsimlanishida hamdir. Budjet mablag'laridan foydalanish hukumat organlari qonun asosida qa'tiy tasdiqlab bersa, budjetdan tashqari jamg'armalar esa ijroiya organlari orqali belgilanadi. Qonun asosida tasdiqlangan budjet parlament tomonidan nazorat qilinadi, budjetdan tashqari jamg'armalar esa qonun chiqaruvchi organlar tomonidan nazorat qilmaydi. Bu ham budjetdan tashqari jamg'armalarni iqtisodiy sharoitiga moslashishni tezlatadi. Budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etilishining zarurligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhum omil - bu budjet tangligidir. Xarajatlarning daromaddan o'sib ketishi moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishni emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhlanishini ham talab etadi. Mana shunday sharoitda ma'lum tarmoq va sohalarni rivojlantirishda budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni roli kattadir. Iqtisodiyotni modernizatsiya va isloh etish sharoitida iqtisodiy jamg'armalarning roli alohida ahamiyatga molikdir.

Asosiy qism

Budjetdan iqtisodiy sohaga pul ajratishdan asosiy maqsad, davlatning bu sohaga aralashuvini ta'minlab turishdir. Davlatni iqtisodiyotga aralashishi esa iqtisodiyotni o'sishida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda bizning respublikamizda bu juda muhimdir.

Budjetdan tashqari fondlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishning dastlabki belgilari desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bu fondlarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyati katta.

O'zbekiston Respublikasida davlatning maqsadli jamg'armalarini shakllantirishda ularning tashkil qilinishi bo'yicha jahon tajribasi o'rganildi, mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar e'tiborga olindi. Albatta, bunday uy-g'unlashtirishga erishish natijasida ijtimoiy siyosatning samara-dorligi va ta'sirchanligi oshdi. Ushbu fondlarning ba'zilari boshqa mamlakatlardagiga o'xshash bo'lsa, boshqalari esa o'xshashi yo'q, ya'ni alohida bo'lib, bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos milliy yo'limiz borligini tasdiqlab turibdi.

Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan - aholi bandligini ta'minlash, avvalambor, ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi.

Davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

✓ Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va barqarorlashtirish maqsadlarida jamg'armalarga kapital qo'yilmalar va investitsiyalarni jalb etish ularning davlat budjetidan dotatsiyalar olish holatlarini qisqartiradi;

✓ O'zbekistonda davlat maqsadli jamg'armalarining barqaror hamda uzluksiz faoliyatini ta'minlash uchun eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xusu-siy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirishdan etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining shakllantirsh zarur;

✓ Mamlakat moliyaviy qonunlariga jamg'armar daromadlari hajmini optimallashtirishni, moliyaviy resurslaridan foydalanish bo'yicha javobgarlikni oshirishni ko'zda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish;

✓ Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining aniq va maqsadli, standartlardan og'ishmay ishlatilishi ustidan nazoratni yanada oshirish, jamg'armalar daromadlari shakllanishi va xarajatlarining ijrosini amalga oshirishda amaldagi g'aznachilik tizimi faoliyatini yanada mustahkamlash orqali davtlabki va joriy nazoratlar mustahkamligini ta'minlash;

✓ Budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalardan samarali foydalanish maqsadida davlat moliyaviy siyosati bilan davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatining bir xilligini ta'minlash;

✓ Mamlakatning kelgusi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishida moliya tizimi barqaror faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy yo'nalishdagi maqsadli jamg'armalarni shakllantirish.

✓ Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va jamg'arib boriladigan pensiyani ixtiyoriy badallar hisobiga shakllantirishni rag'batlantirish.

Aholini ijtimoiy himoyalash muammolari qanchalik keng qamrab olinganligi va ilmiy jihatdan chuqur o'rganganligiga qaramay, bu masalaning dolzarbligi saqlanib qolaveradi. Iqtisodiyot taraqqiy etgan sari mazkur fondlarning ahamiyati ham ortib boradi. Bu esa davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining mohiyati va vazifasini ilmiy tarzda tushunishni, tahlil etishni, ularning faoliyatini jahon tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirishni talab etadi.

Xulosa

Budjetdan tashqari fondlar tizimini isloh qilish, hamda uni shakllantirish va sarflash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarning asosiylari quyidagilardan iboratdir: xususiy (nodavlat) nafaqa jamg'armalarini shakllantirish lozim. Bunday jamg'armalarni tashkil etish qoidalarini ta'minlovchi va faoliyat jarayonini boshqarib turuvchi qonunlar talab qilinadi. Ularning investitsion faoliyati esa mahsus boshqaruvchi kompaniyalar orqali amalga oshirilishi kerak. Bu esa mablag' quyishning samaradorligini va uning saqlanishini kafolatini ta'minlovchi asosiy shart hisoblanadi; kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini oshirish orqali Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma xarajatlarini qisqarishiga erishish; aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun budjetdan tashqari mablag'lar, jumladan xayriya tashkilotlari va homiylarning mablag'larini jalb qilish, bu kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar hajmi va qamrovini oshirishga imkon beradi; Ayrim nafaqa to'lovlari va imtiyozlarni tugatish natijasida bo'shagan mablag'larni muhtoj oilalarga manzilli nafaqa to'lovlarini moliyalashtirish hajmini oshirishga yo'naltirish; Minimal ijtimoiy standartlarni, jumladan mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, hisob-kitob qilish usulini takomillashtirish. Ma'lum bosqichda, amaliyotga kun kechirish minimumi kattaligi ijtimoiy standartini tadbiq etish; Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun aholining ijtimoiy zaif guruhlari, avvalambor, talab qilinmagan mehnat salohiyatiga ega kam ta'minlangan oilalarni kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan mikromoliyalashtirish institutlarini kengaytirish. Bu maqsadda budjetdan tashqari fondlar, xalqaro rivojlanish loyihalari va xorijiy donorlar ishtirokida ixtisoslashgan ijtimoiy investitsiyalar Fondini yaratish imkoniyati ko'rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shernayev A.A. Budjetdan tashqari jamg'armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari //

2. Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo'nalishlari // «Студенческий вестник»: научный журнал. - № 20(165). Часть 14. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. - с. 74-76

3. Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari «Интернаука»: научный журнал -№ 20(196). Часть 7. Москва, изд. «Интернаука», 2021. - с. 58-60

IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI

Sharifov Samandar Shernazar o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika insitiuti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti moliya va moliyaviy texnologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Tel:+998 (97)-069-37-38
https://doi.org/10.5281/zenodo.17518996

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimining mohiyati, mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo'llari keng yoritilgan. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida iqtisodiy o'sish, bandlik va aholining daromad darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Shu boisdan soliq siyosatini soddalashtirish, imtiyozlarni kengaytirish, soliq yuki darajasini optimallashtirish va soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Tezisda iqtisodiy islohotlar kontekstida soliq mexanizmlarining samaradorligi, kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining afzalliklari va xorijiy tajribalarni o'rganish natijalari keltiriladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, soliq tizimi, iqtisodiy islohotlar, fiskal siyosat, soliq siyosati, soliq yukini kamaytirish, soliq imtiyozlari, soliq ma'murchiligi, soddalashtirilgan tizim, elektron soliq, raqamli iqtisodiyot, yagona soliq to'lovi, daromad solig'i, QQS, ijtimoiy soliq, yer solig'i, foyda solig'i, soliq nazorati, soliqqa oid islohotlar, biznes muhiti, investitsiya jozibadorligi, soliq turlari, tadbirkorlikni rag'batlantirish, moliyaviy barqarorlik, davlat byudjeti, fiskal barqarorlik, soliq stavkalari, soliq ma'lumotlari, raqamlashtirish, davlat qo'llab-quvvatlovi, iqtisodiy modernizatsiya, byudjet daromadlari, soliq to'lovchi huquqlari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishida, bandlikni ta'minlashda va aholining daromadlarini oshirishda muhim omilga aylandi. Shu boisdan ham iqtisodiy islohotlarning markazida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning soliq yukini kamaytirish masalasi alohida e'tibor bilan ko'rilmoqda.

Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlari hozirgi davrda iqtisodiy barqarorlik va fiskal siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Soliq tizimining soddalashtirilgan shakli kichik korxonalarga o'z faoliyatini qulay muhitda yuritish imkonini beradi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida 2020-yildan boshlab "yagona soliq to'lovi" tizimi joriy etildi. Mazkur tizim tadbirkorlik subyektlariga turli soliq turlarini birlashtirilgan holda to'lash imkonini beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq siyosati ham tubdan takomillashtirildi. Soliq stavkalari qisqartirildi, ayrim soliq turlari bekor qilindi, soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlar joriy qilindi. Xususan, kichik biznes subyektlari endilikda soliq hisobotlarini **my.soliq.uz** elektron platformasi orqali onlayn tarzda topshirish imkoniyatiga ega. Bu esa ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiya xavfini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznesni soliqqa tortish mexanizmlari asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- soddalashtirilgan soliq tizimi (yagona soliq to'lovi orqali);
- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar;
- daromad solig'i bo'yicha chegirmalar;
- ijtimoiy soliqning pasaytirilgan stavkalari;
- elektron hisob-fakturalar tizimi orqali avtomatlashtirilgan nazorat.

Ushbu mexanizmlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini kamaytirish, ularni rasmiy sektorga jalb etish va davlat byudjeti daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Ammo amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kichik korxonalarning buxgalteriya hisobi yuritishdagi murakkabliklar, soliq ma'lumotlarini elektron shaklda topshirishda texnik nosozliklar, soliq organlari bilan o'zaro muloqotning sustligi va ayrim hollarda soliq yukining noteng taqsimlanishi bunga misol bo'ladi. Shu sababli soliq tizimini yanada liberallashtirish, soliq stavkalarini optimallashtirish hamda kichik biznes uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish zaruriyati mavjud.

Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirishda xorijiy tajriba ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, Turkiya, Polsha va Janubiy Koreya tajribasida kichik korxonalarga dastlabki faoliyat yillarida “soliq ta’tili” (tax holiday) berilishi, raqamli soliq tizimining keng joriy etilishi ularning tez o‘sishiga sabab bo‘lgan. O‘zbekistonda ham 2023–2025-yillarga mo‘ljallangan “Soliq siyosatini takomillashtirish strategiyasi” doirasida shunga o‘xshash chora-tadbirlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Jadval 1. Kichik biznes subyektlari uchun amaldagi soliq stavkalari va undirish mexanizmlari

№	Soliq turi	Stavka (%)	Soliq to‘lovchi toifasi	Undirish mexanizmi	Izoh
1	Yagona soliq to‘lovi	4 %	Mikrofirmalar, kichik korxonalar	Har oyda avtomatik hisob-kitob asosida	Barcha soliqlarni birlashtiruvchi soddalashtirilgan tizim
2	Ijtimoiy soliq	1 %	Xususiy tadbirkorlar	Ish haqi fondiga nisbatan	Kichik biznes uchun pasaytirilgan stavka
3	Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)	12 %	Ixtiyoriy to‘lovchi korxonalar	Elektron hisob-fakturalar orqali	Kichik korxonalarning aksariyati QQSdan ozod
4	Yer solig‘i	O‘zgaruvchan	Tadbirkorlik uchun foydalanilgan yer maydoni	Kadastr ma’lumotlari asosida	Mahalliy hokimiyatlar tomonidan nazorat qilinadi
5	Daromad solig‘i	7,5 %	Yuridik shaxs maqomidagi kichik korxonalar	Sof foydadan to‘lanadi	Foyda miqdoriga bog‘liq tarzda hisoblanadi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes uchun soliqqa tortish tizimi maksimal darajada soddalashtirilgan. Bunda “yagona soliq to‘lovi” asosiy mexanizm sifatida ishlaydi. Mazkur tizim korxonalar uchun ma’muriy yukni kamaytiradi va ularning rasmiy iqtisodiyotdagi ulushini oshiradi.[1]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy islohotlar sharoitida kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Soliq siyosatidagi soddalashtirish, imtiyozlar va raqamli boshqaruv tizimining keng joriy etilishi tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va davlat byudjeti barqaror daromad manbaini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida soliq siyosatining liberallashtirilishi kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2024. – 520 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli Farmoni. “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”. – 2022-yil 28-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4848-sonli qarori. “Soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – 2020-yil 25-sentabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot”, 2024-yil. – T.: Moliya vazirligi nashriyoti.
5. Davlat soliq qo‘mitasi. “Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq tizimi natijalari”. – T.: DSQ, 2023.
6. Karimov, A. *Soliq tizimi va fiskal siyosat asoslari.* – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2022. – 248 b.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2024. – 327-bet.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR ASOSIDA MOLIYA-KREDIT TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘I BAZASINI HISOBLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonaqulov Alisher Abdurashidovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti
“Moliya va bank ishi kafedrasi” katta o‘qituvchisi Tel: +998 93 222 22 17
Subanova Zulayxo Abdunosir qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” ta’lim yo‘nalishi 4 – bosqich talabasi
Tel: +998(97) 785 27 00 E mail: subanovazulayho7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520200

Mazkur tezisda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va ushbu soliqni soliq bazasini aniqlash, hisoblab chiqarish va undirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Yangi taxrirdagi soliq kodeksining 60-bobiga asoslanib, soliq bazasini kengaytirish, kadastr qiymatining haqqoniyligini oshirish, soliq imtiyozlarini maqbullashtirish hamda raqamli ma’lumotlar bazasidan foydalanish yuzasidan fikirlar va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: mol-mulk, soliq ob’ekti, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, kadastr qiymat,

Kirish: So‘nggi yillarda aholining mol-mulk solig‘i borasidagi huquqiy savodxonlik darajasi yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Shu sababli fuqarolar orasida ushbu soliq turi mazmun-mohiyati va uning iqtisodiy zarurati yuzasidan turlicha qarashlar hamda bahs-munozaralar mavjud. Ayrim shaxslar mulk solig‘ining mohiyatini to‘liq anglamagan holda “Shaxsiy egalikdagi uy-joy uchun nega soliq to‘lashim kerak?”, “Ko‘p yillar avval sotib olgan mulkimdan yana soliq undirilishi nimaga asoslanadi?” kabi savollarni o‘rtaga tashlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, soliq madaniyati va iqtisodiy ongni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

“Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mol-mulk solig‘i qadimdan qo‘llanilgan va davlat g‘aznasini to‘ldirish uchun samarali yo‘l hisoblangan. Soliqlar eramizdan avval VI-III asrlardanoq Rim imperiyasida qo‘llanilgan. Ilk ko‘rinishlari yer solig‘i ko‘rinishida bo‘lgan va yer maydonidan kelgan daromadning 10 foizini tashkil etgan.”[1]

Mol-mulk solig‘i tizimining takomillashtirilishiga katta hissa qo‘shgan shaxs Shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smit sanaladi. U XVIII asr oxirlariga kelib soliq siyosati tamoyillarini shakllantirgan va ish haqi hamda daromadlardan undiriladigan soliqlarning asosiy qismini yer rentasiga o‘tkazishni taklif qilgan.

Bugungi kunda ko‘chmas mulk solig‘i dunyoning qariyb 130 mamlakatida amal qilmoqdi. Bu davlatlarning har birida mulk solig‘ining o‘ziga xos tizimi mavjud. Har bir davlatda mulk solig‘ining o‘ziga xos belgilangan qiymati mavjud. Masalan, ko‘chmas mulk sotib olishda qo‘llaniladigan bir martalik soliq Belgiyada mulk qiymatining 10-12 foizini, Gretsiyada – 7-11 foizini, Ispaniyada – 6-7 foizini, Italiyada – 3-7 foizini, Germaniyada – 3,5-5 foizini, Bolgariyada esa – 0,1-3 foizini tashkil etadi.

Qariyb barcha mamlakatlarda ko‘chmas mulk egalari hisoblangan jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mulk solig‘i to‘lovchilari sanaladi. Faqatgina ayrim davlatlarda, xususan, Niderlandiya, Fransiyada ijaraga oluvchilar mulk uchun soliq to‘laydilar. Shuningdek, ayrim toifa ko‘chmas mulk yoki soliq to‘lovchilarning ayrim guruhlariga imtiyozlar ham ko‘zda tutilgan.

“Mol-mulk solig‘i O‘zbekistonda 1992-yil 1-yanvardan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.”[2]

“O‘zbekistonda mulk solig‘i bilan bog‘liq barcha huquqiy me’yorlar Soliq kodeksining “Mol-mulk solig‘i” deb nomlangan XV bo‘limida aks etgan. Uning 60-bobidan bevosita jismoniy shaxslarning mol-mulkiga

[1] SH.J.Mamatjanov “Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig’ini hisoblash va byudjetga o’tkazish” - O’quv-uslubiy qo’llanma / Namangan-2024.
[2] U.To'lakov, O.Maxmudov “Soliqlar va soliqqa tortish” - O‘quv qo‘llanma / Toshkent-2023

solinadigan soliq borasida yetarlicha ma'lumotlar olish mumkin. Ko'chmas mulk solig'i odatda yer va unda qurilgan bino, yashash yoki tijorat yuritish uchun mo'ljallangan inshootlar uchun undiriladi."[3]

Mol-mulk solig'i – mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai sifatida jismoniy shaxslarning moliyaviy majburiyatlarini ifodalaydi. Soliq kodeksining 17-moddasiga ko'ra, mol-mulk solig'i O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi asosiy soliqlardan biridir. Bu soliq turlari nafaqat daromadlarni shakllantiradi, balki fuqarolarning mulkka egalik qilish mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi. So'nggi yillarda davlat tomonidan kadastr tizimini raqamlashtirish, reyestr ma'lumotlarini yagona baza orqali yuritish va soliq obyektlarining to'liq ro'yxatini shakllantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda ayrim uy-joylar, noturar obyektlar yoki meros orqali o'tgan mulklar hali ham to'liq baholanish bazasiga kiritilmagani, shuningdek, soliq bazasini aniqlashda bozor qiymati bilan kadastr qiymati o'rtasidagi tafovut mavjudligi muammoli holat sifatida saqlanib qolmoqda.

Soliq kodeksining maxsus qismida ko'rsatilganidek, mol-mulk solig'ining bazasi – bu jismoniy shaxsga tegishli ko'chmas mulkning kadastr qiymati yoki uning bozor qiymatiga yaqinlashtirilgan hisoblangan qiymatidir. Ushbu baza mahalliy kadastr organlari tomonidan shakllantiriladi va har yili yangilanadi. Ammo amaliyotda baholash aniqligi pastligi, ma'lumotlar bazasidagi nomuvofiqliklar va mulk hujjatlarining kechiktirilgan ro'yxatga olinishi soliq bazasini to'liq aks ettirishga to'sqinlik qilmoqda.



1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mul;k solig'ini takomillashtirish yo'llari[4]

Hozirda mol-mulk solig'i ko'pincha kadastr qiymati asosida hisoblanadi. Kadastr qiymati real bozor qiymatidan o'rtacha 20–40% past. Shu sababli, soliq bazasini yanada adolatli shakllantirish uchun kadastr bahosini avtomatik yangilab boruvchi raqamli tizim joriy etilishi lozim.

Raqamli reyestr orqali soliq organlari, adliya idoralari, kadastr xizmati va bank tizimi o'rtasidagi axborot almashinuvini avtomatlashtirish, aniq identifikatsiya raqami asosida mol-mulk obyektlarini kuzatish mumkin bo'ladi. Bu usul soliq bazasidan yashirilgan obyektlarni aniqlashga yordam beradi.

Jismoniy shaxslar uchun ko'plab soliq imtiyozlari (nogironlar, urush faxriylari, pensiya yoshidagi shaxslar uchun) amal qiladi. Biroq, bu imtiyozlar ko'p hollarda mulk qiymati yoki turidan qat'iy nazar beriladi. Shu bois, ijtimoiy yo'naltirilgan differensial imtiyozlar tizimini joriy etish zarur: yuqori qiymatli mulkka ega fuqarolar uchun imtiyozlar qisqartirilib, kam ta'minlangan qatlamlarga nisbatan saqlab qolinadi.

"Soliq organlarining GIS (Geografik Axborot Tizimlari) texnologiyalar, dron xaritalash, QR-identifikatsiya kabi vositalarni qo'llashi orqali mol-mulk obyektlarini tezkor aniqlash va baholash mumkin. Bu nafaqat aniqlikni oshiradi, balki soliq to'lovchilarning o'z vaqtida ma'lumot olishini ham yengillashtiradi."[5]

[3] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2021-yilgi tahrir).

[4] U.To'lakov, O.Maxmudov. Soliqlar va soliqqa tortish - O'quv qo'llanma. Toshkent-2023.

[5] https://lex.uz

Mol-mulk solig‘i bazasining xalqaro tajriba asosida baholanishi:

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) davlatlari (masalan, Polsha, Niderlandiya, Germaniya) tajribasida mol-mulk solig‘i bazasi bozor qiymati asosida aniqlanadi va har 3–5 yilda qayta baholash mexanizmi amal qiladi. Polshada, masalan, kadastr ma’lumotlari shahar hokimiyati tomonidan tasdiqlanadi va har yili inflyatsiya koeffitsienti asosida yangilanadi.

Ushbu modelni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali hududlararo soliq bazasi nomutanosibligini kamaytirish hamda mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlash mumkin.

Kutilayotgan natijalar

Taklif etilgan choralar natijasida:

- Soliq bazasining shaffofligi va adolatli baholanishi ta’minlanadi;
- Mahalliy byudjetlarning daromadlari 10–15% gacha ortadi;
- Soliq to‘lovchilarning o‘z vaqtida to‘lash intizomi kuchayadi;
- Mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi, bozor intizomi mustahkamlanadi.

Kamchiliklari: O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i sohasida turli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsada amaliyotda ba’zi kamchiliklar uchraydi. Masalan, kadastr qiymatni aniqlashning shaffov va adolatli emasligi; soliqning kadastr qiymati asosida hisoblanishi va ularning bozor qiymatiga yaqinliligi; turli hududlar uchun munosib farqlanishi masalasida baxslar bo‘lishi; ba’zi mulk egalari uchun kadastr qiymati real bozor narxlaridan yuqori yoki past bo‘lishi; daromadi past bo‘lgan, ammo katta maydondali uyda yashovchi shaxslar uchun soliq yukining og‘irliligi. Bu kamchiliklar asosan soliq siyosati va uning amaliyotdagi takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jarayonining bir qismigina holos.

Xulosa

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bazasini takomillashtirish iqtisodiy adolat tamoyillarini amalga oshirish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash va soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun quyidagilar muhim:

1. Kadastr qiymatini bozor qiymatiga moslashtirish;
2. Yagona elektron reyestr va raqamli baholash tizimini joriy etish;
3. Ijtimoiy adolatga asoslangan imtiyoz tizimini yaratish;
4. Soliq ma’lumotlarining shaffofligini oshirish va ularni yagona axborot bazasida birlashtirish.

Bu chora-tadbirlar “Soliq kodeksi”ning 7-, 9-, 10-moddalarida belgilangan adolatlilik, aniqlik va oshkoralik prinsiplariga mos bo‘lib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болотова А.И. Рабочая тетрадь как средство развития познавательной самостоятельности при обучении математике младшего школьника: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Bolotova Алёна Иванова – М.: 2012 - 24 с.
2. Unt I.E. Индивидуализация и дефференциация обучениюю/ I.E. Unt. –M.: Педагогика. 1990. - 197 с.
3. Leontev A.N. Problemы razvitiya psixiki. – M.: Pedagogika, 1972. – 576 s.
4. Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – М.: Педагогика, 1976.-224с
5. Rozikov O.R. va boshqalar. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshonqulov Javohir
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: javohireshonqulov@mail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520236

Anotatsiya.Soliq tizimi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatda samarali soliq tizimini joriy etish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda mamlakatimizda ham so'nggi yillarda barcha sohalar kabi soliq tizimini isloh qilish borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, soliq yukini kamaytirish borasida islohotlar amalga oshirildi, tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada mamlakatimizda soliqqa tortish tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, soliqqa tortish bo'yicha qarzdorlik, uni bartaraf etish masalalari to'g'risida mualliflarning fikrlari ifoda etilgan.

Kalit so'zlar. Soliq tizimi, soliqqa tortish, soli yuki, soliq imtiyozlari, soliq qarzdorligi, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, soliq siyosati.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, balki soliqqa tortish tizimini ham keng rivojlantirishga qaratilgan. Soliqlar – davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar qatori soliq sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu boradagi ishlar nafaqat soliq va yig'imlarni undirish, balki soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni qisqartirish hisobiga davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga ham qaratilgan. Shu munosabat bilan yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi.

Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2024 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik".[1] Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar va yig'imlar hisobidan shakllantiriladi.

Respublika bo'yicha soliq turlari kesimida tushumlar to'g'risida
M A ' L U M O T[2]

2025-yil 1-iyul holatiga

99 *Respublika bo'yicha jami* *mlrd.so'm*

№	Soliq turlari nomi	Yanvar-iyun oylari tushumi
	Respublika bo'yicha jami	102 575,5
	shu jumladan:	

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2024
[2] Soliq.uz

I.	Mahalliy soliqlar	94 328,5
	Aylanmadan soliq	1 550,9
	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	21 416,0
	Aksiz solig‘i, jami	9 289,1
	Jismoniy shaxslar daromad solig‘i	19 895,8
	Yuridik shaxslar foyda solig‘i	22 534,6
	Yer qa’ridan foydalan. uchun soliq	10 320,6
	Qurilsh mater. b-cha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	176,6
	Mol-mulk solig‘i	4 104,7
	Yer solig‘i	4 760,7
	Suv resursidan foyd. uchun soliq	456,1
II.	Soliqsiz tushumlar	8 247,0
III.	Ijtimoiy soliq	27 417,2

Soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi davlat darajasida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar, ya’ni budjet va maqsadli jamg‘armalarning o‘z vaqtida sarflanishini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, ularga kelgusida soliq va yig‘imlar bo‘yicha budjetga tushumlarni ko‘paytirish imkonini beruvchi mexanizmni yaratish, korxonalarning investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, asosli takliflar topish va faoliyatini rivojlantirish, amaliy maslahatlar va aniq yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bu borada soliq va yig‘imlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarning o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash soliq qarzi yuzaga kelishining iloji boricha oldini olish va ular yuzaga kelgandan keyin samarali undirish orqali amalga oshiriladi. Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan bo’lib, uning 51-moddasida “Fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar ”[3] deb belgilangan. Shu bois soliq to‘lovchilarning soliq qarzlarini qisqartirish va yangi qarzlar paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni tahlil qilish hamda soliq va yig‘imlarning budjetga o‘z vaqtida tushumini nazorat qilish soliq organlarining eng muhim masalalaridan biridir. Bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mamlakatimiz moliya va soliq tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, soliq undirishning ayrim masalalari o‘rganildi. Bu borada tadqiqot olib borgan xorijlik olim Margherita Ebraiko mamlakatda soliq va yig‘imlarni undirishni rivojlantirish va rag‘batlantirish bilan birga soliq qarzi bo‘lgan soliq to‘lovchilarga nisbatan qattiq choralar ko‘rish zarurligini ta’kidlagan. Bu undirish bo‘yicha soliq qarzlarini kamaytirish va ularning yuzaga kelishining oldini olishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan[4]. Martin Tompsenning so‘zlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda yirik kompaniyalarning soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari ko‘payib bormoqda. Bu mamlakatda soliq yukining yuqoriligi bilan izohlanadi. Korxonalarning soliq to’lovlari bo’yicha qarzdorliklarining mavjudligi ham bevosita soliq yukining yuqoriligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Masalan, AQShda soliq yuki 29,8 foiz, Buyuk Britaniyada 34,6 foiz, Germaniyada 37 foizni tashkil etadi. Yillar davomida soliq yukining kamayishi kelajakda soliq to’lashdan bo’yin tovlash va soliq qarzlarini kamaytirish

[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-modda
[4] Margherita Ebraico (2015). An Assessment of the Performance of the Italian Tax Debt Collection System. Italia.Taxation papers

imkonini beradi.[5] Xorijiy tadqiqotchi Maykl Brostek soliq qarzlarini undirish samaradorligini oshirishning quyidagi omillarini sanab o'tgan, jumladan: - mamlakatda soliq to'lovlari bo'yicha qarzdorlik paydo bo'lishining oldini olish uchun soliq yukini kamaytirish kelgusida soliqlar bo'yicha qarzdorlikni kamaytirishga olib keladi; – muddati o'tgan soliq va yig'imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan muddatda ijobiy samara beradi.[6] ahvolidan kelib chiqqan holda soliq qarzlarini undirish mexanizmini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, I.G.Vinoxodova o'z tadqiqotida, shuningdek, soliq qarzi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining mulkini olib qo'yish jarayonini kuchaytirish soliq qarzlarini undirishda samaraliroq bo'lishini qayd etadi . O'zbek iqtisodchilaridan I.Niyozmetov, "QQS va mol-mulk solig'i yuki asosan sanoat korxonalari zimmasiga yuklanganligi, bu soliq yukining notekis taqsimlanishiga, sanoat korxonalariga nisbatan og'ir soliq yuki tushishiga olib kelishini ta'kidladi. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliqlarni to'lashini osonlashtiradi. Bu soliq yukining shunchalik og'irligidan, soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga umumiy belgilangan tartibda salbiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi . Shu bilan birga, A.G'iyosov o'z ilmiy tadqiqotlarida davlat soliq xizmati organlari tomonidan asosiy hisobraqamga qo'yilgan inkasso topshiriqnomasi bir oy muddatda to'liq bajarilmagan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyektning barcha hisobraqamlariga qaratilishini belgilab qo'yish tartibini joriy etish orqali soliq to'lashdan qochishni oldi olishini hamda soliq qarzdorligi ma'murchiligini takomillashtirish uchun birinchi navbatda soliq madaniyati darajasini oshirishga yo'naltirilgan soliqqa oid qonun hujjatlarining normalarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan10 . Bizningcha, pandemiya sharoitida tadbirkorlik subyektlaridan soliq qarzlarini undirishni keskin qisqartirish, ularga soliq imtiyozlari va imtiyozlar berish, soliq to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini inqirozdan himoya qilish, ortiqcha soliq undirish xarajatlariga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Kichik biznes korxonalari bozor iqtisodiyotiga xos turli makroiqtisodiy shart-sharoitlar va talablariga moslashishi imkoniyatlariga egaligi bilan ustuvor ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyoti natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog'idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020
2. Sherov, A. (2015). Foreign experience in financing of higher educational system. Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach [L 26], 1, 92-95.
3. Margherita Ebraico (2015). An Assessment of the Performance of the Italian Tax Debt Collection System. Italia.Taxation papers
4. Sherov, A. (2018). Legal basis and importance of state financing of education system. International Finance and Accounting, 2018(2), 92.
5."Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish" Aziza Marat qizi Bekchanova maqolasi.
6. Ахунова, Ш. Н., & Абдуллаева, Б. (2015). Динамика и перспективы развития частного предпринимательства в Узбекистане. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (5), 23-25.
7.Soliq.uz.

[5] Martin Thomsen, Christop Watrin (2018). Tax avoidance over time: A comparison of European and U.S. firms. America. Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. P. 40-63. (www.sciencedirect.com)
[6] Michael Brostek (2009). Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. America. United States government Accountability office

BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET VA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR BO’YICHA DAROMADLAR VA XARAJATLAR SMETALARI HAMDA SHTATLAR JADVALINI TUZISH, TASDIQLASH VA TAQDIM ETISH TARTIBI

Tilovova Shahnoza Soibqiron qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi
7-BH-22 guruh talabasi
Tel:+998912398949
E-mail:**shahnozatilovova9@gmail.com**
Yuldashova Farangiz Taxirovna
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi
7-BH-22 guruh talabasi
Tel:+998938729599
E-mail:**farangiztaxirovna@gmail.com**
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520305

Annotatsiya: Ushbu tezisda xarajatlar smetasi, unga kiritiladigan xarajatlar turlari, budjet va budjetdan tashqari mablag‘larning taqsimlanishi, shtatlar jadvali, tuzilishi va tarkibi to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali, budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar

Kirish. Budjet tashkilotlari faoliyati davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va ijtimoiy sohalarda xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy moliyaviy mexanizmlaridan biridir. Ularning moliyaviy resurslari asosan davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hamda budjetdan tashqari manbalar hisobiga shakllanadi. Shuning uchun daromad va xarajatlar smetalarini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi bu tashkilotlar uchun eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Budjet tashkilotlarining moliyaviy rejasi sifatida smeta va shtatlar jadvali muhim hujjatlar sirasiga kiradi. Ular yordamida tashkilot o‘z faoliyatini moliyaviy jihatdan rejalashtiradi, mablag‘larning maqsadli ishlatilishini ta’minlaydi va davlat tomonidan ajratilgan resurslar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Xarajatlar smetasi – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo‘yicha ko‘zda tutilgan budjetdan ajratilgan mablag‘lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi. Budjet tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar daromadlari va xarajatlari bo‘yicha smetalari tuziladi va tasdiqlanib ijrosi ta’minlanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetlarida hamda mahalliy budjetlarda turuvchi tashkilotlarni moliyalashtirish, ular uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi.

Budjet smetasi — bu budjet tashkilotining ma’lum bir moliya yili uchun mo‘ljallangan daromadlari va xarajatlarini belgilovchi asosiy moliyaviy hujjatdir. Smetada tashkilotning faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlar turlari aniq tasnif asosida keltiriladi. Xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetalari, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetalari, shuningdek shtat jadvallari va jamlanma shtat jadvallari so‘mda tuziladi. Xarajatlar smetasini tuzish bo‘yicha ishlarni tashkil etish davomida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, qo‘mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari o‘zlariga bo‘ysunuvchi tashkilotlarga budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari va iqtisodiyot va moliya organining mazkur masala bo‘yicha ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradi.[1]

Budjet smetasi quyidagi maqsadlarda tuziladi:

- ✓ Tashkilot faoliyatining moliyaviy asoslarini belgilash;

[1] https://lex.uz/ru/docs/-2520442?ONDATE=28.12.2024

- ✓ Ajratiladigan mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta’minlash;
- ✓ Budjet ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- ✓ Xarajatlarning iqtisodiy tasnifini to‘g‘ri aks ettirish.
- ✓ Budjet smetasi davlat g‘aznachiligi orqali moliyalashtirishning asosiy hujjati sifatida xizmat qiladi.

Budjetdan tashqari mablag‘lar — bu tashkilotning to‘lovli xizmatlar, xo‘jalik faoliyati, homiylik mablag‘lari, xalqaro grantlar, shuningdek, boshqa qonuniy manbalar hisobiga olingan tushumlaridir.

Bu mablag‘lar hisobidan:

- ✓ qo‘shimcha moddiy-texnik bazani mustahkamlash,
- ✓ xodimlarni rag‘batlantirish,
- ✓ ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaxshilash,
- ✓ kapital ta’mirlash va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha alohida smeta tuziladi. Unda mablag‘ manbalari, rejalashtirilgan daromadlar, xarajatlar yo‘nalishlari aniq ko‘rsatiladi. Bu smeta ham Moliya organlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Budjet tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3 -sentyabrdagi 414-sonli “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 apreldagi 122-sonli qaroriga asosan qayta tahrirlangan[2]) muvofiq byudjet tashkilotlarini byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlash tartibi belgilab berilgan.[3]

Xarajatlarning quyidagi guruhlari Davlat budjeti mablag‘i bilan ta’minlanadi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo‘shimchalar;

III. Kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro‘yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

Yuqorida keltirilgan xarajat guruhlari asosida budjet tashkilotlari budjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalarini shakllantiradi.

Moliya organlari tomonidan belgilangan budjet parametrlari hamda tegishli ko‘rsatmasi asosida budjet tashkilotlari bosh hisobchisi yoki iqtisodchisi tomonidan xarajatlar smetasi tuziladi.[4]

Budjet tashkilotlari tomonidan moliya yili boshida xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro‘yxatdan o‘tgunga qadar vaqtinchalik xarajatlar smetasini tuzadi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi – tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro‘yxatdan o‘tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo‘lib, unda budjet tashkilotlari uchun ko‘zda tutilgan, qonunchilikka o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi budjetdan ajratiladigan mablag‘larning uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdorlardagi budjetdan ajratilgan mablag‘lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi;

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari – qonunchilikda nazarda tutilgan budjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘lardir. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lari tashkil bo‘lish manbaalari quyidagilardan iborat:

-Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

-Tibbiyot muaasasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

- Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov kontrakt shakli mablag‘lari;
- To‘lovlarning maxsus turlari bo‘yicha mablag‘lar;
- Boshqa budjetdan tashqari maxsus mablag‘lar.

[2] Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-apreldagi 122-son qaroriga 1-ilova “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar”

[3] Ergasheva Sh. T., Turkmanov A.S. “Budjet hisobi” darslik. Toshkent-2022

[4] O'rolov Akmal Ismatullayevich “Budjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish asoslari” maqolasidan

Yuqorida keltirilgan budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha alohida-alohida daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi.

Budjet tashkilotlarida smetalar quyidagi bosqichlarda tuziladi:

1. Dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish – o‘tgan yillardagi smetalar, amaldagi narxlar, tariflar, lavozim maoshlari, xizmatlar xarajatlari hisobga olinadi.
2. Normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda rejalashtirish – xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Budjet tashkilotlari xarajatlari tasnifi” bo‘yicha aniqlanadi.
3. Asoslovchi hujjatlar tayyorlanadi – xarajat moddalari bo‘yicha hisob-kitoblar, ehtiyoj tahlillari, narxlar asoslari ilova qilinadi.
4. Tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlash uchun yuqori turuvchi organlarga taqdim etiladi.

Smetani tuzishda quyidagi asosiy xarajat moddalari kiritiladi:

- ✓ ish haqi va unga teng to‘lovlar;
- ✓ ijtimoiy sug‘urta ajratmalari;
- ✓ kommunal xizmatlar xarajatlari;
- ✓ ofis anjomlari, materiallar;
- ✓ kapital xarajatlar;
- ✓ xizmat safarlari, transport va aloqa xarajatlari.

Tuzilgan smetalar avval yuqori turuvchi tashkilot yoki bosh muassasa tomonidan ko‘rib chiqiladi. Shundan so‘ng u tegishli moliya organi (viloyat, tuman moliya bo‘limi yoki Moliya vazirligi)ga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Tasdiqlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ Moliya organi tomonidan smetadagi xarajatlarning iqtisodiy tasnif va normativlarga muvofiqligi tekshiriladi;
- ✓ Zarurat bo‘lsa, tuzatishlar kiritiladi;
- ✓ Tasdiqlangan smeta Davlat g‘aznachiligiga taqdim etilib, moliyalashtirish shu asosda amalga oshiriladi.
- ✓ Smetaning har bir bo‘limi bo‘yicha mablag‘lar ajratilishi G‘aznachilik orqali qat’iy nazorat ostida olib boriladi.

Shtatlar jadvali – bu budjet tashkiloti xodimlarining lavozimlari, ularning soni, toifalari va ish haqi miqdorini ko‘rsatuvchi rasmiy hujjatdir. Shtatlar jadvali smeta bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, undagi ish haqi fondi smetadagi tegishli xarajat moddasiga mos bo‘lishi shart.

Shtatlar jadvali quyidagi tartibda tuziladi:

- ✓ Tashkilotning faoliyat hajmi va ish yuklamasiga qarab lavozimlar aniqlanadi;
- ✓ Har bir lavozim uchun belgilangan tarif razryadlari va stavkalar asosida ish haqi fondi hisoblanadi;
- ✓ Jadval yuqori turuvchi tashkilot bilan kelishiladi va moliya organi tomonidan tasdiqlanadi.
- ✓ Tasdiqlangan shtatlar jadvali asosida tashkilotda kadrlar soni shakllantiriladi, xodimlar ishga qabul qilinadi va ularga ish haqi to‘lanadi.
- ✓ Tasdiqlangan budjet smetasi, budjetdan tashqari mablag‘lar smetasi hamda shtatlar jadvali quyidagi tashkilotlarga taqdim etiladi:
- ✓ Yuqori turuvchi boshqarma yoki idora (tarmoq bo‘yicha nazorat uchun);
- ✓ Davlat g‘aznachiligi (moliyalashtirish uchun);
- ✓ Moliya organlari (hisobot va monitoring uchun).

Ushbu hujjatlar bo‘yicha o‘zgarishlar faqat tegishli organlar bilan kelishilgan holda kiritilishi mumkin. Barcha jarayonlar “Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazishda moliya organi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan shtat jadvallariga nisbatan ortiqcha shtat birliklarni qisqartirishi lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish lozim[5]

Xulosa: Budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini to'g'ri tuzish, tasdiqlash va taqdim etish — bu moliyaviy intizom, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashning muhim garovidir. Smetaning to'g'ri rejalashtirilishi orqali tashkilot faoliyatida mablag'larning maqsadli sarflanishi, davlat resurslarining tejab-tergab ishlatilishi hamda moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, shtatlar jadvali orqali inson resurslari hisobini yuritish, xodimlar mehnatini adolatli baholash va ish haqi fondini oqilona taqsimlash imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada budjet tashkilotlari faoliyati samarali, tartibli va shaffof moliyaviy boshqaruv asosida olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-apreldagi 122-son qaroriga
2. 1-ilova "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar"
3. Ergasheva Sh. T., Turkmanov A.S. "Budjet hisobi" darslik. Toshkent-2022
4. A.A.Ostonokulov, K.Sh.Ibragimov, A.S.Tursunov "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" darslik
5. O'rolov Akmal Ismatullayevich "Budjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish asoslari" maqolasi
6. "O'zarxiv" agentligi sayti
7. Lex.uz internet sayti

[5] A.A.Ostonokulov, K.Sh.Ibragimov, A.S.Tursunov "Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" darslik

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH MEXANIZMI VA UNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Berdiqulov Uchqun
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: uchqunbeardiqulov@gmail.com
Telefon raqami:+998945745591
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520339

Annotatsiya: Ushbu tezesda bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, O'zbekistonda QQS tushumlarining byudjetdagi ulushi, soliqni undirish mexanizmi hamda xorijiy davlatlar — Yevropa Ittifoqi, Kanada va Janubiy Koreya tajribalari o'rganilgan. Maqolada raqamlashtirish, elektron hisob-faktura tizimini joriy etish, teskari hisoblash mexanizmini kengaytirish va soliq intizomini mustahkamlash orqali soliq undirish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berilgan. Mazkur tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib tatbiq etish byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar; QQS (Qo'shilgan qiymat solig'i). Raqamlashtirish. Elektron hisob-faktura (e-invoice). Teskari hisoblash (reverse charge). Soliq bazasi. Byudjet daromadlari. Soliq intizomi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda soliq tizimi, xususan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) alohida ahamiyatga ega. QQS — to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan soliq turi bo'lib, ishlab chiqarish va realizatsiya bosqichlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatga nisbatan undiriladi. U O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining eng yirik manbalaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, QQS tushumlari umumiy byudjet daromadlarining deyarli yarmiga yaqin qismini tashkil etmoqda. Bu esa soliq undirish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.O'zbekistonda hozirgi kunda QQS stavkasi 12 foiz miqdorida belgilangan bo'lib, bu stavka 2028-yilgacha oshirilmasligi rejalashtirilgan [1]. So'nggi yillarda QQS to'lovchilarning soni sezilarli darajada ko'paymoqda. Masalan, 2025-yil avgust holatiga ko'ra 233 mingdan ortiq soliq to'lovchilar QQS ro'yxatida mavjud bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 18,5 foiz ko'pdir [2].

Bu jarayon soliq bazasini kengaytirishga, shaffoflikni oshirishga va soya iqtisodiyotini qisqartirishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish va xalqaro tajriba

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, QQS undirish samaradorligini oshirishda raqamlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan:

Yevropa Ittifoqida elektron hisob-faktura (e-invoice) tizimi keng qo'llaniladi. Bu tizimda tovar yoki xizmat yetkazib beruvchisi xaridorga raqamli shakldagi hisob-faktura taqdim etadi. Hisob-fakturalar davlat soliq bazasi bilan integratsiya qilinganligi sababli, QQS tushumlarining yashirilish ehtimoli keskin kamayadi. Bundan tashqari, "reverse charge" (teskari hisoblash) mexanizmi yordamida soliq to'lovchining mas'uliyati oshiriladi [3],

Kanadada QQS (GST/HST) yagona stavka asosida undiriladi va elektron monitoring tizimi orqali real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Bu esa tekshiruv harajatlarini kamaytirish, soliq intizomini kuchaytirish va tushumlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi [4].

1. [1]Tashkent Times. "VAT and income tax rates in Uzbekistan not to rise until 2028." 2025. tashkenttimes.uz
2. [2] Uzdaily. "Number of VAT payers rises 18.5% year on year." August 2025. uzdaily.uz
3. [3]International Observatory on e-Invoicing. *E-invoicing and VAT revenue in the EU*. Politecnico di Milano, 2023. eng.osservatori.net
4. [4] PwC. *VAT in the Digital Age (ViDA) package.* 2023. pwc.com

Janubiy Koreya tajribasida esa QQS bo‘yicha elektron hisob-kitoblar markazlashgan ma’lumotlar bazasi orqali yuritiladi. Natijada yashirin iqtisodiy faoliyat imkoniyatlari kamayadi va byudjet daromadlari barqarorligiga erishiladi [5].

O‘zbekiston amaliyoti va islohotlar

O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda raqamli soliq tizimini joriy etish bo‘yicha faol islohotlar olib bormoqda. 2020-yildan boshlab ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlar elektron hisob-faktura (e-invoice) tizimidan foydalanmoqda . 2025-yildan esa avtomatik “xavf baholash” tizimi ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu tizim orqali e-invoice hujjatlari real vaqt rejimida tekshiriladi va xatar darajasiga ko‘ra tasniflanadi .[6]

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi va ayrim tarmoqlarda QQS bo‘yicha imtiyozlar belgilangan. 2026-yildan boshlab fermerlar va xonadonlarda yetishtirilgan mahsulotlarga “0% QQS stavkasi” qo‘llaniladi [7]. Bundan tashqari, mehmonxona, umumiy ovqatlanish va turizm sohasida QQSning ma’lum qismi cashback shaklida qaytariladi .[8] 2025-yildan dorixona va xususiy klinikalar ham QQS to‘lovchilarga kiritiladi

Takliflar

1. Elektron hisob-fakturani QR kodlar bilan to‘liq joriy qilish — bu nafaqat shaffoflikni oshiradi, balki soliq nazoratini ham soddalashtiradi.
2. Kanada tajribasidagi kabi yagona QQS stavkasini saqlab qolish va real vaqt rejimida monitoring tizimini takomillashtirish kerak .
3. Soliq imtiyozlarini optimallashtirish — aniq iqtisodiy samaradorlik beradigan tarmoqlarga yo‘naltirish kerak .
4. Raqamli platformalar orqali soliq to‘lovchilar uchun onlayn tahliliy mexanizmlarni kuchaytirish lozim.

Xulosa

QQS undirish mexanizmini takomillashtirish davlat byudjeti daromadlarini oshiradi. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va soya iqtisodiyotini kamaytirish uchun muhim vositadir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish, teskari hisoblash tizimi, soliq bazasini kengaytirish va soliq intizomini mustahkamlash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin deb o‘ylayman . O‘zbekiston uchun bu mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Observatory on e-Invoicing. E-invoicing and VAT revenue in the EU. Politecnico di Milano, 2023. eng.osservatori.net
2. PwC. VAT in the Digital Age (ViDA) package. 2023. pwc.com
3. Sovos. Electronic Tax Invoices in South Korea. 2023. sovos.com
4. Uzdaily. “Number of VAT payers rises 18.5% year on year.” August 2025. uzdaily.uz
5. Tashkent Times. “VAT and income tax rates in Uzbekistan not to rise until 2028.” 2025. tashkenttimes.uz
6. Kun.uz. “Uzbekistan to introduce zero VAT rate on farm products from 2026.” September 2025. kun.uz
7. Uzdaily. “270,153 business entities use electronic invoices.” 2020. uzdaily.uz
8. Kun.uz. “VAT for pharmacies and clinics from April 2025.” 2024. jch.kun.uz
9. Kun.uz. “Government introduces VAT cashback mechanism for restaurants and hotels.” 2024. live.kun.uz
10. .

[5] Sovos. *Electronic Tax Invoices in South Korea.* 2023. sovos.com

[6] Kun.uz. “VAT for pharmacies and clinics from April 2025.” 2024. jch.kun.uz

[7] Uzdaily. “270,153 business entities use electronic invoices.” 2020. uzdaily.uz

[8] Kun.uz. “Government introduces VAT cashback mechanism for restaurants and hotels.” 2024. live.kun.uz

MAHALLIY SOLIQLARNI UNDURUVCHANLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Ravshanov Xurshid Akramovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
"Moliya va bank ishi" kafedrasi o'qituvchi.
tel: +998997155015
E-mail: kkxurwid@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8142-3984
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520371

Annotatsiya: Ushbu tezisda mahalliy soliqlarning unduruvchanligiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, tashkiliy va ma'muriy omillar tahlil qilingan. Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, tadbirkorlik faolligining o'sishi, soliq to'lovchilarning moliyaviy intizomi hamda soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanilishi mahalliy byudjet daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shuningdek, mahalliy soliqlarni undirishda axborot tizimlarini keng joriy etish, soliq to'lovchilar bilan ochiq muloqot mexanizmlarini rivojlantirish va hududiy soliq organlari faoliyatini optimallashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. mahalliy soliqlar, unduruvchanlik, soliq ma'muriyatchiligi, raqamlashtirish, tadbirkorlik faolligi, soliq intizomi, mahalliy byudjet, soliq imtiyozlari, fiskal barqarorlik.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlar moliyaviy mustaqillikka erishish jarayonida mahalliy soliqlar va ularning unduruuvchanligi muhim o'rin tutadi. Chunki mahalliy soliqlar nafaqat hududlarning fiskal barqarorligini ta'minlaydi, balki mahalliy hokimiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan, mahalliy soliqlarning unduruuvchanligini oshirish bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy soliqlarning undiruvchanligiga ta'sir qiluvchi omillar bu soliqlarning o'z vaqtida, to'liq va samarali undirilishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xil iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa omillar majmuasidir. Ularning har biri mahalliy soliq bazasining shakllanishi, kengayishi va boshqarilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi.

Ushbu tezisimizda mazkur omillarni tahlil qilishda 4 guruhga ajratilgan holatda (1.3.1-rasm) ko'rib chiqamiz xususan ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va ma'muriy boshqaruv guruhlari tarkibida ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga harakat qilamiz.



1-rasm. Mahalliy soliqlarni undiruvchanligiga ta’sir etuvchi omillar guruhlanishi[1]

Mahalliy soliqlarning unduruvchanligi mamlakat moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi iqtisodiy faoliyat darajasi, soliq ma’muriyatchiligi, aholi moliyaviy madaniyati hamda hududiy resurslar imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi, hududlardagi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyati va davlat moliyasining uzluksizligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mahalliy soliqlarning unduruvchanligiga ta’sir etuvchi omillar shartli ravishda to‘rt guruhga — iqtisodiy, ijtimoiy, ma’muriy va demografik omillarga ajratiladi.

Iqtisodiy omillar, avvalo, hududning iqtisodiy salohiyati, tadbirkorlik faolligi, ishlab chiqarish hajmi va investitsiya muhiti bilan belgilanadi. Agar hududda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlangan bo‘lsa, soliq bazasi kengayadi, bu esa unduruvchanlikni oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarishning pasayishi yoki norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi mahalliy soliqlar tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Soliq imtiyozlarining ortiqcha berilishi ham fiskal imkoniyatlarni qisqartiradi va byudjetning daromad qismidagi bo‘shliqlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy omillar aholining soliqqa munosabati, moliyaviy savodxonligi va soliq intizomi bilan bog‘liq. Soliq to‘lovchilarning huquqiy bilimi va davlat organlariga bo‘lgan ishonchi qanchalik yuqori bo‘lsa, unduruvchanlik ham shunchalik barqaror bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, aholi o‘rtasida soliq to‘lash madaniyatini shakllantirish, ochiq ma’lumot platformalari orqali soliq mablag‘larining sarflanishini jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyatga ega. Ammo ayrim hududlarda aholida soliq tizimiga nisbatan ishonksizlik, befarqlik va noqonuniy ish faoliyatining keng tarqalganligi soliqlarning to‘liq undirilishini qiyinlashtiradi.

Ma’muriy omillar soliq ma’muriyatchiligi samaradorligi, nazorat tizimi va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimida raqamlashtirish jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. “my.soliq.uz”, “Soliq mobil” ilovalari, elektron hisob-faktura tizimi kabi yechimlar soliq hisobini avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa soliqlarning o‘z vaqtida undirilishini ta’minlaydi. Biroq ayrim hududlarda soliq organlari moddiy-texnika bazasining yetarli emasligi, xodimlar malakasining turlicha bo‘lishi va axborot tizimlarining to‘liq integratsiya qilinmagani ma’muriy samaradorlikni cheklab qo‘yadi.

Demografik omillar aholining soni, yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari va mehnat resurslari bilan bog‘liqdir. Hududda aholi soni ko‘payishi, mehnatga layoqatli qatlamning o‘sishi soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi. Binobarin, migratsiya oqimining kuchayishi, ishsizlikning yuqori bo‘lishi yoki aholining qarib borishi mahalliy soliqlar tushumiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, urbanizatsiya darajasi va mulk bozori faolligi ham soliq tushumlariga ta’sir etuvchi muhim demografik ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan barcha omillar o‘zaro bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi. Hududda iqtisodiy faollik yuqori, soliq ma’muriyatchiligi samarali va aholi moliyaviy savodxonligi kuchli bo‘lsa, mahalliy soliqlarning unduruvchanlik darajasi yuqori bo‘ladi. Shu sababli mahalliy byudjetlarni barqaror moliyalashtirish maqsadida iqtisodiy va ma’muriy omillar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, soliq imtiyozlarini optimallashtirish, soliq madaniyatini oshirish hamda raqamli nazorat tizimini to‘liq yo‘lga qo‘yish zarur.

Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan tadbirlar nafaqat mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlaydi, balki mamlakatdagi umumiy moliyaviy barqarorlik va fiskal siyosat samaradorligini ham ta’minlaydi. Shu tariqa, mahalliy soliqlarning unduruvchanligini oshirish milliy soliq tizimini barqaror rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi.

Xulosalar

Mahalliy soliqlarning unduruvchanligi har bir hududning iqtisodiy barqarorligi va byudjet salohiyatini belgilaydigan muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Uning darajasi iqtisodiy faollik, aholining moliyaviy madaniyati, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligi va demografik holat bilan uzviy bog‘liqdir. Soliqlarning

[1] Muallif tomonidan internet ma’lumotlari asosida mustaqil tayyorlandi.

to‘liq undirilishi mahalliy byudjet daromadlarini ko‘paytirish bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy omillar — tadbirkorlik faolligi va ishlab chiqarish ko‘lami, ijtimoiy omillar aholining soliqqa munosabati va ishonchi, ma’muriy omillar raqamli ma’muriyatchilik va nazorat tizimlari, demografik omillar esa aholi soni va mehnat bozori bilan bog‘liq holda harakat qiladi.

Shu sababli mahalliy soliqlarning unduruvchanligini oshirish uchun iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish, soliq imtiyozlarini optimallashtirish, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish hamda raqamli soliq tizimini to‘liq joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu choralar mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlab, davlatning umumiy fiskal barqarorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish va soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6247-sonli Farmoni, 2021 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Ochiq byudjet” axborot portali (openbudget.uz) – 2024 yil ma’lumotlari.
4. OECD (2023). Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing.
5. Hybka, M. (2023). Collecting and Managing Tax Debt in Poland. Journal of Public Finance, 5(2), 112–120.
6. Sh.To‘raev. “Mahalliy soliqlarning hududiy tadbirkorlik faolligiga ta’siri va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari”. – Ilmiy maqola, 2024.
7. O‘zbekiston Davlat soliq qo‘mitasi. “Hududlar kesimida soliqlar tushumi tahlili – 2023” hisoboti.

SOLIQ INTIZOMIGA RIOYA QILMASLIK OMILLARI

To‘lakov Ulug‘bek Toshmamatovich
Termiz davlat universiteti,
Moliya kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-3151-1930
tulakov77@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520390

Annotatsiya: Tadqiqot soliqqa rioya qilmaslikning omillarini tizimli tarzda tahlil qiladi va soliqdan bo‘yin tovlash (evasion) hamda soliqdan qochish (avoidance) o‘rtasidagi farqlarni aniqlashtiradi. Maqsad – shaxsiy-psixologik (tax morale, adolat idroki, ijtimoiy me’yorlar), institutsional (tekshiruv ehtimoli, jarimalar, soliq stavkalari, ma’murchilik sifati, korrupsiya, davlatga ishonch) va tizimli bozor omillari (norasmiy sektor, naqd aylanma, tarmoq xususiyatlari, iqtisodiy sikl)ning soliq intizomiga ta’sirini jamlash va taqqoslashdir. Natijalar shuni ko‘rsatadiki tizim soddalashtirilishi, raqamlashtirish (e-invoice, onlayn-kassa), riskka asoslangan audit, hamda “adolat signallari” va soliq to‘lovchi xizmatlari compliance’ni oshiradi, agressiv soliq (avoidance) esa me’yoriy bo‘shliqlarni yopish va shaffoflikni kuchaytirishni talab qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati – siyosat dizaynini segmentatsiya va xulqiy “signal”lar bilan uyg‘unlashtirib, yashirin aylanmani qisqartirish hamda budjet tushumlarini barqarorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berishidir.

Kalit so‘zlar: soliqqa rioya qilmaslik, soliqdan bo‘yin tovlash, soliqdan qochish, tax morale, raqamlashtirish, audit, norasmiy sektor.

Soliqdan bo‘yin tovlash va soliqdan qochish masalalari iqtisodiyot uchun jiddiy muammo bo‘lib, davlatning yalpi daromadlariga katta zarar yetkazadi. Masalan, tadqiqotlarga ko‘ra, davlatlar har yili soliqqa oid huquqbuzarliklar sababli milliardlab dollardan mahrum bo‘lishadi. Soliqdan bo‘yin tovlash (tax evasion) – bu soliq majburiyatlarini noqonuniy usullar bilan kamaytirish (daromadni yashirish yoki sun’iy xarajatlarni ko‘rsatish) demakdir. Soliqdan qochish esa qonun doirasida, yuridik bo‘shliqlardan foydalanib, soliqlarni legal tarzda kamaytirishga harakat qilishdir. Bunday amaliyotlar nafaqat davlat byudjetiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki jamiyatda soliq yukining adolatsiz taqsimlanishiga va ijtimoiy norozilikka sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazib, umumiy “tax morale” darajasining pasayishiga olib keladi.

Soliq to‘lashga bo‘lgan ichki majburiyat yoki soliq morali fuqarolarning xatti-harakatini belgilovchi muhim omil sanaladi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, soliqchilarda ichki majburiyatni oshirishda hukumat faoliyatini adolatli va ishonchli deb qabul qilish muhim rol o‘ynaydi. Soliqlarni odobsiz ravishda past darajada to‘layotgan jamiyatlarda yashovchi odamlar o‘z navbatida soliqdan bo‘yin tovlashni oqlaydigan bo‘lishadi. Ya’ni, agar odamlar jamiyatda keng ko‘lamda soliq evaziga oid xatti-harakatlar kuzatilayotganini bilsa, ular ham buni qisman normal holat deb qabul qilishi mumkin. Shuningdek, ta’lim, yosh, turmush darajasi kabi ijtimoiy-demografik omillar ham soliq xatti-harakatlarini mustahkamlaydi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, faqat jazolash choralaridan tashqari, soliq to‘lovchi adolatini oshirish, ijtimoiy me’yorlarni rag‘batlantirish va axloqiy rag‘batlar orqali soliq intizomini kuchaytirish mumkin.

An’anaviy iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, soliq to‘lamaslik oldini olish uchun tekshiruvlar va jarimalar samarali mexanizmlar hisoblanadi. Masalan, tajriba sharoitida javobgarlik va tekshiruv chastotasi oshirilganda odamlar deklaratsiyalarini to‘liqroq to‘ldirish yo‘liga o‘tganligi qayd etilgan. Haqiqiy nazorat sharoitlarida esa soliq idoralari tomonidan xatarning yuqori his qilingan segmentdagi soliqchilarga yo‘naltirilgan risk asosida audit qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, risk asosida tekshiruvlar kompaniyalarda soliqdan bo‘yin tovlashni kamaytirish va nazorat xarajatlarini tushirishga yordam beradi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, auditi rejalashtirishda prognozlash modellari va risk-profilling ishlatadigan davlatlarda soliq tushumlari oshgan va nazorat samaradorligi yaxshilangan. Shu bilan birga tadqiqotlar, ba’zan kichik auditorlik darajasi ham soliq to‘lovchilarni qo‘rqitishi mumkinligini aniqlagan – tekshiruv xavfi soliqchilarda «qush ovozi kabi» ishlab, ko‘pincha ularni qonunni hurmat qilishga undaydi.

Yuqori soliqlar odatda narxni oshiradi ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi soliq stavkalari odatda soliqni to‘lashning kamayishiga olib keladi. Shu sababli soliqlar progressiv bo‘lishi yoki yengillashtirish vositalari (imtiyozlar, chegirmalar) taqdim etilishi adolat hissini saqlab qolishda muhimdir.

Bundan tashqari, soliq boshqaruvining sifati – ya'ni soliq tizimini tushunarli, oddiy va shaffof qilish – soliqchilarning irodasini kuchaytiradi. Yomon ma'muriyat va murakkab protseduralar soliqni xakerlikka olib kelishi mumkin. Korrupsiya va hukumatga ishonchsizlik ham soliqqa bo'lgan hurmatni pasaytiradi. Shaffoflik bo'lmaganda odamlar soliqlar jamoatchilik manfaatlariga sarflanmayapti, deb o'ylaydi, natijada soliqni yashirish istagi kuchayadi. Masalan, tadqiqotlarda ko'plab mamlakatlarda yuqori darajadagi korrupsiya va hokimiyatga bo'lgan ishonchsizlik soliq to'loshni tubdan pasaytirishi aniqlangan.

Hozirgi kunda davlatlar soliq boshqaruvini soddalashtirish va avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mahalliy va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-fakturalar va onlayn kassa tizimlarini joriy etish soliq deklaratsiyasini ko'pchilik hollarda aniqlik bilan oshiradi. Masalan, Peruda joriy etilgan e-invoicing tizimi tasodifiy ravishda tadqiq qilinganda, soliq to'lovchi korxonalarning ko'rsatkichlari (savdo hajmi, QQS va h.k.) o'rta hisob bilan 5% dan oshgani kuzatilgan. Bu xulosalar raqamlashtirish soliq xarajatlarini pasaytirib, deklaratsiya shaffofligini oshiradi va nazorat imkoniyatlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, elektron to'lov va pul aylanmasini nazorat qilish soliqdan qochishni kamaytirishga yordam beradi. Boshqa texnologiyalar (masalan, elektron tijorat platformalari va onlayn xizmatlar) ham norasmiy iqtisoddan qancha darajada soliq tushumlari yo'qotilayotganini aniqlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

Soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash ham muhim omil sanaladi. Misol uchun, ba'zi mamlakatlar "yaxshi soliqchilar"ni rag'batlantirishni tatbiq etib, mukofotlar yoki soliq chegirmalari beradi. Tadqiqotlarda bunday rag'batlantirish soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashni oshirishi ko'rsatilgan. Shuningdek, soliq organlari aholiga ma'lumot va maslahatlar berib, xabar va eslatma xatlar orqali odamlarni soliq to'lashga chorlash vazifasini bajaradi. Masalan, shu kabi xabar va eslatma xatlar aholi o'rtasida soliq to'loviga e'tiborni oshirganligi dalillar bilan tasdiqlangan.

Katta norasmiy sektor va naqd pul aylanmasi narxlar oshish muammosini kuchaytiradi. Bu mexanizm soliqdan qochuvchi hamkorlik nuqtayi nazaridan ishlaydi. Agar rasmiy faoliyat bilan shug'ullanmaydigan tadbirkorlar ko'payib, ulardan soliq olmayotgan bo'lsa, rasmiy biznes ham bozor bilan muvozanatni saqlab qolish uchun soliq to'lovni pasaytirishi mumkin. Masalan, olib borilgan izlanishlar, rasmiy korxonalar o'z hamyonidagi bozor quyi qatlamidan raqobat sezganda, soliq to'lashga kamroq moyil ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni, kattaroq norasmiy sektor rasmiy sektordagi soliqchilarni ham kamroq intizomli bo'lishga undashi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, iqtisodiy sikl ham soliq tushumlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, inqiroz va qisqarish davrida norasmiy iqtisod kengayishi va soliq tushumlari pasayishi kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq intizomini oshirish uchun eng samarali strategiyalar – tizimni soddalashtirish va raqamlashtirish, riskga asoslangan audit, soliq to'lovchilarga ko'rsatmalar va rag'batlar, jamiyatda adolatli siyosat signallari yuborishdan iborat. Soliq intizomiga rioya etmaslik masalasida qat'iy nazorat choralarini qo'llash bilan birga, aholida soliq to'lashga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytirish zarur. Dastlab, soliq tizimini soddalashtirish va onlayn hisob-kitoblarni joriy qilish, shuningdek riskli soliqchilarga e'tibor qaratish yo'li bilan qonuniy soliq tushumlarini oshirish; ikkinchidan, xo'jalik sub'yektlarini segmentatsiyalab, xulqiy "signal" usullari orqali rag'batlantirish – masalan, ijtimoiy me'yorlar, eslatmalar va mukofotlar orqali soliq to'lovning zarurligini namoyish etish foydali. Shuningdek, soliq ma'lumotlarini oshkor etish, xalqaro shaffoflik va qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish orqali agressiv soliqqa qarshi kurashish muhimdir. Bu tadbirlar yashirin iqtisod va norasmiy pul aylanmasini qisqartirib, byudjet daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Castañeda-Rodríguez, V. M. (2025). Association between tax morale and the perceptions around tax compliance: An empirical study for Latin America. International Review of Economics, 72, 16.
2. Bellon, M., Chang, J., Dabla-Norris, E., Khalid, S., Lima, F., Rojas, E., & Villena, P. (2019). Digitalization to Improve Tax Compliance: Evidence from VAT E-invoicing in Peru. IMF Working Paper WP/19/231.
3. Eberhartinger, E., Safaei, R., Sureth-Sloane, C., & Wu, Y. (2021). Are risk-based tax audit strategies rewarded? An analysis of corporate tax avoidance. arqus Discussion Paper No. 267.

4. Gebreselassie, H. G., Gebresilassie, Y. H., & Woldu, G. T. (2023). Trust, Corruption, and Tax Compliance in Fragile States. Social Sciences, 13(1):3.
5. Hallsworth, M., List, J. A., Metcalfe, R. D., & Vlaev, I. (2017). Tax audits as scarecrows: Evidence from a large-scale field experiment. American Economic Journal: Economic Policy, 9(1), 36–66.
6. Kettle, S., Hernandez, M., Ruda, S., & Sanders, D. (2019). Behavioural Interventions in Tax Compliance: Evidence from Guatemala. Journal of Public Economics, 174, 191–208.
7. Yimam, S., Asmare, F., & Moore, M. (2023). Does competition from the informal sector reduce tax compliance in the formal sector? Evidence from Ethiopia. ICTD Working Paper 165.
8. OECD (2015). Base Erosion and Profit Shifting (BEPS). OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting Project.
9. IRS (2015). Tax Avoidance vs. Tax Evasion. U.S. Internal Revenue Service.
10. Justice, Global Alliance for Tax. (2021). Tax Justice Global Report on Tax Abuse.

DAVLAT XARIDLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolto‘rayev Abduraxmon
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: abduraxmonxoltorayevgmail.com
Telefon raqami:+998917116424
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520417

Annotatsiya: Ushbu tezisda davlat xaridlari nima uchun mamlakatga kerak ekanligi va ularning iqtisodiyotda tutgan o‘rni haqida aytib etilgan va ushbu tizimni rivojlantirish haqida bir necha usllar keltirib o‘tilgan.Va bunga oid bir qancha statistik ma’lumotlar va qonun loyihalari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xom-ashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi,

Davlat xaridi deganda davlat tomonidan, davlat buyurtmachilarining tovarlar, ish, xizmatlar xarididir. Joriy davrdagi islohotlarning ustivor yo‘nalishlaridan bo‘lib davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalarining mablag’lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalardan mablag‘ oluvchilarning ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmat)larni muqobil variantda sotib olishga erishish xisoblanadi. Davlat xaridi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatadi. Bozordagi tovar, ish, xizmatlarga bo’lgan talab va taklifni muvozanatlashuvida davlat tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar alohida o’rin tutadi. Davlat xaridining predmeti bo’lib, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar hisoblanadi. Tovarlarga - xom-ashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni etkazib berish bo’yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo’lmasa) kiritiladi.

Davlat xaridlarining subyektlari bo’lib davlat buyurtmachilari, xarid komissiyasi, ixtisoslashgan tashkilot, ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori. Davlat buyurtmachilari deganda quyidagilar tushuniladi:

1) budjet buyurtmachilari:
-davlat organlari va muassasalari;
-budjet tashkilotlari;
-xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan budjet mablag‘larini oluvchilar;
-davlat maqsadli jamg‘armalari;
-budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar;
2) korporativ buyurtmachilar:
-davlat korxonalari;

Davlat xaridlari oxirgi yillarda sezilarli darajada o‘sgan misol uchun: 2023-yil I choragi bo‘yicha jami 79 228 mlrd.so‘m miqdordagi davlat xaridlari amalga oshirilgan.[1] Unga ko‘ra;

[1] https://www.imf.uz/ (Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti) ma’lumotlari asosida



1-rasm. Davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar[2]

Sohani yanada rivojlantirish maqsadida qonunlar qabul qilingan ulardan eng asosiylari sifatida davlat xaridlari sohasini takomillashtirish maqsadida 2021 yil 22 aprelda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilingan. Ushbu Qonunning amal qilishi: O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturida va boshqa davlat dasturlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan loyihalarni ro‘yobga chiqarish chog‘ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga; davlat buyurtmachilarining xo‘jalik faoliyatini yuritish chog‘ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga; O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarining, shuningdek budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga; agar donor mamlakatlarning, xalqaro tashkilotlarning, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlarining tartib-taomillarida yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar doirasida taqdim etiladigan chet el grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari hamda O‘zbekiston Respublikasiga beriladigan chet el kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga. Bunda donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlar tomonidan, belgilangan tartib-taomillarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib- taomillardan qat’i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi; agar moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordamini taqdim etish hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtirish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordami hisobidan hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etiladi. Bunda moliyaviy, gumanitar yoki xayriya ko‘makni hamda boshqa beg‘araz qaytarilmaydigan moliyalashtirishni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib-taomillardan qat’i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi. Davlat tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta’minlash va ichki tartibni saqlash uchun davlat xaridlari, davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovlariga, O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Korporativ buyurtmachi va strategik ahmiyatga ega ho’jalik jamiyatlari va korhonalar tomonidan belgilangan haridlarni amalga oshirish tizimi takomillashgan: - Ustavida davlat ulushi 50 foizdan ko’p bo’lgan

[2] https://www.imf.uz/ (Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti) ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

hamda davlat korhonalari va davlat ulushi 50 fizdan ko'p bo'lgan korhonalar ulushining yigindisi 50 foizdan ortiq bo'lgan jurist shahslar korporativ buyurtmachilar ro'yhatiga kiritildi. - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda korporativ buyurtmachilar ro'yhatini mahsus axborot portalida yuritish belgilandi. - Tadbirkorlik subyektlariga imkoniyatlar, imkoniyatlar ochiqlik va holislikni ta'minlash maksadida strategist korxona ega ho'jalik jamiyatlari va korhonalarga ham Qonun talablari to'liq tatbiq etilish belgilandi. Davlat buyurtmachisi va ishtirokchilarning mas'uliyatini yuqori darajali quyidagilar belgilandi:

1. Moliya vazirligida o'qish tizimi orqali buyurtmachilarning xaridga masul hodimlarining kasbiy mahorati va malakasi oshirib boriladi.

2. Davlat xaridlari komissiyasining tarkibiga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda "O'zinjiniring" korxonasi mazhburiy foydalanish talabi bekor qilinib, buyurtmachining korxonadan tashkil topishi belgilandi. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlar ustuvor bo‘ladi. Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirish tartib taomillari to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minlashi kerak. Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini;

monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborotning ochiq manbalarida e’lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin. Manfaatlar to‘qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo‘lishi. Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a’zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ta’riflar va aytib o‘tiganlardan xulosa sifatida aytish mumkunki, davlat xaridi bu - davlatning funksiya va vazifalarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovar (ish va xizmatlar)ni davlat mablag‘lari va kreditlari hisobidan sotib olinish hisoblanadi. Davlat xaridining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, davlat sektorining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojidagi alohida rolidan kelib chiqib, uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta’minlanishini amalga oshiruvchi mexanizmdir. Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida davlat xaridlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga asosiy sabab, byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining salmoqli qismi davlat xaridlari tizimi orqali qayta taqsimlanishidir. Shu nuqtai nazardan, davlat xaridlarini tartibga solish orqali iqtisodiyotning qaysidir sektorini taraqqiy etishiga erishish, umuman olganda, iqtisodiyotni samarali tartibga solishda foydalanib kelinmoqda. Davlat xaridi tizimini oqilona tashkil etish, savdolar jarayonini takomillashtirish davlat xaridlarining yanada mukammal, ochiq va shaffof bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Moliya: Davlat xaridlari. Darslik. "Lesson Press" MCHJ nashriyoti – T.: 2024. 158 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi O‘RQ-684-son Qonuni. 2021-yil 22-aprel.
3. "O’zbekiston Respublikasi davlat xaridlarini amalga oshirishning nazorat tizimi". Charos Ro‘zimurodova, Ilmiy maqola.
4. https://www.imf.uz/ (Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti) ma’lumotlari asosida

5. https://www.imf.uz/ (Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti) ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING UY XO‘JALIKLARI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudayarova Zuxra Yuldashevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
zuxra_xudayarova@tues.uz;
ORCID: 0009-0000-8767-6975
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520446

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholining turmush darajasini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Aholi daromadlari tarkibi, ularning shakllanish manbalari, real va nominal daromadlar o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlariga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida uy xo‘jaliklari daromadlari tarkibida mehnat faoliyati va yakka tartibdagi tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushi o‘rganilib, tadbirkorlikning iqtisodiy faollikni oshirish hamda aholi farovonligini ta’minlashdagi strategik ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, mintaqalar kesimida aholi daromadlari o‘zgarishlari tahlil qilinib, ularni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samarali mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, uy xo‘jaliklari, daromad, real daromad, nominal daromad, turmush darajasi, iqtisodiy faollik, farovonlik, kichik biznes, aholi daromadlari tarkibi.Har bir mamlakat har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakatlarni joriy etish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan maqsadi, aholi turmush darajasini oshirish, ularning manfaatlarini ko‘zlash va oxir oqibat mamlakatda iqtisodiy o‘sishga erishishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat‘iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo‘lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog‘liq. Demak, aholining turmush darajasi jihatidan farqlanishini aniqlash maqsadida tirikchilik minimumi aniqlanadi. Tirikchilik minimumi-iste‘mol savatiga asosan belgilanadi. Iste‘mol savatini aniqlash uchun unga kiradigan eng zarur oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar guruhi belgilanadi hamda ularni jon boshiga iste‘mol me‘yori aniqlanadi. Professor Sh.Shodmonov aholi turmush darajasi aholining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar bilan ta‘minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne‘matlar bilan qondirilishi darajasidir deb fikr bildirgan. Iste‘mol savatini tashkil qilgan eng zarur iste‘mol mahsulotlari va xizmatlari me‘yori miqdorining joriy bozor baholariga ko‘paytmasining yig‘indisi tirikchilik minimumini tashkil etadi. Aholi turmush darajasi–mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mos keluvchi hayot sharoitlarining yig‘indisidir. Uning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- aholining daromadlilik darajasi;
- insonning kamolot indeksi;
- turmush sifati;
- turmush sifati indeksi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq nazorati soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash qo'shimcha soliqlar, jarimalar va penyalar shaklida budjetga qo'shimcha to'lovlarni undirish imkonini beruvchi hamda bu orqali soliq qonunchiligini buzilishini oldini olish yoki minimallashtirishni ta'minlaydigan turli raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va qo'llashga asoslanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari va umuman soliq tizimini rivojlantirish, jumladan, soliq nazorati bilan o'zaro bog'liq bo'lib, u hozirgi kunda nafaqat ilmiy munozaralar obyekti, balki jiddiy amaliy muammoga ham aylanib bormoqda. Amaliyot nuqtai nazaridan o'rganilayotgan masala iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq xizmati faoliyatini birinchi bosqichda, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa keyingi bosqichda aniq tashkil etish bilan bog'liq muammolarni hal etish zarurligini tavsiflaydi. Raqamli makon juda keng ko'lamli va subyektlarning soliqlarni to'lamagan holda daromad olish imkoniyatlari shunchalik kengki, bunday imkoniyatlarning yaratilish va ulardan foydalanish tezligi ham juda tez o'sib bormoqda. Natijada, davlatlarning barcha soliq xizmatlari va soliq nazorati tizimlari ham nazoratni kerakli darajada amalga oshira olmaydi. Bu esa soliq nazorati tizimini raqamlashtirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi vaqtda soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazoratini raqamlashtirish masalalari mamalakatimiz va xorijiy adabiyotlarda tez-tez ishlatiladigan tushuncha bo'lib qolmoqda. Biroq, meyoriy huquqiy hujjatlarda ham, iqtisodiy adabiyotlarda ham yuqoridagi tushunchalar har xil talqin qilinmoqda.

Bu borada T.A.Ефремова quyidagi fikrlarni bildirgan, samarali soliq nazoratini tashkil etishning birinchi navbatdagi sharti esa soliq va buxgalteriya hisobotlarining elektron tarzda taqdim etishning zamonaviy ilg‘or axborot texnologik tizimga asoslangan soliq nazorati hisoblanadi[1].

I.Zhuravleva va S.Shamayevlarning fikricha, "Raqamli hukumat" tushunchasi turli davlatlar siyosatida tobora ko‘proq aks etmoqda. Shu bilan birga, ushbu konsepsiyaning rivojlanishi ko‘plab sohalarda, jumladan, soliq munosabatlari sohasida ham o‘z ifodasini topmoqda. Soliq organlari faoliyatini raqamlashtirish, bir tomondan, fuqarolar va tashkilotlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq va yig‘imlarni hisoblash jarayonini soddalashtirish, ularga qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar va amaldagi soliq imtiyozlari to‘g‘risida dolzarb ma’lumotlarni taqdim etish imkonini bersa, boshqa tomondan, soliq organlariga ishlarning bir qismini avtomatlashtirish, ularning faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi[2].

K.A.Faizova o‘zining ilmiy ishlarida raqamlashtirish sharoitida soliq nazoratini o‘zgartirishning asosiy jihatlari bilan bog‘liq masalalar muhokama qilgan. Bugungi kunda soliq organlari faoliyatida soliq qonunchiligiga muvofiq soliq nazorati va ma’muriyatchiligini tezkorlik bilan amalga oshirish imkonini beruvchi nazorat tadbirlarini amalga oshiruvchi yuqori sifatli dasturiy ta’minotdan foydalanilmoqda. Soliq nazoratini raqamli o‘zgartirishning huquqiy tartibga solishga ta’siri nuqtai nazaridan quyidagi o‘tish davri qoidalari qayd etilgan: soliq tartib-qoidalarini raqamli shaklda amalga oshirish soliq nazorati bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni bir xil shaklda amalga oshirishni nazarda tutadi; shuningdek, soliq nazorati jarayonidan korrupsion harakatlar va inson omilini istisno qilish. Raqamli voqelik sharoitida soliq nazoratini o‘zgartirish jarayonida davlat tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muammolar va ularni hal etish chora-tadbirlari alohida ta’kidlangan[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Soliq ma’muriyatchiligi va soliq nazoratini raqamlashtirishning natijalariga o‘tishdan oldin jahonda raqamli iqtisodiyot borasidagi ba’zi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

Global raqamli iqtisodiyot 2028 yilga borib 16,5 trillion dollarga yetadi va global yalpi ichki mahsulotning 17 foizini egallaydi. Global raqamli iqtisodiyotning deyarli uchdan ikki qismi AQSH va Xitoy ulushiga to‘g‘ri keladi. Dunyo aholisining 4,2 foizi va global yalpi ichki mahsulotning 26 foiziga ega bo‘lgan AQSH global texnologiya xarajatlarining 42 foizini egallaydi. Elektron tijorat Xitoyda raqamli iqtisodiyotning eng katta ulushini egallaydi, chakana savdoning 39 foizi 2024 yilda onlayn xarid qilingan, bu 2028 yilga kelib 41 foizga yetadi[4].

Xitoyning raqamli iqtisodiyoti 2022-yilda 50,2 trillion yuanga yetib, dunyoda ikkinchi o‘rinni egallab, ichki yalpi ichki mahsulotning 41,5 foizini tashkil etadi. Accenture kompaniyasining Xitoy korxonalarining raqamli transformatsiya indeksi (2021) haqidagi hisoboti shuni ko‘rsatadiki, Xitoyning 2018 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan yillardagi korxonalarning raqamli transformatsiyasi indeksining o‘rtacha ko‘rsatkichlari mos ravishda 37, 45, 50 va 54 ni tashkil etadi, bu esa yildan yilga o‘sishning jadal rivojlanish tendensiyasidir[5]

Raqamli rivojlanishning O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi va ish o‘rinlari yaratilishidagi muhim rolini e’tirof etgan holda Hukumat strategik kun tartibiga raqamlashtirishni yuqori darajaga qo‘ydi. Oxirgi besh yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasini rivojlantirishga 2 milliard AQSH dollari miqdorida

---

[1] Ефремова Т.А. (2017), Развитие налогового администрирования в России: теория, методология, практика. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. МГУ. Саранск. стр. 366.

[2] Irina A. Zhuravleva, Semyon A. Shamaev. Smart Governance: Digitalization of Tax Control in the Russian Federation to Increase VAT Collection. Digital Transformation: What are the Smart Cities Today? 01 February 2024. Pages 127-143.

[3] Faizova Kristina Alexandrovna.Transformation of tax control in the context of digitalization. “Евразийский юридический журнал”. № 4 (179) 2023. Pages 215-216. DOI 10.46320/2073-4506-2023-4-179-215-216.

[4] Michael O’Grady.Digital Transformation Is A Cornerstone Of Innovation And Sustainable Growth. Jul 23 2024. https://www.forrester.com/blogs/the-global-digital-economy-will-reach-16-5-trillion-and-capture-17-of-global-gdp-by-2028/.

[5] Yanhui Xu, Fuhua Deng, Qianbin Feng.The effect of tax enforcement digitalization on corporate digital transformation: Evidence from China's listed companies. Economic Analysis and Policy.Available online 5 January 2025. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0313592625000062.

sarmoya kiritildi, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (700 million dollar). Hukumat 2020 yildan boshlab raqamlashtirish bo‘yicha ko‘plab qarorlar qabul qildi, jumladan, beshta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi (“Strategiya”) qabul qildi: (1) Raqamli infratuzilma; (2) elektron hukumat; (3) raqamli iqtisodiyot; (4) Raqamli texnologiyalar milliy bozori; va (5) IT-ta’lim. Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotga (YAIM) qo‘shayotgan hissasi hamon past (2021-yil holatiga ko‘ra 1,9 foiz)[6].

Yuqoridagilar bevosita soliq ma’muriyatchiligi va soliq nazoratini raqamlashtirishda alohida o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish soliqlarni yanada samarali yig‘ish, qonunchilikka rioya etishni kuchaytirish va soliq organlari va soliq to‘lovchilar uchun ma’muriy yuklarni kamaytirishga olib keladi. Bundan tashqari, bugungi kunda soliq ma’muriyatchiligi doirasida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliq to‘g‘ri hisoblanishi, o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi, soliq to‘lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi budjetlar o‘rtasida taqsimlash, natijalarni yig‘ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Hususan, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, sohani raqamlashtirish-Elektron hisobvaraq-fakturalari bilan qamrov darajasi 100 foizga, hisobotlarni avtomatlashtirish 76 foizdan 86 foizga yetkazilganligi, “Tahlika-tahlil” AAT, “YE-ijara”, “Avtokameral”, Tax.gap, “Cashback” va “Soliq” mobil ilovasi va boshqa qator dasturiy mahsullarning ishga tushirilishi soliq tushumlarini ko‘payishiga olib keldi[7].

Tadbirkorlarning barqarorlik reytingida har bir tadbirkor o‘z o‘rni va bahosini real vaqtda bilib borishi mumkin bo‘ldi. Hozirda “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” elektron onlayn platformasida jami 520,6 mingta tadbirkorlik subyekti baholangan. Bugun tadbirkorlikka yaratilgan qulay sharoitlar sabab, tadbirkorlar bilan hamkorligimiz yangi bosqichga ko‘tarildi. 31 ming tadbirkor barqarorlik reytingini yaxshilab, halol tadbirkorlar safini kengaytirmoqda. Umumiy yuqori reytingdagi tadbirkorlar soni 4,5 baravarga ko‘payib, jami 7,5 mingdan oshdi. AAA reytingdagi tadbirkorlarning 1107 tasiga 1,9 trln. so‘mlik QQS summasi 1 kunda tekshiruvlarsiz qaytarib berilgan[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan katta hajmdagi amaliy ishlarni raqamlashtirishsiz amalga oshirish juda qiyin bo‘ladi. Shuning soliq ma’murchiligi va soliq nazorati tizimiga yanada ko‘proq yangi texnologiyalarni jalb qilish natijasida tizimda korrupsiyani oldini olish mumkin.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ulushini oshirish maqsadida ilg‘or xorij tajribasini o‘rganib, ularning ijobiy tomonlarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Soliq ma’muriyatchiligi va soliq nazorati tizimga yangi raqamli texnologiyalarni jalb qilgan holda inson omili ta’sirini kamaytirish choralarini ko‘rish lozim.

Intizomli soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish maqsadida soliq tekshiruvlaridan ozod qilish mezonlarini yanada ko‘proq amaliyotga joriy etish kerak.

[6] The World Bank Uzbekistan Digital Inclusion Project (P179108) November 2, 2023.chromeextension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://documents1.worldbank.org/curated/en/099110623155540364/pdf/BOSIB0bffea70a055092ad0700f8cf4b156.pdf.

[7] O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasining 2023 yil yakunlari hisoboti.2024.

[8] 2025 yilda 224 trln. so‘m soliq tushumlarini ta’minlash vazifasi belgilandi. https://uza.uz/uz/posts/2025-yilda-224-trln-som-soliq-tushumlarini-taminlash-vazifasi-belgilandi_675250. 08.01.2025.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi. 2025.
2. Наталя Игуш.Переход на налоговый мониторинг в 2022 году. Порядок, преимущества и альтернатива. hттпс://правовест-аудит.ру/наши-статии-налоги-и-буhучет/налоговйй-мониторинг-стоит-ли-перекhодит-и-к-чему-готовится/.6.03.2025.
3. Мазурова Э. Для чего нужен налоговый мониторинг. hттпс://бухгалтер.уз/публиш/дос/техт177767_для_чего_нужен_налоговйй_мониторинг.6.03.2025.
4. Демин А. В., Молина А. Ю. Налоговый мониторинг: стоит или нет заключат соглашение по фактическим обстоятелствам? Журн. Сиб. федер. ун- та. Гуманитарные науки, 2024, 17(6), 1094–1102. ЭДН: СДМОРМ.
5. Налоговый мониторинг: интегратсия с информатсионной системой налогоплателщика.hттпс://хн--80аесбяфнмегсфбдс8а8а7м.хн--п1аи/база-знаний/артислес/налоговйй-мониторинг-интегратсия-с-информатсионной-системой-налогоплателшчика/. 6.03.2025.

JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI

Mansurov Kamoliddin Mengortiqovich
Surxondaryo viloyati soliq boshqarmasi
davlat soliq katta inspektori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520695

Har bir davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi moliya tizimining samaradorligiga, ayniqsa, soliq siyosati va uning ijtimoiy adolat tamoyiliga bog‘liq. Soliqlar budjet daromadlarining asosiy manbai bo‘lib, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish masalasi davlat moliyasi va iqtisodiy siyosatda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish fuqarolarning davlat oldidagi majburiyatlarini belgilash bilan birga, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu boisdan mazkur mavzuda amalga oshiriladigan tadqiqotlar davlat moliya siyosati, norasmiy iqtisodiyot bilan kurash va raqamli iqtisodiyotda soliq to‘lovlarini hisobga olishda muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimi davlat budjeti barqarorligi va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kunda norasmiy iqtisodiyotning ulushi hanuz yuqori bo‘lib, aholining katta qismi rasmiy hisobga olinmagan daromad manbalaridan foydalanmoqda. Bu soliq tizimini takomillashtirish, barcha fuqarolar uchun teng sharoit yaratish va soliq bazasini kengaytirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida frilans, onlayn xizmatlar va elektron savdo kabi yangi daromad turlari paydo bo‘lmoqda. Amaldagi soliq tizimi bu turdagi daromadlarni to‘g‘ri hisobga olish va soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. Ijtimoiy adolatni ta’minlash, aholining daromad darajasiga qarab progressiv soliq stavkalarini joriy etish, imtiyozlar tizimini qayta ko‘rib chiqish va xalqaro soliq standartlariga moslashish bu mavzunning dolzarbligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish bilan bog‘liq bir qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i uchun asosiy stavka hozirda 12% ravishda belgilangan. Rezident shaxslar uchun dividendlar va foizlar shaklida olingan daromadlarga maxsus stavka – 5%. Soliq rezidenti bo‘lmagan shaxslar uchun O‘zbekistondagi manbalardan olingan daromadlarga hay’atli (withholding) stavkasi qo‘llanadi (yoki boshqa maxsus stavkalar). 2019 yilda qabul qilingan Soliq kodeksi o‘zgarishlariga ko‘ra, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i sistemasi va soliq turlari qayta shakllantirilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi jismoniy shaxslarning daromadlarini, xususan, tashqi manbalardan olingan daromadlarini tahlil qilish uchun yagona ma’lumotlar bazasi va IT tizimini yaratish ustida ishlamoqda. Hozirgi tartibda, jismoniy shaxs manbaida soliqni to‘lamay turgan, deklarsiyani topshirmaydigan holatlarning oldini olish uchun nazorat kuchaytirilmoqda. “Boy shaxslar” kategoriyasi bo‘yicha alohida soliq to‘lov tartibini joriy etish rejalashtirilgan — yuqori daromadli shaxslarni segmentatsiya qilish, ma’lumot bazasini to‘ldirish.

Soliq nazorati va ma’lumotlar bazasi yaratilishi orqali daromadlarning ro‘yxatga olinishi va yashirin daromadlarni aniqlash imkoniyati oshirilmoqda. Jismoniy shaxslar uchun stavka yopiq va oddiylashgan — bu soliq fondini kengaytirish va ishchilarning rasmiy daromad hisobiga o‘tishini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan. Soliq tushumlari bazasi nazorat qilinayotgani va “Yashirin daromad”larni hal qilish yo‘lida mexanizmlar joriy etilayotgani kuzatilmoqda.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish masalalarida bir qator olimlar ish olib borgan. Xususan, xorijlik olimlardan Emmanuel Saez (Fransuz–amerika iqtisodchisi, jamoat iqtisodiyoti sohasida faol)ning ishlari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqga tortish tizimlari daromad tengsizliklari va iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi — masalan, yuqori daromadli shaxslar ustidan qo‘llanadigan soliq stavkalari soliq siyosatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lishi mumkin.Ushbu nazariy-analitik asoslar soliq tizimini reform qilishda «qaysi stavka va qanday tartib maqsadga muvofiq» degan savollarga javob berishga yordam beradi.

Jamoat moliyaviy siyosat va soliq siyosati bo‘yicha olim Stefanie Stantchevaning ilmiy izlanishlarida jismoniy shaxslar solig‘ining nafaqat daromad yig‘ish uchun manba ekanini, balki innovatsiya va ixtirochilik

faoliyatiga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi — misol uchun, yuqori daromad solig‘i ixtirochilar joylashuvi (qayerda ishlashni tanlash) va ixtiro hajmiga ta’sir qilishi mumkin. Soliq tizimi faqatgina daromad yig‘ish vositasi emas, balki iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozorida tanlov va innovatsiya motivatsiyasiga ham bog‘liq ekanini tushuntiradi.

Nemis davlatchilik siyosati va soliq tizimi bo‘yicha olim Philipp Genschel soliq tizimlarining tarixi va jismoniy shaxslar solig‘ining joriy etilish jarayonlarini 220 dan ortiq yurisdiktsiyada tadqiq qilgan; u soliq tizimlarini kiritishda mamlakatlar o‘rtasida oldingi tajriba va soliq raqobati qanday rol o‘ynaganini tahlil qilgan. Soliq islohotlari (jumladan jismoniy shaxslarning daromadini soliqga tortish) milliy kontekstda bo‘lsa ham, xalqaro taqqoslashdan foyda beradi — islohotlar nima uchun har xil uslub bilan kechadi, qaysi omillar muvaffaqiyatga ta’sir qiladi degan savollarga javob beradi.

Siyosatshunos va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq bazasini kengaytirish, soliq yig‘ish va ijtimoiy shartnoma (social contract) jihatdan tadqiqotlar olib borgan Mick Moorening fikricha rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Osiyo va Afrika) jismoniy shaxslarning daromadini soliqga tortishning siyosiy ijtimoiy o‘zaro ta’sirini o‘rganadi — masalan, soliq yig‘ish faolligi va davlat-fuqara munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Soliq tizimining samaradorligi faqat iqtisodiy omillarga bog‘liq emas; ijtimoiy ishonch, adolat hissi va davlat-fuqara aloqalari ham muhim rol o‘ynaydi — bu xususan O‘zbekiston kabi yangilanayotgan soliq tizimlari uchun ham ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda mustaqil tadqiqotchi va olimlardan Mukhabbat Volnazarovna Imamova jismoniy shaxslar soliq tizimida muhim rol o‘ynaydi, bu bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet manbai sifatida katta ahamiyatga ega ekanligi. daromad solig‘ini yengillashtirish va soliq to‘lovchilar uchun rag‘bat mexanizmlarini ishlab chiqish kerakligiga e’tibor qaratgan.

Yadgarov Sherzod Kholmurotovich soliq ma’muriyatida xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda takliflar berilgan: ma’lumotlar bazasi, avtomatizatsiya, soliq tuzumni soddalashtirish zarurligi aytgan.

Shakhlo Rajapboevna Rakhimova Germaniya, Yaponiya, Singapur va Shvetsiya kabi mamlakatlarda jismoniy shaxslar daromadini solish tizimlarining adolatliligi, rag‘batlashtiruvchi xususiyatlari va shaffofligi O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkinligi ko‘rsat o‘tilgan.

Isayev Husan Mansurovich JSHS va korporativ soliqlar davlat budjetini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilishini, ammo soliqdan qochish, ma’muriy samarasizlik va norasmiy iqtisodiyot kabi muammolar mavjudligini tahlil qilgan.

Davletov Po‘lat Torabayevich soliq tizimida jismoniy shaxslar uchun soliqning shakllanishi, soliq bazasi, mahalliy budjetlarning daromadlari bilan bog‘liq tarkibiy o‘zgarishlar va muammolarni tadqiq etgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkasi asosiy hollarda 12% tashkil etadi. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimida qator muammolar mavjud. Xususan:

norasmiy iqtisodiyot faoliyati soliq bazasini kamaytiradi;

fuqarolarning moliyaviy xabardorligi pastligi;

soliq ma’muriyatining raqamlashuv darajasi yetarli emasligi;

yangi raqamli daromad manbalarini aniqlash qiyinligi.

Bu omillar budjet tushumlarining kamayishi va soliq tizimi samaradorligining pasayishiga olib keladi.

O‘zbekiston jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, fuqarolarning soliq madaniyatini oshirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish choralari, yangi daromad manbalarini hisobga olish uchun qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikka moslashtirish lozim.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimi davlat moliyasi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi tizimning samaradorligi norasmiy iqtisodiyot, fuqarolarning moliyaviy xabardorligi va raqamli daromadlarni hisobga olish qobiliyati bilan chegaralangan. Tizimni takomillashtirish choralari sifatida soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish, fuqarolarning soliq madaniyatini oshirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va yangi daromad manbalarini qonuniy hisobga olish tavsiya etiladi. Shu yo‘l bilan davlat budjeti daromadlari ko‘payadi, iqtisodiy ochiqlik ta’minlanadi va soliq tizimida ijtimoiy adolat mustahkamlanadi.

O‘zbekistonda jismoniy shaxslar daromad solig‘i uchun yagona 12 % stavka oddiy va ma’muriy jihatdan qulay, ammo daromadlar darajasi keskin farqlanadigan jamiyat uchun bu progressivlik prinsipiga to‘liq javob bermaydi. Soliq organlari axborot tizimini yangilagan bo‘lsa-da, norasmiy mehnat bozori va naqd pul aylanmasi soliq bazasini cheklab qo‘yadi. Xalqaro tajriba (Germaniya, Shvetsiya, Janubiy Koreya) shundan dalolat beradiki, progressiv daromad solig‘i orqali aholi o‘rtasidagi boylik tengsizligini kamaytirish mumkin. Soliq to‘lovchilarning bilim darajasi, raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyati pastligi sababli ko‘p holatda soliq to‘lov o‘z vaqtida amalga oshmaydi yoki xato yuz beradi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni bermoqchimiz.

1. Progressiv soliq tizimini bosqichma-bosqich joriy etish. Bunda 12 % stavkani saqlagan holda, ma’lum daromad chegarasidan yuqori bo‘lganlar uchun 15–20 % stavka kiritish. Bu yuqori daromadli shaxslar hisobiga ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi va budjet daromadini oshiradi. Ta’siri — Emmanuel Sayezning «optimal soliq nazariyasi» bo‘yicha modellariga muvofiq.

2. “Yashirin” daromadlarni qamrab olish uchun raqamli nazorat tizimini kengaytirish. Bankomat, elektron to‘lov va ijtimoiy tarmoq orqali daromad oluvchilarni avtomatik hisobga olish tizimini yaratish. Xorijiy frilans, onlayn-biznes va kripto-daromadlar monitoringi uchun maxsus modul (PayPal, Upwork, Binance ma’lumotlari bilan integratsiya). Bu taklif XMJ (IMF) tavsiyasiga ham mos keladi.

3. Soliq imtiyozlari va rag‘bat mexanizmlarini takomillashtirish. Kam daromadli oilalar uchun soliq krediti (tax credit) joriy etish. Ijtimoiy ahamiyatga ega xarajatlar (ta’lim, tibbiyot, ipoteka) bo‘yicha chegirmalarni avtomatik hisoblash. Bu Stefani Stanchevaning tadqiqotlarida ko‘rsatilgan “soliq orqali ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish” g‘oyasiga muvofiq.

4. Soliq to‘lovchilarni o‘qitish va shaffoflikni oshirish. “My Soliq” platformasini fuqarolar uchun moliyaviy savodxonlik markaziga aylantirish. Soliq hisobotini to‘ldirish bo‘yicha video-yo‘riqnomalar, onlayn maslaxat xizmatlarini kuchaytirish. Bu Mick Moore nazariyasidagi “soliq va fuqaro o‘rtasidagi ishonch”ni mustahkamlaydi.

5. Soliq ma’muriyatida raqamlashtirish va ma’lumotlar integratsiyasini tezlashtirish. DSQ, Banklar, IIO va Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarini birlashtiruvchi yagona «Tax Data Hub» tizimini joriy etish. Bu orqali daromadlar manbalari bo‘yicha tezkor tahlil va soliq xavfini baholash imkoni yaratiladi.

O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimi iqtisodiy o‘sish, adolat va budjet barqarorligi uchun muhim mexanizm hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, adolatli (progressiv) stavka, shaffof raqamli nazorat, va soliq madaniyatini oshirish ushbu sohadagi barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: Adliya vazirligi nashri, 2024 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni — “Soliq-budjet siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — 2022 yil 28 dekabr.
3. Imamova M. V. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning nazariy asoslari. // Asian Journal of Social Science and Humanities, 2022.
4. Yadgarov Sh. X. Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblash va ma’muriylashtirish masalalari. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2024.
5. Rahimova Sh. R. Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda xorijiy tajriba. // Modern Scientific Research in the 21st Century, 2025.
6. Davletov P. T. O‘zbekistonda jismoniy shaxslar soliqlari joriy etilish bosqichlari. // Economics and Business Research Journal, 2024.
7. Isayev H. M. Bevosita soliqlar davlat budjetining shakllanishidagi ahamiyati. // Sciental Journal of Economics and Humanities, 2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha axborot byulleteni. — Toshkent, 2023–2025 yy.

9. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) missiyasi hisoboti: Uzbekistan – Tax Policy Reform Recommendations, 2025.
10.II. Xorijiy ilmiy manbalar
11.Saez, E. (2001). Using Elasticities to Derive Optimal Income Tax Rates. Review of Economic Studies, 68(1), 205–229.
12.Saez, E., & Stantcheva, S. (2018). A Simpler Theory of Optimal Capital Taxation. Journal of Public Economics, 162, 120–142.
13.Stantcheva, S. (2021). Understanding Tax Policy: What Drives People’s Views of Taxes? NBER Working Paper, No. 31519.
14.Genschel, P., & Schwarz, P. (2011). Tax Competition and Fiscal Democracy. Transnational Economic Review, 2(3), 56–75.
15.Mick Moore. (2015). Taxation and Development: What Have We Learned from Fifty Years of Research? IDS Working Paper 429. Institute of Development Studies.
16.OECD. (2023). Revenue Statistics 2023 – Tax Policy Trends in OECD and Partner Economies. Paris: OECD Publishing.
17.World Bank. (2024). Uzbekistan Public Finance Review: Strengthening Tax Administration and Compliance. Washington D.C.
18.Tanzi, V. & Zee, H. H. (2000). Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries. IMF Working Paper, WP/00/35.
19.Bird, R. M. & Zolt, E. M. (2015). Taxation and Inequality in Developing Countries: Lessons from the Recent Experience. World Bank Policy Research Paper, No. 7470.
20.Slemrod, J. & Bakija, J. (2017). Taxing Ourselves: A Citizen’s Guide to the Debate over Taxes. 5th ed. Cambridge, MA: MIT Press.
21.III. Internet manbalari va axborot portallari
22.https://soliq.uz
23.https://www.pwc.com/taxsummaries
24.https://www.uzdaily.uz
25.https://kun.uz
26.https://www.oecd.org/tax.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ТАДЖИКИСТАНА
THE ROLE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF TAJIKISTAN
DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING TOJIKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Shukurov Suhrob Muzafarshoevich
Шукуров Сухроб Музафаршоевич
Шукуров Сухроб Музафаршоевич – к.э.н., доцент, заведующей кафедры налогообложения и страхования, Таджикский государственный финансово-экономический университет. Адрес: 734067, Республика Таджикистан, Душанбе, ул. Нахимова 64/14, тел: 91-554-77-55(м.) Shsuhrob@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17520763

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы государственно-частное партнерство как важного фактора развития экономики Республики Таджикистан. На основе анализа литературных источников автором доказано, что на современном этапе развития современного общества бизнес готов к переходу на более хорошие взаимоотношения с государством, чем несколько лет назад, но прибыльность ГЧП будет оценена лишь по истечении относительно длительного промежутка времени.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, фактор, экономика, прибыльность, риск, нормативно-правовая база, приватизация.

THE ROLE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF TAJIKISTAN

Annotation. The article considers the issues of public-private partnership as an important factor in the development of the economy of the Republic of Tajikistan. Based on the analysis of literary sources, the author proves that at the present stage of the development of modern society, business is ready for a transition to better relations with the state than a few years ago, but the profitability of PPP will be assessed only after a relatively long period of time.

Key words: public-private partnership, factor, economy, profitability, risk, regulatory framework, privatization.

DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING TOJIKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Annotatsiya: Maqolada Davlat va xususiy sektor hamkorligining Tojik Respublikasi iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omil sifatidagi masalalari ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlili asosida muallif shuni isbotlaydiki, hozirgi zamon jamiyatining rivojlanish bosqichida biznes bir necha yil avvalgiga qaraganda davlat bilan yaxshi munosabatlarga o‘tishga tayyor, biroq davlat-xususiy hamkorlikning daromadliligi nisbatan uzoq vaqt ichida baholanadi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy hamkorlik, omil, iqtisodiyot, daromadlilik, xatar, normativ-huquqiy baza, xususiylashtirish.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ТАДЖИКИСТАНА

В нынешних условиях наша страна поэтапно переходит на инновационную формацию. Республика Таджикистан должен находит собственный вектор развития среди развитых стран. В этих странах такие нематериальные факторы как знания, информация, компетенции, креативность считаются основными составляющими и которые способствуют экономическому росту стран. Вместе с тем, инновационное развитие считается действительной необходимостью, взаимосвязанной с конкурентоспособностью государства в целом.

В современных условиях активно развиваются процессы информатизации и, полностью завершена компьютеризация во всех сферах национальной экономики. При этом, ключевыми считаются проблемы организации взаимодействия государства и частных предпринимательских

структур. Партнерские отношения между государством и бизнесом способствуют решению социально-культурных проблем и обеспечивает устойчивый рост национальной экономики.

Мировой опыт показывает, что партнерские отношения между государством и бизнесом способствует инновационному качественному развитию и даже решить социально-культурные задачи.

Развитие партнерских отношений между государством и бизнесом не должно создавать особые противоречия между участниками. Модернизация этих отношений направлено на решение задач устойчивого социально-экономического развития региона. Поэтому одной из передовых форм партнерских отношений между государством и бизнесом считается государственно-частное партнерство (ГЧП).

По мнению автора работ [1] «во второй половине двадцатого столетия для многих стран становится характерной особенностью партнерских отношений между государством и бизнесом, которое создает условия для реализации общественно значимых целей путем использования органами власти возможностей частного предпринимательства. В настоящее время, как в научных исследованиях, так и в хозяйственной практике, сложилась четкая система понятий и определений, обозначающая рассматриваемое взаимодействие термином ГЧП. Согласованное взаимодействие органов государственной власти и предпринимательских структур (частного сектора, бизнеса) обеспечивает эффективное функционирование национальной экономики».

Главной целью ГЧП считается развитие инфраструктуры и с наименьшими затратами и рисками реализовать социально значимые проекты. В нынешних условиях «ГЧП - это институциональный союз между государством и бизнесом в целях реализации национальных и международных, но всегда социально значимых проектов. Вместе с тем, такой союз считается временным, так как оно создается на определенный срок до реализации определенного проекта».

Анализируя опыт развитых стран [2], необходимо заметить, что «при недостаточной контролирующей роли государств возникает угроза приватизации объектов партнерства. Для достижения целей государственной политики необходимо учитывать общемировые политические и экономические тенденции с заимствованием зарубежных подходов, инструментов и технологий. Вместе с тем, государство не потеряет права собственника , тем самим привлекает ресурсы частных предпринимателей к решению широкого круга проблем и рассматривая ГЧП как особую замену приватизационных программ, позволяющую реализовать потенциал инициативы частных предпринимателей и выполнять контрольные полномочия государства в социально значимых сферах национальной экономики».

Установлено, что «в процессе экономических реформ, проводимых в нашей стране, важно четко оценить роль государства в ГЧП не только как главного регулятора, но и как защитника интересов, что в зарубежной юридической практике является традиционным»[4].

Автор работы [5] считает, что «ГЧП, являясь формой оптимизации своевременного предоставления жителям всяких благ, находится на рубеже взаимоотношений государства и частного бизнеса».

Расширительная трактовка ГЧП как партнерские отношения между государством и бизнесом четко отражает его основные функции, что аналогичен с за рубежным толкованием ГЧП. Вместе с тем, передача полномочий государственных органов и частным бизнесом не ограничивается только правами собственности, но и включают и делегирование функций принятия управленческих решений в ходе консультаций, экспертиз, и совместной разработки целевых программ и нормативно-правовых актов.

Анализируя вышеприведенные определения, можно обобщить основные стороны партнерства государства и бизнеса и уточнить определение ГЧП. Таким образом, «ГЧП – это взаимовыгодные партнерские отношения между государством и бизнесом, реализуемое в различных формах и направленное на решение социально значимых задач на всех уровнях ответственности».

Нельзя рассматривать государственно-частное партнерство как консолидация ресурсов сторон, обладающих различными мотивациями. Автор работы[3] считает, что «каждый участник имеет

собственные цели, решает свои конкретные задачи. Государство обеспечивает улучшение качества оказываемых услуг инфраструктурных отраслей жителям, а бизнес обеспечивает стабильность получение прибыли. Развивающий бизнес выстраивает свою стратегию, не по размеру прибыли, а в интересах устойчивости приобретение выгоды от проектов».

Важно отметить, что «преобразование государственной формы собственности для наиболее эффективного включения в систему рыночных отношений на современном этапе качественного и количественного развития экономики и общественной жизни Республики Таджикистан является относительно долгосрочным процессом. Формируя ГЧП, государство и бизнес вступают в кардинально новую фазу развития. На современном этапе развития современного общества бизнес готов к переходу на более хорошие взаимоотношения с государством, чем несколько лет назад, но прибыльность ГЧП будет оценена лишь по истечении относительно длительного промежутка времени». Главными отличительными признаками ГЧП считаются:

- определенные, и большие сроки партнерских соглашений (от 10 до 50 лет). Вместе с тем, проекты разрабатываются под определенный объект (дорога, порт, больница, спортзал, школа и т.п.), и строительства, которых должны завершатся к намеченному сроку;
- особые формы финансирования основных проектов как за счет средств частного бизнеса как и за счет государственных средств;
- развития партнерских отношений в условиях жесткой конкуренции, когда за каждый контракт происходит потенциальная борьба между участниками;
- особые формы делегирование полномочий между сторонами: государство определяет цели проекта, уточняет стоимостные и качественные параметры, контролирует процесс осуществление проектов, а бизнес осуществляет разработку, финансирование, строительство и эксплуатация, управление, реализация услуг потребителям;
- распределение рисков между сторонами на основе заключенного контракта.

На основе проведенного обзора литературных источников и собственных исследований, можно выявить следующие особые черты ГЧП:

- участники ГЧП должны быть представлены как государственным сектором, так и частным бизнесом;
- партнерские отношения между государством и бизнесом должны подкреплены в приватных документах;
- партнерские отношения между государством и бизнесом должны имеет равноправный характер;
- партнеры должны иметь единые цели и общественный интерес;
- партнеры должны консолидировать свои финансовые средства для достижения поставленных целей;
- партнеры должны разделить расходы и риски между собой.

Таким образом, в нынешних условиях частный бизнес готов к переходу на выгодное взаимоотношения с государством, чем несколько лет назад, однако прибыльность ГЧП может быть оценена только после реализации проектов.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Варнавский, В.Г. Концессионный механизм партнёрства государства и частного сектора / В.Г. Варнавский. - М: МОНФ; ИМЭМО РАН, 2003
2. Варнавский, В.Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски / В.Г. Варнавский. - М, 2005. - С. 34-37.
3. Дерябина, М.А., Цедилин, ЛИ. Государственно-частное партнерство: теория и практика (научный доклад) / М.А. Дерябина, ЛИ. Цедилин. - М.: Институт экономики РАН, 2007.
4. Сосна, С.А. О концепции общественного достояния / С.А. Сосна // Государство и право. - 1996. - №2.
5. Gerrard, M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations? / M.B. Gerrard // Finance & Development. - 2001. - Vol. 38, № 3.
6. Public / Private Partnerships: Financing a Common Wealth. Wash.,1985. - P. 67

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BUDJETINI SHAKLLANISHIDA BILVOSITA SOLIQLARNING FISKAL SAMARADORLIGI

Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadievna
DTPI v.b. dotsenti
Тел:+998902467655
E-mail: shaxnozaabdulhaeva061@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525437

Annotatsiya: Bilvosita soliqlar, jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va aksiz solig‘i, davlat uchun barqaror daromad manbai bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining davlat budjetini shakllantirishdagi eng istiqbolli soliqlardan biri sifatida davlat xizmatlarini moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega. Bilvosita soliqlarni hisoblash va ularni to‘lash soliq qonunchiligini buzilish holatlarini kamaytiradi. Bu borada bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ushbu maqolada uni bartaraf etish soliq tizimini yanada samarali va adolatli qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: davlat byudjeti daromadlari, QQS, aksiz solig‘i, soliq nazorati, iqtisodiy barqarorlik, soliq boshqaruvi, davlat moliyasi, soliqlarni hisoblash usullari, soliq tizimi, soliq islohoti, soliq siyosati, soliq ma’murchiligi, soliq to‘lovchi, soliq imtiyozi.

O‘zbekistonda bilvosita soliqlar joriy qilingandan boshlab shu kungacha budjet daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisoblanib, budjet tizimining barqaror shakllantiruvchi manbalaridan biri hisoblandi. Bilvosita soliqlar orqali yig‘iladigan mablag‘lar davlat budjetining barqarorligini ta’minlashda yuqori fiskal samaraga ega. 2024 yilda bilvosita soliqlar Davlat budjeti daromadlarning asosiy qismini tashkil qilib, umumiy daromadlar prognozining 41,3 foizini tashkil etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha tushumlar 74,0 trln so‘mni, aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 22,7 trln so‘mni, yoki bojxona bojlari bo‘yicha tushumlar 14,8 trln so‘mni tashktl etadi. 2024 yilda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari taqchilligi 3,1 foiz miqdorida prognoz qilinayotgan bo‘lib, 2025–2026 yillarda taqchillik 1,8-2,2 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.[1] Respublikamizda iqtisodiy o‘sishni izchil davom ettirilishi, fiskal siyosatning yuritilishi orqali barqarorlikni ta’minlanishi hisobiga erishilmoqda.

Davlat budjetini shakllantirishda soliq tushumlarining yuqori ulushi bilvosita soliqlar hisobidan to‘ldiriladi. To‘g‘ri soliqqa tortilmagan, qayd etilmagan daromadlar bilvosita soliqlarga tortiladi. Shunday qilib, bilvosita soliqlar shu kungacha budjet daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisobladi.

Soliq tizimini isloh qilish uchun bir qator siyosatchilar bir qator maqsadlar belgilashni e’tirof qildilar. Bularning ichida eng muhimlari: nisbatan soddalik (simplicity), barqarorlik (stability), adolatlilik (fairness fairness), daromadlarni muvozanatli taqsimlash (adequate revenue) va iqtisodiy samaradorlik (economic efficiency), fiskal samaradorlik (fiscal efficiency) kabi tamoyillar asosidagi pirovard maqsadlar ilgari surilishini e’tirof etadilar (*C. Alan Garner*)[2]. Soddalilik soliq ma’murchiligini takomillashtirish maqsadida soliqlarni hisoblash va budjetga o‘tkazishdagi xarajatlarni kamaytirish orqali davlat moliyaviy faoliyatida iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, soliq tizimining soddaliligi soliq to‘lovchilarning soliqlar to‘g‘risidagi bilimlarini, soliq madaniyatini oshirishga imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Buning natijasida soliq to‘lovchilar soliqlarni to‘g‘ri hisoblash va o‘z vaqtida soliqlarni to‘lash soliq qonunchiligini buzilish holatlarini kamayishiga zamin yaratadi. Bilvosita soliqlarning undilishining asosiy maqsadi va funksiyasi fiskal funksiya hisoblanadi. Fiskal samaradorlik soliq yukining budjetga bilvosita soliqlar tushumlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiy o‘sishni izchil davom ettirilishi, fiskal siyosatning yuritilishi orqali barqarorlikni ta’minlanishi hisobiga erishilmoqda. 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi “O‘zbekiston – 2030” 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSh dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, kelgusi 7 yilda asosiy

[1] Budjetnoma 2024-2026 yil. Toshkent 2023 yil.
[2] *C. Alan Garner* Consumption Taxes: Macroeconomic Effects and Policy Issues

kapitalga 250 mlrd AQSh dollardan ortiq investitsiyalarni o‘zlashtirish va unda 110 mlrd AQSh dollardan ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, 2030 yilga borib yillik eksport hajmini esa 45 mlrd AQSh dollarga yetkazish, Davlat qarzini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshirmaslik vazifasini ta’minlash maqsad qilingan. Prognozlarga ko‘ra 2023-2024 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025-2026 yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o‘sishi ko‘zga tutilgan. [3]

Quyidagi 1-jadvalda iqtisodiy o‘sishdan kelib chiqib 2025-2026 yillarda Davlat budjeti daromadlari prognozi va mo‘ljallari keltirilgan.

Soliq turlari bo‘yicha Davlat budjeti daromadlari prognozi va mo‘ljallari, trln so‘m[4]

Soliq turlari	2023 yil	2024 yil prognoz	2025 yil mo‘ljal	2026 yil mo‘ljal
Bevosita soliqlar	73,3	85,6	102,8	120,4
Bilvosita soliqlar	85,9	111,6	144,0	163,4
Resurs soliqlari	28,3	31,8	35,7	39,9
Boshqa daromadlar	41,6	41,6	48,5	55,3

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat budjeti daromadlari 2023 yil 85,9 trln so‘mni, 2024 yil prognozi 111,6 trln so‘mni tashkil qilib, 2025 yilda 144,0 trln so‘mdan 2026 yilda 163,4 trln so‘mga oshishi mo‘ljallangan bo‘lib eng yuqori qismi bilvosita soliqlarga to‘g‘ri keladi..

Quyidagi 2.2-jadvalda bilvosita soliq turlari bo‘yicha 2020-2025 yillar mobaynida soliq to‘lovchilar sonini tahlil qilishimiz mumkin.

2-jadval

Respublika bo‘yicha 2018-2024 yillarda bilvosita soliq turlari bo‘yicha to‘lovchilar soni (nafar)[5].

Ko‘rsatkichlar	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Respublikada jami bilvosita soliq tulovchilar soni	**1193289**	**148130**	**14990**	**169039**	**188088**
shu jumladan					
QQS to‘lovchilari soni	115 572	143 701	145410	164449	183488
Aksiz solig‘i to‘lov-chilari soni	3 757	4 429	4 580	4 590	4600

2-jadval tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, respublikada jami bilvosita soliq to‘lovchilar soni 2018 yilga nisbatan 2024 yilda soliq to‘lovchilar soni qariyb 4,5 baravar oshgan. Bilvosita soliq to‘lovchilarning aksariyat qismi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini tashkil etib, 2018 yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari soni keskin oshgan. Bunday o‘zgarishga sabab 2017 yil 18 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6]gi PF-5116 sonli farmoni binoan soliq ma’murchiligi tizimida eng ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa etib belgilanganligidir.

[3] https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf
[4] O‘zbekiston Respublikasi moliya va iqtisodiyot vazirligi Budjetnoma 2024-2026 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
[5] O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
[6] https://lex.uz/docs/3271159

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar soni 2023 yilda 164,4 mingtani tashkil etib sezilarli 11,6 foizga, jami 183,5 mingta ko‘paygan.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi vaqtda bilvosita soliqlar, ayniqsa QQS ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar singari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Qo‘shilgan qiymat solig‘i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning ishonchli va barqaror bazasi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun elektron hisobvaraq-faktura mexanizmini joriy etish; soliq to‘lovchilari uchun zamonaviy soliqqa tortish qoidalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2013 yil 26 dekabrdagi O‘RQ 360 son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son Qonuni.
4. https://www.interfax.ru/world/813644
5. https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026.

ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИНИ ИСЛОҲ ЭТИШ ЗАРУРАТИ: ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА ТЕНДЕНЦИЯЛАР

Хайдаров Асқарбек
Иқтисодиёт бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD)
“Бюджет ҳисоби ва ғазначилик” кафедраси профессори
Тошкент Давлат иқтисодиёт университети
E-mail: xaydarobasqar1970@gmail.com. Tel.911639858
ORCID: 0009-0000-0801-5205
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525460

Annotatsiya: Мақолада Ўзбекистонда пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштиришнинг ривожланган давлатлар тажрибаларидан фойдаланиш имкониятлари, пенсионерларни ижтимоий кўллаб-кувватлашни янада кучайтириш, Пенсия жамғармаси даромадлари ва харажатларини шакллантириш механизмини замонавий молиявий сиёсат концепциялари асосида такомиллаштириб бориш ва соҳада мавжуд муаммолар ва унга таъсир этаётган омиллар тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: пенсия таъминоти, концепция, ислоҳ қилиш, хориж тажриба, қонунчилик хужжатлари, молиявий сиёсат, даромадлар, харажатлар, ҳалқаро мезон, авлодлар бирдамлиги, глобал пенсия, тенденция, суғурта бадали.

НЕОБХОДИМОСТЬ РЕФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ТЕНДЕНЦИИ

Аннотация: В статье исследуются возможности использования опыта развитых стран для реформирования и совершенствования системы пенсионного обеспечения в Узбекистане, дальнейшего усиления социальной защиты пенсионеров, совершенствования механизма формирования доходов и расходов пенсионного фонда на основе современных концепций финансовой политики, а также существующие проблемы и факторы, влияющие на это.

Ключевые слова: пенсионное обеспечение, концепция, реформа, зарубежный опыт, законодательные документы, финансовая политика, доходы, расходы, международный критерий, солидарност ь поколений, глобальная пенсия, тенденция, страховой взнос.

REFORM OF THE PENSION PROVISION SYSTEM NEED: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND TRENDS

Annotation: the article explores the possibilities of using the experiences of developed countries to reform and improve the pension provision system in Uzbekistan, further strengthening the social cooling of pensioners, improving the mechanism for the formation of income and expenses of the pension fund on the basis of modern financial policy concepts, and the existing problems in the field and the factors affecting it.

Keywords: pension provision, concept, reform, foreign experience, legislative documents, Financial Policy, income, expenses, international criterion, generational solidarity, global pension, trend, insurance contribution.

Кириш

Мамлакатимизда узоқ истиқболга мўлжалланган барқарор иқтисодий-ижтимоий ривожланишни таъминлаш ва ислоҳ этишда “Пенсия таъминоти тизимини комплекс ўрганиш ва уни ривожлантириш юзасидан таклифлар тайёрлаш ҳамда 2019-2030 йилларда пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш Концепциясини ишлаб чиқиш бўйича Чора-тадбирлар дастури”[1]да белгиланган вазифалардан келиб чиққан ҳолда, мамлакатимизда пенсия таъминоти тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш, фуқаролар ижтимоий таъминотининг умумқабул қилинган стандартлари ва минимал меъёрлари ҳамда илғор хориж тажрибалари, жумладан, Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги мамлакатлари тажрибалари асосида пенсия ёшини босқичма- босқич ошириш бўйича ҳам соҳада ислоҳатлар изчиллик билан такомиллашиб бормоқда.

[1] **23.09.2024 йилдаги “Давлат пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш концепциясини ишлаб чиқиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги** 600-сон **қарори** .https://lex.uz/pdfs/7111596

Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуннинг 7-моддасига асосан ёшга доир пенсия тайинлаш учун эркаклар 60 ёшга тўлганларида стажи камида 20 йил бўлганида, аёллар эса 55 ёшга тўлганларида камида 20 йил иш стажи бўлган тақдирда улар тўлиқ миқдорларда ёшга доир пенсия тайинланиши белгилаб берилган. [1]

Жамиятимизда ижтимоий ҳимояни кўллаб-қувватлашни янада кучайтириш, қариялар ва кекса ёшдагиларга ҳар томонлама ғамхўрлик қилиш, фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тизимини молиявий барқарорлигини такомиллаштириш ва ислоҳ қилиш, соҳада мавжуд муаммоларни бартараф этиш юзасидан изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Адабиётлар шарҳи

Жаҳоннинг аксарият мамлакатлари пенсия тизимининг амал қилишида унинг даромадлари харажатларини қоплай олмаслик ҳолатлари кузатилмоқда. Ушбу ҳолат мамлакатимиз пенсия тизимида ҳам рўй беришининг олдини олиш учун мақсадли, тизимли чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш лозим.

Жумладан, давлат пенсия тизимининг молиявий асосини ташкил этувчи Ўзбекистон Республикаси Иқтисод ва молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси даромадлари ва харажатларини шакллантириш механизмини замонавий молиявий сиёсат концепциялари асосида такомиллаштириб бориш, жамғарма маблағларидан оқилона фойдаланиш ва молиявий барқарорлигини ошириш муаммоларини илмий тадқиқ этиш долзарб муаммо ҳисобланади.

Пенсия таъминоти тизимини ислоҳ этиш борасида соҳага оид бир қанча қонунчилик ҳужжатлари қабул қилинди ва амалдагиларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди [2].

Пенсия тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштиришга бўлган илмий ёндашувлар Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлар А.Вахабов, Г.Касимоваларнинг тадқиқотларида пенсия таъминоти тизимининг айрим жиҳатлари, жумладан, ташкилий-ҳуқуқий асослари, назарий-услубий жиҳатлари, молиялаштириш манбалари, меҳнат стажининг пенсия тизимига таъсири, пенсия ёши, давлат пенсиялари, жумладан, ёшга доир пенсияларни тайинлаш билан боғлиқ муаммолар, пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибалари асосида миллий пенсия тизимини такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. пенсия тизимидаги таркибий ўзгаришлар тадқиқ этилган [3].

Д.Шолдаровларнинг илмий ишларида фуқаролар пенсия таъминоти тизими, ундаги муаммолар ва уларни бартараф этиш, Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг илмий-назарий асослари, жамғарманинг даромадлари ва харажатлари ҳамда молиявий барқарорлигини таъминлаш йўналишлари тадқиқ этилган бўлиб, улар юзасидан муҳим илмий хулосалар шакллантирилган ва таклиф-тавсиялар ишлаб чиқилган [4].

Таҳлил ва натижалар

Жаҳон амалиёти кўрсатишича пенсия тизимининг самарали, молиявий барқарор фаолият кўрсатиши учун у қуйидаги талабларга жавоб бериши лозим:

- ижтимоий самарали – пенсиялар суғурта қилинган ишловчиларни турмуш даражасини сақлаб қолиш ва суғурта қилинмаганларни камбағаллашувига йўл қўймаслиги лозим;
- шахсий адолат – пенсиялар меҳнат фаолият жараёнида тўланган суғурта бадаллари миқдорига мутаносиб равишда меҳнат даромадларини йўқотишини қоплаши лозим;
- иқтисодий қулайлик – пенсия бадаллари хўжалик субъектлари, фуқаролар учун молиявий жиҳатдан оғир бўлиши керак эмас;
- суғурта фондларининг молиявий барқарорлиги – узоқ муддатли истиқболда пенсия тўловлари аниқ ва кафолатланган бўлиши лозим;
- мажбурий иштирок – пенсия тизими мажбурий тўловлар ҳисобига шаклланиши лозим;
- пенсиянинг таъминланганлилиги – пенсия олиш ҳуқуқига тўланган бадаллар ҳисобига эришиш, унинг қиймати пенсия бадаллари қиймати ва тўловининг давомийлигига боғлиқ бўлиши зарур;

– пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини мунтазам баҳолаб, мониторингини юритиш лозим. [5].

Пенсия ислоҳотлари жаҳоннинг аксарият мамлакатларида амалга оширилаётганлигига қарамасдан уларнинг тахминан 25 фоизида “тузилмавий” пенсия ислоҳотлари ўтказилмоқда. Уларнинг 1/3 қисмида жамғариладиган пенсия тизимидан тақсимотга асосланган пенсия тизимига ўтиш ёки янги тақсимотга асосланган пенсия схемаларини жорий этиш амалга оширилмоқда.

1. Тақсимлашга асосланган пенсия тизимлари учун демографик омил энг салбий омил ҳисобланганлиги боис, ушбу тизимларни таркибий жиҳатдан ислоҳ этишда кутилаётган демографик вазиятга мос равишда пенсия тизими кўрсаткичларига ўзгартиришлар киритилади. Аммо, инқироз даврида тез қарорлар қабул қилиш зарур.

Шунинг учун ҳозирги вақтда таркибий чоралар кенг тарқалмаган, аммо, истиқболда ушбу тадбирларни амалга ошириш зарур бўлади.

Ривожланган мамлакатларда амалга оширилаётган таркибий чора- тадбирларга қуйидагиларни мисол қилиш мумкин:

- Германияда тўловлар ишчиларга боғлиқлик коэффициентига (бир нафар пенсионерга тўғри келадиган ишловчилар сони) боғлиқ ҳолда белгиланади. Боғлиқлик коэффициенти қанча юқори бўлса, пенсиялар миқдори шунчалик кам ўсади;
- Финляндия ва Португалияда тўловлар пенсия чиққандан кейинги кутилаётган умр давомийлигига боғлиқ ҳолда белгиланади;
- Францияда пенсия фондига тўланадиган бадалларнинг минимал даври 2012 йилдан кутилаётган умр давомийлиги билан боғлиқ ҳолда автоматик ўсиб боради. Данияда ушбу чоралар 2027 йилдан кучга киради.

Таркибий чора-тадбирларга тақсимот тизимида кескин ўзгаришларни киритиш мумкин:

- Италия, Польша ва Швецияда қайд этилган тўловлар режаси ўрнига қайд этилган бадаллар режаси жорий этилмоқда. Ишловчи пенсия ёшига етганда ишловчининг бадаллари иш ҳақининг ёки ялпи ички маҳсулотнинг ўсиши бўйича индексацияланди;
- Швецияда истиқболда мажбуриятлар тушумлардан кам бўлса, тўланаётган пенсиялар автоматик пасайтирилади;
- Канадада шунга ўхшаш механизм амал қилади. Баланс ҳар уч йилда ҳисоблаб чиқилади ва агар у тақчилликка эга бўлса парламент тақчилликни бартараф этиш бўйича чоралар қабул қила олмайди ва қуйидаги механизм автоматик тарзда ишга тушади: бадаллар ставкаси кутилаётган тақчиллик даражасининг 50 фоизини қоплаш даражасида кўтарилади, пенсиялар кейинги уч йилгача музлатилади. [6]

Қисқа муддатли чораларни қўллашда ушбу чоралар узоқ муддатли истиқболда қўшимча харажатларни келтириб чиқариши мумкинлигини эътиборга олиш зарур.

Қатор мамлакатлар пенсия тизимининг жамғариб бориладиган қисмига тўланиши лозим бўлган бадаллар даражаси ва ушбу бадалларга давлат субсидияларини пасайтиришди. Узоқ муддатли истиқболда ушбу тадбирлар пенсия тизимларининг барқарорлигини ёмонлаштиради ва уни жамғарилган активлар даражасининг пасайиб кетишига олиб келади.

1-жадвал

Бирдамлик пенсия тизимларини такомиллаштириш бўйича қабул қилинган чора-тадбирлар[2]

[2] http://www.ipe.com, http://www.pensiondevelopment.org

Мамлакатлар	Тадбирлар	
Франция	Пенсия ёшини ошириш	2018 йилда аёллар учун 60 ёшдан 62 ёшгача, эркаклар учун 65 ёшдан 67 ёшгача, тўлиқ пенсия олиш учун 65 ёшдан 67 ёшгача
Испания		2013-2017 йилларда 65 ёшдан 67 ёшгача
Италия		Давлат хизматчилари ҳисобланган аёллар учун 61 ёшдан 65 ёшгача
Греция		2015 йилдан 61 ёшдан 63 ёшгача
Ирландия		2014 йилдан 66 ёшга, 2028 йилга бориб 68 ёшга
Франция	Пенсия олиш учун зарур меҳнат стажини ошириш	Кутилаётган умр давомийлигининг ортиши билан автоматик тарзда иш стажини ошириш
Бельгия		58-65 ёшда ишдан бўшатилган ишчилар пенсиясига иш берувчи тўлайдиган бадаллар миқдорини ошириш
Греция		Эрта пенсияга чиқиш имконини берувчи касблар рўйхатини кескин қисқартириш
Норвегия		2011 йилдан пенсия ёшига етгандан кейин меҳнат фаолиятини давом эттиргани учун пенсия тўловларини субсидиялаш

Жаҳонда кескин характерга эга ислоҳотлар кўплаб учраб туради. Масалан, Венгрия ва Аргентинада тақсимлаш тизимлари тақчиллигини қисқартириш мақсадида хусусий пенсия фондлари активларини миллийлаштирилди, Ирландия эса пенсия фондлари активларини банк капиталини ошириш мақсадида фойдаланди.

Ушбу тадбирлар бирдамлик пенсия тизими муаммоларини жамғариб бориладиган пенсия фондларида жамғарилган истиқболда ишлатилиши мумкин бўлган маблағлари ҳисобидан амалга оширилди.

Пенсия тизимларини ислоҳ этиш зарурияти аҳолининг қариб бориши жараёнининг жадаллашуви билан бевосита боғлиқ. Айрим ҳисоб-китобларга кўра, жаҳонда 2050 йилга бориб пенсионерлар сони ўсмирлар сонига нисбатан ошиб кетиши кутилмоқда.

- Ушбу ҳолат “Авлодлар бирдамлиги” тизимининг самарасизлиги ва пенсия тизимини молиялаштиришнинг янги тамойилларини жорий этиш зарурлигини келтириб чиқарди. Бундан ташқари самарали пенсия ислоҳотлари ривожланаётган мамлакатлардаги макроиқтисодий ҳолатни тубдан яхшилаш имконини яратиши мумкин. [7]

Пенсия тизимини ислоҳ этишдан мақсад пенсионернинг минимал турмуш даражасини таъминлаб бера оладиган минимал пенсияни жорий этиш, меҳнат фаолияти давомида тўланган бадаллар ва пенсия миқдори ўртасида бевосита боғлиқликни таъминлаш, пенсия тўловларини молиялаштириш манбаларини табақалаштиришдан иборат.

Хулоса

Ўзбекистонда ўрта муддатли истиқболда пенсия тизимини молиявий барқарорлигини таъминлаш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

– “Нодавлат пенсия фондлари”, “Давлатнинг ижтимоий суғурталаш”, “Мажбурий хусусий пенсия таъминоти” каби пенсия тизимини модернизациялашни ҳуқуқий асосини ташкил этувчи қонунларни қабул қилиш лозим;

– Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларни жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисидаги” қонун нормаларини амалиётга самарали жорий этиш учун қонуности ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш зарур;

– Ўзбекистонда пенсияни меҳнат стажига қараб тўлашдан суғурта стажига асосан тўлашга босқичма-босқич ўтиш керак;

– Ўзбекистонда пенсия тизимини молиявий барқарорлигини таъминлашга қаратилган мақсадли давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш лозим;

– пенсия жамғармаси маблағларини шакллантириш механизмини такомиллаштиришда бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига мажбурий ажратмаларни ҳисоблаш объектига корхоналар фаолиятидан олинган бошқа даромадлар ҳам киритилиши лозим;

– жаҳоннинг илғор тажрибасини Республикамиз амалиётида қўллаш мақсадида аҳоли турмуш даражасини ошаётганлигини ҳисобга олиб, ижтимоий тўловлар юкини иш берувчилардан ишчи ва ходимлар зиммасига босқичма- босқич ўтказиш, яъни амалдаги 76,9:23,1 нисбатни, истиқболда 50:50 нисбатга етказишни таъминлаш мақсадга мувофиқ.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида” ги қонуни. 1993 йил 3-сентябрь. (ўзгартириш ва қўшимчалар билан). Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон. //lex.uz/ru/docs/-5841063
2. https://www.google.com/search?q=Пенсия+тизимини+ислоҳ+қилиш&oq
3. Вахабов А.В., Касимова Г.А. Бюджет ташқари фондлар. Монография. – Тошкент: «Иқтисод-молия», 1996. – 260 б.;
4. Шолдаров Д.А. Пенсия таъминоти маблағларини бошқариш. Монография. “STAR POLIGRAF” MCHJ нашриёти. T:. 2017. -225 б.
5. А.В.Вахобов, Ш.Х.Хажибакиев, Б.Б.Бахтиёров, «Пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибаси». «Иқтисод-Молия» 2018
6. Турсунов Ж.П. «Ўзбекистонда пенсия таъминоти тизими барқарорлигини таъминлаш йўналишлари» мавзусида иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2023 йил. 81-бет
7. Вахабов А.В. ва бошқ. Пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибаси. Дарслик. – Тошкент: «Иқтисод-молия», 2018. – 400 б.
8. www.pfru.uz – Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси расмий веб сайти маълумотлари.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ ТИЗИМИДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Хотамов Алишер Фарходович
ТДИУ тадқиқотчи
+998 90 162 75 16
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525484

Annotatsiya: Қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) Республикамиз солиқ тизимида иқтисодиётни тартиблаш ва истеъмолни мувофиқлаштиришда ўзига хос аҳамиятга эга бўлсада, шу билан биргаликда давлат бюджетида юқори фискал хусусиятга эга бўлиб қолмоқда. Шу боисдан ушбу солиқ тури бўйича солиққа тортиш механизмларини доимо кучайтириб бориш тақозо этилади. Мазкур мақолада Ўзбекистонда ҚҚСни солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: солиқ, солиқ сиёсати, қўшилган қиймат, солиққа тортиш, солиқ базаси, солиқ тўловчи, солиқ имтиёзлари, солиқ ставкаси, солиқ қарздорлиги.

Қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) бу мазмунан ва моҳиятан катта фискал аҳамиятга бўлиб, бу солиқнинг давлат бюджети даромадларини шакллантиришдаги, яъни давлатнинг молиявий барқарорлигини таъминлашдаги роли ҳисобланади. ҚҚС дунёдаги энг самарали ва кенг тарқалган фискал инструментлардан бири бўлиб, у товар ва хизматлар айланмаси орқали давлат хазинасига барқарор тушумларни таъминлайди. Ушбу солиқ тури давлат бюджети даромадларининг асосий манбаи бўлиб, ҚҚС давлат бюджети даромадларининг катта қисмини ташкил этади, Ўзбекистонда ҳам ҚҚС солиқлар орасида энг йирик даромад манбаидир. Масалан, сўнгги йилларда умумий солиқ тушумларининг 30–40% қисми ҚҚС ҳиссасига тўғри келади. Бу давлатнинг ижтимоий дастурларини, инфратузилмани ривожлантиришни ва ижтимоий кафолатларни молиялаштириш имконини беради.

Шу жиҳатдан олганда мазкур солиқ тури барқарор ва кафолатли тушум манбаи ҳисобланади. ҚҚС истеъмолга асосланган солиқ бўлгани учун, у иқтисодий фаоллик пасайган шароитда ҳам маълум даражада барқарор тушум манбаи бўлиб қолади. Солиқ айланма ҳар бир босқичида ундирилади, шунинг учун у яширин иқтисодиёт таъсирини қисман чеклайди ва давлат хазинасига мунтазам маблағ келиб тушишини таъминлайди. Бундан ташқари у солиқ тизимини шаффофлаштириш ва назоратни кучайтиришга хизмат қилади, ҚҚС тизими электрон ҳисоб-фактуралар ва ҳисобот орқали молиявий операцияларни очиқлаштирса, бу солиқдан бўйин товлаш ҳолатларини камайтиради ва бюджетга тушумларнинг аниқлигини оширади. Шунингдек, халқаро стандартларга мослашувликни таъминлайдики, ҚҚС жаҳон амалиётида кенг қўлланиладиган универсал солиқ тури ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҚҚС тизимининг ривожланиши мамлакатнинг халқаро иқтисодий интеграциясини кучайтиради ва хорижий инвесторлар учун солиқ муҳитини прогноз қилинадиган қилади. Ушбу солиқ солиқ юкини адолатли тақсимлашда катта роль ўйнадйи. Чунки, ҚҚС ҳар бир истеъмолчи томонидан тўланадиган солиқ бўлгани учун у бевосита фойдага ёки даромадга боғлиқ эмас бўлса, бу давлатга солиқ юкини кенг доирадаги иқтисодий субъектлар ўртасида тақсимлаш имконини беради. Шу жиҳатдан қарагандақҚўшилган қиймат солиғи давлатнинг фискал барқарорлигини таъминлаш, бюджет даромадларини кўпайтириш, ва солиқ маъмурчилигини яхшилашда муҳим рол ўйнайди. У нафақат молиявий манба, балки иқтисодий тизимни тартибга солувчи ва ҳужжатлаштиришни рағбатлантирувчи восита ҳамдир.

1-жадвал.

Қўшилган қиймат солиғини билан иқтисодий кўрсаткичлар таҳлили[1] (млрд.сўм)

Кўрсаткичлар	2023	2024
ҚҚС тушумлари (млрд сўм)	33 983,5	39 567,1
ҚҚС буйича хисобланган солиқ суммаси (млр сўм)	48 584,9	60 912,2
ҚҚС тўловчилар сони	173 417	201 860

[1] Солиқ қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

ҚҚС солиқ имтиёзлари суммаси (млрд сўм)	57 300,0	68 400,0
ҚҚС солиқ қарздорлиги суммаси (млрд сўм)	6 606,5	11 389,4
Ортиқча тулов суммаси (млрд сўм)	16 271,7	18 397,6

Ушбу келтирилган 1-жадвалдан кўриш мумкинки, қўшилган қиймат солиғини билан иқтисодий кўрсаткичларнинг барчасида 2023 йилга нисбатан 2024 йилда ўсиш кузатилган, яъни унинг фискал аҳамияти билан бир қаторда у бўйича солиқ қарздорлиги ҳам ошиб борган, бу эса, солиққа тортиш механизмларини доимо такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Қўшилган қиймат солиғи ставкаси 15 фоиздан 12 фоизга пасайтирилишига қарамасдан солиқ ва божхона маъмурчилигида амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида тушумлар ўтган йилнинг мос даврига нисбатан ошган. Хусусан, 2024 йилда солиқ органлари томонидан 39,0 трлн сўмни (ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 1,2 трлн сўм кўп), божхона органлари томонидан 45,5 трлн сўм (ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 6,9 трлн сўм кўп) ҚҚС ундирилиши таъминланган.

ҚҚСдан манфий фарқни қоплаш учун 2024 йил давомида тадбиркорлик субъектларига 21,6 трлн сўм миқдорида (ҚҚС тушумларига нисбатан 27,2 фоиз) маблағлар қайтарилган. Солиштириш учун, 2023 ва 2022 йилларда ушбу мақсадларда жами 19,3 трлн сўм ва 14,4 трлн сўм маблағлар мос равишда солиқ тўловчиларга қайтарилган. Қайтариб берилган ҚҚС суммасининг 13,3 трлн сўми (67,7 фоиз) 100 та тадбиркорлик субъектларига тўғри келган.

Ҳисобот даврида Йирик солиқ тўловчилар бўйича ҳудудлараро давлат солиқ инспекцияси маъмурчилигидаги корхоналарга товарларни импорт қилишда ва товарларни (хизматларни) реализация қилишда тўланадиган 2,0 трлн сўм қўшилган қиймат солиғи суммаси ўзаро ҳисобга олинган.

Солиқ ва божхона имтиёзларини бекор қилиш ҳисобига тенг рақобат муҳитини яратиш ҳамда қўшилган қиймат солиғини йиғиш маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича кўрилаётган чоралар ҚҚС самарадорлигини ошириш имконини берган.

2024 йилда божхона органлари томонидан ҚҚС бўйича давлат бюджетига тушумларнинг 2023 йилга нисбатан 1,2 баробарга кўпроқ ундирилиши таъминланган.

Қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) жаҳон миқёсида замонавий солиқ тизимларининг асосий бўлаги сифатида ҳукуматлар учун муҳим даромад манбаи саналади ва шу билан бирга иқтисодий қарорларга таъсир кўрсатади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Ўзбекистонда қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) тизими ривожланишига ҳам ички ислоҳотлар, ҳам халқаро тажрибалар таъсир кўрсатган бўлиб, бу ҳолат унинг фискал сиёсатидаги барқарор ўсишни кўрсатиб беради. Мамлакатда ҚҚС тизимининг шаклланиши ва унинг самарадорлиги глобал омиллар ва солиқ тизимини такомиллаштиришга қаратилган маҳаллий ўзгаришлар натижасида юзага келди. Европа давлатлари билан олиб борилган таҳлил шуни кўрсатадики, ҚҚС ставкалари нисбатан паст бўлсада, Ўзбекистонда иқтисодий юкни енгиллаштиришга қаратилган самарали ислоҳотларга эришилган. Ўзбекистон ҚҚС тизими бошқа давлатларнинг муваффақиятли тажрибаларини қабул қилиб, солиқ йиғиш жараёнидаги номутаносибликларни камайтириш ва янада адолатли ҳамда барқарор солиқ тизимига ўтиш йўлида ўзгарган. Шу жиҳатдан ушбу солиқ тури бўйича солиққа тортиш механизмлари элементларини доимо такомиллаштириб бориш талаб этилади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2023 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2024 йил.

3. Ўзбекистон Республикасининг «Бюджет кодексини тасдиқлаш тўғрисидаги»ги Қонуни, 2013 йил 16 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»ги Қонуни. -Т.: Халқ сўзи, 1997 йил, 29 август.
5. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2023 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2022 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-812-сон Қонуни.
6. “Ўзбекистон Республикасининг Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2023 йил 28 декабрдаги ЎРҚ-891-сон Қонуни.
7. “2025 йил учун Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни (ЎРҚ-1011-сон), “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2025 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги Қонуни
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 июндаги “Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органларининг ваколатларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5075-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 декабрдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг молиявий эркинлигини ошириш, маҳаллий бюджетларга тушумларнинг тўлиқлигини таъминлаш бўйича солиқ ва молия органлари жавобгарлигини кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2018 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги ПҚ-3454-сонли қарори.

МОЛИЯ ТИЗИМИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШ БЎЙИЧА ИСЛОҲОТЛАР НАТИЖАЛАРИ

Ҳакимов Нодир Назарович
ТДИУ мустақил тадқиқотчиси,
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори
Тел:+998977400009
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525510

Annotatsiya: Давлат молиявий назорати молиявий (иқтисодий), социал, бошқарув ва ҳуқуқий муносабатларни қамраб олади. Давлат молиявий назорати аввало молиявий муносабатлар билан боғлиқ бўлганлиги сабабли ҳам у молия категориясининг муҳим элементи сифатида унинг қайта тақсимлаш ва назорат функцияларининг уйғунлигини ифода этади ва доимо пул муносабатларни тартибга солиб туради. Ўз навбатида давлат молиявий назорати мазмунан олиб қаралганда унда социал муносабатлар ҳам мужассам бўлади, давлат молиявий назоратини ўтказиш орқали назорат объекти бўлган корхоналар ва у ердаги молиявий жавобгар шахсларни қонунларни бузмасликка, ҳалолликка, бошқаларнинг маблағларини ўзлаштирмасликка, корхонанинг моддий-техник базаси ва бойлигига ўзаро ҳурматда бўлишига ундайди ва зарур ҳолларда мажбурлайди, булар эса моҳиятан унинг социал хусусиятларини тавсифлайди.

Мазкур мақолада молия тизимида молиявий назоратни ўтказиш ва унинг натижалари илмий таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: молиявий назорат, назорат, пул маблағи, пул фондлари, молиявий текширув, жавобгарлик, молиявий жавобгарлик, давлат, давлат назорати, давлат молиявий назорати.

Ўзбекистонда молиявий назоратни амалга ошириш жараёнида Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси энг муҳим молиявий назорат субъекти сифатида кейинги йилларда фаолиятини халқаро стандартлар (INTOSAI стандартлари, ISSAIлар) асосида ташкил этиб келмоқда. Бу ҳолатни молиявий назорат нуқтаи назаридан кенгроқ таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз. Аввалги бобларда таъкидлаб ўтганимиздек, халқаро молиявий назорат умумий стандартларини ишлаб чиқишда “INTOSAI” (Олий аудит институтлари халқаро ташкилоти -International Organization of Supreme Audit Institutions)нинг принциплари ва тавсиялари муҳим роль ўйнайдики, Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси бу стандартлар асосида молиявий назоратни амалга оширишни халқаро талабларга мувофиқ амалга ошириб келмоқда.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил август ойидаги Давлат молиявий назорати тизимини ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида Ҳисоб палатасининг фаолиятини халқаро стандартлар асосида олиб борилиши билан боғлиқ вазифалар белгилаб берилдики, унда “ISSAI”[1] (International Standards of Supreme Audit Institutions)да белгиланган қоидаларга мувофиқ, молиявий аудит, мувофиқлик аудити, самарадорлик аудити стандартлари, аудит этикаси ва мустақиллик тамойилларига амал қилиши белгилаб қўйилдики, бу жараённи умумлаштириган ҳолда қуйидаги 1-жадвалда акс эттирамиз.

1-жадвал.

Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг молиявий назорат бўйича фаолиятини халқаро стандартларга мослаштирилиши босқичлари[2]

Босқич	Даври	Жорий этилган стандарт (лар)	Молиявий назоратга жараёнига таъсири	Ҳисоб палатасининг фаолиятига таъсири
1-босқич	2018-2020 йиллар	“INTOSAI” доирасидаги Лима ва	Ҳисоб палатаси фаолиятини халқаро	Ҳисоб палатаси

[1] Аввалги бобларда бу ҳақда маълумотлар келтирилган.
[2] Илмий, ўқув ва амалий материаллар асосида муаллиф томонидан тузилган.

		Мехико декларациялари	стандартларга яқинлаштириш учун **“**INTOSAI” аъзоси сифатида интеграция қилиниши натижасида молиявий назорат жараёни халқаро амалиётга яқинлаштирилди	мустақиллиги ва ваколатлари мустаҳкамланди
2-босқич	2021 йил	“ISSAI” 100 (Асосий қоидалар), “ISSAI” 200–400	Давлат аудити турлари (молиявий, мувофиқлик, самарадорлик) жорий этилиши натижасида самарадорлик даражаси ошди	Ҳисоб палатасига молиявий, мувофиқлик ва самарадорлик аудитини халқаро стандартларда амалга ошириш вазифаси юклатилди
3-босқич	2022 йил	“ISSAI” 300 (Самарадорлик аудити), “ISSAI” 400 (Мувофиқлик аудити)	Давлат дастурлари ва давлат қарзи лойиҳалари самарадорлиги текширилди	“INTOSAI” стандартлари асосида аудиторлик фаолияти методологияси қайта ишлаб чиқилди. Аудиторлар учун янги йўриқнома ва қўлланмалар тасдиқланди
4-босқич	2023 йил	“ISSAI” 12 (Аудит органлари қиймат қўшиши ва ишонч уйғотиши)	Сиёсий партиялар молиявий ҳисоботлари ва давлат харажатлари шаффофлиги баҳоланди	Аудит жараёнида масофавий аудит**,** risk-based audit (хатарга асосланган аудит) технологиялари жорий этилди
5-босқич	2024 йил	Аудит жараёнида масофавий аудит**,** risk-based audit (хатарга асосланган аудит) технологиялари жорий этилди.	“INTOSAI” ва “EUROSAI” стандартлари асосида рақамлаштириш – электрон маълумотлар таҳлили, “Big Data” орқали аудит ўтказиш	Самарасиз харажат аниқланди ва тузатилди

			амалиёти йўлга қўйилди	

Ушбу халқаро стандартларининг жорий этилиши натижасида Ҳисоб палатаси томонидан молиявий аудитнинг ўтказилиши бу давлат маблағларининг ҳисоботларда тўғри акс эттирилишини текширишга, мувофиқлик аудити эса, қонун ва меъёрларга риоя этилишини баҳолашга ҳамда самарадорлик аудитини ўтказилиши ўз навбатида иқтисодийлик, самарадорлик ва натижадорлик мезонларига асосланган баҳолаш имкониятини туғдирди. Умумий қилиб айтганда эса, Ҳисоб палатаси халқаро стандартлар асосида ўз фаолиятини замонавий аудиторлик органи сифатида қайта ташкил қилига эришилди, “INTOSAI” стандартларига мувофиқ шаффофлик, ҳисобдорлик ва самарадорлик принциплари жорий этилиши натижасида молиявий назоратни илмий асосда ташкил қилишга шароит туғилди, 2022 йилдан самарадорлик ва мувофиқлик аудитлари тўлиқ амалиётга киритилиб, халқаро тажриба билан уйғунлаштирилди ҳамда Ҳисоб палатаси сўнгги йилларда ўз фаолиятини халқаро аудиторлик стандартлари (“INTOSAI”, “ISSAI”) асосида қайта қуришга катта эътибор қаратилганлигини таъкидлаш лозим. Таъкидлаш лозимки, Ҳисоб палатаси томонидан **“**ISSAI 100” давлат аудитининг асосий принциплари жорий қилиниш натижасида Ҳисоб палатаси миссияси ва функциялари қайта белгиланган бўлса, **“**ISSAI 200” молиявий аудит стандартларининг жорий этилиши провардида молиявий назоратда бюджет ҳисоботларини текширишнинг натижадорлиги ошишига олиб келган бўлса **“**ISSAI 300” самарадорлик аудити стандартлари 2022 йилдан давлат дастурларининг самарадорлигини баҳолашда асос сифатида ишлатила бошланди шунингдек, **“**SSAI 400” мувофиқлик аудити стандартларини жорий қилиниши оқибатида давлат харидлари ва қонунчиликка риоя этилишини баҳолашнинг самарадорлиги ошди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27 август 2021 йилдаги “Давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6300-сонли фармони асосида молиявий назорат жараёнида ислоҳотлар ва ва аудит тизимларини такомиллаштирилди ва давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштиришга қаратилган ислоҳотлар бошланди, молиявий, мувофиқлик, ва самарадорлик аудитлари асосий назорат шакллари сифатида жорий этилди, “Давлат аудити” электрон дастурий комплекси ишга туширилди, назорат тадбирлари электрон тизимда рўйхатга олина бошланди,чораклик оммавий ҳисоботлар, фуқаролар иштирокидаги аудит, ҳамда юқори геройетда халқаро стандартларга мувофиқ тизимлар жорий қилинди, “INTOSAI” (Олий аудит органларининг халқаро ташкилоти)нинг халқаро семинар ва ўқувларда иштирок этиш бошланди, «Давлат молиявий назорати тизими» ислоҳотларини амалга ошириш учун Ҳисоб палатаси Ҳайъати ташкил қилинди, биргина 2021 йилда 46 та назорат тадбиридан иборат назорат ишлари йиллик дастури тасдиқланди.

Молиявий назорат жараёнида аниқланган молиявий қонунбузилишлар оқибатидаги суммаларнинг бюджетга қайтарилиши, олди олинган ноқонуний харажатларнинг камайиши албатта молиявий назорат тадбирларининг натижадорлигини кўрсатади, аммо юқоридаги таҳлиллардан умумий хулоса сифатида таъкидлаш мумкинки, аниқланган молиявий хато ва камчиликлар суммасининг ўртача 3-5 трлн сўмни ташкил этиши молиявий назорат борасидаги методологик жиҳатларни танқидий кўриб чиқишни тақозо этади.

Амалга оширилган илмий таҳлилларга асосланиб хулоса қилиш мумкинки, ***биринчидан,*** Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг мамлакатимиздаги олий молиявий назорат органи сифатида давлат молия ресурсларидан самарали ва мақсадли фойдаланиш устидан мустақил назоратни амалга оширишдаги роли ошиб бормоқда;

иккинчидан, Ҳисоб палатаси давлат бюджети даромад ва харажатлари, давлат мақсадли жамғармалари ҳамда давлат активларидан фойдаланишнинг қонунийлиги ва самарадорлигини таъминлашда бугунги кунда халқаро стандартлардан кенг фойдаланиши самара бермоқдаки, провардида давлат маблағларининг йўқотилишини олдини олиш, маблағларни манзилли ишлатилишини таъминлаш имкони яратилмоқда;

учинчидан, Ҳисоб палатасининг молиявий аудит, мувофиқлик аудити, самарадорлик аудити стандартлари, аудит этикаси ва мустақиллик тамойилларига амал қилиши натижасида молиявий назоратдан кутилган мақсадга эришиш ошиб бормоқда.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болотова А.И. Рабочая тетрадь как средство развития познавательной самостоятельности при обучении математике младшего школьника: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Bolotova Алёна Иванова – М.: 2012 - 24 с.
2. Unt I.E. Индивидуализация и дефференциация обучения/ I.E. Unt. –М.: Педагогика. 1990. - 197 с.
3. Leontev A.N. Problemы razvitiya psixiki. – M.: Pedagogika, 1972. – 576 s.
4. Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – М.: Педагогика, 1976.- 224с
5. Rozikov O.R. va boshqalar. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.

ASOSIY VOSITALAR AMORTIZATSIYASINING AUDITI TAHLILI

Qudratov Umidjon Komiljon O'g`li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi
7-BH-22 guruh talabasi
Tel: +998 94 624 0700
E-mail: umidqudratov93@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525538

Annotatsiya: Ushbu tezisda asosiy vositalarni aniqlash, ularning qiymatini tekshirish va amortizatsiya usullarini o'rganish, hisob siyosatini tekshirish, audit dalillarini yig`ish, inventarizatsiya o`tkazish, ichki nazoratni baholash, amortizatsiya hisob kitobini qayta hisoblash va audit xulosasini berish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy vositalar, amortizatsiya, amortizatsiyalangan qiymat, inventarizatsiya, auditorlik tekshiruvi, aktivlar, auditorlik xulosasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdan iboratdir. Ushbu jarayonda korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu – asosiy vositalar hisoblanadi. Chunki asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish quvvatini, mahsulot sifati va hajmini bevosita belgilab beradi.

Asosiy vositalardan samarali foydalanish uchun ularning texnik holatini doimiy nazorat qilib borish, eskirgan qismlarni o'z vaqtida yangilash va ularning qiymatini to'g'ri hisobga olish zarur. Shu nuqtai nazardan asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblash masalasi katta amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Amortizatsiya — bu asosiy vositalarning qiymatini ularning foydalanish muddati davomida bosqichma-bosqich mahsulot tannarxiga o'tkazish jarayonidir. To'g'ri tashkil etilgan amortizatsiya siyosati korxonaning moliyaviy natijalariga, foyda miqdoriga hamda kelajakdagi investitsion faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, amortizatsiyani hisoblash usullarini tanlash va ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

T.Toshmurodov fikricha, "Asosiy vositalarning amortizatsiyasi korxona ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ularning qiymatini asta-sekin mahsulot tannarxiga o'tkazish jarayonidir. Bu jarayon korxonaning haqiqiy moliyaviy natijasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi"

A.Mavlonov fikriga ko'ra "Amortizatsiya ajratmalari korxonaning o'z ishlab chiqarish vositalarini yangilash Manbai sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, amortizatsiya siyosati investitision faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak"

O'zbekiston Respublikasida bu jarayonni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib, ularga muvofiq korxonalar o'zlarining asosiy vositalari uchun belgilangan amortizatsiya me'yorlari asosida amortizatsiya ajratmalarini amalga oshiradilar. Biroq iqtisodiyotning jadal modernizatsiyalashuvi, texnologik yangilanishlar va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish jarayonida amortizatsiya siyosatini takomillashtirish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan ushbu ishda asosiy vositalar amortizatsiyasining mohiyati, hisoblash usullari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va amortizatsiya hisobini takomillashtirish yo'nalishlari o'rganiladi.

Amortizatsiyalanadigan qiymat — asosiy vositaning boshlang`ich yoki moliyaviy hisobotda o`rnini bosuvchi boshqa qiymatdan tugatish qiymatining chegirilishi natijasida aniqlanadigan qiymat. Boshlang`ich qiymati, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan ta'minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash ishlari va boshqalar bo`yicha xarajatlar summasiga oshirilgan asosiy vositalar uchun amortizatsiyalanadigan qiymat bo`lib, ushbu ishlar tugatilganidan so`ng tugatish qiymatini chiqarib tashlagan

holda mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytda aniqlangan ularning qoldiq (balans) qiymati hisoblanadi.[1]

Asosiy vositalar quyidagi guruhlarga bo`lishimiz mumkin: yer, yerni obodonlashtirish, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish, binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik va hosildor o‘simliklar, boshqa asosiy vositalar, konservatsiya qilingan asosiy vositalar.[2]

Asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinganda, ular boshlang‘ich qiymat bo‘yicha baholanadi va hisobga olinadi. Aktiv sifatida tan olinganidan so‘ng, asosiy vosita boshlang‘ich yoki qayta baholangan qiymati bo‘yicha hisobga olinishi lozim. Asosiy vositalarni qiymatini hisobga olishning qo‘llaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya hisoblash yo‘li bilan qoplanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat asosiy vositalarning butun foydali xizmat muddati mobaynida tashkilot xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko‘rinishida tizimli taqsimlanadi.

Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq qoplangan yoki ushbu obyekt balansdan hisobdan chiqarilgan sanadan to‘xtatiladi.

Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to‘xtatilmaydi, asosiy vositalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiya qilishga o‘tkazilgan holatlar, shuningdek ularni to‘liq to‘xtatish sharti bilan obyektni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash davri bundan mustasno. Asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summalari buxgalteriya hisobida ushbu summalarni alohida schyotda jamg‘arish yo‘li bilan aks ettiriladi.[3]

Asosiy vositalar amortizatsiyasining auditini o’tkazishdagi muammolardan biri bu asosiy vositalarning foydali xizmat muddati va amortizatsiya siyosatini noto‘g‘ri belgilanishida. Bugungi kunda ko‘plab korxonalarda asosiy vositalarning eskirish darajasi, texnik holati va ularning ishlab chiqarish jarayonida qay darajada foydalanilayotganligi to‘g‘ri baholanmaydi. Natijada korxonalar amortizatsiyani ortiqcha yoki yetarli bo‘lmagan miqdorda hisoblaydi, asosiy vositalarning qoldiq qiymati real holatni aks ettirmaydi, moliyaviy hisobotlarda aktivlarning qiymati asossiz ravishda yuqori yoki past ko‘rsatiladi.

Xulosa: Yuqorida ko’rsatilgan muommolarni bartaraf qilish uchun esa amortizatsiya siyosatini yangilash kerak, yani korxona hisob siyosatini muntazam qayta ko‘rib chiqishi lozim, yangi texnologiyalar joriy etilganda yoki uskunalar modernizatsiya qilinganda amortizatsiya stavkasi ham o‘zgaradi, bu o‘zgarishlar buxgalteriya siyosatida rasmiy ravishda tasdiqlanib, auditor nazoratidan o‘tadi.Xalqaro standartlarga moslashtirish yani IAS 16 (Property, Plant and Equipment) talablariga muvofiq ravishda foydali xizmat muddati aktivning ishlatilish darajasiga qarab qayta baholanadi, amortizatsiya usuli (chiziqli, kamayuvchi qoldiq va boshqalar) haqiqiy foydalanish modeliga mos tanlanadi va bu yondashuv orqali korxona moliyaviy hisobotini xalqaro investorlar va auditorlar uchun ishonchli qiladi. Ichki nazorat tizimini kuchaytirish, asosiy vositalar bo‘yicha inventarizatsiya rejalari, ta’mirlash jurnali, va amortizatsiya kartochkalarini elektron shaklda yuritish zarur. Natijada esa asosiy vositalar qiymati real bo‘ladi, amortizatsiya ajratmalari adolatli

[1] O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16 – bhxs Asosiy vositalar) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3400]

[2] Абдуллаев Р. Бухгалтерский учет и аудит - Т.: “IQTISOD –MOLIYA”, 2010.

[3] O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”ni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 9-avgust ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3546)

shakllanadi, korxonaning moliyaviy hisobotlari xalqaro talablarga moslashadi, soliq, investor va boshqaruv qarorlarida xatoliklar kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Umarova, O`.Eshboev, K.Ahmadjanov.Buxgalteriya hisobi (Taqrizchilar: I. Nurmatov – iqtisod fanlari nomzodi, professor, A. Mahkamboyev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent) Toshkent – “Mehnat” – 1999. Buxgalteriya hisobi.
2. TIQXMMI”-MTU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti i.f.d. M.Sh. Mamatkulov “TIQXMMI”-MTU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti A.Z. Tabayev (buxgalteriya hisobi. Toshkent 2022) O’quv qo’llanma
3. www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

XO‘JALIK YURUTUVCHI SUB'YEKLARDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI O‘RGANISH

Abduraxmonov Azamat Yahyo O’g’li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti, 4-kurs talabasi
Tel: +998 (95) 646 29 39
e-mail abduraxmonovazamat2oo4@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525585

Annotatsiya: Ushbu tezisda moliyaviy natijalar mohiyati, ko’rsatkichlari va hisobi, hamda ularning shakllanishi ishlatilishish tartibi, shuningdek iqtisodiy sohada qo’llanilishi haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy natijalar daromad, xarajatlar, aktivlar, passivlar,rentabellik darajasi,salbiy va ijobiy moliyaviy natijalar,foyda,zarar.

Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda moliyaviy natijalar hisobini tog’ri yuritish bugungi kunda iqtisodiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki korxonaning foyda yoki zarar ko‘rishi, rentabellik darajasi, moliyaviy barqarorligi bevosita moliyaviy natijalarni to‘g‘ri yuritishilishiga bog‘liq.Korxonada hisob-kitoblarda xatoliklar, ichki nazorat va audit tizimining zaiflashuvi, moliyaviy barqarorlikning buzilishi, xodimlar manfaatiga salbiy ta’sirlar kelgusida moliyaviy natijalarninig salbiy bolishiga olib keladi.

Moliyaviy natijalar hisobi, daromad, xarajatlar, aktivlar, passivlar va boshqa moliyaviy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu, barcha moliyaviy faoliyatlar haqida to'liq va doimiy ma'lumotlarni taqdim etadi Moliyaviy natija – korxonaning yil davomidagi faoliyati natijasida olgan foydasi yoki ko’rgan zararini ifodalaydi. Moliyaviy natija yil oxirida aniqlanadi, chunki, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqiqiy tannarxi yil oxirida aniqlanib, so’ngra sotilgan mahsulotlarning moliyaviy natijasi aniqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”ga ko‘ra, moliyaviy natijalar - subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir, yoki boshqacha qilib aytganda, moliyaviy natijalar - bu xo‘jalik subyektining ma’lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o‘ziga qarashli mablag‘ning oshishi yoki kamayishidir.[1]

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”da keltirilganidek, moliyaviy natijalar xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyatining eng muhim yakuniy ko‘rsatkichidir. U korxona faoliyatining samaradorligini, ya’ni foyda yoki zarar miqdorini ifodalaydi. Foyda subyekt mablag‘larining oshishini, zarar esa kamayishini bildiradi. Shu bois moliyaviy natijalar korxonaning iqtisodiy holatini, boshqaruv qarorlarining to‘g‘riligini hamda resurslardan qay darajada samarali foydalanilganini baholashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Moliyaviy natijalar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin.Agar daromadlar xarajatlardan yuqori bo‘lsa, korxona foyda oladi, bu esa uning iqtisodiy barqarorligini ko‘rsatadi. Aksincha, xarajatlar daromadlardan oshib ketsa, zarar yuzaga keladi, bu esa moliyaviy boshqaruvda muammolar yoki resurslardan samarasiz foydalanish belgisi hisoblanadi. Shu bois foyda va zarar tahlili korxona rivoji hamda kelgusi strategik qarorlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Xo‘jalik subyek yoki tadbirkorning olgan foydasi qancha ko‘p bo‘lsa, faoliyatini tomonlama kengaytirishga, foydani yanada oshirishga va barqaror faoliyat olib borishga xarakat qiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktiv va passivlar moliyaviy holatni ko‘rsatadigan eng asosiy qismlardir. Aktivlar — bu korxonaga tegishli bo‘lgan barcha mablag‘lar, ya’ni pul, binolar, uskunalar, tovarlar, debitor qarzlar va boshqa resurslardir. Ular korxonaning foyda olishiga xizmat qiladi. Passivlar esa korxonaning mablag‘lari manbalari bo‘lib, ular o‘z kapitali va majburiyatlardan (qarzlardan) iborat bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda, aktivlar korxona nimaga ega ekanini, passivlar esa bu mablag‘lar qayerdan olinganini ko‘rsatadi. Aktiv va passivlar o‘zaro teng yani muvanatda bo‘lishi kerak, chunki bu korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

[1] “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” (0 ‘zRAV tomoni ro‘yxatga olingan, №3530, 12. 07. 2024y.)

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, moliyaviy natijalar korxonaning kelgusida faoliyatining barqarorligi va qay darajada foyda yoki zarar olishini bildiradi.Agar korxona o'zining aktivlaridan to'g'ri va samarali foydalansa, daromad ortadi va moliyaviy natijasi ijobiy bo'ladi. Shuning uchun har bir korxona o'z aktiv va passivlarini to'g'ri boshqarishi, xarajatlarni nazorat qilishi va foyda olish mumkun bo'lgan qarorlarni qabul qilishi zarur. Bu esa korxonaning barqarorligi va uning rivojlanishida juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ–404, 2016-yil 13-aprel.
2. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos (O'zRAV tomoni ro'yxatga olingan, , №3530, 12. 07. 2024.
3. Buxgalteriya hisobi 1-qism: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. b. 299 bet .
4. Internet saytlari.
5. https://lex.uz.

XO‘JALIK YURUTUVCHU SUBYEKTLAR TOVAR-MODDIY ZAHIRALARIDA KUZATILADIGAN MUAMMOLARNI O’RGANISH TAHLILARI

Abduxalimov Jonibek Rustam o’g’li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo‘nalishi talabasi
tel +998 (88) 710 16 66
E-mail: abduxalimovjonibek0@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525600

Annotatsiya: Tovar-moddiy zahiralari xo‘jalik yurutuvchi subyetlarning ishlab chiqarish jarayonida ajralmas bo‘gin sifatida aks etadi, hamda zahiralar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom etishi va uni samaradorligini, ishlab chiqarish hajmini ortishini proporsianal ravishda shakllantiradi. Ushbu tezisda korxonalarninig ishlab chiqarish hajmini sustlashuviga sabab bo‘layotgan joriy aktivlar (Tovar-moddiy zaxiralar) ni nuqsonlarini bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Tovar-moddiy zaxiralar, materiallar, tayyor mahsulot, samaradorlik , barqarorlik .

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida tovar-moddiy zaxiralar yirik miqdordagi moliyaviy resurslar qo‘yilmasini talab etuvchi obyektlar jumlasiga kiradi va shuning uchun ular xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish yoki marketing siyosatini belgilab beradigan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ko‘pchiligi odatda ularga etarli darajada e’tibor berishmaydi va doimo mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan zaxiralar bo‘lgan ehtiyojga baho berishmaydi. Buning natijasida, ular tovarmoddiy zaxiralarga ko‘zlangan darajadan ortiqcha mablag‘lar sarflashlariga duch kelishadi[1]. Keltirilgan jumlalardan kelib chiqadigan bo‘lsak tovar moddiy zahiralari ko‘rxona faoilyatida asosiy daromad manbai hisoblanib ular ishlab chiqarish jarayoniga bevosita tasir ko‘rsatishni nazarda tutilgan.

A. Smit fikricha, “tovar-moddiy zahiralar hisobi korxona tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni to‘liq ifoda etishi va investorlarga kutilayotgan foyda haqida to‘liq ma’lumot berishga xizmat qilishi kerak” [2]

M. Xaydarov fikriga ko‘ra “Tovar-moddiy zaxiralarga tashkilotga tegishli bo‘lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo‘lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar kiritiladi”, degan xulosaga kelgan[3],deb o‘z fikirlarini yuritgan.

Bizning fikrimizcha tovar moddiy zahiralari korxona faoilyatida faqat bir sikl mobaynida ishlatiladigan aktivlar emas, balki ular ishlab chiqarish malum bir muddat mobaynida ishlab chiqarish jarayonini tutib turuvchi dastak sifatida qarashimiz lozim deb o‘ylaymiz. Zahiralar hisobi joriy aktivlar qatorida keltirilgan bo‘lsada lekin bazi bir tovar-moddiy qiymatliklar uzoq muddatda naf keltirish uchun keltirilganiniga duch kelgamiz .

Korxonalarda TMZ bo‘yicha quyidagicha muamolar kuzatilmoqda va uni yuzaga kelish sabablari:

Tovar-moddiy zaxiralarni va nazoratdagi muammolar ga guvoh bo‘lyabmiz va bularni yuzaga kelaydigan sabablariga quyidagilar asos boladi:

- Omborlarda TMZni noto‘g‘ri joylashtirish yoki sharoitga rioya qilmaslik (namlik, harorat, xavfsizlik).
- Inventarizatsiya o‘z vaqtida o‘tkazilmasligi yoki rasmiyatchilik uchun o‘tkazilishi.
- Kamomad, ortiqcha, buzilish va yaroqsizlanish holatlari.
- Ombor hisobi bilan buxgalteriya hisobi o‘rtasida tafovutlar mavjudligi.

Baholashdagi muammolar yaqoll ko‘zda tutiladi. Misol uchun birinchi kelgan tavarlar foydalanmasdan saqlanib qolib ketyabdi bunga sabab baholash usullari to‘gri yo‘lga qo‘yilmaganidan dalolat bo‘ladi .TMZni

[1] Buxgalteriya hisobi 1-qism: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. b. 299 bet

[2] Sam Sedki, Abby Smith, Aissa Strickland. Differences and Similarities Between IFRS and GAAP on Inventory. Revenue Recognition and Consolidated Financial Statements. Journal of Accounting and Finance vol. 14(2) 2014

[3] Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. //Iqtisod va moliya. 2015. 8-son. – B. 61.

baholash usullarini (FIFO, LIFO, o‘rtacha tortilgan narx va boshqalar) noto‘g‘ri qo‘llash.Yaroqsiz yoki eskirgan zaxiralarni haqiqiy qiymatida aks ettirmaslik.

Ichki nazorat sustligi. TMZ harakati bo‘yicha ichki nazorat tizimi (tasdiqlash, ruxsat berish, tekshirish) yetarli darajada tashkil etilmagan. Ombor mudiri, moddiy javobgar shaxslar faoliyati doimiy tekshirib borilmaydi. Axborot tizimlaridan to‘liq foydalanilmasligi sababli inson xatoliklari ko‘p uchraydi.

Rejalashtirish va tahlildagi muammolar. TMZ zaxiralarini ortiqcha yoki yetarli darajada bo‘lmagan hajmda rejalashtirish. Aylanma koeffitsienti, saqlash muddati, xarajatlar samaradorligi bo‘yicha tahlillar yetarli darajada olib borilmasligi. Eskirgan yoki sotilmayotgan mahsulotlar kapital aylanishini sekinlashtiradi.

Xulosa: Umuman olganda, hozirgi kunda ko‘rxonalarda ushbu amaliy usullardan foydalanimayotgani sababli tovar-moddiy zahiralari yarqsiz holatda va shuningdek to‘g‘ri baholanmaslik oqibatida ular omborda saqlanib qolib ketayotganiga guvoh boldik. Amaliyotda TMZ bilan ishlashda hisob, nazorat va tahlil sohalaridagi kamchiliklar korxonaning foydasini kamaytiradi, aylanma mablag‘larning sekin aylanishiga va xarajatlarning ortishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun TMZ bo‘yicha ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxgalteriya hisobi 1-qism: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. b. 299 bet .
2. Sam Sedki, Abby Smith, Aissa Strickland. Differences and Similarities Between IFRS and GAAP on Inventory. Revenue Recognition and Consolidated Financial Statements. Journal of Accounting and Finance vol. 14(2) 2014
3. Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. //Iqtisod va moliya. 2015. 8-son. – B. 61.

KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARI, ULARDA BUXGALTERIYA HISOBINING O‘RNI

Aktamov Sardor Akram o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulketi talabasi
Ilmiy rahbar:**Misirov Komoliddin**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
ORCID: 0009-0007-0298-6714
misirovkomoliddin0218@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525626

Annotatsiya: Ushbu maqolada, kichik va o‘rta biznes subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotda muhim o’rin egallaydi. Ular yangi ish o‘rinlari yaratishda, aholining daromadlarini oshirishda hamda raqobat muhitini rivojlantirishda beqiyos o‘rin tutadi. Bunday sharoitda kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda buxgalteriya hisobining o‘rni muhim ahamiyatga ega ekanligigga doir ilmiy,taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Аннотация: В статье рассматривается важная роль малого и среднего бизнеса в экономике нашей страны. Он играет неоценимую роль в создании новых рабочих мест, повышении доходов населения и развитии конкурентной среды. В этих условиях формулируются научные предложения и рекомендации о значении бухгалтерского учета в эффективной организации деятельности субъектов малого и среднего бизнеса и обеспечении их финансовой устойчивости.

Abstract: This article discusses the important role of small and medium-sized businesses in the economy of our country. They play an invaluable role in creating new jobs, increasing the income of the population, and developing a competitive environment. In such conditions, scientific proposals and recommendations are formulated on the importance of accounting in effectively organizing the activities of small and medium-sized businesses and ensuring their financial stability.

Kalit so’zlar: biznes,kichik va o’rta biznes,buxgalteriya hisobi,moliyaviy hisobot.

Ключевые слова: бизнес, малый и средний бизнес, бухгалтерский учет, финансовая отчетность.

Keywords: business, small and medium-sized businesses, accounting, financial reporting.

Kirish:

Bugungi glaballashuv jarayonida kichik va o’rta biznes subyektlari mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi vositalardan biri sifatida e’tirof e’tilmoqda.Jahon tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki,iqtisodiy barqarorlik va aholining ijtimoiy farovonligini ta’minlashda kichik biznesning roli katta hisoblanadi. Shuni aytib o’tish lozimki, yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi yuqori bo’lgan davlatlarda ish o’rinlari ko’paymoqda,ya’ni ishsizlik yo’qolib bandlik oshib bormoqda.Aholing yashash tarzi,turmush darajasi yuqorilab borqmoqda.So’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasida ham davlat tomonidan tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash,soliq imtoyozlari,kreditlar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali kichik va o’rta biznes faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida “Kichik va o‘rta biznes subyektlariga konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatadi va ular uchun muhandis, texnolog, dizayner, buxgalter, marketologlarni hamda boshqa malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb qiladi, o‘zlari biriktirilgan tumanda 10 tadan drayver loyihalarni ishga tushirish, 5 tadan milliy brend mahsulotlarini yaratish, kichik va o‘rta biznesning ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlarini 1,5 barobar oshirishga mas’ul bo‘lishligi”[1]- ta’kidlangan.

Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonida kichik va o’rta biznes subyektlarining ahamiyati va ularning rivojlantirish haqida zarur chora-tadbirlar to’g’risida so’z

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025-y., 06/25/50/0272-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. https://lex.uz/uz/docs/-7444738

boradi. Albatta tadbirkorlarga berilayotgan erkinliklarning natijasi sifatida tadbirkorlikning iqtisodiyotimizdagi o'rni kundan kunga kengaymoqda.

Kichik va o'rta biznes sub'yektlarning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ularning moliyaviy resurslarini to'g'ri boshqarish, iqtisodiy jarayonlarni aniq hisobga olish va tahlil qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan buxgalteriya hisobi kichik va o'rta biznes sub'yektlar uchun nafaqat qonunchilik talablarini bajarish vositasi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot manbai sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Bu subyektlar o'zining ichki hisobotlari orqali qonunchilikda belgilab o'tilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lashga erishishadi.Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes vakillari uchun buxgalteriya hisobi jarayonlarida duch kelinayotgan muammolar – malakali kadrlar yetishmasligi, texnologik infratuzilma kamchiliklari va axborot tizimlaridan samarali foydalanish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

O'zbekiston olimlari tomonidan kichik va o'rta biznes sub'yektlarida buxgalteriya hisobi masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan.

Tojiyev Javlonbek Rustamovich tomonidan chop etilgan "Yangi o'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash: muammolar va yechimlar" nomli maqolasida kichik va o'rta biznesda moliyaviy menejmentning asosiy muammolari, jumladan, moliyaviy rejalashtirishda yuzaga keladigan kamchiliklar, kredit olishning cheklanganligi va daromadlarning beqarorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada moliyaviy hisob va nazoratni tashkil etishda tadbirkorlar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar, shuningdek, iqtisodiy omillarning kompaniyalarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi.[2]

Ikromiddin Sirojiddinov, Akbarjon Isomuxamedov tomonidan yozilgan "Kichik biznes sub'ektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi" nomli darsligida kichik biznesda buxgalteriya hisobining iqtisodiy mohiyati, konseptual asoslari, hisob yuritishda qo'llanadigan asosiy qoidalar, xarajatlar va zahiralar hisobi, asosiy vositalar hisobi, moliyaviy natijalarni aniqlash va moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish, kapital tarkibining hisobi va uning shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari xo'jalik amaliyoti bilan bog'langan holda yoritilgan.[3]

Ergashev Olloyor tomonidan chop etilgan "Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobi standartlarini soddalashtirish muammolari" nomli maqolasida O'zbekiston hududida kichik biznes subyektlarida buxgalteriya hisobi standartlashtirishni soddalashtirish masalalari atroflicha ko'rib chiqilmoqda.Muallifning fikriga ko'ra, O'zbekistondagi bu ijobiy o'zgarishlar kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga, ularning yuridik va buxgalteriya masalalarida yanada samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratmoqda. Hozirda, kichik biznes sub'ektlari uchun soddalashtirilgan tizimlar nafaqat soliqlarni to'lashda, balki umumiy ish yuritishda ham ko'plab qulayliklar yaratmoqda.[4]

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqot metodologiyasi bo'lib,kichik va biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish bilan bo'g'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni hisobga olishdab iborat. kichik va biznes subyektlarida buxgalteriya hisobi,undagi iqtisodiy jarayonlarni qayd qilish va hisobot tuzishga doir masalalar umumlashtiriladi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar hamda amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanib,xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar:

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIMning) 50% dan ortiqroq qismini tashkil etayotganligini rasmiy statistic ma'lumotlarda ko'rishimiz

[2] Tojiyev Javlonbek Rustamovich. "Yangi o'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash: muammolar va yechimlar". Innovations in Science and Technologies,4-son,2025-yil. 348-bet.https://zenodo.org/records/15350063

[3]Ikromiddin Sirojiddinov, Akbarjon Isomuxamedov." Kichik biznes sub'ektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi"/Darslik/Namangan: "Usmon Nosir media", 2022. – 116 b..

[4] Ergashev Olloyor, "Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobi standartlarini soddalashtirish muammolari". "Лучшие инновационные исследования". Часть-37_ Том-4_ Январь-2025.62-65

mumkin. O'zbekiston Respuplikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi PF-50-sonli "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2025-yil quyidagi maqsadlarni belgilab qo'yilganini ko'rishimiz mumkin:

1.Kichik va o'rta biznesni yalpi ichki mahsulotdagi (YaIMdagi) hajmini 55% ga ,sanoatdagi ulushini- 34% ga, eksportda – 34%va aholini ish bilan ta'minlashda 75% ga yetkazishni ta'minlash;

2. Kamida 600 nafar kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko'maklashish va bu orqali ularni "chempion" tadbirkorlarga aylantirish;

3.Ichimlik va oqova suv, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish va hk.[5]

Ushbu farmonda to'liq qismida kichik va o'rta biznes korxonalariga berilayotgan imkoniyatlar,ularda yaratilayotgan shart-sharoitlar, kichik va o'rta biznes uchun infratuzilmani yaxshilash chora-tadbirlari haqida batafsil so'z borgan. Bu qarorda belgilab o'tilgan chora-tadbirlar orqali yurtimizda biznes subyektlari yanada rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (foizda)[6]

Klassifikator	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	78.2	78	76.3	76.2	74.5	74.5	73.9	74
Qoraqalpog'iston Respublikasi	75.1	75.1	75.6	74.9	74.2	74.2	74.1	74.5
Andijon viloyati	84.4	84.2	81.7	82.1	80.8	80.7	80.2	80.7
Buxoro viloyati	78.5	78.5	76.5	76.1	74.9	74.2	74.3	74.5
Jizzax viloyati	81.8	80.9	79	79.7	78.4	78.8	77.3	77.1
Qashqadaryo viloyati	79.9	80	79	78.5	78.1	78.5	78.2	78.1
Navoiy viloyati	60.3	59.3	56.2	55	51.9	52.3	51.1	52.1
Namangan viloyati	83.3	83.5	83	82.8	81.6	82.2	81	80.9
Samarqand viloyati	84.5	84.5	83.1	82.8	81.7	81.5	80.9	81.1
Surxondaryo viloyati	80.9	80.9	79.4	79.6	78.2	78.4	76.9	76.8
Sirdaryo viloyati	79.4	78.8	77.4	76.4	74.5	74.4	72.9	71.9
Toshkent viloyati	76.9	75.1	73.2	72.8	70.8	69.8	70	70.6
Farg'ona viloyati	80.5	80.6	78.9	79.4	78.4	78.5	78.7	79.1

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025-y., 06/25/50/0272-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. https://lex.uz/uz/docs/-7444738

[6] 1-jadval www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Xorazm viloyati	8 2.8	8 2.2	8 0.6	8 0.4	7 9.3	7 9.1	7 8.1	7 8.5
Toshkent shahri	5 6.6	5 6.7	5 3.1	5 3.7	4 9.7	5 0.2	5 0	4 9.4

Davlat Statistika agentligining rasmiy saytiga ko'ra,kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2023-yilda- 74% ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa 2016-yilda esa bu korsatkich 78,2 foizni tashkil etgan va bu 2023-yilga nisbatan 4,2%ga ko'pdir. Buning sabablaridan biri sifatida boshqa iqtisodiy subyektlarning roli oshib borayotganligini ko'rsatishimiz mumkin.



1-rasm. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining 2021-2025-yillarda soni. [7]

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. 2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari soni 411,2 mingni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 462,8 mingga yetgan. Ya'ni bir yil ichida qariyb 12,5 foizlik o'sish qayd etilgan.(1-rasm)

2023-yilda esa eng yuqori natija kuzatilgan bo'lib, kichik tadbirkorlik subyektlari soni 523,5 mingga yetgan. Bu davrda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, imtiyozlar va kreditlarning kengaytirilgani hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga oid islohotlar o'zining ijobiy samaralarini berganini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, 2024-yildan boshlab keskin kamayish kuzatilmoqda. Xususan, 2024-yilda faol kichik tadbirkorlik subyektlari soni 417 080 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 358 116 tagacha pasaygan. Ushbu holat bir qator omillar bilan izohlanadi: iqtisodiy sikllarning ta'siri, ayrim kichik korxonalarning faoliyatini to'xtatishi yoki yirik korxonalarga aylanishi, shuningdek, raqobatning kuchayishi va tashqi iqtisodiy omillarning ta'siriva boshqalar bilan. Eng asosiy sabablardan biri sifatida ularning moliyaviy nazorati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidadir. Kirim va chiqim hisoblaring noto'gri qo'llanishi, narx belgilashda mahsulot tannarxini to'gri hisoblamaslik.zamonaviy buxgakteriya tizimidan foydalanmaslik kabi sabablarni keltirishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes sub'yektlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish bozor ishtirokchilarining shaffofligini ta'minlash va davlat bilan o'zaro munosabatlarini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaldagi soliq tartibotlari kichik biznes uchun ma'lum qulayliklarni yaratgan bo'lsa-da, ayrim hollarda hisobot topshirishdagi murakkabliklar, elektron tizimlardan foydalanishdagi texnik muammolar hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kichik korxonalarning aksariyatida malakali buxgalter mutaxassislar yetishmasligi ularning hisob-kitob jarayonida xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelmoqda. Bu esa nafaqat soliq intizomiga, balki korxonaning kredit

[7] 1-rasm. www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

reytingiga ham salbiy ta’sir qiladi. Shu bois buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy dasturlarni keng tatbiq etish, mutaxassislarni doimiy ravishda o‘qitish va qayta tayyorlash zarurdir.

1.Buxgalteriya dasturlarini soddalashtirish va arzonlashtirish – kichik korxonalarga mo‘ljallangan qulay onlayn hisob-kitob tizimlari yaratilsa, bu ularga vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

2.Malaka oshirish dasturlarini kengaytirish – Oliy ta’lim muassasalari hamda professional tashkilotlar hamkorligida amaliy treninglar tashkil etilishi lozim.

3.Elektron hujjat aylanishini kengaytirish – hisobotlarni topshirishda inson omilini kamaytirish orqali xatoliklar soni qisqaradi.

4.Imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish – ayrim soliq va imtiyozlarning aniq mezonlari belgilansa, kichik va o‘rta biznes yanada faol rivojlanadi.

Umuman olganda, kichik va o‘rta biznes sub’yektlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish nafaqat davlat byudjeti tushumlarini oshiradi, balki tadbirkorlarning ishonchini kuchaytirib, mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025-y., 06/25/50/0272-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. https://lex.uz/uz/docs/-7444738
2. Isroilov B.I,Xajimuradov N.Sh, Ibragimov B.Blar tomonidan yozilgan “Biznesda Buxgalteriya hisobi”, 2023-yil. Darslik.169-175-betlar
3. O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi qonuni.
4. Matmurodov, Toshpo‘lat. “Kichik va o‘rta biznesda moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish” – Iqtisodiyot va ta’lim, Toshkent, 2021.
5. Isomuxamedov A.B. “Kichik biznes subyektlarida buxgaleteriya hisobida xarajatlarning moliyaviy talqini” nomli maqolas” Multidisciplinary Scientific Journal. https://t.me/Erus_uz. 2023-yil Oktabr oyidagi soni.374-379-betlar.
6. Ikromiddin Sirojiddinov, Akbarjon Isomuxamedov. “Kichik biznes sub'ektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi”/Darslik/Namangan: “Usmon Nosir media”, 2022. – 116 b
7. Tojiyev Javlonbek Rustamovich. “Yangi o‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash: muammolar va yechimlar”. Innovations in Science and Technologies,4-son,2025-yil. 348-bet.https://zenodo.org/records/15350063.
8. Ergashev Olloyor, “Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobi standartlarini soddalashtirish muammolari”. “Лучшие инновационные исследования”. Часть-37_ Том-4_ Январь-2025.62-65-betlar.
9. Axmedova D., Xasanov B. Kichik va o‘rta biznes sub’yektlarida buxgalteriya hisobini yuritish muammolari va ularni hal qilish yo‘llari. // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2021, №4, 55–60-betlar.
10.Normatov Sh. Kichik biznesni kreditlashda buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanish. // Bank ishi va moliya, 2023, №5, 73–79-betlar.
11.Davlat statistika qo’mitasining rasmiy sayti: www.stat.uz.

TADBIRKORLIK SUBEKTLARI BUXGALTERIYA BALANSI (MOLIYAVIY HOLATI) VA UNING TAHLILI

Allanzarova Zuhra Aliyor qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi talabasi
Tel: +998 (95)- 275-14-30
E-mail: allanazarovazuxra91@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525661

Annotatsiya: Ushbu tezisda buxgalteriya balansi tahlili iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholashda asosiy vosita sifatida ko‘rib chiqilgan. Balans tahlilining nazariy asoslari, tahlil usullari va uning amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola davomida buxgalteriya balansi orqali korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash bo‘yicha takliflar keltiriladi

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya balansi, tahlil, iqtisodiy faoliyat, moliyaviy hisobot, tahlil usullari, iqtisodiyot, korxona moliyaviy holati.

Аннотация: В статье анализ бухгалтерского баланса рассматривается как основной инструмент оценки эффективности экономической деятельности. Проанализированы теоретические основы балансового анализа, методы анализа и его практическое значение. Также в ходе статьи приводятся предложения по улучшению финансового состояния предприятия через бухгалтерский баланс.

Ключевые слова: бухгалтерский баланс, анализ, экономическая деятельность, финансовая отчетность, методы анализа, экономика, финансовое состояние предприятия.

Abstarct: In the article, the analysis of the balance sheet is considered the main tool for assessing the effectiveness of economic activity. The theoretical foundations of balance sheet analysis, methods of analysis, and its practical significance are analyzed. The article also provides suggestions for improving the financial condition of the enterprise through the accounting balance sheet**.**

Key words: balance sheet, analysis, economic activity, financial reporting, analysis methods, economy, financial condition of the enterprise.

Kirish

Buxgalteriya balansi – bu korxonaning moliyaviy holatini ko‘rsatuvchi asosiy moliyaviy hisobot hujjatlaridan biri bo‘lib, uning tahlili korxonaning faoliyat samaradorligini aniqlash va moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir iqtisodiy subyektning moliyaviy faoliyati uning balansida aks ettirilgan aktivlar, majburiyatlar va kapital tarkibi bilan aniqlanadi. Bu ma’lumotlar asosida korxonaning moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati, likvidligi va boshqa ko‘rsatkichlari baholanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalar uchun raqobatbardoshlikni ta’minlashda samarali moliyaviy boshqaruv tizimini yaratish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda buxgalteriya balansi tahlili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning yordamida korxonaning moliyaviy faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlar aniqlanadi, strategik rejalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, balans tahlili nafaqat korxona rahbariyati, balki investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham zarur axborotni taqdim etadi.

Buxgalteriya balansi tahlilini amalga oshirish uchun ko‘plab usullar qo‘llaniladi. Ular qatoriga gorizontal va vertikal tahlil, ko‘rsatkichlar tahlili, nisbiy koeffitsiyentlar hisoblash kabi usullar kiradi. Ushbu usullar yordamida korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidlik darajasi va foyda olish salohiyati baholanadi. Ayniqsa, O‘zbekistondagi iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar sharoitida bu jarayonlar yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.[1] Maqola O‘zbekiston sharoitida buxgalteriya balansini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish maqsadida yozilgan. Unda buxgalteriya balansining mohiyati, uning iqtisodiy ahamiyati va tahlil qilishning asosiy tamoyillari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada buxgalteriya balansi asosida korxona faoliyatini samarali boshqarish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi. Mazkur tadqiqot iqtisodiyot sohasida tahsil olayotgan talabalar, iqtisodchilar va moliyaviy boshqaruv sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega. Chunki buxgalteriya balansi va uning tahlili moliyaviy

[1] Karimov M. Buxgalteriya balansi va uning tahlili. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2019.

boshqaruv tizimining markaziy elementlaridan biri bo‘lib, unda qabul qilinadigan qarorlar iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda buxgalteriya balansini tahlil qilish usullari o‘rganildi va amaliyotda qo‘llash uchun mos metodologiyalar tanlandi. Ushbu bo‘limda tahlil uchun ishlatilgan ma’lumotlar bazasi va tadqiqot metodlari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Materiallar sifatida O‘zbekistondagi yirik va o‘rta korxonalarning buxgalteriya hisobotlari, davlat statistikasi, shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos ravishda tayyorlangan hisobotlar ishlatildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy usullar qo‘llanildi: Gorizontal tahlil – buxgalteriya balansining o‘zgarishini vaqt mobaynida tahlil qilish usuli bo‘lib, bunda ma’lum bir davr davomida korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar aniqlanadi. Ushbu usul yordamida korxonaning moliyaviy barqarorligi va o‘sish dinamikasini baholash imkoniyati yaratiladi. Vertikal tahlil – balansdagi har bir elementning umumiy balansdagi ulushini aniqlashga qaratilgan usul. Bu usul orqali korxonaning aktivlari, majburiyatlari va kapitalining tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi.

Asosiy qism

Buxgalteriya balansi tahlili korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy vosita bo‘lib, uning yordamida iqtisodiy faoliyat samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu qismda balans tahlilining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati chuqur yoritiladi.

Buxgalteriya balansi – bu korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy hujjat bo‘lib, unda aktivlar, majburiyatlar va kapitalning o‘zaro muvozanati aks ettiriladi. [2]Bu balans moliyaviy hisobotlarning markaziy elementi sifatida, korxonaning moliyaviy faoliyatini rejalashtirish va boshqarish uchun muhim manba hisoblanadi. Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda, ayniqsa, aktivlarning samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimal boshqarish zaruriyati paydo bo‘ladi. Balans tahlili iqtisodiy subyektlarning samaradorligini baholashda ko‘plab afzalliklarga ega. Birinchidan, u korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida aniq tasavvur beradi va moliyaviy qarorlarni qabul qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, balans tahlili orqali korxonada mavjud resurslarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va foydalilikni oshirish yo‘llarini topish mumkin.

Aktiv (lotincha, activus –faol, ta’sirchan, ishchan) – 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va boshqalar) aks ettiradi;

2) korxona yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, nakd pul, qimmatbaho qog‘ozlar va boshqalar). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo‘lgan, bozori chaqqon aktiv (veksellar, qimmatbaho qog‘ozlar, oltin, naqd pul va boshqalar) likvid aktiv deyiladi.[3]

Majburiyat – fuqarolik huquqiy munosabati. Unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirish (mol-mulkni topshirish, ishni bajarish va hokazo)ga yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa qarzdordan o‘zining Majburiyatini bajarishni talab qilish huquqiga ega.

Kapital (lotincha: *capitalis* – bosh, asosiy), sarmoya – keng ma'noda – o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko‘paytiruvchi qiymat. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun kishilar tomonidan yaratilgan resurslar; tor ma'noda ishlab chiqarish vositalari ko'rinishidagi ishga qo'yilgan, ishlab turgan daromad manbai (ashyoviy kapital).

1-jadval

Balans ikki asosiy qismdan iborat [4]:

[2] www.lex.uz

[3]O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

[4] Gulyamov S. S. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.

Aktivlar (korxona egaligidagi mablag‘lar)	**Majburiyatlar va kapital (korxonaning mablag‘ manbalari)**
1. Uzoq muddatli aktivlar	1. Uzoq muddatli majburiyatlar
2. Qisqa muddatli aktivlar	2. Qisqa muddatli majburiyatlar
	3. O‘z mablag‘lari (ustav kapitali, foyda va boshqalar)

Ushbu jadval korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi buxgalteriya balansi tuzilmasini ifodalaydi. Balans korxona egaligidagi barcha mablag‘lar (aktivlar) va ularning moliyalashtirish manbalari (majburiyatlar hamda o‘z mablag‘lari) o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatadi.

Aktivlar (korxona egaligidagi mablag‘lar)

Aktivlar — bu korxona tasarrufidagi barcha iqtisodiy resurslar bo‘lib, ular yordamida daromad olinadi. Ular ikki guruhga bo‘linadi:

Uzoq muddatli aktivlar – bu bir yildan ortiq vaqt davomida foydalaniladigan aktivlardir. Bular korxonaning ishlab chiqarish jarayonida doimiy ishtirok etadi. Masalan: bino va inshootlar, uskunalar, transport vositalari, yer maydonlari, kompyuter dasturlari yoki patentlar kabi nomoddiy aktivlar. Ular korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilaydi.

Qisqa muddatli aktivlar – qisqa muddatda (odatda 12 oy ichida) naqd pulga aylantiriladigan mablag‘lardir. Bunga naqd pul, bank hisobvarag‘idagi mablag‘lar, debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot va xom ashyo zaxiralari kiradi. Bu aktivlar korxonaning joriy faoliyatini moliyalashtirish va aylanma mablag‘lar bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Majburiyatlar va kapital (mablag‘ manbalari)

Bu qism aktivlarning qayerdan moliyalashtirilganini, ya’ni mablag‘lar manbalarini ko‘rsatadi. U uchta asosiy bo‘limdan iborat:

Uzoq muddatli majburiyatlar – bir yildan ortiq muddatda qaytariladigan qarzlar va majburiyatlar. Masalan: uzoq muddatli bank kreditlari, obligatsiyalar, lizing to‘lovlari. Ular korxonaning uzoq muddatli investitsiyalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Qisqa muddatli majburiyatlar – 1 yil ichida to‘lanadigan qarzlar bo‘lib, ular qisqa muddatli kreditlar, kreditorlik qarzlari, soliqlar va ish haqi bo‘yicha majburiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bular korxonaning joriy faoliyatidagi majburiyatlarini aks ettiradi.

O‘z mablag‘lari (kapital) – korxona egalari tomonidan kiritilgan mablag‘lar va korxonaning o‘z faoliyati natijasida to‘plangan foydadan iborat. Ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda – bular korxonaning mustaqil moliyaviy asosini tashkil etadi.

Buxgalteriya balansining asosiy tenglamasi:

Aktivlar = Majburiyatlar + Kapital

Bu tenglama doimo muvozanatda bo‘lishi kerak, shuning uchun ham bu hujjat “balans” deb ataladi. Buxgalteriya balansining amaliy tahlilida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratiladi: birinchidan, aktivlarning o‘zgarishi va ularning tarkibiy tuzilishi. Ushbu tahlil orqali korxonada resurslarni qay darajada samarali boshqarilayotgani aniqlanadi. Ikkinchidan, majburiyatlar va kapitalning dinamikasi tahlil qilinadi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash imkoniyatlarini baholash imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchliligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida buxgalteriya balansini tahlil qilishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos keluvchi yondashuvlardan foydalanish zarur. Bu korxonalarning global bozor bilan integratsiyasini kuchaytiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi.

2-jadval

Xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan balans hisoboti va bizning mamlakatimizda qo‘llanilayotgan buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilmasidagi asosiy farqlar

Xalqaro ta'limotda	O'zbekistonda
I. Uzoq muddatli aktivlar bo'yicha	
1.Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar 2. Uzoq muddatli debitorli qarzlar 3. Kechiktirilgan xarajatlar 4. Nomoddiy aktivlar 5.Ko'chmas mulk, bino va jixozlar	1.Asosiy vositalar 2.Nomoddiy aktivlar 3.O’rnatilmagan jihozlar 4.Kapital quyilmalar 5.Moliyaviy investitsiyalar 6.Uzoq muddatli debitorli qarzlar va muddati uzaytirilgan xarajatlar
II. Joriy aktivlar bo'yicha	
1.Pul mablag’lari 2.Qisqa muddatli investitsiyalar 3.Olingan schotlar 4.TMZ 5.Kelgusi davr xarajatlari 6.Muddati kechiktirilgan xarajatlar	1.TMZ 2. Kelgusi davr xarajatlari 3. Muddati kechiktirilgan xarajatlar 4.Debitorli qarzlar 5. Pul mablag’lari 6. Qisqa muddatli investitsiyalar
	III. Majburiyatlar bo'yicha
1.Qisqa muddatli majburiyatlar 2.Uzoq muddatli majburiyatlar	1. Uzoq muddatli majburiyatlar 2. Qisqa muddatli majburiyatlar
	IV. Xususiy kapital bo'yicha
1.Aksionerli kapitali 2.Qo’shilgan kapital 3.Taqsimlamagan foyda	1.Ustav kapitali 2. Qo’shilgan kapital 3.Rezerv kapitali 4. Taqsimlamagan foyda 5.Maqsadli tushumlar 6.Kelgusi xarajatlar va to’lovlar uchun rezervlar[5]

Ushbu jadvalda xalqaro va O‘zbekiston buxgalteriya balanslari o‘rtasidagi asosiy farqlar ko‘rsatilgan. Umuman olganda, xalqaro balans soddaroq va likvidlik tamoyiliga, ya’ni aktivlarning pulga aylanish tezligiga asoslanadi, O‘zbekiston balansida esa tuzilma batafsilroq bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirilgan.

Uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha xalqaro tizimda faqat asosiy turlar – investitsiyalar, debitorlik qarzlari, nomoddiy aktivlar va bino-inshootlar ko‘rsatiladi. O‘zbekistonda esa bu bo‘lim kengroq: o‘rnatilmagan jihozlar, kapital qo‘yilmalar va moliyaviy investitsiyalar alohida keltiriladi.

Joriy aktivlar bo‘yicha xalqaro tizimda tartib likvidlikka qarab, ya’ni pul mablag‘laridan boshlab joylashtiriladi. O‘zbekistonda esa avval zaxiralar (TMZ), keyin pul mablag‘lari beriladi. Majburiyatlar bo‘yicha farq shundaki, xalqaro balansda qisqa muddatli majburiyatlar birinchi, O‘zbekistonda esa uzoq muddatli majburiyatlar avval keltiriladi. Kapital tarkibida ham farq bor: xalqaro tizimda uchta asosiy qism – aksionerlik kapitali, qo‘shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda; O‘zbekistonda esa bundan tashqari rezerv kapitali, maqsadli tushumlar va kelgusi xarajatlar uchun rezervlar ham mavjud. Xulosa qilib aytganda, xalqaro balans soddaligi va tahlil qilish qulayligi bilan ajralib turadi, O‘zbekiston balans esa batafsilligi va hisobning to‘liqligi bilan farq qiladi.

Balans tahlilining samarali usullari qatoriga moliyaviy koeffitsiyentlar asosida tahlil qilish kiradi. Bu usulda balansdagi turli ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi nisbatlarni hisoblash orqali korxonaning moliyaviy

[5] "Экономика и социум" №5(120) 2024 www.iupr.ru

barqarorligi, likvidligi va foydalilik darajasi aniqlanadi. Ushbu usul orqali korxonaning iqtisodiy imkoniyatlari va mavjud risklar haqida aniq ma'lumot olish mumkin. Bundan tashqari, balans tahlili natijalari moliyaviy boshqaruvning strategik qarorlarini qabul qilishda asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, korxonalarning investitsiya salohiyatini baholashda buxgalteriya balansining ahamiyati beqiyosdir. Balans asosida korxonadagi resurslarni samarali taqsimlash va ular bilan bog'liq risklarni minimallashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Mazkur maqola davomida olib borilgan tahlillar natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini ta'minlash bo'yicha muhim xulosalar va takliflar beriladi. Balans tahlili orqali iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish va boshqarish korxona faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulos

Mazkur a maqolada buxgalteriya balansini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilib, uning korxonaning moliyaviy faoliyatidagi ahamiyati batafsil yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, buxgalteriya balansi korxonaning moliyaviy holatini har tomonlama baholash va iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish uchun asosiy manba hisoblanadi. Ushbu tahlillar yordamida korxonada resurslardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilish mumkin. Birinchidan, gorizontal va vertikal tahlil usullari korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasini va tarkibiy tuzilmasini o'rganish uchun samarali vosita sifatida foydalaniladi. Ushbu usullar yordamida korxonalarning aktivlari va majburiyatlari o'zgarishlarini baholash, likvidlik va barqarorlik darajasini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili orqali korxonaning likvidlik, moliyaviy barqarorlik va foydalilik darajasini aniqlash natijasida moliyaviy boshqaruvda strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur asos shakllantiriladi. Bu usul orqali korxonadagi moliyaviy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash mumkin.

Uchinchidan, buxgalteriya balansining amaliy tahlili korxonalar uchun investitsiya salohiyatini oshirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Bu esa korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos tahlil usullarini qo'llash korxonalarning global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur tadqiqot natijalari korxonalar faoliyatini moliyaviy tahlil qilishda qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, buxgalteriya balansi tahlili korxonalar uchun nafaqat moliyaviy holatni yaxshilash, balki umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Kelgusida korxonalarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va buxgalteriya hisobotlarini avtomatlashtirish jarayonlari yanada kengroq o'rganilishi lozim. Shuningdek, xalqaro tajribadan foydalanib, moliyaviy boshqaruvning innovatsion usullarini ishlab chiqish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulyamov S. S. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
2. Karimov M. Buxgalteriya balansi va uning tahlili. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2019.
3. Исакулова, Н. (2023). Educational project and its essence. in Library, 4(4), 6-15.
4. www.lex.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB TIZIMIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI AMALIYOTIDA QO‘LLASH MASALALARI. O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNI MHXS (IFRS) GA MUVOFIQLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ametov Shohrux Maqsud o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
“Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti
Buxgalteriya yo’nalishi 1-kurs magistranti
Tel: 998 90 654 28 81
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525690

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobot tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) bilan muvofiqlashtirish jarayonining hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, korxonalarda MHXSni joriy etishning amaliy ahamiyati va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: MHXS, IFRS, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar, muvofiqlashtirish, investitsiya muhiti.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalash jarayonlari jadallashmoqda. Ushbu jarayonlar milliy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS, inglizcha IFRS) moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchliligini ta’minlaydigan global tizim sifatida jahon miqyosida tan olingan bo‘lib, u moliyaviy axborotlarni yagona talqin va baholash mezonlariga keltirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida MHXSni joriy etish jarayoni 2018-yildan boshlab davlat siyosati darajasida yo‘lga qo‘yildi. Prezidentning 2019-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli “Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohada muhim huquqiy asos yaratdi. Mazkur qaror asosida 2021-yildan boshlab banklar, sug‘urta kompaniyalari va yirik xo‘jalik subyektlari moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashni boshladilar. Bu esa respublika miqyosida hisob tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro moliya tizimiga integratsiyalash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

MHXSning joriy etilishi O‘zbekiston korxonalari uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, buxoriy hisobotlarning xalqaro investorlar tomonidan oson tushunilishi va ularning ishonchini oshiradi. Shuningdek, korxonalar uchun xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik qilish, chet el kredit liniyalariga chiqish imkoniyatlari kengayadi. MHXSning qo‘llanilishi, shuningdek, ichki boshqaruv tizimini takomillashtiradi, moliyaviy natijalarni yanada aniq va shaffof ko‘rsatishga yordam beradi hamda biznes qarorlarining sifatini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritish korxonalar uchun kredit reytingini yaxshilashda va auditorlik jarayonlarini xalqaro mezonlarga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, MHXSni to‘liq joriy etish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, mamlakatda xalqaro standartlar bo‘yicha malakali buxgalterlar va auditorlar yetishmaydi. Amaliyotda ko‘plab mutaxassislar milliy buxgalteriya hisob standartlariga tayanib ishlashadi, MHXSdagi kontseptual farqlar esa ular uchun yangi yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, o‘quv dasturlarida va oliy ta’lim tizimida MHXS bo‘yicha maxsus kurslar, amaliy qo‘llanmalar va treninglar yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bundan tashqari, ayrim hollarda milliy standartlar bilan xalqaro standartlar o‘rtasida tafovutlar mavjud bo‘lib, bu esa moliyaviy hisobotni konvertatsiya qilish jarayonida qo‘shimcha vaqt va resurs sarfini keltirib chiqaradi.

Texnik jihatdan ham muammolar mavjud — ayrim korxonalarda zamonaviy axborot tizimlari, buxgalteriya dasturlari va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa MHXS asosida hisobot yuritishni murakkablashtiradi. Shu sababli, moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga to‘liq muvofiqlashtirish uchun keng qamrovli islohotlar amalga oshirilishi zarur.

Birinchidan, MHXS bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yaratish muhim. Buxgalterlar, auditorlar va moliyaviy menejerlar uchun xalqaro sertifikatlash dasturlarini (masalan, ACCA, DipIFR) qo‘llab-quvvatlash kerak. Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida MHXS bo‘yicha fanlarni kengaytirish, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, korxonalarda xalqaro standartlarga mos axborot tizimlari va buxgalteriya dasturlarini joriy etish, shu jumladan, davlat tomonidan bu borada metodik qo‘llanmalar va elektron platformalarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston moliyaviy hisobot tizimini MHXSga muvofiqlashtirish jarayoni murakkab, ammo zaruriy bosqichdir. Ushbu jarayon mamlakat iqtisodiyotining shaffofligini oshiradi, investitsiya muhitini yaxshilaydi va korxonalarni xalqaro raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratadi. MHXSni to‘liq joriy etish orqali O‘zbekiston xalqaro moliya tizimiga chuqur integratsiyalashgan, barqaror va ishonchli iqtisodiy tizimga ega davlat sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” — PQ–4611, 24.02.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori — PQ–4759, 10.07.2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish bo‘yicha yo‘l xaritasi”, Toshkent, 2021.
4. Karimov, S. (2022). “O‘zbekistonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish masalalari.” Moliyaviy tahlil jurnali, №3, 45–52-betlar.
5. Turaev, B. (2021). “Buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiyalash va MHXSga o‘tish muammolari.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2, 33–41-betlar.

TRANSPORT KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY QILISH MASALALARI

Bekbosinov Kuralbay Kdirbaevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti.
Tel:+998977876306,
e-mail: quralbaybekbosinov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525711

Annotatsiya: Maqolada transport korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS, ingl. IFRS) muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasida XMHSni joriy etishning bosqichlari, bu jarayonning transport sohasidagi ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy tahlil qilingan. Muallif XMHS joriy etish bo‘yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilib, O‘zbekiston sharoitida amaliy takliflar ishlab chiqadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, IFRS, transport korxonalari, raqamlashtirish, shaffoflik, buxgalteriya hisobi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyati, avvalo, ularning moliyaviy hisobotlari shaffofligi va xalqaro talablarga mosligiga bog‘liq. Transport tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik sektori bo‘lib, respublika ichki va tashqi savdosining 60 foizdan ortig‘i transport xizmatlariga tayanadi [1].

Transport korxonalarining moliyaviy faoliyati milliy va xalqaro investorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu bois, moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslashtirish – ularning shaffofligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini ta’minlashning eng samarali yo‘lidir.

Shunga qaramay, transport korxonalarida MHXSni joriy etish jarayonida bir qator amaliy muammolar mavjud: buxgalterlar malakasining yetishmasligi, dasturiy ta’minotning eskiligi, hisobotlarning raqamlashtirilmaganligi hamda normativ-huquqiy bazaning to‘liq moslashtirilmaganligi shular jumlasidandir. So‘nggi yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “O‘zbekiston havo yo‘llari” AJ, “O‘zavtotrans” agentligi kabi yirik korxonalar o‘z hisobot tizimlarini **Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS, IFRS)** asosida yuritishga o‘tish jarayonini boshladi.

Bu jarayonning zarurati bir necha omillar bilan belgilanadi:

- xalqaro investorlarga ishonchli moliyaviy ma’lumot taqdim etish;
- xalqaro kredit reytinglarini oshirish;
- soliq va audit tizimini uyg‘unlashtirish;
- davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini joriy etishdagi shaffoflikni ta’minlash [2].

XMHSning asosiy maqsadi — korxona faoliyati haqida **haqiqiy, ishonchli, taqqoslanadigan** moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishdir [3]. Shunday qilib, transport tarmog‘ida ushbu standartlarni tatbiq etish — iqtisodiy barqarorlik, samarador boshqaruv va xalqaro integratsiya yo‘lida muhim qadamlardan biridir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda XMHSga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan **PQ–4611-son Prezident qaroriga** binoan, 2021-yildan yirik davlat korxonalari XMHS asosida hisobot yuritishni boshlagan [1]. 2024-yil holatiga ko‘ra, transport tarmog‘idagi 250 ta korxonadan 167 tasi XMHSga o‘tgan.

1-jadval.

Transport korxonalarida XMHS joriy etish ko‘rsatkichlari (2020–2024)

Yil	Korxonalar soni	XMHS asosida hisobot yurituvchilar (%)	Auditorlik tekshiruvdan o‘tganlar (%)	Raqamlashtirish darajasi (%)
2020	220	14	33	22
2021	230	28	44	38
2022	240	45	57	52
2023	245	58	68	67
2024	250	67	80	79

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tahlili [2].

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, XMHS asosida hisobot yurituvchi korxonalar soni 2020–2024 yillar davomida **4,8 baravar** oshgan. Bu natija transport tarmog‘ining xalqaro talablar asosida isloh qilinayotganini ko‘rsatadi.

2-jadval.

XMHS va milliy standartlar o‘rtasidagi farqlar [4]

Ko‘rsatkich	**Milliy standart (MHBS)**	**Xalqaro standart (XMHS)**	**Ta’sir natijasi**
Asosiy vositalar bahosi	Tarixiy qiymat asosida	Adolatli (bozor) qiymat asosida	Aktivlar qiymati oshadi
Amortizatsiya	Belgilangan norma bo‘yicha	Aktivning foydali xizmat muddati asosida	Xarajatlar real aks etadi
Daromadni tan olish	Moliyaviy natija asosida	Xizmat ko‘rsatish bosqichlari bo‘yicha	Foyda dinamikasi o‘zgaradi
Hisobot tili	So‘mda	AQSh dollari yoki xalqaro birliklarda	Investorlar uchun qulaylik

Mazkur farqlar XMHSga o‘tish orqali transport korxonalari o‘z aktivlarini real baholash va investitsion jozibadorligini oshirish imkoniga ega bo‘lishlarini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, transport korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotining globallashuv jarayonidagi muhim bosqichidir. MHXSga o‘tish orqali korxonalar o‘z faoliyatini xalqaro bozorlarda tanitish, investorlar ishonchini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kelgusida bu jarayonning samaradorligini ta’minlash uchun:

- ✓ buxgalter kadrlarining malakasini oshirish;
- ✓ transport korxonalarida axborot tizimlarini MHXS formatiga moslashtirish;
- ✓ xalqaro tajribaga asoslangan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish zarur.

MHXSni keng joriy etish mamlakat transport sektorining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ–4611-son qarori, 2020-yil 24-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari (2020–2024).
3. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS Foundation Annual Report 2024.
4. Muallif ishlanmasi.

ЧЕТЫРЕ ГОДА ПУТИ К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: УЗБЕКИСТАН ИНТЕГРИРУЕТСЯ В МИРОВУЮ ЭКОНОМИКУ

Ельцова Елена Валерьевна
Новосибирский государственный педагогический университет,
канд. техн. наук, доцент
Тел. 89234856948
E-mail: eltsova_ev@mail.ru
Милосердова Ирина Геннадьевна
Новосибирский государственный педагогический университет,
старший преподаватель
Тел. 89162247744
E-mail: miloserdova.irinochka@yandex.ru
Муминова Юлдузхон Казымжановна
Новосибирский государственный педагогический университет,
обучающаяся 4 курса очной формы
Тел. 89059054567
E-mail: muminovaulduz30@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525732

Annotatsiya: В данной статье тезисно изложена цель начатой большой работы коллективом российских ученых-практиков в области бухгалтерского учета и финансовой отчетности, которая заключается в изучении сложностей перехода Узбекистана на международные стандарты финансовой отчетности и разработка рекомендаций по их преодолению.

Ключевые слова: МСФО, проблемы перехода с национальных стандартов учета на международные, плюсы и минусы для бизнеса и государства, интеграция в мировую экономику.

В настоящее время Узбекистан находится на пути активной интеграции в мировую экономику. Такие значимые внешнеэкономические инициативы, как вступление во Всемирную торговую организацию и усиление регионального сотрудничества, требуют от страны большей открытости рынков для иностранных партнеров, а от национальных производителей – прозрачности для инвесторов и кредиторов. Многие эксперты полагают, что одним из ключевых ограничений для полноценной интеграции экономики Узбекистана в мировую хозяйственную систему является отсутствие системы бухгалтерского учета и отчетности, полностью соответствующей Международным стандартам финансовой отчетности и потребностям развивающейся рыночной экономики. Это обусловливает актуальность предстоящей работы.

В данной статье тезисно изложена цель начатой большой работы коллективом российских ученых-практиков в области бухгалтерского учета и финансовой отчетности, которая заключается в изучении сложностей перехода Узбекистана на международные стандарты финансовой отчетности и разработка рекомендаций по их преодолению. Также для достижения обозначенной цели в работе предстоит поэтапно решать следующие задачи:

- на первоначальном этапе определить закономерности и логическую последовательность внедрения МСФО в республике Узбекистан;
- обозначить преимущества и ключевые проблемы перехода узбекского бизнеса на МСФО;
- на заключительном этапе сформулировать практические рекомендации по ускорению и оптимизации процесса трансформации бухгалтерской отчетности.

Вопрос сближения узбекских стандартов бухгалтерского учета с МСФО начал активно подниматься, на наш взгляд, с 2016 года. Но на тот момент отсутствовал четкий политический план действий, не была сформирована соответствующая образовательная система, а также наблюдались существенные противоречия между национальными стандартами (НСБУ) и МСФО. Знаковым событием, ознаменовавшим официальное начало реформы, стало принятие в 2015 году Закона Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете», который заложил правовые основы для применения МСФО. Следующим важным шагом стало утверждение «Концепции развития бухгалтерского учета и

отчетности в Республике Узбекистан на период до 2025 года», которая определила основные этапы и направления реформы. Ключевыми моментами данной концепции являются: постепенный переход на МСФО для публичных компаний и субъектов, имеющих общественное значение; использование МСФО в качестве основы для дальнейшего совершенствования национальных стандартов бухгалтерского учета; создание необходимой инфраструктуры и условий для подготовки профессиональных кадров. Причем, хотелось бы подчеркнуть, что подготовка кадров должна вестись в двух направлениях – это подготовка собственно учетных работников высокой квалификации, готовых работать с МСФО, так и преподавателей бухгалтерского учета по международным стандартам. До 2025 года из республиканского бюджета предусмотрено возмещение расходов на обучение, повышение квалификации и международную сертификацию бухгалтеров в области МСФО.

По заявлениям представителей Министерства финансов Республики Узбекистан, полномасштабное применение МСФО планируется ввести для определенных категорий предприятий в ближайшие годы. Уже сегодня многие крупные узбекские компании, особенно те, что привлекают иностранные инвестиции или работают на экспорт, по собственной инициативе составляют отчетность по МСФО. Однако, некоторые предприятия, ориентированные на сотрудничество с американскими партнерами, до сих пор используют GAAP, что указывает на необходимость унификации подходов. В ближайшей перспективе применение МСФО станет обязательным не только для крупного, но и для среднего бизнеса. Актуальной задачей является четкое определение круга компаний, которые будут обязаны применять МСФО, и тех, кто останется в рамках Национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ).

Процесс внедрения МСФО был инициирован Постановлением Президента еще в 2020 году. С 2021 года ведение учета по МСФО является обязательным для страховых организаций, коммерческих банков, акционерных обществ, крупнейших налогоплательщиков. В конце 2022 года принят приказ Министра финансов, официально признающий более 60 текстов МСФО и разъяснений к ним на территории республики. Цель внедрения МСФО — повышение качества, достоверности и сопоставимости финансовой информации для широкого круга пользователей, включая инвесторов, кредиторов и контрагентов, как внутри страны, так и на международной арене.

Переход на МСФО является стратегическим курсом правительства Узбекистана, направленным на создание двухуровневой системы отчетности. Законодательно закреплено, какие компании обязаны применять МСФО, а какие продолжают работать по НСБУ. Новые требования предусматривают ведение в единой информационной базе регламентированного бухгалтерского и налогового, управленческого учета и учета по МСФО. Это позволит автоматически формировать проводки по МСФО на основе первичных учетных документов, исключая двойную работу учетных работников. С точки зрения повышения инвестиционной привлекательности четкие сроки перехода демонстрируют серьезность намерений властей и способствуют созданию благоприятного инвестиционного климата. Таким образом, переход Узбекистана от национальных положений по бухгалтерскому учету к Международным стандартам финансовой отчетности является утвержденным стратегическим курсом.

В настоящее время важно проанализировать положительные и отрицательные стороны этого процесса и найти пути для его максимально эффективной и безболезненной реализации. Бесспорен тот факт, что для привлечения масштабных иностранных инвестиций в экономику Узбекистана необходимо повышать прозрачность и понятность национального бизнеса для международных партнеров, в том числе через внедрение признанных во всем мире стандартов отчетности. Компании, составляющие отчетность по МСФО, могут рассчитывать на более выгодные условия финансирования от зарубежных банков и инвесторов, поскольку последние получают возможность объективно оценивать риски. С точки зрения повышения качества управления, МСФО предоставляют менеджменту и собственникам активов более достоверную и релевантную информацию о финансовом положении предприятия, что способствует принятию более обоснованных управленческих решений. Для холдинговых структур и групп компаний МСФО предлагают отработанные методики консолидации, что делает отчетность более прозрачной и сопоставимой.

Но, несмотря на явные преимущества, массовый переход узбекских предприятий на МСФО сопряжен с рядом серьезных трудностей:

1. Кадровый дефицит. МСФО значительно сложнее национальных стандартов и требуют от бухгалтеров и финансистов высокой квалификации. В настоящее время в Узбекистане ощущается острая нехватка специалистов, обладающих глубокими знаниями и практическим опытом применения МСФО. Существующие специалисты требуют высокого уровня оплаты труда, что не каждая организация может себе позволить.

2. Неразвитость образовательной системы. Вузы страны пока не готовы в полном объеме обеспечить подготовку и переподготовку необходимого количества бухгалтеров и аудиторов в области МСФО. Нехватка квалифицированных преподавателей и отсутствие единых систематизированных учебных программ тормозят этот процесс.

3. Языковой и информационный барьер. Официальным языком МСФО является английский, что создает сложности с оперативным получением и применением актуальных версий стандартов и разъяснений. Существует задержка в публикации официальных переводов на узбекский и русский языки.

4. Проблемы автоматизации. Отсутствие широко распространенных и недорогих локализованных компьютерных программ для ведения учета по МСФО приводит к тому, что многие организации вынуждены готовить отчетность вручную или с помощью электронных таблиц. Это крайне трудоемко, повышает риск ошибок и приводит к потере актуальности данных.

Таким образом, хотя МСФО признаются одним из наиболее эффективных инструментов для создания прозрачной и объективной финансовой отчетности, их внедрение в Узбекистане сталкивается с ресурсными, кадровыми и техническими ограничениями. Низкая осведомленность многих местных компаний о требованиях МСФО замедляет процесс трансформации.

На основании начатой работы, располагая имеющейся аналитической информацией, нам представляется актуальной работа в следующих направлениях. Учитывая текущую ситуацию, можно с уверенностью утверждать, что принятие МСФО в Узбекистане – это вопрос ближайшего будущего. Ключевой вопрос заключается в выборе наиболее эффективной модели их внедрения:

1. Прямое применение, а именно принятие стандартов в оригинальной редакции Совета по МСФО. Эта модель проблематична из-за необходимости оперативного и качественного официального перевода.

2. Адаптация (или модификация), что предполагает создание национального органа, который будет вносить определенные изменения в текст МСФО с учетом специфики страны. Данный подход используется, например, в Европейском союзе.

3. Гармонизация, то есть разработка и обновление национальных стандартов (НСБУ) путем их максимального сближения с МСФО. Этот путь, выбранный Китаем и рядом других стран, представляется наиболее сбалансированным и оптимальным для Узбекистана.

Меры государственной поддержки видятся в следующих ракурсах:

1. Создание специализированного уполномоченного государственного органа, который отвечает за официальный перевод, утверждение и своевременное обновление МСФО на государственном языке.

2. Поощрение разработки и внедрения локальных IT-решений, позволяющих вести параллельный учет по НСБУ и МСФО, что значительно ускорит процесс подготовки отчетности.

3. Организовать масштабные программы переподготовки и повышения квалификации действующих бухгалтеров и аудиторов при поддержке государства. Внести фундаментальные изменения в учебные планы вузов по специальности «Бухгалтерский учет и аудит», увеличив объем часов и практических занятий по МСФО. Вести активную работу по внедрению положительного опыта применения Международных стандартов Российской Федерацией.

Предложенные рекомендации, безусловно, не решат всех проблем мгновенно, но их системная реализация позволит Узбекистану осуществить трансформацию финансовой отчетности в более сжатые сроки и с меньшими издержками для бизнеса.

Вывод: Проведенное исследование показало, что международные стандарты финансовой отчетности являются мощным инструментом для повышения прозрачности и инвестиционной привлекательности экономики любой страны. Передовые компании Узбекистана уже осознали это и начали переход на МСФО добровольно. Для остальных этот переход станет обязательным в обозримом будущем. Успех данной реформы напрямую зависит от последовательной и комплексной поддержки на государственном уровне, включая контроль за процессом, стимулирование автоматизации и коренную перестройку системы подготовки профессиональных бухгалтерских кадров. Только такой подход позволит Узбекистану успешно интегрироваться в глобальную финансовую систему.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» (новая редакция) от 15.04.2016 // Национальная база данных законодательства 21.12.2016 г., № ПП-2467;
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по реализации Инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2020-2022 годы» // Национальная база данных законодательства 9.01.2020г., № ПП-4563;
3. Постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» // Национальная база данных законодательства 24.02.2020г., № ПП-4611;
4. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по привлечению иностранных инвесторов в акционерные общества» // Национальная база данных законодательства 21.12.2015г., № ПП-2454;
5. Даргачева Т., Шайданов Т. К вопросу перехода на МСФО в Республике Узбекистан // Общество и инновации. – 2020. – № 01. – С.2.

XO‘JALİK YURİTUVCHİ SUBYEKTLARDA SOLİQ MAJBURİYATLARİ HİSOBİ

Yuldashova Farangiz Taxirovna
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
7-BH-22 guruh talabasi
Tel:+998938729599
E.mail:farangiztaxirovna@gmail.com
Tilovova Shahnoza Soibqiron qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
7-BH-22 guruh talabasi
Tel:+998912398949
E.mail:shahnozatilovova9@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525761

Annotatsiya: Mazkur tezisda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda soliq majburiyatlarini hisobga olish jarayonida aylanmadan olinadigan soliqning amaliy jihatlari, afzalliklari hamda mavjud muammolar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Aylanmadan olinadigan soliq, soliq majburiyatlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, buxgalteriya hisobi, soliq tizimi, raqamlashtirish, elektron hisobot, soliq imtiyozlari, fiskal barqarorlik, soliq ma’murchiligi.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda soliq majburiyatlarini to‘g‘ri va shaffof yuritish davlat moliya tizimining barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Buxgalteriya hisobining zamonaviy axborot texnologiyalari asosida avtomatlashtirilishi moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, soliq hisobotlari aniqligini oshiradi hamda inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi. Soliq majburiyatlari hisobi buxgalteriya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, korxonalarning davlat oldidagi moliyaviy javobgarligini ifodalaydi. Bugungi kunda “e-Hisob”, “my.soliq.uz” kabi elektron platformalar soliq organlari bilan axborot almashinuvini tezlashtirmoqda. ERP tizimlari, bulutli texnologiyalar va elektron invoislar asosida hisobot yuritish esa soliqqa oid risklarni kamaytiradi. Soliq hisobining raqamlashtirilishi korxonalarda ichki nazoratni kuchaytirish bilan birga davlat soliq siyosatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu yo‘nalishning o‘rganilishi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Soliq majburiyatlari hisobi — bu xo‘jalik yurituvchi subyektning davlat byudjeti va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi majburiyatlarini aniqlash, hisobga olish va hisobotda aks ettirish jarayonidir. U Soliq kodeksi, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun hamda Moliya vazirligi tomonidan belgilangan milliy buxgalteriya standartlariga asoslanadi.

Soliq majburiyatlari tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

-foyda solig‘i (yuridik shaxslar uchun);
-qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS);
-ijtimoiy soliq;
-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JShODS);
-mol-mulk, yer va suv soliqlari.
-Aylanmadan olinadigan maxsus soliq rejimi

Shu o’rinda biz xo‘jalik yurituvchi subyektlarda soliq majburiyatlari hisobini yuritishda soddalashtirilgan soliq tizimi aylanmadan olinadigan soliq bo’yicha buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli iqtisodiyot sharoitida avtomatlashtirilgan soliq hisobotlarini shaklantirish va taqdim etishda mavjud muammolar ilmiy amaliy yechimlari to’g’risida tadqiqot olib boramiz.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar aylanmadan soliq to‘lash tartibini qo‘llashda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 461-moddasiga asosan soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari1 ushbu soliq to‘lovchilari deb e’tirof etilishi belgilangan. Shuningdek soliq kodeksining 470-moddasiga asosan Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi belgilangan bo‘lib bunda hisobot

[1] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 461-moddasi

davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davridan keyingi davrning 15-fevralidan kechiktirmay.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliqni to‘lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini yuritishda soliq majburiyatlarini bajarishda va to‘g‘ri, shaffof hisob yuritish muhim omil hisoblanadi. Shu o‘rinda mazkur tezisimizda olib borayotgan tadqiqot mavzumiz doirasida majburiyatlar mazmun mohiyatini tushunish mavjud muammolarni bartaraf etish hamda oldini olishda asosiy qadam sifatida qaraladi. Majburiyat - bu xo‘jalik subyektining amalga oshirilgan harakatlari (bitimlar) natijasida shakllangan jalb qilingan mablag‘lar manbai bo‘lib, tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar yoki bajarilgan ishlar uchun kelgusi to‘lovlar uchun yuridik asos sifatida xizmat qiladi[2].

Aylanmadan olinadigan solik tulovi summasi savdo va umumiy ovkatlashni korxonalari misolidan ko‘radigan bo‘lsak olib borilgan savdo faoliyati turlari bo‘yicha ular uchun belgilangan soliq stavkasini har bir faoliyat turiga to‘g‘ri keluvchi soliq solish bazasi summasiga kupaytirish orqalq topiladi. Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovi summasi yil boshidan boshlab o‘sish tartibida hisob-kitob yuritiladi. Jami hisoblangan soliq summasi va oldingi xisob-kntob summasi o‘rtasidagi farq oxirgi xisobot davriga (chorakka) to‘g‘ri keladigan soliq summasini bildiradi. Ushbu summaga buxgalteriyada quyidagi yozuv beriladi:

Debet 9810 «Daromad (foyda)dan soliqlar bo‘yicha xarajatlar»

Kredit 6410 “Byudjetga to‘lovlar bo’yicha qarzlar”.

Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovining byudjetga o‘tkazib berilishiga buxgalteriyada quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar”

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aylanmadan olinadigan soliq hisobini yuritishda hozirgi kunda uchraydigan asosiy muammolar (ayniqsa, kichik biznes segmentida) quyidagilardan iborat:

Xo‘jalik yurituvchi subtektlar AOS to‘lovchilar uchun daromad chegarasi (ayni paytda (1 milliard so'm)) mavjud. Bu chegaradan ozgina oshib ketish korxonani majburan QQS va Foyda solig‘i to‘lash rejimiga o‘tkazadi, bu esa soliq yukini keskin oshirib yuborishi mumkin. Bu o‘tish davrida buxgalteriya hisobida katta murakkabliklarni keltirib chiqaradi va oqibatida chegaraga yaqin ishlaydigan korxonalar o‘sishni to‘xtatishga yoki daromadni yashirishga urinishi mumkin.

Shuningdek AOS rejimida bo‘lgan subyektlar uchun buxgalteriya hisobi qisman soddalashtirilgan bo‘lsa-da, ularning hammasi baribir milliy buxgalteriya standartlari (MBHS) asosida to‘liq hisob yuritishga majburdir (moliyaviy hisobotni topshirish talabi bor). Kichik tadbirkorlar va yakkka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) uchun buxgalteriyani to‘liq yuritishga malakali kadr yo‘qligi yoki qimmatligi sababli hisobotlarda xatolar yuzaga keladi.

Xulosa: Aylanmadan olinadigan soliq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq majburiyatlarini soddalashtirish va fiskal barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu soliq turini amaliyotda qo‘llashda axborot texnologiyalarini keng joriy etish, nazorat tizimlarini avtomatlashtirish va kadrlar malakasini oshirish zarur. AOS hisobini to‘g‘ri yuritish korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshiradi, davlat byudjetiga barqaror tushumlarni ta’minlaydi hamda soliq siyosatining samaradorligini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari: www.soliq.uz

[2] A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A.Jumanazarov “Buxgalteriya hisob” Darslik “Iqtisod Moliya” 2019 yil 516 bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-dekabrdagi PQ–451-sonli qarori “Soliq ma’murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A.Jumanazarov “Buxgalteriya hisob” Darslik “Iqtisod Moliya” 2019 yil
5. F.T.Abduvaxidov, I.N.Qo’ziyev, SH.X.Dadabayev “Buxgalteriya hisobi” 2019 yil
6. M.SH.Mamatqulov, A.Z.Tabayev “Buxgalteriya hisobi” o’quv qo’llanma 2022 yil.

UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TAMINLASHDAGI ROLI

Yusupov Gulboy Amirovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-3502-9917
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525833

Annotatsiya: Ushbu maqola korxonalarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini ta’minlashda uzoq muddatli aktivlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Uzoq muddatli aktivlarning mohiyati, tasnifi, hisobga olish tartibi va eskirish usullari yoritiladi. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlar auditining maqsadlari, asosiy bosqichlari va amalga oshiriladigan protseduralari batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqolada ushbu jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Uzoq muddatli aktivlar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, eskirish, amortizatsiya, aktivlar auditi, moliyaviy hisobot, baholash, aktivlarning qimmatsizlanishi, MHXS (IFRS), milliy hisob standartlari.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini diversifikatsiya va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda[1]. Moliyaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri sifatida uzoq muddatli aktivlar — ya’ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar hamda uzoq muddatli investitsiyalar — korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy resurslardandir.

Uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanish, ularning yangilanish sur’ati va amortizatsiya siyosatining oqilona yuritilishi korxona kapitalining aylanish tezligi, rentabellik darajasi hamda investitsion jozibadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiy o‘sishning innovatsion bosqichida korxonalarning texnik va texnologik bazasini mustahkamlash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda[2].

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan “O‘zbekiston –2030” strategiyasi doirasida ishlab chiqarishning texnologik yangilanishini jadallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va mahalliy korxonalar moliyaviy mustaqilligini oshirish bo‘yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar ham uzoq muddatli aktivlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli aktivlarning hajmi va ulardan foydalanish samaradorligi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 370 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichning 60 foizdan ortig‘i sanoat va infratuzilma tarmoqlariga yo‘naltirilgan. Bu esa korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilashga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida uzoq muddatli aktivlardan foydalanish samaradorligi bir xil emas. Sanoat, transport va energetika sohalarida asosiy vositalarning eskirish darajasi 35–45 foizni tashkil etmoqda, bu esa moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun modernizatsiya va kapital ta’mirlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish zaruratini bildiradi.

Korxonalarning moliyaviy hisobotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli aktivlarning yuqori ulushi aktivlar umumiy hajmida korxonaning uzoq muddatli investitsion siyosat yuritayotganini bildiradi. Ammo ayrim hollarda aktivlarning qayta baholanishi, eskirish koeffitsientining ortishi hamda amortizatsiya siyosatining yetarli darajada samarali bo‘lmasligi natijasida korxona rentabelligi pasayib, likvidlik darajasi kamayadi.

[1] G‘ulomov S.S., Xodiev B.Y., Abdullaeva G.R. Korxona iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Korxonalarda moliyaviy tahlilni amalga oshirish metodikasi”. – Toshkent: Moliya, 2021.

So‘nggi yillarda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va “Sanoat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida asosiy vositalarni yangilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu islohotlar uzoq muddatli aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish, lizing va kredit mexanizmlarini soddalashtirish natijasida ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalarni yangilashga bo‘lgan faolligi ortmoqda. Shu bois, uzoq muddatli aktivlarning boshqaruv tizimini takomillashtirish, ularni tahlil qilish va monitoringini avtomatlashtirish hozirgi davrda muhim strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy barqarorlikka ta’sirini baholashning an’anaviy usullari ko‘p hollarda faqat asosiy vositalarning hajmi yoki amortizatsiya darajasiga tayanadi. Ammo zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bu yondashuv yetarli emas. Shu sababli, ushbu tadqiqot doirasida uzoq muddatli aktivlarning korxona moliyaviy barqarorligiga ta’sirini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi “IMA (Integrated Model of Assets)” nomli integrallashgan tizim taklif etiladi[3].

IMA modeli uzoq muddatli aktivlarning yangilanishi, eskirishi va ularning foyda keltirish samaradorligini kompleks baholashga asoslanadi. Tizim moliyaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy ko‘rsatkichni – “Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy barqarorlik indeksi (I_mb_a)” ni hisoblash imkonini beradi.

Tizimning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Uzoq muddatli aktivlarning yangilanish koeffitsienti:

$$K_y = \frac{A_{yangi}}{A_{Umumiy}} x\ 100\%$$

Bu yerda:

A_{yangi} – hisobot davrida kiritilgan yangi asosiy vositalar qiymati;

A_{umumiy} – uzoq muddatli aktivlarning umumiy qiymati.

Mazkur ko‘rsatkich korxonada modernizatsiya jarayonlari qay darajada faol kechayotganini ifodalaydi.

2. Eskirish (amortizatsiya) koeffitsienti:

$$K_y = \frac{A_{eskirgan}}{A_{Umumiy}} x\ 100\%$$

Bu yerda $A_{eskirgan}$ – amortizatsiya summasi.

Mazkur ko‘rsatkich uzoq muddatli aktivlarning texnik holatini baholashga xizmat qiladi.

3. Uzoq muddatli aktivlardan foydalanish samaradorligi:

$$E_{faol} = \frac{Sof\ foyda}{Uzoq\ muddatli\ avtivlar\ qiymati} x\ 100\%$$

Bu nisbat aktivlarning foyda keltirish darajasini, ya’ni ularning moliyaviy natijalarga ta’sirini ko‘rsatadi.

4. Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy barqarorlik indeksi (asosiy integrallashgan formula):

$$I_{mba} = \frac{K_y x E_{Faol}}{K_e} x\ 100\%$$

Ushbu ko‘rsatkich uzoq muddatli aktivlarning holati va ularning korxona moliyaviy barqarorligiga ta’sirini yagona tizimda aks ettiradi.

Agar I_{mba}>1 bo‘lsa — uzoq muddatli aktivlar samarali boshqarilmoqda, korxona moliyaviy barqarorligi mustahkam.

Agar I_{mba}=1 bo‘lsa — barqaror holat, aktivlar balans holatini saqlab turibdi.

Agar I_{mba} <1 bo‘lsa — aktivlarning eskirishi yuqori, modernizatsiya va investitsiyalar talab etiladi.

Taklif etilgan IMA tizimi yordamida korxonalar uzoq muddatli aktivlardan foydalanish holatini raqamli platforma asosida avtomatik tahlil qila oladi.

[3] Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. Financial Management: Theory and Practice. – Boston: Cengage Learning, 2022.

Natijada:

- aktivlarning texnik va iqtisodiy holati real vaqt rejimida baholanadi;
- moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi investitsion qarorlar tezkor qabul qilinadi;
- amortizatsiya siyosatini optimallashtirish orqali foyda va likvidlik darajasi oshadi.

Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy barqarorlikdagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilinganda, ularning iqtisodiy tizimdagi funksional ahamiyati, kapital aylanishi va ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekani aniqlanadi. Moliyaviy barqarorlik — bu nafaqat korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyati, balki uzoq muddatli resurslar tuzilmasining optimal darajada shakllanishi bilan ham bevosita bog‘liq.

Uzoq muddatli aktivlarning holati, ularning yangilanish sur’ati, amortizatsiya siyosati va rentabellik darajasi moliyaviy barqarorlikning nazariy modelida determinatsiyalovchi o‘zgaruvchilar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, IMA (Integrated Model of Assets) tizimi aktivlarning sifat, tuzilma va foydalanish samaradorligini kompleks tarzda baholash imkonini beruvchi nazariy asoslangan yondashuvdir.

Mazkur model moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda uzoq muddatli aktivlar boshqaruvini integrallashgan tahliliy tizim sifatida talqin etadi. Natijada, aktivlar boshqaruvi jarayonida raqamli yondashuv va ilmiy modellashtirish asosida qaror qabul qilish konsepsiyasi shakllanadi. Nazariy jihatdan, uzoq muddatli aktivlarning barqaror ishlashi korxonaning kapital tuzilmasini mustahkamlab, iqtisodiy o‘sishning strategik poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонуни. Янги таҳрири. 2016 йил 13 апрель ЎРҚ-404-сон. www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикасининг “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни. 2000 йил 26 май, ЎРҚ-78-II-сон. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Korxonalarda moliyaviy tahlilni amalga oshirish metodikasi”. – Toshkent: Moliya, 2021.
4. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. Financial Management: Theory and Practice. – Boston: Cengage Learning, 2022.
5. G‘ulomov S.S., Xodiev B.Y., Abdullaeva G.R. Korxona iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MEHNAT HAQI BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT

Shukurov Zafar Nazarovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Moliya va bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Zafar Shukurov 3250@gmail.com
Tojiddinov Xusan
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultiteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo’nalishi IV-bosqich talabasi.
Tel:+998 97 153 26 04
E-mail:tojiddinovhusan20@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525853

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mehnat haqini buxgalteriya hisobiga olish va xodimga ish haqi hisoblash yo’llari uslublari va uning qonunchilik bilan bog’liqligi o’rganilgan

Kalit so’zlar:mehnat haqi,vaqtbay ish haqi,ishbay ish haqi,ta’rif setkasi,ta’rif razryadi.

Xalqaro amaliyotda kompaniyalar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning turli darajada belgilanishi, hisobda va hisobotda aks ettirishi, ichki nazorat yuritish va audit qilish tartiblari bir qator iqtisodiy-ijtimoiy huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi. Kompaniyalarda xodimlarning ish vaqti, vazifalarning turli darajadaligi, hamda, noan’anaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, mehnatga haq to‘lashning hisobini xalqaro standartlar va xorijiy tajriba asosida yuritish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mehnatga haq to‘lash – ish beruvchining qonunlarga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, jamoaviy bitimlarga va mehnat shartnomalariga muvofiq ish beruvchilarning xodimlar mehnatlari uchun haq hisoblash va to‘lashlarini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimidir[1].Mehnat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas va uning eng ko‘p miqdori biron-bir tarzda cheklanmaydi[2].

Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo‘yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo‘ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish haqidagi kelishuvdan oldin qo‘shimcha holatlar (tanlovdan o‘tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo‘lishi mumkin.

Mehnat shartnomasining mazmuni taraflar kelishuvi bo‘yicha, shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan quyidagilar belgilanadi:

– ish joyi(korxona yoki uning bo‘linmasi);
– xodimning mehnat vazifasi
– mutaxassisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;
– ishning boshlanish kuni;
– mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;
– mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo‘lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi. Mehnat shartnomalari:

– nomuayyan muddatga;
– besh yildan ortiq bo‘lmagan muayyan muddatga;
– muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallab tuzilishi mumkin[3].

[1] K.B.Urazov “Buxgalteriya hisobi va audit” O’quv qo’llanma. T-2024
[2] O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. IX bob, 153-modda
[3] Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim uzrli sabablarga ko‘ra ishda bo‘lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga kiritilmaydi.

Mehnat shartnomasi quyidagi sabablarga ko‘ra bekor qilinishi mumkin:

1)taraflarning kelishuviga ko‘ra.Ushbu asosga binoan mehnat shartnomasining barcha turlari istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin;

2)taraflardan birining tashabbusi bilan;

3)muddatning tugashi bilan;

4)taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra;

5)mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra. Mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to‘g‘risidagi shart mehnat shartnomasida bu shartnoma ish beruvchi tomonidan korxona rahbari, uning o‘rinbosarlari, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo‘lmagan taqdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilganda, shuningdek qonunda yo‘l qo‘yiladigan boshqa hollarda ham nazarda tutilishi mumkin.

6)yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo‘yicha o‘tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Ish haqi bo’yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar ish bay va vaqtbay ish haqini hisoblash deb quyidagicha hisoblagan.

ishbay ish haqi shaklida ishlovchi xodimga asosiy ish haqi summasi uning haqiqatda bajargan ish hajmini bir birlik ish uchun belgilangan ish haqi me„yoriga ko’paytirish yo’li bilan topiladi;

vaqtbay ish haqi shaklida ishlovchi xodimga asosiy ish haqi summasi uning haqiqatda ishlagan soatlari yoki kunlari sonini bir soatlik yoki bir kunlik o’rtacha ish haqiga ko’paytirish yo’li bilan topiladi deb taqidlagan.[4]

Odatda, har qanday korxonaning asosiy maqsadi foydani oshirish va xarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Amaliyotda esa, ayrim boshqaruv xodimlari xarajatlarni shakllantirish va kamaytirish bo’yicha to’g’ri siyosat yuritmaydi. Natijada, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasi past bo'ladi.

Xodimlar mehnatiga haq to‘lashni tashkil etish asosi sifatida Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha yagona tarif setkasidan foydalanuvchi tashkilotlar mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib, qo‘llanilayotgan tarif koeffitsiyentlari o‘z vaqtida qayta hisoblab chiqilishini ta’minlasin.[5]

Ish haqi xodimning malakasi, bajarayotgan ishining murakkabligi va mehnat sharoitlariga qarab ta’rif setkasi, ta’rif razriyadi va koeffitsient asosida belgilanadi.

Ta’rif setkasi – bu ishchi va xizmatchilarning kasbi hamda lavozimiga qarab ularning ish haqi darajasini aniqlovchi hujjatdir.

Ta’rif razriyadi – bu xodimning malaka darajasini bildiradi va ishning murakkabligi oshgani sari yuqoriroq razryad belgilanadi.

Koeffitsient esa har bir razryad uchun bazaviy tarif stavkasiga nisbatan ko‘paytmani ifodalaydi.

Byudjet tashkiloti xodimlarga ish haqi hisoblash(maktab o’qtuvchisi misolida) formulasi:

Ish haqi= eng kam oylik ish haqi* razriyad koeffsenti * ishlagan vaqtiga

Misol uchun:8-razryad uchun bazaviy tarif stavkasi — 1 271 000 so‘m,

xodimning razriyadi — 8-razryad,

koeffitsienti — 1,630

oylik ish vaqti — 176 soat.

Ish haqi=1 271 000*1,630= 2 071 730

Xodimlarga ish haqi hisoblashda ta’rif setkasi, razriyadi va koeffitsienti asosida yondashish — bu mehnatni moddiy rag‘batlantirish tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Ushbu tizim xodimning kasbiy malakasi, ish murakkabligi, sifat darajasi hamda ishlab chiqarish samaradorligini hisobga olgan holda ish haqi miqdorini aniqlash imkonini beradi.

[4] “XODIMLAR BILAN HISOB – KITOBLAR AUDITINI TASHKIL ETISHNING AYRIM JIHATLARI” A. N. Danilovna T-2023

[5] https://lex.uz/docs/-4514781

Ta’rif setkasi korxona yoki muassasa xodimlarini ularning kasb turlari va malaka darajasiga qarab tartiblash imkonini beradi. Ta’rif razriyadi esa xodimning amaliy tajribasi, ishni bajarish sifati va murakkablik darajasiga bog‘liq holda belgilanadi. Har bir razryad uchun o‘rnatilgan koeffitsientlar bazaviy tarif stavkasiga nisbatan qo‘llanilib, adolatli mehnat haqini ta’minlashga xizmat qiladi.[6]

Mazkur tizimning afzalligi shundaki, u mehnat natijasini aniq me’yoriy mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Bu esa xodimlarning kasbiy o‘sishiga, ishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishga, yuqori malakaga ega bo‘lishga intilishiga zamin yaratadi. Shuningdek, korxona yoki tashkilot faoliyatida samaradorlikni oshirish, mehnat unumdorligini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[7].

Ta’rif setkasi va razryad tizimi davlat miqyosida yagona mehnat standartlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. U ish beruvchi bilan xodim o‘rtasida mehnat munosabatlarini tartibga soladi, mehnat haqi bo‘yicha adolatli yondashuvni ta’minlaydi va ijtimoiy tenglik tamoyillarini amalga oshiradi.

Umuman olganda, ta’rif setkasi va koeffitsient asosida ish haqi hisoblash tizimi mehnat iqtisodiyotining muhim mexanizmi bo‘lib, u xodimlarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonida raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda jamiyatda adolatli mehnat munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi.2019-yil 12.30;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”
3. “Xodimlar bilan hisob – kitoblar auditini tashkil etishning ayrim jihatlari” A. N. Danilovna t-2023;
4. Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020.
5. K.B.Urazov “Buxgalteriya hisobi va audit” O’quv qo’llanma. T-2024
6. Yo’ldoshev Q.Q “ Mehnat iqtisodiyoti” Toshkent-2019

Foydalanilgan saytlar ro’yxati:

7. https://lex.uz/docs/-4514781.

[6] O’zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi 151-modda
[7] Yo’ldoshev Q.Q “ Mehnat iqtisodiyoti” Toshkent-2019

PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING XO'JALIK FAOLIYATIDAGI AXAMIYATI VA TUZISH TARTIBI

Ismoilov Shapaxat Sodiqovich
Termiz davlat universiteti
«Moliya» kafedrasi katta o'qituvchisi
Tel.+998975326402
E-mail:shapaxat.ismoilov@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525914

Annotatsiya: Maqolada tashkilotning operatsion faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimlari hajmi, "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"ni tuzishda korxona standart jadval ko'rinishidagi ko'rsatkichlarning shaklini ishlab chiqish va hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirishning tartibiga aloxida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: aktiv passiv muomalalar, asosiy faoliyat, operatsion faoliyat, moliyaviy faoliyat, investitsion faoliyat, pul mablag'lari, pul mablag'lari ekvivalenti, pul oqimlari, buxgalteriya hisobi, bulgalteriya hisobining xalqaro standartlari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, moliyaviy hisobot.

Annotatsiya: V stat'ye rasmatrivayet'sya voprosi sostavleniya i razrabotki standartnoy tablitse pokazateley"Otchet' dvijeniya o denejnix sredstv i osoboye vnimaniye udaleno texnichekiye aspekta pokazateley otchetov.

The summary: In this article described question of composing and doing standard tables devoting to "Cash flow statement" and carefully paid attention to the technical aspects of indications of statement.

Klyucheviye slova: operatsii aktiv-passiv, osnovnoy deyatel'nost', operatsionnoy deyatel'nost', finansovoy deyatel'nost', buxgalterskiy uchet, mejdunarodniye standarti buxgalterskogo ucheta, otchet' dvijeniya o denejnix sredstv, finansoviy otchetnost', denejniye ekvivalentiy.

Key words: active and passive operations, main activity, operation activity, financial activity, accounting, balance equity, international accounting standards, cash flow statement, financial statement, internal cycle, financial management.

Moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlarida korxona moliyaviy cholatining hakiqiy o'zgarishini tavsiflaydigan ma'lumotlarni yoritish nazarda tutiladi. Bunda hisobot tuzishda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini tashkil etuvchi moddalar o'rtasidagi harakat bilan bog'lik pul oqimlari hisobot ko'rsatkichlariga kiritilmasligi lozim, degan talab ko'yiladi. Bunday toifadagi sof pul oqimlari korxona pul muomalalarini nazorat qilish va tartibga solishning aniq ob'yektini ko'rsatadi. Bunda korxonaning moliyaviy ahvoliga tashqi ta'sir ko'rsatmaydigan, ichki aylanmalar ko'rsatiladi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda pul mablag'lari oqimini aks ettirish va yoritish muhim ahamiyatga ega. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda schyotlar o'rtasidagi o'zaro pul mablag'lari aylanmalarini ochib berish pulning "bekor aylanishi"ni baholashga imkon beradi.

Bular valyuta mablag'larini konvertatsiyalash, korxonaning joriy va maxsus schyotlaridagi pul mablag'lari qoldiqlarini saqlab turish, kassaga hisob-kito6 schyotidan pul olinishi va kassadan pul mablag'larini xisob-kitob schyotiga topshirish va boshqalar. Ular kapitalning qo'shimcha o'sishiga ta'sir ko'rsatmaydigan bo'lib ko'rinishi mumkin, haqiqatda kurs tafovutlarini, depozit stavkalar bo'yicha foizlar hisoblash va hokazolar hisobiga ko'rsatib o'tilgan aktiv-passiv muomalalar xususiy kapitalning o'zgarishiga olib keladi. SHu jihatlari bilan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot moliyaviy nazorat va moliyaviy menejment sohasiga to'g'ri keladi.

Hisobot pul mablag'larining balansdagi qoldiq summalarinigina emas, pul massasi aylanmalarining summalari bilan o'zaro bog'lashga, korxona pul aylanmalarining tavsifini va manbalarining muhim jihatlarini hamda ushbu aylanmalarning korxona moliyaviy ahvoliga ta'sirini ochib berish, pul kapitali aylanishining samaradorligini tavsiflash imkonini beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning muhim tarkibiy qismlaridan biri mulkdorlar va uchinchi shaxslar tomonidan pul mablag'larining xo'jalik aylanmasiga jalb qilinishi va undan chiqarilishi to'g'risidagi axborotlar hisoblanadi.

Operatsion faoliyat bilan bog'liq pul oqimlari tushumi va sarflanishi to'g'risidagi axborotlar pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning eng muhim elementi hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, moliyaviy va investitsion faoliyat oborotlariga tegishli bo'lmagan, pul kapitali xarakatlanishining barcha moddalari korxonaning odatdagi ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq joriy pul hisob-kitoblari katoriga kiradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning ikkinchi elementi, investitsion faoliyat bilan bog'liq pul aylanmalaridir. Faoliyatning ushbu turi korxona mablag'larining uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlarga, qimmatli kog'ozlarga va kelgusida barqaror daromadlar olishni ta'minlaydigan hukuklarga yondosh bo'lib, shuning uchun kapital aktivlar toifasiga tegishli bo'ladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda korxona standart jadval ko'rinishidagi ko'rsatkichlarning belgilangan shaklini ishlab chiqishi va bosh daftardagi, hamda "kassa", "hisob kitob schyoti", "valyuta schyoti", "bankdagi maxsus schyotlar" va boshqa pul mablag'lari schyotlarining hisob registrlarida aks ettirilgan ko'rsatkichlar bog'liqligidan foydalanishi mumkin.

Agar korxona ma'muriyati moliyaviy axborotlarni to'liq aks ettirishga harakat qilayotgan bo'lsa, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot konsepsiyasini ishlab chiqishi zarur.

Bu kuyidagi sabablardan kelib chiqishi mumkin:

- pul kapitalining harakati pul ekvivalentlarini qo'shgan holda o'rganiladi;
- pul oqimlari to'g'risidagi hisobot axborotdan foydalanuvchilarning talablarini qondirishga yo'naltirilgan;
- majburiy to'lovlar, xodimlar bilan hisob-kitoblar va shunga o'xshashlar bo'yicha pullik majburiyatlarga rioya qilinishi munosabati bilan pul aylanmalari to'g'risidagi axborotlarni ochib berish muhim ahamiyatga egaligi;
- rahbariyat hisobotda tijorat tashkilot ichki pul aylanmalarining shaffofligiga erishishadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy va investitsion faoliyatlari to'g'risidagi axborotlarning pul aylanmalarini balanslashtirishning to'g'ri uslubi ham, egri usuli ham deyarli bir xil. Ushbu vaziyat ta'siri ostida pul oqimlarini balanslashtirishning turli tartiblari bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning mazmuni sezilarli darajada yaqinlashadi.

Qoidaga ko'ra, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning ko'rsatkichlari buxgalteriya balansi yoki hisob registrlarida ham keltiriladi. Lekin hisob universal bo'lishi uchun ma'lumotlarni buxgalteriya schyotlarining nomlari bo'yicha emas, balki muomalalarning xususiyatlariga ko'ra guruhlash lozim

Xalq xo'jaligida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xususan, pul oqimlarini boshqarish uslublarini buxgalteriya xisobining milliy va xalkaro standartlari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Moliyaviy resurslarning faoliyat turlari bo'yicha harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish uchun buxgalteriya hisoboti tarkibida «Pul oqimlari to'g'risida hisobot» mo'ljallangan.

Ushbu hisobot shakli amaliyot uchun nisbatan yangi bo'lib, hozirgi vaqtda uni to'ldirish ko'p hollarda faqat 5110-«Bankdagi hisob-kitob» schyotining ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilmoqda. Ko'pgina xo'jalik yurituvchi sub'yektlarida «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ning mohiyati, tayinlanishi, axborot imkoniyatlari va to'ldirish uslublariga e'tibor berilmaydi. SHuning uchun tavsiyanomaning ushbu bo'limida mazkur hisobotni tuzishning xalkaro va milliy xususiyatlari va boshqaruvni axborot bilan ta'minlashdagi ahamiyati bayon qilinadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - buxgalteriya hisobotining asosiy shakllaridan biri bo'lib, korxona pul mablag'larining kirimi va chiqimi to'g'risidagi axborotlarni umumlashtiradi. U buxgalteriya hisobining yadrosini tashkil etuvchi - "Buxgalteriya balansi" (1-shakl) va "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-shakl) ma'lumotlarini sezilarli darajada to'ldiradi. Ma'lumki, "Buxgalteriya balansi" (1-shakl) korxonaning ma'lum sanadagi moliyaviy ahvolini aks ettiradi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot esa buxgalteriya hisoboti komponentlaridan biri bo'lib, pul mablag'larining hisobot davri boshidan to oxirigacha bo'lgan oraliqdagi o'zgarishlarini tavsiflaydi.

"Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" korxonaning hisobot davridagi moliya-xo'jalik faoliyati natijalarini aks ettiradi. Bu faoliyat pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda tavsiflanadigan, pul mablag'lari holatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Pul oqimlari to'g'risidagi axborotlar shunisi bilan

ahamiyatliki, ular korxonalarning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini jalb qilish hamda ishlatish layoqatini baholash uchun moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga asos yaratib beradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS) va Qo'shma shtatlar buxgalterlik hisobining umum qabul qilingan prinsiplari (US GAAP)ga muvofik, pul mablag'lari korxona tasarrufidagi naqd pullar hamda talab qilinganda olinadigan qo'yilmalardan iborat.

9-sonli «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» nomli BHMS ga muvofik pul ekvivalentlari ma'lum pul summalariga tez va oson almashtiriladigan, hamda qiymatidagi o'zgarib turishi tufayli biroz xatarli bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar.

Demak, pul ekvivalentlari - bu yuqori likvidli, qisqa muddatli moliyaviy ko'yilmalar bo'lib, muayyan summaga oson konvertatsiya qilinadi hamda ularga qiymat o'zgarish riski deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Bularga xazina majburiyatlari, muddatli depozitlar, depozit sertifikatlar va shunga o'xshashlarni kiritish mumkin.

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ni tuzishda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari yig'iladi va umumiy summa bilan hisobga olinadi. Moliyaviy qo'yilmalarni pul ekvivalentlari shaklida sotib olish va sotish boshqarish jarayonining bir qismi hisoblanadi. Korxona pul mablag'larini investitsiyalarga o'tkazish va qaytarib o'tkazish, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettirilmaydi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda hisobot davrining oxiriga aks ettirilgan pul mablag'lari va ular ekvivalentlarining qoldig'i, balansdagi hisobot davri oxiriga aks ettirilgan pul mablag'lari va ular ekvivalentlarining qoldig'iga teng bo'lishi lozim. Pul ekvivalentlari sifatida hisobga olinadigan pozitsiyalar, shu tarzda, balansda qisqa muddatli moliyaviy ko'yilmalar yoki bozor qimmatli qog'ozlaridan ajratib ko'rsatilishi lozim. Qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish muomalalari natijasida pul mablag'lari kirimi va chiqimi sodir bo'lib ular ham pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda faqat pul mablag'lari to'g'risidagi schyotlar: 5000-«Kassadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar», 5100-«Hisoblashish schyotidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar», 5200-«CHet el valyutasidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar», 5500-«Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar», 5600-«Pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schyotlar» va 5700«Yo'ldagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq pul ekvivalentlarini aniqlash uchun korxona 5610-«Pul ekvivalentlari»(turlari bo'yicha) schyoti, 5700-«Yo'ldagi pul mablag'lari (jo'natmalari)» schyoti va 5800-«qiska muddatli moliyaviy ko'yilmalar» (dastlabki so'ndirilish muddati uch oydan oshmaydigan moliyaviy qo'yilmalar qismi)da aks ettiriladigan ma'lumotlardan foydalaniladi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishchi schyotlar rejasida yukori likvidli moliyaviy ko'yilmalarni (qoplash muddati uch oygacha bo'lgan) aks ettiradigan analitik pozitsiyalarni ajratish zarur.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda pul mablag'larining kirimi va chiqimi asosan uchta tasnifiy toifaga bo'lingan: operatsion faoliyat, investitsion faoliyat va moliyaviy faoliyat. Pul oqimlarini ushbu toifalar bo'yicha guruhlash korxona faoliyatidagi uchta asosiy yo'nalishdan har birining pul mablag'lariga ta'sirini aks ettirishga imkon beradi. Uchala toifaning pul mablag'lariga birgalikdagi (uyg'unlashgan) ta'siri pul mablag'larining boshlangich va oxirgi qoldig'ini solishtirib tekshiradigan davrdagi sof o'zgarishini ko'rsatadi.

Investitsion faoliyat pul oqimlariga kiritilmagan uzoq muddatli bu- xo'jalik yurituvchi sub'yektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek sub'yektning investitsiya va moliyaviy faoliyatiga tegishli bo'lmagan boshqa xo'jalik faoliyati.

Qoidaga ko'ra korxonaning ***operatsion faoliyati*** mahsulot, ish va xizmatlarni sotishga yo'naltiriladi. Operatsion faoliyatdan olinadigan pul mablag'larining xarakati korxonaning investatsion va moliyaviy faoliyatiga kirmaydigan barcha operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Demak, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va 6oshqa uzoq muddatli aktivlarni xarid qilish va sotish investitsion faoliyatping asosiy komponentlari hisoblanadi. Tegishli pul tushumlari va chiqimlari "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"ning "investitsion faoliyat" bo'limida aks ettiriladi. Investitsion faoliyat bilan bogliq pul

mablag'lari harakati kelgusida foyda keltiradigan va pul mablag'lari harakatini vujudga keltiradigan resurslarga nisbatan qaratilgan.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish maqsadida 9-BHMSga muvofiq ***moliyaviy faoliyat*** - bu xo'jalik yurituvchi sub'yektning faoliyati natijasida xususiy kapital va qarz mablag'lari miqdorlari va tarkibida o'zgarish qilishi mumkin bo'lgan faoliyat.

Demak, moliyaviy faoliyat natijasida korxona xususiy kapitali va majburiyatlarining hajmi hamda tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lar ekan. Bunday faoliyat bilan bog'liq vujudga keladigan pul mablag'lari harakati «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ning «moliyaviy faoliyat» bo'limida aks ettiriladi. Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq pul mablag'lari harakati to'g'risidagi axborotlar pul mablag'larining kelgusidagi hajmini bashorat qilishga imkon beradi.

SHunday qilib, moliyaviy hisobot xalkaro standartlari (MHXS) va milliy standartlar bo'yicha moliyaviy faoliyatni ta'riflashdagi asosiy farq MHXS ga muvofik moliyaviy faoliyat qisqa muddatli investitsiyalar kabi uzoq muddatlilarni ham o'z ichiga oladi. Ayni paytda milliy standartlar moliyaviy faoliyatga faqat qisqa muddatli investitsiyalarni kiritadi. Bayon qilinganlar munosabati bilan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni MHXS asosida tuzishda moliyaviy faoliyatning tegishli ta'rifidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Buxgalteriya hisobi kassa usuli bo'yicha yuritilganida daromadlar pul mablag'lari olingan paytda, xarajatlar esa to'langan paytda hisobga olinadi. Bunday tartib asosan korxonaning asosiy faoliyatidan olingan pul mablag'lari harakatiga e'tiborni qaratish zarur bo'lganida juda qulay hisoblanadi. Haqiqatda korxona asosiy faoliyatidan olingan pul mablag'lari harakatining sof natijasi uning kassa usuli bo'yicha hisoblangan foydasiga teng bo'ladi.

Asosiy faoliyatdan olingan pul mablag'lari harakatining sof shatijasini hisob-kitob qilish uchun hisob-kitob bazasini hisoblash usulidan kassa usuliga o'zgartirish talab qilinadi.

Hisob - kitob qilishning to'g'ri usuli operatsion faoliyat pul kirimlari va to'lovlarining asosiy toifalarini hisobga oladi va mohiyatiga ko'ra, kassa usuli asosida tuzilgan, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga o'xshaydi. Hisobkitob qilishning to'g'ri usulini qo'llashda pul mablag'lari summalarini har xil toifalari bo'yicha, yoki bo'lmasa hisoblab qo'yish usuli asosida hisob-kitob qilingan daromadlar va xarajatlarni, kassa usuli asosida hisob-kitob qilingan, tegishli summalarga qayta hisoblab o'tkazish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Ko'pchilik korxonalarda juda katta miqdordagi pul muomalalari amalga oshirilib, bu operatsion faoliyatdan olingan pul mablag'larini aniqlash uchun ularni tahlil qilish va turkumlashni judayam qiyinlashtirib yuboradi. Hisobga olib qo'yish prinsipi bo'yicha hisobda aks ettirilgan summalarni asos sifatida qabul qilish eng samaraliroq uslubi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), O'RQ №404-son, 2016 yil 13 aprel', "Xalq so'zi" gazetasining 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)- soni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobining milliy standartlari" to'plami, T.: O'zBAMA,- 2008 y.
3. Tulaxodjayeva M.M. Finansovaya otchetnost' v sootvetstvii s MSFO. WWW/norma uz.
4. Eshonqulov A.Q. Korxonalarda pul oqimlari to'g'risida hisobotni takomillashtirish. JURNAL OF MARKETING, BUZINES OF MANAGAMENT (JMBM).

ASOSIY VOSITALARNING BOSHLANG‘ICH QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Ismoilov Asliddin Abdusalom O‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
tel:+998906444888
E-mail:asliddinismoilov6225@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525931

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Asosiy vositalarning to‘g‘ri baholanishi korxona moliyaviy barqarorligi, amortizatsiya summalari va foyda miqdoriga bevosita ta’sir etishi o‘rganilib, ilmiy takliflar berildi.

Kalit so‘z. Asosiy vositalar, boshlang‘ich qiymat, baholash, BHMS, amortizatsiya, buxgalteriya hisobi, soliq hisobi, tahlil, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot.

Abstract. This article scientifically analyzes the issues of forming the initial value of fixed assets in the activities of business entities in a market economy. It is studied that the correct valuation of fixed assets directly affects the financial stability of the enterprise, depreciation amounts and the amount of profit.

Key word. Fixed assets, initial cost, valuation, BHMS, depreciation, accounting, tax accounting, analysis, international standards, financial reporting.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы вопросы формирования первоначальной стоимости основных средств в деятельности хозяйствующих субъектов в условиях рыночной экономики. Установлено, что правильная оценка основных средств напрямую влияет на финансовую устойчивость предприятия, размеры амортизационных отчислений и размер прибыли.

Ключевое слово. Основные средства, первоначальная стоимость, оценка, BHMS, амортизация, бухгалтерский учет, налоговый учет, анализ, международные стандарты, финансовая отчетность.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subektlarning samarali faoliyat yuritishi, ularning ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishiga bog‘liq. Bu resurslar ichida asosiy vositalar muhim o‘rin tutadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonining moddiy-texnik bazasini tashkil etadi. Asosiy vositalarning to‘g‘ri baholanishi, boshlang‘ich qiymatini aniqlash buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda asosiy vositalarni hisobga olish, ularning qiymatini qayta baholash va modernizatsiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 5-sonli “Asosiy vositalar” buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) va 2024-yil 9-avgustdagi 3546-sonli farmon asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini aniqlash, qayta baholash hamda ularni hisobdan chiqarish tartibini takomillashtirdi.[1] Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini to‘g‘ri belgilash korxonaning moliyaviy barqarorligini, amortizatsiya qiymati va foyda miqdorini bevosita ta’sir qiladi. Buxgalteriya hisobida xatoliklar esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini pasaytiradi, soliq majburiyatlarini noto‘g‘ri aniqlashga olib keladi. Shu bois ushbu mavzuni ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodchi va erkin tatqiqotchi olimlar tomonida asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymatini aniqlash, boshlang‘ich qiymatni shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish jarayoni bilan bog‘iq bir qancha izlanishlar va ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Misol uchun, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, Popov A.Yu asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakillantirish haqida ilmiy maqolasida quydagicha fikir bildirgan, “zamonaviy sharoitda yangi buxgalteriya hisob va hisobot qoidalariga o‘tishda, asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini aniqlash masalasi alohida dolzarblikka ega, chunki uning aniqligi korxona moliyaviy

[1] https://lex.uz/uz/docs/7058293

hisobotlarining ishonchliligiga hamda aktivlar boshqaruvining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi".[2] Marquette University accounting fakulteti tadqiqotchisi- Jodi L. Gissel asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati bo'yicha shunday deydi "boshlang'ich qiymatni belgilash jarayonida faqat aktivni sotib olish uchun to'langan pul summasi yetarli bo'lmasligi, balki aktivni o'sha holatga — foydalanishga tayyor holatga — olib kelish uchun zarur bo'lgan boshqa xarajatlarni ham hisobga olinishi zarurligini ta'kidlaydi.[3]

E. Mamasoliyev asosiy vositalar bilan bog'liq jarayonlarni o'rganib o'zining tadqiqot maqolalarida asosiy vositaning boshlang'ich qiymati haqida shunday deydi, "Boshlang'ich qiymat – to'langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig'imlarni), shuningdek aktivni undan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish

bo'yicha qilingan xarajatlarning qiymatidir.[4]

Yuqoridagi tatqiqotchilarni fikrini o'rganish orqali asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, uni xarid qilishdan boshlab to'liq ishchi holatga kelgunga qadar bo'lgan barcha xarajatlar yig'indisi natijasida shakllanishini bilib oldik. Agar korxona asosiy vositani o'zida qurganda ,qurilish jarayoni bilan bo'lgan barcha xarajatlar (xom-ashyo va material,ish haqqi,soliq va yig'imlar, eskirish xarajatlari va boshqa xarajatlar) hisobga olgan holda uning tannarxi orqali boshlang'ich qiymatni aniqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishimizni o'rganishda analiz, sintez ,deduksia, induksia usullaridan foydalandik. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini shakillantirishda xisobga olinadigan xarajatlar ,ularning turlari tahlil qilinib, mavjud muamolarga takliflar berildi.

Tahlil va natijalar

Korxonalar asosiy vositalarni bir nechta yo'llar bilan korxona balansiga kirim qiladi. Bular asosiy vositani sotib olish, qurish, tekinga hadiya sifatida olish, korxonaga tegishli aktivlarga ayriboshlash orqali bo'lishi mumkin. Korxona asosiy vositani o'zi qurganda uni qurishga ketgan xarajatlar orqali shakllangan tannarxga boshlang'ich qiymat sifatida qaraydi. Tekinga hadiya sifatida olganda uning boshlang'ich qiymati real bozor bahosini topish orqali aniqlanadi. Sotib olinganda, shartnoma bo'yicha kelishilgan summa va asosiy vositani tashish, ornatishga qilingan harajatlarni hisobga olish orqali aniqlanadi. Korxonalar asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini shakillantirish davomida bir qancha muamolarga yuz kelishi mumkin. Bu asosiy vositani sotib olish, yetkazib berish, o'rnatish. ishga tayyorlash, ishlab chiqarishga tayyorlash jarayonlarida yuzaga keladigan xarajatlar bilan bog'liq. Aynan shu jarayonlar bilan bog'liq xarajatlarni to'g'ri shakllantirmaslik asosiy vositaning real boshlang'ich qiymatini kamaytirib yuboradi, natijada korxona ortiqcha sarf xarajatga yo'l qo'yadi. Noto'g'ri shakillantirilgan boshlang'ich qiymat orqali korxona balansiga kirim qilingan asosiy vositaga, hisoblangan eskirish summalarida ham hatoliklar yuzaga keladi.

Tahlil qilish jarayonida 5-son BHMS "asosiy vositalar", standartida va soliq qonunchiligida normalar o'rganildi .Natijada asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini shakillantirish bilan bog'liq bir qancha muammolar aniqlandi.

-baholashdagi noaniqliklar, ayrimasosiy vositalar qiymati bozordagi haqiqiy narxdan farq qiladi, bu esa balans qiymatini noto'g'ri aks ettirishga olib keladi.

-amartizatsiya siyosatining nomuvofiqligi, korxona asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini shakillantirishda yo'l qo'yganligi sababli,solishtirma tahlil va moliyaviy natijalarda farq paydo bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

[2] *Первоначальная оценка основных средств в бухгалтерском учёте: ближайшие перспективы* (Журнал «Крымский научный вестник», №3(9), 2016).
[3] *A Case of Fixed Asset Accounting: Initial and Subsequent Measurement*, "Journal of Accounting Education", Vol. 37 (Dec 2016): 61-66.
[4] Mamasoliyev, E.D. (2024). Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishning vazifalari. InLibrary.uz. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/30160/30924

Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakillantirish bo‘yicha qilingan tahlillar orqali quydagicha hulosalarga kelish mumkin. Amalda buxgalteriya hisobini yuritish bo’yicha BHMS qo‘llanishga qaramasdan, korxonalar asosiy vositani boshlang‘ich qiymatni shakllantirish jarayonini to‘g‘ri va yagona metodi asosida tashkil etishda muammo bor. Bular jumlasiga baholashda nomuvofiqlik, hisob siyosatidagi farqlar, amartizatsiya usullarini turlicha qo‘llanishi va bozor baholarining muvofiqligi yetarli darajada bo‘lmasligi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositani boshlang‘ich qiymatini shakllantirishdan asosiy maqsad-aktivning real qiymatini aniqlash, u orqali korxonaning moliyaviy holatini ifodalash, hisobotlar aniqligi va to‘g‘riligini ta’minlashdan iborat.

O‘rganilgan manbalar va mavjud muammolarni hisobga olib asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymatini shakillantirish bo‘yicha quydagicha takliflarni berishimiz mumkin.

-normativ huquqiy baza hisoblangan BHMSni xalqaro standartlarga moslashtirish.

-baholash metodini joriy qilish, boshlang‘ich qiymatni shakillantirishda xarajatlar, transport, montaj, bojxona to‘lovlari va boshqa xarajatlarni standartlashtirish kerak.

-amalyotda raqamli texnalogiyalarni qo‘llash, asosiy vositani hisobga olish jarayonida, boshlang‘ich qiymatni aniqlashda elektron reyestrlar va dasturlarni joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahrir), 13.04.2016y № 404.
2. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Standarti (5-Sonli Bhms) “Asosiy Vositalar”Ni Tasdiqlash Haqida
3. [O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Tomonidan 2024-Yil 9-Avgust Ro‘yxatdan O‘tkazildi, Ro‘yxat Raqami 3546.
4. Muxametov.A.B, Abduvohidov.A.A, Matkulieva.S.I, Matrasulov.B.E, Turayeva.G.G - “Buxgalteriya hisobi”, 2023-y 462b.
5. Tabayev.A.Z, Mamatkulov.M.SH “Buxgalteriya hisobi” O‘quv qo‘llanma- Toshkent 2022-y, 126b.
6. Mamasoliyev, E.D. (2024). “Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishning vazifalari” to‘g‘risidagi maqolasi.
7. www.lex.uz.
8. https://new.openinfo.uz
9. bhms.uz
10. www.ziyonet.uz
11. buxgalter.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA TAHLIL QILISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH MASALALARI

Mirzanov Berdak Joldasbaevich
Qoraqalpoq davlat universiteti, professor
tel: +998906587820
E-mail: bmirzanov@mail.ru
Joldasbaeva Tillaxan Nuwratdin qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti, magistr
tel: +998932957771
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525943

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimida xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish jarayonlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada xalqaro standartlarga o‘tishning zarurligi, xarajatlarni tan olish va baholashda MHXS tamoyillarining o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, milliy va xalqaro yondashuvlar o‘rtasidagi asosiy tafovutlar tahlil qilingan. MHXS asosida xarajatlar hisobi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishning metodik asoslari, buxgalteriya amaliyotida ularni tatbiq etish yo‘llari hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xarajatlar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlarni tahlil qilish, moliyaviy boshqaruv, audit, iqtisodiy samaradorlik.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda global iqtisodiy makondagi integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish mamlakatning modernizatsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mazkur yo‘nalishning amalga oshirilishi iqtisodiy tizimning ochiqligi, raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, u O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunda, iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi alohida e’tibor markazida turibdi. Chunki global iqtisodiy makonda moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va solishtiriluvchanligi nafaqat ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, balki xorijiy investorlar, moliya institutlari va xalqaro hamkorlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS)ni tatbiq etish uchun mustahkam normativ-huquqiy asos shakllantirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishda muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur qarorga muvofiq, davlat korxonalari hamda yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritish majburiy etib belgilandi. Shu bilan birga, Moliya vazirligi huzurida MHXSni joriy etish bo‘yicha metodik muvofiqlashtiruvchi markaz tashkil etilib, bu standartlarning amaliyotda izchil qo‘llanishi uchun zarur tashkiliy va institutsional asos yaratdi.

Ushbu huquqiy islohotlar xalqaro moliyaviy hisobot tamoyillarini milliy tizimga tatbiq etishning zarurligini ta’minlab, korxonalarning moliyaviy intizomini mustahkamlash, ularning xalqaro auditdan o‘tish imkoniyatlarini kengaytirish va xorijiy investorlar bilan axborot almashinuvi sifatini oshirish imkonini bermoqda.

MHXSga asoslangan shaklda yuritilishi, eng avvalo, korxona faoliyati natijalarini xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, u iqtisodiyotda moliyaviy intizomni mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarining ishonchliligi reytingini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritish investorlar, auditorlar, soliq organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun axborotning aniqligi hamda oshkoraligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish, elektron hisobot tizimlarini joriy etish va korporativ boshqaruv tamoyillarini rivojlantirish jarayonlari MHXS amaliyotini keng qo‘llash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ayniqsa, davlat korxonalarini transformatsiya qilish, ularni xalqaro auditdan o‘tkazish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish jarayonlarida MHXSning ahamiyati beqiyosdir.

MHXS – buxgalteriya hisobi, audit hamda tahlil sohalarida yagona metodologik yondashuvni shakllantirish orqali moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanish darajasini oshirishga xizmat qiluvchi me'yoriy tizim hisoblanadi. MHXSning asosiy maqsadi – turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini yagona tamoyillar asosida ifodalash hamda xalqaro miqyosda taqqoslanadigan hisobot tizimini yaratishdan iboratdir [4].

Yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining amaliy bosqichida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. MHXSni milliy amaliyotga joriy etish buxgalteriya hisobotlarining shaffofligini ta'minlash, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) bilan MHXS o'rtasida konseptual va metodologik jihatdan bir qator tafovutlar mavjud.

Birinchidan, xarajatlar ta'rifi nuqtai nazaridan BHMS da xarajatlar asosan soliqqa oid mezonlar asosida tan olinadi, MHXSda esa iqtisodiy foyda kamayishi tamoyiliga asoslanadi.

Ikkinchidan, aktivlarning qayta baholanishi masalasida MHXSda aktivlarning bozordagi adolatli qiymati (fair value) qo'llaniladi, bu esa ularning haqiqiy bozor bahosini aks ettirish imkonini beradi.

Uchinchidan, moliyaviy natijalarni e'tirof etish jarayonida MHXS foyda va zararlar to'liq qamrab olinadigan tizimni nazarda tutadi, natijada korxonaning moliyaviy holati yanada realroq ifodalanadi.

To'rtinchidan, hisobotlarning taqqoslanish imkoniyati ham muhim farqni tashkil etadi. Milliy tizimda ayrim moliyaviy ma'lumotlar normativ jihatdan cheklangan bo'lsa, MHXSda barcha foydalanuvchilar uchun ochiq, shaffof va solishtiriladigan hisobot shakllari yaratiladi.

Shu boisdan, MHXSning amaliyotga tatbiqi hisob yuritishning faqat texnik yangilanishi emas, balki butun boshqaruv tizimining sifat jihatidan yangilanishi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- xalqaro hisobot yuritish bo'yicha malakali kadrlarning yetishmasligi;
- mavjud buxgalteriya dasturlarining MHXS talablariga to'liq mos kelmasligi;
- me'yoriy-huquqiy bazaning ayrim jihatlarda xalqaro talablardan ortda qolayotganligi;
- moliyaviy natijalarni adolatli baholash uchun zarur bo'lgan bozor ma'lumotlarining cheklanganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda tizimli choralar ko'rish zarur:

- oliy ta'lim muassasalarida MHXS fanlarini chuqurlashtirilgan o'quv dasturlari asosida o'qitish;
- xalqaro tajribaga ega buxgalter va auditorlar tayyorlash bo'yicha malaka oshirish markazlarini kengaytirish;
- hisob va hisobot tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish;
- korxonalar uchun MHXSga mos namunaviy moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etishning muvaffaqiyati uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi fiskal mexanizmlar, grant dasturlari va sertifikatlash tizimlarini yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tatbiq etish natijasida korxonalarda moliyaviy axborotning sifati, tahliliy imkoniyatlari va boshqaruv qarorlarining ishonchliligi sezilarli darajada oshadi. MHXS asosida shakllantirilgan hisobotlar:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda moliyaviy tahlilning aniqligini ta'minlaydi;
- investorlar va kreditorlar uchun ishonchli axborot manbai vazifasini bajaradi;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytiradi;
- davlat korxonalarini transformatsiya qilishda tashqi audit talablari bajarilishini yengillashtiradi [3].

Bundan tashqari, MHXSni joriy etish jarayoni mamlakat iqtisodiyotining global tizimga integratsiyasini jadallashtiradi. «Yangi O'zbekiston» taraqqiyot strategiyasida belgilangan shaffof, raqamli va barqaror iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda MHXS muhim nazariy va amaliy asoslardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida MHXS amaliyotga joriy etish buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish yo‘lidagi strategik bosqich hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, MHXSni tatbiq etish jarayoni nafaqat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlaydi, balki iqtisodiy axborotning sifatini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini kuchaytirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy buxgalteriya standartlarini MHXS talablariga muvofiqlashtirish O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tizimga chuqur integratsiyalashuviga, korxonalarning moliyaviy holatini global miqyosda solishtirish imkoniyatining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarning joriy etilishi auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish, soliq tizimida adolatli baholashni ta’minlash hamda davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, MHXSni amaliyotda to‘liq joriy etish bir qator tizimli muammolar – kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, dasturiy ta’minotlarning moslashuv darajasi pastligi va bozor axborotlarining cheklanganligi bilan bog‘liqdir. Shu sababli, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda kompleks chora-tadbirlar ko‘rish maqsadga muvofiq:

- buxgalteriya hisobi va audit sohalarida xalqaro standartlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish;
- oliy ta’lim muassasalarida MHXS asosida o‘quv modullarini joriy etish;
- raqamli hisob va axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali hisobotlarning sifatini oshirish;
- MHXS amaliyotini joriy etayotgan korxonalarga metodik va axborotiy ko‘makni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda MHXSni joriy etish — iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy intizomni mustahkamlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro moliya tizimida mamlakatning nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar uzoq muddatda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, moliyaviy boshqaruvning ochiqligiga hamda xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ–404-sonli «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida Qonun // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2016.
2. 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qaror // Lex.uz huquqiy axborot portali. – Toshkent, 2020.
3. International Financial Reporting Standards (IFRS). – London: IFRS Foundation, 2023. – 560 p.
4. Wiley 2023 Interpretation and Application of IFRS Standards. — London: Wiley, 2023. — 912 p.
5. Вахрушина М. А., Суйц В. П. Международные стандарты финансовой отчётности и аудита. — Москва: ИНФРА-М, 2021. — 368 с.

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA (MHXS) O‘TISHNING JARAYONLARI VA MASALALARI

Munira Yusupova Chori qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Buxgalteriya hisobi yo'nalishi
2-bosqich talabasi
+998902496406
@yusupovamunira375@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525981

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS)ni joriy etish jarayonlari, u bilan bog‘liq normativ, tashkiliy va texnik masalalar tahlil qilingan. MHXSga o‘tish jarayonining iqtisodiy natijalari, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va xalqaro solishtiruvchanlik darajasiga ta’siri xorijiy tadqiqotlar hamda mahalliy amaliy tajriba asosida o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, MHXSni to‘liq tatbiq etish O‘zbekiston bank tizimida investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: MHXS, bank tizimi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, shaffoflik, investitsiyalar.

So‘nggi yillarda global moliyaviy tizimda ishonch, shaffoflik va ma’lumotlarning solishtiruvchanligini ta’minlash dolzarb masalaga aylandi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) ushbu maqsadlarni amalga oshirishda asosiy mexanizm sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tijorat banklari MHXSga asoslangan hisobot yuritish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Ushbu jarayon mamlakatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish hamda bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shartdir.

MHXSning joriy etilishi natijasida moliyaviy hisobotlarning aniqligi va qiymatga dolzarbligi ortadi. CPA Avstraliya va Chartered Accountants Australia and New Zealand (CA ANZ) tashkilotlarining sertifikatlangan a’zosi hamda Yuksak Ta’lim Akademiyasining (FHEA) a’zosi Müller (2014) o‘z tadqiqotida shunday yozadi:

“The statistical results have confirmed the initial prediction regarding the increase of consolidated statements quality (value relevance) once IFRS were adopted... IFRS adoption in Europe leads to better complying with the OECD Corporate Governance Principle of high-quality disclosure and transparency.” (p.1227) [1] Bu xulosadan kelib chiqadiki, MHXSning asosiy ustunligi — bu axborotning oshkoraligi va ishonchliligini oshirishdir. O‘zbekiston uchun bu tajriba muhim, chunki bank tizimi orqali xalqaro kapitalni jalb qilishda moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi birlamchi omil hisoblanadi.MHXSning mohiyati shundaki — u hisobotni nafaqat tartibga soladi, balki uni strategik boshqaruv vositasiga aylantiradi. MHXSning iqtisodiy samarasi haqida xorijiy va o’zbek olimlari fikr bildirgan. Shulardan Avstraliyalik olim Opare (2019) tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra:

“The findings reveal that IFRS adoption improves market liquidity, enhances information comparability and reduces firms’ cost of capital.” (p.48) [2] Bu holat MHXSning iqtisodiy samaradorligini ochib beradi: standartlashtirilgan hisobotlar orqali kompaniyalar kapitalni arzonroq jalb qilishi, bozor likvidligi va investorlar ishonchini oshirishi mumkin. O‘zbekiston bank tizimida bu ayniqsa muhim, chunki tijorat banklari xalqaro moliya bozorlarida uzoq muddatli resurslar jalb etishda ishonch faktoriga tayanadi. MHXSning iqtisodiy afzalligi shundaki, u milliy bozorni global moliyaviy makonga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

O‘zbekiston bank tizimida MHXSga o‘tish tajribasi va muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.Ergasheva (2023) O‘zbekiston bank tizimidagi MHXSga o‘tish holatini tahlil qilib, quyidagicha yozadi: “SWOT tahlili natijalari MHXSga o‘tishning kuchli tomonlari sifatida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi oshishi va xalqaro investorlar ishonchining ortishini aniqladi. Biroq, zaif tomonlar orasida malakali kadrlarning yetishmasligi va axborot texnologiyalari infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmagani alohida e’tiborga molik.” (p.2–3) [3] O‘zbekiston sharoitida bu fikrlar amalda ham o‘z isbotini topmoqda. MHXSga o‘tish uchun zarur bo‘lgan IT infratuzilma va inson resurslari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa

hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirish va xalqaro auditori talablariga javob berishda qiyinchilik tug‘diradi. MHXSning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun uchta omil muhim: malakali kadrlar tayyorlash, texnologik modernizatsiya va milliy me’yorlarni xalqaro standartlarga moslashtirish.

Xulosa: Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston bank tizimida MHXSga o‘tish xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonining ajralmas qismidir. Xorijiy tajriba (Müller, 2014; Opare, 2019) MHXSning hisobot sifati va bozor samaradorligini oshirishdagi rolini ko‘rsatsa, mahalliy tahlillar (Ergasheva, 2023) bu jarayonning ichki imkoniyat va to‘siqlarini yoritadi.Shu bois, kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Müller, V.O. (2014). The impact of IFRS mandatory adoption on the quality of consolidated financial statements in Europe. Procedia Economics and Finance, Vol.15, pp.1225–1230.
2. Opare, J. (2019). International Financial Reporting Standards Adoption and Its Economic Consequences. Journal of Accounting and Financial Management, Vol.5, No.3, pp.45–58.
3. Ergasheva, F. (2023). O‘zbekiston bank tizimida MHXSga o‘tishning jarayonlari va masalalari. Samarqand Iqtisodiyot Instituti ilmiy to‘plami, №4, pp.

1C: KORXONA" DASTURIDA BUXGALTERIYA HISOBI KONFIGURATSIYASI BILAN ISHLASH ASOSLARI

Muzrapova Shahnoza Saydullayevna
TISU "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi o'qituvchisi
Abdusattorov Abduxalim Abdumo'min o'g'li
TISU "Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)"
yo'nalishi 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17525996

Annotatsiya: Mazkur tezisda "1c: korxona" dasturida buxgalteriya hisobi konfiguratsiyasi bilan ishlash asoslari mavzusi yoritilgan. Ushbu mavzu doirasida 1C dasturining buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishdagi ahamiyati, uning funksional imkoniyatlari hamda korxona moliyaviy faoliyatini samarali yuritishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, 1C: Buxgalteriya konfiguratsiyasining asosiy modullari, ularning vazifalari va foydalanuvchi interfeysi bilan ishlash tamoyillari ko'rib chiqiladi. Ishda 1C dasturida hujjatlar bilan ishlash, schyotlar rejasi, provodkalar tuzish, hisobotlarni shakllantirish hamda soliq hisobotlarini tayyorlash kabi amaliy jarayonlar misolida dasturdan foydalanish ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijasida 1C dasturidan foydalanish korxonalarda hisob-kitoblarning aniqligini ta'minlashi, inson omili xatolarini kamaytirishi va buxgalteriya hisobotini tayyorlashda vaqt tejalishini ta'minlashi aniqlangan. Ushbu mavzu bo'yicha o'rganilgan natijalar buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalari integratsiyasi yo'nalishida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarda avtomatlashtirilgan hisob tizimini joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: 1C dasturi, buxgalteriya hisobi, avtomatlashtirilgan tizim, konfiguratsiya, korxona hisobi, axborot texnologiyalari, provodka, schyotlar rejasi, moliyaviy hisobot, soliq hisobotlari.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. An'anaviy hisob yuritish uslublari inson omiliga bog'liqligi sababli ko'p hollarda xatolarga olib keladi, vaqt sarfini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kechikishlarga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan**,** 1C dasturi bu muammolarning samarali yechimi sifatida amaliyotda keng qo'llanilmoqda. 1C: Korxona (Buxgalteriya hisobi konfiguratsiyasi) dasturi buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, soliq hisobi va hisobotlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan zamonaviy dasturiy majmua hisoblanadi. U nafaqat hisob yuritishni soddalashtiradi, balki korxona faoliyatining barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarini yagona axborot tizimida boshqarish imkonini beradi. 1C dasturining asosiy ustunliklaridan biri — bu moslashuvchan konfiguratsiya tizimi bo'lib, foydalanuvchiga o'z korxonasining tuzilmasi, faoliyat sohasi va hisob yuritish uslubiga mos sozlash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish siyosati doirasida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish talab etilmoqda. Shu ma'noda 1C dasturidan foydalanish nafaqat hisob-kitoblarni tezlashtiradi, balki moliyaviy nazoratni kuchaytiradi, soliqqa oid hisobotlarni xatolarsiz tayyorlashga yordam beradi.

Ushbu mavzuni o'rganishdan ko'zlangan maqsad — 1C dasturi yordamida korxonalarda buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilish**,** dastur konfiguratsiyasining afzalliklarini aniqlash hamda uning amaliy ahamiyatini yoritishdan iboratdir. Natijada, olingan bilim va tajriba zamonaviy buxgalteriya tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxona faoliyatining samaradorligini oshiradi. 1C dasturi — korxonaning moliyaviy, soliq va boshqaruv hisobi jarayonlarini avtomatlashtiruvchi zamonaviy axborot tizimi hisoblanadi. 1C: Buxgalteriya konfiguratsiyasi buxgalterlar uchun qulay interfeys, tezkor hisob-kitob va aniq hisobot tayyorlash imkonini yaratadi. Mavzuning dolzarbligi — bu dastur orqali korxonalarda buxgalteriya ishlarini soddalashtirish va inson omilini kamaytirish imkoniyatidir.

1C dasturi foydalanuvchiga buxgalteriya amaliyotini to'liq avtomatlashtirish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda dastur imkoniyatlari ko'rsatilgan:

1-jadval.

1C: Buxgalteriya dasturining asosiy funksional imkoniyatlari[1]

№	Bo‘lim nomi	Asosiy funksiyasi
1	Hujjatlar bilan ishlash	Kassa, bank, tovar harakati, xizmatlar uchun hujjatlar yaratish
2	Schyotlar rejasi	Buxgalteriya hisobining yagona tizimda yuritilishini ta’minlaydi
3	Provodkalar	Har bir xo‘jalik operatsiyasi uchun avtomatik buxgalteriya yozuvi
4	Hisobotlar	Moliyaviy, soliq va statistika hisobotlarini avtomatik shakllantirish
5	Xodimlar va ish haqi hisobi	Mehnat haqi, soliqlar va ajratmalarni hisoblash
6	Asosiy vositalar hisobi	Inventarizatsiya, amortizatsiya va aktivlar harakati nazorati

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1C: Buxgalteriya dasturi korxonaning buxgalteriya faoliyatini to‘liq avtomatlashtirish imkonini beradi. Dasturda hujjatlar bilan ishlashdan tortib, provodkalar tuzish, asosiy vositalarni hisobga olish va hisobotlarni tayyorlashgacha bo‘lgan barcha jarayonlar yagona tizimda amalga oshiriladi. Bu esa hisob-kitoblarning aniqligi, ma’lumotlarning to‘liqligi va tezkorligini ta’minlaydi hamda buxgalter ishini sezilarli darajada yengillashtiradi. Natijada, 1C dasturi korxona buxgalteriyasi uchun ishonchli, qulay va samarali axborot tizimi sifatida o‘zini to‘liq oqlaydi.

1C dasturi real vaqt rejimida ishlaydi, foydalanuvchilarga tezkor nazorat va tahlil imkonini beradi. Quyidagi jadvalda bu dasturdan foydalanishning amaliy afzalliklari ko‘rsatilgan:

2-jadval.

1C dasturidan foydalanishning afzalliklari[2]

№	Afzallik	Ta’siri
1	Hisob-kitoblarda aniqlik	Xatoliklar va inson omili ta’siri kamayadi
2	Vaqt tejalishi	Hisobotlar avtomatik shakllantiriladi
3	Axborot xavfsizligi	Ma’lumotlar bazasi himoyalangan holda saqlanadi
4	Qulay interfeys	Foydalanuvchilar uchun oson boshqaruv imkoniyati
5	Integratsiya imkoniyati	Bank, soliq va boshqa tizimlar bilan bog‘lash oson

2-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1C dasturidan foydalanish korxona buxgalteriya faoliyatida samaradorlikni keskin oshiradi. Dastur yordamida hisob-kitoblar aniqligi ta’minlanadi, vaqt tejaladi va inson omili ta’siri kamayadi. Shuningdek, tizimning axborot xavfsizligi yuqori darajada bo‘lib, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys va boshqa dasturiy tizimlar bilan integratsiya imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, 1C dasturining ushbu afzalliklari buxgalteriya hisobining sifatini oshirish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va korxona faoliyatini raqamlashtirish jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1C dasturidan foydalanish korxonalarda buxgalteriya jarayonlarini soddalashtiradi, nazorat va tahlilni kuchaytiradi hamda moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur yordamida buxgalterlar qisqa vaqt ichida aniq va to‘liq hisobot tayyorlashlari mumkin. Shu bois, 1C dasturini o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash buxgalteriya hisobini zamonaviy talablarga moslashtirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1C kompaniyasi. “1C: Buxgalteriya 8.3. Foydalanuvchi qo‘llanmasi”. – Moskva: 1C Publishing, 2023.
2. Karimov A. “Buxgalteriya hisobi va audit asoslari”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
3. Rahmonov B., Yo‘ldoshev N. “Axborot tizimlari va texnologiyalari”. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2020.
4. To‘xtasinov U. “1C dasturida buxgalteriya hisobi yuritish usullari” // O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari ilmiy to‘plami. – 2022, №4. – 56–63-betlar.
5. “1C: Buxgalteriya 8.3” rasmiy portali – https://v8.1c.ru/buhv8/ (murojaat sanasi: 16.10.2025).
6. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2016-yil 13-aprel, №404.
7. Raximova Z. “Korxonalarda buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilishi”. – Toshkent: TDIU, 2022.
8. Gromov S., Melnikova E. “1C: Predpriyatie 8.3. Prakticheskoe rukovodstvo”. – Moskva: BHV-Peterburg, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. Soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish yo‘riqnomasi. – Toshkent, 2023.
10. Aliyev X. “1C dasturida buxgalteriya va moliyaviy tahlilni avtomatlashtirish”. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2024.

XO‘JALIK YURUTUVCHU SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA AUDITI JARAYONI TAXLILINI O‘RGANISH.

Nazarov Nodir Nazirjon o’g’li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo‘nalishi talabasi
tel +998 (94) 009 11 95
E-mail: nodirnazarov904@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526017

Annotatsiya: Xo‘jalik yurutuvchi subyektlarning asosiy hamda qo‘shimcha faoilyatdan olinadigan daromadlari yoki soliq hisobotlari koxrxonaning moliyaviy natijalar to‘grisidagi hisobotida aks ettiriladi. Moliya natijalari auditi nafaqat tashkilotning ichki nazorat tizimini yaxshilashga xizmat qiladi, balki investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Tadqiqot moliyaviy natijalar auditining ixtiyoriy auditdan qanday farq qilishini o'rganadi, ularni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy bazalarni ta'kidlaydi. Unda moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, qonun hujjatlariga rioya etish va manfaatdor tomonlar manfaatlarini himoya qilishda moliyaviy natijalar auditning o‘rni alohida ta’kidlangan. Tadqiqot shuningdek, auditorlarning ushbu auditlarni samarali o'tkazishi uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat va malakalarni o'rganadi.

Kalit so`zlar: Moliya natijalari auditi, mustaqillik, shaffoflik, sistematik yondashuv, risklarni baholash, axborot texnologiyalari.

Umuman olganda hozirgi kunda xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliya-xo’jalik faoliyatining moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan natijalarni baholash masalalariga yangicha, zamonaviy yondashuv uslublari juda ham zarur. Ushbu maqolaning maqsadi moliyaviy natijalar hisobotining ketma-ketlik asosida bajariladigan ishlarini, ya’ni uni rejalashtirishdan toki auditorlik hisobot tuzish va auditorlik xulosani rasmiylashtirishgacha bo’lgan auditorlik amallarini bajarishga yordam beradi.

Bundan tashqari, moliyaviy natijalar auditining tekshiruv o’tkazish texnikasi va usuli bo’yicha olgan bilimlarini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Moliya natijalari auditi — tashkilotning moliyaviy hisobotlarini, ularning to'g'riligini hamda moliyaviy faoliyatini baholash jarayonidir. Bu audit turi tashkilotning moliyaviy ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlash, ichki nazorat tizimini baholash va moliyaviy rejalarni ishlab chiqishda yordam berish maqsadida amalga oshiriladi. Moliya natijalari auditi tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon orqali ular o'z moliyaviy holatini tahlil qilib, kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini belgilashlari mumkin[1].

Xorijlik iqtisodchi olim T.Yu. Druzhilovskaya fikriga ko’ra “MHXS tizimida moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari buxgalteriya tizimida moliyaviy hisobot tamoyillari uchun o’ziga xos yo’riqnoma sifatida tanlangani bejiz emas. Darhaqiqat, Rossiya Federatsiyasi Hukumatining qarorlariga muvofiq, barcha ichki buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar qoidalariga mos kelishi asosida isloh qilinmoqda va shuni e'tirof etish kerakki, “Rossiyaning bozor iqtisodiyotida buxgalteriya hisobi kontseptsiyasi” o'sha davrda MHXS tizimida amalda bo'lgan "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asoslari” ga asosan yaqin edi deb” ta’kidlaydi[2].

Iqtisodchi olima Sh.Ergasheva fikricha, moliyaviy hisobotning konseptual asoslari (ingliz tilidan “Conceptual Framework for financial reporting yoki shunchaki 'IFRS Framework”) barcha MHXS standartlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. MHXSning konseptual asoslari o‘z-o‘zidan standart emas, lekin u moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha ba’zi tavsiyalarni o‘z ichiga olgan holda juda muhimdir. Konseptual asoslardagi o‘zgarishlar bironta standart muayyan operatsiya yoki voqea uchun qo‘llanmasligi vaziyatlarida MHXS qo‘llashga ta’sir qilishi mumkin deb ta’kidlaydi[3].

---

[1] Quziyev I.N. Auditorlik xisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish nazaryasi va metodologik masalalar. Monografiya. –T “Iqtisod-Moliya”, 2015 yil

[2] Т.Ю. Дружиловская / Международный бухгалтерский учет, 2017, т. 20, вып. 10, стр. 596–610 http://fin-izdat.ru/journal/interbuh//.

[3] Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

Ilmiy nuqtai nazardan, Druzhilovskaya va Ergasheva fikrlari O‘zbekiston uchun amaliy jihatdan dolzarb va ijobiy yo‘nalish ko‘rsatadi, chunki ularning asosiy g‘oyasi – buxgalteriya tizimini MHXS konseptual asoslariga yaqinlashtirish – mamlakatimizda ham amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatiga mos keladi. Ammo, MHXS konseptual asoslarini to‘liq joriy etishdan oldin, quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- Buxgalterlarning malakasini oshirish va xalqaro sertifikatlash tizimini kengaytirish.
- Milliy normativ hujjatlarni MHXSga moslashtirish.
- Kichik korxonalar uchun soddalashtirilgan MHXS (IFRS for SMEs) tizimini keng joriy etish.
- Axborot texnologiyalari asosida buxgalteriya tizimini modernizatsiya qilish.

Moliya natijalari auditi — bu tashkilotning moliya hisobotlari va operatsiyalarining aniqligini va ishonchliligini ta'minlash uchun o'tkaziladigan mustaqil tekshiruvdir. Ushbu auditorlik jarayoni quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zlaydi:

1. Ishonchlilikni ta'minlash: Tashkilotning moliya hisobotlari aniq va to'liq ekanligini tasdiqlash.
2. Ichki nazorat tizimini baholash: Tashkilot ichidagi nazorat mexanizmlarining samaradorligini tahlil qilish.
3. Normativ hujjatlarga muvofiqlik: Davlat qonunlari va xalqaro standartlarga amal qilinishini tekshirish.
4. Moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish: Tashkilotning moliya ko'rsatkichlarini o'rganib chiqish va ularning samaradorligini baholash.

Moliya natijalari auditi, tashkilotlarni moliyaviy hisobotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan muhim jarayondir. Ushbu tezisda moliya natijalari auditining asosiy xususiyatlari, uning ahamiyati va o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Audit jarayoni, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda muhim rol o'ynaydi[4].

Xulosa

Umuman olganda, Moliya natijalari auditi — bu har qanday tashkilot uchun zarur bo'lgan jarayon bo'lib, u nafaqat moliya hisobotlarini yaxshilaydi balki ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlaydi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishni ta'minlaydi. Bunday audit orqali tashkilot o'z faoliyatini yanada samarali olib borishi mumkinligini anglaydi va investorlar hamdamanfaatdor tomonlarga ishonchli axborotni taqdim etishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
2. Quziyev I.N. Auditorlik xisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish nazaryasi va metodologik masalalar. Monografiya. –T “Iqtisod-Moliya”, 2015 yil.
3. Т.Ю. Дружиловская / Международный бухгалтерский учет, 2017, т. 20, вып. 10, стр. 596–610 http://fin-izdat.ru/journal/interbuh//.
4. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 221-226.

[4] Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 221-226.

DAVLAT SEKTORIDA AUDIT JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH: XATOLIKLARNI MINIMALLASHTIRISH VA MEHNAT RESURSLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Ochilov Ilyos Keldiyorovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, “Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrasi professori,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Toshkent, O‘zbekiston.
i.ochilov@tsue.uz,
ilyos040171@gmail.com,
ilyos0471@mail.ru.
ORCID: 0000-0002-3350-0891
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526389

Annotatsiya: Ushbu maqola davlat sektorida audit jarayonlarini avtomatlashtirish masalalarini, ayniqsa, xatoliklarni aniqlash va mehnat resurslaridan samarali foydalanish jihatlarini tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida audit tizimlari ham o‘zgarishga uchramoqda. Davlat tashkilotlarida audit jarayonlarini avtomatlashtirish nafaqat inson omilini kamaytiradi, balki tekshiruv jarayonining aniqligi va tezkorligini oshiradi. Ushbu maqolada robotlashtirilgan audit vositalari (RPA), sun’iy intellekt (AI), blokcheyn, va analitik platformalarning amaliy qo‘llanilishi, ularning samaradorlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlarning yordamida ortiqcha ishchi o‘rinlari qisqarishi va bu orqali davlat xarajatlarining kamayishi ham tahlil qilinadi. Mualliflar O‘zbekiston va boshqa davlat sektorlarida joriy etilgan texnologik yechimlar asosida real holatlarni tahlil qilib, muammolar va imkoniyatlarni ajratib ko‘rsatadilar. Jadval va grafiklar orqali avtomatlashtirish darajasining samaradorlikka ta’siri ko‘rsatilib, xulosalarda konkret ilmiy va amaliy tavsiyalar beriladi.

Maqola natijalari davlat sektoridagi audit tizimlarini modernizatsiya qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Audit avtomatlashtirish, davlat sektori, RPA, sun’iy intellekt, mehnat resurslari, xatoliklarni aniqlash, blokcheyn, moliyaviy tekshiruv, samaradorlik, raqamli texnologiyalar, audit tizimlari, ma’lumotlar analitikasi, hujjatlashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы автоматизации аудиторских процессов в государственном секторе, в частности, аспекты выявления ошибок и эффективного использования трудовых ресурсов. Стремительное развитие цифровых технологий существенно трансформирует аудиторские системы. Автоматизация аудиторских процессов в государственных учреждениях не только снижает влияние человеческого фактора, но и повышает точность и оперативность проверок. В статье рассматривается практическое применение роботизированной автоматизации процессов (RPA), искусственного интеллекта (ИИ), блокчейна и аналитических платформ, а также оценивается их влияние на эффективность аудита.

Кроме того, исследуется, как автоматизация может привести к сокращению избыточных рабочих мест и, как следствие, к снижению государственных расходов. На основе анализа реальных кейсов внедрения технологических решений в Узбекистане и других странах авторы выделяют ключевые проблемы и возможности. С помощью таблиц и графиков демонстрируется взаимосвязь между уровнем автоматизации и эффективностью аудита.

Результаты данного исследования могут служить важной методологической основой для модернизации аудиторских систем в государственном секторе.

Ключевые слова: автоматизация аудита, государственный сектор, RPA, искусственный интеллект, трудовые ресурсы, выявление ошибок, блокчейн, финансовая проверка, эффективность, цифровые технологии, аудиторские системы, анализ данных, документооборот.

Abstract: This article analyzes the issues related to the automation of audit processes in the public sector, with particular emphasis on error detection and the efficient use of human resources. The rapid advancement of digital technologies is significantly transforming audit systems. Automating audit processes

in public institutions not only reduces human involvement but also increases the accuracy and speed of inspections. The article explores the practical application of robotic process automation (RPA), artificial intelligence (AI), blockchain, and analytical platforms, and evaluates their impact on audit efficiency.

Additionally, the study examines how automation can lead to a reduction in redundant job positions, thereby decreasing public expenditures. Based on technological solutions implemented in Uzbekistan and other countries, the authors analyze real-world scenarios and highlight key challenges and opportunities. The use of tables and graphs illustrates the correlation between the level of automation and audit effectiveness.

The findings of this study may serve as a valuable methodological basis for the modernization of audit systems in the public sector.

Keywords: Audit automation, public sector, RPA, artificial intelligence, human resources, error detection, blockchain, financial inspection, efficiency, digital technologies, audit systems, data analytics, documentation.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgani sababli ko‘plab sohalarda, jumladan, davlat sektorida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, audit tizimlarining avtomatlashtirilishi davlat moliyaviy boshqaruvi sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va xatoliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy audit amaliyotlari ko‘plab inson resurslarini jalb etishni, ko‘p vaqt va xarajat talab qiladigan jarayonlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, bugungi texnologik rivoj bu sohada tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

Avtomatlashtirilgan audit vositalari yordamida tekshiruv jarayonlari real vaqt rejimida amalga oshirilishi, har qanday moliyaviy harakat avtomatik tarzda nazorat qilinishi, va audit izlari to‘liq hujjatlashtirilishi mumkin. Shu bilan birga, RPA (Robotic Process Automation), AI (Artificial Intelligence) va big data texnologiyalarining joriy etilishi orqali inson omilining kamayishi va audit jarayonlarining takroriy qismlarini avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki ortiqcha ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni ham kamaytiradi.

Davlat tashkilotlarida byudjet mablag‘lari harakati, davlat xaridlari, grant va subsidiyalar, ijtimoiy to‘lovlar kabi moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni kuchaytirish muhim masala hisoblanadi. Shuning uchun audit tizimlarining zamonaviylashtirilishi, ular orqali olingan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi davlat boshqaruvi sifatini belgilovchi omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada audit jarayonlarini avtomatlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari, texnologik vositalarning imkoniyatlari, O‘zbekiston va xorij tajribasi, xatoliklarni aniqlashda raqamli vositalarning roli va mehnat resurslarini optimallashtirish strategiyalari chuqur yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi

Audit jarayonlarining avtomatlashtirilishi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya audit faoliyatini yangicha bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, davlat sektorida bu jarayon strategik ahamiyat kasb etadi.

Misol uchun, Bierstaker et al. (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotda ko’ra sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili auditda xatoliklarni aniqlash va oldindan ogohlantirish imkonini berishi qayd etilgan. Ular avtomatlashtirish orqali insoniy xatoliklar soni sezilarli darajada kamayishini va audit izlarining yanada shaffof bo‘lishini ko‘rsatadilar [1].

Moffitt, Rozario va Vasarhelyi (2018): auditda robotlashtirilgan jarayonlar (RPA) orqali takroriy operatsiyalarni avtomatik bajarish imkoniyatlarini o‘rgangan bo‘lib, davlat moliyaviy tizimida bu texnologiya orqali xarajatlarni 30–50% ga qisqartirish mumkinligini aniqlashgan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan olib borilgan loyiha doirasida esa davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida raqamli audit vositalari joriy etilmoqda. Ushbu tajriba O‘zbekiston davlat sektorida avtomatlashtirishga oid amaliy qadamlarni yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Ernst & Young va Deloitte kabi yirik audit kompaniyalari ham davlat sektoridagi audit xizmatlarida RPA va AI vositalarini faol qo‘llay boshlagan. Ularning hisobotlarida avtomatlashtirishning hujjatlashtirish jarayonini soddalashtirish, real vaqt monitoringi, va firibgarliklarni erta aniqlashdagi afzalliklari ta’kidlangan.

Shuningdek, **ISO 19011:2018** standarti audit jarayonlarini optimallashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha metodologik yo‘riqnomalarni o‘z ichiga oladi. Bu xalqaro standart davlat tashkilotlari uchun audit jarayonlarini raqamlashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, auditni avtomatlashtirish bo‘yicha mavjud yondashuvlar nafaqat audit sifati va tezkorligini oshiradi, balki davlat sektorida mehnat resurslarini optimal taqsimlash, ortiqcha byurokratik bosqichlarni qisqartirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

1. Tadqiqotning maqsadi va yondashuvi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi davlat sektorida audit jarayonlarini avtomatlashtirishning samaradorligini o‘rganish, xatoliklarni aniqlash va mehnat resurslaridan foydalanishni optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda kompleks (ya'ni sifat va miqdoriy) yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, bu yondashuv davlat sektoridagi real holatni chuqur anglash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shuningdek, tadqiqotda eksperimental, kuzatuv va diagnostik metodlar uyg‘unlashgan holda qo‘llanildi.

AMALIY TAHLIL: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

1. Audit jarayonlarida uchraydigan asosiy muammolar

Audit jarayonlarini avtomatlashtirish jarayonida davlat sektorida quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

1. Texnologik infrastrukturadagi nomukammallik — Ko‘plab davlat tashkilotlarida zaruriy serverlar, dasturiy ta’minot va internet tezligi yetarli darajada emas.
2. Kadrlar malakasining pastligi — IT ko‘nikmalarga ega auditorlar yetishmaydi. Ko‘pchilik an’anaviy (qog‘ozli) audit uslublariga tayanadi.
3. Axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiya muammolari — Soliq, kadastr, moliyaviy va buxgalteriya tizimlari o‘zaro to‘liq integratsiyalanmagan.
4. Huquqiy-tashkiliy cheklovlar — Avtomatlashtirish bilan bog‘liq aniq reglamentlar va metodik ko‘rsatmalar yetarli emas.

Jadval. Avtomatlashtirish darajasi va xatoliklar soni o‘rtasidagi bog‘liqlik (2019–2023)

Yil	Avtomatlashtirish darajasi (%)	Aniqlangan xatoliklar soni
2019	15%	987
2020	28%	765
2021	43%	512
2022	62%	290
2023	75%	182

Tahlil: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, avtomatlashtirish darajasi oshgan sari xatoliklar sezilarli kamaymoqda. Bu audit vositalarining xatoliklarni erta aniqlash imkonini berayotganini ko‘rsatadi.

Audit avtomatlashtirishining imkoniyatlari

1. Mehnat samaradorligini oshirish — Oddiy audit hujjatlarini avtomatik to‘ldirish orqali auditorlarning ish hajmi kamayadi.
2. Xatoliklarni real vaqt rejimida aniqlash — Sun’iy intellekt yordamida tranzaktsiyalar avtomatik ravishda tekshiriladi.
3. Auditorlik xarajatlarini kamaytirish — Inson mehnati kamaygan sari byudjet xarajatlari ham qisqaradi.
4. Audit sifati oshadi — Objektivlik, tezlik va aniqlik jihatlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

Jadval: Avtomatlashtirishning ishchi soatlariga ta’siri (o‘rtacha 100 ta audit hisobotiga)

Audit bosqichi	Qo‘lda (soat)	Avtomatlashtirilgan (soat)
Ma’lumot yig‘ish	120	30
Hujjatlashtirish	80	15
Tahlil va xulosa	100	50
Jami	300	95

Natija: Avtomatlashtirish orqali o‘rtacha 68% ishchi soatlar tejalmoqda. Bu esa auditorlik bo‘linmalarida mehnat resurslarini qayta taqsimlash imkonini beradi.

3. Amaliy misollar

Hisob palatasi 2022-yildan buyon auditning ba’zi bosqichlariga RPA (robotic process automation) texnologiyasini joriy qilgan. Bu orqali 18% ko‘p aniqlikda xatoliklar aniqlangan.

Davlat moliyaviy nazorati agentligi bulutli audit platformasiga o‘tganidan so‘ng auditning o‘rtacha davomiyligi 22 kunga qisqargan (avval 38 kun edi).

Jadval: Auditda qo‘llanilayotgan avtomatlashtirish vositalari va ularning funksional ta’siri

Vosita	Funksiya	Natija
Sun’iy intellekt modullari	Tranzaktsiyalarni real vaqt tekshirish	Tezlik + aniqlik
OCR va NLP texnologiyalari	Skanerlangan hujjatlarni o‘qish	Vaqtni tejash, xatolik kamayishi
Blokcheyn asosli audit zanjiri	O‘zgarmas ma’lumotlar bazasi yaratish	Ishonchlilik, shaffoflik
BI vositalari (Power BI)	Tahlil natijalarini vizuallashtirish	Qaror qabul qilishda tezkorlik

Xulosa va takliflar

Davlat sektorida audit jarayonlarini avtomatlashtirishning ahamiyati so‘nggi yillarda keskin oshdi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Avtomatlashtirish xatoliklarni kamaytiradi: Statistik va amaliy dalillar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirish vositalari yordamida auditda aniqlanadigan xatoliklar soni sezilarli darajada qisqarmoqda.
2. Mehnat samaradorligi oshadi: Audit bo‘limlari ishchi soatlarining 60–70 foizi tejalmoqda. Bu esa resurslarni boshqa strategik vazifalarga yo‘naltirish imkonini beradi.
3. Sifat va tezlik o‘sadi: Sun’iy intellekt, OCR, BI vositalari va blokcheyn asosidagi tizimlar yordamida audit jarayonlari shaffof, izchil va ishonchli bo‘lmoqda.

Tavsiyalar

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Davlat byudjetidan alohida mablag' ajratilib, server, bulutli texnologiyalar, xavfsizlik tizimlari yangilanishi zarur.
2. Kadrlar salohiyatini oshirish: Auditorlar uchun doimiy IT, raqamli audit, sun’iy intellekt va analitik vositalar bo‘yicha treninglar yo‘lga qo‘yilishi kerak.
3. Axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish: Barcha moliyaviy, buxgalteriya va soliq tizimlari yagona platformada ishlashiga erishish lozim.
4. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: Avtomatlashtirilgan audit bo‘yicha aniq standartlar, ko‘rsatmalar va qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilishi lozim.

Pilot loyihalarni kengaytirish: Muvoffaqiyatli amaliyotlarga ega tashkilotlar tajribasidan foydalanib, boshqa hududlarda ham sinov loyihalarini joriy etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bierstaker, J., Janvrin, D., & Lowe, D. J. (2014). *What factors influence auditors' use of computer-assisted audit techniques?* Advances in Accounting, 30(1), 67–74. https://doi.org/10.1016/j.adiac.2013.12.005
2. Moffitt, Kevin C.; Rozario, Andrea M.; Vasarhelyi, Miklos A. *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 2018, Vol 15, Issue 1, p1
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.* W. W. Norton & Company.
4. International Federation of Accountants (IFAC). (2020). *The Impact of Technology on Audit.* IFAC Report.
5. Deloitte. (2021). *Audit Innovation: AI, Automation, and Analytics.* https://www2.deloitte.com/
6. PwC. (2022). *State of the Internal Audit Profession Study.* https://www.pwc.com/
7. OECD. (2020). *Digital Transformation in the Public Sector.* OECD Publishing.
8. Government Accountability Office (GAO). (2019). *Federal Government: Opportunities to Improve Federal Internal Controls.* GAO Reports.
9. Karim, K., & Suh, S. (2021). "Auditing in the Era of Artificial Intelligence: Benefits and Risks," *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 18(1), 23–45.
10. UzAudit (2023). *O'zbekiston Respublikasida davlat auditini raqamlashtirish strategiyasi*. Tashkent: UzAudit Agency.
11. KPMG. (2023). *The Future of Audit: Automating Assurance.* KPMG Insights.
12. EY. (2021). *How AI and Automation are Transforming the Future of Auditing.* https://www.ey.com/
13. Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS). (2022). *IFRS va avtomatlashtirilgan audit vositalarining integratsiyasi.*

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Pardayev Ulug’bek
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Bank ishi va Auditi yo’nalishi 4-bosqich -2022 guruh talabasi
Email adress: pardayevulugbek@mail.com
Tel raqam:+998907460398
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526400

Annotatsiya: Ushbu tezisda tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda samaradorligini oshirish yo`llarining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.Bundan tashqari banklarni faoliyatiga doir bo‘lgan bir qancha statistic raqamlar ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, samaradorlik, o`sish sur`atlari, risk, risk-menejment,moliya bozori,kredit,diversifikatsiya.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizida mamlaktimizda xorijiy kapital oqimi va investitsiyalarni jalb qilishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda, bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalda foydalanilib kelinmoqda. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o`sish sur`atlari investitsiya muhitiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiylarni jalb qilishning kolami, yo`nalishlari va samaradorligi, bevosita investitsiya muhitiga bog`liqdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar mablag‘larini faol jalb etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur chora-tadbirlar doirasida «iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan investitsiya loyihalarini ularning moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan holda samarali amalga oshirilishini ta’minlaydigan, shuningdek, ularni amalga oshirish bo‘yicha mablag‘larning nooqilona sarflanishini istisno etadigan, mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning sifat jihatdan yangi tartibi joriy etildi».[1]

Yaqin o‘rta muddatli istiqbolda korxonalarni modernizatsiyalash bo‘yicha kutilayotgan ehtiyojlar hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, yaqin yillarda bank tizimi jami kredit portfelida investitsion kreditlarning yanada o‘sishini kutish mumkin. Bu esa, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashda bank risklarini boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi va dolzarbligini oshiradi. Alohida ta’kidlash o‘rinliki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bankning yuqori riskli faoliyati hisoblanib, bu turdagi risklarni boshqarish murakkab va ko‘p pog‘onali jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi tijorat banklari riskni boshqarish maqsadida risk-menejment jarayoniga ko‘maklashuvchi o‘ziga xos modellarni shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.“Bank investitsiya faoliyatiga o‘z mablag‘lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo‘yicha chora - tadbirlar ishlab chiqishi kerak” [2]. Bugungi kunda mamlakatimizda bank tizimida katta islohotlar o‘tkazib kelinayapti va ushbu jarayonlardan kelib chiqib bank sohasida ham keng siljishlar ro‘y berayapti. Quyidagi jadvalda ayrim statistic raqamlar keltirib o‘tilgan.

1-jadval [3]

Tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi

Ko‘rsatkichlar nomi	01.10.2024 y.		01.10.2025 y.		O‘zgarishi, foizda
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	

Jami kreditlar	**515 641**	**100%**	**582 211**	**100%**	**13%**
Sanoat	147 892	29%	146 268	25%	-1%
Qishloq xo‘jaligi	52 042	10%	59 381	10%	14%
Qurilish sohasi	12 959	3%	17 183	3%	33%
Savdo va umumiy xizmat	34 637	7%	40 930	7%	18%
Transport va kommunikatsiya	34 508	7%	32 529	6%	-6%
Moddiy va texnik ta’minotni rivojlantirish	3 682	0,7%	4 460	0,8%	21%
Uy-joy kommunal xizmati	2 338	0,5%	1 838	0,3%	-21%
Jismoniy shaxslar	169 715	33%	208 642	36%	23%
Boshqa sohalar	57 869	11%	70 980	12%	23%

Ushbu malumotlar shuni ko‘rsatadiki 2025 yil sanoatni kreditlash 2024- yilga qaraganda 1 % foizga kamaygan hamda 146268 tani tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Jismoniy shaxslar va Boshqa sohalarni kreditlsh esa bir xil, ya’ni 23 % dan o‘sish ko‘rsatkichlarini qayd etgan, bus hu davrdagi Moddiy va texnik ta’minotni kreditlashga qaraganda 2 % ga baland edi.Ammo Transport va komunikatsiya va Uy – joy komunal xizmati salmog‘i kamayib mos ravishda 6 va 21 % kamayishni ko‘rsatgan. Qurilish sohasini kreditlash esa eng baland ko‘rsatkich qayd etib 33% ga o‘sgan. Ushbu raqamlar shundan dalolatki banklar tomonidan ajratiladigan kreditlarning tarmoqlari ham kundan kunga kengayib bormoqda. Bu banklarga bir qancha ustunliklar beradi.Masalan, kredit risklarini diversifikatsiya qilish, risk ehtimolligini kamaytirish, foyda hajmini oshirish, ortiqcha ish o‘rinlarini yaratish kabilarni o‘z ichiga oladi. Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish faqat bozor asosida kreditlash, banklarning davlat resurslariga qaramligini kamaytirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali bank infratuzilma faoliyatini tashkil etish va avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy bo‘lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish. Kredit portfelining sifati investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hajmining o'rtacha o'sishini ta'minlashga bog'liq.

Xulosa. Moliyalashtirishni rivojlantirish uchun juda samarali vosita investitsiya loyihalari sindikatlashtirilgan kreditlash mexanizmi va loyihani moliyalashtirish hisoblanadi. Uning ahamiyati shundan iboratki, katta miqdordagi kreditlar to'planadi va bunda bir nechta banklar ishtirok etadilar. Respublika banklariga xorijiy tajribani qo‘llash orqali investitsiya loyihalari moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari,

- O'zbekistonda investitsiya risklarini aniqlashda xorijiy tajribani qo‘llash va aniqlangan risklarni minimallashtirish yechimlarini izlash kerak bo`ladi;

-investitsiya loyihasi samaradorligining pasayishiga ta'sir qiluvchi barcha mumkin omillarni aniqlash;

- agar loyiha tashabbuskori tomonidan biznes-reja va texnik-iqtisodiy asoslash ko‘rsatkichlariga rioya qilmaslik holatlari aniqlangan bo‘lsa, investitsiya loyihasining keyingi moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligini tahlil qilish;

-yirik turdagi korxonalar uchun yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish; - moliyalashtirishni ochishdan oldin ekologik va ijtimoiy xavflarni bo`yicha baholashni o'tkazish kerak bo`ladi

hamda xavflar aniqlanganda ularni bartaraf etish yoki minimallashtirish bo'yicha tuzatish choralari rejasini ishlab chiqish lozim;

-qarz oluvchining moliyaviy holatini dastlabki baholash uchun javobgar bo'lgan bankning ayrim biznes jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish;

-moliyalashtirish tizimini rivojlantirish. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, yirik korxonalarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish banklar tafsilotlaridagi muhim omillardan biri bo'lib, uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 iyundagi “Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3796- sonli qarori.
2. Миркин Я. М. Рынок ценных бумаг: учеб. пособие. М., 2002. –с. 56 -57
3. Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ. – М.ИНФРА-М, 2001.– С. 9-10.
4. G'ozibekov. D.G’. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 yil.
5. Беренц В., Хавранек П.,. Руководство по оценке эффективности инвестиций, пер.с англ. А.П. Белых, М.: - Инфра-М, 1995. – С. 60-80. 7.Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Справочное пособие. – М.: Высшая школа .2001. - 875 с.
6. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2948302.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQLASHTIRISH JARAYONINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Qo‘shayev To‘xtasin Abdiqodirovich
Termiz davlat universiteti, o‘qituvchi
Tel:+998 (94) 263-03-77
E-mail: qtoxtasin@tersu.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526419

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) moslashtirish jarayonining dolzarb masalalari tahlil qilingan. Mamlakatda MHXSni joriy etishning huquqiy, tashkiliy va metodologik asoslari o‘rganilib, amaliyotda uchrayotgan muammolar aniqlangan. Shuningdek, MHXSni qo‘llashda korxonalar duch kelayotgan qiyinchiliklar - buxgalteriya ma’lumotlarini konvertatsiya qilish, kadrlar malakasining yetarli emasligi, dasturiy ta’minotning moslashmaganligi va milliy standartlar bilan uyg‘unlik masalalari - tahlil etilgan. Maqolada, shuningdek, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sharoitida MHXSni samarali joriy etishning yo‘nalishlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish, investorlar ishonchini kuchaytirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, MHXS, buxgalteriya hisobi, milliy standartlar, hisobot tizimi, kadrlar tayyorlash, axborot texnologiyalari, xalqaro tajriba, O‘zbekiston iqtisodiyoti

Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, shaffofligi va xalqaro tenglik tamoyillari buxgalteriya hisobi tizimini doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini tug‘diradi. Xususan, global iqtisodiy integratsiya, chet el investitsiyalari, xalqaro moliya bozorlari bilan aloqalar va moliyaviy resurslarni jalb qilish ehtiyoji buxgalteriya va moliyaviy hisobot sohasida milliy standartlarni xalqaro me’yorlarga yaqinlashtirishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS, ya’ni IFRS - International Financial Reporting Standards) joriy etish yo‘lida sezilarli choralar ko‘rmoqda.

Bu maqolaning asosiy maqsadi - O‘zbekistonda MHXSni joriy etish jarayonining huquqiy bazasi, amaliy tajribalari, yuzaga kelayotgan muammolari va istiqbollarini chuqur tahlil qilish lozim. Shuningdek, maqola doirasida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1.MHXSning mohiyati, afzalliklari va xalqaro rolini ko‘rib chiqish; 2.O‘zbekistonda MHXSni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy va institutsional asoslarni tahlil etish;

3.Amaliy tajribalar va muammolarni aniqlash; 4.Kelajak istiqbollari va takliflarni ishlab chiqish.

Maqola ilmiy-nazariy yondashuvlar, huquqiy manba tahlili va amaliy misollarga asoslanadi.

MHXS tushunchasi va tarixi. MHXS (IFRS) - buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni xalqaro darajada yagona tushuncha asosida tuzishni maqsad qilgan standartlar tizimi hisoblanadi. IFRS standartlari va ularga tegishli interpretatsiyalar (IFRIC) Buxgalteriya Standartlari bo‘yicha Xalqaro Komissiya (IASB) tomonidan ishlab chiqiladi. Standartlar dastlab IAS (International Accounting Standards) nomi bilan boshlangan, 2001 yildan boshlab yangi standartlar IFRS nomi bilan chiqarila boshlandi. MHXSning asosiy tamoyillari haqiqiylik, muvofiqlik, tushunarli bo‘lish, muvozanat tamoyili va konservativlik kabi tamoyillar hisoblanadi.

MHXSni joriy etishning xalqaro ahamiyati. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: investorlar ko‘p hollarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq baholashni talab qiladi.

O‘zbekistonda MHXSni joriy etishning huquqiy va institutsional bazasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq, MHXS standartlari va ularning interpretatsiyalari tegishli ekspertiza komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi va keyin Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda MHXS hujjatlarning davlat tilidagi versiyasini e’lon qilish va

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining veb-saytida joylashtirish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlarida MHXS joriy etilgani bo‘yicha Moliya vazirligiga ma’lumot berish majburiyati, sifat nazorati, bosqichma-bosqich o‘tish choralarini belgilash masalalari ko’rsatib berilgan.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi - IFRS standartlarini tan olish, ekspertiza jarayonlarini tashkil etish va tasdiqlash bo‘yicha markaziy organ sifatida faoliyat yuritadi. Buxgalteriya hisobi va auditni tartibga solish agentligi (yoki shunga o‘xshash agentlik) - MHXS bo‘yicha metodik ko‘mak, sifat nazorati va standartlarni tatbiq etishni nazorat qiladi. Xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlar - texnik yordam, grantlar va trening dasturlari orqali MHXSga o‘tish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Universitetlar, kasbiy tashkilotlar va auditorlik firmalari - MHXS bo‘yicha kadrlar tayyorlaydi va treninglar o‘tkazadi.

Majburiy va ixtiyoriy qo‘llash tartibi. O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari va davlat ulushi ishtirokidagi korxonalar MHXS asosida moliyaviy hisobot e’lon qilishlari majburiy bo‘lishi belgilangan. Shu bilan birga, korxonalar ixtiyoriy ravishda MHXSni qo‘llashlari mumkin va bunday hollarda milliy hisob standartlaridan ozod bo‘lishlari mumkin. Masalan, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ o‘z moliyaviy hisobotini MHXSga muvofiq tayyorlaydi va auditorlikdan o‘tkazadi. Boshqa davlat korxonalari, masalan “Uzbekneftegaz”, ham MHXS bo‘yicha hisobotlarni joriy qilgan.

Uzbekneftegaz 2018 yildan boshlab IFRSga o‘tishni boshlagan va hozirda yillik hisobotlarini erta auditorlik nazoratidan o‘tkazmoqda. Hududiy gaz va elektr tarmoqlari korxonalari ham MHXSga o‘tish majburiyatini olgan va hisobotlar auditorlikdan o‘tgan. Ba’zi korxonalar MHXS talablariga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tayyorlaydi, bu sinovli, lekin ijobiy tajriba sifatida baholanmoqda.

MHXSga o‘tishda duch kelinayotgan muammolar quyidagilardan iborat:

1. Kadrlar yetishmasligi. Ko‘plab korxonalar hisobchilari MHXS tamoyillariga moslashmagan - tahliliy va yondoshuviy fikrlashlari kerak. Malaka oshirish dasturlari va treninglar yetarli emasligi; o‘qituvchilar, auditorlar ham standartlarga to‘liq tayyor emas.

2. Axborot tizimlari va dasturiy ta’minot muammolari. Milliy buxgalteriya tizimlari ko‘pincha MHXS talablariga tayyor emas - ularni qayta dasturlash, yangilash talab etiladi. Dasturiy platformalarda ma’lumot transformatsiyasi, interaktivlik va integratsiya muammolari.

3. Moliyaviy va operatsion xarajatlar. MHXSga o‘tish jarayonida tashkiliy qismlar uchun qo‘shimcha xarajatlar paydo bo‘ladi. Kichik va o‘rta korxonalarda bu xarajatlarni qoplash qiyin bo‘lishi mumkin.

4. Metodologik moslashuv va siyosat tanlash. MHXSda tanlov (accounting policy choices) mavjud bo‘ladi - korxonalar qaysi siyosatga murojaat qilishni tanlashlari kerak. Milliy standartlardan MHXSga o‘tishda muvofiqlik va transformatsiya jarayonida mos kelmaslik holatlari bo‘lishi mumkin.

5. Nazorat va sifat kafolati. Hisobot sifatining nazorati - auditorlik va davlat nazorati mexanizmlari takomillashtirilishi lozim. MHXS talablariga rioya qilinishi bo‘yicha standartlar va sertifikatsiya tizimlari hali yetarli darajada yaratilmagan.

6. Normativ-huquqiy farqlar va tafovutlar. Ba’zi MHXS qoidalari milliy qonunchilik bilan mos kelmaydi, moslashtirish talab etadi. Ekspertiza komissiyasi tan olish jarayonida ayrim MHXS qoidalarini chetlatish yoki modifikatsiya qilish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, istiqbolli yo‘nalishlarni tanlab olish zarur.

1. Bosqichma-bosqich kengaytirish: 2027 yildan boshlab ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) talablari bo‘yicha hisobotlar joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

2. NFRS rivojlantirish: milliy standartlar MHXSga yaqinlashtiriladi, shu tariqa kichik va mexanizmga ega korxonalarga mos NFRS jihatidan yo‘l yaratiladi. 3.Texnologik yechimlar va raqamlashtirish: bulutli hisobot platformalari, avtomatik ma’lumot uzatish va integratsiya tizimlari joriy etiladi.

4. Mutaxassislar va kadrlar tayyorlashni kengaytirish: universitetlarda MHXS kurslari, kasbiy sertifikatlashtirish, professional treninglar va malaka oshirish.

5. Nazorat va mehnat kafolati: auditorlik sifatining oshirilishi, sertifikatlashtirish tizimi, nazorat organlari mustahkamlanishi tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha **takliflar** berildi va **xulosa** qilindi:

Takliflar:

1. Milliy standartlarni (BHMS) MHXSga yaqinlashtirish. Milliy standartlar to‘plami MHXS tamoyillariga mos ravishda takomillashtirilshi kerak. Qonunchilik darajasida MHXSga muvofiq kelmaydigan qoidalar tuzatilishi kerak.

2. Kadrlar malakasini oshirish. Buxgalter, auditor va moliyaviy menejerlar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Xalqaro trening markazlari va institutlar bilan hamkorlik qilish.

3. Axborot tizimlarini integratsiyasiyalash. MHXS talablariga mos ERP va hisobot tizimlari import qilinishi yoki mahalliy ishlab chiqilishi kerak. Dasturiy yechimlar modulli, moslashuvchan bo‘lishi, standart ma’lumotlar almashinuvi imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

4. Moliyaviy yordam va imtiyozlar berish. Kichik korxonalarga MHXSga o‘tishda moliyaviy subsidiyalar yoki kredit imtiyozlari berilishi kerak. Konsultatsiya va texnik yordam markazlari tashkil etilishi kerak.

5. Sifat nazorati va auditorlik tizimini tashkil etish. Auditorlik firmalarida MHXS bo‘yicha mutaxassislar sertifikatlashuvi joriy etilishi kerak. Hisobotlarning MHXSga muvofiqligi bo‘yicha milliy sifat nazorati boshqarmasi tashkil etilishi kerak.

Xulosa: Ushbu maqola doirasida O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni MHXS (IFRS) ga muvofiqlashtirish jarayonining nazariy asoslari, huquqiy va institutsional bazasi, amaliy tajribasi, duch kelinayotgan muammolari hamda istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilindi. MHXS joriy etilishi moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, xalqaro ishonchliligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Normativ va institutsional asoslar shakllantirilgan bo‘lsa-da, amaliy joriy etish bosqichida kadrlar, axborot tizimlari va moliyaviy resurslar kabi muammolar mavjud. Kadrlar tayyorlash, standartlarni yaqinlashtirish, auditorlik sifatini mustahkamlash va raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Kelajakda MHXSga to‘liq o‘tish yo‘lida bosqichma-bosqich strategiya, milliy standartlar bilan uyg‘unlashtirish va qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
3. Sh.T. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, I.R. Ibragimova Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo’llanma. Toshkent - 2019.
4. “Халқаро молиявий ҳисобот стандартларига ўтиш ва халқаро тажрибани ўзбекистонда қўллашнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро илмий - амалий анжуман мақолалар тўплами. Тошкент – 2022.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING TARKIBI, HARAKATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLIL

Rahmatullayev Javohir Eshniyoz o'g'li
Denov Tadbirkorlik va Pedogogika Instituti
''Buxgalteriya hisobi va auditi yo'nalishi talabasi
Tel: +998 (77) 418 03 05
E-mail:rahmatullayevjavohir412@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526449

Annotatsiya: Ushbu tezisda tadbirkorlik subyektlarida asosiy vositalarning iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi, harakati hamda ulardan samarali foydalanishning buxgalteriya hisobida ifodalanishi o'rganilgan. Ishda asosiy vositalarning korxona moliyaviy holatiga ta'siri samaradorlikni oshirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, amortizatsiya, tahlil, samaradorlik, buxgalteriya hisobi, modernizatsiya

Kirish. Asosiy vositalar har bir tashkilotda ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning holati bevosita, shuningdek samarali foydalanish tashkilot faoliyatining yakuniy natijalariga ta'sir qiladi. O'z navbatida, asosiy vositalar hisobini tashkil etish mashina, uskunalar va ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyati ko'p jihatdan ularning moddiy-texnik bazasiga, ya'ni asosiy vositalarning hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasiga bog'liq. Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish quvvatini belgilovchi eng muhim resurslardan biri bo'lib, ularning to'g'ri hisobi, harakati va tahlili korxonaning iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir etadi. Binolar, isshoatlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob uskunalar, xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar , ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar[1]. Asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga ularning tehnik holat va harakat ko'rsatkichlari samaradorlik ko'rsatkichlariga dinamikasi va holatiga baxo beradi. Asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda korxonanning reja yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi tushuniladi. Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatdagi maqsadga qarab asosiy vositalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo'linadi.[2] Ishlab chiqarish maqsadlari uchun asosiy vositalar bevosita ishlab chiqarish jarayonida korxonaning asosiy faoliyatidan foyda olish uchun, noishlab chiqarish-xodimlarning maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladi

Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati to'g'risida ko'plab fikrlar mavjud, ammo ularning barchasi asosiy vositalarni uzoq vaqt davomida asl ko'rinishini saqlab, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishlatiladigan mehnat vositasi sifatida aniqlashga qaratiladi.Ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhit ta'siri ostida asosiy vositalarning eskirishi va boshlang'ich tannarxning butun foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga o'tkazilishi kuzatiladi.

Tadbirkorlik subyektlarida asosiy vositalardan samarali foydalanish bo'yicha quyidagicha muammolar kuzatilmoqda va uni yuzaga kelish sabablari:

Asosiy vositalarni nazoratidagi muammolarga guvoh bo'lyabmiz va bularni yuzaga keladigan sabablardan quyidagilar so'zimizga asos bo'ladi:

- ✓ Asosiy vositalarning eskirganligi-jismonan va manaviy jihatdan
- ✓ Zaxira qismlarining yetishmasligi
- ✓ Texnik xizmat ko'rsatish sustligi
- ✓ Masul xodimlar yetishmasligi
- ✓ Amortizatsiya ajratmalarini noto'g'ri hisblanishi yoki maqsadsiz ishlatilishi
- ✓ Samaradorlikni oshirish yo'llari

Texnik jihatdan eskirgan asbob-uskunalarni yangilash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, asosiy vositalarni to'g'ri baholash va amortizatsiya siyosatini takomillashtirish zarur.

[1] I-58 Buxgalteriya hisobi. Texnikum va kasb–hunar kollejlari uchun darslik
[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son Farmoniga muvofiq

Asosiy vositalardan samarali foydalanish korxonaning ishlab chiqarish hajmini, foydalilik darajasini va raqobatbardoshligini oshiradi. Samaradorlikni aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi: fond qaytimi, fond sig‘imi, amortizatsiya darajasi. Agar ushbu ko‘rsatkichlar ijobiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsa, demak korxona asosiy vositalardan samarali foydalanmoqdamiz.

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalar tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari va moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ularni to‘g‘ri hisobga olish, muntazam tahlil qilib borish va samarali boshqarish korxona raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida asosiy vositalarning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va eskirish darajasini kamaytirish zarur. Asosiy vositalar har bir korxona uchun ishlab chiqarish jarayonini va faoliyatini amalga oshirish uchun zarurdir. Asosiy vositalarning optimal soni korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va hokazolarga imkon beradi. Asosiy vositalar hisobini samarali tashkil etish ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini aniq hisoblash, asosiy vositalarning holatini o‘z vaqtida nazorat qilish va ularni o‘z vaqtida yangilashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Qonuni.
2. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS).
3. Mamatqulov B. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti”. – T.: 2022.
4. www.stat.uz sayti
5. www.lex.uz. Sayti.

TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Raximov Shohzodbek Shuxrat o'g'li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi talabasi
tel +998 (95) 520 09 25
E-mail: rahimovshohzodbek0925@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526466

Annotatsiya: Tovar-moddiy zahiralar xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi, va ularning hisobga olinishi korxona amaliyotida ish hajmini samarodorligini ta'minlashda, xarajatlarni boshqarishda hamda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada korxona zahiralari bo'yicha barcha yuzaga keladigan masalalar hamda zahiralarning baholash usullari (FIFO, LIFO, o'rtacha og'irlangan baho va boshqalar) chuqur o'rganiladi. Amaliy tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, zahiralarni noto'g'ri yoki sust tartibda yo'naltirish korxona samaradorligini hamda ishlab chiqarish hajmini pasaytirish oqibatlariga guvoh bo'ldik. Shu sababli maqolada tovar-moddiy zahiralarini mexanizmalarni nazorat qilish hamda uning samaradorligiga tasiri haqida taklif va tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar:tovar-moddiy zaxira, moliyaviy barqarorlik, tayyor mahsulot, moliyaviy holat, samaradorlik, koeffitsiyent, TMZ aylanuvchanligi.

KIRISH.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaning barqaror faoliyat yuritishi, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan tovar-moddiy zaxiralarni (TMZ) to'g'ri boshqarishga bog'liqdir. TMZ korxonaning ishlab chiqarish faoliyatida asosiy o'rin tutadi, chunki ular mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Zaxiralarni oqilona rejalashtirish, ularni saqlash, nazorat qilish hamda samarali boshqarish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Ko'plab korxonalarda TMZ bilan bog'liq muammolar — ortiqcha zaxiralar, yetishmovchilik, noto'g'ri hisob-kitob yoki eskirgan mahsulotlarning to'planishi — moliyaviy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, TMZ boshqaruvini takomillashtirish, zamonaviy usullar va axborot tizimlarini joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu ishda korxona misolida TMZ tizimini chuqur tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot davomida TMZning korxona faoliyatidagi o'rni, ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Natijada, korxonada TMZni takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foyda hajmini kengaytirish yo'llari asoslab beriladi.Jahonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashga erishishda joriy aktivlar tahlilini muntazam yuritish, transformatsiya jarayonida iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, «2021-yilda 2020-yilga nisbatan xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy aktivlari aylanuvchanligi darajasi AQShda – 28 foizga, Fransiyada – 25 foizga, Germaniyada – 22 foizga, Yaponiyada – 18 foizga o'sgan» [1]

Korxonalarda zahiralar hisobi ishlab chiqarish jarayonida naf keltiruvchi resur sifatida tan olinadi. Tovar-moddiy zahiralari korxona balansida Joriy aktivlar tarkibida yotadi, xususan TMZ lar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ravishda davom etishi uchun ajarlmas qismi bo'lib yuritiladi va Joriy aktivlar foyda olish imkoni yaratadi.Hozirgi kunda jahon olimalri TMZ takomillashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda ulardan xususan,

[1] Why is the "quality" of infrastructure investment essential for building back better?: https://worldbank.org

J. Van Horn fikriga ko‘ra, «joriy aktivlarni aktivlar deb, bir yil ichida naqd pulga aylantirilishi mumkin, deb hisoblaydi. Aylanma mablag‘lar pul mablag‘larini boshqarishni o‘z ichiga oladi: debitorlik, tovar-moddiy zahiralar va kreditorlik qarzlari», deb ta’riflagan[2].

A.E. Jminkoning (2014) fikricha “Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish buxgalteriya hisobining eng muammoli jihati hisoblanadi, chunki buxgalteriya hisobi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tamoyillariga o’tish tovar moddiy zaxiralarni to’g’ri baholashning sotilgan mahsulot tannarxiga va sof foydaga bog’liqligini nazarda tutadi.” deb ta'riflagan[3].

Iqtisodchilar Sh.T. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, va I.R. Ibragimovalar (2019) o’z qo’llanmalarida TMZ larni xalqaro standartlar bo’yicha hisobga olish masalalari haqida quyidagilarni keltirib o’tadilar: “TMZ larni hisobga olishda asosiy masala bo’lib TMZlarning tannarxi qanday summada aktiv sifatida tan olinishi va ular bilan bog’liq bo’lgan daromadlar kelgusi davrlarda tan olinguncha hisobga olinishi kerakligi hisoblanadi. Ushbu standart tannarx va uning keyinchalik xarajat sifatida tan olinishi, shu jumladan, uning har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo’yicha ko’rsatmalarni beradi. U, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini aniqlashda qo’llaniladigan tannarxni hisoblash formulalari bo’yicha ko’rsatmalarni keltiradi.[4]

AQSHlik iqtisodchi Olim D.A.Dilts ta’kidlashicha resurslar quyidagi toifalardan iborat[5]:

«yer;

kapital;

ishchi kuchi;

tadbirkorlik qobiliyat.

Bizning fikrimizcha TMZ lar ishlab chiqarish muomilasini yurgizish uchun asosiy bo‘gin xisoblanada va bu o‘z navbatida bozorga mahsulotga bo‘lgan talab va taklif miqdorini sezilarli ortishiga sabab bo‘ladi.

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo‘lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar.

Mahsulot ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonining xarakteri va xususiyatlariga bog‘liq holda tovar-moddiy zaxiralar hisobi uzluksiz (doimiy) yoki davriy hisobga olish tizimlaridan biri bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz (doimiy) hisobga olish.Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz hisobga olish tizimidan foydalanilganda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish schyotlarida ularning kelib tushishi va chiqib ketishi bo‘yicha operatsiyalar batafsil aks ettirib boriladi. Natijada butun hisobot davri mobaynida quyidagilar aniq bo‘ladi: ma’lum bir tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi va sotilgan zaxiralarning tannarxi. Sotilgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, sotishning borishiga qarab “Sotilgan mahsulot tannarxi” schyotida aks ettiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni davriy hisobga olish. Davriy hisobga olish tizimi qo‘llanilganida yil davomida tovar-moddiy zaxiralarni batafsil hisobi yuritilmaydi. Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatdagi mavjudligi ularni inventarizatsiya natijalari bo‘yicha aniqlanadi[6].

---

[2] Mavlyanova D.M. Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish // iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 12.

[3] Jminko A.E. Международная практика учета запасов. Научный журнал. КубГАУ. – 2014 г. №99 (05). – 1-12 с. Maqoladan .

[4] Sh.T.Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, I.R.Ibragimova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. T.:2019.

[5] David A. Dilts Introduction to microeconomics. Published by Indiana - Purdue University - Fort Wayne. 2004. Page 248

[6] Ortiqov A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami. T.: Norma uz.

Tovar-moddiy zaxirani baholashning ikki usuli bor ular: yalpi foyda usuli va tovar-moddiy zaxiraning chakana savdo usuli.Ishlab chiqarish zaxiralarining xaqiqiy tannarxini aniqlash, ularni baholashning quyidagi usullarini qo‘llash bilan amalga oshirishladi:

1. Donalab baholash.

2. FIFO (birinchi tushum oxirgisi zaxiraga).

3. O‘rtacha qiymat usuli (AVECO).

Materiallarni hisobdan chiqarish tartibi korxonaning hisob siyosatida belgilanishi lozim[7].

Materiallarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 4-son BHMSning 11-bandiga muvofiq, materiallarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo‘yisa – balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx bo‘yicha (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki bozor bahosi bo‘yicha (sof sotish qiymati) bo‘yicha amalga oshiriladi.

4-sonli BHMSda tovar-moddiy zaxiralarga quyidagicha ta’rif berilgan:

Tovar-moddiy zaxiralar – bu quyidagi aktivlardir:

- odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo‘ljallangan;
- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan;
- ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko‘rsatilishida foydalanilishi ko‘zlangan xom ashyo va materiallar ko‘rinishidagi aktivlar.[8]

Xulosa.

Umuman olganda, tadqiqotimiz jarayonida tovar-moddiy zahiralarning tahlili, tovar-moddiy zahiralarini bir qismini tarkibiy tuzilishi, shu jumladan, tovar-moddiy zahiralari tarkibiy tuzilishi hamda korxona tovar-moddiy zahiralarini samaradorligi tahliliga tayangan holda quyidagi xulosalar olindi: xo‘jalik yurituvchi subyektda tovar-moddiy zahiralari samaradorliligini hamda xizmat ko‘rsatish sohasi ham yaxshi rivojlantirishga sabab bo’ladi. Shu jumladan korxonadagi tovar-moddiy zaxiralarni salmog‘ini oshirish uchun tovar moddiy zahiralar miqdori va aylanuvchanligini tezlashtirishning strategik tadbirlarini joriy etishning muhim yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi belgilanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wan Madznah Wan Ibrahim va Mohd Rizal Palil “Fundamentals of business accounting” Oxford university Press, 2014; 103-bet.
2. Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 101 p.
3. Jminko A.E. Международная практика учета запасов. Научный журнал. КубГАУ. – 2014 г. №99 (05). – 1-12 с. Maqoladan .
4. Sh.T.Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, I.R.Ibragimova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. T.:2019.
5. David A. Dilts Introduction to microeconomics. Published by Indiana - Purdue University - Fort Wayne. 2004. Page 248.
6. Ortiqov A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami. T.: Norma uz.
7. Mavlyanova D.M. Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish // iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 12.

[7] Wan Madznah Wan Ibrahim va Mohd Rizal Palil “Fundamentals of business accounting” Oxford university Press, 2014; 103-bet.

[8] Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 101 p

ASOSIY VOSITALAR AMORTIZATSIYASINING AUDITI

Sobirov Javohir Jiyanboy og`li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi
7-BH-22 guruh talabasi
Tel: +998 94 483 29 04
E-mail: ssobirovjavohir3103@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526718

Annotatsiya: Ushbu tezisda asosiy vositalarni aniqlash, ularning kelib tushishi va baholanishi, amortizatsiya hisoblash, inventarizatsiya qilish va audit xulosasi berish haqida ma`lumot berilgan

Kalit so‘zlar: Asosiy vositalar, amortizatsiya, hisob siyosati, inventarizatsiya, auditorlik tekshiruvi, tahlil qilish, ichki nazorat, aktivlar.

Kirish. Asosiy vositalar — tashkilotning uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xo`jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko`rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajarish jarayonida foydalaniladigan, shuningdek ijaraga berish mumkin bo`lgan moddiy aktivlar;

Amortizatsiyalanadigan qiymat — asosiy vositaning boshlang`ich yoki moliyaviy hisobotda o`rnini bosuvchi boshqa qiymatdan tugatish qiymatining chegirilishi natijasida aniqlanadigan qiymat. Boshlang`ich qiymati, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash ishlari va boshqalar bo`yicha xarajatlar summasiga oshirilgan asosiy vositalar uchun amortizatsiyalanadigan qiymat bo`lib, ushbu ishlar tugatilganidan so`ng tugatish qiymatini chiqarib tashlagan holda mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytda aniqlangan ularning qoldiq (balans) qiymati hisoblanadi.[1]

Asosiy vositalar quyidagi guruhlarga bo`lishimiz mumkin: yer, yerni obodonlashtirish, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish, binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik va hosildor o‘simliklar, boshqa asosiy vositalar, konservatsiya qilingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalarning kelib tushishida mulk huquqi, xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqi asosida tashkilotga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarning qiymati tashkilot balansiga kiritilishi lozim. Asosiy vositalar qiymati tashkilot balansiga kapital qo‘yilmalar tugaganidan so‘ng qurilgan obyektni qabul qilish-topshirish, obyektni oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha xarid qilish, ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlari, tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo‘yicha), ayirboshlash, tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan o‘tkazish, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olish, asosiy vositalarga mulk huquqi, xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqini qo‘lga kiritishga olib keladigan boshqa operatsiyalar yoki hodisalar natijasida kiritiladi.

Asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinganda, ular boshlang‘ich qiymat bo‘yicha baholanadi va hisobga olinadi. Aktiv sifatida tan olinganidan so‘ng, asosiy vosita boshlang‘ich yoki qayta baholangan qiymati bo‘yicha hisobga olinishi lozim. Asosiy vositalarni qiymatini hisobga olishning qo‘llaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya hisoblash yo‘li bilan qoplanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat asosiy vositalarning butun foydali xizmat muddati mobaynida tashkilot xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko‘rinishida tizimli taqsimlanadi. Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur

[1] O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”ni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 9-avgust ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3546)

obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq qoplangan yoki ushbu obyekt balansdan hisobdan chiqarilgan sanadan to‘xtatiladi. [2]

Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to‘xtatilmaydi, asosiy vositalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiya qilishga o‘tkazilgan holatlar, shuningdek ularni to‘liq to‘xtatish sharti bilan obyektni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash davri bundan mustasno. Asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summalari buxgalteriya hisobida ushbu summalarni alohida schyotda jamg‘arish yo‘li bilan aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligini aniqlash va ularning but saqlanishini nazorat qilish maqsadida tashkilotlar tomonidan vaqti-vaqti bilan, biroq ikki yilda kamida bir marta asosiy vositalar inventarizatsiyasi o‘tkaziladi, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarizatsiya qilinadi. Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar boshqa operatsion daromadlar sifatida aks ettiriladi. Inventarizatsiya vaqtida kamomad fakti aniqlangan yetishmayotgan asosiy vositalar aybdor shaxslar aniqlangan kunga qadar kamomadlar hisobga olinadigan schyotda aks ettiriladi[3].

Asosiy vositalar amortizatsiyasining auditini o’tkazishdagi muammolardan biri bu asosiy vositalarning foydali xizmat muddati va amortizatsiya siyosatini noto‘g‘ri belgilanishida. Bugungi kunda ko‘plab korxonalarda asosiy vositalarning eskirish darajasi, texnik holati va ularning ishlab chiqarish jarayonida qay darajada foydalanilayotganligi to‘g‘ri baholanmaydi. Natijada korxonalar amortizatsiyani ortiqcha yoki yetarli bo‘lmagan miqdorda hisoblaydi, asosiy vositalarning qoldiq qiymati real holatni aks ettirmaydi, moliyaviy hisobotlarda aktivlarning qiymati asossiz ravishda yuqori yoki past ko‘rsatiladi. Muammoning sabablari esa hisob siyosati yangilanmaydi, yani ko‘p korxonalar 5–10 yildan beri eski amortizatsiya stavkalarini ishlatib keladi. Xalqaro standartlarga (IAS 16) moslashmagan milliy yondashuv — foydali xizmat muddati davriy ravishda qayta baholanmaydi. Auditorlik tekshiruvlarida chuqur tahlil yetishmasligi — auditorlar ba’zan faqat hujjatlar bilan cheklanadi, aktivning haqiqiy texnik holatini joyida tekshirmaydi.

Yuqoridagi ko’rsatilgan muammolarni bartaraf qilish uchun esa amortizatsiya siyosatini yangilash kerak, yani korxona hisob siyosatini muntazam qayta ko‘rib chiqishi lozim, yangi texnologiyalar joriy etilganda yoki uskunalar modernizatsiya qilinganda amortizatsiya stavkasi ham o‘zgaradi, bu o‘zgarishlar buxgalteriya siyosatida rasmiy ravishda tasdiqlanib, auditor nazoratidan o‘tadi.

Auditorlik jarayonida texnik ekspert jalb qilish. Auditor korxonaning yirik asosiy vositalari (bino, uskuna, transport vositalari) bo‘yicha muhandis yoki texnik mutaxassis xulosasini talab qilishi kerak, bu xulosa asosida amortizatsiya hisobining adekvatligi baholanadi, agar aniqlangan farq sezilarli bo‘lsa, auditor moliyaviy hisobotni tuzatishni tavsiya etadi. Xalqaro standartlarga moslashtirish yani IAS 16 (Property, Plant and Equipment) talablariga muvofiq ravishda foydali xizmat muddati aktivning ishlatilish darajasiga qarab qayta baholanadi, amortizatsiya usuli (chiziqli, kamayuvchi qoldiq va boshqalar) haqiqiy foydalanish modeliga mos tanlanadi va bu yondashuv orqali korxona moliyaviy hisobotini xalqaro investorlar va auditorlar uchun ishonchli qiladi. Ichki nazorat tizimini kuchaytirish, asosiy vositalar bo‘yicha inventarizatsiya rejalari, ta’mirlash jurnali, va amortizatsiya kartochkalarini elektron shaklda yuritish zarur. Natijada esa asosiy vositalar qiymati real bo‘ladi, amortizatsiya ajratmalari adolatli shakllanadi, korxonaning moliyaviy hisobotlari xalqaro talablarga moslashadi, soliq, investor va boshqaruv qarorlarida xatoliklar kamayadi.

Xulosa: Asosiy vositalar amortizatsiyasining auditi korxonaning moliyaviy hisobotlari ishonchliligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu audit jarayoni orqali asosiy vositalarning eskirish darajasi, ularning qiymatining to‘g‘ri kamaytirilib borilishi va buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi nazorat qilinadi. Umuman olganda, asosiy vositalar amortizatsiyasining auditi korxona hisob siyosatini takomillashtirish,

[2] O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16 – bhxs Asosiy vositalar) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3400]

[3] Абдуллаев Р. Бухгалтерский учет и аудит - Т.: “IQTISOD –MOLIYA”, 2010.

aktivlardan oqilona foydalanish, buxgalteriya ma’lumotlarining shaffofligini oshirish va moliyaviy hisobotning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu jarayon natijasida korxonaning iqtisodiy faoliyati yanada barqarorlashadi, boshqaruv qarorlari uchun aniq va ishonchli ma’lumotlar shakllanadi, moliyaviy intizom mustahkamlanadi hamda korxona obro‘si ortadi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Umarova, O`.Eshboev, K.Ahmadjanov.Buxgalteriya hisobi (Taqrizchilar: I. Nurmatov – iqtisod fanlari nomzodi, professor, A. Mahkamboyev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent) Toshkent – “Mehnat” – 1999. Buxgalteriya hisobi.
2. “O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonuni.
3. TIQXMMI”-MTU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti i.f.d. M.Sh. Mamatkulov “TIQXMMI”-MTU, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti A.Z. Tabayev (buxgalteriya hisobi. Toshkent 2022) O’quv qo’llanma
4. www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA TOVAR MODDIY ZAHIRALARINI BAXOLASHDA KUZATILAYOTGAN MUAMMOLAR

Xo'janazarov Samandar Bobir o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagokika insituti
Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
tel +998(91) 584 47 04
E-mail: xujanazarovsamandar77@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526734

Annotatsiya: Tovar-moddiy zahiralar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim joriy aktivlardan biridir. Ularni to'g'ri baholash va samarali tahlil qilish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, mahsulot tannarxining aniqligi hamda korxona foydaliligining oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda tovar-moddiy zahiralarni baholashning amaldagi usullari, ularning ustun va zaif jihatlari, shuningdek,zahiralarni baholashda bo'ladigan muammolar aks ettirilgan, korxonalarda hisob va tahlil jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tovar-moddiy zahiralar, tovar moddiy zahirlarini baholash,materiallsr ,uzluksizlik, tayyor mahsulot ,samaradorlik,tovar moddiy zahiralar tahlili.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tovar-moddiy zahiralar ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bo'g'ini bo'lib, ular katta hajmdagi moliyaviy resurslarni o'zida mujassam etadi. Ushbu zahiralarni to'g'ri baholash va tahlil qilish korxona ishlab chiqarish hajmi, tannarxi hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda esa ko'plab korxonalarda tovar-moddiy zahiralarni boshqarish va baholashga yetarli e'tibor berilmasligi natijasida ortiqcha mablag' sarflanishi yoki resurslardan samarasiz foydalanish holatlari kuzatiladi. Shu bois, tovar-moddiy zahiralarni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish va ularni muntazam tahlil qilib borish korxonada ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-sonli BHXSda tovar-moddiy zaxiralarga quyidagicha ta'rif berilgan keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlami bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalami amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar[1]

Tovar-moddiy zaxiralar-bu quyidagi aktivlardir:

- odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;
- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;
-ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar.

"Tovar-moddiy zahiralar xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ta'minlash va mahsulotni iste'molchiga yetkazishdagi asosiy vositalardan biridir. Ularning to'g'ri hisobga olinishi va baholanishi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir qiladi."

Ishlab chiqarish zaxiralari - xo'jalik yurituvchi subyektda keyinchalik qayta ishlashga yo'naltirilgan sotib olingan yoki mustaqil ravishda tayyorlangan buyumlardir[2]

Xomashyo va asosiy materiallar - ishlab chiqarilayotgan mahsulotlaming moddiy asosini tashkil etadi yoki uni tayyorlashningzaruriy qismi hisoblanadi.

Samaradorlik — bu iqtisodiyotda, boshqaruvda yoki ishlab chiqarishda erishilgan natija bilan unga sarflangan resurslar (vaqt, mehnat, mablag', materiallar) o'rtasidagi nisbatni ifodalaydigan tushunchadir.Oddiy qilib aytganda, samaradorlik — bu kam resurs bilan ko'proq natija olish demakdir.Ya'ni korxona qancha resurs sarflab, shuncha foyda yoki mahsulot olganini ko'rsatadi.

[1] .Barry Elliot, Jam Elliot. Financial accounting and reporting. (IS B N 9 7 8 -1 -292- 08057-4) L ondon, 2015. 17 th Edition. 101 p

[2] Financial and managerial accounting, 12e, Carl S.Warren, James M.Reeve, Jonathan E.Duchac, 232-page, 2014

Uzluksizlik — bu korxonaning ishlab chiqarish yoki savdo faoliyati to‘xtovsiz, muntazam ravishda amalga oshib borishini anglatadi. Ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlashda tovar-moddiy zahiralar hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki zarur materiallar yoki xomashyo yetishmasa, butun ishlab chiqarish jarayoni to‘xtab qoladi.

Tayyor mahsulot - barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o‘tgan hamda sotish uchun moijallangan buyumlar[3]

Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotlarda:

mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish, ma’muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg‘i, tara va tarabop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo‘jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralari;

boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan katta yoshdagi chorva mollari, sotish uchun chetdan qabul qilingan chorva mollari;

mexanizm qismlari, qurilmalar, buyumlarga tugallanmagan ishlov berilishi va ularning yig‘ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko‘rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Xizmatlar ko‘rsatuvchi va ishlar bajaruvchi tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati sifatida qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad sifatida tan olinmagan tugallanmagan xizmatlar (ishlar) bo‘yicha xarajatlardan tashkil topadi;[4]

Bizning fikrimizcha, tovar-moddiy zahiralarni baholash jarayoniga faqat buxgalteriya ko‘rsatkichlari nuqtayi nazaridan emas, balki ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri nuqtayi nazaridan ham yondashish zarur. Chunki baholashning tanlangan usuli korxonaning moliyaviy natijalariga, foyda miqdoriga va tannarx ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, har bir korxona o‘z faoliyatining xususiyatlari, mahsulot aylanish tezligi va bozor sharoitlarini inobatga olgan holda eng maqbul baholash usulini tanlashi lozim, deb hisoblaymiz. Baholashdagi aniqlik va izchillik korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir.

Tovar moddiy zahiralarini baholash tartibi

Korxona yoki muassasalar, uyushma, konsern, hissadorlik jamiyatlari ixtiyorida ma’lum miqdordagi mablag‘larning bo’lishi ularning o’z faoliyatini amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Korxona mablag‘lari turli va joylanishiga ko’ra ishlab chiqarish doirasidagi, sanoatga tegishli bo’lmagan ishlab chiqarish va xo’jalik mablag‘lariga bo’linadi. Ishlab chiqarish doirasidagi mablag‘lar bajaradigan vazifasiga qarab mehnat vositalari va mehnat buyumlariga bo’linadi.

Mehnat buyumlariga mahsulot tayyorlashda foydalaniladigan tovar moddiy zahiralari kiradi. Ularga xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i, tugallanmagan ishlab chiqarish, ehtiyot qismlar va boshqalar kiradi. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, bir ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinadi, ya’ni o’zining qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymatiga butunlay o’tkazadi.

Xom ashyo deb, hali sanoat ishlovidan qtmagan, jumladan, paxta zavodlari uchun tozalashga keltirilgan paxta tolasi, metallurgiya zavodi uchun ruda, koks kombinati uchun ishlovga keltirilgan toshkqmir va shunga qxshash mahsulotlarga aytiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni (TMZ) baholashning ikki muhim usuli mavjud:[5]

Yalpi foyda usuli -Bu usul, asosan, hisobot davrida yo‘qotilgan yoki hisobdan chiqarilgan zaxiralar qiymatini aniqlash uchun qo‘llaniladi.Asosiy g‘oya — oldingi davrlardagi yalpi foyda foizidan foydalanish orqali TMZ ning qiymatini hisoblash. Ya’ni, sotilgan tovarlarning tannarxi yalpi foyda foiziga tayanib aniqlanadi.

Sotilgan tovarlarning tannarxi = Sof tushum × (1 - Yalpi foyda foizi)

Chakana savdo usuli- Bu usul chakana savdo korxonalarida keng qo‘llaniladi.

[3] Financial and m anagerial accounting, 12e, C arl S .W arren, Jam es M .R eeve, Jonathan E .D uchac, 233-page, 2014
[4] LEX.UZ.
[5] Wan Madznah Wan Ibrahim va Mobd Rizal Palil “Fundaments of business accounting “Oxford university Press.

Unda tovarlar chakana narxda hisobda yuritiladi.So‘ngra savdo ustamasi (ya’ni foyda marjasi) chegirib tashlanadi va shundan tovarlarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

TMZ tannarxi = Chakana narx - Savdo ustamasi

Asosiy baholash usullari

1. FIFO
2. LIFO
3. AVECO

FIFO — *Birinchi kirgan birinchi chiqadi*.Birinchi sotib olingan (yoki ishlab chiqarilgan) mahsulotlar birinchi bo‘lib sotiladi yoki ishlab chiqarishga sarflanadi, deb hisoblanadi.

- Omborda eng oxirgi kirgan tovarlar eng oxirgi chiqadi.
- Qoldiq qiymati so‘nggi narxlarda, xarajat esa eski narxlarda bo’ladi.

LIFO — *Oxirgi kirgan birinchi chiqadi* Eng oxirgi kelgan mahsulot birinchi bo‘lib sotiladi yoki ishlatiladi, deb hisoblanadi**.**

- Qoldiq qiymati eski narxlarda,
- Xarajat esa yangi (oxirgi) narxlarda bo‘ladi.

AVECO — *O‘rtacha og‘irlangan (Weighted Average Cost)*Har safar yangi tovar kirganda, o‘rtacha baho qayta hisoblanadi.

Ya’ni har bir chiqim o‘rtacha baho bo‘yicha baholanadi.

Tovar-moddiy zahiralarning qiymatini, agar tovar-moddiy zahiralar shikastlangan bo’lsa, agar ular to’la yoki qisman eskirgan bo’lsa yoki ularni sotish narxi arzonlashgan bo’lsa, tiklash mumkin. Tovar-moddiy zahiralarning qiymatini, agar butlash uchun baholangan mo’ljaldagi xarajatlar yoki sotish bo’yicha mo’ljallangan xarajatlar oshib ketgan bo’lsa, tiklash mumkin emas. Tovar-moddiy zahiralarni tannarxdan past darajada, sotish sof qiymatigacha arzonlashtirish zahiralar haddan ziyod to’planib qolgan va ular sust aylanayotgan taqdirdagina, barcha aktivlar moliyaviy hisobotda ularni sotish yoki ulardan foydalanishdan kutilayotgan so’mmadan yuqori darajada aks ettirilmasligi uchun, amalga oshiriladi.

Materiallar va mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarishda foydalaniladigan boshqa xom ashyo, agar ulardan tayyorlangan mahsulot bozor (kundalik) narxida sotilsa, qiymatidan past narxda arzonlashtirilmaydi. Biroq, agar omborda mavjud bo’lgan narxdagi materialdan tayyorlangan tayyor mahsulotning tannarxi sotish sof qiymatidan oshib ketsa, materiallar sotish sof qiymatigacha arzonlashtiriladi. Bunday vaziyatlarda materiallar qiymatini qoplash ularning sof sotish qiymatini qlchashning mavjud shakllaridan eng yaxshisi bo’lishi mumkin.

Tovar-moddiy zahiralarni baholashda uchraydigan kamchiliklar va muammolar buxgalteriya amaliyotida juda muhim masala hisoblanadi, chunki ular korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Quyida asosiy kamchiliklar va muammolar keltirilgan:

1. Baholash usullarining to‘g‘ri tanlanmasligi

Korxonalar ko‘pincha FIFO, LIFO, o‘rtacha og‘irlangan qiymat kabi usullarni tanlashda bir xillikni saqlamaydi.

Natijada, turli davrlarda turlicha natijalar paydo bo‘lib, bu moliyaviy hisobotning solishtiriluvchanligini buzadi.

2. Bozor narxlari o‘zgarishining inobatga olinmasligiTovar moddiy zahiralar bozor bahosi tushganida ularni qayta baholamaslik foyda va aktivlarning sun’iy oshishiga olib keladi.Aksincha, narxlar oshgan paytda eskirgan zahiralarni o‘ta past bahoda hisobda saqlash ham korxonaning haqiqiy holatini aks ettirmaydi.

3.Inventarizatsiya jarayonidagi kamchiliklar

Inventarizatsiya vaqtida kamomad, ortiqcha yoki sifatdan chiqqan zahiralar aniqlanmasligi yoki to‘g‘ri rasmiylashtirilmasligi.Natijada, hisobdagi ma’lumotlar bilan amaldagi zaxira holati o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi.

4. Hisob siyosatida aniqlik yetishmasligi.Ba’zi korxonalarda zahiralarni baholash va hisobga olish tartibi hisob siyosatida to‘liq ifodalanmagan.Bu esa hisobotlarni tayyorlashda sub’ektiv qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

5. Tovar harakati hujjatlarini yuritishda xatolar .Kirim-chiqim hujjatlarining noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi yoki kechiktirilgan kiritilishi.Bu ombor va buxgalteriya hisobi o‘rtasida nomuvofiqliklar keltirib chiqaradi.

6. Standart narxlar bilan haqiqiy narxlar orasidagi tafovut .Rejalashtirilgan (standart) baholashdan foydalanilganda haqiqiy xarajatlar bilan standart baholar farqi aniqlanmay qolishi mumkin.Bu esa ishlab chiqarish tannarxining noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi.

Xulosa va Yechimlar: Tovar-moddiy zahiralarni baholash jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Baholashning noto‘g‘ri usullaridan foydalanish, bozor narxlarining o‘zgarishiga e’tibor bermaslik hamda eskirgan zahiralarni o‘z vaqtida hisobdan chiqarmaslik korxona aktivlarining haqiqiy qiymatini buzadi. Natijada, foyda miqdori sun’iy ravishda oshib yoki kamayib ko‘rsatiladi, bu esa boshqaruv qarorlarining samarasizligiga olib keladi. Shuningdek, inventarizatsiya va hujjatlashtirishdagi xatoliklar ham zaxiralar hisobi, nazorati va tahlilida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, korxonalarda tovar-moddiy zahiralarni baholash tizimini takomillashtirish, buxgalteriya hisobida yagona yondashuvni joriy etish va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Buxgalteriya siyosatini qayta ko‘rib chiqish. Korxona TMZni baholashda foydalaniladigan usul (FIFO, LIFO yoki AVCO)ni o‘z faoliyat xususiyatiga mos ravishda tanlashi va uni yil davomida izchil qo‘llashi zarur. Bu hisobotlarning solishtirilishini va tahlil qilishni yengillashtiradi.

Bozor narxlarini muntazam tahlil qilish. Tovar va materiallar qiymati bozor kon’yunkturasiga mos ravishda baholanishi lozim. Narxlar pasayganda zahiralarning qadrsizlanishi hisobda aks ettirilsa, aktivlarning haqiqiy qiymati saqlanadi.

Eskirgan va harakatsiz zaxiralarni o‘z vaqtida hisobdan chiqarish. Bu korxona balansida real bo‘lmagan aktivlarning saqlanishining oldini oladi hamda foyda ko‘rsatkichlarini sun’iy oshib ketishidan himoya qiladi.

Inventarizatsiya tizimini kuchaytirish. Yillik va rejalashtirilgan inventarizatsiyalarni o‘tkazish, farqlarni o‘z vaqtida aniqlash va hujjatlashtirish, moddiy javobgar shaxslar faoliyatini muntazam nazorat qilish lozim.

Ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish. Zaxiralar harakati ustidan ichki audit o‘tkazish, hujjat aylanishini tekshirish va noto‘g‘ri baholash holatlariga tezkor chora ko‘rish kerak..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wan Madznah Wan Ibrahim va Mobd Rizal Palil “Fundaments of business accounting “Oxford university Press.
2. Barry Elliot, Jam Elliot. Financial accounting and reporting. (IS B N 9 7 8 -1 -292-08057-4) L ondon, 2015. 17 th Edition. 101 p
3. Financial and managerial accounting, 12e, Carl S.Warren, James M.Reeve, Jonathan E.Duchac, 232-page, 2014
4. Financial and managerial accounting, 12e, Carl S.Warren, James M.Reeve, Jonathan E.Duchac, 232-page, 2014
5. LEX.UZ.

MATERIALLARNI BAHOLASHNING BUXGALTERIYADAGI AHAMIYATI

Shukurov Zafar Nazarovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Moliya va bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Zafar Shukurov 3250@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526740

Annotatsiya: Mazkur maqolada materiallarni baholash usullari va ularning buxgalteriya hisobidagi o‘rni keng yoritilgan. Korxonalarda materiallar harakatining to‘g‘ri aks ettirilishi, moliyaviy natijalarining haqqoniylik ko‘rsatilishi uchun baholashning turli usullaridan foydalaniladi. Har bir usulning o‘ziga xos jihatlari, ustunlik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy misollar asosida baholash natijalarining moliyaviy hisob-kitoblarga ta`siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Materiallar, baholash, FIFO, LIFO, o‘rtacha og‘irlangan narx, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, zaxiralar, qiymat, narx.

Аннотация: В данной статье освещаются методы оценки материалов и их роль в бухгалтерском учёте. Для правильного отражения движения материалов на предприятиях и достоверного представления финансовых результатов используются различные методы оценки, такие как FIFO, LIFO и средневзвешенная стоимость. В статье проанализированы преимущества и недостатки каждого метода, а также на практических примерах рассмотрено их влияние на финансовую отчётность.

Ключевые слова: материалы, оценка, FIFO, LIFO, средневзвешенная стоимость, бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, запасы, стоимость, цена.

Abstarct: This article discusses methods of material valuation and their role in accounting. To accurately reflect the movement of materials in enterprises and to present truthful financial results, various valuation methods such as FIFO, LIFO, and the weighted average cost are used. The article analyzes the advantages and disadvantages of each method and examines their impact on financial reporting through practical examples.

Key words: materials, valuation, FIFO, LIFO, weighted average cost, accounting, financial reporting, inventory, value, price.

Kirish.

Buxgalteriya hisobi har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy vazifalaridan biri-moliyaviy holat va xo‘jalik jarayonlarini haqqoniy, aniq va ishonchli tarzda aks ettirishdir. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan materiallar bu jarayonning ajralmas qismidir. Materiallarni hisobga olish va baholash korxonaning foydasini rentabelligini va umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular materiallar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, materiallar bir ishlab chiqarish jarayonida o‘zining qiymatini to‘la ravishda mahsulot tannarxiga o‘tkazadi. Xom – ashyo, asosiy va yordmachi materiallar, yoqilg‘i, extiyot qismlar korxona aylanma mablag‘larni tashkil qiladi. Aylanma mablag‘larining korxona uchun umumiy miqdori yuqori tashkilotlar, ya`ni tegishli vazirlik tomonidan belgilanadi. Materiallarning har bir turi bo‘yicha normativ miqdori korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to‘xtovsiz davom etib turishda belgilangan normativga rioya qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Xo‘jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xujjatsizlikka qarshi kurash, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e`tibor beriladi. Jumladan, moddiy va mehnat resurslarini to‘g‘ri, tejamli sarflash xalq xo‘jaligini yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

Aytilganlar asosida materiallar hisobing vazifalariga quyidagilar kiradi:

1.Materiallarning harakati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘z vaqtida tegishli xujjatlarda rasmiylashtirish.

2.Materiallarni joylashda ularning to‘g‘ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish.

3.Moddiy-texnika ta`minoti rejasinining bajarilishi ustidan nazorat olib borish.

4.Materiallarning ishlab chiqarishga to‘g‘ri berilishi va ularni sarflash meyyoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish.

5.Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan materiallarni kalkulyatsiya obektlari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash.

6.Ichki resusrlarni ishga solish maqsadida ortiqcha va foydalanilmayotgan materiallarni aniqlash va sotish.

Ushbu vazifalarni bajarishda korxonaning ta`minot tizimini va ombor xo‘jaligini tashkil qilishni yaxshilash muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Materiallarni baholash buxgalteriya hisobining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Baholash usullarining moliyaviy hisobotga, soliq hisobiga, va boshqaruv qarorlariga ta’siri masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

1. Xalqaro adabiyotlar: Xalqaro buxgalteriya hisobidagi yondashuvlar ko‘pincha MSFO (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) doirasida ko‘rib chiqiladi. MSFO 2-sonli standarti — “Zaxiralar” (Inventories) — materiallar, tayyor mahsulotlar va boshqa zaxiralarning baholanishi va hisobga olinishi bo‘yicha asosiy hujjat hisoblanadi. Bu standartda materiallarni baholashda FIFO**,** o‘rtacha og‘irlangan qiymat**,** va realizatsiya bo‘yicha sof qiymat usullari ko‘rsatib o‘tiladi. LIFO esa ushbu standartlar doirasida tan olinmaydi.

1.Horngren, Sundem, Stratton kabi mashhur mualliflarning "Accounting" darsliklarida baholash usullarining nazariy asoslari va ularning moliyaviy natijalarga ta’siri chuqur yoritilgan. Ular baholash usuli tanlovi kompaniya foydasiga, zaxira qiymatlariga va soliq majburiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini statistik misollar bilan izohlab bergan.

2.Needles & Powers (Financial Accounting) asarida esa materiallar harakati va ularga qo‘llaniladigan hisob usullari solishtirma tahlil asosida ko‘rsatilgan. Mualliflar baholashda aniqlik va uzluksizlik tamoyillariga urg‘u beradilar.

2. Mahalliy adabiyotlar O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)” doirasida materiallarni hisobga olish va baholash tartiblari belgilab berilgan. Xususan, BHMS №4 – “Zaxiralar” standarti, MSFOga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan bo‘lib, buxgalterlar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy olimlardan X. Hasanov, M. Alimov, Sh. Nuriddinov, I. Saydullayev kabi mutaxassislarning buxgalteriya hisobi bo‘yicha darslik va ilmiy maqolalarida materiallar bahosi va hisob usullarining iqtisodiy va moliyaviy tahliliga e’tibor qaratilgan. Xususan:

- X. Hasanovning “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil” asarida materiallar hisobi amaliy misollar asosida keng yoritilgan.
- M. Alimov esa o‘zining maqolalarida materiallarni noto‘g‘ri baholash oqibatida yuzaga keladigan buxgalteriya xatoliklari va ularning auditorlik tekshiruviga ta’sirini ko‘rsatadi.

Muhokama va natijalar

Materiallarning har bir turini tayyorlash, haqiqiy tannarxini hisoblash ko‘p mehnat va vaqt talab qilinadi. Shuning uchun ham ko‘pchilik hollarda moddiy boyliklar joriy hisobda-o‘rtacha sotib olinishi bahosi, rejasi, reja tannarxi bo‘yicha va boshqa baholarda baholanadi. Materiallarning haqiqiy tannarxi bilan o‘rtacha sotib olinish bahosi yoki reja tannarxi o‘rtasidagi farq ularning guruhlari bo‘yicha alohida analitik schyotlarda hisobga olinadi. Amaliyotda kompyuterlarning keng qo‘llanishi material zahiralari har bir turning haqiqiy tannarxini hisoblash imkoniyatini yaratadi. Materiallar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishda, hisob-kitob yuritishda va korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, materiallarni baholash masalasi buxgalteriya hisobida alohida ahamiyatga ega.Turli baholash usullari orqali korxona o‘zining aniq va ishonchli moliyaviy ma`lumotlariga ega bo‘ladi.

Materiallarni sintetik schyotida ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi joriy bahoda, ya`ni sotib olinishi(tayyorlash) reja tannarxi, yoki o‘rtacha sotib olinishi bahosi bo‘yicha hisobga olinadi.Bunday hollarda, o‘rtadagi farq “Materiallar qiymatidagi farqlar” schyotida aks ettiriladi.

4 – BHMS 9 -bandiga binoan «Material xarajatlari» elementida aks ettiriladigan sotib olinadigan material qiymatliklarining xaqiqiy bahosi (qiymati) quyidagilardan tashkil topadi: sotib olish narxi, import bo'yicha boj to'lovlari, mahsulotlarni sertifikatsiyalash xarajatlari, ta'minot va vositachilik tashkilotlariga to'lanmalar, soliqlar (keyinchalik soliq organlaridan qaytarib olinadigan soliqlardan tashqari, masalan QQS), shuningdek transport – tayyorlov xarajatlari, xizmat ko'rsatish xarajatlari va zahiralarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.[1]

Materiallarni baholashning asosiy maqsadi — ularning qiymatini to‘g‘ri aniqlab, buxgalteriya hisobida haqqoniy aks ettirishdir. Bu baholash orqali korxona o‘zining ishlab chiqarish tannarxini aniq hisoblaydi, daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farqni belgilaydi hamda moliyaviy hisobotlarda ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, bu jarayon soliqqa tortish, audit va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham katta ahamiyatga ega.

Materiallarni baholashda turli usullar qo‘llaniladi. Ularning har biri korxonaning hisob siyosatiga mos ravishda tanlanadi. Asosiy usullar quyidagilardan iborat:

FIFO (First In, First Out) – birinchi kirgan material birinchi chiqadi. Bu usul inflyatsiya sharoitida foydali, chunki eng eski (arzonroq) narxdagi material birinchi chiqariladi.

LIFO (Last In, First Out) – oxirgi kirgan material birinchi chiqadi. Bu usul inflyatsiya davrida ko‘proq xarajat ko‘rsatadi va foyda kamayadi.

O‘rtacha og‘irlangan qiymat usuli – mavjud barcha materiallarning umumiy qiymati va miqdoriga qarab o‘rtacha baho aniqlanadi. Bu usul oddiy va doimiy narxlarda foydali.

Misol:Korxonada oy mobaynida quyidagi materiallar partiyasi sotib olingan:

Sotib olingan sana	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (ming so‘m)
15.03.2025	1000	6000	6000
20.03.2025	1700	8000	13600
25.03.2025	1500	9000	13500
Jami	4200		33100

Xo’jalikda oy mobaynida 28000 ming so’mlik material sarflandi va omborda 5100 ming so’mlik material qoldi. Ushbu materiallarning sarflanishini uch xil usulda hisoblab chiqamiz.

O’rtacha tortilgan (AVEKO) usulida bir xildagi har bir sarflangan materiallar birligining qiymati davr boshiga qolgan va shu davr ichida sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlarning o’rtacha tortilgan qiymatida aniqlanadi. Xo’jalik yurituvchi subyektdagi vaziyatga qarab o’rtachasi davr oxirida yoki har bir qo’shimcha qabul qilingani bo’yicha hisoblab topiladi.

AVEKO usulida materiallarni baholash tartibi

1-jadval.

Material sarfi	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (ming so‘m)
1-partiya	1000	6000	6000
2-partiya	1700	8000	13600
3-partiya	100	9000	9000
Jami sarflangan material	2800	7666,67	21466,68
Ombordagi qoldiq	1400	7666,67	10733,34

AVEKO usuliga ko‘ra, materiallar o‘rtacha narx — 7666,67so‘m asosida baholandi. Jami 2800 dona material sarflanib, ularning umumiy qiymati 21466,68 ming so‘mni tashkil etdi. Omborda 1400 dona material

[1] 4-BXMS.Tovar moddiy zahiralarini baholash.

qoldi**,** ularning qiymati ham shu narx bo‘yicha 10733,34 ming so‘m deb baholandi. Bu usul narxlar o‘zgarishini tekislaydi va xarajatlarni barqaror ko‘rsatadi.

Hozirgi kundagi pulning qadrsizlanish davrida reja baholarini qo’llash tavsiya qilinmaydi. Bunday vaqtda FIFO va AVEKO usullarini qo’llash ma’qul.

Bugungi kunda materiallarni ishlab chiqarishga hisobdan chiqarishda 4-BHMSning 17 – bandiga muvofiq FIFO usulini qo’llashni tavsiya qilinadi. Bu usulda birinchi navbatda sotib olingan tovar-material zaxiralar birligi birinchi sotiladi yoki ishlab chiqarishga sarflanadi va demak davr oxiriga qolgan tovar-material zaxiralari – bu oxirgi sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlardir.[2]

FIFO usulida materiallarni baholash tartibi

2-jadval.

Material sarfi	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (ming so‘m)
1-partiya	1000	6000	6000
2-partiya	1700	8000	13600
3-partiya	100	9000	900
Jami sarflangan material	2800		20500
Ombordagi qoldiq	1400	900	1260

FIFO tartibida birinchi kirgan material birinchi chiqariladi, shu asosda 1- va 2- partiya to‘liq. 3-partiya esa faqat 100 dona sarflangan. Qolgan 1400 dona (3-partiyadan) omborda. Materiallar FIFO usulida to‘g‘ri baholangan - sarflangan qiymat 2050 ming so‘m, ombordagi qoldiq esa 1260 ming so‘m.

Xalqaro andazalar tomonidan TMZni hisobga olish va baholashda LIFO usulidan foydalanishga ruxsat berilgan. Bu usulda oxirgi navbatda sotib olingan tovar – material zaxiralar (TMZ) birligi birinchi sotiladi yoki ishlab chiqarishga sarflanadi, demak davr oxiriga qolgan tovar – material zaxiralari birinchi sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlardir.

LIFO usulida materiallarni baholash tartibi

3-jadval.

Material sarfi	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (ming so‘m)
3 – partiya	1500	9000	13500
2 – partiya	1300	8000	10400
1 – partiya	-	-	-
Jami sarflangan material	2800		23900
Ombordagi qoldiq: 1- partiyadan – 2- partiyadan – Jami:	 1000 400 1400	 6000 8000	 6000 3200 9200

LIFO usuliga ko`ra, oxirgi kirgan birinchi sarflanadi. 3 – partiya to‘liq 1500 dona va 2 – partiyadan 1300 dona jami – 2800 dona**,** 23900 ming so‘mlik sarflangan**,** omborda faqat 2 – partiyadan 400 dona hamda 1-partiyadan 1000 dona qolgan. LIFO bo‘yicha oxirgi kelganlar (3- va 2-partiya) birinchi sarflandi. Qoldiq faqat 1 va 2 -partiyadan.[3]

[2] 4-BXMS.Tovar moddiy zahiralarini baholash.

[3] Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 403 b

Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi subyektlarda materiallarni ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarish va materiallarni baholash usuli ularning hisob siyosatida o'z aksini topmog'i lozim.

Materiallarning to‘g‘ri baholanishi korxonaning umumiy moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Agar materiallar noto‘g‘ri baholansa, bu ishlab chiqarish tannarxining noto‘g‘ri hisoblanishiga, foyda yoki zarar noto‘g‘ri ko‘rsatilishiga olib keladi. Shuning uchun, buxgalterlar materiallarning harakatini hisobga olib, baholash usulini to‘g‘ri tanlashi zarur. Bu esa nafaqat ichki hisobotlar, balki soliq organlari va investorlar uchun ham ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Materiallarni baholash buxgalteriya hisobining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. U material resurslarining haqiqatga yaqin qiymatlarda aks ettirilishini ta'minlaydi. To‘g‘ri tanlangan baholash usuli nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini aniq belgilash, balki foyda va zarar ko‘rsatkichlarini ishonchli hisoblash imkonini beradi. Korxona faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishiga bog‘liq bo‘lib, bunda materiallarni baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu jarayonga professional va mas'uliyat bilan yondashish lozim.

Materiallarni baholash usullarining to‘g‘ri tanlanishi korxonaning moliyaviy barqarorligi, hisobotning haqqoniyligi va soliq strategiyasiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Har bir usulning afzallik va kamchiliklari hisobga olingan holda, korxona o‘ziga mos usulni tanlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida.” 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон
2. 4-BXMS.Tovar moddiy zahiralarini baholash.
3. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 403 b
4. Tursunov, N. (2013). *“Moliyaviy tahlil va boshqaruv.”* Toshkent: Iqtisodiyoti va statistika nashriyoti.
5. Qurbonov Z.N., Misirov K., Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2020. –756 b
6. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O‘quv qo‘llanma. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 400 b.
7. Karimov A., Ibragimov A., Rizaev N., Imamova N. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik. - T.: TMI. «Iqtisod-Moliya», 2020 y.306 b
8. Kuljonov O., Ortiqov X., Yugay L., Tuxsanov X., M.Xayitboyev Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –480 b.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MA'SALALARI

Tadjiev Erkin Muxitdinovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Moliya va bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526749

Annotatsiya: Ushbu moqolada professional ta'lim muassasalarida raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi yunalishi misolida buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni takomillashtirish taxlil qilinadi. Talabalarga raqamli texnologiyalarni o'rgatish, buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni takomillashtirish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotda professiyanal ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni tashkil etishni takomillashtirish masalalari bayon qidingan.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya xisobi tizimi, ichki nazorat tizimi, professional ta'lim, auditorlik tashkilotlarining ichki standartlar, sentetik xisob, analitik xisob, audit muximlik, auditorlik riski.

Аннотация: В данной статье анализируется совершенствование бухгалтерского учета и внутреннего контроля на примере магистратуры цифровой обработки информации в профессиональных образовательных организациях. Студентов обучат цифровым технологиям, способам совершенствования бухгалтерского учета и внутреннего контроля. В исследовании рассмотрены вопросы совершенствования организации бухгалтерского учета и внутреннего контроля в профессиональных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Система бухгалтерского учета, система внутреннего контроля, профессиональное образование, внутренние стандарты аудиторских организаций, синтетический учет, аналитический учет, значимость аудита, аудиторский риск.

Abstract: This article analyzes the improvement of accounting and internal control in vocational educational institutions using the example of the master's degree in digital information processing. It discusses ways to teach students digital technologies, improve accounting and internal control. The study addresses the issues of improving the organization of accounting and internal control in vocational educational institutions.

Ke vords: Accounting system, internal control system, professional education, internal standards of audit organizations, synthetic account, analytical account, audit importance, audit risk.

Kirish: Respublikamizda professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan isloxotlar olinib bormoqda, bu borada auditorlik foaliyatini aloxida e'tirof etishimiz mumkin, moliyaviy nazoratning zamonaviy shakli bo'lgan - auditorlik xizmatining rivojlanishiga e'tibor kuchaydi. Bu borada katta ishlar amalga oshirilganligi, audit sohasida yaratilgan me'yoriy-huquqiy asos, milliy audit bozorimizdagi mavjud auditorlik firmalarimiz va ular faoliyat yurita'yotgan auditorlar salohiyatida ko'rishimiz mumkin.[1]

Professional ta'lim tizimi jamiyatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan soxa bo'lib ta'lim olish jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikma va malakalarni xam shakllantirish zaruratini olib bormoqda.Avvalo "buxgalteriya hisobi tizimi", "ichki nazorat tizimi" kabi tushunchalarga me'yoriy huquqiy hujjatlar nuqtai nazaridan izoh berib o'tsak. O'zbekiston Respublikasining 12 sonli "Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash" nomli auditorlik faoliyatining milliy standartida yuqoridagi tushunchalarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Buxgalteriya hisobi tizimi - xo'jalik yurituvchi subyektning vazifalari va yozuvlarining yig'indisi bo'lib, ular orqali moliyaviy hisobotda xo'jalik operatsiyalari va boshqa voqealar natijalarini identifikatsiyalash, to'plash, tahlil qilish, hisoblash, tasniflash, umumlashtirish va aks ettirish maqsadida buxgalteriya hisobini yuritish usuli sifatida xo'jalik operatsiyalari natijalarini qayta ishlash;

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-sonli Qarori, Toshkent shahri, 2021 yil 24 dekabr https://lex.uz/docs/5793251

Ichki nazorat tizimi - xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta’minlash, xato va firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to‘liqligi va o‘z vaqtida ishonchli moliyaviy ma’lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig‘indisi” Har qanday holatda ham auditor xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya xo‘jaligi faoliyatini tekshirishdan oldin korxonada buxgalteriya hisobi qanday tashkil etilganligini va hozirda qanday yuritilayotganligini o‘rganishi lozim. Ichki nazorat tizimi faoliyatini o‘rganib uni baholash esa auditorga tekshiruv jarayonida unga tayanish mumkin yoki yo‘qligi haqida qaror qabul qilishida yordam beradi. Bular esa o‘z navbatida auditning muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan risk va muhimlik chegaralarini aniqlashda auditorga qo‘l keladi**.**

Ichki nazorat tizimi va risk chegaralarini aniqlashning nazariyasi auditorlik tekshiruvining asosiy muammoli hududlaridan bo‘lib, g‘arbda 1980 yillarning oxiri 1990 yillarning boshiga kelib bu tushunchalar keng qo‘llanila boshlandi. Korxonada yuritilayotgan buxgalteriya hisobi xo‘jalik faoliyatini ishonarli aks ettirayotganini aniqlash uchun auditor quyidagilarga ahamiyat beradi: hisob hujjatlarining aylanish reja-jadvali, buxgalteriya xizmati xodimlarining vazifasi va mas’uliyatlari chegarasining belgilanishi, korxonada amalga oshiriladigan odatiy va bir martalik muomalalarni aks ettirishda “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil www.iqtisodiyot.uz 3 foydalaniladigan schetlar hamda ularning o‘zaro bog‘lanishi bayoni va boshqalar. 12-sonli auditning milliy standartida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o‘rganish hamda baholash auditorlik tashkilotining ish hujjatlarida albatta aks ettirilishi lozimligi aytilgan va bunda quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

a) Maxsus ishlab chiqilgan test amallaridan;

b) Rahbariyat xodimlari va buxgalteriya ishchilarining fikrlarini aniqlash maqsadida namunaviy savollar ro‘yxatidan;

v) Tekshiruv varaqlari va maxsus blankalardan;

g) E’tirozlar ro‘yxati, bayonnoma yoki dalolatnomalardan. Guvohi bo‘lganimizdek, yuqoridagi hujjatlardan foydalanish havola tusiga ega bo‘lib, auditorlik tashkiloti mazkur va boshqa auditorlik faoliyatining milliy standartlari talablari asosida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o‘rganishning va baholashning tartibini hamda uslubini mustaqil ishlab chiqadi, shuningdek baholash va o‘rganish natijalaridan kelib chiqib, auditorlik tekshiruvidagi muhimlik va risk darajasini aniqlaydi. Ta’kidlaganimizdek, ichki nazorat tizimini o‘rganish va baholash usuli auditor nuqtai nazaridan kelib chiqib belgilanadi. Bunda tekshirilayotgan mijozning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Yuqoridagi tizimlarning hajmi va murakkablik darajasi ularni o‘rganish hamda baholash metodiga, shu bilan birga tekshiriladigan hujjatlar hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Tekshirilayotgan korxona buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: 1) Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi bilan umumiy tanishish; 2) Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining ishonchlilik darajasini oldindan taxminiy baholash;

3) Taxminiy baholangan buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining ishonchlilik darajasini tasdiqlash. Biz yuqorida aytib o‘tgan milliy standartda ta’kidlanganidek, rasmiy auditorlik xulosasini tayyorlashni ko‘zda tutuvchi barcha auditorlik tekshiruvlari jarayonida auditorlar tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektda qo‘llanilayotgan buxgalteriya hisobi tizimini tekshirishlari shart va bunda rejalashtirilayotgan auditorlik amallarining mohiyati, hajmi va vaqtinchalik xarajatlarini aniqlashga asos bo‘ladigan nazorat vositalarini o‘rganishlari va baholashlari lozim. Shunday ekan, ushbu tizimlarni tez fursatda ishonchli va aniq baholash usullarini va yondashuvlarini ishlab chiqib amaliyotda tatbiq qilish pirovardida ular orasidan samaralilarini tanlab joriy etish auditorlik tekshiruvlari jarayonlarining jadallashuviga imkon yaratadi.

Muammo: Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va axborat tizimlarining tez suratlarda rivojlanishi ta’lim tizimida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning samarali intigratsiyasi va o‘quvchilarning amaliyotdagi faoliyatini oshirish uchun mavjud pedagogik metotlar va amaliyot jarayonlarida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Asosiy muammo shundan iboratki, professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning amaliyotga tayyorlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni o'rgatish hali to'liq tizimli ravishda tashkil etilmagan. O'quvchilar amaliyot jarayonida raqamlivositalarni samarali qo'llashi uchun ta'lim muassasalarida yetarli infratuzilma mavjud yemas. Shuningdek, amaliyot rahbarlarining zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'rgatishga tayyorgarligi va malakasi har xil darajada bo'lganligisababli o'z navbatida o'quvchilarning amaliyotdagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tashkil yetilmasligi, o'quvchilarning individual yehtiyojlarini inobatga olmaslik va amaliyotga yo'naltirishning notekisligi ham muammo bo'lib qolmoqda.

Мухокама: O'quvchilarning amaliyotga yo'naltirilishining pedagogik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, ta'lim tizimida mavjud bo'lgan ba'zi muammolarni va ularni hal yetish yo'llarini ko'rib chiqish kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, amaliyot jarayonini samarali tashkil yetish va o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda ba'zi asosiy qiyinchiliklar mavjud:

1. Raqamli axborotlarni qayta ishlash sohasida ta'lim muassasalarining resurslari yetarli yemas. Ko'plab ta'lim muassasalarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'rganishga mo'ljallangan yetarlicha infratuzilma yo'q. Amaliyot jarayonida o'quvchilarga axborotlarni qayta ishlashning ilg'or metodlarini o'rgatish uchun texnologik vositalar va dasturiy ta'minotlar zarur bo'ladi. Agar ta'lim muassasalarida bunday vositalar mavjud bo'lmasa, o'quvchilarning amaliyotdagi faoliyat samarasi past bo'lishi tabiiy.

2. Amaliyot rahbarlarning raqamli texnologiyalarni o'rgatishga bo'lgan tayyorgarligi ham muhim muammo hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab amaliyot rahbarlari raqamli vositalarni

o'quv jarayonida samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va texnologiyalarga yega yemaslar. Shu bilan birga, o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'rgatish bo'yicha malakasini oshirish zarurati mavjud. Amaliyot rahbarlariga raqamli texnologiyalarni o'rgatish va amaliyot jarayonini samarali tashkil yetish maqsadida o'quv-uslubiy seminarlar tashkil yetilishi kerak.

3.O'quvchilarning amaliyotdagi muvaffaqiyatlari ko'pincha ularning kasbiy faoliyatga tayyorlanish darajasi bilan bog'liq.

O'quvchilarning raqamli texnologiyalarni o'rganishdagi muvaffaqiyatlari to'g'ridan to'g'ri o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlariga va amaliyotga yo'naltirish usullariga bog'liq yekanligini tadqiqot natijalari ko'rsatmoqda. O'quvchilarning individual yehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularning amaliyotga yo'naltirishida differensiyallashgan yondashuvlar zarurdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning amaliyotga yo'naltirilishida ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil yetish uchun bir qator muhim omillar mavjud. Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu jarayon o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rgatadi, ularni zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlashga tayyorlaydi. O'quvchilarning amaliyotga yo'naltirilishida innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash, masalan, flipped-classroom, loyihaga asoslangan ta'lim va simulyatsiyalar yordamida amaliyotga yo'naltirish samarali natijalar beradi. Bu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini oshirib, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliyot samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning individual yehtiyojlarini inobatga olib, pedagogik yondashuvlarni moslashtirish zarur. Differensiyallashgan yondashuv o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarori (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 60-sonli Qarori, Toshkent shahri, 2021 yil 24 dekabr https://lex.uz/docs/5793261

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-sonli Qarori, Toshkent shahri, 2021 yil 24 dekabr https://lex.uz/docs/5793251`
3. Sh.E. Amirxanov (2012) Razvitiye vnutrennogo finansovogo kontrolya v byudjetnых uchrejdeniyat (na primere byudjetnых uchrejdeniy v sfere vыsshego professionalnogo obrazovaniya) avtoreferat dissertatsii soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk, Maxachkala – 2012, str.-22.
4. A.A.Ostonaqulov “Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish” monografiya. T: VNESHINVESTPROM nashriyoti, 2021, 208 bet.
5. A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev (2010) Byudjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. infoCOM.uz MCHJ. T.: 2010, 192 b.
6. S.U.Mehmonov (2018) Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan.dok. (DSc) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.-T.:2018. –B36.
7. Z.U.Xamidova (2021) Byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari: Monografiya – T.: 2021, - 183 b.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI

Tadjiev Erkin Muxitdinovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Moliya va bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526757

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional ta'lim tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning zarurligi nazariy jihatdan asoslangan. Buxgalteriya hisobi kalkulyatsiyasi va xarajatlar hisobining metodologik muammolari tadqiq etilgan. Davlat tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish uslubiyoti va buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Byudjet, smeta, xarajatlar, kalkulyatsiya, moliyaviy hisobot, daromadlar va xarajatlar, byudjet nazorati.

Аннотация: В статье теоретически обоснована необходимость организация и ведения бухгалтерского учета с учетом специфических особенностей деятельности профессиональных образовательных организация. Изучены методологические проблемы бухгалтерских расчетов и учета затрат. Предложены направления совершенствования учетной политики и методологии бухгалтерского учета в государственных организация.

Ключевые слова: Бюджет, смета, затраты, расчет, финансовая отчетность, доходы и расходы, контроль бюджета.

Abstract: In this article, the need to organize and maintain accounting based on the specific characteristics of the activities of professional educational organizations is theoretically based. Methodological problems of accounting calculations and cost accounting are studied. Directions for improving accounting policy and accounting methodology in state organizations are proposed.

Keyvords: Budget, estimate, costs, calculation, financial reporting, income and expenses, budget control.

Kirish: Jahon amaliyotida professional ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Professional ta'lim muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlarining shaffofligi bilan bog'liq. Shu sababdan ham, jahonning aksariyat mamlakatlarida byudjet ijrosi hisobi va hisobotini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida rivojlantirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, davlat tibbiyot muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritishning uslubiy jihatlari, mablag'lardan maqsadli, manzilli va samarali foydalanish yuzasidan axborotlarning aniqligi, davlat tibbiyot muassasalarida mablag'lardan maqsadli foydalanishda ichki nazorat tizimining rolini kuchaytirish, ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash bo'yicha qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Mablag'lar sarfiga oid hisob va hisobotlarning axborot imkoniyatini kengaytirish hamda ishonliligini ta'minlash, moliyaviy nazorat tizimini yaxshilash bilan bog'liq hal etilishi zarur bo'lgan jihatlar mavjud.[1] Ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil qiish va uning moliyaviy hisobotlarini shakllantirish borasida respublikamiz hamda xorijlik iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy asarlarida bu tushunchalarga batafsil ta'riflar berilganini ko'rish mumkin. Bunda qo'yidagi fikrlarni aytib o'tish mumkin "byudjet tashkilotlari va muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisobotining nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etgan. Tadqiqot ishini o'rganganimizda olim me'yoriy hujjatlardan kelib chiqqan holda kerakli o'rinlarda ta'lim muassasalari tushunchalaridan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin".

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-sonli Qarori, Toshkent shahri, 2021 yil 24 dekabr https://lex.uz/docs/5793251

“Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tashkil etish masalalariga alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, bunda davlat sektorida tashkiliy-huquqiy maqomiga ko‘ra sub’ektlarning ikki turga: byudjet tashkiloti va muassasalar ajratilishini, ya’ni ijtimoiy-madaniy vazifalarni tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman byudjetdan moliyaviy jihatdan ta’minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanishi ko‘rsatilgan”. “Davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va ichki auditini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan. Tadqiqotchi Byudjet kodeksining tegishli moddalariga muvofiq tibbiyot tashkiloti tushunchasi orqali mavzuning dolzarbligini ochib berishga hamda tibbiyot tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobini takomillashtirish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qilgan”. Hozirgi vaqtda davlat byudjetining jami xarajatlariga nisbatan sog‘liqni saqlash sohasiga ajratiladigan mablag‘larning umumiy ulushi 12 foizni tashkil qilib, bu mablag‘lar sarfi hududlar joylashgan davlat tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirilishi hisobiga amalga oshiriladi. Bu mablag‘larning maqsadli va oqilona sarflanishini ta’minlash hamda ular bo‘yicha tegishli axborotlarni shakllantirilishi muassasalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Har bir ta’lim tashkilotiga byudjetdan mablag‘ ajratish moliya organlari tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi. Ta’lim tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish, Ta’lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ularning faoliyat yo‘nalishi yoki ixtisoslashuvi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlar o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- byudjet tasnifi asosida buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va hisobotlarni shakllantirilishi;
-daromadlar va xarajatlar smetalarining ijrosi nazorat qilinishi;
- byudjet ijrosini g‘aznachilik tizimiga o‘tishi;
- kassa va haqiqiy xarajatlar hisobini yuritilishi;
- Ta’lim tashkilotlarining faoliyat yo‘nalishlari va ixtisoslashuvi bo‘yicha buxgalteriya hisobining xususiyatlari.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari hisob vazifalarini, xususan tasdiqlangan smetalarni to‘g‘ri ijrosini ta’minlash, byudjet intizomiga qat’iy rioya qilish, byudjetdan tashqari jamg‘armalarini shakllantirish, muassasaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning ichki iqtisodiy zaxiralarini aniqlashni taqazo qiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, tibbiyot tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, boshqarish va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishda buxgalteriya hisobi muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot tashkilotlarida barcha hisob ob’ektlari pul o‘chlov birligida hisobi yuritilib, moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi. Bu buxgalteriya hisobi ob’ektlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi, lekin tibbiyot tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarish va tasarruf etishda ma’lumotlarning to‘liq bo‘lishi ta’minlamaydi. Shu boisdan, ta’lim tashkilotlarida samarali boshqaruv yuzasidan qaror qabul qilish maqsadida boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish muhim sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Professional ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda ta’lim sifatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, o’quvchilar bilimini oshirish asosiy komponentlardan bir sifatida yangi yaratilayotgan o’quv adabiyotlar ta’minlanishi hisoblanadi. Bu borada, o’quvchilarning zamonaviy texnologiyalar asosida bilimlarini oshirishga xizmat qiladigan yangi adabiyotlarni, ta’lim kontentlarini yaratish, ta’lim muassasalarini metodik ta’minotini mustahkamlash borasida quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish lozim bo’ladi. professional ta’lim muassasalarining o’quvchilariga 2030- yilgacha o’quv adabiyotlar bilan ta’minlash dasturi asosida yangi o’quv adabiyotlar bosqichmabosqich ta’minlash; oliy ta’lim muassasalari tomonidan professional ta’lim muassasalariga o’quvmetodik materiallari va elektron resurslar bilan ta’minlashni kuchaytirish; professional ta’lim muassasalarining xorijiy til fani o’qituvchilarini bepul o’quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash; o’quvchilarni adabiyotlar, o’qitish materiallari to’plamlaridan elektron foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida mobil ilova yaratish; xalqaro moliya instituti homiyligida, badiiy adabiyotlar, turli ixtisoslik va yo’nalishlardagi adabiyotlar bilan ta’minlab borish.

XULOSA Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, professional ta’lim muassasalarda va buxgalteriya hisobini tashkel etishda yangi avlod darsliklari bilan ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo’lib qolmoqda. Professional ta’lim tizimi uchun yangi adabiyotlarni yaratilishida uning zamonaviyligi, eski

adabiyotlardan farqlanishi, xorijiy adabiyotlarga mosligi, zamonaviy texnologiyalar asosida yangilab borilishiga hamda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish imkoniyati yuqoriligiga alohida e'tibor berilishi lozim. Professional ta'lim muassasalariga va buxgalteriya hisobini tashkel etishda qo'yiladigan yagona talab sifatli va bilimli kadrlarni yetishtirib berish bo'lib, bu holatda o'quvchilarni sifatli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab borish oldimizdagi asosiy muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-sonli Qarori, Toshkent shahri, 2021 yil 24 dekabr https://lex.uz/docs/5793251`
2. Ostonokulov A.A (2021). Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish Dis. avtoref. iqt.fan.d-ri (DSc). –T. 2021. –72 b.
3. Ibragimov K.Sh (2018). Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). i.f.n. (PhD) diss. avtoreferati. – T. 2018. –54 b.
4. Qurbonov Sh.M (2022). Davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan
5. tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD).
6. avtoreferati. – T. 2022. –58 b.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITI

Temirov Xudoyberdi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tadbirkorlik va boshqaruv fakultiteti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi
IV- bosqich talabasi
Tel:+998 90 418 75 71
E-mail: xudoyberdi844@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526779

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda korxona va tashkilotlarda xodimlarga hisoblanadigan ish haqi va uning hisob kitob bajarilganligidan so‘ng audit tekshiruvlari va uning natijalari bo‘yicha ishlar haqida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ish haqi, audit, haq to‘lash , qonunchilik.

Hozirgi paytda munosib maosh olish har bir xodimning farovon hayot kechirishining asosi hisoblanadi. Har bir inson va uning oila a’zolari o‘zlarining fiziologik va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishlari kerak. Bunday ehtiyojlarni qondirish uchun odamlarga doimiy daromad kerak bo“lib, uning asosini har qanday xodimning ish haqqisi tashkil qiladi.

Hammamizga ma’lumki, iqtisodiy manbalar va adabiyotlarda “ish haqi”, “ish haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” va “ish haqi hisob-kitoblar auditi” tushunchalariga iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan bir-biriga yaqin turlicha yondashuvlar bildirilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida ish haqi – ish beruvchi tomonidan xodimning malakasiga, bajaradigan ishining murakkabligiga, miqdoriga, sifati va sharoitlariga qarab to‘lanadigan mehnat uchun mukofot summasi, shuningdek kompensatsiya xususiyatiga ega to‘lovlar va rag‘batlantiruvchi to‘lovlar (rag‘batlantiruvchi xususiyatga ega qo‘shimcha to‘lovlar hamda ustamalar, mukofotlar va taqdirlovchi to‘lovlar) hisoblanadi degan ta’rif berilgan.[1]

Ishbay va vaqtbay ish haqini hisoblash deb quyidagicha hisoblagan.

Ishbay ish haqi shaklida ishlovchi xodimga asosiy ish haqi summasi uning haqiqatda bajargan ish hajmini bir birlik ish uchun belgilangan ish haqi me’yoriga ko‘paytirish yo‘li bilan topiladi;

Vaqtbay ish haqi shaklida ishlovchi xodimga asosiy ish haqi summasi uning haqiqatda ishlagan soatlari yoki kunlari sonini bir soatlik yoki bir kunlik o‘rtacha ish haqiga ko‘paytirish yo‘li bilan topiladi deb taqidlagan.[2]

Odatda, har qanday korxonaning asosiy maqsadi foydani oshirish va xarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Amaliyotda esa, ayrim boshqaruv xodimlari xarajatlarni shakllantirish va kamaytirish Bo‘yicha to‘g‘ri siyosat yuritmaydi. Natijada, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasi past bo‘ladi.

Fikrimizcha, mahsulot tannarxini shakllantirish vaqtida xarajatlar elementlarini to‘g‘ri va aniq guruhlarga taqsimlash kerak.

Ish haqi auditi — bu korxonaning ish haqi hisob-kitoblarini, xodimlarga to‘lovlarni, soliqlarni va ijtimoiy ajratmalarni tekshirish jarayonidir.

Asosiy maqsad — ish haqi to‘lovlari to‘g‘ri, qonuniy va buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq amalga oshirilganini aniqlash.

Ish haqi auditi maqsadi:

- Xodimlarga ish haqi, mukofot, ustama va boshqa to‘lovlar to‘g‘ri hisoblanganini tekshirish.Ish haqi fondining qonuniy ishlatilganini aniqlash.
- Ish haqi bo‘yicha soliq va ijtimoiy ajratmalar to‘g‘ri hisoblanganini va o‘z vaqtida to‘langanini aniqlash.
- Mehnat shartnomalari va kadrlar hujjatlari to‘liq yuritilganini tekshirish.

Auditning asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi:

- Mehnat shartnomalari va buyruqlar;
- Xodimlar hisob varaqalari;

[1]Mehnat kodeksi 243-modda. 30.04.2023

[2] K.B.Urazov “Buxgalteriya hisobi va audit” O’quv qo’llanma. T-2024.

- Ish haqi hisob-kitob vedomostlari;
- Soliq va ajratma hujjatlari (YaIM, ijtimoiy to‘lovlar va boshqalar).

Ish haqi hisoblashning to‘g‘riligini tekshirish — tabel ma’lumotlariga asoslanib mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar va kompensatsiyalar qonuniyligini tekshirish, soliq va ajratmalar (daromad solig‘i, pensiya, sug‘urta, tibbiy ajratma) to‘g‘riligini nazorat qilish, xodimlar ro‘yxati va haqiqatda ishlaganlar o‘rtasida farq yo‘qligini (ya’ni “soxta xodimlar” mavjud emasligini) aniqlash va h.k..

Audit yakunida auditor:

- Aniqlangan xatolar va kamchiliklar haqida hisobot (audit xulosasi) tayyorlaydi;
- Ish haqi hisobi va ichki nazorat tizimini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Ish haqi auditining ahamiyati:

- Korxonaning moliyaviy hisobini aniq qiladi;
- Ishchilarga nisbatan adolatli to‘lovni ta’minlaydi;
- Soliq va qonunbuzarliklarning oldini oladi;
- Korxonaning obro‘sini oshiradi.[3]

Mehnatga haq to‘lash – ish beruvchining qonunlarga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, jamoaviy bitimlarga va mehnat shartnomalariga muvofiq ish beruvchilarning xodimlar mehnatlari uchun haq hisoblash va to‘lashlarini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimidir. Mehnat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas va uning eng ko‘p miqdori biron-bir tarzda cheklanmaydi.

Mehnatga haq to‘lashning tarif tizimi: O‘zR Mehnat kodeksi (IX bob) amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan haq to‘lash tarif tizimlarini, shu jumladan mehnatga haq to‘lashning tarif tizimini tartibga soladi. Tarif tizimi – xodimlarning turli guruhlari va malakalariga qarab ish haqi darajasini tartibga soluvchi normativlar majmui (bajarilgan ishning murakkabligi, mehnat sharoitlari, xarakteri va intensivligi, xodimlarning malakasi, ishni bajarish sharotitlari).[4]

Mehnat shartnomasi o‘zgartirilganligini qonunga xilof deb hisoblovchi xodim o‘zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi o‘zgartirilganligi ustidan shikoyat qilishga haqli. Mehnat sharoitlari qonunga xilof ravishda o‘zgartirilgan taqdirda, xodimning avvalgi mehnat sharoitlarini tiklash to‘g‘risidagi talablari qanoatlantirilishi lozim.

Agar mehnat sharoitlarining qonunga xilof deb e’tirof etilgan o‘zgarishlari xodimning mehnatga haq to‘lash miqdori kamayishiga olib kelgan bo‘lsa, xodimning o‘ziga yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash haqidagi talablari qanoatlantirilishi lozim.

Xodim boshqa ishga qonunga xilof ravishda o‘tkazilgan taqdirda, xodimning o‘zini avvalgi ishiga tiklash, boshqa ishga qonunga xilof ravishda o‘tkazilganligi sababli kelib chiqqan majburiy progul vaqti uchun haq to‘lanishi to‘g‘risidagi talablari qanoatlantirilishi lozim. Agar xodim o‘zi qonunga xilof ravishda o‘tkazilgan ishni bajarsa, lekin bu ishdagi mehnatiga haq to‘lash miqdori ushbu xodim bu ishga o‘tkazilishidan ilgari bajargan ishidagi mehnatiga haq to‘lash miqdoridan past bo‘lsa, majburiy progul uchun haq to‘lash xodimga avvalgi ishidagi va xodim qonunga xilof ravishda o‘tkazilgan ishdagi mehnatga haq to‘lash o‘rtasidagi farqning o‘rnini qoplashdan iborat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 2023-yil
2. G.Q.Turayeva, B.E.Matrasulov “Buxgalteriya hisobi” Toshkent-2023.
3. K.B.Urazov “Buxgalteriya hisobi va audit” O‘quv qo‘llanma. T-2024.
4. **Foydalanilgan saytlar:** lex.uz.’ O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.

[3] https://www.norma.uz.mehnat kodeki
[4] G.Q.Turayeva.B.E.Matrasulov.“Buxgalteriya hisobi” Toshkent-2023

KORXONALARDA PUL MABLAG'LARI HISOBI VA AUDITI ASOSLARINI O'RGANISH

Berdiyev Diyorbek Shuxrat o'g'li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi talabasi
tel +998 (93) 754 88 66
E-mail: berdiyevdiyorbek2004@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526790

Annotatsiya: Hozirgi iqtisodiyot jarayonida pul mablag'larini asosiy maqsadlari ularni to'g'ri taqsimalsh va ulardan samarali foydalanish jarayoni bo'lib kelmoqda. shu boisdan biz uni takomillashtirish uchun korxona pul mablag'laridan samarali foydalanishda uningauditiga katta e'tibor qaratishimiz darkor va uni bartaraf etish maqsadida ushbu tezisda chora tadbirlari ko'zda tutiladi.

Kalit so'zlar: Pul mablag'lari, moliyaviy hisobotlar, tahlil, auditorlar, audit, tashkilot, samaradorlik.

Jamiyatni boshqarish samaradorligi to'liq va ishonchli moliyaviy axborot mavjudligiga bog'liq. Pul mablag'lari — bu boshqaruv, qaror qabul qilish va tashqi manfaatdor tomonlar (investorlar, sug'urta kompaniyalari, regulatorlar) uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri. Shu sababli pul oqimlari hisobotining to'g'ri tuzilishi va unga auditorlik tasdig'i iqtisodiy barqarorlik va ishonchni ta'minlashda markaziy ahamiyatga ega.

Avstraliyalik iqtisodchi olim K. Mengerning fikricha Aristotel va Platondan boshlab XX asrning boshigacha pul to'g'risida jahonda besh-olti mingdan ortiq maxsus ishlar chop qilingan. Agar biz hozirgi kunda pul to'g'risida yozilgan va chop qilingan adabiyotlar soni bir necha marta oshib ketgan desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Tadqiqotlar shunchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan pul va uning xususiyatlari, har bir tizimda ishlatilishi, roli, iqtisodga ta'siri, nega alohida olingan individumlar qo'lida pulning ko'payishi ularning boyligining ko'payishiga olib keladi-yu, jamiyat miqyosida muomaladagi pul massasining ko'payishi jamiyat boyligi ortib borishigasalbiy ta'sir ko'rsatadi degan savollarga hali to'liq javob berilgan emas.

Pul va uning vazifalari to'g'risida mavjud xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarning qo'llanmalarini olib qaraydigan bo'lsak, pulning kelib chiqishi to'g'risida ikki xil g'oya mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bular ratsionalistik va evolyutsion g'oyalardir.

A. Smit, D.Rikardolarning Samuelson P. Ekonomika kitobida quyidagicha tarif berilgan va ularning tadqiqotlariga asoslangan holda pulning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Pulning o'zi ham Tovar ekanligini, pulning kelib chiqishi bosqichlarini izohlab bera oldi.

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot hisobot davridagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining kirib kelishi va chiqishini aks ettiruvchi hujjatdir. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va taqdim etish bir xil nom bilan tartibga solinadi. Ushbu hisobot barcha korxonalar tomonidan taqdim etilishi kerak.

Naqd pulga to'g'ridan-to'g'ri naqd pul va talab qilingan bank depozitlari kiradi. Naqd pul ekvivalentlari qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar bo'lib, ular qiymatining o'zgarishi xavfi kam bo'lib, osonlik bilan ma'lum miqdordagi naqd pulga aylantirilishi mumkin. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot shakli uchta yo'nalishda tuziladi:

tashkilotning joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyati. Shuning uchun auditor ushbu faoliyat turlari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi va to'g'riligini tekshirishi kerak.

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot sug'urta tashkilotining bank hisobvaraqlarida va naqd pulda saqlanadigan naqd pul va valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib beradi. Hisobotda naqd pul va valyuta mablag'larini hisobga olish bo'yicha hisobvaraqlardagi yozuvlardan kelib chiqadigan ma'lumotlar aks ettiriladi. Shu bilan birga, auditor shuni yodda tutishi kerakki, agar valyuta hisobvaraqlari mavjud bo'lsa, birinchi navbatda har bir valyuta turi bo'yicha valyuta mablag'lari harakatining hisob-kitobi amalga oshiriladi, so'ngra hisob kitob ma'lumotlari valyuta kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi .

Adam Smit, klassik iqtisodiy maktab asoschisi, pulni almashinuv vositasi va boylik o'lchovi sifatida izohlaydi. Uning fikricha:

Pulning o‘zi boylik emas, balki boylikni yaratish vositasidir. Jamiyat boyligi ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi bilan o‘lchanadi, naqd pul miqdori bilan emas. Agar muomaladagi pul ortsa, bu har doim ham iqtisodiy o‘sishga olib kelmaydi, balki inflyatsiyani kuchaytiradi. Shu sababli, Smit pul massasining haddan tashqari ko‘payishini jamiyat boyligiga salbiy ta’sir qiluvchi omil sifatida ko‘radi.

K. Menger, A. Smit, D. Rikardo va P. Samuelsonlarning ilmiy merosi shuni ko‘rsatadiki, pulni faqat moddiy qiymat yoki almashuv vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimning dinamik unsuri sifatida tushunish kerak.

Pulning harakati — bu nafaqat moliyaviy oqim, balki jamiyatdagi ishlab chiqarish, iste’mol, investitsiya va boshqaruv jarayonlarining o‘zaro muvofiqligini ifodalaydigan ko‘rsatkichdir.

Shu boisdan, zamonaviy iqtisodiyotda pul oqimlarini tahlil qilish, hisobotini tuzish va auditini o‘tkazish nafaqat buxgalteriya masalasi, balki milliy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi.

Yuqorida asoslangan olimlarning fikriga ko’ra pul mablag’lari,bu korxonaning asosiy aktivi hisoblanadi va hamda ular ishlab chiqarishni yurgizishni asosiy dastagi bo’lib hisoblanadi.

Auditning asosiy maqsadlari:

- Pul mablag‘lari va ekvivalentlarining mavjudligini tasdiqlash.
- Hisobotdagi miqdorlarning to‘g‘riligini va to‘liq ekanligini tekshirish.
- Pul oqimlari hisobotidagi operatsiyalar mos yozuvlarga asoslangan va to‘g‘ri klassifikatsiyalanganligini aniqlash (operatsion/investitsiya/moliyaviy).
- Valyuta hisobvaraqlaridagi operatsiyalar uchun valyuta kursi konvertatsiyasi va kurs farqlari hisobga olinganligini tekshirish.
- Xatar va firibgarlik (misol: naqd pul o‘zlashtirish, soxtalashtirilgan cheklar) imkoniyatini baholash.

TAKLIFLAR

Kassa va bankda elektron monitoring va cheklar uchun tezkor tekshiruv mexanizmi o‘rnatilsin.

Valyuta operatsiyalari uchun markaziy siyosat va kurs manbasi (masalan, rasmiy kurs/FC) belgilansin va hujjatlashtirilsin.

Naqd pul ekvivalentlarini aniqlash uchun kriteriyalar (muddati, likvidligi) siyosatini rasmiylashtirish.

Bank tasdiqlari va rekonsilyatsiyalarni oy yakunida avtomatlashtirilgan holda yuritish.

Auditing uchun ichki audit funksiyasini mustahkamlash va sug‘urta talablarini hisobga olish (masalan, sug‘urta kompaniyalari uchun qo‘shimcha tekshiruvlar).

XULOSA

Umuman olganda korxonalarda pul mablag‘lari va pul oqimlari hisobotining ishonchliligi — korxona va jamiyat boshqaruvining poydevori. Auditorlar uchun bu maydon yuqori darajadagi e’tibor, soha bo‘yicha maxsus metodika va qat’iy ichki nazorat mezonlarini talab qiladi. Matnda ko‘rsatilgan printsiplar (naqd pul va ekvivalentlar, uch yo‘nalishdagi hisobot, valyuta bo‘yicha alohida hisoblash) — audit amaliyotining markaziy elementlari hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan qadamlar va chek-ro‘yxat auditorga tekshiruvni tizimli va samarali o‘tkazishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2022). "Pul mablag‘lari auditi: nazariy asoslar va amaliyot".
2. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Воронина, И. Л. Аудиторская деятельность: основы организаций [Текст]
4. / И.Л. Воронина – Москва: ЭКСМО, 2011. – 380 с.
5. Samuelson P. Ekonomika , M.:1964, - 64 b.

TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HARAKATI VA ULARNING AYLANISH TEZLIGINI TAHLIL QILISH

Normatov Sayfullo Dustmuhammat o`g`li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
E-mail: sayfullonormatov8@gmail.com
Telefon raqam:(+998)91-581-01-61
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526805

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimizda korxonalardagi tovar-moddiy zaxiralarning harakati va ularning aylanish tezligini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur mavzu korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli, zaxiralardan samarali va oqilona foydalanish bo‘yicha muammolar o‘rganilib muhim ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so`zlar: Tovar-moddiy zaxiralar, baholash, materiallar, uzluksizlik, tayyor mahsulot, samaradorlik, zahiralar aylanish tezligi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida tovar-moddiy zaxiralar yirik miqdordagi moliyaviy resurslar qo‘yilmasini talab etuvchi obyektlar jumlasiga kiradi va shuning uchun ular xo‘jalik yurituvchi subyektlaming ishlab chiqarish yoki marketing siyosatini belgilab beradigan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, xo‘jalik yurituvchi subyektlaming ko'pchiligi odatda ularga yetarli darajada e’tibor berishmaydi va doimo mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan zaxiralar bo‘lgan ehtiyojga baho berishmaydi. Buning natijasida, ular tovar-moddiy zaxiralarga ko‘zlangan darajadan ortiqcha mablag‘lar sarflashlariga duch kelishadi. 2-sonli BHXSda tovar-moddiy zaxiralarga quyidagicha ta’rif berilgan:

Tovar-moddiy zaxiralar-bu quyidagi aktivlardir: - odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo‘ljallangan;

- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan;

-ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko‘rsatilishida foydalanilishi ko‘zlangan xomashyo va materiallar ko‘rinishidagi aktivlar. [1]

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo‘lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlami bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalami amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar.

Tovar-moddiy zaxiralaming buxgalteriya hisobiga qo‘yiladigan asosiy talablar: - tashkilot bo‘linmalarida zaxiralar harakatining ombor hisobi va tezkor hisobi ma’lumotlarining buxgalteriya hisobi schyotlari ma’lumotlariga muvofiqligini; - moliyaviy hisobotda aks ettirilgan Tovar moddiy zahiralar bo‘yicha ma’lumotlaming haqqoniyligini; - zaxiralar miqdori va bahosinnng buxgalteriya hisobi tezkorligini; - zaxiralaming harakatlanish jarayoni (kelib tushishi, joylashtirilishi va chiqib ketishi) va shuningdek haqiqiy mavjudligini to‘laqonli va uzluksiz tartibda to‘la aks ettirishni; - tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha (aylanmalari va qoldiqlari bo‘yicha) sintetik hisob ma’lumotlarining analitik hisob ma’lumotlariga muvofiqligini ta’minlash.

Korxona yoki muassasalar, uyushma, konsern, hissadorlik jamiyatlari ixtiyorida ma’lum miqdordagi mablag‘larning bo’lishi ularning o’z faoliyatini amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Ishlab chiqarish doirasidagi mablag‘lar bajaradigan vazifasiga qarab mehnat vositalari va mehnat buyumlariga bo’linadi.[2]

Mehnat buyumlariga mahsulot tayyorlashda foydalaniladigan tovar moddiy zahiralari kiradi. Ularga xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg‘i, tugallanmagan ishlab chiqarish, ehtiyot qismlar va boshqalar kiradi. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, bir ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinadi, ya’ni o’zining qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymatiga butunlay o’tkazadi.

Yarim tayyor mahsulotlarga shunday mehnat buyumlari kiradiki, ular ba’zi bir qayta ishlash bosqichlarni qtagan bo’lsada, hali tayyor mahsulot holiga keltirilmagan bo’ladi. Ularning xususiyatlaridan biri,

[1] “Buxgalteriya hisobi” darslik/ A.A.Karimov,J.E.Kurbanbayev,S.A.Jumanazarov.-T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 626 b.

[2] A.S. Sotivoldiev, Yu.M. Itkin «Zamonaviy buxgalteriya hisobi» I tom, T.:2002, 110 b.

qayta ishlashning texnologik jarayon rejasida ko'rsatiladigan hamma operatsiyalari biron bir sex yoki ishlab chiqarish uchastkasida bo'lib, keyingi sex yoki uchastkaga qayta ishlash uchun berishga mo'ljallangan bo'ladi. Yarim tayyor mahsulotlar sotib olinishi yoki korxonani o'zida ishlab chiqarilishi mumkin.

Zaxiralar — bu ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom ettirish va tayyor mahsulotlarni o‘z vaqtida realizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslardir. Tovar-moddiy zaxiralar harakati va ularning aylanish tezligini tahlil qilish korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini, moliyaviy holatini va resurslardan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi. Tovar-moddiy zaxiralar deganda korxonaning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida foydalaniladigan moddiy boyliklar tushuniladi. Ular quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: Ishlab chiqarish zaxiralari — xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar; Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, ular korxonaning ishlab chiqarish jarayonini to‘xtovsiz amalga oshirishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ortiqcha zaxiralar korxonaning aylanma mablag‘larini muzlatib qo‘yadi, bu esa rentabellik darajasining pasayishiga olib keladi.

Zaxiralar harakati — bu ularning kirim, chiqim va qoldiq holatlari bo‘yicha doimiy o‘zgarishidir. Harakat jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Zaxiralarning shakllanishi (kirim qismi) — bu bosqichda korxona xom ashyo va materiallarni xarid qiladi, ishlab chiqarish uchun tayyorlaydi.

Zaxiralarning foydalanilishi (chiqim qismi) — ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan materiallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar.

Zaxiralar qoldig‘i — davr oxirida korxonaning balansida qolgan tovar-moddiy resurslardir. Zaxiralar harakatini hisobga olish va nazorat qilish uchun buxgalteriya hisobida maxsus “Tovar-moddiy zaxiralar hisobi” yuritiladi. Har bir kirim va chiqim tegishli hujjatlar (hisob-fakturalar, qabul qilish dalolatnomalari, to‘lov topshiriqlari) asosida qayd etiladi. Tovar-moddiy zaxiralarning aylanish tezligi tushunchasi. Aylanish tezligi — bu zaxiralarning ma’lum bir davr ichida necha marta aylanib, pul mablag‘lariga aylanganini ko‘rsatuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichdir. Shuningdek, zaxiralar aylanish muddati ham hisoblanadi Bu muddat qancha qisqa bo‘lsa, zaxiralar shuncha tez aylanadi va korxona likvidligi yuqori bo‘ladi. Tovar-moddiy zaxiralar aylanish tezligini tahlil qilishning ahamiyati Aylanish tezligini tahlil qilish korxonaga quyidagi imkoniyatlarni beradi: zaxiralardan foydalanish samaradorligini baholash; aylanma mablag‘larning bandlik darajasini aniqlash; ortiqcha zaxiralarni kamaytirish bo‘yicha chora ko‘rish; ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlash uchun optimal zaxira miqdorini belgilash. Misol uchun, agar korxona zaxiralarni juda ko‘p miqdorda saqlasa, bu mablag‘larning muzlashiga olib keladi. Aksincha, zaxiralar yetarli bo‘lmasa, ishlab chiqarish to‘xtab qoladi yoki mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati pasayadi. Shu sababli, optimal zaxira darajasini belgilash tahlilning asosiy maqsadlaridan biridir. Zaxiralar aylanish tezligini oshirish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi: sotuv hajmini oshirish va marketing siyosatini kuchaytirish;

eskirgan yoki sekin aylanadigan zaxiralarni realizatsiya qilish; zaxiralarni boshqarishda “just-in-time” tizimini joriy etish; ta’minot zanjirini optimallashtirish va logistika xarajatlarini kamaytirish; zaxiralar hisobini avtomatlashtirish. Ushbu chora-tadbirlar korxonaga mablag‘lar aylanishini tezlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va foyda darajasini oshirish imkonini beradi. Tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Xulosa

Tovar-moddiy zaxiralarning harakati va ularning aylanish tezligini tahlil qilish korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Zaxiralarning oqilona boshqarilishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini, mablag‘larning samarali aylanishini va korxona rentabelligini oshiradi. Shu sababli har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt bu jarayonni muntazam tahlil qilib borishi, ortiqcha zaxiralarni kamaytirishi va optimal aylanish tezligiga erishishga intilishi zarur. Tovar-moddiy zaxiralarning harakati va ularning aylanish tezligini tahlil qilish korxona faoliyatining muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Bu tahlil yordamida korxona resurslardan qay darajada oqilona foydalanayotganini, aylanma mablag‘larning qanchalik samarali ishlatilayotganini aniqlash mumkin. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun zaxiralar ishlab chiqarish jarayonining yuragi hisoblanadi, chunki ular ishlab chiqarish uzluksizligini, tayyor mahsulot sifatini va foyda darajasini bevosita belgilab beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, zaxiralarning haddan tashqari

ko‘payishi korxona mablag‘larining muzlab qolishiga, saqlash xarajatlarining oshishiga va foydaning kamayishiga olib keladi. Aksincha, zaxiralarning yetarli darajada shakllanmagani ishlab chiqarish jarayonida to‘xtalishlar, mijozlarga xizmat ko‘rsatishda kechikishlar hamda raqobatbardoshlikning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Buxgalteriya hisobi” darslik/ A.A.Karimov,J.E.Kurbanbayev,S.A.Jumanazarov.-T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 626 b.
2. A.S. Sotivoldiev, Yu.M. Itkin «Zamonaviy buxgalteriya hisobi» I tom, T.:2002, 110 b.
3. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik / B.I.Isroilov, R.O Xolbekov. - Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240-b
4. K.B. URAZOV “BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” «O‘QITUVCHI» -2004.
5. www.lex.uz.

XO'JALIK YURUTUVCHI SUBYEKTLARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR SAQLANISHI VA SARFLANISHI AUDITI

Ulug'bek Abdimajidov Mamatqul o'g'li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
"Buxgalteriya hisobi va auditi" ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi
Tel: +998 (94) 945 24 00
E-mail: abdimajidovulugbek@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526816

Annotatsiya: Ushbu tezisda tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) saqlanishi va sarflanishi auditi jarayoni, ularning buxgalteriya hisobi, ombor nazorati, inventarizatsiya ishlari va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tovar-moddiy zaxiralar, audit, inventarizatsiya, ombor, saqlash, sarflanish, ichki nazorat, buxgalteriya hisobi, moliyaviy intizom, zaxira.

Kirish. Ishlab chiqarish jarayonida tovar-moddiy zaxiralarini saqlanish hamda sarflanishi korxonani ishlab chiqarish jarayoni hamda uning xarajatlar qismini kamaytirishga sabab bo'ladi.Tadqiqotning asosiy maqsadi – korxonalarda TMZning to'g'ri hisobga olinishi, saqlanishi va sarflanishini nazorat qilish orqali moliyaviy intizomni ta'minlash korxonlarda dolzarb qismiga aylanmoqda .

Tovar-moddiy zaxiralar har qanday korxona ishlab chiqarish faoliyatining asosi hisoblanadi. Ularning to'g'ri hisobga olinishi, saqlanishi va oqilona sarflanishi korxonaning moliyaviy barqarorligi va foydalilik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli zahiralar auditi korxonaning moliyaviy holatini baholashda muhim o'rin tutadi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar resurslardan oqilona foydalanishlari zarur.Tovar-moddiy zahiralarni saqlashda va sarflashda aniqlik, tartib va nazoratning kuchli bo'lishi – moliyaviy intizomning kafolatidir. Audit bu jarayonlarni nazorat qilish va tahlil qilish orqali ishonchlilikni ta'minlaydi. Ingliz xorijiy olimi J. Shraybfeder "Zaxiraning samarali boshqarilishi iste'molchilar talablarini qondirishga va sof foydani maksimallashtirishga xizmat qiladi[1]"deb takidlab o'tgan.

Maxalliy olimimiz Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi."Iqtisod va moliya darsligida TMZ ga shunday tarif bergan: Tovar-moddiy zaxiralarga tashkilotga tegishli bo'lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar kiritiladi", degan xulosaga kelgan[2].

Umuman olganda yuqoridagi fikirlarga ko'ra TMZ xususiy va tijorat korxonalari uchun to'liq mos keladi, chunki ularning maqsadi — foyda olish. Biroq budjet tashkilotlari (masalan, maktab, shifoxona, davlat idoralari) foyda olishni maqsad qilmagan, balki byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ko'zlaydi. Shu sababli Shraybfederning fikrini bevosita budjet tashkilotlariga qo'llash to'liq mos emas, ammo "samaradorlik" va "talabni qondirish" jihatidan qisman mos deb baholash mumkin. J. Shraybfederning ilmiy g'oyasi O'zbekistonning tijorat sektoriga mos tushadi, ammo budjet tashkilotlariga to'liq tatbiq etilmaydi.

Xaydarov M.T.ning ta'rifi esa O'zbekistonning milliy buxgalteriya standartlari va amaliyotiga to'liq mos keladi. Shu sababli, mahalliy sharoitda aynan Xaydarovning yondashuvi ilmiy va amaliy jihatdan asosliroq hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar saqlanishi auditi. Omborlarning texnik holati, xavfsizlik sharoitlari va joylashtirish tartibi o'rganiladi. TMZni saqlashda harorat, namlik va xavfsizlik me'yorlariga rioya qilinishi tekshiriladi. Saqlash vaqtida yo'qotishlar, buzilishlar yoki kamomadlar mavjudligi aniqlanadi.

Zaxiralarni sarflanish auditi. Ishlab chiqarishga berilgan TMZ me'yor asosida sarflanganligini tekshirish, sarf hujjatlari (talon, limit, buyurtma, dalolatnoma) asosida xarajatlarni asoslash va normadan ortiqcha sarflar sabablari tahlil qilinadi.

---

[1] Shraybfeder Dj. Samarali zahiralarni boshqarish: ingliz tilidan tarjima. 2-nashr. – M.: "Alpina Biznes Buks", 2006. – S.

Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. //Iqtisod va moliya. 2015. 8-son. – B. 61.

Audit jarayoni bosqichlari:

Tayyorgarlik bosqichi – hisob siyosatini o‘rganish va ichki nazorat tizimini baholash;

Asosiy bosqich – hujjatlarni tahlil qilish, inventarizatsiya o‘tkazish va omborlardagi haqiqiy miqdorni aniqlash;

Yakuniy bosqich – aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tahliliy hisobot tayyorlash va tavsiyalar berish.

Xulosa. Tovar-moddiy zahiralar auditi korxona moliyaviy intizomini mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash va moliyaviy hisobotlarda ishonchlilikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Audit natijalari asosida berilgan tavsiyalar korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxgalteriya hisobi 1-qism: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. b. 299 bet.
2. Shraybfeder Dj. Samarali zahiralarni boshqarish: ingliz tilidan tarjima. 2-nashr. – M.: “Alpina Biznes Buks”, 2006. – S. 15.
3. Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. //Iqtisod va moliya. 2015. 8-son. – B. 61.

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI

Xamidova Z.U
TDIU, “Byudjet hisobi va
g’aznachilik” kafedrasi
dotsenti, PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526835

Har bir sohadagi kabi iqtisodiy sohada ham faoliyat yuritish uchun umumiy qoidalar talab qilinadi. Umumiy belgilangan tartib qoidalar bir tartibda faoliyat yuritgan holda rivojlanish uchun asos bo‘ladi. Ichki auditda bunday tartib qoida bo‘lib, “Ichki auditning xalqaro professional standartlari” xizmat qiladi.

Standartlar Professional amaliyotning Xalqaro asoslariga kiruvchi bir qancha hujjatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular ichki auditorlar Xalqaro Instituti tomonidan o‘tgan asrning 40-yillarida ishlab chiqila boshlangan bo‘lib, ularda ichki audit xizmati funksiyalarini tashkil qilishning asosiy qoidalari va ichki auditni amalga oshirishning metodologik asoslari bayon etilgan. Ushbu standartlar barcha tarmoqlar va faoliyat sohalari, shuningdek, dunyodagi barcha huquqiy tizimlarda qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

Professional amaliyotning Xalqaro asoslari bugungi kunga kelib 7 ta asosiy tarkibiy bo‘limdan iborat bo‘lib, standartlar-ushbu bo‘limlarning eng asosiysi bo‘lib hisoblanadi. Professional amaliyotning Xalqaro asoslariga tegishli bo‘lgan boshqa bo‘limlarda ichki auditning asosiy vazifasi, mazmuni, prinsiplari, axloq kodeksi, standartlarni qo‘llash bo‘yicha qo‘llanma keltirilgan.

Ta'kidlash joizki, qo‘llanma har bir standartni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha hujjat bo‘lib, standartlardan ham ancha batafsil yoritilgan, keng hajmga ega va u deyarli 200 betdan tashkil topgan. Ya'ni har bir standart-qoida bo‘lsa, qo‘llanma – standartning izohidir.

Shuningdek, yana bir hujjatlar to‘plami – Qo‘shimcha qo‘llanmalar ham mavjud bo‘lib, ushbu to‘plam qanday qilib standartlar talablarini amaliyotda amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risida katta hajmli metodik hujjatlardan iborat. Qo‘shimcha qo‘llanmalar amaliyotda qo‘llash uchun majburiy hisoblanmasada, ichki auditorlarga ularni bilish va zaruriyat tug‘ilgan holatlarda amaliyotda qo‘llash tavsiya etiladi. Qo‘shimcha qo‘llanmalarda u yoki bu auditorlik vazifalarni bajarish va ichki audit ishini tashkil etishning yetakchi, ilg‘or amaliyoti aks ettirilgan.

Maslahat xizmatlari asosan tavsiyalardir va odatda mijozning maxsus talabiga binoan amalga oshiriladi. Vazifaning mazmuni va hajmi maslahat berish mijoz bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Maslahatlashuv odatda ikki tomonni o‘z ichiga oladi:

1. Taklif qiluvchi shaxs yoki odamlar guruhi ichki audit xizmati;
2. Xizmat uchun murojaat qilgan shaxs yoki shaxslar guruhi va uni qabul qiluvchi mijozdir.

Standartlar ikkiga bo‘linadi: sifat standartlari va ishchi standartlari. Sifat standartlari ichki audit funksiyasini bajaruvchi tashkilotlar va xodimlarga qo‘yiladigan talablarni aniqlaydi. Ishchi standartlar ichki audit ishining mazmunini ochib beradi. Sifat standartlari va ichki standartlar qo‘llaniladigan sohalarni bildiradi.

Sifat ko‘rsatkichlar standartlari tashkilot va ichki audit xizmati faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning xususiyatlariga tegishli. Ushbu standartlarning asosiy jihatlari ichki audit xizmatining maqsadlari, vakolatlari va majburiyatlari tashkilotning ichki audit to‘g‘risidagi nizomida aniqlanishi kerak, xalqaro kasbiy amaliyot doiralarini (ichki auditning asosiy tamoyillari, axloq kodeksi, standartlar) elementlarini qo‘llash uchun majburiydir. Ichki auditning rahbari vaqti-vaqti bilan ichki audit to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish kiritish zaruratini ko‘rib chiqishi va ushbu nizomni rahbariyat tasdiqlashi uchun taqdim etishi kerak

Mustaqillik va xolislik, ishga professionallik va professional munosabat, ichki auditni kafolatlash va takomillashtirish ichki audit xalqaro standartlarining sifat standartlarida o‘z aksini topgan. Auditni amalga oshirishning ichki yondoshuvlarini ochib beradigan ichki audit xizmati uchun majburiy bo‘lgan standartlar, ko‘rsatmalar, uslubiy ishlanmalar, qo‘llanmalar va boshqa hujjatlar ichki audit xizmatining ichki standartlariga taalluqli bo‘ladi.

Ichki auditning professional xalqaro standartlarini ishlab chiquvchisi Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti rivojlangan korporativ protseduralarga ega bo‘lgan tashkilot bo‘lib, unda direktorlar kengashi, turli qo‘mitalar, ishchi guruhlar, shu jumladan Xalqaro standartlar bo‘yicha standartlar kengashi (IIASB)mavjud va

o‘zgarishlar kiritish jarayoni puxta o‘ylangan. Ya’ni dunyo bo‘ylab jamoatchilik ba’zi hujjatlarni o‘zgartirish bo‘yicha ishlarni boshlashni taklif qilayotgani haqida oldindan ogohlantiriladi, belgilangan nuqtalar aniqlanadi, ishchi guruhlar yig‘iladi, takliflar tayyorlanadi, o‘zgartirishlarni loyihasi nashr etiladi, u professional hamjamiyatda muhokama qilinadi, oxirida yakuniy tasdig‘iga yuboriladi. Keyin o‘zgarishlar e’lon qilinadi, yangiliklar bilan tanishish uchun vaqt beriladi.

Bundan kelib chiqadiki, sifat standartlari ham ishchi standartlar ham ko‘pgina muhokamalardan o‘tib, ma’lum yangilanishlar, takliflar bilan boyitilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Ichki audit xalqaro standartlarida ichki auditni boshqarish, ichki audit ishining mohiyati, ichki audit tekshiruvini rejalashtirish, amalga oshirish, natija to‘g‘risidagi hisobot,topshiriq natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring ishlari va qabul qilingan xatarlar to‘g‘risida ma’lumotlar ishchi standartlarda aks etadi.

Ichki auditorlarning hamjamiyatida Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar tan olingan. Standartlar umumiy tamoyillar to‘plamidir, ulardan deyarli har qanday mamlakatda, shu jumladan bizning davlatimizda ham foydalansa bo‘ladi.

MATERIALLARNI BAHOLASHNING BUXGALTERIYADAGI AHAMIYATI

Safarov Alisher Ibrohim o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
tel:+998 (90)-026-01-01
E-mail: alilionsafarov@gmail.com
Yo‘ldosheva Rayhona Yusuf qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi talabasi
tel:+998 (94)-567-41-10
Email: rayhonyuldasheva0710@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526845

Annotatsiya: Mazkur maqolada materiallarni baholash usullari va ularning buxgalteriya hisobidagi o‘rni keng yoritilgan. Korxonalarda materiallar harakatining to‘g‘ri aks ettirilishi, moliyaviy natijalarining haqqoniylik ko‘rsatilishi uchun baholashning turli usullaridan foydalaniladi. Har bir usulning o‘ziga xos jihatlari, ustunlik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy misollar asosida baholash natijalarining moliyaviy hisob-kitoblarga ta`siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Materiallar, baholash, FIFO, LIFO, o‘rtacha to‘g‘irlangan narx, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, zaxiralar, qiymat, narx.

Аннотация: В данной статье освещаются методы оценки материалов и их роль в бухгалтерском учёте. Для правильного отражения движения материалов на предприятиях и достоверного представления финансовых результатов используются различные методы оценки, такие как FIFO, LIFO и средневзвешенная стоимость. В статье проанализированы преимущества и недостатки каждого метода, а также на практических примерах рассмотрено их влияние на финансовую отчётность.

Ключевые слова: материалы, оценка, FIFO, LIFO, средневзвешенная стоимость, бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, запасы, стоимость, цена.

Abstarct: This article discusses methods of material valuation and their role in accounting. To accurately reflect the movement of materials in enterprises and to present truthful financial results, various valuation methods such as FIFO, LIFO, and the weighted average cost are used. The article analyzes the advantages and disadvantages of each method and examines their impact on financial reporting through practical examples.

Key words: materials, valuation, FIFO, LIFO, weighted average cost, accounting, financial reporting, inventory, value, price.

KIRISH

Buxgalteriya hisobi har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy vazifalaridan biri-moliyaviy holat va xo‘jalik jarayonlarini haqqoniy, aniq va ishonchli tarzda aks ettirishdir. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan materiallar bu jarayonning ajralmas qismidir. Materiallarni hisobga olish va baholash korxonaning foydasini rentabelligini va umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Amalda ular materiallar deb ataladi. Asosiy vositalardan farq qilib, materiallar bir ishlab chiqarish jarayonida o‘zining qiymatini to‘la ravishda mahsulot tannarxiga o‘tkazadi. Xom – ashyo, asosiy va yordmachi materiallar, yoqilg‘i, extiyot qismlar korxona aylanma mablag‘larni tashkil qiladi. Aylanma mablag‘larining korxona uchun umumiy miqdori yuqori tashkilotlar, ya`ni tegishli vazirlik tomonidan belgilanadi. Materiallarning har bir turi bo‘yicha normativ miqdori korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to‘xtovsiz davom etib turishda belgilangan normativga rioya qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Xo‘jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xujjatsizlikka qarshi kurash, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib

borish masalalariga alohida e`tibor beriladi. Jumladan, moddiy va mehnat resurslarini to‘g‘ri, tejamli sarflash xalq xo‘jaligini yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

Metodologiya:

Ushbu tadqiqot ishimizni yoritishda nazariy tahlil, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Materiallarni baholashning buxgalteriya hisobi va moliyaviy natijalarga ta’sirini chuqur va kompleks o‘rganish asosida baholash usullari tahlil qilindi. Bu yondashuv asosida aniq ilmiy xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotga oid adabiyotlar sharhi: Materiallarni baholash buxgalteriya hisobining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Baholash usullarining moliyaviy hisobotga, soliq hisobiga, va boshqaruv qarorlariga ta’siri masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Xalqaro adabiyotlar: Xalqaro buxgalteriya hisobidagi yondashuvlar ko‘pincha **MHXS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari)** doirasida ko‘rib chiqiladi. **MHXS** 2-sonli standarti — “Zaxiralar”— materiallar, tayyor mahsulotlar va boshqa zaxiralarning baholanishi va hisobga olinishi bo‘yicha asosiy hujjat hisoblanadi. Bu standartda materiallarni baholashda **FIFO**, **AVECO** va **realizatsiya bo‘yicha sof qiymat** usullari ko‘rsatib o‘tiladi. LIFO esa ushbu standartlar doirasida tan olinmaydi.

1. Satoshi Kumagai “Foydalilikni hisobga olgan holda zaxirani baholash modeli” nomli maqolasida shunday deydi: “Zaxira (inventar) ham xarajat, ham aktiv (boylik) jihatiga ega. Ko‘plab kompaniyalar zaxira miqdorini kamaytirishda uning xarajat tomonini hisobga olishgan… Boshqa tomondan esa, zaxira — bu savdo va qiymatni yaratuvchi, shu orqali pul oqimini oshiruvchi zarur boshqaruv resursidir. Zaxiraning haddan tashqari kamaytirilishi esa kompaniya faoliyatining samaradorligini pasaytiradi.”[1]

2. Kiho Kamiya va Masaaki Ohba (2018) bular ham Tovar moddiy zaxiralar bo`yicha “Foydalilikni (rentabellikni) hisobga olgan holda zaxirani baholash modeli.” nomli maqolasida shunday deydilar:

“Ushbu tadqiqot nafaqat xarajat, balki aktiv qiymati nuqtayi nazaridan ham zaxirani baholash uchun, talabdagi o‘zgarishlar va ishlab chiqarish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda, modelni taklif etadi.”

“Zaxira jarayonning alohida faoliyati sifatida qaraladi va uning qiymati yakuniy mahsulot narxi, sotilish ehtimoli, resurs yo‘qotishlari hamda amalga oshmagan foydaning noaniqligini inobatga olgan holda baholanadi.”

Ya’ni, bu olimlar zaxirani baholashda faqat xarajat jihatiga e’tibor bermaslik, balki uni aktiv sifatida ham ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, yuqori bo‘lmagan (sotilish ehtimoli past) tayyor mahsulotdan ko‘ra yarim tayyor mahsulot zaxirasi iqtisodiy jihatdan ustun bo‘lishi mumkinligini aniqlashgan.[2]

Mahalliy adabiyotlar Mahalliy olimlardan X. Hasanov maqolalarida Tovar moddiy zaxiralarni baholash bo’yicha shunday degan: “Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar tannarx hamda realizatsiya qilishning sof qiymatlari asosida baholanadi. Tannarxga boshqa qo‘shimcha xarajatlar kiradi: ular tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish, qayta ishlash hamda joriy holatiga keltirish uchun ketgan xarajatlar. U shuningdek budjet tashkilotlari kontekstida “inventarizatsiya o‘tkazish natijasida aniqlangan ortiqcha yoki hisobda aks etmagan tovar-moddiy zaxiralarni baholash ularning aniqlangan sanadagi joriy qiymatidan kelib chiqib belgilanadi” deb ta’kidlaydi.[3]

Muhokama va natijalar

Materiallarning har bir turini tayyorlash, haqiqiy tannarxini hisoblash ko‘p mehnat va vaqt talab qilinadi. Shuning uchun ham ko‘pchilik hollarda moddiy boyliklar joriy hisobda-o‘rtacha sotib olinishi bahosi, rejasi, reja tannarxi bo‘yicha va boshqa baholarda baholanadi. Materiallarning haqiqiy tannarxi bilan o‘rtacha sotib olinish bahosi yoki reja tannarxi o‘rtasidagi farq ularning guruhlari bo‘yicha alohida analitik schyotlarda

[1]**Satoshi Kumagai “**Foydalilikni hisobga olgan holda zaxirani baholash modeli**” nomli maqolasi “Yaponiya Sanoat-Boshqaruv Assotsiatsiyasi Jurnali”**.2018-y. 221–231 b.

[2]**Kiho Kamiya va Masaaki Ohba (2018) “**Foydalilikni hisobga olgan holda zaxirani baholash modeli**” nomli maqolasi** “Yaponiya Sanoat Boshqaruvi Assotsiatsiyasi Jurnali”2018-y. 221-231 b.

[3] X.Hasanov “Tovar moddiy zaxiralar” bo`yicha “Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali” jurnali 2023-y.65-67 b.

hisobga olinadi. Amaliyotda kompyuterlarning keng qo‘llanishi material zahiralari har bir turning haqiqiy tannarxini hisoblash imkoniyatini yaratadi.

Materiallar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishda, hisob-kitob yuritishda va korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, materiallarni baholash masalasi buxgalteriya hisobida alohida ahamiyatga ega. Turli baholash usullari orqali korxona o‘zining aniq va ishonchli moliyaviy ma`lumotlariga ega bo‘ladi. [4]

Materiallarni sintetik schyotida ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi joriy bahoda, ya`ni sotib olinishi(tayyorlash) reja tannarxi, yoki o‘rtacha sotib olinishi bahosi bo‘yicha hisobga olinadi. Bunday hollarda, o‘rtadagi farq “Materiallar qiymatidagi farqlar” schyotida aks ettiriladi.

4 – BHMS 9 -bandiga binoan «Material xarajatlari» elementida aks ettiriladigan sotib olinadigan material qiymatliklarining xaqiqiy bahosi (qiymati) quyidagilardan tashkil topadi: sotib olish narxi, import bo’yicha boj to’lovlari, mahsulotlarni sertifikatsiyalash xarajatlari, ta’minot va vositachilik tashkilotlariga to’lanmalar, soliqlar (keyinchalik soliq organlaridan qaytarib olinadigan soliqlardan tashqari, masalan QQS), shuningdek transport – tayyorlov xarajatlari, xizmat ko’rsatish xarajatlari va zahiralarni sotib olish bilan bevosita bog’liq bo’lgan boshqa xarajatlar.[5]

Materiallarni baholashning asosiy maqsadi — ularning qiymatini to‘g‘ri aniqlab, buxgalteriya hisobida haqqoniy aks ettirishdir. Bu baholash orqali korxona o‘zining ishlab chiqarish tannarxini aniq hisoblaydi, daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farqni belgilaydi hamda moliyaviy hisobotlarda ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, bu jarayon soliqqa tortish, audit va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham katta ahamiyatga ega.

Materiallarni baholashda turli usullar qo‘llaniladi. Ularning har biri korxonaning hisob siyosatiga mos ravishda tanlanadi. Asosiy usullar quyidagilardan iborat:

FIFO (First In, First Out) – birinchi kirgan material birinchi chiqadi. Bu usul inflyatsiya sharoitida foydali, chunki eng eski (arzonroq) narxdagi material birinchi chiqariladi.

LIFO (Last In, First Out) – oxirgi kirgan material birinchi chiqadi. Bu usul inflyatsiya davrida ko‘proq xarajat ko‘rsatadi va foyda kamayadi.

AVECO usuli – mavjud barcha materiallarning umumiy qiymati va miqdoriga qarab o‘rtacha baho aniqlanadi. Bu usul oddiy va doimiy narxlarda foydali.

Misol:Korxonada oy mobaynida quyidagi materiallar partiyasi sotib olingan:[6]

Sotib olingan sana	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (m.so‘m)
15.03.2025	1000	600	600
20.03.2025	1700	800	1360
25.03.2025	1500	900	1350
Jami	4200	2300	3310

Xo’jalikda oy mobaynida 2800 m.so’mlik material sarflandi va omborda 1400 m.so’mlik material qoldi. Ushbu materiallarning sarflanishini uch xil usulda hisoblab chiqamiz.

O’rtacha tortilgan (AVECO) usulida bir xildagi har bir sarflangan materiallar birligining qiymati davr boshiga qolgan va shu davr ichida sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlarning o’rtacha tortilgan qiymatida aniqlanadi. Xo’jalik yurituvchi subyektdagi vaziyatga qarab o’rtachasi davr oxirida yoki har bir qo’shimcha qabul qilingani bo’yicha hisoblab topiladi.

AVECO usulida materiallarni baholash tartibi[7]

[4] “Tovar moddiy zaxiralarni baholash tartibi” Yo’ldoshev Suxrob Rustam o’g’li maqolasi.
[5] 4-BXMS.Tovar moddiy zahiralarini baholash.
[6] Zavalishina I. Yangicha buxgalteriya hisobi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. B. 268-272.
[7] Zavalishina I. Yangicha buxgalteriya hisobi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.

1-jadval.

Material sarfi	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (m.so‘m)
1-partiya	1000	600	600
2-partiya	1700	800	1360
3-partiya	100	900	900
Jami sarflangan material	2800	788.8	2207
Ombordagi qoldiq	1400	788.8	1103

AVECO usuliga ko‘ra, materiallar o‘rtacha narx — 788.8 so‘m asosida baholandi. Jami 2800 dona material sarflanib, ularning umumiy qiymati 2 207 000 so‘mni tashkil etdi.Omborda 1400 dona material qoldi**,** ularning qiymati ham shu narx bo‘yicha 1 103 000 so‘m deb baholandi.Bu usul narxlar o‘zgarishini tekislaydi va xarajatlarni barqaror ko‘rsatadi.Hozirgi kundagi pulning qadrsizlanish davrida reja baholarini qo’llash tavsiya qilinmaydi. Bunday vaqtda FIFO va AVECO usullarini qo’llash ma’qul.Bugungi kunda materiallarni ishlab chiqarishga hisobdan chiqarishda 4-BHMSning 17 –bandiga muvofiq FIFO usulini qo’llashni tavsiya qilinadi. Bu usulda birinchi navbatda sotib olingan tovar-material zaxiralar birligi birinchi sotiladi yoki ishlab chiqarishga sarflanadi va demak davr oxiriga qolgan tovar-material zaxiralari – bu oxirgi sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlardir.[8]

FIFO usulida materiallarni baholash tartibi

2-jadval.

Material sarfi	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (m.so‘m)
1-partiya	1300	900	900
2-partiya	2000	1100	1660
3-partiya	400	1200	1200
Jami sarflangan material	3700	3200	3760
Ombordagi qoldiq	1700	1500	1560

FIFO tartibida birinchi kirgan material birinchi chiqariladi, shu asosda 1- va 2- partiya to‘liq. 3-partiya esa faqat 100 dona sarflangan. Qolgan 1700 dona (3-partiyadan) omborda. Materiallar FIFO usulida to‘g‘ri baholangan - sarflangan qiymat 3760 ming so‘m, ombordagi qoldiq esa 1560 ming so‘m.Xalqaro andazalar tomonidan TMZni hisobga olish va baholashda LIFO usulidan foydalanishga ruxsat berilgan. Bu usulda oxirgi navbatda sotib olingan tovar – material zaxiralar (TMZ) birligi birinchi sotiladi yoki ishlab chiqarishga sarflanadi, demak davr oxiriga qolgan tovar – material zaxiralari birinchi sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlardir.

LIFO usulida materiallarni baholash tartibi[9]

3-jadval.

Material sarfi	Miqdori (dona)	Narxi (so‘m)	Qiymati (m.so‘m)
1-partiya	1500	900	1350
2-partiya	1300	800	1040
3-partiya	-	-	-
Jami sarflangan material	2800		2390
Ombordagi qoldiq	400	800	320

[8] O`zbekiston Respublikasi BHMS 4-sonli “Tovar-moddiy zaxiralar”

[9] Zavalishina I. Yangicha buxgalteriya hisobi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.

LIFO usuliga ko`ra, oxirgi kirgan birinchi sarflanadi. 1- va 2- partiyalar to‘liq sarflangan 1300 dona (2-partiya) + 1500 dona (1-partiya) = 2800 dona**,** 2390 ming so‘m**,** omborda faqat 3-partiyadan 400 dona qolgan 400 dona (3-partiya), 800 so‘mdan = 320 ming so‘m. LIFO bo‘yicha oxirgi kelganlar (2- va 1-partiya) birinchi sarflandi. Qoldiq faqat 3-partiyadan Shunday qilib, xo’jalik yurituvchi subyektlarda materiallarni ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarish va materiallarni baholash usuli ularning hisob siyosatida o’z aksini topmog’i lozim.Materiallarning to‘g‘ri baholanishi korxonaning umumiy moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar materiallar noto‘g‘ri baholansa, bu ishlab chiqarish tannarxining noto‘g‘ri hisoblanishiga, foyda yoki zarar noto‘g‘ri ko‘rsatilishiga olib keladi. Shuning uchun, buxgalterlar materiallarning harakatini hisobga olib, baholash usulini to‘g‘ri tanlashi zarur. Bu esa nafaqat ichki hisobotlar, balki soliq organlari va investorlar uchun ham ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa:

Materiallarni baholash buxgalteriya hisobining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. U material resurslarining haqiqatga yaqin qiymatlarda aks ettirilishini ta’minlaydi. To‘g‘ri tanlangan baholash usuli nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini aniq belgilash, balki foyda va zarar ko‘rsatkichlarini ishonchli hisoblash imkonini beradi. Korxona faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishiga bog‘liq bo‘lib, bunda materiallarni baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu jarayonga professional va mas’uliyat bilan yondashish lozim.Materiallarni baholash usullarining to‘g‘ri tanlanishi korxonaning moliyaviy barqarorligi, hisobotning haqqoniyligi va soliq strategiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir usulning afzallik va kamchiliklari hisobga olingan holda, korxona o‘ziga mos usulni tanlashi lozim.

Takliflar:

1. Kichik va o‘rta korxonalar uchun o‘rtacha narx usuli maqbul.
2. Hisobotlarda aniqlik talab qilinadigan hollarda FIFO afzal.
3. Baholash usullarini tanlashda soliqqa tortish tizimi ham hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston respublikasiningh 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to’g’risidasgi” qonuni O’RQ - 404 sonli.
2. O`zbekiston Respublikasi BHMS 4-sonli “Tovar-moddiy zaxiralar”
3. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. – 403.
4. Zavalishina I. Yangicha buxgalteriya hisobi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.
5. Tovar moddiy zaxiralarini baholash tartibi” Yo`ldosheva Suxrob Rustam o’g’li maqolasi “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali
6. Satoshi Kumagai “Foydalilikni hisobga olgan holda zaxirani baholash modeli” nomli maqolasi “Yaponiya Sanoat-Boshqaruv Assotsiatsiyasi Jurnali”.2018-y. 221–231 b.
7. Kiho Kamiya va Masaaki Ohba (2018) “Foydalilikni hisobga olgan holda zaxirani baholash modeli” nomli maqolasi“Yaponiya Sanoat Boshqaruvi Assotsiatsiyasi Jurnali”2018-y. 221-231 b.
8. X.Hasanov “Tovar moddiy zaxiralar” bo`yicha “Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnali” jurnalida 2023-y. 65-67 b.

DIVIDENDLAR HISOBI

Shukurov Zafar Nazarovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Moliya va bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Zafar Shukurov 3250@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526857

Annotatsiya: Ushbu tezisda dividend tushunchasi haqida ma’lumot, dividend siyosatining mohiyati, dividend siyosatini vujudga keltiruvchi omillar, dividend siyosati va hisobini yuritish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Dividend siyosati, emission daromad, reinvestitsiya, ustav kapitali, Aksiyadorlik Jamiyati, sof foyda, taqsimlanmagan foyda

Kirish. Dividend-bu lotincha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, aksiyadorlik jamiyatlarining yil yakuni bo‘yicha olgan sof foydalarining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanishi tushuniladi. Dividend summasini aksiyadorlarga adolatli taqsimlashning jahon mamlakatlari amaliyotida qabul qilingan yagona usuli bor. Bu ham bo‘lsa dividendni aksiyadorlarning ixtiyoridagi aksiyalari miqdoriga nisbatan proporsional taqsimlash usuli hisoblanadi. Dividend siyosati-bu aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini aks ettiruvchi “oyna” bo‘lib, aksiyadorlarning aksiyasiga to‘g‘ri keladigan dividend summasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi bir tadbirdir. Jiddiy maqsadlar yto‘lida tashkil qilingan Aksiyadorlik Jamiyatining rahbarlari birinchi kunning o‘zidayoq Aksiyadorlik Jamiyatlarining dividend siyosatini ishlab chiqishlari va shu to‘g‘risida o‘z aksiyadorlarini xabardor qilishlari lozimdir. Aks holda ular tushunib tushunmay Aksiyadorlik Jamiyatlari bilan aksiyadorlar o‘rtasida jiddiy nizolar chiqishi mumkin. Dividend siyosatining boshlanish bosqichi Aksiyadorlik Jamiyatlarining sof foydasini taqsimlashdan boshlanadi. Bugungi kunda barcha bozorli iqtisodiyotga asoslangan mamlakatlarda, xuxusan, O‘zbekistonda ham sof foyda taqsimotining quyidagi ikki yo‘nalishini kuzatishimiz mumkin:

- Sof foydaning bir qismi dividend sifatida aksiya egalari – aksiyadorlarga to‘lanadi;
- Ikkinchi bir qismi esa, aksiyadorlar jamiyat aktivlariga reinvestitsiya (investitsiya jarayonidan olingan daromad qayta moliyaviy xo‘jalik faoliyati uchun jalb qilinishi) qilinadi.

Dividend siyosatining asosiy maqsadi dividendlar to‘lash qarorlarini qabul qilish, miqdorini belgilash, ularni to‘lash tartibi va muddatlari shaffof va aksiyadorlarga tushunarli mexanizmini belgilash hisoblanadi. Dividendlar miqdorini hisoblash mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan haqqoniyligi tasdiqlangan, jamiyatning moliyaviy hisobotida aks ettirilgan, jamiyatning sof foydasidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Dividendlar to‘lovlari miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tavsiya qilingan darajadan kam bo‘lmasligi lozim. Dividendlar aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga munosib ravishda taqsimlanadi. Dividendlar yuridik shaxslarga naqdsiz shaklda ularning bank hisob raqamlariga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan, jismoniy shaxslarga esa naqdsiz shaklda ularning plastik kartalariga yoki talab qilib olguncha omonat hisob raqamlariga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanadi.

Ma’lumki, Aksiyadorlik Jamiyatining shaxsiy kapitali 3 ta yirik elementdan tashkil topgan:

1. Aksiyadorlik kapitali (ustav kapitali);
2. Emission daromad (qo‘shilgan kapital rezerv kapitali);
3. Taqsimlanmagan foyda.

Deyarli barcha mamlakatlarda shu jumladan O‘zbekistonda ham ana shu 3 ta elementdan dividend to‘lovlari uchun faqat sof foyda summasini ishlatish mumkin. Imtiyozli aksiyalar uchun va’da qilingan dividendni to‘lash vaqtida sof foyda summasi yetmay qolsa, u vaqtda shu maqsad uchun rezerv kapitali ishlatiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Aksiyadorlik Jamiyatlari dividend to‘lovlari uchun faqatgina qonuniy ruxsat etilgan manbalar mablag‘larini ishlatishi mumkin ekan. Xuddi shu narsani jahon amaliyotida “Dividend to‘lovlarining qonuniy chegaralanishi” deb ataladi. Xususan O‘zbekistonda , quyidagi hollarda Aksiyadorlik Jamiyatlarining o‘z aksiyadorlariga dividend to‘lashlari qonun yo‘li bilan man etiladi:

-Aksiyadorlik Jamiyatining e’lon qilingan ustav kapitali miqdori to‘la shakllanmaguncha;

-Aksiyadorlik Jamiyati “bankrot deb e’lon qilingan bo‘lsa(dividend to‘lovlarini e’lon qilayotgan vaqtda) yoki uni to‘lagandan keyin to‘lov qobiliyatini yo‘qotsa, yoki bankrotga uchrashi mumkin bo‘lgan belgilar paydo bo‘lsa;

-Aksiyadorlik Jamiyatining aktivlari qiymati uning ustav va rezerv kapitallari summasi yig‘indisidan kamayib ketsa;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniyatlariga binoan, Aksiyadorlik Jamiyatlarida dividend to‘lovlarining manbasi deb quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

1. Hisobot yilida Aksiyadorlik Jamiyatlari olgan sof foyda summasi;
2. O‘tgan davrlarda olingan lekin taqsimlanmagan foyda summasi;
3. Shu maqsad uchun maxsus tashkil qilingan fondlar.

Dividend miqdorlari aksiyalar bilan to‘langanda aksiyalarning bozor bahosi turli tomonga qarab o‘zgarishi mumkin. Odatda, uncha katta bo‘lmagan dividend (20% gacha) miqdorlari aksiyalar bilan to‘lansa, aksiya bahosi deyarli o‘zgarmaydi deb qaraladi.[1] Agar dividend shu foiz darajasidan oshaversa, aksiyaning bozor bahosi keskin tushaverishi mumkin. Dividendlarni aksiyalar bilan to‘lash ikki usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Bir vaqtning o‘zida ustav kapitalining va shu bilan birgalikda shu miqdorga balansning umumiy summasini ko‘paytirish;
2. O‘z mablag‘lari manbasini qayta taqsimlash yo‘li bilan, ya’ni balansning umumiy summasini o‘zgartirmasdan. Bu holda ustav kapitalining umumiy miqdori, emission daromad yoki taqsimlanmagan foyda summasining evaziga ko‘payishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda ikkinchi usuli tez-tez amalda qo‘llanilib turiladi.

Amaldagi normativ hujjatlarga asosan, Aksiyadorlik Jamiyatlarining sof foydasigina dividend deb hisoblanadi va bu summa aksiyadorning qo‘lidagi aksiyalarining nominal qiymatiga nisbatan proporsional taqsimlanadi.[2] Kompaniyaning dividendlar siyosatining asosiy turlari: Dividendlar siyosatining shakllanishiga yondashuvni aniqlash va qo‘llaniladigan dividend siyosati turlari;

1. Konservativ yondashuv – qoldiq dividend to‘lov siyosati.
2. O‘rtacha(kompromet) yondashuv – barqaror dividend to‘lov siyosati.
3. Agressiv yondashuv – dividendlar miqdorini doimiy ravishda oshirish siyosati.

Qolgan dividendlarni to‘lash siyosati, dividendlarni to‘lash jamg‘armasi o‘zining moliyaviy resurslarini shakllantirish zaruriyati tug‘ilganidan keyin tashkil etilishini nazarda tutadi, bu kompaniyaning imkoniyatlari to‘liq amalga oshirilishini ta’minlaydi, foyda hisobiga qondiriladi.

Dividend siyosatiga ta’sir ko‘rtsatadigan bir qancha omillar mavjud:

1.Huquqiy cheklovlar.
2. Shartnomaviy cheklovlar.
3.Ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog‘liq cheklovlar.
4.Aksiyadorlarning manfaatlariga doir cheklovlar.
5.Reklama va moliyaviy harakterdagi cheklovlar.

Dividendlar naqd pulda eng ko‘p to‘lanadigan to‘lov (tashkilot pul mablag‘lari, naqd pul, naqd to‘lov, buyurtma, pochta jo‘natmasi kabilar). Ayrim hollarda (ular kompaniyaning ustavida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak) dividendlar boshqa mol – mulk bilan to‘lanishi mumkin – yangi chiqarilgan aksiyalar, obligatsiyalar, qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlari hamda tovarlar bilan.

Xulosa: Dividend siyosatining mohiyati aylanma mablag‘lardan chiqarilgan va dividendlar shaklida to‘lanadigan foyda ulushi va biznesni kengaytirishga yo‘naltirilgan aksiyalar o‘rtasidagi maqbul nisbatni tanlashdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida dividend siyosati o‘zining asosiy bosqichlari bo‘yicha amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining barcha aksiyadorlik jamiyatlari O‘zbekiston

[1] "Iqtisodiyot va statistika" jurnali, https://stat.uz/

[2] Toshkent moliya institutining ilmiy jurnali, http://www.tfi.uz/

Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, aksiyadorlik jamiyatining nizomiga, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha “Korporativ boshqaruv kodeksi”ga muvofiq dividend siyosatini ishlab chiqadi[3]. Dividend siyosati kompaniyaning foydasini qanday taqsimlashini belgilovchi muhim moliyaviy strategiyalardan biridir. U kompaniyaning investorlar oldidagi ishonchliligini oshirishda, kapital bozordagi qiymatini belgilashda va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o‘ynaydi.Jahon adabiyotida dividend siyosatiga bo‘lgan yondashuvlar turlicha bo‘lib, ular kompaniyaning daromad barqarorligi, o‘sish imkoniyatlari, soliqqa oid afzalliklar, aktsiyadorlarning afzalliklari kabi omillar bilan bog‘liq. Miller va Modigliani (1961) o‘zining mashhur dividend nazariyasida dividend siyosati kompaniya qiymatiga ta’sir qilmasligi mumkinligini ta’kidlagan, biroq amaliyotda kompaniyaning dividend to‘lash qarori investorlar uchun muhim signal bo‘lib xizmat qiladi[4]. Dividend siyosatining turlari — barqaror dividend siyosati, o‘zgaruvchan dividend siyosati, nol dividend siyosati — kompaniyaning moliyaviy holati va strategik maqsadlariga qarab tanlanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha turli ilmiy tadqiqotlar kompaniyalar dividend siyosatini ishlab chiqishda nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki bozor sharoitlari, korporativ boshqaruv va huquqiy muhitni ham inobatga olishlari kerakligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiev, M. (2010). “Korporativ moliya: Nazariy asoslar va amaliyot.” Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
2. Qudratov, B. (2017). “O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion siyosatni takomillashtirish.” Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Juraev, D. (2015). “Korporativ boshqaruv: nazariya va amaliyot.” Toshkent: Iqtisodiyot va statistika nashriyoti.
4. Tursunov, N. (2013). “Moliyaviy tahlil va boshqaruv.” Toshkent: Iqtisodiyoti va statistika nashriyoti.
5. Miller, M., & Modigliani, F. (1961). Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares. American Economic Review, 48(4), 261–297.

[3] Qudratov, B. (Toshkent.2017) *“O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion siyosatni takomillashtirish.”*

[4] Miller, M., & Modigliani, F. (1961). *Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares*.

TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI

Maxsudov Akram Akbarali o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
tel:+998(91) 716-17-17
E-mail: akrammaxsudov077@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526879

Annotatsiya: Ushbu tezis tadbirkorlik sub'ektlarining buxgalteriya balansining iqtisodiy mohiyati, uning tuzilishi va asosiy elementlari yoritilgan. Shuningdek buxgalteriya balansining tahlili, tahlil qilish maqsadlari balans tahlilining vertikal (strukturaviy) hamda gorizontal (dinamik) usullari haqida.

Kalit so'z. Buxgalteriya balansi, moliyaviy ko'rsatkich, aktiv, passiv, tahlil, vertikal usul, gorizontal usul.

Abstract. This thesis discusses the economic essence of the balance sheet of business entities, its structure and main elements. It also discusses the analysis of the balance sheet, the objectives of the analysis, vertical (structural) and horizontal (dynamic) methods of balance sheet analysis.

Key word. Accounting balance, financial indicator, assets, liabilities, analysis, vertical method, horizontal method.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются экономическая сущность баланса хозяйствующих субъектов, его структура и основные элементы. Рассматриваются анализ баланса, цели анализа, вертикальный (структурный) и горизонтальный (динамический) методы анализа баланса.

Ключевое слово. Бухгалтерский баланс, финансовый показатель, активы, пассивы, анализ, вертикальный метод, горизонтальный метод.

Kirish.

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni to'playdi hamda oshkor qiladi.[1]Buxgalteriya balansi – buxgalteriya hisoboti aniq hisobot sanasida yakunlovchi, mablag'larning sarflanishi, manbai va maqsadini ta'riflovchi, jamlovchi, umumlashtirilgan jadvalda pul hisobida aks ettiruvchi hujjat.[2] Buxgalteriya balansi korxona, tashkilot, firma va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy holatini qiymat ko'rinishida ta'riflab beradi. Buxgalteriya balansi umumlashtirilgan jadval shaklida korxonaning mulklari tarkibini, ularning joylashtirilishini, manbalarini, mablag'larning sarflanishi va safarbar etilishini hisobot sanasida qiymat jihatidan aks ettiradi.Buxgalteriya balansi xo'jalik faoliyatini umumlashtirilgan pul ifodasida aks ettiruvchi tizim bo'lib, u xo'jalik jarayonlarining muvozanat tamoyiliga asoslanadi. Bunda har bir iqtisodiy operatsiya ikki tomonlama yozuv tamoyili orqali ifodalanadi va buxgalteriya balansida o'z aksini topadi. Shu boisdan balans korxona faoliyatini umumiy holatda tahlil qilishning ishonchli va obektiv vositasi hisoblanadi. Buxgalteriya balansi ikki asosiy qismdan iborat:

1. Aktivlar – korxona egaligidagi mol-mulk va resurslar.
2. Majburiyatlar va kapital – bu korxonaning ushbu mol-mulkka bo'lgan manbalari, ya'ni qarzlari va o'z mablag'i. Balansning asosiy tenglamasi shunday ifodalanadi:

Aktivlar = Majburiyatlar + Kapital[3]

Buxgalteriya balansi axbarotlarga boy manba bo'lib, ularga asoslanib xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi. Aynan mana shunday muhim ahamiyatga ega bo'lganligi bois buxgalteriya balansi buxgalteriya hisobi shakllari ichida birinchi o'rinda turadi. Undagi axbarotlarning mazmunini bilish uchun nafaqat buxgalteriya balansi tuzilishi to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish, balki ayrim ko'rsatgichlar o'rtasidagi mantiqiy va o'ziga xos bog'liqliklarni ham bilish zarur. Buxgalteriya balansining mazmunini bilishda uni o'qish ketma-ketligi ham muhim ahamyatga ega, shuningdek, faqat buxgalteriya balansiga xos bo'lgan ayrim cheklashlarni albatta bilish zarur.

[1] O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (1 -sonli BHMS) " Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" ni tasdiqlash haqida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3544)

[2] J.Muydinov va Z.Raximova. " Buxgalteriya balansi to'g'risida tushuncha va uning hisob boshqaruvidagi amhamiyati"
[3] Muxameto.A.B ,Abduvohidov .A.A, Matkulieva S.I, Matrasulov.B.E, Turayeva. G.G - "Buxgalteriya hisobi", 2023 y

Balans tahlili iqtisodiy sub'ektlarning samaradorligini baholashda ko'plab afzalliklarga ega. Birinchidan, u korxonaning moliyaviy holati to'g'risida aniq tasavvur beradi va moliyaviy qarorlarni qabul qilishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, balans tahlili orqali korxonada mavjud resurslarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va foydalilikni oshirish yo'llarini topish mumkin. Buxgalteriya balansining amaliy tahlilida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi: birinchidan, aktivlarning o'zgarishi va ularning tarkibiy tuzilishi. Ushbu tahlil orqali korxonada resurslarni qay darajada samarali boshqarilayotgani aniqlanadi. Ikkinchidan, majburiyatlar va kapitalning dinamikasi tahlil qilinadi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash imkoniyatlarini baholash imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchliligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida buxgalteriya balansini tahlil qilishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos keluvchi yondashuvlardan foydalanish zarur. Bu korxonalarning global bozor bilan integratsiyasini kuchaytiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Balans tahlilining samarali usullari qatoriga moliyaviy koeffitsiyentlar asosida tahlil qilish kiradi. Bu usulda balansdagi turli ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbatlarni hisoblash orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va foydalilik darajasi aniqlanadi. Ushbu usul orqali korxonaning iqtisodiy imkoniyatlari va mavjud risklar haqida aniq ma'lumot olish mumkin.Buxgalteriya balansini tahlil qilishda ikkita asosiy usullardan foydalaniladi.

- Vertikal (strukturaviy)
- Gorizontal (dinamik)

Vertikal tahlil - buxgalteriya balansining har bir moddasini umumiy yakunga (100%) nisbatan foizda ifodalash orqali uning tuzilmasini aniqlash usulidir. Bu tahlil balansning "ichki tarkibini" ochib beradi.

Gorizontal tahlil - bu balansdagi har bir moddani bir necha davr kesimida taqqoslash orqali o'zgarishlarni aniqlashdir. Qisqa qilib aytganda, Vertikal tahlil — balans tarkibini foizlarda ko'rsatadi, Gorizontal tahlil — vaqt bo'yicha o'zgarishlarni ko'rsatadi.Balans tahlilini "Chorsu buyum savdo kompleks"AJ da ko'rib chiqishimiz mumkin.

Asosiy ko'rsatkichlar nomi	Davr boshida (ming so'm)	Davr oxirida (ming so'm)
Asosiy vositalar	4 669 257,21	5 534 689,80
Uzoq muddatli aktivlar jami	3 735 254,45	4 152 025,20
Joriy aktivlar jami	987 627,51	1 923 702,26
O'z mablag'lari	3 949 200,43	5 034 993,09
Majburiyatlar	773 691,73	1 040 752,37

1.Gorizontal tahlil (dinamik tahlil)

ll. Vertical (strukturaviy)

Ko'rsatkich nomi	Davr boshida (ming so'm)	Davr oxirida (ming so'm)	O'zgarish	O's ish (%)
Asosiy vositalar	4 669 257,21	5 534 689,80	+865 432,59	+1 8,5%
Uzoq muddatli aktivlar jami	3 735 254,45	4 152 025,20	+416 770,75	+1 1,2%
Joriy aktivlar jami	987 627,51	1 923 702,26	+936 074,75	+9 4,8%
O'z mablag'lari	3 949 200,43	5 034 993,09	+1 085 792,66	+2 7,5%
Majburiyatlar	773 691,73	1 040 752,37	+267 060,64	+3 4,5%

Ko‘rsatkich nomi	Davr boshida (%)	Davr oxirida (%)	O‘zgarish (foiz punkt)
Asosiy vositalar	98,9%	91,1%	−7,8
Nomoddiy aktivlar	20,2%	23,1%	+2,9
Joriy aktivlar	20,9%	31,7%	+10,8
O‘z mablag‘lari	83,7%	82,9%	−0,8
Majburiyatlar	16,3%	17,1%	+0,8

Xulosa: Buxgalteriya balansi buxgalteriya hisobi tizimining markaziy va eng muhim elementi bo‘lib, u korxonaning moliyaviy holatini aniq bir hisobot sanasiga ko‘ra aks ettiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. U xo‘jalik yurituvchi sub’ektning iqtisodiy resurslari — aktivlari, shuningdek ushbu resurslarning moliyaviy manbalari — majburiyatlar va kapital o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatni ifodalaydi. Mazkur muvozanat iqtisodiy tahlilning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanib, barcha moliyaviy hisobotlarning asosi sifatida e’tirof etiladi. Nazariy jihatdan buxgalteriya balansining asosiy vazifasi korxonaning moliyaviy holatini baholash, aktivlar va passivlar o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatish hamda moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlashdan iborat. Balans ma‘lumotlari asosida korxonaning resurslardan foydalanish samaradorligi, moliyaviy imkoniyatlari, kapital tuzilmasi va to‘lov qobiliyati haqida xulosa chiqarish mumkin. Shu bois buxgalteriya balansi boshqaruv qarorlarini asoslashda, moliyaviy rejalashtirishda va nazorat tizimini tashkil etishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Qisqa qilib aytganda buxgalteriya balansi faqat moliyaviy hisobot shakli emas, balki korxonaning iqtisodiy faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va rejalashtirishda tayanch manba sifatida xizmat qiladi. U xo‘jalik yurituvchi sub’ektning real moliyaviy holatini aks ettirib, iqtisodiy barqarorlikni saqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tahlil natijalariga ko‘ra korxona moliyaviy holati barqaror. Aktivlar 28,7% ga oshgan, o‘z mablag‘lari 27,5% ga ko‘paygan. Majburiyatlar biroz oshgan bo‘lsa-da, ularning ulushi 17%. Aylanma mablag‘lar deyarli ikki baravar ko‘paygani korxonaning likvidligini oshirgan. Balans tuzilmasi sog‘lom: uzoq muddatli aktivlar va kapitalning yuqori ulushi barqaror rivojlanish imkonini beradi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahrir), 13.04.2016y № 404
2. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-sonli BHMS) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati”ni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3544)
3. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti Buxgalteriya hisobi milliy standarti (3-sonli BHMS) “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27-avgustda ro‘yxatga olingan, ro‘yxat raqami 404).
4. Muxameto.A.B, Abduvohidov.A.A, Matkulieva.S.I, Matrasulov.B.E, Turayeva.G.G - “Buxgalteriya hisobi”, 2023-y 462b
5. Tabayev.A.Z, Mamatkulov.M.SH “Buxgalteriya hisobi” O’quv qo’llanma- Toshkent 2022-y, 126b
6. www.lex.uz
7. https://new.openinfo.uz
8. bhms.uz
9. www.ziyonet.uz
10. buxgalter.uz

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И АУДИТА РАСХОДОВ НА ИННОВАЦИОННУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Мустафаев Акбар Мустафо угли
Независимый исследователь Ташкентского
государственного экономического университета
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526897

Annotatsiya: В данной статье подробно рассмотрено понятие инновации. Также определены ключевые компоненты жизненного цикла инновации и предложены рекомендации по снижению кредитных ограничений для предприятий Узбекистана, а также по развитию финансовой системы в целом.

Abstract. This article provides a detailed definition of the concept of innovation. It also identifies key components of the innovative life cycle and provides recommendations for reducing the credit constraints for Uzbek enterprises and developing the financial system as a whole.

Ключевые слова: инновация, инновационный процесс, инновационная деятельность, коммерциализация, партисипативный подход, интеллектуальная собственность, базисные инновации.

В обновляющемся Узбекистане внедрение новшеств, поиск, новые идеи и деятельность в соответствии с требованиями времени становятся важнейшими задачами во всех сферах.

Как подчеркнул наш Уважаемый Президент: «Важнейшая задача - сформировать инновационное мышление у нашего народа. Где нет инноваций, там не будет развития и конкуренции. Без широкой пропаганды новшеств в этой сфере, формирования у людей умения мыслить и работать по-новому мы не сможем идти в ногу с нынешним стремительно меняющимся временем, научным прогрессом. Поэтому выведение инновационной деятельности на уровень, соответствующий требованиям современности, должно стать главной задачей нового министерства и данного центра».[1] Инновация — это созданный в результате научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ новый или усовершенствованный продукт (товар, работа, услуга и др.), производственный процесс, новый метод маркетинга, рабочее место или внешние связи, предназначенные для удовлетворения потребностей общества или достижения других положительных эффектов. При этом основная задача заключается в глубокой реформе и обновлении всех сфер государственной и общественной жизни, развитии научных исследований и инновационной деятельности, создании необходимых условий для этого, привлечении молодежи к участию в этом процессе, поддержке новых творческих поисков и разработок.В целях создания правовых основ инновационной деятельности в нашей стране был разработан и представлен для обсуждения на Едином портале интерактивных государственных услуг проект Закона Республики Узбекистан «Об инновационной деятельности». Он был всесторонне изучен и доработан с учетом предложений широкой общественности, и на сегодняшний день выработаны правовые нормы, регулирующие эту сферу.

Проблемные вопросы бухгалтерского учета инновационных расходов и предложения по их совершенствованию

С точки зрения учета инновационной деятельности возникает ряд проблем, связанных с прямым определением объектов учета, а также с идентификацией инновационных активов, затрат и расходов.Учет расходов, связанных с инновационной деятельностью, в первую очередь зависит от ее видов. Для представления отчетов об инновационной деятельности в органы статистики необходимо разграничить технологические, маркетинговые и организационные инновации. Каждый вид инноваций характеризуется своей спецификой:

- **Технологические инновации** — это инновации в виде новых или усовершенствованных продуктов или услуг, а также новые или модернизированные процессы производства продуктов или оказания услуг. Эти инновации делятся на два типа:
- **Продуктовые инновации** подразумевают внедрение качественно новых или усовершенствованных товаров, разработку новых способов их использования в производственной

[1] Шавкат Мирзиёевhttps://president.uz/ru/lists/view/1309

сфере, создание и внедрение принципиально новых услуг, а также усовершенствование методов предоставления существующих услуг путем добавления новых характеристик и функций, значительно повышающих качество обслуживания;

• **Процессные (технологические) инновации** включают разработку и внедрение технологически новых или существенно усовершенствованных методов производства и оказания услуг, включая методы их доставки.

В настоящее время одним из основных недостатков организации учета инновационной деятельности является то, что не существует единой системы счетов и регистров бухгалтерского учета для отражения расходов, доходов и финансовых результатов научно-исследовательской деятельности на предприятии, имеющиеся учетные регистры, бухгалтерские счета не предоставляют достоверных для проведения анализа инновационной продукции и ее влияния на финансовые результаты деятельности предприятия. В таблице приведены возможные варианты учета затрат на научно-исследовательскую деятельность на предприятии, которое самостоятельно разрабатывает и внедряет инновации.

Таблица 1.1. Отражение затрат на инновационную деятельность на счетах бухгалтерского учета

Варианты зачета затрат на инновационную деятельность	**Корреспонденция счетов бухгалтерского учета**
А	1
Распределение затрат на стадии научных исследований и разработок по элементам затрат Ввод в эксплуатацию нематериального актива	Д-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ» К-т 1000 «Материалы», 05 00«Износ нематериальных активов», 6710 «Расчеты по оплате труда», 6910 «Расчеты по социальному страхованию и обеспечению», 6010«Расчеты с поставщиками» и др. Д-т 0400 «Нематериальные активы» К-т 0800 «Приобретение (создание) нематериальных активов»
Отнесение затрат на научно-исследовательские работы к текущим затратам предприятия	Д-т 2010 «Основное производство», 2310 «Вспомогательные производства», 44 00«Расходы на продажу» К-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»
В случае получения отрицательного результата и невозможности использования результатов инновационной деятельности	Д-т 9120 «Прочие расходы» К-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»

В свою очередь в связи с тем, что отсутствует четкое представление об инновационном продукте как об объекте учета, формирование системы 56 бухгалтерского учета затрат на инновационные мероприятия должно быть ориентировано на выполнение следующих принципов, определяющих направления его развития : - рассмотрение инновационного продукта как объекта бухгалтерского учета с учетом свойств его измеримости и обособленности; - отражение инноваций на счетах бухгалтерского учета как количественно определенных и обособленных объектов; - накопление на счетах бухгалтерского учета «инновационных» затрат по этапам инновационной деятельности; - расширение содержания и перечня объектов «инновационного» учета путем расширения понимания инвестиций как вложений не только в основной капитал и в нематериальные активы, но и в научные исследования и разработки, в человеческий капитал. На данный момент существующий план счетов предполагает лишь накопление затрат по инновационной деятельности на субсчете 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ». Учет затрат на одном счете не дает возможность разделения понесённых расходов по направлениям инновационной деятельности, что безусловно важно для оценки эффективности полученного результата. Для обеспечения раздельного учета расходов по инновационной деятельности, которая является составным элементом

хозяйственной деятельности организации, мы предлагаем открыть счета второго порядка к счету 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»: 0881 «Расходы на выполнение научных исследований» и 0882 «Расходы на выполнение научных разработок». Данные счета предназначены для накопления затрат, связанных с инновационной деятельностью. В целях организации учета затрат по этапам становления инновационного продукта можно предположить следующую группировку инновационных затрат: – маркетинговые исследования; – научные исследования или разработки; – инновационное проектирование; – инновационное производство; – коммерциализация продукции; – прочие расходы.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёевhttps://president.uz/ru/lists/view/1309
2. Врублевский Н. Д. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник. – М.: Бухгалтерский учет, 2005. – 400 с.
3. Головина Т. А. Методика оценки затрат и показателей риска в усло виях выбора эффективного варианта производственной деятельнос ти предприятия // Экономический анализ: теория и практика. – 2010. – № 34.
4. Голубев А. А., Александрова А. И., Скрипниченко М. В. Экономика, финансирование и управление инновационной деятельностью //СПб.: Университет ИТМО. – 2016. – Т. 153.
5. Дорошенко Ю. А., Бухонова С. М. Выбор способа финансирования инновационной деятельности в условиях ограниченности финансо вых ресурсов // Инновации. – 2005. – № 6.
6. Неделькин А. А. Методы калькуляции инновационной продукции // ТДР. – 2010. – № 9.
7. Энциклопедия статистических терминов. Т. 4. «Экономическая ста тистика» / Абдрахманова Г. И., Абдулгалимов А. М., Айвазян С. А. и др. – Москва: Федеральная служба государственной статистики, 2013.

ФАКТОРИНГ –ДРАЙВЕР БИЗНЕСА СУБЪЕКТОВ МСП И РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВОГО СЕКТОРА

Сабиров Алишер Хикматович
Ташкентский институт финансовых технологий(TIFT), доцент,
Тел.:+998 (90) 178 66 44, e-mail: sabirovaisher442@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526917

Аннотация. В статье раскрывается аспекты формирования рынка факторинговых услуг и развитие цифровизации этой сферы в Узбекистане. Обосновывается ее выгодность для использования как субъектами МСП, так и финансово-кредитными организациями.

Ключевые слова: цифровая трансформация, факторинг, малое и среднее предпринимательство (МСП), электронный документооборот (ЭДО). финтех компании и их сервисы; искусственный интеллект(ИИ);

В эпоху цифровой трансформации финансовый сектор страны стоит на пороге глобальных изменений и факторинг постепенно становится ключевым двигателем этого процесса.

Формирование рынка факторинга и внедрение технологий цифровизаций ,с одной стороны, появление финтех -бизнес компаний и включение в этот процесс все новых участников–коммерческих банков и кредитных организаций -открывает новые горизонты для потребителей и субъектов МСП, снижая барьеры и повышая конкуренцию.

Факторинг — это финансовая услуга, которая позволяет малому и среднему предпринимательству(МСП) быстро получать денежные средства за отсроченные платежи (дебиторскую задолженность), не дожидаясь, пока клиенты оплатят выставленные счета.

Анализируя рынок факторинговых услуг следует отметить, что в I полугодии 2025 года кредитные организации оказали услуги на общую сумму 4 трлн сумов. Из них 3,7 трлн сумов (или 93%) факторинговых сделок пришлось на коммерческие банки, а 289 млрд сумов (или 7%) – на микрофинансовые организации . При этом 2,3 трлн сумов (или 58%) от общего объема оказанных факторинговых услуг пришлось на услуги цифрового факторинга. Из них 1,2 трлн сумов (52%) были реализованы через электронную факторинговую платформу «Finmakon», а 1,1 трлн сумов (48%) — через электронную факторинговую платформу «Ozplanet» [4].

Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по ускоренному развитию рынка факторинговых услуг»-от 12.08.2024 г. № уп-109 определил в качестве основных целевых показателей развития рынка факторинговых услуг:-увеличение в течение 3 лет объема факторинговых услуг в 10 раз;-доведение до конца 2026 года доли факторинговых услуг, оказываемых банками с государственной долей, до 3 процентов от общего объема финансирования[1].

В таблице 1 представлен сравнительный анализ процесса краткосрочного финансирования на основе банковских кредитов и факторинговых услуг.

Таблица 1

Краткосрочное финансирование субъектов МСП на основе банковских кредитов и факторинговых услуг[3]

Показатели	Факторинговые услуги	Банковские кредиты
Срок оформления	Короткий срок (от 2 часов до 1 дня)	1 - 5 дней
Обеспечение	Не требуется	Требуется
Целесообразность	Не требуется	Требуется
Лимит финансирования	Нет ограничений	Лимит установлен
Срок финансирования	Лимит не установлен	В срок, указанный в договоре

Для МСП, нуждающегося в быстром и простом финансировании, привлекательными являются: повышение ликвидности, снижаются финансовые риски, управление дебиторской задолженностью становится проще, представляется возможность финансирования в краткосрочном периоде, а также гибкость условий факторингового обслуживания и др.

В отличие от кредита, факторинг не требует залога и не увеличивает долговую нагрузку. Он особенно удобен для предприятий, работающих с отсрочкой платежей: поставщиков, производителей, экспортёров, подрядчиков в т.ч.в сфере услуг. Ключевые преимущества: возможность получать денежные средства сразу после отгрузки;устранение кассовых разрывов;повышение платёжной дисциплины контрагентов;минимизация финансовых рисков. Кроме того, большинство банков предоставляют возможность оформить заявку-онлайн, что делает процесс максимально оперативным. Вместе с тем, Национальный Банк РУз, в целях расширения экспортного потенциала хозяйствующих субъектов в стране, а также повышения конкурентоспособности их продукции на внешних рынках начал осуществлять проведение факторинговых услуг в иностранной валюте по экспортным контрактам.

Следует отметить,что все вышеуказанные процессы обеспечиваются через внедрение Электронной платформы факторинговых услуг - как технологической инфраструктуры для оказания коммерческими банками и кредитными организациями этих услуг участникам цепочки поставок.

Если клиенты-субъекты МСП заинтересованы и стремятся к цифровизации и удобству онлайн-сервисов, стоит обратить внимание на деятельность «Ozplanet» и «Finmakon», которые предлагают онлайн- факторинг услуги через свои электронные платформы. Их преимущества в следующем: выгодные условия финансирования, без посещения банковских офисов,минимальный пакет документов,электронный документооборот(ЭДО), решение по заявке в течение часа и персональное обслуживание через личный кабинет. ЭДО на этих платформах-это современный способ ведения документооборота, который представляет собой юридически значимый обмен документами через Интернет.Уже сегодня более 2 тысяч предприятий и 25 коммерческих банков страны интегрированы в эти системы ,а лимиты для 1.6 тысяч предприятий установлены на сумму более -2,5 трлн.сум.

Таким образом, в настоящее время услуги цифрового факторинга предлагается почти от всех ведущих коммерческих банков на основе электронного документооборота (ЭДО) и предусмотрены другие финтех-сервисы для ускорения оборота денежных средств и масштабирования бизнеса для субъектов МСП.

Эксперты рынка факторингового финансирования ожидают,что наиболее успешными будут те коммерческие банки и факторинговые компании,деятельность которых напрямую связана с цифровизацией процессов:внедрением искусственного интеллекта(ИИ) и автоматизацией клиентского обслуживания. При этом,особое внимание будет уделяться расширению географического охвата и адаптации факторинга под запросы региональных клиентов.Не забывая при этом,что надо всячески развивать и расширять осведомленность предпринимателей о факторинговых услугах, которая остается еще на низком уровне, а финансово-кредитные организации ощущают потребность в повышении квалификации сотрудников для внедрения и расширения масштабов этих услуг.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по ускоренному развитию рынка факторинговых услуг»-от 12.08.2024 г. № уп-109.-|www.Lex.uz
2. А.Богданов «Факторинг- финансовый ключ к развитию бизнеса».Журнал «The mag business»-№5,2024,с.28
3. Факторинговые услуги и их основные моменты.-|www.FinLit.uz
4. Центральный банк РУз. Обзор рынка факторинговых услуг в I полугодие 2025 года. Т.:2025.с.2

INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Berdiyev Anvar Abduraxmanovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Moliya va bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: berdiyevanvar239@gmail.com
UDK: 338.242
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526940

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish orqali ularning samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion texnologiyalar, raqamli yechimlar va boshqaruv tizimlarining o‘zaro ta’siri tahlil qilingan. Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni joriy etgan korxonalarda xizmat sifati, mijozlar mamnunligi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, texnologik, tashkiliy va marketing innovatsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning xizmat sektoriga ta’siri aniqlangan. Maqolada innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillar – kadrlar salohiyati, raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi va boshqaruvning strategik yondashuvi – asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tizimli tarzda joriy etish ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, xizmat ko‘rsatish sektori, samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, innovatsion boshqaruv, texnologik yangiliklar, raqobatbardoshlik.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИЙ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности предприятий сферы услуг на основе внедрения инноваций. Проведён анализ влияния инновационных технологий, цифровых решений и управленческих подходов на деятельность сервисных компаний. Результаты исследования показывают, что предприятия, активно внедряющие инновации, достигают более высоких показателей качества обслуживания, удовлетворённости клиентов и экономической эффективности. Определены основные виды инноваций – технологические, организационные и маркетинговые – и их влияние на развитие сферы услуг. Обоснованы ключевые факторы успешного внедрения инноваций: кадровый потенциал, уровень использования цифровых технологий и стратегическое управление. Сделан вывод о том, что системное внедрение инноваций является важным условием повышения конкурентоспособности и устойчивого развития предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: инновации, сфера услуг, эффективность, цифровая экономика, инновационный менеджмент, технологические изменения, конкурентоспособность.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES THROUGH THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS

Abstract: This article examines the improvement of service enterprises’ efficiency through the implementation of innovations. The study analyzes the impact of innovative technologies, digital solutions, and management systems on the performance of service companies. Empirical findings indicate that companies adopting innovations achieve higher service quality, customer satisfaction, and economic efficiency. The paper identifies technological, organizational, and marketing innovations as key types influencing service sector development. It also highlights critical success factors such as human capital, the use of digital technologies, and strategic management approaches. The results confirm that systematic implementation of innovations significantly enhances competitiveness and ensures sustainable growth of service enterprises.

Keywords: innovation, service sector, efficiency, digital economy, innovation management, technological advancement, competitiveness.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida xizmat ko‘rsatish sektori mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Jahon iqtisodiy tizimida xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko‘p qismini tashkil etadi, bu esa iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda ushbu sohaning o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda xizmat ko‘rsatish sektorining o‘sish sur’atlari yuqorilab, yangi xizmat turlari, raqamli yechimlar va innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Raqobatning kuchayishi, mijoz ehtiyojlarining tez o‘zgarishi hamda raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi xizmat ko‘rsatish korxonalaridan samaradorlikni oshirish, sifatni yaxshilash va xizmatlarni individuallashtirishni talab etmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy barqarorlikdagi rolini alohida ta’kidlab, “Innovatsiyalar – yangi O‘zbekiston taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir. Har bir sohada, xususan, xizmat ko‘rsatish sektorida ham ilg‘or g‘oyalar, texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish zamon talabi” deya qayd etgan [2]. Bu fikrlar xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni qo‘llash va ularni strategik rivojlanish yo‘nalishiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Innovatsiyalar xizmat ko‘rsatish korxonalarining faoliyatini modernizatsiyalash, yangi xizmat turlarini yaratish hamda mavjud jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. C.Hipp va H.Gruppning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, “xizmat sohasidagi innovatsiyalar, odatda, mijozlar talabidan kelib chiqadigan va ularga moslashuvchan yechimlar orqali shakllanadi” [3]. Demak, xizmat ko‘rsatish sektorida innovatsiyalarni joriy etish xizmat sifatini oshirish, jarayonlarni avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida sezilarli qadamlar tashlanmoqda. Y.E.Aliyevning “Innovatsion iqtisodiyot” asarida qayd etilishicha, “xizmat ko‘rsatish korxonalarini modernizatsiyalash va ularni innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o‘sishining eng muhim omillaridan biridir” [4]. Shu boisdan, xizmat ko‘rsatish korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, menejment tizimini takomillashtirish, inson resurslari salohiyatini oshirish orqali ularning samaradorligini yuksaltirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – innovatsiyalarni joriy etish orqali xizmat ko‘rsatish sektoridagi korxonalar samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va ularni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko‘rsatish sektorida innovatsiyalarni joriy etish va ularning samaradorlikka ta’siri masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarning aksariyati innovatsiyalarni xizmat sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojiga moslashish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi omil sifatida talqin etadi. Biroq, ayrim manbalarda innovatsion faoliyatning korxona samaradorligi bilan bevosita bog‘liqligi, boshqalarida esa bilvosita, ya’ni inson resurslari, boshqaruv madaniyati va raqamli infratuzilma orqali shakllanishi qayd etiladi.

Sh.Saipnazarov o‘z tadqiqotida korxonalarni boshqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlarini tahlil qilib, innovatsiyalarni samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida belgilaydi. Sh. Saipnazarovning fikricha, “innovatsion menejment tizimini joriy etish korxonalarda qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va raqobat muhitida barqaror rivojlanishni ta’minlaydi” [1]. Ushbu yondashuv xizmat ko‘rsatish sektorida menejment innovatsiyalarining ahamiyatini tasdiqlaydi.

C.Hipp va H.Grupp esa xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarni sanoatdagi texnologik yangiliklardan tubdan farqli hodisa sifatida ko‘radi. Ularning tadqiqotida “xizmat innovatsiyalari ko‘pincha iste’molchi ehtiyojidan kelib chiqadi va moslashuvchan yechimlar asosida shakllanadi” degan xulosa ilgari suriladi [3]. Bu nazariy yondashuv xizmat korxonalari uchun innovatsiyani texnik yangilik emas, balki mijozga yo‘naltirilgan tizimli o‘zgarish sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Y.E.Aliyev tomonidan yozilgan “Innovatsion iqtisodiyot” o‘quv qo‘llanmasida esa innovatsiyalar milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholanadi. Y.E.Aliyev “xizmat ko‘rsatish korxonalarini modernizatsiyalash va ularni innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o‘sishining eng muhim omillaridan biridir” deb ta’kidlaydi [4]. Bu fikr xizmat sektorining iqtisodiyotdagi rolini kengaytirish uchun innovatsion siyosat zarurligini asoslaydi.

M.Pardayev va T.Mamayunusov o‘z maqolasida xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat tushunchasining nazariy asoslarini yoritib, bu jarayonni iqtisodiy kategoriyalar tizimida ko‘rib chiqadi. Ularning fikricha, “xizmat ko‘rsatishdagi innovatsion faoliyat nafaqat texnologik, balki tashkiliy, boshqaruv va marketing sohalarini ham qamrab oladi” [5]. Bu yondashuv xizmat korxonalarida innovatsiyani faqat texnik yangilik emas, balki kompleks transformatsion jarayon sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi.

G.M.Shadiyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sektorida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalalari o‘rganilgan bo‘lib, u innovatsiyalarni joriy etishning samaradorlikka ta’sirini tizimli ravishda baholaydi. U “raqamli iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish sohasining integratsiyasi korxona faoliyatining barcha bosqichlarini optimallashtirish imkonini beradi” deb ta’kidlaydi [6]. Bu esa raqamli innovatsiyalarni xizmat samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

A.A.Mamatov, T.T.Jo‘rayev va A.N.Erkayev tomonidan nashr etilgan “Innovasion iqtisodiyot” asarida esa innovatsion faoliyatning nazariy asoslari, resurs taqsimoti va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Ular innovatsion jarayonlarni milliy iqtisodiy modelga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydilar, bu esa xizmat ko‘rsatish sektorida mahalliy sharoitga xos yechimlarni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatadi [7].

A. Taniyev “Innovatsion iqtisodiyot” darsligida innovatsiyalarni joriy etishdagi boshqaruv tizimlari, kadrlar salohiyati va texnologik infratuzilmaning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilgan. A. Taniyev innovatsion jarayonlar muvaffaqiyatining kaliti sifatida inson kapitalining innovatsion salohiyatini alohida ajratib ko‘rsatadi [8]. Bu fikr xizmat korxonalari samaradorligini oshirishda inson omilining strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni joriy etish xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish, xizmat sifatini yaxshilash, resurslardan oqilona foydalanish hamda raqobatbardosh ustunliklarni yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar xizmat sektorida innovatsion faoliyatni baholashning yagona modeli hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shuning uchun mazkur maqola aynan O‘zbekiston sharoitida innovatsion yondashuvlarning xizmat korxonalari samaradorligiga ta’sirini amaliy tahlil qilishga yo‘naltiriladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni joriy etish samaradorlik ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Olingan ma’lumotlar asosida aniqlanishicha, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etgan korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish borasida an’anaviy tizimdagi korxonalarga nisbatan ancha yuqori natijalarga erishgan.

1. Innovatsiyalarni joriy etishning umumiy iqtisodiy ta’siri:

O‘zbekiston xizmat ko‘rsatish sektorida so‘nggi besh yillikda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan xizmat tizimlari va elektron boshqaruv mexanizmlarini joriy etish jarayoni jadallashdi. Tadqiqotda o‘rganilgan 50 dan ortiq xizmat ko‘rsatish korxonasining ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsiyalarni faol joriy etgan subyektlarda o‘rtacha yalpi daromad 25-40% gacha, xizmatlar sifati indeksi esa 1,4 baravar oshgan.

Shuningdek, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda:

- xizmatdan foydalangan mijozlar soni 18-25% ga oshgan;
- xodimlarning mehnat unumdorligi 20% ga ko‘tarilgan;
- xizmat ko‘rsatish muddati 15-20% ga qisqargan;
- mijozlar shikoyatlari soni 30% ga kamaygan.

Bu raqamlar innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda keltirishini, balki xizmat sifati va mijozlar mamnunligiga ham bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

2. Innovatsion faoliyat turlari bo‘yicha natijalar:

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalar asosan quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirilgan:

1. Texnologik innovatsiyalar – xizmat jarayonlarini avtomatlashtirish,

raqamli ilovalar, CRM va ERP tizimlarini joriy etish orqali ish unumdorligi oshgan. Masalan, bank sektorida mijozlarga onlayn xizmat ko‘rsatish tizimlarini joriy etgan tashkilotlarda xizmat ko‘rsatish vaqti o‘rtacha 40 foizga qisqargan.

2. Tashkiliy innovatsiyalar – boshqaruv tizimlarini qayta tuzish, xodimlarni

innovatsion fikrlashga yo‘naltirish orqali samaradorlik oshgan. Bu yo‘nalishda ishlayotgan kompaniyalarda ichki aloqa tizimi yaxshilangan va qaror qabul qilish jarayoni tezlashgan.

3. Marketing innovatsiyalari – mijozlarga yo‘naltirilgan strategiyalar,

sodiqlik dasturlari, onlayn reklama va mijozlar xulqini tahlil qilish orqali yangi iste’molchilar segmentlarini jalb qilish imkoniyati kengaygan.

Shuningdek, ijtimoiy va ekologik innovatsiyalar ham ayrim korxonalarda samarali natijalar bergan. Masalan, ekologik toza xizmatlar, chiqindisiz ishlab chiqarish yoki “yashil transport” tizimlarini yo‘lga qo‘ygan korxonalar jamoatchilik e’tiborini qozongan va ijobiy imidjga ega bo‘lgan.

3. Innovatsion jarayonlar va samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik:

Empirik tahlil asosida xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligi va innovatsion faoliyat darajasi o‘rtasida bevosita ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan. Korxonalarning innovatsion faoliyat indeksi (IFI) 0,68 bo‘lib, bu o‘rta va yuqori darajadagi bog‘liqlikni bildiradi.

Ya’ni, korxona qanchalik ko‘p innovatsion texnologiyalarni joriy etsa, uning iqtisodiy samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish va inson resurslarini qayta tayyorlash ko‘rsatkichlari eng kuchli ta’sirga ega omillar sifatida qayd etilgan.

4. Mahalliy va xorijiy tajribalar taqqoslanishi:

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sektori yalpi ichki mahsulotning 60–70 foizini tashkil etadi va bu tarmoqda innovatsiyalar strategik darajada boshqariladi. Masalan:

– Yaponiya va Janubiy Koreyada xizmatlar sektorida robotlashtirilgan
servis tizimlari keng qo‘llaniladi;
– AQShda mijoz tajribasini tahlil qilish asosida xizmatni
individuallashtirish (customer experience personalization) asosiy yo‘nalishga aylangan;
– Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa “raqamli transformatsiya
strategiyalari” asosida xizmat ko‘rsatish sohasida barqaror innovatsion tizimlar shakllangan.
– O‘zbekiston xizmat ko‘rsatish korxonalarida bu tajribalarning ayrim

jihatlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Masalan, bank xizmatlarida onlayn to‘lovlar, turizm sohasida elektron bron tizimlari, transport sohasida “smart” xizmatlar kengaymoqda. Biroq, innovatsiyalarni joriy etish darajasi hali ham past bo‘lib, umumiy korxonalar sonining 25-30% ini tashkil etadi.

5. Innovatsiyalarni joriy etishda uchrayotgan muammolar:

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etishda quyidagi muammolar mavjud:

– Moliyaviy resurslarning yetishmasligi – innovatsion loyihalar uchun
investitsiyalar cheklangan;
– Kadrlar salohiyatining pastligi – xodimlarning innovatsion texnologiyalar
bilan ishlash ko‘nikmalari yetarli emas;
– Boshqaruv tizimlarining an’anaviyligi – yangi g‘oyalarni tezkor qabul
qilish va amalga oshirish mexanizmlari sust;
– Normativ-huquqiy muhitning sust rivojlanishi – ayrim innovatsion

faoliyat turlarini tartibga soluvchi mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning xizmat ko‘rsatish sektori samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikka olib kelishini tasdiqlaydi.

MUHOKAMALAR

Olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy etish korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Pardayev va Mamayunusov ta’kidlaganidek, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat – bu “faqat texnologik yangilik emas, balki menejment, marketing va inson resurslari sohalarida ham tizimli o‘zgarishlarni talab qiluvchi jarayon” [3]. Shu jihatdan, innovatsion boshqaruv yondashuvlari xizmat sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va bozor talablariga moslashuvchanlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Mavjud adabiyotlar va empirik ma’lumotlar tahlili asosida aniqlanishicha, innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun bir nechta muhim omillar mavjud: birinchidan, rahbariyatning innovatsion fikrlash darajasi va o‘zgarishlarga ochiqligi; ikkinchidan, xodimlarning malakasi va kreativ salohiyati; uchinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi. Shu omillar uyg‘unlashganda, korxonalar o‘z faoliyatini samarali optimallashtirishi va xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish ko‘pincha strategik rejalashtirish bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Bu esa ko‘plab korxonalarda innovatsion tashabbuslarning barqaror natija bermasligiga olib keladi. Mavjud holatda, innovatsion faoliyatni faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki menejment tizimining ajralmas qismi sifatida ko‘rish lozim. Shu yo‘l bilan xizmatlar bozori talablariga moslashuvchan va samarali javob qaytaruvchi tizim shakllantiriladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, mijoz bilan aloqa tizimini avtomatlashtirish, onlayn xizmat ko‘rsatish, sun’iy intellekt asosida takliflarni shaxsiylashtirish va tahliliy platformalardan foydalanish sohalarida o‘zini oqlamoqda. Bunday yondashuvlar xizmat ko‘rsatish jarayonining tezligi, aniqligi va mijozlar qoniqish darajasini oshiradi. Shu bilan birga, korxona resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida xizmat ko‘rsatish sektorida innovatsiyalarni joriy etish jarayonida hali ham bir qator muammolar mavjud – moliyaviy cheklovlar, innovatsion infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga kam tatbiq etilishi va kadrlar salohiyatining pastligi shular jumlasidandir. Shu sababli, davlat tomonidan innovatsion muhitni rivojlantirish, grant va subsidiyalar tizimini kengaytirish, ilm-fan va biznes integratsiyasini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Bu jarayon tizimli yondashuv, malakali kadrlar, raqamli texnologiyalar va strategik boshqaruv asosida olib borilgandagina barqaror natijalar beradi. Shu orqali mamlakat xizmat ko‘rsatish sektori raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda barqaror o‘sishni ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish ularning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini modernizatsiyalaydi, balki iste’molchilarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatini ham yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, inson resurslari salohiyatini rivojlantirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish xizmat ko‘rsatish sektorining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonida xizmat ko‘rsatish korxonalarining faoliyatini yangicha boshqaruv konsepsiyalari asosida tashkil etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion mexanizmlarni samarali joriy etish iqtisodiy o‘sish, bandlik va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsiyalarni strategik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishiga aylantirish – xizmat ko‘rsatish korxonalarining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlovchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saipnazarov, Sh. Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2024. – P. 45-52. DOI: 10.55439/GED/vol1_iss1/a790.
2. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ma’ruzasi. 2023.
3. Hipp, C., Grupp, H. Innovation in the Service Sector: The Demand for Service-Specific Innovation Measurement Concepts and Typologies. Research Policy, 2005, 34(4). – P. 517-535.
4. Aliyev, Y. E. Innovatsion iqtisodiyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2019.
5. Pardayev M., Mamayunusov T. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatning nazariy masalalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024. DOI: 10.55439/GED/vol1_iss1/a788.
6. Shadiyeva G.M. Innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligi masalalari // Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar jurnali, 2023.
7. Mamatov A.A., Jo‘rayev T.T., Erkayev A.N. Innovatsion iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. – 456 b.
8. Taniyev A. Innovatsion iqtisodiyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 460 b.

TIJORAT BANKLARINING KREDIT OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Abdusattorov Anushervon Suhrobzoda
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti bank ishi va audit yo'nalishi 4-bosqich 6BI-202 guruh talabasi
Tel:+998904115911
Email: bloggold7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526965

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit operatsiyalarini tashkil etish va rasmiylashtirish jarayonlari, kredit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari hamda bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kredit risklarini kamaytirish, garov tizimini soddalashtirish hamda kredit portfellarini diversifikatsiya qilish bo'yicha ilg'or tajribalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banki, kredit operatsiyasi, kredit siyosati, kredit riski, garov, likvidlik, mijoz tahlili, raqamli bank tizimi, mikroqarz, moliyaviy barqarorlik.

Kirish: Tijorat banklari — mamlakat moliya tizimining tayanch ustunlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida bank tizimining 90 foizdan ortiq aktivlari aynan tijorat banklariga to'g'ri keladi. Ularning asosiy vazifalaridan biri — iqtisodiyot subyektlarini kredit resurslari bilan ta'minlash va moliyaviy vositachilikni amalga oshirishdir. So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida kredit portfeli hajmi yil sayin oshib bormoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, Markaziy bank ma'lumotiga ko'ra, tijorat banklarining jami kredit portfeli 460 trillion so'mdan oshgan.

Asosiy qism: Tijorat banklarining kredit operatsiyalarining mohiyati. Kredit operatsiyalari — bu banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga qaytarishlik, to'lovlilik va muddatlilik shartlari asosida mablag' berish jarayoni. O'zbekiston sharoitida banklar kredit siyosatini quyidagi yo'nalishlarda yuritadi,tadbirkorlik subyektlariga investitsion va aylanma mablag' kreditlari,aholiga iste'mol va ipoteka kreditlari,kichik biznes va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash kreditlari. Masalan, "Agrobank" qishloq xo'jaligi sohasiga, "Mikrokreditbank" esa mikroqarzlar orqali kichik biznesga yo'naltirilgan kredit siyosatini yuritadi.[1]

Kredit operatsiyalarini tashkil etish bosqichlari: O'zbekiston tijorat banklarida kredit jarayoni odatda quyidagi bosqichlarda amalg oshiriladi: Kredit arizasini qabul qilish — mijoz tomonidan ariza va zarur hujjatlar taqdim etiladi. Mijozni tahlil qilish (skoring tizimi asosida) — mijozning moliyaviy holati, daromad manbalari va to'lov intizomi o'rganiladi.Garov ob'ektini baholash — mustaqil baholovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.Kredit shartnomasini tuzish — kredit miqdori, foiz stavkasi, muddat, garov shartlari belgilanadi.Kredit mablag'ini ajratish va monitoring — ajratilgan kreditning maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatiladi.Masalan, "Ipoteka-bank"da ipoteka kreditlari elektron shaklda — my.gov.uz portali orqali rasmiylashtirilmoqda.

Kredit risklarini boshqarish: Kredit risklari bank faoliyatidagi eng muhim moliyaviy xavf hisoblanadi. Ularni kamaytirish uchun O'zbekiston banklari quyidagi mexanizmlardan foydalanadi.Skoring tizimlari yordamida avtomatik baholash.Garov diversifikatsiyasi — bir turdagi ta'minotga bog'lanib qolmaslik.Kredit portfeli monitoringi — kechikkan qarzlarni erta aniqlash tizimi.Markaziy bankning Kredit axborot almashish tizimi (Credit Registry) orqali mijoz tarixini tekshirish. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida kreditlarning 95 foizi to'liq qaytarilgan, bu esa kredit intizomi oshayotganini ko'rsatadi.

Rasmiylashtirish tartibi va hujjatlar: Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirishda quyidagi hujjatlar talab etiladi.Kredit arizasi va biznes-reja.Garov shartnomasi va baholash hisobotlari.Mijozning moliyaviy hisobotlari (balans, foyda va zarar hisobotlari).Soliq organlaridan qarzdorlik yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma.Kredit shartnomasi va sug'urta hujjatlari.Hozirda ko'plab banklar "onlayn-kreditlash tizimi"ga

[1] O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.

o‘tmoqda. Masalan, “Asaka bank” va “Aloqabank” mobil ilovalari orqali jismoniy shaxslarga 5 daqiqada mikroqarz ajratish tizimini joriy qilgan.

Kredit siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdagi PQ–105-son qaroriga muvofiq, bank sektorida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.Raqamli kreditlash tizimini kengaytirish.Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlar ulushini oshirish.Ayollar va yoshlar tadbirkorligini kredit bilan qo‘llab-quvvatlash.Yashil iqtisodiyot loyihalariga past foizli kreditlar ajratish.

Misol uchun, “Yoshlar daftari” doirasida 2024-yilda 400 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan.[2]

O‘zbekiston Bank Sektori Statistikasi

Ko‘rsatkich	Sana	Qiymat	Manba
Jami bank aktivlari	1-yanvar 2025	769,33 trln so‘m	Markaziy bank / UzDaily
Jami bank aktivlari (oldingi yil)	1-yanvar 2024	652,16 trln so‘m	Daryo.uz
Banklar aktivlari	1-aprel 2024	665 657 mlrd so‘m	Markaziy bank
Kreditlar hajmi	1-aprel 2024	478 201 mlrd so‘m	Markaziy bank
Depozitlar hajmi	1-aprel 2024	243 128 mlrd so‘m	Markaziy bank
Davlat banklari aktivlari ulushi	1-yanvar 2025	65 %	UzDaily
Kreditlar (net)	1-mart 2025	519 940 mlrd so‘m	Markaziy bank

Xulosa: Tijorat banklarining kredit operatsiyalarini to‘g‘ri tashkil etish va rasmiylashtirish O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligi va aholining farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda kredit siyosatining raqamlashtirilishi, risklarni boshqarish tizimining takomillashuvi, garov jarayonining soddalashtirilishi va mijozlar uchun shaffof mexanizmlarning yaratilishi bank tizimining raqobatbardoshligini oshirmoqda. Kredit operatsiyalarida ochiqlik, tezkorlik va ishonchlilikni ta’minlash –barqaror bank tizimining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – www.cbu.uz
2. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri, 2020-y.)
3. Prezident qarori PQ–105 (09.03.2023-y.) – “Bank tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
4. Xusanov B.X. Bank ishi asoslari. – T.: “Iqtisodiyot”, 2022.
5. www.stat.uz, www.pedagoglar.uz

[2] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki nizomi: “Kredit siyosati va kreditlash tartibi”. — Toshkent, 2024.

TA'LIMDA YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI (DENOV TUMANIDAGI 74-MAKTAB MISOLIDA)

Achildiyeva Elnora Elbekovna
Sherdanova Gulijaxon Almurot qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Iqtisodiyot mutaxassisligi magistrantlari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526968

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi misol qilib olingan. Maktabda tashkil etilgan issiqxonalar va quyosh panellari orqali o'quvchilar ekologik toza mahsulot yetishtirish, energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy savodxonligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotning ta'limdagi ahamiyati, uning o'quvchilar dunyoqarashiga ijobiy ta'siri hamda barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasi ochib berilgan.

Annotation

This article analyzes the practical aspects of implementing green economy principles in the education system. The study takes the example of School No. 74 in Denov district of Surxondaryo region. Through the establishment of greenhouses and solar panels at the school, students have the opportunity to grow environmentally friendly products, use energy resources efficiently, and enhance their economic literacy. The research reveals the importance of the green economy in education, its positive impact on students' worldview, and its contribution to sustainable development.

Аннотация

В статье анализируются практические аспекты внедрения принципов «зелёной экономики» в систему образования. В качестве объекта исследования выбрана средняя общеобразовательная школа №74 Деновского района Сурхандарьинской области. На базе школы созданы теплицы и установлены солнечные панели, что предоставляет учащимся возможность выращивать экологически чистую продукцию, рационально использовать энергетические ресурсы и повышать уровень экономической грамотности. В исследовании раскрывается значение «зелёной экономики» в образовательном процессе, её положительное влияние на формирование экологического мировоззрения учащихся, а также вклад в достижение целей устойчивого развития.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ta'lim tizimi, ekologik tarbiya, issiqxona, barqaror rivojlanish, iqtisodiy savodxonlik.

Keywords: green economy, education system, environmental education, greenhouse, solar panels, sustainable development, economic literacy.

Ключевые слова: зелёная экономика, система образования, экологическое воспитание, теплица, солнечные панели, устойчивое развитие, экономическая грамотность.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiyotning ekologik xavfsizligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot g'oyasi ta'lim tizimida ham muhim o'rin egallaydi. Yashil iqtisodiyot orqali o'quvchilar ekologik fikrlash, iqtisodiy mas'uliyat va tabiatga ehtiyotkor munosabat kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi bu borada namunali ishlarni amalga oshirmoqda. Maktabda issiqxonalar tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar sabzavot va ko'katlar yetishtirish, shuningdek quyosh panellari yordamida energiya tejash jarayonlarida faol ishtirok etishmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Yashil iqtisodiyot va ta'lim integratsiyasi masalasi so'nggi yillarda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2023-y.) hujjatida ekologik ta'lim va tarbiyani kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan. I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida tabiatni asrash va ekologik tarbiyaning ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, "Ekologiya asoslari" (T. Nazarov, 2020) va "Yashil iqtisodiyot tamoyillari" (Sh. Abdullayev,

2022) darsliklarida ekologik tafakkurni shakllantirishning ta’limdagi o‘rni yoritilgan. Bu manbalarda yashil iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish jarayonlarida emas, balki ta’lim tizimida ham o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Tahliliy qism

Denov tumanidagi74-umumiy o‘rta ta’lim maktabida issiqxona va quyosh panellari faoliyati o‘zaro bog‘langan ekologik-iqtisodiy tizim sifatida ishlamoqda. Issiqxonalar orqali o‘quvchilar amaliy mehnat bilan shug‘ullanishadi, ekinlarni parvarishlash, hosil olish va uni realizatsiya qilish orqali iqtisodiy savodxonligini oshiradilar. Quyosh panellari esa ushbu jarayonni energiya jihatidan barqaror va tejamkor qiladi. Panellar yordamida hosil qilinadigan elektr energiyasi issiqxonadagi suv nasoslari, isitish tizimi va yoritish uchun ishlatiladi. Bu esa maktabning elektr xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va o‘quvchilarga muqobil energiya manbalari haqida amaliy tushuncha beradi. Shuningdek, maktabda har oyda “Yashil energiya kuni” o‘tkazilib, o‘quvchilar quyosh panellarining ishlash mexanizmi, energiya o‘lchovlari va tejash usullari bilan tanishadilar. Bu ularni texnik tafakkur va innovatsion fikrlashga undaydi. Denov tumanidagi 74-maktab tajribasi ta’limda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliy tatbiq etishning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi.

№	Ko‘rsatkichlar	Ma’lumotlar (2024-yil holatiga ko‘ra)
1	Issiqxonalar soni va O‘quvchilar ishtiroki	2 ta (biri sabzavotlar, biri gulchilik yo‘nalishida), 50 nafar (8–11-sinflar)
2	Yetishtiriladigan mahsulotlar	Pomidor, bodring, piyoz, ko‘katlar
3	O‘rtacha yillik hosil	1,2 tonna
4	O‘quvchilar tomonidan olingan daromad	8 million so‘m
5	Mahsulotdan foydalanish yo‘nalishlari	Maktab oshxonasi, bozor orqali realizatsiya
6	O‘quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar	Sug‘orish tizimi, tomchilatib sug‘orish, biogumusdan foydalanish
7	Quyosh panellari soni	12 dona (har biri 250 Vt quvvatda)
8	Energiya tejalishi	O‘rtacha oyiga 250–300 kVt elektr energiyasi
9	Quyosh panellari o‘rnatilgan joy	Maktab tom qismi va issiqxona usti
10	Energiya yo‘nalishi	Issiqxona isitish tizimi, yoritish va suv nasoslarini ishlatish uchun foydalaniladi
11	Yillik iqtisodiy foyda	4 million so‘m atrofida elektr xarajatlarining kamayishi hisobiga tejaladi

Ko‘rinib turibdiki, Denov tumanidagi 74-maktabda issiqxona va quyosh panellari faoliyati nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali natijalar bermoqda. O‘quvchilar o‘z mehnati evaziga mahsulot yetishtirish jarayonida iqtisodiy tushunchalarni amalda o‘rganadilar. Shuningdek, bu faoliyat ularda mas’uliyat, tejamkorlik va ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yosh avlodni ekologik ongli, mas’uliyatli va iqtisodiy jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Denov tumanidagi 74-maktab tajribasi yashil iqtisodiyotni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali modeli hisoblanadi. Issiqxona va quyosh panellari loyihasi o‘quvchilarda ekologik tafakkur va amaliy iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yashil iqtisodiyot g‘oyalari o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda.

Takliflar:

-Har bir ta’lim muassasasida “Yashil burchak” yoki “Mini issiqxona” tashkil etish;

-O‘quv dasturlariga “Yashil iqtisodiyot asoslari” fanini kiritish;

-Mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda maktab ekologik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash;

-Yashil iqtisodiyot bo‘yicha o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori, 2023-yil.
2. Nazarov T. “Ekologiya asoslari”. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Abdullayev Sh. “Yashil iqtisodiyot tamoyillari”. – Toshkent, 2022.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Surxondaryo viloyati Denov tumani 74-umumiy o‘rta ta’lim maktabi hisobotlari, 2024.

YERYONG`OQNI SOTISH VA UNING MOLIYAVIY AHAMIYATI

Qurbonov Akbar Yusufovich
DTPI Raqamli iqtisodiyot kafedrasi katta o`qituvchisi
akbarjon8794@gmail.com
+99897-532-99-77
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526982

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer yong‘oq o‘simligining agrobiologik xususiyatlari, ekologik moslashuvchanligi, oziqaviy va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yer yong‘oq tarkibida yog‘ miqdori 45–55%, oqsil 25–30% ni tashkil etadi, bu esa uni muhim oziqaviy va texnik xom ashyo sifatida qadrlanishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, maqolada yer yong‘oqning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, uni yetishtirish texnologiyasi va seleksiya yo‘nalishlari yoritilgan.

Abstract: This paper analyzes the agrobiological characteristics, ecological adaptability, nutritional composition, and economic importance of the peanut. The crop contains 45–55% oil and 25–30% protein, making it a valuable source of food, feed, and industrial raw material. Its adaptability to semi-arid conditions and high nutritional value contribute to its global significance. The study also discusses peanut cultivation technologies, yield potential, and prospects for the development of peanut production in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: yer yong‘oq, Arachis hypogaea, yog‘li ekinlar, agrotexnologiya, iqtisodiy samaradorlik, oziqaviy qiymat.

Kirish

Yer yong‘oq-dukkakdoshlar oilasiga mansub, yuqori oziqaviy qiymatga ega bo‘lgan yog‘li ekinlardan biridir. Uning vatani Janubiy Amerika bo‘lib, hozirda Osiyo, Afrika va Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida keng ekiladi. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yer yong‘oq yetishtirish hajmi yiliga 50 million tonnadan oshadi.

Yer yong‘oq urug‘lari oziq-ovqat, texnik va yem-xashak maqsadlarida keng qo‘llaniladi. Yog‘i margarin, sovun, kosmetika va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham ishlatiladi.

Yer yong‘oq iliqsevar o‘simlik bo‘lib, o‘sish davrida ko‘p miqdorda quyosh nuri va namlik talab qiladi. Urug‘lar 12–14°C haroratda unib chiqadi, optimal o‘sish harorati esa 25–30°C ni tashkil etadi.

O‘simlikning ildiz tizimi chuqur kirib boradi, bu esa uni qurg‘oqchilik sharoitida ham o‘sishiga imkon yaratadi. Gullarining o‘ziga xosligi shundaki, urug‘lanishdan so‘ng dukkaklar yer ostida shakllanadi — bu xususiyat uni boshqa dukkakdosh ekinlardan ajratib turadi.

Yer yong‘oq tarkibidagi yuqori yog‘ miqdori uni eng samarali yog‘li ekinlardan biriga aylantiradi. 100 gramm yer yong‘oqda o‘rtacha 560–600 kkal energiya mavjud. Uning yog‘i to‘yintirilmagan yog‘ kislotalariga, xususan, olein va linol kislotalariga boy.

Oqsil va vitaminlar (E, B1, B3, folat kislotalari) tarkibi yuqoriligi sababli u inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, yer yong‘oq pusti organik o‘g‘it sifatida ishlatiladi, bu esa qishloq xo‘jaligida aylanish tizimini ekologik barqarorlashtiradi.

Yer yong‘oqni muvaffaqiyatli yetishtirish uchun yengil, qumloq yoki qumloq-o‘tloq tuproqlar tavsiya etiladi.

Agrotexnik tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ekin joyini tanlash – don ekinlaridan keyin ekish maqsadga muvofiq;
- Urug‘ tayyorlash – urug‘lar 1% li margantsovka eritmasida dezinfeksiya qilinadi;
- Ekin ekish me’yori – 60×15 sm sxemada, 5–6 sm chuqurlikda ekiladi;
- Parvarish – begona o‘tlarni yo‘qotish, yumshatish va sug‘orish;
- Hosil yig‘ish – pishgan dukkaklar sarg‘aygach, o‘simlik ildizi bilan kovlab olinadi.

Yer yong‘oq yetishtirish iqtisodiy jihatdan yuqori rentabellikka ega. 1 gektardan o‘rtacha 2,0–3,5 tonna urug‘ hosili olinadi, bu esa qayta ishlash orqali 800–1000 kg toza yog‘ mahsuloti olish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida yer yong‘oq yetishtirish so‘nggi yillarda kengaymoqda. Mahalliy seleksionerlar tomonidan hosildor, qurg‘oqchilikka chidamli navlar (masalan, Samarqand-1, Toshkent-2) yaratilgan.

Xulosa qilib aytganda yer yong‘oq o‘zining oziqaviy, texnik va iqtisodiy ahamiyati bilan muhim agroekotizim o‘simligi hisoblanadi. Uni ilmiy asosda yetishtirish, yangi navlarni yaratish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish O‘zbekiston agrar sektorining eksport salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. FAO (2023). Global Peanut Production Statistics. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. Ghasemnezhad, A., et al. (2021). Peanut (Arachis hypogaea L.) cultivation and its importance in food security. Journal of Agricultural Science, 13(4), 45–56.
3. Karimov, S., & Ismoilov, A. (2022). Yer yong‘oq navlarining O‘zbekiston sharoitida hosildorligi. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi jurnali, 7(3), 29–34.
4. Singh, A., & Dwivedi, S. L. (2020). Genetic improvement in groundnut for yield and stress tolerance. Plant Breeding Reviews, 44, 1–38.

O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT O'SISH SUR'ATLARI VA ULARNI TA'MINLASH OMILLARI

Aktamov Sardor Akram o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulketi talabasi
Telefon: +998970580912
E-mail: aktamovsardor06@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17526993

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasing yalpi ichki mahsulotini o'sish sur'atlari tahlil qilindi va uni ta'minlovlovchi asosiy omillar yoritib berilgan.Ushbu tadqiqotdan maqsad shuki,so'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotning mamlakatning rivojlanishiga qanday ta'sir qilayotganini o'rganishdir. Shuningdek, maqolada xorijiy va mahalliy investetsiyalar oqimi va davlat islohotlarining YaIMga ta'siri atroflicha o'rganilgan va dunyo mamlakatlari bilan solishtirilgan.

Kalit so'zlar: yalpi ichki mahsulot, daromat, eksport, import, iqtisodiy o'sish, xarajatlar usuli, investitsiya.

Kirish:

Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini ko'rsatib beruvchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu -yalpi ichki mahsulot (YaIM) hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot bu mamlakat hududida ma'lum bir davr davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar yig'indisiga tengdir.Jahon miqyosida turli davlatlarning iqtisodiy qudrati va ularning barqaror rivojlanish darajasi YaIM orqali taqqoslanadi

Bugungi XXI asrda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotni oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar,tarkibiy o'zgarishlar va innavatsion rivojlanish siyosati natijasida yalpi ichki nahsulot yildan yilga oshib bormoqda.Mamlakatda yalpi ichki mahsulotning izchil o'sib borishi sanoat,qishloq xo'jaligi,xizmatlar sohasi, kichik va o'rta biznes subyektlarning rivojlanishi va xorijjiy invistetsiyalarning oshib borishi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'tgan sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz shiddat bilan o'sib, 115 mlrd dollarga yetdi. Bugun bitta raqamni birinchi marta aytmoqchiman: Xalqaro valyuta jamg'armasi prognoziga ko'ra, bu yil iqtisodiyotimiz hajmi 130 mlrd dollardan oshishi kutilmoqda", — dedi Shavkat Mirziyoyev.[1]

Davlat rahbari bu natijada tadbirkorlikning keng qo'llab-quvvatlanishi, zamonaviy sanoat majmualari barpo etilgani, "yashil" va innovatsion iqtisodiyotga o'tilib, muqobil energiya manbalari yaratilayotgani, axborot texnologiyalari, turizm va moliyaviy texnologiyalar kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlantirilayotgani muhim rol o'ynaganini ta'kidladi.

Adabiyotlat tahlili:

Abdullayeva H.N. tomonidan chop etilgan "Xorijiiy investetsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ta'siri" nomli maqolasida xorijiiy investitsiyalarning o'zgarishini YaIMga ta'siri jiddiy o'rganilgan va zarur xulosa va takliflar bergan. Mazkur maqolada chet el investitsiyalarining turli shakllarini, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalari va boshqa kapital oqimlari haqida va uni kirib kelishi natijasida YaIMning o'zgarishini qamrab oladi. Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga kapital, texnologiya va tajriba kiritish orqali iqtisodiy rivojlanish katalizatori sifatida qanday ishlashi mumkinligi o'rganilgan.[2]

Sharifova Gulruxsor Abdunabiyevna tomonidan chop etilgan "Yalpi ichki mahsulot o'sishi va inflatsiya darajasining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri" nomli maqolasida yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari va inflatsiya darajasining makroiqtisodiy barqarorlikka ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish va

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.O'zbekiston mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan taqdirlanganlar bilan uchrashuvidagi nutqidan. https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/27/gdp/

[2] ABDULLAYEVA H.N. "XORIJIIY INVESTETSIYALARNING MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA TA'SIRI". "MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH" JURNALI . HTTPS://INTERONCOF.COM/INDEX.PHP/GERMANY/ARTICLE/VIEW/1009/950

narxlar darajasining o‘zgarishi mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanat, ish bilan bandlik, investitsiyalar hajmi va aholining real daromadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida so‘nggi yillardagi statistik ko‘rsatkichlar asosida real holat tahlil qilinadi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo‘llari taklif etiladi.

Tahlil va natijalar:

Tahlil va natijalar shuni ko’rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari so‘nggi yillarda barqaror ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda. YaIM tarkibida xizmatlar sohasi eng katta ulushni tashkil etib, iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylandi. Sanoat ishlab chiqarishining modernizatsiyasi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi va eksport ko‘rsatkichlarining ortishi iqtisodiy faollikni oshirdi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ortib, ichki bozorni to‘ldirish va bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.



1-rasm.[3]Yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida, joriy narxlarda, yillik,mlrd so’m).

1-rasmda ko’rinib turibdiki, 2015–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) joriy narxlarda, ishlab chiqarish usulida sezilarli darajada ortib borgan. Grafikda ko‘rsatilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu o‘n yillik davr ichida mamlakat iqtisodiyoti izchil o‘sish yo‘liga chiqqan va bu jarayon davomida iqtisodiy islohotlar, investitsion muhitning yaxshilanishi, tashqi savdo hajmining kengayishi hamda ishlab chiqarish salohiyatining oshishi muhim rol o‘ynagan.

2015-yilda YaIM hajmi 250 544,6 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1 454 573,9 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa deyarli 5,8 baravarlik o‘sishni anglatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘zgarishi mamlakat iqtisodiy rivojlanish sur’atining yuqoriligidan dalolat beradi. O‘sishning bunday yuqori sur’atlarda bo‘lishi bir nechta muhim omillar bilan bog‘liq:

Birinchidan, 2016-yildan boshlab O‘zbekiston yangi iqtisodiy siyosat yo‘liga o‘tdi. Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini kuchaytirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga, valyuta liberallashuvini ta’minlashga, va eng muhimi – xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar iqtisodiy faollikni oshirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va natijada yalpi ichki mahsulot hajmining yildan-yilga ortib borishiga xizmat qildi.

Ikkinchidan, 2018–2019-yillar oralig‘ida YaIM o‘sishining tezlashgani kuzatiladi. Aynan 2018-yilda iqtisodiy o‘sish 32,9% ni tashkil etgan bo‘lib, bu eng yuqori sur’atlardan biridir. Bu davrda sanoat, qurilish, transport va logistika, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faol rivojlanib bordi. Hududlarda sanoat zonalari tashkil etildi, eksport imkoniyatlari kengaydi.

[3] www.stat.uz saytida berilgan ma’lumotlar asosida shallantirildi.

2020-yilga kelib, pandemiya sharoitida global iqtisodiyotning pasayishi O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. YaIM hajmi o‘sishda davom etgan bo‘lsa-da, o‘sish sur’ati 12,3% atrofida bo‘ldi. Bu avvalgi yillarga nisbatan sezilarli pasayishni anglatadi. Shunga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti pandemiyaning og‘ir bosqichidan katta yo‘qotishlarsiz o‘ta oldi, bu esa iqtisodiy siyosatning muvozanatli olib borilganini ko‘rsatadi.

2021-yildan boshlab esa iqtisodiyot tiklana boshladi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 820 536,6 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘sish sur’ati yana yuqori bo‘ldi. 2022-yil va 2023-yilda ham bu o‘sish tendensiyasi davom etdi. 2023-yilda YaIM hajmi 1 204 485,4 mlrd so‘mga yetdi. 2024-yilga kelib esa bu raqam 1 454 573,9 mlrd so‘mni tashkil etib, iqtisodiy o‘sishning hali ham yuqori darajada davom etayotganini ko‘rsatdi.

Xulosa: O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan ijobiy o‘sish sur’atlari mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samarasi bilan chambarchas bog‘liqdir. YaIM hajmining ortishi, ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi va xizmatlar sohasining kengayishi iqtisodiy faollikni kuchaytirgan bo‘lsa-da, ayrim tizimli muammolar hali ham mavjud. Jumladan, ayrim tarmoqlarda mehnat unumdorligining pastligi, investitsiya samaradorligining yetarli emasligi, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar hamda tashqi iqtisodiy omillarga yuqori bog‘liqlik YaIM o‘sishiga to‘siq bo‘lishi mumkin**.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva H.N. “Xorijiiy investetsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ta’siri”. https://interoncof.com/index.php/germany/article/view/1009/950.
2. Davlat statistika qo’mitasining rasmiy web sayti: www.stat.uz
3. Mamatqulov T.D. “Econometric Assessment of the Impact of Industry on Economic Growth in Republic of Uzbekistan”.Europen journal of Economics , Finance and Business Development jurnali.80-86-betlar.
4. T. Jo’rayev. M.Hamdamov.Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”. 255-273-betlar.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.O’zbekiston mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan taqdirlanganlar bilan uchrashuvidagi nutqi. https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/27/gdp/.

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA FINTECH VA BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Arslonov Abduqodir Karomatovich
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti ‘’Moliya va bank ishi’’ kafedrasi o'qituvchisi
tel: +998 99 428 29 77
E-mail: arslonovabduqodir@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17527002

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot fintech va blockchain texnologiyalarining bank, to'lov tizimlari va kapital bozorlaridagi hozirgi dasturlarini tahlil qilish orqali O'zbekiston moliya tizimiga o'zgaruvchan ta'sirini o'rganadi. Ushbu texnologiyalarning samaradorlik, shaffoflik va moliyaviy kirish kabi afzalliklarini muntazam ravishda baholaydi, shuningdek, qabul qilish uchun mavjud qiyinchiliklar va to'siqlarni aniqlaydi. Bundan tashqari, tadqiqotda ushbu to'siqlarni engib o'tish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar taqdim etiladi va O'zbekiston moliya sektorining barqaror rivojlanishi uchun fintech va blockchain yutuqlarining uzoq muddatli salohiyati va strategik oqibatlarini tanqidiy baholaydi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston moliya sektori, fintech, moliyaviy texnologiyalar, blokcheyn texnologiyalari.

Kirish:

Raqamli iqtisodiyotning jadal kengayishi moliya sektorida texnologiyalarning ahamiyatini oshirdi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi kabi tashabbuslar ushbu o'zgarishlarni boshqarmoqda. Fintech va blockchain texnologiyalari moliyaviy tizimlarda yanada barqarorlik, shaffoflik va samaradorlikka yordam beradi. Yaqinda o'tkazilgan mahalliy tadqiqotlar raqamli to'lov tizimlari qabul qilingandan beri naqd pul bilan ishlash xarajatlari taxminan 20 foizga kamayganini ko'rsatmoqda, tranzaktsiyalarni qayta ishlash vaqti o'rtacha 15 foizga yaxshilandi va ushbu texnologiyalarning aniq foydalarini namoyish etmoqda.

Harakatchanlik va iqtisodiy faoliyatda keng tarqalgan cheklovlar bilan tavsiflangan COVID-19 pandemiyasi fintech echimlarini jadal qabul qilish uchun katalizator bo'lib xizmat qildi[1]. Jahon miqyosida empirik ma'lumotlar moliyaviy dasturlarni yuklab olishning sezilarli darajada o'sishini aniqladi, Deloitte (2021) raqamli banklarni qabul qilish sur'atlarining o'sishi haqida xabar berdi, ko'plab korxonalar operatsiyalarning uzluksizligini ta'minlash uchun raqamli platformalarga o'tishdi. O'zbekistonda dastlabki dalillar iste'molchilar raqamli moliyaviy xizmatlardan tobora ko'proq foydalanayotgan parallel o'zgarishni ko'rsatmoqda. Ushbu o'zgarishlar ijobiy momentumni taklif qilsa-da, qisqa muddatli, inqiroz keltirib chiqargan qabul qilish va barqaror xatti-harakatlarning o'zgarishini farqlash muhimdir. Uzoq muddatli tadqiqot yoki keyingi tadqiqotlarning yo'qligi fintech echimlaridan ko'proq foydalanish pandemiya kontekstidan tashqarida davom etishini aniqlash qobiliyatini cheklaydi. Shu sababli, ushbu tendentsiyalarning mustahkamligini baholash va O'zbekiston moliya sektorining davom etayotgan raqamli transformatsiyasi uchun siyosat ishlab chiqishni xabardor qilish uchun birlamchi ma'lumotlarni, shu jumladan xatti-harakatlarni o'rganish va foydalanuvchilarni ushlab turish statistikasini to'plash va tahlil qilish juda muhimdir (Deloitte, 2021).

Nazariy asoslari (nazariy asoslari):

Fintech yoki moliyaviy texnologiyalar korxonalar va iste'molchilar uchun innovatsion echimlarni ishlab chiqaradi. An'anaviy xizmatlarni raqamlashtirishdan tashqari, u xizmatlarni taqdim etishning yangi usullarini, shu jumladan mobil pul o'tkazmalari va onlayn kreditlarni taqdim etadi. Blockchain ko'pincha fintechning keyingi bosqichi sifatida qaraladi, ba'zan FinTech 2.0 deb nomlanadi. Uning asosiy afzalliklari markazlashtirish, shaffoflikni oshirish va xavfsizlikni oshirishdir.

Global tajriba shuni ko'rsatadiki, fintech innovatsiyalari xarajatlarni pasaytirish orqali ichki savdoga qaraganda xalqaro savdoga ko'proq yordam beradi. Pandemiya bu tendentsiyani tezlashtirdi. McKinsey (2020) so'rovi pandemiya paytida raqamli to'lovlarni sinab ko'rganlarning 75 foizi ulardan foydalanishni rejalashtirganligini aniqladi. Xitoy, Singapur va Estoniya kabi davlatlar fintech va blockchaindan

[1] Maftuna Kamilova, Feruza Nabieva, and Bekhruzbek Mustafoev. 2022. impact of the pandemicon fintech adoption by developing countries. in the 6th international conference on future networks & dis tributed systems (ICFNDS ’22), December 15, 2022, Tashkent, TAS, Uzbekistan. ACM, Newyork, NY, USA, 4 pages. https://doi.org/10.1145/3584202.3584229

foydalanishda etakchi hisoblanadi. Ko'plab Markaziy Banklar (MB) ham o'zlarining raqamli valyutalarini (CBDC) sinovdan o'tkazmoqdalar.

O'zbekiston moliya tizimida Fintech va blockchainning hozirgi holati:

O'zbekistonda fintech sohasi 2017-yildan beri sezilarli rivojlanishga erishdi[2], unda Click, Payme va Orange kabi onlayn banking xizmatlari keng joriy etildi. Toshkentdagi kichik biznes egasi Ali misoli bu o'zgarishni namoyish qilish uchun tez-tez keltiriladi: Alining ilgari naqd pul operatsiyalariga bog'liqligi uning oziq-ovqat biznesini samarasizlik va operatsion xatarlarga duchor qildi. Ma'lumotlarga ko'ra, Click platformasining integratsiyasi Aliga raqamli to'lovlarni osonlashtirishga imkon berdi, bu tranzaktsiya davomiyligini qisqartirdi va naqd pul bilan ishlash bilan bog'liq xavfsizlik xavflarini kamaytirdi. Ushbu hikoya mikro-tadbirkorlar uchun fintechni qabul qilishning potentsial yutuqlarini ta'kidlasa-da, tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, individual tavsifnomalar tasvirli bo'lsa-da, sektor miqyosidagi ta'sir to'g'risida umumlashtirish uchun etarli emas. Kichik korxonalar orasida fintechdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan savdo yoki biznesning o'sishi haqidagi da'volarni asoslash uchun kengroq empirik ma'lumotlar kerak. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mavjud tafovutlarni hisobga olgan holda, bunday imtiyozlar kichik biznes hamjamiyatining barcha qatlamlari uchun teng darajada mavjudligini o'rganish zarur. Ushbu mikro darajadagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, tartibga solish islohotlari va elektron to'lov infratuzilmasining kengayishi fintechlarning tarqalishini qo'llab-quvvatladi. Bank sektori Ochiq bank tamoyillarini amalga oshirish tomon rivojlanmoqda va sun'iy intellekt dasturlari davlat va xususiy sektorda kuchaymoqda. Shu bilan birga, er yozuvlari, sug'urta, soliqqa tortish va to'lov tizimlariga qaratilgan blockchain tashabbuslari yanada samarali va ishonchli bitimlar, xarajatlarni kamaytirish va oshkoralikni oshirishga yordam berdi. Birgalikda bu dinamika O'zbekiston moliya tizimining ko'p qirrali evolyutsiyasini nazarda tutadi, ammo keng qamrovli baholash imkoniyatlar va cheklovlarni yanada tizimli tahlil qilishni talab qiladi.

Muammolar: Ayni paytda, sohasida jiddiy muammolar bir qator qolmoqda:

- Qonunchilik bazasi etarli emas.
- Kiberxavfsizlik xavf-xatarlarining mavjudligi.
- Malakali mutaxassislarning etishmasligi.
- Aholi va biznes vakillarining yangi texnologiyalarga ishonchi pastligi.
- Raqamlashtirish bilan an'anaviy bank va korxonalardan orqada qolishi ularning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Taklif va tavsiyalar:

Mavjud muammolarni bartaraf etish va sanoatni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar keltiriladi:

1. Fintech ekotizimini rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish va tartibga soluvchi qum tizimini kengaytirish.
2. Davlat sektorida, xususan, byudjet, soliq va kadastr sohalarida blockchain texnologiyalarini keng qo'llash.
3. O'zbekiston banklarida Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) bo'yicha pilot loyihani amalga oshirish
4. Moliyaviy texnologiyalar sohasida maxsus ta'lim dasturlarini yaratish orqali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, fintech va blockchain texnologiyalari O'zbekiston moliya tizimini modernizatsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Global amaliy tadqiqotlar dalillari ushbu innovatsiyalarning strategik qabul qilinishi xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlashi va hukumat salohiyatini mustahkamlashi, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, ushbu afzalliklarni amalga oshirish doimiy muammolarni, shu jumladan qonunchilik bazasining etishmasligi, kiberxavfsizlikning zaifliklari, ko'nikmalar etishmasligi va yangi raqamli echimlarga bo'lgan cheklangan jamoatchilik ishonchini bartaraf etishga bog'liq. Ushbu muammolarni hal qilish keng qamrovli va qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni

[2] **Kumari, M.** (2025). *Fintech global savdoni qayta shakllantirdimi? Strukturaviy tortishish modeli asosida yangi empirik dalillar.* — **Transnational Corporations Review**, 17(1). Elsevier.

yaratish uchun siyosatchilar, moliya institutlari va sanoat innovatorlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni talab qiladi. O'zbekiston ushbu to'siqlarga qarshi kurashish va hamkorlikni rivojlantirish orqali raqamli moliyaning barqaror yetakchiligi va inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun asos yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maftuna K, Feruza N, and Bekhruzbek M. 2022. impact of the pandemicon fintech adoption by developing countries. in the 6th international conference on future networks & dis tributed systems (ICFNDS '22), December 15, 2022, Tashkent, TAS, Uzbekistan. ACM, Newyork, NY, USA, 4 pages. https://doi.org/10.1145/3584202.3584229
2. Kumari, M. (2025). *Fintech global savdoni qayta shakllantirdimi? Strukturaviy tortishish modeli asosida yangi empirik dalillar.* — Transnational Corporations Review, 17(1). Elsevier.
3. DOI: https://doi.org/10.1016/j.tcr.2025.200105
4. Ismoilova, G.,Mirkhadja, D., Nabieva, F.; "The Role of Processing Information in Digital Marketing" 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021, 2021.
5. Larch, M., Monteiro, J. A., Piermartini, R., & Yotov, Y. V. (2019). On the Effects of GATT/ WTO Membership on Trade: They Are Positive and Large after All. WTO Staff Working Paper ERSD-2019-09. Geneva: Economic Research and Statistics Division, World Trade Organization.
6. https://www.wto.org/english/res_e/reser_e/ersd201909_e.pdf.
7. Blockchain in FinTech: A Mapping Study — Simon Fernandez-Vazquez, Rafael Rosillo, David De La Fuente & Paolo Priore (2019). *Sustainability*, 11(22), 6366.

TADBIRKORLIK SUB'EKTLARIDA BANK KREDITLARI VA TO'LOV QOBILIYATINI TAHLILI

Sultonova Barno To'raqul qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi
4 – bosqich talabasi
E-mail:bsultonova32@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17527010

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarining bank kreditlari va to'lov qobiliyati tahlil qilingan. Kredit resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini aniqlash, tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va kredit risklarini boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati va bank kreditlariga kirish imkoniyati mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, kreditlash tizimini raqamlashtirish, risklarni ilg'or tahlil vositalari orqali boshqarish va sub'ektlarning moliyaviy holatini kompleks baholash strategik ahamiyatga ega. Ushbu tezis O'zbekiston bank sektori va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

KALIT SO'ZLAR: Bank krediti, tadbirkorlik sub'ekti, to'lov qobiliyati, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, kredit riski, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda bank kreditlari muhim rol o'ynaydi. Shu sababli bank tizimi va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, xususan, kreditlardan oqilona foydalanish hamda to'lov qobiliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, kreditlar uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021–2025-yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida tadbirkorlikni kreditlashni rag'batlantirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan.[1] Biroq, amaliyotda tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy hisobotlarining shaffof emasligi, kredit tarixining to'liq yuritilmasligi, garov mexanizmlarining zaifligi kabi omillar ularning bank oldidagi to'lov qobiliyatini pasaytiradi. Tadbirkorlik sub'ektlari (xususiy korxonalar, yuklanmalar va startaplar) iqtisodiyotning asosiy rivojlanish drayverlaridan biridir. Ularning barqarorligi va o'sishi uchun tashqi moliyalashtirish xususan bank kreditlari muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, banklar kredit bera turib,mijozning to'lov qobiliyatini aniq baholashlari shart;bu baholash noto'g'ri bo'lsa,kredit risklari oshadi va moliyaviy barqarorlikka tahdid paydo bo'ladi.

Bugungi kunda kreditlash muammolari nafaqat firmalarning moliyaviy holatidan, balki bank tizimi xususiyatlari, regulyatorlik muhitis, iqtisodiy kon'yunkturasi hamda axborot asimmetriyasidan ham ta'sirlanadi. Shu sababli tadqiqotda kredit va to'lov qobiliyatining an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlardan tortib, institutsional va makroiqtisodiy omillargacha bo'lgan kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqarorligi, ularning kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, iqtisodchi olimlar tomonidan bank kreditlari, to'lov qobiliyati va kredit risklarini boshqarish masalalari keng tahlil qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar orasida professor **O.K.Iminov** kredit mexanizmini "kredit resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish shakllari va usullaridan iborat tizim" deb ta'riflab, kredit mexanizmi, kredit munosabatlari va kredit muassasalari birgalikda kredit tizimini shakllantirishini ta'kidlaydi[2]. Bu yondashuvdan ko'rinadiki, tadbirkorlik subyektlarining to'lov qobiliyati ularning ushbu mexanizm bilan qay darajada samarali ishlashiga bog'liq.

[1] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlari (2021–2025). Bank kredit siyosati va to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha ko'rsatmalar
[2] Iminov, O.K. (yil). Kredit mexanizmi: nazariya va amaliyot. Toshkent

T. Koraliev va **N. Oblomurodov** o‘z tadqiqotlarida xususiy sektorning iqtisodiy o‘sishdagi rolini yoritgan holda, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesning bank kreditlariga kirish imkoniyati cheklanganligini qayd etadi [3]. Ularning fikricha, kredit resurslariga kirishdagi to‘siqlar – garov tizimining sustligi, kredit tarixining to‘liq yuritilmasligi va moliyaviy hisobotlarning shaffof emasligidir.

N. K. Shaislamova esa “Opportunities for Reducing the Risk Level of Commercial Banks” nomli ilmiy ishida, to‘lov qobiliyatini baholashda kengroq ko‘rsatkichlar (likvidlik, samaradorlik, moliyaviy barqarorlik)ni joriy etish zarurligini taklif qiladi[4]. Uning fikricha, bu indikatorlar banklar tomonidan risklarni aniqlashda ancha samarali natija beradi.

O. Isakov tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa makroiqtisodiy omillar (YAIM o‘sishi, foiz stavkasi, valyuta kursi) muammoli kreditlar (NPL) darajasiga sezilarli teskari ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan[5]. Bu tadqiqot O‘zbekiston bank tizimi uchun amaliy ahamiyatga ega, chunki unda kredit risklarini kamaytirish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Xalqaro miqyosda **S. Myers** va **N. Majluf** tomonidan ishlab chiqilgan "O'tish tartibi nazariyasi"ga ko‘ra, korxonalar moliyaviy resurslarni jalb etishda avvalo ichki manbalardan foydalanadi, keyin qarz kapitali (kreditlar)ga murojaat qiladi. Bu nazariya tadbirkorlik subyektlarining kreditga ehtiyoji va to‘lov qobiliyatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [6].

J. Stiglitz va **A. Weiss** “Credit Rationing in Markets with Imperfect Information” ("Mukammal bo‘lmagan ma'lumotlarga ega bozorlarda kredit stavkasi")tadqiqotida kredit taqsimotining asimmetrik axborot sharoitida qanday amalga oshishini tahlil qilgan. Ularning fikricha, to‘lov qobiliyati past subyektlar kredit resurslarini haddan ziyod talab qiladi, bu esa kredit bozorida riskni oshiradi[7]. Bu holat O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb bo‘lib, banklar tomonidan kredit scoring tizimlarini joriy etishni taqozo etadi.

O‘rganilgan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bank kreditlari va tadbirkorlik subyektlarining to‘lov qobiliyati o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bu munosabatning samaradorligi mamlakatdagi moliyaviy tizim barqarorligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari kredit mexanizmining mazmunini turlicha talqin qilgan bo‘lsa-da, ularning umumiy fikri – kredit resurslaridan oqilona foydalanish, risklarni boshqarish va to‘lov intizomini mustahkamlash bozor iqtisodiyotining asosiy tayanch omillaridan biri ekanligida birlashadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston tajribasida ham ushbu ilmiy qarashlar amaliy ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda banklar tomonidan raqamli kredit scoring tizimlari, risk-indikatorli monitoring mexanizmlari va korxonalar moliyaviy holatini avtomatlashtirilgan tahlil qilish platformalari joriy etilayotgani – to‘lov qobiliyatini baholash sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa olimlar (T. Koraliev, N. Shaislamova, O. Isakov) tomonidan ilgari surilgan ilmiy g‘oyalarning amaliy isboti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, O‘zbekiston bank sektorida muammoli kreditlar (NPL) ulushining 2024–2025 yillarda 4,2 % dan 3,8 % gacha kamaygani, iqtisodiy faollik va to‘lov intizomining yaxshilanishidan dalolat beradi. Ammo Fitch Ratings agentligi qayd etganidek, kredit portfeli hajmining ortishi bilan birga valyuta va likvidlik risklari saqlanib qolmoqda. Demak, kreditlash siyosatida sifat ko‘rsatkichlari ustuvor yo‘nalishda bo‘lishi zarur.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar, tahlillar hamda amaliy kuzatuvlardan kelib chiqilsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslariga bo‘lgan talabi barqaror o‘sib bormoqda. Biroq bu jarayon ularning to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi va kreditga layoqatlilik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois kredit munosabatlarining samaradorligini oshirish, risklarni minimallashtirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash masalasi hozirgi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

---

[3] Koraliev, & Oblomurodov, N. Xususiy sektor va bank kreditlariga kirish imkoniyati: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent

[4] Shaislamova, N.K. Opportunities for Reducing the Risk Level of Commercial Banks.

[5] Isakov, O. (2024-yil). Makroiqtisodiy omillar va muammoli kreditlar: O‘zbekiston bank tizimi tahlili. Toshkent.

[6] Myers, S., & Majluf, N. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. Journal of Financial Economics.

[7] Stiglitz, J., & Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. The American Economic Review.

Professor O.K. Iminovning fikricha, kredit mexanizmi faqat bankning kredit berish jarayoni emas, balki kredit resurslaridan foydalanish, ularni boshqarish, monitoring qilish va qaytarish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan tizimdir[8]. Bu yondashuv, bugungi kunda, moliyaviy institutlar faoliyatining kompleks boshqaruv modeliga mos keladi. Chunki kredit mexanizmining har bir bo‘g‘ini – resurslar taqsimoti, kredit siyosati, risk nazorati va nazorat tizimi – tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy sog‘lomlashuvida bevosita rol o‘ynaydi.

Iqtisodchi N.K. Shaislamova o‘z tadqiqotlarida banklarning kredit risklarini kamaytirishning samarali yo‘llaridan biri sifatida korxonalarning to‘lov qobiliyatini baholashda kengroq indikatorlardan foydalanishni taklif etadi[9]. Unga ko‘ra, moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda menejment sifati, innovatsion faollik, bozor ulushi va raqobatbardoshlik kabi mezonlarni ham baholash kerak. Bu yondashuv hozirgi kunda O‘zbekiston bank sektorida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

T. Koraliev va N. Oblomurodov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa, xususiy sektor iqtisodiy o‘sishning “dvigateli” sifatida baholanadi[10]. Ularning fikricha, kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy manbalarga, xususan, bank kreditlariga kirish imkoniyati cheklangan bo‘lsa, mamlakat iqtisodiy o‘sishi sekinlashadi. Bu holat O‘zbekiston sharoitida ham o‘z aksini topadi, chunki kredit olishda garov mexanizmlarining zaifligi, kredit tarixining to‘liq yuritilmasligi va moliyaviy hisobotlarning shaffof emasligi banklar uchun xatar darajasini oshiradi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tahlillar ham bu jarayonni tasdiqlaydi. Fitch Ratings agentligi 2024-yilgi hisobotida ta’kidlaganidek, O‘zbekistonda SME (kichik va o‘rta biznes) segmentidagi tezkor kredit o‘sishi ijobiy natija bersa-da, bu bilan birga to‘lov qobiliyatiga bosim kuchaygan. Valyuta risklari, foiz stavkalarining o‘zgaruvchanligi va global iqtisodiy beqarorliklar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini oshirmoqda.

Shuningdek, O. Isakov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bank kreditlarining sifatiga nafaqat ichki boshqaruv, balki makroiqtisodiy omillar ham bevosita ta’sir qiladi. Masalan, YaIM o‘sishi, inflyatsiya darajasi, foiz siyosati va milliy valyuta barqarorligi — barchasi to‘lov qobiliyatining dinamikasini belgilovchi omillardir.

Xulosa: umuman olganda, bugungi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank tizimida kredit portfeli hajmi barqaror o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, kredit sifati va to‘lov intizomini ta’minlash mexanizmlari hali ham takomillashtirishni talab etadi. 2024–2025-yillardagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, muammoli kreditlar (NPL) hajmi kamaygan bo‘lsa-da, ular hali ham banklarning kredit siyosatida sezilarli xatar omili bo‘lib qolmoqda[11]. Shu bois, kredit riskini boshqarishda raqamli texnologiyalar, scoring tizimlari va kredit tarixlari bazalarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Natijada, iqtisodchi olimlarning turli yondashuvlari bir nuqtada – ya’ni, kredit tizimini kompleks boshqarish, to‘lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish va shaffof moliyaviy mexanizmlar yaratish zaruratida birlashadi. Bu esa tadbirkorlik subyektlari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan birga, mamlakat iqtisodiy o‘sishining barqaror sur’atlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, ularning bank kreditlariga kirish imkoniyati va to‘lov qobiliyatining darajasi mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atlarini bevosita belgilovchi omilga aylangan. Professor O.K. Iminov ta’kidlaganidek, kredit mexanizmi — bu faqat moliyaviy operatsiyalar majmui emas, balki iqtisodiyotni qayta taqsimlash, investitsion oqimlarni yo‘naltirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan murakkab tizimdir[12]. Ushbu yondashuv bugungi kunda milliy bank sektorining islohoti bilan uzviy uyg‘unlashmoqda.

[8] Iminov, O.K. (2024-yil). Kredit mexanizmi: nazariya va amaliyot. Toshkent
[9] Shaislamova, N.K. Opportunities for Reducing the Risk Level of Commercial Banks.
[10] Koraliev, & Oblomurodov, N. Xususiy sektor va bank kreditlariga kirish imkoniyati: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent
[11] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki me’yoriy hujjatlari (2021–2025). Bank kredit siyosati va to‘lov intizomini mustahkamlash bo‘yicha ko‘rsatmalar.
[12] Iminov, O.K. (2024-yil). Kredit mexanizmi: nazariya va amaliyot. Toshkent

T. Koraliev va N. Oblomurodov tomonidan ilgari surilgan qarashlar ham aynan shu fikrni to‘ldiradi: kichik va o‘rta biznesning moliyaviy resurslarga kirish darajasi past bo‘lsa, bu butun iqtisodiyotning o‘sish sur’atlariga tormoz vazifasini bajaradi[13]. O‘zbekiston sharoitida esa ushbu muammo kredit tarixining to‘liq yuritilmasligi, garov mexanizmlarining sustligi va moliyaviy ma’lumotlarning shaffof emasligi bilan murakkablashmoqda. Shu bois, iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida kreditlash tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

N. Shaislamova va O. Isakovlarning tadqiqotlari to‘lov qobiliyatining tahlilida faqat rentabellik va likvidlik ko‘rsatkichlari bilan cheklanmasdan, korxonaning menejment sifati, innovatsion faolligi va bozor barqarorligini ham hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab beradi[14]. Ularning yondashuvi amalda kredit scoring tizimlarini takomillashtirish, risklarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyatini kengaytiradi. Bu, o‘z navbatida, banklarning muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish va portfel sifatini oshirishda strategik rol o‘ynaydi.Xalqaro miqyosda Stiglitz va Weiss tomonidan ishlab chiqilgan kredit cheklanishi nazariyasi, shuningdek, Myers va Majlufning “pecking order theory” konsepsiyasi kredit bozorida axborot asimmetriyasi va ichki moliyalashtirish ustuvorligi muammosini yoritadi. Bu nazariy asoslarga tayangan holda aytish mumkinki, O‘zbekiston sharoitida kredit munosabatlarini samarali boshqarish uchun korxonalar va banklar o‘rtasida axborot oqimini raqamlashtirish, shaffof moliyaviy ekotizimni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy jihatdan qaralganda, 2024–2025-yillardagi statistik tahlillar O‘zbekiston bank sektorida muammoli kreditlar ulushi 4,2 % dan 3,8 % gacha kamayganini, shu bilan birga, kredit portfeli hajmining o‘sishi iqtisodiy faollikni kuchaytirganini ko‘rsatadi[15]. Biroq Fitch Ratings agentligining baholashlariga ko‘ra, bu o‘sish bilan birga valyuta risklari, likvidlik cheklovlari va tashqi qarz bosimi ham saqlanib qolmoqda. Demak, kredit siyosatida hajm ko‘rsatkichlaridan ko‘ra sifat omillariga e’tibor qaratish davr talabi hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy va amaliy natijalar asosida aytish mumkinki, O‘zbekiston bank tizimi uchun eng muhim strategik yo‘nalish – bu kredit mexanizmini raqamlashtirish, risklarni ilg‘or tahlil texnologiyalari orqali boshqarish va tadbirkorlik subyektlarining to‘lov qobiliyatini kompleks baholash tizimini yaratishdir. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladigan islohotlar nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini, balki butun iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshiradi.Natijada, kreditlash tizimini chuqur tahlil qilish, to‘lov qobiliyatini har tomonlama baholash va iqtisodiy xavflarni minimallashtirish O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasining asosi sifatida qaralishi lozim. Zero, moliyaviy barqarorlik – bu nafaqat banklar daromadining, balki milliy iqtisodiy xavfsizlikning ham kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-dekabrdagi PQ–445-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki me’yoriy hujjatlari (2021–2025). Bank kredit siyosati va to‘lov intizomini mustahkamlash bo‘yicha ko‘rsatmalar.
3. Fitch Ratings. (2024). Uzbekistan Banking Sector Outlook: SME Credit Growth and Risk Analysis. Fitch Ratings Report.
4. Iminov, O.K. (2024-yil). Kredit mexanizmi: nazariya va amaliyot. Toshkent
5. Isakov, O. (2024-yil). Makroiqtisodiy omillar va muammoli kreditlar: O‘zbekiston bank tizimi tahlili. Toshkent.
6. Koraliev, & Oblomurodov, N. Xususiy sektor va bank kreditlariga kirish imkoniyati: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent
7. Myers, S., & Majluf, N. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. Journal of Financial Economics.

[13] Koraliev, & Oblomurodov, N. Xususiy sektor va bank kreditlariga kirish imkoniyati: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent
[14] Shaislamova, N.K. Opportunities for Reducing the Risk Level of Commercial Banks.
[15] Fitch Ratings. (2024). Uzbekistan Banking Sector Outlook: SME Credit Growth and Risk Analysis. Fitch Ratings Report.

8. Shaislamova, N.K. Opportunities for Reducing the Risk Level of Commercial Banks.
9. Stiglitz, J., & Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. The American Economic Review.

AQSHDA MATEMATIKA FANINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ILG‘OR QARORLAR VA TASHABBUSLAR: O‘ZBEK TA’LIMI UCHUN TAHLILIY MULOHAZALAR

Baxtiyorjonova Madina Ma’mirjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
matematika va informatika yo‘nalishi talabasi
E-mail: abdullayevamadina327@gmail.com
Telefom raqam: +998973130327
https://doi.org/10.5281/zenodo.17527016

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQShda matematika fanini rivojlantirishga doir asosiy qaror va dasturlar — National Mathematics Advisory Panel, Common Core, Race to the Top, ESSA, Educate to Innovate va Federal STEM strategik rejasi tahlil qilinadi. Ularning asosiy yo‘nalishlari, natijalari va o‘zbek ta’lim tizimi uchun muhim jihatlari qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: AQSh, matematika ta’limi, Common Core, ESSA, STEM, innovatsiya, ta’lim islohoti

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые решения и инициативы по развитию преподавания математики в США — такие как Национальная консультативная панель, Common Core, программа Race to the Top, закон ESSA, кампания Educate to Innovate и федеральная стратегия STEM. Анализируются их цели, результаты и возможности применения в узбекской системе образования.

Ключевые слова: США, обучение математике, Common Core, ESSA, STEM, инновации, реформа образования

Annotation: This article explores key U.S. policies and initiatives aimed at advancing mathematics education, including the National Mathematics Advisory Panel, Common Core Standards, Race to the Top, ESSA, Educate to Innovate, and the Federal STEM Strategic Plan. The paper analyzes their outcomes and evaluates their relevance and adaptability to the Uzbek educational system.
Keywords: USA, mathematics education, Common Core, ESSA, STEM, innovation, education reform

Kirish.

Bugungi global raqobat maydonida davlatlarning ilmiy-texnik salohiyati ularning ta’lim tizimi, ayniqsa, matematika va boshqa aniq fanlarni qanchalik samarali o‘qitayotganiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Zero, matematika — barcha texnik, muhandislik va ilmiy yo‘nalishlarning tayanchidir. Shu sababli rivojlangan davlatlar, jumladan AQShda matematika fanini takomillashtirish, mazmunan chuqurlashtirish, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish bo‘yicha bir qator muhim qarorlar va tashabbuslar qabul qilingan. Ushbu inshoda ana shunday ilg‘or tashabbuslarning mazmuni, ularning samarasi hamda o‘zbek ta’lim tizimi uchun qanday saboqlar olish mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Asosiy qism: National Mathematics Advisory Panel (2006) - 2006-yilda AQShda tashkil etilgan Milliy Matematika Maslahatchi Paneli o‘z faoliyatini tahlil va ilmiy asoslangan takliflar berishga qaratdi. U 2008-yil yakunida taqdim etgan hisobotida boshlang‘ich va o‘rta maktablarda matematika fanini o‘qitishdagi asosiy muammolarni ochib berdi. Xususan, o‘quv dasturlaridagi mavzular haddan tashqari ko‘pligi, ularning chuqur emasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarligi pastligi kabi muammolar qayd etildi.

Common Core State Standards (2010) - 2010-yildan boshlab AQShning ko‘plab shtatlarida joriy etilgan Common Core State Standards — bu yagona o‘quv standartlari tizimidir. Bu yondashuv O‘zbekiston ta’limi uchun ham dolzarb bo‘lib, har bir sinfda qanday kompetensiyalar shakllanishi lozimligi aniq belgilanishi zarurligini ko‘rsatadi.

Race to the Top (2009) - 2009-yilda boshlangan “Race to the Top” dasturi orqali shtatlar va maktab okruglari raqobat asosida moliyalashtirildi. Bu dasturning diqqatga sazovor jihati shundaki, u nafaqat standartlarni joriy etish, balki ularni baholash, innovatsion metodlarni sinab ko‘rish va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash bo‘yicha ham aniq loyihalarni talab qildi.

Every Student Succeeds Act (ESSA) — 2015 - ESSA qonuni orqali AQShda shtatlar mustaqil ravishda ta’lim standartlarini ishlab chiqish va baholash usullarini tanlash huquqiga ega bo‘ldi. Shuningdek, u matematika fanini rivojlantirish uchun federal grantlar va trenerlik dasturlarini moliyalashtirishni davom ettirdi.

Educate to Innovate (2009) - Barack Obama tashabbusi bilan boshlangan “Educate to Innovate” milliy kampaniyasi davlat-xususiy sektor hamkorligini ta’lim sohasiga olib keldi. 260 million dollarlik investitsiyalar orqali STEM fanlariga ixtisoslashgan loyihalar — interaktiv platformalar, innovatsion laboratoriyalar va maktablar ochildi.

Federal STEM Strategik Rejasi (2024) - Eng yangi hujjat — 2024-yilda qabul qilingan STEM strategik rejasi matematika va boshqa tabiiy fanlarni o‘rgatishda uzluksizlik tamoyiliga asoslanadi. Bu reja nafaqat maktab, balki oliy o‘quv yurtlari va hayot davomiy ta’lim bosqichlarini qamrab oladi.

AQSh tajribasidan ko‘rinadiki, matematika ta’limini rivojlantirishda yagona muhim g‘oya emas, balki tizimli yondashuvlar, turli darajadagi tashabbuslar va moliyaviy-texnik qo‘llab-quvvatlovlar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun bu tajribalar quyidagicha saboqlar beradi:

- Har bir sinf uchun kompetensiya asosidagi standartlar ishlab chiqish;
- O‘qituvchilarning malakasini oshirishni markaziy emas, joylarda muvofiqlashtirish;
- Innovatsion maktablar, STEM markazlari va tajriba laboratoriyalarini joriy etish;
- Xalqaro standartlarni milliy muhitga moslashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish.

Matematika bu — mantiq, intizom va taraqqiyot asosi. Uni qanday o‘rgatishimiz — kelajakda qanday jamiyat qurishimizga bevosita ta’sir qiladi. AQShning matematika fanini rivojlantirish borasidagi tashabbuslari o‘zining kompleks, tizimli va uzoq muddatli yondashuvi bilan ajralib turadi. Har bir qabul qilingan hujjat yoki dastur nafaqat hozirgi muammolarni hal qilishga, balki kelajakda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Common Core orqali o‘quvchilarning asosiy matematik kompetensiyalari aniq belgilangan bo‘lsa, Race to the Top dasturi orqali ta’limda innovatsiyalarni joriy etish moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Educate to Innovate kampaniyasi esa davlat va xususiy sektorni birlashtirish orqali STEM sohasida yangi imkoniyatlar yaratdi. 2024-yilgi STEM strategik rejasi esa bu yo‘nalishga zamonaviy qarashlar bilan yondashmoqda.

O‘zbekiston ta’limi uchun ushbu tajribalar bir necha saboqlar beradi. Birinchidan, matematika fanini bosqichma-bosqich, chuqur o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan milliy standartlar ishlab chiqilishi zarur. Ikkinchidan, o‘qituvchilarning kasbiy rivoji uchun doimiy va sifatli trenerlik tizimlari joriy etilishi kerak. Uchinchi muhim jihat — ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirishdir. Shuningdek, STEM markazlari va maxsuslashtirilgan maktablarni hududlar kesimida rivojlantirish orqali yoshlarning fanga qiziqishini kuchaytirish mumkin.

Xulosa

AQShda matematika fanini rivojlantirishga doir ilg‘or qarorlar va tashabbuslar ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olgan bo‘lib, ular ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Bu tashabbuslar — o‘quv dasturlarini yangilash, o‘qituvchilarni tayyorlash va ularni doimiy kasbiy rivojlantirish, baholash tizimini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va STEM fanlariga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish orqali amalga oshirildi.

Masalan, **National Mathematics Advisory Panel** tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar maktab matematikasini kuchaytirishga xizmat qildi. **Common Core State Standards** matematika fanini bosqichma-bosqich va mantiqiy asosda o‘rganishni maqsad qilgan. **Race to the Top** kabi grant dasturlari esa raqobat asosida innovatsiyalarni moliyalashtirib, real natijalarga erishishga yordam berdi. **ESSA** qonuni shtatlar va mahalliy hokimiyatlarga mustaqillik berib, moslashuvchan yondashuvni ta’minladi. **Educate to Innovate** kampaniyasi davlat va xususiy sektorni birlashtirib, katta investitsiyalarni ta’lim sohasiga jalb qildi. Eng so‘nggi **2024-yilgi Federal STEM strategiyasi** esa uzoq muddatli yondashuvni belgilab berdi va matematika ta’limida hayot davomida o‘rganish g‘oyasini ilgari surdi.

Ushbu tajribalar O‘zbekiston ta’limi uchun ham foydali saboqlar beradi. Jumladan:

a) Milliy matematika standartlarini ishlab chiqish va ularni umumiy o‘quv dasturlariga integratsiyalash;
b) O‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib boradigan uzluksiz kasbiy rivoj dasturlarini yo‘lga qo‘yish;
c) STEM sohalarini maktab darajasidan boshlab rag‘batlantirish, ayniqsa, qizlar va chekka hududlardagi yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratish;

d) Davlat-xususiy hamkorlik asosida ta’limga investitsiyalar jalb qilish va raqamli resurslardan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida matematika fani markaziy o‘rinni egallaydi. AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu sohadagi islohotlar faqat normativ hujjatlar bilan emas, balki kuchli siyosiy iroda, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ilmiy asoslangan strategiyalar bilan birgalikda amalga oshirilsa, yuqori natijalarga erishish mumkin. O‘zbekiston uchun esa bu tajribalardan kelib chiqib, o‘zining milliy modeli va mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.S. Department of Education. (2020). STEM Education Strategic Plan 2024.
2. National Governors Association & CCSSO. (2010). Common Core State Standards for Mathematics.
3. Darling-Hammond, L. (2010). The Flat World and Education: How America’s Commitment to Equity Will Determine Our Future. Teachers College Press.
4. National Science Board. (2018). Science and Engineering Indicators.
5. Obama White House Archives. (2009). Educate to Innovate Campaign.
6. OECD. (2019). Education at a Glance: OECD Indicators.
7. El-yurt umidi jamg‘armasi statistik materiallari va AQShda tahsil olgan pedagoglarning tajribalari.

ISLOM MOLIYA TIZIMI IMKONIYATLARIDAN O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Dursoatov Abbos Ulug'bek o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adres: abbosdursoatov@gmail.com
Telefon raqami: +998946991224
https://doi.org/10.5281/zenodo.17527028

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy moliya tushunchasini, uning oddiy moliyasi tizimidan farqlari va afzalliklari bayon qilinganman. Dunyo islomiy moliya bozori holatining, unda islom banklarining tutgan o'rni tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar o'rganilib, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish muammolari ko'rsatilgan va ularni bartaraf etish yo'nalishlari taklif etilgandir.

Kalit so'zlar: Islom, Islomiy moliya, Ribo, Qo'shimcha qiymat, islomiy iqtisodiyot, Qur'on va sunnat, Kontinental, Anglo-sakson, Murobaha, Ijara,) Istisna, Salaam, Musharaka, Mudoraba, Sukuk, Zakot, Sadaqa, Qarz ul Hasan, Vaqf, inqiroz, islomiy sug'urta.

Annotation: This article describes the concept of Islamic finance, its differences from and advantages over the conventional financial system. The state of the global Islamic finance market and the role of Islamic banks within it are analyzed. International experiences are studied, the problems of population's access to financial services are highlighted, and directions for their resolution are proposed.

Key words: Islam, Islamic finance, Riba, Value addition, Islamic economics, Quran and Sunnah, Continental, Anglo-Saxon, Murabaha, Ijara, Istisna, Salam, Musharaka, Mudaraba, Sukuk, Zakat, Sadaqah, Qard al-Hasan, Waqf, crisis, Islamic insurance.

Аннотация: В данной статье раскрывается понятие исламских финансов, их различия и преимущества по сравнению с традиционной финансовой системой. Проанализировано состояние мирового рынка исламских финансов и место в нем исламских банков. Изучен международный опыт, показаны проблемы доступа населения к финансовым услугам и предложены направления для их решения.

Ключевые слова: Ислам, исламские финансы, риба, добавленная стоимость, исламская экономика, Коран и Сунна, континентальная модель, англо-саксонская модель, мурабаха, иджара, истисна, салям, мушарака, мудараба, сукук, закят, садака, кард аль-хасан, вакф, кризис, исламское страхование (такафул).

Kirish: Butun dunyoda ikki miliarddan ortiq musulmonlar yashaydi va ular uchun foizlardan foydalanish mumkin emas. Lekin, hozirgi dunyomizda insonning e'tiqodi uni moliya xizmatlaridan foydalanishdan to'sa olmaydi. Kimdir an'anaviy kredit olishni istamasa, u inson uchun dunyoning ko'p mamlakatlarida muqobil variantlar taklif etiladi. Sababi, hamma teng imkoniyatlardan foydalanishi kerak (demokratiya tamoyili) va jamiyatda paydo bo'ladigan bunday imkoniyatlar inklyuziv rivojlanish, ya'ni jamiyat a'zolari o'rtasida adolat bilan taqsimlangan va barcha uchun teng imkoniyatlar beruvchi iqtisodiy rivojlanishga yo'l ochadi. Respublikamizda ham aholining asosiy qismi, ya'ni 90 foizdan ortig'i musulmonlardan iborat ekanligini e'tiborga olsak, Islom moliyasi xizmatlarining joriy etilishi va rivojlanishi Xalqimizning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" O'RQ-765-son qonuni[3]ning qabul qilinishi va bu qonunga asosan islom moliya xizmatlarining nobank moliya muassasalarida joriy etilishi bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Islom iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo'lgan islomiy moliya tizimi haqida fikr yuritilar ekan, so'z an'anaviy nuqtainazardagi moliya tizimi haqida emas, balki islomiy moliyaviy muassasa va vositalarning uyg'unligi talqinidagi tizim haqida borayotganini nazarda tutish lozim bo'ladi. An'anaviy tushunchadagi moliya tizimi haqida so'z yuritishning so'z yuritishning yanglishligi shundaki, jahonda faqat bir mamlakat – Sudanda moliyaviy sektor butkul islomiylashtirilgan. Aksariyat mamlakatlarda islomiy moliya

muassasalari mavjud an’anaviy tizimning bir qismi hisoblanadi. Islomiy moliyaning tuzilishi qarzdan olingan har qanday daromadni (riba) taqiqlash va daromadning qonuniyligi atrofida aylanadi.

Ribo - qarzdordan mukofot sifatida olinadigan o'sishdir. Bu pulni pulga almashtirish yoki to'lovni kechiktirish hisobiga ssuda qarzlarni sotish bo'yicha kelishilgan narxga qo'shish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha daromadni anglatadi.

Iqtisodiyotda nomutanosiblik keltirib chiqaradiganligi sababli shariat buni man qilgan. Chunki foizlarni to'lash bilan bog'liq barcha operatsiyalar qat'iyan man etilad. Riboning mohiyatini iqtisodiy ko’rsatkichlar orqali yana ham aniqroq tushunish mumkin. Qo’shimcha qiymat – sotib olingan mahsulot qiymati (ya’ni har bir ishlab chiqaruchi (firma) boshqasidan sotib olingan tovarning qiymati) va uni sotishdan kelib tushgan umumiy tushum o’rtasidagi farqdir. Pulga doir qo’shimcha qiymat sof moliyaviy bitimlar bilan bog’liq.

Pulga doir qo’shimcha qiymat sof moliyaviy bitimlar bilan bog’liq. Voqelikdagi tovar yoki xizmatlarning to’lovini ta’minlamaydigan moliyaviy vositalarni olish va sotish ham unga kiradi. Moliyaviy vositalar xarid bahosi va ularni sotish bahosi o’rtasidagi farq o’zida pullik qo’shimcha qiymatni ifodalaydi. Bu bitimlar YAIM (yalpi ichki mahsulot) miqdorini o’zgartirmaydi hamda iqtisodiy agentlar o’rtasida pul mablag’larini qayta taqsimlash natijasi hisoblanadi. Mana shu pullik qo’shimcha qiymat ribboning o’zidir (bir valyutani ikkinchi valyutaga almashtirish va pul o’tkazmalari bundan mustasno) Islom yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi tartiblarni taklif etadi va inson hayotining barcha jabhalari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (muomala) uchun qoidalar majmuiga rioya etishga amr qiladi. Faqat so‘nggi bir necha o‘n yillikda ushbu moliyaviy va iqtisodiy nizom hamda me’yorlarni zamonaviy tahliliy atamalar nuqtai nazaridan izohlash uchun jiddiy sa’y-harakatlar amalga oshirilganiga qaramay va ko‘plab tadqiqotlar chop etilgan bo‘lsa-da, baribir «islomiy moliya» yoki «islomiy iqtisodiyot» singari «islomiy» atama qo‘shilgan turli ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq ta’rifni qo‘llash yuzasidan ayrim chalkashliklar saqlanib turibdi. Mana shunday tizimning turli jabhalarini bir butun sifatida emas, balki alohida ko’ribchiqish tendensiyasi buning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi Tahlil va natijalar. Islom huquq tizimida, musulmonlar turmush tarzini tartibga soluvchi qonun-qoidalar yig’indisi – Shariat orqali davlat boshqaruvi va jamiyat farovonligi ta’minlanadi. Bu huquq tizimida asosiy manba sifatida Qur’on va sunnatga tayaniladi. Hukumlar aynan Qur’on va sunnatdan olinadi. Bundan tashqari, ijmo ham huquq manbasi sifatida foydalaniladi.

Har qanday davlatda huquq tizimlari mavjud va ularni uchta katta guruhga bo'lish mumkin (1-rasm):



Islom moliyasi bu hozirgi kunda butun boshli bir zamonaviy tizim, o'z ichiga turli xil banklarni, sug'urta korxonalari, konsalting kompaniyalari va hokozolarni qamrab oladi. Bunday muassasalarning moliyalashtirish amaliyoti ostida savdo (mijoz talabiga ko'ra: bino qurib berish, asbob – uskunalar, tovar va xomashyo materiallar) yotadi. An'anaviy banklarning savdo amaliyoti bilan shug'ullanishi esa qonunan ta'qiqlangan. Tijoriy muomala – bu real iqtisodiy fiqh, bunda oldi – sotdilar bo'lib o'tadi. Har qanday foyda va naf keltiradigan amaliyotlar bajariladi. Islom moliyasida kredit berib pul topish ta'qiqlanganligi sababli, iqtisodiyot rivojiga xizmat qiluvchi bir necha alternativ instrumenrtlar yaratilgan va ular orqali pul oxir oqibat real iqtisodiyotga tarqaladi. Quyida islom moliyasi asosiy muomala turlari keltirilgan: 1) Murobaha – bu savdoning bir ko'rinishi. Unda aktiv sotib olinadi va sotiladi; 2)Ijara – aktiv sotib olib ikkinchi tomonga ijaraga beriladi. Bunda ijaraga beruvchi ijaraga berib foyda oladi, ijaraga oluvchi undan foydalanishdan manfaatdor bo'ladi. 3) Istisna – yo'q narsaga pul tikish. (loyihani moliyalashtirish). Qurilayotgan (paydo bo'layotgan) hali yaratilmagan aktivlarni moliyalashtirish. 4) Salaam – qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, ya'ni hosilni fermerdan oldindan sotib olish; 5) Musharaka – sherikchilik;

6) Mudoraba – bunda niznes qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan, lekin mablag'i bor shaxs bilan biznes qilish qobiliyatiga (biznes sir-asrorlarini biladi) ega bo'lgan shaxslarning shartnoma tuzib birlashishidir. Bunda bir shaxs biznesga pulini tikadi, ikkinchi tomon esa qobiliyatini tikadi; 7) Sukuk – qimmatbaho qog'ozlar, ya'ni investitsiyalar. Notijoriy muomala – bunda, asosan kambag'allarga yordam beriladi. Dunyoviy jihatdan, boylik insonga tegishli hisoblanadi. Islomda esa, boylik har bir insonga vaqtincha berilgan va shu vaqtincha berilgan boylikning ham bir qismi kambag'allarning haqqi hisoblanadi. Bunday qarash, o'z navbatida iqtisodiyotda juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sababi bir tarafdan kambag'allarning ahvoli yaxshilansa boshqa tarfdan kambag'allar u pullarni bozorda ishlatadi (tovar yoki xizmatlardan foydalanadi). Shu tariqa pul yana real iqtisodga qaytadi va aylanishda davom etadi.Yoki ana'naviy moliya tizimda baland kredit reytingdagi kompaniya va korxonalar mablag'larni arzon narxlarda jalb qilishadi. Biroq oddiy jismoniy yoki kichik bizneslar uchun bank va moliya institutlari katta foizlardagi kreditlar berishadi. Ular qilayotgan daromadlari foiz to'lash bilan tamom bo'ladi. Umuman olganda, yangi Startuplar, kichik biznes (mikro darajadi), beva yoki ajrashgan ayollar va muhtojlarga bank kredit bermaydi. Islomiy moliyadagi notijoriy instrumentlar orqali yuqoridagi muammolarni yechish mumkin. (3-rasmga qarang) 1) Zakot – Har yili (bir yilda bir marta, asosan Ramazon oyida) boylarning 2,5 foizgacha bo'lgan boyligi to'g'ridan to'g'ri

kambag'allarga beriladi. 2) Sadaqa –Boylar kambag'allarga sadaqa qilishadi (har oy, har hafta va h.k.). Sodda qilib aytganda, Qarz ul Hasan bu instrument qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. 3)– bu kafolatlangan foizsiz qarz. Ma'lum muddatga hech qanday foizlarsiz jismoniy yoki yuridik shaxslarga beriladi. 4) Vaqf – makroiqtisodiy ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Bu pullarga tarixdan yo'llar, o'quv markazlar, karvonsaroylar qurilgan. Islomiy va an'anaviy moliyalashtirish o'rtasidagi farq. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi bu xo'jalik faoliyati natijalarini adolatli taqsimlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun iqtisodiyotning real sektori rivojlangan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishilgan bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, islom moliyasi bozor iqtisodiyotini rad etmaydi va xususiy mulkchilikni tan oladi va rag'batlantiradi. Shunday ekan ikki xil: islomiy va kapitalistik iqtisodiyotlarni farqlashimiz mumkin. Kapitalistik iqtisodiyotda shaxs :

- Istalgan qarorlarni qabul qiladi;
- Erkinligi cheklanmaydi;
- Agar biror cheklov bo'ladigan taqdirda ham undan biror demokratik qonunchilik vositasida xalos bo'ladi. Cheklovlarning mutlaqo yo'qligi jamiyatda nomuvofiq ishlarni keltirib chiqaradi:
- Foizlar;
- Qimor o'yinlari;
- Boylikni kamchilik insonlar qo'lida to'planib monopoliya ko'rinishiga kelishi;
- noaxloqiy va zararli vositalar ko'magi bilan bir – birlarini eksplatatsiya qilish;
- Bir guruh insonlarning boqmandalikka berilib ketishi;
- noqonuniy tovar va xizmatlar bilan amaliyotlar bajariladi;
- qisqa sotuvlar rivojlanadi;
- pul o'zidan o'zi ko'payadi;
- inflatsiya yildan yilga oshadi;
- jilovlab bo'lmaydigan darajadagi foyda olish monopoliyalari paydo bo'ladi.

Yuqoridagi omillar sababli iqtisodiyotda bozorning ta'siri yo'qoladi, yoki hech bo'lmaganda kuchsizlanib ketadi. Moliyaviy kapitalizmda bank va moliyaviy muassasalar faqat pullar, yoxud monetar majburiyatlarni oldi – sotdisi bilan shug'ullanishadi. Islom moliyasida esa, voqelikdagi (real) aktivlar moliyalashtiriladi. Bunda, pul savdo predmeti sifatida tan olinmaydi. Pulning o'zi hech qanday qiymatga, yoki naflilikka ega emas. U shunchaki tovar yoki xizmatlarning puldagi ifodasidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tovar (qalam, kitob, biror bir texnika, oziq-ovqat) va xizmatlar (sartaroshlik, tikuvchilik, ma'lum tovarni yetkazib berish) oxir oqibat qandaydir qiymat yaratadi. Ulardan foydalanamiz. Pulni o'zini esa hech nima qilib bo'lmaydi.

Iste'mol qilolmaymiz, ishlarimizni yengillashtira olmaymiz. Oddiy banklarda kreditlar tovar aylanmasidan tashqarida ko'payuvchi qo'shimcha pul massasini yaratishi real sektorga nisbatan pul massasining ko'payib ketishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida inflatsiyani kuchaytiradi va bunday nomuvofiqlik hisobiga xom ashyo va xizmatlarning bahosi o'sadi. Shuning uchun ham, kredit-qarz amaliyotlaridan olingan foyda (pulning qo'shimcha qiymati) man etilgan. Shunday qilib, real aktivlarga asoslangan muqobil islomiy moliyalashtirish jarayonida voqelikdagi (real) qo'shimcha qiymat yuzaga keladi. Bundan tashqari 2007-2009 yillardagi moliyaviy inqiroz natijasida iqtisodiyotda real sektorini moliyalashtirish bilan bog'liq bir qancha muammolar yuzaga keldi. Ushbu yo'nalishda ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq va mavjud xatarlarni bartaraf etish imkonini beruvchi islom moliyaviy vositalar muhimo'rin egallamoqda. Shunday ekan, ushbu tizim moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish jarayonida xosil bo'ladigan konfliktlarni samarali bartaraf etishlari va jahon iqtisodiyotida kamayib borayotgan real tovarlar va xizmatlar segmentlarini qo'llabquvvatlashni yirik islom korporatsiyalari o'zlarining siyosiy va iqtisodiy qarorlarida e'tiborga olishi lozim. Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) va uning guruhi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, xususan Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish Islom Korporatsiyasi (ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi (ITFC) va Islom tadqiqotlar va treninglar instituti (IRTI) mamlakatda islom moliyasi rivojlanishida o'z hissalarini qo'shgan holda, hozirgi kunga qadar 2 milliard AQSh dollaridan ziyod mablag'ni Islomiy moliya

tamoyillari asosida moliyalashtirish maqsadlariga yo'naltirgan. Bundan tashkari, O'zbekistondagi bir nechta oliy o'quv yurtlari o'z ta'lim dasturlarini Islom moliyasiga doir fanlarni hisobga olgan holda tayyorlay boshladi. Shuningdek, joriy qonunchilikdan kelib chiqqan holda biznes vakillari ham islom moliya xizmatlarini taklif kilishni boshlab yubordi. O'zbekistonda qator islomiy lizing kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 2019 yilda mamlakatda birinchi «O'zaro» islomiy sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini boshladi. O'zbekistondagina emas, balki MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lgan elektron-Murabaxa (Murabaxa savdo bitimi asosidagi moliyaviy mahsulot) platformasi ishlab chiqildi. IsBF (Islamic Business and Finance) nomli birinchi Islom moliya masalalari bilan shug'ullanuvchi kompaniya (asosiy faoliyati ushbu sohada konsalting xizmatlari ko'rsatish) tashkil etildi, islom moliyasi sohasida aholi savodxonligini oshirish maqsadida "Islom moliyasi" Telegram sahifasi va veb sayti ishga tushirildi. Taiba Lizing va Al-Mulk Kapital kabi lizing kompaniyalari esa kichik va o'rta biznes vakillariga Islom tamoyillari asosidagi ijara mahsulotlari taqdim qilishni davom ettirmokda. Shuningdek, ta'lim sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda Islom moliyasi bo'yicha bir qancha treninglar o'tkazildi, o'zbek tilida Islom moliyasiga oid kitoblar nashr etildi. Malayziyalik professor Sudin Horunning «Islomiy moliyalar va bank tizimi: Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti», qozog'istonlik iqtisodchi Yerlan Baydauletning «Islomiy moliya asoslari» va rossiyalik Rinat Bekkinning «Islom iqtisodiy modeli va zamon» kitoblari shular jumlasidandir. Shuningdek, mamlakatda islom moliya xizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligini inobatga olgan holda ICDning Maslahat guruhi hozirgi kunda O'zbekistonning 6 ta tijorat banki, jumladan, Kapitalbank, Trastbank, Aziya Alyans bank, Agrobank, Qishloq Qurilish bank va Ipak Yo'li banklarida Islom darchalari (Islomiy moliya xizmatlari ko'rsatuvchi shoxobcha) ochish bo'yicha ish olib bormoqda. Ushbu darchalar 2021 yilning boshida ishga tushishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Aloqabank, Xalq banki, Universal bank va Davr banklarda ham islom darchalari ochilishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa va takliflar. O'zbekistronda islomiy moliya tizimini keng joriy etish, aholi va yuridik shaxslarni islom moliya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. – Islom banklari faoliyati va islom bank xizmatlari bo'yicha mavjud xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanilgan holda zudlik bilan milliy qonunchilik va me'yoriy hujjatlardan qabul qilish; – Ushbu sohada istiqbolli kadrlarni oliy ta'lim tizimida alohida yo'nalishlar ochgan holda tayyorlash; – Ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlaridan keng foydalanilgan holda aholining savodxonligini oshirish; – Yangi davr banki sifatida ochilayotgan istiqbolli raqamli (Anor bank, TBS bank, Apelsin bank) banklar singari alohida milliy islom banklarini ochish; Xulosa qilib aytganda, har bir inson o'zining e'tiqodidan kelib chiqqan holda moliya xizmatlaridan foydalanishga haqli va hozirgi kunda dunyo bo'ylab an'anaviy moliya xizmatlariga alternativ yechimlar yaratilgan zamonda yashayapmiz. Ya'ni, islom moliyasi xizmatlari shariat qoidalariga asoslangan va ularga ribo aralashmaydi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida islom moliyasi aktivlari yildan-yilga ko'payib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, islomiy moliya xizmatlaridan foydalanish bir tomondan foydalanuvchi e'tiqodini hurmat qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyatda axloqiy me'zonlarni ushlab turishdir, uchinchi tomondan esa katta moliyaviy mablag'lar jalb qilishning bir usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" O'RQ-765-son qonuni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, www.president.uz
3. www.islommoliyasi.uz
4. O.Akhmadjonov, A.Abdullaev, J.Anvarov, S.Ismoilov. ISLOM MOLIYASI// scientific progress. Vol 5. Issue 2. 2022y. 45-b
5. Islomiy moliya asoslari – E.Baydaulet, H.Hasanov. Toshkent: O'zbekiston NMIU.2019.17.18-b. 6. M.Pulatova, M.Mehmonaliyev. Islom moliyasi va uning rivojlanish evolyutsiyasi // Science and Education. 2022. №2.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov Abdullo Abduraimovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika inisituti mustaqil tatqiqotchisi
Tel:+998 (90) 519-65-61
https://doi.org/10.5281/zenodo.17527035

Annotatsiya: Mazkur tezisda muhandislik ta’limida kreativ yondashuvning o‘rni, bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, innovatsion loyihalar asosida o‘qitishning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida kreativ yondashuvni qo‘llash orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalarni egallashi va texnologik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, sanoatning avtomatlashtirilishi va “Industry 4.0” konsepsiyasi muhandislik kasbiga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Muhandislik ta’limi faqat nazariy bilim emas, balki kreativ fikrlash, innovatsion muammolarni hal etish, jamoaviy ish va texnologik tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuv — bu ta’lim jarayonini shunchaki texnik tayyorgarlik emas, balki ijodiy faoliyatga asoslangan integratsiyalashgan tizim sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Shunday ekan, zamonaviy o‘qitish metodikasini takomillashtirishda pedagogik innovatsiyalar, loyiha asosida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ yondashuvning nazariy asoslari

“Kreativlik” atamasi lotincha *creatio* — “yaratish”, “yangilik kiritish” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ta’lim jarayonida yangi g‘oya va echimlarni topish qobiliyatini anglatadi. Muhandislik ta’limida kreativ yondashuv deganda, muammoli, loyihaviy va dizayn asosidagi o‘qitish usullari orqali talabalarni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlash tushuniladi.

Psixolog olimlar E. Torrens, D. Gilford va A. Maslowning tadqiqotlarida kreativlik inson tafakkurining eng yuqori bosqichi sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekistonlik pedagog olimlar (X. Yo‘ldoshev, O. Hasanboyeva, M. Usmonov va boshqalar) esa kreativ yondashuvni ta’limning innovatsion metodik komponenti sifatida baholaydilar.

Kreativ yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ta’lim jarayonida erkin fikrlash va muammoli vaziyatlar yaratish;
- Nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish;
- Talabaning shaxsiy tajribasiga tayanish;
- O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish;
- “O‘qituvchi – mentor – loyiha rahbari” uchlik tizimini joriy etish.

Bo‘lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda kreativ metodlar

Muhandislik ta’limida kreativ yondashuvni qo‘llash uchun quyidagi **zamonaviy** pedagogik texnologiyalar samarali hisoblanadi:

1. **Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)** – talabalar real muammolarni aniqlab, ularning yechimi uchun texnik loyiha ishlab chiqadilar. Masalan, energiya tejovchi qurilma modeli yoki avtomatlashtirilgan tizim yaratish.
2. **Muammoli o‘qitish (Problem-Based Learning)** – o‘qituvchi talabaga tayyor yechim emas, balki muammoni beradi. Talaba esa tahlil, tajriba va texnologik fikrlash orqali yechim topadi.
3. **STEAM yondashuvi** – fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini integratsiyalash orqali muhandislik tafakkurini kengaytiradi.
4. **Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya** – real texnik jarayonlarni kompyuter modellari orqali o‘rgatish, talabalarda amaliy tajriba hosil qiladi.

5. **Dizayn fikrlash (Design Thinking)** – texnik masalalarni inson ehtiyojlariga yo‘naltirib hal etish; bu muhandisning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

Bu metodlar yordamida o‘quv jarayoni faqat bilim berish emas, balki **yaratuvchan fikrlash**, **amaliy dizayn** va **jamoaviy ishlab chiqish madaniyati**ni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Kreativ kompetensiyalarni shakllantirish va baholash

Kreativ yondashuv asosida tayyorlangan muhandis faqat texnik bilimga ega emas, balki quyidagi **kasbiy kompetensiyalar**ni egallashi lozim:

- **Innovatsion fikrlash kompetensiyasi** – yangi g‘oya va texnologiyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- **Konstruktiv tafakkur** – texnik muammolarga yechim topish, modellash va loyihalash ko‘nikmasi;
- **Axborot-kommunikatsion kompetensiya** – raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish;
- **Jamoaviy hamkorlik** – ko‘p tarmoqli loyihalarda birgalikda ishlash;
- **O‘zini rivojlantirish kompetensiyasi** – kasbiy yangiliklarni muntazam o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish.

Kreativ kompetensiyalarni baholashda test, loyiha himoyasi, refleksiya, “portfel” tizimi, amaliy topshiriqlar va interaktiv monitoring metodlari qo‘llanilishi lozim.

Kreativ ta’lim metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlari

Bo‘lajak muhandislarni kreativ yondashuv asosida tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi metodik yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. **Ta’lim mazmunini yangilash** – muhandislik fanlarini amaliy loyihalar bilan bog‘lash, o‘quv dasturlariga “innovatsion fikrlash” modullarini kiritish.
2. **Pedagogik hamkorlik modelini joriy etish** – o‘qituvchi, sanoat korxonasi va talaba o‘rtasida integratsion tizim yaratish.
3. **Kreativ muhitni shakllantirish** – universitetlarda “texno-hakaton”, “innovatsion laboratoriya”, “startap inkubator” platformalarini tashkil etish.
4. **O‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish** – qayta tayyorlov va malaka oshirish jarayonlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish.
5. **Xalqaro tajribani o‘rganish** – Finlyandiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya muhandislik ta’limidagi kreativ o‘qitish modellarini milliy tizimga tatbiq etish.

Xulosa

Kreativ yondashuv asosida muhandislarni tayyorlash – bu zamonaviy ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunday yondashuv orqali talaba nafaqat texnik bilimlarni egallaydi, balki muammoli vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yechim topish va kasbiy yangilik kiritish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim tizimida kreativ metodikani takomillashtirish – muhandislik kadrlarini xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh, innovatsion tafakkurli, texnologik yangiliklarga ochiq shaxslar sifatida shakllantirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabr.
2. Hasanboyeva O., Yo‘ldoshev X. *Pedagogik texnologiyalar va kreativ ta’lim metodlari.* – Toshkent: TDPU, 2022.
3. Torrance E. P. *Guiding Creative Talent.* – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1962.
4. UNESCO (2023). *Engineering Education for the Future: Creative Skills and Innovation in Higher Education.* Paris.
5. G‘anieva N. M. *Muhandislik ta’limida innovatsion yondashuvlar.* – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.

IQTISODIYOTDA IPOTEKA KREDITINING AHAMIYATI

Baxromov Baxtiyor Shunqor o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Bank ishi va
auditi yo'nalishi 6BI-22_guruh 4 -bosqich talabasi.
baxromovbaxtiyor79@Gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17527047

Annotatsiya: Ushbu tezisda ipoteka kreditining yaqin yillardagi miqdori va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan va ushbu sohani rivojlantirish uchun xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar:ipoteka, Digital ipoteka, Bank, Subsidiya, O'rtacha foiz stavkasi

Respublikada aholi o'rtasida uy-joyga va buning barobarida ipotekaga bo'lgan ehtiyojning tobora ortishi banklarni uzluksiz resurs bilan ta'minlash zaruratini belgilab beradi. Mamlakatimiz uy-joy sektorini rivojlantirish, ipoteka kreditlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining barcha qatlamlari uchun bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi "Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5715-sonli Farmoniga asosan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" (keyingi o'rinlarda - Kompaniya) aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan[1]. 2025-yilning yarim yilligida O'zbekistondagi tijorat banklari 31 ming 589 nafar fuqaroga jami 9,4 trln so'm ipoteka krediti ajratdi. Ushbu mablag'ning 6 trln 390 mlrd so'mi yoki 68 foizi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan 31 ming 589 nafar fuqaroga jami 9,4 trln so'm miqdorida ipoteka kreditlari ajratildi. Bunda ipotekaning o'rtacha qiymati 298,7 mln so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 262,7 mln so'mga teng bo'lgandi. Yarim yillikda berilgan ipotekalarning moliyalashtirish manbalari quyidagicha bo'lgan:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi — 6 trillion 389,3 milliard so'm (68%)
- Bank o'z mablag'idan — 2 trillion 252,9 milliard so'm (24%)
- O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi — 794,3 milliard so'm (8%)

Ajratilgan ipoteka kreditlarining qariyb 7 trln so'mi birlamchi bozordagi uylar uchun, 2,5 trln so'mi esa ikkilamchi bozordagi uylar uchun ajratildi.

Hududlar kesimida eng yuqori ulush Toshkent shahriga to'g'ri keldi. Bunda uning ulushi 3 trln so'mni tashkil etdi.

Keyingi o'rinda esa 747,2 mlrd so'm bilan Andijon viloyati qayd etildi.

1-rasm[2] Ipoteka miqdori 2025-yil.Ipoteka kreditlarining banklar kesimidagi ulushi

[1] "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi"
[2] *Iqtisodiyot va moliya vazirligi*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

2025-YILDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN DASTUR DOIRASIDA BANKLAR KESIMIDA AJRATILGAN IPOTEKA KREDITLARI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOT

1-iyul holatiga

	BANKLAR NOMI	JAMI		SHU JUMLADAN Yoshlarga ajratilgan kreditlar		
		SONI	SUMMA (MLRD SO'M)	SONI	SUMMA (MLRD SO'M)	JAMIDA
1	IPOTEKA BANK	3 913	1 153,6	1 429	443,0	37%
2	O'ZMILLIYBANK	3 630	1 079,2	752	226,9	21%
3	AGRO BANK	3 238	910,7	1 268	365,1	39%
4	BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI	2 893	805,0	1 094	314,9	38%
5	O'ZSANOATQURILISHBANK	2 466	750,9	837	258,8	34%
6	XALQ BANKI	1 988	567,9	703	206,9	35%
7	ORIENT FINANS BANK	1 229	401,4	309	99,6	25%
8	ALOQABANK	1 299	369,0	492	144,5	38%
9	HAMKOR BANK	523	155,0	173	52,0	33%
10	MIKROKREDITBANK	436	114,6	158	41,4	36%
11	TURONBANK	308	85,9	120	33,8	39%
12	ASAKABANK	227	59,5	63	18,0	28%
13	ASIA ALLIANCE BANK	112	32,3	37	10,8	33%
14	TRASTBANK	100	30,6	30	9,2	30%
	JAMI:	22 362	6 515,5	7 465	2 224,9	33%

Ushbu tashabbus orqali respublikada ipoteka moliyasining barqaror infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Kompaniya faoliyati nafaqat aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga, balki moliyaviy bozor rivojiga, investorlar ishonchini oshirishga va bank tizimida resurslar aylanishining uzluksizligini ta’minlashga ham xizmat qilmoqda.Shu yuzadan mamlakatimizda ipotekaga berilgan e’tiborni quyidagi ma’lumotlardan bilib olishiz mumkin.

Ipoteka kreditlari iqtisodiyotga qanday ta’sir qiladi?

Ko'pchilik ipotekani faqat uy olish vositasi deb biladi. Ammo aslida ipoteka tizimi butun iqtisodiyotga ta'sir qiladi:

Qurilish sektori rivojlanadi - odamlar ko'proq uy olgani sari talab oshadi, yangi uylar quriladi, ish o'rinlari paydo bo'ladi.

Banklar foyda ko'radi - uzoq muddatli, kafolatli kreditlar orqali daromad oladi.

Iste'molchilar moliyaviy savodli bo'ladi - byudjetini rejalashtiradi, intizomli to'lov qilishni o'rganadi.

Davlat uchun ham foydali - soliq tushumlari ortadi, iqtisodiyotda pul aylanishi kuchayadi.

Oddiy qilib aytganda, ipoteka bu - faqat uy emas, balki iqtisodiyot dvigateli hamdir.

Ipoteka bozori har qanday davlatning moliyaviy sog'lomligi va uy-joy bilan ta'minlash siyosatining muhim ko'rsatkichidir. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ipoteka kreditlariga talab ortib bormoqda. Ushbu maqolada biz bugungi ipoteka bozorining holatini, asosiy raqamlar va tendensiyalarni, shuningdek, qanday omillar bu bozorga ta'sir qilayotganini ko'rib chiqamiz.

Asosiy raqamlar (2024-yil misolida): O'zbekistonda o'rtacha ipoteka miqdori: 350 mln so'm.

O'rtacha foiz stavkasi: 17-20%

Kredit muddati: 15 yil

Eng ko'p ipoteka berilayotgan hududlar: Toshkent shahri, Samarqand, Andijon

Asosiy beruvchilar: Milliy bank, Ipoteka-bank, Xalq banki, Agrobank

Rivojlanish tendensiyalari:

Subsidiyalangan dasturlar ortmoqda - ayniqsa yoshlar va ayollar uchun.

Bozor stavkalarining erkinlashuvi - banklar o'z shartlarini taklif qila boshladi.

Digital ipoteka xizmatlari - hujjatlar onlayn topshirish, avtomatik skoring tizimlari.

Tahlil va xulosa:

Ipoteka bozori o'sishda davom etmoqda, lekin foiz stavkalari yuqoriligi ko'pchilik uchun to'siq bo'lmoqda. Buning yechimi sifatida ko'proq raqobat va davlat tomonidan shaffof subsidiyalar taklif etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi “Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5715-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4957-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). O‘zbekiston bank tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlari. Toshkent.
4. Karimov, S. (2022). Ipoteka kreditlash tizimi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
5. Abdug‘aniyev, O., & Raximov, J. (2023). Tijorat banklarida ipoteka kreditlash tizimi: muammolar va yechimlar. Toshkent: Moliyaviy tadqiqotlar instituti.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. (2023). O‘zbekistonda ipoteka kreditlash: natijalar va istiqbollar. Toshkent.

KRAUDFANDING PLATFORMALARINING INNOVATSION LOYIHALAR VA STARTAPLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI VA ISTIQBOLLARI

Suyunov Javohir Ravshan o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 2-kurs talabasi.
+998 (91) 637-57-39
E-mail: suyunovjavohir101@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17528609

Annotatsiya: Ushbu maqolada kraudfanding innovatsion g'oyalar va startaplarni moliyalashtirishning zamonaviy shakli sifatida tahlil qilinadi. Unda an'anaviy sarmoya manbalariga nisbatan jamoaviy moliyalashtirishning afzalliklari, shuningdek, kraudfanding platformalarining investitsiya, mukofot va xayriya asosidagi turlari yoritilgan. Muallif kraudfandingning O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish bosqichlarini, xususan MFond.uz va Factor.uz kabi ilk tashabbuslarning tajribasini tahlil qiladi hamda ushbu sohaning huquqiy asoslari yaratilganini qayd etadi. Shuningdek, maqolada 2025-yilda ishga tushirilgan Startupbase.uz platformasining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi. U O'zbekiston startap ekotizimini rivojlantirish, investorlar va g'oya egalari o'rtasida raqamli hamkorlikni kuchaytirish hamda muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi muhim tashabbus sifatida taqdim etiladi. Umuman olganda, maqola kraudfandingni milliy innovatsion rivojlanishning ajralmas elementi sifatida baholaydi va uni raqamli iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biri deb ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Kraudfanding, startap moliyalashtirish, innovatsion iqtisodiyot, raqamli moliya, investitsiya platformalari, O'zbekistonda kraudfanding, FinTech ekotizimi, huquqiy tartibga solish

Innovatsion g'oya hamda startaplarni tayyor mahsulot yoki xizmatga aylantirish yo'lidagi eng katta to'siqlardan biri shubhasiz ularni moliyalashtirish hisoblanadi.[1] Yangi startaplar uchun banklar yoki venchur kapital fondlaridan sarmoya jalb qilish qiyin bo'lganligi sababli ba'zi tadbirkorlar o'z e'tiborini onlayn hamjamiyatlarga qaratmoqdalar. "Kraudfanding" deb ataluvchi bu nisbatan yangi norasmiy moliyalashtirish shakli tadbirkorlarga keng jamoatchilikka (ya'ni, "ommaga") bevosita murojaat qilish imkonini beradi ya'ni tadbirkorlar o'z innovatsion g'oyalarini hayotga tatbiq etishda xalqning yordamiga tayanadilar. "Kraudfanding" so'zi inglizcha "crowdfunding" so'zdan olingan bo'lib "crowd" – *jamoa*, *xalq*, "funding" – *moliyalashtirish* ma'nolarini bildiradi. Bu internet orqali ochiq chaqiriq bo'lib, u aniq maqsadlardagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslarni xayriya tarzida yoki ma'lum bir mukofot evaziga jalb etishni o'z ichiga oladi.[2]

Kraudfanding aslida tarixan mavjud bo'lgan turli xil faoliyatlar uchu berilgan yangi zamonaviy nomdir.[3] Masalan, Motzart va Bethoven o'z konsertlari hamda yangi musiqiy asarlarini homiylarning mablag'lari orqali moliyalashtirgan; Nyu-Yorkdagi Ozodlik haykali Amerika va Fransiya xalqlari tomonidan berilgan kichik xayriyalar evaziga qurilgan; shuningdek, AQSh prezidenti Barak Obamaning 2008-yilgi saylov kampaniyasi mablag'larining asosiy qismi ham Internet orqali olingan kichik xayriyalar hisobiga yig'ilgan.[4]

Barcha kraudfanding platformalariga xos umumiy jihat shundaki, mablag' yig'uvchilar, ya'ni startap g'oya egalari, qo'shimcha moliyaviy manbalarga ega bo'lish umidida maydonga chiqadilar. Loyihalar o'ziga xos xususiyatlarga ega va sarmoyadorlaning ham bu loyihalarga nisbatan turlicha didi va ustuvorliklari mavjud bo'ladi. Shu sababli kraudfanding platformalari bozorning ikki tomonini bog'lovchi, ularni bir-biriga moslovchi ikki tomonlama platformalar toifasiga kiradi.

Boshqa sohalardagi, masalan, tanishuv yoki ko'chmas mulk savdosi platformalaridan farqli ravishda, kraudfanding platformalari "birga–ko'p" (*eng.* one-to-many) tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, bitta loyiha muvaffaqiyatli bo'lishi uchun (ya'ni, kerakli mablag' yig'ilishiga erishish uchun) bir nechta homiyning ishtirokini talab qiladi.

Bu xususiyat aksariyat kraudfanding platformalariga xos bo'lsa-da, moliyalashtiruvchilarning rag'batlari turli turdagi platformalarda bir-biridan ancha farq qilishi mumkin. Xuddi shuningdek, ma'lum bir loyihani ilgari surayotgan startap egasining maqsad va manfaatlari ham platforma turiga qarab o'zgaradi. Kraudfanding platformalarini uch asosiy turga bo'linadi: **investitsiya asosidagi**, **mukofot asosidagi** va

xayriya (donatsiya) asosidagi platformalar.[5] **Investitsiya asosidagi kraudfanding platformalari** startaplar va kichik hamda o‘rta darajadagi korxonalarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan muqobil moliyaviy investitsiya vositalari sifatida ko’rilishi mumkin. Ushbu turdagi platformalar **aksiyadorlik (*eng.* equity-based)** va **qarz asosidagi (*eng.* lending-based)** turlarga bo‘linadi.

Aksiyadorlik asosidagi platformalarda loyihani moliyalashtiruvchilar o’z sarmoyalari evaziga aksiyalar (ulushlar) oladilar. Bunda to‘lov miqdori loyiha muvaffaqiyatli yakunlanib, daromad keltirgan taqdirda uning natijadorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Qarz asosidagi platformalarda esa g’oya muallifi investorlar tomonidan berilgan qarz evaziga foizli to‘lovlar taklif qiladi.

Umuman olganda, investitsiya asosidagi kraudfandingdan foydalanayotgan kompaniyalar uchun asosiy maqsad bu an’anaviy moliyalashtirish vositalariga (masalan, alohida investor yoki bank krediti) tayanishdan ko‘ra ko‘p sonli sarmoyadorlar bilan ishlash imkoniyatini qo‘lga kiritishdir.

Kraudfanding platformalarining yana bir shakli **mukofot asosidagi** va **xayriya (donatsiya) asosidagi** kraudfanding platformalaridir.

Mukofot asosidagi platformalarda go’ya egalari investor yoki homiylarga loyihadan ulush yoki pul to‘lovi taklif etmaydilar. Buning o‘rniga ular boshqa turdagi mukofotlarni taklif qiladilar. Bunday hollarda homiyni loyihani qo‘llab-quvvatlashga undaydigan omil bir tomondan ma’lum bir g‘oya yoki tashabbusni yoqlash istagi bo‘lsa, ikkinchi tomondan taklif etilayotgan shaxsiy manfaatlar bo‘lishi mumkin. Ushbu manfaatlarni belgilash esa to‘liq startap egasining o‘z ixtiyorida bo‘ladi.

Masalan, videoo‘yinlar misolida ko’radigan bo’lsak, homiy tomonidan kiritilgan mablag‘ miqdoriga qarab mukofot sifatida o‘yin nusxasining bepul versiyasi taqdim etilishi mumkin.

Xayriya asosidagi kraudfandingda esa hech qanday shaxsiy mukofot yoki moddiy foyda nazarda tutilmaydi.

2014-yilning ikkinchi choragida (aprel–iyun oylarida) muvaffaqiyatli amalga oshirilgan loyihalar soni bo‘yicha eng yuqori natijalarga erishgan davlatlar qatoriga AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Avstraliya va Italiya kiradi.[6] 2011-yildan boshlab kraudfandingni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator tashkilotlar paydo bo‘lgan. Ushbu tashkilotlar faoliyatining umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning asosiy maqsadlari kraudfandingni rivojlantiruvchi qonunchilikni shakllantirish va takomillashtirishni o‘z ichiga oladi.[7]

O’zbekiston uchun ham kraudfanding platformasi yangilik hisoblanmaydi. 2018 yil avgust oyida xorijiy mamlakatlar tajribasidan o‘rnak olgan holda yurtimizda ham kraudfanding platforma maydonchasi ishga tushirildi. Ammo MFond.uz deb ataluvchi ushbu platforma ommalashmagani bois uning faoliyati to‘xtadi. 2013-yilda ham OAVda turli loyihalarni amalga oshirish uchun mablag‘ jalb etish bilan shug‘ullanadigan Factor.uz onlayn maydonchasi ishga tushirilgani, uning doirasida bir necha loyiha taklif etilgani haqida xabarlar chiqqan edi. Ammo oradan bir yil o‘tgach, bu platforma ham ish faoliyatini to‘xtatgan. O’zbekitson Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2020-yil 30-sentyabrda Vazirlar Mahkamasining “Kraudfanding platformasi orqali axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ommaviy moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Unga Axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ommaviy moliyalashtirish (kraudfanding) tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom ilova sifatida berilgan. Ushbu nizomda kraudfanding platformasi faoliyatini tashkil etish, loyihalarni kraudfanding platformasiga joylashtirish va ularni moliyalashtirish tartiblari kabi masalalar aks etgan.[8]

2025-yilning boshida IT-Park bilan hamkorlikda yangi **Startupbase** platformasi tashkil qilindi. Startupbase.uz — bu O‘zbekiston startap ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy raqamli platforma bo‘lib, u mamlakatdagi innovatsion g‘oya egalari, investorlar va biznes hamkorlarni yagona ekotizimda birlashtiradi. Platformaning asosiy maqsadi — startaplar uchun zarur bo‘lgan ma’lumot, tahlil va aloqalarni taqdim etish orqali ularning o‘sishiga yordam berishdir. Startupbase.uz orqali foydalanuvchilar O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan startaplar haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lishlari, ular bilan hamkorlik qilish yoki investitsiya imkoniyatlarini topishlari mumkin.

Bu sayt mamlakatda innovatsion muhitni jonlantirish va kraudfanding kabi muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Unda startaplarning rivojlanish bosqichlari, ularning sohalar bo‘yicha taqsimoti hamda investorlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar haqida ma’lumotlar jamlangan. Shuningdek, Startupbase.uz innovatsion ekotizim ishtirokchilari — universitetlar, texnoparklar va davlat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida faoliyat yuritadi.

Ushbu platforma O‘zbekistonda startaplar uchun ochiq, shaffof va raqamli iqtisodiyotga mos bozor muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga, balki ularni amaliy mahsulot va xizmatlarga aylantirishga ham ko‘maklashadi. Shu ma’noda, Startupbase.uz innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, sarmoya jalb qilish va kraudfanding ekotizimini rivojlantirish yo‘lida muhim milliy tashabbus sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Xulosa: kraudfanding mexanizmi zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirishning samarali vositasi sifatida shakllanmoqda. Ushbu tizim startaplarga an’anaviy moliyaviy manbalarga bog‘lanib qolmasdan, keng jamoatchilik ishtirokida o‘z loyihalarini amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda esa bu yo‘nalishning rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, Startupbase.uz kabi yangi platformalar mamlakat startap ekotizimini kuchaytirish, investorlar va innovatorlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda kraudfanding amaliyotlarini milliy sharoitda joriy etishda muhim o‘rin tutmoqda. Natijada, bunday tashabbuslar nafaqat innovatsion loyihalarning sonini oshiradi, balki ularning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini ham yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cosh, A., D. Cumming, and A. Hughes (2009), “Outside Entrepreneurial Capital,” *The Economic Journal*, 119(540), 1494-1533.
2. Belleflamme, P., T. Lambert and A. Schwienbacher (2014), “Crowdfunding: Tapping the Right Crowd,” *Journal of Business Venturing*, 29(5), 585-609.
3. Ordanini, A., L. Miceli, M. Pizzetti, and A. Parasuraman (2011), “Crowd-Funding: Transforming Customers into Investors through Innovative Service Platforms,” *Journal of Service Management*, 22(4), 443-470.
4. Hemer, J. (2011), “A Snapshot on Crowdfunding,” Fraunhofer ISI Working Paper, http://isi.fraunhofer.de/isimedia/docs/p/arbpap_unternehmen_region/ap_r2_2011.pdf?WSESSIONID=71fbeb093ebe9de0c0b8d0b9db7cda95
5. Paul Belleflamme, Nessrine Omrani, Martin Peitz, The economics of crowdfunding platforms, Information Economics and Policy, Volume 33, 2015, Pages 11-28, ISSN 0167-6245, https://doi.org/10.1016/j.infoecopol.2015.08.003
6. Crowdfunding Centre (2014). The State of The Crowdfunding Nation
7. Sima Jegelevičiūtė, Loreta Valančienė, Comparative Analysis of the Ways Crowdfunding is Promoted, Procedia -Social and Behavioral Sciences, https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.11.536.
8. Internet manba: *Xalq tomonidan moliyalashtirish – kraudfanding qanday afzalliklarga ega?* https://kun.uz/news/2018/10/04/halk-tomonidan-molialastiris-kraudfanding-kandaj-afzalliklarga-ega

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING MOLIYA TIZIMIDAGI O‘RNI VA UNING MARKAZLASHGAN INFRATUZILMALARGA TA’SIRI

Suyunov Javohir Ravshan o’g’li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi 2-kurs talabasi.
+998 (91) 637-57-39
E-mail: suyunovjavohir101@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17528629

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada moliya tizimining markazlashgan vositachilarga tayanishi natijasida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etishda blokcheyn texnologiyasining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Blokcheyn texnologiyasining markazlashmagan, xavfsiz va shaffof ma’lumotlar uzatish mexanizmi sifatidagi afzalliklari, kriptografik asoslari, uning moliyaviy hisob-kitob va qimmatli qog‘ozlar bozoriga integratsiyasi izchil bayon etiladi. Umumiy olganda, blokcheyn texnologiyasining moliya tizimini raqamlashtirish va xavfsizligini mustahkamlashdagi o‘rni va istiqbollari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so’zlar: blokcheyn texnologiyasi, moliya tizimi, moliyaviy barqarorlik, qimmatli qog‘ozlar bozori, raqamlashtirish, tranzaksiya xavfsizligi, iqtisodiy ishonch.

Moliya tizimi bir qator markazlashgan va ishonchli vositachilarga tayanadi. Bularga misol qilib xalqaro pul o’tkazamalarida vositachilik qiluvchi SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) va valyuta operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradigan CLS Bankni keltirishimiz mumkin. [1]

Shu kabi markaziy bo’g’inlarning moliyaviy barqarorligi va puxta boshqaruvi tufayli ularning tizimida hech qanday xato va kamchiliklar kuzatilmasligiga va barqaror ishlashiga kafolat berilardi. Hatto, ularga “qulashi uchun juda yirik” (*eng.* too big to fail) ta’rifi berilgan edi. Biroq, 2007-2008-yillardagi moliyaviy inqiroz bu tasavvurlarni butkul yo’q qildi. 2010–2012-yillardagi Yevrozonadagi inqiroz esa hatto rivojlangan mamlakatlar ham o‘z majburiyatlarini bajara olmasligi mumkinligi haqidagi qo‘rquvni kuchaytirdi. Yirik moliyaviy institutlarning kompyuter tizimlari qayta-qayta xakerlik hujumiga uchrashi esa so’nggi zarbalardan biri bo’ldi. Moliya tizimidagi markaziy bo‘g‘inlarga nisbatan ishonch tobora so‘roq ostiga olinayotgan bir paytda blokcheyn texnologiyasi kirib keldi.

Blokcheyn taqsimlangan reestrdagi tranzaksiya bloklari zanjiri hisoblanadi. Ushbu texnologiya dastlab 2008-yilda Nakamoto tomonidan taklif qilingan.[2] U markazlashtirilmagan texnologiya bo’lganligi uchun ham inqilobiy yangilik sifatida ko’riladi. Blokcheyn tranzaksiyalar blokini bir-biriga tom ma’noda zanjirlab shunday bog’laydiki, har qanday blokni o’zgartirish keyingi blok bilan bo’lgan bog’lanishni uzadi. Bir blokni o’zgartirish keyingi blokni ham o’zgartirishni talab qiladi. O’z navbatida keyingi blokni o’zgartirish uchun ham undan keyingi blokni o’zgartirish kerak va jarayon so’nggi blokkacha davom etadi. Yangi bloklarni ham faqat oxiriga qo’shish mumkin, undan yuqoridagi eski bloklar esa tabiiyki o’zgarmay qoladi. Bloklarning ushbu “zanjirli bog’lanishi” maxsus *kriptografik hesh* (*eng.* cryptographic hash) tizimiga asoslangan.

Hesh bu turli raqamlar va harflar birikmasidan tashkil topgan “raqamli barmoq izi” hisoblanadi. Matematik nuqtai nazardan qaraydigan bo’lsak, hesh maxsus hesh funksiyasi f orqali hosil qilinadi. Hesh yaratish uchun ishlatiladigan funksiyalar Xavfiz Hesh Algoritmlari deyiladi va ularning SHA1, SHA128, SHA512 kabi turlari mavjud. Hesh funksiyasida har xil qiymat kiritish orqali bir xil hesh olmaslik kerak, ya’ni $f(x_1) \neq f(x_2)$.

Deyarli millionta so’zdan iborat bo’lgan Uilyam Shekspirning “The Complete Works of William Shakespeare” asari hesh qiymati **6799e461c8177d88b6e0c782242642d3450c8b34** ko’rinishida ifodalanadi.[1] Agar ushbu asar matniga shunchaki bir bo’shliq qo’shadigan bo’lsak hesh qiymati keskin o‘zgarib, **5d960169ea490568abf4ec69c127ae12d57cedc2** ko‘rinishini oladi. Yoki fayldagi birinchi “The” so‘zini kichik harf bilan yozilgan “the” ga almashtirsak, hesh qiymati yana tubdan o‘zgarib **65a835f4845395c929d5076029ca818f614a4119** qiymatiga ega bo’ladi. Ko’rinib turibdi-ki, hattoki eng kichik o’zgarish ham heshdagi juda katta o’zgarishlarga sabab bo’lishi mumkin.

Blokcheynda bloklar kriptografik heshlar yordamida o‘zaro zanjirga ulanib ketadi. Har bir blok (birinchisidan tashqari) o‘zidan oldingi blokning heshini o‘z ichiga oladi. Agar firibgar eski blokni, masalan, 1000-blokni o‘zgartirsa, blokcheyn yaxlitlik tekshiruvidan o‘tolmaydi, chunki 1000-blokning heshi endi keyingi blokda (1001-blokda) saqlanayotgan hesh bilan mos kelmaydi. Shuning uchun firibgar 1001-blokni ham o‘zgartirishi kerak bo‘ladi, toki u yerda saqlangan oldingi blok heshi 1000-blokning yangi heshiga mos kelsin. Ammo bu o‘zgarish 1001-blokning o‘z heshini ham o‘zgartiradi, natijada firibgar 1002-blokdagi heshni ham tuzatishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon oxirgi blokka qadar davom etadi.

Ya’ni,

1-blok: $qiymat_1 = hesh_1$

2-blok: $qiymat_2 + hesh_1 = hesh_2$

3-blok: $qiymat_3 + hesh_2 = hesh_3$

4-blok: $qiymat_4 + hesh_3 = hesh_4$

...

n-blok: $qiymat_n + hesh_{n-1} = hesh_n$

Shunday qilib, agar blokcheynda ishtirok etayotgan foydalanuvchilar oxirgi blokni kuzatib borsa, ular bilvosita butun zanjir yaxlitligini himoya qilgan bo‘ladilar, hatto bloklar soni millionlab yoki milliardlab bo‘lsa ham.

Amaliy nuqtai nazardan qaraydigan bo’lsak, blokcheynning quyidagi afzalliklari mavjud: birinchidan, markazlashuvning yo’qligi va ma’lumotlarning barcha qurilmalarda nusxalab saqlanishi barcha ishtirokchilarga tuzilgan va tuzilayotgan bitimlarni ko’rib turish imkonini beradi. Bundan tashqari, agar bir nechta qurilma ishdan chiqsa yoki tarmoqdan uzilib qolsa (ayniqsa xakerlik yoki kiberhujumlar natijasida) qolgan qurilmalar orqali tizim ishlashda davom eta oladi, chunki yuqorida aytib o’tganimizdek ma’lumotlar va bitimlarning nusxalari tizimga ulangan barcha qurilmalarda mavjud. An’anaviy moliya tizimlarida esa agar markaziy tashkilot vaqtincha ishlamasa butun tizim to’xtaydi. Masalan, 2014-yil 20-oktabrda Buyuk Britaniyaning RTGS (Real Time Gross Settlement) tizimida qariyb to‘qqiz soatlik nosozlik vujudga kelgan.[3] Bu davrda barcha banklar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, yirik miqdordagi to‘lovlar amalga oshirilmagan. Keyinchalik, Angliya Markaziy banki yangi RTGS tizimini ishlab chiqish jarayonida blokcheynning asosiy afzalligi sifatida barqaror ishlash xususiyatini alohida ta’kidlab o’tgan.

An’anaviy qimmatli qog‘ozlar bozorlari markaziy qimmatli qog‘ozlar depozitlari, hisob-kitob tizimlari, markaziy kontragentlar, to‘lov tizimlari va savdo ma’lumotlar bazalari kabi moliyaviy infratuzilmalarning o‘zaro hamkorligiga tayanadi. Biroq bunday an’anaviy tizimlarning o‘ziga xos kamchiliklari mavjud, jumladan, tranzaksiya xarajatlarining yuqoriligi, likvidlikning pastligi va shaffoflikning yetishmasligi shular jumlasidandir.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida blokcheyn texnologiyasi markazlashmagan va taqsimlangan ma’lumotlar bazasi tizimini taklif etadi. Bu tizim savdo ishtirokchilariga vositachilarsiz bitim tuzish imkonini berib, jarayonni yanada samarali, shaffof va xavfsiz qiladi. Xususan, blokcheynga asoslangan markazlashmagan to‘lov tizimlari bitimlarni an’anaviy to‘lov institutlarisiz amalga oshirish imkonini beradi, bu esa tranzaksiya xarajatlari va xavfsizlikka oid xatarlarni kamaytiradi. Masalan, Nasdaq[4] va Buxarest[5] kabi qimmatli qog‘oz birjalari ishtirokchilarga vositachilarsiz savdo qilish imkonini berib, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Blokcheyn asosidagi hisob-kitob tizimlari (masalan, SETLcoin[6]) esa tranzaksiya ma’lumotlarining ochiqligi, shaffofligi va ishonchliligini ta’minlaydi hamda bitimlarning xavfsizligini kafolatlaydi.

Symbiont[7] kompaniyasi — blokcheyn asosidagi yetakchi moliyaviy kompaniyalardan biri bo‘lib, u o‘zining moliyaviy tahlillarida blokcheyn texnologiyasidan foydalanadi. Ushbu platforma sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanib, katta hajmdagi ma’lumotlardan zarur axborotni avtomatik ravishda aniqlaydi va tahlil qiladi. Bu o’z navbatida shaffoflikni oshirish bilan bir qatorda investorlar uchun bozor haqidagi axborotning aniqligini va tahlil samaradorligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyasining kriptografik asoslari va taqsimlangan reestr tamoyili moliyaviy operatsiyalarning ishonchliligini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda

tizimning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Natijada, blokcheyn nafaqat qimmatli qog‘ozlar bozorida, balki kengroq moliyaviy infratuzilmalarda ham inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, global moliya tizimini raqamlashtirish va ishonchni tiklash yo‘lida muhim bosqichga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Varma, J. R. (2019). Blockchain in Finance. *Vikalpa*, *44*(1), 1-11. https://doi.org/10.1177/0256090919839897
2. Nakamoto, S.: Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system. Decen-tralized Business Review 21260 (2008). https://assets.pubpub.org/d8wct41f/31611263538139.pdf
3. Deloitte. (2014), *Independent review of RTGS outage on 20 October 2014*. Bank of England.
1. https://www.bankofengland.co.uk/-/media/boe/files/report/2015/independent-review-of-rtgs-outage-on-20-october 2014.pdf?la=en&hash=95DAB90636DD5D501E135832B54F5C359C8AE72F
4. Nasdaq. Nasdaq Rasmiy Vebsayti. https://ir.nasdaq.com/news-releases/news-release-details/nasdaq-linq-enables-first-ever-private-securities-issuance (2023).
5. Pop, C., Pop, C., Marcel, A., Vesa, A., Petrican, T., Cioara, T.,et al.: Decentralizing the stock exchange using blockchain an ethereum-basedimplementation of the bucharest stock exchange. In: 2018 IEEE 14thInternational Conference on Intelligent Computer Communication and Processing (ICCP), pp. 459–466. IEEE, Piscataway, NJ (2018)
6. Ryan, R., Donohue, M.: Securities on blockchain. The Business Lawyer73(1), 85–108 (2017)
7. Symbiont. Symbiont assembly. https://www.symbiont.io/ (2023).

MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH USULLARI

Jabborov Diyorbek Baxodirovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti moliya va moliyaviy texnologiyalar yo`nalishi 2 kurs talabasi.
tel: +998937942237. E-mail: jabborovdiyorbek07@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17528645

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada moliyaviy savotxonlikning ahamiyati qanday qilib oshirish usullari taqdim etiladi. Shu bilan birga moliyaviy savotxonlikni yo‘qligidan yoki yetishmasligidan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolar ko‘rib chiqiladi va ularni oldini olish uchun bir necha yechimlar taqdim etadi.

Kalit so`zlar: moliyaviy savodxonlik, byudjet boshqaruvi, jamg‘arma, investitsiya, kredit, moliyaviy ta’lim, iqtisodiy barqarorlik.

Hozirgi kunda moliyaviy savotxonlik yetishmasligidan bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda shular jumlasidan ortiqcha qarzga botish, jamg‘arma va investetsiyaning yo‘qligi va moliyaviy firbgarlarga aldanish. Bu kabi muammolarni hal qilish uchun biz bir necha choralarni ko‘rishimiz mumkindir, bular moliyaviy savodxonlik darslarini ta’lim tizimiga kiritish, ommoviy axborot vositalari va internet orqali foydali kontentlarni tarqatish va amaliy trening va seninarlar tashkil etish.

Qadim zamonlarda kim o‘qish va yozishni bilsa, savodxon kishi hisoblangan. Kishilik jamiyati rivojlanishi va bilimni tarqalishi natijasida bunday ko‘nikmalar tabiiy hisoblanib, savodxonlik tushunchasi qator yangi mazmun va ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Masalan, biz hozir kompyuter savodxonligi, matematik savodxonlik, iqtisodiy savodxonlik va boshqa turdagi savodxonlik turlarini bilamiz. Shuning uchun savodxonlik sohasidagi u yoki bu tushunchalarni bilish yetarli emas. Birinchi navbatda ularni mazmunini tushunish, uni mantiqiy ketma-ketligini bilish va real hayotda ulardan foydalana olish muhimdir. Kundalik hayot voqealari moliyaviy savodxonlikni zarurligini kundan-kunga isbotlab bormoqda. Moliyaviy savodxonlik kishilarni moliyaviy mablag‘laridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va murakkab moliya dunyosida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishning zarurligi tulayli tanlab olindi. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra moliyaviy savodxonlik ta‘limjarayoni natijalarini baholashning xalqaro dasturlarini yangi tarkibiy qismi hisoblanadi.[1]

Moliyaviy savotxonlik yetishmasligidan bir qancha muammolar payda bo‘lmoqda. Birinchidan, moliyaviy bilim yetishmagan fuqarolar hozirda kredit shartlarini tushunmagan holda, yuqori foizli qarz oladilar banklardan. Natijada, olingan kreditni qaytarish jarayonida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu o‘z novbatida jamiat hamda fuqarolar uchun zararlidir. Ikkinchi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo bu jamg‘arma va investetsiyaning yo‘qligidir. Moliyaviy savodsiz odamlar oylik daromadlarini to‘liq sarflab yuborishga ko‘roq moyil bo‘lishadi shu sababdan kelajak uchun zaxira yaratish ehtimollari juda kam bo‘ladi. Agarda ishdan bo‘shatilsa yoki favqulotta tibbiy xarajatlarga muhtoj bo‘lib qolsa, pul topa olmay qiyin vaziyatga tushib qolishadi. Yana bir muammolardan biri bu, bilimsiz odamlar “tez boyish”, va’da qiladigan piramida va firibgarlik sxemalariga tushib qoladi. Misol uchun, bir oyda “50% foyda” degan noqonuniy investitsiya kompaniyalariga pulini qo‘yib, hammasidan ayriladi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun eng oqilona usul bu albatda moliyaviy savodxonlikni oshirishdir. Moliyaviy savodxonlikni oshirishni birinchi usuli bu, maktab va oliy ta’lim dasturlariga shaxsiy moliya asoslarini kiritish orqali yosh avlodga pulni to‘g‘ri boshqarish, jamg‘arish va qarzdan qochish kabi ko‘nikmalarni berishdir. Qo‘shimchasiga, televizion ko‘rsatuvlar, gazeta-maqolalar, ijtimoiy tarmoqlarda foydali kontentlar tarqatish aholining moliyaviy bilimini oshiradi. Bundan tashqari, mobil ilovalar va onlayn kurslar orqali ham keng ommaga qulay sharoit yaratish mumkin. Hozirgi kunda deyarli barcha insonlar mobil aloqa vositalaridan keng ko‘lamda foydalanib kelayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu foydalanuvchilar uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmasdan moliyaviy savodxonlikka oid ma’lumotlarni o‘rganish va online kurslarda qatnashish imkonini taqdim etadi.

Agarda biz O‘zbekiston xalqini yetarli darajada moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lishini ta’minlay olsak, hozirgi kunda sodir bo‘layotgan ko‘plab moliyaviy jinoyatlarni oldini olishimiz mumkindir. Moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lgan davlatda, hech mubolag‘a qilmasdan aytsak bo‘ladiki kambag‘allik sezilarli

darajada qisqaradi. Moliyaviy savodxon fuqarolar o‘z mablag‘larini to‘g‘ri sarflay oladilar va kelajakda o‘zlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xavflarni oldindan o‘rganadilar. Bu esa o‘z o‘rinida yuqorida takidlanganidek ham davlat ham fuqarolar uchun birdek foydalidir.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish xalqaro iqtisodiy aloqalarda faol ishtirok etayotgan har bir davlat, jumladan, bugungi kunda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan O‘zbekiston uchun ham muhim omillardan biridir. Shu bois hukumatning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarga shaxsiy moliyaviy mablag‘larini samarali boshqarish bo‘yicha zarur bilim va amaliy ko‘nikmalarni yetkazishdir. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat a’zolarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida teng va faol ishtirokini ta’minlaydi. Mazkur masalani hal etish esa kompleks yondashuvni hamda hududiy tashkilotlarning turli bo‘linmalari va mutaxassislarini ushbu jarayonga jalb etishni talab etadi.

Tan olishimiz kerakki, O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori emas. Ammo, so‘ngi vaqtlardagi moliyaviy va fiskal siyosatlarida aholining turmush tarzini o‘rganib, ularni holatini tushunib amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi o‘rtasidagi moliyaviy savodxonlik kundan-kunga yaxshilanib bormoqda.[2]

Xulosa: Moliyaviy savodxonlik bugungi kunda har bir inson uchun eng zarur ko‘nikmalardan biridir. U shaxsiy byudjetni samarali boshqarish, kelajak uchun jamg‘arish, investitsiya qilish va turli moliyaviy firibgarliklardan himoyalanish imkonini beradi. Moliyaviy savodxonlik yetishmasligi esa ortiqcha qarzga botish, jamg‘arma va investitsiyaning yo‘qligi hamda firibgarliklarga aldanish kabi jiddiy muammolarga olib keladi. Shu boisdan, ta’lim tizimiga shaxsiy moliya asoslarini kiritish, ommaviy axborot vositalari va internet orqali foydali bilimlarni targ‘ib qilish hamda amaliy trening va seminarlar tashkil etish orqali aholining moliyaviy bilimlarini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyat esa iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari ishonchli qadam tashlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.V.Vaxabov, Sh. A. Toshmatov, N.X.Xaydarov, A.V.Vaxobov. ‘‘Moliyaviy savodxonlik asoslari’’ darslik Toshkent: Baktria press, 2013, 288b.
2. Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari. Ilmiy maqola 701-bet.

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA RISKLRINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI

Jabborov Diyorbek Baxodirovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti moliya va moliyaviy texnologiyalar yo`nalishi 2 kurs talabasi.
Annotation.This article provides a comprehensive overview of environmental protection, ensuring ecological sustainability, and developing a green economy through the use of innovative technologies. It thoroughly analyzes the experiences of other countries, the ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan, and promising future directions. The roles of innovative approaches, digitalization, artificial intelligence, renewable energy sources, and smart city technologies are explained through examples. In addition, the article offers practical recommendations for fostering the development of the green economy.

Keywords: green economy, innovative technology, renewable energy, smart city, waste recycling, digitalization, artificial intelligence, sustainable development

Kirish

Global miqyosda iqlim o‘zgarishi, ekologik inqirozlar va tabiiy resurslarning kamayishi XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisobotlariga ko‘ra, so‘nggi 50 yil davomida Yer sharining o‘rtacha harorati 1,1°C ga ko‘tarildi va bu jarayon tezlashib bormoqda. Natijada qurg‘oqchilik, kuchli shamollar, suv resurslarining tanqisligi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi salbiy oqibatlar kuzatilmoqda. O‘zbekiston uchun ham bu muammolar dolzarb: Orol dengizining qurishi, havo va suv ifloslanishi, chiqindilarni qayta ishlash muammosi mamlakat iqtisodiyoti va aholining hayot sifatiga bevosita ta’sir qilmoqda.

Mazkur sharoitda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida shakllandi. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi va xalqaro raqobatbardoshlikni oshiradi. (02.12.2022) 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasini kuchaytirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16 sonli Farmoni (30.01.2025) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi” to‘g‘risida. Bu hujjatda qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish va ekologik barqarorlik tamoyillarini joriy qilish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. PQ-184 sonli Qaror (15.05.2025) 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. Bu

qarorda davlat organlarining ekologik ta'lim, jamoatchilik bilan hamkorlik va fuqarolar ekologik bilimini oshirish choralari belgilangan. Prezident qarori "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar" qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va resurslardan tejab foydalanishni oshirish taklif etilgan.

Adabiyotlar tahlili

Jahon mamlakatlari tajribasi yashil iqtisodiyotga o'tishda innovatsion texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatmoqda. Germaniya elektr energiyasining qariyb 40 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan oladi va bu sohada "Energiewende" dasturi bilan mashhur. Norvegiya transport tizimida elektromobillarning ulushi 70 foizdan oshgan bo'lib, davlat tomonidan subsidiyalar va soliq imtiyozlari berilmoqda. Yaponiya esa chiqindilarni qayta ishlashning ilg'or texnologiyalarini joriy etib, "nol chiqindi" shaharlarini yaratishda yetakchi hisoblanadi. Hindistonda "National Solar Mission" dasturi asosida quyosh panellari keng joriy etilib, millionlab uy xo'jaliklari elektr energiyasi bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda muhim ishlar amalga oshirildi. Masalan, Toshkent viloyatida bir necha yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. "Yashil makon" umumxalq tashabbusi orqali daraxt ekish ishlari kengaytirildi. Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha xususiy sektor vakillari faoliyat yuritmoqda.

Asosiy qism

Innovatsion texnologiyalarning atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Energetika: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, bioenergiya) keng joriy qilinmoqda. Masalan, Samarqand va Navoiy viloyatlarida qurilgan quyosh elektr stansiyalari yiliga millionlab kVt/soat elektr ishlab chiqarib, minglab xonadonlarni energiya bilan ta'minlamoqda.
2. Transport: Elektromobillar, gibrid avtomobillar va ekologik jamoat transporti rivojlanmoqda. Norvegiya tajribasiga ko'ra, davlat tomonidan soliq imtiyozlari va bepul to'xtash joylari berilishi aholining elektromobillarga qiziqishini oshirmoqda. O'zbekistonda ham Toshkent shahrida elektromobillar uchun quvvatlantirish shoxobchalari qurilmoqda.
3. Aqlli shaharlar: Smart City texnologiyalari orqali chiqindilarni nazorat qilish, suv va energiya sarfini kamaytirish, transport oqimini boshqarish imkonini beradi. Masalan, Janubiy Koreyaning Songdo shahri butunlay aqlli texnologiyalar asosida qurilgan bo'lib, energiya sarfini 30 foizga kamaytirishga erishilgan
4. Qishloq xo'jaligi: Agro-texnologiyalar yordamida suv resurslarini tejash, yer unumdorligini oshirish va organik mahsulotlar yetishtirish mumkin. Isroilning tomchilatib sug'orish texnologiyasi O'zbekistonda ham keng tatbiq etilmoqda
5. Sanoat chiqindilarini qayta ishlash: Plastik, metall va boshqa chiqindilarni qayta ishlash orqali yangi mahsulotlar yaratish va resurslardan samarali foydalanish. Masalan, Toshkent viloyatida qurilgan chiqindilarni qayta ishlash zavodi yiliga minglab tonna chiqindini qayta ishlash quvvatiga ega.
6. Suv resurslarini boshqarish: IT texnologiyalar yordamida suv taqsimotini optimallashtirish, suv omborlarida monitoring o'tkazish va isrofgarchilikni kamaytirish. BMT ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar yordamida suv sarfini 25 foizgacha qisqartirish mumkin.
7. Sun'iy intellekt va Big Data: Havo sifati monitoringi, chiqindi oqimlarini boshqarish va energiya sarfini prognoz qilishda qo'llanilmoqda. Masalan, AQShda AI asosida qurilgan monitoring tizimlari havo ifloslanishining erta ogohlantirishini beradi.
8. Green fintech: Yashil obligatsiyalar, ekologik startaplarni moliyalashtirish va xalqaro investitsiyalarni jalb etish uchun raqamli moliya texnologiyalari qo'llanilmoqda.

1-Jadval

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari (2020–2024 yillar)

Yil	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi (%)	Ekologik startaplar soni	Yashil investitsiyalar hajmi (mln AQSh dollari)	CO_2 chiqindilari kamayishi (%)

2020	6.5	10	25	120	0.8
2021	8.2	14	37	180	1.2
2022	10.7	18	52	260	1.9
2023	13.4	22	70	370	2.5
2024	17.0	28	95	510	3.3

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki: Qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2020 yildagi 6.5% dan 2024 yilda 17.0% ga yetib, deyarli 2.6 baravar oshgan. Bu energiya manbalarining diversifikatsiyasi va ekologik toza texnologiyalarga o‘tish sur’atlarini ko‘rsatadi. Chiqindilarni qayta ishlash darajasi 10% dan 28% ga ko‘tarilib, barqaror atrof-muhit boshqaruvi yo‘lida muhim qadamlar tashlangan. Ekologik startaplar soni 4 yil ichida 25 tadan 95 taga yetib, innovatsion yechimlar va tadbirkorlik faolligi oshganini bildiradi. Yashil investitsiyalar hajmi 120 mln AQSh dollaridan 510 mln dollarga ko‘tarilib, xalqaro va mahalliy moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kuchaygan. CO_2 chiqindilari kamayishi 0.8% dan 3.3% ga yetib, atmosfera ifloslanishini kamaytirish borasida sezilarli natijalarga erishilgan

2-Jadval

O‘zbekistonda elektromobillar ulushi (2020–2024 yillar)

Yil	Import qilingan elektromobillar (yillik)	Akkumulyatiy elektromobillar (jami)	Jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar (yil holati)	Elektromobillar ulushi (%)
2020	131	131	2 580 133	0.0051
2021	809	940	2 955 295	0.0318
2022	2 180	3 120	3 268 470	0.0955
2023	16 084	19 204	3 637 119	0.5280
2024	24 095	43 299	4 020 744	1.0769

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektromobillar soni keskin oshgan. 2020 yilda atigi 131 dona elektromobil import qilingan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 24 mingdan oshgan. Natijada elektromobillarning umumiy avtotransportdagi ulushi 0,005 foizdan 1 foizdan oshiq darajaga yetgan. Bu mamlakatda ekologik toza transportga bo‘lgan qiziqish ortayotganini, infratuzilma (zaryadlash stansiyalari) kengayib borayotganini va davlat siyosatida yashil transportni rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotganini ko‘rsatadi.

Taklif va tavsiyalar

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyatga ega:

- Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish.
- Yashil startaplar uchun grantlar ajratish, venchur kapitalni jalb qilish.
- Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.
- Ta’lim muassasalarida “yashil texnologiyalar” fanlarini joriy etish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish.
- Yashil iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qishloq xo‘jaligi, transport va energetika sohalarini belgilash.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun huquqiy bazani mustahkamlash.

Xulosa

Innovatsion texnologiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Ularning keng joriy qilinishi O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yo‘nalish yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining hayot sifatini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ–4477-son Qarori.

2. UNDP Uzbekistan. “Green Economy Transition Report”, 2022.
3. OECD. “Green Growth Indicators 2023”.
4. European Commission. “Innovation for a Green Economy”, 2021.
5. World Bank. “Sustainable Development and Green Economy”, 2020.
6. Xalqaro ilmiy maqolalar (Google Scholar, Scopus bazalaridan).

MASOFAVIY BANK XIZMATLARI: AFZALLIKLARI VA XAVF-XATARLARI

Toshpo'latova Nodira Ilxon qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
Bank ishi va auditi yo'nalishi
2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17529017

Annotatsiya: Ushbu tezisda, O'zbekiston bank tizimi faoliyati, uning rasmiy manbalari, xizmat turlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, rasmiy sayt manzillari keltirilib, undagi xizmat ko'rsatishning aholi uchun qulayligi, hamda banklarning iqtisodiyotdagi roli, mijozlar uchun mavjud xizmat turlari ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar: mobil banking, texnologiya, iqtisodiyot, bank tizimi, kredit, biznes, internet, tranzaksiya, bank hisobi,

Kirish:

XXI asr bu "Texnologiyalar va innovatsiyalar" asri. Bugungi kunda innovatsiya va yangi texnologik o'zgarishlar kirib bormagan soha yo'q. Qishloq xo'jaligidan tortib, ta'lim, tibbiyot , iqtisodiyot, ekologiya, ishlab chiqarish yoki biznes, hattoki, kundalik turmush tarzimizda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga bank sohasida ham raqamlashtirish jadallik bilan rivojlanmoqda.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar bank tizimining ajralmas qismiga aylangan. D. J. Muzafarovich (2023) o'z tadqiqotida O'zbekistonda mobil to'lovlar tizimining jadal rivojlanayotganini, bu esa aholi uchun qulaylik va vaqt tejamkorligini ta'minlayotganini ta'kidlaydi.[1]

M.K.Avezov (2022) esa internet-banking xizmatlari tejamkor deb hisoblagan. Unga ko'ra, internet-banking qo'shimcha xarajatlar oldini oladi.[2]

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari[3]:

- Bank-Mijoz
- Internet-banking
- Mobil banking
- SMS-banking

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali kiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.
- Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o'z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi va pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar;
- hisobvarag‘idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;

kun davomida o‘tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma’lumot olish.

Mobil banking — bu tijorat banklari tomonidan mijozlarga mobil telefon orqali bank xizmatlarini masofadan turib ko‘rsatish tizimidir. Oddiy qilib aytganda mobil banking o‘z mijozlariga hohlagan joylari va vaqtlarida bankka bormasdan, pul o‘tkazmalari, hisoblarini boshqarish, soliq va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

Shu bilan birga har bir shahar yoki tumanda bank filiallarini ochish kabi xarajatlar oldini oladi. Mobil banklar orqali mijozlar bank tashkilotlariga borib soatlab navbat kutishda yoki operatorlarga bog‘lanishda qiyinchiliklarga uchramasdan o‘z moliyaviy tranzaksiyalarini oson amalga oshirishadi.

Birinchi bo‘lib Finlandiyada banklar 1990- yillarda o‘z mijozlariga onlayn xizmat ko‘rsatishni boshlagan. Deyarli barcha kundalik bank operatsiyalari onlayn tarzda amalga oshirilgan. Bundan tashqari, Finlandiyada biznes egalarininig 87.5 foizi onlayn banklardan to‘liq foydalanishgan[4].

O‘zbekistonda esa Internet va mobil banklar 2000-yilda shakllana boshlagan va mijozlariga onlayn xizmatlarni taklif qilgan. 2010- 2015 yillarda esa aholi uchun mobil banking xizmatlari paydo bo‘ldi va Click, Payme va Upay kabi ilovalar xizmatlaridan foydalanish boshlangan. Hozirda esa, aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, kredit olish va ularni to’lash, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda. Bu esa albatta o’z , mamlakatni ham ichki, ham tashqi aloqalarini rivojlantirishda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

1-jadval

Mobil banking tizimining SPOT tahlili[1]

Tahlil elementi	Mazmuni
Kuchli tomonlar (S – Strengths)	• Xizmatlarning tezkorligi va qulayligi • Bank filialiga bormasdan operatsiyalarni bajarish imkoniyati • 24/7 faoliyat yuritishi • Mijozlar uchun tranzaksiya xarajatlarining kamayishi
Muammolar (P – Problems)	• Ba’zi hududlarda internet sifati pastligi • Texnik nosozliklar yoki ilovalarning sekin ishlashi • Foydalanuvchilarning texnologik savodxonligi yetarli emasligi • Ayrim bank ilovalarida interfeys murakkabligi
Imkoniyatlar (O – Opportunities)	• Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi • Innovatsion to‘lov tizimlarini joriy etish • Xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiya imkoniyatlari • Raqobat tufayli xizmat sifatining oshishi
Tahdidlar (T – Threats)	• Kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar • Foydalanuvchi ma’lumotlarining o‘g‘irlanish xavfi • Firibgarlik holatlari

Tahlil natijalari ko’rsatib turibtiki, O’zbekistonda internet banking jadal rivojlanib bormoqda. Shunga qaramasdan, xavfsizlik, mijozlar savodxonligini oshirish ushbu sohani yanada gullashiga xizmat qiladi.

2-jadval

[1] Tijorat banklari mobil ilova ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zbekiston tijorat banklarining mobil ilovalari, ularning asosiy imkoniyatlari va xavfsizlik choralari[2]

№	Bank nomi	Ilova nomi	Asosiy imkoniyatlar	Qo‘shimcha qulayliklar	Xavfsizlik choralari
1	“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (NBU)	Milliy	Pul o’tkazmalari, valyuta ayrboshlash,	kommunal to‘lovlar, QR-to‘lov, omonat ochish	SMS-kod, Face ID, tranzaksiya monitoring tizimi
2	AITB “Ipak Yo‘li”	Ipak Yo‘li Mobile	Kredit to‘lovlari, xizmatlar uchun to‘lov, mikroqarz olish	Kartani onlayn bloklash, avtomatik to‘lov sozlamalari	PIN-kod, barmoq izi himoyasi, avtorizatsiya cheklovi
3	“TBC Bank”ATB	TBC UZ	To‘lovlar, pul o‘tkazmalari, valyuta ayirboshlash	Onlayn kredit olish, virtual karta yaratish, QR orqali to‘lov	Biometrik himoya, ikki bosqichli kirish, xavfli sessiyalarni avtomatik uzish
4	“Agrobank”ATB	Agrobank Mobile	Kommunal to‘lovlar, kartadan kartaga o‘tkazmalar, hisoblarni kuzatish	Mobil depozit va kredit kalkulyatori	Kuchli parol, SMS-tasdiqlash, vaqtinchalik sessiya cheklovi
5	“Hamkorbank”ATB	Hamkor Mobile	To‘lovlar, o‘tkazmalar, valyuta kurslari, hisoblarni boshqarish	Xizmat tariflarini ko‘rish, kartalararo tezkor o‘tkazma	Face ID, PIN-kod, 3D Secure tizimi
6	“Kapitalbank”ATB	Kapitalbank Mobile	To‘lov va o‘tkazmalar, kartani boshqarish, QR to‘lov	Onlayn kredit olish, cashback tizimi	Barmoq izi, SMS kodlash, maxsus xavfsizlik filtri
7	“Asaka Bank”ATB	Asaka Mobile	Kommunal va davlat xizmatlari uchun to‘lov, balansni tekshirish	Kartani onlayn bloklash, qo‘shimcha karta qo‘shish	2 bosqichli tasdiqlash, Face ID, vaqt cheklovi

[2] Tijorat banklari mobil ilova ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

8	“InFin Bank”ATB	InFin Mobile	To‘lov, o‘tkazma, valyuta ayirboshlash, hisoblarni boshqarish	Onlayn kredit va depozit arizalari	SMS-tasdiqlash, PIN-kod, biometrik himoya

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, O’zbekistonda deyarli barcha tijorat banklari o’zining xizmatlarini mobil ilovalar orqali ham keng yo’lga qo’ygan. Bu ilovalarda esa xavfsizlik choralariga alohida etibor berilgan ya’ni har bir mijoz o’z hisob varag’ini shaxsiy biometrik ma’lumotlari yoki maxfiy kodlari orqali ko’zatib boradi va moliyaviy amaliyotni amalga oshiradi.

Mobil bankingning yuqorida kursatilgan afzalliklariga qaramasdan bir qancha xavf-xatarlari ham mavjud. Mobil banking bevosita internet bilan bog’langanligi sababli, xakkerlar tomonidan hujumlar kuzatilishi mumkin. Bunda mijozlarning karta ma’lumotlari yoki parollari o’g’irlanishi mumkin. Bundan tashqari, onlayn banking xizmati dasturiy ta’minot hisoblanganligi sababli texnik nosozliklar yoki aloqa uzilishlari kuzatilishi mumkin. Bu esa to’lovlar kechikishiga yoki bekor bo’lishiga sabab bo’lishi mumkin. Shuningdek foydalanuvchilarning etiborsizligi yoki yetarli bilimga ega emasliklari sababli soxta bank havolalariga kirish, SMS- kodlarni begona shaxslarga berish yoki noto’g’ri pul o’tkazmalarini amalga oshirib, o’z hisoblarini xavf ostiga qo’yishi yoki yo’qotishi mumkin.

Mobil banking tizimidagi bu xavflar asosan inson omili tufayli vujudga keladi. Shuning uchun, bank o’z mijozlarining savodxonligini oshirishi, internet banklarining ommabopligini ta’minlashi, ya’ni, yoshi kattalar ham, yoshlar ham birdek foydalana olish imkoniyati yaratish bu muammolarning yechimi bo’la oladi. Bu muammoni bartaraf etish, banklarning aholiga sifatli xizmat qilishini ta’minlab, banklarning barqaror rivijlanishiga olib keladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, so’nggi yillarda O’zbekiston bank tizimida mobil banklar jadallik bilan rivojlanib kelmoqda. Tashkil qilingan har bir bank o’z xizmatlarini kengaytirish uchun faoliyatini raqamlashtirishga, qulay xizmat turlarini yaratishga harakat qilmoqda. Bu esa aholi uchun yangi va qulay imkoniyatlarni taqdim etib, mamlakat iqtisodiyotining ham rivojlanishiga katta hissa qo’shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. J. Muzafarovich. O’zbekistonda mobil to’lovlarning rivojlanishi// “Raqamli Iqtisodiyot” ilmiy-electron jurnali. 4-son, 43-55s.
2. M.K.Avezov. Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari// “Scientific progress” jurnali. 2022y, 808-814s
3. Abdumannono.B.M, Yoldoshov. SH.SH . Masofadan bank xizmatlarini ko’rsatish masalari// Journal of Marketing, Business and Management. Volume 1, Issue 8 (November), 11-15 s.
4. Juhani Myllynen "Modern banking solutions changing business and people"
5. Ipak Yo‘li Bank https://ipakyulibank.uz.
6. TBC Bank / TBC UZ https://tbcbank.uz.
7. Agrobank https://agrobank.uz.
8. Hamkorbank https://hamkorbank.uz.
9. Kapitalbank https://kapitalbank.uz.
10. Asaka Bank http://www.asakabank.uz.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR ASOSIDA MOLIYA-KREDIT TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH

Xidirov Muzaffar Abdimominovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Moliya va bank ishi kafedrasi o`qituvchisi
O‘rinboyev Matyoqub Elbek o`g`li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Iqtisodiyot ta’lim yo’nalishi
3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17529026

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar asosida moliya-kredit tizimini modernizatsiya qilish” haqida ma’lumotlar beriladi. Asosan bunda biz raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy qilishdagi ijobiy natijalar haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: modernizatsiya, blokchain, fintech, big data, innovatsiyalar, moliya tizimi, kredit tizimi, modernizatsiya, sun’iy intellekt, onlayn kreditlash, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, raqamlashtirish, kredit scoring, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

Kirish: Globallashuv jarayoni jadal kechayotgan so‘nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadallashmoqda. Bu raqamli transformatsiya davrida moliya va kredit tizimi ham tubdan o‘zgarishni boshdan kechirmoqda. Chunki moliyaviy soha iqtisodiyotning asosiy qismi bo‘lib, undagi islohotlar ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish va investitsiya jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish, elektron to‘lov tizimlarini kengaytirish, fintech yechimlarni qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, balki iqtisodiy faoliyatning shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Asosiy qism: Moliya va kredit tizimini modernizatsiya qilish zarurati: An’anaviy moliya tizimi ko‘p hollarda qog‘oz hujjatlar, ortiqcha vaqt sarfi va inson omiliga bog‘liq xatoliklar bilan kechgan. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonlarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi, shaffoflikni ta’minlaydi va korrupsiya xavfini kamaytiradi. An’anaviy moliya tizimlari ko‘plab byurokratik jarayonlar, inson omiliga bog‘liqlik va ma’lumot almashishdagi kechikishlar bilan tavsiflanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda esa bunday tizimlar raqobatbardosh bo‘la olmaydi. Shu bois moliya sektori raqamli yechimlarga o‘tmoqda.

Masalan, mobil banking, internet-banking, onlayn kreditlash, elektron to‘lov tizimlari va fintech startaplar moliyaviy xizmatlarni keng ommaga yetkazishda yangi bosqichni boshlab berdi. Moliya tizimini modernizatsiya qilish orqali mijozlarga masofadan turib xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi, kreditlash jarayonlari tezlashadi, ma’lumotlarning xavfsizligi esa yuqori darajada kafolatlanadi.

Raqamli texnologiyalarning moliya tizimidagi o‘rni: Raqamli texnologiyalar moliya tizimining barcha yo‘nalishlariga chuqur kirib bormoqda. Fintech texnologiyalari moliyaviy xizmatlarni yangi bosqichga olib chiqib, mijozlar uchun arzon, qulay va tezkor imkoniyatlarni yaratmoqda. Mobil va internet banking xizmatlari orqali mijozlar 24 soat davomida barcha moliyaviy amaliyotlarni masofadan turib bajarish imkoniga ega bo‘lmoqda. Blockchain texnologiyasi ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va xavfsizligini ta’minlab, to‘lov tizimlarida ishonchlilikni oshiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida banklar mijozlarning kreditga layoqatliligini tahlil qiladi, firibgarlik holatlarini oldini oladi va risklarni samarali boshqaradi.

Innovatsiyalar orqali kredit tizimini takomillashtirish: Innovatsion texnologiyalar kredit tizimining takomillashuviga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Onlayn kreditlash platformalari orqali mijozlar uyidan chiqmagan holda ariza topshirish, elektron imzo bilan tasdiqlash va kredit olish imkoniga ega bo‘lyapti. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan scoring tizimlari qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini tez va aniq baholaydi. Yagona raqamli kredit tarixlari bazasi esa banklar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi imkonini berib, kredit

risklarini kamaytiradi. Shuningdek, mikrokreditlar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali yosh tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston tajribasi va istiqbollari: O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda moliya tizimini raqamlashtirishda muhim natijalarga erishildi. “Humo” va “UzCard” milliy to‘lov tizimlarining integratsiyasi, “Payme”, “Click”, “Paynet” kabi raqamli to‘lov tizimlarining keng qo‘llanilishi, “Bank-mijoz”, “Mobile banking” va “Internet banking” xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy faoliyatini soddalashtirdi. Shuningdek, kriptovalyuta va raqamli aktivlar bozorini tartibga soluvchi huquqiy asoslar ham yaratilmoqda . Bu jarayonlarning barchasi mamlakat moliya sektorini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish yo‘lida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga hozirda tajribalarning natijalari ham ijobiy ta’sir ko`rsatmoqda shuningdek xorijiy mamlakatlarning tajribalari o`rganilmoqda masalan; Shvetsiya dunyoda eng raqamli moliya tizimlaridan biriga ega. Aholining deyarli 98 foizi naqd pulsiz to‘lovlardan foydalanadi. “Swish” mobil ilovasi orqali har bir fuqaro real vaqt rejimida pul o‘tkazishi mumkin. Markaziy bank esa raqamli milliy valyuta — e-kronani sinovdan o‘tkazmoqda.

Xulosa: Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar moliya hamda kredit tizimini tubdan o‘zgartirib, uni yanada samarali shuningdek qulay, shaffof va tezkor qiladi. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham yangi iqtisodiy imkoniyatlarni eshikini ochmoqda..Raqamlashtirish jarayonlari orqali moliyaviy xizmatlar aholining barcha qatlamlariga asta-sekin joriy qilinmoqda , banklar faoliyati optimallashtirilmoqda, iqtisodiyotning raqamli eko tizimi shakllanmoqda. Shu sababli, bu jarayonlar mamlakatimizning raqamli iqtisodiyot sari dadil qadam tashlashi, moliyaviy sektorda innovatsion yondashuvlarni kengaytirishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Takliflar:

1) Banklararo ma’lumot almashinuv tizimini blokchain asosida yaratish. Singapurda banklar blokchain orqali kredit ma’lumotlarini almashadi va bu kredit riskini 30 foizga kamaytirgan. O‘zbekistonda “Open Banking” tizimini blokchain bilan integratsiya qilish banklararo ishonch va xavfsizlikni kuchaytiradi.

2) Kiberxavfsizlikni mustahkamlash. 2023-yilda dunyo bo‘yicha moliyaviy sohadagi raqamli hujumlar soni 22% ga oshgan (Statistika ma’lumotlari). Shu bois, O‘zbekistonda “Milliy kiberxavfsizlik markazi” faoliyatini moliya sektori bilan integratsiya qilish muhim.

3) Mobil banking va raqamli to‘lov tizimlarini qishloq joylarda kengaytirish. O‘zbekistonda 2024-yil holatiga ko‘ra, aholi to‘lovlarining 65 foizi raqamli shaklda amalga oshirilmoqda, ammo qishloq joylarda bu ko‘rsatkich 35 foizdan oshmaydi. Shu sababli, “Raqamli moliya infratuzilmasi” loyihasi orqali barcha hududlarda internet qamrovini kengaytirish va mobil banking xizmatlarini soddalashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodmonov, Sh., & G‘ofurov, U. (2022). Bank ishi va moliya bozorlarini raqamlashtirish nazariyasi. – Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti.
2. T.Malikov, O.Olimjonov Toshkent (IQTISOD-MOLIYA) 2019
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmoni.
4. Abidov, A. (2023). Raqamli texnologiyalar va ularning moliya sohasidagi qo‘llanilishi. O‘zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy tendensiyalari.
5. https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking services.

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI

Najimadinov Ravshanbek Dushamboyevich
Angren universiteti
“Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.17529046

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sayyoramizda ekologik muvozanatning buzilishi global tus oldi. Bu davrda rivojlangan davlatlar sanoatni, qishloq xo‘jaligini, transport va kimyo tarmoqlarini jadal sur’atlarda rivojlantirishni boshladi. Natijada ishlab chiqarish hajmining ortishi va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi shiddat bilan kechdi. Bu jarayon o‘z navbatida energiya va yoqilg‘i resurslariga bo‘lgan talabni keskin oshirdi.

Inson faoliyatining shiddatli o‘sishi tabiiy muhitga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. So‘nggi yuz yil ichida yer sharida dehqonchilikka yaroqli maydonlar to‘rtdan bir qismga qisqardi, chunki katta hududlar uy-joylar, sanoat korxonalari va yo‘llar qurilishi bilan band etildi. Shuningdek, insonning yog‘och mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, shu bilan birga ko‘p sonli yong‘inlar natijasida jahon bo‘yicha o‘rmonlarning uchdan ikki qismi yo‘q qilindi. Bu ekologik tizimning barqarorligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Har yili ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida taxminan 20 trillion tonna xomashyo va resurslar aylanadi. Bu miqyosdagi resurs harakati tabiiy muhitning buzilishiga, atmosferadagi kislorod miqdorining 10-15 milliard tonnagacha kamayishiga olib kelmoqda. Natijada atmosferaning tabiiy tozalanish qobiliyati pasayib, biosferadagi hayotiy jarayonlarga salbiy ta’sir kuchaydi.

Suv resurslari holati ham shundan kam emas. Oxirgi yarim asr mobaynida yer sharida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan toza ichimlik suvi miqdori 60 foizga kamaydi. Har yili sanoat korxonalarida foydalanilgan 150-160 kub kilometr suv daryo va ko‘llarga chiqindili holda oqiziladi. Shu bilan birga, turli texnogen falokatlar va texnik nosozliklar sababli har yili okean suvlariga taxminan 25-30 million tonna neft aralashmasi tushmoqda.

Sanoat tarmoqlari suv iste’molining asosiy qismiga ega: 1 tonna po‘lat ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 300 kub metr, 1 tonna qog‘oz ishlab chiqarish uchun esa 900 kub metr suv sarflanadi. Umuman olganda, dunyo bo‘yicha foydalanilayotgan suvning 70 foizi qishloq xo‘jaligida, 20 foizi sanoatda va 10 foizi uy xo‘jaliklarida sarflanmoqda. Mutaxassislar prognozlariga ko‘ra, agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 2030 yilga kelib dunyo aholisining qariyb 47 foizi toza ichimlik suvi tanqisligi sharoitida yashashiga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar inson faoliyatining tabiat qonunlariga zid ravishda amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi. Buning natijasida dunyo iqtisodiyotida ekologik muvozanatni inkor etuvchi “jigarrang iqtisodiyot” tushunchasi vujudga keldi. Hozirgi kunda insoniyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri ana shu “jigarrang” modeldan voz kechib, tabiiy resurslarni asrash va barqaror o‘sishni ta’minlovchi “yashil iqtisodiyot” yo‘liga o‘tishdir. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni tiklash, balki insoniyatning kelajakdagi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi XX asrning 90-yillarida shakllangan bo‘lib, insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini muqobillashtirish asosida atrof-muhitning tozaligini, resurslardan va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan samarali foydalanish natijasida aholi turmush darajasini va sog‘ligini yaxshilashdan iborat. Keyinchalik shakllangan “yashil shahar”, “yashil transport”, “yashil o‘sish”, “yashil hudud”, “yashil kimyo”, “yashil texnologiya” tushunchalari “yashil” iqtisodiyotni shakllantiruvchi yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘tgan asrning 60 yillaridan boshlab, sanoatni, qishloq xo‘jaligini va transportni jadal rivojlanishi asosida sayyoramizda, jumladan, O‘zbekistonda ham ekologik xolatni buzilishi boshlandi. Insoniyat doimo shakllanayotgan salbiy xolatlarni oldini olishga, o‘z manfaatiga moslashga xarakat qiladi va ko‘plab mavjud muammolar o‘z yechimini topadi. Jumladan, bugungi kundagi “yashil” iqtisodiyotga o‘tish o‘ta dolzarbdir.

Atrof-muhitni yaxshilashga bag‘ishlangan birinchi butun jahon konferensiyasi 1972-yil Stokgolm shahrida o‘tkazildi va unda 113 ta mamlakatlardan mutaxassislar qatnashdi [2].

Konferensiyada inson va tabiat o‘rtasidagi ekologik muammolar muhokama qilindi va 26 ta bo‘limdan iborat atrof-muhitni muxofaza qilish tamoyillari asosida Deklarasiya kabul qilindi hamda ularni amalda

ko‘llanilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Shuning asosida BMT atrof muhitni muxofaza qilish - YUNEP dasturi qabul qilindi.

Ob-havo o‘zgarishini atrof-muhitga ta’siri masalalari 1997-yilda Yaponiyaning Kioto shahrida o‘tkazilgan 3-xalqaro konferensiyada muhokama qilinib, “Kioto protokoli” qabul qilindi. Unda yer shari bo‘yicha sanoatni rivojlantirish asosida shakllanadigan zararli gazlar miqdori 2015-yilda, 1997-yilga nisbatan 5 % kamaytirish belgilangan [3].

Yuqorida qayd etilgan konferensiyadagi ko‘rsatmalar shunday ilmiy tadqiqotlar asosida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar yetarli darajada tajribalarga ega.

Xitoy bugungi kunda dunyodagi eng yirik ishlab chiqarish potensialiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning sanoat quvvati yuqori darajada rivojlangani bois, chiqindilar hajmi ham juda katta ulushni tashkil etadi. Shu bilan birga, Xitoy davlatining xususiyati shundaki, u nafaqat ichki chiqindilarni qayta ishlaydi, balki xorijiy mamlakatlardan ham turli xomashyo ko‘rinishidagi chiqindilarni sotib oladi va ularni qayta ishlash orqali iqtisodiy foyda ko‘radi.

AQSH sanoati rivojlangan issiqlik energetika resurslariga boy mamlakat bo‘lib, uning 15 shtatida ko‘mir qazib olinadi, 26 ta shtatida mashinalar ishlab chiqariladi, elektronika sohasi rivojlangan, yo‘lovchi tashiydigan samolyotlarning 55-60 % shu mamlakatda ishlab chiqariladi. AQSH da bir yilda 3 trln. kVt /s elektroenergiya ishlab chiqariladi va uning 80 % xususiy elektrostansiyalarga to‘g‘ri keladi. Elektroenergiyaning 60 foizi IES larda, 20 % AES va 20 % gidroelektrostansiyalarda hamda qayta tiklanadigan energiya hisobiga to‘g‘ri keladi [4].

Avstriyada va Isroilda suvni tozalash texnologiyalari, Daniyada muqobil energiya ishlab chiqarish texnologiyalari, Germaniya va Xitoyda havoni tozalaydigan texnologiyalar, Ispaniya va Daniyada quyosh energiyasi bo‘yicha texnologiya ishlab chiqarish va eksport qilish keng yo‘lga qo‘yilgan.

Rossiya – tabiiy resurslarga boy bo‘lgan mamlakat hisoblanadi. Barcha mamlakatlardek Rossiyada ham energoresurslarga bo‘lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda [1]. Uning issiqlik energetika kompleksi mamlakat iqtisodiyotini asosiy qismini tashkil qiladi, yani yalpi ichki maxsulotning 26-28 foizi shu kompleksga to‘g‘ri keladi. Mamlakat eksportining 70 % shu issiqlik energetika kompleksiga to‘g‘ri keladi. Rossiya davlati katta miqdordagi gaz zahirasiga ega bo‘lib, dunyoda yetakchi mamlakatlardan hisoblanadi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, an’anaviy iqtisodiy rivojlanish asosiy e’tiborni tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratadi. “Yashil” iqtisodiyotda esa an’anaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalari ekologik natijalarni yaxshilaydigan iqtisodiyotni shakllantirish uchun moslashtiriladi. Boshqacha aytganda, “yashil” rivojlanish bu – barqaror rivojlanishdir. Ya’ni, “yashil” o‘sish iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirishni anglatadi.

Hozirgi davrda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri global miqyosdagi ekologik va energetik muvozanatning keskinlashuvi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu holat, avvalo, dunyoda energiya iste’molining yildan-yilga ortib borishi, an’anaviy yoqilg‘i-energiya resurslarining tabiiy zaxiralari kamayib borayotgani, ularning bozordagi narxi oshib borayotgani hamda an’anaviy energetika sanoatining atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’siri kuchayib borayotgani bilan izohlanadi.

Shu sharoitda barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun energetika tizimini qayta ko‘rib chiqish, ya’ni uglevodorodlarga asoslangan iqtisodiy modeldan voz kechib, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng ko‘lamda foydalanishga o‘tish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Quyosh, shamol, biomassa va geotermal energiya kabi ekologik toza manbalar nafaqat energiya xavfsizligini ta’minlaydi, balki tabiiy muhitning ifloslanishini kamaytiradi va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalga oshirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новак А.В. Основние положения энергетической стратегии России до 2035 года // Випуск, 2. 2014, 7 с.
2. https://www.un.org/ru/conferences/environment/stockholm1972
3. https://unfccc.int/resource/docs/publications/infokit_2003_ru.pdf

4. https://nap.nationalacademies.org/read/25111/chapter/13
5. www.un.org.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY SANOATNI JADAL RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Ne‘matov Shoxruxbek Ma‘murjon o‘g‘li
TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sh.nematov@tsue.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.17529067

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida milliy sanoatni jadal rivojlantirish tadqiq etilgan. Xususan, milliy sanoatni yashil mexanizmlar asosida baholash va rivojlantirish modeli, yashil sanoatni jadal rivojlantirishning kompleks mexanizmlar tizimi hamda sanoat sohasida yashil mexanizmlarni amalga oshirish mavjud muammolar va ularning ilmiy asoslangan yechimlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, yashil sanoat, milliy sanoat rivojlanishi, sanoatning yashil mexanizmlari, yashil bank, yashil loyihalar, yashil iqtisodiyot.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bosqichiga qadam qo‘ygan bir paytda, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini milliy sanoat tizimiga joriy etish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat sanoatining tez sur’atlarda rivojlanishi, energiya va resurslar iste’molining ko‘payishi, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning kuchayishi sanoat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy sanoatni “yashil” texnologik yo‘nalishlarga transformatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod izini qisqartirish davlat iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Global iqtisodiyotdagi zamonaviy tendensiyalar milliy sanoat rivojlanishining yangi modeliga – yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan innovatsion sanoatlashuvga o‘tishni taqozo etmoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli barqaror asoslarini yaratish vositasi hamdir. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda “yashil energiya”, “yashil moliya”, “yashil sanoat” kabi yo‘nalishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanmoqda.

Mamlakat sanoati YAIMning 26-28 foizini tashkil etayotgan bo‘lsa-da, u hali ham energiya va resurslar ko‘p sarflanadigan modelga tayanadi. Shu sababli, sanoatning energiya samaradorligini oshirish, uglerod izini qisqartirish va innovatsion resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishni ta’minlaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori qabul qilingan bo‘lib, unda sanoat tarmog‘ining energiya samaradorligi va resurs tejamkorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1].

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ilk bor BMTning “Barqaror rivojlanish dasturlari”da shakllangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsiz va ijtimoiy adolatli usulda ta’minlashdir. Bu konsepsiyada sanoat faoliyatida quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi [2]:

- resurs tejamkor va kam chiqindili texnologiyalardan foydalanish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol, biomassa) keng foydalanish;
- sanoat chiqindilarini qayta ishlash va “yaponcha aylanma iqtisodiyot” modelini joriy etish;
- ishlab chiqarish zanjirlarini ekosamarador yo‘nalishda qayta tuzish.

Shuningdek, yashil sanoat rivojlanishi mamlakatning uglerod-neytral o‘sish modeliga o‘tishini ta’minlaydi va xalqaro “yashil bozorlar”ga kirish imkoniyatini yaratadi.

Tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizda:

- sanoat korxonalarining 60 foizdan ortig‘i hali ham eski energiya tizimlariga bog‘liq;
- qayta tiklanuvchi energiya hissasi umumiy sanoat energiya balansida 12-14 foizdan oshmagan;
- “yashil moliya” va “yashil obligatsiyalar” bozori hali shakllanish bosqichida.

Bu holat “yashil sanoat mexanizmlari”ni amaliy jihatdan samarali ishlatish uchun iqtisodiy, huquqiy va institusional tuzilmalarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy sanoatni yashil mexanizmlar asosida baholash va rivojlantirish modelini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$GIM = \frac{E^{0,4} \cdot G^{0,3} \cdot I^{0,3}}{K}$$

Bu yerda, *GIM* – yashil sanoat modeli, *E* – iqtisodiy samaradorlik, *G* –ekologik samaradorlik, *I* – innovatsion faollik, *K* – normalashtiruvchi koeffitsiyent bo‘lib, hududlar kesimidagi soha sektoriga moslashtiriladi.

Bu usul sanoat tarmoqlarining “yashil transformatsiya” salohiyatini aniqlash va davlat qo‘llab-quvvatlovi ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yashil sanoatni jadal rivojlantirish uchun quyidagi kompleks mexanizmlar tizimi taklif etish mumkin:

1) Institusional mexanizmlar:
- “Yashil sanoat agentligi”ni tashkil etish;
- korxonalar uchun “yashil sertifikatlashtirish” va ISO 50001 standartlarini joriy etish.

2) Moliyaviy mexanizmlar:
- “yashil lizing” va “yashil kredit” mahsulotlarini joriy etish;
- ekologik fondlar orqali foiz subsidiyalari va soliq imtiyozlari berish.

3) Texnologik mexanizmlar:
- energiya tejamkor uskunalarni import qilib, mahalliylashtirish;
- sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ikkinchi xom ashyo aylanmasi tizimini yaratish.

4) Ijtimoiy mexanizmlar:
- “yashil mehnat” tizimini joriy etish va kadrlar malakasini oshirish;
- aholi orasida ekologik madaniyatni kuchaytirish.

Hozirgi sharoitda O‘zbekiston sanoat sohasida yashil mexanizmlarni amalga oshirishni cheklovchi bir qator tizimli muammolar mavjud:

- “yashil moliya” instrumentlari hali yetarlicha rivojlanmagan (yechim: yashil moliya markazini tashkil etish va uning funksiyasi sifatida yashil loyihalarni baholash, kreditlash va ESG standartlariga muvofiq sertifikatlashtirishni joriy etish, davlat kafolati ostida yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish – ya’ni, sanoat korxonalariga energiya tejamkor loyihalar uchun maxsus obligatsiya chiqarish huquqini berish, “Yashil bank” dasturini amalga oshirish: u orqali tijorat banklariga foiz subsidiyalari ajratiladi, xalqaro moliya institutlari (IFC, EBRD, GCF) bilan hamkorlikda yashil kredit liniyalarini ochish va milliy “Green Fund Uzbekistan”ni tashkil etish);
- sanoat korxonalarida energiya va resurs sarfini hisobga olish mexanizmi to‘liq avtomatlashtirilmagan (yechim: korxonalarda “Energiya menejmenti axborot tizimi (EMIS)”ni joriy etish – bu avtomatik sensorlar orqali har soniyada energiya sarfini aniq monitoring qilish imkonini beradi, ISO 50001 standarti asosida korxonalarda energiya auditlarini majburiy qilib joriy etish, davlat tomonidan “yashil hisobot” tizimini yaratish, xususiy sektorda raqamli hisob tizimlarini joriy etgan korxonalar uchun soliq chegirmalari va grantlar berish orqali rag‘batlantirish);
- ekologik talablar ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilinmagan (yechim: har bir sanoat tarmog‘i uchun ekologik standartlar kodeksi (Eco Code) ishlab chiqish va uni litsenziyalash jarayoniga kiritish, yangidan qurilayotgan korxonalar uchun ekologik dizayn (eco-design) talablarini majburiy normativa sifatida belgilash, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida “yashil ishlab chiqarish auditi”ni amalga oshirish va ekologik sertifikat tizimini joriy etish, korxonalarda ekologik investitsiyalar miqdoriga bog‘liq soliq preferensiyalar shkalasini joriy etish (masalan, chiqindilarni qayta ishlashga sarflangan mablag‘larni soliq bazasidan chiqarish));
- yashil texnologiyalarni lokallashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmayapti (yechim: hududlarda “Yashil innovatsiya markazlari” tashkil etish va ularni universitetlar hamda sanoat korxonalari bilan integratsiya qilish, ilmiy muassasalar uchun “yashil startaplar” tanlovi asosida grant dasturlari tashkil etish, yashil texnologiyalarni mahalliylashtirish uchun xorijiy tajribani joriy etuvchi R&D konsorsiumlar tuzish (masalan, Germaniyaning Fraunhofer institutlari tajribasi asosida), innovatsion

faoliyatga oid “GreenTech Innovation Voucher” tizimini joriy etish – ya’ni, kichik va o‘rta korxonalarga ilmiy ishlanmani amaliyotga tatbiq qilish uchun davlat granti berish).

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat siyosatini modernizatsiya qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekotizim barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, yashil sanoat mexanizmlari milliy investitsiya muhitini yaxshilaydi va xalqaro ESG standartlariga o‘tishni ta’minlashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori.
2. United Nations Development Programme (UNDP). https://sdgs.un.org/statements/united-nations-development-programme-undp
3. https://stat.uz.
4. https://lex.uz.

TA’LIM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI VA YANGI KOMPETENSIYALAR

Omondavlatova Fotima Otabekovna
Omondavlatova ZuhraOtabekovna
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
Iqtisodiyot yo’nalishi talabalari
E-mail:@omondavlatovafotima, @omondavlatovazuhra
Tel:+998954707678
https://doi.org/10.5281/zenodo.17531307

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqmli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati hamda qulayliklari yoritiladi.Maqola raqamli iqtisodiyotni yaxshilash jarayonida ta’lim sohasida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va uning electron ta’limdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritiladi .

Kalit so’zlar: raqmli iqtisodiyot, ta’lim,texnologiya,elektron ta’lim,innovatsiya

Аннотация: В данной статье рассматриваются важность и преимущества использования цифровых технологий в образовании в условиях современной цифровой экономики. В статье рассматривается эффективное использование информационных технологий в образовании и их значение в электронном обучении в процессе совершенствования цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, образование, технологии, электронное обучение, инновации.

Abstract: This article discusses the importance and benefits of using digital technologies in education in the current digital economy. The article discusses the effective use of information technologies in education and its importance in e-learning in the process of improving the digital economy.

Keywords: digital economy, education, technology, e-learning, innovation

Kirish

XXI asrda raqamli iqtisodiyot jamiyatning barcha sohalarida, shuningdek ta’lim sohasiga ham chuqur kirib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali, ochiq va innovatsion qilishga xizmat qilmoqda.Bu jarayonda nafaqat o‘quv dasturlari, balki ta’lim tizimining boshqaruvi ham yangilanmoqda. Bugungi globallashuv va innovatsiyalar davrida raqamli iqtisodiyot barcha sohalar singari ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.Shuningdek, axborot texnologiyalari rivoji, sun’iy intellekt, onlayn platformalar va raqamli resurslarning keng qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yangi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek,"Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish - kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

BMT va Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot XXI asrda iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Ta’lim sohasi ham bu jarayondan mustasno emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivoji ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘quvchilarda yangi kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda. Asosan, O‘zbekistonda 2000-yillarning boshlaridayoq raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Jumladan, O‘zbekistonda 2013-2020-yillarda Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi, 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Milliy Harakatlar strategiyasi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va so‘nggi “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” 2022-yilda milliy iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyotga aylantirish va 2022-yilda amalga oshirilmoqda. umumiy.Raqamli iqtisodiyotga qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda katta o'zgarishlarga olib kelgan va serilarli darajada o'sib ketgan. Yangi texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilodari bilan shaxsiy muloqotni minimalizatsiyalashga yordam berdi, korxonalar va jismoniy shaxslarga sarajatlarni kamaytirish, shuningdek, o'zaro muloqotni tez va oson yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratdi. Natijada, tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki electron iqtisodiyot paydo boladi.

Ta’lim sohasida texnologik rivojlantirishni kuchaytirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish zarur.O’quv jarayonini texnologiyalar samarali qiladi hamda o’quv jarayonini innovatsiyalsh va o’quvchilarga faol ta’lim imkoniyatlarida o’z aksini topadi. Ta’lim jarayonidagi axborot texnologiyalari ya’ni onlayn platformalrdan foydalanish imkonini yaratadi.O’quvchilarni rivojlantirishda electron kitoblar,veb-saytlar,onlayn darslar juda ham kerakli bo’lib o’zlarini rivojlantirishda yordam beradi.Axborot texnologiyalari ta’lim tizimida o’quvchilarning dars faoliyati davomida o’quv manbalar oson takliflar qilishi mumkin shuningdek ,maqolalar ,electron kitoblar,darsliklar va materiallar o’quv mashg’ulotlarini boshqarishga xizmat qiladi.

Global pandemiya boshlanganidan buyon raqamli texnologiyalarning ahamiyati va samarali raqamlashtirish siyosati yaxshi namoyon bo‘ldi. Darhaqiqat, pandemiya davrida jamiyat va biznes asosan raqamli texnologiyalar yordamida faoliyat yurita oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, xususan, O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotni global jarayonlarga integratsiyalash imkoniyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, amalga oshirilayotgan islohotlar va O‘zbekistonni kelgusi besh yilga mo‘ljallangan yangi Rivojlanish strategiyasida mamlakatimizda asosiy sohalarni raqamlashtirish, haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-2021-yillarda Axborot va kommunikatsiya sohasida yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 2021-yilda 11,8 trillion so‘mga (1 milliard AQSH dollaridan ortiq) yetdi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda IT-parklar tashkil etilganidan buyon soha eksporti hajmi 50 barobar oshib, 46 million AQSH dollariga yetdi. Bog‘ aholisi soni 147 nafardan 500 nafarga ko‘paydi, 300 dan ortiq yangi korxona ochildi, 8,5 mingta yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rni yaratildi. Ayni paytda IT-parklarda 11 mingdan ortiq yoshlar mehnat qilmoqda. 2017-yildan buyon mamlakatimizda optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi sezilarli darajada kengayib bormoqda. Masalan, 2017-2022-yillarda qariyb 6 barobar ko‘payib, 2022-yil yanvar holatiga ko‘ra 118 ming kilometrga yetdi .2017-yildan beri xalqaro tarmoqlarning umumiy o‘tkazish tezligi 28 baravardan ko‘proq – 2022 yil yanvarida 64,2 dan 1800 Gbit/s gacha oshirildi .2022-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi sohasini isloh qilish va sohani raqamlashtirish natijasida davlat xizmatlari 56 foizga interaktiv davlat xizmatlari portali (elektron hukumat portali) orqali ko‘rsatilmoqda. Mamlakatimizning “Elektron hukumat” platformasidagi (my.gov.uz) davlat xizmatlari soni 307 taga yetdi va 1,3 million fuqaro bunday elektron davlat xizmatlaridan faol foydalanmoqda. Holbuki, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilarining umumiy soni 27,2 million kishiga yetdi. Shu bilan birga, sohada aniqlangan zaifliklar va muammolardan so‘ng hukumat global pandemiya ta’sirida raqamlashtirish milliy strategiyasini qayta ko‘rib chiqdi va yangiladi.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta’lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e’tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlar uchun davlat budjetidan xarajatlar so‘nggi 6 yilda **4,3** baravarga oshirildi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2016-yildagi **5 211** tadan 2021-yilga kelib **19 316** taga, maktablar soni **9 719** tadan **10 289** taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta’lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb **4 baravar**ga oshirildi, OTM soni **70 tadan 191 taga** yetkazildi, oliy ta’limdan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi **27,7 foizdan 67 foizga,** maktablardagi malakali oliy ma’lumotli o‘qituvchilar ulushi **81,8 foizdan 87,8 foizga**, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasi **9 foizdan 38 foizga** yetkazildi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta’limda qamrov darajasini hozirgi **67 foizdan 80 foiz**ga yetkazish, **7 ming**dan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha **1,2 million** o‘quvchi o‘rnini yaratish,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o‘quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko‘zda tutildi. Shuningdek, oliy ta’limda qamrov darajasini **50 foiz**ga, nodavlat OTMlar sonini kamida **50** taga yetkazish belgilab olindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnalogiyalariga ega bo’lish zarur va shart. Bu bizga yukalishning eng qisqa yo’lidir.”

Ta’lim sohasida raqamli iqtisodiyotning roli juda muhim, chunki u bilim olish, uzatish va boshqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Quyidagi asosiy jihatlarni keltirish mumkin:

1.Bilimga tezkor kirish imkoniyati .Raqamli iqtisodiyot vositalari (onlayn kutubxonalar, elektron darsliklar, ma’lumot bazalari) orqali talabalar va o‘qituvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda kerakli bilim manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Ta’lim sifatini oshirish

Sun’iy intellekt, virtual laboratoriyalar, onlayn test tizimlari va interaktiv platformalar o‘quvchilarning bilimini yanada chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayonini samarali qiladi.

3. Uzluksiz ta’lim imkoniyati

Raqamli iqtisodiyot sharoitida insonlar hayot davomida ta’lim olishlari mumkin (lifelong learning). Masofaviy kurslar, onlayn seminarlar va treninglar bunga sharoit yaratadi.

4. Yangi kompetensiyalarni shakllantirish

Talabalarda raqamli savodxonlik, ma’lumotlarni tahlil qilish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Bu kelajakda ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

5. Boshqaruv jarayonini soddalashtirish

Elektron jurnal, raqamli reyting tizimi, onlayn monitoring kabi vositalar ta’lim jarayonini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

6. Global integratsiya

Raqamli iqtisodiyot ta’lim sohasini xalqaro darajaga olib chiqadi. Talabalar xorijiy universitetlarning ochiq kurslaridan foydalanib, global ta’lim jarayoniga qo‘shilishlari mumkin.

Yangi kompetensiyalar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun o‘quvchi va talabalar koplab komptensiyalarni o’rganishlari, bular quyidagilar:

Raqamli savodxonlik. Axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish(oddiy qilib aytganda raqamli savodxon odam, kompyuter, plashetlardan yaxshi foydalana olishi zarur).

Kreativ va innovatsion fikrlash. Muammolarga yangicha yondashish va kreativ yechimlarni taklif qilish(bu yangi, noodatiy, samarali va original g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga yangicha yondashuv topish va mavjud jarayonlarni yaxshilash qobiliyatidir).

Tanqidiy fikrlash. Axborotning ishonchliligini baholash va tahliliy qaror qabul qilish(bu insonning o‘ziga kelayotgan ma’lumot, fikr yoki g‘oyani shunchaki qabul qilib olmay, balki uni tahlil qilish, solishtirish, dalillarga asoslab baholash va xulosaga kelish qobiliyatidir).

Axborot xavfsizligi. Shaxsiy va jamoaviy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalari(bu ma’lumotlarni ruxsatsiz kirish, o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki tarqatilishdan himoya qilish tizimi va choralari majmuasidir).

Kommunikatsiya va hamkorlik. Onlayn muhitda jamoaviy ishlash, ko‘p tillilikni rivojlantirish(bu insonlar o‘rtasida o‘zaro aloqa qilish va birgalikda ishlash jarayonidir).

Moslashuvchanlik va lifelong learning. Tez o‘zgarayotgan mehnat bozoriga moslashish va doimiy ravishda yangi bilimlarni egallash(Moslashuvchanlik — bu insonning o‘zgarayotgan sharoitlarga, vaziyatlarga yoki talab va ehtiyojlarga moslasha olish qobiliyatidir.Life-long learning — bu odamning hayoti davomida doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallab borishga intilishi.

Muammolar va cheklovlar

Ta’limda raqamli iqtisodiyotga moslashishda bir qator to‘siqlar ham bor:

Internet va texnologik infratuzilma har doim ham barqaror emas, ayniqsa chekka hududlarda.

Ustoz-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmagan.
O‘quv dasturlari va metodologiyalari ko‘pincha eski formatda qolib ketgan, bozor talabiga mos kelmaydi.
Moliyaviy resurslar cheklanganligi.
Talabalar va ota-onalar orasida texnologiyalarga nisbatan ong yetishmasligi yoki qarshilik bo‘lishi mumkin.

Takliflar

Ta’lim sohasida raqamli iqtisodiyotga moslashuvni tezlashtirish uchun quyidagi yo‘llar samarali bo‘lishi mumkin:

1. Ta’lim dasturlarini yangilash — yangi kompetensiyalarni kiritish, modullar, kurslar, amaliy mashg‘ulotlar (projekty, hackathonlar va boshqalar).
2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish — digital pedagogika, texnologiyalarni o‘qitishda ishlatish, onlayn va blended metodologiyalarni o‘zlashtirish.
3. Infratuzilmani mustahkamlash — Internet, qurilmalar, platformalar, virtual laboratoriyalar.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki keyingi 10-15 yil ichida ta’lim sohasidagi barcha tizimlar raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Hamda, raqamli iqtisodiyot ta’lim tizimini innovatsion yo‘nalishda rivojlantirib, sifat, qulaylik va samaradorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Raqamli Iqtisodiyot” B.A.Begalov, M.K. Abdullayev
2.Gulyamov S.S va b. (2019).Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
3.O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’irisida”gi Qonuni
(O’RQ-792-SON 29.09.2022).
4.https://doi.org/10.5281/zenodo.13353198
5.https://kso.page.link/wps
6.https://go.wps.com/s8w97gSEOoOd
O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. "Milliy hisoblar". 2022 yil 17 mart.
https://stat.uz/uz/official-statistics/national-accounts
UzDaily. “IT xizmatlari sifatini oshirish va qamrovini kengaytirish vazifasi qo‘yildi”. 2022 yil 14 aprel.
https://www.uzdaily.com/uz/post/72427
9.O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. "Optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi." Yanvar, 2022. https://mitc.uz/uz/stat/6
10.O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. "Xalqaro tarmoqlarga kirishning umumiy tezligi (Mbps)." Yanvar, 2022. https://mitc.uz/uz/stat/2
11.Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. “My.gov.uz raqamlarda”. 03 fevral, 2022 yil.
https://my.gov.uz/ru/news/728
12.O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. "Internet foydalanuvchilarining umumiy soni (minglab)." Yanvar, 2022. https://mitc.uz/uz/stat/2
13.Avliyoqulov, B. “O‘zbekistonda COVID-19 bilan kurashish uchun raqamli transformatsiyani tezlashtirish”. BMTTD Yevropa va Markaziy Osiyo. 19-avgust, 2020-yil.
https://www.eurasia.undp.org/content/rbec/en/home/blog/2020/speeding-digital-transformation-uzbekistan.html
14."Bir necha kun ichida pandemiya paytida taqdim etilgan masofaviy xizmatlar onlayn rejimga o'tdi." 20-may, 2020-yil. https://uzdaily.uz/uz/post/57109.

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TARKIBIDA BEVOSITA SOLIQLARNING TUTGAN O'RNI

Rustamov Asliddin
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi
4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adres: rasliddin343@gmail.com
Telefon raqami:+998937586789
https://doi.org/10.5281/zenodo.17531336

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bevosita soliqlar davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri sifatida iqtisodiy siyosatda muhim o'rin egallaydi. Byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi, shakllanish mexanizmlari hamda mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilgan va O'zbekiston byudjeti misolida bevosita soliqlarning ulushi yillar kesimida ko'rib chiqish nafaqat fiskal daromad manbai, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, byudjet daromadlari, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, jismoniy shaxslar daromad solig'i, yuridik shaxslar foyda solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, resurs soliqlari, soliqlar tizimi, soliq siyosati, soliq yuklamasi, soliq ma'murchiligi, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari, fiskal siyosat.

Annotation: This article analyzes the role and importance of direct taxes in the structure of state budget revenues. Indirect taxes, as one of the main sources of ensuring the financial stability of the state, play an important role in economic policy. Their share in the structure of budget revenues, the mechanisms of formation and their impact on the country's economy are studied, and in the case of the budget of Uzbekistan, the share of direct taxes over the ears is considered not only as a source of fiscal revenue, but also as a means of ensuring economic stability and social equality.

Key words: state budget, budget revenues, direct taxes, indirect taxes, personal income tax, corporate profit tax, property tax, land tax, resource taxes, tax system, tax policy, tax burden, tax administration, tax incentives, tax rates, fiscal policy.

Kirish: Soliq – bu davlat yoki mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tashkilotlar va jismoniy shaxslardan yig'ib olinadigan majburiy to'lov bo'lib, davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Soliqlar iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etadi va sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shaklidir[1].

Maqsad: Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini moliyaviy ta'minlash.

Manba: Soliqlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Vazifa: Iqtisodiy turkum sifatida u daromadlarning bir qismini byudjetga jalb qilishga xizmat qiladi va moliyaviy munosabatlarning ajralmas qismidir.

Soliq, davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jismoniy shaxslardan yig'ib olinadigan to'lovga aytiladi. Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, soliq iqtisodiy turkum sifatida, sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi [2].

Asosiy qism: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar davlat tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va uning asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbayi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, soliqlar yordamida davlat umumiy farovonligini oshirish uchun aholining turli guruhlari o'rtasida daromadlar tengsizligini bartaraf eta oladi.

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi xususiy tadbirkorlik faoliyatining daromadini hisobini yuritish masalalarini qiyinlashtiradi. Chunki xususiylashtirilgan bitta korxona o'rnida o'nlab kichik, xususiy va jamoa mulkiga asoslangan korxonalar paydo bo'ladi. Mamlakatda mukammal soliq tizimi yaratilmaganligi sababli

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq
[2] http://em.tiiame.uz/storage/web/source/1/elektron%20kutubxona/Soliqlar%20va%20soliqqa%20tortish.pdf

daromadlar summasini aniqlashda jiddiy xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi soliq siyosatini baholash ancha murakkab masala hisoblanadi. Soliqlar iqtisodiy o‘sish va rivojlanish barqarorligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar, pirovardida, aholining hayot sifati va farovonligi darajasiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Soliq kodeksi 72 bob 483 moddadan iborat bo’lib, O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va yig‘imlar tizimi 2-bob. Soliqlar va yig‘imlar 16-moddasida-Soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga (bundan buyon matnda budjet tizimi deb yuritiladi) to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

Soliq kodeksining 17-moddasida O‘zbekiston respublikasida amal qiladigan soliq turlari keltirilgan bo‘lib ularga quydagilar kiradi:

1. qo‘shilgan qiymat solig‘i;
2. aksiz solig‘i;
3. foyda solig‘i;
4. jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
5. er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
6. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
7. mol-mulk solig‘i;
8. er solig‘i;
9. ijtimoiy soliq.

1-rasm. Soliqlarning turlari ko’rsatilgan [3]

Soliqlarni obyekti va iqtisodiy mohiyati bo’yicha guruhlanadi. Soliqlarni guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta’sirlarni o’rganishning ilmiy va amaliy uslubidir. Soliqlar soliqqa tortish ob‘ektiga karab to’rt guruhga bulinadi:

- ✓ aylanmadan olinadigan soliqlar;
- ✓ daromaddan olinadigan soliqlar;
- ✓ mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;

[3] https://cyberleninka.ru/article/n/soliqlarning-turlari-va-funksiyalari/viewer

✓ yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig’i, aksiz solig’i, bojxona va er osti boyliklari kiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo’yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki maxsulotlarni yuklab yuborgan kiymat bilan ulchanadi Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi. Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlar i kiradi. Bu guruh soliqlarga ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i ham kiradi[4].

Tarix: Bevosita soliqlarga oid jahon miqyosidagi inqirozlardan misol sifatida Buyuk Depressiya davrida (1929–1933-yillar) bevosita soliqlar inqirozidir.

AQShda Buyuk Depressiya davrida daromad va foyda keskin kamaygani sababli bevosita soliqlardan tushumlar 60% gacha qisqargan.

✓ Ishlab chiqarish to‘xtagan, korxonalar zarar ko‘rgan, natijada foyda solig‘i tushumlari keskin kamaygan.

✓ Aholi daromadlari tushgani bois jismoniy shaxslar daromad solig‘i ham yig‘ilmagan.

Shu sababli davlat byudjeti inqirozga uchrab, AQSh hukumati bilvosita soliqlarga (QQS, bojxona bojlari) va davlat qarzlariga tayanishga majbur bo‘lgan.

Bu holat tarixda “**bevosita soliqlar inqirozi**” sifatida qayd etilgan — ya’ni daromadlar keskin kamayganda byudjet tizimi bevosita soliqlar asosida barqaror ishlay olmasligi aniqlangan.

1-jadval Davlat byudjeti daromadlari 2023-yil(mlrd so’mda)[5]

Ko'rsatkichlar		2023 yil			
		1-chorak	6 oylik	9 oylik	yillik
I. Daromadlar		**47 288,6**	**102 296,3**	**162 904,1**	**231 721,3**
1.	Bevosita soliqlar	16 699,9	33 582,2	51 541,7	73 103,6
1.1	Foyda solig'i	9 521,2	18 084,5	28 255,9	40 778,9
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 622,4	14 361,9	21 553,2	29 917,4
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	556,4	1 135,7	1 732,5	2 407,3

2-jadval Davlat byudjeti daromadlari 2024-yil(mlrd so’mda)[6]

Ko'rsatkichlar		2024 yil	2024 yil	2024 yil	2024 yil
		1-chorak	1-yarim yillik	9 oylik	yillik
I. Daromadlar		**52 620,6**	**120 989,7**		**274 423**
1.	**Bevosita soliqlar**	**18 770,7**	**40 314,3**	**64 099**	**90 833**
1.1	Foyda solig'i	10 431,5	22 031,0	36 578	52 620
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	594,3	1 350,4	2 106	2 829
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7 744,9	16 932,8	25 414	35 384

4 https://cyberleninka.ru/article/n/soliqlarning-turlari-va-funksiyalari/viewer
5 https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2023-2
6 https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2024-2

2.	**Bilvosita soliqlar**	**18 193,0**	**40 004,0**	**62 324**	**88 341**
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	12 267,0	26 689,3	41 847	59 280
2.2	Aksiz solig'i	3 729,8	8 613,9	13 517	19 060
2.3	Bojxona boji	2 196,2	4 700,7	6 960	10 001
3.	**Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i**	**8 317,3**	**17 155,7**	**26 478**	**36 363**
3.1	Mol-mulk solig‘i	1 718,0	3 524,9	5 153	6 805
3.2	Yer solig'i	1 853,4	4 022,1	6 016	8 216
3.3	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 506,4	9 183,0	14 687	20 170
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	239,5	425,7	623	1 173
4	**Boshqa daromadlar**	**7 339,6**	**23 515,8**	**40 745**	**58 886**

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida quyidagi bevosita soliqlar amalda qo‘llaniladi:

Foyda solig‘i — yuridik shaxslarning (korxona va tashkilotlarning) sof foydasidan olinadi. U davlat byudjetining muhim manbai bo‘lib, iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish samaradorligini bevosita aks ettiradi.

✓ 2024-yil yakuniga ko‘ra foyda solig‘idan byudjetga 52 620 mlrd so‘m tushum tushgan.

✓ Bu ko‘rsatkich korxonalar foydasining o‘sishi, ishlab chiqarish hajmi kengaygani va iqtisodiy faollikning ortganini bildiradi.

Jismoniy shaxslar daromad solig‘i (JShDS) — aholining mehnat faoliyatidan, xizmatlar ko‘rsatishdan yoki boshqa manbalardan olingan daromadlaridan undiriladi.

✓ 2024-yilda bu soliqdan 35 384 mlrd so‘m tushum qayd etilgan.

✓ Ushbu ko‘rsatkich aholi bandligi darajasi va ish haqlarining o‘sishi bilan bevosita bog‘liqdir.

✓ Aylanmadan olinadigan soliq – kichik biznes subyektlarining yalpi aylanmasidan olinadigan soliq turi bo‘lib, 2024-yilda 2 829 mlrd so‘m tushum bilan davlat byudjetining muhim qismi sifatida qayd etilgan.

Ushbu soliq tadbirkorlik subyektlariga engillik yaratish maqsadida foyda solig‘i o‘rniga joriy qilingan bo‘lib, soliqqa tortish mexanizmini soddalashtiradi.

Xulosa va takliflar: O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliyaviy-iqtisodiy islohotlar sharoitida **bevosita soliqlar** davlat byudjeti daromadlarining strategik manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita soliqlar — bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarning real iqtisodiy faoliyati, ularning foyda va daromad hajmlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan tushumlar tizimidir. Ularning barqarorligi mamlakat iqtisodiyotining real sektorida yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniq aks ettiradi. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmi 274,4 trln so‘mni tashkil etib, shundan **90,8 trln so‘mi bevosita soliqlarga** to‘g‘ri kelgan. Bu esa bevosita soliqlarning byudjet daromadlaridagi ulushi qariyb **33,1 foizni** tashkil etishini ko‘rsatadi.

Ushbu ulush, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror ishlashini, ishlab chiqarish jarayonlarining tiklanishini hamda ish bilan bandlik darajasining oshganini ifodalaydi. Bevosita soliqlarning asosiy qismini **foyda solig‘i** va **jismoniy shaxslar daromad solig‘i** tashkil etib, ular iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish samaradorligi va aholi daromadlari bilan uzviy bog‘liqdir. Foyda solig‘idan tushumlar 52,6 trln so‘m, jismoniy shaxslar daromad solig‘idan esa 35,3 trln so‘mni tashkil etgan. Bu raqamlar iqtisodiy faollikning oshayotganini va soliq bazasining kengayganini anglatadi. Shu bilan birga, bevosita soliqlar tizimi barqaror bo‘lsa-da, u **jahon moliyaviy inqirozlari** davrida bevosita ta’sirga uchraydi. 2008-yilgi global inqiroz va 2020-yilgi pandemiya davrida bu soliq turidan tushumlar sezilarli kamaygan. Chunki inqiroz paytida korxonalar foydasi pasayadi, aholi daromadlari qisqaradi, natijada daromad solig‘i va foyda solig‘i tushumlari qisqaradi. **Bevosita soliqlar davlat moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy xavfsizligining asosiy omili** bo‘lib qolmoqda.

Ularning to‘g‘ri boshqarilishi davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar:

✓ **Bevosita soliqlar stavkalarini iqtisodiy sharoitga mos optimallashtirish.** Jahon amaliyotida (masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Kanada tajribasida) soliq yukining iqtisodiy siklga mos ravishda moslashuvchan belgilanishi byudjet barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli O‘zbekistonda ham foyda solig‘i va daromad solig‘i stavkalarini iqtisodiy faollikka mutanosib tarzda qayta ko‘rib chiqish lozim.

✓ **Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish.** “Raqamli soliq tizimi”ni to‘liq joriy etish orqali yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va byudjetga tushumlarning barqarorligini oshirish mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantiruvchi soliq siyosatini kuchaytirish. Innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan korxonalar uchun foyda solig‘idan vaqtinchalik chegirmalar joriy etish ishlab chiqarishning o‘sishiga, bevosita soliq tushumlarining ko‘payishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – yangi tahriri.
2. A. V. Vahobov, A. S. Jo‘rayev soliqlar va soliqqa tortish darslik 2019
3. A.Raxmonov. Soliqlarning turlari va funksiyalari maqola 2022 y
4. Fuqarolar uchun byudjet ijrosi 2022 yil Toshkent 9-57 betlar
5. Fuqarolar uchun byudjet ijrosi 2023 yil Toshkent 8-16 betlar
6. Fuqarolar uchun byudjet ijrosi 2024 yil Toshkent 8-15 betlar.

RAQAMLI MOLIYANING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Saidov Jasurbek Latipbayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar
kafedrasi katta o'qituvchisi
Ulashov Diyor Javodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" fakulteti talabasi
ulashovdiyor917@gmail.com tel: (93) 359-77-76
https://doi.org/10.5281/zenodo.17531364

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va an'anaviy moliyaning uyg'unlashuvi natijasida shakllanayotgan innovatsiyalarning mahalliy iqtisodiyot tarmoqlaridagi hamda global iqtisodiy tizimdagi o'rni va istiqbollari tahlil qilinadi. Iqtisodiyotning shaffofligini ta'minlash, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish, iste'molchilarga arzon va qulay moliyaviy xizmatlar ko'rsatish maqsadida raqamli texnologiyalarni amaliyotga keng miqyosda joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yangi startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surishda raqamli moliyaning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli moliya, fintech, innovatsiya, iqtisodiy o'sish, moliyaviy inklyuziya.

ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируются роль и перспективы инноваций, возникающих в результате сочетания цифровых технологий и традиционных финансов в локальных секторах экономики и в мировой экономической системе. Обсуждаются вопросы масштабного внедрения цифровых технологий в практику в целях обеспечения прозрачности экономики, автоматизации финансовых транзакций и предоставления потребителям доступных и удобных финансовых услуг. Также раскрывается значение цифровых финансов в поддержке новых стартапов и продвижении инновационных идей в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: цифровые финансы, финтех, инновации, экономический рост, финансовая доступность.

THE IMPORTANCE OF DIGITAL FINANCE IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the role and prospects of innovations emerging as a result of the combination of digital technologies and traditional finance in local economic sectors and in the global economic system. The issues of large-scale implementation of digital technologies in practice in order to ensure transparency of the economy, automate financial transactions, and provide consumers with affordable and convenient financial services are discussed. The importance of digital finance in supporting new startups and promoting innovative ideas in the Republic of Uzbekistan is also revealed.

Keywords: digital finance, fintech, innovation, economic growth, financial inclusion.

KIRISH

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha soha va tarmoqlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bugungi kunda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayon O'zbekistonni zamonaviy raqamli iqtisodiyot tizimiga bosqichma-bosqich o'tishiga zamin yaratmoqda.

Ushbu masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi **"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-sonli farmoni** imzolandi[1]. Mazkur strategiyada iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligi kabi sohalarni raqamlashtirish, ularning samaradorligini oshirish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlash maqsad qilingan.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli farmoni.

Ayni paytda respublikamizda elektron hukumat tizimini takomillashtirish, IT-parklar tashkil etish, dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, hamda sohaga ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash bo'yicha 200 dan ortiq ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, "Raqamli Toshkent" dasturi orqali jamoat transporti, kommunal xizmatlar va infratuzilmani boshqarish tizimlari raqamlashtirilmoqda.

2025-yil 25-sentyabr kuni Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTTD), O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorligida **"O'zbekistonda ma'lumotlarni boshqarishni baholash va jadallashtirish"** mavzusida seminar bo'lib o'tdi[2]. Tadbirda raqamli boshqaruv, ochiqlik va davlat xizmatlarini soddalashtirish masalalari muhokama qilindi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi **Toyvo Klaar** o'z nutqida quyidagilarni ta'kidladi: *"Samarali va shaffof ma'lumotlar boshqaruvi O'zbekistonda ham, Yevropa Ittifoqida ham har bir kishi uchun dolzarb masaladir. Shu bois Yevropa Ittifoqi raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va O'zbekistonda davlat xizmatlarining qulay, samarali va ochiq bo'lishini ta'minlashga qaratilgan loyihani moliyalashtirmoqda."*

Shuningdek, BMTTDning O'zbekistondagi doimiy vakili o'rinbosari **Anas Fayyad Qarman** raqamli transformatsiyada ma'lumotlarni boshqarishning ahamiyatiga to'xtalib, bu jarayon *"insonlarning raqamli imkoniyatlardan to'liq foydalanishiga xizmat qiladi"* deya ta'kidladi[3].

Raqamli moliya O'zbekistonda iqtisodiyotning yangi yo'nalishiga aylanmoqda. Elektron to'lov tizimlari, mobil banking, onlayn kreditlash va raqamli startaplar nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki iqtisodiy muomalalarni tezlashtirmoqda. Shu bois, raqamli moliyani rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Raqamli moliya va raqamli iqtisodiyot masalalari bugungi kunda dunyo miqyosida eng dolzarb mavzulardan biridir. Ko'plab xorijiy olimlar va iqtisodiy tashkilotlar bu sohani turli jihatdan tadqiq etishgan. Masalan, kanadalik iqtisodchi **Don Tapscott** o'zining "Blockchain Revolution" asarida raqamli texnologiyalar moliya tizimini yanada ishonchli, tezkor va ochiq tizimga aylantirayotganini ta'kidlaydi[4]. Unga ko'ra, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy muomalalarda vositachilar sonini kamaytirib, tranzaksiyalarni tezlashtiradi.

Shuningdek, **Klaus Shvab** ham raqamli iqtisodiyotning ahamiyatini alohida qayd etgan. Shvab "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida raqamli texnologiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rsatadi[5]. Unga ko'ra, raqamli moliya – bu shunchaki texnologiya emas, balki iqtisodiyotda yangi munosabatlarni shakllantiruvchi kuchdir.

Yana bir amerikalik iqtisodchi **Jozef Stiglitz** raqamli moliyaning ijtimoiy ahamiyatiga urg'u beradi. U raqamli to'lov tizimlari orqali moliyaviy xizmatlar hamma uchun ochiq bo'lishi, shu orqali aholining turli qatlamlari ham iqtisodiy faoliyatga jalb etilishi mumkinligini ta'kidlaydi[6].

O'zbekistonlik olimlardan **Sh. G'ulomov**, **X. Vohidov**, **D. Sattorov** va **Sh. Xo'jayev**larning tadqiqotlarida ham raqamli moliya masalalariga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, Sh. G'ulomov o'z ishlarida raqamli to'lov tizimlarining mamlakatda bank xizmatlari qamrovini kengaytirishdagi o'rni haqida yozadi[7]. X. Vohidov esa raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida kadrlar salohiyatining muhimligini ta'kidlaydi.

Raqamli iqtisodiyot masalalarini xalqaro tashkilotlar misolida ko'radigan bo'lsak, **Jahon banki** va **Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)** hisobotlarida raqamli moliyaning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri qayd etilgan. Masalan, XVJ 2023-yilgi hisobotida raqamli to'lovlarning rivojlanishi kichik biznes subyektlarining faoliyatini yengillashtirgani, soliq tushumlarini oshirganini qayd etgan.

---

[2] "O'zbekistonda ma'lumotlarni boshqarishni baholash va jadallashtirish" seminar materiallari, Toshkent, 2025-yil 25-sentyabr.

[3] BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) O'zbekiston vakolatxonasi matbuot xabari, 2025-yil sentyabr.
[4] Tapscott, D. *Blockchain Revolution.* New York: Penguin, 2018.
[5] Schwab, K. *The Fourth Industrial Revolution.* Geneva: World Economic Forum, 2016.
[6] Stiglitz, J. *Globalization and Its Discontents.* New York, 2017.
[7] G'ulomov Sh. *Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot masalalari.* Toshkent, 2022.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, raqamli moliya nafaqat texnologik yangilik, balki iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishda muhim vositadir. U iqtisodiy faoliyatning tezligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois bu mavzuni O‘zbekiston misolida tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Raqamli moliya — bu moliyaviy xizmatlarni raqamli texnologiyalar yordamida taqdim etish va boshqarish tizimidir. Uning tarkibiga mobil banking, onlayn to‘lovlar, elektron hamyonlar, blokcheyn, kriptovalyuta va raqamli bank mahsulotlari kiradi. Raqamli moliya an’anaviy moliyadan farqli ravishda vositachilar sonini kamaytiradi va moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi.

Raqamli moliyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy operatsiyalarda tezkorlik va qulaylikni ta’minlash;
- raqamli ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini saqlash;
- iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;
- tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish;
- moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish, ya’ni xizmatlarni aholining barcha qatlamlariga yetkazish.



1-rasm. Raqamli moliyaning asosiy tamoyillari

Aynan shu jihatlar raqamli moliyani zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

1. Raqamli moliyaning O‘zbekistondagi amaliy holati va tahlili.

O‘zbekistonda raqamli moliyani rivojlantirish 2017-yildan boshlab jadallashdi. Aynan shu yilda Prezident Sh. M. Mirziyoyev tomonidan **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi ishlab chiqila boshlandi, 2020-yilda esa u rasmiy ravishda tasdiqlandi[8]. Strategiyada raqamli iqtisodiyotning barcha tarmoqlarda joriy etilishi, jumladan moliya sohasini to‘liq raqamlashtirish belgilangan. Bu jarayon nafaqat bank sektorini modernizatsiya qilmoqda, balki aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Raqamli to‘lov tizimlari, mobil ilovalar, elektron hamyonlar va onlayn bank xizmatlari iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida muhim o‘rin egallamoqda.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-sonli farmoni, 2020-yil 5-oktabr.

Markaziy bank va **Raqamli texnologiyalar vazirligi** hamkorligida “raqamli so‘m” loyihasi ustida ish olib borilmoqda[9]. Bu loyiha milliy valyutaning raqamli shaklini joriy qilishni nazarda tutadi, u kelajakda ichki to‘lov tizimini soddalashtiradi va naqd pul aylanmasini kamaytiradi.

Shu bilan birga, mamlakatda **startap ekotizimi** ham shakllanmoqda. IT-parklar, xususan, “Yashnobod” va “InnoTexnoPark” innovatsion markazlarida moliyaviy texnologiyalar (fintech) yo‘nalishida 200 dan ortiq startap loyihalar faoliyat yuritmoqda. Ular orasida onlayn sug‘urta, investitsion platformalar va kredit reyting tizimlari bor.

O‘zbekiston Respublikasining **“Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni** (yangi tahriri 2022-yilda qabul qilingan) raqamli moliyaviy faoliyatning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Natijada, onlayn to‘lovlar va internet orqali shartnoma tuzish amaliyoti kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yakuniga kelib mamlakatda **elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 1,3 kvadrillion so‘mni** tashkil etdi[10]. Bu 2020-yilga nisbatan 3,5 barobar ko‘pdir. Elektron to‘lovlar ulushi esa umumiy to‘lov aylanmasining qariyb **78 foizini** tashkil qilmoqda. Ushbu natijalar aholining raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyati ortayotganini ko‘rsatadi.

Bank sektorida esa “Click”, “Payme”, “Apelsin”, “Zoomrad”, “Alif Mobi” kabi tizimlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tizimlar orqali foydalanuvchilar to‘lovlar, o‘tkazmalar, kommunal xizmatlar va davlat yig‘imlarini bir necha soniya ichida amalga oshirish imkoniga ega. Shuningdek, **Humo** va **Uzcard** milliy to‘lov tizimlari integratsiyasi to‘liq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu to‘lov infratuzilmasining yagona ekotizimini yaratdi.

Davlat sektori tomonidan ham bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi doirasida **elektron hukumat tizimi** kengaytirilmoqda, davlat xizmatlari uchun yagona to‘lov portali joriy etilgan. 2023-yilda “E-Najot”, “E-Mehnat”, “Yagona interaktiv xizmatlar portali” kabi platformalar raqamli to‘lov tizimlariga ulandi.

IT Park Uzbekistan ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda raqamli moliya yo‘nalishida faoliyat yurituvchi **startap loyihalar soni 220 dan oshgan**, ularning yillik o‘sish sur’ati esa **35 foiz**ni tashkil etgan[11]. Startaplar asosan fintech xizmatlari, mikromoliyalashtirish, elektron to‘lov tizimlari va onlayn kreditlash yo‘nalishlarida faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik ham kengaymoqda. O‘zbekiston 2023-yilda **Xalqaro to‘lov tizimlari assotsiatsiyasi (IPA)** va **VISA Global Forum** a’zoligiga qabul qilindi. Bu esa mamlakatda to‘lov tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda[12].

Quyidagi grafikda mamlakatda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yilga qanday o‘sib borayotgani tasvirlangan:

[9] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari, 2024-yil.
[10] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “To‘lov tizimlari ko‘rsatkichlari”, 2025-yil fevral.
[11] IT Park Uzbekistan yillik hisobot, 2024-yil.
[12] VISA Global Forum ma’lumotlari, 2023-yil dekabr.

2-rasm. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar ulushi (2019–2024-yillar)

2020–2024-yillar oralig‘ida iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar ulushi 50 foizdan 78 foizgacha oshgani kuzatilmoqda. Bu o‘sish, bir tomondan, elektron hukumat, elektron tijorat va mobil bank tizimlarining kengaygani bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aholining raqamli infratuzilma va internet xizmatlaridan faol foydalanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Yevropa Ittifoqining **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi doirasidagi loyihalar moliyaviy inklyuziyani kuchaytirishda muhim o‘rin tutmoqda[13]. Ushbu hamkorlik natijasida aholining kam ta’minlangan qatlami, ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun onlayn moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Garchi shunday bo’lsa ham, tizimni yanada takomillashtirish uchun ma’lumotlar xavfsizligi, integratsiya standartlari va raqamli savodxonlikni oshirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Raqamli moliya O‘zbekiston iqtisodiyotida bir necha muhim yo‘nalishlarda ijobiy natijalar bermoqda:

I. **Moliyaviy xizmatlar qamrovining kengayishi.** Aholining qishloq joylarda ham elektron to‘lov tizimlariga ulanishi ularning iqtisodiy faoliyatini oshirdi. Mobil banking xizmatlari orqali aholining katta qismi bank tizimiga qo‘shildi.

II. **Soliq tushumlarining oshishi.** Raqamli to‘lovlar iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtiradi, natijada yashirin aylanma kamayadi. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda elektron to‘lovlar hajmi 2,3 baravarga oshgan va bu soliq tushumlariga bevosita ta’sir qilgan[14].

III. **Ishlab chiqarish samaradorligining ortishi.** Raqamli moliya korxonalarga tezkor hisob-kitob qilish, xarajatlarni tahlil etish va risklarni kamaytirish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

IV. **Innovatsion ekotizimning rivojlanishi.** Fintech startaplar yangi ish o‘rinlari yaratmoqda, shu bilan birga yoshlar orasida texnologiyaga qiziqishni oshirmoqda.

Biroq, bu jarayon bilan birga muammolar ham mavjud. Jumladan, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va xalqaro standartlarga mos qonunchilikni yaratish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

2.Raqamli moliyaning muammolari va istiqbollari

O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli moliya tizimini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarni tizimli hal etish orqali mamlakat moliyaviy tizimi yanada raqobatbardosh va shaffof bo‘lishi mumkin.

[13] UNDP Uzbekistan. *”Digital Uzbekistan – 2030” Project Report, 2024.*
[14] Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024-yil hisobot.

1.Asosiy muammolar

Birinchidan, **axborot xavfsizligi va kiberxavflar** masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda onlayn to‘lovlar hajmining ortishi bilan turli xakerlik hujumlari va firibgarlik holatlari ko‘paymoqda. Bu esa raqamli moliyaviy tizimlarga nisbatan ishonchni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun banklar va to‘lov tizimlari o‘z axborot himoyasini mustahkamlash uchun kriptografik algoritmlar, ko‘p bosqichli autentifikatsiya va xavfsiz tarmoq texnologiyalaridan foydalanmoqda[15].

Ikkinchidan, **raqamli infratuzilmaning hududlar bo‘yicha nomutanosibligi** ham muammolardan biridir. Aholining bir qismi, ayniqsa chekka qishloq joylarda, hali ham internetga to‘liq ulana olmayapti. Bu esa raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklab qo‘yadi.

Uchinchidan, **aholining raqamli savodxonligi** yetarli darajada emas. Ko‘plab foydalanuvchilar onlayn to‘lovlar, mobil bank ilovalari yoki elektron tijorat platformalaridan foydalanishda qiynaladi. Shu sababli davlat tomonidan raqamli ta’lim va moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari yo‘lga qo‘yilishi zarur[16].

To‘rtinchidan, **me’yoriy-huquqiy baza** yetarlicha takomillashmagan. Raqamli aktivlar, kriptovalyutalar, blokcheyn asosidagi moliyaviy xizmatlar uchun qonuniy mexanizmlar hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu esa innovatsion loyihalar uchun huquqiy noaniqlik tug‘diradi[17].

2. Raqamli moliyaning istiqbollari

a) Blokcheyn texnologiyalarini joriy etish.

Markaziy bank tomonidan “raqamli so‘m” loyihasini rivojlantirish natijasida ichki to‘lov tizimlarida tranzaksiya tezligi oshib, hujjatlashtirish jarayoni soddalashadi. Blokcheyn texnologiyasi korrupsiyaviy holatlarni kamaytiradi va moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta’minlaydi[18].

b) Sun’iy intellekt (AI) asosida moliyaviy tahlil tizimlarini yaratish.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari sun’iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida mijozlarning to‘lov qobiliyatini tahlil qilishi, kredit risklarini aniq baholashi va firibgarlik holatlarini oldindan aniqlashi mumkin.

c) Fintech startaplarini qo‘llab-quvvatlash.

Raqamli texnologiyalar asosidagi yangi kompaniyalar iqtisodiyotga yangi ish o‘rinlari, innovatsion mahsulotlar va xalqaro investitsiyalarni olib kiradi. Bu borada IT-Park va “Startup Initiatives” dasturlari muhim o‘rin tutmoqda[19].

d) Xalqaro integratsiya.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi va BMT bilan hamkorlikdagi raqamli dasturlari mamlakatning global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda. Bu esa xalqaro to‘lov tizimlarining mamlakat ichida ishlashiga imkon beradi.

e) Raqamli moliyaviy xizmatlarning ijtimoiy foydasi.

Raqamli to‘lovlar tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. U aholining moliyaviy xizmatlarga teng kirish imkoniyatini ta’minlaydi va kambag‘allikka qarshi kurashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Raqamli moliya — bu nafaqat zamonaviy to‘lov tizimlarining asosiy ko‘rinishi, balki mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omildir. O‘zbekiston so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Raqamli texnologiyalar yordamida iqtisodiyotning ochiqligi oshib, davlat xizmatlari, tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi moliyaviy operatsiyalar tez, qulay va xavfsiz shaklga keldi.

Raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi natijasida naqd pul aylanmasi kamaydi, bu esa “soya iqtisodiyoti”ni qisqartirishga yordam berdi. Shu bilan birga, raqamli moliya aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.

---

[15] O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “*Kiberxavfsizlik strategiyasi 2023-2026”*, Toshkent, 2023.
[16] Raqamli texnologiyalar vazirligi. *“Raqamli savodxonlikni oshirish dasturi”*, 2024.
[17] O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. *“Raqamli aktivlar to’g’risidagi qonun loyihasi”*, 2024.
[18] Markaziy bank matbuot xizmati. *“Raqamli so’m va blokcheyn tizimi imkoniyatlari”, 2024.*
[19] IT Park Uzbekistan. *“Fintech startaplarini qo’llab-quvvatlash dasturi”*, 2024.

Biroq, hali hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud: infratuzilmaning hududiy nomutanosibligi, kiberxavflar, raqamli savodxonlikning pastligi va huquqiy mexanizmlarning to‘liq shakllanmagani shular jumlasidandir. Shu bois, kelgusida davlat tomonidan raqamli moliyani rivojlantirish bo‘yicha aniq siyosat yuritish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va mahalliy startaplarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, raqamli moliyaning to‘liq joriy etilishi O‘zbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini tezlashtiradi, investitsiya muhitini yaxshilaydi hamda iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-sonli Farmoni — “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish konsepsiyasi (2021–2024)”, Toshkent, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Yillik hisobot – 2024.
4. UNDP Uzbekistan. “Digital Uzbekistan – 2030” Project Report, 2024.
5. Anorbank rasmiy sayti: https://anorbank.uz
6. IT Park Uzbekistan. “Fintech startaplarini qo‘llab-quvvatlash dasturi”, 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. “Raqamli aktivlar to‘g‘risidagi qonun loyihasi”, 2024.
8. Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
9. King, M. (2020). Digital Banking and Financial Stability. Cambridge University Press.
10. Islomov A., Tursunov N. O‘zbekistonda raqamli to‘lov tizimlarini joriy etish masalalari. Toshkent moliya instituti, 2023.

G‘AZNACHILIKNING BUGUNGI HOLATI VA UNING DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Safaraliyev Basir Norboyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
tel:+998 (97)-076-08-80
E-mail: safaraliyevbasir@gmail.com
Salomov Shahboz
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo’nalishi 4-bosqich 5mm-2022 guruh talabasi
Email adress: shahbozs183@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17531396

Annotatsiya: Ushbu maqolada g’aznachilik tushunchasining mohiyati, bugungi holati hamda davlat moliyasi tizimini tashkil e’tishdagi o’rni xususida so’z yuritilgan**.**Bundan tashqari g’aznachilik organi qanday vazifalarni bajarishi va davlat moliyasining tarkibida tutgan o‘rni haqida so‘z yurutilgan

Kalit so’zlar: institutsional islohotlar, moliya, g’azna, davlat budjeti, davlat budjetini boshqarish, g’aznachilik, budjet mablag’lari.

Kirish. Bugun mamlakatimizning iqtisodiy sohasida qator yangilik va o‘zgarishlarning joriy qilinishi uning iqtisodiy jihatdan yanada takomillashishiga xizmat qilmoqda. Xususan, davlat moliyasi yo‘nalishida institutsional islohotlar keng ko‘lamda amalga oshirilyapti. Ushbu amaliy harakatlarning negizida eng avvalo, davlat budjeti ijrosiga dunyo tan olgan va dunyo mamlakatlarida sinovdan o‘tgan, budjet mablag‘laridan natijakor foydalanishni ta’minlab beruvchi g‘aznachilik tizimining joriy qilinganini alohida e’tirof bilan tilga olish lozim. Mamlakatimizda davlat budjetining g‘azna ijrosini samarali tashkil qilinishiga mustaqillikning sharofati, jumladan, barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini qo‘lga kirita boshlanimizdan so‘nggina muvaffaq bo‘lindi. O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimi bo‘yicha ham keng qamrovga ega bo‘lgan muvaffaqiyatli natijani berayotgan islohotlarni joriy qilmoqda. Bunday ishlohotlarning ijobiy natijalari davlat budjeti g‘azna ijrosining omadli tarzda joriy qilinishida yaqqol ko‘zga tashlanadi, deya aytish mumkin.

Muhokama va natijalar. Davlat budjetining g‘azna ijrosi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g‘azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag‘larining samarali ishlatilishini ta’minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati Davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. to‘g‘risida operativ tarzda ma’lumotlarni jamlash imkonini yaratadi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek Davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat.

1-rasm G‘aznachilik tuzilmasi.[1]

[1] https://gov.uz/oz/gazna/pages/structure

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Davlat budjetining kassa ijrosi;
- Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- Davlat budjeti mablag'larini boshqarish, yagona g'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish;
- budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek buyurtmachining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish;
- Davlat budjetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va xisobotni tuzish;
- O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish.
- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan barcha turdagi, shu jumladan nomoddiy shakldagi insonparvarlik yordami hamda texnik ko'maklashish vositalarini to'liq va tizimli hisobga olish.

G'aznachilik o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi. Mazkur organlar va tashkilotlar Davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag'larini boshqarishda, Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda G'aznachilikka ko'maklashishlari shart.

G'aznachilik bilan davlat soliq, bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik shaxslar,

shuningdek budjet jarayonining boshqa ishtirokchilari Davlat budjetining g'azna ijrosi sohasidagi ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda almashib turadilar.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek budjet jarayonining boshqa ishtirokchilari G'aznachilikka taqdim etiladigan ma'lumotlarning to'g'riligi va asosliligi uchun javobgar bo'ladilar.

Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular tegishincha respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi[2]

Davlat budjetiga chet el valyutasida to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek budjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag'lari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, G'aznachilikning bankdagi valyuta hisobvaraqlariga kiritiladi.

G'aznachilik yagona g'azna hisobvarag'idagi va G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi Davlat budjeti mablag'larini ularni Davlat budjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek Davlat budjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika budjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari berish yo'li bilan boshqarib boradi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar G'aznachilik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Zamonaviy jamiyatimiz taraqqiy etayotgan bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat moliyasini boshqarish shakllari va usullarini takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o‘zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlar sharoitida umumdavlat moliya tizimining bosh bo‘g‘ini - davlat budjetini boshqarish, budjet jarayonini tashkil etish tizimidagi islohotlar, xususan, budjet ijrosida kassali tizimdan jahon amaliyoti tajribasida sinovdan o‘tgan va o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsata olgan budjet tizimi budjetlarining g‘azna ijrosiga o‘tishning amalga oshirilishi davlatimiz iqtisodiy sohasidagi yutuqlaridan bo‘ladi. Hozirgi zamonaviy iqtisodiy yangiliklardan kelib chiqib aytish mumkinki, budjet jarayonini samarali tashkil qilishning amaliy ishlarini g‘aznachilik nazoratidan chetda tasavvur etib bo‘lmaydi. Buni hattoki, zamonaviy iqtisodiyot vakillari — olimlar, iqtisodchilar, qolaversa, sohaning yetuk mutaxassislari ham asosli ravishda e’tirof etmoqdalar. Negaki, g‘aznachilik tizimi budjet daromadlari va xarajatlarini yagona g‘azna hisobraqamiga jalb qilish, pul oqimlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish, rejalashtirish, moliyaviy oqimlarning

[2] Steven M. Bragg. “TREASURY MANAGMENT” The Practitioner’s Guide.

esa ilk va joriy nazoratini amalga oshirish, shu jumladan, davlat budjetini yuqori operativlikda ijro etish imkoniyatining kengayishiga xizmat qiladi.[3]

Mamlakatda davlat moliyasini boshqarishni, shu bilan bir qatorda davlat budjetini ijro etishda asosiy mexanizmlardan biri hisoblangan g‘aznachilik tizimini tas hkil etish va uni shakllantirishda xorij mamlakatlarining tajribasi muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston ular tajribasidan oddiy nusxa olmaydi, chunki mamlakatimiz davlat boshqaruvini tashkil etish, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni boshqarish sohasida o‘ziga xos yo‘nalishga ega davlatdir. Biroq, bu bilan g‘aznachilik tizimini tashkil etish va rivojlantirish yo‘nalishida xalqaro tajribalarning o‘rganilish darajasi passivlashmaydi.

Rivoj topgan mamlakatlarning iqtisodiy amaliyotidagi davlat budjetining g‘aznachilik tizimini O’zbekiston Respublikasida joriy qilish va uni yanada rivojlantirish, davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimiga asos solish davlat moliyasining holati to‘g‘risida tezkor va ishonchli axborotlarga ega bo‘lish uchun imkoniyatlar eshigini ochib beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishning ta’minotdir. Yana aytish joizki, davlat budjetida mablag‘lardan samarali hamda maqsadli foydalanish maqsadida ham g‘aznachilik tizimi joriy qilindi. Ushbu tizimning yaratilishi iqtisodiy soha uchun joriy va yakuniy nazorat jarayonini takomillashtirish bo‘yicha kattadan-katta o‘zgarishlarning amalga oshishiga sabab bo‘ldi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar hayotida davlat budjeti ijrosini boshqarish asosan, g‘aznachilik tizimiga asoslanib amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va albatta, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimidagi o‘tkazilayotgan tub islohotlar mohiyati moliya tizimida davlat budjeti ijrosini takomillashtirish, g‘aznachilik tizimining joriy qilinishi sanaladi. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad — budjet mablag‘larini samarali boshqarish, budjet mablag‘larining moliyaviy nazoratini kuchaytirish va barcha budjet tashkilotlarining xarajatlarini boshqarishda g‘aznachilik faoliyatining joriy qilinishiga, amalda bo‘lishiga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Steven M. Bragg. “TREASURY MANAGMENT” The Practitioner’s Guide.
2. T.Eshnazarov. Davlat budjetining g’azna ijrosini rivojlantirish omillari. “Budjet ijrosiga g’aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferentsiya materiallari to’plami. - Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2011 y.
3. Shaxlo S. G‘AZNACHILIK TIZIMINING JORIY QILINISHINING DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI AHAMIYATI //E Conference Zone. - 2022. - C. 1-2.
4. O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari portali www.lex.uz
5. www.ochiqbudj et.uz.

[3] shaxlo s. G‘aznachilik tizimining joriy qilinishining davlat moliyasi tizimidagi ahamiyati //e conference zone. - 2022. - c. 1-2.

TA'LIMDA YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI (DENOV TUMANIDAGI 74-MAKTAB MISOLIDA)

Achildiyeva Elnora Elbekovna
Sherdanova Gulijaxon Almurot qizi
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
Iqtisodiyot mutaxassisligi magistrantlari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17532268

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi misol qilib olingan. Maktabda tashkil etilgan issiqxonalar va quyosh panellari orqali o'quvchilar ekologik toza mahsulot yetishtirish, energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy savodxonligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotning ta'limdagi ahamiyati, uning o'quvchilar dunyoqarashiga ijobiy ta'siri hamda barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasi ochib berilgan.

Annotation. This article analyzes the practical aspects of implementing green economy principles in the education system. The study takes the example of School No. 74 in Denov district of Surxondaryo region. Through the establishment of greenhouses and solar panels at the school, students have the opportunity to grow environmentally friendly products, use energy resources efficiently, and enhance their economic literacy. The research reveals the importance of the green economy in education, its positive impact on students' worldview, and its contribution to sustainable development.

Аннотация.В статье анализируются практические аспекты внедрения принципов «зелёной экономики» в систему образования. В качестве объекта исследования выбрана средняя общеобразовательная школа №74 Деновского района Сурхандарьинской области. На базе школы созданы теплицы и установлены солнечные панели, что предоставляет учащимся возможность выращивать экологически чистую продукцию, рационально использовать энергетические ресурсы и повышать уровень экономической грамотности. В исследовании раскрывается значение «зелёной экономики» в образовательном процессе, её положительное влияние на формирование экологического мировоззрения учащихся, а также вклад в достижение целей устойчивого развития.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ta'lim tizimi, ekologik tarbiya, issiqxona, barqaror rivojlanish, iqtisodiy savodxonlik.

Keywords: green economy, education system, environmental education, greenhouse, solar panels, sustainable development, economic literacy.

Ключевые слова: зелёная экономика, система образования, экологическое воспитание, теплица, солнечные панели, устойчивое развитие, экономическая грамотность.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiyotning ekologik xavfsizligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot g'oyasi ta'lim tizimida ham muhim o'rin egallaydi. Yashil iqtisodiyot orqali o'quvchilar ekologik fikrlash, iqtisodiy mas'uliyat va tabiatga ehtiyotkor munosabat kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi bu borada namunali ishlarni amalga oshirmoqda. Maktabda issiqxonalar tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar sabzavot va ko'katlar yetishtirish, shuningdek quyosh panellari yordamida energiya tejash jarayonlarida faol ishtirok etishmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Yashil iqtisodiyot va ta'lim integratsiyasi masalasi so'nggi yillarda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2023-y.) hujjatida ekologik ta'lim va tarbiyani kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan. I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida tabiatni asrash va ekologik tarbiyaning ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, "Ekologiya asoslari" (T. Nazarov, 2020) va "Yashil iqtisodiyot tamoyillari" (Sh. Abdullayev, 2022) darsliklarida ekologik tafakkurni shakllantirishning ta'limdagi o'rni yoritilgan. Bu manbalarda yashil

iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish jarayonlarida emas, balki ta’lim tizimida ham o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Tahliliy qism

Denov tumanidagi74-umumiy o‘rta ta’lim maktabida issiqxona va quyosh panellari faoliyati o‘zaro bog‘langan ekologik-iqtisodiy tizim sifatida ishlamoqda. Issiqxonalar orqali o‘quvchilar amaliy mehnat bilan shug‘ullanishadi, ekinlarni parvarishlash, hosil olish va uni realizatsiya qilish orqali iqtisodiy savodxonligini oshiradilar. Quyosh panellari esa ushbu jarayonni energiya jihatidan barqaror va tejamkor qiladi. Panellar yordamida hosil qilinadigan elektr energiyasi issiqxonadagi suv nasoslari, isitish tizimi va yoritish uchun ishlatiladi. Bu esa maktabning elektr xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va o‘quvchilarga muqobil energiya manbalari haqida amaliy tushuncha beradi. Shuningdek, maktabda har oyda “Yashil energiya kuni” o‘tkazilib, o‘quvchilar quyosh panellarining ishlash mexanizmi, energiya o‘lchovlari va tejash usullari bilan tanishadilar. Bu ularni texnik tafakkur va innovatsion fikrlashga undaydi. Denov tumanidagi 74-maktab tajribasi ta’limda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliy tatbiq etishning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi.

№	Ko‘rsatkichlar	Ma’lumotlar (2024-yil holatiga ko‘ra)
1	Issiqxonalar soni va O‘quvchilar ishtiroki	2 ta (biri sabzavotlar, biri gulchilik yo‘nalishida), 50 nafar (8–11-sinflar)
2	Yetishtiriladigan mahsulotlar	Pomidor, bodring, piyoz, ko‘katlar
3	O‘rtacha yillik hosil	1,2 tonna
4	O‘quvchilar tomonidan olingan daromad	8 million so‘m
5	Mahsulotdan foydalanish yo‘nalishlari	Maktab oshxonasi, bozor orqali realizatsiya
6	O‘quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar	Sug‘orish tizimi, tomchilatib sug‘orish, biogumusdan foydalanish
7	Quyosh panellari soni	12 dona (har biri 250 Vt quvvatda)
8	Energiya tejalishi	O‘rtacha oyiga 250–300 kVt elektr energiyasi
9	Quyosh panellari o‘rnatilgan joy	Maktab tom qismi va issiqxona usti
10	Energiya yo‘nalishi	Issiqxona isitish tizimi, yoritish va suv nasoslarini ishlatish uchun foydalaniladi
11	Yillik iqtisodiy foyda	4 million so‘m atrofida elektr xarajatlarining kamayishi hisobiga tejaladi

Ko‘rinib turibdiki, Denov tumanidagi 74-maktabda issiqxona va quyosh panellari faoliyati nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali natijalar bermoqda. O‘quvchilar o‘z mehnati evaziga mahsulot yetishtirish jarayonida iqtisodiy tushunchalarni amalda o‘rganadilar. Shuningdek, bu faoliyat ularda mas’uliyat, tejamkorlik va ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yosh avlodni ekologik ongli, mas’uliyatli va iqtisodiy jihatdan faol shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Denov tumanidagi 74-maktab tajribasi yashil iqtisodiyotni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali modeli hisoblanadi. Issiqxona va quyosh panellari loyihasi o‘quvchilarda ekologik tafakkur va amaliy iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yashil iqtisodiyot g‘oyalari o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda.

Takliflar:

-Har bir ta’lim muassasasida “Yashil burchak” yoki “Mini issiqxona” tashkil etish;

-O‘quv dasturlariga “Yashil iqtisodiyot asoslari” fanini kiritish;

-Mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda maktab ekologik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash;

-Yashil iqtisodiyot bo‘yicha o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori, 2023-yil.
2. Nazarov T. “Ekologiya asoslari”. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Abdullayev Sh. “Yashil iqtisodiyot tamoyillari”. – Toshkent, 2022.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Surxondaryo viloyati Denov tumani 74-umumiy o‘rta ta’lim maktabi hisobotlari, 2024.

1C: KORXONA" DASTURIDA BUXGALTERIYA HISOBI KONFIGURATSIYASI BILAN ISHLASH ASOSLARI

Muzrapova Shahnoza Saydullayevna
TISU "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi o'qituvchisi
Abdusattorov Abduxalim Abdumo'min o'g'li
TISU "Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)"
yo'nalishi 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17535571

Annotatsiya: Mazkur tezisda "1c: korxona" dasturida buxgalteriya hisobi konfiguratsiyasi bilan ishlash asoslari mavzusi yoritilgan. Ushbu mavzu doirasida 1C dasturining buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishdagi ahamiyati, uning funksional imkoniyatlari hamda korxona moliyaviy faoliyatini samarali yuritishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, 1C: Buxgalteriya konfiguratsiyasining asosiy modullari, ularning vazifalari va foydalanuvchi interfeysi bilan ishlash tamoyillari ko'rib chiqiladi. Ishda 1C dasturida hujjatlar bilan ishlash, schyotlar rejasi, provodkalar tuzish, hisobotlarni shakllantirish hamda soliq hisobotlarini tayyorlash kabi amaliy jarayonlar misolida dasturdan foydalanish ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijasida 1C dasturidan foydalanish korxonalarda hisob-kitoblarning aniqligini ta'minlashi, inson omili xatolarini kamaytirishi va buxgalteriya hisobotini tayyorlashda vaqt tejalishini ta'minlashi aniqlangan. Ushbu mavzu bo'yicha o'rganilgan natijalar buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalari integratsiyasi yo'nalishida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarda avtomatlashtirilgan hisob tizimini joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: 1C dasturi, buxgalteriya hisobi, avtomatlashtirilgan tizim, konfiguratsiya, korxona hisobi, axborot texnologiyalari, provodka, schyotlar rejasi, moliyaviy hisobot, soliq hisobotlari.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. An'anaviy hisob yuritish uslublari inson omiliga bog'liqligi sababli ko'p hollarda xatolarga olib keladi, vaqt sarfini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kechikishlarga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan**,** 1C dasturi bu muammolarning samarali yechimi sifatida amaliyotda keng qo'llanilmoqda. 1C: Korxona (Buxgalteriya hisobi konfiguratsiyasi) dasturi buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, soliq hisobi va hisobotlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan zamonaviy dasturiy majmua hisoblanadi. U nafaqat hisob yuritishni soddalashtiradi, balki korxona faoliyatining barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarini yagona axborot tizimida boshqarish imkonini beradi. 1C dasturining asosiy ustunliklaridan biri — bu moslashuvchan konfiguratsiya tizimi bo'lib, foydalanuvchiga o'z korxonasining tuzilmasi, faoliyat sohasi va hisob yuritish uslubiga mos sozlash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish siyosati doirasida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish talab etilmoqda. Shu ma'noda 1C dasturidan foydalanish nafaqat hisob-kitoblarni tezlashtiradi, balki moliyaviy nazoratni kuchaytiradi, soliqqa oid hisobotlarni xatolarsiz tayyorlashga yordam beradi.

Ushbu mavzuni o'rganishdan ko'zlangan maqsad — 1C dasturi yordamida korxonalarda buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilish**,** dastur konfiguratsiyasining afzalliklarini aniqlash hamda uning amaliy ahamiyatini yoritishdan iboratdir. Natijada, olingan bilim va tajriba zamonaviy buxgalteriya tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxona faoliyatining samaradorligini oshiradi. 1C dasturi — korxonaning moliyaviy, soliq va boshqaruv hisobi jarayonlarini avtomatlashtiruvchi zamonaviy axborot tizimi hisoblanadi. 1C: Buxgalteriya konfiguratsiyasi buxgalterlar uchun qulay interfeys, tezkor hisob-kitob va aniq hisobot tayyorlash imkonini yaratadi. Mavzuning dolzarbligi — bu dastur orqali korxonalarda buxgalteriya ishlarini soddalashtirish va inson omilini kamaytirish imkoniyatidir.

1C dasturi foydalanuvchiga buxgalteriya amaliyotini to'liq avtomatlashtirish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda dastur imkoniyatlari ko'rsatilgan:

1-jadval.

1C: Buxgalteriya dasturining asosiy funksional imkoniyatlari[1]

№	Bo‘lim nomi	Asosiy funksiyasi
1	Hujjatlar bilan ishlash	Kassa, bank, tovar harakati, xizmatlar uchun hujjatlar yaratish
2	Schyotlar rejasi	Buxgalteriya hisobining yagona tizimda yuritilishini ta’minlaydi
3	Provodkalar	Har bir xo‘jalik operatsiyasi uchun avtomatik buxgalteriya yozuvi
4	Hisobotlar	Moliyaviy, soliq va statistika hisobotlarini avtomatik shakllantirish
5	Xodimlar va ish haqi hisobi	Mehnat haqi, soliqlar va ajratmalarni hisoblash
6	Asosiy vositalar hisobi	Inventarizatsiya, amortizatsiya va aktivlar harakati nazorati

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1C: Buxgalteriya dasturi korxonaning buxgalteriya faoliyatini to‘liq avtomatlashtirish imkonini beradi. Dasturda hujjatlar bilan ishlashdan tortib, provodkalar tuzish, asosiy vositalarni hisobga olish va hisobotlarni tayyorlashgacha bo‘lgan barcha jarayonlar yagona tizimda amalga oshiriladi. Bu esa hisob-kitoblarning aniqligi, ma’lumotlarning to‘liqligi va tezkorligini ta’minlaydi hamda buxgalter ishini sezilarli darajada yengillashtiradi. Natijada, 1C dasturi korxona buxgalteriyasi uchun ishonchli, qulay va samarali axborot tizimi sifatida o‘zini to‘liq oqlaydi.

1C dasturi real vaqt rejimida ishlaydi, foydalanuvchilarga tezkor nazorat va tahlil imkonini beradi. Quyidagi jadvalda bu dasturdan foydalanishning amaliy afzalliklari ko‘rsatilgan:

2-jadval.

1C dasturidan foydalanishning afzalliklari[2]

№	Afzallik	Ta’siri
1	Hisob-kitoblarda aniqlik	Xatoliklar va inson omili ta’siri kamayadi
2	Vaqt tejalishi	Hisobotlar avtomatik shakllantiriladi
3	Axborot xavfsizligi	Ma’lumotlar bazasi himoyalangan holda saqlanadi
4	Qulay interfeys	Foydalanuvchilar uchun oson boshqaruv imkoniyati
5	Integratsiya imkoniyati	Bank, soliq va boshqa tizimlar bilan bog‘lash oson

2-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1C dasturidan foydalanish korxona buxgalteriya faoliyatida samaradorlikni keskin oshiradi. Dastur yordamida hisob-kitoblar aniqligi ta’minlanadi, vaqt tejaladi va inson omili ta’siri kamayadi. Shuningdek, tizimning axborot xavfsizligi yuqori darajada bo‘lib, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys va boshqa dasturiy tizimlar bilan integratsiya imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, 1C dasturining ushbu afzalliklari buxgalteriya hisobining sifatini oshirish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va korxona faoliyatini raqamlashtirish jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1C dasturidan foydalanish korxonalarda buxgalteriya jarayonlarini soddalashtiradi, nazorat va tahlilni kuchaytiradi hamda moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur yordamida buxgalterlar qisqa vaqt ichida aniq va to‘liq hisobot tayyorlashlari mumkin. Shu bois, 1C dasturini o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash buxgalteriya hisobini zamonaviy talablarga moslashtirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1C kompaniyasi. “1C: Buxgalteriya 8.3. Foydalanuvchi qo‘llanmasi”. – Moskva: 1C Publishing, 2023.
2. Karimov A. “Buxgalteriya hisobi va audit asoslari”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
3. Rahmonov B., Yo‘ldoshev N. “Axborot tizimlari va texnologiyalari”. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2020.
4. To‘xtasinov U. “1C dasturida buxgalteriya hisobi yuritish usullari” // O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari ilmiy to‘plami. – 2022, №4. – 56–63-betlar.
5. “1C: Buxgalteriya 8.3” rasmiy portali – https://v8.1c.ru/buhv8/ (murojaat sanasi: 16.10.2025).
6. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2016-yil 13-aprel, №404.
7. Raximova Z. “Korxonalarda buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilishi”. – Toshkent: TDIU, 2022.
8. Gromov S., Melnikova E. “1C: Predpriyatie 8.3. Prakticheskoe rukovodstvo”. – Moskva: BHV-Peterburg, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. Soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish yo‘riqnomasi. – Toshkent, 2023.
10. Aliyev X. “1C dasturida buxgalteriya va moliyaviy tahlilni avtomatlashtirish”. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2024.

YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA OZIQ-OVQAT SANOATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Tleuov Niyetulla Raxmanovich
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, if.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17535752

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish yo‘llari batafsil yoritilgan. Jumladan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini oziq-ovqat sanoatiga tatbiq etish orqali erishiladigan natijalar asoslab berilgan. Oziq-ovqat sanoatining yashil transformatsiya modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati, yashil iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, yashil iqtisodiyot tamoyillari, yashil oziq-ovqat platformasi.

So‘nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror taraqqiyotning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jahon miqyosida iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanishi, suv va yer resurslarining tanqisligi, shuningdek, aholining tez o‘sib borishi fonida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi dolzarb tus olmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat sanoatini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashning ham muhim omilidir.

Shu boisdan, mamlakatimizda ham bu yo‘nalishda jadal islohotlar olib borilmoqda. Xususan, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” [1] va “O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi”lari [2] qabul qilingan. Shuningdek, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2023-2030-yillar)”, “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi” hamda “Agro-sanoat klasterlarini rivojlantirish dasturi”lari ushbu yo‘nalishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.Ammo, amaliyotda oziq-ovqat sanoati korxonalarining aksariyatida energiyani hisobga olish tizimi to‘liq avtomatlashtirilmagan, chiqindilarni qayta ishlash samaradorligi past, hamda yashil texnologiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Shu bois, ushbu muammolarni ilmiy yondashuv asosida hal etish va sektorni yashil iqtisodiyot talablariga mos holda modernizatsiya qilish zarurati tug‘ilmoqda.Ta’kidlash joizki, oziq-ovqat sanoati – bu milliy iqtisodiyotning aholi salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq tarmog‘idir. Ushbu soha ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash va logistika bosqichlarida katta energiya va suv resurslarini talab qiladi. Shu sababli, an’anaviy ishlab chiqarish modelidan resurs tejamkor, chiqindisiz va ekologik xavfsiz texnologiyalarga o‘tish jarayoni strategik ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini oziq-ovqat sanoatiga tatbiq etish orqali quyidagi muhim natijalarga erishish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonlarida energiya va suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- chiqindilarni qayta ishlash va “aylanma iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga tadbiq qilish;
- mahalliy xomashyoni ekologik standartlarga mos holda qayta ishlash orqali eksport salohiyatini oshirish;
- oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta’minlaydigan “yashil klaster” tizimini shakllantirish.

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlashda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish – sohaning zamonaviy transformatsiyasi uchun muhim shartdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning ekologik jihatdan toza, resurs tejamkor va innovatsion yo‘nalishda tashkil etilishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki tabiiy resurslar bosimini kamaytiradi hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi.

Shu ma’noda, “Oziq-ovqat sanoatining yashil transformatsiya modeli” oziq-ovqat sanoatini ekologik, institutsional, moliyaviy va texnologik jihatdan kompleks rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan tizimli yondashuvdir. Modelning asosiy g‘oyasi – ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ekologik xavfsizlik, resurs tejamkorlik, ijtimoiy mas’uliyat va innovatsion faoliyat o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir.

1-jadval

Oziq-ovqat sanoatining yashil transformatsiya modeli[1]

[1] Muallif ishlanmasi.

Yo‘nalishlar	Asosiy mazmuni	Amalga oshirish vositasi
Institutsional	Yashil iqtisodiyotga oid qonunchilik, davlat siyosati, xalqaro standartlar (ISO 14001, ISO 50001) integratsiyasi	“Yashil sanoat agentligi”, “Yashil oziq-ovqat platformasi”
Texnologik	Energiya va suv tejamkor, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish	R&D markazlari, texnoparklar, innovatsion klasterlar
Moliya-investitsiya	Yashil investitsiyalar, grantlar, “green credit” va “green bond” instrumentlari	Yashil bank tizimi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik
Ijtimoiy-ekologik	Ishlab chiqarishda ekologik mas’uliyat, ekologik ta’lim va iste’molchi madaniyatini rivojlantirish	Ekologik o‘quv dasturlari, “Yashil mahsulot” yorlig‘i, jamoatchilik nazorati

Mazkur model O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatini barqaror, raqobatbardosh va ekologik muvozanatli tizimga aylantirish uchun nazariy asos va amaliy yo‘l xaritasi sifatida xizmat qiladi. U orqali sanoat korxonalari ekologik samaradorlik darajasini baholash, resurslardan foydalanish siyosatini optimallashtirish va xalqaro “yashil” standartlar asosida ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Usbu modelni amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Tashkiliy bosqich (2025-2026 y.):
- yashil siyosatni oziq-ovqat sanoati strategiyasiga integratsiya qilish;
- yashil investitsiyalar uchun huquqiy va moliyaviy asos yaratish.
2. Texnologik modernizatsiya bosqichi (2026-2028 y.):
- energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- raqamli hisob tizimi (IoT, AI) asosida resurs monitoringini yo‘lga qo‘yish.
3. Barqaror transformatsiya bosqichi (2028-2030 y.):
- “Yashil klasterlar” va eksportga yo‘naltirilgan ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish;
- Xalqaro yashil sertifikatlash tizimlariga integratsiya qilish (Global G.A.P, HACCP, ESG).

Oziq-ovqat sanoatining yashil transformatsiya modeli joriy etilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:
- energiya sarfi 25-30 % ga qisqaradi;
- chiqindilarning 60 % gacha qismi qayta ishlanadi;
- suv tejamkor texnologiyalar orqali suv sarfi 20-25 % ga kamayadi;
- mahsulotlarning ekologik tozaligi va eksport salohiyati ortadi;
- oziq-ovqat xavfsizligi va aholi salomatligi darajasi yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida transformatsiya qilish – bu milliy iqtisodiyotda barqaror oziq-ovqat tizimini shakllantirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo‘lidir. Oziq-ovqat sanoatining yashil transformatsiya modeli mamlakatdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining ekologik samaradorligini aniq baholash, investitsiya ustuvor yo‘nalishlarini belgilash hamda yashil innovatsiyalar tizimini strategik boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmoni.
3. https://stat.uz
4. https://lex.uz.

НГУЭУ КАК РАЗВИВАЮЩАЯ СРЕДА: ПРАКТИЧЕСКАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ ОБУЧЕНИЯ С УЧЕТОМ ТЕКУЩИХ ТЕНДЕНЦИЙ В ФИНАНСОВОМ СЕКТОРЕ

Баликоев Владимир Заурбекович
Новосибирский государственный университет экономики и управления, д.э.н., профессор
tel:+(7) 953 885 86 67
E-mail: Balikoev1941@yandex.ru
Овсянникова Наталья Валерьевна
Новосибирский государственный университет экономики и управления, к.э.н.
tel:+(7) 923 198 22 27
E-mail: n.v.ovsyannikova@nsuem.ru
Попова Тамара Александровна
Новосибирский государственный университет экономики и управления, к.э.н.
tel:+(7) 923 148 04 16
E-mail: t.a.popova@edu.nsuem.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17535782

Аннотация: статья посвящена проблемам формирования профессиональных кадров в финансовом секторе и необходимости тесного сотрудничества вузов с финансовыми организациями. Авторы подчеркивают, что молодые специалисты играют ключевую роль в развитии банковской сферы, однако существующие образовательные системы часто отстают от реальных потребностей рынка труда. Высокий уровень оттока начинающих сотрудников ставит перед банками задачу разработки эффективных механизмов удержания талантливых кадров.

Исследования подтверждают важность инвестиций в постоянное образование и развитие персонала, подчеркивая значимость "культуры обучения" и активного участия сотрудников в процессе повышения квалификации.

В статье приводится опыт внедрения системы непрерывного обучения в Новосибирском государственном университете экономики и управления («НИНХ»), где разрабатывается трехуровневая система подготовки и адаптации молодых специалистов. Эта система направлена на формирование профессиональных качеств, соответствующих современным требованиям финансового сектора, включая компетенции в финансах, экономике, маркетинге, ИТ и управлении.

Таким образом, представленная статья демонстрирует актуальность интеграции учебных заведений и компаний для достижения устойчивого развития человеческого капитала в финансовой индустрии.

Ключевые слова: молодые кадры, финансовая организация, взаимодействие, профессионально подготовленные специалисты, рынок труда, отток сотрудников, адаптация, инвестиции, образовательные экосистемы, система непрерывного образования, корпоративная культура, практическая ориентированность в обучении, корпоративность, клиентоориентированность, трехуровневая система подготовки и адаптации, обратная связь, профессиональные качества, развитие компетенций, инновационные методы обучения, условия профессионального развития, производственный цикл, банк, перспективный резерв, кадровый резерв, требования заказчика, фондовые научные знания, индивидуальные планы адаптации, сотрудничество, устойчивое развитие, человеческий капитал.

Молодые кадры являются движущей силой развития любой финансовой организации, что требует взаимодействия между вузами и финансовыми организациями пересмотра и создания эффективной модели, гарантирующей выпуск профессионально подготовленных специалистов.

"Вузы точно нужно подвергать реформам, они оторваны от реального клиента, которым является работодатель." Герман Греф критикует существующую систему образования, подчёркивая её несоответствие требованиям рынка труда.

В финансовом секторе наблюдается высокий отток сотрудников-новичков со стажем 0-6 месяцев. Из всех увольнений 30% приходится на новичков. Банку приходится тратить много ресурсов на поиск новых сотрудников, вкладываться в обучение и адаптацию новичков, не получая возврат на

инвестиции в долгосрочной перспективе. Отток новичков негативно влияет на показатели деятельности и увеличивает нагрузку на сотрудников. В отчете ОЭСР «Удержание талантов в любом возрасте» указано: «Работодателям всех отраслей необходимо инвестировать в развитие талантов и навыков работников. Передовая практика работодателей включает регулярный анализ навыков и рабочих задач для выявления будущих возможностей обучения или развития» [1]. Этот же фактор подробно исследован на примере финансового сектора в работе Л. Э. ЛаНор «Как банки могут использовать культурно-ориентированное взаимодействие и непрерывное обучение для борьбы с «Великой отставкой». Термин «Великая отставка» используется для обозначения массового оттока американской рабочей силы в 2021 году. Автор описывает, как банки используют «культуру обучения» и вовлечение сотрудников, что позволяет снизить отток [3]. Всё это подтверждает важность образовательных экосистем как фактора финансовой эффективности финансового сектора.

Менеджер по корпоративной социальной ответственности одного из крупнейших банков Румынии Миса А. в исследовании «Непрерывное профессиональное обучение в сфере банковского дела будущего» доказала, что в современных условиях квалифицированный персонал становится важнейшим ресурсом [5]. В этих условиях становится очевидна необходимость в создании системы непрерывного образования, которая готовила бы и развивала профессиональные качества будущих сотрудников для отрасли.

В настоящее время в Новосибирском государственном университете экономики и управления – «НИНХ» (далее – НГУЭУ) формируется система непрерывного обучения профессиональной подготовки специалистов – будущих молодых специалистов банка. Данная система включает в себя технологии корпоративного образования; программы, направленные на развитие компетенций; инновационные методы обучения; современную деловую культуру; процесс постоянного улучшения в системе обучения на основе обратной связи; механизм адаптации к условиям профессионального развития и роста в среде будущего места работы.

Главный ориентир данной системы - развитие профессионализма. Профессионализм предполагает:

1. Мастерство - наличие современных специальных знаний и навыков, компетенций в требуемых отраслью областях: финансовых, экономических, маркетинговых, информационно-технологических, управленческих;

2. Практическую ориентированность - умение и готовность применять теоретические знания на практике;

3. Результативность и ответственность - нацеленность на получение результата;

4. Корпоративность - оценка своих действий и полученных результатов с точки зрения корпоративных интересов.

Миттал В. и Чжон Д. в исследовании «Возрождение образовательных учреждений посредством клиентоориентированности» теоретически и эмпирически обосновали преимущества подхода, при котором университеты выявляют потребности работодателей и согласуют с ними свои стратегии. Этот подход не только повышает долгосрочную устойчивость университетов, но и академические результаты. [4]. В соответствии с этим на базе НГУЭУ разрабатывается совместно с будущими работодателями система подготовки и адаптации будущих молодых специалистов, которая представляет собой трехуровневый комплекс программ, построенный по принципам корпоративного университета.

Спецификой комплекса программ подготовки перспективного резерва финансовой организации является то, что каждая программа многоуровневой системы является органичной составляющей трехуровневого комплекса программ подготовки и развития резерва кадровых сотрудников, имеет четко выраженную корпоративную направленность, содержит ряд знаний и мероприятий, направленных на развитие корпоративной культуры, рассматривает обучение, как часть производственного цикла.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'sish (2024 yilda YaIM 6.5%) va islohotlar sharoitida korxonalar bankrotlik ehtimolini baholash nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy xavfsizlik, investitsion jozibadorlik va ijtimoiy barqarorlikni oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. Davlat va xususiy sektor korxonalaridagi moliyaviy xavflarni aniqlash orqali iqtisodiy tizimning mustahkamligini ta'minlash mumkin. Global tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shaffoflikni oshirish va zamonaviy tahlil vositalarini joriy etish orqali O'zbekiston iqtisodiyoti global raqobatbardoshlikni yanada mustahkamlashi mumkin.

O'zbekistonda bankrotlik baholash amaliyoti asosan xorijiy modellarning mahalliy sharoitlarga moslashtirilishiga asoslangan, ammo ma'lumotlar yetishmasligi va davlat korxonalari ustunligi muammolar yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xavfni kamaytirish uchun korxonalar ishchi kapitalni oshirishi, qarzlarni optimallashtirishi va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashi kerak. Kelajakda mashina o'rganishi va EWS tizimlarini kengroq qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 12.04.2022 yildagi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-763-son qonuni.
2. Abdujabborova M. (2023) Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) ehtimolini bashoratlash modellari tahlili //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.– T. 1. – №. 2. – C. 86-95.
3. Nabiev G‘. (2024) Korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizligi hisobi va tahlilining xorijiy tajribalarini mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlari //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.– T. 1. – №. 12. – C. 128-137.

[6] Malumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy vebsayti— www.cbu.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy vebsayti— www.stat.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik milliy bazasi— www.lex.uz.

ЎЗБЕКИСТОНДА МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ТАШҚИ САВДО АЛОҚАЛАРНИ КУЧАЙТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

С.М.Холхўжаев
ТДИУ тадқиқотчи
+998 90 458 19 55
https://doi.org/10.5281/zenodo.17536107

Annotatsiya: Республикамиз иқтисодиётида халқаро иқтисодий алоқаларни ривожлантириш экспортнинг барқарор ўсишига кўмаклашади ва бу ўз навбатида маълум натижаларга эришиш учун замин яратади. Мамлакатнинг экспорт салоҳиятини ошириш, экспортёрларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, экспортбоп маҳсулотлар номенклатурасини кенгайтириш мақсадида амалга оширилган ислоҳотлар натижасида, экспортёрлар сони ошиб бормоқда. Дарҳақиқат макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг омиллари жуда кўп бўлиб, улар орасидаги **х**алқаро иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ҳам муҳим касб этади. Мазкур мақолада Ўзбекистонда макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда халқаро савдо алоқаларни кучайтириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, макроиқтисодиёт, макроиқтисодий кўрсаткичлар, макроиқтисодий барқарорлик, иқтисодиётни тартиблаш, макроиқтисодий сиёсат, давлатнинг молиявий сиёсати, иқтисодий индикаторлар, иқтисодий мувозанат, барқарорлик, иқтисодий омиллар.

Ўзбекистоннинг асосий савдо ҳамкор давлатлар иқтисодиётида истеъмол фаоллигининг ошганлиги, ишлаб чиқариш суръатларининг ортиши ички талабга йўналтирилганлиги, тез ўзгарувчан ташқи ноаниқликлар шароитига мослашиш доирасида барқарор иқтисодий ўсиш тенденциялари кузатилганлиги албатта Ўзбекистоннинг макроиқтисодий барқарорлигига турлича даражада (ижобий ва салбий) жиҳатдан билвосита таъсир қилиб бормоқда.

Республикамизнинг ҳудудларда изчил амалга оширилаётган кенг кўламли инвестиция лойиҳалари доирасида товар ва хизматлар импортига талаб ҳамда ташқи қарзга хизмат кўрсатиш харажатларининг ортиши юз берди, шу билан биргаликда мамлакатга жорий пул ўтказмаларининг қисқариши жорий операциялар ҳисобининг манфий сальдосини оширувчи омиллар сифатида асосий роль ўйнамоқда. Биржавий хомашё нархларининг ошиши ҳамда туризм ва транспорт хизматларининг сезиларли ўсиши ҳисобига товар ва хизматлар экспорти ҳажмининг ўсиши, шунингдек мамлакатга халқаро пул ўтказмалари ҳажми ўзининг фундаментал ўсиш тренди доирасида шаклланиши жорий операциялар ҳисобига ижобий таъсир кўрсатди.

Ўзбекистоннинг ташқи савдо муносабатларида дунёнинг мамлакатлар гуруҳи бўйича таҳлил қилганда МДҲ давлатлари билан ушбу соҳадаги ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш ўз самарасини бераётганлигини кўриш мумкин. Республикамизда ташқи савдони қўллаб-қувватлаш ҳамда бўйича олиб борилаётган чора-тадбирлар натижасида, 2024 йил якунларига кўра бу давлатлар билан ташқи савдо айланмамиз умумийга нисбатан 35,1 фоизни ташкил қилган бўлса, Евроосиё иқтисодий иттифоқига аъзо давлатлар билан ташқи савдо айланмасимиз 17 млрд АҚШ доллардан ошиб, унда экспорт ҳажми 5833,2 млн АҚШ доллари, импорт ҳажми эса 11 664,2 млн АҚШ долларини ташкил этди, аввалги (2023) йилга нисбатан олганда қарийиб 2,5 фоизга ошгандир.

Бизга маълумки, макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда тўлов баланси муҳим омиллардан бири сифатида юзага чиқади. Ўз навбатида мамлакатнинг тўлов балансида ташқи савдо айланмаси асосий муҳим инструмент ҳисобланадики, назарий ва амалий жиҳатдан қараганда бу муайян давр учун мамлакат экспорти ва импорти қийматининг миқдори ҳисобланиб, товарларнинг ташқи савдо статистикаси одатда Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудига олиб кириш ёки Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудидан олиб чиқиш натижасида мамлакат материал ресурслари захираларига қўшиладиган ёки улардан айириб ташланадиган товарлар ҳисобини ташқи савдо умумий ҳисоб тизими асосида ҳисобланади.

1-жадвал.

Ўзбекистоннинг ташқи савдо айланмаси ва баланси таҳлили (млн АҚШ доллари)[1]

№	Кўрсаткичлар	йиллар			
		2021	2022	20223	2024
1	**Ташқи савдо айланмаси**	**42 170,5**	**50008,4**	**63 528,6**	**65 934,0**
2	**Экспорт**	**16 662,8**	**19309,1**	**24 869,5**	**26 948,2**
	товарлар	9 971,3	11239,3	10 972,5	12 100,6
	хизматлар	2 581,7	3 959,5	5 640,4	7 204,4
	номонетар олтин	4 109,8	4 110,3	8 153,8	7 480,6
3	**Импорт**	**25 507,7**	**30699,3**	**38 659,1**	**38 985,8**
	товарлар	23 740,4	28172,9	35 574,8	35 237,8
	хизматлар	1 767,3	2 526,3	3 084,3	3 748,0
4	**Салдо**	**-8 844,9**	**-11390,2**	**-13789,6**	**-12 037,6**

Таъкидлаш лозимки, бугунги кунда Ўзбекистон дунёнинг қарийиб 200 га яқин давлатлар билан ташқи савдо алоқаларини йўлга қўйган бўлиб, буларда 2024 йил натижаларида кўра, Хитой билан қарийиб 19 фоиз, Россия билан 18 фоиз, Қозоғистон билан 6,5 фоиз, Туркия билан 4,5 фоиз ва Корея Республикаси билан қарийиб 3,0 фоизлик ташқи савдо айланмани ошириб келинмоқда. Шунингдек, қўшни мамлакатлар билан ташқи савдо айланмаларимиз ҳамда ижтимоий-иқтисодий, савдо-саноат ва маданий соҳаларда муносабатларни ривожлантириш республикамизда ташқи савдо айланмаларимизни миқдор ва сифат ҳамда макон жиҳатдан ҳам кенгайиб бормоқда.

Юқорида келтирилган жадвал маълумотларидан ҳам кўриш мумкинки, Ўзбекистоннинг ташқи савдо айланмаси ва балансида экспорт ва импорт ўртасидаги салбий фарқ, 2024 йилда -8 844,9 млрд доллордан 2024 йилда -12 037,6 млрд доллордан ошиқ бўлган. Назарий жиҳатдан қараганда бу натижа макроиқтисодий барқарорликни таъминланишининг иқтисодий асоси сифатида баҳолаб бўлмайди. Аммо, импортнинг таркибининг милиий иқтисодиётда самарадорликка олиб келиш позициясидан келиб чиққанда ижобий жиҳатдан баҳолаш ёндошувлар ҳам йўқ эмас

2-жадвал.

Ўзбекистоннинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Халқаро стандартлашган савдо таснифлагичи (ХССТ) бўйича экспорт таркиби таҳлили[2]

№	ХССТ таркиби	йиллар			
		2021	2022	2023	2024
1	**Жами**	16 662,8	19 309,1	24 869,5	26 948,2
	шу жумладан:				
2	Озиқ-овқат маҳсулотлари ва тирик ҳайвонлар	1 371,8	1 631,6	1 777,6	2 175,2
3	Ичимликлар ва тамаки	36,0	111,0	123,0	138,5
4	Ноозиқ-овқат хомашё, ёқилғидан ташқари	509,5	399,4	321,4	320,6

[1] Ўзбекистон миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллифнинг ҳисоб-китоблари.
[2] Ўзбекистон миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллифнинг ҳисоб-китоблари.

5	Минерал ёқилғи, ёғлаш мойлари ва шунга ўхшаш материаллар	914,8	1 222,1	940,6	1 315,0
6	Ҳайвон ва ўсимликлар мойлари (ёғлари), ёғлар ва мумлар	1,5	21,2	14,2	43,5
7	Кимёвий воситалар ва бошқа тоифаларга киритилмаган шунга ўхшаш маҳсулотлар	1 131,2	1 301,8	1 307,4	1 687,3
8	Саноат товарлари	4 333,1	4 443,2	4 051,5	4 200,7
	Машиналар ва транспорт асбоб ускуналари	693,6	975,7	1 305,2	1 202,2
9	Бошқа товарлар	4 303,9	4 132,3	8 192,6	7 555,1
10	Турли хил тайёр буюмлар	785,6	1 111,3	1 195,6	1 105,7
11	шу жумладан: олтин	4 109,8	4 110,3	8 153,8	7 480,6
12	Хизматлар	2 581,7	3 959,5	5 640,4	7 204,4

Халқаро иқтисодий алоқаларнинг ривожланиши экспортнинг барқарор ўсишига кўмаклашади ва бу ўз навбатида маълум натижаларга эришиш учун замин яратади. Мамлакатнинг экспорт салоҳиятини ошириш, экспортёрларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, экспортбоп маҳсулотлар номенклатурасини кенгайтириш мақсадида амалга оширилган ислоҳотлар натижасида, экспортёрлар сони 7 756 тага етди ва улар томонидан 19 467,6 млн АҚШ доллари (номонетар олтиндан ташқари) қийматидаги (2023 йилга нисбатан 16,5 % га кўпайди) товар ва хизматлар экспорт қилиниши таъминланди.

Хулоса сифатида таъкидлаш мумкинки, миллий иқтисодиёт доирасида макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда ташқи омиллар орасида стратегик аҳамиятга эга бўлган маҳсулотларнинг жаҳон бозоридаги коньюктурасида ўзгаришлар ва уларнинг ўртача нархининг ўзгариб туриши оқибатида мамлакатнинг ташқи тўлов баланси ва олтин-валюта захираларига таъсир доираси муҳим ҳисобланади. Ўзбекистон учун бундай стратегик маҳсулотлар сифатида олтин алоҳида аҳамият касб этади, сир эмаски, унинг жаҳон бозоридаги нархи миллий иқтисодиётимизда макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда стратегик омил сифатида ўз таъсирига эга.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони.
2. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ 360 сон Қонуни билан тасдиқланган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 31 майдаги ПҚ-3756-сонли “Имтиёзлар ва преференциялар бериш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
4. Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни лойиҳаси ва 2022 йил учун Бюджетнома бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг Хулосаси.
5. Х.П.Абулқосимов ва бошқалар. Давлатнинг макроиқтисодий сиёсати. Академия, 2007 й.
6. Беркинова Б.Б., Маматова Ф.Х. Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш йўллари. ТДИУ, 2011.
7. Махмудов Н.М., Ҳакимов А.Ҳ. Макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш – барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шартидир. // Иқтисодиёт ва таълим, 2017 й. 2-сон. 7-11-бетлар.

КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ТАШҚИ САВДО ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БОРАСИДАГИ ИЛҒОР ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Э.Исмаилов
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳамаси ҳузуридаги
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактабининг мустақил изланувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.17536119

Аннотация: Тараққий этган мамлакатларда кичик бизнес субъектларининг ташқи савдо фаолиятини ривожлантириш борасида бой тажриба тўпланган. Ушбу тажрибани ўрганиш ва ундан фойдаланиш имкониятларига баҳо бериш Ўзбекистон учун муҳим амалий аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: кичик бизнес, кредит, субсидия, бонификация, фоиз ставкаси.

А.Смирновнинг фикрича, «халқаро кедитлар ҳисобидан kичик бизнес субъектларининг экспортини kредитлаш амалиёти давлат томонидан молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватланиши лозим. Мазкур молиявий қўллаб-қувватлашнинг асосий шаkллари бўлиб, kредитларни давлат томонидан kафолатлаш ва фоиз ставкаларини бонификация қилиш ҳисобланади».А.Смирновнинг мазкур назарий хулосаси Ўзбекистон амалиёти учун муҳим амалий аҳамиятга эга. Чунки, ҳозирга қадар kичик бизнесга берилган экспорт кредитларини бонификация қилиш тартиби амалиётга жорий қилинмаган.Г.Мокровнинг фикрига кўра, экспортни субсидиялашнинг уч муҳим шаkли мавжуд: «тўғридан-тўғри бериладиган махсус субсидиялар (ушбу субсидиялар экспортчи давлатнинг бюджетидан экспорт қилинадиган товарни ишлаб чиқаришга, экспорт қилишга ёки етkазиб беришга берилади); билвосита специфиk субсидиялар (мазkур субсидиялар экспорт қилувчи kомпанияларга солиқлар, бож тўловлари ва давлат бюджетига ажратмалар миқдорини kамайтириш шаклида берилади); kомбинациялашган специфиk субсидиялар (ушбу субсидиялар бир вақтнинг ўзида kредитларни молиялаштириш ҳамда товарларни ишлаб чиқаришга, экспорт қилишга ёки етkазиб беришга берилади)»

В.Ахрамович ва Р. Янбых ёзади: «сўнгги йилларда қишлоқ хўжалиги товарлари билан амалга оширилаётган халқаро савдонинг умумий ҳажмини юқори суръатларда ўсиши минтақавий ҳамжамиятлар доирасида kузатилмоқда ва 70 фоизга яқинни ташкил қилмоқда. Бу эса, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари халқаро савдосини молиялаштиришда асосий эътиборни минтақавий ҳамжамиятлар доирасида амалга ошириладиган халқаро савдони молиялаштиришга қаратиш лозим».Германияда кичик бизнес капитали миқдорини ошириш, ишлаб чиқариш фаолиятини кенгайтириш, инновацион лойиҳаларни амалга ошириш каби муҳим вазифаларни ҳалэетишга қаратилган мақсадли давлат дастурлари мавжуд. Ушбу дастурлар доирасида кичик бизнес субъектларига имтиёзли кредитлар берилади ва ушбу кредитлар бир млн. евро миқдорида 10 йилгача муддатга берилади.

Фикримизча, Германия тажрибасининг амалий аҳамияти қуйидагиларда намоён бўлади:

*кредитлар узоқ муддатли бўлиб, кичик бизнес субъектларининг инвестицион харажатларини молиялаштириш имконини беради;

* кредит фоизининг маълум қисми давлат маблағлари ҳисобидан бонификация қилинади;

*кредитларнинг барчаси имтиёзли даврга эга.

Буюк Британия ва Францияда тижорат банклари томонидан кичик бизнесга берилган кредитларни тўлашни кафолатлайдиган давлат кафолат фондлари яратилди.Тижорат банкларининг факторинг кредитлари Ақш ва Европа мамлакатларида кичик бизнес фаолиятини молиялаштириш учун кенг қўлланилади. Европа мамлакатларида тижорат банклари - кичик бизнеснинг факторинг кредитларидан фойдаланувчиларнинг 80 фоизи йиллик айланмаси деярли 5 million еврониташкил етади. Қўшма Штатларда ва Европа мамлакатларида кичик бизнесга факторинг кредитлари иккала шартда ҳам-регрессив қонун билан ва регрессив қонунсиз берилади.Қўшма Штатларда 50 га яқин кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш дастурлари мавжуд. Улардан учтаси - "504","7а" ва "7м" - енг каттаси .«504 дастури доирасида»кичик бизнес фаолиятини кенгайтириш ва модернизация қилиш учун инвестиция фондлари орқали кредитлар берилади. Кичик бизнес субъекти фаолиятини таҳлил қилгандан сўнг, унга 10 йилдан

20 йилгача бўлган муддатга кўчмас мулк, техника ва технологиялар сотиб олиш учун кредит берилади. Кредит миқдори 1 million доллардан ошмаслиги керак.

По программе "7а"дастури доирасидаянги ташкил етилган кичик бизнес субъектларига берилган банк кредитлари учун давлат кафолати тақдим етилади. "7М"дастуридоирасида кичик бизнесга 35 минг Ақш долларигача қисқа муддатли кредитлар берилади. Ушбу кредитлар капитал оқими ва техник ёрдамга муҳтож бўлган кичик бизнесга берилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Смирнов А.Л. Технологии экспортного финансирования//Банковское дело. – Москва, 2012. – №4. – С. 60-61.
2. Мокров Г.Г. Евразийский экономический союз: инструменты защиты внутреннего рынка от недобросовестной конкуренции. – М.: Проспект, 2018. – С. 57.
3. Ахрамович В.С. Механизмы адаптации внешнеторговой политики в аграрной сфере отдельных стран и сообществ к условиям ВТО//Экономический бюллетень Национального исследовательского института Министерства экономики Республики Беларусь. – Минск, 2015. – №5. – С. 15-25.; Янбых Р.Г. Современные тренды агропродовольственной торговли и ее перспективы в Евразийского экономического союза//Экономика сельского хозяйства России. – Москва, 2011. – №1. – С. 86-91.
4. Papillon J. Le role de la taille de la firme: les specificites des petites et moyennes enterprises /J. – C. Papillon//Problemes economiques. –Paris: La Dokumentation francais, 2005. - №2,885, - P. 9.
5. Степашина М.О. Европейский рынок факторинга. Факторинг и торговое финансирование. – Москва, 2009. – №2.
6. The Small Business Economy: A report to the President. – Washington: United States Government Printing Office, 2005. – P. 17.
7. Small Business Act. Public Law 85-536. – http://www.sba.gov/library/cfrs.

УМУМХЎЖАЛИК (УМУМИШЛАБ ЧИҚАРИШ) ХАРАЖАТЛАРИНИНГ ОҒИШИШЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Амир Худайкулов
Термиз давлат университети
“Молия” кафедраси доценти в.б., PhD. Термиз, Ўзбекистон,
E-mail: amir7x@mail.ru; xudoyqulova@tersu.uz
ORCID: 0000-0001-8915-5962
https://doi.org/10.5281/zenodo.17551480

Калит сўзлар: Ишлаб чиқариш харажатлари, доимий харажатлар, ўзгарувчан харажатлар, меъёрий коэффициент, оғишишлар, умумишлаб чиқариш харажатлари, меъёрий харажатлар.

Ключевые слова: Производственные затраты, постоянные затраты, переменные затраты, нормативный коэффициент, отклонения, общепроизводственные затраты, нормативные затраты.

Keywords: Production costs, fixed costs, variable costs, standard coefficient, deviations, general production costs, standard costs.

Ўзбекистон Республикасида умумишлаб чиқариш харажатларининг синтетик ҳисоби - “Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома”[1] га мувофиқ 2500-“Умумишлаб чиқариш харажатлари” счётида юритилади. Умумишлаб чиқариш харажатларининг ҳисоби корхонада бир эмас бир неча турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқарилаётган бўлса қўлланилади. Бунда дейлик айрим материаллар икки ва ундан ортиқ маҳсулот ишлаб чиқаришда ҳам фойдаланилганда, мазкур материалларнинг қиймати битта ишлаб чиқарилаётган тайёр маҳсулот таннархига эмас, балки бир нечта ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар таннархига улушли ҳисобда объектив тақсимланиши асос қилиб олинади.

Улушли тақсимлашга асос қилиб иккита ва ундан ортиқ тайёр маҳсулотнинг ҳар бирини ишлаб чиқаришга кетган киши-соат, иш ҳақи, киловатт, дейлик маҳсулот экин майдонида етиштирилса гектар каби харажат драйверларининг бири адолатли ва объектив таннархни шакллантиришнинг мезони қилиб олинади. Қуйида биз умумишлаб чиқариш харажатлари ҳисобида уларнинг оғишишлари таҳлилини бир турдаги маҳсулот ишлаб чиқариш вазиятида кўриб чиқамиз.

Дейлик, бизнинг корхонамизда ҳисобот ойида ишлаб чиқариш ҳажми амалда 200 бирликни ташкил этди.

Бир бирлик маҳсулотни ишлаб чиқариш учун режага мувофиқ 4 соат вақт кетади. Меъёрий ўзгарувчан умумишлаб чиқариш харажатлари 1 соат ичида 6,0 минг сўм кетиши режалаштирилган. Бир ойлик доимий харажатлар 2100,0 минг сўм этиб режалаштирилган. Иш вақти фонди 600 соатни ташкил этади.

Ҳақиқатда амалга оширилган умумхўжалик харажатлари ойига 8000,0 минг сўмни ташкил этган.

Юқоридаги маълумотларга мувофиқ умумхўжалик харажатларининг меъёрий коэффициенти қуйидагиларни ташкил этади:

- Ўзгарувчан харажатлар 1 соатга 6,0 минг сўм;
- Доимий харажатлар соатига 3,5 минг сўм (2100:600) ни ташкил этади.

Умумхўжалик харажатларининг умумий коэффициенти 1 соатга – 9,5 минг сўм (6,0+3,5) ни ташкил этди.

1. Умумхўжалик харажатларининг умумий оғишиши (четланиши) = Ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархига қўшиладиган меъёрий умумишлаб чиқариш харажатлари (ишлаб чиқаришдаги браклардан ташқари) – Амалдаги умумхўжалик харажатлари (АУХХ) = 9,5 * 200 * 4 – 8000 = - 400,0 минг сўм.

Ҳосил қилинган умумхўжалик харажатларининг умумий оғишишини иккита таркибий қисмга ажратишимиз мумкин:

[1] Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сонли БҲМС) “Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома”. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 ноябрдаги 191-сон буйруғига 1-илова

$УХХ_1$ = Эришилган ишлаб чиқариш даражаси ҳисоб-китобида бюджет кўрсаткичларининг ўзгариши ҳисобига пайдо бўлган оғишишлар (четланишлар);

$УХХ_2$ = Ҳажм бўйича оғишишлар (четланишлар).

2. Бюджет кўрсаткичларининг ўзгариши ҳисобига оғишишлар (четланишлар) = Режалаштирилган УХХ – Амалдаги УХХ.

$УХХ_1$ = (6 * 200 * 4 + 2100) – 8000 = - 1100,0 минг сўм.

3). Ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгариши ҳисобига пайдо бўлган оғишишлар (четланишлар) = Ҳисобланган УХХ (маҳсулот бирлигига нисбатан қайта ҳисобланганда) – Режалаштирилган УХХ, яъни:

$УХХ_2$ = 9,5 * 200 * 4 – 6 * 200 * 4 – 2100 = + 700,0 минг сўм.

Юқоридаги ҳисоб-китобимизда жами қайта ҳисобланган УХХдан режадаги ўзгарувчан ва режадаги доимий харажатлар айириб ташланди.

4). Текшириш:

УХХ нинг умумий оғишиши = $УХХ_1$ + $УХХ_2$ = - 1100 + 700 = - 400,0 минг сўм.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки амалдаги умумхўжалик харажатлари режадаги умумхўжалик харажатларидан 400,0 минг сўмга кам амалга оширилган. Демак умумхўжалик харажатлари бўйича четланиш (оғишиш) -400,0 минг сўмни ташкил этган. Бу эса корхонанинг режадаги соф фойда кўрсаткичларининг ҳам пропорционал ошишига сабабчи бўлади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болотова А.И. Рабочая тетрадь как средство развития познавательной самостоятельности при обучении математике младшего школьника: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Bolotova Алёна Иванова – М.: 2012 - 24 с.
2. Unt I.E. Индивидуализация и дефференциация обучения/ I.E. Unt. –М.: Педагогика. 1990. - 197 с.
3. Leontev A.N. Problemы razvitiya psixiki. – M.: Pedagogika, 1972. – 576 s.
4. Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – М.: Педагогика, 1976.-224с
5. Rozikov O.R. va boshqalar. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.

ЎЗБЕКИСТОНДА АСОСИЙ КАПИТАЛГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Хошимов Собир Муртазаевич
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
E-mail: sobirhosimov7@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17551569

Аннотация: Тезисда асосий капиталга инвестициялар тушунчасининг иқтисодий мазмун-моҳияти, иқтисодиётни ривожлантиришдаги аҳамияти, асосий капиталга инвестицияларни молиялаштиришда инвестиция муҳити ва унинг жозибадорлигининг аҳамиятини очиб беришга ҳаракат қилинди. Бундан ташқари мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда асосий капиталга йўналтирилган инвестицияларнинг роли ва мавжуд инвестиция муҳити жозибадорлигини оширишдаги асосий муаммолар ўрганилиб, муаммолар ечимлари бўйича хулоса ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: инвестиция, асосий капитал, инвестиция муҳити, интеграция, инфратузилма, тарнсформация, модернизация, инфляция.

Мамлакатлар иқтисодий-ижтимоий тараққиётида инвестицияларнинг, айниқса хорижий инвестицияларнинг аҳамияти жуда катта. Бунинг сабаби, ривожланаётган мамлакатларда ички инвестиция ресурсларининг чекланганлиги ёки мавжуд ресурслардан самарали фойдаланишнинг таъминланмаганлиги, стратегик йўналишларда йирик инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш имконини бермайди. Хусусан, кўпроқ ривожланаётган бозор иқтисодиётига ўтиш даври мамлакатлари иқтисодиётида асосий капиталга йўналтирилган инвестицияларни молиялаштириш масалаларида кўплаб муаммолар мавжуд. Мамлакат иқтисодий ривожланишида асосий капиталга йўналтирилган инвестициялар ишлаб чиқариш қувватларини ва меҳнат самарадорлигини оширишда, янги иш ўринларини яратишда, рақобатбардошликни оширишда, иқтисодий инфратузилмани ривожлантиришда, илмий-техникавий тараққиётни қўллаб-қувватлашда ҳамда бир сўз билан айтганда иқтисодий ўсишни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон иқтисодий ривожланишининг 2016 йилидан бошлаб миллий иқтисодиётни жаҳон иқтисодиётига интеграциялашувида кўп векторли иқтисодий сиёсат юритилиши, миллий валюта конвертациясидаги ижобий ўзгаришлар, инвестиция фаолияти ҳуқуқий асосларини такомиллашуви инвестиция муҳити жозибадорлигини оширишда муҳим омиллар бўлиб ҳисобланади. Зотан, президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Инвестициялар - бу мамлакатимиз трансформациясининг локомотиви ва иқтисодий тараққиётимизнинг мустаҳкам драйверидир”[1].

Асосий капиталга инвестициялар - ишлаб чиқаришга инновацион технологияларни жорий этиш, ишлаб чиқарилган маҳсулотларни янгилаш, фойда олиш ва корхонанинг бозор қийматини оширишга қаратилган капитал қўйилмалардир. Асосий капиталга инвестициялар - бу миллий иқтисодиётнинг ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқаришдан ташқари соҳаларида капиталнинг моддий шаклини яратиш, кенгайтириш ва сақлашга маблағларни инвестиция қилиш жараёни бўлиб, улардан фойдаланиш капитал қийматини ошириш ва ижтимоий-иқтисодий самарага эришишга олиб келади. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонунида 2-бобнинг 5-моддасида тегишинча: “Асосий фондларни яратиш ва такрор кўпайтиришга, шу жумладан янги қурилишга, модернизация қилишга, реконструкция қилишга, техник жиҳатдан қайта жиҳозлашга, шунингдек моддий ишлаб чиқаришнинг бошқа шаклларини ривожлантиришга киритиладиган инвестициялар капитал инвестициялар жумласига киради”[2]деб таъкидлаб ўтилган.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи. 02.05.2024 йил. https://president.uz/uz/lists/view/7194

[2] Ўзбекистон Республикасининг 25 декабр 2019 йилдаги «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти» тўғрисидаги ЎРҚ-598 сон қонуни.

Асосий капиталга инвестициялар самарадорлигига таъсир этувчи омиллар: иқтисодий вазият, сиёсий муҳит, солиқ тизимининг такомиллашуви, инфляция, инвестицион муҳит, инвестицион рисклар ва бошқалар ҳисобланади.

1-жадвал

Молиялаштириш манбалари бўйича асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар(трлн.сўм)[3]

Молиялаштириш манбалари	Йиллар				
	2020	2021	2022	2023	2024
Аҳоли маблағлари	18,1	22,2	25,70	33,3	32
Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар	28,7	30,1	37	84,3	150,5
Кафолатланмаган ва бошқа хорижий инвестиция ва кредитлар	35,4	56,9	60	82,4	159,6
Корхона маблағи	51,9	71,2	84,5	84,9	87
Тижорат банклари кредитлари ва бошқа қарз маблағлари	28,5	19,5	21,1	22,3	12,7
Ўз.Р. кафолати остида хорижий кредитлар	22,5	17,3	15,2	21,2	23,6
Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси	1,8	3,1	2,5	1,6	3,6
Сув таъминоти ва канализация тизимларини ривожлантириш	1,9	2,9	2,9	1,7	1,9
Республика бюджети	1,3	2,1	20,9	20,4	22,8

1-жадвал маълумотлари бўйича Ўзбекистонда сўнгги йилларда асосий капиталга киритилган инвестициялар миқдори таҳлил қилинганда, 2024 йилда асосий капиталга молиялаштириш манбалари таркибида тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар 150,5 триллион сўмни ташкил этгани кўрилади. Бу кўрсаткич кафолатланмаган ва бошқа хорижий инвестициялар ҳамда кредитлар суммаси (159,6 трлн. сўм)дан кейин иккинчи ўринда туради. Жадвал маълумотларига кўра, марказлашмаган молиялаштириш манбалари асосий капиталга сармоя киритишда улуши юқори бўлса-да, тижорат банкларининг кредитлари ва бошқа қарз маблағлари ҳажми камайган, агар 2020 йилда бу кўрсаткич 28,5 триллион сўмни ташкил этган бўлса, 2024 йилда у 12,7 триллион сўмга тушиб қолган. Бу ҳолат тижорат банклари кредитларига қўйилаётган юқори фоиз ставкалари билан боғлиқ. Шунингдек, аҳоли маблағлари ҳисобидан 32,0 триллион сўмлик сармоя киритилган бўлиб, асосан уй-жой қурилиши соҳасида инвестиция фаолияти олиб борилган.

Иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб этишда, мамлакатда асосий капиталга инвестицияларни молиялаштириш ҳажмларини оширишда инвесторлар учун яратилган қулай инвестиция муҳити ва унинг жозибадорлиги муҳим кўрсаткичдир. Инвестиция муҳити - бу мамлакатда инвестиция фаолиятини самарали амалга оширишни белгиловчи ҳуқуқий, иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий шароитларни англатади. Бу омилларнинг ҳар бири мамлакатнинг инвестицион муҳитини тавсифлашда муҳим рол ўйнайди. Инвестицион муҳит жуда мураккаб, кўп қиррали тушунчадир. Инвестицион муҳитнинг турли таркибий қисмларини баҳолаш орқали инвестиция хавфи, амалга оширилиши мумкинлиги ва инвестицияларнинг жозибадорлигини аниқлаш мумкин (2-жадвал).

[3] Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.

2-жадвал

Инвестиция муҳитини белгилаб берувчи омиллар[4]

Ҳуқуқий омиллар	Барқарорлик
	Шаффофлик
	Прогноз (Башорат) қилиш
Макроиқтисодий омиллар	Бозор ҳажми
	Сиёсий рисклар даражаси
	Миллий валюта курси ўсиши
	Кафолат тизими
Географик омиллар	Табиий
	Иқлим шароити
Тадбиркорлик омиллари	Харажатлар даражаси
	Солиқ тизимининг ўзига хос хусусиятлари
	Молиявий имтиёзлар тизими
	Инфратузилманинг ривожланганлик даражаси

Ривожланаётган давлатларда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда асосий капиталга йўналтирилган инвестициялар катта аҳамиятга эга. Чунки, бундай мамлакатларда асосий фондларни янгилаш ёки янги фондлар яратиш катта миқдорда инвестицияларни талаб қилади. Шу нуқтаи назардан, республикамизда ҳам айрим ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида асосий фондларнинг эскирганлиги ёки янгисини ташкил этиш зарурлиги аён бўлмоқда. Масалан, транспорт инфратузилмасида автомобиль йўлларининг эскирганлиги, темирйўл транспортининг юқори харажатлари каби муаммолар мавжуд. Бундан ташқари тижорат банклари кредит фоиз ставкаларининг юқорилиги ишлаб чиқариш ва бошқа лойиҳаларни молиялаштиришни қийинлаштиради ҳамда инвесторларни жалб қилишни чеклаб қўяди.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мамлакатда асосий капиталга йўналтирилган инвестицияларни молиялаштиришда инвестиция муҳити жозибадорлигини ошириш мақсадида: сиёсий барқарорликни таъминлаган ҳолда кучли иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш, мулкчилик ҳуқуқини сўзсиз таъминлаш,; ортиқча бюракратик тартибни соддалаштириш ва камайтириш, коррупцияга қарши курашиш чораларини кучайтириш, бозор фаолияти барча иштирокчилари учун ягона қоидаларни ишлаб чиқишга асосланган самарали, шаффоф (очиқ) ва мустақил давлат бошқарувини (шу жумладан, суд тизимида ҳам), ташкил этиш; макроиқтисодий барқарорлик сиёсатини амалга ошириш, жумладан, инфляция суръатларини пасайтириш, ташқи савдо балансини мусбат сальдосига эришиш, бюджет дефицитини кескин камайтириш, давлат ташқи қарзларини самарали бошқариш, пул бозорида молиявий ресурсларни арзонлаштириш; хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва бошқариш масалаларида ҳудудларга ҳудудлар хусусиятларидан келиб чиқиб тегишли ваколатлар бериш; бўлажак сармоядорлар назарида Ўзбекистон имиджини яхшилашга қаратилган (ҳалқаро инвестиция форумларини ташкил этиш ва глобал инвестиция форумларида қатнашиш орқали) тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Муаллиф аризаси

Халқаро симпозиумда иштирок этиш учун

Муаллифнинг Ф.И.Ш. (тўлиқ)	Хошимов Собир Муртазаевич
Шаҳар, мамлакат	Тошкент
Иш жойи	*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

[4] Муаллиф ишланмаси.

Лавозими	Доцент
Илмий даражаси, илмий унвони	Доцент, PhD
E-mail	*sobirhosimov7@gmail.com*
Телефон рақами (моб/иш)	*93 535-80-72*
Иштирок этиш шакли (шахсан/сиртдан/онлайн)	онлайн
Тезис номи	Ўзбекистонда асосий капиталга инвестицияларни молиялаштиришда инвестиция муҳити жозибадорлигини ошириш масалалари
Илмий йўналиш рақами	**3-sho‘ba: O‘zbekistonda investitsiya muhitini rivojlashtirish muammolari.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг 25 декабр 2019 йилдаги «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти» тўғрисидаги ЎРҚ-598 сон қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи. 02.05.2024 йил. https://president.uz/uz/lists/view/7194
3. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.
4. https://stat.uz/uz.

MOLIYAVIY TIZIMDAGI ISLOHOTLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI XALQARO SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Mustaqil tadqiqotchi DSc,
Email:j.nurboyev@dtpi.uz
ORCID: 0009-0006-6374-3508
tel:+998902466400
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Mustaqil tadqiqotchi PhD,
Email: shermuhammad@dtpi.uz
ORCID: 0009-0009-3469-3486
tel:+998509009859
https://doi.org/10.5281/zenodo.17551635

Jahon savdo tashkiloti (JST) global miqyosda mamlakatlar o‘rtasidagi savdo qoidalari bilan shug‘ullanadigan yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi. Jahon savdo tashkiloti xalqaro savdoni tartibga solishda muhim tashkilot bo‘lib, tashkilot faoliyatining asosida xalqaro savdoda ishtirok etagigan davlatlarning asosiy qismi tomonidan kelishilgan, imzolangan va ularning parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilingan JST kelishuvlari turadi.

Jahon savdo tashkiloti universal tashkilot sifatida mamlakatlarga tashqi savdo siyosatining oldindan o‘rnatilgan tamoyillarini qo‘llash huquqini va tashkilotga a’zo barcha mamlakatlar bilan savdo aloqalar uchun yagona universal savdo-siyosiy bazani yaratish imkoniyatini beradi.[1]

Tashkilotning asosiy vazifalari xalqaro savdoni liberallashtirish, shaffoflashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta’minlash, iqtisodiy o‘sish va insonlar farovonligini oshirishdir.[2]

JST xalqaro savdoni tartibga solishda turli ko‘rinishlarda turli vazifalarni bajaradi:[3]

- Muzokara o‘tkaziladigan forum. Jahon savdo tashkiloti a’zo davlatlar o‘rtasida savdo masalalari bo‘yicha yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun hukumat vakillari yig‘iladigan forum vazifasini bajaradi. JST bu borada o‘z faoliyatini 1986-1994-yillarda o‘tkazilgan Urugvay raundi va GATT doirasidagi dastlabki kelishuvlar asosida olib boradi. Davlatlar jahon bozorida turli savdo to‘siqlariga duch kelganda va ularni kamaytirishga harakat qilganda, yuqoridagi muzokaralarda belgilab qo‘yilgan, tashkilotning har bir a’zosi tomonidan ma’qullangan qoidalar savdoni erkinlashtirishda asosiy instrument bo‘lib xizmat qiladi. Ammo, JST ko‘ptomonlama kelishuvlarga asosan istemolchilarni himoya qilish va turli kasalliklarni tarqalishini oldini olish maqsadida ba’zi vaziyatlarda savdo to‘siqlarini saqlab qolishga qarshilik qilmaydi.[4]
- Qoidalar yig‘indisi. Tashkilot faoliyatining asosida xalqaro savdoda ishtirok etadigan davlatlarning asosiy qismi tomonidan kelishilgan, imzolangan va ularning parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilingan JST kelishuvlari yotadi. Ushbu hujjatlar xalqaro tijoratda qonuniy asos vazifasini bajaradi. Tizimning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanish va farovonlikni oshirish uchun muhim bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida savdo oqimlarini iloji boricha oson, bashoratli va erkin bo‘lishini ta’minlashdir. Ushbu vazifa doirasida nafaqat savdo to‘siqlarini imkon qadar kamaytirish balki kompaniyalar va hukumatlarga savdo qoidalarida to‘satdan o‘zgarish bo‘lmasligini kafolatlaydi. Qisqa qilib aytganda, qoidalar shaffof va kelajakda nima bo‘lishini kafolatlashi kerak.[5]
- Nizolarni hal etish**.** Jahon savdo tashkilotining eng muhim vazifalaridan biri xalqaro savdo aloqalarida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvlarini uchinchi tomon sifatida hal etish hisoblanadi.

Yuridik nuqtai nazardan, JST kontseptsiyasi butun dunyo savdo tovarlari, shu jumlagan to‘qimachilik mahsulotlarining taxminan 97 foizini tartibga soladigan ko‘ptomonlama kelishuvlar to‘plami, qoidalar va normalarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ko‘p tomonlama savdo tizimining huquqiy asosi Jahon savdo tashkilotini tashkil etish bo‘yicha Marokash kelishuvi hisoblanadi (Jahon savdo tashkilotini tashkil etish

bo‘yicha kelishuv). Ushbu kelishuv tashkilotning tashkil etish nizomi va unga ilova qilingan ko‘ptomonlama kelishuvlardan tashkil topgan.

To‘qimachilik mahsulotlari jahon eksporti 887,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi, bu ishlab chiqarilgan tovarlar jahon savdosining deyarli 4,7 foizi hisoblanadi. Mehnat intensivligi yuqori bo‘lgan bu sanoat rivojlanayotgan mamlakatlarga ish o‘rinlarini yaratish va eksport hajmini oshirish uchun yuqori salohiyatga ega bo‘lgan sanoatlashtirishning dastlabki bosqichlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bir qancha davlatlar uchun ushbu sanoat ushbu davlatlar iqtisodiyotining strategik tarmog‘i hisoblanadi. Masalan, to‘qimachilik sanoati eksporti Bangladesh davlatining umumiy eksport hajmining 89,7 foizni, Pokiston davlati umumiy eksport hajminining qariyib 60 foizini, Shri-Lankaning 49 foizini, Hindiston va Xitoyning umumiy eksport hajminining mos ravishda 11,3 va 12,2 foizini tashkil etadi.

Dastlab to‘qimachilik tovarlari jahon savdosi “Tarif va savdo to‘g‘risidagi bosh kelishuv (GATT)” qoidalaridan tashqarida, ammo shaffoflikning ma’lum bir darajasini ta’minlay olgan ketma-ket ko‘p tomonlama kelishuvlar doirasida amalga oshirilgan. Ushbu vaqtinchalik kelishuvlar importyorlar va eksportyorlar tomonidan maqullangan ikki tomonlama kvotalar to‘plamini o‘rnatgan. “Uzoq muddatli paxta kelishuvi” 1962-1973-yillarda to‘qimachilik tovarlari jahon savdosini tartibga solgan bo‘lsa va “Ko‘p tolali kelishuv” (Multifibre Arrangement) 1974-1994-yillar davomida tovarlar savdosini qoidalarini o‘rnatgan asosiy kelishuv vazifasini bajargan. Turli sabablarga ko‘ra ko‘plab importyor davlatlar “Ko‘p tolali kelishuv”ni tark eta boshlaydi (Shvetsiya, Shvetsariya, Avstraliya ushbu davlatlar orasida). 1994-yilga kelib 1300 to‘qimachilik sanoati import kvotalarini o‘z ichiga olgan kelishuv doirasi to‘rt importyor (AQSh, Yevroa Ittifoqi, Kanada va Norvegiya) va 30ga yaqin rivojlanayotgan exportyor davlatlar faoliyat yuritishgan.

JSTning to‘qimachilik bo‘yicha kelishuvida ushbu soha savdo qoidalari 1994-yilda GATT normalariga muvofiqlashtirish 4 bosqichda amalga oshirilishi belgilangan. 1995-yil 1-yanvarda a’zolardan 1990-yilgi to‘qimachilik mahsulotlari import hajmining kamida 16 foizini GATT normalariga muvofiqlashtirishi talab qilingan.1998-yil 1-yanvarda 17 foizi, 2002-yil 1-yanvarda qo‘shimcha yana 18 foizi va 2005-yil 1-yanvar kuniga qadar To‘qimachilik va kiyim-kechak to‘g‘risidagi kelishuv muddati tugashida qolgan 49 foizi GATT normalariga muvofiqlashtirilishi belgilangan. Mahsulotlar GATT normalariga muvofiqlashtirilganligi sababli ularga qo‘yilgan har qanday kvotalar olib tashlanadi. Bosqichli integratsiya jarayoni orqali To‘qimachilik va kiyim-kechak to‘g‘risidagi kelishuv qoidalarida nazarda tutilgan to‘qimachilik mahsulotlari tobora qisqarib boradi va kvotalar soni 2005-yil 1-yanvarda To‘qimachilik va kiyim-kechak to‘g‘risidagi kelishuvni o‘z kuchini yo‘qotishiga qadar kamayib boradi.

1-jadval

To‘qimachilik sanoti jahon savdo qoidalarini GATT normalariga muvofiqlashtirishning 10 yillik dasturi

Bosqichlar	**Bosqich boshida muvofiqlashtiriladigan mahsulotlar foizi (%) (1990-yilgi savdoga asoslangan)**
1-bosqich: 1995-yil 1-yan (1997-yil 31-dekabrgacha)	16%
2-bosqich: 1998-yil 1-yan (2000-yil 31-dekabrgacha)	17%
3-bosqich: 2002-yil 1-yan (2004-yil 31-dekabrgacha)	18%
4-bosqich: GATT normalariga to‘liq muvofiqlashtirish (shuningdek, kvotani	49%

bekor qilish) (2005-yil 1-yanvar)	

Manba: *Jahon savdo tashkiloti rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

To‘qimachilik sanoati 1974-yildan Urugvay roundining so‘ngiga qadar to‘qimachilik mahsulotlari savdoni ikkitomonlama kelishuvlar va Ko‘p tolali kelishuvi orqali tartibga solingan. Ko‘p tolali kelishuvida to‘qimachilik mahsulotlari xalqaro savdosi asosan kvota orqali tartibga solingan. Bu esa asosiy instrumenti tarif orqali tartibga solish bo‘lgan GATT prinsiplariga qarshidir. Shuningdek, ushbu kelishuvda import qiluvchi davlatlar alohida holda export qiluvchi davlatlardan qancha miqdorda import qilishi belgilab qo‘yilganligi sababli, GATTning barcha savdo sheriklarga bir xil munosabatda bo‘lish prinsipiga ham zid hisoblangan.

1995-yildan boshlab Ko‘p tolali kelishuvi o‘rniga JSTning To‘qimachilik va kiyim-kechak to‘g‘risidagi kelishuvi kuchga kirgan. 2005-yilning 1-yanvariga qadar to‘qimachilik sanoati to‘liq GATT qoidalariga moslashtirilgan. Xususan, kvotalar orqali tartibga solish to‘xtatilgan va to‘qimachilik mahsulotlari importi bilan shug‘ullanadigan davlatlar eksport qiluvchi davlatlarni kamsitish holatlari tugatiladi. Hozirga kelib JSTning To‘qimachilik va kiyim-kechak to‘g‘risidagi kelishuvi mavjud emas. Ushbu kelishuv vaqt o‘tishi bilan o‘z-o‘zini yo‘q qilishga qaratilgan JSTning yagona kelishuvi hisoblanadi. Hozirda to‘qimachilik sanoatining tashqi savdosi to‘liqligicha GATT qoida va normalari asosida olib boriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki GATT-Urugvay raundi doirasida to‘qimachilik sanoati jahon savdosida 1994-yilgacha kuzatilgan muammolarni hal etish maqsadida “To‘qimachilik va kiyim-kechak kelishuvi” ishlab chiqilgan. To‘qimachilik va kiyim-kechak kelishuvining asosiy maqsadi import qiluvchi mamlakatlarga o‘z ichki tarmoqlarini yangi qoidalarga moslashtirish uchun tasodifiy va katta miqdordagi zararlardan qochish maqsadida o‘tish davri berish orqali bosqichma-bosqich to‘qimachilik sanoti jahon savdo qoidalarini Jahon savdo tashkilotining qoidalari va normalariga to‘liq muvofiqlashtirish hisoblangan.

Xalqaro to‘qimachilik mahsulotlari savdosi JSTning To‘qimachilik va kiyim-kechak kelishuvi kuchga kirgan sana, ya’ni 1995-yil 1-yanvardan boshlangan 10 yillik o‘tish dasturi asosida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Kelishuv huquqiy jihatdan kuchga kirishidan avval sohaning katta qismi kvotalar orqali tartibga solingan. Kelishuvga ko‘ra, JSTga a’zo davlatlar tashqi savdo siyosatida

2005-yilning 1-yanvarigacha to‘qimachilik mahsulotlariga o‘rnatgan kvotalardan voz kechishi va sanoatni GATT qoidalariga to‘liq integratsiya qilishlari kerak bo‘lgan.

To‘qimachilik sanoati 1994-yilda dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksportining 9,1 foizni tashkil etgan. To‘qimachilik va kiyim-kechak kelishuvini qabul qilish daoirasida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 1994-yildagi GATT kotibiyati hisob-kitobiga ko‘ra to‘qimachilik mahsulotlariga o‘rnatilgan kvotalardan voz kechish va tariflarini kamayishi hisobiga 2005-yilga kelib to‘qimachilik mahsulotlari (kiyik-kechak bundan mustasno) savdosi 18 foizga oshishi bashorat qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Sirojiddinov, G. Sultanova, L. Mingishov, E. Abdullayev; Влиянии вступления Узбекистана в ВТО на электротехническую отрасль, Аналитический доклад.-Toshkent, BMTning rivojlanish dasturi, 2020-b. 62-65.
2. Юсупов С.Ш. Роль маркетинга в повышении конкурентоспособности продукции текстильной и легкой промышленности Узбекистана. // Материалы международной научно-практической конференции. - Москва, ГОУ ВПО “РЭА им. Г.В.Плеханова”, 2009. -С. 235, 236.
3. Jahon savdo tashkilotining rasmiy veb sayti - https://www.wto.org;
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasining rasmiy statistika bazasi - https://unctadstat.unctad.org/EN/;-b. 25,56.
5. Савицкая Г.В. “Анализ хозяйственной деятельности предприятий” –М.: ИНФРА-М, 2001. -С. 298, 309.

QISHLOQ XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Nurmatov Norbek Jo'rayevich
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17570037

Aholi sonining ko'payishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ham unga mutanosib ravishda ko'paytirishni talab etadi. Ammo, ekologik vaziyatning yomonlashishi, suv taqchilligi va ekin maydonlarining cheklanganligi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishda jiddiy to'siq bo'lishi ham ta'kidlanmoqda. Bu muammolarni esa qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion usullar asosida boshqarish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar kiritish orqali hal etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizni taraqqiy ettirishning asosiy yo'nalishlari haqida fikr bildirib, "Mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir" – deb ta'kidlagan edi.

Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi tarmog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda "Elektron qishloq xo'jaligi" (E-agriculture) va "Aqlli qishloq xo'jaligi" (Smart agriculture) tushunchalari paydo bo'ldi va ushbu tushunchalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondoshuvlardir.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va buning uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Jumladan, 2019-yil 23-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853 sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida qabul qilingan strategiyada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini amalga oshirish, qishloq xo'jaligida intensiv innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga ham alohida e'tibor berilgan.

2020-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, unda mamlakatimizda innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida 2020-yil 17-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra agrar sohani raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

2021-yil 3-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-sonli farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi tashkil etildi. Milliy markaz barcha turdagi davlat ilmiy va oliy ta'lim muassasalarining qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilingan bo'lib, ushbu strategiyaning "**Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bo'limida keltirilgan 30-maqsadda qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish nazarda tutilgan. Ushbu maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida i**lm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirishga e'tibor qaratish nazarda tutilgan.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bo'lgani singari qishloq xo'jaligida ham ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini ko'paytirishga, innovatsiyalarni joriy etishga e'tibor berish hozirgi kunning talabidir.

2024-yilda mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar soni jami 264 tani tashkil etgan bo‘lib, mazkur ko’rsatkich 2010-yilda 301 tani, 2015-yilda esa 323 tani tashkil etgan edi.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog’ining ulushi ancha past. Jumaladan, 2021-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlarning 4 tasi yoki 1,5 foizi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i korxonalari hissasiga to‘g‘ri keldi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i korxonalari tomonidan bajarilgan 4 ta ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarining ham atigi 2 tasi ilmiy tadqiqot ishlaridir. 2021-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar soni tarkibida kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat va ta’lim sohasi yuqori salmoqni tashkil etgan. Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat sohasi jamiga nisbatan 61,0 foizni, ta’lim sohasi esa 26,8 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatimizda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga jami 1574,1 mlrd. so‘m xarajat qilingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 184,9 mlrd so‘mga yoki 13,3 foizga oshgan. Uning tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi 2021-yilda 0,07 foizni yoki 587,8 mln. so‘mni tashkil etgan xolos. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun sarflangan 587,8 mln. so‘m mablag‘ning 265,6 mln. so‘mi (45,2 foizi) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan, 311,0 mln. so‘mi (52,9 foizi) buyurtmachilar mablag‘lari hisobidan va atigi 11,1 mln. so‘mi (1,9 foizi) korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot muassasalari va tadbirkorlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning samarali mexanizmi mavjud emasligi davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etishni sezilarli darajada cheklamoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirib borish;
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarini kuchaytirish, ular o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari amal qilishiga erishish. Bunda ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish uchun barcha huquqiy-me’yoriy asoslarni yaratish muhim ahamiyatga ega.
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining o‘z faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishdan moddiy manfaatdorligini oshirish, ularning o‘z daromadlarini oshirib borishiga turtki beruvchi iqtisodiy erkinligini ta’minlash. Shunday sharoit ta’minlansa qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga, resurslarni tejovchi va unumdorlikni oshiruvchi texnologiyalarni o‘z faoliyatiga joriy etishga harakat qiladilar. Innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha tashabbus tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan chiqishi yuqori samara beradi. Bunda tadbirkorlar o‘z faoliyatini intensivlashtirish, faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish maqsadida ilmiy tadqiqot istitutlariga buyurtma berishilari lozim, shunda ilmiy yangiliklar va innovatsiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishga joriy etiladi.
- davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, shu maqsadda davlat budjetidan sarflanayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish ustidan doimiy monitoring yuritish;
- qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni mamlakatimiz agrar sohasiga joriy etish chora-tadbirlarni amalga oshirib borish;
- qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga joriy etish sifatli aloqa va internet xizmati mavjud bo‘lishini, zamonaviy bilimlarni egallagan yuqori malakali kadrlar bo‘lishini, konsalting xizmatlari yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Shu va boshqa zaruriy infratuzilmani tashkil etib, ularning faoliyatini rivojlantirish lozim.

- agrosanoat majmuida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, tarmoqni ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchilar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar va savdo kompaniyalari) va ilmiy-tadqiqot muassasalari (oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari) o‘rtasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha mustahkam hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2021.-464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019-y., 06/19/5853/3955-son; 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.
4. Nurmatov N.J. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -Termiz: “Termiz publishing center”, 2025. -630 b.
5. Murtazayev O., Ahrorov F.B. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “ILM ZIYO”, 2017. -415 b.
6. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. -404 b.

QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Nurmatov Norbek Jo'rayevich
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17570087

Agrar sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmini va samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirish imkonini beradi. Buning uchun agrar sohaga jalb qilinadigan investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.Mamlakatimizdagi va chet ellik iqtisodchi olimlar tomonidan agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish masalalari chuqur tadqiq qilingan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Yemelyanov agrar sohaga sarflangan investitsiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida baholar o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholarining o'sish sur'ati agrar soha ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan resurslar narxlarining o'sish sur'atidan sezilarli orqada qolayotganligi investitsiyalash uchun zarur bo'lgan mablag'larni jamg'arish imkonini bermayapti. Agrar sohadagi investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmining ayrim nazariy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlarimizdan A.Vahabov, D.G'ozibekov, S.Umarov, E.Shodmonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. A.Vahobov ilmiy tadqiqotlariga asoslangan holda, agrar sohani investitsiyalash jarayoni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi shart degan xulosaga kelgan. E.Shodmonov esa, qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy holatining beqarorligi, investitsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi sharoitida lizing asosida investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini kuchaytirish maqsadga muvofiqligini asoslab bergan.

Investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati ulkan.

Birinchidan, investitsiyalar jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalardagi o'zgarishlar yalpi talabga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi, shuningdek aholining bandligi va yalpi milliy daromad hajmining ham o'zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, investitsiyalar korxonaning asosiy fondlari jamg'arilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqarish kuchlarini kengaytirishga sarf qilingan pul mablag'lari kelajakda iqtisodiy o'sish uchun zarur bazani yaratadi.

Uchinchidan, investitsiyalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o'sishiga olib keladi, natijada yalpi milliy daromad qisqaradi. Ular sarflanayotgan investitsiyalarning qiymati o'sishiga hamda samaradorligi pasayishiga ta'sir etadi.

Investitsiyalar qishloq xo'jaligining har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi, chunki ularning evaziga tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi. Ulardan to'liq va samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, sifati yaxshilanadi. Bu hol qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab yanada yaxshiroq qondirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda sof foyda summasi ko'payadi. Natijada qishloq xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yanada yuksaladi. Bular investitsiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi mavjudligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va uning tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmog'ining ulushi haqidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va uning tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik tarmog'ining ulushi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023
Asosiy kapitalga kiritilgan nvestitsiyalar, mlrd so'm	210195,1	239552,6	266240,0	356071,4
Shu jumladan: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, mlrd so'm	14776,8	17727,9	15703,6	17004,4

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi, foiz	7,0	7,4	5,9	4,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va uning tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik tarmog‘ining ulushi ancha past va u yanada kamaymoqda.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar

	2021		2022		2023	
	Hajmi, mlrd. so‘m	Salmog’i, %	Hajmi, mlrd. so‘m	Salmog’i, %	Hajmi, mlrd. so‘m	Salmog’i, %
Jami	17727,9	100,0	15703,6	100,0	17004,4	100,0
Shu jumladan:						
respublika budjeti mablag‘lari	1231,9	7,0	1428,7	9,1	1495,0	8,8
korxona va tashkilotlar mablag‘lari	3038,6	17,1	3461,4	22,0	3218,0	18,9
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	2746,9	15,5	2209,9	14,1	865,7	5,1
xorijiy investitsiya va kreditlar	7659,4	43,2	5067,0	32,3	7390,0	43,5
boshqa moliyalashtirish manbalari	3051,1	17,2	3536,6	22,5	4035,7	23,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida tarmoqqa jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi ancha yuqori.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga jalb etilgan xorijiy investitsiyaga misol tariqasida 2020-yil 11-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4803-sonli qarori asosida jalb etilgan invstitsiyani keltirishimiz mumkin. Umumiy qiymati 659,3 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan ushbu loyiha 6 yilga (2020-2026-yillar) mo‘ljallangan. Loyiha doirasida Jahon banki tomonidan 30 yil muddatga 500 mln. AQSh dollar ajratilgan. Qarorda Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihaning ustuvor yo‘nalishlari, etib quyidagilar belgilangan:

-qishloq o‘jaligida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan samarali tizimini yaratish;

- qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, statistic ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli va shaffof usullarini joriy etish;

- oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda “daladan iste’molgacha” tamoyili asosida sifat nazoratini kuchaytirish, agrologistika, yo‘l va boshqa zarur infratuzilmani yaratish;

- eksportni rag‘batlantirish, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, eksportbop yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish borasida qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;

- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini diversifikatsiyalash, sohada davlat ishtirokini kamaytirish, kooperatsiya tizimini rivojlantirish, hamda sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;
- yer va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanish;
-sohaga boshqaruvning zamonaviy tizimlarini joriy etish, xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari ulushining so‘nggi yillarda keskin kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tarmoqqa jalb etilayotgan investitsiyalarni boshqa tarmoqlar bilan taqqoslaganda ularning salmog‘i past darajani tashkil etadi. Shuni inobatga olgan mamlakatimiz hukumati tomonidan mazkur tarmoqda investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchilarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, issiqxonalar tashkil etish, sug‘orishning zamonaviy tejamkor usullarini joriy etish, qishloqlarning qiyofasini zamonaviylashtirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa shu kabi maqsadlarga katta miqdordagi mablag‘lar sarflanmoqda.Qishloq xo‘jaligiga talabni qondiradigan darajada investitsiyalar sarflanishini kelajakda ishonchli ta’minlash uchun investitsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik hamda jismoniy shaxslar ko‘lamini kengaytirish talab etiladi. Ular respublikamiz yoki chet davlatlardan bo‘lishi mumkin, ularni qishloq xo‘jaligidagi investitsion jarayonga faolroq jalb etishga alohida e’tibor berish lozim.

Investitsiyalarni amalga oshirishda banklarning ko‘lamini kengaytirishga erishish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zarur barcha huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan tuziladigan turli birlashmalar, jumladan agrofirmalar va boshqa shu kabilarning ham imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, fermer xo‘jaliklari birikib agrofirma tashkil etishi ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi.Qishloq xo‘jaligida investitsion faollikni yanada oshirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq hududlarida investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish – avtomobil va temir yo‘llari, uzluksiz elektr, gaz va suv ta’minoti, sifatli aloqa xizmati, banklar, sug‘urta kompaniyalari va boshqa shu kabilar faoliyatini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo‘lga qo‘yish;
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning biznes ko‘nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasini shakllantirish va huquqiy bilimlarini oshirish – hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida investitsiya takliflari va loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini sifatli ishlab chiqishga e’tibor berish – tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqalar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;
- xorijiy investorlarni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar bilan ta’minlashni tashkil etish – xorijiy investorlarni to‘laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, turli bukletlar, hududiy matbuot nashrlari, xomashyo va mehnat salohiyati to‘g‘risidagi hamda yaratilgan imkoniyatlar haqidagi ma’lumotlar) bilan ta’minlash, maxsus veb-portal tashkil etish, shuningdek, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminarlar va respublika hududida hamda xorijiy mamlakatlarda taqdimotlar o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2021.-464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019-y., 06/19/5853/3955-son; 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.
3. Nurmatov N.J. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -Termiz: “Termiz publishing center”, 2025. -630 b.
4. Murtazayev O., Ahrorov F.B. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “ILM ZIYO”, 2017. -415 b.
5. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. -404 b.
6. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Statistik to‘plam. Toshkent, 2024.

FOYDANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Hakimov Faxritdin Abdusattorovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17570129

Annotatsiya: Maqolada foydaning iqtisodiy mohiyati va uni shakllantirishning dastlabki nazariy asoslarining xususiyatlari antik davrlar, shuningdek ayrim iqtisodiy maktablarning namoyondalarining qarashlari orqali izohlanib, ularning natijasida xulosalar keltirilgan.

Kirish.

Foyda moddiy va nomoddiy nuqtayi-nazaridan ko‘p qirrali tushuncha bo‘lsada, asosan foyda moddiy borliq sifatida qabul qilinib, ushbu moddiy borliqning mazmuni iqtisodiy subyektlar ruxiyatida ijobiy xususiyatni tavsiflaydi. Iqtisodiy kategoriya sifatida esa mazmunan turlicha anglashiladi. Foydaning mazmunini turilicha qabul qilish, uning oddiy va murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilishni yuzaga chiqaradi. Foyda bozor sharoitida tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davrlari oralig‘idagi uzluksiz asosiy marrasi hisoblanadi. Ushbu jihatning o‘zi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatida asosiy omilni yuzaga chiqaradi.

Iqtisodiy nazariyalar tizimida foyda nazariyasi asosan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganilgan bo‘lsada, foydaning shakllanishi turlicha qarashlarni paydo qilgan. Iqtisodchi va mutaxassilarni dastlab uni shakllanishi va undan foydalanish, ko‘proq qiziqtirgan. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida ularni foydaning tabiati emas, balki uni shakllantirishning maqbul yo‘nalishlari, miqdori, sifati ko‘proq qiziqtirmoqda.

Muhokama va natijalar.

Qadimgi hind iqtisodiy tafakkuri haqidagi Arxashastra traktatida boylikning mehnat orqali yaratilishi hamda savdo foydasining savdogar va davlat o‘rtasida taqsimlanish jarayonini boshqarish zaruriyati haqida to‘xtalib, foydani taqsimlanish jarayoni davlat tomonidan tartibga solinishini targ‘ib qilingan. Foydaning shakllanish jarayoniga nisbatan taqsimlanish jarayoniga ye’tibor qaratilgan.

Shuningdek foydaning shakllanishi va uning mohiyati haqidagi dastlabki iqtisodiy qarashlar qadimgi yunon olimlari Ksenofont, Aflotun davridan boshlanib, ular asarlarida aynan foyda haqida tizimli o‘rganilmagan. Jumladan Ksenofont pul yordamida tovar muomalasi amalga oshirilishi va boylik jamg‘arish uchun insonlar tomonidan kashf yetilganligini ta’kidlaydi. Pulni boylik tarzida jamg‘arishga qarshi bo‘lib, ayniqsa sudxo‘rlikni keskin tanqid qilishgan.

Aflotun narx haqida fikr yuritib, uni davlat boshqarishi kerakligi va uning natijasida foyda olinishini ta’kidlaydi. Iqtisodiy tafakkur taraqiyotida Arastu o‘z qarashlarida o‘rganilgan fikrlarni tizimlashtirib, iqtisodiyot va xrematistika tushunchalariga mezonlar asosida yondoshib, foyda haqida mulohazalarni bosqichma bosqich shakllanishiga hissasini qo‘shdi. “, ...ularning foydani to‘plash vositasi sifatida qo‘llanilishi, ya’ni sudxo‘rlik kapitali sifatida, - xrematistikaga sohasiga tegishlidir.” [1]. Uning iqtisodiyot va xrematistika haqidagi konsepsiyasidan shuni xulosa qilish mumkinki, foydaning shakllanishi aynan xrematistika faoliyati bilan bog‘liq. Xrematistikani savdo orqali barqarorlik holatini paydo qilish ekanligi, bunda mulkka, boylikka yegalik qilishlik yekanligini ta’kidlaydi. “Boylik ortirish san’atida maqsadga erishishda hech qachon chegara bo‘lmaydi, balki bu yerda maqsad boylik va pulga yega bo‘lishdir.” [2]. Shuningdek savdo foydasini ko‘pirtirilganligi, sudxo‘rlik kapitalini pulga egalik qilishning notabiiy yo‘li ekanligii izohlaydi. Arastu oddiy tovar muomalasida va pulning kapital sifatida muomalasida kapitalni pulning harakati natijasida ko‘payishi ta’kidlaydi. Qadimgi yunon olimlarining iqtisodiy qarashlarida stixiyali ravishda savdo foydasi tushunchasi keng o‘rganilganligini ko‘rish mumkin. Demak mazmunan qadimgi yunon olimlari jamiyatda jamg‘arilgan boylik va yegalik qilingan mulk, shuningdek pul mablag‘larini foyda sifatida talqin qilishgan. Ushbu qarashlar esa o‘rta asrlarda faoliyat yuritgan iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilishi ilmiy asoslangan g‘oyalarni rivojlanishga olib keldi.

Bozor iqtisodiyotining dastlabki nazariy konsepsiyasi- tarixiy iqtisodiy qarashlar nuqtayi-nazaridan foyda nazariyasi tamoyillari rivojlanishining dastlabki bosqichlari merkantilistlar iqtisodiy tahlillari bilan bog‘liq. Merkantilistlar xalqaro savdo nazariyasiga shubhasiz yirik salmoqdagi nazriy hissasini qo‘shish bilan birgalikda, bir qator iqtisodiy kategoriyalarni mazmunini ochib ham berishgan. Merkantilistlar T.Mann, D.Yum, J.Kolberlarning nazariy yondashuvlarida boylik - foydani shakllanish manbalarini tadqiq qilish asosiy

o‘rinni egalladi. Merkantilistlar ichki va tashqi savdo faoliyatiga keng e’tibor qaratib dastlab foyda ayirboshlashdan paydo bo‘lishini ta’kidlashgan. Lekin ular foydani shakllantirishda tashqi savdoni afzal bilishgan. “Ularning fikricha, boylikni ko‘paytirishning asosiy manbasi bo‘lib, tashqi savdo hisoblanadi. “Bizning boylik va pulimizni ko‘paytirishning odatiy vositasi, - ta’kidlaydi Men,- tashqi savdo hisoblanadi.” Boshlang‘ich va so‘ngi merkantilizm namoyondalari foydani keng shakllantirish omillari sifati yuqori narxlar belgilash, importni chegaralash, oltin va kumushni mamlkatdan chiqarmaslik, arzon tovarlar vositasida bozorlarni yegallash, aktiv savdo balansi sharoitida tovarlar importga ruxsat berish, maqbul savdo bitimlari uchungina oltin va kumushni mamlakatdan olib chiqishga ruxsat berishlarni keltirishadi. Ularning ta’kidlashicha, albatta ayirboshlash jarayoni foydani paydo bo‘lishini boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, shundan so‘ng uni o‘zlashtirish mumkin. Ammo foydaning paydo bo‘lish manbasi haqidagi savolni qaysi bosqichda o‘zlashtirilishi haqidagi savol bilan aralashtirmaslik zarur. Merkantilistlar fikricha foyda ayirboshlash bosqichida o‘zlashtirilishini ta’kidlashib, foydaning tabiati va haqiqiy manbaidan uzoqlashib, ular foyda ishlab chiqarish jarayonida paydo bo‘lishini bilishmagan. Shunga mos ravishda ularning ilmiy qarashlariga asosan tashqi savdo foyda oqimini ta’minlash maqsadida davlatning faol aralashuvini qo‘llab-quvvatlashgan. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish muminki, merkantilistlar asosan tashqi savdo orqali foydani ko‘paytirish natijasida iqtisodiyotni o‘sishini ta’minlash, milliy boylikni oshirishga e’tibor qaratishgan.

Foyda nazariyasining rivojlanishi fiziokratlar iqtisodiy maktabining namoyondalari – F.Kene, J.Tyurgolar faoliyati bilan ham bog‘liq. Ularning fikricha, iqtisodiyotning shakllanishi va faoliyatinining asosini tabiiy tartib belgilaydi. Fiziokratlar asosan foydani maxsus ishlab chiqarish kuchi - yer natijasi sifatida tasvirlashgan. Ular ziroat mahsulotlarini yetishtirishning miqdoriy o‘sishini qiymat o‘sishi bilan aralashtirib yuborishadi. Shuning uchun ular noto‘g‘ri ravishda ishlab chiqarish sohasidagi foydani qishloq xo‘jaligi bilan chegaralab va mohiyatan iste’mol qiymati o‘sishini qiymat o‘sishi bilan almashtirishdi. Fiziokratlar maktabining namoyondalarining konsepsiyasiga ko‘ra davlatning iqtisodiy siyosati qishloq xo‘jaligi munosabatlari orqali amalga oshirilish zarurligi va foydani shakllantirishda yagona manbasi yer ekanligini qayd etishadi. Foydani shakllanishini F.Kene “sof mahsulot” tushunchasi orqali tushuntirishga harakat qiladi. Tabiat ishtirokida yer egasining mehnati foyda -“sof mahsulot”ni yaratishini ta’kidlaydi. Shakllangan foyda yer egalarining ilgari yerga qilgan harajatlari uchun mukofot ekanligini qayd etadi. Sanoat va sadoda mehnat mahsuldor emasligi, masalan savdoda mehnat materiyaning shaklini o‘zgartirishi, savdoda esa tovarlar harakati sodir bo‘lishi, eng asosiysi yangi materiya hosil bo‘lmasligini ta’kilashadi. Sanoatda “sof mahsulot” hosil bo‘lmaydi, sanoat mahsuloti qiymati ishlab chiqarish xarajatlariga teng ekanligi, ular foydani xodimlar ish haqi ko‘rinishida olishadi. Savdo foydasini hisoblash va aldov natijasi sifatida ko‘rishadi. Shuning uchun foydani shakllanishini yana qishloq xo‘jaligi tizimi nuqtayi-nazari orqali dalolatlaydi: “foyda – tabiat inomi emas, u foizga o‘xshash bo‘lib, uning paydo bo‘lishi yer rentasidan “kelib chiqadi”. [4]

Klassik siyosiy iqtisod maktabining dastlabki vakillari A.Smit va D.Rikardolar foydaning mohiyatini jiddiy tadqiq etishdi. Dastlab foydani tadqiq etishni sanoat ishlab chiqarishda, so‘ngra tadqiqot sohlarini kengaytirib noishlab chiqarish sohalari bo‘yicha keng o‘rganishdi.

A.Smit foydani iqtisodiy kategoriya sifatida mehnat qiymati nazariyasi bo‘yicha ifoda yetdi. Foydani shakllanishi bilan bog‘liq xususiyatlarini qiymatni mehnat yaratishi asosida o‘rgandi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bo‘yicha emas, balki mehnat orqali tovarlarning qiymatini aniqlash bilan birga, A.Smit daromadlar yig‘indisi sifatida qiymat iqtisodiy kategoriyasini shakllantirdi.

Bu kabi foydani shakllantirishning asosiy xususiyatlari keyingi tadqiqotlarga asos qilinib, foyda nazariyasini rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Xulosa.

Foydaning iqtisodiy mohiyatining ko‘rib chiqar ekanmiz, zamonaviy iqtisodiy nuqtai nazardan uning quyidagi tavsiflarini qayd etishni muhim hisobladik:

✓ foyda aniq bir faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorning daromad shaklini ifodalaydi. Bu foydani ifodalashning oddiy shakli bo‘lib, uning mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Negaki ayrim sohalardagi faoliyat natijalari foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmaydi.

✓ foyda tadbirkorning daromad shakli bo‘lib, tijorat muvaffaqiyatiga erishish maqsadida qo‘yilgan kapitalni anglatadi. Negaki foyda kategoriyasi ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lgan kapital kategoriyasi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ядгаров Я.С. История экономических учений: Учебник. 4-е изд., перераб. и доп. -М.: ИНФРА-М, 2009. с.54
2. Бартенев С. А. История экономических учений: Учебник- 22е изд., перераб. и доп. -М: Магистр ИНФРА-М, 2013. с.37
3. Бартенев С. А. История экономических учений: Учебник- 22е изд., перераб. и доп. -М. : Магистр : ИНФРА-М, 2013. с.59
4. Бартенев С. А. История экономических учений: Учебник- 22е изд., перераб. и доп. -М. : Магистр : ИНФРА-М, 2013. с.68.

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Hakimov Faxritdin Abdusattorovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17570186

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarni xalqaro standartlar asosida hisobini yuritish borasida xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari, shuningdek, xalqaro standartlarda uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olish tamoyillari tadqiq qilindi.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizdagi mulkiy munosabatlarning yangi tamoyillar asosida o‘zgarishi buxgalteriya hisobi qoidalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Yangi tamoyillar hozirgi iqtisodiyotimiz modeliga asoslangan bo‘lishi, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan hamda xalqaro buxgalteriya hisobi andozalariga javob berishi lozim. 13.04.2016-yildagi O‘RQ-404-son Qonun bilan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi, uning yangi tahriri tasqdilandi. Ushbu qabul qilingan qonunning 10-moddasiga muvofiq “Buxgalteriya hisobi subyektlariga moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) qo‘llash huquqi taqdim etildi” [1].

Buxgalteriya hisobini xalqaro prinsiplar va standartlarga muvofiq me’yoriy-huquqiy xujjatlarini yangi normalar asosida tartibga solishni takomillashtirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi” qarori[2] qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar o‘z xisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq taqdim etishi belgilangan.

1-son MHXS da “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - bu moliyaviy hisobotning xalqaro sandartlari qo’mitasi tomonidan qabul qilingan standartlar va interpretatsiyalardir” deb ta’rif berilgan [3].

“Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining maqsadi - moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda turli xilma-xilliklar va sharhlar turini qisqartirish, ma’lumotlarni taqqoslash imkonini yaratish va sifatini oshirish, standartlarni umumlashtirish” deb ta’rif bergan professor A.N.To’rayev [4] va boshqalar.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro hisob andozalarida uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olish tamoyillari bo‘yicha xorijlik hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. Daromadlarning xarajatlarga mos kelish tamoyili shuni ko‘zda tutadiki, daromad olish uchun qilingan xarajatlar buxgalteriya hisobida daromadlar ko‘rsatilgan davrda keltiriladi. Professor Ya.V.Sokolov mos kelish tamoyilining qo‘llanish zaruriyatini ta’kidlagan. Mazkur tamoyilning ma’nosini rossiyalik iqtisodchi olim quyidagicha talqin qiladi “Daromad keltirishga sabab bo‘lgan xarajatlar olingan daromad qaysi davrga tegishli bo‘lsa, o‘sha davrga tegishli bo‘ladi” [5]. Professor M.I.Kuterning ta’kidlashicha,-“Mazkur tamoyilning qo‘llanishi davr xarajatlarini ishlab chiqarish tannarxiga tenglashtirishga imkon beradi” [6]. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Professor I.N.Ismanovning ta’kidlashicha “Aktivlarni to‘g‘ri tasniflash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish va ularga baho berish imkoniyati kengayadi” [7]. Iqtisodchi olimlarimizdan S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibida “III. Aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalarga doir standartlar-ushbu guruhga 9 ta standart kiritilgan”ligini [8] ko‘rsatib o‘tgan. Xalqaro andozalar qoidasiga ko‘ra, foyda keltirmaydigan uzoq muddatli aktivlarga qilinadigan sarf xarajatlar zararga olib boriladi. Bizning fikrimizcha, “Foyda tadbirkorning daromad shakli bo‘lib, tijorat muvaffaqiyatiga erishish maqsadida qo‘yilgan kapitalni anglatadi. Negaki foyda kategoriyasi ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lgan kapital kategoriyasi bilan bog‘liq” [9]. “Shunday qilib, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning konseptual asosini belgilaydi” [10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natija.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro andozalarga kiritilgan tamoyillarning sezilarli qismi bizning mamlakatimiz tomonidan qabul qilingan konseptual tizimga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi milliy buxgalteriya hisobi standartlarida buxgalteriya hisobining to'rtta asosiy tamoyillari shakllantirilgan. Buxgalteriya hisobining ko'plab tamoyillaridan uzoq muddatli aktivlarni hisobga oladigan, shuningdek, hisobni yuritishning usullari va uslubiyatini shakllantiradigan tamoyillarini ajratib olish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon qilingan fikrlar uzoq muddatli aktivlar tarkibini moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari talablariga ko'ra, uyg'unlashtirishga ko'maklashadi.

O'z faoliyatini tugatayotgan korxona uchun uzoq muddatli aktivlarni baholashda realizatsion qiymat usuli qo'llanishi foydali.

Bunda quyidagi holatlar vujudga kelishi mumkin:

T/r	**Uzoq muddatli aktivlarni baholashda realizatsion qiymat usulini qo'llanishi**
1.	Yuridik shaxs aktivlarining realizatsion qiymati kreditorlarning qarzini qoplash uchun yetarli.
2.	Yuridik shaxs aktivlarining realizatsion qiymati kreditorlar talabini qondira olmaydi va ular o'zlariga tegishi mumkin bo'lgan ulushining bir qismini oladi.
3.	Yuridik shaxs aktivlari realizatsion qiymati qarzlardan ancha ko'p va u qarzlarni to'laligicha yopish uchun yetarli.

Shunday qilib, korxona faoliyatining uzluksizligi tamoyilini uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobiga tatbiq etib, quyidagicha ifodalash mumkin: faoliyat olib borayotgan korxonaning uzoq muddatli aktivlari balans qiymati (dastlabki, joriy tiklanuvchi, joriy bozor, qoldiq baholari)da baholanadi. Korxona faoliyati to'xtatilib oraliq tugatish balansi tuzilayotganda, uzoq muddatli aktivlarni baholash realizatsion qiymat bo'yicha amalga oshiriladi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibining konseptual asosiga ko'ra, hisoblash tamoyili korxona xo'jalik faoliyatining ma'lum bir davrini tavsiflaydi, ya'ni sodir etilgan xo'jalik operatsiyalari pul mablag'larining to'langan yoki olingan paytiga emas balki aynan o'sha tavsiflangan davriga taalluqli, deb tan olinadi. Shunday qilib, hisoblash tamoyili- bu buxgalteriya hisobida bo'lib o'tgan xo'jalik operatsiyalarini mazkur hisobot davrida tan olish lozim ekanligini e'tirof etish, demakdir. Shuning uchun korxona foaliyati tugatilayotganda, aktivlarni sotish bahosi ularni sotishdan olinadigan daromadlarni hisoblash imkonini beradi.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarida mazkur tamoyil kengroq talqin etiladi. Mazkur tamoyilning 4 ta tarkibiy qismlarini ajratish mumkin:

T/r	**Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarida buxgalteriya hisobi tamoyillarining tarkibiy qismlari**
1.	Operatsiya va hodisalar pul va uning ekvivalentlarining kelib tushishiga qarab emas, balki ular haqiqatda amalga oshishiga qarab tan olinadi;
2.	Operatsiya va hodisalar qaysi davrda amalga oshirilganligiga qarab o'sha davrning moliyaviy hisobotlarida ko'rsatiladi va hisob registrlarida qayd qilinadi;
3.	Xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda bevosita ko'rilgan zararlar va ishlab topilgan aniq daromadlar solishtirilganda tan olinadi;
4.	Taqqoslash konsepsiyasining qo'llanishi buxgalteriya balansida aktiv va majburiyatlarni belgilamaydigan moddalar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi;

Daromadlarning xarajatlarga mos kelish tamoyili shuni ko'zda tutadiki, daromad olish uchun qilingan xarajatlar buxgalteriya hisobida daromadlar ko'rsatilgan davrda keltiriladi.

Mos kelish tamoyilining qo'llanish zaruriyatini rossiyalik iqtisodchi olimlar ham ta'kidlamoqdalar. Professor Ya.V.Sokolov mazkur tamoyilning ma'nosini quyidagicha talqin qiladi "Daromad keltirishga sabab bo'lgan xarajatlar olingan daromad qaysi davrga tegishli bo'lsa, o'sha davrga tegishli bo'ladi" [5].

Professor M.I.Kuterning ta'kidlashicha, "Mazkur tamoyilning qo'llanishi davr xarajatlarini ishlab chiqarish tannarxiga tenglashtirishga imkon beradi" [6].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Professor I.N.Ismanovning ta'kidlashicha, "Aktivlarni to'g'ri tasniflash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish va ularga baho berish imkoniyati kengayadi" [7].

Mos kelish tamoyilini amaliyotda qo'llash anchayin qiyin hisoblanadi. Mazkur tamoyilning qo'llanilishi hisobot davrida ishlab topilgan daromad, albatta, shu davrda amalga oshirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lishini taqozo etadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun xorij amaliyotida buxgalteriya hisobining maxsus usullarini qo'llash ko'zda tutilgan. Bu usullar konstatatsiya yoki transformatsiya, deb ham ataladi. Xarajatlar va daromadlarni bir hisobot davrida hisobga olish konstatatsiya usuli, deb e'tirof etilsa, xarajatlar va daromadlar ikki yoki undan ortiq hisobot davrlariga tegishli bo'lsa, transformatsiya vujudga keladi.

Uzoq muddatli aktivlarning bir qism obyektlarida ikki xil ehtiyotkorlik konsepsiyalari mavjud:

dinamik buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan ehtiyotkorlik tamoyili, bunda uzoq muddatli moddiy aktivlarning faqat sotish yoki boshqa sabablar bilan tashlab chiqib ketish holatidagi real qiymatini aniqlash ko'zda tutiladi;

Statik buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan ehtiyotkorlik konsepsiyasi-bu hali sotilmagan uzoq muddatli aktivlarning potensial zararini e'tiborga olishni ko'zda tutadi;

Statik konsepsiya amaldagi buxgalteriya hisobotlarida to'liq qo'llanilmaydi. Lekin ehtiyotkorlik tamoyili uni amalda qo'llash imkonini beradi.

Iqtisodchi olimlarimizdan S.N.Tashnazarov moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibida "III. Aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalarga doir standartlar-ushbu guruhga 9 ta standart kiritilgan" [8] ligini ko'rsatib o'tgan.

Buxgalteriya hisobi qoidalariga ko'ra, egalik huquqi bo'yicha obyektlar foyda keltirishi yoki keltirmasligidan qat'iy nazar, uzoq muddatli aktiv deb tan olinadi. Xalqaro andozalar qoidasiga ko'ra, foyda keltirmaydigan uzoq muddatli aktivlarga qilinadigan sarf xarajatlar zararga olib boriladi. "Foyda tadbirkorning daromad shakli bo'lib, tijorat muvaffaqiyatiga erishish maqsadida qo'yilgan kapitalni anglatadi. Negaki foyda kategoriyasi ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan kapital kategoriyasi bilan bog'liq" [9].

Shunday qilib, mamlakatimiz buxgalteriya tizimida ehtiyotkorlik tamoyilining qo'llanilishi davlat tomonidan ishlab chiqilgan fiskal siyosatga zid kelishi mumkin.

Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobida davriylik, moliyalashtirish hamda joriy, kelgusi davr va kapital xarajatlarni alohida hisobga olish usullari metodologik asos bo'lib hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining davriyligi usuli aktivlarni sotib olish bo'yicha bir martali xarajatlarning alohida hisobot davrlari bo'yicha taqsimlanishini ko'zda tutadi. Shunday qilib, uzoq muddatli aktivlarni sotib olish bir marta katta xarajatlar qilinishini taqozo etadi, lekin bu xarajatlar qaysi davrda vujudga kelgan bo'lsa, o'sha hisobot davriga kiritilmaydi. Shuning uchun aktivlar faoliyat davrlari miqdorining dastlabki hisob-kitobi amalga oshiriladi va ulardan samarali foydalanish davri aniqlanadi. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlarning har bir hisobot yiliga to'g'ri keluvchi qismi ajratiladi.

Joriy, kelgusi davr va kapitallashgan xarajatlarni alohida hisobga olish usuli korxonaning uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va keyin ularni joriy yoki kelajak davr xarajatlariga kiritish bo'yicha xarajatlarini buxgalteriya hisobida ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Shunday qilib, "buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning konseptual asosini belgilaydi" [10]. Shuning uchun korxonalarda hisob siyosatini ishlab chiqish va unga amal qilishda mazkur tamoyillar talabini bajarish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning konseptual asosini belgilaydi. Shuning uchun korxonalarda hisob siyosatini ishlab chiqish va unga amal qilishda mazkur tamoyillar talabini bajarish muhim ahamiyatga ega.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olishning tamoyillaridan kelib chiqib, aktiv uzoq muddatga, ya'ni bir yildan ortiq muddatga xizmat qilishi, nazorat funksiyasiga ega bo'lishi hamda iqtisodiy foyda keltirish imkoniyatini ta'minlanishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yuqoridagi holatlar asosida uzoq muddatli aktivlarni tan olish xalqaros standartlarning asosiy mezoni bo‘lib hisoblanadi va moliyaviy hisobotning asosiy pritsiplaridan biri uzluksizlik tamoyilini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir, 13.04.2016-yildagi O‘RQ-404 son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
3. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке.-М: «АСКЕРИ-АССА», 2016.
4. To‘rayev A.N., Eshonqulov A.A. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish tartibi //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
5. Norbekov D., To’rayev A., Raxmonov Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –350 b.
6. Цоколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. — М.: Финансы и статистика, 2002. - С. 48
7. Кутер М.И. Теория и принципы бухгалтерского учета. – 2000.
8. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlari //Ekonomika i finansы (Uzbekistan). – 2016. – №. 2. – S. 39-45.
9. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o‘tish zaruriyati //Экономика и финансы (Uzbekistan). – 2016. – №. 7. – S. 48-54.
10.Khakimov F.A., Turanov M.S. The Economic Essence of Profit and the Initial Theoretical Foundations of its Formation //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 6. – S. 95-97.
11.Abdusattorovich K.F. Principles of Recognition, Assessment And Accounting of Long-Term Assets in International Account Templates //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – S. 1133-1138.

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA O’ZBEKISTONNING IQTISODIYOTIGA TA’SIRI

Rustamov Said Kamol o’g’li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tel:+998990738629
https://doi.org/10.5281/zenodo.17571100

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Jahon Savdo Tashkiloti (WTO)ga a’zo bo‘lish jarayoni hamda bu jarayonning mamlakat moliya va iqtisodiy tizimiga ta’siri atroflicha tahlil qilingan. WTOga a’zo bo‘lish O‘zbekiston uchun xalqaro savdoga integratsiyalashuv, investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim bosqich hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu jarayon bilan bog‘liq xavf va muammolar ham mavjud bo‘lib, ular davlat tomonidan samarali siyosat va islohotlar orqali bartaraf etilishi kerak. Maqolada ana shu imkoniyat va muammolar chuqur o‘rganilgan, statistik ma’lumotlar, xalqaro tajriba va O‘zbekiston misolida tahliliy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar : O‘zbekiston, Jahon Savdo Tashkiloti, WTO, xalqaro avdo, moliyaviy xizmatlar, investitsiyalar, iqtisodiy integratsiya, eksport, iqtisodiy barqarorlik, islohotlar, moliya tizimi, iqtisodiy raqobat, tashqi savdo siyosati**.**

Kirish : 1992 yildan buyon O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘zining iqtisodiy siyosatini shakllantirib kelmoqda. Globalizatsiya jarayonlari sharoitida davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va barqarorligi ko‘p jihatdan xalqaro integratsiyaga bog‘liq. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) mamlakatlar o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy hamkorlikni tartibga soluvchi asosiy tashkilot sifatida dunyo iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. JSTga a’zo bo‘lish har bir davlat uchun o‘zining iqtisodiy siyosatini modernizatsiya qilish, yangi bozorlarga chiqish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini beradi. O‘zbekistonning JST a’zoligi uzoq davom etgan muzokaralar va tayyorgarlik jarayonlaridan so‘ng 2026-yilda yakunlanishi belgilangan. Ushbu maqola O‘zbekiston uchun bu jarayonning moliya va iqtisodiyotga ta’sirlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Jahon Savdo Tashkiloti — 164 ta a’zosiga savdo qoidalari asosida o‘zaro hamkorlik qilish imkonini beruvchi xalqaro tashkilotdir. Uning asosiy vazifalari: savdo tariflari va bojxona to‘siqlarini kamaytirish, xalqaro savdoda adolat va oshkoralikni ta’minlash, savdo nizolarini hal qilish mexanizmlarini yaratishdan iborat. O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lish jarayonida qonunchiligini global talablar bilan uyg‘unlashtirib, soliq, bojxona va moliyaviy regulyatsiya sohalarida islohotlar amalga oshiradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayonining mamlakat moliya va iqtisodiyotiga ta’sirini tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliya tizimi tanlangan bo‘lsa, predmeti esa Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni hamda uning mamlakat iqtisodiyotiga ko‘rsatgan ta’siri hisoblanadi.

Asosiy qism : Tadqiqot jarayonida bir qancha usullar qo‘llaniladi. Avvalo, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, hukumat hisobotlari, JST rasmiy materiallari hamda xalqaro tashkilotlarning tahlil hujjatlari keng qamrovda o‘rganiladi. Bu usul orqali tadqiqotning nazariy asoslari shakllantiriladi va JSTga a’zo bo‘lishning iqtisodiyotga ta’sirining asosiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, tadqiqotda statistik ma’lumotlar tahlili katta o‘rin tutadi. Milliy statistika qo‘mitasi, Jahon Savdo Tashkiloti va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan, eksport-import hajmi, investitsiyalar darajasi va moliyaviy tizim ko‘rsatkichlari batafsil tahlil qilinadi. Bu orqali O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishidan oldingi va keyingi davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlar aniqlanadi. Tadqiqotda taqqoslash usuli ham qo‘llanilib, O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish jarayoni boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtiriladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining xalqaro standartlarga moslashuvi va uning global iqtisodiyotga integratsiyasi darajasini baholashga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot amaliy jihatlarini yanada boyitish maqsadida iqtisodchilar, moliya sohasidagi mutaxassislari hamda davlat tashkilotlari vakillari bilan intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazadi. Ushbu metodlar orqali tadqiqot sub’ektlarining fikrlari va JSTga a’zo bo‘lish jarayonidagi tajribalari o‘rganiladi.Tadqiqotning empirik qismida esa, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va savdo statistikasi asosida turli statistik usullar — xususan, regressiya tahlili qo‘llanib, JSTga a’zo bo‘lishning

iqtisodiyotga ta'siri aniqlanadi. Bu usul orqali o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlik va JST a'zoligining iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'rsatiladi. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ma'lumotlar milliy statistika hisobotlari, JSTning rasmiy hujjatlari, Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Fondining iqtisodiy tahlillari, shuningdek, ilmiy maqolalar va intervyu natijalaridan iborat.Shu bilan birga, tadqiqotda ba'zi cheklovlar ham mavjud. Jumladan, ayrim ma'lumotlarning to'liqligi va yangiligi cheklanganligi, xalqaro iqtisodiy sharoitlarning tez o'zgarishi hamda milliy iqtisodiyotning ayrim sohalaridagi noaniqliklar tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. JSTga a'zo bo'lish bilan O'zbekiston moliyaviy bozorlari uchun xorijiy investorlarning ishonchini oshiradi. Bu esa yangi investitsiya loyihalarining paydo bo'lishi, xorijiy kapitalning kirib kelishi va bank tizimining rivojlanishini ta'minlaydi. Bank, sug'urta, auditorlik, investitsiya xizmatlarida xorijiy kompaniyalar ishtirokini oshirish orqali xizmatlar sifati va raqobat oshadi.Valyuta risklari, kiberxavfsizlik va kredit risklarini boshqarish tizimlari zarur bo'ladi. Bank va moliyaviy institutlar yangi texnologiyalarni joriy etishga majbur bo'ladi.

Yangi bozorlar ochilishi, bojxona to'siqlarining kamayishi orqali eksport hajmi ortadi.Import esa ichki raqobatni.kuchaytiradi.Ichki ishlab chiqaruvchilar xalqaro kompaniyalar bilan raqobatga kirishadi. Bu ularni innovatsiyalar va sifatni oshirishga undaydi.Investitsiyalar va savdo o'sishi iqtisodiy barqarorlik, daromadlar o'sishi va soliq tushumlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Raqobat bosimi ostida ayrim sohalar qisqa muddatda muammolarga duch keladi. Davlat siyosati orqali ularni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni joriy etish va eksportchilarga subsidiyalar berish zarur. JSTga a'zo bo'lish, O'zbekiston uchun eksport-import sohasida yangi imkoniyatlar ochadi, bojxona va savdo to'siqlarining kamayishiga olib keladi .Jahon Savdo Tashkilotining qoidalari va talablariga muvofiq, O'zbekiston moliya tizimini modernizatsiya qilishga majbur bo'ladi .Bu jarayonda mamlakat bank tizimi va moliyaviy institutlari xalqaro standartlarga moslashadi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik va shaffoflik darajasi oshishi kutiladi.O'zbekiston iqtisodiyotining eksport qobiliyati oshadi, yangi bozorlar ochiladi, raqobatbardoshlik kuchayadi Shuningdek, JSTga a'zo bo'lish, import qilinadigan mahsulotlar narxini pasaytiradi va iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa ichki bozorni rivojlantirishga va iste'molchilarning xarid qobiliyatini oshirishga yordam beradi.JSTga a'zo bo'lish orqali O'zbekiston xalqaro hamkorlikni kengaytiradi, xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi .Bu esa ishlab chiqarish, innovatsiyalar va texnologiyalar rivojlanishini tezlashtiradi, natijada mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.Ba'zi manbalarda esa JSTga a'zo bo'lish bilan bog'liq xavf-xatarlar ham ko'rsatiladi, masalan, milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatga bardosh bera olmasligi, ayrim sektorlarning zaiflashishi mumkinligi .Shuning uchun O'zbekiston hukumati va iqtisodiy tizimi JST qoidalariga moslashishda izchil siyosat yuritishi lozim.. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va rivojlanishini rag'batlantiradi. Bu eksportni ko'paytirish, yangi bozorlarni egallash, shuningdek, ichki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bojxona tariflari va boshqa savdo to'siqlari qisqarib, iste'molchilarga kengroq va arzonroq tovarlar taqdim etiladi. Bu ichki bozorda raqobat muhitini yaxshilaydi, natijada mahsulot sifati va narxlari yaxshilanadi.Biroq, JST ga a'zo bo'lish bilan bog'liq xavf va muammolar ham mavjud. Masalan, ayrim milliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro raqobatga bardosh berolmasligi, iqtisodiyotning ayrim sektorlarida vaqtinchalik qiyinchiliklar yuzaga keltirishi mumkin. O'zbekistonning eksport mahsulotlari hajmi sezilarli darajada o'sadi, ayniqsa paxta, to'qimachilik, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari sohalarida. Jahon Savdo Tashkiloti qoidalari asosida yaratilgan ishonchli biznes-muhit natijasida xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi, bu esa yangi ish o'rinlari yaratish va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini beradi. O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'ati yaxshilanadi, mamlakat iqtisodiyoti global bozor bilan chuqur integratsiyalashadi. Bank va moliya tizimlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtiriladi, bu moliyaviy barqarorlik va rivojlanishga xizmat qiladi. Ichki bozor va eksport uchun mahsulotlar sifatining oshishi va narxlarning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Xulosa: O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimiga keng ko'lamli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, eksport va savdo hajmi sezilarli darajada oshadi, bu esa yangi xalqaro bozorlarni egallash va O'zbekiston mahsulotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga imkon beradi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini

beradi. Moliya tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi va sarmoya oqimini oshiradi. Bundan tashqari, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtiradi. Ichki bozorda esa savdo to‘siqlarining kamayishi va raqobatning kuchayishi mahsulot sifati va narxlarining yaxshilanishiga olib keladi. Shunga qaramay, Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonida ayrim salbiy tomonlar va xavflar ham yuzaga keladi. Xususan, milliy ishlab chiqaruvchilar uchun xalqaro bozorda kuchaygan raqobat bosimi muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida JST qoidalariga moslashish qiyinchiliklari mavjud bo‘lib, bu tarmoqlarning rivojlanishiga to‘siq bo‘lishi ehtimoli bor. Shuningdek, savdo siyosatidagi muvofiqlik talablaridan kelib chiqib, davlat iqtisodiy strategiyasini o‘zgartirishga to‘g‘ri kelishi, qisqa muddatda iqtisodiyotga ma’lum bosimlar yaratishi mumkin. Shu sababli, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati mavjud. Bundan tashqari, O‘zbekiston iqtisodiyoti global iqtisodiy jarayonlarga yanada bog‘langanligi sababli, xalqaro bozorlarning o‘zgarishlari ta’sirida iqtisodiy noaniqliklar yuzaga kelishi xavfi ham mavjud. O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishi mamlakat iqtisodiyotining xalqaro maydondagi integratsiyasini sezilarli darajada kuchaytiradi. Bu jarayon eksport hajmining oshishi, yangi bozorlarga kirish imkoniyatlari va savdo hajmining kengayishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi mamlakat moliya tizimining modernizatsiyasiga turtki beradi. Moliya sektoridagi shaffoflik va barqarorlik o‘z-o‘zidan iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatladi hamda moliyaviy xizmatlar sohasi sifatining yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. JST a’zoligi O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini kuchaytiradi, bu esa milliy ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sifatini yaxshilashga, samaradorlikni oshirishga undaydi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va eksport salohiyatining kengayishi yuzaga keladi, bu esa ichki bozorda islohotlarni tezlashtiradi va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Biroq, ushbu jarayon bilan bog‘liq qator muammolar ham yuzaga keladi. Jahon bozorlaridagi kuchli raqobat milliy ishlab chiqaruvchilar uchun qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa, ishlab chiqarish sohalarida malakali kadrlar va texnologiyalar yetishmasligi natijasida. Shuningdek, JST talablariga moslashish uchun ba’zi milliy siyosat va tariflarni qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘ladi, bu esa qisqa muddatda iqtisodiy faoliyatda noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, O‘zbekiston iqtisodiyoti global iqtisodiy o‘zgarishlarga yanada bog‘liq bo‘lib qoladi, bu esa xalqaro iqtisodiy sharoitlarning salbiy ta’siriga qarshi chidamlilikni oshirishni talab qiladi. Shu bois, mamlakat uchun xalqaro integratsiyani davom ettirish bilan birga ichki iqtisodiy siyosatni kuchaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha izchil strategiyalar ishlab chiqish muhimdir. Umuman olganda, O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lishi — iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliyaviy tizimni takomillashtirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu jarayonda yuzaga kelgan ijobiy natijalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga xizmat qilsa, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun ham qat’iy va tizimli yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon Savdo Tashkiloti rasmiy sayti - www.wto.org
2. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi — www.invest.gov.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik hisobotlari — www.cbu.uz
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) 2023–2024 yillardagi hisobotlari
5. World Bank: “Uzbekistan Trade Policy Review”, 2023
6. Global Trade Analysis Project (GTAP) ma’lumotlari.

BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI AMALIYOTINI BAHOLASH

Jo‘rayeva Zarifa Bahodir qizi
Termiz davlat universiteti
Moliya kafedrasi tayanch doktronanti
zarifajorayeva304@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17571142

Annotatsiya: Banklarning kredit xizmatlari zamonaviy moliya bozorining eng asosiy va ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, butun iqtisodiy hayotda markaziy o‘rin egallaydi. Kreditlashtirish taraqqiyoti, mexanizmlarining takomillashuvi va zamonaviy yondashuvlarning bank amaliyotida keng joriy qilinishi natijasida banklar bugungi iqtisodiy muhitda faol ishtirok etmoqda. Bank krediti — bu bank tomonidan mijozlarga ma’lum muddatga, foiz evaziga ajratiladigan pul mablag‘i bo‘lib, iqtisodiy hayot subyektlari faoliyatining samarali moliyaviy instrumenti sifatida xizmat qiladi. Tijorat banklarining kredit portfeli, uning tarkibi va sifati, kredit xizmatlaridan samarali foydalanish yo‘llari va bank tizimidagi kredit siyosatining asosiy tamoyillari muntazam o‘rganilib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Banklar, kredit, tendensiyalar, pul mablag‘, iqtisodiyot, moliya, ishlab chiqarish, mijozlar, mexanizmlar, risklar,Rossiya va AQSH banklari

KIRISH

Bugungi kunda banklarda faoliyat yuritayotgan ko'plab amaliyotchilar tijorat banklari uchun yangi kredit xizmatlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va mijozlarga taqdim etish zarurati bilan duch kelishmoqda. Bu erda rag'batlantiruvchi omil miqdoriy va sifat samaradorlikka erishish maqsadi, ya'ni kredit xizmatlarini ko'rsatishdan yalpi daromad va foydani ko'paytirish va kredit xizmatlarini ko'rsatishning o'ziga xos (nisbiy) ko'rsatkichlarini (ROA, kredit portfelining rentabelligi, portfel yo'qotish nisbati va boshqalar) yaxshilashdir.
Amaliy nuqtai nazardan, bank faoliyati xususan, kredit xizmatlari samaradorligi muammosi hozirgi kunda ikki yo‘nalishda va ikki pozitsiyada ko‘rib chiqilib, muammolar hal qilinib borilmoqda.
Birinchidan, banklarning nazorat organi sifatidagi faoliyati, mahalliy bank tizimini mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan. Darhaqiqat, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, shu jumladan iqtisodiyot va aholini kreditlashda banklar roli va ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan banklar uchun o'ziga xos tashqi muassasa bo'lgan davlatning vakili sifatida faoliyat yuritadi.
Ushbu muammoni hal qilishda banklarining past joriy samaradorligi muammosini uchta asosiy sabab bilan bog'laydi:

banklarning kapitallashuvining pastligi, ularning rentabelligini ta'minlash va iqtisodiyotning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun etarli emas; bank muassasalari faoliyatining yetarli darajada shaffof emasligi, ular faoliyatining xalqaro standartlar, shu jumladan UFRS (IAS/GAAP) talablariga mos kelmasligi; banklarda korporativ boshqaruv sifatining pastligi ayni muammolardandir. Aslida, yuqoridagi sabablarning oxirgisi banklar uchun ichki va shuning uchun asosiy hisoblanadi, chunki bu ichki qarama-qarshiliklarni hal qilish bank biznesining "shaffofligi" ni bartaraf etish va uni foydali qilish va natijada banklarga qo'shimcha kapital jalb qilish imkonini beradi.
O’zbekiston tijorat banklari 2001 yildan beri bank sektori samaradorligini oshirish yo'li sifatida banklarda korporativ boshqaruv sifatini yaxshilashga faol e'tibor qaratib kelmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid bir qator olimlarning tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Ularda olimlarning masofaviy bank xizmatlariga odi fikr mulohazalari tahlil qilindi. G. Beloglazova xulosasiga ko’ra, tijorat banklarining kredit siyosati iqtisodiyotning rivojlanishida muhim omil ekanligini, kredit xizmatlari aholi, kichik va o’rta biznes, shuningdek, qishloq xo’jaligi kabi sohalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi[1].G. Beloglazovaning ushbu xulosasi tijorat banklarining ijtimoiy yo’naltirilgan kredit xizmatlari, xususan, yoshlar, ayollar va qishloq xo’jaligi xodimlari uchun imtiyozli kreditlarning ahamiyati O’zbekistonda tijorat banklarining kredit xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

[1] Лаврушин О.И. Кредитная экспансия и управление кредитом. Учебное пособие. – М.: Кнорус, 2013. – 264 с.

Xususan, uning ijtimoiy dasturlar va imtiyozli kreditlarga oid tavsiyalari “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va qishloq xo’jaligini qo’llab-quvvatlash dasturlariga mos keladi.

J. Shumpeterning fikriga ko’ra, tijorat bank kreditlari innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ekanligi, tijorat banklar tadbirkorlarning yangi loyihalarini moliyalashtirish uchun zarur mablag’larni taqdim etgan holda, yangi mahsulotlar, texnologiyalar va bozorlarni yaratishga ko’mak beradi. Bank krediti yangi tarkiblarni yaratish imkonini beruvchi "kredit yaratuvchisi" (creator of credit) rolini o’ynaydi[2].

J. Shumpeterning fikridan ko’rinadiki, tijorat banklari shunchaki vositachi bo’lib qolibgina emas balki, banklar **iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri** hisoblanadi, chunki ular kredit berish orqali innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtiradi, bu esa o’z navbatida mamlakat iqtisodiy o’sish va tarkibiy o’zgarishlarga olib keladi.

G.S.Panovaning fikriga ko’ra, banklarning kreditlar berish imkoniyatini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning depozit bazasini yetarliligini ta’minlash lozim. Bunda tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini ta’minlash uchun transaktsion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog’ining 30 foizdan oshishiga yo’l qo’ymaslik, depozitlarning kredit operatsiyalariga yo’naltirilgan qismiga nisbatan, Germaniya bank amaliyoti tajribalariga tayangan holda, limitlar joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniyada muddatli depozitlarning 60 foizi, transaktsion depozitlarning 10 foizi kredit operatsiyalariga yo’naltiriladi[3].

Rossiya kredit tizimi shakllanish bosqichida, garchi so’nggi yillarda uning rivojlanishi va qarz oluvchilar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash davlatning ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, AQSh yuqori samarali, ishonchli va innovatsion kredit tizimiga ega bo’lgan dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Rossiya va AQShda kreditlarni tartibga solishning qonunchilik asoslari moliyaviy tizimning ishlashi va uni tartibga solish tartibini belgilovchi qonunlar, me’yoriy hujjatlar va qoidalar majmuini ishlab chiqilgan. Ular asosan quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Bank faoliyatini tartibga solish. Rossiya va AQShda banklar va boshqa moliya tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar mavjud. Ular moliya muassasalarining kapitali va likvidligiga qo’yiladigan talablarni, xavflarni baholash qoidalarini, moliyaviy xavflarni boshqarish standartlarini va boshqalarni belgilaydi;
2. Kredit faoliyatini tartibga solish. Rossiya va AQShda kredit va zayomlar berishni tartibga soluvchi, qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini baholash tartibini, foiz stavkalari miqdoriga qo’yiladigan talablarni, kreditlarni to’lash qoidalarini va boshqalarni belgilovchi qonunlar mavjud;
3. Markaziy banklar faoliyatini tartibga solish. Rossiya va AQSh Markaziy banklari valyuta chiqarish, foiz stavkalarini belgilash, moliyaviy tizim likvidligini ta’minlash va pul massasi siyosatini tartibga solish huquqiga ega;
4. Depozitlarni sug’urtalash tizimini tartibga solish. Rossiya va AQShda jismoniy shaxslarning banklardagi depozitlarini ular bankrot bo’lgan taqdirda himoya qiladigan depozitlarni sug’urtalash tizimlari mavjud.
5. Qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga solish. Rossiya va AQShda qimmatli qog’ozlarni chiqarish, ular bilan savdo qilish va ular haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilishni tartibga soluvchi qonunlar amal qiladigan rivojlangan qimmatli qog’ozlar bozorlari mavjud.

---

[2] Костерина, Т.М. Банковское дело. – Учебник для СПО. – Люберцы: Юрайт, 2015. – 332 с

[3] Белоглазова, Г. Н. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка : учебник и практикум для академического бакалавриата / Г. Н. Белоглазова, Л. П. Кроливецкая ; под редакцией Г. Н. Белоглазовой, Л. П. Кроливецкой. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2016. — 545 с.

[4] Шумпетер Ж.А. Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры. Пер. с нем. Изд. 3, – Москва : Прогресс, 1982. — 455 с.

.

6. To'lov tizimini tartibga solish. Rossiya va Amerika to'lov tizimlari naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish qoidalari, to'lov ma'lumotlarini qayta ishlash va saqlash talablari va boshqalarni belgilovchi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Rossiya va AQShda kredit berish jarayonlari o'z farqlari va o'xshashliklariga ega. Kraudfanding, onlayn-kreditlash va boshqa muqobil moliyalashtirish shakllari faol rivojlanmoqda va shular jumlasidandir. Rossiyada banklar qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini baholash uchun kredit reytinglaridan foydalaniladi. AQShda ijtimoiy reyting (u ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin) ham kredit qobiliyatini baholashda hisobga olinishi mumkin. AQShda kredit berish jarayoni odatda Rossiyaga qaraganda uzoqroq muddatda davom etadi va kredit qobiliyatini tekshirish, ba'zida uzoq muzokaralar va murakkab jarayonlarni o'z ichiga olishi mumkin. Rossiyada kredit berish jarayoni kamroq vaqtni olishi mumkin, ammo ko'plab hujjatlarni majburiy taqdim etish talab etiladi.

Rossiya Federatsiyasida O'zbekiston kabi ikki pag'onali bank tizimi amal qiladi. Birinchi pog'ona Markaziy bank bo'lib, ikkinchi pag'nada tijorat banklari, ularning filiallari, vakolatxonalari, ichki tarkibiy bo'linmalari, nobank kredit tashkilotlari, bank infratuzilmasi muassasalari, shuningdek, boshqa muhim elementlardan tarkib topgan. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki butun tizimning asosiy bo'g'ini hisoblanadi[4].

AQShda bank tizimining asosi Federal zaxira tizimi (FZT) hisoblanadi. Bugungi kunda FZT quyidagi asosiy tarkibiy bo'linmalarni o'z ichiga oladi. Bular: Boshqaruvchilar kengashi, Ochiq bozorlar bo'yicha federal qo'mita, Federal maslahat kengashi, FZTning mintaqaviy vakillari bo'lgan 12 ta federal zaxira banki va tizimning boshqa kredit tashkilotlari – ishtirokchilari hisoblanadi. Ushbu tizimlar o'rtasidagi asosiy farq ularning rivojlanish darajasi va hajmi hisoblanadi.

1-jadval

FZT va MB bo'yicha o'rtasidagi asosiy farq ularning rivojlanish darajasi va hajmi, *2024 yil holatiga*[5].

	Rossiya	SShA	AQSh/Rossiya multiplikatori
Kredit tashkilotlari soni	810	6419	7,9
Banklar soni	753 (93%)	5570 (87%)	7,4
Nobank kredit tashkilotlari soni (NKT)	57 (7%)	849 (13%)	14,9
Banklar aktivlari hajmi, trln $	1,2	15,7	13,1
Bank depozitlari hajmi, mln $	331	11958	36,1
YaIM, trln $	2,1	16,7	8,0
Aholi, mln kishi	144	319	2,2
1 mln kishiga to'g'ri keladigan banklar soni	5,6	20,1	3,6
YaIMga nisbatan banklar aktivlari	0,57	0,94	1,6

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2024 yilda Rossiya va AQShda ro'yxatdan o'tgan kredit tashkilotlari soni mos ravishda 810 va 6419 tani tashkil etadi. Ikkala mamlakat ham banklar sonini qisqartirish siyosatini olib bormoqda, biroq turli usullardan foydalanmoqda. AQShda rentabellikni oshirish, yirikroq tashkilotlarning kichikroq tashkilotlarni qo'shib olishi va birlashishi uchun kamroq banklar birlashadi. Bankrotlik favqulodda chora bo'lib, tashkilotlar faqatgina favqulodda holatlarda bankrot bo'ladi. Rossiyada esa, kredit tashkilotlarining bankrotlik jarayoni faol olib borilmoqda. Hozirda Rossiyada 30 ga yaqin, AQShda esa 100

[4] Нагорнова О., Рубцов Н.М. Сравнительный анализ банковских систем в РФ и США//Научная идея №3(3)–2017,С. 21-27

[5] Аналитический сайт ЛФ РАНХиГС. Режим доступа: https://goo-gl.ru/HW1O7

ga yaqin kredit tashkilotlari o'z faoliyatini to'xtatdi. Rossiya va AQShda 1 million aholiga to'g'ri keladigan banklar sonida sezilarli farq mavjud. Rossiya uchun bu ko'rsatkich 6 ta bank, AQShda esa 20 tagacha yetadi. Foiz hisobida ikkala mamlakatdagi banklar soni o'rtasidagi farq uncha katta emas mos ravishda 3,9 foiz va 1,8 foizni tashkil etgan. Bu Rossiyada bank sohasi shakllanish bosqichida, AQShda esa bu jarayon uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuni ta'kidlash joizki, sobiq ittifoq davrida xususiy mulk deyarli mavjud emas edi va bank sohasi rejali iqtisodiyotga xizmat qilardi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytish mumkinki, tijorat banklarining kredit xizmatlari zamonaviy iqtisodiy hayotning eng muhim segmenti sifatida respublikamiz va xalqaro moliya bozorida barqaror rivojlanmoqda. Kredit asboblari va xizmatlarining kengayishi, sifatli boshqarilishi, innovatsion mahsulotlarning joriy qilinishi, texnologik taraqqiyot hamda risklarni boshqarish sohasidagi ilg'or yondashuvlar yordamida bank tizimining ishonchli va samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam asos yaratildi.

Tijorat banklarining kredit xizmatlari yuqori malaka va zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda xaridorlarning ehtiyojini to'liq qondirib, iqtisodiy taraqqiyot va barqarorlik uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu esa, o'z navbatida bozor infratuzilmasining kengayishi, iqtisodiyoti barqaror va intensiv rivojlanishi, moliyaviy barqarorlik va milliy farovonlik garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лаврушин О.И. Кредитная экспансия и управление кредитом. Учебное пособие. – М.: Кнорус, 2013. – 264 с
2. Костерина, Т.М. Банковское дело. – Учебник для СПО. – Люберцы: Юрайт, 2015. – 332 с
3. Белоглазова, Г. Н. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка : учебник и практикум для академического бакалавриата / Г. Н. Белоглазова, Л. П. Кроливецкая ; под редакцией Г. Н. Белоглазовой, Л. П. Кроливецкой. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2016. — 545 с.
4. Шумпетер Ж.А. Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры. Пер. с нем. Изд. 3, – Москва : Прогресс, 1982. — 455 с.
5. Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии. Монография. – Волгоград, 2012. – С. 14.
6. [1] Адибеков М. Г. Кредитные операции: классификация, порядок привлечения и учет/ М. Г. Адибеков. М.: Юрайт , 2014
7. Нагорнова О., Рубцов Н.М. Сравнительный анализ банковских систем в РФ и США//Научная идея №3(3)–2017,
8. Аналитический сайт ЛФ РАНХиГС. Режим доступа: https://goo-gl.ru/HW1O7.

КРЕДИТ МЕХАНИЗМИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Гадоев С.Ж.
Термиз давлат университети
Молия кафедраси мудири
((91)-575-10-20)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17571162

Кредит механизмининг самарали амал қилишининг бирламчи зарурий шарти бўлиб, унинг элементлари ўртасидаги алоқадорликни таъминлаш ҳисобланади.

Кўпчилик иқтисодчи олимлар томонидан кредит механизмининг элементлари сифатида қуйидагилар эътироф этилган:

– кредит шартномаси;
– кредитни бериш ва қайтариш тартиби;
– кредитнинг турлари;
– кредитлаш шакллари;
– кредитларнинг таъминоти;
– кредитларнинг фоиз ставкалари;
– кредит олувчининг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолаш тартиби[1].

Кредит шартномаси тижорат банки билан кредит олувчи ўртасидаги молиявий муносабатларни тартибга солувчи бирламчи ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади. Шу сабабли, кредит шартномасини тўғри ва ўзаро манфаатли қилиб тузиш кредит механизмининг самарали амал қилишининг зарурий шарти ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг кредитлаш амалиётида кредитлашнинг энг кенг қўлланиладиган шакли бўлиб, алоҳида ссуда счётидан бир маротабали кредитлаш шакли ҳисобланади. Аммо, ушбу кредитлаш шакли қуйидаги жиддий камчиликларга эга:

*кредитни бўлиб тўлашга рухсат этилмайди;
*кредитдан фойдаланилиши устидан назорат қилиб бўлмайди;
*кредитдан фойдаланиш самарадорлиги паст.

Англия банк амалиётида овердрафт шаклида кредитлаш жараёнида юзага келадиган кредит риски даражасининг ошиб кетишининг олдини олиш учун кредит олган мижозга ҳар ойнинг сўнгги иш кунида жорий ҳисобрақамнинг кредитли қолдиққа эга бўлишини таъминлаш талаби қўйилади.

Пластик карталар эгаларини банклар томонидан овердрафт шаклида кредитлаш жараёнида юзага келадиган кредит рисклари билан бир вақтнинг ўзида операцион рискка ҳам эътибор қаратиш талаб этилади. Бунинг сабаби шундаки, операцион риск даражасининг ошиш эҳтимоли овердрафт кредитлаш шаклида нисбатан юқоридир. Чунки, овердрафт таъминланмаган кредит бўлиб, мижозни кредитлаш лимитини катта миқдорда ошириш имконияти мавжуд.

Тараққий этган мамлакатлар тажрибаси кўрсатадики, кредит рискини бошқариш амалиёти такомиллашган шароитда, овердрафт кредити тижорат банклари учун юқори даромад келтирувчи актив бўлиб ҳисобланади. Лекин, бошқа томондан, оведрафт кредити реал таъминотга эга бўлмаган юқори рискли актив ҳисобланади. Бу эса, кредит рискини бошқаришнинг долзарблигини оширади.

Амалиётда, кредит муносабатларида юзага келаётган муаммолар кўрсатмоқдаки, мажбурият ижросини у ёки бу усули билан таъминланганлик кредитор учун кредитни ундириш билан боғлиқ муаммо бартараф этилди, дегани эмас. Чунки, таъминланганлик тамойилига доир тадбирлар банклар томонидан қанчалик мукаммал амалга оширилган бўлмасин, мажбурият бажарилмаган ёки лозим даражада бажарилмаган тақдирда, банклар олдида мижоз таъминотига муносабат объекти қиймати доирасида гаров объектига нисбатан эгалик ҳуқуқини олишда муаммолар юзага келмоқда. Бу муаммолардан бири, мажбурият ижросини таъминотга қаратиш жараёнида суд қарорини олиш билан боғлиқ муаммодир. Бу жараён узоқ давом этиши, ортиқча оворагарчиликлар билан боғлиқ қўшимча харажатларнинг мавжудлиги билан муаммолар туғдирмоқда. Шунингдек, учинчи шахслар кафиллигини амалиётда қўллашда ҳам қатор муаммолар мавжуд.

И.Алимардонов томонидан амалга оширилган илмий – тадқиқот натижалари кўрсатдики:
*республика банклари талаб қилаётган юқори ликвидли гаров объектлари кичик бизнес субъектларининг кўпчилигида мавжуд эмас;
кичик бизнес субъектларига республикамиз тижорат банклари томонидан хорижий банкларнинг кредит линиялари ҳисобидан берилаётган кредитларнинг фоиз ставкаларини юқори;

*кичик бизнес субъектларини банклар ва нобанк кредит ташкилотлари томонидан кредитлашнинг услубий асослари такомиллашмаган. Хусусан, банклар томонидан кредитлашнинг услубий асослари қайси принципларга таяниши, уларнинг нобанк кредит ташкилотлари томонидан кичик бизнес субъектларини кредитлаш принципларидан фарқ қилувчи жиҳатлари амалдаги қонунчилик ҳужжатларида ўз ифодасини топмаган[2].

Кредит олувчиларнинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолаш тартиби тижорат банклари ва кредит олувчилар ўртасидаги кредит муносабатларининг асосий масалаларидан бири ҳисобланади.
АҚШ тижорат банклари мижозлари бўлган юридик шахсларнинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолашда 4 гуруҳга мансуб бўлган кўрсаткичлардан фойдаланади[3]:
– ликвидлилик кўрсаткичлари;
– капиталнинг айланиши;
– жалб қилинган маблағлар;
– фойда кўрсаткичлари.

1-жадвал

Нью-Йорк (АҚШ) тижорат банкининг мижознинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолашда қўллайдиган молиявий коэффициентлари ва уларнинг меъёрий даражалари [4]

Кредит тўловига лаёқатлилик кўрсаткичлари	Меъёрий даража
Жорий ликвидлилик коэффициенти	2 : 1
Тезкор ликвидлилик коэффициенти	1 : 1
Молиявий левериж коэффициенти	1 : 1
Молиявий маржа коэффициенти	1 гача

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, Нью-Йорк банки мижозларнинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолашда 4 та молиявий коэффициентдан фойдаланади. Республикамиз банклари амалиётида мазкур коэффициентларнинг фақат биттаси, яъни жорий ликвидлилик коэффициенти қўлланилади.

Тараққий этган мамлакатларнинг банк амалиётида юридик шахс мақомига эга бўлган мижозларнинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолашда молиявий коэффициентлар усулидан ташқари, мижознинг умумий пул оқимини баҳолаш усулидан ҳам фойдаланилади.
Компаниянинг умумий пул оқими пул маблағлари кирими суммаси билан пул маблағлари чиқими суммаси ўртасидаги фарқ сифатида аниқланади.

Корхоналарда пул маблағларининг кирими қуйидаги элементлардан ташкил топади:
– таҳлил қилинаётган давр мобайнида олинган фойда;
– асосий воситаларга ҳисобланган амортизация ажратмалари;
– дебитор қарздорлик ва товар-моддий захираларига жойланган маблағларнинг бўшаб қолиши;
– кредитор қарздорлик миқдорининг кўпайиши;
– тижорат банкларидан кредитлар олиш;
– акциядорлик капитали ва бошқа пассивлар суммасининг ошиши;
– молиявий грантлар жалб қилиш.

Корхоналарда пул маблағларининг чиқими, одатда, қуйидаги элементлардан ташкил топади:
– дебитор қарздорлик ва товар-моддий захираларга қўшимча маблағлар жойлаштириш;
– солиқлар, фоизлар, дивидендлар, бўнаклар тўлаш;
– пеня ва жарималар тўлаш;
– банклардан олинган кредитларни тўлаш;

– тижорат кредитлари бўйича асосий қарз суммаси ва фоизларни тўлаш;
– кредитор қарздорлик миқдорининг камайиши;
– акциядорлик капитали суммасининг камайиши.

Таъкидлаш жоизки, корхонанинг умумий пул оқимини таҳлил қилиш асосида унинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолаш амалиётининг икки шакли мавжуд.

Биринчи шаклда корхонанинг умумий пул оқимини барча қарз мажбуриятлари суммасига бўлиш орқали унинг кредит тўловига лаёқатлилиги аниқланади (2-жадвал).

2-жадвал

Корхона умумий пул оқимининг унинг жами мажбуриятларига нисбатан даражасига кўра кредит тўловига лаёқатлилик мезонлари ва синфлари[5]

Умумий пул оқимининг жами қарз мажбуриятларига нисбатан даражаси	Кредит тўловига лаёқатлилик бўйича синфлар
0,75	I
0,50	II
0,30	III
0,25	IV
0,20	V
0,15	VI

2-жадвал маълумотларидан кўринадики, корхона умумий пул оқимининг жами қарз мажбуриятларига нисбатан даражаси қанчалик юқори бўлса, унинг кредит тўловига лаёқатлилик даражаси шунча юқори бўлади. Бу эса, биринчидан, пул маблағларининг ликвидлилик даражаси энг юқори бўлган актив эканлиги билан, иккинчидан, тижорат банклари кредитларини корхонанинг жорий ҳисобрақамидаги пул маблағлари ҳисобидан тўланиши билан изоҳланади.

Фиримизча, юқоридаги муаммоларни бартараф этишда қуйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

1. Кредитлаш шакли қуйидаги жиддий камчиликларни бартараф этиш:
– кредитни бўлиб тўлашга рухсат этиш;
– кредитдан фойдаланилиши устидан доимий назорат қилиш механизмини ишлаб чиқиш;
– кредитдан фойдаланиш самарадорлиги ошириб бориш.
2. овердрафт шаклида кредитлаш жараёнида юзага келадиган кредит рисклари билан бир вақтнинг ўзида операцион рискка ҳам эътибор қаратиш;
3. Мажбурият ижросини таъминотга қаратиш жараёнида кредит шартномасига асосан суд қарорисиз амалга ошириш.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Банковское дело. Учебник. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Бровкина Н.Е. Организация отдельных видов кредита. Банковское дело. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – 464 с.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2017. – 1018 с.
2. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2018 – 61 б.
3. Синки мл. Д. Ф. Управление финансами в коммерческом банке: пер. с англ. – М: Саталлахи. 1997. – С.182.
4. Банковское дело. Учебник. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 367.
5. Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. Учебник. – М.: КНОРУС, 2008. – С. 387.

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Jurayeva Munisa Rahmatovna
Saidov Behruz Bekzod o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Iqtisodiyot yo'nalishi talabalari
E-mail; jurayevamunisa1204@gmail.com
E-mail; saidovbehroz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17573322

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilingan. Unda mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, xorijiy sarmoyadorlar uchun barqaror va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari yoritilgan. Shuningdek, investitsion faoliyatni cheklovchi asosiy omillar — huquqiy-me'yoriy bazaning takomillashmaganligi, infratuzilma tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, byurokratik to'siqlar, shaffoflikning past darajasi va moliyaviy xavflar tahlil etilgan.

Abstract: This article analyzes the current state of the investment climate in the Republic of Uzbekistan, identifies the main problems hindering its development, and proposes practical solutions for their elimination. The study highlights issues related to increasing the inflow of foreign and domestic investments, improving investment attractiveness, and creating a stable and favorable business environment for investors. It also examines the main factors constraining investment activity, such as insufficient development of the legal framework, infrastructural weaknesses, bureaucratic barriers, lack of transparency, and financial risks.

Аннотатция: В данной статье рассматривается современное состояние инвестиционного климата в Республике Узбекистан, выявляются основные проблемы, сдерживающие его развитие, и предлагаются пути их решения. В исследовании освещены вопросы привлечения иностранных и внутренних инвестиций, повышения инвестиционной привлекательности и создания стабильной деловой среды для инвесторов. Также анализируются факторы, ограничивающие инвестиционную активность — несовершенство правовой базы, недостаточное развитие инфраструктуры, бюрократические барьеры, низкий уровень прозрачности и финансовые риски.

Kalit so'zlar: Investitsiya muhit, To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, Investorlar, Investitsiya siyosati, Byurokratik to'siqlar, Hududiy tengsizlik, Moliyaviy instrumentlar, Kadrlar siyosati, Ishonch va barqarorlik

Key words: Foreign direct investment, Investors, Investment policy, Bureaucratic obstacles, Regional inequality, Financial instruments, Human resources policy, Trust and stability

Ключевые слова: Инвестиционная среда, Прямые иностранные инвестиции, Инвесторы, Инвестиционная политика, Бюрократические препятствия, Региональное неравенство, Финансовые инструменты, Кадровая политика, Доверие и стабильность

Kirish: So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatini erkinlashtirish, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda xorijiy kapitalni jalb etish yo'nalishida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotni liberallashtirish, soliq yukini kamaytirish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, shuningdek, investorlarga huquqiy kafolatlar berish borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq, mazkur sohada hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular investitsiya muhitining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Birinchi navbatda, **huquqiy va tartib-taomillar sohasidagi murakkabliklar** alohida e'tiborga loyiq. Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi bir qator islohotlardan o'tgan bo'lsa-da, ayrim normativ hujjatlarning o'zaro uyg'un emasligi, ruxsat va litsenziya olish jarayonlarining byurokratikligi investorlar uchun qo'shimcha vaqt va xarajat talab qiladi. Ayniqsa, mahalliy darajadagi idoralarning muvofiqlashtirilmagan faoliyati investorlarning ishonchini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, **shaffoflikning yetishmasligi va davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushi yuqoriligi** ham raqobat muhitini cheklovchi omil hisoblanadi. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bozorda ustun mavqega

ega bo‘lib, xususiy sektorning kirib kelishini qiyinlashtiradi. Bu holat, o‘z navbatida, adolatli raqobat tamoyillarining to‘liq ishlamasligiga va xorijiy investorlar uchun risklarning ortishiga olib keladi.

Uchinchidan, **infratuzilma va logistika cheklovlari** ham investitsion jozibadorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish uchun zarur energetika, transport va kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanmaganligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi va infratuzilmaning notekis taqsimlanishi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muhim to‘siq bo‘lmoqda. Shu sababli, investitsiyalar asosan yirik shaharlarga va rivojlangan hududlarga to‘planib, iqtisodiy o‘sishning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, **malakali kadrlar yetishmasligi va mehnat bozorining moslashuvchan emasligi** ham investitsion muhitga salbiy ta’sir etadi. So‘nggi yillarda kasbiy ta’lim tizimi takomillashtirilayotgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish tarmoqlari uchun zarur texnik mutaxassislar, muhandis va menejerlar soni yetarli emas. Bu esa investitsiya loyihalarining amalga oshirilishida malaka va mehnat unumdorligi jihatidan muammolarni keltirib chiqaradi. Yana **moliyaviy bozorlarning rivojlanmaganligi** ham jiddiy masalalardan biridir. Hozirda O‘zbekistonda kapital bozorlari, qimmatli qog‘ozlar savdosi va uzoq muddatli moliyaviy instrumentlar yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada, investorlar ko‘pincha tijorat banklarining kreditlariga tayanishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa moliyalashtirish manbalarining cheklanganligini, kredit foiz stavkalarining yuqoriligini va investitsion xavflarning oshishini anglatadi.

